O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM. FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“IJTIMOIY FANLAR” FAKULTETI
“IJTIMOIY FANLAR ” KAFEDRASI

“TASDIQLAYMAN”
O‘quv ishlari bo‘yicha
prorektor _____
T.D. Xudoyqulov
2023 yil _____ «___»

FALSAFA FANIDAN
O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi: 100 000 – Ta’lim .
Ta’lim sohasi: 110 000 – Ta’lim .
Mutaxassisligi:
Barcha bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari.

Shahrisabz 2023

Fanning ishchi o‘quv dasturi Shahrisabz davlat pedagogika instituti kengashi qaroriga muvofiq 2023 - yil “___” _____ dagi ___– sonli bayoni bilan tasdiqlangan “Falsafa” o‘quv dasturi asosida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:
Mamatov M. – Shahrisabz davlat pedagogika instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi.

.

Taqrizchilar:
B.N.Omonov - Shahrisabz davlat pedagogika instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi mudiri, dotsent, falsafa fanlari doktori (DSc).
Z.B.Allayarova - Shahrisabz davlat pedagogika instituti “Xorijiy tillar” kafedrasi mudiri, dotsent v/b, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Fannning o‘quv uslubiy majmuasi Shahrisabz davlat pedagogika instituti “Ijtimoiy fanlar” fakulteti kengashining 2023_ yil “___” dagi “___” sonli bayoni bilan tasdiqlangan

Fakultet dekani: **dotsent v/b. E.R. Tilaev**

Fannning o‘quv uslubiy majmuasi Shahrisabz davlat pedagogika instituti “Ijtimoiy fanlar” fakulteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi kengashining 2023_ yil “__” dagi “___” sonli bayoni bilan tasdiqlangan va tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: **B.N.Omonov**

Fanni o‘rganishning zaruriyati.

Bakalavriyat yo‘nalishida tahsil oluvchi talabalar falsafa, korrupsiya, dinshunoslikning metodologik tamoyillari; falsafiy bilim bazasida shakllangan umuminsoniy tafakkur taraqqiyotining tizimli qonuniyatlari ko‘nikmasini shakllantirish, refleksiv fikrlay olish, murakkab vaziyatlarda konstruktiv mantiqiy xulosa chiqara olish qobiliyatini hosil qilish, kasbiy yo‘nalganlikda falsafaning umummetodologik ko‘nikmalaridan foydalana olish xususiyatini tarbiyalay oladigan

blimlarga ega bo‘lishi zarur.

Fanning maqsadi – talabalarni zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan falsafiy bilimlar bilan qurollantirish, talabalarga milliy va diniy qadriyatlarning tarixan mushtarakligi, ularning umuminsoniy qadriyatlar ila uyg‘unligini tushuntirish, ularda diniy bag‘rikenglik madaniyatini, dinga nisbatan to‘g‘ri yondashuvini shakllantirish va jamiyat uchun yuksak ma’naviyatli kadrlarni tarbiyalash hamda o‘z-o‘zini anglash va to‘g‘ri fikrlash ko‘nikma va malakasini shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifalari - falsafiy bilimlar, qonunlar va kategoriyalarni o‘rganish orqali tizimli, kreativ fikrlash, hayotda o‘z o‘rnini topish;

- jamiyat hayotidagi ijtimoiy jarayonlarga falsafiy tafakkur nuqtai nazaridan yondashish, voqealarga shaxsiy, ijodiy tanqidiy baho berish;
- o‘z-o‘zini ma’naviy axloqiy, diniy tarbiyalash;
- jamiyatni demokratlashtirish va modernizatsiyalash jarayonida faol ishtirok etish hissini tarbiyalash.

“Falsafa” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- Falsafiy tafakkur xususiyati va qonuniyatlari, ularning jamiyat taraqqiyotiga ta’siri, mantiqiy tafakkur madaniyatining inson hayot va fikrlash tarzining takomillashtirishdagi roli va ahamiyati, Sharq va G‘arb falsafasining etakchi g‘oyalari, ilmiy va ma’naviy merosi, dunyoning yagonaligi qonuniyati va unda koinot hamda inson borlig‘ining aloqadorligi, kasbiy faoliyatda falsafaning metodologik ahamiyati, global jarayonlarda analitik va sintetik, mantiqiy tafakkurning roli, dinlarning dunyo xalqlari madaniyati, urf-odatlariga ta’siri, davlat va din munosabati, Markaziy Osiyoda tarqalgan dinlar tarixi, ta’limoti, muqaddas manbalari, yo‘nalishlari, jahonda mavjud bo‘lgan dinlarning mushtarak xususiyatlari, dinlardagi oqimlar va mazhablar, dunyoning konfessional manzarasi, din va qonun o‘zaro munosabatlari haqida;

tasavvurga ega bo‘lishi;

fanning predmeti, nazariy-metodologik asoslari, rivojlanish bosqichlari va uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni, Qadimgi va O‘rta asrlar Sharq va G‘arb falsafasi, Yangi va Eng davr falsafasining xususiyatlari, ta’limot va g‘oyalari; tabiat va jamiyatda yuz berayotgan jarayonlar falsafiy qonuniyatlari, tafakkur va borliq, substansiya va materiya muammosi, makon va vaqt, tabiat falsafasi va ekologiyasi, energiya, inson borlig‘i;

– falsafa metod, qonun va kategoriyalari, rivojlanish va taraqqiyot falsafasi, haqiqatni anglashda nazariya va amaliyot birligi, bilish metodologiyasi;

- o‘zbek milliy falsafasini va bu boradagi buyuk ajdodlarimizning merosi, insonning atrof muhitga bo‘lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy me’yorlar, globallashuv jarayonlari;

– falsafani o‘rganish orqali jamiyat hayotidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mohiyatini tushunish, ularga falsafiy, tizimli tafakkur nuqtai-nazaridan baho berish;

- jamiyat taraqqiyotiga oid axborotlarni to‘plash, saqlash va ulardan foydalanish, mantiqiy tahlil etish, o‘zining kasbiy faoliyatiga oid ma’lumotlarni analitik va sintetik fikrlash asosida qabul qilish, mushohadaviy tafakkurga asoslangan mustaqil qarorlar qabul qilish;

- dinning ijtimoiy-madaniy va ma’naviy-axloqiy hayotdagi o‘rnini; dunyo dinlari va asosiy diniy konfessiyalarning diniy-ilohiy tizimi asoslari va maqsadini; Markaziy Osiyoda mavjud bo‘lgan dinlarning ta’limotlari va ularning xalqimiz urf-odatlarida aks etishini; dinning inson va jamiyat hayotida tutgan o‘rnini bilishi va foydalana olishi;

- din bilan bog‘liq jarayonlarni mahalliy urf-odat, an’analardan kelib chiqqan holda tadqiq qila olish; turli dinga ishonuvchilar va ishonmaydiganlar bilan umumiy til topishish, ular bilan muloqot qila olish; din nomi bilan sun’iy bog‘langan ma’naviy tahdidlar, axborot xurujlariga qarshi kurashish;

– yangi bilimlarni mustaqil o‘zlashtira olish, takomillashtirish va o‘z mehnatini ilmiylik va bunyodkorlik asosida tizimli tashkil qilish;

fikr va qarashlarini og‘zaki va yozma ravishda adabiy til qoidalari asosida konstruktiv, mantiqiy ifoda etish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.***

Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba

1.Falsafiy tafakkur xususiyati va qonuniyatlari, ularning jamiyat taraqqiyotiga ta’siri, mantiqiy, etik, estetik madaniyati, dunyo xalqlari dinlari, dunyoning diniy-konfessional manzarasi, inson hayot tarzi va ma’naviyatini takomillashtirishdagi roli va ahamiyati haqida tasavvur va bilishga ega bo‘lishi;

2. Sharq va G‘arb falsafasining yetuk g‘oyalari, ilmiy va ma’naviy merosi, dunyoning yagonaligi qonuniyati va unda koinot va inson borlig‘ining aloqadorligi xususiyatlarini bilish va ulardan foydalanish, din bilan bog‘liq jarayonlarni mahalliy urf-odat, an’analardan kelib chiqqan holda tadqiq qila olish, din nomi bilan sun’iy bog‘langan ma’naviy tahdidlar, axborat xurujlariga qarshi kurashish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

3.Kasbiy faoliyatda fanning metodologik ahamiyati, global jarayonlarda analitik va sintetik, mantiqiy, axloqiy, estetik va diniy tafakkur qilish.Ijtimoiy jarayonlarni falsafiy tahlil qilish usullarini qo‘llash, ijtimoiy global muammolari bo‘yicha yechimlar qabul qilish malakasiga ega bo‘lishi kerak.

Ta’lim texnologiyalari va metodlari:

1.Ma’ruzalar;

2.Seminarlar (mantiqiy fikirlash, tezkor savol-javoblar);

3.Gurhlarda ishlash;
4. Taqdimotlarni qilish;
5.Individual loyihalar;
6.Jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish**.**

Fan/modul kodi FALM 1004	O‘quv yili 2023-2024	Semestr 1-2	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
Fanning nomi		Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Falsafa		**60**	**60**	**120**

Mundarija:

1. FALSAFA FANIDAN O‘QUV USLUBIY MAJMUA……1

2. Mundarija……6.

3. O‘quv materiallari ……7-457

1-M(7,20).2-M(7,41,42,54).3-M(54,65,79).4-M(80,92).5-M(93,112,122).6-M(123,144,161,173). 7-M(173,186,209,229).8-M(230,248,258,270).9-M(271,280).10-M(281,306).11-M(307,328). 12-M(329,354).13-M(355,378).14-M(379,419).15-M(420,457).

2. Amaliy mashg‘ulotlari……...458
2.1. Seminar tayyorlash……..459-467

3. Mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari.
3.1. Mustaqil ish……..468-471

4. Glossary……...472-497-508
5.I lovalar.
5.1. Fan namunaviy dasturlari……..509 (7 bet)
5.2. Fanning ishchi dasturi……510-540
5.3. Testlar…….. 571-606
5.4. Oraliq nazorat……..541-568
5.5. Yakuniy nazorat……...568-571

1-мавзу. Falsafa fanining asosiy maqsadi va bo‘lg‘usi pedagoglarga o‘qitilishining nazariy-amaliy ahamiyati.

Falsafa jahon xalqlari madaniyatining tarkibiy qismi, umuminsoniy qadriyatlar ahamiyatiga ega, voqealikning eng umumiy aloqadorligi va taraqqiyot qonunlarini o‘rgatuvchi ta’limot. ,,Falsafa” atamasining lug‘aviy ma’nosi. Falsafa fani predmetining jamiyat, fan va texnika taraqqiyoti natijasida doimo o‘zgarib turishi. Falsafaning bahs mavzulari: Borliq, dunyoni falsafiy anglash, inson , jamiyat va uning istiqbolari.

Dunyoqarash tushunchasi, uning mohiyati va mazmuni. Dunyoqarashning tarixiy shakllari: mifologik, diniy, falsafiy dunyoqarashning o‘ziga xos xususiyatlari. Falsafaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.Falsafaning jamiyat hayotidagi roli va uning asosiy funksiyalari.Yosh avlodni ma’naviy komillik, mustaqillikka sodiqlik ruxida tarbiyalashda falsafa fanining ahamiyati.

Takrorlash uchun savollar:

1. Falsafa fanining lug‘aviy ma’nosi nima? Bu haqda Farobiy fikrlarini ayting.
2. Dunyoqarash va uning asosiy xususiyatlari haqida fikr mulohazalaringizni bayon eting.
3. Dunyoqarashning asosiy tiplari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat? Mifologiya dunyoqarashi haqida nimalar bilasiz?
4. Diniy dunyoqarashning mohiyati, asosiy elementlari nimalardan iborat?
5.Diniy e’tiqod erkinligi, din va siyosat nisbati haqida nimalarni bilasiz?
6. Falsafiy dunyoqarash va uning xususiyatlari nimalardan iborat?.
7.Insonning tafakkurlash madaniyati, shakllantirishda,pedagoglarda falsafa fanining o`qitilishining nazariy amaliy ahamiyati nimalardan iborat?
8. Falsafaning asosiy muammolari tarkibiga nimalar kiradi?
9.Pedagoglarda falsafa fanining o`qitilishining nazariy amaliy ahamiyati nimadan iborat

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular.

Javob yozish kerak.

1. Falsafiy dunyoqarashning o‘z-o‘zini anglashdagi roli.
2.Insonning ma’naviy kamolotida falsafiy dunyoqarashning roli.

Adabiyotlar:

1. Sh.M. Mirziyoev “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” Ijtimoiy adabiyot T.:O‘zbekiston 2017 yil
2. Sh.M. Mirziyoev “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonlik garovi” Ijtimoiy adabiyot T.: O‘zbekiston 2017yil.
3. Sh.M. Mirziyoev “Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” Ijtimoiy adabiyot T.: O‘zbekiston 2017y
4.Yusupov E., Mamashokirov S. Falsafa. Darslik. - Toshkent: 2005.6- bet.
5.Shermuxamedova N.A. Falsafa. - Toshkent: “Noshir”, 2012.8 – bet.
6.Shermuxamedova N.A. Gnosiologiya. (Uchebnik). - Toshkent: 2009.13-bet.

7.Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish. (O‘quv qo‘llanma). - Toshkent: 2017.11-bet.
8.Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi. (O‘quv qo‘llanma). - Toshkent: 2017.6-bet.
9.Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi. (Darslik). - Toshkent: 2016.22-bet.
10.Иззетова Э., Пулатова Д. Философия (Учебное пособие). - Тошкент: 2017.19-bet
11.M.Sharipov, Fayzixodjayeva D. Mantiq. O‘quv qo‘llanma. -Toshkent: 2004.18-bet

Internet manbalari:

1. www. Ziyo net.uz
2. www.faylasuf.uz
3. www. .ziyo.uz
4. www. muslim.uz
5. www. religions.uz

1-Mavzu Falsafa fanining asosiy maqsadi bo‘lg‘usi pedagoglarda o‘qitilishining nazariy amaliy ahamiyati.

Mavzu rejasi:

1. Falsafiy fikr paydo bo‘lishining zaminlari.
2. Dunyoqarash. Falsafiy dunyoqarash.
3. Falsafa fan sifatida. Falsafaning bahs mavzui. Falsafiy muammolar.
4. Falsafaning jamiyatda tutgan o‘rni va vazifalari.

Tayanch tushunchalari:

Falsafa, dunyoqarash, mifologik dunyoqarash, diniy dunyoqarash, falsafiy dunyoqarash, diniy aqidalar, ontologiya, gnoseologiya, diniy ekstremizm, fanatizm.

1.1. Falsafa insoniyat tarixidagi eng qadimiy ilmlardan biridir. Falsafiy mulohaza yuritish, fikrlash inson tabiatiga xos, demak, uning o‘zi kabi qadimiydir. U olam va uning yashashi, rivojlanishi va taraqqiyoti, hayot va inson, umrining mohiyati, borliq va yo‘qlik kabi ko‘plab muammolar haqida baxs yuritadigan fandir. Falsafa atamasi qadimgi yunon tilidagi filosofiya so‘zidan olingan bo‘lib, lug‘aviy ma'noda donishmandlikni sevish (**filo– sevaman, sofiya - donolik**) degan mazmunni anglatadi. Asrlar davomida filosofiya so‘zining ma'no-mazmuniga xilma-xil qarashlar, uning jamiyat, inson va fanlar tizimidagi o‘rniga nisbatan turlicha munosabat va yondashuvlar bo‘lgan, bu atamaning mohiyat va mazmuni ham o‘zgarib borgan.

Filosofiya atamasi va u ifoda etadigan bilimlar majmui qadimgi Yunoniston va Rimda eramizdan avvalgi VII – VIII asrlarda yuz bergan buyuk yuksalish natijasi sifatida yuzaga kelgan edi. O‘sha davrda endigina

shakllanib kelayotgan nazariy fikrning ifodasi bo‘lmish falsafiy tafakkur olamni yaxlit va bir butun holda tushunish mujassamiga aylangan edi.

Qadimgi Yunonistonda filosofiya atamasini dastlab matematik olim Pifagor ishlatgan. Yevropa ma’daniyatiga esa u atoqli yunon faylasufi Aflotun asarlari orqali kirib kelgan. Shu tariqa, u avvalo, qadimgi Yunonistonda alohida bilim sohasiga, to‘g‘rirog‘i, fanlarning qiroli, ya‘ni asosiy fanga aylangan.

Falsafa voqelikdagi narsa va hodisalarning eng umumiy aloqadorligi va rivojlanish qonuniyatlarini, ularning mohiyatini bilishga qaratilgan fandir. Qadimgi dunyoda fanlarning barchasini, ular qanday ilmiy masalalar bilan shug‘ullanishidan qat'i nazar, filosofiya deb ataganlar. U ham ijtimoiy borliq, hamda tabiat to‘g‘risidagi ilm hisoblanar edi. Shu ma'noda, dastlabki filosofiya olam va unda insonning tutgan o‘rni haqidagi qarashlar tizimi bo‘lib, dunyoni ilmiy bilish zaruriyatidan vujudga kelgan edi. Bundan tashqari, qadimgi Yunonistonda yuz bergan buyuk uyg‘onish davri o‘ziga xos falsafiy mafkurani ham yaratgani shubhasiz. Uning eng asosiy qadriyati erkinlik tushunchasi bo‘lgan va ana shu erkin hayot to‘g‘risidagi qarashlar buyuk ma’daniy yuksalishga asos solgan. Falsafa Sharq xalqlari ijtimoiy tafakkurida donishmandlikni sevish degan mazmun bilan birga, olam sirlarini bilish, hayot, insonni qadrlash, umr mazmuni haqida qarash va hikmatlarni e'zozlash ma'nosida ishlatilgan. Masalan, Arastu, ”Ikkinchi muallim” deya e'tirof etilgan mutafakkir Abu Nasr **Forobiy** “filosofiya” so‘zini **“Hikmatni qadrlash**” deb talqin etgan. Forobiy **”Fozil odamlar shahri” asarida,** “Mavjudot haqidagi bilim qo‘lga kiritilsa, shu haqda ta'lim berilsa, mavjudotdan bo‘lgan narsaning zoti bilinsa, narsaning ma'nosi tushunilsa, ishonchli dalil hujjatlar asosida shu narsa haqida miyada bir turli ishonch va tasavvur paydo bo‘lsa, mana shu ma'lumotga doir fanni falsafa deymiz...” degan e'tirofni keltirgan. **(A.N.Forobiy. Fozil odamlar shahri. T., 1993. 183-184-betlar.)** Faylasuf deganda, ko‘pdan-ko‘p ilm sohalarini egallagan, ustoz va muallim sifatida shuhrat qozongan alloma hamda mutafakkir kishilar tushunilgan.

XIX asr **nemis qadriyatshunosi I.Rikkert** Odamzod olam va odam hamda hayotning qadrini anglab, ular omonat bir narsa ekanini tushuna boshlagan davrlardan falsafiy fikrlashga kirishgan. Binobarin, birinchi faylasuf, kim bo‘lganidan qat'iy nazar, hayotni qadrlaydigan kishi bo‘lgani shubhasiz. Falsafa, avvalo, muayyan ilmiy bilimlar tizimidir. U, bir tomondan, insonning voqelikni aql vositasida idrok etishi, ikkinchi tomondan, ongning afsona va rivoyatlar asosidagi shakllardan uzil-kesil ajralish jarayoni natijasidir. Bu ikki jihat bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Chunki behuda xayolparastlik, havoyi va afsonaviy fikrlash tarzidan xalos bo‘lish ilmiy bilimlarni egallash orqali ro‘y beradi. Eng muhimi, falsafa kundalik turmushda uchrab turadigan eskilik asoratlari, bid'at va cheklanishlarga muxolif bo‘lgan hur fikrlilikdir. Falsafa aynan ana shunday yangi dunyoqarashning shakllanishi uchun asos bo‘ldi.

“Falsafa” atamasi filosofiyaning Sharq ijtimoiy tafakkuridagi shaklidir. Odatda u tushuncha sifatida tor va keng ma'noda qo‘llaniladi. Xususan, keng ma'noda uni antik – qadimiy falsafada “donishmandlikni sevish” deb

tushunilganligini aytib o‘tdia. Ayrim faylasuflar va falsafiy oqimlar, chunonchi, **ingliz faylasufi T.Gobbs (1558-1679**) uni “to‘g‘ri fikrlash orqali bilishga erishish**”, nemis faylasufi Gegel** “umuman predmetlarga fikriy yondashish” **Lyudvig Feyerbax** “bor narsani bilish” pragmatizm ta'limoti namoyandalari esa “foydali narsani bilish jarayoni” deya talqin etganlar.

“Falsafa” tushunchasi tor ma'noda ma’daniyat, san'at, aqliy yoki hissiy bilish usuli, vositasi tarzida ta’riflanadi. Falsafaga bo‘lgan munosabatning xilma-xilligiga asoslangan holda, unga yaxlit, umumlashgan ta’riflar ham berilgan. Falsafaga ijtimoiy ong shakli bo‘lgan ma’daniyat, san’at, qadriyat nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, uning milliyligini aks ettirish imkoniyati tug‘iladi. Ammo **ontologiya, gnoseologiya, naturfilosofiya, antropologiya** kabi fan sohalari nuqtai nazaridan qaralsa, ushbu ta’rifda umuminsoniylik va universallik falsafaning asosiy xususiyati ekanligi namoyon bo‘ladi.

Har qanday falsafa o‘z davrining ma’hsuli sifatida davr ijtimoiy taraqqiyoti ehtiyojlarini ifodalaydi. Shuning uchun insoniyat tarixining turli bosqichlarida turli falsafiy qarashlar mavjud bo‘lgan va shunga mos ravishda uning predmeti va vazifalari ham o‘zgarib borgan.

Dastavval aniq fanlar mustaqil tarmoqqa ajralib taraqqiy topmagan vaqtda falsafa barcha bilimlarni o‘z ichiga qamrab olib, fanlarning fani “umumiy sistema” vazifasini bajarib kelgan edi. Shu davrning buyuk mutafakkir olimlari **Demokrit, Aristotel, Xorazmiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘bek** va boshqalar, ayni vaqtda tabiat fanlarining asoschilari bo‘lganlar. Shuning uchun ham dastlabki kezlarda falsafa bir butun ta'limot ko‘rinishida bo‘lgan. Falsafani maxsus bilimlar bilan birlashtirish qadimgi davrga xos xususiyat bo‘lgani uchun u **tabiat falsafasi**, **ya’ni “naturfilosofiya” deb ham hisoblangan**. U tabiy fanlar tushunchalariga asoslangan holda tabiatni yaxlit berishga qaratilgan bo‘lib, kishilik jamiyatining ilk bosqichida keng taraqqiy etgan mifologik tasavvurlarni siqib chiqarishga asos yaratadi. Qadimgi davr falsafasida olamni yaxlit izohlab berish bilan bir qatorda narsa va hodisalarning eng umumiy taraqqiyot qonunlarini o‘rganuvchi – dialektika, bilish nazariyasi hamda ijtimoiy fikrlar (axloq-odob, davlatni boshqarish masalalari) ham katta o‘rin olgan.

Tabiat va jamiyat haqidagi bilimlarning rivojlanib borishi alohida fanlar paydo bo‘lishiga, mustaqil sohalari ajralib chiyishiga olib keldi. Uyg‘onish davridan, ayniqsa, XVII asrdan boshlab tabiat haqidagi fanlar, jumladan, tajribaga asoslangan **tabiatshunoslik, astronomiya, matematika, fizika, mexanika, kimyo muvaffaqiyatli rivojlana boshladi**. Ijtimoiy tajribaning, xo‘jalikning, ayniqsa, **sa’noatning rivojlanishi, savdo ishlarining o‘sishi aniq fanlar bilan bir qatorda bir qancha ijtimoiy-gumanitar fanlarning tarix, til, adabiyot, san'at, iqtisod, huquq va hokazolarning ham rivojlanishiga zamin yaratadi**.

Bularning hammasi o‘z navbatida falsafaning eskirgan mavqeini va uning predmetini o‘zgartirishga zamin hozirlaydi. Endilikda falsafa fani tabiatni yaxlit o‘rganish muammolari bilangina emas, balki fan taraqqiyotida ilmiy bilishning ahamiyati, bilish jarayonining asosiy bosqichlari, ilmiy bilishda aniq fanlarda qo‘llanadigan uslublarning roli, fan taraqqiyotida ma’ntiq, tafakkurlashning

qonuniyatlari va shakllari kabi masalalar bilan shug‘ullanadi. Shuningdek, inson va jamiyat insonning erki va huquqlari, axloq-odob, davlat muammolari ham keng o‘rin oladi.

Biz yashab turgan dunyo nihoyatda murakkab. Bu dunyo chuqur o‘zgarishlarni kechirayotgan dunyo. O‘zgarishlar esa inson va jamiyat hayotining barcha tamonlarini qamrab olmoqda. Bu o‘zgarishlar inson va koinot, davlatlararo, millatlararo munosabatlarni, sinflar, turli ijtimoiy guruhlar orasidagi munosabatlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Hozirda biz shunday davrga yetib keldikki, unda jamiyat taqdiri, insoniyat taqdiri birichi o‘ringa chiqmoqda.

Ijtimoiy hayot o‘zgarishlari, ilmiy-texnik taraqqiyotining jadal odimlari kishilar oldiga yangidan-yangi talablar qo‘ymoqda. Bunday o‘zgarishlar shu qadar jadal sur’atlar bilan amalga oshmoqdaki, ularni o‘z vaqtida tushunib yetish nihoyatda mushkul. Insonda bu o‘zgarishlarni tushunishgina emas, balki ularni bevosita ishtirok etish, o‘z faoliyati orqali amalga oshirish talab etiladi. Hozirgi davrda yetuk mutaxassis o‘z ishining ustasi bo‘lishi yetmaydi. Hozirgi davr kishisi oldiga qo‘yiladigan eng muhim talablardan biri olamni, atrofda kechayotgan voqea-hodisalarni to‘gri tushunish, olamga ongli munosabatda bo‘lish.

Biz hayotning o‘ziga xos yangi tamonlariga, yangicha turmush tarziga, yangicha iqtisodiy, ijtimoiy munosabatlarga ilgarigi andozalardan voz kechishga, yangicha fikrlashga o‘rganmoqdamiz. Biz asta-sekin olam haqidagi qarashlar turli-tumanligini, fikrlar xilma-xilligini qidirmoqdamiz, yangicha tafakkur usullarini egallamoqdamiz. Bularning hammasi birgalikda ko‘p jihatdan xolisona, oqilona dunyoqarashining shakillanish jarayonidir.

Insonning dunyoqarashining shakllanishi murakkab jarayon bo‘lib, unga juda ko‘p omillar: ijtimoiy hayot sharoitlari, amaliy faoliyati, jamiyatning ma’naviy hayoti, shu jumladan, fan ma’daniyati, turli-tuman qarashlar, ijtimoiy munosabatlar ta’sir ko‘rsatadi.

Falsafa umuminsoniy ma’daniyatning tarkibiy qismi, ijtimoy ong, inson dunyoqarashining shakllaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Falsafa, falsafiy dunyoqarash ustida so‘z yuritmoq uchun dastavval, dunyoqarash nima? U qanday shakllanadi? Qanday ko‘rinishlarga ega? kabi savollarga javob topish lozim.

Inson o‘z hayoti davomida o‘zini o‘rab turgan dunyoni o‘rgana boradi, tabiat, jamiat, murakkab olamni tushunishga harakat qiladi. Bularni hammasi oqibatda muayyan fikrlarni, qarashlarni yuzaga keltiradi.

Kishilarning olam haqidagi fikrlari dunyoqarash tushunchasida ifoda etiladi.

Dunyoqarash umumiy tarzda olib qaralganda kishilarning olam haqida yaxlitlashgan, umumlashgan bilimlarini ifodalaydi. Dunyoqarash dunyoni anglash, inson tafakkurining eng muhim tomoni hisoblanadi. Dunyoqarash deganda, birinchi navbatda kishilarning olam haqidagi umumlashgan bilimlari nazarda tutiladi. Bu bilimlar kundalik hayot tajribalaridan kelib chiqqan bo‘lishi yoki kasbga, faoliyatga doir bo‘lishi, amaliy qiymatga ega yoki nazariy qiymatga ega bo‘lishi mumkin. Shu bilan bir qatorda dunyoqarashda kishilarning olamga, tabiatga, jamiyatga, boshqa kishilarga munosabatida o‘z ifodasini topadi. Kishilarning munosabati mohiyatida ularning o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlari,

orzu-umidlari, hayoti, yashashi, undagi yashash izlarini o‘rni haqidagi tushunchalar yotadi.

Shundan kelib chiqqan holda dunyoqarash kishilarini yaxshlik, yomonlik, adolat, odamiylik haqidagi tasavvurlarini, qadriyatlarini o‘z ichiga oladi. Shunday qilib dunyoqarash ayrim kishilar, ijtimoy guruhlar va hokazolarning olamga munosabatlarini ifodalovchi tushunchadir. Falsafadan lug‘atdan “Dunyoqarash dunyoga (ya’ni tabiat, jamiyat, tafakkurga) qarashlarning yaxlit sistemasi bo‘lib, bu qarashlar inson faoliyatiga muhim ta’sir ko‘rsatadi” deb ta’riflanadi.

Dunyoqarash kishilarda amaliy hayot jarayonida, insoniyat orttirgan tajribani o‘zlashtirish jarayonida shakllanadi. Dunyoqarashning xarakteri pirovard natijada ijtimoiy taraqqiyot darajasi bilan; fan, ma’daniyat, ma’orifning taraqqiyoti darajasi bilan belgilanadi.

Shu o‘rinda dunyoqarashning tarixiy tiplari ustida fikr yuritiladi. Dunyoqarash kishilarning olam haqidagi umumlashma xarakteriga ega bo‘lgan bilimlari sifatida muntazam o‘zgarib, yangilanib boradi. Jamiyat taraqqiyotining o‘ziga xos tomonlari, xususiyatlari unda aks etadi. Kishilik jamiyati taraqqiyoti jarayoni dunyoqarashning muayyan tarixiy tiplarida o‘z ifodasini topadi. Bular:

1.Mifologik. (afsonaviy)

2.Diniy.

3.Ilmiy-falsafiy dunyoqarash.

1.Mifologik dunyoqarash.a) ijtimoiy taraqqiyotning eng quyi bosqichlariga to‘gri keladi. Bu davrlarga xos bo‘lgan xususiyat ilmiy fanning hali taraqqiy etmaganligi oqibatida olam haqida sodda tasavvurlarning paydo bo‘lishi;

b) bu tasavvurlarda hayot bilan xayolning o‘zaro ajratilmaganligi;

v) bu dunyoqarashda olamning umumlashgan holda sinkretik qarashlar tarzida ifoda etilishi.

Mifologiya yunoncha naql, rivoyat ma’nolarini ifodalaydi. Mifologiya qadimgi jamiyatlarga xos bo‘lgan xalq og‘zaki ijodida, naqllar, afsonalar, rivoyatlarda voqelikning afsonaviy, xayoliy ifoda etilishidir. Mifologiya tabiat kuchlari va ijtimoiy hodisalarni jonlashtirishga, hissiy afsonaviy obrazlar orqali tasvirlashga asoslanadi.

Masalan qadimiy grek afsonalarida Zevs momaqaldiroq va yashin xudosi sifatida tasvirlangan, Apollon Zevsning o‘gli, kuch-qudrat xudosi bo‘lgan.

Mifologik dunyoqarash inson dunyoqarashining eng qadimiy shakli bo‘lib, unda inson va dunyo, fikr va his-tuyg‘u, bilim va xayol, moddiylik va ma’naviylik umumlashgan holda ifoda etilgan, unda xayol va hayot, tabiiylik va ilohiylik, bilim va e’tiqod yaxlit ifoda etilgan.

Mifologiya olamni anglashning dastlabki usuli edi va o‘z davrida kishilar hayotida muhim o‘rin tutgan. Mifologiya doirasida kishilar o‘tmish, hozir, kelajakni tasavvur etganlar, dastlabki qadriyatlar tizimini yaratganlar. Keyinchalik mifologiya xalq og‘zaki ijodi, yozma yodgorliklar, adabiyot, san`atda o‘z ifodasini topdi. Garchi mifologik dunyoqarash o‘z ahamiyatini ma’lum darajada yo‘qotgan bo‘lsada, ma’daniyat, fan, san’at taraqqiyoti uchun o‘ziga xos asos bo‘lib xizmat

qildi va xizmat qilmoqda: chunki miflar(afsonalar)da xalqlarning ko‘p ming yillik tajribalari, umuminsoniy qadriyatlar o‘z aksini topgan va xalqlar ma’naviyatining o‘ziga xos ildizlari bo‘lib hisoblanadi.

2.Diniy dunyoqarash.

Ijtimoiy rivojlanishning nisbatan keyingi bosqichlariga kishilarning olamga munosabatlari diniy dunyoqarashda o‘z ifodasini topdi. Diniy dunyoqarash olamni ilohiy kuchlarga bog‘lab tushuntirishdir: diniy dunyoqarash e’tiqod asosiga qurilgan dunyoqarashdir.

Diniy dunyoqarash ilohiylashtirish, diniy xulq va diniy urf-odatlar bilan chambarchas bog‘liq. Diniy dunyoqarash, uning asosiy tomonlari, tarkibiy qismlari «Falsafa» darsligida berilgan, uni mutaolaa qilishingizni tafsiya etaman.

Men diqqat-e’tiboringizni diniy dunyoqarashni falsafiy tahlil etish lozimligiga qaratmoqchiman. Gap shundaki, diniy dunyoqarashni cheklangan, xato dunyoqarash tarzida emas, balki insoniyat ma’naviy ma’daniyatining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmog‘i lozim. Shu ma’noda diniy dunyoqarash:

a) kishilarning olamga o‘ziga xos munosabatini ifodalaydi;

b) diniy dunyoqarash doirasida ajdodlarimiz bizga meros qilib qoldirgan umuminsoniy, axloqiy qariyatlar mujassamlashgan;

v) din, diniy dunyoqarash ijtimoiy hayotda, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda muhim o‘rin tutib kelgan;

g) asrlar mobaynida diniy dunyoqarash kishilarni bahamjihatlikka, hamkorlikka, yaxshilikka xizmat qilishga undagan.

Yuqoridan kelib chiqqan holda, din, diniy dunyoqarash umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida ham milliy, ham umuminsoniy qadriyat sifatida baholanmog‘i lozim.

Din, diniy dunyoqarash hozirgi davrda alohida ahamiyatga molik muammo hisoblanadi. Zotan mustaqillik milliy o‘zlikni anglash, milliy qadriyatlarni tiklanishi demakdir.

3.Falsafiy dunyoqarash.

Mifologik dunyoqarash ham, diniy dunyoqarash ham falsafiy dunyoqarashning asosi bo‘lib xizmat qildi.

Kishilar qadimdan olam, borliqning mohiyatini tushunishga urunganlar.

Falsafiy dunyoqarash kishilarga odamning mohiyatini, ularning olamga va o‘z-o‘ziga munosabatlarini tushunishga yordam beradi.

Falsafiy dunyoqarash kishilarni oqilona fikrlashga o‘rgatadi.

Falsafiy dunyoqarash kishiga olamni tushunish, narsa va hodisalar o‘rtasidagi munosabatni aniqlash, muhim tomonlarini nomuhim tomonlaridan ajratib olib, o‘rganish, borliqning o‘ziga xos tomonlari, ziddiyatlarini paydo bilish va tahlil etish imkoniyatini beradi.

Oqilona fikrlash, falsafiy fikr yuritish. Avvalo, asosli fikr yuritish, o‘z qarashlarini himoya qila olish, erkin fikrlay olishdir. Falsafiy fikrlashni kishiga majburlab singdirish mumkin emas. Falsafiy fikrlash dialektika qonunlarini yoddan bilish emas. Falsafiy fikrlash asosida voqelikni to‘gri, hech qanday qo‘shimchalarsiz, qanday bo‘lsa shundayligicha tushunish, tahlil qila bilish yotadi.

Falsafa bir qarashda murakkab tushunchalar bilan ish ko‘rsada, murakkab bo‘lib ko‘rinsa-da, aslida u real hayot bilan bevosita chambarchas bog‘liq.

Har bir davrning o‘z falsafasi bo‘ladi. Har bir davr falsafada o‘ziga xos tarzda ifodalanadi. Masalan, biz 1917 yildan 90 yillargacha bo‘lgan davrni turg‘unlik davri deb baholadik. Bu davrning ijtimoiy hayoti, muammolari dogmatik falsafada o‘z ifodasini topdi. Garchi bu davrda falsafa marksizm falsafasi tomonidan jamiyatni revolyutsion-tanqidiy qayta qurish davri deb, ta’riflagan bo‘lsa-da, aslida real hayotni o‘rganishga emas, balki real ziddiyatlarni xaspushlashga, voqelikni bo‘yab ko‘rsatishga xizmat qiladi. Oqibatda marksizm falsafasi quruq o‘zgarmas qoidalar, dogmalar yig‘indisi bo‘lib qoldi.

Falsafiy dunyoqarash o‘ziga xos masalalarga o‘z diqqatini qaratadi. Bu masalalarning ko‘pchiligi inson va insoniyatni uzoq davrlardan beri qiziqtirib kelgan. Har bir avlod ularga qayta-qayta murojaat qilishga majbur. Olamni bilish, o‘rganish, falsafiy fikr yuritishga, dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradigan vositalardan biridir. Falsafiy dunyoqarash o‘zining bir qator xususiyatlari bilan dunyoqarashning boshqa shakllaridan farqlanadi.

1. Falsafiy dunyoqarash olam haqidagi yaxlit, muay’yan tizimga tushgan bilimlar yig‘indisidir.

2. Falsafiy dunyoqarashda olam qanday bo‘lsa shundayligicha aks etadi. Olam bir butun yaxlit tizim. Olamdagi barcha narsa va hodisalar harakatda, o‘zgarishda, taraqqiyotda. Olam qanday bo‘lsa shundayligicha tushunish birinchi navbatda, harakat ,o‘zgarish ,taraqqiyotini tushunishdir,.

3.Olamdagi barcha narsalar, hodisalar o‘zaro aloqadorlikda, harakatda, taraqqiyotda. Olamni falsafiy tushunish – predmet va hodisalar, aloqa va munosabatlarni tushunishdir.

4.Falsafiy dunyoqarash kishilarda muayyan tayyorgarlikni, madaniyatni talab qiladi. Falsafiy tushunchalar, terminlar, tamoyillarni o‘zgartirish, falsafa va fanlar taraqqiyotiga suyanish muhim ahamiyatga ega.

5. Falsafiy dunyoqarash ilmiy dunyoqarashdir. Unda olam haqidagi obyektiv mazmunga ega bo‘lgan bilimlar aks etadi.

6.Falsafiy dunyoqarash kishilar ma’naviy madaniyatini shakllantirishni vositasi hisoblanadi.

7. Falsafiy dunyoqarash olamni aql farosat yordamida anglashni ifodalaydi. Shuning uchun ham falsafiy dunyoqarash olamni kuzatishni, o‘rganishni, tahlil qilishni, mantiqiy xulosalar chiqarishga insonni jalb qiladi.

8. Falsafiy dunyoqarashning mohiyatida insonning odam va olam haqidagi dunyoning inson manfaatlariga mos tushushining, hayotning mazmuni, insonning hayotdagi o‘rni haqidagi fikrlari yotadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda falsafiy dunyoqarash olam va odamning mohiyatini anglashdir.

4. Falsafa fan sifatida.

Falsafa taraqqiyoti uzoq tarixga ega. Falsafa-ijtimoiy ongning maxsus shakli hisoblanadi. Falsafa inson bilimining eng qadimiysi va eng qiziqarlisidir. Falsafa eng qadimiy fan bo‘lib, uning vujudga kelishi qadimiy quldorlik davriga borib taqaladi. Manbalar shundan dalolat beradiki, falsafa fan sifatida dastlab

Hindistonda, Xitoyda, Gretsiyada, Markaziy Osiyo mamlakatlarida shakllangangan va rivojlangan. Falsafa, uning predmeti, o‘rganish obyekti, falsafaning muammolari olimlarni qadimdan qiziqtirib kelgan masalalar bo‘lib hisoblanadi. Dastlab falsafa (filosofiya) keng ma’noda qo‘llangan va fanlar, nazariy fikirlarni ifodalagan. Turli davrlarda faylasuflar «falsafa nima xaqda bahs yuritadi ?» degan savolga javob topishga uringanlar.

Dastlab falsafa kishilarning hayotiy kuzatishlaridan hosil qilingan bilimlai bilan bir qatorda, ularning o‘zlari, olam haqidagi o‘y-fikrlarini ham qamrab olgan.

Falsafaning mavzusi, predmeti haqidagi fikrlar davrlar o‘tishi bilan o‘zgarib borgan, olamni falsafiy tushunish turli tuman shakllarda ifodalangan. Fanlar, ma’naviy madaniyat taraqqiyoti falsafaga o‘zining ta’sirini ko‘rsatgan.

Dastlab falsafa tushunchasi «fan»ning siymosi hisoblangan va keng ma’nodagi «Fan» tarzida qo‘llangan. Qadimgi Yunonistonda falsafaning predmetini aniqlashga harakat qilingan. Fanlar klassifikatsiyasi bunga misol bo‘la oladi.

Falsafaning bahs mavzui Markaziy Osiyo o‘rta asrlarda yashagan mutafakkirlar tomonidan yoritilgan.

Abu Nosir Farobiy «falsafani borliqning mohiyati; butun mavjud narsalarning mazmuni haqidagi mukammal va to‘liq; bilim beradigan fan» deb bilgan. Mavjudod haqidagi bilim qo‘lga kiritilsa, shu haqda ta’lim berilsa, mavjudoddan bo‘lgan narsaning zoti bilinsa, narsaning ma’nosi tushunilsa, ishonchli dalil va hujjatlar asosida shu narsa haqida miyada bir turli ishonch va tassarvur paydo bo‘lsa, mana shu ma’lumotga doir fanni falsafa deymiz...

Farobiy falsafa, falsafiy muammolarga doir ko‘pgina asarlar yaratgan. Bular «Substantsiya haqida so‘z»(«Kalom doil javhar»), «Qonunlar haqida kitob» (« Kitob doil navomis»), «Falsafa tushunchasining ma’nosi haqida so‘z.» («Kamol doil ma’nosi ism as-falsafa»), «Falsafaning kerakligi haqidagi kitob», «Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi» («Ijo-al-umum») kitoblar shular jumlasidandir.

Abu Ali Ibn Sino Farobiyning fikrini davom ettirib, falsafaning vazifasi barcha mavjud narsalarni, ularning kelib chiqishini tartibi, o‘zaro munosabatlari, biridan ikkinchisiga o‘tishini tekshiruvchi deb biladi.

Abu Ali Ibn Sinoning falsafiy qarashlari «Kitob-ash-shifo», «Donishnoma», «Tabib ilmlari qonuni», shuningdek «Risola at-Tayr» *(«Qunt* ilmi»), «Salomat va i’sol», «Xayit Ibn Yaqson» kabi badiiy qissalarida o‘z ifodasini topgan.

Abu Abdulox Al Xorazmiy falsafa ikki qisimdan, **nazariy** va **amaliy** qismdan iborat deb biladi. Uning fikricha nazariy falsafaga tabiat ilmlari, ilohiyat ya’ni metofizika hamda mantiq kiradi.

Umuman olganda o‘rta asrlarda falsafa fanlar fani degan qarash hukumron edi**.**

Falsafa muommalari.

Faylasuflar o‘z ijodlarida falsafa o‘rganadigan muammolarni aniqlaganlar. Lukretsiy Kar ning «Narsalar tabiati to‘g‘risidagi», risolasi, D.Brunoning «Koinotning tuganlanmasligi» to‘g‘risidagi, P.Golhbaxning «Tabiat

tizimi», Ibn Sinoning «Tib qonunlari», Gegelning «Tabiat falsafasi», shular jumlasidandir. Shunday qilib falsafa avvalo tabiat falsafasi sifatida shakllandi.

Faylasuflar o‘z risolarlarida jamiyatni falsafiy tahlil etdilar.

Aflotunning «Davlat», «Qonunlar», Arastuning «Siyosat», Gobening «Grajdanlik to‘g‘risida»gi, Gegelning «Huquq falsafasi» shular jumlasidandir.

Faylasuflar ijtimoiy hayotni o‘zgartirish bilan bir qatorda qanday qilib yaxshi jamiyatga erishish mumkin? degan savolga javob izlaydilar: adolat, insonparvarlik, haqiqat, odamiylik, ma’rifat egalarini ilgari suradilar.

Falsafaning o‘rganish obyektlaridan biri va eng asosiysi inson hisoblanadi. Inson, uning tabiati, olamga munosabati, tili, axloqi, inson qobiliyatlarining namoyon bo‘lish shakllari faylasuflarni qiziqtirib keldi. Suqrot (qadimiy grek faylasufi) falsafani hayotni tushunish deb ta’kidlagan. Arastu, Abu Ali ibn Sino, Farobiy, Beruniy, Dekartlarning bir qator risolalari insonni falsafiy tushunishga bag‘ishlangan. Abu Ali ibn Sinoning «Ilmlar to‘g‘risida», Gegelning «Dunyo falsafasi» asarlari shular jumlasidandir. Umuman olganda, falsafiy muammolar doirasiga dunyo, uning tuzilishi, tabiat, jamiyat, inson, insonning jamiyatda tutgan o‘rni, insonning olamni anglashi kabilar kiradi. Shuning uchun ham qadimdan kishilar «dunyo nima?», «u qanday tuzilgan?», «uning chegarasi bormi?», «nima sababdan olamda turli-tuman o‘zgarishlar yuz beradi?», «jamiyat nima?», «inson jamiyatda qanday o‘rin tutadi?» kabi savollarni qo‘yganlar va ularga javob izlaganlar. Bu esa, o‘z navbatida ikki narsani aniqlashni talab etadi:

1.Insonning olamga bo‘lgan munosabati

2. O‘z-o‘ziga munosabati.

Insonning olamga munosabati uning olamni anglashidir, o‘z-o‘ziga munosabati o‘zini inson sifatida anglashida namoyon bo‘ladi.

Falsafaning muammolari qanday tarzda namoyon bo‘lmasin, uning asosida inson anglashiladi. Shuning uchun ham biz falsafaning bahs mavzui deganda, dastavval, insonni anglamog‘imiz lozim: «Falsafaning vazifasi insonni mohiyatini, borliqdagi o‘rnini bilish » bu esa o‘z navbatida insonni borliq taraqqiyotining oliy, noyob, betakror natijasi deb qarash, hamda insonning jamiyatdagi o‘rni, munosabatlarini o‘rganishni taqazo qiladi.

Falsafa doirasidagi muammolarni shartli ravishda 3 guruhga bo‘lish mumkin. Inson nuqtai nazarida: 1. Olam, borliqning mohiyati to‘g‘risida muammolar.2. Olamning qandayligi, xossa - xususiyatlari to‘g‘risidagi muammolar.3.Insonni olamga va o‘z-o‘ziga munosabatiga doir muammolarni bilish. Falsafa, falsafiy dunyoqarashning shakllanishi va taraqqiyoti jamiyat, ijtimoiy hayot taraqqiyoti bilan bog‘liq holda kechadi. Falsafaning fan sifatida tiklanishining tarixiy ildizlari qadimiy davrlarga borib taqaladi.

Markaziy Osiyodagi ilk alsafiy qarashlar vatandoshimiz Zardusht Senitoma (e.a.589-512) nomi bilan bog‘liq "Avesto"da o‘z ifodasini topgan. Daslabki falsafiy qarashlar qadimiy Xitoy, Hindiston, Yunoniston kabi mamlakatlarda shakllangan. Bu haqidagi masalani biz navbatdagi mavzu ("Falsafaning tarixiy taraqqiyot bosqichlari")da to‘xtalib o‘tamiz. Falsafaning jamiyatda tutgan o‘rni uning bahs mavzui va muammolaridan kelib

chiqadi Zotan mashhur Xitoy faylasufi Konfutsiy aytganidek, "Bilish-bu insonni bilishidir". Fasafaning fan sifatida shakllanishi asrlar bo‘yi davom etadi. Falsafa inson dunyoqarashining nazari asosi hisoblanadi. **Falsafaning jamiyatda** tutgan va tutishi lozim bo‘lgan o‘rni deganda eng avvalo uning inson dunyoqarashining shakllantirishi va taraqqiyotiga xizmat qilishni nazarda tutmoq lozim. Falsafa insonning olamni, voqelikni to‘g‘ri anglashida muhim ahamiyatga ega. Inson dunyoqarashi birinchi navbatda uning ma’naviy dunyosida, fikrlash, voqelikning to‘g‘ri anglash madaniyatida namoyon bo‘ladi. Voqelikni anglash - tabiyat, jamiyat, unda ro‘y berayotgan murakkab ijtimoiy iqtisodiy jarayonlar, ma’naviy hodisalarni atroflicha tahlil va mushohada etishdir. Voqelikni anglash insonning o‘zining jamiyati, insoniyatning bir qismi sifatida his qilish, ularga o‘z munosabatini bildirish, shunga muvofiq ravishda faoliyat ko‘rsatishdir. Falsafiy dunyoqarash kishining jamiyat oldidagi hissini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Falsafa bevosita uning tafakkuri, ongini shakllantirishga qaratilgan fan. Bu hol uning tarbiyaviy funksiyasiga ega ekaligidan dalolat beradi.

Falsafa insonni tarbiyalashning muhim omilidir deganda biz dastavval uning inson hayotiga, faoliyatiga ko‘rsatiladigan ta’sirini, insonning jamiyatda o‘ziga xos o‘rnini topishga zamin yaratishni nazarda tutamiz. Masalaning shu tarzda qo‘yilishi falsafaning inson hayotidagi o‘rnini keng tushunishga imkon beradi.

Falsafa inson ma’naviyatini yuksalishini muhim omili bo‘lib hisoblanadi. Falsafa doirasida qo‘yilgan inson muammosining muhim tomonini uning komilligi, barkamolligini tashkil qiladi. Masalaning bu tarzda qo‘yilishi, ayniqsa, Sharq, xususan, O‘rta Osiyo falsafasida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Falsafa jamiyatida ro‘y berayotgan murakkab jarayonlarni mushohada etish orqali uning holat, ziddiyatlari, taraqqiyot istiqbollari to‘g‘risida fikr yuritishga, jamiyat, uning taraqqiyotiga zid, murakkab muammolarni aniqlashga yordam beradi, zamon falsafiy muammolar bevosita hayotdan, jamiyat tahlilidan kelib chiqadigan umuminsoniy xarakteriga ega bo‘lgan muammolardir.

Inson jamiyat, insoniyat hayotiga oid masalalarni qo‘llashi, bu masalalarni davr nuqtai nazaridan hal etish falsafaning ijtimoiy hayotini o‘rganishdagi ahamiyatidan dalolat beradi.Har bir davrning, har bir jamiyatning hal etilishi lozim bo‘lgan o‘z falsafiy muammolari bo‘ladi.

«Bu olamda biz kimmiz va ne bir sir-sanoatmiz? Qayoqqa qarab ketayapmiz? Insoniyat yangi XXI asrga qadam qo‘yganida, bizning o‘rnimiz qanday bo‘ladi? Biz yashayotgan davr qanday xususiyatlarga ega?» degan so‘zlar bilan boshlangan Prezident Islom Karimovning «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida» ,,xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kamolatlari’’.. asari jamiyatning hozirgi taraqqiyot darajasini falsafiy tahlili misol bo‘ladi. Mazkur risolada erishganimiz mustaqillikning taqdiri, mamlakatimizning yangi ming yillikdagi taraqqiyoti vazifalarini hal etish ko‘p jihatdan hozirgi davrdagi taraqqiyot uchun tahdid qilayotgan omillarni to‘g‘ri tushunib, bilishga bog‘liqligi asoli ravishda bayon etilgan. Undagi qo‘yilgan savollar: xavfsizlikni qanday saqlab qolish mumkin? Barqarorlikni qanday ta’minlash mumkin? Rivojlanishga nimalar hisobiga erishish mumkin? Va ularning javoblari jamiyatimizni qanchalik to‘g‘ri

tushuna bilish va shu asosda jamiyat a'zolarining mas'uliyatlarini qanchalik chuqur his etishlariga bog'liq.

Demak, falsafa shaxsning ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashini shakllantiradi, shu bilan birga u shaxsda jamiyat oldidagi ijtimoiy ma'suliyat hissini uyg'otadi.

Falsafa gnoseologik vazifani ham bajaradi, ya'ni tevarak atrofdagi narsa va hodisalarni, bilishning qonuniyatlarini, bilish jarayonida ob'yekt va sub'yekt diametrikasini atroflicha ochib beradi. Shuningdek, falsafa va aniq fanlar vakillarini ilmiy bilimining asosiy shakllari, uslublari va tamoyillari bilan qurollantiradi.

Test.

1.«Falsafa» so'zining lug'aviy ma'nosi to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang:

Yunoncha, «phileo» - «sevaman» va «sophia» - «donolik».
Yunoncha, «phileo» - «sevaman» va «sophia» - «bilish»
Lotincha, «philo» - «sevaman» va «sophi» - «donishmandlik».
Lotincha, «phileo» - «sevaman» va «sophia» - «donolik»

2.«Falsafa» atamasini birinchi bo'lib qaysi faylasuf o'z asarida qo'llagan?

Pifagor
Aristotel
Platon
Aristotel va Platon

3.Arxeolog olimlarnnng fikriga ko'ra tik oyoqda yuruvchi «homo sapiens» odam taxminan necha million yil oldin vujudga kelgan?

1,5-3,5 mln yil avval
5 mln yil avval
2 mln yil avval

4.Quyidagi javoblardan qaysi birida dunyoqarashning nisbatan muhim funksiyasi ko'rsatilgan?

Bilish funksiyasi
Qadriyatlarga munosabati
Xulq atvorni belgilash
Barcha javob to'g'ri

5.Dunyoqarashning tuzilishi qanday?

Dunyoni sezish, idrok etish, tushunish
Dunyoni tasavvur qilish
Axloqni yuksaltirish
Barcha javoblar to'g'ri

Dunyoni sezish bu -…

Bu o'zini qurshagan dunyoni sezgilar yordamida hissiy idrok etish.
Faqat obyektlarni anglash
Inson o'zini tushunish
Aql yordamida tushunish

7. Faqat insonga xos xususiyatni aniqlang:

Barcha javoblar noto'g'ri
Dunyoni tushunish
Harakat qilish
Dunyoni sezish (qisman)

8. Tarixan dunyoqarashning shakllari bu - ...

Mif, din, falsafa, fan
Mif, fan, ov

Din, san’at, mehnat
Fan, falsafa, ov
9.Mif atamasi qanday ma’nolarni anglatadi?
Rivoyat, afsona
San’at, voqea
O‘yin, san’at
Afsona, urush
10.Miflar nimalar orqali ifodalanadi?
Rivoyat, ertaklar
Ertaklar, qo‘shiqlar
Mehnat, ov
Qo‘shik, kuy

11.Falsafa qanday ta’limot?
Falsafa-tabiat, jamiyat va inson tafakkuri taraqqiyotining eng umumiy qonunlari to‘g‘riisidagi ta’limotdir
Olam haqidagi yaxlit ta’limot
Falsafa olam haqidagi umumiy ta’limot
Falsafa inson haqidagi, insoniy qadriyatlar haqidagi ta’limot
12**. Dunyoqarashning qanday tarixiy tiplari bor?**
Dunyoqarashning mifologik, diniy va ilmiy-falsafiy kabi tarixiy tiplari bor;
Dunyoqarashning diniy, ilmiy, xayoliy tiplari mavjud;
Dunyoqarashning totemistik, dualistik, metodologik, ilmiy-falsafiy tiplari bor;
Dunyoqarashning ma’rifiy, madaniy, adabiy-badiiy tiplari mavjud.
13**. Dunyoqarash nechta unsurdan tashkil topadi:**
Dunyoqarash 2 ta unsurdan tashkil topadi.
Dunyoqarash 5 ta unsurdan tashkil topadi;
Dunyoqarash ko‘p unsurlidir;
Dunyoqarash din va falsafa unsuridan iborat;
14. Falsafaning asosiy funksiyalari:
Metodologik, dunyoqarashlik, bilish, ijtimoiy, aksiologik, tarbiyaviy
Tarbiyaviy, umumlashtiruvchi, bilish, chamalash, bashorat kilish;
Tarbiyaviy, dunyoqarash, umumlashtiruvchi, bilish;
Dunyoqarashlik, metodologik, chamalash, bashorat qilish.
15. Dunyoqarash insonni nimaga ega qiladi?
Dunyoqarash insonga xayot ma’nosi va maqsad - muddaosini anglab olish imkonini beradi;
Dunyoqarash tufayli odamzod o‘z hayvoniy qusurlaridan xoli bo‘ladi;
Dunyoqarash tufayli inson ma’naviyati boy bo‘ladi;
Dunyoqarash inson irodasini mustahkamlaydi.
16. Xususiy fanlar tadqiqotchilari uchun falsafa qanday asos bo‘ladi?
Metodologik asos;
Empirik asos;
Tarbiyaviy asos;
Ratsional asos.

17.Dunyoqarashning qaysi shakllari e’tiqod va tuyg‘ularga tayangan?

Mifologik va diniy dunyoqarash

Falsafiy dunyoqarash

Ilmiy dunyoqarash

Kundalik dunyoqarash

18.Falsafiy dunyoqarash dunyoni nimalarga tayangan holda tushuntiradi?

Aql va bilimlarga

Tuyg‘ularga

E’tiqodga

Sezgilarga

19.Falsafada nima birinchi o‘rinda turadi?

Savol, masala

Obraz

Aniq javob

Dalillar

20.Falsafaning predmeti bu - ...

Olamning yaxlit birligi

Borliq

Inson

Fan

21.Kosmotsentrizmniing asosiy xususiyati nimadan iborat?

Kosmos va tabiatni anglashni

Yerni tadqiq etishni

Odamni tadqiq etishni

Hayotni anglashni

22.XVII-XVIII asrlarda falsafa fanlar bilan birlashib, uning tadqiqotlar markazida -...?

Bilish va ilmiy metodlar o‘rin oldi

Globallashuv o‘rin oldi

O‘zlikni anglash oldi

To‘g‘ri javob yo‘q

2--mavzu. Falsafani taraqqiyot bosqichlari.

Sharq - jaxon sivilizatsiyasining markazlaridan biri. Qadimiy Sharq, Misr va Bobildagi falsafiy fikrlar.

Antik dunyo falsafasi. Milet va Eley maktablari. Geraklit, Pifagor va pifagorchilar.

Sofistlar falsafasi. Suqrot va Aflotun falsafasi. Platonning g‘oyalar dunyosi va g‘oyalar dunyosi to‘g‘risidagi ta’limoti. Yunonistonlik atomistlar: Lekipp, Demokrit va boshqalar. Aristotelning hayoti, faoliyati va asarlari. Qadimgi Rimda falsafiy fikrlar.

Qadimgi Sharq va Antik dunyoda falsafiy fikrlarni o‘rganishdagi zarurat, uning jahon madaniyati va fani uchun ahamiyati.

Markaziy Osiyodagi falsafiy fikrlar uning jahon madaniyatida tutgan o‘rni.

XIV asr oxiridan XX asr boshigacha O‘zbekistondagi ijtimoiy- falsafiy tafakkur. Ulugbekning tabiiy-ilmiy qarashlari. Alisher Navoiy, Bobur, Mirza Bedil va Boboraxim Mashrabning ijtimoiy falsafiy qarashlari.

X1V asr oxiri XX asr boshlarida falsafiy fikrlar. Jadidlik — milliy g‘oyalar uchun kurash falsafasi.

O‘rta asrlarda va yangi davr Ovrupadagi falsafiy fikrlar. Nominalizm va realizm g‘oyalari. Uygonish davri falsafasi. J.Bruno,

N.Kopernik, F.Bekon, T.Gobbs qarashlari. XVII asr Ovrupo falsafasidagi ratsionalizm. XVIII asr ma’rifatchiligi.

Nemis klassik falsafasi. Kant, Gegel falsafasi. Gegeldan keyingi falsafiy oqim va g‘oyaviy jarayonlar. Marksizm: uni qadrlanish va qadirsizlanish sabablari.

Rus falsafasi. (Plexanov G.V., Berdyayev N.A, Lenin V. I.)

XIX asarda shakllangan falsafiy ta’limotlar: ekzistensializm, neopozitivizm, neotomizm.

Takrorlash uchun savollar:

1. Qadimgi Misr falsafasining o‘ziga xos xususiyatlaridan iborat?
2. Qadimgi hind falsafasi qanday manbalar orqali bizgacha yetib kelgan?
3. Qadimgi Xitoydagi daosizm, konfutsiylik tahlimotining mohiyati nimadan iborat? Qadimgi Yunon falsafasining o‘ziga xos xususiyati nimada?
4. Aflotunning g‘oyalar dunyosi haqidagi ta’limotning mohiyati nimadan iborat? Arastu haqida nimalarni bilasiz?
5. «Avesto» to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
6. Zardushtiylik va «Avesto» da aks etgan falsafiy g‘oyalar qaysilar?
7. Moniy va Mozdak ta’limoti?
8. Islom dini va falsafasi?
9. Tasavvurda komil inson taomilini siz qanday tasavvur qilasiz?
10. Tasavvur va uning oqimlari?
11. O‘rta asrlar Markaziy Osiyo falsafasining o‘ziga xos ahamiyati?
12. Mirzo Ulug‘bekning Fan va madaniyatga qo‘shgan hissasi haqida nimalarni bilasiz? Alisher Navoyining komil inson to‘g‘risidagi g‘oyalari mazmunini bilasizmi?
13. Mashrab va Bedil ijtimoy qarashlarining xususiyatlari nimada?

14. Jadidchilik falsafasini mohiyatini yoritib bering?

15. G‘arbiy Yevropa O‘rta Asrlar falsafasining o‘ziga xos xususiyati nimalardan iborat?

16. Evropa uyg‘onish davri falsafasi?

17. XII-XIX asr Yevropa falsafasidagi oqimlar va falsafiy maktablar haqida nimalarni bilasiz?

18. XX asr falsafasining qanday oqimlari va yo‘nalishlarini bilasiz?

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular.

Javob yozish kerak.

1.Fan ilmiy dunyoqarash shakli.
2.Sharq va G‘arb falsafasida inson masalasi.

Adabiyotlar.

1 Axmedova M. Falsafa. – Toshkent: UFMJ, 2006.
2.Yusupov E., Mamashokirov S. Falsafa Darslik, - Toshkent: 2005.
3.Shermuxamedova N.A. Falsafa. Toshkent: “Noshir”, 2012.
4.Shermuxamedova N.A. Gnosiologiya. (Uchebnik). - Toshkent: 2009.
5.Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish. (O‘quv qo‘llanma). - Toshkent: 2017.
6.Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi. (O‘quv qo‘llanma). - Toshkent: 2017.
7.Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi. (Darslik). - Toshkent: 2016.
8. Иззетова Э., Пулатова Д. Философия (Учебное пособие). - Тошкент: 2017.
9.M.Sharipov, Fayzixodjayeva D. Mantiq. O‘quv qo‘llanma. -Toshkent: 2004.

10. Sh.M. Mirziyoev “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” Ijtimoiy adabiyot T.:O‘zbekiston 2017 yil
11.Sh.M. Mirziyoev “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonlik garovi” Ijtimoiy adabiyot T.: O‘zbekiston 2017
12.Sh.M. Mirziyoev “Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” Ijtimoiy adabiyot T.: O‘zbekiston 2017yi

Internet-sayitlari.

1. www. Ziyo net.uz
2. www.faylasuf.uz
3.www. .ziyo.uz
4. **www. muslim.uz**
5. www. religions.uz

2-mavzu. Falsafani taraqqiyot bosqichlari.

Reja:

1. Falsafiy fikrni vujudga kelishi, uning madaniy tarixiy zaminlari.
2. Qadimgi Sharq mintaqamizdagi va antik dunyodagi ilk falsafiy fikrlar.
3. O‘rta Osiyoda falsafiy fikrlarning rivojlanishi.

Tayanch tushunchalar: zardushtiylik, «Avesto», Konfutsiylik, «Veda»lar, buddaviylik, ilk o‘rta asrlar falsafasi, «Qur’on», Hadislar, islom falsafasi, tasavvuf, temuriylar davri falsafasi, «Temur tuzuklari», «Ziji Ko‘ragoniy», «Xamsa», «Boburnoma», xonlik va amirliklar davri falsafasi, «Qarolar falsafasi», jadidchilik, jadidlar falsafasi.

Falsafiy g‘oyalar muayyan ijtimoiy sharoitlar ta’sirida, ma’lum tarixiy-madaniy manbalar asosida shakllanadi. Ibtidoiy hayotning murakkablashishi va kishilarning ijtimoiy amaliyotining kengayishi ularni abstrakt fikrlashini rivojlantiradi, shu bilan birga ilmiy bilimni shakllantiradi.

Falsafa predmetlarga kundalik amaliy va olamga tabiiy-ilmiy yondoshishdan farq qilgan, o‘ziga xos yondoshishga ega. Qadimdan faylasuflar borlik nima? Bor bo‘lishning o‘zi nima? degan muammoni hal qilib kelganlar. Falsafaning bu o‘ziga xos xususiyati qachon va nima uchun falsafa kelib chiqqan degan savolga bir muncha javob berishga yordam beradi.

Ijtimoiy hayot va ijtimoiy ongda odatda, mifologiya yordamida hal qilib bo‘lmaydigan ishontirish mumkin bo‘lmagan jiddiy ziddiyat va konfiliktlar vujudga keladi. Bu o‘rinda shakllangan fikr bilan haqiqatan qanday ekanligi haqidagi bilimni farqlash ehtiyoji tug‘iladi. Bu fikrlash falsafa bilan vujudga keladi. Falsafa avval boshdan kundalik ongni, urf-odatni, an’anaviy qadriyatlarni va axloq normalarini tanqid qiladi. Faylasuf hamma narsaga shubha bilan qaraydi, buni u shu an’analarni kelib chiqish ildizini topish uchun qiladi. Shundan uning bor bo‘lishning o‘zi nima?, borliq nima? degan savolining mazmuni kelib chiqadi.

Falsafaning vujudga kelishida qanday ijtimoiy vaziyat, madaniyatdagi qanday siljinishlar ta’sir qiladi? degan savollar tug‘ilishi tabiiydir. Qadimgi Gretsiyada falsafa inson hayotining ma’nosi, uning odatdagi tuzimi va tartibi xavf ostida qolgan vaqtda shakllanadi. Falsafaning u yoki bu davrda shakllanishigina emas balki taraqqiyoti ham chuqur ijtimoiy krizislar inqirozlar bilan bog‘lik bo‘lib, inson qiynalganda, eskicha yashay olmay qolganda, eski qadriyatlar o‘z ahamiyatini yo‘qotib endi nima qilish kerak? degan savol tug‘iladi . Dastlabki quldorlik davrining odatdagi mifologik-afsonaviy tasavvurlari yangi dunyoqarashning talablariga javob bera olmaydi. Shunday qilib falsafa odatdagi hayot tarzi va odatdagi qadriyatlarning krizis momentida vujudga keladi. Bir tomondan u urf-odatlarni tanqid qilsa boshqa tomondan yangi binoni qurish uchun poydevor, yangi madaniyat tipini topishga harakat qiladi. Shuning uchun falsafada nazariy va dunyoqarash muammolari uzviy bog‘liqdir.

Qadimgi Sharq sivilizatsiyasining beshiklaridan bo‘lgan Misr, Bobilda eramizdan avvalgi to‘rt ming yillikning oxiri va uch ming yillikning boshlarida **dastlabki diniy – falsafiy fikrlar olam haqidagi fanlar, ya’ni astronomiya,**

kosmologiya, matematika, mifologiyaga oid qarashlar bir muncha rivoj topgan.

Bu yerda shakllangan falsafaning eng asosiy xususiyati shundan iboratki, ularda, bir tomondan xudolarga ishonch, ilohiy kuchlarning tabiat va jamiyatga ko‘rsatadigan ta’sirini mutloqlashtirish xususiyati ustivor bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan afsona va rivoyatlar tarzida bo‘lsada, dunyoviy bilimlar, ilmiy qarashlar ham asta-sekin shakllana boshlagan. Bu – o‘sha davrlardan qolgan yozma manbalarda, xususan, **O‘z hayotidan xafsalasi pir bo‘lgan kishining o‘z joni bilan suhbati«Xo‘jayinning o‘z quli bilan hayotning mazmuni haqida suhbati», «Arfisit qo‘shig‘i», «» kabi bitiklarda yaqqol namoyon bo‘lgan**.

Bizning eramizgacha bo‘lgan 1 ming yillikning o‘rtalarida insoniyat tarixining taraqqiyotida qadimgi **madaniyatning uch o‘chog‘ida Hindiston, Xitoy, Gretsiyada deyarli bir vaqtning o‘zida falsafa vujudga keldi.** Uning tug‘ilishi olamni mifologik tushunishdan bilimga tayanadigan dunyoqarashga o‘tishdek uzoq jarayonni boshidan kechirdi.

Hindiston bashariyat tarixida qariyb birinchi sivilizatsiya beshigi hisoblanib, uning falsafasi o‘zining qadimiy va boy tarixiga ega. Qadimgi Hind falsafasini o‘rganishda **«Ramayana», «Maxobharot», «Kalila va Dimna»** kabi mashhur asarlar ilk manbalar bo‘lib xizmat qiladi. Hind madaniyati va falsafasining ana shu bebaho yodgorliklarining har birida aql-idrok, adolat, insof-diyonat, halollik, poklik, mehnatsevarlik, milliy totuvlik, to‘g‘ri so‘zlilik to‘g‘risida va yomon illatlarga qarshi kurashish zarurligi haqida juda muhim falsafiy g‘oyalar hikmatlar, rivoyatlar, maqollar bayon etilgan.

Falsafiy qarashlarning kurtaklari hind madaniyati eng qadimgi yozma yodgorliklari «Vedalar» da («Ved»lar – xudolar, tabiatning ilohiy kuchlariga qaratilib aytiladigan gimnlar, duolar to‘plami) uchraydi. «Veda» kitobi Rigveda, Samaveda, Yashurveda va Atharda deb ataladigan 4 katta bo‘limdan iborat.

Ularda borliqning bosh manbai moddiy ibtidosi deb hisoblangan suv, olov, havo, yorug‘lik, tuproq hamda oziq-ovqat, fazo va vaqt haqidagi, shuningdek olamning tuzilishi va uni boshqaruvchi qonunlar, inson bilimining manbalari va turlari insonning ijtimoiy majburiyatlari kabi qator falsafiy masalalar yoritilgan. Unda takidlanishicha, tana jonning qobigi bo‘lib, jon esa dunyoviy ruhning bir bo‘lagidir.

Hind falsafasi asoslari «Upanishadalar» nomi bilan mashhur bo‘lgan manbalarda ham o‘z aksini topgan. «Upanishadalar» sirli bilim degan ma’noni anglatib «Veda» larning falsafiy qismini tashkil etadi. «Upanishadalar» yaxlit kitob yoki falsafiy risola bo‘lmay, balki turli vaqtda turli mavzuda ijod etgan noma’lum mualliflarning matnlaridan iboratdir. Ularning mazmuni va uslubi har xil va turlicha falsafiy qarashlar, uning hayotdagi o‘rni va vazifasi, tashqi olam va inson tabiati, uning hayoti va ruhiyatining mohiyati, bilish imkoniyatining chegaralari, axloq me’yorlari haqidadir. Falsafiy muammolar asosan diniy, mifologik nuqtai nazardan bayon etilgan.

Eramizgacha bo‘lgan 8-7 asrlarda Hindistonda Lokayati (bu dunyo “loka” ni tan oluvchi) falsafiy ta’limot shakllana boshladi. Bu ta’limotning asosi Brixaspati

va uning izdoshlari vedalarda bayon etilgan diniy qarashlarning tanqid qilib, yerdan boshqa tarzdagi hayotning bo‘lishi mumkin emas, degan fikrni ilgari fikrni ilgari surdilar.

Lokayataning eng rivojlangan oqimi Chorvaklar (er.av. 6-asr) ta’limotidir. Ularning fikricha dunyo 4 elementdan tuproq, havo, suv va olovdan tashkil topgan bo‘lib, barcha narsa va hodisalar shu 4 elementning turli birikmasidan iboratdir. Ular dunyoni bilish mumkin va bu bilishning manbai idrokdir, deb, bilimda hissiyotning rolini bo‘rtirib yuborganlar, xulosalar yolg‘on bo‘lishi mumkin deb hisoblaganlar.

Xitoydagi dastlabki falsafiy ta’limotlarda dunyo abadiy va 5 unsur – olov, suv, yer, daraxt va metallardan tashkil topgan, deb uqtiriladi.

Eramizdan oldingi 7-6 Xitoy mutaffakirlarining fikricha tabiat hodisalar degan moddiy zarralardan tarkib topgan “dao” degan obyektiv tabiiy qonuniyatga bo‘ysunadi. Xitoyliklarning tabiat hodisalari qonuniyatli asosda taraqqiy qiladi, degan tasavvurlari, Dunyo moddiydir, degan ta’limotga bog‘liqdir. Dao haqidagi ta’limot falsafadagi qonun tushunchasini hosil qilishdagi dastlabki urinishdir.

«Daosizm» so‘zini o‘zi «Dao» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, «yo‘l», «taraqqiyot», «dunyo negizi» degan ma’noni bildiradi. Daosizmning asoschisi Laotszi bo‘lib, u dunyoda abadiy harakat va qarama-qarshiliklarning bir-biriga bog‘liqligi amal qiladi, tabiat hodisalari o‘z-o‘ziga zid holatga aylanib rivojlanadi, degan fikr yuritiladi. Ta’kidlanishicha, go‘zallik va yomonlik, borliq va yo‘qliq, uzun bilan qisqalik bir-birini to‘ldiradi, birin-ketin keladi, bir-biriga bog‘liq bo‘ladi, tabiatdagi barcha mavjudot, barcha hodisalar qarama-qarshiliklarni o‘z ichiga oladi.

Daosizmning vakillari bilishdagi hissiy va mantiqiy jihatlarning mavjudligi masalasini o‘rtaga quyib, bilishda hissiyot va amaliyotning ahamiyatini kamsitib, aqlni bo‘rttirib yuborganlar.

Eramizdan oldingi 5-3 asrlarda Xitoyda Konfutsiychilik kabi falsafiy oqim ham bo‘lgan. Bu oqimning asoschisi Xitoy mutafakkiri Konfutsiy bo‘lgan. (er.oldingi 551-479 yillarda yashagan). Konfutsiy insonparvarlik g‘oyalarini qadimgi Xitoyda birinchi bo‘lib olg‘a surdi. Konfutsiy o‘zining falsafiy qarashlarida tarbiya masalalariga katta e’tibor qaratgan. Odamlar o‘z tabiatiga ko‘ra bir-birlariga o‘xshaydilar, faqat tarbiyaga ko‘ra ular bir-birlaridan farqlanadilar, deydi u. Konfutsiy fikricha insonlar o‘rtasida o‘zaro muhabbat, hurmat tamoyillari hukmron bo‘lishi kerak.

Qadimgi grek – yunon falsafasi eramizdan oldingi 6 asrda Gretsiyada ibtidoiy – jamoa tuzumi quldorlik jamiyati bilan almashgan davrda vujudga keldi. Quldorlik vujudga kelishi bilan antogonistik sinflar, davlat paydo bo‘ldi, huquq, matematika, astronomiya, geografiya rivojlandi, bular falsafa fanining rivojlanishicha zamin yaratdi.

Qadimgi Yunoniston dastlabki faylasuflari Yer, Quyosh, yulduzlar, hayvonlar va odamning kelib chiqishini bir butun yaxlit tasavvur etishga harakat qilgan mutafakkir edilar. Shuning uchun ham ularni fiziklar – tabiatshunoslar (yunoncha ‘hysie – tabiat) deb ataganlar.

Ular mifologik va diniy dunyoqarashga qarshi kurash olib bordilar. Ma'lumki yunon mifologiyasida asosiy e'tibor, dunyoning kelib chiqishini izohlab berishga qaratilgan bo'lib, unda asosiy o'rinni dunyoni kim yaratgan degan savol egallab kelgan yunon faylasuflari esa asosiy e'tiborni dunyo nimadan yaratilgan degan savolga javob berishga qaratilgan.

Qadimgi Yunonistonda yirik savdo va madaniyat markazi bo'lib kelgan Milet shahrining vakillari taniqli mutafakkir Fales (er.avv. 624-567) hamma narsa suvdan kelib chiqqan va suvga aylanadi deb hisoblangan bo'lsa Anaksimandr (er.avv. 610-546) dunyo noaniq materiya-apeyrondan tashkil topgan deydi. Narsalar uning fikriga ko'ra apeyron harakati hamda sovuqlik va issiqlik, namlik va quruqlik kabi qarama- qarshiliklarning natijasida paydo bo'ladi. Anaksimandrning (er.avv 588-525 y) fikricha hamma narsa havodan hosil bo'lgan va havoga aylanadi. Efeslik Geroklit (er.avv 530-470y) olamdagi barcha narsa va hodisalarning asosi olovdan iborat deb hisoblangan.

Geraklit ta'limotining ahamiyati shundaki, u o'zining dunyoning moddiyligi haqidagi fikrini narsa va hodisalarning o'zgarishi va rivojlanishi kabi qonuniy jarayon, deb e'tirof etishadilar. Mazkur abadiy va eng umumiy qonuniyatni "Geraklit logos" deb tasvirlaydi.

Geraklit falsafasining yana bir muhim tomoni voqelikdagi narsa va hodisalarga dialektika nuqtai nazardan yondashuvidadir. Uning fikricha, narsa va hodisalar doimiy o'zgarishda, o'zaro aloqadorlikda, bog'liklikda, bir-biriga o'tib turadi. Bu o'zgarib rivojlanib turishning manbai qarama-qarshiliklarning birligi va ularning o'zaro kurashidadir.

Qadimgi Yunon faylasuflaridan Pifagor (er.avv.580-500) nuqtai nazaricha, dunyoning asosini sonlar tashkil qiladi, sonlar koinotdagi tartibning ifodasidir. Dunyoni bilish – uni boshqaruvchi sonlarni bilishdir.

Pifagorchilar soni materiyadan ajratib, uni ilohiylashtirgan bo'lsalarda matematika fanini rivojlantirish mashhur Pifagor teoremasini yaratishi bilan fan taraqqiyotiga katta hissa qo'shdilar.

Qadimgi Yunonistonning eng mashhur faylasuflaridan biri Demokritdir. (er.avv. 460-370 y). Uning nuqtai nazaricha, dunyo moddiy bo'lib, ruh, ong materiyaning mahsulidir. U dunyoning asosi atomlar va bo'shliqlardan iborat, narsa va hodisalarning rang-barangligi atomlar birikish usullarining turli-tumanligidan kelib chiqadi deb hisoblaydi. Demokrit materiya va harakatning ajralmasligini, harakat fazoning ham xuddi materiya singari obyektiv mavjud ekanligini tan olish lozim deydi. Lekin u harakatni atomlarning bo'shliqdagi oddiy o'rni almashishi deb qaraydi. Harakatning o'zini esa atomlarning fazoda o'zaro to'qnashuvi natijasida hosil bo'ladi deydi.

Demokrit tabiatdagi hamma voqea hodisalarning doimo o'zgarib turishini zaruriyat hisoblab, tabiatdagi tasodifni tan olmas edi. Uning fikricha, narsa va hodisalar o'rtasidagi sababiyatni bilmaslik tasodifni tan olishga olib keladi. Sababiy bog'lanishlarni tekshirishni u fanlarning asosiy vazifasi deb hisoblar edi.

Demokrit ong va ruh ham atomdan iborat deb hisoblagan. Demokrit olamni bilish mumkinligini ta'kidlab, uni qorong'u va haqiqiy bilimlardan iboratdir. U bilish jarayonida hissiyot va tafakkurning rolini ham ko'rsatib o'tadi.

Demokrit qadimgi Yunonistonning qomusiy olimi edi. U fanning turli sohalari: falsafa, fizika, matematika, biologiya, tibbiyot, pedagogika, ruhshunoslik, filologiya, etika, san'at, siyosat, mantiq, ijtimoiy hayot masalalariga doir fikrlarni bayon etgan edi.Demokritning merosida insonni har tomonlama kamol toptirish, unda insonparvarlik, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, odob-axloq, e'tiqod, vijdon va boshqa olijanob insoniy fazilatlarni shakllantirishga oid qimmatbaho fikrlar mavjuddir.Levkin (500-440) Demokrit bilan birgalikda atomistik berdi.

Demokritning atomistik falsafasi keyinchalik Epikur (341-270) tomonidan rivojlantirildi. Demokrit atomlarining asosan shakl va miqdor jihatdan farqini ta'kidlagan bo'lsa, Epikur esa ularning hajmi, og'irligi jihatdan farqini ta'kidlaydi.

Qadimgi Yunon madaniyatida sofistlar falsafasi katta o'rin tutadi. Sofistlar antropologiya (inson haqidagi fan) va gnoseologiya (bilish to'g'risidagi fan) muammolari bilan shug'ullangan. Sofistlar o'sha davrdagi yangi kasblarning mohir ustalari, ya'ni o'qituvchilar, diplomatlar, notiqlar, sud mahkamalarida ishlovchi mutaxassislardan iborat bo'lib, haqiqat osoyishtalik, adolat o'rnatishga xizmat qilgan. Ularning ta'limoti Suqrot falsafasiga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan. Sukrot (asli Sokrat) (er.avv. 469-399 yillar) qadimgi Yunon faylasufi Afinaning ijtimoiy hayotida faol ishtirok etgan, yoshlar tarbiyasi bilan shug'ullangan, hurfikrli inson. Sukrot fikricha, falsafaning markazida axloq masalalari turmog'i lozim. Jamiyatning ravnaqi, tinchlik va osoyishtaligi, farovon hayoti axloq-odobning ahvoliga bog'liq. Bu masalalar Sharq falsafasida ham katta o'rin tutganligi bois xalqimiz, buyuk allomalarimiz Sukrot rolini benihoya hurmat bilan tilga olgan, uning axloq-odob hakidagi pand-nasixatlariga amal qilgan.

Sukrotning shogirdi Aflotun (asli Platon) (mil.avv.427-347) jahon falsafasi tarixida uchmas iz qoldirgan. U nafaqat faylasuf olim, balki san'atkor, shoir va dramaturg bo'lgan, o'z g'oyalarini dialoglar tarzida namoyon qilgan.

Platon Demokrit fikrlarini qattiq ta'kid qiladi. Aflotunning falsafiy qarashlari, asosan uning «Bazm», «Teetet», «Fedon» nomli dialoglarida, siyosiy qarashlar esa «Davlat», «Siyosat» va «Qonunlar» nomli asarlarida ifoda etilgan.

Aflotun ta'limoticha olamda «g'oyalar dunyosi» birlamchi bo'lib, moddiy dunyo esa ikkilamchi g'oya dunyosining masuli, soyasidir, deb hisoblaydi. Uningcha, «g'oyalar dunyosi» fazo va vaqtga bog'lik bo'lmay, abadiy harakatsiz va o'zgarmasdir: u «haqiqiy dunyodir».

Aflotunning bilish nazariyasiga ko'ra, bilish obyekti «g'oyalar dunyosi», moddiy dunyo va undagi narsa va hodisalar hissiy bilishning manbaidir. Hissiy bilish haqiqat emas, chunki u orqali kishilar g'oyani emas, balki moddiy predmetlarni sezadilar, ular to'g'risida tasavvurga ega bo'ladilar. Moddiy buyumlarning asosi va mohiyati bo'lgan «g'oyalar dunyosi» ni faqat sof tafakkur yordamida bilish mumkin.

Platon Yunonistondagi quldorlar aristokratiyasi davlatini eng adolatli va ideal davlat deb hisobladi. U jamiyatni 3 tabaqaga bo‘ladi. 1. Davlat arboblari – faylasuflar. 2. Harbiylar (soqchilar). 3. Dehqon va hunarmandlar. Bunda davlat faylasuf – aristokratlar qulida bulishi lozim, harbiylar esa davlatning zo‘rlik va zulm apparatidan iborat bo‘lib, quldor uchun zarur bo‘lgan sharoitni yaratishdan iborat.

Aflotunning g‘oyalar haqidagi ta’limoti qadimgi dunyoning eng buyuk mutaffakiri, quldorlarning o‘rta tabaqa vakili Aristotel– Arastu (er.avv. 584-322) tomonidan qatiy tanqid qilingan. U yirik asarlari «Metafizika» yoki «birinchi falsafa», «fizika», «jon to‘g‘risida», «Analitika», «Kategoriyalar», «Etika», «Siyosat» va boshqalar.

Arastu Aflotunning «g‘oyalar» nazariyasini asossiz, deb hisoblaydi. Arastu g‘oyalar bilan predmetlar o‘rtasida ayirma yo‘q deb ta’kidlaydi. Uningcha moddiy olam abadiy va obyektiv xarakterga ega bulib, u hech qanday Platon «g‘oyalari» ga muhtoj emas. Tabiat moddiy asosga ega bo‘lgan narsa va hodisalar yig‘indisidan iborat, u har doim harakat va o‘zgarishdadir.

Arastu o‘z asarlarida hamma narsaning asosida materiya yotadi, deb moddiy dunyoning ob’yektiv mavjudligini e’tirof etadi. Narsalar materiya va shakldan paydo bo‘ladi. Har bir narsa shakllangan materiyadir va shakl borliqning mohiyatidir. Materiyaning o‘zida rivojlanishning faqat imkoniyati bor xolos, u shakllantirishga muhtojdir. Shakl tufayligina materiya imkoniyatdan vokelikka aylanadi. Haqiqiy borliq uning fikricha, materiya va shakllanish birligidir. Bular bir-biriga o‘tib turadi. Shaklsiz materiya yo‘q. Arastu materiya passiv shaklsiz narsa. Shakl esa aktiv bo‘lib, narsani narsa qiluvchidir. Arastu shaklning aktivligi haqidagi qarashni davom ettirib hamma shakllarning shakli – xudoning, dunyoviy ruhning «dastlabki turtkini» ijodiy rolini ta’kidlaydi. Bu masalada u Platonga yaqin edi.

Bilishning nazariyasida Arastu Demokritning tarafdori edi. Uningcha moddiy dunyo bilishning, sezgilarning, tajribaning asosidir. Sezgilar bizga ayrim aniq narsalar haqida ma’lumot bersa, aqlimiz esa umumlashtirilgan ma’lumotlar berishga qodir degan edi.

Arastu mantiq fanining barcha muhim masalalarini ishlab chiqdi, u mantiq bilish uchun zarur bulgan tafakkur shakllari va isbotlash to‘g‘risidagi fandir, deb yozadi. Fikrlar bog‘liqligi Arastuning nuqtai-nazaricha, mavjud obyektiv olam hodisalari bog‘lanishlarning inikosidir.

Arastu kategoriyalar, tushunchalar, muloxazalar va xulosalar to‘g‘risidagi ta’limotlarni kashf etdi. Falsafa tarixida 1-bo‘lib kategoriyalar tizimini ishlab berdi. Shuning bilan birga u kategoriyalarning bir-biri bilan aloqadorligini, bir-biriga o‘tishini isbotlab berdi.

Markaziy Osiyo jahonning ilm fan, falsafa, din, adabiyot va san’at qadimdan rivojlangan, tarixi nihoyatda boy mintaqalardan iborat.

Miloddan ilgari 10-8 asrlarda Urta Osiyoda quldorlik munosabatlari ravnaq topdi. Shu davrda O‘rta Osiyoda yashagan xalqlar Yunon tarixchilari tomonidan skiflar deb atalsa Eron manbalarida saklar deb nomlaganlar.

Qadimgi Urta Osiyo xalqlari hayotida dehqonchilik va chorvachilik muhim ahamiyat kasb etgan. Bu hududda dehqonchilik sun'iy sug'orishga asoslangan bo'lib, u sug'orish inshoatlarining rivojlanishiga olib kelgan. Shunday qilib dastlabki madaniy markazlar vujudga kela boshlaydi. Mana shu davrda O'rta Osiyoda oramiylar alifbosi keng tarqalgan. Uning asosida esa Xorazmliklar, Sug'diyonaliklar alifbosi vujudga keladi. Shu bilan birga O'rta Osiyo xalqlarining boy abadiy merosi paydo bo'la boshlaydi. Saklar og'zaki ijodining eng dastlabki yodgorliklari kelib chiqadi. Masalan, To'maris, Spitamen va Zarin, Cho'lpon, Shiroq haqidagi afsonalar shular jumlasidandir. Ularda O'rta Osiyo xalqlarining vatanparvarlik xislatlari madh etiladi.

Miloddan avval 6-asrdan to milodning 3-asrigacha O'rta Osiyoda Zardushtiylik va u bilan bog'lik dunyoqarash hukmronlik qilgan.

Zardushtiylik faqat din bo'lib qolmay, balki o'sha davrning hukmron mafkurasi ham edi.

Zardushtiylikni muqaddas kitobi Avesto materiali (12000 ishlangan qora mol terisiga yozilgan) miloddan ilgari bir qancha asrlar davomida to'plangan. Iskandar Zulqaynarning bosqinchilik davrida uning ko'p qismi yo'qolgan. Arshakidlar davrida uning qolgan qismi Avesto sifatida tartibga solingan.

Unda O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, axloqiy qarashlari va umuman dunyoqarashi o'z ifodasini topgan.

«Avesto» da o'tmish ajdodlarimizning diniy tasavvurlari, koinot va yerdagi dunyoning yaratilishi bilan bog'liq afsona va rivoyatlar, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayoti geografiyasi, tabiati, urf-odati, ilm-fani o'z aksini topgan. Unda qadimgi Turon o'lkasining iqlimi, suvi, hayvonot dunyosi, yer tuzilishi, sahrolari, tog'lari haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

G'arazgo'ylik, hasad, manmanlik, fitna fasod «Avesto» da qattiq qoralansa, va'daga vafo qilish, ahdga sadoqat, samimiyat, xolislik, o'zaro izzat – ikrom kabi odamlar o'rtasida ustuvor bo'ladigan axloqiy qoidalar ulug'lanadi. «Avesto» dunyoni inson uchun sinov maydoni deb tushuntiradi.

«Avesto» da odamlarni iymonli bo'lishga, doimo pok-toza yurishga, tanani ozoda tutishga, har qanday yomon niyat va so'zlardan yuz o'girishga da'vat etadigan axloqiy qoidalar diniy o'gitlar, falsafiy g'oyalar nihoyatda ko'p.

«Avesto» da qayd etilgan eng muhim falsafiy fikrlardan biri – insonlarni mehnat qilishga, o'z qullari bilan moddiy boyliklar yaratib to'q farovon hayot kechirishga da'vat etilganligidadir.

Zardushtiylik dini va uning «Avesto» kitobida dunyoning moddiy asosi deb hisoblagan yer, tuproq, havo muqaddaslashtiriladi. Yer va havo shunday e'zozlanganki, havoni bulg'ash ifloslashtirish, hayvonlar o'ligi u yoqda tursin, odamlar jasadini ham yerga ko'mish, suvga oqizish, olovda yoqish gunohi azim bo'lgan. Marhumlar yerni, suvni, havoni zaharlab qo'ymasliklari uchun ularning jasadlarini maxsus sopol idishlarda ko'mish rasm bo'lgan.

Shunday qilib, «Avesto» dunyoda eng qadimgi din bo'lgan Zardushtiylikning muqaddas kitobi bo'lishi bilan birga, ajdodlarimizning uzoq

o‘tmish tarixi va tafakkur taraqqiyotining qomusiy yig‘indisi, tili, yozuvi, madaniyati, falsafasi adabiy-badiiy manbai hamdir.

Shakllangan va rivoj topgan qadimgi sharq jamiyati asoslari milodning 2-3 – asrlariga kelib asta-sekin yemirila boshlaydi. Uning zaminida feodal munosabatlar rivoj topadi. Bu jarayonning murakkab va ziddiyatli kechishi usha davrdagi falsafiy qarashlarda ham aks etadi. Shuning oqibatida zardushtiylikdan yangi oqim-moniychilik kelib chiqadi. Bu ta’limotning asoschisi Moniy degan kishi bo‘lib, uning ta’limoticha, olamda nur dunyosini – yaxshilik va zulmat dunyosi – yovuzlik mavjud. Ular o‘rtasida abadiy kurash boradi. Lekin pirovard natijada yaxshilik tantana qilishi, inson o‘z xulqi va butun hayoti bilan yorug‘likning zulmat bilan kurashiga yordam berishi va yaxshilikning tantanasi uchun xizmat qilishi kerak. Moniy ta’limoti quldorlik davlatiga, shuningdek, hukmron dinga qarshi qaratilganligi uchun uning tarafdorlari qattiq quvg‘inga duchor bo‘ldilar.

5-6 – asrga kelib O‘rta Osiyo va Eronda kuchayib borayotgan zulmga qarshi Mazdak boshchiligida xalq quzg‘oloni ko‘tarildi. Mazdak ta’limoti dehqonlar, ularning huquqlarini himoya etib, tenglik, adolat o‘rnatishga xizmat qildi.

Tarixdan ma’lumki 5-6 – asrlarda shimolda Turk hokimligi vujudga kelib, u Erondagi Sosoniylar bilan uzoq kurash olib bordi va O‘rta Osiyo xalqlarini o‘ziga qaratdi.

Bu yerda qadimgi turk tili tarqala boshladi. 8-asrda O‘rta Osiyoni arablar zabt etib, bu yerga islom dinini yoydilar. Mahalliy xalq ommasi arab bosqinchilariga qarshi uzoq vaqt davomida kurash olib bordi.

9-10 – asrlarda O‘rta Osiyoda arab bosqinchilarining hukmronligi tugatilib hozirgi O‘zbekiston hududida birlashgan Samoniylar davlati vujudga keldi.Islom dini hukmron bo‘lib qolaverdi.

8-asrda Islomda turli mazhablar paydo bo‘la boshlaydi. Mutakallimlar va muhtaziylar sufizm shular jumlasidandir.

Bu davrda qarama-qarshi mazhablar bilan kurash ehtiyoji hamda mo‘tadil islomning asoslarini himoya qilish zaruriyati tufayli ilohiyot, kalom paydo bo‘ldi. Kalom tarafdorlari mutakallimlar deyiladi. Kalomning asoschisi al-Ashhoriy (874-941 y va Mansur Muxammad ibn Maxmud al-Matrudiydir.

Mutakallimlar Qurhon oyatlarini erkin tahlil etishga mutlaqo qarshi bo‘lsalar, mutazaliylar u aqidalardagi mazmunni aql yordamida mantiq kuchi bilan anglash tarafdori edilar. Mutazaliylarning fikricha peshonaga yozilgan taqdir borligiga ishonch Olloxning obro‘ysiga putur yetkazadi, chunki yomon xatti-harakatlar xam uning irodasi maxsuli bo‘lib qoladi.

(«Muhtazila» - ajralib chiqqan degan ma’noni bildiradi). Ummaviylar davridayoq paydo bo‘lgan va abbosiylar davrida keng tarqalgan. Mutazalizm Xamoka Mahmun (813-830) davrida qo‘llab-quvvatlanib, ularning g‘oyalarini o‘z davlatining mafkurasi asosiga quydi. Biroq Xalifa Mutavakkil (847-861) davrida uning davomchilari «bidhatchi» lar va «kofirlar» deb e’lon qilindi.

Muhtazalizm ko‘pgina tadqiqotlarda Islom mazhablaridan biri sifatida talqin etiladi. Muhtazaliylar arab xalifaligida sof falsafiy fikrlashning tashabbuskorlari bo‘lib tanildilar. Ularning xizmatlaridan biri shundan iboratki,

muhtazaliylar hissiy tajriba va an'anaviy bilan bir qatorda bilimning uchinchi mezoni – aqliy bilishni ilgari surdilar. Mutazaliylar falsafiy masalalarni urganishga katta e'tibor berdilar. Shu sababdan aqliy bilishni asosiy metod sifatida ilgari surdilar.

Mutaziliylik g'oyalari Markaziy Osiyoda keng yoyilib, ilm-fan falsafiy fikr markazlari vujudga keldi.

Mutaziliylar ta'sirida islomda vujudi mumkin va vujudi vojib (vaxdat-ul mevjud va vaxdat-ul vuglud) diniy-falsafiy oqimlari shakllandi. Vujudi mumkin (yoki vujudiyuk-pantium) oqimi vakillari – Al-Kindi, Ibn Rushd, Farobiy, Ibn Sino, Umar Xayyom va boshqalar mavjudotni ikkiga vujudi mumkin va vujudi vojibga bo'lganlar. Vujudi mumkin sabab va oqibat aloqalariga ega bo'lib, uning mavjudligi boshqa narsadan emas, balki o'z mohiyatidan kelib chiqadi. Shu nazariy qoidadan kelib chiqib, Farobiy butun mavjudotni 6 darajaga bo'ldi. Shulardan birinchisi vujudi vojib – Allox, qolgan beshtasi aql, glon, shakl, materiya, osmon – vujudi mumkin. Bu darajalar bir-biri bilan sabab-oqibat shaklida bog'langan bo'lib, birinchi sabab o'z sababiga ega emas. Ibn Sinoning «Risola fi-taksim al mavjudot» asarida voxdat-ul mavjud va vaxdot-ul vujudni shu tarzda ta'riflaydi. Vaxdot-ul vojib Alloxni bildiradi. Lekin u Qur'ondagidek hamma narsaning ijodkori emas, balki sabab ya'ni umumiy mavjudotning birinchi sababi va uning bir qismi sifatida talqin etiladi. Bunday qarash esa tabiat hodisalarini (inson tabiatini ham) mustaqil ichki sabablari asosida tushuntirishga imkon berib, ilm-fan ravnaqiga keng yo'l ochadi.

Mutazaliylarning diniy-falsafiy g'oyalari qush haqiqat to'g'risidagi katta nazariy qoida shakllanishiga sabab bo'ldi. Bunga ko'ra ilo dunyoviy (ilmiy) haqiqatlar bor bo'lib, ilohiy haqiqatga faqat alohida odamlar-payg'ambarlar aziz avliyolar yetishi mumkin. Dunyoviy haqiqat esa aql yordamida, ilm-fan yo'li bilan anglab olinadi.

Mutazaliylar bilan Mutakallimlar o'rtasidagi g'oyaviy kurashlarda Abu Xamid Al-Gazzoliy kalomi shakllanib islom falsafasi yuzaga keldi. Biroq arab tadqiqotchilari uni tabiat falsafasi (naturfilosofiya) ham deb atashadi. Al-Gazzoliy avval sufiylik qarashlariga moyil bo'lsada, keyinroq ular ta'limotini tanqid qilish asosida o'z kalomini yaratadi. Biroq u o'zi istamagan holda tasavvufni nazariy jihatdan asoslab qo'yadi. Gazzoliy ta'limoticha, inson Allox kalomi – Qur'on oyatlarini o'zlashtirgunga qadar iroda erkiga ega, uni o'zlashtirib olgach, butun irodasi Allox irodasi bilan uyg'unlashib ketadi. Binobarin, uning xatti-harakatlari, butun faoliyati Allox irodasining ifodasi bo'lib qoladi.

Ma'lumki, Sharq falsafasining yetakchi yo'nalishini inson qalbini, ruhini poklashga, unda komil insonlik sifatlarini vujudga keltirishga, shu negizda ijtimoiy munosabatlarni insoniylashtirishga qaratilgan. Mol-dunyo, mansab-martabalar emas, balki ma'naviy boylik, axloqiy poklik, halollik, insof diyonatlilik odamni insonga aylanishining muhim sharti, degan fikrlar Sharqda tasavvuf (Sufiylik) ning shakllanishiga, keng yoyilishiga sabab bo'ldi.

Tasavvuf murakkab diniy – falsafiy oqim bo'lib xilma-xil yo'nalishga ega.

Unda 2 ta asosiy g‘oyaviy yo‘nalish ko‘zga yaqqol tashlanadi: bu o‘tkinchi dunyo, mol-mulk, mansabga ixlos qo‘yish Alloxni unutishga, imonsizlikka olib keladi, degan g‘oyaga tayanganlar, tarkidunyochilik targ‘ib etganlar, azruzi azaldan peshonaga yozilgan taqdir borligiga, ishontirishga intilganlar.

Ikkinchi yo‘nalish bu dunyo Allox-taolo tomonidan odamlar, ularning insonlardek yashashi uchun yaratilgani , odam shu dunyodagi ezgu ishlari bilan u dunyoda xudo visoliga yetish uchun og‘ir, mashaqqatli poklanish yo‘lida borishni targ‘ib etganlar.

Tasavvufda Ollox rahmatiga yetishning, inson ma’naviy kamolot yo‘lining 4 bosqichi mavjudligi tasdiq etiladi. Bular shariat, tariqat, shuningdek ma’rifat va haqiqatdan iborat .

Shariat – diniy qonun-qoidalar va marosimlarni, Qur’oni karim va Hadisi sharifdagi axloqiy, ilohiy ko‘rsatmalarni puxta o‘zlashtirish, aynan, izchil suratda bajarish, Xudoga ibodat qilishdir. Shariat xudoni idrok bilan tanishni ko‘zda tutadi. Shariat talablari, qoidalarini bajarmasdan tariqatga o‘tish mumkin emas.

Tariqat – yer yuzidagi lazzatlardan voz kechib, nafsni tiyib, xilvatda yashab, faqat xudo haqida o‘ylash, xayol surish, eslash, uni qalbdan sevishdir.

Ma’rifat – hamma narsaning butun borliqning asosi xudo ekanini bilish, aniqlash va shu tariqa xudoga yetish demakdir. Ma’rifatda olam, yulduzlar, Oy, Quyosh, odamlar, hayvonlar, qushlar, kapalaklar boshqa jamiki narsalar xudoning zuxuratidan iborat, odam Ollox, quyoshning zarrasi deyiladi.

Xaqiqat – o‘zini Xudoning dargohiga erishgan, vasliga yetgan, hatto u bilan qushilib ketgan deb bilishdir.

Yusuf Xamadaniy, Abdulxolik Gijduvoniy, Najmiddin Kubro, Xoja Axmad Yassaviy yo‘nalishlarining bevosita ta’sirida Markaziy Osiyoda Naqshbandiylik yo‘nalishi vujudga kelib, u yaqin va o‘rta Sharq mamlakatlariga keng yoyiladi. Xojagon yo‘nalishini boshlab bergan A.Gijduvoniy bunday degan**: «Ey farzand, barcha holatda ilm, amal va taqvo bilan bul, saloflar izidan yurib, suppot va jamoatni mahkam tut, fiqx va hadisni o‘rgan. Yana bunday fikrlar bor: «oz so‘zla, oz ye, oz uxla», «Halol ye, shubhadan xoli bo‘l» A.Gijduvoniyning 8 ta tabarruk so‘ziga B.Nakshband 3 ta manzil qo‘shib o‘z yo‘nalishini asosladi.**

Xoja Axror Vali (Ubaydullox) naqshbandiylikning targ‘ibotchisi sifatida Ta’madan jirkanish, tuhfa olmaslik, bir kasbni mukammal egallashga chaqirdi. Tasavvuf tariqatiga kirganlar uchun kasb-korning yomoni yo‘q, yomoni biror kasb bilan shug‘ullanmaslik tekinxo‘rlik, ta’magirlikka odatlanish hisoblanadi. Naqshbandiylik imoni uning «Dil ba yoru dast ba kor» ya’ni «Dilning Alloxda, qo‘ling mehnatda bo‘lsin» degan talabida yaqqol gavdalanadi. Ular amal deganda birinchi navbatda Allox nomini dilga jo qilib, ijtimoiy foydali mehnat bilan shug‘ullanishni, ta’ma va tekinxo‘rlikdan hazar qilishni tushunganlar. Naqshbandiylik yo‘nalishini qabul qilgan Amir Temur, Ulug‘bek va bir qator Turkiston xoqonlari darveshlikni qoraladilar, ulardan shu dunyo ishlari bilan shug‘ullanib, halol yashashni talab etdilar.

Darveshlar foydali mehnat bilan band bo‘lishlari uchun davlat sharoit yaratib berishi to‘g‘risida farmoni oliy chiqarganlar. Buni bajarmaganlarni jazolaganlar.

Tasavvufning so‘l qanoti diniy-falsafiy, diniy-falsafiy ta’limot sifatida aqidaparastlik, islomga nisbatan muxolifiyat bo‘lib yaqin va O‘rta Sharqda, ayniqsa Markaziy Osiyoda tabiiy va falsafiy fanlar rivojida o‘z o‘rni mavqeiga egadir.

IX-XII asrlarda Markaziy-Osiyoda dehqonchilik, hunarmandchilik va savdoning taraqqiy etishi empirik bilimlarni rivojlantirishga ehtiyoj tug‘ildi va shunga muvofiq Markaziy Osiyoning ilg‘or kishilari matematika, astronomiya, geografiya, tib fanlarini chuqur o‘rgandilar. Bu davrni o‘z mazmuni, salmog‘i, ahamiyati jihatidan Markaziy Osiyo uyg‘onish davri ham deyiladi. Uyg‘onish davri ma’daniyatining o‘ziga xos tomonlari mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat edi:

1. Dunyoviy ma’rifatga intilish, bu yo‘lda o‘tmish va qo‘shni mamlakatlarning madaniyati yutuqlaridan keng foydalanish ayniqsa tabiiy-falsafiy, ijtimoiy ilmlarni rivojlantirish.

2. Tabiatga qiziqish, tabiatshunoslik ilmlarining rivoji, ratsionalizm, aql kuchiga ishonishdan, asosiy e’tiborni haqiqatni topishga qaratilgan fanlarga berish, haqiqatni inson tasavvuri, ilmining asosi deb hisoblash.

3. Insonni ulug‘lash, ulardan aqliy, tabiiy, badiiy, ma’naviy fazilatlarini asoslash, insonparvarlik, yuqori axloqiy qonun va qoidalarni namoyon etish, komil insonni tarbiyalashni maqsad qilib qo‘yish.

4. Universallik-qomusiylik, barcha narsa bilan qiziqish bu davr ma’daniyatidan muhim tomonlaridan biri edi.

Shu davrdan boshlab O‘rta Osiyo olimlarining asarlari butun jahonga dong taralib Osiyo, Yevropadagi ilg‘or fikrlardan rivojlanishga samarali ta’sir ko‘rsatdi. O‘rta asrlarda ilg‘or falsafiy fikrlardan rivojlanishida Ibn Zokariya ar-Roziy, Al Kindi Muxammad Muso Xorazmiy, Farobiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Xayyom, Ulug‘bek, Navoiy kabi mashhur mutafakkirlarning roli kattadir.

Arab xalifaligida VII asr oxiri IX asr boshlarida xalifalikning Markaziy-Bog‘dod, Damashiq shaharlarida madaniyat kuchayib bordi. Hindcha, yunoncha, forschadan ilmiy, siyosiy, badiy asarlarning tarjimalari ko‘paydi,

Ma’daniy aloqalar avj oldi, qadimgi Yunonistonning mashhur olimlari Aristotel, Galen, Gippokrat, Arximed, Evklid kabilarning merosi keng o‘rganildi. Xalifalikning turli o‘lkalardan taniqli olimlar Bog‘dodga olib kelindi, bu yerda IX asr boshida “ Dor ur hikma” – Donolik uyi-ilm markazi tashkil topdi, unda turli ilmlar falakiyy, riyoziyot, tibbiyot, tarixshunoslik, geografiya, kimyo,falsafa, kabi fanlar rivojlandi.

Arab xalifaligida ijtimoiy taraqqiyotning turli darajasida bo‘lgan ko‘pgina xalq va qabilalar birlashgan edi. O‘ta qadimiy Ma’daniyat Markazlari bo‘lgan, Suriya, Misr, Xuroson, Mavounnahr kabi ming yilik ma’daniy merosga ega bo‘lgan xalqlar ham kiradi.

Arab musulmon ma’daniyat xalifalik tarixining dastlabki ma’daniy merosi zaminida shakllangan edi. Bu ma’daniyatning arablar, shuningdek, arablashtirilgan boshqa xalqlar tarixi uchun ham ahamiyati juda katta bo‘ldi. Xalifalikdagi arablashtirilmagan xalqlar arablarnikidan farq qiladigan o‘z milliy ma’daniyatlarini

asrlar osha tiklab olgan bo‘lsalarda, u arab-islom ma’daniyati doirasidagi yangi ma’daniyat sifatida shakllandi.

Abu Nasr Muxammad Farobiy Sirdaryo bo‘yidagi Farob qishlog‘ida tug‘ilib, o‘z Vatanida va so‘ngra Bog‘dod va Damashqda bilim oldi. U Markaziy Osiyo xalqlari va butun sharqning mashhur faylasufi va olimlaridan biri edi. Farobiy yirik faylasuf, tilshunos, mantiqshunos, matematik, astranom-ximik, medik, psixolog, musiqa san’atining yirik nazariyotchisi, grek ma’daniyati fani va falsafasini egallagan edi. Forobiy eng yirik Aristotelshunos, uning falsafasi, tabiiy ilmiy nazariyasi va asoslarini chuqur bilgan faylasuf edi. Shuning uchun Forobiyni hayotligidayoq «Al muallim as-soniy» ustoz), ya’ni 2-Aristotel deb faxriy nom bilan atagan edilar. Farobiy Aristotel asarlarini arab tiliga tarjima qilib unga sharxlar yozadi, shu bilan birga 160 dan ortiq nodir asarlar yaratdi. Forobiy “Falsafani o‘rganishda nimalarni bilish kerak?”, «Falsafiy savollar va ularga javoblar», «She’r san’ati», «Shoirlarning she’r yozish san’ati qonunlari haqida», «Ilmlarning kelib chiqishi to‘g‘risida», «musiqa haqida so‘z», «Ohanglar tasnifi haqida kitob», «Masalalar bulog‘i», «Aql to‘g‘risida», «Inson a’zolari haqida risola», «Fozil shahar aholisining qarashlari», «Davlat haqida risola» kabi qimmatli asarlar yozdi.

Farobiy xudoni «birinchi sabab», «birinchi mohiyat» deb izohlaydi. Farobiy sabab-oqibat munosabatlari yordamida birinchi sababni materiya bilan bog‘laydi. Materiya o‘z sababiga, ya’ni xudoga xos bo‘lgan barcha xususiyatlarga egadir. Materiyasiz, ya’ni oqibatsiz sabab ham bo‘lishi mumkin emas. Dunyo, tabiat xudo tomonidan qisqa muddat ichida yaratilgan emas deydi olim. Fikrini davom ettirib dunyo xudodan boshqa mohiyatga ega bo‘lgan borliq bo‘lmasdan, xudoning zuxr etishidir. Tabiatning bu holga kelishiga qadar bir qancha vaqtlar, jarayonlar o‘tgan. Shunday qilib, Farobiy barcha mavjudotni, olamni, materiyani birinchi sabab xudodan keltirib chiqaradi. Farobiyning fikricha, materiya olamdagi narsa va xodisalarning asosidir. Dunyoning moddiy asosi yoki materiya tuproq, suv, havo, olov va osmondan iborat bo‘lib Farobiy ta’limoticha osmon jismlari ham yerdagi jismlar ham ana shu unsurlarning birikuvidan vujudga keladi. Faroqbiy fikricha olamdagi har bir predmet materiya va shakldan iborat bo‘lib, materiya ham, shakl ham teng ahamiyatga ega bo‘lgan sabablardir. Farobiy ta’limoticha harakat materiyaning obyektiv xususiyati, moddiy olam esa harakatning manbaidir; olamdagi predmet va hodisalar to‘xtovsiz harakat o‘zgarishda, harakat va uzgarishning sababi esa boshlang‘ich moddiy elementlarning turlicha qo‘shilishidadir. Farobiyning bilish haqidagi fikrlari ham e’tiborga loyiq, uning ta’limoticha moddiy olam inson uning sezgisi, aqlidan avval mavjud bo‘lgan. Inson va uning aqli esa -moddiy olam rivojining oliy mahsulidir, inson hayvondan o‘zining sezgi a’zolari, tabiatni bilish qobiliyati, aqli, tili bilan farqlanadi, inson moddiy olamni birin-ketin o‘sib yetishgan sezgi a’zolari orqali bila boshlaydi va undan aqliy bilishgacha -tafakkurgacha ko‘tariladi. Farobiy bilishda inson aqlining roliga katta baho bergan. Inson aql tafakkur yordamida tabiatni, borliqni, materiyani, ijtimoiy hodisa va jarayonlar mohiyatini, ma’nosini biladi. Forobiy o‘zining ijtimoiy qarashlarida insoniyat jamiyati vujudga kelishi va

rivojlanishining muayyan tabiiy sabablarini, axloqning shakllanishini, inson va jamiyatning o‘zaro munosabatini, insoniylik, adolat, yetuk jamoa, komil inson kabi masalalarni nazariy jihatdan asoslashga harakat qiladi.

O‘rta asr feodal Sharqining buyuk olimlaridan biri o‘zbek xalqining ulug‘ farzandi entsiklopedist olim geograf, geolog, astronom, matematik, filosof, tilshunos, etnograf, tabib Muxammad Ibn Axmad Abu Rayxon Beruniy 973 yilda 4 oktyabrda qadimgi Xorazmning markaziy shahri Qiyotda tug‘ildi. Beruniy uz umri davomida 152 asar yaratdi. Shulardan eng mashhurlari «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Mahsud qonuni», «Hindiston», «Geodeziya», «Mineralogiya», «Saydana»dir. Beruniy o‘z davrida tajribaviy bilimlarni puxta egallagan olimlardan bo‘lib bu uning tabiiy-ilmiy, va falsafiy qarashlarining muayyan tomonlarini aniqlovchi muxim omillardan hisoblanadi.

Umuman, Beruniyning tabiiy-ilmiy me’rosi, aniq fanlar bo‘yicha ko‘targan muammolari o‘z davrida olamning umumiy manzarasini yaratishda, ya’ni falsafiy dunyoqarash shakllanishida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Beruniy o‘z astranomik jadvalida olamning markazi yer emas, balki quyoshdir, hamma planetalar, shu jumladan yer ham quyosh atrofida aylanadi, degan geliotsentrik nazariyani olg‘a surdi. Beruniyning bu ilmiy xulosasi 500 yildan keyin ulug‘ astronom Kopernikning geliotsentrik sistemasida ilmiy asosda tasdiqlandi. Beruniy Abu Ali ibn Sino bilan qilgan munozarasida koinotdagi planetalar, shu jumladan yer ham o‘zaro tortishish kuchiga ega degan xulosaga keladi. Uning bu nazariy xulosalari XVIII asr boshida ingliz olimi Nyuton kashf etgan butun dunyo tortish qonuni bilan ilmiy jihatdan asoslantirildi.

Insoniyat Abu Ali ibn Sinoni jahon fani yoki madaniyatining yuqori cho‘qqisi, uyg‘onish davri ma’daniyatining yirik arboblaridan biri sifatida biladi va e’zozlaydi. Ibn Sino 400 dan ortiq asarlar yozdi. Uning yozgan asarlari ilm-fanning barcha sohalariga taaluqlidir. Shundan 242 tasi bizga yetib kelgan. Alloma asarlaridan 80 tasi falsafa, ilohiyot, tasavvufga, 43 tasi tabobat, 19 tasi mantiq, 26 tasi esa ruhshunoslikka bag‘ishlangan. Ibn Sino o‘z asarlari bilan O‘rta Osiyo xalqlari ma’daniyatini dunyo ma’daniyatlarining oldingi qatoriga olib chiqdi. Shuning uchun ham «Shayxurraisi» - «Olimlar boshlig‘i» deb atalishi bejiz emas. Olimning asosiy falsafiy asari «Kitobat shifo», «Donishnoma», «Najot», «Kitobul insof», «Kitob al qonun fit tib» kitoblaridan iborat.

Ibn Sinoning «Donishnoma» nomli falsafiy kitobi 5 xil ilmni - mantiq, tibbiyot, astronomiyalar, musiqa, ilohiyatni o‘z ichiga oladi. Ibn Sino o‘tmish damlari va zamondoshlari singari xudoni e’tirof etadi, uni borliqning birinchi sababi va manbai deb tushunadi.

Ibn Sinoning aytishicha, falsafa borliq haqidagi fandir. Borliq esa abadiydir, u shaklini o‘zgartirishi, bir ko‘rinishdan ikkinchi ko‘rinishiga o‘tishi mumkin, lekin uning o‘zi, materiya yo‘qolmaydi. Uni tekshirish uchun zaruriyat, imkoniyat va sabab kategoriyalarini asos qilib olish zarur. Ushbu kategoriyalar orqali inson olam to‘g‘risida falsafiy fikrlarga ega bo‘ladi. Ibn Sinoning fikricha olamda zaruriy vujud va imkoniy vujud bor bo‘lib, ularning birinchisi hech narsaga bog‘liq bo‘lmagan bir butunlikdir; u qudratli, dono, irodali va hamma narsani biluvchi

tangridir. Ikkinchisi zaruriy vujud tangridan kelib chiqadi va uni na’moyon etadi. Bu kelib chiqish emanatsiya tarzida, ya’ni quyoshdan chiqayotgan nur shaklida mavjud bo‘lgan aql, jon va jism, ular bilan bog‘liq holda osmon jismlari kelib chiqadi. Bu javhar subegontsiya bo‘lib, undan tashqari borliqda araz akkidentsiya ya’ni narsalarning belgilari, rangi, hajmi, hidi va boshqa hislatlari mavjud. Jism shakl va materiyadan tashkil topadi. Moddiy jihatdan bir butun bo‘lgan tabiat o‘z ichki qonuniyatlari asosida rivojlanadi, binobarin, tabiiy hodisalar sababli bog‘lanishga ega bo‘lib, ularni o‘rganish mumkin.

Ibn Sino jismlar 4 unsurdan tashkil topgan, -deydi. Bu 4 unsur-havo, suv, olov, tuproq-o‘zaro bog‘liq, bir-biriga ta’sir etadi. Shundan u yoki bu narsa paydo bo‘ladi yoki yo‘qoladi. Lekin ularning asosi - 4 unsur o‘zgarmaydi, yo‘qolib ketmaydi. Materiya, harakat, vaqt va fazo bilan uzviy bog‘liqdir. Ibn Sino bilish nazariyasiga ham o‘lkan hissa qo‘shgan. U inson bilimlari real obyektiv narsalar, ularning sababiy bog‘lanishlarini bilib olish orqali vujudga keladi, degan. Inson sezgilari yordamida narsalarni hissiy bilsa, tushunchalar yordamida aqliy biladi. U bilishda tafakkurning roliga yuksak baho beradi.

Xondamir, Xattot, Sulton Ali Mashxadiy va boshqalar ijod qilganlar. Boshqa tibbiyotshunoslar singari Ulug‘bek va uning shogirdlari moddiy olamni kishi ongidan tashqarida obyektiv mavjudligiga shubha qilmadilar va uni chuqur o‘rganishga da’vat etdilar.

Qomusiy bilim egasi bo‘lgan Mirzo Ulug‘bek riyoziyot, falakiyot, musiqashunoslik, falsafa, tarix sohasida ijod qilgan. U «Bir darajaning sinusini aniqlash haqida risola», «Risolalar ilmidan musiqa», «Risolai yirik tarixiy kitob»ni ham muallifidir.

Ulug‘bekning nomini butun dunyoga yoygan, o‘ta shon-shuhrat keltirgan bebaho asar «Ziji jadidi Kuragoniy»dir. Bu asar Ulug‘bekning 20 yil davomida olib borgan astronomik kuzatishlarining natijasi bo‘lib, uning asosiy qismi yulduzlar jadvalidan iboratdir. Ulug‘bek o‘limidan keyin 200 yil davomida bu jadval o‘zini aniqligi va ilmiyligi bilan tengi yo‘q hisoblanib kelingan.

Shu davrning yorqin yulduzlaridan biri - o‘zbek xalqining buyuk farzandi, buyuk mutafakkir, siyosiy arbob, insonparvar shoir Alisher Navoiy edi. Navoiy fan, adabiyot, san’atning turli sohalariga doir qirqdan ortiq asar yaratdi. «Chor devon», «Xamsa», «Maxbub ul-qulub», «Muxokamat ul-lug‘otayin», «Majolisun nafois» va boshqalar shular jumlasidandir. Alisher Navoiyning falsafiy qarashlari turli asarlarida sochilgan holda bayon etilgan.

Ularda borliq va uning mohiyati, inson va inson hayotining mazmuni haqida chuqur falsafiy mulohazalar, insonning baxt saodati haqidagi orzu-umidlari, adolat va axloqiy kamolot, komil inson va fozil jamoa, ularga yetish yo‘llari va choralari xususida izlanishlar o‘z ifodasini topgan. Navoiy o‘z falsafiy qarashlarida hamma narsa 4 moddiy elementdan – o‘t, suv, havo, tuproqdan tashkil topgan deb ko‘rsatadi. Uningcha moddiy olam doim harakatda va o‘zgarishda. Navoiy moddiy olamni bilish mumkin ekanini asosan e’tirof etadi. Uningcha, bilishning man’bai real voqelikdir, dunyoda mavjud narsalarning hammasi xislarimizning predmetidan (obyektidan) iborat. Navoiy inson o‘zining 5 sezgi a’zolari orqali tashqi moddiy

dunyo bilan aloqa bog‘laydi va u to‘g‘risida aniq ma’lumotlarga ega bo‘ladi, ularni miyasida tafakkur yordamida umumlashtiradi, qayta ishlaydi so‘ngra muayyan xulosa chiqaradi deyiladi.

Alisher Navoiy insonni butun koinotning markaziy siymosi, butun mavjudotning toji deb biladi. Insonni bezaydigan go‘zal hislat va fazilatlar sifatida odob-axloqli, kamtar, muruvvatli, rostguy, mexnatsevar, saxiy bo‘lishni alohida ta’kidlaydi. Uning asarlari markazida turgan belgilovchi va yo‘naltiruvchi bosh masala - inson, xalq, Vatan, uning gullab yashnashi, istiqboli haqidagi muammolardir. Navoiy inson va uning taqdiri xalq va undan manfa’atlari yo‘lida g‘amxo‘rlik qiladigan kishilarni ulug‘laydi.

XVI-XX asrlarda xonliklar va amirliklar davrida Markaziy Osiyo xalqlarining fan va madaniyati o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan holda rivojlandi. Feodallar o‘rtasida bo‘lib turgan daxshatli janglar ilm ahliga qanchalik kulfatlar keltirgan bo‘lmasin, u ilm-fan, san’at va adabiyot rivojini to‘xtatib qo‘ya olmadi.

Boboraxim Mashrab (1657-1711) Markaziy Osiyo xalqlari ijtimoiy va falsafiy fikrlari rivojlanishi tarixida muhim o‘rin tutadi. U o‘sha vaqtda yaqin va o‘rta Sharq mamlakatlarida tarqalgan tasavvufning qalandarlik oqimiga e’tiqod qilib, jamiyatdagi adolatsizlikka qarshi kurash olib borishga harakat qiladi. Mashrab o‘zining g‘azal ruboiylarida ilohiy sevgini, ya’ni xudoga muhabbatni bayon qiladi. Lekin ayni bir vaqtda, mavjud dunyoning ishlarini, g‘am tashvishlarini, insoniy fazilatlarni egallash, xalqning ahvolini yaxshilash muammolarini ham unutmaydi. Mashrab din yo‘lidan chiqib ketgan, sha’riyat qonunlariga rioya qilmay, riyokorlik, muttahamlik, firibgarlik, buzuqchilik bilan shug‘ullanayotgan din vakillarni fosh qilib, ularni to‘g‘ri yo‘lga solmoqchi bo‘ladi. Boboraxim Mashrabning otashin insonparvarlik so‘zlari, isyonkor she’rlari o‘sha davrdagi hukmdorlarga sha’riyat peshvolariga mutlaqo yoqmadi. U 1711 yilda Balx hokimi Maxmudxon tomonidan osib o‘ldiriladi.

Markaziy Osiyoda falsafiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlar taraqqiyotida beqiyos katta o‘rin tutgan mutafakkirlardan biri Mirzo Abdulqodir Bedil (1644-1721) dir. U 120 ming misradan ortiq she’r va 20-25 bosma taboqdan iborat nasr yozgan. Uning «Kulliyot» nomli asarlari to‘plamiga 16 ta kitob kirgan. Falsafaga doir asarlaridan «Bilim», «Chor unsur», «Nukot» kabilarni ko‘rsatish mumkin. Mirzo Bidil falsafiy fikr negizini obyektiv olam mavjudligini e’tirof etish tashkil etadi. Uning ta’limotiga ko‘ra tabiat abadiy, undagi narsa va hodisalar o‘zaro bog‘liq hamda dunyo hamisha o‘zgarish, rivojlanish holatida turadi. Bedilning falsafiy qarashlari uning «mavjudot birligi» degan ta’limotida chuqur ifodalangan. Unda aytilishicha, modda bilan rux, tan bilan jon bir-biriga bog‘liq. Bedil nuqtai nazari bilan qaraganda, 4 unsurning turli birikmalarida noarganik dunyo paydo bo‘lgan, keyin undan organik dunyo - o‘simliklar, hayvonlar va odamzot vujudga kelgan. Bedilning tushuntirishicha, jism narsalar tarkibida zarrachalar o‘zgarib turadi, natijada yangi narsalar kelib chiqadi. Bu hayratga soluvchi sirli hodisa zaruriyat hukmi bilan bo‘ladi. Bu zaruriyat narsalarning o‘zida va ularning o‘zaro munosabatlarida mavjuddir. Bedilning ta’limoticha, inson sezgi organlariga tashqi

olam ta’sir etadi, inson narsalar mohiyatini aql-zakovati yordamida bilib oladi. Obyektiv olam bilish manbai ekanini u har doim tanqidlagan. Odam his qilish organlari yordami bilan tashqi dunyo ta’sirini idrok qiladi.

Tafakkuri bilan esa buyumlarning mohiyatini bilib oladi. Mirzo Bedilning falsafiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. U o‘z she’rlarida insonga hurmat va ehtirom bilan qarash uning kelajagini o‘ylash, halol yeb, halol yashashga da’vat etadi. Bedil dangasalik, yolg‘onchilik, kekkayish, ochko‘zlik, makr va hiyonatni tanqid qilib, kamtarlik, saxiylikni, mexnatsevarlik, odob-axloq, iymon-e’tiqodni yuksak darajada qadrlaydi.

O‘rta Osiyoning buyuk mutaffakkirlari tomonidan ilgari surilgan ma’rifat haqidagi ajoyib g‘oya va ta’limotlar XVII-XIX asrlarda adiblar, tarixchilar, faylasuflar, ziyolilar tomonidan o‘ziga xos tarzda ijodiy rivojlantirildi. Yangicha ma’no va mazmun bilan boyitildi.

Turdi Farg‘oniy, Boboraxim Mashrab, Shermuxammad Munis, Muxammad Sharif Gulxaniy, Muxammad Rizo Ogaxiy va boshqalar o‘sha murakkab tarixiy davrning fan arboblari atoqli shoir va yozuvchi olimlardir. Xalqimizning tub manfaatlarini, ozodlik, mustaqillikka bo‘lgan intilishdari, orzu-niyatlarini o‘zida aks ettirgan yangi ijtimoiy-falsafiy tafakkur-ma’rifatparvarlik Turkistonda XIX asrlar oxirlaridan boshlab paydo bo‘la boshladi. Ularning yirik namoyondalari Axmad Donish (1827-1897), Furqat (1858-1909) yillari, Zavqiy (1853-1921), Avaz Utar (1884-1914) hisoblanadi. Ularning asosiy maqsadlari xalqni ilmli, ma’daniyatli qilish, milliy ong va g‘ururini ustirish asosida el-yurtni yakdil, yaktan qilib birlashtirish, odamlar ko‘zini g‘aflat uyqusidan ochish yo‘li bilan Vatanimiz mustaqilligi, millatimiz erkinligi va ozodligini ta’minlashdan iborat edi.

XIX asr va XX asr boshlarida Turkistonda jadidlar harakati vujudga keldi. Ular xalqni ma’rifatli qilish, bilim saviyasini ko‘tarish, fikr doirasini o‘stirish, milliy istiqlolga erishishning zarur shartlaridan biri deb tushundilar va ana shu oliy janob niyatlarini amalga oshirish uchun tinmay harakat qildilar. Xalqimizning zukko farzandlari Maxmudxuja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Chulpon, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy shular jumlasiga kiradilar. Turkistonning kelajak taqdiri to‘g‘risida millatning istiqboli haqida tinmay qayg‘urdilar, izlandilar, milliy istiqlolimizga zamin yaratdilar

Test.

1.Falsafiy tafakkur Qadimgi Sharq va G‘arbda ijtimoiy ongning dastlabki shakli sifatida qanday ko‘rinishda vujudga kelgan?

Mifologiya
Ontologik
Gnoseologik
Dialektik

2.Mifologiyada dastlab qanday masalalar quyilgan?

Dunyoni yaralishi, rivojlanishi, hayot va o‘lim masalalari
Nega tug‘ildik va nimaga o‘lamiz

Biz kimmiz nega tug‘ildik
Unday nazariya bo‘lmagan

3.Antik davrda falsafa rivojlangan shaharlarni belgilang:

Ioniya, Sitsiliya, Afina
Makedoniya, Samarqand, Buxoro
Buxoro, Toshkent
Xiva, Toshkent

4.Sharq va Farb falsafasi nimaga qarab rivojlangan?

Umuminsoniy qadriyatlarga
Davlatlarga qarab
Mehnat taqsimotiga qarab
Qurollarning takomillashuviga qarab

5.Markaziy Osiyoda ma’naviy-falsafiy merosning eng qadimgisi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

Avesto
Tavrat
Injil
Qur’oni Karim

6. «Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal» g‘oyasi, kim tomonidan ilgari surilgan?

Zardo‘sht
G‘azzoliy
Nasafiy
Navoiy

7.«Men uchun bir kishi, agar u hammadan yaxshi bo‘lsa, 10000 kishiga teng» fikr kimga tegishli?

Geraklit
Platon
Suqrot
Epikur

8.«Axmoqni maqtagan aslida unga yomonlik qiladi» ushbu fikr kimga tegishli?

Demokrit
Epikur
Suqrot
Platon

9. «O‘lim qo‘rqinchli emas: men ungacha mavjudman, u mendan keyin mavjud» fikr kimga tegishli?

Epikur
Suqrot
Platon
Arastu

10.«Oliy himmatlik vaziyatdan mohirona foydalanish: aql-idrok bilan bog‘langan sahovatlilik» fikr kimga tegishli?

Platon
Suqrot
Epikur
Demokrit

11. Ilk falsafiy qarashlar dastlab qayerda vujudga kelgan?
Qadimgi Misr va Bobilda
Qadimgi Xitoyda
Qadimgi Xindistonda
G Qadimgi Gretsiyada
12. Markaziy Osiyodagi eng qadimgi din qaysi?
Moniylik
Mazdakiylik
Buddaviylik
Zardushtiylik
13. Buddizm dini qachon va qayerda paydo bo‘lgan?
Er.av. VIII asrda Xitoyda
Er.av. VI asrda Hindistonda
Eramizning II asrida Gretsiyada
Er.av. V asrda Misrda
14. Zardo‘shtiylik dinining asosiy mazmuni nimadan iborat?
Ezgulikning g‘alaba qilishidan
Yovuzlikning g‘alaba qilishidan
Ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurashdan
Olovga sig‘inishdan
15. Moniy ta’limoti qachon va qayerda vujudga kelgan?
Eramizning II asrida Hindistonda
Eramizning III asrida Eronda
Eramizning IV asrida Misrda
Eramizning I asrida Ozarbayjonda
16. Mazdakiylik ta’limoti qachon va qayerda vujudga kelgan?
Eramizning IV asrida Misrda
Eramizning III asrida Baqtriyada
Eramizning V asrning oxirida Eronda
Eramizning I asrida Ozarbayjonda
17.Quyidagilardan qaysi biri dialektik bilimlar sohasiga tegishli?
Rivojlanish va o‘zgarishlar haqidagi ta’limot
Axloq haqidagi ta’limot
Hayot haqidagi ta’limot
Qonunlar va usullarni o‘rganuvchi fan
18.Tafakkur qonunlari va usullari haqidagi fan bu -...
Mantiq
Dialektika

Etika
Tarix

19.Materialistlar deb qaysi toifadagi kishilarni aytish mumkin?

Olamni azaldan, moddiy deb, ong bu materiyaning mahsuli deyuvchilar
Ongni birinchi o‘ringa qo‘yuvchilar
Olamning markaziga madaniyatni qo‘yuvchilar
To‘g‘ri javob yo‘q

20.Quyidagi qatorlardan kimlar subyektiv idealistlar hisoblanadi?

Berkli, Yum, Fixte
Dekart, F.Bekon
Gegel, Berdyayev
Platon, Dekart

21. Mexanistik materializm tarafdorlari kimlar?

Golbax, Lametri, P.Gassendi
Gegel, Kant
Fixte, Yum
Berkli, Bekon

22.Antik falsafaning asosiy savoli?

Dunyo nimadan yaratilgan?
Hayot yashashga arziydimi?
Inson nima?
Xudoning borligini qanday asoslash mumkin?

Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari: (G‘arb falsafasi)

Reja:

1. G`arbiy Yevropada uyg`onish davri falsafasi.
2. XVII- XVIII asrlar g`arbiy Yevropa falsafasi F.Beko.Dekart, D.Yum.
3. Nemis klassik falsafasi
4. Karl Marks g`oyalarining qadrlanish va qadrsizlanish sabablari
5. Rus kosmizmi.

Tayanch tushunchalar:

Rim imperiyasi, xristianlik dini, sxolastika, apologetika, realizm, nominalizm, uyg‘onish davri falsafasi, ingliz falsafasi, fransuz falsafasi, nemis mumtoz falsafasi, XX asr falsafasi, tarix falsafasi.

G‘arbiy Yevropada O‘rta asr tushunchasi, I-asrdan XV asrgacha davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrda xristianlik shakllanib, davlat din mafkurasiga aylandi hamda falsafiy fikrlar yakka xudochilik g‘oyalari asosida rivojlana boshladi.

Xristian dogmalarining asoslarini ifodalovchi - «patristika», uning yirik vakillari Ter Gulian (150-222), Avgustin (354-430) va Xristian falsafasi shakllanib, g‘arb mamlakatlarining majburiy darsligiga aylangan, sxolastika (yunoncha shole-shkola), bir necha yillar davomida hukmron mafkura bo‘lib qolgan edi. Falsafa to‘la ravishda dinga bo‘ysundirib qo‘yilgan edi. Tabiatni o‘rganish, hur fikrlash gunoh hisoblanib, inkvizitsiya (cherkov sudi) buyrug‘i bilan jazoga tortiladi, quvg‘in qilinadi. Ammo fan taraqqiyotiga dinning har qancha to‘sqinlik qilishiga qaramay feodalizm davrida madaniy-ma’naviy taraqqiyot rivojlanishi to‘xtamadi. Feodalizm sxolastik falsafasida X-XIV asrlar davomida 2 asosiy oqim - nominalizm va realizm o‘rtasida keskin kurash davom etdi. Bu 2 oqim o‘rtasidagi kurashning asosiy masalasi umumiy tushunchalar mohiyati masalasi edi. Realistlar umumiy «universallar» -real narsalardan oldin va ulardan tashqarida xudo tarzida yoki xudo ongidagi g‘oya tarzida yashaydilar, deb hisoblaydilar. Bu kurash Platonning umumiy tushunchalargina realdir, sezgilarimizda ifodalangan ayrim buyumlar esa shu g‘oyalarning ko‘rinishlaridan iborat degan fikrga mos keladi.

Nomenalistlar esa, aksincha ayrim buyumlarning borligini e’tirof qilib, «univeraliyalarni» inkor etadilar. Umumiy g‘oyalar faqat odamning fikridagina mavjud bo‘lib, umumiy tushunchalar sifatida yashaydilar deb isbotlaydilar.

Nomenalistlar Ioann Rostselin (1265-1308), Ioann Duns Skott (1265-1308) va Uilg‘yam Okkam (1300-1350) aloxida predmetlargina real mavjuddir, umumiy tushunchalar esa nomlarni ifodalaydi va ular ikkilamchidir deb hisoblagan bo‘lsalar, realizm vakillari Anselg‘m Kenterberiskiy (1033-1109)) va boshqalar umumiy tushunchalar obyektiv mavjud bo‘lib, aniq narsalar ularning ifodalanish shakllaridir, deb hisoblaganlar. Nomenalizm o‘rta asr sxolastikasidagi matematik yo‘nalishning alohida, o‘ziga xos ko‘rinishi edi. Tabiatdagi narsa va hodisalarning obyektiv mavjudligi haqidagi nomenalistlarning ta’limoti cherkov obro‘yining

pasayishiga, dunyoning xudo tomonidan yaratilganligi, ruhning birlamchiligi va moddiy hodisalarning ikkilamchiligi haqidagi diniy aqidalarga putur yetkazishga olib kelar edi.

XIII asrda italiyalik xudojuy faylasuf Foma Akvinskiy (1225-1274) realizm mo‘tadil namoyondasi sifatida maydonga chiqdi va u xudoning birlamchiligi, ruhning o‘lmasligi kabi g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi Tomizm falsafasiga asos soldi. Foma Akvinskiy Arastuning shakl birlamchi boshlang‘ich va faol ijodiy kuch, moddiy predmetlar esa shaklning mahsuli va (passiv kuchdir) degan fikrini davom ettirib dunyoda turli shakllar bor, jon ham shu shakllardan biridir, shakllarning shakli Xudodir, deb e’lon kildi. Uning ta’limotiga ko‘ra dunyo fazoda chegaralangan vaqtda cheklangan bo‘lib, u faqat tabiatdan tashqaridagi kuch orqali harakat qilishi mumkin. Tabiatdagi mavjud narsa va hodisalarni bilish mumkin, ularni sezgilar vositasida aqlga joylash mumkin, umumiy tushuncha - Xudoni bilish mumkin emas.

XIX asrning 70-yillarida Foma Akvinskiyning bu falsafiy ta’limoti katolik cherkovining rasmiy nazariyasi deb e’lon qilindi, uni bilish har bir dindor uchun majburiy bo‘lib qoldi. XV asr oxiri va XVI asr boshlarida G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida feodalizm yemirilib, kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari shakllana boshladi. Yangi geografik yo‘llarning ochilishi ishlab chiqarishni yanada rivojlantirdi. Bu esa mashina texnikasini rivojlantirishga olib keldi. Ma’naviy hayotda bu davr tabiatni o‘rganishning kuchayishi, cherkov, din ta’siriga qarshi kurashning avj olishi, falsafa va boshqa gumanitar fanlarining ravnaqi bilan tavsiflanadi. Bu davrni odatda Renesans - Uyg‘onish davri deb ataydilar. Uyg‘onish davridan boshlab fan g‘oyat tez sur’atlar bilan rivojlana boshladi. Tabiatni ilohiyatdan holi qilish ana shu vaqtdan boshlandi. Yer va osmon jismlari mexanikasi, shu bilan birga unga xizmat matematik usullarni kashf etish va takomillashtirish sohasida buyuk ishlar qilindi. Bu davrda N, Kopernik, J. Bruno, I. Kepler, G. Galiley singari mutafakkirlar maydonga keladi.

Polyak astronomii Kopernik (1473-1543) olamning geliotsentrik sistemasini yaratdi. Bu nazariya matematik dunyoqarashi umumiy rivojining tabiiy ilmiy zamini bo‘ladi.

Nemis astronomi Iogann Kepler (1571-1630) geleotsentrizm nazariyasidan kelib chiqib, sayyoralar holatini kuzatish asosida sayyoralar harakatining 3 qonunini kashf qildi. Bu Kopernikning Quyosh sistemasi tuzilishi manzarasini aniqlashtirishga va butun olamning tortilish qonunini ochishga imkon beradi. Shuning bilan bir qatorda Keplerning kashfiyotlari dunyoga diniy nuqtai nazardan qarashga putur yetkazdi, lekin shuni ham esdan chiqarmaslik kerakki, Keplerning dunyoqarashi diniy idealistik tushunchalardan ham holi emasdi.

Italiyan olimi J. Bruno (1548-1600) ham «Uyg‘onish davrining» yirik vakillaridan bo‘lib, sxolastik falsafaga va Rim katolik cherkoviga qarshi kurash olib bordi. Bruno, Kopernik kashfiyotidan foydalanib, mazkur falsafiy qoidalarning fizik va astronomik mazmunini aniqlashtirdi. U tuproq, havo, suv, olov va efirdan iborat Yer bilan Osmon olamning fizikaviy yakka jinsligini tasdiqlaydi, deb o‘qtiradi. Bruno ta’limoticha, moddiy olam birlamchi bo‘lib, ong

esa ikkilamchidir: moddiy olam mangu, u hech qanday Xudo tomonidan yaratilgan emas: bordan yo‘q, yo‘qdan bor bo‘lmaydi: u cheksizdir: moddiy olam cheksiz turlarda ifoda etiladi, lekin bu cheksiz narsa va hodisalar bir-biri bilan o‘zaro aloqada, birlikdadir. Quyosh sistemsidan tashqari yana sanoqsiz dunyolar, Quyoshlar, Yerlar mavjud, dunyo - bepoyon, moddiy olam uning kichik bir qismidir, Yer esa bepoyon olamning zarrachasidir. Brunoning ta’limoti, uning xatti-harakatlari cherkov tomonidan qattiq tanqid ostiga olinib, cherkov sudining xukmi bilan u 1600 yil 16 fevralda Rimdagi Gullar maydonida yondirilgan.

XVII-XVIII asrlar G‘arbiy Yevropa taraqqiyotida yangi davr hisoblanadi. Bu asrlar Yevropa mamlakatlarida feodalizmning halokati va kapitalizmning g‘alabasi davri edi. Kapitalistik ishlab chiqarish usuli yangi ishlab chiqaruvchi kuchlar ehtiyojiga muvofiq tabiatni ilmiy bilish jarayonini tezlashtiradi. Dengizda savdo munosabatlarini rivoji kemasozlikning taraqqiyoti, yangi shaharlar qurilishi astranomiyaga, matematika va mexanikaga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirdi. N. Kopernik gemotsentrik nazariyasining ta’siri tobora kuchaya bordi. Kepler sayyoralar harakat qonunini ochdi. Galileyning mexanika nazariyasi vujudga keldi. Nyuton mexanikaning asosiy qonunlarini kashf qildi. Tibbiyot fanlaridagi bu yutuqlar o‘rta asr sxolastik va diniy mafkurasining reaktsion mohiyatini ochib tashladi, yangi dunyoqarash uchun ilmiy asos tayyorladi. Lekin shunga qaramay yangi ilmiy dunyoqarashning asosi mexanik va metafizik tabiatga ega edi. Yangi davr materializmining metafizik tabiati bu davr tarixiy sharoiti va tabiat fanlari taraqqiyoti darajasi bilan bog‘liqdir. Chunki kadimgi davrdan boshlab yig‘ilgan tabiat to‘g‘risidagi bilimlar umumiy xarakterga ega bo‘lib, u yangi davrning tajribasi va fan talabiga javob bera olmaydi. Shuning uchun yangi davr tabiatshunoslari tabiatdagi hodisalar dalillarni yig‘ish va o‘rganish, chuqurroq bilish maqsadida ularni bir-biridan ajratib o‘rgandilar. Buning natijasida tabiatshunoslar tabiat hodisalarida, predmetlarni o‘zaro bog‘lanish, bir-birini taqqoslash, rivojlanish yo‘q degan xulosalarga keldilar. Ular uchun olam qotib qolgan tasodifiy hodisalar yig‘indisidan iborat bo‘lib ko‘rindi.

Yangi davr materializmining mexanik tabiati quyidagilar bilan belgilanadi. XVI-XVIII asrlarda tabiat fanlari ichida mexanika va matematika fanlari katta yutuqlarga ega bo‘lib, Kime va biologiya esa bu davrda hali u qadar rivojlanmagan edi. Shuning uchun ham bu davrning olimlari mexanika va matematikani tabiatdagi barcha hodisalarga tadbiq etish mumkin bo‘lgan umumiy fan, tabiatdagi barcha sirlarni ochib beruvchi kalit deb e’lon qildilar. Nyutonning fizik tadqiqotidagi mexanik sababiyat matematika tomonidan asoslanganidan keyin mexanitsizm yana mustahkamlandi. Mexanitsizm ta’limoticha, olamda har bir jismning holati boshqa jismning holatiga, shuningdek, har jismning tengligi yoki harakati sababi boshqa jismning harakati yoki tengligiga bog‘lik. Predmet yoki hodisalarning o‘zi harakat manbai emas, u o‘z-o‘zidan harakat qilish qobiliyatiga ega emas. Materiya harakatining sababi uning o‘zidan tashqarida bo‘lib, harakat esa sifat jihatidan bir xil bo‘lgan predmetlarning makonda oddiy o‘rin almashuvidan iboratdir. Mexanitsizm materiya harakatining mexanik shaklinigina e’tirof etib, uning boshqa shakllarini inkor etdi. Natijada mexanistlar tabiatdagi sifat o‘zgarishlarni,

taraqqiyotni butunlay inkor etdilar. Shuning uchun mexanitsizmning bilish metodi amalda metafizik metoddir.

Bu davr dunyoqarashda fan yetuk o‘rinni egallaganligidan falsafada ham birinchi o‘ringa bilish nazariyasi - gnoseologiya muammolari chiqqanligini hisobga olish kerak.

Bu davr falsafasiga ingliz faylasuflari Fransis Bekon (1561-1626), Tomas Gobbs (1588-1676), Jan Lokk (1632-1704), gollandiyalik Benidikt Sninoza (1631-1677), frantsiyalik Rene Dekart (1596-1650), nemis faylasufi Gotfrid Vilg‘gelg‘m Leybnits (1646-1716) falsafaga katta hissa qo‘shdilar.

Bilish nazariyasida emperizm va ratsionalizm oqimlari vujudga keldi. Metafizik mexanistik materializmning yirik vakillaridan biri empirizm oqimining asoschisi ingliz olimi Frensis Bekondir. Bekon o‘zining «Yangi organon», «Yangi Atlantida» nomli asarlarida O‘rta asr sxolastikasini tanqid qildi va tabiatni materialistik tushunishni asosladi. Bilishning birdan-bir to‘g‘ri yo‘li uning fikricha, tajriba, tahlildir. Bekon mavjud bo‘lgan barcha narsa va hodisalarga induktiv usul asosida yondoshish g‘oyasini ilgari surdi.

Uning fikricha bilish alohidaliklardan, ya’ni xususiy dalillardan umumiy ilmiy nazariyalar tomon yo‘nalish asosida bo‘ladi. Biroq u empirik usulga ortiqcha e’tibor berib, ratsional usulning rolini pasaytirib yubordi.

Metafizik materialist bo‘lgan Bekon bilish jarayonida hissiy bilish bilan aqliy bilishning o‘rtasidagi aloqadorlik dialektikasini to‘g‘ri ochib bera olmadi. Bekon fikricha, moddiy dunyoning asosini materiya tashkil qiladi. Uning ta’biricha, materiya xilma-xil sifatga ega bo‘lib, uning miqdori o‘zgarmasdir, hech narsadan hech narsa vujudga kelmaydi, hech narsa yo‘q bo‘lib ketmaydi. Materiyaning umumiy miqdori hech qachon o‘zgarmaydi, u kamaymaydi ham, ko‘paymaydi ham.

XVII asrning eng yirik mutafakkirlardan yana biri fransiyalik Rene Dekort edi. U ratsionalistik oqimning asoschisi bo‘lib, uning ta’limoticha, tabiatni bilishning birdan-bir yo‘li, uslubi - aqliy bilishga asoslangan deduktiv uslubdir. Ilmiy - falsafiy bilimlarning kelib chiqishi va rivojlanishida aql benihoya muhim rol o‘ynaydi. Faqat aqlning yordamida inson o‘ziga zarur bo‘lgan haqiqatga erishishi mumkin. Haqiqat esa bu aql nuqtai nazaridan aniq, ravshan va shubhasiz bo‘lgan nazariy xulosalardir.

Bilishning birdan-bir manbai - tafakkurdir.Ratsionalist sifatida Dekart sezgilarning bilishdagi rolini pasaytiradi. Uningcha, ko‘z, quloq, til, badan va burun tashqi dunyo to‘g‘risida noto‘g‘ri ma’lumot beradi. Shuning uchun bilishning manbai ham, bilimlarimizning haqiqatlik o‘lchovi ham aqldir. Shundan kelib chiqqan holda, Dekart o‘zining «Men fikrlayman - demak, men mavjudman» degan mashhur tezisini ilgari suradi.

Yangi davr falsafasida XVIII asr fransuz materialistlarining qarashlari ham diqqatga sazovor. XVIII asr fransuz materializmining asosiy vakillari P. Golg‘bax, D. Didro, K. Gelg‘vetsii, J. Lametri hisoblanadi. Ularning ta’limoticha hamma mavjud narsalar moddiydir. Kishi sezgi a’zolariga ta’sir etuvchi hamma narsalar materiyadir. Materiya mayda molekula va atom zarrachalaridan tashkil topgan.

Fransuz materialistlarining fikricha materiyaning asosiy xususiyalari - hajm, og‘irlik, o‘tkazmaslik, figura va mexanik harakatdan iborat. Ular harakat materiyaning ajralmas xususiyati, harakatsiz materiya bo‘lishi mumkin emas, deb tahkidlaydilar. Harakatning sababini ham tabiatning o‘zidan deb tushunadilar. Biroq frantsuz materialistlarining fazoda oddiy o‘rin almashuvidan iborat edi.

Fransuz materialistlarining bilish nazariyasi materialistik tabiatga ega bo‘lib, ularning ta’limoticha, tabiat predmetlarini bilish - ularni sezishdan iborat, sezgining manbai esa obyektiv reallikdir, chunki materiyagina a’zolarimizga ta’sir eta oladi. Fransuz materiyalistlari bilish jarayonida aqlni rolini inkor etmadilar. Ularning fikricha, sezgilarimiz - tafakkurning asosi va mazmuni, tafakkur esa miyaning bir qancha sezgilarini yig‘ish, qo‘shish, solishtirish qobiliyatidan iboratdir. Shu bilan birga ularning bilish nazariyasi metofizik tabiatga ega bo‘lib, bilish oddiydan murakkabga qarab boruvchi dialektik jarayon emas, balki sezgi, fikr va mulohazalarni yig‘indisidan iborat deb tushuntirar edi. Ikkinchidan fransuz materialistlari bilish jarayonida kishilarning ijtimoiy-tarixiy tajribasi ahamiyatini tushunmadilar. Fransuz materialistlarining ijtimoiy hodisalar haqidagi fikriga kelsak kishi ijtimoiy muhitning mahsuli, ijtimoiy muhit qanday bo‘lsa, kishi ham shunday bo‘ladi. Ijtimoiy muhitni yangilash faqat ma’rifatning rivoji orqaligina amalga oshirish mumkin. Lekin ular ijtimoiy muhit ma’nosida davlatni, siyosiy idoralar, uning qonunlarini, ustqurmani tushunardilar. Natijada fikr jamiyatni boshqaradi. Kishilardan fikri qanday bo‘lsa, jamiyat ham ijtimoiy muhit va uning tuzilishi ham shunday bo‘ladi degan xulosa kelib chiqadi. Ammo ular bo‘lajak jamiyatning asosiy vazifasi hamma kishilarni adolatli ravishda baxt huquqi bilan ta’minlashdir. Ular davlatni vujudga keltirgan iqtisodiy sababni, davlatning sinfiy mohiyatini va tarixiy xarakterini ochib bera olmadilar. Falsafa fanining rivojlanishida nemis faylasuflarining nam hissasi katta.

Nemis klassik falsafasi XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning boshida vujudga keldi. Bu falsafaning asosiy vakillari I. Kant, I. Gvixte, Shelling, Gegel va Feyerbaxdir.

Nemis klassik falsafasining asoschisi XVIII asr nemis burjuaziyasining mafqurachisi I. Kant edi. Kant falsafasining rivoji asosan 2 davrga bo‘linadi. 1-davr tanqidiy falsafagacha bo‘lgan davr, 2-davr tanqidiy falsafa davri. Kant o‘z falsafasining dastlabki davrlarida asosan tabiatshunoslikning falsafiy masalalari bilan shug‘ullandi. U 1785 yilda yozgan eng yirik asari «Butun umumiy tabiiy tarix va osmon nazariyasida Quyosh sistemasi koinotdagi boshlang‘ich katta tumanlikni aylanma harakat qilishi natijasida kelib chiqqan deb hisoblaydi. Bu jarayonning sababi «dastlabki turtki» emas, balki o‘zaro tortilish va itarilish orasidagi ziddiyatdir. Shu sababli Quyosh sistemasidagi barcha sayyoralar Kant ta’limotiga ko‘ra, uzoq davom etgan tabiiy-tarixiy taraqqiyotning mahsulidir. Kantning bu xulosasi uning tabiat hodisalarini dialektik tarzda tushunganligidan dalolat beradi. XVIII asrning 70-yillaridan boshlab Kant faoliyatining ikkinchi davri boshlandi va «Sof aqlni tanqid», «Prolegomenlor», «Muhokama qobiliyatini tanqid» kabi asarlarida o‘zining transtsendantal yoki tanqidiy idealizm tizimini asosladi. Bu asarlarida u o‘z e’tiborini insonning bilish qobiliyati va

imkoniyatlarini tahlil qilishga qaratib, obyektiv realligining mavjudligini e'tirof etadi va uni «narsa o'zida» deb ataydi. Lekin uningcha «narsa o'zida»ni bilish mumkin emas.

Kant fikricha tajribaviy bilimlar alohida-alohida, bir-biri bilan bog'lanmagan hodisalarni ifodalasa, tajribagacha bo'lgan aniq bilimlar esa hodisalar o'rtasidagi umumiy sababiy va zaruriy bog'lanishlarni, ya'ni qonuniyatlarni ifodalaydi. Dunyo qonunlarning obyektiv xususiyatga ega ekanligini Kant mutlaqo tan olmaydi. Dunyo qonunlarining obyektiv xususiyatga ega ekanligini Kant mutlaqo tan olmaydi. Uning fikriga ko'ra, kishilarning idroki tabiatga qonunlar ato qiladi, shuning uchun ham inson aqli tabiatga moslashishi kerak emas, balki tabiat inson aqliga moslashishi kerak.

Kant axloq masalalariga ham katta e'tibor berdi. Uning fikricha jamiyatdagi har bir kishining xulq-atvori, irodasi obyektiv reallikdan tamomila ajralgan va o'zgarmasdir. Axloqning asosi esa kishilar ongidagi o'zgarmas amr-farmondir.

Nemis klassik falsafasining eng yirik vakili G. F. Gegel edi. Gegel to'g'risida so'z borganda uning falsafasidagi ikki tomonni -dialektik usul va metafizik konservativ sistemasini farq qilmoq zarur. Agar dialektik usul o'zida «Ratsional magizni» - taraqqiyot to'g'risidagi ta'limotda gavdalantirgan falsafa shakli bo'lsa, uning dogmatik idealistik sistemasi esa konservativ taraqqiyotning to'xtab qo'lishini talab etadi va shuning natijasida dialektik usulga tubdan ziddir. Gegel falsafada obyektiv idealist sanaladi. Uningcha dunyoviy ruh, aql birlamchi bo'lib, moddiy olam ikkilamchi, dunyoviy ruhning gavdalanishidan iboratdir. Dunyoviy ruh, uningcha yaratuvchi sabab bo'lib, moddiy olam uning mahsulidir. Tabiat va jamiyatdagi har bir buyum yoki hodisa shakl bo'lib, uning mazmuni esa, ruh yoki aqldir. Chunki bu predmetlar ruhning gavdalanishidan o'zga narsa emas. Gegel o'z falsafiy sistemasida har vaqt ruh va tabiatning yoki tafakkur va borliqning aynanligiga suyanadi. Shuning uchun unda moddiy jarayonlar har doim mantiqiy jarayon kabi ifoda etiladi. Gegel fikricha dunyoviy ruh mangu, u tabiat va jamiyatdagi hamma voqealarning manbai va harakatlantiruvchi kuchidir. Gegelning falsafiy tizimida ijobiy tomonlari ya'ni «ratsional mag'zi» ham bo'lib, bu uning dialektikasi va bilish nazariyasida o'z aksini topgan. Bu esa «Logika fani» asarida bayon etilgan. Bu asarida Gegel dialektikaning 3 asosiy qonuni:

1. Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni.
2. Miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tish qonuni.
3. Inkorni inkor etish qonuni mohiyatini chuqur va atroflicha asoslab beradi.

Shuningdek mazkur asarda falsafaning barcha darajalari ham tavsiflanib berilgan. Bilish nazariyasiga Gegelning qo'shgan hissasi shundan iboratki, u logika (mantik) va bilish nazariyasining birligini asoslab berish bilan bir qatorda dialektik mantiqning birinchi kengaytirilgan tizimini yaratadi.

Kant va Gegel falsafasini chuqur tanqid ostiga olgan faylasuf Lyudvig Feyerbax edi. Feyerbax fikricha olam tabiatdangina iborat, tabiat hech qanday ilohiy kuchga muhtoj emas. Bilish nazariyasida Feyerbax obyektiv reallikni bilish mumkinligini shubhasiz e'tirof etadi. Bilish jarayonida, u sezgilar roliga alohida

ahamiyat beradi. Uningcha, sezgi tashqi moddiy olamning kishi sezgi a'zolariga ta'siri natijasida vujudga keladi. Feyerbax ta'limoticha, sezgilar bilish jarayonining boshlang'ich bosqichi bo'lib, u kishini tashqi dunyo bilan bog'laydi. Uning ta'limotida inson falsafasining asosiy mazmunini tashkil etadi. Uningcha faqat inson orqali tabiat o'zini payqaydi, sezadi va o'zi to'g'risida fikrlaydi. Shuning uchun falsafa antropologiya bilan bog'liq bo'lishi lozim. Feyerbax o'z falsafasida borliq va tafakkur, obyekt va subyekt, fizikaviy va ruhiy jarayonlarning birligini asoslab berishga intiladi. Ijtimoiy hayotni tartibli borishi uchun barcha dinlar o'rniga muhabbat dinini yaratishga uringan. U Gegel sistemasining konservativ tomonini tanqid qilib, biroq shu bilan birga uning dialektik uslubini ham uloqtirib tashlaydi.

Xulosada shuni aytish mumkinki, nemis klassik falsafasi ayniqsa Gegel dialektikasi XIX asr falsafasini shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi va shu bilan birga nemis falsafasi keyingi falsafiy fikr tarixida bir bosqich bo'lgan Markscha falsafaning nazariy manbai bo'lib qoldi.

K.Marks hamma yovuzliklar asosida begonalashgan mehnat yotadi, buning sababi esa, mulkning xususiyligi deb bildi. "O'z asarlarida, ayniqsa«Kapital» da ana shu nuqtai nazarni isbotlashga urindi. Din o'rniga ateistik dunyoqarash va e'tiqod qaror topishi kerak, deb hisobladi." Insoniyat tarixi sinfiy kurashlar tarixidan iborat, degan g'ayriilmiy qarashlardan kelib chiqib, u jamiyat taraqiyotini sun'iy ravishda formatsiyalarga bo'lib, insonlar faoliyatini, har bir hududning o'ziga xos xususiyatlari asosida tarixan shakllanadigan ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlarni anglashda bir tomonlama tasavvurlar vujudga kelishiga asos soldi. Uning fikricha, keyingi formatsiya ilgarigisidan taraqqiy etgan bo'lishi kerak edi. Xususiy mulkchilik va talonchilikka asoslangan XIX asr G'arbiy Yevropasida kapitalizm uning nazarida oxirgi nafasini olayotgandek tuyuldi, kapitalistik jamiyat o'rniga ijtimoiy mulkka asoslangan va bayrog'iga Tenglik, Adolat, Erk, Birodarlik yozib qo'yilgan qandaydir umumiy (kommuna) jamiyati butun dunyoda muqarrar barpo bo'lishini «bashorat» qildi.

Marks ma'naviy hayot, unda g'oyalarning roliga yuksak baho bergan holda, ularni moddiy ishlab chiqarishning soyasida qoldirgan edi. Natijada ilmiy-texnika taraqiyoti va ilmiy-texnika inqilobi sharoitida boshlangan ma'naviy inqiroz Marks ta'limoti negizida tobora chuqurlashib bordi.

Marksizmning qadr topib keng yoyilishiga, ijtimoii adolatsizlik, tengsizlik, zulmga asoslangan davlat tuzumlari va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga qarshi G'arb muhitida tobora avj olib borgan norozilik hamda inson ongi va ruhiy olamida asrlar davomida qaror topgan xaloskorga ishonch ruhi katta rol o'ynadi.

Ijtimoii taraqqiyotning barcha masalalariga «proletariat manfaatlari» nuqtai nazaridan qarash tarixiy jarayonlarni soxtalashtirishga olib keldi.

6. Marksizm falsafasining keyingi taqdiri asosan V.I.Leninning nazariy va amaliy faoliyati bilan bog'liq. U marksizmga «ijodiy yondoshish» shiori ostida Marksning «burjua xususiy mulkchiligini tugatish» haqidagi qarashlari, davlat qurilishi masalasidagi ta'limotini mensimadi. Milliy siyosat soxasida Lenin buyuk davlatchilik shovinizmini qaror

toptirish, yangi mustamlakachilikni joriy etishning nihoyatda makrli sistemasi bo‘lgan va SSSR deb atalgan «Kizil imperiya»ni vujudga keltirdi. Bu davrda fanning nazariy muammolarini o‘sha negizda siyosiylashtirish tabiiyotshunoslikning ko‘plab yutuqlarini xolisona umumlashtirishga imkon bermadi.

7. Marksizm falsafasining katta salbiy oqibati ayniqsa madaniy va falsafiy merosga bo‘lgan munosabatda yaqqol namoyon bo‘ldi. Bu falsafaning metodologik printsiplari - sinfiylik (partiyaviylik) xolis xulosalar chiqarishga imkon qoldirmas edi, ularga mone kelmaydigan har qanday ta’limot qoralanar hatto butunlay inkor qilinardi. O‘tmish merosining qay darajada umumbashariy, umumjahon ahamiyatiga ega ekanligi e’tibordan chetda qolar edi. Bu, nafaqat umuminsoniy qadriyatlarning ahamiyatini mensimaslikka olib kelardi, shu bilan birga, ma’lum darajada xalqlarda milliylik ruhini, milliy merosdan g‘ururlanish ruhini tutatishga qaratilgan harakat edi. O‘tmish merosiga bunday yondashishning zararli tomonlaridan yana biri shunda ediki, oxir-oqibatda o‘tmish merosi bir yoqlama talqin qilinardi, ko‘pincha esa ochiqdan-ochiq soxtalashtirilardi. Ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy, ma’naviy, mafkuraviy sharoitlarni hisobga olmagan holda, o‘tmish merosini yuqorida eslatib o‘tilgan prinsiplar qolipiga solib talqin qilinardi.

Xullas, leninizm albatta marksizm zaminida paydo bo‘ldi. Ammo ijtimoiy hodisalarga munosabat belgilashda ilmiylikdan uzoqlashib, marksizmni dunyoviy dinga aylantirdi. Shu asosda avvalo sobiq, Rossiya imperiyasi hududida sotsializm shiorlari ostida barcha mulk davlat monopoliyasiga aylantirilib, uni boshqarish usuli sifatida ma’muriy-buyruqbozlikka asoslangan totalitar davlat tizimi qaror topdi. Leninizm bayrog‘i ostida tashkil etilgan jahondagi «Sotsialistik lager» deb atalgan mamlakatlar modeli sotsializm (kommunizm) g‘oyalarini qadrsizlantirdi, Oxir-oqibatda «Sotsialistik lager» tarqab ketdi. SSSR deb atalgan imperiya tarix sahnasidan ketib, «ikki qutbli» dunyo «ko‘p qutbli» dunyoga aylandi.

1. XVII asrning oxiridan boshlab rus falsafasi taraqqiyotida yangi davr boshlandi. Bu davr Pyotr I ning Ovrupo madaniyatini, fan va texnika yutuqlarini Rossiyaga singdirish harakatlari bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, u tabiat va jamiyat taraqqiyotiga ilm-fan nuqtai nazaridan yondashishga qaratilgan ilmiy - falsafiy fikrlarning vujudga kelishi bilan tavsiflanadi. Ana shunday tarixiy sharoitda M.V.Lomonosov va A.N.Radishchevlarning falsafiy dunyoqarashlari shakllandi.

M.V.Lomonosov tabiiyot fanlarini ancha olg‘a surgan XVIII asrning entsiklopedist olimi edi. U Rossiyada ilmiy tabiiyotshunoslik, rus metallurgiyasi, geologiya, fizika, ximiya, mexanika, rus adabiy tili va falsafasining asoschisi, shoir, ritorik, rassom, talantli pedagog edi.

Lomonosovning fikricha, barcha narsalar atomlardan tashkil topgan bo‘lib, ular o‘z navbatida mayda zarrachalar (korpuskulalardan) iborat. Korpuskulalar va molekulalarning turlicha qo‘shiluvi narsalarning xilma-xilligini belgilaydi.

Lomonosov materiya doimo harakatda, rivojlanishda degan g‘oyani olg‘a surgan, u materiya va harakatning saqlanish umumiy qonunini kashf etadi. Uning

bilish nazariyasida sezgilarning manbai tashqi olam deb, narsa va hodisalarning sababini bilishda hissiy bilish va tafakkur birligi zarur qilib quyiladi.

XVIII asrning ikkinchi yarmida Rossiyada yashab ijod qilgan rus yozuvchisi A.N.Radishchev o‘zining ongli hayotini o‘nta davrda mehnatkash ommaning rus krepostnoy tuzumini o‘zgartirish uchun kurashi bilan bog‘ladi. Uning borliq, materiya, harakat, fazo va vaqt, olamni bilish haqidagi falsafiy fikrlari «Peterburgdan Moskvaga sayohat», «Inson, uning o‘lishi va o‘lmasligi to‘g‘risida» asarlarida to‘la ifoda etilgan.

2. XIX asr rus falsafasini rivojlanishiga rus inqilobchi-demokratlari V.G.Belinskiy (1811-1848), A.N.Gertsen (1828-1889), N.G.CHernishevskiy (1820-1880], N.A.Dobrolyubov (1836-1861), N.P.Ogarov (1813-1877) va boshqalarning xizmatlari katta. Ular M.V.Lomonosov, AI.Radishchev hamda nemis faylasuflari Gegel va Feyerbaxning ilmiy-falsafiy meroslarini atroflicha o‘rganib, yangi falsafiy ta’limot yaratdilar.

Inqilobchi-demokratlarning falsafiy qarashlari asosan ilmiy xarakterga ega edi. Ular falsafani hayot bilan bog‘lashga urindilar. Ularning fikricha, dialektika tabiat va jamiyatning rivojlanish qonunlaridan iboratdir.

Tarixda hech qachon jamiyatning hukmron tabaqalari o‘z imtiyozlaridan ixtiyoriy tarzda voz kechmaganlar, shuning uchun jamiyatning ko‘pchilik qismi adolatga erishishi avvalambor jamiyatni iqilobiy qayta qurish va xalq hokimiyatini o‘rnatish, deb tasavvur qilishgan. Dehqonlar inqilobi, jamoatchilikning turli tabaqalarining umumiy inqilobi demokratlar tushunchasidagi jamiyat rivojining istiqbolini tashkil qilardi.

3. Ilmiy falsafa bilan bir qatorda ana shu davrlarda F.M. Dostoevskiy, K.N.Leontg‘ev, N.F.Fedorov, L.N.Tolstoy, V.Solovg‘evlarnint diniy falsafasi paydo bo‘ldi. Ular rus xalqining va u orqali «barcha insonlar najot topadigan» «xudojo‘ylik» g‘oyasining rivojlantirishni davom ettiradilar.

4. Rus falsafasi rivojidagi yo‘nalishlardan yana bir nufuzli ahamiyatiga ega bo‘lgan ta’limot - rus kosmizmidir. Rus kosmizmining diqqatga sazovor joyi shuki, qator faylasuflar, mutafakkir olimlarning (N.F.Fyodorov, V.S.Solovg‘ev, N.A.Umov, K.E.TSiolkovskiy, A.I.Vernadskiy,P.A.Florenskiy, A.O.Chijevskiy va boshqalar) asarlarida inson va kosmos birligi, insonning kosmik tabiati va inson faoliyatining doirasi muammolari qo‘yilgan edi. Kosmizm g‘oyalariga bo‘lgan qiziqish asosan XX asr boshlarida G‘arbiy Ovrupoda vujudga kelgan bo‘lsa, ammo u o‘zining keng targ‘ibotini Rossiyada topgan edi.

Rus kosmizmi asosan uch yo‘nalishda bordi: birinchisi, xayoliy (fantastik) yo‘nalish: masalan, K.E.TSiolkovskiy g‘oyalari; ikkinchisi geologik yo‘nalish (N.F.Fedorov) va uchinchisi tabiat ilmi bilan bog‘liq bo‘lgan yo‘nalish (N.AUmov, V.I.Vernadskiy) K.E.TSiolkovskiy (1857-1935) o‘zining ilmiy-gexnik loyihalari bilan hozirgi zamon kosmonavtikasining shakllanishiga muhim hissa qo‘gan edi. U «Kosmik falsafa» degan asarida kosmosni hayotning turli-tuman shakllari eng sodda ko‘rinishlaridan tortib to quyosh energiyasini bevosita o‘zlashtira oladigan, boqiylikka, nurga to‘la bo‘lgan mavjudotlar bilan to‘ldirilgan, deb tasvirlagan edi.

Xozirgi zamon kishisi, TSiolkovskiy fikricha, evolyutsiya bo‘g‘inining hali tugallangan bosqichi emas, Aql-zakovat va ijodiyot kelajakda insonni kosmos darajasiga ko‘taradi. U Yerda vaqt o‘tishi bilan insonning jismoniy tabiati ham o‘zgarib, u yulduzlararo fazoda yashaydigan oliy organizmlar darajasiga yaqinlashadi.

V.I.Vernadskiy (1863-1945) turli fan sohalari bo‘yicha yirik tadqiqotlar olib borgan. Uning rahbarligida bioximiya, geoximiya, biosfera sohalarida salmoqli ishlar qilingan. Vernadskiy inson bilan kosmosni mikro va makro bosqichlarda uyg‘un va o‘zaro bog‘liqligi haqida gapirib, antropokosmizm nazariyasiga asos soldi. Uning g‘oyalari ilmiy dalillarga asoslangan edi. Noosfera to‘g‘risidagi ta’limoti XXI asrga kelib, o‘z dolzarbligini yaqqol namoyon etdi. Chunki inson aqli-zakovati, uning mevasi bo‘lgan ilmiy-texnika kashfiyotlaridan faqat bashariyat manfaatlari yo‘lida foydalanishga qaratilgan takliflari alohida ahamiyat kasb etmoqda. V.I.Vernadskiyning bu falsafiy qarashlari katta metodologik va dunyoqarash ahamiyatiga ega bo‘lib, ilmiy falsafa ravnaqiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shildi.

Xulosa shuki, birinchidan, rus falsafasida insonparvarlik yo‘nalishidagi qarashlar ancha kuchli edi. Rus falsafasida o‘ziga xos antropokosmizm, personalizm mavjud edi. U asosan, inson haqida diniy qarash qobig‘ida targ‘ib qilinsa, ikkinchidan rus falsafasi, xususan, rus kosmizmi qanday yo‘nalishlarda bo‘lishidan qat’iy nazar, inson aql-zakovatining qudratiga, uning cheksiz imkoniyatlari mavjudligiga ishonch tug‘diradi, inson koinotni zabt etishi, olis sayyoralarga sayohat qilishi mumkinligi haqida bashorat qilish imkonini berardi.

Test.

1. «Do‘stlik - birga yashashning zaruriy shartidir» ushbu jumla kimga tegishli?

Arastu
Platon
Levkipp
Iskandar

2. «Odamlar seni bilmasliklaridan g‘am chekma, o‘zini odamlarni bilmaslngingdan g‘am chek» ushbu fikr kimga tegishli?

Konfutsiy
Lao Szi
Suqrot
Arastu

3. Milet maktab asoschisi kim?

Fales
Geraklit
Demokrit
Pifagor

4. Milet maktabining qaysi namoyandasi olamning asosiga suvni qo‘ygan.

Fales

Geraklit
Demokrit
Pifagor

5. Anaksimen olam asosiga nimani qo‘ygan.

Havoni
Suvni
Tuproqni
O‘tni

6. Olam asosiga apeyronni qo‘ygan G‘arb faylasufi kim?

Anaksimandir
Demokrit
Platon
Fales

7. Anaksagor urug‘larni nima deb atagan?

Geomemeriyalar
Geometriyalar
Sikloplar
Ximeyralar

8. Empidokl olov, havoni nima deb atagan?

Efir
Sfinks
Xufu
Xeops

9. Zardo‘shtiylikda borliqning substansional asosi nima?

Olov
O‘t
Tuproq
Havo

10. «Yuksak fazilatli inson bilan munosabatlarda xushmuomala bo‘lishi, mamlakatni boshqarishda izchnl bo‘lishi lozim, ishda imkoniyatlardan kelib chiqish, harakatda vaqtni hisobga olish ...» ushbu fikr muallifini toping?

Laotszi
Konfutsiy
Forobiy
Beruniy

11. Platonning g‘oyalar haqidagi ta’limoti qaysi asarlarida o‘z aksini topgan?

Bazm, Fedon, Fedor, Davlat
Metafizika, G‘oyalar haqida
Teatet, Parmenid
Sofist, Kritiy

12. Konfutsiychilik nechanchi asrda vujudga kelgan?

Mil.av V asr

Mil. av. VII asr

Mil. av. III asr

Mil.av. IV asr

13. Qaysi faylasuf, «Davlatni boy va zodagon kishilar emas, balki ishning ko‘zini biladigan oqil odamlar boshqarishi lozim», deb hisoblaydi?

Suqrot

Platon

Arastu

Epikur

14. «Ayni bir daryoga ikki marta tushishi mumkin emas, ikkinchi marta tushayotgan odamga yangi suvlar oqadi», degan fikr qaysi faylasufga tegishli?

Geraklit

Suqrot

Arastu.

Platon

15. «Dialektika» so‘zini ilk bor kim ishlatgan?

Suqrot

Platon

Empidokl

Epikur

16. Zenonning dialektikaga bag‘ishlangan mashhur asari?

Baxslar

Munozaralar dialektikasi

Qarama qarshilik dialektikasi

Dialektika

17. G‘arbiy Ovrupo Uyg’onish davri falsafasining asosiy xususiyatlari nimada?

Barcha javoblar to‘g‘ri;

Bu falsafa asosiy e’tiborni inson muammosiga oid masalalarga qaratadi;

Fan va texnika rivoji uchun diniy g’oyaviy to‘siqlarni olib tashladi;

Xristian dini ta’siri doirasidan chiqib ketdi;

18. **XX asr tarixga qanday asr bo‘lib kiradi?**

Jahon urushlari asri bo‘lib kiradi;

Termoyadro urush xavf-xatari asri bo‘lib kiradi;

Milliy-ozodlik harakatlari asri bo‘lib kiradi;

Ogohlantirish asri bo‘lib kiradi.

19. Germenevtika» so‘zining ma’nosi nima?

Talqin qilish san’ati

Tushuntirish falsafasi

Tushunish falsafasi

Barchasi to‘g‘ri

20. Germenevtikaga kim asos solgan?

J.Berkli
F.Shleyermaxer
K.Yung
K.Popper

21. Postpozitivizm oqimining yirik vakillari kimlar?

F.Nitsshe, O.Shpengler, A.Bergson, A.Shopengauer
Karl Popper, Jorj Soros
Anri Avenarius, Bertran Rassel
M.Sheler, G.Plesner, A.Gelen

22. Eng yangi G‘arb falsafasi ko‘pgina oqimlarning o‘z dunyoqarashlarida qo‘llagan uslublari qaysi bandda to‘g‘ri ko‘rsatilgan:

Materializm
Irratsionalizm
Ratsionalizm
Ruhiy tahlil

3-мавзу. Онтология, гносеология ва оиг фалсафаси.

Borliq tushunchasining mohiyati va ma’nosi. Ontologiya — borliq falsafasi. Borliqning asosiy turlari. Moddiy predmetlar, jarayonlar borligi. Materiya kategoriyasi. Uning xususiyatlari va namoyon bulish shakllari haqida zamonaviy qarashlar. Harakat tushunchasn. Harakatning asosiy shakllari va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik. Harakatning abadiyligi, uzluksizligi va tinchlikning nisbiyligi tamoyili. Fazo va vaqt-materiya mavjudligini obektiv shakllari. Fazo bilan vaqtning umumiyligi va farqi. ularning birlign, abadiyligi, cheksizligi.

uzluksizligi.

Inson olamning tarkibiy qismi. «Odam», «inson», «individ» va «shaxs» tushunchalari. Antropologiya - inson tug‘risidagi fan.

Insonning tabiati va mohiyati. Inson mavjudligida jism va Rux (ma’naviyat) uygunligi. Inson borligi: biologik zot, ijtimoiy vujud. Odam evolyutsiyasi haqida hozirgi zamon fani xulosalari. Odamning insonga aylanib borish jarayoni. Insonning ma’naviy ruxiy olami. Falsafada insonni yashashi va o‘limi masalasi. Suitsid, evtanaziya muammolari.

Bilish - voqelikning in’ikosi. Bilish muammosining falsafada qo‘yilishi va hal qilinishi. Bilishning obekta va subekti. Bilish ziddiyatli, murakkab, dialekti k jarayon. Bilishning asosiy bosqichlari. Missiy bilish va uning shakllari: sezgi idrok, tasavvur. Mantiqiy bilish va uning shakllari: Tushuncha, xukm, xulosa. Hissiy va mantiqiy bilishning birligi. Sensualizm va ratsionalizm. Bilish jarayonida ijod, intuitsiyaning roli va hozirgi zamon falsafasida bularning ifodalanishi.

Hakiqat tushunchasi. Haqiqatning obektivligi. Nisbiy va mutloq, harakat, ularning dialektikasi. Haqiqatii bilishda amaliyotning roli.

Ilmiy bilish, uning kundalnk bilishdan farqi va o‘ziga xos xususiyatlari. Fanda «Empirik» va «Nazariy» bilish, ularning xususiyatlari.

Ong - yuksak darajada shakllangan materiya ko‘rinishi - odamzod miyasining mahsuli. Ong bilan ruhiyat o‘rtasidagi borliqlik. Inson ongining tabiiy-ijtimoiy jihatlari. Ong va in’ikos. In’ikosning mohiyati, asosiy shakllari. Hissiyot va tasavvur. Iroda va tafakkur o‘z- o‘zini anglash, tuyg‘ular, onglilik va ongsizlik muammolari. Ong, tip va mehnat, ularning bog‘liqligi. Ijtimoiy va individual ong. Ijtimoiy ong, uning darajalari va asosiy shakllari. O‘z-o‘zini va milliy o‘zlikni anglash.

Takrorlash uchun savollar.

1. Borliq tushunchasi nimani ifodalaydi?
2. Borliqning qanday turlarini bilasiz?
3. Materiya tushunchasi to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
4. Harakat va uning asosiy shakllari to‘g‘risida so‘zlab bering?
5.Olam nima va unda odamning o‘rni qanday?
6. Borliq va yo‘qlik tushunchalari to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
7. Borliqning murakkab tuzilishi deganda nima tushuniladi?
8. Real, konkret va virtual borliqning o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering?
9. Mavjudlik va reallik nima?
10. Fazo va vaqt, makon va zamon qanday ma’nolarni anglatadi?
11. Hayot nima va uning mazmuni nimadan iborat?
12.Falsafa tarixida bilish masalasi qanday hal qilingan?
13.Bilish nima? Bilishning asosiy bosqichlari nimalardan iborat?
14.Hissiy va mantiqiy bilishning xususiyatlari, shakllari haqida so‘zlab bering.
15.Haqiqat nima?
16.Nisbiy hamda mutloq haqiqatlarni o‘zaro munosabatlari qanday?
17.Haqiqatning mezonlari haqida nimalar deya olasiz?
18.Amaliyotning bilish jarayonidagi ahamiyati nimalardan iborat?
19.Ilmiy bilishning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
20.Ilmiy bilishning empirik darajasini tavsiflab bering?
21.Bilishning empirik darajasi qaysi usullardan foydalaniladi?
22.Ilmiy bilishning nazariy darajasining xususiyatlari haqida so‘zlang?

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular. Javob yozish kerak.

1.Falsafa qonun va kategoriyalarining ijtimoiy jarayonlar dialektikasidagi roli
2. Bilim inson ma’naviy kamoloti omili.

Adabiyotlar:

1.G`arb falsafasi tarixi. D. Po`latova, G. Ro`ziyeva.Toshkent. 2018.
2.Axmedova M. Falsafa. – Toshkent: UFMJ, 2006.
3.Yusupov E., Mamashokirov S. Falsafa Darslik, -Toshkent: 2005.
4.Shermuxamedova N.A. Falsafa. Toshkent: “Noshir”, 2012. 5.Shermuxamedova N.A. Gnosiologiya. (Uchebnik). - Toshkent: 2009 y 6.Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish. (O‘quv qo‘llanma). - Toshkent: 2017.

7.Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi. (O‘quv qo‘llanma). - Toshkent: 2017 y
8.Shermuxamedova N.A. Insonfalsafasi. (Darslik). - Toshkent: 2016.
9.Иззетова Э., Пулатова Д. Философия (Учебное пособие). Тошкент: 2017.
10.M.Sharipov, Fayzixodjayeva D. Mantiq. O‘quv qo‘llanma. -Toshkent: 2004.

Internet manbalari:

1. www. Ziyo net.uz
2. www.faylasuf.uz
3.www. .ziyo.uz
4. www. muslim.uz
5. www. religions.uz

3-Mavzu: Ontologiya, gnoseologiya va ong falsafasi.

Reja.

1. Borliq kategoriysi.Borliq turlari?
2. Materiy kategoriysi.Dunyoning moddiy birlig?
3. Materiyning mavjudlik shakllari.Harakat va r
4. Fazo va vaqt materiyning yashash shakli?
5. Ong va tilni bo`lg`usi pedagogiarda tutgan o`rni.

Tayanch tushunchalar: olam, ontologiya, borliq, borliq shakllari, individual borliq, ijtimoiy borliq, real borliq, virtual borliq, yo‘qlik, mavjudlik, reallik, materiya, harakat, rivojlanish, fazo, vaqt, tabiat, tabiiy muhit, biosfera, noosfera, hayot, bilish nazariysi,ong, Gnoseologiya, bilish, agnosititsizm, skeptitsizm, hissiy bilish, mantiqiy bilish, amaliyot, haqiqat, ilmiy bilish.

Falsafa o‘rganadigan qaysi bir masalani olmaylik, u borliq muammosi bilan bog‘liq ekanligini ko‘ramiz. Borliq muammosi falsafadagi har qaysi dunyoqarash va metodologik muammolarning asosi hisoblanadi.

Dunyoning mavjudligi, ya’ni borligi to‘g‘risida bahs yuritgan faylasuflar bu masalaga turlicha yondoshganlar: ularning ba’zilari, dunyo avval ham bo‘lgan, hozir ham mavjud, bundan keyin ham mavjud bo‘ladi deyishsa; boshqalari, dunyo avval mavjud bo‘lmagan, ilk borliq bu olamdagi barcha narsa va hodisalarni yaratuvchi Xudodir.

Ilk borliq, ya’ni birinchi mavjud-Tangri Olloh barcha mavjudod borlig‘ining birinchi sababidir deyiladi.

«Ilk bor bo‘lgan, (ya’ni Tangri)-deydi Farobiy, o‘zining asl mohiyati bilan boshqa barcha narsrlardan farqlidir» (Abu Nasr Farobiy «Fozil odamlar shahri», 131 bet). Chunki, u modda ham emasdir, sub’yekt ham emasdir, uning sur’ati ham bo‘lmaydi, uning bir o‘zi bu borliqda yakka-yu yagonadir, u shu jihatdan ham birinchidir.

Fan va amaliyot taraqqiyoti natajasida dunyoning yaratilganligi, uning fazo va vaqtda chegaralanganligi,cheklanganligi to‘g‘risidagi oldingi qarashlar asta-

sekin cheksiz chegarasizligi, shu bilan birga uning bir butunligi, doimiyligi, abadiyligi to‘g‘risidagi qarashlar bilan almashinib borgan.

Abadiy dunyodagi barcha narsalar, turli-tuman jonsiz va jonli organizmlar, insonlar va ularning faoliyti hatto, bir butun jamiyat ham, shubhasiz vaqtincha o‘tkinchidir. Demak, borliq abadiy, ammo undagi barcha narsalar o‘zgarishda va rivojlanishda; bir holatdan ikkinchi holatga, bir turdan ikkinchi turga o‘tishda, chunki ular bordan yo‘q, yo‘qdan bor bo‘lmaydi.

Borliq tushunchasi falsafiy kategoriy sifatida bilishning yuqori bosqichi-abstrakt tafakkurgagina xos bo‘lib, fikrlash jarayonida kishilar bu tushuncha orqali dunyodagi alohida narsalar, ularning konkrekt belgilari va xossalari haqida emas balki, dunyodagi barcha narsalar, voqea hodisalar, jarayonlar o‘rtasidagi eng umumiy jihat-ularning realligi haqida fikr yuritadilar. Borliq tushunchasi yordamida kishilar dunyoning ob’yektiv mavjudligi, uning cheksizligi, abadiyligi va bir butunligi haqida ilmiy va falsafiy tasavvurga ega bo‘ladilar.

Borliqning asosiy shakllarini tabiiy borliq yoki tabiat borlig‘i, inson borlig‘i, ma’naviy borlig‘i tashkil etadi.

Tabiiy borliq o‘zaro bog‘liq, lekin bir-biridan farq qiluvchi quyidagi ikki ko‘rinishdan iboratdir:

1 .Tabiatdagi narsa va hodisalarning, jism va jarayonlarning asl tabiiy borlig‘i;

2.Tabiyatdagi narsa va hodisalar asosida inson tomonidan yaratilgan narsalarning tabiiy borligi.

Tabiiy borliqning birinchi ko‘rinishi insongacha insondan va uning ongidan tashqarida, unga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjud bo‘lgan narsa va hodisalar, jarayon va holatlarni o‘z ichiga olgan tabiatdir. Bu ba’zi adabiyotlarda «birlamchi tabiat» deb ham ataladi. Bu «birlamchi tabiat» makonda, cheksiz zamonda abadiydir, u hamma yerda doimo mavjud. Inson shu «birlamchi tabiat» materiallari asosida amaliy faoliyti va ongi bilan «ikkilamchi»tabiatni yratadi. «Ikkilamchi tabiat» narsa va hodisalari ijtimoiy hayotda inson ehtiyojini qondirish zaruriyti, ijtimoiy turmushda biron bir funksiyani bajarish zaruriyati tufayli yaratiladi.

«Birlamchi» va «ikkilamchi» tabiatlar borlig‘i o‘zaro aloqadorlikda bo‘lib, bir tomondan, bir biri bilan umumiylikka , o‘xshashlikka, birlikka ega bo‘lsa, ikkinchi tomondan, bir-biriga nisbatan ma’lum farqlarga ham ega.

«Birlamchi tabiat» makonda cheksiz, zamonda abadiy va doimiy bo‘lsa, «ikkilamchi tabiat» inson mavjudligi bilan, uning faoliyti va ongi bilan, bir butun jamiyat bilan bog‘liq holda mavjud bo‘ladi, u fazo va vaqtda ibtidoga va imtihonga ega.

«Birlamchi tabiat» inson unda yashab, uni bilib borayotgan bitmas-tuganmas, cheksiz dunyo (olam) bo‘lsa; «ikkilamchi tabiat» esa inson tabiat qonunlarini bilib olish tufayli, ular asosida yaratgan narsa va hodisalar, jarayonlar dunyosidir.

«Ikkilamchi tabiat» bir tomondan , «birlamchi tabiat» kabi, ob’yektiv, real borliq bo‘lib, u inson ongidan tashqarida mavjud bo‘lsa, ikkinchi tomondan, u insonga bog‘liq hamdir, chunki unda kishilarning maqsadlari, g‘oyalari, bilim va

mehnatlari mujassamlashgan bo‘ladi. «Ikkilamchi tabiat», «birlamchi tabiat» va kishilik (inson) borlig‘ini bog‘lovchi, ular chegarasidagi borliq bo‘lib, tabiiy borliqning o‘ziga xos shakli sifatida «birlamchi tabiat» borlig‘iga nisbatan ham, inson borlig‘iga nisbatan ham nisbiy mustaqil borliqdir.

Borliqning o‘ziga xos shakllaridan yana biri – bu inson borlig‘idir. Inson borlig‘ida, avvalo, insonning tabiat taraqqiyotining mahsuli sifatida tabiiy borliqning har ikki shakliga oid tomonlar bilan birga, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsuli sifatida unda ijtimoiy va ma’naviy borliqning ham barcha shakllariga xos tomonlarning yig‘indisi majassamlashgandir.

Inson borlig‘i jamiyat taraqqiyotining birdan bir manbaidir. Ijtimoiy borliq hodisalarning barcha turlarini o‘z ichiga qamrab oladi. Jamiyat bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ijtimoiy etnik, oilaviy va h.k. munosabatlardan tarkib topgan, doimo taraqqiy etib, rivojlanib turadigan jonli organizmdir. Jamiyt tabiat taraqqiyotining zaruriy oqibatidir.

Jamiyatning moddiy texnika bazasi, iqtisodiy asoslari, siyosiy tashkilotlari: davlat va hokimiyat idoralari, armiy, politsiy, sud, prokuratura, siyosiy partiylar, turli-tuman jamoat tashkilotlari maorif sistemasi, madaniyat, fan va texnika, ilmiy tadqiqot institutlari va laboratoriylari, ommaviy axborot muassasalari, aloqa bo‘limlari va h.k. ijtimoiy borliqning har xil ko‘rinishlarini tashkil etadi.

Borliq faqat moddiy shaklda emas, ma’naviy, ruhiy shaklda ham namoyon bo‘ladi. Ma’naviy borliq inson tomonidan yaratilgan rang-barang madaniyat va san’at asarlari, til, ilmiy kashfiyotlar, g‘oyalar, axloq-odob qoidalari, falsafiy, estetik, badiiy, siyosiy, tafakkurlash madaniyati, ruhiy kechinmalar, diniy tasavvurlar, tushunchalar va h.k. majmui kiradi.

Kishilarning ichki holati, kechinmalari, his-tuyg‘ulari, ruhiy ma’naviy dunyosi, o‘y-fikrlari, maqsad va manfaatlari hamda kayfiytlari ham ma’naviy borliqning ko‘rinishlaridir.

Ma’naviyat, jamiyat, shaxs, millat taraqqiyotining manbaidir. Shuni alohida qayd etish lozimki, mustaqillik tufayli o‘zbek xalqining ko‘p asrlik boy tarixi, ilmiy, madaniy va diniy merosini o‘rganish, undan xalqning umumiy va bebaho mulki sifatida foydalanishga keng yo‘l ochildi. I.A.Karimov aytganlaridek, «Ma’naviyat insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch qudratidir. U yo‘q joyda hech qachon baxt-saodat bo‘lmaydi». Shuning uchun ham xalqning ma’naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish O‘zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasi bo‘lib hisoblanadi. Ushbu borliq shakllari (narsalar borlig‘i, inson borlig‘i, ijtimoiy borliq, ma’naviy borliq) bir butun dunyoning alohida ko‘rinishidir. Borliq ana shu alohida shakllar o‘rtasidagi bog‘liqlikni, umumiylikni ko‘rsatadi. Borliqning umumiy aloqadorligi alohida narsalarning mavjudligi bilan namoyon bo‘ladi.

2-masala

Moddiy olamning asosida yotuvchi umumiy mohiyatni axtarish falsafada materiya haqidagi tasavvurlarning rivojlanishiga sababchi bo‘ladi.

Umuman materiya — bu tushuncha, abstraktsiy, fikrning mahsulidir, chunki, olamda «umuman materiya» uchramaydi, balki materiyaning konkret ko‘rinishlari

uchraydi. Shunday qilib faylasuflar barcha moddiy ob'yektlarga xos xususiytlarni umumiy tarzda ifodalash uchun qo'llaydigan tushuncha bu «materiya»dir. Olamdagi barcha narsa va hodisalarning umumiy belgisi, xususiyti shundan iboratki, ular bizning ongimizdan tashqarida, mustaqil ravishda mavjuddir. Hamma narsaga xos bo'lgan bu umumiy xususiyat materiya tushunchasida o'z aksini topadi. Demak, materiya tushunchasining falsafiy mazmuni:

a) narsalarning bizning ongimiz, xohishimizga bog'liq bo'lmagan holda mavjud ekanligi;

b) ular bizning sezgi va bilimlarimiz manbai ekanligini bildiradi. Materiyaning falsafiy tushunchasi faqat hozirgi davrda fanga ma'lum bo'lgan obyektlargina emas, balki kelgusida kashf qilinadigan narsalarni ham o'z ichiga oladi, bu ma'noda uning metodologik ahamiyati kattadir. Materiy abadiy, bepayon, cheksiz, hech qachon yo'qolmaydi. Materiyaning abadiyligi uning hech kim tomonidan yaratilmaganligini, hamda mavjud bo'lishini, har bir yangi kashfiyot tufayli uning yangi tomonlari ochilishini bildiradi. Materiya tushunchasining tabiiy-ilmiy ma'nosi uning tuzilishi, bitmas tuganmas xususiytlarining xilma-xilligini bildiradi va ular tabiat haqidagi alohida fanlar-fizika, ximiy, biologiy kabilar tomonidan o'rganiladi.

Materiya ikki xil modda va maydon ko'rinishida mavjud. Modda ko'rinishidagi materiya tinchlik massa ko'rinishiga ega bo'lib, bular majmuasiga proton, neytron, elektron va pozitronlarni, ulardan tashkil topgan atom va malekulalarni kiritish mumkin. Malekulalardan tarkib tongan mikroskopik jismlar hozirgi zamon fani bergan ma'lumotlarga asosan har xil holatda bo'lishlari mumkin: suyuq, qattiq, gazsimon, plazma, epiplazma, fizik vakuum holatida. Materiyaning maydon ko'rinishi modda ko'rinishidan harakatdagi massaga ega bo'lishi va yorug'lik tezligiga yaqin tezlik bilan harakat qilishi orqali farq qiladi. Elektromagnit maydon, yadro maydoni gravitatsion maydon – bular materiyaning maydon ko'rinishlaridir. Tajribalar orqali materiyaning modda va maydon ko'rinishining bir-biriga aylanishini ko'rish mumkin. Demak, materiyaning modda va maydon ko'rinishining bir-biriga aylanishi zarralarning zarra va antizarralardan tashkil topganligini ko'rsatadi.

Materiyaning benihoyligi va cheksiz tuzilishi, murakkab xususiytlari haqidagi masala moddiy olamning sifat jihatdan bitmas-tuganmasligini o'z ichiga oladi. U organik jihatdan dunyoning moddiy birligi prinsipi bilan bog'liq.

Dunyoning moddiy birligini quydagilardan yaqqol ko'rishimiz mumkin:

1. Borliq, materiya ob'yektiv reallikdir, u inson ongi irodasi, xohishi va istagidan tashqari real mavjuddir. Demak, dunyoning moddiy birligi insonning sezgilari va tushunchalariga bog'liq bo'lmay, bu birlik inson ongidan tashqaridagi undan mustaqil va abadiy mavjud bo'lgan materiyaning xususiyatlari bilan ifodalanadi.

2. Dunyo moddiydir, barcha narsalar va hodisalar materiyaning turli shakllaridagi ko'rinishidan iborat. Olamda faqat materiya va uning aniq sifati va xususiyatlari mavjud. Masalan, oddiy chang zarrasidan suv tomchisigacha, murakkab molekuladan mineralga qadar bo'lgan narsalarni olib ko'raylik, ular turli

ko‘rinishga sifat va xususiytga ega bo‘lib, bir-biridan juda farq qiladi. Ularning hammasi materiyaning muayyan ko‘rinishidir, bularning zaminida hamma jismlar uchun umumiy bo‘lgan substatsiya-materiya yotadi. Mana shuni birlik deb ataymiz. Bunday birlik yolg‘iz bizning sayyoramizdagina emas, balki cheksiz koinotning barcha bepayon tomonlarida ob’yektiv mavjuddir.

3. Olamdagi barcha narsa va hodisalar qanday mazmunga, shaklga ega bo‘lishidan va koinotning qaysi yerida joylashishidan qat’iy nazar o‘zaro chambarchas bog‘liq hamdir. Bu boliqlik olamning shunday bir umumiy zaruriy tomoniki, tabiatdagi biror predmet yoki jamayatdagi biror hodisa shu bog‘lanishdan chetda qola olmaydi. Barcha mavjud narsalar va hodisalar, ularing sifat va xususiytlari o‘rtasidagi bu bog‘lanish ham olamning birligini ko‘rsatuvchi dalildir.

Fazoda cheksiz va vaqtda abadiy harakat qilib turuvchi materiya butun mavjudodning negizi va manbaidir.

3 -masala

Tabiat va jamiyatda hamma narsa harakatda o‘zgarishda, o‘zaro ta’sirda va o‘rin almashishdadir. Hech bir mutloq tinch turgan, harakatsiz narsa yo‘q. Olamdagi narsalar harakatda bo‘lib, ular bir-biriga aylanadi, biri ikkinchisini yo‘qotadi, biri ikkinchisidan paydo bo‘ladi. Har qanday narsaning mavjud bo‘lishining o‘zi avvalombor uni tashkil etuvchi elementlarning o‘zaro ta’sirda bo‘lishini taqozo etadi. Masalan, atom qobig‘ini tashkil etuvchi yadro va elektron o‘rtasida muayyan o‘zaro ta’sir bo‘lgani sababligina atom mavjuddir; tirik organizmda ham uni tashkil etuvchi molekulalar, hujayra va to‘qimalar o‘rtasida o‘zaro ta’sir jarayonlari sodir bo‘ladi; jamiyatning mavjud bo‘lishi uchun ham kishilar faoliytlari o‘rtasida o‘zaro munosabatlar bo‘lishi zarurdir. Demak, o‘zaro tahsir materiya xossalarini, munosabat va holatlarini o‘zgarishga olib keladi.

Ilmiy falsafa ta’limotiga ko‘ra harakatning falsafiy ma’nosi shuki, u materiyaning borliq shaklidir. Materiya harakati qanday shaklda bo‘lmasin u obyektiv ravishda materiyadan ajralmagan holda sodir b´ladi. Materiyaning mavjudlik shakli bo‘lgani uchun harakatning obyektiv real bo‘lish xususiyati materiyaning ham xususiyati hisoblanadi. Eng umumiy tarzda harakat umuman o‘zgarishdan, moddiy ob’yektlarning har qanday o‘zaro ta’siridan iborat. Materiya harakati hech qanday tashqi turtkiga, g‘ayri tabiiy kuchga muhtoj emas. Materiya o‘ziga xos ichki qarama-qarshiliklarga ko‘ra harakat qiladi, rivojlanadi. Materiya harakati va taraqqiyotining manbai ichki qarama-qarshiliklardir.

Harakatni rivojlanish tushunchasi bilan aralashtirmaslik kerak. Harakat real voqealikda ro‘y beradigan hamma o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi. Rivojlanish deganda esa, jadal sur’atlar bilan ilgarilab boruvchi o‘zgarishlar tushuniladi. Rivojlanish sifat o‘zgarishlarining natijasi bo‘lib, u o‘zgarish narsa va hodisalardagi qarama-qarshi tomonlar orasidagi kurashning natijasidir. Bunday o‘zgarishlar natijasida eski o‘rnida yangisi paydo b´ladi. Shuning uchun «harakat» tushunchasi «rivojlanish» tushunchasiga qaraganda kengroq tushuniladi.

Harakatning bir-biridan farq qiluvchi shakllari mavjuddir. Harakat shakllarini turkumlashda quyidagi qoidalarga tayanadilar.

1) harakat shakllari bir-biri bilan sifat jihatdan farq qilib, ularning har biri materiyaning tashkiliy tuzilishi darajalarining muayyan bosqichida namoyon bo‘ladi;

2) harakat shakllari bir-biri bilan kelib chiqish jihatidan (genetik jihatdan) ketma-ket bog‘langandir, ya’ni harakatning murakkab shakllari uning nisbatan soddaroq shakllaridan kelib chiqandir;

3) harakatning yuqori shakllari tarkibida quyi darajadagi harakat shakllari qatnashadi, ya’ni harakatning quyi shakllari uning yuqori shakllariga ham mansubdir, ammo harakatning yuqori shakli o‘zidan quyi shaklidagi harakatga mansub emasdir. Shu qoidalarga tayangan holda harakatning bir necha shaklini ajratib ko‘rsatish mumkin. Ular quydagilar:

1) mexanik harakat (jismlarning fazodagi siljishi);

2) fizik harakat (issiqlik, yorug‘lik, elektr, magnitizm);

3) kimyoviy harakat (kimyoviy birikish va parchalanish, agregat holatlarning bir-biriga o‘tishi)

4) Biologik harakat (organik hayot)

5) ijtimoiy harakat.

4 – masala

Materiyaning cheksiz ravishda sodir bo‘lib turadigan harakati, o‘sishi, o‘zgarishi va taraqqiyoti hamisha fazo bilan vaqtda yuz beradi. Harakat singari fazo va vaqt ham materiya mavjudligining tub ob’yektiv shaklidir. Demak, harakat materiyadan ajratish mumkin bo‘lmaganidek, fazo va vaqtni ham materiyadan ajratib bo‘lmaydi.

Fazo harakatdagi materiya mavjudligining tub ob’yektiv shaklidir. Fazo tushunchasi moddiy ob’yektlaring birgalikda mavjudligini va bir biridan uzoqligini, ularning ko‘lamini, bir-biriga nisbatan joylashish tartibini ifodalaydi.

Vaqt ham materiyaning mavjudlik shakli bo‘lib, moddiy jarayonning keng yoyilish izchilligini, bu jarayonning turli bosqichlari, bir-biridan ajralganligi, ularning davom etishini, ularning rivojlanishini bildiradi. Har bir narsa o‘z o‘tmishi, hoziri va kelgusiga ega. Narsa va hodisalarning ba’zi birlari avvalroq, boshqalari keyinroq bo‘ladi. Bular esa vaqt tushunchasini ifodalaydi. Fazo va vaqt o‘rtasida umumiy, o‘xshash tomonlar hamda ayrim farqlar mavjuddir:

-birinchidan, fazo bilan vaqtning ob’yektivligi, inson ongi, irodasi va g‘oylariga bog‘lik emasligi, ular o‘rtasidagi umumiylikning muhim tomonlaridan birini tashkil etadi,

-ikkinchidan, fazo bilan vaqt abadiy azaliydir. Fazo bilan vaqtning abadiyligi materiyaning abadiyligidan kelib chiqadi,

-uchinchidan, fazo bilan vaqt cheksiz chegarasiz bepayondir.

Fazoning o‘ziga xos xususiyati va vaqdan farqi, uning uch o‘lchovga ega bo‘lishidadir. Bu uch o‘lchov materiya bo‘yiga va balandligiga, oldiga va orqasiga qarab uning cheksiz ekanligini ko‘rsatadi. U turli narsa va hodisalarda har xil bo‘ladi. Hozirgi zamon fizikasining nisbiylik nazariysida to‘rt o‘lchovli geometrik fazo haqida so‘z boradi. Bunda to‘rtinchi o‘lchov sifatida vaqt olingan.

Vaqt fazo bilan chambarchas bog‘liq bo‘lsada, lekin o‘zining ayrim xususiyatlari bilan undan farq qiladi. Vaqtning muhim xususiyati uning bir o‘lchovligidadir, qaytarilmasligidadir. Moddiy narsalar fazoda bir xil joylashishlari, turli tomonga harakat qilishlari mumkin, lekin vaqtga kelganda ular faqat bir tomonga qarab yo‘nalishda bo‘ladi, vaqt hech qachon orqaga qarab harakat qilmaydi. O‘tgan zamonning qaytarilishi va hozirgi zamonning yo‘q bo‘lishi mumkin emas.

Materiyaga xos xususiytlar fazo va vaqtga ham xosdir. Materiyaning tuzilishi va xossalari haqidagi bilimimizning o‘sishi kabi, fazo va vaqt to‘g‘risidagi bilimlarimiz ham ortib boradi.

Tabiat va jamiyat hodisalari hamma vaqt ketma-ket sodir bo‘ladi vaqda harakat qiladi. Materiya vaqtda harakat qiladi, demak materiya, harakat, fazo va vaqt dialektik bog‘langan. Ularning dialektik birligi umumiy aniq fanlar uchun ham amaliy jihatdan metodologik asos hisoblanadi.

Test

1. ”Har bir narsa o‘z-o‘zicha va boshqa narsalardan ayni” bu fikr muallifi kim?

Platon
Suqrot
Zenon
Epikur

2. «Ontologiya» atamasi qaysi so‘zdan olingan?

Yunoncha «ontos» - borliq, «logos» - so‘z, ta’limot.
Lotincha «ontos» - borliq, «logos» - so‘z, ta’limot.
Arabchadan olingan
To‘g‘ri javob yo‘q.

3. Borliq haqidagi tasavvurlar bizgacha qanday yetib kelgan?

Afsonalar va miflar orqali
Ilmiy dalillar orqali
Qadriyatlar, urf - odatlar orqali
To‘g‘ri javob yo‘q.

4. Upanishadalarda dunyo haqidagi qanday tasavvurlar o‘z aksini topgan?

Materialistik va ateistik
Deistik
Ateistik
To‘g‘ri javob yo‘q.

5. «Hamma narsa yer va suvdan vujudga keladi va rivojlanadi, hatto «biz ham yer va suvdan paydo bo‘lganmiz» kimning fikri?

Ksenofan
Anaksimandr
Fales
Pifagor

6. «Hamma narsa sondir» kimning fikri?

Pifagor

Fales

Anaksimandr

Ksenofan

7. Faylasuflar orasida birinchi bo‘lib, borliqni kategoriya sifatida kim tavsifladi?

Parmenid

Anaksimandr

Fales

Pifagor

8. Borliqni tushunishga nisbatan dialektik yondashuvni ilk bor kim ilgari surdi?

Geraklit

Fales

Anaksimandr

Ksenofan

9. Sharq mutafakkirlaridan kim borliq muammosini hal qilishda «Vujudi vojib» va «Vujudi mumkin»ning o‘zaro nisbatiga murojaat qiladi?

Forobiy

Al-Xorazmiy

At-Termiziy

To‘g‘ri javob yo‘q.

10. Ibn Sino fikricha, «Vujudi vojib» qanday talqin qilingan?

Allohdir

Insondir

Makon

To‘g‘ri javob yo‘q

11. XVII-XVIII asr materialistik faylasuflari borliq tushunchasini qanday talqin qilishadi?

Fizik borliq bilan bog‘laydi

Materiya bilan bog‘laydi

Inson bilan bog‘laydi

To‘g‘ri javob yo‘q

12. «Substansiya» - bu nima?

Dunyoni tushunish zamirida yotuvchi, nisbatan barqaror va mustaqil holda mavjud mohiyat

Mutlaq «Men»ning erkin, sof faoliyati

Ob’yektiv rivojlanuvchi g‘oya

To‘g‘ri javob yo‘q

13. Neopozitivizm falsafiy yo‘nalishi borliq muammosini qanday talqin qildi?

Soxta muammo

Haqiqiy muammo

Yechimi yo‘q muammo
To‘g‘ri javob yo‘q

14. «... menimcha, falsafa va fan ayni bir jarayonning tomonlari - muqarrar va ajralmas tomonlardir. Ular faqat bizning aqlimnzga ajraladi...» kimning fikri?

V.I.Vernadskiy
F.Bekon
T.Gobbs
Spinoza

15. Borliqning asosiy kategoriyasi nima?

«Borliq» va «Yo‘qlik»
«Sifat» va «Miqdor»
«Makon» va «Zamon»
To‘g‘ri javob yo‘q.

16. Falsafada borliq va yo‘qlik o‘rtasidagi o‘zaro aloqa qanday?

Dialektik
Ziddiyatli
Chambarchas
To‘g‘ri javob yo‘q.

17. «... - falsafiy kategoriya sifatida dunyoni, uning butun rang-barangligi va turli-tuman namoyon bo‘lish shakllari bilan yaxlit aks ettirish imkonini beradi», bu nima?

Borliq
Yo‘qlik
Bilish
To‘g‘ri javob yo‘q.

18. Borliqning shakllari nechtaga bo‘linadi?

4 ta
3 ta
2 ta
5 ta

19. «... - inson va uning faoliyatidan qat’i nazar mavjud bo‘lgan narsalar va jarayonlar borlig‘i», bu nima?

Tabiat borlig‘i
Inson borlig‘i
Ma’naviy borliq
Ijtimoiy borliq

20. Ma’naviy borliq nechtaga bo‘linadi?

2 ta
3 ta
4 ta
5 ta

21. Individuallashgan ma’naviy borliq - bu nima?

Insonning ichki dunyosi

Insonning tashqi dunyosi
Ijtimoiy makon va vaqt
To‘g‘ri javob yo‘q

22. Dunyo moddiy jixatdan bir butun deganda nima tushuniladi?

Olam moddiy jixatdan bir butundir
Hamma narsalarning kelib chiqishi bir demakdir
Barcha jismlar doimiy xarakatda va taraqqiyotda
Bordan yo‘q bo‘lmaydi, yo‘qdan bor bo‘lmayd

23. Borliq nechta shaklda namoyon bỳladi?

4 ta shaklda
5 ta shaklda
7 ta shaklda
9 ta shaklda

24. **Taraqqiyot nima?**

U oldinlama xarakat bo‘lib, narsa va hodisaning yangi yuqori sifatga o‘tishidir
U harakatning bir turi
Taraqqiyot rivojlanish demakdir
Taraqqiyot inson omiliga bog’liq

24. **Materiya qanday kurinishlarga ega?**

*Materiya modda va maydon kurinishlariga ega
Materiya qattiq kurinishga ega
Materiyani kurish mumkin emas
Materiya atom kurinishiga ega

25. H**arakatning ilmiy-falsafiy mazmuni qaysi javobda tugri kursatilgan?**

Rivojlanish va usish;
Oldinga ketish, kamayish va orqaga qaytish, yemirilish;
*Olamda sodir bulayotgan har qanday uzgarish;
Narsalarning fazodagi ixtiyoriy joy almashtirishi.

Bilish nazariyasi:asosiy muammolari va yo‘nalishlari.

Reja:

1. Bilish muammosini falsafada qo‘yilishi va hal qilinishi.
2. Bilish voqelikni inson ongida in’ikos etish jarayoni. Bilishning ob’yekti va sub’yekti.
3. Bilish jarayonining dialektik xususiyati. Hissiy va mantiqiy bilish.
4. Haqiqat tushunchasi. Haqiqatning ob’yektivligi. Nisbiy va mutloq haqiqat dialektikasi.
5. Ilmiy bilish va uning o‘ziga xos xususiyatlari.

Tayanch tushunchalar: Gnoseologiya, bilish, agnosititsizm, skeptitsizm, hissiy bilish, mantiqiy bilish, amaliyot, haqiqat, ilmiy bilish.

Olam va uning qonunlarini bilish falsafiy dunyoqarash bilan bevosita bog‘langan masaladir. Shuning uchun ham dunyoni bilish masalasi doimo falsafa fanining diqqat markazida bo‘lib kelgan. Qadimgi faylasuflar ham dunyoni bilish mumkinligini e’tirof qilganlar. Masalan, atomistik nazariyaning asoschisi Demokrit olamni bilish va haqiqatga erishish mumkinligini ta’kidlaydi. U bilish jarayonida hissiy jihat va tafakkur rolini oddiy va sodda holda ko‘rsatadi.

Markaziy Osiyo mutaffakkirlaridan Farobiyning aytishicha, bilish muammosi inson mohiyatini aniqlash masalasining bir qismini tashkil etadi. U insonni bilish sub’yekti, o‘rab turgan tabiatni reallikni bilish ob’yekti deb hisoblaydi. Seziluvchi narsa, Farobiy fikricha, sezgilarga qadar mavjud bo‘lgandek, bilinuvchi narsa ham unga oid bo‘lgan bilimga qadar mavjuddir. Uning ta’rificha, odam o‘z bilimlarini tashqaridan, atrofdagi hodisalardan bilish jarayonida oladi. Bu jarayon o‘z ichiga ko‘p vosita va usullarni: sezgi, idrok, xotira, tasavvur va eng muhimi mantiqiy fikr, aql va nutqni oladi. Shu vositalar yordamida inson fanni yaratdi.

Beruniy merosini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ilk asarlaridan boshlab va keyingi asarlarida uning inson bilishga juda qiziqqanligini ko‘rishimiz mumkin. Beruniy fikricha, bilishning asosi, olam haqidagi bilimlarimizning manbai sezgi organlari yordamida olingan hissiy bilimlardir. Agar sezgi bo‘lmaganda olam haqidagi bilimlarimiz mumkin bo‘lmas edi.

Bilish jarayoni Beruniy ma’lumoticha, eskilik, fanatizm, shaxsiy g‘araz sub’yektivizmdan ozod bo‘lish, tabiatning o‘ziga, kuzatishga tajribaning rad etib bo‘lmaydigan dalillarga asoslanish lozim: tabiatni bilish jarayoni sezgilar bilan boshlanish tafakkurgacha ko‘tariladi, ma’lum narsalarga va hodisalarni bilishga tomon rivojlanib boradi, biroq bir avlodning hayotida hamma narsani bilish mumkin emas.

Buyuk alloma Abu Ali Ibn Sinoning bilish nazariyasida aql – faol ijodiy kuch va bilish qurolidir, biroq moddiy olam, uning qonuniyati tajriba jarayonida o‘rganiladi: buyumlar va hodisalar to‘g‘risida tushunchalar paydo bo‘ladi. Inson aqli o‘z bilimini og‘ir va uzoq mehnat jarayonida hissiy qabul qilish orqali ko‘paytiradi.

Alisher Navoiy ham o‘z falsafiy qarashlarida moddiy olamni bilish mumkinligini asosan e’tirof etadi. Uning bilishning manbai real voqelikdir, dunyoda mavjud narsalarning hammasi hislarimizning predmetidan (ob’yektidan) iborat. Ulug‘ gumanist inson baxtining manbai, uni bilishda deb ta’kidlaydi.

Falsafa tarixida bunday olamni bilishni e’tirof etuvchi qarashlar bilan birga tabiat va jamiyatni rivojlantirish qonunlarni bilish mumkinligini inkor etuvchi turli oqimlar ham bor. Dunyoni bilish mumkinligini, bilimlarimizning to‘g‘ri va aniq ekanligini inkor etuvchi va shubha qiluvichlar **agnostitsizm** va **skeptitsizm** ta’limotidir. (**Agnostitsizm** yunon so‘zi bo‘lib, a – inkor, gnosos – bilishdir). Agnostitsizmning eng qadimgi ko‘rinishi **skeptitsizmdir**. (bilishga shubhalanib qarash).

Agnostitsizmning eng yirik vakillari ingliz faylasufi **David Yum** bilan nemis faylasufi **Immanuel Kantdir**. Yumning fikricha, inson o‘z sezgilari chegarasidan

tashqariga chiqa olmaydi, u faqat o‘z sezgilarinigina bila oladi. Real voqelikni aslo bila olmaydi. Kant esa Yumga qarama-qarshi o‘laroq, inson ongi va sezgilaridan tashqarida obyektiv olamda aslo bilib bo‘lmaydigan **“narsa o‘zida”** bor, **“narsa o‘zida”** makon va zamon tashqarida bo‘lib, uni aslo bilish mumkin emas. Kant inson bilishi mumkin bo‘lgan hodisalar olamini **“biz uchun bo‘lgan narsalar”** deb uni inson aqli bilan, fan vositasi bilan bilish mumkin deydi. **“Biz uchun bo‘lgan narsa”** bilan **“Narsa o‘zida”** sezgi a’zolariga aralash ta’sir etish bilan bilish mumkin bo‘lgan hodisalar yuzaga keladi, inson ularni o‘zining tug‘ma aprior tushunchalari bilan tartibga soladi.

Umuman Kantning bilish nazariyasi boshdan oyoq chalkash, g‘ayri ilmiy reaktsion bo‘lib, o‘z mohiyati e’tibori bilan bilan inson aqlining bilish imkoniyatlarini fanning rivojlanish istiqbollarini inkor etishga qaratilgan.

Bilish nazariyasining rivojlanishida XVII-XVIII asr faylasuflari **(ingliz Bekon, fransuz Dekart, Didro, Golbax, Gelvetsiylar)** muhim o‘rin tutadi. Ular agnostitsizm, spektitsizmni qattiq tanqid qilib olamni bilish mumkinligini ta’kidlaydilar. Biroq ularning qarashlarida ma’lum nuqsonlar ham bor edi. Masalan, ularning bilish nazariyasi **metafizik** xususiyatga ega bo‘lib bilishda hissiy va ratsional jihatlarning dialektik birligini ko‘rsata olmas edi. Ular bilish jarayonining ziddiyatli ekanligini ochib bera olmadilar. Shuningdek ular kishilar ijtimoiy tarixda amaliyot rolini tushuna olmadilar, kishilarning ongli faoliyati rolini inkor etdilar.

Ma’lumki, ob’yektiv dunyo, uning predmet va hodisalari bilishning birdan-bir manbaini tashkil etadi. Shunday bo‘lsada, ayrim faylasuflar va din ta’limotida bilishning manbai sifatida qandaydir mistik, go‘yo insondan tashqari mavjud bo‘lgan ong (“Mutloq g‘oya”, “olam ruhi” va h.k.) e’tirof etiladi. Ular nuqtai nazarida inson tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarining mohiyatini bilishga qodir emas, u faqat iloh ijodining natijalarini qayd qilishga va turkumlarga ajratishgagina qodir.

Insoniyat, ijtimoiy amaliyoti va bilish taraqqiyotining ilgarilab borishi bilimni chegaralab qo‘yuvchi agnostitsizmni puchga chiqarmoqda. Masalan, hozirgi zamon tabiat fanlari, ayniqsa, fizika fani atom tabiatini tuzilishini va xususiyatlarini o‘rganish sohasida katta yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Atomni parchalash, atom ichki energiyasdan foydalanish, atom yadro zarrachalarining bir-biriga bog‘liqligi, umuman mikro olamni bilish, astronomiya, biologiyadagi kashfiyotlar ilmiy falsafaning bilish nazariyasini to‘g‘riligini tasdiqlaydi.

Insonning bilish qobiliyati cheklanmagan, lekin har bir aniq tarixiy davrda o‘zi xohlashgan barcha narsa va hodisalarni emas, balki bilish imkoni borlarinigina bilib, bilmaganini keyinroq biladi. Lekin shuni aytish kerakki, inson bilimining cheki yo‘q, chunki makro-mikro olamning cheksizligi inson bilimining ham cheksizligini ko‘rsatadi.

2. Bilish nima? Bilish – moddiy olamning inson ongida in’ikos etish jarayonidir, aniqrog‘i, bilish oddiy mexanik holdagi aks etish bo‘lmay, balki obyektiv olamdagi narsa-hodisalarning inson miyasida umumlashtirilgan, abstraktlashgan holdagi, ilmiy tushunchalar shaklida aks etishdir. Dunyoning

moddiyligini va uning rivojlanish qonunlarining inson ongida inhikos etishni ehtirof qilish ilmiy falsafa bilish nazariyasining asosidir. Fan qonunlari tabiat va jamiyatda inson ongiga bog‘liq bo‘lmagan holda yuz beradigan obyektiv jarayonlarining inhikosidan boshqa narsa emas. Falsafaning bilish nazariyasi asosan quyidagilardan asoslanadi.

- obyektiv olam bizning sezgi va tasavvurlarimizga bog‘liq bo‘lmagan holda undan tashqari mavjud, obyektiv olam – inson sezgi va tasavvurlari manbai;
- inson dunyo va uning rivojlanish qonuniyatlarini bilish mumkin. Inson sezgi, tasavvur va tushunchalarida o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan olam mazmunini inhikos ettiradi.

Demak, tashqi olam, undagi hamma narsa va hodisalar sezgilarga tahsir etishi bilan sezgi obrazlari hosil qiladi. Sezgi tasavvur va tushunchalarda ob’yektiv olamning subyektiv in’ikosi hosil bo‘ladi. Shuning uchun ham bilish nazariyasi in’ikos nazariyasi deb ataladi. Bilish nazariyasi predmet bilan obraz va obyekt bilan subyekt orasidagi munosabatlarini to‘g‘ri hal qilishni talab qiladi. Chunki bilish jarayonida obyekt bilan subyekt dialektikasi muhim o‘ringa ega. U sub’yekt, ya’ni inson bilan bog‘liq jarayondir. Insonsiz bilish jarayoni bo‘lishi mumkin emas. Sub’yektning ilmiy bilishdagi roli shundan iboratki, u ob’yektiv mavjud bo‘lgan qonuniy bog‘lanishlarni ochib beradi. Ob’yektga nisbatan ham amaliy, ham nazariy jihatdan yondoshadi.

Masalan, nemis fiziologi Gelmgolning ilgari surgan simvollari nazariyasiga muvofiq, inson avvalo o‘z sezgirlarida tashqi olamni yaratadi. O‘z sezgilarini narsa, hodisaga aylantiradi, keyin esa uni bilishga intiladi. U buyum obrazini buyumning o‘zi bilan tenglashtiradi. Sezgi ob’yektiv olam obrazi bo‘lmay, olamning o‘zi bo‘lib qoladi. Demak ushbu simvollar nazariyasiga ko‘ra narsa bilan narsaning tasavvuri orasida farq yo‘q. O‘z vaqtida Ibn Sino empirik tabiatshunos sifatida Pifagor, Platon, o‘rta asrdagi sxolast G‘azzoliy kabilarni fikrlariga zarba berib mistik son yoki geometrik figuralari yo‘q: son, geometrik figuralar konkret predmetsiz bo‘lmaydi, degan xulosaga keladi. Sezgi mazmuni predmetlar xossalari bilan hech qanday umumiylikka ega bo‘lmagan belgilar, simvollar bilan almashtirish noto‘g‘ri.

Sezgi obrazi moddiy dunyo narsa va hodisalarining inson sezgi a’zolarida aks etishi natijasida yuzaga kelgan. Demak sezgi va tushunchada narsaning o‘zi emas, narsaga nisbatan ikkilangan ko‘rinishi hosil bo‘ladi.

Obraz sezgi va tushunchadan tashqarida mavjud bo‘lish mumkin emasligi sababli u ideal narsadir, u inson, sub’yekt ongida vujudga keladi. Lekin sezgi ob’yektiv mazmunga ega. U moddiy dunyoning qayta ishlangan mazmunini gavdalantiradi. Shunga ko‘ra ob’yektivdir.

Obraz sub’yektda uning sezgi va tafakkurida hosil bo‘ladi. Demak, obraz sub’yekt bilan ob’yekt o‘rtasidagi birlikni ko‘rsatadi. Sezgi, tasavvur, tushuncha shakliy jihatdan sub’yektivdir, lekin mazmunga ko‘ra ob’yektivdir. Chunki sezgida real dunyo in’ikos etadi. Demak sezgi – ob’yektiv olamning sub’yektiv obrazidir.

Sezish – umuman inson bilimi taraqqiyotiga nisbatan birinchi bosqichdir. Insoniyatning dastlabki bilimlari, tushunchalari dastavval sezgi a’zolari orqali

olingan dalillar asosida yuzaga keladi. Sezish inson miyasining tashqi olam bilan dastlabki va bevosita bog‘lanishdir. Sezgi obrazi sodir bo‘lishi uchun uni hosil qiluvchi narsa yoki hodisa obyekti mavjud bo‘lmog‘i lozim. Olamdagi narsa va hodisalar haqida sezgi obrazlari, tasavvurlar bilish jarayonining ma’lum bosqichidagina shakllanadi. Sezgi ob’yektiv olamning sub’yektiv obrazi deyish bilan birga shuni alohida ta’kidlash kerakki, bu obraz ko‘chirma qotib qolgan, o‘lik narsa emas, balki bilish jarayonida o‘zgarib boradi. Bilishning ziddiyatli jarayon ekanligini bilimlarimizning to‘laroq, chuqurroq bilishi uchun dalil va ma’lumotlarning yangisiga to‘g‘ri kelmay qolishida ko‘rishimiz mumkin. Ziddiyatli munosabat hal qilinishi bilan bilish jarayoni rivojlanib boradi. Bizning ongimiz esa bu taraqqiyotini o‘zida aks ettirish bilan birga hodisalarning yuzaki xususiyatlarini bilishdan mohiyatini bilishga tomon boruvchi tarixiy jarayon ekanligini ko‘rsatadi.

Bilish jarayonida amaliyot muhim rol o‘ynaydi. Amaliyot ko‘p qirrali va sermazmun tushuncha bo‘lib, o‘z ichiga inson faoliyatining barcha shakllarini qamrab oladi. Amaliyotning asosini mehnat, moddiy ishlab chiqarish tashkil etadi. Bundan tashqari, siyosiy kurash, milliy ozodlik harakati, amaliyot insonning o‘ziga xos faoliyati bo‘lib, faqat ulargagina tegishlidir. Amaliyot insonlarning tarixan yuzaga kelishi jarayonida shakllanib, barcha jamiyatlar taraqqiyoti yo‘lida rivojlanadi va mukammallashadi. Amaliyot tarixiy taraqqiyot sub’yekti hisoblangan insonning, uning uchun ob’yekt hisoblangan moddiy olam bilan bog‘lanishdir. Bunday aloqadorlik jarayonida sub’yekt faol rol o‘ynaydi. Amaliy ta’sir faqat ob’yektini emas, balki sub’yektning o‘zini ham o‘zgartiradi. Amaliyot sub’yekti alohida insonlar, ijtimoiy guruhlar; sinflar, butun jamiyat ham bo‘lishi mumkin. Qachonki, bunday sub’yekt sifatida inson bilar ekan, amaliyot alohida faoliyat tusini oladi va u bilan bog‘langan bo‘ladi. Chunonchi, har bir inson shu jamiyat a’zosi bo‘lar ekan, o‘zining harakatlari bilan alohida jamiyat a’zosi bo‘lib maydonga keladi. Shuning uchun ham alohida odam ijtimoiy amaliyotining bir bo‘lagi bo‘lib hisoblanadi.

Amaliyot hamma vaqt ijtimoiy faoliyat bo‘lgan va bundan keyin ham bo‘lib qoladi: Birinchidan, amaliyot bilishning boshlang‘ich nuqtasi va asosidir. Eng avvalo e’tiboriga olish kerakki bilishning o‘zi amaliyot asosida va ayniqsa moddiy ishlab chiqarish ta’siri ostida vujudga kelgan. Masalan, mexanik harakat issiqlikka aylanadi, ya’ni ishqalanish natijasida o‘t hosil bo‘lgan, bu juda qadimiy kashfiyot. Ko‘p yillardan keyin esa odamlar issiqlikdan mexanik harakat vujudga keltirish imkoniyatiga amaliyot asosida ega bo‘ladi. Odamlarning amaliy ehtiyoji tabiat ilmining kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Masalan, astronomiya fani masalani bilish ehtiyoji natijasida kelib chiqdi. Demak har bir fan inson amaliy ehtiyoji natijasida kelib chiqadi. Bundan tashqari amaliyot bilish oldiga ma’lum vazifalarni hal qilish uchun yordam beradi, jumladan u ilmiy bilishning asbob-uskunalari bilan qurollantirishni ta’minlaydi: Ikkinchidan, amaliyot bilishning maqsadi hamdir. Inson bilish natijalaridan o‘zining amaliyot faoliyatidan foydalanish uchun ham atrof tevarakdagi dunyoni bilib boradi. Uning taraqqiyot qonunlarini ochadi. Amaliyot jarayoni bo‘lib, bunda munozarali masalalar, nazariy muammolar hal

qilinadi. Tabiat va jamiyat qonunlari to‘g‘risidagi bilimlar ham amaliyot jarayonida tekshiriladi.

Olam va uning qonunlarini bilish murakkabdir. Bilishning vazifasi olam hodisalarini oddiy kuzatib qolmasdan ularning mohiyatini tabiat va jamiyat taraqqiyotining qonunlarini ochish va ularning inson o‘z manfaati uchun foydalanishdan iboratdir.

3. Tashqi olamning inson miyasida in’ikos qilishi murakkab dialektik jarayondir. Bilish jarayonida narsani, hodisani to‘la va mukammal aks ettirish uchun ma’lum bir yo‘l bosib o‘tadi. Farobiy o‘zining “Ilm va san’atning fazilatlari” risolasidan tabiatni bilishning cheksizligini, bilish- bilmaslikdan bilishga, sababini bilishdan oqibatini bilishga, hadisdan mohiyatga qarab borishini ta’kidlaydi. Bilish ikki bosqichdan: jonli mushohada (sezish) va mavhum taffakkurdan iboratdir.

Bilishning boshlang‘ich bosqichi jonli mushohada, ya’ni ob’yektiv dunyoning buyumlarini bevosita sezgi a’zolari yordamida aks etiradi. Ibn Sinoning fikricha, sezish – bu shunday ta’sirki, u tashqi narsalarning o‘zi bo‘lmay, balki bizning hislarimizda vujudga keladi. His moddiy obrazining oynasi bo‘lib, moddiy shakllarning bo‘yi, eni bilan birga ifodalanganligi sababli ularni inson moddiy asossiz in’ikos eta olmaydi va jismlarni bilolmaydi. Jonli mushohadaning bilishdagi roli muhimdir, uning yordamida dunyo haqida aniq bilimlar kelib chiqadi. Lekin bu bosqich ma’lum darajada cheklangan. Bu bosqichda narsa va hodisalarning ba’zi bir tomonlari va xususiyatlarinigina bilib olish mumkin. Narsalarning muhim belgilari ularning ichki bog‘lanishlari, mohiyatlari esa bilishning ikkinchi bosqichiga mavhum taffakkur yordamida aks ettirilishi mumkin. Bilishning bir bosqichidan ikkinchi bosqichga ko‘taradigan narsa amaliyotdir. Mehnat jarayoni, ishlab chiqarish ehtiyojlari predmet va hodisalar asosida yotgan qonuniyatlarni ochishni talab qiladi. Hissiy bilishga, jonli mushohadaga bilishning sezgi, idrok va tasavvur shakllari kiradi.

Tashqi dunyoning bu in’ikos shakllari bir-biri bilan organik aloqada bo‘lib, alohida-alohida uchramaydi. Sezgi tashqi dunyo narsa va hodisalarini bilishning birinchi qadamidir. Sezgini dastlabki bilishning manbai deb hisoblagan Farobiy buyumning aks etishi yoki in’ikosi o‘sha buyumning o‘ziga muvofiq kelsa, sezgi haqiqiy bo‘ladi deydi. Inson miyasida hosil bo‘ladigan tasavvur va fikr tashqi dunyo predmetlarining sezgi orqali ta’siri natijasida yuzaga kelishi mumkin. Biz sezgilarimiz yordamida narsa va hodisalarni bilib olamiz va idrok qilamiz, ularning xossalarini, o‘xshashliklarni, farqlarini egallaymiz. Masalan, ko‘rish bilan predmetning katta-kichikligi, rangi va shaklini, tana sezgisi orqali qattiq-yumshoqligini, eshitish orqali ohang, kuch yoki tempini va boshqa a’zolar vositasi bilan ob’yektiv mavjud. Predmetlarning xilma-xilligini bilamiz. Sezgi idrok uchun asos bo‘ladi. Idrok sezgidan farq qilib predmetning butun obrazini beradi. Bu predmetning turli xossalarini qayta ishlab, ularni birlashtiradi. Demak, idrok deganda turli sezgi a’zolari bergan ma’lumotlar asosida miyada tashqi qo‘zg‘atuvchining bir butun obrazi hosil bo‘lishi tushuniladi va idrok tashqi dunyo predmetining obyektiv to‘g‘ri in’ikosini beradi. Bu in’ikosning to‘g‘ri ekanligini

amaliyotda isbotlanadi. Inson o‘zining amaliy faoliyatida o‘zi idrok qilayotgan predmet bilan odamning o‘zida shu predmet to‘g‘risida hosil bo‘lgan sezgi va idrokning o‘xshashligini belgilaydi.

Amaliy faoliyat, fan va texnikaning rivojlanib borishi insonga har xil vositalar, asbob va uskunalar yaratish va hissiy bilish chegarasini kengaytirish imkoniyatini beradi. Demak sezgi, undan keyin idrok ob’yektiv olamning sub’yektiv obrazini hosil qiladi. Tasavvur – mavhum tafakkurga o‘tishdagi oxirgi bosqichdir. U narsa va hodisalarning avvalgi tahsiri natijasida xotiramizda qolgan tasavvurlarning qaytadan esga olinishi bilan bog‘liqdir. Tasavvurdagi yangi obrazlar ilgarigi obrazlar bilan taqqoslash orqali yuzaga kelish mumkin. U mavhum tafakkur uchun asos bo‘ladi.

Idrok qilinayotgan narsa va hodisalar ichki qonuniyatli bog‘lanishlarni ochish uchun mavhum tafakkurga o‘tishi kerak. Mavhum tafakkur esa voqeani chuqur bilishga imkoniyat yaratadi. Hissiy bilish aniq narsalar obrazini hosil qiladi, lekin u hodisalar mohiyatini ochib bera olmaydi. Demak hodisalar mohiyatini bilish uchun ayrim narsalarga emas, ko‘p narsalarga xos bo‘lgan umumiylikni topmoq kerak.

Shunday qilib, hissiy bilish bilan mavhum tafakkur bir butun bilish jarayonining sifat jihatdan turlicha bo‘lgan va ayni vaqtda bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan bosqichlaridir.

Mavhum tafakkur hissiy bilishdan kelib chiqadi, jonli bilish esa qonuniyat bilan o‘sib, mavhum tafakkurga asos soladi. Mantiqiy bilish –bilishning rivojlanishidagi sifat jihatidan yangi, yuqori pog‘onasidir. Mantiqiy bilishda inson mantiqiy tafakkur yordamida voqealikning rivojlanish qonuniyatlarini bilib oladi.

Bizga ma’lumki, sezgi obrazlari tashqi olamning in’ikosidir, ya’ni tashqi olam sezgimizga qanday ta’sir qilsa shundayligicha aks etiladi. Lekin tafakkur obrazlarida boshqacharoq, unda tashqi olamning ichki mohiyati, aloqa va bog‘lanishlari hamda rivojlanish qonun va qonuniyatlari aks etadi. Tafakkur obrazining uchta asosiy xususiyati bor.

1. Tafakkur obrazlari mavhumlik xususiyatga ega, ya’ni tafakkur obrazlari hosil bo‘lishi uchun ifoda qilinayotgan tashqi olam bevosita ko‘z oldimizda bo‘lishi shart emas. Tafakkurga xos bo‘lgan ana shu jarayon – abstraktsiya deyiladi.

2. Tafakkur obrazlari umumlashgan xususiyatga ega. Umumlashtirish esa bizga ta’sir etayotgan narsa yoki hodisaning sifat va xususiyatlaridagi muhim bo‘lmagan ikkinchi darajalilarini chetga surib asosiy tomonlarini taqqoslash va fikran bir-biri bilan bog‘lanishdir.

3. Tafakkur obrazlari til bilan bog‘langandir. Bilish jarayonida paydo bo‘layotgan har bir tushuncha til orqali ro‘yobga chiqadigan ong omildir.

Mavhum tafakkur shakllari tushuncha, muhokama, xulosadir. Tushuncha tafakkurning alohida shakli bo‘lib, u tashqi dunyo narsa va hodisalarning umumiy, zaruriy tomonlarini aks ettiradi. Tushuncha – aniq narsa va hodisalarning sifati, mohiyati va muayyanligini miyada alohida shaklda aks etishidir. Unda hodisadagi asosiy tomonlari umumlashtiriladi. Masalan, materiya tushunchasi umuman

materiyaning belgilaridan qathi nazar, ularning asosiy belgisi – moddiyligi materiya tushunchasida aks ettiriladi. Jumladan, daraxt deganda tol, terak, olma va boshqa daraxtlar turlari va belgilaridan fikran uzoqlashamiz va ular uchun eng umumiy belgilarini olamiz.

Fandagi tushunchalar ham xuddi shunday. Har bir fanning o‘ziga xos tushunchalari bor. Har bir fanni bilish, tushunish fandagi tushunchalarni bilish demakdir. Tushuncha mazmunan ob’yektivdir.

Muhokama – hukm orqali ob’yektiv dunyodagi qonuniyatlar ongida aks ettiriladi. Yakka muhokama ayrim dalillarda o‘z aksini topsa, umumiy muhokama umumiy qonunlarni ifoda etadi. Masalan, energiyaning aylanish shakli yoki har bir harakat shaklining biridan ikkinchisiga o‘tishi haqidagi qonunlar.

Birinchi misol, tabiatning ayrim tomoniga to‘g‘ri kelsa, ikkinchisi umumiy qonunlar aks ettiradi. Demak, muhokama – hukm biror narsa yoki hodisa mushohada haqida biror nima deyish, uni tasdiqlash yoki inkor etishdir.

Tafakkurning uchinchi shakli mantiqiy, aqliy xulosa chiqarishdir. Xulosa bir yoki bir necha muhokamadan kelib chiquvchi bilimdir. U orqali ilgari ma’lum bo‘lgan bilimlar asosida yangi bilim paydo bo‘ladi.

Mantiqiy aqliy – xulosada muhokamalar majmuasi bir-biriga bog‘lanib yangi bir xulosa kelib chiqadi. Bunday xulosaga asos bo‘lgan ikki muhokama dalil deb ataladi. Demak, aqliy xulosa fikrni taqqoslaydi, bog‘laydi. Mavhum tafakkur sodir bo‘lish jarayonini ifodalaydi. SHunday qilib insoniyatning barcha bilimlari sezgi materiallarini umulashtirish orqali hosil bo‘ladi.

Bilishdagi hissiy va ratsional-mantiqiy jihatlarining roli masalasini hal qilinishida **semsualizm** yoki **ratsisnalizmga** berilish masalani bir yoqlama tushuntirishga olib keladi. Semsuliklar hissiy bilishni yuqori qo‘yadilar, mantiqiy tafakkurning roliga yetarli baho bermaydilar. Ratsionalistlar esa aksincha, mavhum tafakkurlar haddan tashqari yuqori ko‘tarib, hissiy bilishning rolini kamsitar edilar.

Madomiki, hissiy bilish bilan mantiqiy bilish birgalikda maydonga chiqar hamda bir-birini to‘ldirar va boyitar ekan, bilishda sezgilar beradigan ma’lumotlarga ham, aqliy xulosalarga ham mensimaslik bilan qarash mumkin emas.

Sezgi organlarimiz orqali biz narsalarning xossasini, xususiyatlarini his qilamiz, aqliy bilish tufayli biz ularning moddiy asosini mohiyatini bilishga muyassar bo‘lamiz.

“Balki, – deb yozadi Abu Nasr Farobiy, – olamda substantsiya (jabha) va aktidentsiya (jabha bo‘lmagan) hamda substantsiya, aktidentsiyani yaratuvchi marhamatli ijodkordan boshqa hech narsa yo‘qdir”. Aktsidentsiyani besh sezgi his etadi, ular o‘rtasida hech qanday vosita yo‘qdir... Substantsiyani faqat aql qabul qiladi va bunda aktsidentsiya aql uchun vosita bo‘lib xizmat qiladi. Aql ranglar ostida shu rang ega bo‘lgan narsa borligini ovoz ketidan ovoz kelayotgan narsa mavjudligini biladi. Aqlning boshqa sezgilar bilan munosabatda ham shuning kabidir.

Bilish jarayoni murakkab, ko‘p qirrali jarayondir. U albatta sub’yektning qobiliyati izlanuvchanligi, mantiqiy tafakkurning xususiyati, voqealik hodisalarini

kuzatish, uning mohiyatini ochishda ham bir narsa va hodisaga ijodiy yondashishni talab qiladi.

Ijod insonning fan, texnika, madaniyat va boshqa sohalarda ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan yangilik yaratish, kashf etish faoliyati bo‘lib, murakkab ruhiy jarayondir. Unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, butun bilimi, tajribasi, iste’dodi namoyon bo‘ladi.

Ijod jarayonida boshqalar tomonidan qo‘lga kiritilgan chuqur atroflicha, tanqidiy ravishda o‘rganiladi, tahlil etiladi, kuzatishlar hisoblashlar o‘tkaziladi, mantiqiy xulosalar chiqariladi. Xulosalarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligi tajribada sinaladi.

Ijodiy izlanish natijasida kelib chiqqan bilim mazmuni turli shakllarda – badiiy asar, matematik formula, nazariya qonun va boshqalar orqali jamiyatga taqdim etiladi. Ulardan jamiyat bahramand bo‘lsagina haqiqiy to‘liq ijod bo‘ladi. Ijod – fan, texnika, madaniyatni boyitadi, bilimni rivojlantiradi.

Odamlarning iste’dod va qobiliyatlarini namoyon etish uchun barcha shart-sharoitlar yaratish, ma’naviy mulkni himoya qilish... ma’naviy potentsialni ildam rivojlantirish, umuman ijodning barcha turlarini rivojlantirish orqali respublikaning mustaqilligini va ravnaq topishini ta’minlash kerak. (**I.Karimov. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1993 yil 47-bet)**. Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, faqat uyushgan bozorgina bugungi kunda xalqning ijodiy va mehnat imkoniyatlarini ochib bera oladi, yangiliklarga sezgir qiladi, fan va texnikaning eng so‘nggi yutug‘larini dadil va g‘ayrat bilan joriy etadi. O‘z ishining ustasiga, kasb mahoratiga munosib baho beradi. (I.Karimov. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura 1993. 60-61 betlar).

4. Har bir tarixiy davrda inson o‘zining amaliy faoliyati natijasida ob’yektiv olamni to‘liq va aniq aks ettiruvchi bilimga ega bo‘lib boradi. Bilim esa ob’yektiv reallikka mos keladimi yoki yo‘qmi? Bu masalani hal qilishda haqiqat to‘g‘risidagi ma’lumot o‘z ifodasini topadi. Bu ta’limot esa o‘z-o‘zidan haqiqat nima? degan masalani hal qilishni talab qiladi. Haqiqat masalasini ilmiy tarzda hal qilishning yagona yo‘li inson bilimlari bilan ob’yektiv olamdagi real narsa va hodisalar, ularning sifat va xususiyatlari o‘rtasidagi munosabatni yoritishdir. Shunday ekan, haqiqat ob’yektiv voqelikka mos keluvchi narsa va hodisalarning real holatdagi mazmunini sifat va xususiyatlarini to‘g‘ri aks ettiruvchi hamda amaliyotda sinalgan bilimlardir.

Inson sezgilari uning ongidan tashqaridagi ob’yektiv olamning in’ikosini hosil qiladi. Ob’yektiv olamning mavjudligini e’tirof etish bilan uning to‘g‘ri in’ikosining hosil bo‘lishi ob’yektiv haqiqatdan iboratdir. Yoki boshqacha qilib aytganda ob’yektiv haqiqat inson va insoniyatga bog‘liq bo‘lmagan ob’yektiv mazmundir. Masalan, tabiat va jamiyat qonunlari ob’yektiv haqiqatdir. Chunki bu qonunlar insonga bog‘liq bo‘lmagan holda, undan tashqarida mavjud, bu qonunlarni inson bekor qila olamaydi, o‘z ixtiyori bilan o‘zgartira olmaydi. Ob’yektiv haqiqat to‘g‘risidagi tushunchani ob’yektiv reallik haqidagi tushuncha bilan bir deyish mumkin emas. Ob’yektiv haqiqat bizning ongimizdan tashqarida mavjud bo‘lgan ob’yektiv reallikni ongimizda to‘g‘ri in’ikosidir. Dialektik bilimlar

abadiy bo‘lmay ular takomillashib boradi, nisbiy haqiqatdan mutloq haqiqatga boradi deb tushuntiradi. Haqiqatdan ham olamda inson bila olamaydigan narsa yo‘q. Shuning uchun ham bilish jarayonining rivojlanish cheksiz u biror chegarada to‘xtatish mumkin emas. Inson erishgan yangi bilim uchun zarur bosqich hisoblanadi. Demak, mutloq va nisbiy haqiqatlar dialektik munosabatda bo‘ladi. Inson tafakkuri o‘z tabiatiga ko‘ra mutloq haqiqatni ochish imkoniyatiga ega deb, mutloq haqiqat nisbiy haqiqatlar yig‘indilaridan tashkil topganligini ko‘rsatadi. Har bir fan sohasida yangi kashfiyotlar mutloq haqiqatga hissa qo‘shadi va bu kashfiyot nisbiy chegaraga ega, yahni kengayishi, rivojlanishi mumkin.

Har bir inson haqiqatda mutloq haqiqat elementi, zarrasi bor. Chunki unda moddiy dunyoning ma’lum tomonlari aks etadi. Nisbiy haqiqat obyektiv olamning inson ongida nisbatan to‘g‘ri in’ikos etishidir. Amaliyot va fan taraqqiyotida bu haqiqat tobora takomillashib boradi. Demak, ob’yektiv olamni taxminan to‘g‘ri in’ikos ettiradi, to‘la aniq bo‘lmagan inson bilimining so‘nggi taraqqiyoti jarayonida aniqlanishi va chuqurlashishi tobora to‘laroq bo‘lib boradigan ilmiy bilimlar (qoida, tushuncha va nazariyalar) nisbiy haqiqatdir.

Nisbiy haqiqatni e’tirof qilish mutloq haqiqatni inkor etish emas. Chunki bizning bilimlarimiz tayyor yoki qotib qolgan bilim bo‘lmay, mutloq haqiqatni bilish nisbiy haqiqatlarni bilish bilan boradi. Mutloq haqiqat birdaniga bilib olinmaydi, balki to‘liq bo‘lmagan taxminiy, ya’ni nisbiy haqiqatlar orqali bilinadi. (Materiya tuzilishi haqida).

Inson hamma vaqt tabiatni oxirigacha bilish tomon yaqinlashib boradi, lekin u moddiy olam qonun va hodisalarini to‘la-to‘kis bilish darajasiga erisha olmaydi. Buning sababi shuki, tabiat cheksiz, u to‘xtovsiz harakatga, rivojlanishda o‘zgarishda. Inson bilimi esa hech qachon moddiy olamni butunlay qamrab ola olmaydi. Shuning uchun ham inson bilimining mutloq haqiqatga yaqinlashuvi nisbiydir. Bundan bizning hamma bilimlarimiz nisbiy ekan, ularda ob’yektiv mazmun yo‘q ekan, degan xulosaga kelmaslik kerak. Har qanday haqiqat nisbiyligiga qaramay, unda mutloq haqiqat elementlari saqlanadi. Mutloq va nisbiy haqiqatlarni bir-biriga qarama-qarshi qo‘ymay balki ularni ajralmas, bir butun holda olib o‘rganmoq zarur. Mutloq va nisbiy haqiqatlarni dialektik munosabatini bilish, dogmatizm, agnostitsizm, relyativizmga qarshi kurashda katta ahamiyatga ega. Dogmatizm va relyativizm haqiqat va uning mohiyatini bir yoqlama hal qiluvchi, uning absolyut va nisbiy tomonlarini bir-biridan ajratib tashlashga harakat qiluvchi ta’limotdir. Dogmatizm inson bilimlarining konkret vaqti, sharoitlari, bilish imkoniyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan nisbiy tomonini inkor etadi, har bir bilimini o‘zgartirmaydigan, rivojlantirish, takomillashtirish, to‘ldirish mumkin bo‘lmagan so‘nggi marradagi haqiqat deb tushuniladi. Shu asosda ular inson bilimlarida nisbiy tomonlar muvjudligi butunlay inkor etiladi. Dogmatizm vakillari ko‘rsatishicha hosil bo‘lgan bilimlarni to‘ldirish va rivojlantirishning hojati yo‘q. Har qanday bilimni hamma vaqt konkret sharoitlarini hisobga olmay amalda qo‘llay berish mumkin emas. Negaki dogmatiklar konkret tarixiy sharoit va vaziyatlar doim o‘zgarib turishini inkor etadilar, bahzan nazariy qoidalarni ko‘r-

ko‘rona yodlab olib, har qanday sharoitda bemalol qo‘llay berish mumkin deb hisoblaydilar.

Relyativizm vakillari esa inson bilimlarining faqat nisbiy tomonlarini tan olib, mutloq haqiqatni esa butunlay inkor etadilar. Ularning fikricha nisbiylik inson bilimlarining bir tomongina emas, hammasiga xos emish. Bu ta’limot bilimlarimizning hammasini nisbiy deb hisoblash orqali unda inson ongiga bog‘liq bo‘lmagan voqelikni to‘g‘ri aks ettiruvchi haqiqat mavjudligini ham inkor etadi.

Relyativizm asosan har bir konkret tarixiy sharoitdagi bilish imkoniyatlari bilan bog‘langandir. Biz har bir ob’yektiv narsa va hodisani ma’lum tajriba, malaka, bilish, texnika vositalari asosida bilamiz. Lekin yuqoridagi bilish imkoniyatlari har bir tarixiy davrda bizni qiziqtirgan narsalarning hammasini to‘la va mukammal bilishga imkon bermaydi. Shu tufayli har bir davrdagi bilimlar majmuasida ma’lum nisbiy tomonlar bo‘lishi tabiiydir. Relyativizm ilmiy bilish va praktika uchun zararli ta’limotdir. Relyativizm, skeptitsizm, agnostitsizm, sxolostikaga olib boradi. Haqiqat to‘g‘risidagi ta’limotlarning yana bir jihati bor, u ham bo‘lsa haqiqatning konkretligi masalasidir. Haqiqat abstrakt bo‘lishi mumkin emas, u doim konkret bo‘ladi.

Haqiqatning konkretligidan har bir bilim nazariy ta’limot ma’lum vaqt, sharoit, davr, o‘rin uchun to‘g‘ridir, degan ma’noni bildiradi. Biz yuqorida inson bilimining yagona ob’yekti bo‘lgan moddiy olam narsa va hodisalar doimo o‘sib, o‘zgarib, yangilab turishini ko‘rdik.

Inson ob’yektiv olamni o‘z amaliy faoliyatida ma’lum tarixiy va ilmiy imkoniyatlar asosida olib boradi, ilmiy haqiqatlar aniq tarixiy sharoit bilan bog‘liq bo‘lib, aniq shaklda namoyon bo‘ladi, haqiqat mavhum bo‘lmay aniq bo‘ladi. masalan, mustaqil O‘zbekistonning ichki siyosatining negizi ijtimoiy jihatdan yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini qurish, unga o‘tish muqarrar davr amri bo‘lib, ob’yektiv haqiqatdir.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish faqat maqsad emas, balki yangi qadriyatlarni shakllantirish, odamlar farovonligining sifat jihatdan tubdan yuqori darajasiga erishish uslubi va vositalaridir. **(I.Karimov. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 61-bet).**

5. Bilish odam bolasining tug‘ilishidan boshlanadi, tabiat va ijtimoiy muhitga moslashish, unga faol ta’sir o‘tkazish jaroyonida u takomilashib boradi. Inson bilimini, unda borliq qanday holda in’ikos etganligiga qarab, oddiy (kundalik) va ilmiy bilimlarga ajratish mumkin.

Oddiy (kundalik) bilish kishilarning odatdagi o‘z kundalik hayotlarida borliqdagi predmet va hodisalarni bevosita o‘z sezgi a’zolari va tafakkurlari orqali bilishdir. U kishilarning kundalik hayotiy tajribalari, malakalari va amaliy ishlari orqali hosil bo‘ladi. Oddiy bilish hamma kishilarga xos bilishdir.

Ilmiy bilish esa, oddiy (kundalik) bilishdan farqlanib, u borliqdagi predmet va hodisalarning qonuniyatlarini, ularning mohiyatini bilishdir. Ilmiy bilish, fanda ilmiy tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar olib borish asosida amalga

oshadi. Shu sababli ilmiy bilish uzoq davom etadigan, muayyan usullar va yo‘llar bilan amalga oshiriladigan murakkab, ziddiyatli bilishdir.

Shu tufayli ilmiy bilish bilan hamma kishilar emas, balki bir guruh yoki alohida kishilar: tadqiqotchilar, olimlargina shug‘ullanadilar.

Ilmiy bilish uchun tadqiqotchi o‘rganayotgan predmet va hodisalarning hamma tomonlarini, aloqadorlik va bog‘lanishlarini birga olib o‘rganishi lozim bo‘ladi. Garchi bunga u hech qachon to‘la-to‘kis erisha olmasa ham, lekin bu har tomonlama o‘rganish talabi uni xatoliklardan va bir tomonlamaliklardan saqlab qoladi.

Ilmiy bilish predmet va hodisalarni **“o‘z harakatida” “jonli”** holatda, **“hayot holatda”**, o‘zgarib va rivojlanib turishida bilishni talab qiladi. Ilmiy bilish natijasida hosil qilingan bilimlarning ma’lum tizimlari fanlarni vujudga keltiradi.

Har bir bilim sistemasida ilmiy etiqod jarayonida kelib chiqqan muammo yoki masalalarning qo‘yilishi va hal qilishda maxsus usullardan foydalaniladi. Ular esa tarixiy aniq bilish jarayonida vujudga keladi, rivojlanadi. Shuning uchun ham har bir fanning o‘z predmeti va tadqiqot usuli mavjuddirki, ular o‘zi o‘rganayotgan ob’yektga nisbatan maxsus amaliy va nazariy tadqiqot usuli asosida yondoshadi.

Ilmiy bilimning bir-biri bilan uzviy bog‘langan, biri ikkinchisin to‘ldiradigan ikkita darajasi mavjud, ularga empirik va nazariy darajalar kiradi.

Ilmiy bilimning empirik darajasi kishilarning ehitiyojlarini qondirish jarayonini ularning kundalik tajribalari asosida qo‘lga kiritilgan ma’lumotlarga tayangan holda olamda ro‘y berayotgan hodisalarni bilishga qaratilgan. Ilmiy bilishning empirik darajasi uch bosqichdan iborat bo‘lib, uning birinchi bosqichida alohida-alohida o‘rganadigan hodisalar haqida to‘plangan bilimlar hosil bo‘ladi. Uning ikkinchi bosqichida mazkur bilimlar umumlashtirilib hodisalarning o‘rtasidagi aloqa va bog‘lanishlar aniqlanadi. Nihoyat empirik darajaning uchinchi bosqichda narsa va hodisalarga xos empirik qonunlar aniqlanadi. Shu bilan empirik daraja tugatiladi. Uning natijasida yig‘ilgan ma’lumotlar bilimning nazariy darajasiga zamin, poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Ilmiy bilimning nazariy darajasida ilgari to‘plangan ma’lumotlar asosida olamdagi narsa va hodisalarning alohida shakillari emas balki keng miqdordagi bir qancha hodisalar o‘rtasidagi aloqadorlik va taraqqiyot qonuniyatlari aniqlanadi. Mazkur asosiy qonunlar bir qancha empirik qonunlarning yig‘indisidan tarkib topgan bo‘lib, olamning ilmiy manzarasini ifodalaydigan nazariya va kontseptsiyalarda namoyon bo‘ladi. Bilishning nazariy darajasi bir qator xususiyatlarga ega. Ular quyidagilardan iborat:

1. nazariy bilimlar o‘zining umumiyligi va mavhumligi bilan ajralib turadi;
2. nazariy bilimlar yaxlit va tizimli bilimlar hisoblanadi;
3. u falsafiy bilimlar bilan yaqinligi bilan tavsiflanadi;
4. empirik bilimlarga nisbatan mukammal bilimlar hisoblanib, hodisalarning mazmun-mohiyatini atroflicha va chuqur aks ettiradi.

Ilmiy bilishning empirik va nazariy darajalari bir-biridan olamdagi narsa va hodisalarni o‘rganish jarayonida foydalanadigan ilmiy usullari bilan ham farqlanadi.

Ilmiy bilishning empirik darajasida quyidagi usullar keng qo‘llaniladi: Kuzatish, o‘lchash, taqqoslash, ilmiy tajriba (eksperiment).

Bilimning nazariy darajasida esa mavhumlik va aniqlik, aksiomatik, tarixiylik va mantiqiylik ideallashtirish va boshqa usullar qo‘llaniladi. Shu bilan birga ilmiy bilishning ikkala darajasi uchun umumiy bo‘lgan usullar ham mavjud bo‘lib bular: **aniqlik va sintez, induktsiya va deduktsiya, analogiya, modellashtirish, tizimlash.**

Shunday qilib, ilmiy bilish bir-biri bilan uzviy bog‘langan, bir-birini to‘ldiradigan empirik va nazariy darajalardan tarkib topgan bo‘lib, olamdagi narsa va hodisalar o‘rtasidagi aloqadorlik va taraqqiyot qonunlarini bilish, ularga ongli ravishda yondashish imkoniyatini beradi.

Bilish jarayonida qo‘lga kiritilib, falsafiy g‘oyalar bilan boyitilgan ilmiy axborotlar kishilarning dunyoqarashini shakllantirish, ularning bunyodkorlik faoliyatini oshirishda qudratli mahnaviy kuch hisoblanadi.

Test.

1. Bilish haqidagi ta’limot bu -...

Gnoseologiya
Ontologiya
Ideologiya
Epistemologiya

2. Ilmiy bilish qaysi tushuncha bilan nomlanadi?

Epistemologiya
Ontologiya
Ideologiya
Gnoseologiya

3. Qaysi qatorda empirizm vakillari berilgan?

Bekon, Lokk, Gobbs
Platon,Avgustin
Dekart, Gobbs
Volter, Kont

4. O‘zini qurshagan dunyodagi narsalar va hodisalarni sezgilar orqali idrok etishga nima deb ataladi?

Persepsiya
Appersepsiya
Fatalizm
Formalizm

5. Borliqni anglashning g‘oyalarini ifodalash nima deyiladi?

Appersepsiya
Persepsiya
Fatalizm
Formalizm

6. Optimizim nima?

Dunyoni bilish mumkinligini ta’kidlaydi
Dunyoni bilishni rad etadi
Xudoni tan olmaydi
To‘g‘ri javob yo‘q

7. Dunyoni bilish mumkinligini rad etuvchilar kimlar?

Agnostiklar
Gnostiklar
Optimistlar
Skeptiklar

8. Bilimning necha turi mavjud?

3
4
5
2

9. Bilim bu - ...

Haqiqatga mos keladigan va asoslangan ishonchdir
Bilim - yolg‘on ma’lumot
Hali asoslanmagan fikr
Haqiqatga mos kelmaydigan fikr

10. «Agar R haqiqiy bo‘lsa, bu holda S R ni biladi». Bu shart bilimning qaysi turiga tegishli?

Haqiqiylik
Ishonchlilik
Asoslilik
Aniqlik

11. Amaliyot nima?

Amaliyot kishilarning maqsadga muvofiq, ishlab chiqarish faoliyatidir.
Amaliyot kishilarning moddiy va ma’naviy faoliyatidir.
Amaliyot bilimlar va tajriba majmuasidir.
Amaliyot kishilarning har qanday moddiy faoliyatidir.

12. Hissiy bilishning shakllarini aytib bering.

Sezgi, idrok, tasavvur
Sezgi va idrok.
Tasavvur va hukm.
Sezgi, idrok, tasavvur, hukm.

13. Ilmiy bilishning nazariy darajasi uslublarini aniqlang.

Abstraksiya, induksiya va deduksiy.
Induksiya, deduksiya, idellashtirish, abstraksiy.
Modellashtirish, mavhumlik va aniqlik, analogiy.
Analogiya, ideallashtirish, modellashtirish,
Sistemali yondashish. Mavhumlik va aniqlik, tarixiylik va mantiqiylik.

14. Bilish ob’yekti deganda nimani tushunasiz?

Bilish ob’yekti butun borliqdir.
Bilish ob’yekti faqat ob’yektiv reallikdir.

Bilish ob’yekti tafakkurdagi timsol (obraz)dir.
Bilish ob’yekti bilishga qaratilgan narsalar xalos.
15. Haqiqatga berilgan qaysi ta’rif to‘g‘ri?
Haqiqat ob’yektiv voqealikka mos keluvchi, amaliyotda sinalgan bilimdir.
Haqiqat insonga bogliq bo‘lmagan olam haqidagi bilimlar majmuidir.
Haqiqat bilimlarning ziddiyatsizligidir.
U bilimlarning samaradorligi, foydaliligidir.
16. Qaysi shakllar hissiy bilish bosqichiga tegishli?
Idrok.
Iroda.
Hukm.
Intuitsiy.
17. Ob’yektiv haqiqat nima?
Ob’yektiv haqiqat – voqealikni to‘g‘ri aks ettiruvchi bilim.
Ob’yektiv haqiqat - o‘zaro kelishuv va shartnomaning natijasidir.
Ob’yektiv haqiqat – bizning mutloq bilimlarimizdir.
Ob’yektiv haqiqat – tajribani oddiy va iqtisodiy tarzda ta’riflashdir.
18. Qaysi uslub ilmiy bilishning empirik darajasida qo‘llaniladi?
Kuzatish.
Aksiomatik
Sintez.
Analogiy.
19. Qaysi uslub ilmiy bilishning nazariy darajasida qo‘llaniladi?
Formallashtirish.
O‘lchash.
Eksperiment.
Taqqoslash.
20. Ilmiy bilish nimadan boshlanadi?
Ilmiy bilish ilmiy muammoni anglashdan boshlanadi;
Ilmiy bilish ilm olishdan boshlanadi;
Ilmiy bilish o‘zlikni anglashdan boshlanadi;
Ilmiy bilish ilmni anglashdan boshlanadi

4-mavzu. Falsafaning metod, qonun va kategoriyalari.

Metod va metodologiya tushunchasi. Xususiy fan metodlari va falsafiy metodlarning o‘xshash va farq qiladigan jihatlari. Ilmiy metodlar klassifikatsiyasi. Falsafada qonun tushunchasi va uning mohiyati. Qonun va qonuniyat. Tabiat va jamiyat qonunlarining bir-biridan farqi. Falsafiy qonunlar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari. Dialektikaning asosiy qonunlari: Miqdor va sifat o‘zgarishlarining o‘zaro o‘tish qonuni va uning mohiyati. Qarama- qarshiliklar birligi va kurashi qonuni, bu qonunning mohiyati. Bu qonuning tabiatda, jamiyatda, ilmiy bilishda namoyon bo‘lishi. Dialektik ziddiyatlar va ularning turlari. Ziddiyatlarni bartaraf etish yo‘llarini bilishning amaliy va ilmiy ahamiyati. Inkorni inkor qonuni, uning mohiyati. Inkor tushunchasi. Inkorni inkor dialektikasi. Vorislik eskini inkor va yangilikning shakllanish sifatida, yangilikda eskilik elementlarining saqlanishi va bardam topishi muammolari.

Falsafiy kategoriyalar mohiyati va xususiyati. Falsafa kategoriyalarining xususiy fanlar tushunchalaridan farqi.

Olamdagi umumiy aloqadorlikni ifodalovchi kategoriyalar: ayrimlik, xususiylik va umumiylik, mohiyat va hodisa, qonuniyat. Narsa va hodisalar tuzilishini aks ettiruvchi kategoriyalar: shakl va mazmun; butun va qism, sistema, struktura va element. Narsa va hodisalar o‘rtasidagi sababli bog‘lanish (determinizm)ni anglashda imkon yaratuvchi kategoriyalar: sabab va oqibat: zaruriyat va tasoddif; imkoniyat va voqelik.

Takrorlash uchun savollar.

1. Qonun nima?
2. Tabiat va jamiyat qonunlarinig qanday xususiyatlari bor?
3. Miqdor va sifat nima? Meherchi?
4. Harakat rivojlanish mohiyatni sababini qaysi qonun ochib beradi?
5. Ziddiyat nima? Ziddiyatning qanday turlarini bilasiz?
6. Ziddiyatlar qanday bartaraf qilinadi?
7. Inkor nima? Inkorni inkor qonunichi?
8. Yavuzlik nima?

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular. Javob yozish kerak.

1. Globallashuv sharoitida antropologik inqirozning oldini olishnnng zaruriyati.
2. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar dialektikasi.

Adabiyotlar:

1. Axmedova M. Falsafa. – Toshkent: UFMJ, 2006.
2. Yusupov E., Mamashokirov S. Falsafa Darslik. - Toshkent: 2005.
3. Shermuxamedova N.A. Falsafa. Toshkent: “Noshir”, 2012.
4. Shermuxamedova N.A. Gnosiologiya. (Uchebnik). - Toshkent: 2009.

5. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish. (O‘quv qo‘llanma) Toshkent: 2017.
6. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi. (O‘quv qo‘llanma). - Toshkent: 2017.
7. Shermuxamedova N.A. Insonfalsafasi. (Darslik). - Toshkent: 2016.
8. Иззетова Э., Пулатова Д. Философия (Учебное пособие). Тошкент: 2017.
9.M.Sharipov, Fayzixodjayeva D. Mantiq. O‘quv qo‘llanma. -Toshkent: 2004.

Internet manbalari:

1. www. Ziyo net.uz
2. www.faylasuf.uz
3.www. .ziyo.uz
4. www. muslim.uz
5. www. religions.uz

4 - Mavzu:Falsafaning metod, qonun va kategoriyalari.

Reja:

1. Falsafa qonun tushunchasi va uning mohiyati. Qonun va qonuniyat.
2. Miqdor o‘zgarish qonunlaridan sifat o‘zgarish qonunlariga o‘zaro utish qonuni.
3. Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni. Inkorni inkor qonuni.
4. Falsafiy kategoriyalar va ularning boshqa fan kategoriyalaridan farqi.
5. Olamdagi umumiy alokadorlikni ifodalovchi kategoriyalar.
6. Narsa va xodisalar to‘zilishini aks ettiruvchi kategoriyalar.
7..Narsa va xodisalar o‘rtasidagi sababli boglanish (determinizm)ni anglashga imkon yaratuvchi kategoriyalar

Tayanch tushunchalari: Qonun, qonuniyat, miqdor, sifat, mehr, sakrash, qarama-qarshilik, ayniyat, ziddiyat, inkor, inkorni inkor, vorislik.

Odamzod qonunlar orqali olamning sir-asrorlarini imkoniyatiga ega bo‘ladi. Falsafiy qonunlar dunyodagi o‘zgarishlar, paydo bo‘lish va yo‘qolishlar, rivojlanish va taraqqiyot mexanizmlarini anglab olish imkonini beradi. Qonun – muayyan shart-sharoitda voqealar rivojining xususiyati va yo‘nalishini belgilaydigan, ma’lum bir qat’iy natijani taqoza etadigan ob’yektiv dunyodagi narsa va hodisalarning muhim zaruriy, umumiy nisbiy, barqaror munosabatlar ifodasidir.

Qonun bilan qonuniyat tushunchasi o‘rtasida tavofut bor. Qonun qonuniyatning bir aniq konkret tomonini ifoda etadi, qonuniyat esa umumiy yo‘nalish tententsiyasi anglatib, turkum qonunlar majmuasi sifatida nomayon bo‘ladi. Moddiy voqelikdagi qonunlar ko‘p qirraligi bilan tavsiflanadi. Tabiat va jamiyat qonunlari ob’ yektiv jarayonlarni bir-birlaridan farqlanadi.

Tabiat qonunlari yer yuzida inson bo‘lmagan davrda ham mavjud bo‘lgan. Jamiyat qonunlari esa inson faoliyati natijasida paydo bo‘lgan shart – sharoitlar bilan bog‘lik ravishda yuzaga kelgan. Jamiyat qonunlari kishilarning ijtimoiy munosabatlaridagi eng umumiy, muhim bog‘lanishni ko‘rsatadi. Yana bir farqi shuki, jamiyat qonunlariga nisbatan tabiat qonunlari asta-sekinlik bilan o‘zgarib boradi. Ijtimoiy qonunlar esa ma’lum davr mobaynida amal qilgandan so‘ngra, o‘z-o‘zini yangi qonunlarga bo‘shatib beradi, ba’zilari o‘z kuchini yo‘qotadi. Harakat qilish doirasiga qarab qonunlar : eng umumiy, umumiy va xususiyga bo‘linadi. Moddalarning saqlanishi va aylanishi qonuni, energiyaning bir turdan ikkinchi turga utishi qonuni umumiy qonunlarga, xususiy qonunlarga esa , masalan KULON qonuni kabilar kiradi.

Xususiy qonunlar muayyan bir ob’yektning o‘ziga xos xususiyatlari o‘rtasidgi yoki materiya harakatining biron-bir shakli doirasida mavjud bo‘lgan ichki alaqodorliklar ifodasidir. Umumiy qonunlar narsa va hodisalarning katta majmualari o‘rtasidagi aloqadorliklar anglatadi.

Eng umumiy qonunlar esa tabiat, jamiyat va tafakkurdagi barcha aloqadorliklar, o‘zgarishlar va taraqqiyot shartlarini anglab olish, voqealar rivojining pirovard oqibatlarin oldindan fahmlab olish imkonini beradi. Bularga falsafa qonunlari kiradi.

Miqdor va sifat o‘zgarishlarining bir-biriga o‘tish qonuni.

Miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tish qonuni falsafaning asosiy qonunlaridan biridir. Bu qonunning mohiyati shundan iboratki,narsa va hodisalardagi sezilarli bo‘lmagan miqdoriy o‘zgarishlar asta sekin to‘plana borib, taraqqiyotning ma’lum bir bosqichida me’yorni buzadi va sakrash yo‘li bilan tub sifat o‘zgarishlariga olib keladi.

Moddiy olamdagi xilma-xil narsa va hodisalar bir-biridan o‘z sifati bilan ajralib turadi. Sifat narsalarning ichki muayyanligi bo‘lib, boshqa narsalardan ajratib turadigan xossa, belgi, xussusiyatlarining birligidir. Sifat narsa qanday bo‘lsa, uni shundayligicha aniqlab beradi. Narsalarning sifati esa ularning xossalari orqali namayon bo‘ladi. Xossa narsa sifatining boshqa narsalar bilan o‘zaro aloqadorligi tashqi namoyon bo‘lishidir. Biz narsalarning ichki sifatini ma’lum bir xossalarda namayon bo‘lishi orqali bilamiz. Har bir narsa ko‘plab xossalarga, ya’ni asosiy va ikkinchi darajali xossalarga ega bo‘ladi. Masalan, metall zichlik, sikuvchanlik, issiqlik utkazuvchanlik, cho‘ziluvchanlik kabi xossalarga ega. Sifat – jismning barcha xossalarini birgalikda bog‘lovchidir.

Demak, sifat narsaning umumiyligini, yaxlitligini, uning nisbiy barqarorligini, bir-biriga uxshashligini ifodalaydi. U keng mahnoda narsalarning turli- tuman xossalar yig‘indisidir. Lekin sifat va xossa aynan bir xil mahnodagi tushunchalar emas. Sifatning o‘zgarishi muqarrar sur’atda xossaning o‘zgarishiga olib keladi, biroq xossaning o‘zgarishi har doim sifatning o‘zgarishiga ta’sir etavermaydi, ayrim xossalar narsalarning sifatiga ta’sir etmasdan yo‘q bo‘lib ketishi mumkin. Sifat predmet doimiyligini, nisbiy barqarorligini ifoda etadi.

Har bir narsa muayyan sistemada bir-biri bilan bog‘lik bo‘ladi. Narsa qaysi bog‘lanishlar sistemasiga bog‘lik ravishda turli sifatlarga ega bo‘ladi. Chunonchi, «stol» muayyan tabiiy materialdan, ya’ni daraxtdan yasalgan bo‘lib, tabiiy sifatiga ega. Shuning uchun u tabiiy qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Ayni zamonda stol muayyan inson mehnatining natijasi bo‘lib, ijtimoiy sifatga ham ega va ijtimoiy qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Ijtimoiy sifatlar o‘z navbatida ikki guruhga; birinchi tartibdagi ijtimoiy sifatlarga va ikkinchi tartibdagi ijtimoiy sifatlarga bo‘linadi. Xuddi usha stol, modomiki, insonning muayyan extiyojini qondirar ekan, «anik (amaliy)his» etiladigan narsa sifatida namoyon bo‘ladi. Ikkinchi tomonidan, stol, modomiki, qiymatga ega ekan, u tovar sifatida gavdalanadi. Bu o‘rinda stol «haddan tashqari his etiladigan narsa» tariqasiga gavdalanadi. Bu esa ikkinchi tartibli ijtimoiy sifatlarga mansubdir.

Narsalar sifat muayyanligidan tashqari bir-biridan miqdoriy tomonlari bilan ham farq qiladi. Miqdor predmetning hajmi, o‘lchuvi, og‘irligi, harakat tezligi va shu kabilar bilan tavsiflanidi. Tabiat hodisalari kabi ijtimoiy hodisalar ham miqdoriy tomonga ega. Chunonchi, suv o‘z solishtirma og‘irligiga, qaynash va muzlash darajasiga ega, bir ijtimoiy tuzum boshqasidan xususiyati jihatidangina emas, balki ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyoti, sur’ati darajasi, mehnat unumdorligi, madaniyati va hokazolar bilan ham farq qiladi.

Narsa va hodisalardagi miqdoriy va sifatiy tomonlar doimo bir-birini taqozo qilib, birlikda bo‘ladi. Har qanday narsa miqdor va sifat birligiga ega. Tabiatda faqat miqdorga yoki sifatga ega bo‘lgan narsa yo‘q. Shuning uchun ham narsaga miqdoriy va sifatiy tomondan berilgan tavsif tulik bo‘ladi.

Miqdor va sifatning birligi, o‘zaro bog‘likligi me’yor tushunchasida ifodalanadi. Meher bu miqdoriy munosabatlar va ob’yektiv sifatga mos tuzilmalarning muvofiqligidir. Ob’yektning miqdori ushbu sifat doirasidan chiqmasdan muayyan oralikda o‘zgaradi. Bu oraliq chegaralari esa predmet muayyanligini, sifat va miqdor birligi sifatida me’yorni ifodalaydi. Me’yorning buzilishi predmet mavjudligi mumkin bo‘lmagan holatga olib keladi. Me’yor har bir narsa va hodisadagi miqdor bilan sifat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni ifoda etadi. Bu o‘rinda har bir narsa, hodisa miqdor o‘ziga xos o‘lchovga ega bo‘ladi, chunki ushbu sifat xususiyati har qanday miqdor bilan emas, balki muayyan miqdor bilan uyg‘unlashadi. Ushbu ob’yektga xos bo‘lgan me’yorning buzilishiga va uning yangi sifatiga o‘tishiga olib keladi.

Me’yorning turli shakllari mavjud bo‘lib, nazariy bilimlar sistemasida u quyidagilarga ajratiladi: 1) Oddiy me’yor alohida o‘z- o‘zicha olingan predmet o‘lchovi; 2) sistemali, substantsiyali me’yor – ushbu sistemaning elementi, bo‘lagi bo‘lgan predmet o‘lchovi; 3) aniq me’yor – barcha xaqiqiy munosabatlar yig‘indisi bo‘lgan predmet o‘lchovi. Ijtimoiy hayot qoidalari ham g‘oyat turli-tuman me’yor munosabatlariga ega. Bir mehrdan ikkinchi me’yorga tushunchalarida olamdagi narsalarning ob’yektiv va eng umumiy tavsifi ifodalanadi. Shuning uchun ham ayrim faylasuflarning narsalar sifati sub’yektiv tushuncha deb ta’kidlashlari nazariy jihatdan asossizdir.

Miqdor va sifat birlikda, bo‘lib, bir-biriga o‘tib turadi. Miqdor sifatga va aksincha, ma’lum sharoitda sifat miqdorga o‘tadi. Narsa va hodisalarning sifati ob’yektiv bo‘lsa-da, nisbiydir, chunki ular o‘rtasidagi chegara o‘zgaruvchan bo‘lib, ularni mutloqlashtirish mumkin emas. Xuddi shuningdek, narsalarni miqdoriy muayyanligi ham o‘zgaruvchandir. Modomiki, ob’yektiv olam doimiy harakatda, o‘zgarish va rivojlanishda ekan, narsalarning miqdoriy va sifatiy muayyanligi, ularning xossalari ham o‘zgarish va rivojlanishdadir. Miqdor va sifat o‘zgarishlarining aniq holatini bilish fan va ijtimoiy amaliyot uchun muhim ahamiyatga ega.

Har qanday narsa va hodisaga miqdor va sifat o‘zgarishlar xosdir. Miqdor o‘zgarishlari bilan sifat o‘zgarishlari o‘rtasida qat’iy qonuniyat mavjud bo‘lib, bu qonuniyat quyidagicha ifodalanadi: miqdor o‘zgarishlarini tayyorlab, har bir aniq holatda muayyan sifat o‘zgarishlarini keltirib chiqaradi va shu holatda miqdor o‘zgarishlarining o‘tishi sodir bo‘ladi.

Miqdor o‘zgarishlarning sifat o‘zgarishlariga o‘tish masalasiga, o‘z navbatida, qadimgi faylasuflar ham e’tibor berganlar. Qadimgi faylasuflarning «Yaltiroq bosh» va « Garam» nomi bilan keltirgan misollar ma’lumdir. Suhbatdoshga quyidagi savol beriladi: agar boshdan bir dona soch tolasi yulib olinsa bosh yaltiroq bo‘ladimi, agar garamdan bir dona urug‘ olinsa, u g‘amlik holatini yo‘qotadimi,? Natija yo‘q degan javob bo‘ladi. Bu hol bosh yaltiramaguncha, garam esa yo‘q bo‘lmaguncha davom etadi. Qadimgi faylasuflar bu kabi hodisalarni eng umumiy qonuniyatlarining namayon bo‘lishi natijasida deb, emas balki sof mantiqiy g‘ayritabiylik deb qarar edilar.

Miqdor o‘zgarishlarinig sifat o‘zgarishlariga o‘tishi haqida O‘rta Osiyo mutaffakirlarining asarlarida ham ko‘pgina ma’lumotlar mavjuddir. Al-xorazmiy, al- Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Ulug‘bekning matematikasi, algebra, astronomiya va boshqa sohalarga oid asarlarida miqdor, sifat o‘rtasida aloqadorlik va ularning hayotiy ahamiyati haqida batafsil tavsiflar berilgan. «Men» deb yozadi al-Xorazmiy, arifmetikaning oddiy va murakkab masalalarini o‘z ichiga oluvchi «Aljabr va almuqobila hisobi haqida qiskacha kitob»ni tasnim qildim.

Ularning fikricha, miqdor va sifat o‘zgarishlarining o‘zaro aloqadorligining nafaqat tabiat va jamiyat hodisasi, balki ruhlarda ham kuzatish mumkin.

Taraqqiyot jarayonida miqdor o‘zgarishlari tub sifat o‘zgarishlariga o‘tish bilan birga sifat o‘zgarishlari miqdor o‘zgarishlariga ham o‘tadi. Miqdor o‘zgarishlari bilan sifat o‘zgarishlari o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lishiga qaramay, ular ayrim o‘ziga xos xususiyatlarga ham ega.

Miqdor va sifat o‘zgarishlari jarayonini tahlil qilar ekanmiz, nazariy hamda amaliy faoliyatda amalga oshayotgan o‘zgarishlar mexanizminigina emas, balki ularning chuqurligi va ahamiyatini ham hisobga olish muhimdir.

Shunga asosan ro‘y beradigan o‘zgarishlarning inqilobiy va tarixiy (evalyutsion)ga ajratish mumkin.

Bir sifat holatidan ikkinchi sifat holatiga o‘tish sakrash yo‘li bilan amalga oshadi.

Sakrash nima? Sakrash tabiat va jamiyatda sodir bo‘ladigan miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tish jarayonini anglatadigan falsafiy tushunchadir. Sakrash taraqqiyotning uzluksiz ko‘rinishiga qaraganda ancha tez o‘tadigan shakldir.

Sakrash miqdor o‘zgarishlardan sifat o‘zgarishlariga o‘tishda uzluksizlikning uzilishini bildiradi. Sakrashlar doim asta-sekinlik bilan miqdor o‘zgarishlari natijasida tayyorlaniladi. Bunda shuni nazarda tutish kerakki, miqdor o‘zgarishlar narsa va hodisani bir tekisda oddiy ko‘paytirish yoki kamaytirishdan iborat emas.

Sakrash, shuningdek, narsa va hodisalar o‘rtasidagi ziddiyatlarning hal qilinishidir. Sakrash natijasida eski bilan uning asosida harakat qiladigan qarama-qarshiliklar birligi tugatiladi va yangi sifatning vujudga kelishi sodir bo‘ladi.

Nihoyat, sakrash – eski sifatning inkor etilishi va yangi sifatning qaror topishidir. Sakrash natijasida eskidan yangiga o‘tish amalga oshadi.

Hodisalarning sifat xususiyatlari va ularning rivojlanishi sharoitiga bog‘liq ravishda eski sifatdan yangi sifatga o‘tish turli shakllarda sodir bo‘ladi.

Hozirgi sharoitda jamiyatimizning ijtimoiy- iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma’naviy hayotida ro‘y berayotgan jarayonlar o‘z mohiyatiga ko‘ra yangi sifatiy o‘zgarishlarga kiradi. Shular natijasida davlatimiz yuksak bosqichga ko‘tariladi. Bular o‘z-o‘zidan emas, balki keng xalq ommasining ijodiy faoliyati, ijtimoiy-siyosiy faolligi natijasida amalga oshiriladi. Bu o‘zgarishlar inqilob yo‘li bilan amalga oshiriladi.

3. Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi.

Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuniga muvofiq har bir narsa bir-biri bilan uzviy aloqada bo‘lgan va biri ikkinchisini istisno etuvchi qarama-qarshi tomon va kuchlarga ega bo‘lib ular o‘rtasidagi kurash natijasida eskining yo‘qolishi va yangining paydo bo‘lishi yuzaga keladi.

Ma’lumki, narsalar turli- tumandir. Hamma tomonlari bilan aynan o‘xshash bo‘lgan ikki narsaning o‘zi yo‘q. Narsalarning tafovvut darajasi ham bir xil emas: muhim va nomuhim tafovvutlar mavjud.

Narsa va hodisalardagi tafovvutlar qarama-qarshiliklar asosini tashkil etadi. Qarama-qarshiliklar deb shunga aytiladiki, tabiatdagi narsa va hodisalargada mavjud bo‘lgan tomonlar, xossalar va yo‘nalishlar bir-birini inkor qiladi, bir vaqtning o‘zida bir-birini taqozo ham qiladi. Masalan, magnitdagi shimoliy va janubiy qutblar, elektrning manfiy va musbat zaryadlari, atomdagi tortilish va itarilish, ijtimoiy hayotdagi yovuzlik va ezgulik o‘zaro bir-birini inkor etadi va Ayni vaqtda biri ikkinchisini taqozo etadi.

Narsa va hodisalarni qarama-qarshi tomonlari o‘rtasida munosabat ziddiyat deb ataladi. To‘qnashuv tushunchasi ziddiyatdan farqli o‘laroq, narsa va hodisalarni qarama-qarshi tomonlari keskinlashib, ularni eski chegarada birgalikda yashash mumkin bo‘lmay qolgan holatini belgilaydi. Ziddiyatlar hamma vaqt ham to‘qnashuv bilan tugamay, balki alohida sharoitdagina shunday holda bo‘lishi mumkin.

Agar atomni olsak, bir atom moddasi ham avvalo musbat va manfiy elektron zaryadlari, praton va elektron kabi murakkab qarama-qarshi tomonlarining yig‘indisidir. Atom yadrosini o‘zida tortilishini va itarilish kabi qarama-qarshi kuchlar mavjuddir.

Organik dunyodagi rivojlanishlar ham qarama-qarshiliklar kurashsiz tassavur qilishi qiyin. Hayotning o‘zi shunday zid, qarama-qarshi jarayondirki, unda yaratilish va yemirilish, assimilyatsiya dissimilyatsiya kabi qarama-qarshi munosabatda bo‘lgan tomonlar mavjud. Organizm yashab turgan vaqtda uning hujayralari to‘xtovsiz o‘lib o‘rniga yangilari paydo bo‘ladi.

Qarama-qarshiliklar birligi va kurash qonuni bilish jarayonida ham o‘z ifodasini topadi. Ma’lumki, bilish jarayoni bir biriga uzviy bog‘lik bo‘lgan hissiy va ratsional bilishdan iboratdir. Hissiy bilish orqali inson narsa va hodisalarning faqat tashqi tomonlari va xususiyatlari to‘grisida ma’lumot oladi, mavhum tafakkur orqali esa ularning ichki munosabatlarini belgilovchi qonuniyatlarni biladi. Bu yerda hissiy va ratsional bilish bir jarayonning ikki ajralmas, ammo bir biridan farq qiluvchi muhim tomonlaridir.

Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonunining umumiylik xususiyati moddiy dunyodagi hamma narsa va hodisalarga xos ekanligidagina emas, balki ziddiyatlar narsa va hodisalarga, ularning paydo bo‘lishidan tortib halok bo‘lishigacha boshidan oxirigacha singib ketgan. Bir mohiyatning turli tomonlarini ifodalagani uchun ham qarama-qarshiliklar birligi quyidagi sharoitlarda yuzaga keladi:

Birinchidan, qarama-qarshiliklar bir narsa va hodisadagina mavjuddir, chunonchi, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tafakkurga mansubdir;

Ikkinchidan, qarama-qarshilik o‘zaro bog‘lik, biri ikkinchisini taqozo qiladi, biri bo‘lmasa ikkinchisi mavjud bo‘la olmaydi.

Uchinchidan, qarama-qarshiliklarning biri ikkinchisiga o‘tadi va o‘zaro bir-biriga singib ketadi. Masalan, pazitron va elektron ma’lum sharoitda fotonlarga aylanadi, natijada materiyaning boshqa turi kelib chiqadi.

Qarama-qarshi tomonlarning birligi nisbiy, o‘tkinchi xususiyatga ega bo‘lishi bilan birga ular o‘rtasidagi kurash mutloqdir. Davr o‘tishi bilan kurashning ba’zi aniq shakllari yo‘qolishi mumkin, ammo qarama-qarshi tomonlar o‘rtasidagi kurash doim bo‘lgan va bo‘laveradi. Qarama-qarshiliklar haqidagi Farobiyning fikri alohida e’tiborga molik. Olloxni sherigi yo‘q, shuning uchun ilk borliqning zid bo‘lishi ham mumkin emas.

Tabiat va jamiyatda mavjud bo‘lgan ziddiyatlar o‘zining xilma-xilligi bilan tafsiflanadi.

Ziddiyatlar xilma-xilligi shakllarda bartaraf etilishi mumkin. Ulardan biri eskining yemirilib, yangining qaror topilishidir, bunga misol sifatida iqtisodiyotning eskisi yemirilib asta sekinlik bilan bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotning barpo etilishini ko‘rsatib o‘tishi joizdir. Shuningdek, qarama-qarshiliklarni o‘zaro ongli ravishda qo‘shib, ular o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etib, shu asosda taraqqiyotda ilgarilab borishdan iborat.

4.Inkorni inkor qonuni.

Inkorni inkor qonuniga muvafiq ob'yektiv vokelikdagi narsa va hodisalarning rivojlanishi jarayonida eskining Yangi tomonidan inkor qilish ro'y beradi. Biroq eskilik butunligicha inkor qilinmay, undagi ijobiy tomonlar saqlanib qoladi.

Metofizika yo'nalishi inkorning ijodiy yaratuvchanlik rolini tan olmaydi. Bundan farqli o'laroq , dialektik qarash eski narsani yangi narsa inkor qilishini ta'kidlaydi. Har bir jarayon inkor kilish jihatiga ega. Ichki ziddiyatlar tufayli taraqqiyot jarayonini ertami kechmi eski narsaning yemirilishiga va yangi narsani vujudga kelishiga olib keladi.

Eskining Yangi tomonidan inkor qilinishi natijasida moddiy olamdagi narsa va hodisalarni ilgarilama harakati sodir bo'ladi.

Shunday qilib, taraqqiyot bir birini almashtirib turadigan bosqichlardan iborat bo'lib bir bosqich ikkinchi bosqich tomonidan, ikkinchi va uchinchi tomonidan inkor etiladi. Eskining yemirilishi, yangining paydo bo'lishi, taraqqiyot jarayonida dialektik inkorning ikki muhim va ajralmas jihatidir….

Inkorni inkor qonuni quyidagi bir xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

Birinchidan, eskining yangi tomonidan inkor etilishi kishilarning ongi irodasiga bog'liq bo'lmagan ob'yektiv jarayondir. Inkor sub'yektiv, tashqaridan kiritilgan fikr emas, balki ob'yektiv jarayon taraqqiyotining bosqichidir.

Ikkinchidan, dialektik inkor tashqaridan kiritilgan kuch yoki holat balki narsa va hodisaning ichki rivojlanish natijasi, o'zini-o'zi inkor qilishdir. Dialektik inkor narsani butunlay yo'q qilib yuboriladigan faoliyat bilan o'xshash emas, u shunday inkorki, buning natijasida rivojlanish davom etishiga, yangi inkor sodir bo'lishiga imkon yaratiladi.

Uchinchidan, dialektik har bir narsa va hodisa uchun inkorning anik turi mavjuddir deb hisoblaydi. Tasavvur va tushunchalarning har bir turi singari buyumlar har bir turining ham o'ziga alohida inkor turi borki, bunda taraqqiyot sodir bo'ladi.

To'rtinchidan, dialektik inkor to'liq inkor bo'lmasdan balki eskini yangi bilan bog'lab turuvchi jarayondir. Dialektik inkor yangi bilan eski o'rtasidagi vorislikni tavsiflaydi.

Beshinchidan dialektik inkor taraqqiyotning oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga borishini tavsiflaydi, bir sifatdan boshqa sifatga o'tiladi.

Inkorni inkor qonuni ob'yektiv olamning va bilishning turli sohalarida ko'plab uchraydigan keng ta'sir doirasiga ega bo'lgan qonunudir. Agar ARPA yerga ekilsa, u issiqlik va namlik ta'sirida ko'karadi va undan o'simlik paydo bo'ladi. Endilikda ARPA o'zini inkor etadi.

Inkorni inkor qonuni jamiyatni ma'naviy hayotida namayon bo'ladi.

Falsafada inkorni inkor qonuni birinchi bor Gegel tomonidan ta'riflangan. Uning fikricha, dastlabki, bir butun fikr bir –biriga zid bo'lgan ijobiy va salbiy, «xa» va «yo'q» dan iborat ikki fikrga bo'linadi. Butunning ikkiga bo'linishi – antitezis inkordir. Qarama-qarshiligisiz fikrlar kurashi oxirida birikib yangi fikr hosil bo'ladi. Shunday qilib, Gegelning fikricha, sof g'oya o'z taraqqiyotida 3

bosqichdan o‘tadi: tezis, antitezis va sintezis. Gegelning ta’limotiga ko‘ra, nimaiki sof g‘oyaning rivojlanishiga mansub bo‘lsa, u moddiy bog‘likning hamma va hodisalariga mansubdir.

Inkorni- inkor qonuni taraqqiyotida vorislik va qaytariluvchanlikning birligini tavsiflaydi.. natijada taraqqiyot to‘g‘ri chiziqli emas, balki «burama» shaklida amalga oshadi.

Taraqqiyot jarayonning ilgarilab borishi xususiyati eski o‘rniga keladigan yangi doimo yangi bo‘lib qolmasdan, vaqt o‘tishi bilan u ham eskiradi va navbatida inkor qilanadi degan ma’noni anglatadi. Uning natijasida taraqqiyot jarayonni ikkilanma inkor sifatida ko‘rinadi.

Dialektik inkor taraqqiyotni ifolaydi. Masalan suv qizdirilgan bug‘ga aylanadi, sovutilganda esa yana suvga aylanadi. Metall qizdirilganda suyuq, sovutilganda esa kattalik holatga o‘tadi. Bu yerda biz bir holatning boshqa holat tomonidan inkor etilishini ko‘ramiz. Lekin bu yerda rivojlanish sodir bo‘lmaydi, balki bir hodisaning boshqa hodisa bilan almashinishi sodir bo‘ladi. Dialektik inkor yuqorida ko‘rsatilgan inkordan farqli o‘laroq shunday ziddiyatlarni hal qilishni maqsad qilib qo‘yadiki, buning natijasida taraqqiyotda yuqori bosqichga erishiladi.

Dialektik inkorning yana bir muhim xususiyatini aytib o‘tish muvofiqdir. Ikkinchi inkor eskini yemiribgina qolmay oldinga rivojlanishdagi butun ijobiy tomonlarni umumlashtiradi ya’ni sintez qiladi.

Inkorni inkor rivojlanishning ma’lum bir davrini tugallaydi lekin u shu bilan birga keyingi harakat uchun boshlang‘ich nuqta bo‘lib xizmat qiladi. Ko‘rinib turibdiki inkor tushunchasi davrni ham ifodalaydi. Bu davr ma’lum jarayonning tuggallanish bosqichi yangi dialektik davr uchun boshlang‘ich nuqta bo‘lib qoladi va bu cheksiz davom etadi. Bir munosabatda sintez bo‘lgan narsa boshqasida yangi rivojlanishning boshlang‘ich nuqtasidan iborat bo‘ladi.

Dialektik taraqqiyot to‘g‘ri chiziqli harakat bo‘lmay, asta sekin ko‘tarilib, kengayib boradigan, bir-biri bilan umumiy vorislik yo‘li bilan bog‘langan yuksak bosqichda boshlang‘ich nuqta jihatini o‘z ichiga oladigan «burama » harakkatdan iborat.

Taraqqiyot ayrim hollarda quyiga qarab boradi. Bunga moddiy tizimlarning yemirilishi materiya harakatining murakkab shakllarga o‘tishi misol bo‘la oladi. Ammo shuni aytish kerakki taraqqiyotning orqaga qaytishi ilgarilama harakatdan vaqtincha cheklashishdir.

Ijtimoiy taraqqiyot jamiyatning rivojlanishi hech qachon to‘xtab qolmasligi qonuniy va o‘zgartirib bo‘lmaydigan jarayondir.

Rivojlanishning pastdan yuqoriga ko‘tariluvchi yo‘nalishini dialektik tushunish doiraviy harakat tug‘risidagi metafizik nazariya bilan hech qanday umumiylikka ega emas. Ba’zi bir olimlar dunyoda bo‘layotgan ba’zi bosqichlarning qaytarilishini oddiy eskilikka qaytish deb hisoblamoqdalar. Ularning fikricha, tabiat va jamiyat ibtidosi va intohosi butunlay mos keluvchi ma’lum davr sikl yoki aylanma bo‘yicha bo‘ladi. 18asrlarda yashagan italiyalik

faylasuf J.B.Vikoning ta’kidlashicha, jamiyat o‘z taraqqiyotida 3 davrni bosib o‘tadi:

1. Bolalik davri bu davrda diniy dunyoqarash va zo‘ravonlik hukmron qiladi.
2. O‘smirlik davri, aristokratlik, ritsirlik va yetuklik ravnaq topadi.
3. Yetuklik davri.

Shingler jamiyat o‘zinig rivojlanishida bunyod bo‘lish, gullab yashnash inqirozga yuz tutish davrlarini boshdan kechiradi deydi. Uning fikricha insoniyat tarixining hozirgi bosqichi inkirozlar davridir, shunga ko‘ra hozirgi zamon madaniyatining barcha yutuklari butunlay yo‘q qilinishi lozim emish. Ingliz tarixchisi Toyn Bining ta’biricha jamiyat tarixi qorong‘u va o‘zaro aloqoda bo‘lmagan svilisatsiyadan iborat. Har qanday sivilisatsiya rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tadi: bahor, yoz, kuz, qish yoki bolalik, o‘smirlik, yetuklik va qarilik. Uning ko‘rsatishicha, g‘arb sivilisatsiyasi yetuklik bosqichidadir va u kelajakda rivojlanish xususiyatiga ega amerikalik professor Rayd esa jamiyat tarixi ma’lum bir bosqichlardan ya’ni qahramonlik asri, g‘alayonlik vaqti va tiklanish davrining shu taxlidda takrorlanishidan iborat, deb ta’riflaydi. Uning fikricha, hozirgi sivilizatsiyadan keyin insoniyat faqat orqaga qaytish bilan rivojlanarmish.

Eskining o‘rniga yangining kelishi uning kundan kunga mustahkamlanishi, rivojlanishi va ularning ajralmasligi taraqqiyotning boshlanish xususiyatini belgilaydi. Yangi eskining o‘rnini egallab borishida eskidan ijobiy, muhim tomonlarini o‘zida mujassamlashtirib, yuqoriroq sifat xususiyatlariga aylanadi. Eskining o‘rniga kelgan yangi dastlab, imkoniyat ko‘rinishida bo‘ladi. Bu imkoniyatning voqelikka aylanishi ma’lum shart-sharoitlardagina amalga oshadi. Ijtimoiy xayotda yangilikning g‘alabaga erishuvini ta’minlashda kishilarning faoliyati zarurdir.

«Bizning tushunchamizda, qotib kolgan eski aqidalardan vos kechish- o‘z tarixiy o‘tmishimizdan vos kechish degani emas, bu bir reklama tor fikrlashdan vos kechish demakdir» deydi I.Karimov.

Yuqorida biz 3ta asosiy qonunlarni mazmun mohiyatini tavsiflab berishga harakat qildik, endi shuni eslatib o‘tish kerakki, olamni anglashda mazkur qonunlarni e’tiborga olish, bularni talablarga mos ravishda fikrlash va amal qilish katta metodologik ahamiyatga ega.

Falsafa olamidagi narsa va hodisalarninig eng umumiy aloqodorlik va tarraqqiyot qonunlari haqidagi fan bo‘libgina qolmasdan, tafakkurlash fikr yuritishib dunyoni bilish haqidagi ham fandir. Har bir inson o‘z amaliy faoliyati va ilmiy bilish jarayonida falsafaning mazmun-mohiyati, uning rang-barangligi ko‘p qirrali tomon va xususiyatlarini hisobga olib, ularga ongli ravishda amal qilishlari lozim.

Test.

1. Dialektika kategoriyalarini tizimga solish va formal man'tiqiy fikrlashning umumiy qonunlarini ishlab chiqishga urinish kimning ijodi bilan bog'liq?

Aristotel
Platon
Suqrot
Demokrit

2. O'z davrining fan yutuqlaridan hisoblangan modda va harakatning saqlanish g'oyasini kim yaratgan?

Lomonosov-Lavu aze
Nyuton-Leybnits
Kant-Laplas
Eynshteyn

3. Kant kategoriyalarining necha turini farqlaydi?

3 ta
4 ta
5 ta
2 ta

4. Kant makon va vaqtni kategoriyalarning qaysi turiga kiritadi?

Hissiy
Idrok
Aql
Tasavvur

5. «Sof aqlning tanqidi» asarining muallifi kim?

Kant
Fixte
Shelling
Gegel

6. Shellining tabiatni tushuntirishda qaysi pozitsiyada turgan?

Pantestik
Ratsionalistok
B.Atestik
Dualistik

7. Dialektikani kim fanga kiritgan?

Gegel
Kant
Shelling
Fixte

8 .Gegel man'tiqni necha qismga bo'ladi?

3
4
5
2

9. Qaysi olim o'z ta'limotida «Inkorni-inkor» qonunidan foydalanadi?

Gegel
Kant
Shelling
Fixte

10. Gegel falsafasining 3-chi qismi nima?

Ruh falsafasi
Man'tiq
Naturfalsafa
Ilmiy falsafa

11. Fazo kategoriyasining falsafiy ma'nosi qaysi javobda tug'ri kursatilgan?

Narsa va hodisalarning kulami, uzaro joylashishi tartibini bildiradigan kategoriya;

Ichida turli yulduz va sayyoralarni qamrab olgan bushliq;

Predmetlar, narsalarning egallagan hajmini bildiradi;

Predmetlar, narsalarning uzoq-yaqin, baland-past, o'nga-chapda kabi holatlarda joylashishini bildiradi.

12. Taraqqiyot qayerda yuz beradi?

Taraqqiyot – tabiat, jamiyat va inson tafakkurida yuz beradi.

Taraqqiyot tirik va notirik tabiatda yuz beradi;

Taraqqiyot faqat tabiatda yuz beradi;

Taraqqiyot faqat inson tafakkurida yuz beradi;

13. Falsafa fanining juft kategoriyalari nimani ifodalaydi?

Falsafa fanining juft kategoriyasi narsalardagi ichki aloqadorliklar ifodasidir;

Ular olamdagi ziddiyatli xolatlar ifodasidir;

Falsafa fanining juft kategoriyalari qarama-qarshiliklar ifodasidir;

Falsafaning juft kategoriyalari olamdagi ziddiyatli va sababli boglanishlar ifodasidir;

14. **Falsafa fanining juft kategoriyalari nechta turkumga ajratiladi?**

3 ta;
10 ta;
4 ta;
7 ta.

15. Kategoriya nima?

Vokelik va bilish hodisalarining eng umumiy va muxim xossalarini, sababli boglanishlari,munosabatlarini ifodalaydi;

Real olamdagi hodisalarning umumiy xossalarini aks ettiradi;

Vokealik va bilish hodisalarining belgilarini, munosabatlarini rivojlantiradi;

Tafakkur olamiga xos umumiy belgilar, ifodasidir.

16. Qaysilar falsafa fanining kategoriyalari?

Sifat, meyor, xossa, ayniyat, miqdor, borliq, materiya, fazo va vaqt, tafovut, qarama-qarshilik,

Borliq, materiya, bilish, uslub, tamoyil, ong, fazo va vaqt, miqdor, ekologiya, tabiat, xarakatziddiyat, inkor, vorislik

Materiya, sifat, miqdor, tafovut, inson, xaqiqat, bilis

17.Agnostiklarning eng yirik vakili kim?

Kant

Shelling

Gegel

Fixte

18.Dunyo bilan o‘zaro aloqa qilish tajribasini umumlashtiruvchi hodisa bu -...

Fikrlash

So‘zlash

Idrok etish

Sezish

19.Borliq hodisalari va unda hukm suruvchi munosabatlarning muhim, tipik mazmunini o‘zida aks ettiradigan keng tushuncha bu - ...

Kategoriya

Atama

Xulosa

Tushuncha

22.Borlnqning umumiy, muhim tomonlari, xossalari, aloqalari va munosabatlari haqida fikrlash uchun qo‘llaniladigan o‘ta keng tushunchalar majmui, bu -...

Falsafiy kategoriyalar

Fan kategoriyalari

Umumiy kategoriyalar

Atamalar

23.Falsafiy kategoriyalar va formal mantiq kategoriyalari o‘rtasida farqning yuzaga kelishiga qaysi faylasufning ijodi ta’sir qilgan?

Aristotel

Spinoza

Gegel

Kant

24.I.Kant kategoriyalarning necha turini farqlaydi va ular qaysilar?

Uch, hissiyot, idrok va aql

Ikki, sezgi va tafakkur

To‘rt, hissiy, ratsional, irratsional va transsendental

Faqat bitta

5-mavzu. Jamiyat falsafasi. Hozirgi zamon jamiyatining global muammolari va jamiyatni rivojlantirish istiqbollari.

Jamiyat tushunchasi. Jamiyatning mohiyati, kelib chiqishi va taraqqiyoti tug‘risidagi diniy va hozirgi sotsiologik qarashlar.

Jamiyatga ilmiy-falsafiy yondashishning asosiy tomonlari. Jamiyatning moddiy hayoti. Jamiyatning ijtimoiy tuzilishi. Kishilar birligining tarixiy shakllari. Oila, urug‘, qabila, elat, millat.

Jamiyat - doimiy ravishda taraqqiy etib turadigan jonli sotsial organizm. Jamiyat taraqqiyotida uzluksizlik va uzluklilik. Jamiyat taraqqiyotining doimiy ravishda olg‘a tomon ilgarilab borishi. Jamiyat taraqqiyotidagi turg‘unlikning vaqtinchaligi. Jamiyatimizda ruy berayotgan demokratik o‘zgarishlar, ularning tarixiy ahamiyati. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida inson omilining ortib borishi.

Insoniyat istiqboli va global muammolar.

Takrorlash uchun savollar:

1. Sizningcha, jamiyat taraqqiyotining oldindan ko‘ra bilish mohiyati nimadan iborat?
2. Hozirgi davr tarixiy jarayoning o‘ziga xos xususiyatlari haqida so‘zlab bering.
3. Hozirgi zamon umumbashariy muammolari, ularni hal etish yo‘llari va istiqbollari qanday?
4. Inson va insoniyat, ular taqdirining mushtarakligi haqida nimalar deya olasiz?
5. Jamiyat deganda nimani tushunasiz?
6. Jamiyatni kelib chiqishi to‘g‘risidagi qanday nazariyalarni bilasiz?
7. Jamiyatning tadrijiy rivojlanishi deganda nimani tushunsiz?
8. Fuqarolik jamiyati deganda qanday jamiyatni tushunasiz

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular. Javob yozish kerak.

1. Diniy madaniy an’analarning jamiyat taraqqiyotiga ta’siri.
2. BMT Kodeksida korrupsiyaga munosabat.

Adabiyotlar:

1. Axmedova M. Falsafa. – Toshkent: UFMJ, 2006.
2. Yusupov E., Mamashokirov S. Falsafa Darslik, -Toshkent: 2005.
3. Shermuxamedova N.A. Falsafa. Toshkent: “Noshir”, 2012.
4. Shermuxamedova N.A. Gnosiologiya. (Uchebnik). - Toshkent: 2009.
5. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish. (O‘quv qo‘llanma) - Toshkent: 2017.
6. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi. (O‘quv qo‘llanma). - Toshkent: 2017.
7. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi. (Darslik). - Toshkent: 2016.
8. Иззетова Э., Пулатова Д. Философия (Учебное пособие). - Тошкент: 2017.
9. M.Sharipov, Fayzixodjayeva D. Mantiq. O‘quv qo‘llanma. -Toshkent: 2004.

10. Sh.M. Mirziyoev “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” Ijtimoiy adabiyot T.:O‘zbekiston 2017 yil
11.Sh.M. Mirziyoev “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonlik garovi” Ijtimoiy adabiyot T.: O‘zbekiston 2017
12.Sh.M. Mirziyoev “Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” Ijtimoiy adabiyot T.: O‘zbekiston 2017yil.

Internet manbalari:

1. www. Ziyo net.uz
2. www.faylasuf.uz
3.www. .ziyo.uz
4. www. muslim.uz
5. www. religions.uz

5-Mavzu. Jamiyat falsafasi.Hozirgi zamon jamiyatining global muammolari va jamiyatni rivojlantirish istiqbollari.

Reja:

1. Jamiyat tushunchasi. Jamiyat haqidagi falsafiy qarashlar.
2. Jamiyatni falsafiy anglash. Jamiyatning mohiyati va o‘ziga xos jihatlari.
3. Jamiyatning shakllarini va taraqqiyoti tabiiy-tarixiy jarayon sifatida.
4. Davlatning jamiyat hayotidagi o‘rni. O‘zbekistonda barpo etilayotgan erkin fuqarolik jamiyati va uning xususiyatlari.

Tayanch tushunchalar:jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, moddiy hayot, ma’naviy hayot, jamiyatni tarkibiy tuzilishi, demokratik jamiyat, fuqarolik jamiyati.

Bashorat, ekspert baholash, ekstropolyatsiya, tarixiy analogiya, integratsiya, hamkorlik, umumbashariy muammolar

1.Jamiyatni ilmiy bilish va boshqarishda unda sodir bo‘layotgan jarayonlar taraqqiyotning oqibatini oldindan ko‘ra bilish katta ahamiyat kasb etadi. Bashorat qilish nima? Inson hayotida ro‘y bermagan, fan uchun hozircha noma’lum hisoblangan, imkoniyat tariqasidagina mavjud bo‘lgan biron –bir ijtimoiy, siyosiy voqea yoki hodisaning kelajakda qanday ro‘y berishini, uning holati, rivojlanish qonunlari, va oqibatlari muayyan ilmiy dalillar, nazariy xulosalar va ma’lumotlarga asoslangan holda oldindan aytib berish – bashorat qilishdir.

Inson faqat orqaga, o‘tmishga qarab yashay olmaydi, balki o‘tmish avlodlar tamonidan yaratilgan barcha ilmiy bilimlarni chuqur o‘rganish va o‘zlashtirish, ularga ijodiy va tanqidiy yondashish asosida kelajakni oldindan ko‘rishga, to‘xtovsiz ilgarilab borishga harakat kiladi. O‘tmishni, tarixni bilmasdan turib kelajakni bilish, olg‘a rivojlanish mumkin emas. Kelajakka umidvorlik bilan qarash, bugun bilmagan narsa va hodisani ertaga mukammal bilishga intilish, orqaga emas, oldinga, kalajakka tomon harakat qilish – insonning eng muhim

vazifalaridan hisoblanadi. Inson o‘zining kelajagini taxmin va gumonlarga asoslanib emas, balki fan va amaliyotni chuqur ilmiy xulosalarga asoslanib bilib oladi. Fan va amaliyot – kelajakni oldindan ko‘ra bilishning eng ishonchli qurolidir. Inson fan yordamida dunyoni ilmiy asosda biladi, undan maqsadga muvofiq tarzda foydalanadi. Biron bir narsadan foydalanish uchun avvalo o‘sha narsa va hodisani bilish, atroflicha o‘rganish kerak bo‘ladi.

Ijtimoiy hayot hodisalarni oldindan bilish, rejalashtirish, loyihalashtirish, programmalashtirish, boshqarish nazariyalari bilan o‘zaro aloqadorlikda amalga oshiriladi. Murakkab jarayonlarni oldindan bilishga ayrim fanlar, mutaxasislarning kuchi yetmasligi sababli, ilmning barcha tarmoqlarida yetuk omillarning o‘zaro hamkorligi talab qilinadi. Kelajakni, mavjud tarixiy jarayonlarni bashorat qilishning eng qulay usuli ekspert baholashdir. U tarixiy jarayon haqidagi chuqur va aniq tasavvurlarga, ilmiy tadqiqot usullarining natijalariga asoslanib ish ko‘radi va xulosa chiqaradi.

Jamiyat taraqqiyoti qonunlarini oldindan ko‘ra bilishning ekstropolyatsiya(muayyan sharoitda ro‘y beradigan qonuniyatlarni hozirgi davr va kelajakka moslash), tarixiy analogiya(o‘tmish hodisalariga qarab xulosa chiqarish), ijtimoiy hodisalarni kompyuter orqali namunalashtirish, kelajak hodisalarini tasvirlash, ekspremental baholash (tarixiy ilmiy tajribaga asoslangan ishlarga) baho berish singari asosiy usullari mavjud. Bularning hammasi birgalikda jamiyat taraqqiyotining oldindan ko‘rishga imkon beradi.

Ijtimoiy hayot hodisalarini oldindan bilish va keng mushohada etish kishilarning orzu-istaklariga emas, balki jamiyat tarqqiyotining qonunlarini puxta bilishga asoslanadi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, mavjud voqealarning hal qiluvchi yo‘nalishlarini faqat ravshan tushuna olgan taqdirdagina to‘g‘ri, ilmiy jihatdan asoslangan siyosat yuritish mumkin. Sodir bo‘layotgan voqealarni uning obyektiv mantiqni tushunib olish, davr haqiqatini ifodalovchi xulosalar chiqara bilish oson emas, lekin bu g‘oyat zarur ishdir.

Mavjud voqelik, mamlakatimizda jahon miqiyosida muntazam ravishda sodir bo‘lib turgan hodisa va jarayonlar, jahon fani va texnikasining inson aql idroki va tafakkurining xayratomuz darajada to‘xtovsiz rivojlanib borayotganligi, hozirgi zamon ilmiy-texnika yutuqlari insoniyatning kelajagi haqida ilmiy xulosalar chiqarish uchun boy material bermoqda. Mamlakatimizning kelajagi haqida aniq rejalar ishlab chiqarish, ularning amalga oshirishning eng oqilona va maqsadga muvofiq yo‘llarini belgilab olish uchun xalq bilan maslahatlashish, uning fikriga quloq solish, madadiga suyanish uning talab istaklarini bajarish zarurligini hayotning o‘zi ko‘rsatib turibdi.

Hozirgi paytda jahon taraqqiyoti o‘ziga xos yangi davrga qadam qo‘ydi. Bu davrning o‘ziga xos, oldingi paytlardan farq qiladigan alomatlari, xarakterli belgilari bor. Bular quyidagilardan iboratdir.

Yer yuzidagi davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va hamkorlikning yuksalib borishi jahon taraqqiyoti hozirgi bosqichinining o‘ziga xos xususiyatidir. Boshqacha aytganda, keng qamrovli integratsiya(lotincha so‘z

bo‘lib, kirib borish, to‘ldirish, o‘zaro yaqinlashish ma’nosida ishlatiladi)- butun hozirgi olamshumul jarayon bo‘lib, har bir xalq va davlatning porloq istiqboli umuminsoniy silivizatsiya yo‘lidagi barcha kuch harakatlarni birlashtarishga ko‘maklashadi. Ma’lumki, asrimizning bir necha yilliklari mobaynida Yevropa bilan Osiyodagi mamlakatlar, G‘arb bilan Sharq bir biriga dushmanlik nuqtai nazaridan qarab keldi.

2. Hozirgi paytda jahonda shunday vaziyat yuzaga keldiki, dunyodagi ko‘pchilik mamlakatlar va o‘zlarining ijtimoiy, iqisodiy, siyosiy, madaniy taraqqiyot darajalarining har xilligi, rivojlanishning turlicha bosqichda ekanliklari, hatto mafkuraviy qarashlardagi farqlarga qaramasdan o‘zaro dushmanlik va ixtiloflar siyosatidan hamkorlikka o‘tish amalga oshirilmoqda. Bu siyosiy xalqaro munosabatlarda keng qo‘llanilmoqda. Dunyodagi bir qancha eng yirik qudratli davlatlar boshliqlari (prezidentlar), turli siyosiy partiyalar, ijtimoiy tashkilotlar, korxonalar, kontsernlar, ommaviy harakatlar rahbarlari, diniy arboblar, mutaxasislar o‘zaro uchrashib bir biriga yon berishib xalqaro munosabatlarda yuzaga kelgan eng dolzarb masalalar, muhim hayotiy muammolarni tinch yo‘l bilan hal qilishni bahamjihat kelishib olmoqdalar.

Davlatlar va xalqlar o‘rtasida yaqinlashuv jarayonlari va hamkorlikni kuchaytirish to‘g‘risida ikki tomonlama o‘zaro bitimlar va majburiyatlar qabul qilinib turibdi.

«Jahon miqiyosidagi umumiy taraqqiyot, odamlar dunyoqarashining o‘zgarishi, komunikatsiyalar yuksalishi, xalqaro munosabbatlarning rivojlanishi va uning odamzot hayotiga ta’siri davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro birlashishga intilishni kuchaytirmoqda. Ayni vaqda milliy xususiyatlar va ana’nalarni, siyosiy va ma’naviy merosni saqlab qolish tamoyillar ham yaqqol sezilmoqda»[1]

Insoniyatni qiziqtirib kelayotgan umumbashariy milliy, mintaqaviy va boshqa muammolarni ilgargidek ixtiloflar yo‘li bilan hal qilib bo‘lmaydi. Shu jihatdan qaraganda, ixtiloflar emas, sog‘lom kuchlarni birlashtirish, qarama-qarshiliklarni birligi yuzaga kelgan muammolarni hal qilishning muhim omili ekanligini jahon taraqqiyotining hozirgi bosqichi ko‘rsatib va amalda isbotlab turibdi.

Shuning bilan bir qatorda jahonda mulkiy tengsizlik-sanoati rivojlangan mamlakatlar bilan rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasidagi tafovut va ziddiyat kuchaymoqda.

Bu holat jahon resurslarining taqsimlashda yaqqol ko‘rinadi. Ya’ni tabiat resurslari aslida rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy boyligi hisoblansa ham, sanoati yuksak rivojlangan mamlakatlar bu boyliklarni nazorat qilishni o‘z qo‘llariga olishga intilmoqdalar.

Qolaversa, ilmiy va texnikaviy bilimlar, shuningdek, ilg‘or texnalogiyalar sohasida ham katta tafovutlar mavjud.

---

1 Каримов И.А Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойилари. Т. 1995 йил. 59-бет.

3. Umumbashariy muammolar mazmunan boy va chuqurligi, qamrovining kengligi, butun insoniyat hayotiga taalluqligi, miliiy, regional chegaralar bilan cheklanib qolmaganligi va boshqa bir qator xususiyatlariga ko‘ra ayrim xalq va millatga alohida bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumga bevosita tegishli bo‘lgan muammolardan keskin farq qiladi. Umumbashariy muammmolar insoniyatning hozirgi davri uchun emas, balki kelajakdagi hayotiy manfaatlari uchun ham juda muhim ahamiyatga ega. Hozirgi zamon umumbashariy muammolari- bu insoniyat silivizatsiyasining taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan eng muhim va asosiy muammolardir. Bularga, Yer yuzida tinchlikni saqlash, qurollanish poygasini to‘xtatish, xalqaro xavfsizlikni ta’minlash, xavfli kasalliklarni oldini olish va ekologik muammolarni hal etishdan iborat. Umumbashariy muammolarga, yangi rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiyot darajasini oshirish, aholining qashshoqligi va savodsizligiga barham berish, sanoat xom ashyosi, energiya manbalari va oziq-ovqat bilan ta’minlash, koinotni va jahon okeani manbalarini o‘zlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar kiradi.

Qayd qilib o‘tilgan umumbashariy muammolarni mazmuni va xususiyatini ko‘ra uchta guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga, jahon termoyadro urushini oldini olish Yer yuzidagi xalqlar ijtimoiy taraqqiyoti uchun tinchlikni saqlash, rivojlanayotgan mamlakatlardagi mavjud kamchiliklarni tugatish va yangi xalqaro iqtisodiy tartibni o‘rnatish kabi muammolar kiradi. Atrof-muhitni falokatli ifloslanishdan saqlab qolish, insoniyatni yoqilg‘i xom-ashyo, oziq-ovqat bilan ta’minlash, jahon okeani manbalarini va koinotni o‘zlashtirish singari umumbashariy muammolar ikkinchi guruhni tashkil etadi. Nihoyat, uchinchisi, ilmiy texnika inqilobi salbiy oqibatlarini oldini olish, sog‘liqni saqlash, savodsizlikka qarshi kurashish singari muhim hayotiy muammolardan iborat.

Umumbashariy, umuminsoniy ahamiyatga ega bo‘lgan muammolar bir biridan ajralib qolgan emas, balki uzviy bog‘lanishda va o‘zaro aloqadorlikdadir. Ulardan birining hal qilinishi ikkinchi va uchunchisining ham hal qilinishiga yo‘l ochadi.

Hozirgi zamonda insoniyat silivizatsiyasining taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan eng muhim va asosiy muammo-bu Yer yuzidagi tinchlikni saqlash, yadroviy urushni oldini olish xalqaro xavfsizni ta’minlashdan iboratdir. Biz shuni anglashimiz zarurki, insoniyat atom energiyasiga, harbiy ahamiyat baxsh etilgan yadroviy qurollar asriga qadam quyib adabiylikdan mahrum bo‘lib qoldi. Chunki, yadro quroli qo‘llanilsa, Yer yuzidagi barcha tirik mavjudot qirilib, sivilizatsiya yo‘q bo‘lib ketadi, bunga hech qanday shak-shubha yo‘q.

Ma’lumki, insoniyat kelajagi uning fan texnika yutuqlaridan qay darajada unumli foydalana olishga ko‘p jihatdan bog‘liq ekanligini hech kimga sir emas.

Aytib o‘tilgan umumbashariy, umumjahon muammolar juda ko‘p va xilma xil, keng miqiyosli va o‘ta murakkab ekanligi, ayni paytda ulardan har bir insoniyatning bugungi va ertangi hayoti, jahon silivizatsiyasining, qolaversa, sayyoramizning ham taqdiri uchun naqadar muhim va zarurligi o‘z o‘zidan ko‘rinib turibdi. Shuning uchun ham hozirgi paytda butun insoniyat uchun umumbashariy muammolarni hal etishdan ko‘ra zarur va muhimroq vazifa yo‘q.

Umumbashariy muammolar yechilmasa, ekologik falokatlar oldi olinmasa, tinchlik bo‘lmasa, taraqqiyot ham, tarixning o‘zi ham bo‘lmaydi.

4. Har bir insonning baxt-saodati, uning kelajak hayoti butun insoniyatning taqdiri bilan uzviy bog‘liqdir. Inson biologik va ijtimoiy omillarning majmuidir. Jamiyat biologik omillarning insonni kamol toptirishdagi ahamiyatini yanada oshirishga qodir emas.

Lekin insonni mukammallashtirishda asosiy o‘rin tutadigan ijtimoiy omillar rolini oshirish mumkin. Ana shu nuqtai nazardan hozirgi davrda butun insoniyat oldida turgan umumbashariy muammolarni hal qilish mamlakatlar o‘rtasidagi savdo, iqtisodiy, madaniy aloqalarni mustahkamlash katta ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi tarixiy jarayonlarning rivojlanishi bir tamondan, har xil davlatlar o‘rtasidagi muayyan ziddiyatlarni saqlanib qolishi bilan ikkinchi tomondan, jahon hamjamiyati davlatlarining o‘zaro bog‘liqligi tobora kuchayib borishi, turli xalqlarning ijtimoiy hayoti va turmush tarzining baynalminal tus olib borishi bilan tavsiflanadi. Ana shunday qarama qarshiliklar kurashi orqali ziddiyatli ammo o‘zaro bog‘liq, ko‘p jihatdan yaxlit dunyo qiyinchilik bilan tarkib topmoqda.

Ayni paytda barcha xalqlar uchun munosib,chinakam insoniy turmushning moddiy va ma’naviy shart-sharoitlar yaratish, sayyoramizdagi hayotni ta’minlash, uning boyliklariga, avvalo, eng katta boylik insonning o‘ziga, uning imkoniyatlariga avaylab munosabatda bo‘lish davrimizning dolzarb muammolariga aylanib qolganligi bejiz emas.

Inson taqdirining butun insoniyat istiqboli bilan mushtarak ekanligi xalqimiz ongiga singib ketgan. Shuning uchun ham, ular mintaqamizdagi qo‘shni mamlakatlar bilan bir qatorda jahon xalqlari bilan ham yaxshi qo‘shnichilik va o‘zaro hurmat izzatda bo‘lishga doimo intilib kelganlar.

O‘zbeklar azal-azaldan ko‘hna Turkiston zamirida qozoqlar, tojiklar, turkmanlar, qirg‘izlar bilan yelkama- yelka, bir tanu bir jon, aka-uka, do‘st-birodar, qon-qarindosh bo‘lib yashamoqda. O‘lkamizdagi moddiy va ma’naviy madaniyatni yaratish va rivojlantirishga ular o‘z hissalarini qo‘shishgan, mustamlakachilik zulmi va istibdodiga qarshi hamkorlikda kurashganlar. hamkorlikda yashash, mehnat va ijod qilish, kurashish, bir-birini qo‘llab-quvvatlash, yaxshi kunlarda ham, yomon kunlarda ham birga bo‘lish ularning hammasiga xos umumy fazilatdir. Buni umumy chegaralargina emas, til va urf odatlar, an’analarning yaqinligi, din va dilning birligi, madaniyat va turmush tarzining, maishiy hayot va ishlab chiqarish faoliyatlarining deyarli bir hil ekanligi belgilab berilgan.

Bir necha ming yillardan beri yagona bir hududda o‘zaro do‘stlik va hamkorlikda yashab kelgan o‘zbek, tojik, qozoq va qirg‘izlar sobiq sho‘ro tizimi davrida bir-birlaridan deyarli ajratib tishlangan, iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqa iplari uzilib qo‘yilgan edi. Shuning uchun ham ular o‘zaro uzoqlashib qolishgan edi. O‘zbekiston, Qirg‘iston, Turkmaniston singari qardosh respublikalar o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalar markaz ijozatisiz amalga oshmasdi.

Ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini, xalqlarning xohish irodasini pisand etmaslik, turmush voqealari, xalqlarimizning talab istaklariga ilmiy, odilona asosda emas, balki aqidaparastlarcha bo‘lish tufayli ko‘riladigan moddiy, ma’naviy-ruhiy

zarar va boshqa ovorayu sarsongarchilikka markazdagi rahbarlar ahamiyat bermaganlar. Ularning yagona maqsadi qarddosh respublikalar, xalqlar o‘zaro yaqinlashib, birlashib ketmasalar bo‘lgani edi.

70 yil davomida o‘tkazilgan tobelik siyosatining oqibati sifatida O‘rta Osiyoning mustaqillikka erishgan respublikalari va xalqlari oldida o‘tmishda yuzaga kelgan qator muammolar ko‘ndalang bo‘lib turibdi. Bularni davlatlar aro munasabatlarning juda ko‘p masalalarida ko‘rish mumkin.

Ota-bobolarimiz minglab yillar mobaynida bir-birlari bilan yaqin qo‘shni bo‘lib yashab, paxta, g‘alla, ipak, go‘sht, neft, ko‘mir, mis, oltin, kumush va boshqa boyliklar yaratgan, iqtisodiy va madaniy aloqalarni rivojlantirib kelgan bo‘lsalarda, lekin ma’muriy buyruqbozlik yillarida ana shu masalalarda ham og‘ir qiyinchiliklar va qator muammolar yuzaga kelib, keskinlashib ketgan edi.

Mamlakatimizdagi mustaqil respublikalarning tarixan o‘zaro chambarchas bog‘langan va bir-birlariga ta’sir o‘tkazib kelgan madaniy, ma’naviy, xo‘jaliklarini saqlab qolish va mustahkamlashni, yaxlit energetika, transport, irrigatsiya tarmoqlaridan, gaz va suv ta’minoti tizimidan birgalikda foydalanishni yo‘lga qo‘yish va yaxshilashni hozirgi paytda davrning o‘zi talab qilmoqda. Mineral ham ashyo resurlarini va qishloq xo‘jaligi maxsulotlarini qayta ishlash sohasida tarkib topgan ichki, mintaqaviy, respublikalararo munosabatlar haqida ham shunday deyiladi.

O‘zbeklar, qozoq va qirg‘izlar va boshqa turkiy xalqlar o‘rtasida azaliy do‘stlik va qardoshlikning, iqtisodiy, madaniy-siyosiy aloqadorlikning yo‘lga qo‘yilganligi, yangi bosqichga kirganligi mustaqillikning buyuk samarasidir. Prezidentlar va hukumat boshliqlarining Toshkent, Olmata, Bishkek, Ashhabotdagi uchrashuvlarida O‘rta Osiyo xalqlari hayotiga doir ko‘pgina iqtisodiy, siyosiy, madaniy muammolar muhokama qilinib, ularni hal qilish yo‘llari moliyaviy asoslari belgilab olinganligi va hozirdanoq ularning amaliy natijalari sezilayotganligi diqqatga sazovordir.

O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston Respublikalari prezidentlari o‘rtasida yagona iqtisodiy makonni vujudga keltirish to‘g‘risida shartnoma tuzilganligi, uning turmushga tatbiq etish mexanizmi ishlab chiqilib amalga oshirilayotganligi O‘rta Osiyodagi qator mintaqaviy muammolarning yechilishiga keng yo‘l va istiqbol ochib beradi.

Hozirgi paytda insoniyat oldida shunday dolzarb, o‘tkir muammolar turibdiki, ularni hal etish uchun dunyodagi ko‘pchilik mamlakatlar va xalqlarning kuch va imkoniyatlarini safarbar etishga to‘g‘ri keladi. Shuni hisobga olgan holda 1995 yil 3 mart Toshhovuz shahrida bo‘lib o‘tgan kengashda O‘rta Osiyo davlatlari prezidentlarining qo‘shma bayonot qabul qilishi unda: «Hozirgi davrning muhimligi hisobga olinib mamlakatimiz xalqlari hayotining hozirgi holati va kelajagi uchun ma’sulyatni his etgan holda, biz teng huquqli hamkorlarmiz, yaxshi qo‘shnichilik va o‘zaro hurmat davlatlarimizning bir-biriga o‘zaro munosabatlarda asosiy tamoyillar bo‘lib qolishini tasdiqlaymiz», deb e’tirof etiladi.

Mazkur mintaqada istiqomat qilayotgan xalqlar tarixiy, madaniy taraqqiyotning mushtarakligi bilan bellashadigandir, ularni an’analar va ma’naviy

qadryatlar jipslashib turadi. Ular har doim o‘zaro hurmat tinch totuvlik va yaxshi qo‘shnichilik ruhida yashab kelganlar. Umumiy ma’naviy qadriyatlar bilan bir qatorda bizni shuningdek, energetik, suv va mintaqaning boshqa tabiiy resurlaridan foydalanishga asoslangan an’anaviy savdo, iqtisodiy aloqalar birlashtirib turadi. Prezidentlar: «Mamlakatimiz o‘rtasidagi siyosiy, savdo, iqtisodiy, ilmiy-texnik, madaniy va ijtimoiy sohalarda hamkorlik qilish uchun maqbul shart sharoit yaratib berishga har tamonlama tayyor ekanligini, buyuk ajdodlarimizdan qolgan boy merosni bundan keyin yanada boyitish, bu boylikdan mamlakatlarimizdagi mavjud iqtisodiy salohiyatni yanada yuksaltirish yo‘lida foydalanishga amaliy ishlar bilan ko‘maklashamiz»’ deb bayon qildilar.

O‘rta Osiyo mamlakatlari bugungi kunda Birlashgan Millatlar Tashkilotlari, Yevropa xavsizligi va Hamkorlik tashkiloti, MDX hamda boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlarga a’zodir. «Biz , deb-aytilgan Qo‘shma Bayonotda- tashqi siyosatda huquqlarning barcha e’tirof etgan tamoyillariga hamda ularga amal qilgan holda hududiy yaxlitlik va bir-birimizning mustaqilligimizni so‘zsiz hurmat qilish, tarixiy shakllangan chegaralarni tan olish lozimligini e’tirof etamiz. Biz, shuningdek, har bir davlatning o‘z taraqqiyot yo‘lini, davlat va jamiyat andozalarini tanlab olish huquqini e’tirof etamiz, o‘zimizning bir-birimizga nisbatan maqsadlarimiz birligiga shubha uyg‘otuvchi tashqi kuchlar manfaatlariga xizmat qiluvchi bayonotlaridan tiyilib turilishga tayyor ekanligimizni bayon etamiz...

Biz bir-birimiz bilan hamda boshqa mamlakatlar bilan ikki tomonlama, ham ko‘p tomonlama, teng huquqli va o‘zaro foydali hamkorlik qilishga tayyor ekanligini, mamlakatlarimiz va xalqlarimizning gullab-yashnashi va ravnaq topishiga erishishining asosi bo‘lish va bu tamoyillarga og‘ishmay amal qilishimizni ta kidlaymiz», deb aytiladi.

Istiqlol O‘rta Osiyo mamlakatlari uchun bahamjihat bo‘lib jahon ham jamiyatiga qo‘shilib, demokratik tamoyillarga asoslangan, har tamonlama rivojlangan, kelajagi buyuk davlitni barpo etish uchun barcha imkoniyatni yaratib berdi. Uni qo‘ldan boy bermay olg‘a siljitish-barchamizning muqaddas, sharafli, majburiy burchimizdir.

Jahon hamjamiyatiga qo‘shilishida jamiyatimizdagi tinchlik-totuvlik, barqarorlik katta vositachilik vazifasini bajarib kelmoqda. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, «bizni sotsialistik tuzumdan keyingi bir qator mamlakatlardan farqlab turgan, yuksak darajada rivojlangan, yuksak madaniy demokratik davlatlari bilan yaqinlashtirib turgan, jahon hamjamiyatiga har tamonlama qo‘shilib ketish yo‘l ochib berayotgan narsa-fuqarolar tinchligi, millatlararo totuvlik, ijtimoy barqarorlikdir». Barqarorlik, tinchlik, millatlararo totuvlik xalqimizning buyuk ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarini tashkil etadi, ularni avaylab saqlash va mustahkamlashga intilish xalqimizning o‘ziga xos fazilati bo‘lib kelgan va hozirgi vaqtda ham shunday bo‘lib kelmoqda. Xalqlar o‘rtasida tinchlik-totuvlik, do‘stlik va o‘zaro hamkorlik munosabatlarini o‘rnatish mamlakatlarimizning ongiga, qoniga chuqur singib ketgan.

O‘zbekiston jahonda tinchlik va xavfsizlikni saqlash, tinchliksevar mamlakatlar bilan har tamonlama hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish hamda taraqqiyotga erishishning o‘ziga xos yo‘lini tanlab olgan. Shuning uchun ham uning jahon jamiyatidagi obro‘ va e’tibori tobora ortib bormoqda.

Barqarorlik, tinchlik,totuvlik bular davlatimizning yangi binosini barpo qiladigan poydevordir. Bu bizning ertangi porloq kunimizga boradigan to‘g‘ri yo‘ldir.

Ma’lumki, umumjahon xavfsizlikka erishishdan, muayyan mintaqadagi davlatlarning hamjamiyatligi va birlikdagi harakatidan boshlanadigan jarayon. Shuni e’tiborga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A. Karimov BMTning 48,50,55 sessiyalarida so‘zlagan nutqida Afg‘oniston va Tojikistonda barqarorlik, tinchlikka erishish uchun mazkur mintaqalarda joylashgan davlatlarning bir-birini o‘zaro anglash va birgalashib harakat qilishlarining zarurligini uqtirib o‘tdi va bir necha takliflarni olg‘a surdi. «Biz uchun yagona to‘g‘ri yo‘l,-deydi I.Karimov halokatli ravishda o‘z qobig‘ida o‘ralib qolish emas, balki bu jarayonda ma’lum qiyinchilik va nomukammalliklar mavjudligiga qaramasdan, jahon hamjamiyatiga qo‘shilish yo‘lidir».

Hozirgi o‘ta murakkab va ziddiyatli jarayon vaqtida hukumatimiz tomonidan uzoqni ko‘zlab olib borilayotgan insonparvarlik siyosati tufayli, yurtimizda osoyishtalik, tinchlik va totuvlik fuqorolarning kundalik turmush tarziga aylanib ketgan. Bu esa o‘z navbatida respublikamizni jahon hamjamiyatiga qo‘shilishiga katta zamin yaratmoqda.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, mustaqillikka erishgan har bir mamlakat o‘z doirasida chegaralanib qolmasdan, boshqa xalqlar bilan do‘stona bo‘lgan taqdirdagina taraqqiyot yo‘liga tusha oladi. Buni biz o‘z hayotimizda yaqqol ko‘rib turibmiz.

’Falsafa olam va odam taraqqiyotining eng umumiy qonunlari, odamning olamdagi o‘rni to‘g‘risida bahs yuritadi. Olam murakkab, u turli-tuman ko‘rinishlarga ega. Jamiyat olamning eng murakkab ko‘rinishlaridan biri. Biz avvalgi darslarda falsafaning tarkibiy qismi-antropologiya bilan tanishdik. Unda inson moddiy olam taraqqiyotning bevosita davomi, tabiiy evolyutsiyasining maxsum va ko‘rinishi; hozirgi zamon odami Homo Sa’iens taraqqiyoti jamiyatning shakllanishi va taraqqiyoti hamdir degan xulosa qildik.

Bugun jamiyatni falsafiy anglash asoslari bilan tanishamiz. Jamiyat nima, uning mohiyati qanday, jamiyat taraqqiyoti qanday tarzda kechgan, degan savollarga javob beramiz. Biz a’zosi bo‘lgan hozirgi zamon fuqarolik jamiyatining o‘ziga xos jihatlari haqida fikr yuritamiz.

Jamiyat arabcha “jamaha” so‘zidan olingan bo‘lib “umumiy” degan ma’noni ifodalaydi.

Qadimdan jamiyat nima? U qanday tuzilgan? Jamiyatni, uning mohiyatini bilish mumkinmi? Insonning jamiyatdagi o‘rni qanday? kabi savollar olimlarni qiziqitirib kelgan.

Qadimiy davrdan to hozirga qadar yaratilgan jamiyat haqidagi qarashlarni uch yo‘nalishida o‘rganish mumkin:

A sxema-1



Dastlabki jamiyat haqidagi qarashlar diniy nuqtai – nazardan bo‘lgan. Unga ko‘ra olam, undagi barcha narsa va hodisalar, shu jumladan jamiyat va inson ham ilohiyot tomonidan yaratilgan. Jamiyatdagi barcha jarayonlar, o‘zgarishlar sabablarini ilohiyotdan qidirmoq lozim. Kishilar hayotining barcha tomonlari ilohiy kuchlar ta’sirida kechadi, shuning uchun ham kishilar bu kuchlarga e’tiqod qilishlari lozim.

Kishilik jamiyati qadimdan boshlab turli ilmiy bilim sohalari vakillari tomonidan o‘rganilgan.

Iqtisodiyot sohasidagi bilimlarni jamiyat iqtisodiyotini o‘rganish orqali, tarix sohasidagi bilimlar turli tarixiy davrlarda kechgan ijtimoiy – tarixiy jarayonlarni o‘rganish orqali hosil bo‘lgan. Umuman olganda, jamiyatni turli-tuman fan sohalari o‘rganadi.

Qadimiy yunon faylasufi Aristotel jamiyatni o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘rganlari ishlab chiqqan va “metafizika” deb nomlangan. Bu fanlar orasida siyosatga alohida o‘rin bergan. Uning fikricha, jamiyat siyosiy mavjudotlardan tashkil topgan.

Amir Temurning “Temur tuzuk”larida jamiyat, uning iqtisodiy, siyosiy hayoti, jamiyat hayotini tashkil etish to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar berilgan. Hozirda jamiyat muammosi ijtimoiy-gumanitar fanlar: tarix, iqtisodiyot nazariyasi, ma’naviyat asoslari, huquqshunoslik, siyosatshunoslik kabilar tomonidan o‘rganilmoqda.

Jamiyat haqidagi ilmiy-falsafiy qarashlar Markaziy Osiyolik buyuk mutafakkir olimlar tomonidan ilgari surilgan.

Buyuk olim Abu Nasr Farobiy asarlarida jamiyat muammosi chuqur falsafiy tahlil qilingan. U jamiyatning kelib chiqishi asosida tabiiy ehtiyojni qondirishi yotadi, degan nazariyani ilgari surgan. Tabiiy ehtiyoj qilishlarni birlashishga, jamoaga uyushuviga, o‘zaro yordamga olib kelgan. O‘zaro yordam tufayli ehtiyojlar qondirilgan. Kishilar o‘rtasidagi o‘zaro yordam jamiyatni keltirib chiqargan. Insoniyat jamiyati turli xalqlardan tashkil topgan bo‘lib, ular o‘zaro bir-birlaridan tillari, urf-odatlari, malakalari, xususiyatlari bilan farqlanadilar.

G‘arbiy davlatlarni fozil va johillarga ajratadi. Fozil shahar yuksak axloqli va ma’rifatli kishi tamonidan boshqarilishiyu, bu davat shahar aholisining o‘zaro ko‘maklashuviga, bir-biriga yordam berishga asoslanadi. “Odamlarga nisbatdan ularni birlashtirib turuvchi ibtibo - insoniylikdir. Shu tufayli odamlar odamzod turkumicha oid bo‘lgani uchun ham o‘zaro tinchilikda yashamoqlari lozim”. (Abu Nasr Farobiy, Fozil odamlar shahri. T., 1993 186-bet)

Abu Ali ibn Sino “Ijorat va tarbiyat asosida inson o‘z shaxsiy talablari jihatidan boshqalardan, ajralgan holda yashay olmaydi, chunki u insoniyatning boshqa vakillari bilan munosabatda bo‘libgina, ularni qondirishi mumkin”, deb hisoblanadi. U insonlarning jamiyatda tutgan o‘rniga ko‘ra 3 guruhga bo‘ladi:

a) davlat idoralarda xizmat qiluvchi va jamiyatni boshqarish ishi bilan shug‘ullanuvchilar.

b) xojat va zaruriy mashg‘ulotlari ishlab chiqaruvchilar.

v) davlatni qo‘riqlash, uni turli tashqi hujumlardan saqlashni ta’minlaydigan harbiylar.

Ibn Sino jamiyatning paydo bo‘lishi kishilarning birdamlikka bo‘lgan tabiiy ehtiyotidan kelib chiqqanligini ko‘rsatgan.

Abu Rayxon Beruniy birinchilardan bo‘lib sivilizatsiyalarning paydo bo‘lishida tabiiy – geografik muhitning tutgan o‘rnini asoslashga uringan.

U jamiyatni “idora qilish va boshqarishning mohiyati aziyat chekkanlarning xuquqlarini ximoya qilish,birovlarning tinchligi yo‘lida o‘z tinchligini yo‘qotidan iborat” deb bulgan.

Alisher Navoiy o‘z asarlarida “ideal jamiyat” qiyofasini chizgan.

19 – asrning o‘rtalariga kelib jamiyat, uning istiqbolini o‘rganish hayotiy zaruriyatga aylandi. G‘arbiy Yevropaning T.Spenser (1820-1907), Dyurxgeym (1858-1917) Gegelg‘, M.Veber, V.Pareno singari olimlari Marks, Engelg‘s jamiyat taraqqiyoti tabiiy – tarixiy jarayon, murakkab ijtimoiy tizim sifatida tadqiq etdilar.

Insoniyat azal-azaldan jamiyat bo‘lib yashagan. Yer kurrasida yashayotgan odamlar oilasi jamiyatni tashkil etadi.

Jamiyatni falsafiy taxsil qilish o‘zining bir qator tamoyillariga ko‘ra ilmiy tahlil qilishdan farqlanadi.

Falsafa boshqa fanlardan farqli ravishda jamiyat taxlilida qo‘yidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Jamiyat bir butun yaxshi olamning tarkibiy qismi, borliq, tabiatning o‘ziga xos ko‘rinishi, odamlar uyushmasining maxsus shakli.

2. Jamiyat bir butunlikni, yaxshiylikni tashkil etuvchi ijtimoiy tizimdir.

Falsafa jamiyatni o‘rganganda uni yaxlitlik sifatida olib o‘rganadi va uning mavjudligi, taraqqiyot qonunlarini ochib beradi.

3. Falsafa jamiyatning barcha tamonlari orasidagi aloqadorliklar va taraqqiyotni tadqiqi yetadi.

4. Falsafa jamiyat ham olam kabi uzluksiz harakatda, o‘zgarishda, taraqqiyotda deb biladi. (Qarang sxema 2)

Sxema 2

Jamiyatni falsafiy tahlili

Jamiyat insonlar uchrashuvdan iborat bo’lgan birlik. Jamiyat – maqsadlari, orzu-intilishlari, yashash tarzlari mushtarak bo’lgan odamlar oilasidan iborat insonning yashash muhiti

↓

Moddiy olamning tarkibiy qismi.

↓

Jamiyat o’z-o’zini tashkillovchi, o’z-o’zidan rivojlanuvchi murakkab tizim ma’naviy

↓

kishilarning hayot tarzlari, faoliyatlarning barcha turlari, ularning natijalarini qamrab oladi

↓

Jamiyat avvalo kishilar faoliyati. Bu tushunchada kishilar hayoti va faoliyati o’tilishi, hozir va kelajakdan iborat vaqt mezoni aks ettirilgan.

↓

Jamiyat kishilararo ob'yektiv ijtimoiy aloqa va munosabatlarning mavsumi va ko’rinishi.

Kishilararo aloqa va munosabatlar ijtimoiy munosabatlar, deb yuritiladi. Jamiyat yaxlit tizim sifatida moddiy va omillar birligida tashkil topgan.

Sxema 3.



Jamiyat hayoti murakkab tuzilishga ega jamiyat hayotining asosiy sohalari deganda iqtisodiy, ijtimoy, siyosiy, ma’naviy soxalar nazarda tutiladi.

Sxema 4



Iqtisodiy hayot sohasi jamiyatdagi mavjud ishlab chiqarishni nazarda tutadi.

Jamiyatning iqtisodiy hayot sohasi moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish bilan bog'lik jarayonlarda o'z ifodasini topadi.

Ijtimoiy – siyosiy hayot sohasi jamiyatdagi turli birliklar, ijtimoiy guruhlar va ular orasidagi ijtimoiy munosabatlarni, kishilar birligining tarixiy shakllarini o'z ichiga qamrab oladi.

Jamiyatning ma'naviy hayot sohasi unda mavjud bo'lgan ma'naviy ishlab chiqarish va uning natijalari (xilma-xil qarashlar, g'oyalar, ta'minotlar, siyosat, axloq, fan, din, til, adabiyot, san'at, ta'lim – tarbiya soqalari)ni qamrab oladi.

Jamiyatning ijtimoiy – siyosiy hayoti uning tarkibiy tuzilishida o'z ifodasini topadi.

Sxema 5



3 – masala. Jamiyatning shakllanishi va taraqqiyoti tabiiy – tarixiy jarayondir.

Jamiyatning shakllanishi, o‘zgarishi taraqqiyoti tabiat singari qonuniy jarayon. Jamiyat qonunlari tabiat qonunlaridan sifat jihatdan farqlanadi, ular quyidagilar. Birinchidan, tabiat qonunlari olamdagi predmet va hodisalar, tabiiy hodisa kuchlarining o‘zaro ta’siri shaklida namoyon bo‘lsa, ijtimoiy taraqqiyot qonunlari esa ongga ega bo‘lgan kishilarning faoliyati orqali namoyon bo‘ladi.

Ikkinchidan, uzoq amal qiluvchi tabiat qonunlaridan farq qiluvchi jamiyat qonunlari qisqaroq vaqib ichida amal qilish xususiyatiga ega. Ijtimoiy jarayonlarning xususiyatlaridagi yana biri – ularning biologik qonuniyatlar va boshqa tabiat hodisalariga qaraganda yuqori tezlikda rivojlanishidir. Tabiatda sharoitning o‘zgarishi bilan yangi qonunlarning kelib chiqishi odatda uzoq voqiylarga, million yoki milliard yillarda amalga oshadi, ijtimoiy hayotda esa ahvol boshqacha bo‘lib, bu sharoitlar nisbatan tez o‘zgaradi. Kishilik jamiyatining ko‘pgina qonunlari tabiat qonunlaridan oraqli o‘laroq, ma’lum tarixiy davrdagina amal qiladi, keyin ular o‘z o‘rinlarini boshqa yangi qonunlarga bo‘shatib beradilar. Bu hol insonlar ularni bekor qilganliklari uchun emas, balki bu qonunlar amal qiluvchi sharoitlar o‘zgarganligi natijasida yuz beradi.

Uchinchidan, tabiatda yangi qonunning ash’or qilinishi va qo‘llanishi ancha tekis amalga oshadi va bevosita ijtimoiy larzalarga olib kelmaydi. Tabiat qonunlarini qashor qilish va foydalanish ishlab chiqarishni rivojlanishi va texnikaning takomillashishi ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Shuning uchun turli e’tiqodli kishilar tabiat qonunlarini ochishlari va o‘z foydalari uchun ishlatishlari mumkin. Ijtimoiy taraqqiyot qonunlari esa, aksincha, kishilarning, jamiyatdagi sinflarning, turli guruh va tabaqalarning munosabatlarini qamrab olib to‘ridan – to‘g‘ri, ularning manfaatlarida ta’sir qilmasdan qola olmadi. Kishilar buni anglashi yoki anglamasligidan qat’i nazar, ular iqtisodiy taraqqiyot qonunlarining talabini bajaradilar, bunda ularning faoliyati tarixiy qonuniyatga mos keladi va ular o‘z maqsadlariga erisha oladilar yoki bu talablarni bajarmaydilar, bunda jamiyat taraqqiyotida ixtirolar va ijtimoiy larzalar yuz beradi.

Tabiat va jamiyat qonunlari o‘rtasida farqlar bilan birga yana bir mushtaraklik shuni, biosferaning noosfera bosqichiga o‘itishi qonuniy jarayon bo‘lib, buni anglab faoliyat yo‘nalish belgilash tabiat (er)ni ham jamiyatni ham muqarar halokatdan saqlab qoladi. Hozirgi vaqtda jamiyat taraqqiyoti to‘g‘risida turli qarashlar quyidagilar:



Tarixiy jarayonni chiziqli tarzda tasavvur etish olamning yaratilishidan boshlangan yo‘lni oxirigacha bir yo‘nalishda tekis davom etadi, deb tushuntirishdir.

Formatsion taraqqiyot – ijtimoiy – iqtisodiy formatsion taraqqiyoti.

qadimgi davr – quldorlik

o‘rta asrlar – feodalizm

yangi asr – kapitalizm

eng yangi davr – sotsializm va kommunizm.

Sivilizatsion yondashuv – jamiyat madaniy – tarixiy o‘ziga xosligini va qator bosqichlarga bo‘linishini ta’kidlaydi.

Ingliz faylasufi A. Toynbi (1889-1975) tarixiy bilishda 13 sivilizatsiyani farqlaydi. Sivilizatsiya paydo bo‘lishi va tanazuli turli mintaqalarda, turli xalqlarda turlicha kechadi. Tarix o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan alohida sivilizatsiyalar tarixidan iborat u O‘rta Osiyo sivilizatsiyasiga alohida o‘rin bergan har bir sivilizatsiya o‘z taraqqiyotida bir necha bosqichdan o‘tadi:

- paydo bo‘lish
- o‘sish
- tanazzul
- barham topish.

4 – masala. Davlat – jamiyatni boshqarish tartibga solish alohida bir muassasadir. Davlat umum – insoniy qadriyat, insoniyat ma’naviy taraqqiyotining muhim yutug‘idir.

Jamiyat ma’naviy salohiyotining yuksalib borishi bilan siyosiy boshqarish shakllari va usullari ham takomillashib boradi. O‘zgargan tarixiy sharoitda davlatning mohiyati, mazmuni va vazifalariga yangicha yondashish zarurati vujudga keladi. Mustaqillik yillarida milliy davlatchilik aloqalarining tiklanishi bilan davlatning tashkilotchilik, bosh islohotchilik faoliyati yangicha mazmun va ahamiyat kasb etadi.

Prezident I.A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan taraqqiyotning o‘zbek modeli konsepsiyasining amalga oshirilishida davlat hal qiluvchi o‘rin tutadi. Mamlakatimizning siyosiy, huquqiy hayotida amalga oshirilayotgan tub islohatlar siyosiy boshqaruvni yanada takomillashtirishga, yurtimizda huquqiy demokratk jamiyat barpo etishga, kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o‘tishga qaratilgandir.

Jamiyat hayotida turli jamoalar, tashkilot va uyushmalar ham faoliyat ko‘rsatadi. Ularni tartibli ravishda davlat va nodavlat tashkilotlariga ajratish mumkin. Ularga siyosiy partiyalar, siyosiy harakatlar, kasaba uyushmalari, yoshlar uyushmalari, turli jamg‘armalar, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar uyushmasi, mahalla qo‘mitalari va boshqalar kiradi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohatlar inson salohiyatini yanada yuksaltirishga, yurtimizda fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgandir.

Demokratik jamiyatni barpo etish – O‘zbekiston taraqqiyotining bosh maqsadi. Demokratik jamiyat iqtisodiy bozor munosobatlari orqali boshqariladi. Ijtimoiy raqobat, manfaatdorlik iqtisodiy rivojlanish qonuniyati. Demokratik jamiyat demokratik ma’rifatli huquqiy davlatsiz shakllana olmaydi.

“Biz uchun fuqarolik jamiyati – ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustivor bo‘lib, u insonning o‘z-o‘zini kamol topshirishiga monelik qilmaydi, aksincha yordam beradi. Shaxs manfaatlariga, uning huquq va erkinliklarining to‘la darajada ro‘yobga chiqishiga ko‘maklashadi”. (Islom Karimov)

Fuqarolik jamiyati mamlakatning har bir fuqarosiga iqtisodiy va siyosiy turmushini o‘z ixtiyori asosida qurishga to‘la erkinlikni ta’minlovchi jamiyat.

Fuqarolik jamiyatini xususiyatlari:

1. Fuqarolik jamiyati murakkab tarkibiy elementlardan tashkil topgan.
2. Bu jamiyatda davlat faoliyati yuzasidan fuqoralarning to‘la nazorati o‘rnatiladi.
3. Davlatning ko‘pgina vazifalari mahalliy joylarda fuqarolarning o‘z – o‘zini boshqarish organlari, jamoat birlashmalariga, nodavlat tashkilotlariga o‘tkaziladi.

Bunday jamiyat asoslarini barpo etish kishilarning yuksak siyosiy va huquqiy madaniyati, ijtimoiy – siyosiy faoliyatiga tayanadi. Mamlakatimizda mahalla hokimiyat organlarining tashkil etilishi, ular vakolatining ko‘paytirilishi xalqimizning o‘z-o‘zini boshqarish, idora etish madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalla kishilarda yaxshi insoniy fazilatlarni kamol toptirish, o‘z-o‘zini boshqarish, demokratik qadriyayatlarni ro‘yobga chiqarish maktabidir.

Yurtimizda bunday jamiyatni barpo etish barkamol inson shaxsini shakllantirishni talab etadi. O‘z navbatida, ma’naviy yetuk avlod jamiyat taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shadi.

Test.

1. Ma’daniy tarixiy tiplar nazariyasi qachon vujudga keldi?

XIX asr

XVII asr

XVIII asr

XX asr

2. «Ma’daniy-tarixiy tiplar» tushunchasi kim tomonidan fanga kiritilgan?

N.Y.Dostoyevskiy

P.A.Sorokin

Gegel

T. Kun.

3. Qaysi olim jamiyatni gorizontal-vertikal yo‘nalishlar va fluktuatsiya tarzida, murakkab xarakterda bo‘lgan ijtimoiy ma’daniy tizimlarning rang-barangligini tan olish nuqtai nazaridan tavsiflagan?

P.A.Sorok

O.Shpengler

A.Toynbi

Danilevskiy

4. «Materializmdan inson ruhining tabiatini tushuntiruvchi tamoyil sifatida foydalanish hech qachon mumkin emas».- Ushbu so‘zlarning muallifi kim?

Kan

Diltey

K.Marks

Xaydegger

5. K.Marks nazariyasiga ko‘ra insoniyatning paydo bo‘lishiga asosan qaysi omillar rol o‘ynagan?

Mehnat va burro nutq.

Iqtisod

Ehtiyoj

Din

6. Y.Xayzinga qaysi ma’daniyatga insonni shakllantiruvchi asosiy tamoyil sifatida qaraydi?

O‘yin va o‘yin faoliyati

Mehnat

Din

To‘g‘ri javob yo‘q

7. Jamiyatni muhim kichik tizimlarini ko‘rsating?

Iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy

Oilaviy, moddiy, siyosiy

Harbiy, mahalliy, iqtisodiy

Barcha javoblar to‘g‘ri

8. Iqtisodiy kichik tizim bu - ...

Ishlab chikarish faoliyatini va kishilarning bu jarayondagi munosabatlari shakllarning majmuidir

Siyosiy munosabatlar majmui

Harbiy munosabatlar majmui

Moddiy ishlab chiqarish va diniy munosabatlar majmui

9. Tarixiy jarayonlarning subyekti kimlar?

Tarixiy jarayonlarning subyekti o‘z sotsial qiyofasiga ega bo‘lgan xalq ommasidir;

Tarixiy jarayonlar subyekti ja’miki odamlar;

Tarixiy jarayonlar subyekti tarixiy shaxslardir;

Tarixiy jarayonlar o‘z ichki qonunlari bilan boradi.

10. Shaxs nima?

Shaxs muayyan sotsial birlik manfaatlarini to‘laroq anglab, jamoani ma’lum maqsad yo‘lida uyushtira oladigan insondir.

Shaxs jamiyatdagi faol insonlardir;

Shaxs tarixiy jarayonlarni u yoki bu tomonga og‘dirib yuboradigan kishilardir;

Shaxs betakror xususiyati tufayli individuallikdir;

11. Jamiyat nima?

Jamiyat o‘zini-o‘zi tashkilotchi va boshqaruvchi tizim;

Jamiyat odamlarning tarixiy uyushmasi;

Jamiyat ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar majmuasi;

Jamiyat odamlarning shartnoma asosida birlashgan uyushmasi.

12. Xar qaysi davlat va millat nimasi bilan kuchli?

Yuksak ma’daniyati va ma’naviyati bilan.

Xarbiy saloxiyoti bilan;

Yer osti va yer usti boyligi bilan;

Yuksak ishlab chiqarish saloxiyoti bilan;

13. Xozirgi paytda bizning jamiyatimiz qayoqqa qarab harakat qilmoqda?

Mulkchilik shakllariga ega bo‘lgan fuqarolik jamiyatiga

Sotsializmni yangilashga tomon

Kapitalizm tomon.

Texnologik sivilizatsiya tomon

14.Bilimning integral shakli sifatida falsafa qanday muayyan ilmiy tasavvurlarni sintez qiladi?

Ijtimoiy tarix, inson haqidagi tarix

Geografiya

Jamiyat, din, tarix

Hamma javoblar to‘g‘ri.

15.«Ilohiy shahar haqida» asarning muallifi kim?

A.Avgustin

Akvinskiy

Gegel

Nitsshe

16.Qaysi faylasuf tarixga mutlaq ruh, amaliy aql taraqqiyoti sifatida yondashadi?

Gegel

Kant

Didro

Kandorse

17.Tarix mazmuni tushunchasining eng teran talqinlarini qaysi faylasuf taklif qilgan?

K.Yaspers

Sartr

Nitsshe

Kant

18.N.Berdyayevga koʻra tarix mazmunini qachon aniqlash mumkin?

Tarix tugagandan keyin
Tarixni boshlanishida
Uning davomida
Toʻgʻri javob yoʻq

19.Sotsiologiyaning fan sifatidagi asoschisi kim?

O.Kont
T. Kun
Kant
Gegel

20.Tarixni O.Kont necha qismga boʻladi?

2
3
5
4

21.Ijtimoiy statistika bu -...

Odam organizmining tuzilishiga oʻxshab ketadigan jamiyat «ontologiya»sidir
Jamiyatning rivojlanish va oʻzgarish qonunlarini oʻrganish
Davlatning muhim instituti
Hamma javoblar toʻgʻri

Globallashuv va global muammolarning falsafiy jihatlari.

Reja:

1. Jamiyat taraqqiyotini oldindan koʻra bilish inson oqilona faoliyatinining zarur sharti.
2. Jahon taraqqiyotining hozirgi davrdagi oʻziga xos xususiyatlari.
3. Hozirgi zamon umumbashariy muammolari, ularni hal qilish yoʻllari va istiqbollari.
4. Inson va insoniyat taqdirining mushtarakligi.

***Tayanch tushunchalar**:* Bashorat, ekspert baholash, ekstropolyatsiya, tarixiy analogiya, integratsiya, hamkorlik, umumbashariy muammolar

1.Jamiyatni ilmiy bilish va boshqarishda unda sodir boʻlayotgan jarayonlar taraqqiyotning oqibatini oldindan koʻra bilish katta ahamiyat kasb etadi. Bashorat qilish nima? Inson hayotida roʻy bermagan, fan uchun hozircha noma'lum hisoblangan, imkoniyat tariqasidagina mavjud boʻlgan biron –bir ijtimoiy, siyosiy voqea yoki hodisaning kelajakda qanday roʻy berishini, uning holati, rivojlanish qonunlari, va oqibatlari muayyan ilmiy dalillar, nazariy xulosalar va ma'lumotlarga asoslangan holda oldindan aytib berish – bashorat qilishdir.

Inson faqat orqaga, o‘tmishga qarab yashay olmaydi, balki o‘tmish avlodlar tamonidan yaratilgan barcha ilmiy bilimlarni chuqur o‘rganish va o‘zlashtirish, ularga ijodiy va tanqidiy yondashish asosida kelajakni oldindan ko‘rishga, to‘xtovsiz ilgarilab borishga harakat kiladi. O‘tmishni, tarixni bilmasdan turib kelajakni bilish, olg‘a rivojlanish mumkin emas. Kelajakka umidvorlik bilan qarash, bugun bilmagan narsa va hodisani ertaga mukammal bilishga intilish, orqaga emas, oldinga, kalajakka tomon harakat qilish – insonning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi. Inson o‘zining kelajagini taxmin va gumonlarga asoslanib emas, balki fan va amaliyotni chuqur ilmiy xulosalarga asoslanib bilib oladi. Fan va amaliyot – kelajakni oldindan ko‘ra bilishning eng ishonchli qurolidir. Inson fan yordamida dunyoni ilmiy asosda biladi, undan maqsadga muvofiq tarzda foydalanadi. Biron bir narsadan foydalanish uchun avvalo o‘sha narsa va hodisani bilish, atroflicha o‘rganish kerak bo‘ladi.

Ijtimoiy hayot hodisalarni oldindan bilish, rejalashtirish, loyihalashtirish, programmalashtirish, boshqarish nazariyalari bilan o‘zaro aloqadorlikda amalga oshiriladi. Murakkab jarayonlarni oldindan bilishga ayrim fanlar, mutaxasislarning kuchi yetmasligi sababli, ilmning barcha tarmoqlarida yetuk omillarning o‘zaro hamkorligi talab qilinadi. Kelajakni, mavjud tarixiy jarayonlarni bashorat qilishning eng qulay usuli ekspert baholashdir. U tarixiy jarayon haqidagi chuqur va aniq tasavvurlarga, ilmiy tadqiqot usullarining natijalariga asoslanib ish ko‘radi va xulosa chiqaradi.

Jamiyat taraqqiyoti qonunlarini oldindan ko‘ra bilishning ekstropolyatsiya(muayyan sharoitda ro‘y beradigan qonuniyatlarni hozirgi davr va kelajakka moslash), tarixiy analogiya(o‘tmish hodisalariga qarab xulosa chiqarish), ijtimoiy hodisalarni kompyuter orqali namunalashtirish, kelajak hodisalarini tasvirlash, ekspremental baholash (tarixiy ilmiy tajribaga asoslangan ishlarga) baho berish singari asosiy usullari mavjud. Bularning hammasi birgalikda jamiyat taraqqiyotining oldindan ko‘rishga imkon beradi.

Ijtimoiy hayot hodisalarini oldindan bilish va keng mushohada etish kishilarning orzu-istaklariga emas, balki jamiyat tarqqiyotining qonunlarini puxta bilishga asoslanadi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, mavjud voqealarning hal qiluvchi yo‘nalishlarini faqat ravshan tushuna olgan taqdirdagina to‘g‘ri, ilmiy jihatdan asoslangan siyosat yuritish mumkin. Sodir bo‘layotgan voqealarni uning obyektiv mantiqni tushunib olish, davr haqiqatini ifodalovchi xulosalar chiqara bilish oson emas, lekin bu g‘oyat zarur ishdir.

Mavjud voqelik, mamlakatimizda jahon miqiyosida muntazam ravishda sodir bo‘lib turgan hodisa va jarayonlar, jahon fani va texnikasining inson aql idroki va tafakkurining xayratomuz darajada to‘xtovsiz rivojlanib borayotganligi, hozirgi zamon ilmiy-texnika yutuqlari insoniyatning kelajagi haqida ilmiy xulosalar chiqarish uchun boy material bermoqda. Mamlakatimizning kelajagi haqida aniq rejalar ishlab chiqarish, ularning amalga oshirishning eng oqilona va maqsadga muvofiq yo‘llarini belgilab olish uchun xalq bilan maslahatlashish,

uning fikriga quloq solish, madadiga suyanish uning talab istaklarini bajarish zarurligini hayotning o‘zi ko‘rsatib turibdi.

Hozirgi paytda jahon taraqqiyoti o‘ziga xos yangi davrga qadam qo‘ydi. Bu davrning o‘ziga xos, oldingi paytlardan farq qiladigan alomatlari, xarakterli belgilari bor. Bular quyidagilardan iboratdir.

Yer yuzidagi davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va hamkorlikning yuksalib borishi jahon taraqqiyoti hozirgi bosqichinining o‘ziga xos xususiyatidir. Boshqacha aytganda, keng qamrovli integratsiya(lotincha so‘z bo‘lib, kirib borish, to‘ldirish, o‘zaro yaqinlashish ma’nosida ishlatiladi)- butun hozirgi olamshumul jarayon bo‘lib, har bir xalq va davlatning porloq istiqboli umuminsoniy silivizatsiya yo‘lidagi barcha kuch harakatlarni birlashtarishga ko‘maklashadi. Ma’lumki, asrimizning bir necha yilliklari mobaynida Yevropa bilan Osiyodagi mamlakatlar, G‘arb bilan Sharq bir biriga dushmanlik nuqtai nazaridan qarab keldi.

2. Hozirgi paytda jahonda shunday vaziyat yuzaga keldiki, dunyodagi ko‘pchilik mamlakatlar va o‘zlarining ijtimoiy, iqisodiy, siyosiy, madaniy taraqqiyot darajalarining har xilligi, rivojlanishning turlicha bosqichda ekanliklari, hatto mafkuraviy qarashlardagi farqlarga qaramasdan o‘zaro dushmanlik va ixtiloflar siyosatidan hamkorlikka o‘tish amalga oshirilmoqda. Bu siyosiy xalqaro munosabatlarda keng qo‘llanilmoqda. Dunyodagi bir qancha eng yirik qudratli davlatlar boshliqlari (prezidentlar), turli siyosiy partiyalar, ijtimoiy tashkilotlar, korxonalar, kontsernlar, ommaviy harakatlar rahbarlari, diniy arboblar, mutaxasislar o‘zaro uchrashib bir biriga yon berishib xalqaro munosabatlarda yuzaga kelgan eng dolzarb masalalar, muhim hayotiy muammolarni tinch yo‘l bilan hal qilishni bahamjihat kelishib olmoqdalar.

Davlatlar va xalqlar o‘rtasida yaqinlashuv jarayonlari va hamkorlikni kuchaytirish to‘g‘risida ikki tomonlama o‘zaro bitimlar va majburiyatlar qabul qilinib turibdi.

«Jahon miqiyosidagi umumiy taraqqiyot, odamlar dunyoqarashining o‘zgarishi, komunikatsiyalar yuksalishi, xalqaro munosabbatlarning rivojlanishi va uning odamzot hayotiga ta’siri davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro birlashishga intilishni kuchaytirmoqda. Ayni vaqda milliy xususiyatlar va ana’nalarni, siyosiy va ma’naviy merosni saqlab qolish tamoyillar ham yaqqol sezilmoqda»[2]

Insoniyatni qiziqtirib kelayotgan umumbashariy milliy, mintaqaviy va boshqa muammolarni ilgargidek ixtiloflar yo‘li bilan hal qilib bo‘lmaydi. Shu jihatdan qaraganda, ixtiloflar emas, sog‘lom kuchlarni birlashtirish, qarama-qarshiliklarni birligi yuzaga kelgan muammolarni hal qilishning muhim omili ekanligini jahon taraqqiyotining hozirgi bosqichi ko‘rsatib va amalda isbotlab turibdi.

Shuning bilan bir qatorda jahonda mulkiy tengsizlik-sanoati rivojlangan mamlakatlar bilan rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasidagi tafovut va ziddiyat kuchaymoqda.

---

2 Каримов И.А Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойилари. Т. 1995 йил. 59-бет.

Bu holat jahon resurslarining taqsimlashda yaqqol ko‘rinadi. Ya’ni tabiat resurslari aslida rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy boyligi hisoblansa ham, sanoati yuksak rivojlangan mamlakatlar bu boyliklarni nazorat qilishni o‘z qo‘llariga olishga intilmoqdalar.

Qolaversa, ilmiy va texnikaviy bilimlar, shuningdek, ilg‘or texnalogiyalar sohasida ham katta tafovutlar mavjud.

3. Umumbashariy muammolar mazmunan boy va chuqurligi, qamrovining kengligi, butun insoniyat hayotiga taalluqligi, miliiy, regional chegaralar bilan cheklanib qolmaganligi va boshqa bir qator xususiyatlariga ko‘ra ayrim xalq va millatga alohida bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumga bevosita tegishli bo‘lgan muammolardan keskin farq qiladi. Umumbashariy muammmolar insoniyatning hozirgi davri uchun emas, balki kelajakdagi hayotiy manfaatlari uchun ham juda muhim ahamiyatga ega. Hozirgi zamon umumbashariy muammolari- bu insoniyat silivizatsiyasining taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan eng muhim va asosiy muammolardir. Bularga, Yer yuzida tinchlikni saqlash, qurollanish poygasini to‘xtatish, xalqaro xavfsizlikni ta’minlash, xavfli kasalliklarni oldini olish va ekologik muammolarni hal etishdan iborat. Umumbashariy muammolarga, yangi rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiyot darajasini oshirish, aholining qashshoqligi va savodsizligiga barham berish, sanoat xom ashyosi, energiya manbalari va oziq-ovqat bilan ta’minlash, koinotni va jahon okeani manbalarini o‘zlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar kiradi.

Qayd qilib o‘tilgan umumbashariy muammolarni mazmuni va xususiyatini ko‘ra uchta guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga, jahon termoyadro urushini oldini olish Yer yuzidagi xalqlar ijtimoiy taraqqiyoti uchun tinchlikni saqlash, rivojlanayotgan mamlakatlardagi mavjud kamchiliklarni tugatish va yangi xalqaro iqtisodiy tartibni o‘rnatish kabi muammolar kiradi. Atrof-muhitni falokatli ifloslanishdan saqlab qolish, insoniyatni yoqilg‘i xom-ashyo, oziq-ovqat bilan ta’minlash, jahon okeani manbalarini va koinotni o‘zlashtirish singari umumbashariy muammolar ikkinchi guruhni tashkil etadi. Nihoyat, uchinchisi, ilmiy texnika inqilobi salbiy oqibatlarini oldini olish, sog‘liqni saqlash, savodsizlikka qarshi kurashish singari muhim hayotiy muammolardan iborat.

Umumbashariy, umuminsoniy ahamiyatga ega bo‘lgan muammolar bir biridan ajralib qolgan emas, balki uzviy bog‘lanishda va o‘zaro aloqadorlikdadir. Ulardan birining hal qilinishi ikkinchi va uchunchisining ham hal qilinishiga yo‘l ochadi.

Hozirgi zamonda insoniyat silivizatsiyasining taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan eng muhim va asosiy muammo-bu Yer yuzidagi tinchlikni saqlash, yadroviy urushni oldini olish xalqaro xavfsizni ta’minlashdan iboratdir. Biz shuni anglashimiz zarurki, insoniyat atom energiyasiga, harbiy ahamiyat baxsh etilgan yadroviy qurollar asriga qadam quyib adabiylikdan mahrum bo‘lib qoldi. Chunki, yadro quroli qo‘llanilsa, Yer yuzidagi barcha tirik mavjudot qirilib, sivilizatsiya yo‘q bo‘lib ketadi, bunga hech qanday shak-shubha yo‘q.

Ma’lumki, insoniyat kelajagi uning fan texnika yutuqlaridan qay darajada unumli foydalana olishga ko‘p jihatdan bog‘liq ekanligini hech kimga sir emas.

Aytib o‘tilgan umumbashariy, umumjahon muammolar juda ko‘p va xilma xil, keng miqiyosli va o‘ta murakkab ekanligi, ayni paytda ulardan har bir insoniyatning bugungi va ertangi hayoti, jahon silivizatsiyasining, qolaversa, sayyoramizning ham taqdiri uchun naqadar muhim va zarurligi o‘z o‘zidan ko‘rinib turibdi. Shuning uchun ham hozirgi paytda butun insoniyat uchun umumbashariy muammolarni hal etishdan ko‘ra zarur va muhimroq vazifa yo‘q. Umumbashariy muammolar yechilmasa, ekologik falokatlar oldi olinmasa, tinchlik bo‘lmasa, taraqqiyot ham, tarixning o‘zi ham bo‘lmaydi.

4. Har bir insonning baxt-saodati, uning kelajak hayoti butun insoniyatning taqdiri bilan uzviy bog‘liqdir. Inson biologik va ijtimoiy omillarning majmuidir. Jamiyat biologik omillarning insonni kamol toptirishdagi ahamiyatini yanada oshirishga qodir emas.

Lekin insonni mukammallashtirishda asosiy o‘rin tutadigan ijtimoiy omillar rolini oshirish mumkin. Ana shu nuqtai nazardan hozirgi davrda butun insoniyat oldida turgan umumbashariy muammolarni hal qilish mamlakatlar o‘rtasidagi savdo, iqtisodiy, madaniy aloqalarni mustahkamlash katta ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi tarixiy jarayonlarning rivojlanishi bir tamondan, har xil davlatlar o‘rtasidagi muayyan ziddiyatlarni saqlanib qolishi bilan ikkinchi tomondan, jahon hamjamiyati davlatlarining o‘zaro bog‘liqligi tobora kuchayib borishi, turli xalqlarning ijtimoiy hayoti va turmush tarzining baynalminal tus olib borishi bilan tavsiflanadi. Ana shunday qarama qarshiliklar kurashi orqali ziddiyatli ammo o‘zaro bog‘liq, ko‘p jihatdan yaxlit dunyo qiyinchilik bilan tarkib topmoqda.

Ayni paytda barcha xalqlar uchun munosib,chinakam insoniy turmushning moddiy va ma’naviy shart-sharoitlar yaratish, sayyoramizdagi hayotni ta’minlash, uning boyliklariga, avvalo, eng katta boylik insonning o‘ziga, uning imkoniyatlariga avaylab munosabatda bo‘lish davrimizning dolzarb muammolariga aylanib qolganligi bejiz emas.

Inson taqdirining butun insoniyat istiqboli bilan mushtarak ekanligi xalqimiz ongiga singib ketgan. Shuning uchun ham, ular mintaqamizdagi qo‘shni mamlakatlar bilan bir qatorda jahon xalqlari bilan ham yaxshi qo‘shnichilik va o‘zaro hurmat izzatda bo‘lishga doimo intilib kelganlar.

O‘zbeklar azal-azaldan ko‘hna Turkiston zamirida qozoqlar, tojiklar, turkmanlar, qirg‘izlar bilan yelkama- yelka, bir tanu bir jon, aka-uka, do‘st-birodar, qon-qarindosh bo‘lib yashamoqda. O‘lkamizdagi moddiy va ma’naviy madaniyatni yaratish va rivojlantirishga ular o‘z hissalarini qo‘shishgan, mustamlakachilik zulmi va istibdodiga qarshi hamkorlikda kurashganlar. hamkorlikda yashash, mehnat va ijod qilish, kurashish, bir-birini qo‘llab-quvvatlash, yaxshi kunlarda ham, yomon kunlarda ham birga bo‘lish ularning hammasiga xos umumy fazilatdir. Buni umumy chegaralargina emas, til va urf odatlar, an’analarning yaqinligi, din va dilning birligi, madaniyat va turmush tarzining, maishiy hayot va ishlab chiqarish faoliyatlarining deyarli bir hil ekanligi belgilab berilgan.

Bir necha ming yillardan beri yagona bir hududda o‘zaro do‘stlik va hamkorlikda yashab kelgan o‘zbek, tojik, qozoq va qirg‘izlar sobiq sho‘ro tizimi davrida bir-birlaridan deyarli ajratib tishlangan, iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqa

iplari uzilib qo‘yilgan edi. Shuning uchun ham ular o‘zaro uzoqlashib qolishgan edi. O‘zbekiston, Qirg‘iston, Turkmaniston singari qardosh respublikalar o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalar markaz ijozatisiz amalga oshmasdi.

Ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini, xalqlarning xohish irodasini pisand etmaslik, turmush voqealari, xalqlarimizning talab istaklariga ilmiy, odilona asosda emas, balki aqidaparastlarcha bo‘lish tufayli ko‘riladigan moddiy, ma’naviy-ruhiy zarar va boshqa ovorayu sarsongarchilikka markazdagi rahbarlar ahamiyat bermaganlar. Ularning yagona maqsadi qarddosh respublikalar, xalqlar o‘zaro yaqinlashib, birlashib ketmasalar bo‘lgani edi.

70 yil davomida o‘tkazilgan tobelik siyosatining oqibati sifatida O‘rta Osiyoning mustaqillikka erishgan respublikalari va xalqlari oldida o‘tmishda yuzaga kelgan qator muammolar ko‘ndalang bo‘lib turibdi. Bularni davlatlar aro munasabatlarning juda ko‘p masalalarida ko‘rish mumkin.

Ota-bobolarimiz minglab yillar mobaynida bir-birlari bilan yaqin qo‘shni bo‘lib yashab, paxta, g‘alla, ipak, go‘sht, neft, ko‘mir, mis, oltin, kumush va boshqa boyliklar yaratgan, iqtisodiy va madaniy aloqalarni rivojlantirib kelgan bo‘lsalarda, lekin ma’muriy buyruqbozlik yillarida ana shu masalalarda ham og‘ir qiyinchiliklar va qator muammolar yuzaga kelib, keskinlashib ketgan edi.

Mamlakatimizdagi mustaqil respublikalarning tarixan o‘zaro chambarchas bog‘langan va bir-birlariga ta’sir o‘tkazib kelgan madaniy, ma’naviy, xo‘jaliklarini saqlab qolish va mustahkamlashni, yaxlit energetika, transport, irrigatsiya tarmoqlaridan, gaz va suv ta’minoti tizimidan birgalikda foydalanishni yo‘lga qo‘yish va yaxshilashni hozirgi paytda davrning o‘zi talab qilmoqda. Mineral ham ashyo resurlarini va qishloq xo‘jaligi maxsulotlarini qayta ishlash sohasida tarkib topgan ichki, mintaqaviy, respublikalararo munosabatlar haqida ham shunday deyiladi.

O‘zbeklar, qozoq va qirg‘izlar va boshqa turkiy xalqlar o‘rtasida azaliy do‘stlik va qardoshlikning, iqtisodiy, madaniy-siyosiy aloqadorlikning yo‘lga qo‘yilganligi, yangi bosqichga kirganligi mustaqillikning buyuk samarasidir. Prezidentlar va hukumat boshliqlarining Toshkent, Olmata, Bishkek, Ashhabotdagi uchrashuvlarida O‘rta Osiyo xalqlari hayotiga doir ko‘pgina iqtisodiy, siyosiy, madaniy muammolar muhokama qilinib, ularni hal qilish yo‘llari moliyaviy asoslari belgilab olinganligi va hozirdanoq ularning amaliy natijalari sezilayotganligi diqqatga sazovordir.

O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston Respublikalari prezidentlari o‘rtasida yagona iqtisodiy makonni vujudga keltirish to‘g‘risida shartnoma tuzilganligi, uning turmushga tatbiq etish mexanizmi ishlab chiqilib amalga oshirilayotganligi O‘rta Osiyodagi qator mintaqaviy muammolarning yechilishiga keng yo‘l va istiqbol ochib beradi.

Hozirgi paytda insoniyat oldida shunday dolzarb, o‘tkir muammolar turibdiki, ularni hal etish uchun dunyodagi ko‘pchilik mamlakatlar va xalqlarning kuch va imkoniyatlarini safarbar etishga to‘g‘ri keladi. Shuni hisobga olgan holda 1995 yil 3 mart Toshhovuz shahrida bo‘lib o‘tgan kengashda O‘rta Osiyo davlatlari prezidentlarining qo‘shma bayonot qabul qilishi unda: «Hozirgi davrning

muhimligi hisobga olinib mamlakatimiz xalqlari hayotining hozirgi holati va kelajagi uchun ma’sulyatni his etgan holda, biz teng huquqli hamkorlarmiz, yaxshi qo‘shnichilik va o‘zaro hurmat davlatlarimizning bir-biriga o‘zaro munosabatlarda asosiy tamoyillar bo‘lib qolishini tasdiqlaymiz», deb e’tirof etiladi.

Mazkur mintaqada istiqomat qilayotgan xalqlar tarixiy, madaniy taraqqiyotning mushtarakligi bilan bellashadigandir, ularni an’analar va ma’naviy qadryatlar jipslashib turadi. Ular har doim o‘zaro hurmat tinch totuvlik va yaxshi qo‘shnichilik ruhida yashab kelganlar. Umumiy ma’naviy qadriyatlar bilan bir qatorda bizni shuningdek, energetik, suv va mintaqaning boshqa tabiiy resurlaridan foydalanishga asoslangan an’anaviy savdo, iqtisodiy aloqalar birlashtirib turadi. Prezidentlar: «Mamlakatimiz o‘rtasidagi siyosiy, savdo, iqtisodiy, ilmiy-texnik, madaniy va ijtimoiy sohalarda hamkorlik qilish uchun maqbul shart sharoit yaratib berishga har tamonlama tayyor ekanligini, buyuk ajdodlarimizdan qolgan boy merosni bundan keyin yanada boyitish, bu boylikdan mamlakatlarimizdagi mavjud iqtisodiy salohiyatni yanada yuksaltirish yo‘lida foydalanishga amaliy ishlar bilan ko‘maklashamiz» deb bayon qildilar.

O‘rta Osiyo mamlakatlari bugungi kunda Birlashgan Millatlar Tashkilotlari, Yevropa xavsizligi va Hamkorlik tashkiloti, MDX hamda boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlarga a’zodir. «Biz , deb-aytilgan Qo‘shma Bayonotda- tashqi siyosatda huquqlarning barcha e’tirof etgan tamoyillariga hamda ularga amal qilgan holda hududiy yaxlitlik va bir-birimizning mustaqilligimizni so‘zsiz hurmat qilish, tarixiy shakllangan chegaralarni tan olish lozimligini e’tirof etamiz. Biz, shuningdek, har bir davlatning o‘z taraqqiyot yo‘lini, davlat va jamiyat andozalarini tanlab olish huquqini e’tirof etamiz, o‘zimizning bir-birimizga nisbatan maqsadlarimiz birligiga shubha uyg‘otuvchi tashqi kuchlar manfaatlariga xizmat qiluvchi bayonotlaridan tiyilib turilishga tayyor ekanligimizni bayon etamiz...

Biz bir-birimiz bilan hamda boshqa mamlakatlar bilan ikki tomonlama, ham ko‘p tomonlama, teng huquqli va o‘zaro foydali hamkorlik qilishga tayyor ekanligini, mamlakatlarimiz va xalqlarimizning gullab-yashnashi va ravnaq topishiga erishishining asosi bo‘lish va bu tamoyillarga og‘ishmay amal qilishimizni ta’kidlaymiz», deb aytiladi.

Istiqlol O‘rta Osiyo mamlakatlari uchun bahamjihat bo‘lib jahon ham jamiyatiga qo‘shilib, demokratik tamoyillarga asoslangan, har tamonlama rivojlangan, kelajagi buyuk davlitni barpo etish uchun barcha imkoniyatni yaratib berdi. Uni qo‘ldan boy bermay olg‘a siljitish-barchamizning muqaddas, sharafli, majburiy burchimizdir.

Jahon hamjamiyatiga qo‘shilishida jamiyatimizdagi tinchlik-totuvlik, barqarorlik katta vositachilik vazifasini bajarib kelmoqda. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, «bizni sotsialistik tuzumdan keyingi bir qator mamlakatlardan farqlab turgan, yuksak darajada rivojlangan, yuksak madaniy demokratik davlatlari bilan yaqinlashtirib turgan, jahon hamjamiyatiga har tamonlama qo‘shilib ketish yo‘l ochib berayotgan narsa-fuqarolar tinchligi, millatlararo totuvlik, ijtimoy barqarorlikdir». Barqarorlik, tinchlik, millatlararo totuvlik xalqimizning buyuk

ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarini tashkil etadi, ularni avaylab saqlash va mustahkamlashga intilish xalqimizning o‘ziga xos fazilati bo‘lib kelgan va hozirgi vaqtda ham shunday bo‘lib kelmoqda. Xalqlar o‘rtasida tinchlik-totuvlik, do‘stlik va o‘zaro hamkorlik munosabatlarini o‘rnatish mamlakatlarimizning ongiga, qoniga chuqur singib ketgan.

O‘zbekiston jahonda tinchlik va xavfsizlikni saqlash, tinchliksevar mamlakatlar bilan har tamonlama hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish hamda taraqqiyotga erishishning o‘ziga xos yo‘lini tanlab olgan. Shuning uchun ham uning jahon jamiyatidagi obro‘ va e’tibori tobora ortib bormoqda.

Barqarorlik, tinchlik,totuvlik bular davlatimizning yangi binosini barpo qiladigan poydevordir. Bu bizning ertangi porloq kunimizga boradigan to‘g‘ri yo‘ldir.

Ma’lumki, umumjahon xavfsizlikka erishishdan, muayyan mintaqadagi davlatlarning hamjamiyatligi va birlikdagi harakatidan boshlanadigan jarayon. Shuni e’tiborga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A. Karimov BMTning 48,50,55 sessiyalarida so‘zlagan nutqida Afg‘oniston va Tojikistonda barqarorlik, tinchlikka erishish uchun mazkur mintaqalarda joylashgan davlatlarning bir-birini o‘zaro anglash va birgalashib harakat qilishlarining zarurligini uqtirib o‘tdi va bir necha takliflarni olg‘a surdi. «Biz uchun yagona to‘g‘ri yo‘l,-deydi I.Karimov halokatli ravishda o‘z qobig‘ida o‘ralib qolish emas, balki bu jarayonda ma’lum qiyinchilik va nomukammalliklar mavjudligiga qaramasdan, jahon hamjamiyatiga qo‘shilish yo‘lidir».

Hozirgi o‘ta murakkab va ziddiyatli jarayon vaqtida hukumatimiz tomonidan uzoqni ko‘zlab olib borilayotgan insonparvarlik siyosati tufayli, yurtimizda osoyishtalik, tinchlik va totuvlik fuqorolarning kundalik turmush tarziga aylanib ketgan. Bu esa o‘z navbatida respublikamizni jahon hamjamiyatiga qo‘shilishiga katta zamin yaratmoqda.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, mustaqillikka erishgan har bir mamlakat o‘z doirasida chegaralanib qolmasdan, boshqa xalqlar bilan do‘stona bo‘lgan taqdirdagina taraqqiyot yo‘liga tusha oladi. Buni biz o‘z hayotimizda yaqqol ko‘rib turibmiz.

.

Test.

1. Falsafaning fandan ustunligi nimada?

Etiborni ishning mohiyatiga qaratish

Xulosalarni tafsilotlarga qaratish

Muayyan dalillarga tayanish

Etiborni ishning ko‘zga ko‘rinmas ayrim jihatlariga qaratish

2. Dunyodagi o‘zgarishlarning butun majmui, shuningdek, ularning sabablari nechanchi yillardan «globallashuv» deb nomlangan?

1990-yillarda

1985-1990-yillarda

1980-yillarda

2000-yillardan boshlab

3. Globalistika zamirida qanday jarayonlar yotadi?

Qarama-qarshi jarayonlar va integratsiya

Ilmiy bilishning tabaqalashuvi

Turdosh fanlarning tutashishi

To‘g‘ri javob yo‘q

4. Globalistika mustaqil ilmiy yo‘nalish va ijtimoiy amaliyot jabhasi sifatida nechanchi yildan shakllana boshlagan?

1960-yillardan

1980-yillardan

1970-yillardan

1990-yillardan

5. Hozirgi globallashuv jarayonlarining ilk nishonalari nechanchi asrlardan boshlab kuzatilgan?

XV asr oxirlaridan

XVIII asr boshidan

XVIII asr o‘rtalaridan

XIX asrdan

6. Globallashuv jarayonlarining amalda real shakl-shamoyili qachondan boshlab ko‘zga ko‘ringan?

XIX asr boshida

XV asr oxirida

XVIII asrda

XVIII asrda

7. Fundamental globallashuvning ilk alomatlari qachondan kuzatilgan?

XIX asrning 2-yarimi

XX asr o‘rtasi

XIX asr oxiri

XVIII asr

8. Qaysi davrda dunyoni iqtisodiy bo‘lib olish yakunlandi?

XX asrning o‘rtalarida

XX asr oxiri

XVIII asrda

XIX asrda

9. Qaysi davr oralig‘ida globallashuv jarayonlari yanada kuchliroq namoyon bo‘ldi?

I va II jahon urushi oralig‘ida

XV asr oxiri XXasr 20-yillari

XXasr boshidan XXI asr boshigacha

XIX asr oxiri va XX asr 2-yar

10.Nechanchi yildan globallashuv serqirra tus oldi?

A.1970-yildan

B. 1950-yildan

V. 1980-yildan

G. 1940-yildan

11.Globallashuvning qaysi boskiqda global ong ijtimoy ongning yana bir shakli sifatida paydo bo'ldi?

A.Serqirra globallashuv

B. Fundamental globallashuv

B.Ilk globallashuv

G. Urush yillarida

12.Iqtisodiy integratsiyalashuv, pul unikatsiyalashuvi, ommaviy madaniyat

va unga mos emas madaniyatning shakllanishi qaysi davrga xos?

A.Serqirra globallashuv

B. Fundamental globallashuv

B.Ilk globallashuv

G. Urush yillarida

13.Nechanchi yildan dunyo informatsion jihatdan uzil-kesil tutashgan?

A.1991-yildan

B. 1985-yildan

B.1998-yildan

G. 1992-yildan

14.«XX asrda umumjahon tarixi boshlandi» degan xulosa kimga tegishli?

A.A.Toynbi

B. K.Yaspers

B.U.Cherchill

G. U.Klinton

15.Kim tomonidan «Shu davrdan e'tiboran (ikkinchi jahon urushi tugagach), yaxlit bir butunning yagona tarix sifatidagi jahon tarixi boshlanadi» degan fikr aytilgan?

A.K.Yaspers

B. A.Toynbi

V. U.Cherchill

G. Katta J.Bush

16.Ilk texnokratik va ijtimoiy nazariyalar qachondan paydo bo'ldn?

A.XX asrda
B. XXI asrda
B.XIX asrda
G. XIX asr oxirida

17.Texnokratik nazariyani birinchi bo‘lib falsafiy jihatdan asoslab bergan sotsiolog kim?

A.T.Rebvik
B. A.Toynbi
B.K.Yaspers
G. P.Teyyar de Sharden

18.Biosferaning tarkibiy qismi sifatida insonning betakrorligini asoslab olish kim tomonidan ilgari surilgai?

A.P.Teyyar de Sharden
B. A.Toynbi
B.K.Yaspers
G. B.Veblen

19.Texnooptimistik kayfiyat qachon kuchaygan?

A.1950-1960-yillar
B. 1940-1950-yillar
V.1980-yillar
G. 1970-yillar.

6-mavzu. Pedagogik amaliyotda mantiqiy fikrlashning ahamiyati.

Tafakkur — mantiq ilmining o‘rganish obyekti. Tafakkurning asosiy xususiyatlari. Tafakkurni o‘rganishga turli xil yondashishlar.

Tafakkurning mantiqiy shakllari va qonunlari hakida tushuncha. Tafakkur shakli (mantiqiy shakl) tushunchasi. Fikrning aniq mazmuni va mantiqiy shakli, ularning nisbiy mustaqilligi va o‘zaro alokasi. Tafakkur qonuni (mantiq qonuni) tushunchasi. Tafakkur qonuni-fikrlar (fikrlash unsurlari) O‘rtasidagi zaruriy aloka. Tafakkur qonunlari to‘g‘ri fikr yuritishning muhim tamoyillari sifatida,

Mantiq — tafakkur shakllari va qonunlarini o‘rganuvchi fan. Mantiq ilmining asosiy masalalari va ularni tadqiq etish yo‘nalishlari. Formal mantiqning predmeti va tuzilishi, uning dialektik mantiq va matematik mantiq bilan o‘zaro munosabati. Formal mantiqning falsafiy bilimlar tizimida tutgan o‘rni. Formal mantiqning hozirgi paytdagi vazifalari.

Mantiq fanining pedagogik amaliyotda fikrlash madaniyatini o‘stirishdagi, shu jumladan, mustaqil, erkin fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilishdagi ahamiyati. Mantiq ilmining bilish jarayonida tushunish va tushuntirish, ayniqsa, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglash, milliy mafkurani rivojlantirishdagi ahamiyati.

Takrorlash uchun savollar:

1. Bilish jarayoni qanday amalga oshadi?
2. Tafakkur nima va u qanday xususiyatlarga ega?
3. Mantiq atamasi qanday ma’nolarni ifodalaydi?
4. Fikrdagi izchillik deganda nimani tushunasiz?
5. Tafakkur qonunlarini bilmasdan ham to‘g‘ri fikrlash mumkinmi?
6. Tushunchaning mazmuni va hajmining ta’rifini ayta olasizmi?
7. «E’tiqod» tushunchasiga ta’rif bering. O‘z ta’rifingizni guruhingiz a’zolarining ta’riflari bilan solishtirin

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular. Javob yozish kerak.

1.O‘zbekistovda korrupsiyaga oid qonunlar va qarorlar tasnifi. Korrupsiyaga qarshi kurashning ahamiyati.

2. Etika kategoriyalarining o‘ziga xos xususiyatlari.

Adabiyotlar.

1. S .Valiyeva, A. Bobotoyev. Mantiq . Oquv qollanma .TOSHKENT-2006
2. Yusupov E., Mamashokirov S. Falsafa Darslik, -Toshkent: 2005.
3. Sharipov M. FAYZIXODJAYEVA D. MANTIQ. Toshkent: 2004 y
4. Xayrullayev. M. Mantiq .T-1993 .
5. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi. (O‘quv qo‘llanma). Toshkent: 2017.
6. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi. (Darslik). - Toshkent: 2016.

7. Иззетова Э., Пулатова Д. Философия (Учебное пособие). Тошкент: 2017.
8.M.Sharipov, Fayzixodjaeva D. Mantiq. O‘quv qo‘llanma. -Toshkent: 2004.

9. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: “O‘zbekiston”, 2012-yil.
10. I. A. Karimov. “Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch”, – T.: “Ma’naviyat”, 2008- yil.
11. I.A.Karimov. «Barkamol avlod orzusi», -T.: “O‘zbekiston”, 2000-yil

Internet sayitlari.

1. www. Ziyo net.uz
2. www.faylasuf.uz
3.www. .ziyo.uz
4. **www. muslim.uz**
5. www. religions.uz

6- mavzu Pedagogik amaliyotda mantiqiy fikirlashning ahamiyati.

Reja:

1. Mantiq ilmining predmeti, asosiy qonunlari.
2. Tushunchaning mazmuni va hajmi, ularning turlari
3. Mulohaza. Xulosa chiqarish.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: bilish, hissiy bilish, aqliy bilish, sezgi, idrok, tasavvur, tafakkur shakli, tafakkur qonuni, formal mantiq, dialektik mantiq, matematik mantiq, qonun, ayniyat qonuni, nozidlik qonuni, uchinchisi istisno qonuni, yetarli asos qonuni.

1. «Mantiq» tushunchasi uch xil ma’noda qo‘llanadi: birinchidan, u ob’yektiv reallikdagi narsa va hodisalar orasidagi eng umumiy, zaruriy, qonuniy aloqadorliklar ma’nosida («dalillar mantig‘i», «tarixiy taraqqiyot mantig‘i»...); ikkinchidan, fikrlar aloqadorligi va taraqqiyoti ma’nosida («fikrlash mantig‘i», «tafakkur mantig‘i»...); uchinchidan, tafakkur to‘g‘risidagi fan ma’nosida («Mantiq fani»). Biz «mantiq» deganda, uning so‘nggi ma’nosini nazarda tutamiz. Mantiq - tafakkur to‘g‘risidagi fan bo‘lib hisoblanadi.

«Logika» grekcha «loguke» so‘zidan olingan bo‘lib, “so‘z”, “fikr”, “aql” ma’nolarini ifodalaydi. Yaqin va O‘rta Sharqda bu fan «mantiq» deb ataladi. «Mantiq» arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, so‘z, fikr, degan ma’noni ifodalaydi.

Mantiq fanining o‘rganish ob’yekti tafakkur hisoblanadi. Mantiq boshqa fanlardan farqli o‘laroq, tafakkurni olamni bilish usuli sifatida o‘rganadi. Demak, Mantiq fani - tafakkur shakllari, usullari va qonunlari to‘g‘risida bahs yuritadi.

Mantiq olamni bilish usuli sifatida abstrakt tafakkur va uning shakllari (tushuncha, mushohada va xulosa)ni, shuningdek, tafakkur jarayonida olamning inson ongida aks etish qonunlari (ayniyat, ziddiyatlik, uchinchisi istisno, yyetarli asos)ni o‘rganadi.

Hozirgi zamon mantiq fani tarkibiga dialektik va formal (shakliy) mantiq kiradi. Dialektik va formal mantiq asosida ilmiy bilish mantig‘i shakllanadi.

Mantiq ilmi taraqqiyotini ikki bosqichga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1) Aristotel asarlaridan boshlangan an’anaviy yoki klassik mantiq. Bu formal mantiq deb yuritiladi.

2) Matematik (simvolik) mantiq.

Hozirgi davrda mantiq fanining turli-tuman yo‘nalishlari mavjud: intuitiv mantiq, konstruktiv mantiq, ko‘p belgili mantiq, modal mantiq, relevant mantiq va h.k.z.

Mantiq fanining o‘ziga xos tomoni shundan iboratki, olam haqida olingan axborotlarni tafakkur qonun-qoidalari asosida qayta ishlash orqali yangi bilim hosil bo‘ladi.

Mantiqiy shakllar, qonun-qoidalar umuminsoniy xarakterga ega. Buning ma’nosi shundan iboratki, inson qaysi tilda so‘zlashi, fikr yuritishidan qat’iy nazar, barcha uchun umumiy hisoblangan mantiq talablariga, qonun-qoidalariga amal qilishi zarur. Ana shu shartga rioya qilish olam haqida haqqoniy bilim hosil qilishga imkon beradi.

Mantiqiy tafakkur shakllari deganda fikrning tuzilishi, uning tarkibiy qismlarining bir-biri bilan aloqadorligi nazarda tutiladi. Tabiiy tilda fikrlash uch shaklda namoyon bo‘ladi: 1) tushuncha; 2) mushohada; 3) xulosa. Tafakkurning yuqorida ko‘rsatilgan har bir shakli boshqasidan o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra farqlanadiyu

Tushuncha olamdagi predmet va hodisalarining inson ongidagi fikriy ifodasidir. Masalan: shamol, Markaziy Osiyo mintaqasi.

Mushohada (hukm)da predmetlar, hodisalar, munosabatlar haqidagi biror fikr tasdiqlanadi yoki inkor etiladi. Masalan: Ayrim sonlar juft sonlardir. Ayrim daryolarning suvi loyqa emas.

Xulosa – mantiqiy tafakkur shakli sifatida bir yoki bir necha fikr ustidagi mantiqiy operatsiya bo‘lib, u yangi fikr (bilim)ning hosil bo‘lishiga imkon yaratadi.

Inson fikr yuritish jarayonida analiz, sintez, induksiya, deduksiya, analogiya, abstraktlashtirish, umumlashtirish kabi mantiqiy usullardan foydalanadi.

Inson tafakkuri muayyan qonunlarga bo‘ysunadi. Mantiq qonunlari to‘g‘ri fikrlash qonunlari hisoblanadi. Bu qonunlarga: 1) ayniyat; 2) ziddiyatlilik; 3) uchinchisi istisno; 4) yetarli asos qonunlari kiradi.

2. Mantiq fani qadimdan paydo bo‘lgan. Mantiqning shakllanishi falsafiy ilmlarning shakllanishi bilan bevosita bog‘liq. Mantiq fanining tarixiy rivojlanish bosqichlari deganda, quyidagilar nazarda tutiladi:

1. Qadimgi dunyoda mantiq fanining taraqqiyoti.

2. O‘rta asrlarda mantiq fanining taraqqiyoti.

3. Yangi davr Yevropasida mantiq fanining taraqqiyoti.

4. Mantiq ilmining hozirgi taraqqiyot bosqichi.

Mantiq ilmining shakllanishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar shundan dalolat beradiki, uning dastlabki ildizlari Xitoy, Hindiston, Yunoniston va dunyoning boshqa mamlakatlarida paydo bo‘lgan. Mantiq dastlab Hindistonda eramizdan ilgarigi ikkinchi ming yilliklarda shakllana boshlagan. Eramizning boshlarida Hindistonda mantiq ilmi mustaqil fan sifatida shakllandi. VII asrga mansub mashhur mantiqshunos Dharmakirtining mantiqqa oid yozib qoldirgan risolalari («Mantiq tomchilari» - darslik, «Mantiqiy asos to‘g‘risida qisqacha darslik», «Mantiqiy aloqalar to‘g‘risidagi tadqiqotlar», «Bilimning haqiqatligi to‘g‘risida») shundan dalolat beradi.

Eramizdan avvalgi V-IV asrlarda qadimgi Yunonistonda mantiq mustaqil fan sifatida shakllangan. Yunon faylasufi Demokrit (er.av. 460-370 yillar) o‘z asarlarida «Logos» terminini qo‘lladi va «logos»ni umuman dunyoni va uni bilishning asosi sifatida talqin etdi. Suqrot mantiqiy usullar haqida fikr yuritdi. Aflotun o‘zining bir qator dialoglarida («Fedon», «Teatet», «Sofist») mantiqiy shakllar to‘g‘risidagi qarashlarni bayon etadi.

Mantiq tarixiga oid adabiyotlarda Aristotelgacha ham mantiq ilmi rivojlanganligi haqida ma’lumotlar bor. Sofistlarning mantiqqa oid qarashlari bunga misol bo‘la oladi. Sofistlar o‘ta so‘zamol, shirinsuxan, donishmandlar bo‘lishgan va yoshlarda so‘z san’ati, isbot va raddiya mahoratini tarbiyalashgan.

Mantiq fanining alohida ilm sohasi sifatida shakllanishi buyuk yunon faylasufi, mutafakkir Aristotel nomi bilan bevosita bog‘liq.

Aristotel (er.av. 384-322) o‘zidan avvalgi olimlarning mantiq sohasidagi fikrlarini umumlashtirdi va rivojlantirdi, mantiq fanini alohida fan sifatida tavsiflab berdi. Aristotelning mantiqqa oid asarlari «Organon» deb nomlanadi. Uning tarkibiga kirgan «Kategoriyalar to‘g‘risida», «Talqin to‘g‘risida», «Birinchi analitika», «Ikkinchi analitika», «Topika», «Sofistik raddiyalar to‘g‘risida» kabi risolalarida mantiq ilmi to‘g‘risidagi fikrlar bayon etilgan.

Aristotel «Kategoriyalar to‘g‘risida»gi risolasida tushunchalar to‘g‘risidagi ta’limotni, «Birinchi analitika»da xulosa chiqarish usullari - sillogizmlar nazariyasini, «Ikkinchi analitika»da ilmiy isbotlashning asosiy tamoyillarini yoritdi. Aristoteldan so‘ng mantiq qadimiy Yunonistonda Stoya maktabi vakillari Zenon, Xrisipp va boshqalar tomonidan rivojlantirildi. Mantiq dastlab amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan fan sifatida notiqlik san’ati bilan bog‘liq ravishda shakllandi va rivojlandi.

Qadimdan to XIX asrning o‘rtalariga qadar Aristotel tomonidan asoslab berilgan mantiq «Formal mantiq», «Klassik mantiq», «Tradision mantiq» nomlari bilan ataldi.

O‘rta Osiyo mutafakkirlari ijodiga doir ilmiy manbalarda mantiq ilmi buyuk olimlar Muhammad al-Xorazmiy, Muhammad Al-Farg‘oniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Abdulloh Al-Xorazmiy, Mir Sayid Jurjoniylar tomonidan rivojlantirilganligi haqida ma’lumotlar bor.

Abu Abdulloh Al-Xorazmiyning «Mafotih-al-ulum», («Ilmlar kaliti») asari o‘ziga xos qomusiy manba bo‘lib, o‘z ichiga o‘sha davrdagi deyarli barcha ilm sohalarini qamrab olgan. Ushbu asarda falsafa, mantiq, tib, ilmi-nujum, musiqa fanlarining asoslari berilgan. Asarning ikkinchi qismiga 9 bobdan iborat mantiq kiritilgan.

Muhammad ibn Muso al Xorazmiy tomonidan matematik mantiqning asosiy tushunchasi - algoritm ishlab chiqilgan. Algoritm tushunchasi jonli mushohadaga asoslanib, miqdorlar orasidagi murakkab munosabatlarga oid muhim xususiyatni ajratib olish va umumlashtirish ma’nosini ifodalaydi. Avval sanoqning o‘zi, so‘ng qat’iy, aniq qoida asosida qo‘yilgan masalani oxirigacha yechib beruvchi har qanday hisoblash tizimi algoritm deb ataladi. Mantiq fani o‘rta asrlarda Al-Kindiy, Zakariyo ar Roziy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino kabi O‘rta Osiyo mutafakkirlari tomonidan ishlab chiqildi va rivojlantirildi.

Bizgacha yetib kelgan adabiyotlarda Abu Nasr Farobiy va Abu Ali Ibn Sinoning mantiq ilmidagi muvaffaqiyatlari alohida ta’kidlangan.

Abu Nasr Forobiy (873-950-yillar) mantiq ilmi taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan buyuk mutafakkirdir. U avvalo qadimgi yunon falsafasi va mantig‘ini, Aristotelning ilmiy ijodini chuqur o‘rgandi.

Farobiy mantiqqa oid «Isoguvchi» (Kirish), «Ma’qulot» (Kategoriya), «Ibora, «Qiyos», «Burxon», «Jadal», «Safsata», «Xitoba», «She’r» deb nomlangan 9 risolani yaratdi. Bulardan tashqari, «Mantiq ilmiga kirish», «Aql haqida» «Sillogizm» kabi risolalarni yozdi. Farobiy mantiqni «to‘g‘ri fikrni amalga oshirish, haqiqatni qo‘lga kiritish san’ati» - deb hisoblagan. Uning fikricha, mantiq shunday bir san’atki, u har doim odam notiqlikda adashib qoladigan bo‘lsa, to‘g‘ri fikrlashga olib keluvchi va aql yordamida biron-bir xulosa qilinadigan bo‘lsa, xatolardan asrovchi masalalarni o‘z ichiga oladi.

Abu Nasr Farobiy mantiqni tafakkur to‘g‘risidagi fan, deb bildi. Uning ta’limoticha, tafakkur haqiqatni bilishga xizmat qiladi va bu yo‘lda u turli mantiqiy shakl va usullar: tushuncha, hukm, xulosa chiqarish, isbotlash kabilardan foydalanadi. «Mantiq,-deb yozadi Farobiy, - falsafaning u yoki bu qismlarida qo‘llangan hollarda nazariy va amaliy san’atlarni qamrab oluvchi haqiqatni qo‘lga kiritish asbobidir». Farobiy - mantiqning asosiy tushunchalari, bo‘limlarini ishlab chiqishga katta hissa qo‘shdi. Uning mantiq bilan grammatika, mantiqiy fikr bilan notiqlik (fikrini bayon qilish) san’atining bog‘liqligi to‘g‘risidagi fikrlari diqqatga sazovordir.

Farobiy mantiq (logika) ilmini sakkiz qismga ajratdi: 1) oddiy iboralar - tushunchalar; 2) murakkab iboralar - gap; 3) sillogizmlar – xulosalar. Mantiqning qolgan beshta qismini fikr yuritishning shakl va usullariga qaratadi. Bular a) isbotlash (dalillash) usuli; b) dialektika (yoki baholash) usuli; v) sofistik (yoki yolg‘onni haqiqat qilib ko‘rsatishga qaratilgan) usul; g) notiqlik; d) she’riyat. Bu ko‘rsatilgan usullar sillogistik san’atning turli xildagi ko‘rinishlari bo‘lib isbotlashga tayanadi, deb hisoblaydi buyuk mutafakkir[1].

[1]Abu Nasr Forobiy. Ixso-al-o’lum, - Qohira, 1918, 60-68-betlar.

Mantiqshunoslarning tan olishicha, Farobiy haqiqatan ham arab tilida ijod qilgan olimlar ichida birinchi bo‘lib mantiqqa oid yirik asarlar bitgan.

Farobiy ta’limotida induktiv bilish usuli, induktiv xulosalar haqida fikr yuritilgan, Uning fikricha, deduktiv xulosalash imkoniyati induktiv xulosa yutuqlari bilan boyitilishi lozim.

Abu Ali Ibn Sino (980-1037) Al-Farobiyning falsafa va mantiqqa oid qarashlarini rivojlantirdi. U mantiqqa oid dastlabki bilimlarini ustozi Notiliydan o‘rgandi. Abu Ali Ibn Sino qalamiga mansub «Kitob-ash-shifo»ning 9-bo‘limi mantiqning muammolariga bag‘ishlangan. (Bular «Al-Madxal», «Al-Ma’qulot», «Al-Iborat», «Al-Qiyos», «Al-Burhon», «Al-Jadal», «Al-Xitoba», «Ash-She’r»). Shuningdek, uning mantiq sohasidagi qarashlari «Kitob-al-najot», «Kitob-an-ishorat va tanbihot», «Donishnoma» va boshqa risolalarida bayon etilgan.

Ibn Sinoning «Donishnoma» asarida mantiq ilmining tuzilishi, qismlari, tafakkurning shakllari, usullari, qoidalari, mantiqiy xatolar kabi masalalar yoritilgan.

Ibn Sino mantiq deganda, to‘g‘ri fikr yuritish, xatolardan saqlanish qoidalarini, ma’lum bilimlardan noma’lum bilimga o‘tish yo‘llarini ko‘rsatadigan fanni tushunadi. Uning fikricha, amaliy tafakkur har doim mantiqqa muhtoj, u mantiq yordamida mukammallikka erishadi.

G‘arbda mantiq fani ingliz faylasufi Frensis Bekon (1561-1625) tomonidan rivojlantirildi. U o‘zining «Yangi organon» asarida bilishning induktiv metodini asoslab berdi. U induksiyani bilish usuli, deb qaradi.

Mantiq masalalari yangi davrda faylasuflar R.Dekart, G.Leybnits, I.Kant diqqatini o‘ziga tortdi. Mashhur nemis faylasufi Leybnis (1646-1716) mantiq ilmining tutgan o‘rniga alohida e’tibor beradi. U mantiqni boshqa ilmlarni isbotlovchi, kashfiyotlar metodini o‘rganuvchi fan, deb ta’rifladi. Leybnis mantiqning to‘rtinchi - yetarli asos qonunini asoslab berdi.

XIX-XX asrdagi matematika ilmining taraqqiyoti mantiq ilmining yangi yo‘nalishlarini keltirib chiqardi.

Djon Bul, O de Morgan, Poretskiy asarlarida mantiq ilmida matematika metodlarining tadbiq etilishi masalalari ishlab chiqildi, matematik logika shakllandi.

Mantiq ilmining asosini simvolik yoki formal mantiq tashkil etadi.

3. Mantiq inson tafakkurining shakllari, usullari, qonun-qoidalari to‘g‘risida bahs yuritadigan fandir. Inson tafakkuri murakkab jarayon. Bu jarayonning mohiyati, bosqichlari falsafiy nuqtai nazardan talqin qilinganda shunday xulosaga kelish mumkinki, inson tomonidan olamning anglanishi (bilish) bir-biriga bog‘liq bo‘lgan ikki bosqichni o‘z ichiga oladi: olamni his qilish yo‘li bilan bilish; olamni aql yo‘li bilan bilish.

Olam, undagi predmet va hodisalarni biz, avvalo, sezgilarimiz yordamida bilamiz. Olamdagi narsalarning ongimiz ta’siri natijasida sezgilar hosil bo‘ladi. **Sezgilar narsa va hodisalarning alohida tomonlari, xususiyatlarining inson ongidagi in’ikosidir**. Insonning olam haqidagi barcha bilimlarining birinchi va

dastlabki manbai - sezgi. Sezgi tufayli inson olam bilan bog‘lanadi. Sezgi tashqi olamdagi predmet va hodisalar, ularning xususiyatlarini bilish imkonini beradi.

Hissiy qabul qilishning ikkinchi shakli idrok bo‘lib hisoblanadi**. Olamdagi narsa va hodisalarning inson ongida aks etishi natijasida vujudga kelgan predmetning yaxlit obrazi - idrok hisoblanadi.**

Tasavvur - hissiy qabul qilishning o‘ziga xos shakli. U aks etgan predmetning ongda iz qoldirishi yoki obrazli xotira, deb ham yuritiladi. Tasavvur insonning olam haqidagi bilimlarining saqlanishi va mustahkamlanishiga xizmat qiladi, shu bilan bir qatorda narsa va hodisalarni bilishda muayyan o‘rin tutadi. Tasavvur hissiy qabul qilishdan aqliy bilishga o‘tishda muhim bosqich bo‘lib hisoblanadi. Shunday qilib, sezgi, idrok, tasavvur olamni hissiy bilishning asosiy shakllaridir. Ular psixologiyaning o‘rganish obyekti bo‘lib hisoblanadi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, sezgi, idrok, tasavvur inson aqliy faoliyati bilan chambarchas aloqadorlikda vujudga keladi. Boshqacha qilib aytganda, hissiy tafakkur shakllari inson aqli tomonidan boshqariladi va nazorat qilinadi. Buni shunday tushunmoq joizki, hissiy bilish insonda sof, aqliy bilishdan ajralgan holda mavjud bo‘la olmaydi. Hissiy va mantiqiy bilish o‘zaro bir-biri bilan chambarchas bog‘liq, biri ikkinchisini taqozo etadi. Hissiy bilish mantiqiy bilishga o‘tishning dastlabki zaruriy bosqichi, mantiqiy bilish esa, hissiy bilish natijalarining inson miyasida qayta ishlanishi oqibatida vujudga keladi.

Tushuncha - predmet, hodisalar, ularga xos xususiyatlar, munosabatlarning ifodasi hisoblanadi. Masalan: «Toshkent» (narsa ifodasi), «Go‘zallik» (belgini ifodalaydi), «Teng» (munosabatni ifodalaydi).

Mushohada (hukm) - predmetlar bilan xususiyatlar o‘rtasidagi aloqadorlikni ifodalaydi. Hukm (mushohada) tushunchalardan tashkil topadi. **Mushohada predmet yoki hodisa haqida tasdiq va inkor shaklida bayon etilgan fikrdir**. Masalan: Odamiylik - yuksak axloqiy fazilat.

Xulosa – ilgarigi bilim asosida yangi bilim hosil qilishning mantiqiy usuli hisoblanadi. Xulosa fikrlar bog‘lanishidan kelib chiqadi. Fikrlarning bog‘lanishi yangi bilimni hosil qilish imkonini beradi. Ular olamdagi narsa va hodisalar aloqadorligining inson ongidagi ifodasidir. Masalan, A – fikr: Metallar issiqlik o‘tkazadi; B - fikr: Mis – metall; V – xulosa: Demak, mis ham issiqqlik o‘tkazadi. Bunda «A» va «B» fikrning bog‘lanishidan yangi V bilim hosil bo‘ladi.

4. To‘g‘ri fikrlash qonunlari tafakkur qonunlari deb yuritiladi. Tafakkur qonunlari insonning tarixiy taraqqiyoti va bilish sohasidagi tajribasi asosida shakllangan. Tafakkur qonunlarida insonga xos fikrlash jarayonining eng oddiy, eng umumiy xususiyatlari aks etgan. Tafakkur qonunlari muhokama jarayonida fikrlar orasidagi munosabatlarga taalluqli bo‘ladi. Fikrlarning to‘g‘ri tuzilganligi va ular orasidagi ichki aloqadorlik mantiq qonunlarida o‘z ifodasini topadi.

Mantiq qonunlariga quyidagilar kiradi: 1) ayniyat qonuni; 2) ziddiyatsizlik qonuni; 3) uchinchisi mustasno qonuni; 4) yetarli asos qonuni. Mantiq qonunlari faqat inson fikrlarigagina tatbiq etiladigan qonunlar hisoblanadi. Shuning uchun

ham ular tafakkurning xususiy qonunlari, deb yuritiladi. **Tafakkur qonunlari fikr – muhokamalar orasidagi eng umumiy, zaruriy, takrorlanadigan, qat'iy, ichki aloqadorliklarni ifodalaydi hamda mantiqiy (ya'ni to‘g‘ri) fikr yuritish yo‘llarini ko‘rsatadi.**

Ayniyat, ziddiyatsizlik, uchinchisi mustasno qonunlari Aristotelning «Metafizika» asarida ta'riflab berilgan. Yetarli asos qonuni nemis faylasufi, matematik Leybnis tomonidan asoslangan.

Mantiq qonunlari mantiqiy fikrlashning to‘g‘ri amalga oshishini ta'minlaydi.

Ayniyat qonuni. Ayniyat lotincha «Zex identitatis» so‘zidan olingan bo‘lib, aynan, o‘xshash ma'nolarni beradi. Ayniyat qonuni moddiy olamning muhim tomoni, xususiyatini ifodalaydi. Ma'lumki, olam o‘zgarib, doimo rivojlanib turadi. Harakat - reallikning atributi hisoblanadi. Lekin uzluksiz kechayotgan bu jarayonlar (harakat, o‘zgarish, taraqqiyot) narsa va hodisalardagi vaqtincha sokinlikni, muvozanatni inkor etmaydi. Nisbiy sokinlik, muvozanat mavjudlikning muhim tomonini tashkil etadi. Masalan: uy yer bilan birgalikda soatiga 1000 km tezlikda o‘z o‘qi atrofida va sekundiga 36 km tezlikda quyosh atrofida aylanadi. Uyning atomlari sekundiga o‘nlarcha ming kilometr harakatlanadi. Vaqt o‘tishi bilan uzluksiz harakat hech narsani qoldirmaydi. Lekin ma'lum vaqt mobaynida narsalar (masalan, uy) nisbiy muvozanatda bo‘ladi. Demak, har bir narsa, hodisa qanchalik o‘zgarishga uchramasin, uning asosiy xususiyatlari, sifati muayyan vaqt mobaynida saqlanib qoladi. Aynan shu xususiyat o‘rganilayotgan obyektning birligini, aynanligini, barqarorligini ifodalaydi va bu narsa bizning fikrimizda aks etadi. Narsa va hodisalarning sifat muayyanligi, barqarorlik ularni tadqiq qilish qonuniyatlarini ochish imkoniyatini beradi.

Ayniyat qonuni narsa va hodisalardagi o‘xshashlik, umumiy tomonlarning fikrdagi ifodasiga tayanadi. Olam turli-tuman ko‘rinishlarga ega, undagi narsa va hodisalar o‘zaro qancha farqlanmasin, umumiylikka, aniqlikka ega. Shu umumiylik tufayli inson ularni o‘zaro bir-biridan farqlaydi. Ayniyat narsa va hodisalarning ma'lum munosabatda o‘xshashligini, tengligini ifodalaydi. Masalan: (A) «Toshkent», (B) «O‘zbekistonning poytaxti» tushunchalarini olaylik. Bu har ikki (A) va (B) tushuncha bir ma'noni ifodalayapti, bu tushunchalar ayniyat qonuniga bo‘ysunadi.

Ayniyat qonuniga muvofiq, muhokama, bahs, munozara jarayonida har bir fikr aynan bir ma'noda ishlatilmog‘i lozim. Ayniyat qonuni muhokama jarayonida ma'lum vaqt mobaynida, ma'lum munosabatda tushuncha - fikr o‘z ma'nosini saqlab qolsin, degan talabni oldinga suradi. Aniq, ravshan fikrlashning asosiy shartlari deganda uch narsa nazarda tutiladi. **1) obyektning birligi, aynanligi; 2) vaqtning aynanligi; 3) munosabatning aynanligi.**

Formal mantiqda ayniyat A-A dir. «A bo‘lmagan narsa A - emasdir» tarzida ifodalanadi.

«Matematik» mantiqda ayniyat A→V tarzida ifodalanadi. Bunda → implikatsiya belgisi, deb yuritiladi va u A va V orasida ma’lum munosabat (tenglik, aynanlik) borligiga ishora qiladi.

Ayniyat qonuni fanda, san’atda, hayotda keng qo‘llaniladi. Kishilarning olam haqidagi bilimlari narsa va hodisalardagi umumiylik (o‘xshashlik)ning ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Tushunchalar, muhokamalar, xulosalar shu ayniylik, o‘xshashlikning ifodasi hisoblanadi. Biz narsa va hodisalarning miqdoriy muayyanligini sonlarda «bir», «ikki», «uch»...deb, sifat va xususiyatlarni «chiroyli», «yashil», «aqlli»..., munosabatlarini «katta», «kichik», «teng»... deb ifoda etamiz; narsa va hodisalar, ularning xossalari, munosabatlari haqida mushohada qilamiz. Fikrlar, mushohadalar orasidagi munosabatlarni aniqlash orqali ilgarigi bilimlar asosida, yangi bilimlar hosil qilamiz. Bularning hammasi narsa va hodisalardagi muayyanlik, doimiylik, barqarorlikning inson ongidagi ifodasidan o‘zga narsa emas. Ilmiy izlanishda ayniyat qonunini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Fanlarda aynanlik, o‘xshashlik o‘ziga xos ifodalanadi, masalan, matematikadagi tenglik, ekvivalentlik, algoritmlar, hozirgi o‘zbek tilidagi ma’nodosh (ekvivalent) so‘zlar, kimyodagi kimyoviy elementlar, atom og‘riliklaridagi aynanlik, o‘xshashlik va hokazo.

Ilmiy izlanish narsa va hodisalar mohiyati, ichki qonuniyatini aniqlash maqsadida olib boriladi. Bu esa o‘z navbatida narsa va hodisalarning sifat muayyanligi, narsalar orasidagi barqaror munosabatlarni barqaror fikrlar (tushuncha, muhokama) orqali ifodalashni toqazo etadi. Qonuniyatlar bir narsa, bir obyektga emas, balki umumga (narsalar turkumlariga), bir qator obyektlarga taalluqli bo‘ladi hamda ulardagi umumiylik, o‘xshashlik, aynanlik tomonlarini o‘rganish orqali ochiladi.

Ayniyat qonuni ilmiy muammo doirasida olib boriladigan ilmiy munozaralarda keng qo‘llaniladi. Bunda ilmiy munozaraning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan mantiqiy fikrlash darajasiga, muhokama etilayotgan narsalar doirasini aniq belgilashga, muhokama asosini to‘g‘ri aniqlashga bog‘liq bo‘ladi.

Ayniyat qonunining buzilishi «tushunchalarni o‘zgartirib qo‘yishda» namoyon bo‘lishi mumkin. Tushunchani o‘zgartirib qo‘yish deganda, uning hajmini o‘rinsiz kengaytirish yoki toraytirish, mazmunini o‘zgartirish (dastlab bir ma’noda, keyinchalik boshqa ma’noda ishlatish) nazarda tutiladi. Oqibatda «tushunchani o‘zgartirib qo‘yish» fikrdagi chalkashlikni, noaniqlikni keltirib chiqarishi mumkin bo‘ladi. «Tushunchani o‘zgartirib qo‘yish» muhokama obyektini o‘zgartirib yuborish, ya’ni bir narsa haqida fikr yurita boshlash, uni tugallamasdan boshqa narsaga o‘tib ketish ma’nosini bildiradi. Muhokama predmetini, tushunchani o‘zgartirib yuborish beixtiyor yoki ataylab amalga oshirilishi mumkin.

Ayniyat qonunining buzilishi tezisni (ya’ni fikrni) o‘zgartirib qo‘yishda ham namoyon bo‘ladi. Biron bir fikrni isbotlash yoki rad etishda ongli, yoki beixtiyor ravishda bir fikrni boshqa bir fikr bilan almashtirish «tezisini o‘zgartirib qo‘yish» deb yuritiladi.

Tezisni o‘zgartirish fanda, siyosatda va boshqa sohalarda ko‘rinishi mumkin. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida:

xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» risolasida XX asr oxiridagi kuzatilayotgan diniy uyg‘onish ijtimoiy hodisasi ustida to‘xtalib, «islom uyg‘onishi» hodisasini tahlil qilishda dinning ma’naviy qadriyatlari bilan din niqobi ostida siyosiy va tajovuzkor maqsadlar orasidagi farqni tushunish nihoyatda muhim ekanligini ta’kidlagan edi.

Ayrim hollarda ilmiy izlanishlarda ayniyat qonunining buzilishi natijasida kuzatiladigan fikrdagi noaniqlik, chalkashlik, g‘alizlik tadqiqot obyektini yaxshi bilmaslikdan, yetarli o‘rganmaslikdan kelib chiqadi.

Aniqlik – to‘g‘ri fikrlash uslubining eng asosiy qoidasi. Ayniyat qonuni fikrdagi noaniqlik – ko‘p gapirsa ham, hech narsa demaslik mumkinligini ko‘rsatadigan qonundir. Ayniyat o‘rganilayotgan obyekt haqidagi bilimlarning aniq, ravshan, izchil bayon etilishini ta’minlaydi. Ayniyat fikrdagi aniqlik, nisbiy muayyanlik, barqarorlikning ifodalanishidir. Olim, fozil kishilar fikrlash madaniyatlari yuqoriligi bilan boshqalardan farqlanadilar. O‘z fikrini qisqa, aniq, ravshan bayon eta olish har bir tadqiqotchi oldiga qo‘yiladigan eng asosiy talab hisoblanadi.

Ziddiyatsizlik qonuni. Ziddiyatsizlik qonuni haqidagi dastlabki ma’lumotni Platonning «Yevtidem» nomli dialogida uchratamiz. Platon bu haqda bir narsaning o‘zi ham bo‘lishi, ham bo‘lmasligi mumkin emas, deydi. Aristotel bu qonunning mohiyatini o‘zaro qarama-qarshi fikrlar bir vaqtning o‘zida baravariga chin bo‘lishi mumkin emas; aynan bir narsa boshqasiga ayni nisbatda ham mos bo‘lishi, ham mos bo‘lmasligi mumkin emas, deb tushuntirgan.

Ziddiyatsizlik lotincha «Zex contradictions» so‘zidan olingan. Tafakkurning bu qonunini predmet va hodisalarga xos bo‘lgan tomonlarining o‘xshashligi, tafovuti va o‘zaro bog‘lanishlarining inson ongidagi in’ikosi sifatida baholamoq lozim. Ma’lumki, olamdagi narsalar muayyan xislatlarga ega. Bu xislatlar predmetlar mavjudligini ifodalaydi. Olam shunday tuzilganki, aynan bir narsaning o‘zi ayni bir sharoitda, ayni bir vaqtda ma’lum xususiyatga ham ega bo‘lish, ham ega bo‘lmasligi (masalan, birir narsa-predmet ayni bir vaqtda, biror nuqtai-nazar doirasida ham «oq», ham«qora» bo‘lishi) mumkin emas. Mana shu xususiyat mantiqning ziddiyatsizlik qonunida o‘z ifodasini topgan. Mazkur qonun tafakkurdagi ziddiyatni bartaraf etishga qaratilgan.

Ziddiyatsizlik qonuniga muvofiq ayni bir narsa haqida, ayni bir vaqtning o‘zida, ayni bir nisbatda aytilgan ikki qarama-qarshi fikr birdaniga chin bo‘lishi mumkin emas: ulardan birining chinligi ikkinchisining xatoligini keltirib chiqaradi. Masalan: A-V dir va A-V emasdir, degan ikki fikr bir vaqtning o‘zida chin bo‘lish mumkin emas. Muhokamada ziddiyatlar turli ko‘rinishlarda uchrashi mumkin. Masalan, agar yakka tasdiq ma’nosida «S-R dir» mushohadasi chin bo‘lsa, uning inkori «S-R emasdir» xato hisoblanadi. Shuningdek, fikrdagi ziddiyatlar umumiy tasdiq va umumiy inkor umumiy tasdiq va juz’iy inkor; umumiy inkor va juz’iy tasdiq fikrlar orasidagi munosabatlarda kuzatilishi mumkin. Bu ko‘rsatilgan fikrlar o‘zaro qarama-qarshi bo‘lib, ularning har ikkisi bir vaqtning o‘zida chin bo‘lishi mumkin

emas. Bir vaqtning o‘zida, bir nisbatda chin bo‘lishi mumkin bo‘lmagan fikrlar mantiqda quyidagi formulalar yordamida ifodalanadi:

S - R dir va S - R emasdir.

Hech bir S - R emasdir va har bir S - R dir.

Hamma S - R dir va ba’zi S - R emasdir.

Hech bir S - R emasdir va ba’zi S - R dir.

Ziddiyatsizlik qonunining ifodalanishi A va A emas. Ziddiyatsizlik qonuni uning amal qilishdagi shart-sharoitlarni yaxshi bilish, tahlil qilishni talab etadi. Mantiq talablarini bilib yoki bilmay turib buzish haqiqatni yashirish, undan qo‘rqish, berkinish, yolg‘on fikrlarni isbotlashga olib keladi.

Ziddiyatlilik qonuni tafakkurning muhim xususiyati fikr zidligiga yo‘l qo‘ymaslikni talab qiladi. Unga ko‘ra bir vaqtning o‘zida bir masala yuzasidan, bir narsaga nisbatan ikki zid fikrning bo‘lishi mumkin emas. Lekin turli ma’noda, turli vaqt birligida, turli nisbatda bir masalaga nisbatan ikki zid fikrning mavjud bo‘lishi mumkin. Ziddiyatsizlik qonuni fikr birligini, vaqt birligini, obyekt birligini, nisbat yoki munosabat birligini asosiy shartlar sifatida qo‘yadi hamda biron bir savolga bir vaqtning o‘zida ham «ha» yoki «yo‘q» tarzida javob berishi mumkin emasligini nazarda tutadi. Ziddiyatsizlik qonuni faqat fikrlash jarayoniga taalluqli. Xuddi ayniyat qonunidagi singari bunda ham fikrdagi muqimlik, barqarorlik nazarda tutiladi. Shundan kelib chiqqan holda ziddiyatsizlik qonuniga ko‘ra aynan bir predmet haqida qarama-qarshi fikrlarni bayon etish mantiqsizlik, deb hisoblanadi. Ziddiyatsizlik qonuni olamdagi narsa va hodisalarda ro‘y berib turadigan uzluksiz o‘zgarish jarayonini inkor etmaydi. U faqat fikrdagi ziddiyatni inkor etishga qaratilgan. Fikr ziddiyatini hayot, olam taraqqiyoti ziddiyatidan farqlamoq kerak. Hayot ziddiyati taraqqiyot manbai bo‘lib hisoblanadi. Olamdagi mavjud ziddiyatlar dialektik ziddiyatlardir. Ziddiyatsizlik qonuni olamning mohiyatini, xususiyatlari, munosabatlari, ulargaxos bo‘lgan ziddiyatlarni izchil, tartibli, bir-biriga zid bo‘lmagan fikrlarda bayon etishni talab qiladi. Tafakkurning ziddiyatsizlik qonuni borliqni va u haqidagi inson fikrlarini o‘rganishdan kelib chiqqan.

Mantiqiy fikrlash ziddiyatlarsiz fikrlash ma’nosini bildiradi.

Tafakkurdagi ziddiyat ikki ko‘rinishda namoyon bo‘ladi; **qarama-qarshi** (**kontrar**) va**zid** (**kontradiktor**). Kontrar lotincha «contrartius» so‘zidan olingan bo‘lib, qarama-qarshi degan ma’noni ifodalaydi.

Kontrar fikrlar deganda bir-biriga qarama-qarshi ma’noni ifodalaydigan fikrlar nazarda tutiladi. Qarama-qarshi (kontrar) munosabatni quyidagicha ifodalash mumkin: Bir narsa yoki hodisa haqidagi ikki fikr (A va V) o‘zaro bir-birini inkor etadi, bir-biriga qarama-qarshi. A fikrning chinligi V ning xatoligini yoki V ning chinligi A ning xatoligini anglatadi. Har ikki (A va V) fikr bir vaqtning o‘zida xato bo‘lishi mumkin. Masalan:

Barcha yigitlar xokkeyga qiziqadi - A fikr.

Hech bir yigit xokkeyga qiziqmaydi – V fikr

Bu kontrar fikrlar, Ularning har ikkisi ham xato. Chunki haqiqiy axvolni to‘g‘ri aks ettirmayapti. Ularning xatoligi zaruriy ravishda uchinchi fikrning (Ba’zi yigitlar xokkeyga qiziqadi) chinligini keltirib chiqaradi.

Kontradiktor lotincha «contradictorius» so‘zidan olingan bo‘lib, zid ma’noni ifodalaydi. Kontradiktor tushunchalar, kontradiktor muhokamalar deganda bir-biriga tamoman zid fikrlar nazarda tutiladi.

Mantiqiy ziddiyat so‘z ziddiyati, fikr ziddiyati deb ham nomlanadi. So‘z ziddiyati odatda insonning o‘z nuqtai-nazariga ega emasligi, obyektni yetarli bilmasligidan dalolat beradi vaoqibatda bayon etilgan fikr noaniq, chalkash, g‘aliz bo‘ladi; muallifda ikkilanish sezilib turadi. chalkashlik, noaniqlik, o‘z fikrini to‘g‘ri va izchil bayon etabilmaslik, fikrdagi ziddiyat inson tafakkurida kuzatiladigan kamchiliklar hisoblanadi.

Ziddiyatsiz fikr yuritish qoidasi kishilarga qadimdan ma’lum bo‘lgan. Markaziy Osiyo mutafakkirlaridan Al-G‘azzoliy (1059-1111) ziddiyatsizlik insonning barcha fikrlariga taalluqli bo‘lmog‘i lozimligini ko‘rsatgan edi.

Ziddiyatsizlik qonunining mohiyatini chuqur anglab olish, izlanishlarda ilmiy muammoni to‘g‘ri aniqlash, unga doir ilmiy farazni ishlab chiqish, ilmiy muammoni tadqiq etishda muhim o‘rin tutadi. Ziddiyatsizlik tafakkurning barcha ko‘rinishlarida (tushuncha, muhokama, xulosa), fanlar mazmunida o‘z ifodasini topadi. Masalan: organik va noorganik olam, musbat va manfiy zaryad, o‘tkir, o‘tmas va to‘g‘ri burchak, unli va undosh tovush, to‘g‘ri va egri chiziq, unitar va federativ davlat, totalitarizm va demokratizm kabilar.

Uchinchisi istisno qonuni. Uchinchisi istisno qonuni ma’no jihatidan ziddiyatsizlik qonunining bevosita davomi bo‘lib, faqat zid (o‘zaro bir-birini tamomila inkor etuvchi) fikrlarganisbatan qo‘llanadi. **Uchinchisi istisno qonuniga ko‘ra,bir-biriga zid bo‘lgan ikki fikr (muhokamadan) birining chinligi hamisha ikkinchisining xatoligini keltirib chiqaradi, uchinchisi bo‘lishi mumkin emas, ya’ni istisno qilinadi.**

Tafakkurning bu qonunini buyuk yunon faylasufi Aristotel ikki zid fikr orasida uchinchisining bo‘lishi mumkin emas, deb ta’riflagan. Mantiqning bu qonuni belgi, xususiyat, munosabatning narsaga xos ekanligini tasdiqlaydi yoki inkor etadi. Bunda bir narsa haqida ikki bir-biriga batamom zid fikrlar o‘rtasidagi munosabatlar nazarda tutiladi. Masalan:

Bu geometrik shakl - o‘tkir burchakli uchburchak (A - V dir).

Bu geometrik shakl - o‘tkir burchakli uchburchak emas (A - V emasdir) fikrlari o‘zaro zidlik munosabatida. Ular mantiqdaA yoki V yoki V emasdir formulasi bilan ifodalanadi. Matematik mantiqda bu qonun aV formulasi shaklida beriladi. Bunda har qanday fikrni, «a» unga zid bo‘lgan fikrni, V zidlik belgisini ifodalaydi.

Uchinchisi istisno qonuni ziddiyatsizlik qonuni kabi fikrning izchil, ziddiyatsiz bo‘lishini talab etadi. Shu bilan bir qatorda uchinchisi istisno qonuni ikki zid fikr bir vaqtning o‘zida ham chin, ham xato bo‘lishi mumkin emasligini ko‘rsatadi. Uchinchisi istisno qonuni obyekt, vaqt, munosabat

aynanligini taqozo qiladi. Uchinchisini istisno etuvchi fikrlar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

-alohida narsa yoki hodisaga nisbatan biron bir narsaning tasdiqlanishi yoki inkor etilishi; S - R dir va S - R emasdir. Bu yakka tasdiq va yakka inkor fikrlar orasidagi munosabatni anglatadi;

-turkumga mansub narsalar, hodisalar va alohida olingan predmet haqidagi nimanidir tasdiqlanishi yoki inkor etilishini;

-turkumga mansub narsalarga nisbatan nimanidir inkor etilishi va alohida narsaga nisbatan shu belgining tasdiqlanishi.

Uchinchisi istisno qonuni fikrlarimizning aniq, ravshan, ziddiyatsiz bo‘lishini talab qiladi. Uchinchisi istisno qonunining amal qilish holatlari turli-tuman, undan alohida narsalar haqida fikr yuritganda ham, murakkab jarayonlarni o‘rganganda ham foydalanish ko‘zda tutiladi.

Uchinchisi istisno qonuni to‘g‘ri fikrlashning asosiy shartlaridan bo‘lsa-da, to‘g‘ri tafakkur qilish, chin bilimlar hosil qilish uchun uning o‘zi kifoya qilmaydi. Buning uchun mavjud narsa va hodisalarni, ularning munosabatlarini chuqur, atroflicha o‘rganish talab qilinadi. Uchinchisi istisno qonuni muhokama jarayonida to‘g‘ri xulosa chiqarish imkonini beradi. Lekin buning o‘ziga xos sharti mavjud: Uchinchisi istisno qonuni zid fikrlargagina tegishli bo‘ladi. Uchinchisi istisno qonunining ilmiy izlanishlarni olib borishda o‘ziga xos o‘rni bor. U nazariy tadqiqotlar jarayonida fikrdagi noaniqlikni, chalkashlikni bartaraf etishning muhim vositasi bo‘lib hisoblanadi. Uning yordamida inson bilimi narsa va hodisalarning mohiyatiga qadar chuqurlashib boradi va ta’kidlash joizki, zidlikning tomonlaridan biri ayrim hollarda noaniq bo‘lib qolaveradi. Bu hol uchinchisi istisno qonunining dixotomiyaga xos tomonlarini hisobgaolishni talab qiladi.

Uchinchisi istisno qonuni tadqiqotchidan o‘z fikrlarini aniq, ravshan, zidliksiz bayon etishni, raqibining fikrlarini inkor etishning asoslarini topishni, o‘z nuqtai-nazariga ega bo‘lishini talab qiladi. Ilmiy tadqiqotda undan foydalanish uchun biron-bir fikrni inkor etishning o‘zi kifoya qilmaydi. Shunga erishish lozimki, tadqiqotchi muayyan mavzudagi o‘z nuqtai-nazarini bayon qilishning mantiqiy usullaridan foydalana bilsin, dalillar asosida o‘z fikrini asoslay bilsin. Buning uchun mantiq qonunlaridan tashqari tadqiqot obyektini chuqur bilish, u to‘g‘risidagi mavjud bilimlarni o‘zlashtirish muhim ahamiyatga ega. Bunda tadqiqotning qiymati unda inkor etilgan fikrlar bilan o‘lchanmaydi, balki inkor etilgan fikrlarning asossiz ekanligini isbotlaydigan dalillar vositasida muammoga o‘z yechimini berish, o‘z mustaqil fikrini shakllantirish ilmiy ijodning muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

Yetarli asos qonuni. Bizning olam, undagi biron narsa, hodisa haqidagi fikrimiz chin yoki xato bo‘lishi mumkin. Fikrning chinligi tafakkurga xos xususiyat bo‘lib, chin fikrlar haqiqatlar deb yuritiladi, ularga amaliy va nazariy faoliyat tufayli erishiladi. Chin fikrlash to‘g‘ri fikrlashdir, to‘g‘ri fikrlash aniqlik, ravshanlik, izchillik, ziddiyatsizlik bilan bir qatorda asoslanganlikni,

isbotlanganlikni talab qiladi. Bu narsa tafakkurning yetarli asos qonunida o‘z ifodasini topadi.

Yetarli asos qonuni, nemis faylasufi va mantiqshunos olim Leybnis (1646-1716) tomonidan tavsiflab berilgan. Lekin u haqidagi dastlabki fikrlar antik davrga mansub bo‘lib, yunon faylasuflari Levkipp (er.av. 500-450) va Demokrit (er.av. 460-370) tomonidan bayon etilgani ma’lum. Ular hech qanday narsa biron-bir asos, sababsiz paydo bulmaydi, hamma narsa biron bir asos va zaruriyat tufayli yuzaga keladi, deb bilganlar. Leybnis nuqtai-nazaricha, hamma narsa o‘z mavjudligining muayyan asoslariga ega. Har bir hodisa haqidagi fikr yetarli asosga ega bo‘lgan taqdirdagina, chin bo‘lishi mumkin. Har qanday chin fikr asoslangan bo‘lmog‘i lozim. Fikrning asoslari deganda real va mantiqiy asoslar nazarda tutiladi. Fikrning chinligi unda voqelikning qanchalik to‘g‘ri aks ettirilganligiga bog‘liq. Bu narsa real asos sifatida nomlanadi. Lekin fikrni asoslash uchun har safar inson tajribasiga, amaliyotiga murojaat qilish shart emas. Yetarli asos deganda mantiqiy asos nazarda tutiladi. Inson olam haqida bilim hosil qilar ekan, faqat o‘z tajribasiga emas, balki boshqalar tajribasiga ham tayanadi. Bu tajriba insoniyat qo‘lga kiritgan bilimlarda mujassamlashgan bo‘ladi. Ilmiy bilimlar taraqqiyoti tufayli qonun va qonuniyatlar, aksiomalar, tamoyillar va boshqa bilimlar ishlab chiqiladi va ular fanlar mazmunida ifodalanadi. Bu bilimlar kishilarning odam haqidagi yangi bilimlar hosil qilishlari uchun yetarli asos vazifasini o‘taydi. Demak, qanday bilim asoslangan bo‘lmog‘i lozim, deganda mantiqiy asos nazarda tutiladi. Mantiqiy asoslanganlik fikrlar izchilligi, ketma-ketligi, bir fikrning boshqa bir fikrdan kelib chiqishi tarzida kechadi. Fikr, mulohaza, mushohadaning chinligi boshqa chinligi isbotlangan fikrlar yordamida isbotlab beriladi. Yetarli asos qonuni**: agar A fikr chin bo‘lsa, uning asosi V ham chin bo‘lishi kerak,**tarzida ifodalanadi. Bunda A - fikrni, V - uning asosini ifodalaydi. Ilmiy tadqiqot fikrlar mujassami, izchilligida ifodalanadi, Bunda bir fikrning ikkinchisidan, uning o‘z navbatida boshqa fikrdan kelib chiqishi ilmiy bilish jarayonining uzluksiz davom etish imkoniyatlarini ifodalaydi. Bu holni mantiqda fikrlar tizimini ifodalaydigan (a-v), (v-s),,, tarzida berish mumkin. Fikrlar bilan ularning asosi orasidagi aloqadorlik obyektiv mazmunga ega, unda olamdagi real munosabatlar aks etadi...

Yetarli asos qonunida narsa va hodisalar orasidagi turli bog‘lanishlar aks etadi. Masalan: sababiy bog‘lanishlar. Sababiy bog‘lanishlarni keng ma’noda tushunmoq joiz: Asoslangan fikr deganda fikrlardagi sabab – oqibat aloqadorligi nazarda tutiladi. Demak, chin bilim olamdagi va fikrdagi aloqadorliklarni to‘g‘ri aks ettirgan bilimdir. Inson bilish jarayonida asos sifatida ilgaridan hosil qilingan fikrlar tizimiga suyanishi mumkin. Bu fikrlar tizilmasidagi ayrim fikrlar asosni ifodalasa, boshqalari natijani - yangi bilimni ifodalaydi. Shu tariqa fikrning to‘g‘riligini asoslash uchun keltirilgan fikrlar mantiqiy asos, deb yuritiladi. Real asos ham, mantiqiy asos ham inson bilimlarida mushohadalar tarzida namoyon bo‘ladi. Obyektiv reallikda sababiy aloqadorlik voqealar ketma-ketligida namoyon bo‘ladi. Dastlab mavjud, biron-bir natijaga olib keladigan hodisa - sabab (asos),

uning natijasi – oqibati yangi fikr hisoblanadi. Ayrim hollarda real mavjud sabab va fikriy asos (muhokama) o‘zaro bir-biriga muvofiq kelishi mumkin. Masalan: yer ust qatlamining muzlashi yo‘l transport hodisalarining ko‘payishiga olib keladi. Lekin har doim ham sabab va fikriy asos o‘zaro muvofiq kelavermaydi.

Aksari hollarda bilish jarayoni hosil qilingan bilim (natija)ni bayon etishdan shu natijaning mantiqiy asoslarini keltirishga qarab boradi. Mantiqning yetarli asos qonuni boshqa turdagi munosabatlarni (yakkalik, maxsuslik va umumiylik, butun va qism) ham ifodalaydi. Inson biron - bir narsa haqida fikr yuritar ekan, umumiylikdan yakkalikka qarab borish orqali shu narsa haqida yangi bilim hosil qilishi mumkin. Bunda umumiylikka xos bo‘lgan tomonlar, qonuniyatlar alohida narsa va hodisalarga tatbiq etiladi: umumiylik asosni, yangi bilim esa natijani ifodalaydi. Asos bilan natija orasidagi o‘zaro bog‘lanish tushunchalar, mulohazalar, xulosalar orasidagi bog‘lanish ifodasi hisoblanadi: Umumiy va yakka tushunchalar, umumiy va yakka mushohadalar, hosil qilingan xulosalar izchilligi va ketma-ketligi tarzidagi bog‘lanishlar bunga misol bo‘la oladi. Yetarli asos qonuniga rioya qilish fikrning mantiqli, tartibli, ishonarli bo‘lishini ta’minlaydi, Chin bilimni asossiz qarashlar, uydirmalar, aqidalardan ajratish imkonini beradi.

Yetarli asos qonuni ilmiy bilishda muhim o‘rin tutadi. Fanlar mazmuni, qonunlari, tamoyillari, ilmiy qarashlarning asoslanish natijasi bo‘lib hisoblanadi. Tadqiqotchi tadqiqot obyektini o‘rganish jarayonida uni hosil qilgan real sabablar, uning boshqa obyektlar bilan munosabatlarini tahlil qiladi, ilgarigi bilimlar mazmunidan kelib chiqqan holda o‘z qarashlarini dalillaydi, mantiqiy izchillikda yangi xulosalar chiqaradi.

Ko‘rinib turibdiki, mantiq qonunlarini bilish va ulardan foydalanish ilmiy izlanishda muhim o‘rin tutadi. Chunki tadqiqotchiga to‘g‘ri tafakkur qilish, bir muhokamadan boshqa bir muhokamaga o‘tish qoidalarini, o‘z fikrlarini aniq, izchil, ziddiyatsiz, asosli bayon qilish yo‘llarini o‘rgatadi.

Ilmiy ijod va amaliyotning tub maqsadi chin, obyektiv mazmunga ega bo‘lgan bilimlarni hosil qilish hisoblanadi. Chin bilim insondan mantiq qonunlarini bilish bilan bir qatorda isbotlash va rad etish mantiqiy usullaridan unumli foydalanishni taqozo etadi. Ilmiy bilishning eng umumiy xususiyati shundan iboratki, ilmiy izlanish natijasida qo‘lga kiritilgan bilim fan sohasidagi yutuq deb hisoblanishi va fan mazmuniga kiritilmog‘i uchun mantiqiy isbotlash talablariga javob bermog‘i lozim. Isbot va radetish mantiqning yetarli asos qonunidan kelib chiqadigan mantiqiy usullardir.

Isbot biron-bir fikrning chinligini boshqa fikrlarni keltirish orqali asoslashning mantiqiy uslubidir. Aristotel o‘z fikrini isbotlay olishni inson tafakkurining eng muhim xususiyati deb bilgan. Qadimgi hind mantiqshunoslari (IV-V asrlar) isbotlash mantiqiy usulini chuqur o‘rganganlar hamda isbotlashni quyidagicha tushuntirganlar: fikr (tezis) - asos — dalil - xulosa. Tezis (fikr) isbotlanish lozim bo‘lgan fikr, asos - uning chinligini isbotlaydigan fikr; dalil - o‘xshashlikni, umumiylikni topish, xulosa-hosil qilingan yangi fikr. Al-Farobiy esa isbot to‘g‘risidagi bilim mantiqning asosini tashkil etadi deb hisoblagan.

Oddiy suhbat, ilmiy munozara jarayonida kishilar suhbatdoshlari, muxoliflarini o‘z fikrlariga ishontirishga harakat qilganlar va o‘z nuqtai-nazarlarini himoya qilganlar. Boshqa fikrni haqiqat emas, deb hisoblaganlarini rad etganlar va bunda isbot va rad etishning mantiqiy usullaridan foydalanganlar.

Insoniyat tafakkuri taraqqiyot shundan dalolat beradiki, fikrning isbotlanganlik, dalillanganlik darajasi unda olamdagi mavjud narsalar, hodisalar, ular orasidagi aloqadorliklarning qanchalik to‘g‘ri va har tomonlama aks etishga boqliq. Narsa va hodisalar aloqadorligi fikrlar aloqadorligini keltirib chiqaradi. Olamdagi va fikrdagi aloqadorliklar har doim yaqqol ko‘zga tashlanavermaydi. Fikrlar orasidagi aloqadorlikni topa bilish va shu asosda biron-bir fikrning to‘g‘riligini asoslash bilish jarayonida muhim o‘rin tutadi.

Isbot - isbotlash talab etilgan fikrni to‘g‘ri, haqiqat deb qabul qilingan fikrdan keltirib chiqarish jarayonini ifodalaydi.

Isbot o‘ziga xos tuzilishga ega: tezis, argumentlash va isbot etish usullari (demonstratsiya) uning muhim tomonlari bo‘lib hisoblanadi.

Tezis - isbotlanishi lozim bo‘lgan fikr.

Argument - tezisni isbotlashda qo‘llaniladigan to‘g‘ri fikr, haqiqat.

Buni isbotlash asosi deb ham yuritiladi.

Argumentlar turli ko‘rinishda bo‘lishi mumkin.

1. Aniqlangan, tekshirilgan dalil yoki dalillar. Bu dalillar xilma-xil usullar bilan olinishi mumkin.

2. U yoki bu hodisa haqidagi fanda bayon etilgan umumlashma fikrlar.

3. Aksioma va postulatlar. Fanlar, ayniqsa, matematika, mexanika, nazariy fizika va hokazolarda ta’riflardan tashqari aksiomalar mavjud. Aksiomalar - isbot etilishi talab qilinmaydigan ilmlar.

4. Fanda ilgaridan isbotlangan bilimlar:qonun va teoremalar, fizika, ximiya, biologiya qonunlari, matematikadagi teoremalar argument vazifani o‘taydi.

Isbotlash usullariga demonstratsiya, induktiv, deduktiv, bevosita va bilvosita isbotlash kabilar kiradi.

Bilimlarni hosil qilishda isbot bilan bir qatorda rad etish mantiqiy usulidan ham foydalaniladi. Rad etish yoki raddiya biron-bir fikrning xato ekanligini isbotlashning mantiqiy uslubidir. Odatda bu usuldan bir narsa haqidagi qarashlarda turli fikrlilik kuzatilganda foydalaniladi. Rad etish tezisga, argumentga, isbotlash usuliga qarshi qaratilgan bo‘ladi. Ilmiy ijod jarayonida mantiq qonunlari, isbot va rad etish mantiqiy uslullarini bilish muhim ahamiyatga zga.

Tafakkur qonunlari barqaror fikrlar orasidagi munosabatlarni nazarda tutadi, fikrlarni o‘zaro to‘g‘ri bog‘lay olish, bir muhokamadan ikkinchisiga o‘tish va shu asosda to‘g‘ri, ishonchli fikrlarni hosil qilish imkoniyatlarini yaratadi. Shu ma’noda mantiq qonunlari yangi bilim hosil qilishning usuli bo‘lib hisoblanadi.

Olamni bilish, u haqda chin bilimlar hosil qilish, ilmiy tadqiqot ishlarini muvaffaqiyatli olib borish uchun mantiq va uning qonunlarini bilishning o‘zi

kifoya qilmaydi. Olamni bilish uchun uni qanday bo‘lsa, shundayligicha, barcha aloqa va munosabatlarini hisobga olgan holda har tomonlama o‘rganish, narsa va hodisalarda uzluksiz tarzda kechadigan harakat, o‘zgarish, taraqqiyotni hisobga olish talab etiladi. Bu narsa tadqiqotchidan dialektika qonun-qoidalarini bilishni, olamga dialektik tarzda yondashishni talab qiladi. Dialektika keng qamrovli ta’limot bo‘lib, u olamdagi murakkab aloqa va munosabatlar, o‘zgarish, taraqqiyotnigina aks ettirib qolmay, olamni bilishning eng umumiy ilmiy metodi bo‘lib hisoblanadi. Dialektika formal mantiqning ahamiyatini inkor etmagani holda olamni, undagi o‘zgarishlar, aloqadorliklar, taraqqiyotni chuqur va har taraflama tushunishga yordam beradi.

Tafakkurga nisbatan qo‘yiladigan aniqlik, ziddiyatsizlik, izchillik, dalillanganlik shartlari narsa va hodisalardagi o‘zgarishlarni, taraqqiyotni inkor etmaydi, balki bu holatlarning inson bilimlarida to‘g‘ri aks etishini nazarda tutadi. Bilishdagi ziddiyatsizlik olamdagi mavjud ziddiyatlarni inkor etish emas, narsa va hodisalar mohiyati, ichki aloqadorliklarni tushunish, ularga xos bo‘lgan ziddiyatlarni tahlil etishdir; zotan olamning butun siru-sinoati, murakkabliklari undagi ziddiyatlarda, o‘zgarishlarda, muayyan sifat holatlaridan yangi sifat holatlariga o‘tishlarida namoyon bo‘ladi. Olam haqidagi bilimning chinligi uning asoslanganlik darajasiga bog‘liq. Shubhasiz, bunda izchil fikr yuritish, fikrlar munosabatiga tayangan holda bir fikrdan ikkinchi bir fikrni keltirib chiqarish muhim o‘rin tutadi. Lekin har qanday chin bilim reallikda mavjud narsa va hodisalar, ular orasidagi aloqa va munosabatlarni o‘rganishdan kelib chiqadi va bilimning to‘g‘riligi uning reallikka mos kelishida ifodalanadi. Ilmiy tadqiqotlar olib borish jarayonida mantiq qonunlariga rioya qilish yo‘li bilan bir qatorda dialektik tafakkur hislatlariga ega bo‘lish muhim ahamiyatga ega.

5. Mantiq fani bir qator fanlar bilan bog‘liq. Mantiq, avvalo, psixologiya fani bilan bog‘liq. Psixologiya - hissiy tafakkur, uning asosiy shakllarini inson ruhiy faoliyatining ko‘rinishi sifatida o‘rganadi. U inson fikrlash jarayonining boshqa ruhiy holatlar bilan bog‘lanishlarini tadqiq etadi. Mantiq esa fikr shakllari, usullari, to‘g‘ri fikrlash qonunlarini o‘rganadi. Psixologiya alohida kishining individual tafakkuriga o‘z diqqatini qaratadi. Mantiq fikrlashning barcha uchun umumiy bo‘lgan tomonlarini, qonuniyatlarini o‘rganadi.

Mantiq faniga yaqin fanlardan biri – til grammatikasi. Tushunchalar, muhokamalar strukturasini aniqlashda til sohasidagi bilim muhim rol o‘ynaydi. Inson bilimlari til, nutq orqali moddiylashadi. Grammatika qonunlarida har bir milliy tilning o‘ziga xos xususiyatlari aks etadi. Mantiq esa insonga xos bo‘lgan to‘g‘ri tafakkurning shakllari va usullarini o‘rganadi.

Mantiq falsafa bilan chambarchas aloqada. Falsafa borliq va undagi narsa, hodisalar orasidagi eng ichki, umumiy, zaruriy aloqadorliklar to‘g‘risida bahs yuritadi. Falsafaning qonun va kategoriyalari ob’yektiv dialektika qonun va kategoriyalari deb yuritiladi. Tafakkurga xos bo‘lgan barcha tomon va qonuniyatlarni faqat formal mantiqqa tayanib tushuntirish mushkul. Agar dialektik mantiq olamdagi narsa va hodisalarning universal aloqadorliklari va

taraqqiyoti to‘g‘risida bahs yuritib, fikrlash uzluksiz taraqqiy etib boruvchi jarayon ekanligini tushunishga yordam bersa, formal mantiq to‘g‘ri fikrlash tartib-qoidalarini o‘rgatadi. Dialektik mantiq universal aloqadorlik va taraqqiyot to‘g‘risidagi ta’limot sifatida boshqa fanlar qatori formal mantiq uchun metodologik asos vazifasini o‘taydi.

Mantiq fan va inson amaliy faoliyati taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Bizning fikrlarimiz muayyan shakllarda namoyon bo‘ladi va mantiq qonunlariga bo‘ysunadi. Tafakkur qonunlarini bilish va ulardan foydalanish kishilarda fikrlash madaniyati takomillashuvining muhim omillaridan hisoblanadi. Keng qamrovli fikrlash, o‘z fikrini ixcham, to‘g‘ri, erkin bayon eta olish, o‘zi va boshqalar fikriga tanqidiy ko‘z bilan qarash tafakkur madaniyatini ifodalovchi muhim hislatlar hisoblanadi,

Mantiq insonning olamni to‘g‘ri tushunishida muhim ahamiyat kasb etadi, zotan mantiqiy fikrlash olamni qanday bo‘lsa, Shundayligicha har tomonlama o‘rganish, barcha tomonlari va ziddiyatlari bilan birgalikda tushunish, u haqda to‘g‘ri bilimlarni hosil qilishni nazarda tutadi.

Mantiq to‘g‘ri, ziddiyatsiz, izchil, asosli fikr yuritish yo‘llarini o‘rgatadi. To‘g‘ri, izchil, asosli fikr yuritish, fikrda ziddiyatga yo‘l qo‘ymaslik inson ilmiy va amaliy faoliyatining barcha sohalarida muhim ahamiyatga ega.

Tafakkur shakllari, qonunlari haqida bilimga ega bo‘lish pedagogik faoliyat uchun ham zarurdir. Mantiq ilmiy ijodda muhim o‘rin tutadi. Fikrlarning mohiyati, ular orasidagi aloqa va munosabatlarni to‘g‘ri aniqlash ilmiy ijod muvaffaqiyatini ta’minlaydi, tadqiqot obyektini har tomonlama, chuqur o‘rganish, ularga xos bo‘lgan qonuniyatlarni ochish imkoniyatini beradi. Mantiq ilmiy axborotlar mohiyatini tushunib yetish, ularni muayyan tartibga olish, o‘zlashtirish asosida ilmiy muammolarni aniqlash va muvaffaqiyatli hal etishga yordam be

Test.

1. Muammolar qo‘yish va ularni yechishga qaratilgan faol jarayon qanday nomlanadi?

Tafakkur

Izlanish

Tasdiqlash

Isbotlash

2. Man’tiqiy tafakkur nima?

Tafakkur qoidalari, qonunlari va tomonlariga muvofiq bir haqiqatni boshqa yanada teranroq haqiqatga intilishdir

Borliq yoki uning ayrim xossalari haqida

Yechimini topish muhim amaliy yoki nazariy ahamiyatga ega bo‘lgan masala yoki masalalar to‘plami

Muhim xossalar va munosabatlar majmui

3. Ob’yektiv borliq jarayonlarning aloqasi, ularning rivojlanishi o‘ziga xos narsalar man’tig‘i nimani tashkil etadi?

Ob’yektiv man’tiqni
Nisbiy haqiqatni
Ob’yektiv haqiqatni
Sub’yektiv man’tiqni

4. Tushuncha bu - ...

Narsalar va hodisalarning umumiy, muhim xossa va aloqalari aks etuvchi fikr

Fikrning shunday bir shakli, unda tushunchalarni bog‘lash yo‘li bilan biror narsa haqidagi biron-bir fikr tasdiqlanadi yoki rad etiladi

Mushohadaning nisbatan tugallangan birligi

Murakkab narsani oddiy narsaga aylantirish oliy darajasi

5. «Eydos» atamasi qanday ma’noni bildiradi?

Ko‘rinish obrazi»

«Tasavvur»

«His qilish»

Barcha javoblar to‘g‘ri

6. Bilishning empirik va boshqa darajalarining ma’nosidagi farqlar qachon aniqlangan?

XX asrning 30-yillarida

XIX asrning 80-yillarida

XX asrning 20-yillarida

XX asrning 50-yillarida

7. Haqiqatni man’tiqiy dalillar yordamisiz anglab yetish qobiliyati nima deb ataladi?

Intuitsiya

Xulosa

Tafakkur

Sezgi

8. Yangi davrda intellektual intuitsiya haqidagi ta’limot kimlar tomonidan yaratilgan?

Dekart, Spinoza, Leybnis

Dekart, Yum, Bergson

Yum, Berkli, Lessing

Sheler, Lametriy, Golbax

9. Bevosita bilim va sezgi a’zolari orqali bilishni rad etgan va sezgilarni soxta deb e’lon qilgan Levkipp va Demokrit qaysi maktab vakillari bo‘lganlar?

Eley maktabi

Pifagor maktabi

Kinik maktabi

Kiren maktabi

10. Qaysn faylasufning fikricha, «Aql-sezgi a'zolari faoliyatining haqiqiy natijalarni uzluksiz qayd etuvchi ko'zgudir».

J.Lokk
Spinoza
Leybnits
Gassendi

11.«Uning kuchi tajribada mavjud obrazlarni nafaqat qayta chaqiradi, balkn ularni bir-biri bilan bog'laydi va shu tariqa ularni umumiy tasavvurlar darajasiga ko'taradi». Bu fikr bilishning qaysi shakliga tegishli?

Hayol
Xotira
Tasavvur
Idrok

12.Ilmiy bilnsh darajalarini ko'rsating.

Empirik va nazariy
Hissiy va amaliy
Transendental va aqliy
Empirik va amaliy

13.Empirik bilnsh shakllarini sanab o'ting?

Kuzatish, eksperiment, ilmiy dalillash
Modellashtirish tarixiy analogiya, bashorat
Ilmiy muammo, muammoli vaziyat, tarixilik
Gipoteza, paradigma, nazariya

14.Empirik bilishning qaysi shakli tabiatning o'zida mavjud narsalar va hodisalarni qayd etadi?

Kuzatish
Eksperiment
Ilmiy dalillash
Modellashtirish

15.Eksperimentga to'g'ri ta'rif berilgan javobni ko'rsating.

Shunday tadqiqot metodi, uning yordamida obyektiv, yo subyektiv tarzda yoritiladi, yo tadqiqot maqsadlariga mos keladigan ma'lum shart-sharoitlarda o'rganiladi

Bilish obyektning muhim hossalari va munosabatlarini aniqlash maqsadida ataylab amalga oshiriladigan izchil idrok etishdir

Bilishning tasdiqlangan boligiga aylangan moddiy va ma'naviy dunyo hodisasi, biron-bir hodisa, hossa yoki munosabatni qayd etishdir

Bilishning rivojlanish jarayonida obyektiv tarzda yuzaga keladigan yechimning topish muhim amaliy yoki nazariy ahamiyatga ega bo'lgan moslama yoki masalalar majmuidir

16.Qaysi faylasuf, fon dalillardan boshlanishi va boshlanish tugallanish o‘rtasida qanday nazariy tuzilmalar bo‘lishidan, tuzilishidan qat’i nazar, dalnllar bilan yakunlanishi lozim, degan fikrni ilgar surgan?

A.Eynshteyn

I.Kant

F.Shelling

I.Nyuton

17.Ilmiy dalilning ikki muhim xossasi qaysi javobda to‘g‘rn ko‘rsatilgan?

Ishonchlilik va bir variantlilik

Ishonchlilik va variantlilik

Isbotlanganlik va betakrorlik

Tasdiqlanganlik va variantlilik

18.Ilmiy dalillar nazariyaga nisbatan qanday vazifalarni bajaradi?

Verifikatsiya va falsifikatsiya

Umumlashtirish va tasdiqlash

Isbotlash va inkor qilish

Saqlash va yetkazish

19. .....fanda - biron-bir hodisalar, obyektlar, jarayonni tushuntirishda qarama-qarshi yondashuvlar ko‘rinishida amal qiluvchi va uni yechish uchun muvofiq nazariyani talab etuvchi ziddiyatli holatdir.

Muammo

Dalil

Paradigma

Gipoteza

20.Ilmiy muammo boshqa muammolardan qanday belgilari bilan ajralib turadi?

Haqiqiy va yangi bilim olishga chorlash hamda yangilik sari intilish bilan

Ilmiy muammolar faqat tabiiy fanlarga taalluqli bo‘lganligi bilan

Ilmiy muammolar borliqni butunligiga qamrab olganligi bilan

To‘g‘ri javob A va B

21.Asosiy nazariy bilim, ilmiy dalillarni tushuntirishda dasturilamal bo‘lib xizmat qiluvchi rahbar g‘oyalar qanday nomlanadi?

Tamoyillar

Kategoriyalar

Paradigma

Gipoteza

22.Gipotezaga to‘g‘ri ta’rif berilgan qatorni belgilang.

Yangi dalillarning mohiyatini tushuntiruvchi qonun mavjudligi haqidagi asosli tahmindir

Hodisalarning muayyan turkumi bu turkumdagi hodisalarning mohiyati va ularga nisbatan amal qiladigan borliq qonunlari haqidagi bilimlarning mantiqiy asoslangan tizimidir

Borliqning eng muhim tomonlari, xossalari va munosabatlarini aks ettiruvchi umumiy tushunchalaridir

Fan tarixning muayyan davrida uning rivojlanishini belgilovchi barqaror tamoyillar, nazariyalar va metodlar majmui

23.Paradigma tushunchasini bilnsh nazariyasiga kiritgan faylasuf nomini toping?

T.Kun
D.Yum
K.Popper
K.Bort

24.Narsalardagi umumiylik bu - ...

Muhim xossalar va munosabatlar majmuidir

Insonning narsalar muhim xossalari va munosabatlarini izchil, bilvosita va umumiy aks ettirishdir

Borliqning xossalari va munosabatlarini aks ettiruvchi umumiy tushunchadir.

Narsani boshqa narsalardan ajratib turadigan belgilar jamlanmasi

Tafakkurning asosiy shakllari: tushuncha, mushohada, xulosa chiqarish.

Reja.

1.Tushuncha.
2.Mushohada
3.Mushohadaning sodda va murakkab turlari
4.Xulosa chiqarish turlari.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: tushuncha, hukm, xulosa chiqarish, taqqoslash, analiz, sintez, mavxumlashtirish, umumlashtirish, yakka tushuncha, umumiy tushuncha, jamlovchi tushuncha, aniq tushuncha, mavxum tushuncha, musbat tushuncha, manfiy tushuncha, oddiy hukm, murakkab hukm, tasdiq hukm, inkor hukm, atributiv hukm,

1. Tushuncha tafakko`rning ilk shakli hisoblanadi. Inson tushunchalar yordamida fikrlaydi hamda bir-biri bilan o'zaro aloqa qiladi. Uzoq tarixiy rivojlanish davomida olamni idrok va tasavvur qilish, to'plangan tajribalarni doimiy ravishda umumlashtirish tushunchalarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Tushunchalar voqelikning inson aks etishi asosida shakllanadi. Inson atrofidagi narsa va hodisalarni o'rganish

jarayonida uning muhim, umumiy tomonlarini ajratib, umumlashtirib boradi, natijada turli tushunchalar hosil qilinadi.

Tushuncha tafakko`rning murakkab shakli bo'lib, u hissiy bilishning asosiy shakllari: sezgi, idrok, tasavvurdan farq qiladi. Agar biz hissiy bilishda ob'ektiv olamdagi alohida (yakka) narsa, hodisalarni ongimizda in'ikos ettirsak, tushunchalarda esa yakka belgilardan uzoqlashiladi va narsa, hodisalarning umumiy tomonlari ongimizda aks etadi.

Tushuncha narsa, hodisalar ularning muhim, umumiy va o'ziga xos belgilarini inson ongida yaxlit aks ettiradigan tafakkur shaklidir.

Inson kundalik hayotda turli tushunchalardan foydalanadi. Bu tushunchalar voqelikni inson ongida aks etishi, asosida shakllangan. «Uy», «daraxt», «inson», «quyosh», «suv» va hokazotushunchalar kundalik hayotda ko'zga tashlanib turgan belgilar asosida hosil qilingan. Ilmiy tushunchalar esa narsa va hodisalarning ob'ektiv qonuniyatlarini, zaruriy tomonlarini ochib beradi.

Tushunchalar ikki xil vazifani bajaradi, avvalo mushohada (hukm)ning vujudga kelishi uchun sharoit yaratadi va uning elementi sifatida tarkibiga kiradi. Ikkinchidan, inson ongida bilimning to'laroq yakunini ifodalaydi.

Hissiy bilishda olamdagi narsa va hodisalarning individual tomonlari aks etadi, tushunchalarda esa umumiylik ifodalanadi. Tushuncha va tasavvur o'rtasidagi ham farqlari bor.

Agar biz ma'lum bir guruh kishilariga biror predmet obrazini (masalan, shkaf) tasavvur etishlarini va ushbu tasavvurlarini qog'ozga tushirishlarini so'rasak, ularning qog'ozga tushirgan tasavvurlari bir biriga mos emasligini ko'ramiz. Har bir shaxs predmetni (shkafni) individual o'ziga xoslik asosida tasavvur etadi. Biz ushbu shaxslarning predmet (shkaf) haqidagi individual tasavvurlaridagi predmetning (shkafning) rangi, materiali, shakli, ulardagi polkalar soni, nimaga xizmat qilishi kabi belgilaridan Chetlanib, shkaflar uchun xos umumiy belgi, ya'ni shkaf - bu kiyim, idish, kitob va boshqalarni saqlash uchun xizmat qiluvChi buyum desak, bu alohida qaysidir shkaf bo'lmay, balki hamma shkaflar uchun xos bo'lgan umumiy belgini ko'rsatadi. Demak, tasavvurda individuallik, tushunchada umumiylik mavjud.

Tushunchalar ularda ifodalangan narsa, hodisalarning muhim belgilari asosida yuzaga keladi. Bizni o'rab turgan narsa, hodisalar ko'plab belgilarga ega ekanligini ta'kidlash lozim. Kishilik jamiyati tarixida tushunchani izohlashda u ifodalagan alohida narsalarning xususiy belgilari yig'indisi bilan uyg'unlashtirishga harakatlar bo'lgan. Narsa va hodisalar cheksiz belgilarga ega,

tushunchada esa faqat ularning mohiyatini, xususiyatini ifodalaydigan muhim belgilari nazarda tutiladi.

Narsa va hodisalardagi, belgilarni biz avvalo ikki guruhga, ya'ni muhim va muhim bo'lmagan belgilarga ajratamiz. **Muhim bo'lmagan belgilarning yo'qolishi yoki o'zgarishi - fikr qilinayotgan predmetning asosiy sifatlari (yuk ko'tarishi, tezligi va hokazo) o'zgarishiga olib kelmaydi.**

Aksincha, **muhim belgilar narsa yoki hodisalarga har qanday holatda ham xos bo'lib, ushbu belgilarsiz predmetning mavjudligi haqida fikr yuritishi mumkin emas.** Masalan, millatning muhim belgisi til birligidir. Boshqa muhim belgilari bo'lsa-yu, lekin til birligi belgisi bo'lmasa, u millat bo'la olmaydi.

Tushunchalarning muhim va muhim bo'lmagan belgilari nisbiy harakterga ega, Chunki vaqt o'tishi bilan ilgari muhim hisoblangan belgi nomuhim belgiga aylanishi yoki aksincha bo'lishi mumkin.

Biz hayotda qo'llaydigan turli xil tushunchalarni hosil qilish uchun ularning muhim va umumiy belgilarini topishimiz lozim. Bunda turli mantiqiy usullardan foydalaniladi. Mantiqiy usullarga: **taqqoslash, analiz va sintez, abstraktsiyalash, umumlashtirish** kabilar kiradi. Kishilar qadim davrlardan ushbu mantiqiy usullardan foydalanib, tushunchalar hosil qilganlar.

Taqqoslash – tushuncha hosil qilishning mantiqiy usulidir. Olamdagi narsa va hodisalarni bilish, tushunish dastlab taqqoslash asosida boradi. Taqqoslash shunday mantiqiy usulki, uning yordamida ob'ektiv dunyodagi narsa va hodisalar orasidagi o'xshashlik yoki farqlar aniqlanadi. Taqqoslash natijalari chin bo'lishi uchun quyidagilarni hisobga olish lozim:

a) hamma vaqt ham haqiqatda, bor o'zaro real bog'lanishda bo'lgan buyumlarni taqqoslash lozim;

b) taqqoslash chin bo'lishi uchun, qanday belgiga ko'ra taqqoslashimiz oldindan ma'lum bo'lishi shart;

v) hamma vaqt ikki yoki bir necha buyumni bir umumiy belgi asosida, aynan bir nisbatda taqqoslash kerak;

g) har qanday taqqoslash tasodifiy, duch kelgan belgilarga qarab emas, balki taqqoslanadigan buyumlar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan belgilar asosida bo'lishi lozim.

Tushunchalarni hosil qilishda **analiz va sintez** mantiqiy usulidan foydalaniladi.

Tashqi olamdagi, narsa va hodisalarni bilish, ular haqida tushuncha hosil qilish, asosiy belgilarni topish ularni fikran bo'laklarga ajratishni talab qiladi. Bunda biz mantiqiy usullardan biri bo'lmish - analizdan foydalanamiz.

Analiz - shunday mantiqiy usulki, bu usul yordami bilan narsa va hodisalarni fikran qismlarga bo'lamiz, ularning ayrim qism va xususiyatlarini ajratamiz va bilib olamiz. Analiz bir sinfga kiruvchi bir jihatdan o'xshash, qolgan jihatlardan farq qiladigan predmet va voqealarni o'rganishda yordam beradi. Masalan, «Mantiq» kursini egallash uchun bu kursni fikran qismlarga bo'lib olamiz. Dastlab tushunchalarni, keyin mushohadalarni (hukmlarni), so'ngra xulosa chiqarish va boshqalarni o'rganamiz. Lekin fikrlash jarayonida narsalarni bilish uchun analizning o'zi kifoya qilmaydi.

Chunki analiz predmetni o'rganishdagi dastlabki qadamdir. «Mantiq» fani haqida to'liq bilimga ega bo'lish uchun har bir qism bilan alohida tanishib chiqishning o'zi kifoya qilmaydi, Chunki biz yuqorida qayd qilgan qismlarni o'zaro birlashtirib bir butun xolga keltirganimizdan keyingina «mantiq» fani haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lamiz. Demak, fikrlash jarayonida analiz-sintez bilan chambarchas bog'liq keladi.

Sintez - shunday mantiqiy usuldirki, bu usul yordamida qismlarni fikran birlashtiramiz va bir butun holga keltiramiz.

Abstraktsiyalash – tushunchalarni hosil qilishning mantiqiy usulidir. Abstraktsiyalashda olamdagi narsa va hodisalarning ayrim muqim belgilarini fikran ajratib olamiz va hozircha zarur bo'lmagan belgilarni nazardan chetda qoldiramiz. Bu jarayon abstraktsiyalash, shu jarayonning natijasi, abstraktsiya deyiladi.

Abstraktsiyalash jarayonida fikrimiz narsa va hodisaning aniq belgilaridan uzoqlashib, umumiy belgilari tomon to'g'ri harakat qilish natijasida predmetdan yiroqlashmaydi, balki yaqinlashib boradi, hamda abstrakt tushunchalar hosil bo'ladi. Fanlarda qo'llaniladigan formatsiya, progress, regress, forma, mazmun, tovar, pul va boshqa tushunchalar mantiqiy abstratsiya orqali hosil qilingan.

Abstraktsiyalash umumlashtirish usuli bilan uzviy bog'liq. **Umumlashtirish** - shunday mantiqiy usuldirki, unda narsa va hodisalar biror umumiy belgiga ko'ra fikran bir mantiqiy sinfga birlashtiriladi. Umumlashtirishda ayrimlikdan umumiylikka o'tiladi va umumiy tushuncha, mushohada, nazariyalar hosil qilinadi. Ushbu mantiqiy usul yordamida yuzaga kelgan tushunchalari bizning olamni chuqurroq aks ettirib, uning mohiyatini anglab olishimizga yordam beradi. Har qanday umumiylik alohidaliksiz mavjud bo'lmaydi, unda yakka, narsa va hodisalarning o'xshash, umumiy belgilari aks etadi. Umumlashtirish orqali yangi umumiylikka to'la tushunchalar hosil qilinadi. Bunday tushunchalarga o'simlik, sabzavot, kitob, daraxt va boshqalarni kiritish mumkin.

Har qanday tushuncha **mazmunga va hajmga** ega ekanligi bilan harakterlanadi. **Narsa va hodisalarning tushunchada aks etgan muhim belgilari yig'indisiga tushuncha mazmuni deyiladi**. Masalan: «Ruchka» tushunchasi mazmunini yozish uchun xizmat qilishi, peroli yoki sharikli bo'lishi kabi belgilari tashkil qiladi. Demak, tushuncha mazmuni tushunchada ifodalanayotgan narsa yoki hodisani ob'ektiv ravishda in'ikos ettirishdir.

Agar narsa o'zgarsa, u haqidagi tushuncha ham o'zgarishi kerak, aks holda tushuncha mazmuni bilan tushunchada ifodalangan narsa o'rtasida nomutanosiblik yuzaga keladi.

Narsa yoki hodisaning asosiy belgi, xususiyatlari voqelikka mos kelmasa, tushuncha xato yoki yolg'on deyiladi. Tushunchalarda olamdagi narsa, hodisalarning asosiy belgilari bilan bir qatorda ularning miqdori (ya'ni hajmi) ham ifodalanadi.

Tushuncha hajmi deb tushunchada ifodalanayotgan narsa, hodisalarning yig'indisiga aytiladi. Masalan: «Roman» tushunchasi hajmiga shu vaqtgacha yozilgan va yoziladigan romanlar kiradi.

Mantiqda tushunchalarning hajmi va mazmuni o'rtasida teskari nisbat qonuniyat bor. Bu qonuniyatga ko'ra, **tushuncha hajmi qancha keng bo'lsa, mazmuni shuncha tor bo'ladi, mazmuni qancha keng bo'lsa, hajmi shuncha tor bo'ladi.**

Tushunchalarning hajmi va mazmuni orasidagi teskari nisbat jins va tur munosabatidagi tushunchalarga nisbatan tadbiq qilinadi. Hajmi torroq tushuncha mazmun jihatidan kengroq bo'ladi, Chunki avvalgi hajmi kengroq tushunchada ifodalangan belgilar qatoriga yangi belgilar qo'shiladi.

Hajmi kengroq tushuncha, aksincha, ko'proq predmetni ifodalaydi, predmetlar turi ko'paygan sari ularning o'xshash belgilari kamayib boradi. Masalan, «she'rlar» va «to'rtliklar» tushunchalarini olamiz. Bu ikki tushunchadan birinchisining, ya'ni «she'rlar» tushunchasining hajmi keng, Chunki uning hajmiga she'riy asarlarning hammasi kiradi. To'rtliklar esa, ularning faqat bir turi, ya'ni ular kamroq. Mazmun jihatidan esa «to'rtliklar» tushunchasi keng. Chunki «to'rtliklar» tushunchasi «she'rlar» tushunchasi ega bo'lgan belgilarning hammasiga ega, shu bilan birga u to'rt qator bo'lishi kabi yangi belgiga ham ega.

Tushunchalar hajm jihatdan yuqori va quyi munosabatlarga qarab jins va tur munosabatlarga bo'linadi. Hamma vaqt jins tushuncha tur tushunchalarga nisbatan jins bo'ladi, jinsga hamma vaqt tur o'xshash belgilari bilan itoat etadi. Masalan, «maktab» va «oliy maktab» tushunchalarida «maktab» tushunchasi jins, «oliy maktab» tushunchasi esa tur tushunchadir.

Lekin shuni uqtirish kerakki, ba’zi holda jins bo’lgan tushuncha, boshqa holda tur bo’lishi mumkin. Yuqoridagi misolimizdagi, «oliy maktab» tushunchasi bilan «universitet» tushunchasini olsak, bu yerda «oliy maktab» tushunchasi jins, «Universitet» tur tushuncha.

2. Tushunchalarni turlarga ajratishda biz ularning hajmi va mazmuniga asoslanamiz.

Avvalo tushunchalarni **hajm jihatdan - yakka va umumiy tushunchalarga** ajratamiz.

Yakka tushunchalar alohida, yakka narsa yoki hodisani ifodalaydi. Masalan, «O’zbekiston» tushunchasida Markaziy Osiyoda joylashgan, sobiq SSSR parchalanishidan keyin mustaqillikni qo’lga kiritib, demokratik tamoyillar asosida yuksalib borayotgan mamlakatni tushunamiz. Demak, o’ziga xos belgiga ega bo’lgan alohida narsa yoki hodisani ifodalagan tushuncha yakka tushuncha deyiladi.

Biz agar «Mustaqil davlat» degan tushunchani oladigan bo’lsak, ushbu tushuncha “O’zbekiston” tushunchasidan farq qiladi. “O’zbekiston” deganda dunyodagi mustaqil davlatlardan faqat birini tushunsak, «mustaqil davlat» deganda iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustaqil bo’lib, tashqi va ichki siyosat yuritayotgan davlatlarni tushunamiz. Bu umumiy tushuncha hisoblanadi.

Umumiy tushunchalar bir mantiqiy sinfga kiruvchi hamma predmetlarni ifodalaydi.

Umumiy tushunchalardan tashqari **jamlovchi tushunchalar** ham mavjud. **Jamlovchi tushunchaning belgisi yangi belgi bo’lib, uning tarkibiga kiruvchi, jamlanuvchi elementlarda bu belgi uchramaydi.** Masalan, «o’rmon», «majlis», «kutubxona» va hokazo.

Tushunchalar **mazmunjihatidan** - konkret va abstrakt turlarga bo’linadi. **Real predmet va hodisalarni aks ettiruvchi tushunchalar konkret tushunchalar, deb ataladi**. Masalan «uy», «kitob», «daftar», «student» kabilar konkret tushunchalardir. Chunki bu tushunchalarda ma’lum predmet, hodisa aks ettirilgan.

Predmetlardan fikran ajratib olinib, mavhumlashtirilgan ma’lum xususiyat, belgilarni aks ettirgan tushunchalar abstrakt tushunchalar deyiladi. Masalan, «go’zallik», «botirlik», «tozalik», «sharm-xayo» va hokazolar.

Tushunchalar mazmuniga ko’ra, yana **nisbatli va nisbatsiz**tushunchalarga bo’linadi. **Agar bir tushuncha ikkinchi tushuncha orqali bilinadigan bo’lsa, u nisbatli bo’ladi.** Nisbatli tushunchalarga «katta-kichik», «aka-uka», «oq-qora» kabi kabi tushunchalarni ko’rsatish

mumkin. **Tushuncha boshqa tushunchalarsiz bilinadigan bo'lsa, bu tushuncha nisbatsiz bo'ladi.** Masalan, «shartnoma», «davlat», «talaba» va hokazo.

Shuningdek, tushunchalar mazmuniga ko'ra yana **musbat va manfiy** turlarga ajratiladi. Bunda biz tushunchada ifodalanayotgan predmetda biror belgi borligini tasdiqlash yoki inkor etishga asoslanamiz. **Agar tushunchada belgi borligi ifodalansa, u musbat; aksincha, belgi yo'qligi ko'rsatilsa, manfiy bo'ladi.** Masalan, «e'tiqodli», «baxtli», «insofli», «intizomli», kabi tushunchalar musbat, «e'tiqodsiz», «baxtsiz», «insofsiz», «intizomsiz» kabi tushunchalar esa manfiy tushunchalar jumlasiga kiradi. Manfiy tushunchalar odatda «siz», «no», «be», «emas» va boshqa qo'shimchalar qo'shish orqali yasaladi.

Shunday qilib tushunchalarning quyidagi asosiy turkumlari mavjud:

A) yakka va umumiy G) nisbiy va nisbatsiz
B) jins va tur D) jamlovchi va jamlanmasiz
V) konkret va abstrakt J) musbat va manfiy

Umumiy tushunchalar tarkibiga **universal tushunchalar** ham kiradi. **Bilimning muayyan sohasiga oid, turkumga mansub tushunchalar universal tushunchalar deyiladi.**Masalan, zoologiyadagi «hayvonlar», botanikadagi «o'simliklar» kabi tushunchalar shular jumlasidandir.

3. Biz falsafa fanini o'rganish jarayonida ob'ektiv olamdagi narsa hodisalar o'zaro bir-birlari bilan alohida bir-birini taqozo qiladi, olamni anglash uchun narsa va hodisalar orasidagi aloqadorliklarni anglash zarurati haqida xulosa hosil qilganmiz. Olamdagi narsa va hodisalar aloqa va munosabatlari inson ongida aks etadi va tushunchalar orasidagi aloqa va munosabatlarni keltirib chiqaradi.

Mantiq ilmida avvalo tushunchalarni **hajm jihatidan**bir-biriga **taqqoslanadigan va taqqoslanmaydigan**tushunchalarga ajratamiz. Masalan, «o'qituvchi» bilan «ziyoli» tushunchalari taqqoslanadigan, «o'qituvchi» va «zavod» tushunchalari esa taqqoslanmaydigan tushunchalar qatoriga kiradi.

Biz mantiq kursida o'zaro hajm jihatdan taqqoslanadigan tushunchalar bilan ish ko'ramiz. Taqqoslanadigan tushunchalar o'z navbatida **sig'ishadigan va sig'ishmaydigan** tushunchalarga bo'linadi.

Hajm jihatdan bir-biriga ma'lum bir darajada aloqasi bo'lgan tushunchalar sig'ishadigan tushunchalar deyiladi. Masalan, «kitob» bilan «darslik».

Hajm jihatdan bir-biriga kirishmaydigan tushunchalar sig'ishmaydigan tushunchalar deyiladi.

1) Sig'ishadigan tushunchalar o'rtasida: **a)ayniylik (moslik); b) qisman moslik; v) bo'ysunish** munosabatlari bor.

A) **Ayniyat munosabati**. Ayniyat munosabatidagi tushunchalar hajmi jihatdan aynan teng bo'lib, bir predmetni ikki tomondan ifodalaydi va ular mos tushunchalar deb nomlanadi. Mos tushunchalarning birida predmetning bir belgisi, ikkinchi tushunchada esa boshqa belgisi ko'rsatiladi. Mos tushunchalardan hayotda to'g'ri foydalanish fikrni aniq tushunish va ko'proq ma'lumot olishga yordam beradi. Masalan: notiq biror shaxs haqida gapirar ekan, nutqida bir tushunchani boshqa bir tushuncha bilan almashtira olsa, uning nutqi mazmunan boyiydi va tinglovchilarda qiziqish uyg'otadi.

Masalan: A. G'azal mulkining sultoni

B. O'zbek adabiy tilining asoschisi

Bu misolda A va B - mos tushunchalar.

Ikkala tushunchada ham buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy ifodalangan.

B) **Tushunchalar o'rtasidagi qisman moslik munosabati.** Bunda ikki guruh predmetlari o'rtasidagi munosabat aks etadi, birinchi guruh predmetlarining ma'lum bir qismi ikkinchi guruh predmetlarining ma'lum bir qismiga mos keladi. Ta'kidlash joizki, ushbu munosabatdagi tushunchalar hajmi jihatdan qisman mos kelsalarda, lekin mazmun jihatidan harxil bo'ladi.

Masalan: A. Ishchilar

B. Ratsionalizatorlar

Ishchilarning bir qismi ratsionalizator, ratsionalizatorlarning bir qismi ishchilar bo'lishi mumkin. Qisman moslik munosabati chatishma tushunchalarini keltirib chiqaradi.

V) **Bo'ysunish munosabati** - keng hajmli tushuncha bilan tor hajmli tushunchalar orasidagi munosabatni ifodalaydi. Bunda keng hajmli tushuncha-bo'ysundiruvchi, tor hajmli tushuncha bo'ysunuvchi, deb yuritiladi.

Masalan: A. Fan

B. Kibernetika,

Berilgan misoldagi A tushuncha keng hajmli. B tushuncha (kibernetika) A ning tarkibiga kiradi, tor hajmli.

2) Sig'ishmaydigan tushunchalar o'rtasida: **a) birga bo'ysunish; b) qarama-qarshilik; v) zidlik munosabatlari**mavjud.

A) **Birga bo'ysunish munosabatida** tushunchalar o'zaro bir-birini istisno qiladi, lekin ular birgalikda hajmi keng boshqa tushunchaga bo'ysunadi.

Masalan: A. Badiiy adabiyot

B. Arxitektura

V. Amaliy san'at

A, B, V tushunchalari birgalikda nisbatan kengroq hajmli D (san'at) tushunchasiga bo'ysunadi. Bunda A, B, V lar birga bo'ysinuvchilar; D-birga bo'ysundiruvchi hisoblanadi.

B) **Qarama-qarshilik munosabatida** tushunchalar predmetlarda ikki qarama-qarshi tomon mavjudligini ifodalaydi, qarama-qarshi munosabatdagi tushunchalar odatda bir-birini inkor etadi. Bir tushunchaning to'g'riligidan ikkinchisining xatoligi kelib chiqadi. Lekin qarama-qarshilik munosabati orasida uchinchi bir tushuncha bo'lishiga imkon qoldiradi.

Masalan: A. Oq

B. Qora

Bu misolda A-B ni inkor etadi, B ham A ni inkor etadi. A ning chinligidan B ning xatoligi kelib chiqadi yoki aksincha bo'lishi mumkin. Qarama-qarshilik munosabatida uchinchi bir tushuncha (A1, A2, A3 yoki B1, B2, B3) bo'lishi mumkinligi nazarda tutiladi.

V) **zidlik munosabatidagi** tushunchalar ham qarama-qarshi munosabatidagi tushunchalar kabi o'zaro bir-birini inkor qiladi. Qarama-qarshi munosabatda ikkinchi tushuncha aniq ifodalanadi. Zidlik munosabatida inkor etilayotgan tushuncha noaniq bo'lib qolaveradi. Munosabati qarama-qarshi tushunchalar singari bir doiraga kirsada, inkor etgan tushuncha doiraning noaniq qismini tashkil qiladi. Agar qarama-qarshi tushunchalar uchinchi tushunchaga o'rin qoldirsa, zid tushunchalar ularga hech qanday o'rin qoldirmaydi. Shuning uchun ikki zid tushunchaning biri rost bo'lsa, ikkinchisi albatta xato, uchinchisi bo'lishi mumkin emas.

Masalan: Katta – A tushuncha

Katta emas – A emas

Berilgan misoldagi A tushunchaning chinligi B ning xatoligini keltirib chiqaradi yoki aksincha. Ular bir-birini tamoman inkor etadi, uchinchisining bo'lishi mumkin emas.

Tushunchalar ustidagi mantiqiy amallar deganda: a) tushunchalarni umumlashtirish: b) chegaralash: v) tushunchalarni bo`lish: g) tushunchalarni ta`riflash nazarda tutiladi.

Olamning mohiyatini anglashda fikrimiz ba`zan hajmi kengroq tushunchadan torroq tushunchaga qarab harakat qilsa, ba`zan esa aksincha bo`ladi. Ushbu jarayon mantiq fanida tushunchalarni umumlashtirish va chegaralash deyiladi.

a) tushunchalarni umumlashtirish. Fikrlash jarayonida tor hajmli (tur) tushunchadan keng hajmli (jins) tushunchaga qarab borish – tushunchani umumlashtirish deyiladi. Masalan, o`qituvchi-ziyoli- inson.

Tushunchalarni umumlashtirishda yakka tushunchadan umumiy tushunchaga qarab boriladi. Umumlashtirishning muayyan chegarasi mavjud. Uning natijasida ortiq umumlashtirish mumkin bo`lgan tushunchalar hosil bo`ladi. Bunday tushunchalar kategoriyalardeyiladi. Kategoriyalar olamdagi narsa, hodisalarning eng umumiy xususiyatlarini, aloqa va munosabatlarini aks ettiruvchi umumiy tushunchalardir. Har bir fan o`ziga xos kategoriyalar sistemasiga ega. Masalan, fizikada «atom», «molekula», «energiya», «quvvat» matematikada son, tenglama, differersional, integral va hokazo.

Umumlashtirish mantiqiy amalini quyidagicha ifodalash mumkin: Akula (A) – yirtqich baliq (B) – baliq (V) suv hayvoni (G)

Bu misolda fikr tor hajmdagi tushunchadan keng hajmli tushunchaga qarab borgan. Buni A-B-V-G mantiqiy shaklda yoki grafik usulda - Eyler doirasi tarzida ifodalash mumkin. Grafikdagi strelka A dan G ga qarab boradi va umumlashtirishni ifodalaydi.



Grafikdagi strelka Adan Gga qarab boradi va chegaralash yo`nalishini ifodalaydi.

Umumlashtirish mantiqiy usuli tushunchalarni ta`riflashda qo`llanadi.

b) tushunchani chegaralash. Fikr yuritish jarayonida hajmi keng (jins) tushunchadan torroq (tur) tushunchaga tomon borish tushunchani chegaralash deyiladi. Tushunchalarni chegaralash natijasida yakka tushunchalar hosil qilinadi. CHegaralash natijasida hosil bo`lgan tushunchalar

yakka yoki «individ» tushunchalar deyiladi. Masalan: «harakat» tushunchasini shunday chegaralash mumkin: harakat (A) -mexanik harakat (B) - aylanma harakat (V) - yer planetasi harakati (G)

Harakat - A

Mexanik harakat - AB

Aylanma harakat - ABV

Yer planetasi harakati – ABVG

CHegaralash quyidagi grafik usulda ifodalash mumkin.



Tushunchalarni chegaralash va umumlashtirish insoniyat hayotida katta ahamiyatga ega bo`lgan fikrlash operasiyasidir. Agar umumlashtirish orqali narsa va hodisalarning muhim, bir-biriga o`xshash tomonlarini bilsak, chegaralash orqali esa har bir narsaning o`ziga xos, konkret tomonlarini, ichki xususiyatlarini bilamiz.

**v) tushunchalarni bo`lish.** Tushunchalarning hajmi bo`lish operasiyasi orqali aniqlanadi. Tushunchalar hajmini aniqlash mantiqiy usuli tushunchalarni bo`lish deyiladi.

Bo`lish deganda tushunchalarda ifodalangan predmet, hodisalarni fikran kichik guruppalarga ajratish nazarda tutiladi. Hajmi aniqlanadigan tushuncha bo`linuvchi tushuncha; bo`lish uchun olingan belgi-bo`lish asosi, bo`lish natijasida tushunchalar bo`linma deyiladi. Tushunchalarni bo`lishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak;

1. Tushunchalarni bo`lish bir asos bo`yicha amalga oshiriladi. Masalan, uchburchaklar-o`tkir burchakli uchburchak, o`tmas burchakli uchburchak, to`g`ri burchakli uchbarchak.

2. Tushunchalarni bo`lish mutanosib bo`lmog`i kerak. Buning ma`nosi shuki, bo`lish natijasida hosil bo`lgan tur tushunchalarining hajmi bo`linuvchi (jins) tushuncha hajmiga teng bo`lmog`i lozim.

Masalan, materiklar tushunchasi tarkibiga YevroOsiyo, Afrika, Avstraliya, SHimoliy Amerika, Janubiy Amerika, Antarktida tushunchalari kiradi. .

Z. Bo`lish natijalari bir-birini istisno qilishi kerak.

Masalan, «tabiat» (A)ni bo`lish orqali «jonli tabiat» (B), «jonsiz tabiat» (V) hosil qilinadi.

4. Tushunchalarni bo`lishda sakrash bo`lmasligi kerak, ya`ni tushunchalarning yaqin turini olish kerak.

Masalan, gap (A) bo`lish orqali, sodda gap (B), qo`shma gap (V). Agar biz gaplarni sodda va bog`langan qo`shma gap deb bo`lsak, jins qolib jinsni bir turiga o`tiladi. Bunday bo`lishi noto`g`ridir.

Tushunchalarni bo`lish mantiqiy usulni predmetlarni qismlarga ajratishdan farqlamoq lozim. Masalan, “Hafta” deganda – dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba, juma, shanba, yakshanba nazarda tutiladi. Dushanba - haftaning birinchi kuni.

Tushunchalarni bo`lishning bir qator yo`llari bor. Ular tushunchalarni bo`lish usullari deb yuritiladi. Tushunchalarni bo`lish usullariga: a) jins tushunchalarni tur tushunchalariga bo`lish; b) dixotomiya asosida bo`lish; v) klassifikasiya kiradi.

Tushunchalarni bo`lishning eng keng tarqalgan usuli jins tushunchalarni tur tushunchalarga bo`lish hisoblanadi. Masalan; gap bo`laklari deganda gapning bosh bo`laklari va ikkinchi darjali bo`laklari nazarda tutiladi.

Tushunchalarni hajmiga ko`ra ikkita bir-birini istisno qiluvchi zid tushunchalarga ajratish usuli ham mavjud bo`lib, bu dixotomik bo`lish deyiladi. Bunda tushunchalarning biri ikkinchisini istisno qiladi: Masalan, o`qituvchilar: fiziklar va fizik emaslar.

Dixotomik bo`lishda bo`linuvchi va bo`linma o`rtasida hajm jihatdan nomutanosiblik istisno-qilinadi. Bo`lish to`g`ri amalga oshirilsa, bo`linuvchi va bo`linma hajm jihatdan har doim teng bo`ladi.

Tushunchalarni bo`lishning alohida turi tasniflash-klassifikasiyadir. Klassifikasiya ob`ektiv olamdagi buyumlarni ifodalovchi tushunchalarni o`xshash belgilari va farqiga qarab ma`lum gruppalarga, turlarga sinflarga bo`lishdir.

Klassifikasiya (tasnif) - ob`ektiv olamdagi predmetlar, hodisalar haqidagi bilimlarimizni sistemalashtirish, ma`lum bir tartibga solib

o`rganishning muhim usulidir. Amaliy ehtiyoj talablariga ko`ra tushunchalarni bo`lish asosini o`zgartirish mumkin. Lekin klassifikasiyada bo`lish asosi nisbatan barqarorligi, doimiyligi bilan ajralib turadi.

Mantiqda klassifikasiya ikki gruppaga: tabiiy va sun`iyga bo`linadi. Tabiiy klassifikasiya ilmiy tadqiqotning natijasi va muxim vositasi bo`lib, bilish jarayonida katta axamiyatga ega. Tabiiy klassifikasiyada predmetlar eng umumiy va eng muhim belgilari asosida guruhlarga bo`linadi. Ushbu usul o`simliklarni va hayvonlarni klassifikasiya qilishda ayniqsa keng qo`llaniladi. Sun`iy klassifikasiya esa tashqi belgilarga asoslanadi va turli - tuman predmetlarni, ularni aks ettiruvchi tushunchalarni tartibga solish uchun xizmat qiladi. Tabiiy klassifikasiyaga misol sifatida Mendeleevning ximiyaviy elementlarining davriy sistemasini, O`simliklar, hayvonlar klassifikasiyasini keltirish mumkin. Kutubxonadagi kitoblarni alfavit tartibda joylashtirish sun`iy klassifikasiyaga misol bo`la oladi.

**g) tushunchalarni ta`riflash.** Tushunchalarni ta`riflash hayotda keng qo`llanadigan mantiqiy usuldir. Ta`riflash yordamida biz ta`riflanuvchi tushunchaning mazmunini, mohiyatini ochamiz. Odatda biror predmetni bilganimizdan keyingina uning mazmunini, asl mohiyatini aniqlab, fanga yangi atama kiritamiz. Bunga tushunchada ifodalangan predmetning asosiy belgilarini aniqlash orqali erishamiz.

Tushuncha mazmunini ifodalovchi asosiy belgilarini ochib berishga qaratilgan mantiqiy usulga tushunchalarni ta`riflash (definisiya) deyiladi. Masalan «kvadrat» tushunchasiga ta`riflashda uning asosiy belgilari, ya`ni teng tomonli, to`g`ri burchakli to`rtburchakdan iborat geometrik shakl ekanligini nazarda tutamiz.

Tushunchani ta`riflash uning muhim belgilarni ochib berishni taqozo etadi. Masalan: Davlat - jamiyatni siyosiy hokimiyat yordamida maxsus boshqaruv shaklidir. Tushuncha ta`rifi ikki qismdan iborat bo`ladi.

1. Ta`riflanuvchi. Bu mazmunni ochilishi lozim bo`lgan tushuncha.
2. Ta`rifning o`zi bu- tushuncha mazmunini ochishga yordam beradigan belgilarni ochib berish

Tushunchalarni ta`riflash turlari deganda;

A) yaqin jins va tur orqali ta`rif;

B) nominal ta`rif;

V) genetik ta`rif nazarda tutiladi.

Yaqin jins va tur orqali ta`rifda ta`riflanuvchi tushuncha, uning tur belgisi va jinsga mansubligi ifoda etiladi.

Jamiyat o`z - o`zidan tashkillanuvchi, o`z - o`zidan rivojlanuvchi ijtimoiy organizm. Bu ta`rifda mazmuni ochilish lozim bo`lgan tushuncha – “jamiyat”, uning tur belgisi “o`z-o`zidan tashkillanuvchi”, “o`z-o`zidan rivojlanuvchi”, jins ifodasi - “ijtimoiy organizm”.

Ta`riflash quyidagi formula (mantiqiy shakl)da ifodalash mumkin: A tur B jins + A tur.

Genetik ta`rifda tushunchada ifodalangan predmetning kelib chiqishi, uning nimadan to`zilganligi qanday shakllanganligi kabi o`ziga xos tomonlariga e`tibor beriladi. Masalan:nutq - mehnat jarayonida yuzaga kelgan, fikrni ifodalash uchun xizmat qiluvchi, insonlargagina xos bo`lgan aloqa vositasidir.

Ta`rif real va nominal turlarga bo`linadi.

Nominal ta`rifda tushunchani ifodalagan so`z, nom - terminning ma`nosi bayon etiladi. Real ta`rif o`zining aniqligi bilan ajralib turadi. Nominal ta`rifda biologiya «bio» - hayot, «logos» - fan degan so`zdan olingan bo`lib, hayot to`g`risidagi fan desak, real ta`rifda «biologiya» - hayot qonuniyatlari va jonli mavjudotlarning o`sishi haqidagi fandir, deymiz.

Masalan: «Informatika axborotni hosil qilish, saqlash, qayta ishlash jamiyatiga tadbiq etish yo`llari va usullari haqidagi fan» dir ta`rifi real ta`rifiga misol bo`la oladi.

Ta`riflashning hamma fanlar uchun zarur bo`lgan mantiqiy qoidalari mavjud. Ularga amal qilingandagina ta`rifda aniqlikka erishiladi. Bu qoidalar quyidagilardan iborat:

1. Ta`riflash teng hajmli bo`lishi kerak, ya`ni ta`riflanuvchi predmet hajmi bilan ta`riflovchi hajmi teng bo`lishi kerak. Agar biz, falsafa - tabiat, jamiyat haqidagi eng umumiy bilimlarni o`rganadigan fandir desak, bu ta`rif noto`g`ri, chunki ta`riflanuvchi tushunchaning xajmi ta`riflovchidan keng;

2. Ta`riflashda eng yaqin jins tushunchani olish kerak. Agar biz san`at ijtimoiy ong formasi desak, noto`g`ri bo`ladi, chunki «ijtimoiy ong formasi» san`atning yaqin tur belgisi emas.

3. Ta`rifda belgi faqat ta`riflanuvchi predmetga tegishli bo`lishi va uning barcha predmetlardan farqini ko`rsatib berishi kerak. Agar biz «baliq» suvda yashovchi jonzotdir, deb ta`riflasak, noto`g`ri bo`ladi, chunki yuqoridagi qoida bo`zilgan hisoblanadi.

4. Ta`rif inkor shaklida bo`lmasligi, tushunchada ifodalangan narsa, hodisaning asosiy belgilari ko`rsatilishi kerak. Masalan. «baliq» - ilon emas, deb ta`rif bersak, xato bo`ladi.

5. Ta`riflash aniq bayon qilingan bo`lishi kerak. Noaniqlik noto`g`ri ta`riflashga olib keladi.

Ko`rinadiki, ob`ektiv olamdagi narsa va hodisalarning mohiyatini ochishda ta`riflash muhim rol o`ynaydi.

Foydalanishga tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:

Takrorlash uchun savollar

1.Tafakkurning asosiy shakillarini so'zlab bering?.

2.Tushuncha nima?.

3.Mushohada nima?.

4.Mushohadaning soda turlarini gapirib beribg?.

5. Mushohadaning murakkab turlarini gapirib bering?.

6.Xulosa chilasizqarish turlari haqida nimalarni bilsiz?.

7.Tushuncha va so'z o'rtasia qanday aloqa mavjud?.

Test.

1. Dil'tey tushunishni qanday tavsiflagan?

Matn muallifining ma'naviy dunyosiga kirish

Insonning borliqqa munosabati

Ob'yekt mohiyatini aniqlash

Bilishning boshlanish nuqtasi

2. «Tushunish insonning borliqqa o'ziga xos munosabati, insonning dunyoda mavjud bo'lish usulidir». Ushbu ta'rif muallifi kim?

M.Xaydegger

V.Diltey

M.Baxtin

S.Tulmin

3. «O'tmish ma'daniyatini tushunish talqin qiluvchining o'uzini tushunishi bilan uzviydir». Ushbu fikr muallifi kim?

X.G.Gadamer

S.Tulmin

I.Ruzavin

M.Xaydegger

4. G.I.Ruzavin tushunnshning nechta turini ko'rsatgan?

3

5

7

2

5. Ruzavin ko'rsatgan bilish turlari qaysi javobda berilgan?

Dialog, tarjima, badiiy

Matematik, fizik, biologik

Snergetik srukturaviy va kibernetika

Dialektik, sofistik

6. Nima o‘zida tushunishning siklik xususiyatlarini aks ettiradi?

Termenevtik doira

Olmaxon g‘ildiragi

Chiziqli tafakkur

Nochiziqli tafakkur

7. Germenevtik doira qanaqa xususiyatga ega?

Dialektik

Germenevtik

Sinergetik

Sofistik

8. Germenevtik doiraning «Olmaxon g‘ildiragi»dan farqini ko‘rsating?

Bir butundan undanda to‘liqroq butunga qaytishida

Metafizik xususiyatga egaligida

Sofistik xususiyatga ega ekanligida

Eklektik xususiyatga ega ekanligida

9. «Tushunishni hozirgi davrga bog‘lash kerakmi» degan savolga hozirgi kunda necha xil yondashuv mavjud?

2

3

5

4

10. Tushunish bu - ...

Fikr yuritish orqali simvolda yashirin ma’noni aniqlash demak

Borliqni anglash

Olimning iqtisodiy yondashuvi

To‘g‘ri javob yo‘q

11. Ilmiy faoliyatning asosiy protseduralarini sanab o‘ting?

Tushunish, tavsiflash, tushuntirish va talqin qilish

Farmallashtirish, umumlashtirish

Induksiya, analiz, sintez

Ideallashtirish va eksperiment

12. Tushunish jarayoni nima bilan bog‘liq bo‘ladi?

Anglab yetish, ya’ni inson uchun ma’lum ma’noga ega bo‘lgan narsalarni aniqlash bilan

Izohlash bilan

Tavsiflash bilan

Talqin bilan

13. Tushunish qanaqa sharoitlarda sodir bo‘ladi?

O‘zaro aloqa

Bahs, monolog

Polilog, o‘zaro muloqot

Hamma javoblar to‘g‘ri

14.Ma’no bu - ...

Tildagi iboralar sinonimligini emas, balki murakkab, ko‘p qirrali hodisa

Fikrning mavjudlik sharti

Fikrning ifodaviy sharti

To‘g‘ri javob yo‘q.

15.«Ma’no birinchidan, har qanday qilmish, xulq-atvor, amalning «Nimaga» va «Nima uchun» sodir etilganligini nazarda tutishi kerak. Ikkinchida, ma’no yo‘nalishga ega, ya’ni u nimaningdir pirovard maqsadidir». Bu fikrlarning muallifi kim?

M.Xaydegger

S.Tulmin

Diltey

G.Gadamer

16.Ma’no nimada ifodalanadi?

Tilda

Harakatda

Matnda

Ijodda

17.Tushunishning o‘ziga xos xususiyati nimalarda namoyon etadi?

Insonning o‘zi tahlil qilayotgan narsa va hodisalarni ichki murakkab aloqalari, bog‘lanishlarni aniq sezishda

Tashqi aloqalarni anglashda

Narsalarning o‘zaro aloqasini aniqlashda

To‘g‘ri javob yo‘q

18.Ma’naviy-madaniyatning moddiylashtirilgan ifodasi bu -...

Matn

Til

Tushuncha

Tafakkur

19.Semiotika nimani o‘rgatadi?

Belgilar va belgili tizimlarning xossalarini o‘rganish

Xatti-harakatlarni

Tafakkur qonunlarini

Grammatik qoidalar

20.«Simvol» so‘zining ma’nosi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

Yunoncha, «ramz», «shartli belgi»

Yunoncha, «o‘xshatish»

Yunoncha, «qiyoslash, o‘lchash»

Yunoncha, «o‘lchash»

21.Ikki yoki bir necha shaxs o‘rtasidagi yozma tarzda qayd etilishi mumkin bo‘lgan og‘zaki muloqot shakli bu - ...

Dialog

Monolog

Poliolog

To‘g‘ri javob yo‘q

22.O‘rganilayotgan predmetning mohiyati rivojlanish sabablari, shartlari va manbalarini, harakat mexanizmlarini aniqlash nimaning bosh maqsadi?

* Tushuntirish

Tushunish

Matn

Bilish

23.Harakat qilayotgan shaxs maqsadni, tarixiy hodisalar ishtirokchilarining niyatini ko‘ursatib beruvchi tushuntirish shakli qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

* Teleologik

Germenevtik

Sinergetik

Dialektik

24.«Tushunishda faqat bir ong, bir subyekt, tushuntirishda esa, ikki ong, ikki subyekt qatnashadi». Ushbu fikrlar kimga tegishli?

* M.Baxtinga

F.Bekonga

R.Dekartga

K.Popperga

Argumentlash va bilimlar taraqqiyotining mantiqiy shakllari.

Reja:

1. Argumentlash haqida.
2. Mushohada – tafakkur shakli sifatida
3. Sodda mushohada va uning turlari
4. Murakkab mushohada, ularning turlari.
5. Mushohadalar o`rtasidagi munosabat.

Mavzuning oid asosiy tayanch tushunchalar: mushohada, sodda mushohada, murakkab mushohada, subyekt, predikat, mantiqiy bog`lama, atributiv hukm, mantiqiy kvadrat.

Insoniyat tafakkuri taraqqiyot shundan dalolat beradiki, fikrning isbotlanganlik, dalillanganlik darajasi unda olamdagi mavjud narsalar, hodisalar, ular orasidagi aloqadorliklarning qanchalik to‘g‘ri va har tomonlama aks etishga boqliq. Narsa va hodisalar aloqadorligi fikrlar aloqadorligini keltirib chiqaradi. Olamdagi va fikrdagi aloqadorliklar har doim yaqqol ko‘zga tashlanavermaydi. Fikrlar orasidagi aloqadorlikni topa bilish va shu asosda biron-bir fikrning to‘g‘riligini asoslash bilish jarayonida muhim o‘rin tutadi.

Isbot - isbotlash talab etilgan fikrni to‘g‘ri, haqiqat deb qabul qilingan fikrdan keltirib chiqarish jarayonini ifodalaydi.

Isbot o‘ziga xos tuzilishga ega: tezis, argumentlash va isbot etish usullari (demonstratsiya) uning muhim tomonlari bo‘lib hisoblanadi.

Tezis - isbotlanishi lozim bo‘lgan fikr.

Argument - tezisni isbotlashda qo‘llaniladigan to‘g‘ri fikr, haqiqat.

Buni isbotlash asosi deb ham yuritiladi.Argumentlar turli ko‘rinishda bo‘lishi mumkin.

1. **Aniqlangan**, tekshirilgan dalil yoki dalillar. Bu dalillar xilma-xil usullar bilan olinishi mumkin.
2. U yoki bu hodisa haqidagi fanda bayon etilgan umumlashma fikrlar.
3. **Aksioma va postulatlar**. Fanlar, ayniqsa, matematika, mexanika, nazariy fizika va hokazolarda ta’riflardan tashqari aksiomalar mavjud. Aksiomalar - isbot etilishi talab qilinmaydigan ilmlar.
4. Fanda ilgaridan isbotlangan bilimlar:qonun va teoremalar, fizika, ximiya, biologiya qonunlari, matematikadagi teoremalar argument vazifani o‘taydi.

Isbotlash usullariga demonstratsiya, induktiv, deduktiv, bevosita va bilvosita isbotlash kabilar kiradi.

Bilimlarni hosil qilishda isbot bilan bir qatorda rad etish mantiqiy usulidan ham foydalaniladi. Rad etish yoki raddiya biron-bir fikrning xato ekanligini isbotlashning mantiqiy uslubidir. Odatda bu usuldan bir narsa haqidagi qarashlarda turli fikrlilik kuzatilganda foydalaniladi. Rad etish tezisga, argumentga, isbotlash usuliga qarshi qaratilgan bo‘ladi. Ilmiy ijod jarayonida mantiq qonunlari, isbot va rad etish mantiqiy uslullarini bilish muhim ahamiyatga ega.

Insonning olam haqida hosil qiladigan bilim shakllaridan biri mushohada hisoblanadi. **Mushohada predmetlar, hodisalar, ularning belgilari, xususiyatlari, munosabatlarini tasdiq yoki inkor shaklida ifodalaydigan fikr shaklidir.**

Inson olamni o‘rganish jarayonida undagi narsa va hodisalar o‘rtasidagi aloqa va munosabatlarni payqaydi. Mazkur aloqa va munosabatlar inson tafakkurida mushohada shaklida aks etadi. Mushohada tushunchalar orasidagi munosabatlardan kelib chiqadi. Masalan: Yer quyosh atrofida aylanadi.

Har qanday mushohada chin yoki xato bo‘lishi mumkin. Agar mushohadada aks etgan aloqa va munosabatlar real dunyo, undagi mavjud aloqa va munosabatlar in’ikosi bo‘lsa, bunday fikr chin mushohada hisoblanadi. Aksincha, mushohadada bildirilgan fikr borliqdagi aloqa va munosabatlarni aks ettirmasa, bunday fikr yo chalkash, yo xato mushohada hisoblanadi. Masalan: O‘g‘rilik – jinoyat, o‘g‘rilik - jinoyat emas. Bu fikrlardan birinchisi chin, chunki u borliqning in’ikosi.

Mushohadaning mantiqiy tuzilishi barcha uchun umumiy. U qaysi tilda bayon etilmasin, uning tarkibi subyekt (S), predikat (R), va kvantor so‘zdan iborat bo‘ladi. Mushohadaning tuzilishidan bunday umumiylik uni ifodalashda mantiqiy shakl-formulaga solish imkonini beradi. Masalan,

A) «O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat» va «Kuch-adolatda» mushohadalarini bir xil shaklda: S-R dir formulasi yordamida ifodalash mumkin.

Mushohadalarda:a) Predmetlarning borligi, mavjudligi haqidagi fikr tasdiqlanadi yoki inkor qilinadi. Masalan: Haqiqat – bor, mavjud.

b) Predmetlarga xos belgi, xususiyatlar ifodalanadi. Masalan: Ayrim sonlar – juft son.

v) Predmet va hodisalar o‘rtasidagi aloqa va munosabatlar aks etadi. Masalan: Xorazm viloyati Qashqadaryodan shimolroqda joylashgan.

Mushohada gap vositasida ifodalanadi. Tushunchalar so‘zlarsiz mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lmagani singari, mushohada ham ularning tashqi ifodasi gaplarsiz mavjud bo‘lishi mumkin emas. Ko‘rinib turibdiki, mushohada gap bilan uzviy bog‘liq. Bu bog‘liqlik tafakkur va tilning birligi va o‘zaro bog‘liqligidan kelib chiqadi. Mushohada bilan gapning uzviy birligi, bog‘liqligidan ular doimo o‘zaro mos keladi, degan xulosa chiqmaydi. Mushohada va gapni ularga xos xususiyatlarga ko‘ra farqlamoq lozim:

Har qanday mushohada gap vositasida ifodalanadi. Gap mushohadaning moddiy ifodasi hisoblanadi. Lekin har qanday gap mushohada bo‘la olmaydi. Faqat darak, xabar ma’nosi anglatgan gaplargina mushohada bo‘la oladi. So‘roq, chaqiriq, xitob ma’nosidagi gaplar mushohada bo‘la olmaydi, Chunki ular tasdiq, yoki inkor ma’nosini anglatmaydi.

Mushohada va gap tuzilishida muayyan o‘xshashlik bo‘lsada, mushohada va gapning tuzilishini aynan birdek, deb bo‘lmaydi. Gap grammatik tuzilishga ega: u bosh va ikkinchi darajali bo‘laklardan tashkil topadi. Mushohada mantiqiy tuzilishga ega. Avvalo u ikki qismdan iborat. Ular **mushohada terminlari** deb yuritiladi.

Mushohada terminlariga - **mushohada subyekti (S) va predikati (P)** kiradi. Mushohadani quyidagi mantiqiy shaklda ifodalash mumkin: S-R dir; S-R emasdir.

Mushohadaning sub’ekti (S) predmetni, predikati (P) esa unga xos bo‘lgan belgi, xususiyat, munosabatlarni tasdiq yoki inkor shaklida ifodalaydi. Mushohadada mantiiqiy bog‘lovchilar «dir», «emasdir», «bo‘ladi» kabilar ishtirok etishi mumkin. Mushohadada uning hajmiga ishora qiluvchi so‘zlar uchraydi. Masalan: «barcha», «har bir», «hech bir», «ba’zi» - bular **kvantor so‘zlar**, deb nomlanadi. «Barcha kapalaklar hashoratdir» mushohadasi quyidagi tuzilishga ega: a) «kapalaklar» — mantiqiy ega (S); b) «hashoratlar»— mantiqiy

kesim (R); v) «barcha» - kvantor; r) «-dir» bog‘lovchi. M azkur mushohadani «Barcha S — R dir» formulasi orqali ifodalash mumkin.

Gapdagi bosh bo‘laklar (ega va kesim) mushohadaning mantiqiy egasi (S) va mantiqiy kesimi (R) ga mos kelavermaydi. Faqat sodda yig‘iq, gaplar vositasida ifodalangan mushohadalardagina grammatik ega va kesim, mantiqiy S va R ga muvofiq kelishi mumkin. Buning ustiga ko‘pincha mushohada terminlari aniq ifodalanish usuliga ega emas. Ular (S,R) ni mantiqiy urg‘u orqali aniqlash mumkin bo‘ladi. Bir xil tuzilgan gap ohang, mantiqiy urg‘u orqali turlicha mazmundagi mushohadani ifodalashi mumkin.

a) O‘zbekiston (boshqa emas) mustaqil davlat.

b) O‘zbekiston mustaqil davlat. (qanday?)

v) O‘zbekiston mustaqil davlat. (nima?)

Bu misolda bir xil gap 3 xil mushohadani ifodalagan: a) qaysi davlat? b) qanday davlat? v) nima? Shunga ko‘ra ularda mantiqiy ega turlicha.

Gapning grammatik tuzilishi turli xalqlarda turlicha. Mushohadaning mantiqiy tuzilishi, u qaysi milliy tilda ifodalangan bo‘lmasin, barcha uchun umumiy, bir xil. Mushohada terminlar (S,R), bog‘lovchi va kvantor so‘zdan tashkil topadi.

5. Mushohadalar tuzilishiga ko‘ra: **a) sodda va b) murakkab** turlarga bo‘linadi.

Sodda mushohada deb tarkibidagi subyekt yoki predikat miqdori birdan ko‘p bo‘lmagan fikrga aytiladi.

- Sodda mushohada tuzilishiga ko‘ra bir S va bir R dan iborat bo‘lishi mumkin. Masalan: Maysalar ko‘kardi. Formulasi: S-R dir;

- Sodda mushohadaning sub’ekti birdan ortiq bo‘lishi mumkin. Masalan: Uchburchak, parallelogramm, aylana geometrik figura hisoblanadi. Formulasi: S1, S2,S3 - R dir.

- Predikati birdan ortiq bo‘lishi mumkin. Masalan; Kombayn o‘radi, yig‘adi, yanchadi. Formulasi: S - P1, R2, R3 dir.

- Terminlardan biri tushurib qoldirilishi mumkin. Odatda bunday mushohada to‘liqsiz gaplar vositasida ifodalanadi. Masalan: Tong... Ajib sokinlik...

Sodda mushohada, unda nimaning tasdiqlanishi yoki inkor etilishiga ko‘ra 3 turga bo‘linadi: **a) atributiv mushohada; b) munosabatga doir mushohada; v) mavjudlikka doir mushohada.**

a) **Atributiv mushohada**. Narsa, hodisalarning belgi, xususiyatlari to‘g‘risidagi tasdiq va inkor shaklida bayon etilgan mushohada atributiv mushohada deyiladi. Atributiv mushohadaning terminlari: S - nima haqida fikr yuritilganini, P - belgini ifodalaydi. Masalan: Asal shirin. Formulasi: S-Rdir.

Atributiv mushohada quyidagi hollarda qo‘llaniladi:

- Belgi, xususiyatning predmetga xosligini tasdiqlaydi yoki inkor etadi. Masalay: Mantiq - fan. Formulasi: S-R dir. Alisher to‘garakka qatnashmaydi: S-R emas.

b) **Munosabatga doir mushohada.** Munosabatga doir mushohada predmet va hodisalar o‘rtasidagi mavjud aloqa va munosabatlarni ifodalaydi. Bunday

mushohadalarda tenglik, katta yoki kichiklik, qarindoshlik, fazo, vaqt, sabab va oqibat munosabatlari aks etishi mumkin. Masalan: Alkogolizm (S) — ko‘p jinoyatlarning (R) bosh sababchisi; Termiz (S) Toshkentdan janubda joylashgan (R).

v) **Mavjudlikka doir mushohada**. Mavjudlikka doir mushohada mantiqda ekzistentsial mushohada, deb yuritiladi. Unda predmet, hodisaning mavjudlik yoki mavjud emaslik faktining o‘zi ifodalanadi. Masalan: Tafakkur (S). tilsiz mavjud bo‘lishi mumkin emas (R). Formulasi: S-R emasdir.

Sodda mushohadalarning ko‘rsatilgan turkumlari (atributiv, munosabatga doir, mavjudlikka doir)dan tashqari **ajratib ko‘rsatilgan va chiqarilgan** turkumlari ham uchraydi.

Ajratib ko‘rsatilgan mushohadalarda belgining muayyan predmetgagina taallug‘li ekanligi ifodalanadi. Ajratib ko‘rsatilgan mushohadalar ham yakka, juz’iy, umumiy bo‘lishi mumkin. Masalan: Yolg‘iz Munisgina (S) bu hodisaning guvohi bo‘ldi (R). Yolg‘iz S gina — Rdir formulasi bilan ifodalanadi.

Tashqariga chiqarilganlik ifodalangan mushohada: Vasilani hisobga olmaganda, barcha qizlar bu fikrni ma’qullashdi.

Ajratib ko‘rsatilgan va tashqariga chiqarilgan mushohadalar ular mazmunidagi yashiringan fikrning murakkabligidan dalolat beradi.

Ayrim ilmiy qarashlar, davlat qonunlari, jinoyat-protsessual kodeks moddalari ajratib ko‘rsatilgan va chiqarilgan mushohadalarga misol bo‘la oladi.

Mushohadalar anglatgan mazmunlariga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: **a) tasdiq mushohada; b) inkor mushohada.**

Mushohadadagi tasdiq ma’nosi «-dir», «bo‘ladi» kabi bog‘lovchilar, inkor ma’nosi «emasdir», «bo‘lmaydi» kabi bog‘lovchilar yordamida ifodalanadi. Masalan: O‘zbekiston (S) — mustaqil davlat (R) — tasdiq mushohada, S-Rdir formulasi bilan ifodalanadi. Olma daraxti (S) ignabargli emas (R emas) — inkor mushohada; formulasi: S-R emasdir.

Biron-bir predmet, predmetlar turkumi haqidagi tasdiq yoki inkor ma’nosidagi fikr alohida predmetga, turkumga, butun sinfga taallug‘li bo‘lishi mumkin. Shunga ko‘ra mushohadalar: **a) yakka; b) juz’iy; v) umumiy** bo‘lishi mumkin.

Alohida predmet, hodisa haqidagi tasdiq yoki inkor ma’nosini ifodalagan mushohada, **yakka mushohada** deb yuritiladi. Masalan: Abdulla Oripov (S) — O‘zbekiston qahramoni (P). Formulasi: S-R dir; Orol dengizi (S) — daryo emas (R emas) . Formulasi: S-R emasdir.

Belgi, xususiyatning biror sinf, hodisalarning qismi, bo‘lagiga tanlash ekanligi haqidagi fikr shakli **juz’iy mushohada** deb yuritiladi. Juz’iy mushohada tasdiq yoki inkor shakllari uchraydi. Masalan: Ayrim talabalar (S) ilmiy anjumanga qatnashdilar (R). Formulasi: Ba’zi S-R dir. Ayrim daraxtlar (S) mevali daraxtlar turkumiga kirmaydi (R emas). Formulasi: Ba’zi S-R emas.

Juz’iy mushohadagi juz’iylik ikki shaklda ifodalanadi.

- a) **Noaniq juz'iy mushohada**. Bunda subyekt (S) ni ifodalagan tushunchaning chegarasi noaniqligicha qolaveradi. Masalan: Ayrim shaharlar (S) - millioner shaharlar hisoblanadi (R). Formulasi: Ayrim S-Rdir.

- b) **Aniq juz'iymushohada**. Bunda «ayrim», «ba'zi» kvantor so'zlar «faqat ayrim», «faqat ba'zi» ma'nolarini ifodalaydi. Masalan: Universitetimizning faqat ayrim talabalarigina (S) «Nixol» mukofotining sovrindori. Formulasi: Faqat ayrim S-R dir.

Biron-bir belgi, xususiyat, munosabatning turkumga, umumga xosligi tasdiqlangan yoki inkor etilgan mushohada **umumiy mushohada** deb yuritiladi. Umumiy mushohadalar inkor va tasdiq shaklida qo'llaniladi. Masalan: Hamma kapalaklar (S) — hasharotlar (R). Formulasi: Barcha S-Rdir. Yoki, hech bir jinoyat (S) jazosiz qolmaydi (R emas). Formulasi: hech bir S-R emas.

Mushohadalarning **miqdoriy va sifat ko'rsatkichlariga ko'ra** umumlashgan turkumlariga quyidagilar kiradi:

1)Yakka tasdiq va yakka inkor mushohadalar: S-Rdir; S-R emasdir.

2) Juz'iy tasdiq va juz'iy inkor; U ba'zi S-R dir, O ba'zi S-R dir.

3) Umumiy tasdiq va umumiy inkor mushohadalar: A Barcha S-Rdir; Ye hech bir S-R emasdir.

Umumiy tasdiq mushohadasining formulasi oldiga A harfi, juz'iy tasdiq mushohada oldiga J harfi qo'yiladi. A va I harflari «tasdiqlayman» ma'nosini ifodalovchi «affirmo» so'zining I va II unlilaridan olingan. Umumiy inkor mushohada E harfi bilan, juz'iy inkor mushohada O harfi bilan ifodalanadi. Bunda E va O harflari «inkor etaman» ma'nosidagi «nego» so'zining I va II unlilaridan olingan. Shunday qilib, sifat va miqdor jihatdan mushohadalarni birlashgan klassifikasiyasini quyidagicha ifodalash mumkin:

A - barcha S-Rdir: umumiy tasdiq mushohada;

J - ba'zi S-Rdir: yakka yoki juz'iy tasdiq mushohada;

E - hech bir S-R emas: umumiy inkor mushohada;

O - ba'zi S-R emas: juz'iy inkor mushohada.

Murakkab mushohada deb tarkibida ikki va undan ortiq sodda mushohadalar ishtirok etgan mushohadalarga aytiladi. Murakkab mushohada sodda mushohadalardan tuziladi. Birdan ortiq mushohadalardan «va», «yoki», «yo», «agar», «unda», «fakat» bog'lovchilar yordamida tuzilgan mushohadalar uch turkumga bo'linadi: **a) bog'langan mushohada; b) ayiruvchi mushohada; v) shartli mushohada.**

Bog'langan mushohada. Birdan ortiq sodda mushohadalardan bog'lovchilar vositasida tuzilgan mushohada bog'langanmushohada, deb yuritiladi. Masalan: Kuz (S) keldi (R), kunlar (S1) qisqardi (P1), qushlar (S2) issiq joylarga uchib ketmoqdalar (P2). Formulasi: S-R, S1-P1, S2 — R2 dir. Bog'langan mushohada mantiqda kon'yunksiya deb ataladi. Murakkab mushohadani quyidagicha ifodalash mumkin: Kuz keldi (a), kunlar qisqardi (b), qushlar issiq joylarga uchib keta boshladilar (s). Kon'yunktsiyaning matematik shakli: a∧b∧s. Bunda ∧ belgisi bog'lovChini ifodalaydi. Masalan: Demokrit (S1), Platon (S2), Aristotel (S3) haqida shu narsani aytish mumkinki, ularning har biri grek (P1) va

faylasufdir (R2). Misolda ko‘rsatilgan mushohadani 2 xil formula bilan ifodalash mumkin:

1) S1, S2,S3 - R1, R2, R3 yoki a∧b∧c

Bu murakkab mushohada tarkibida quyidagi soda mushohadalar bor.

a) Demokrit - faylasuf:

b) Demokrit - grek:

v) Platon - faylasuf:

g) Platon - grek:

d) Aristotel — faylasuf:

j) Aristotel — grek:

Murakkab kon’yunktiv mushohadaning ma’nosi uni tashkil etuvchi sodda mushohadalar ma’nosiga bog‘liq bo‘ladi. Agar sodda mushohada chin bo‘lsa, ularning bog‘lanishidan hosil bo‘lgan murakkab mushohada ham chin bo‘ladi. Kon’yunktsiya a’zolaridan birining xatoligi murakkab mushohadaning xatoligini keltirib chiqaradi. b) **Ayiruvchi mushohada**. Ayiruvchi mushohada sodda mushohadalardan «yo», «yoki», «na» bog‘lovchilari yordamida shakllanadi. Ayiruvchi mushohada mantiqda diz’yunksiya, deb yuritiladi. Masalan: Oldi-sotdi shartnomasi (S) yozma yoki og‘zaki tuzilishi mumkin (R). Bu mushohada ikki soda mushohadadan tuzilgan: 1) Oldi–sotdi shartnomasi yozma tuzilishi mumkin, 2) Oldi-sotdi shartnomasi og‘zaki tuzilishi mumkin. Bunda a va b murakkab mushohadaning qismlari, v belgisi esa ayirish ma’nosini ifodalaydi. Yuqorida keltirilgan misolni shunday formula bilan ifodalash mumkin: a v b. Bunda ∨ belgi ayiruv ma’nosini ifodalaydi.

Diz’yunksiya yo‘li bilan chiqarilgan mushohadaning chinligi uning tarkibidagi sodda mushohadaning haqqoniyligiga bog‘liq bo‘ladi. Diz’yunksiya ikki ko‘rinishga ega:

1) Bo‘sh (kuchsiz) diz’yunksiya: Bunda diz’yunktsiyani tashkil etuvchi sodda mushohadalarda aks etgan belgilar o‘zaro bir-birini istisno qilmaydi, balki bir vaqtning o‘zida bir predmetga taalluqli bo‘lishi mumkin: Sovuq qurol sanchadigan yoki kesadigan bo‘ladi. Formulasi: P v q.

2) Jiddiy (qat’iy) diz’yunksiya. Bunda murakkab mushohada tarkibidagi sodda mushohadalar bir vaqtning o‘zida chin bo‘lishi mumkin emas. Masalan: Jinoyat - ataydan o‘ylab amalga oshirilgan yoki ehtiyotsizlik orqali sodir etilgan bo‘lishi mumkin.

v) Shartli mushohada. Shartli mushohada mantiqda «implikatsiya» deb yuritiladi, uning tarkibidagi sodda mushohadalar o‘zaro bir-biriga «-sa», «agar», «bo‘lmaganda» bog‘lovchilari vositasida bog‘lanadi. Shartli mushohadalarda sabab va oqibat, makon va vaqt, semantiq aloqadorlik ifodalanadi. Shartli mushohadani 2 xil formula yordamida ifodalash mumkin; Agar S-P bo‘lsa, S1 - P1 dir yoki a→b. Ikkinchi mantiqiy shaklda «a» shartni, «b» natijani, → implikatsiya belgisini ifodalaydi.

Ko‘rinib turibdiki, mushohada mantiqda tabiiy til vositasida hamda matematik mantiq tilida formula vositasida ifodalanishi mumkin. Masalan: Asalarilarning umri yo uzun, yo qisqa bo‘lishi mumkin - murakkab

mushohadaning tabiiy tildagi ko‘rinishi. Shu murakkab mushohadani matematik mantiiq tilida a∧b formulasi tarzida ifodalash mumkin.

Murakkab mushohadalarni sun’iy (simvolik, matematik mantiq) til bilan ifodalash mantiiqiy tafakkurning rivojlanishiga yordam beradi. Mushohadalarning tabiiy va sun’iy tilda ifodalanishi til va tafakkurning o‘zaro birligi va aloqadorligini isbotlaydi.

6. Olamdagi narsa va hodisalar orasidagi munosabatlar inson tafakkurida ham fikrlar orasidagi munosabatlarni keltirib chiqaradi. O‘zaro taqqoslash mumkin bo‘lgan mushohadalar sig`ishadigan va sig`ishmaydigan turlarga bo‘linadi.

O‘zaro bir-biriga to‘la yoki qisman mos keluvchi mushohadalar **sig‘ishadigan mushohadalar** deb yuritiladi. Sig‘ishadigan mushohadalar orasida 3 xil: a) qarama-qarshilik; b) zidlik c) bo‘ysunish munosabatlari bo‘lishi mumkin.

Birdan ortiq mushohadaning hajm va mazmunga ko‘ra o‘zaro to‘la mosligi - **ayniyat munosabati**, deb yuritiladi. Odatda bunday mushohadalarda ayni bir fikr tasdiq va inkor shakllarida ifodalanadi.

Masalan: Bu - ochiq muloqot (A).

Bu ochiq muloqot bo‘lmasligi mumkin emas (B).

Yoki Ahmedov to‘g‘ri so‘zladi. (A)

Ahmedov xato so‘zlamadi. (B)

Berilgan misollarda «a» va «v» orasida to‘la moslik mavjud. To‘la mos (ayniyat) lik munosabatidagi mushohadalar ekvivalent mushohadalar, deb yuritiladi.

b) qisman moslik munosabati. Sifat jihatidan o‘zaro farqlanadigan juz’iy (tasdiq) J va juz’iy inkor (O) mushohadalar orasidagi munosabat qisman moslik munosabati, deb yuritiladi.

Masalan: Ayrim o‘simliklar zaharli. (A)

Ayrim o‘simliklar zaharsiz. (B)

c) Bo‘ysinish munosabati. Umumiy (tasdiq va inkor) mushohadalar bilan juz’iy (tasdiq va inkor) mushohadalar orasidagi munosabat bo‘ysunish munosabati deyiladi. Bunda umumiy (A va E) mushohadaning chinligidan juz’iy (I va O) mushohadaning chinligi kelib chiqadi. Masalan: Barcha huquqiy munosabatlar huquq normalari orqali tartibga solinadi. (A)

Ba’zi huquqiy munosabatlar huquq normalari orqali tartibga solinadi. (V)

Berilgan misoldagi A ning chinligidan V ning chinligi kelib chiqadi.

O‘zaro bir-birini inkor etuvchi mushohadalar **sig‘ishmaydigan mushohadalar** deb yuritiladi. Sig‘ishmaydigan mushohadalar orasida ham 3 xil : **a) qarama-qarshilik; b) zidlik munosabatlari** bo‘lishi mumkin.

a) **Qarama-qarshilik munosabatlari**. Qarama-qarshilik munosabatidagi mushohadalar o‘zaro bir-birini inkor qiladi; ulardan birining chinligi ikkinchisining xatoligini keltirib chiqaradi. Masalan; Barcha ofiserlar harbiy xizmatni o‘tagan. A) Biron bir ofitser harbiy xizmatni o‘tamagan. (V)

Bu misolda A ning chinligidan V ning yolg‘onligi (xatoligi) kelib chiqadi.

Qarama-qarshilik munosabatidagi mushohadalar bir vaqtning o‘zida chin bo‘lishi mumkin emas. Lekin bir vaqtning o‘zida xato (yolg‘on) bo‘lishi mumkin.

Masalan; Qishda barcha qushlar issiq o‘lkalarga uchib ketadilar. (A). Qishda bironta qush issiq mamlakatlarga uchib ketmaydi (V). Berilgan har ikki mushohada: A ham, V ham xato, uchinchi (S) mushohada chin bo‘ladi: Qishda ba’zi qushlar issiq o‘lkalarga uchib ketadilar.

b) Zidlik munosabati. Bunda mushohadalar o‘zaro bir- birini tamomila inkor qiladi. A ning chinligi V ning xatoligini keltirib chiqaradi. Uchinchi fikr (S)ning bo‘lishi mumkin emas. Masalan: Barcha shifokorlar oliy tibbiy ma’lumotga ega. (A). Hech bir shifokor oliy tibbiy ma’lumotga ega emas. (V).

Mushohadalar orasidagi munosabatlar quyidagi shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin:

- Umumiy tasdiq (A) va umumiy inkor (E), juz’iy tasdiq (J) va juz’iy inkor (O) mushohadalar orasida qarama-qarshilik munosabati mavjud.

- Umumiy tasdiq (A) va juz’iy tasdiq (J) hamda umumiy inkor (E) va juz’iy inkor mushohadalari o‘zaro bo‘ysunish munosabatida. Bunda umumiy tasdiq (A) mushohadasining chinligidan juz’iy tasdiq (J) mushohadasining chinligi kelib chiqadi.

- Umumiy tasdiq (A) va juz’iy tasdiq (O) hamda umumiy inkor (E) va juz’iy tasdiq (J) mushohadalari o‘zaro bir-biri bilan zidlik munosabatida. Mushohadalar orasidagi munosabatlarni bilish chin bilim hosil qilish uchun imkon yaratadi.

1. Inson amaliy faoliyati jarayonida olamni bila boradi. Uning olamga faol munosabati bilimda o‘z ifodasini topadi. Ayrim bilimlarni u hissiy mushohada jarayonida hosil qiladi. Lekin aksariyat hollarda bilimlar tafakkurlash (fikr yuritish) natijasi hisoblanadi. Bunda bilimni hosil qilish ikki asosga tayanadi: birinchidan, bilim olamni o‘rganish natijasi hisoblanadi. Ikkinchidan, bilim avvaldan ma’lum fikrlar asosida aql yuritish natijasida hosil bo‘ladi. Bu bilimlar mantiqiy tafakkurning shakllari: tushuncha, mushohada, xulosalar tarzida namoyon bo‘ladi. insonning olam haqidagi fikrlari xulosalar shaklida ifodalanishi mumkin. Xulosa chiqarish mantiqiy tafakkur shakli hisoblanadi.

Mushohadalar tushunchalardan tarkib topgani singari xulosalar mushohada asosida hosil bo‘ladi. Fikrlash jarayonida mushohadalar o‘zaro bir-birlari bilan bog‘lanadilar. Bu bog‘lanishlar oqibat natijada obyektiv olamdagi predmet va hodisalar aloqadorligini ifodalaydi.

Mushohadalarning o‘zaro bog‘lanishi xulosalarni hosil qiladi

Test.

1. Dil’tey tushunishni qanday tavsiflagan?

Matn muallifining ma’naviy dunyosiga kirish
Insonning borliqqa munosabati
Ob’yekt mohiyatini aniqlash
Bilishning boshlanish nuqtasi

2. «Tushunish insonning borliqqa o‘ziga xos munosabati, insonning dunyoda mavjud bo‘lish usulidir». Ushbu ta’rif muallifi kim?

M.Xaydegger

V.Diltey
M.Baxtin
S.Tulmin

3. «O‘tmish ma’daniyatini tushunish talqin qiluvchining o‘uzini tushunishi bilan uzviydir». Ushbu fikr muallifi kim?

X.G.Gadamer
S.Tulmin
I.Ruzavin
M.Xaydegger

4. G.I.Ruzavin tushunnshning nechta turini ko’rsatgan?

3
5
7
2

5. Ruzavin ko‘rsatgan bilish turlari qaysi javobda berilgan?

Dialog, tarjima, badiiy
Matematik, fizik, biologik
Snergetik srukturaviy va kibernetika
Dialektik, sofistik

6. Nima o‘zida tushunishning siklik xususiyatlarini aks ettiradi?

Termenevtik doira
Olmaxon g‘ildiragi
Chiziqli tafakkur
Nochiziqli tafakkur

7. Germenevtik doira qanaqa xususiyatga ega?

Dialektik
Germenevtik
Sinergetik
Sofistik

8. Germenevtik doiraning «Olmaxon g‘ildiragi»dan farqini ko‘rsating?

Bir butundan undanda to‘liqroq butunga qaytishida
Metafizik xususiyatga egaligida
Sofistik xususiyatga ega ekanligida
Eklektik xususiyatga ega ekanligida

9. «Tushunishni hozirgi davrga bog‘lash kerakmi» degan savolga hozirgi kunda necha xil yondashuv mavjud?

2
3
5
4

10. Tushunish bu - ...

Fikr yuritish orqali simvolda yashirin ma’noni aniqlash demak
Borliqni anglash

Olimning iqtisodiy yondashuvi
To‘g‘ri javob yo‘q

11. Ilmiy faoliyatning asosiy protseduralarini sanab o‘ting?

Tushunish, tavsiflash, tushuntirish va talqin qilish
Farmallashtirish, umumlashtirish
Induksiya, analiz, sintez
Ideallashtirish va eksperiment

12. Tushunish jarayoni nima bilan bog‘liq bo‘ladi?

Anglab yetish, ya’ni inson uchun ma’lum ma’noga ega bo‘lgan narsalarni aniqlash bilan
Izohlash bilan
Tavsiflash bilan
Talqin bilan

13. Tushunish qanaqa sharoitlarda sodir bo‘ladi?

O‘zaro aloqa
Bahs, monolog
Polilog, o‘zaro muloqot
Hamma javoblar to‘g‘ri

14.Ma’no bu - ...

Tildagi iboralar sinonimligini emas, balki murakkab, ko‘p qirrali hodisa
Fikrning mavjudlik sharti
Fikrning ifodaviy sharti
To‘g‘ri javob yo‘q.

15.«Ma’no birinchidan, har qanday qilmish, xulq-atvor, amalning «Nimaga» va «Nima uchun» sodir etilganligini nazarda tutishi kerak. Ikkinchida, ma’no yo‘nalishga ega, ya’ni u nimaningdir pirovard maqsadidir». Bu fikrlarning muallifi kim?

M.Xaydegger
S.Tulmin
Diltey
G.Gadamer

16.Ma’no nimada ifodalanadi?

Tilda
Harakatda
Matnda
Ijodda

17.Tushunishning o‘ziga xos xususiyati nimalarda namoyon etadi?

Insonning o‘zi tahlil qilayotgan narsa va hodisalarni ichki murakkab aloqalari, bog‘lanishlarni aniq sezishda
Tashqi aloqalarni anglashda

Narsalarning o‘zaro aloqasini aniqlashda

To‘g‘ri javob yo‘q

18.Ma’naviy-madaniyatning moddiylashtirilgan ifodasi bu -...

Matn

Til

Tushuncha

Tafakkur

19.Semiotika nimani o‘rgatadi?

Belgilar va belgili tizimlarning xossalarini o‘rganish

Xatti-harakatlarni

Tafakkur qonunlarini

Grammatik qoidalar

20.«Simvol» so‘zining ma’nosi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

Yunoncha, «ramz», «shartli belgi»

Yunoncha, «o‘xshatish»

Yunoncha, «qiyoslash, o‘lchash»

Yunoncha, «o‘lchash»

21.Ikki yoki bir necha shaxs o‘rtasidagi yozma tarzda qayd etilishi mumkin bo‘lgan og‘zaki muloqot shakli bu - ...

Dialog

Monolog

Poliolog

To‘g‘ri javob yo‘q

22.O‘rganilayotgan predmetning mohiyati rivojlanish sabablari, shartlari va manbalarini, harakat mexanizmlarini aniqlash nimaning bosh maqsadi?

Tushuntirish

Tushunish

Matn

Bilish

23.Harakat qilayotgan shaxs maqsadni, tarixiy hodisalar ishtirokchilarining niyatini ko‘rsatib beruvchi tushuntirish shakli qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

Teleologik

Germenevtik

Sinergetik

Dialektik

24.«Tushunishda faqat bir ong, bir subyekt, tushuntirishda esa, ikki ong, ikki subyekt qatnashadi». Ushbu fikrlar kimga tegishli?

M.Baxtinga
F.Bekonga
R.Dekartga
K.Popperga

7-mavzu. Etika fanining predmeti, asosiy muammolari va kasbiy ahloq.

“Etika” fanining predmeti, mohiyati, uning asosiy belgilari va tuzilmasi. Ahloqning paydo bo‘lishi. Gedonizm va evdemonizm tushunchalarining ahloqiy ahamiyati. Etika fanining fanlararo bog‘liqligi: falsafa; estetika; dinshunoslik, huquqshunoslik, milliy g‘oya, psixologiya, pedagogika, siyosatshunoslik, ekologiya. Ahloqning paydo bo‘lishi haqidagi diniy, empirik va genetik konsepsiyalar. O‘zbekistan mustaqilligining etika fani rivojiga konstruktiv ta’siri. XXI asrda global etosfera (ahloqiy muhit)ni yaratishning zaruriyati. Pedagogik etika, uning jamiyat oldidagi burchi va mas’uliyati.

Takrorlash uchun savollar:

1. Etika fanining tadqiqot doirasini izohlang?
2. Shaxs hayotida axloqiy me’yorlar qanday o‘rin tutadi?
3. Etika fanining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
4. Etika boshqa qaysi ijtimoiy fanlar bilan aloqadorlikda ish olib boradi?
5. Etikaning asosiy kategoriyalari haqida ma’lumot bering?

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular. Javob yozish kerak.

1.Etikaning zamonaviy muammolariga diniy va ilmiy yondashuvlar.
2. O ila va oilaviy qadriyatlar ma’naviy madaniyatning bosh omili.

Adabiyotlar.

1. Abdulla Sher. Axloqshunoslik . -Toshkent. 2012.
2. Yusupov E., Mamashokirov S. Falsafa Darslik, -Toshkent: 2005.
3. Xusanov. M, Muomala madaniyati. Toshkent: Iqtisod 2009.
4. Nurmatova. M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg`unligi.Toshkent.2008.UZMU.
5. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish. (O‘quv qo‘llanma). - Toshkent: 2017.
6. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi. (O‘quv qo‘llanma). - Toshkent: 2017.
7. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi. (Darslik). - Toshkent: 2016.
8. Иззетова Э., Пулатова Д. Философия (Учебное пособие). - Тошкент: 2017.
9. M.Sharipov, Fayzixodjaeva D. Mantiq. O‘quv qo‘llanma. -Toshkent: 2004.

10. Falsafa asoslari [Matn] :darslik. Ikkinchi nashr./ Mualliflar jamoasi/.- Toshkent, «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti» 2020 yil.-361 b.
11. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: “O‘zbekiston”, 2012-yil.
12.«Falsafa asoslari»o’quv qo’llanma. Q.Nazarov(va boshqalar) Toshkent, «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» 2018 yil.-380b.

13.Sh.M. Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.:O‘zbekiston 2017 yil, 484 bet
14.Sh.M. Mirziyoev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonlik garovi T.: O‘zbekiston 2017yil. -53 bet.
15.Karimov I.A.“Halollik va fidoyilik faoliyatimizning asosiy mezoni bo‘lsin”, T. 1994-yil.

Internet sayitlari.

Internet manbalari:

1. www. Ziyo net.uz
2. www.faylasuf.uz
3.www. .ziyo.uz
4. **www. muslim.uz**
5. www. religions.uz

7- mavzu. Etika” fanining predmeti, asosiy muammolari va kasbiy ahloq.

Reja:

1. Etikaning predmeti, tadqiqot doirasi va falsafiy moxiyati.
2.Dastlabki ahloqiy qonun qoidalar, tamoyillar. Ahloqiy qarashlar tarixi
3. Etikaning boshqa ijtimoiy fanlar bilan birligi va tafovutlari.
4. Etikaning ahamiyati hamda vazifalari.
5. Ixtiyor erkinligi va ahloqiy tanlov.
6. Ahloq tu`zilmasi.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: odob, xulq, axloq, ijtimoiy ong, axloqiy ong, axloq tuzilmasi, axloqiy his-tuyg`u, axloqiy munosabat, axloqiy tanlov, ixtiyor erkinligi

1. Axloqshunoslik (etika) qadim zamonlarda paydo bo‘lib, shakllanib va rivojlanib bizning davrimizgacha o‘z ahamiyatini saqlab kelayotgan eng qiziqarli va eng muhim insonshunoslik fanlaridan biridir. Axloqshunoslik fanining nomi “axloq” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, bu tushuncha to‘g‘risida adabiyotlarda hozircha yagona qarash yo‘q. Ayrim adabiyotlarda axloq kishilarning har bir jamiyatga xos xulq normalari majmui deyilsa, boshqalarida esa axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri, sotsial tartib - qoida bo‘lib, bu tartib - qoida istisnosiz hamma sohalarda kishilarning xatti-harakatini tartibga solish vazifasini bajaradi deyiladi. Buning boisi, eng avvalo, axloq so‘zining ko‘p ma’noli va ko‘p qirrali ekanligi

bilan izohlanadi. Axloq - arabcha “xulq” so‘zining ko‘pligidan va lotincha “mores” so‘zidan olinib, “odob”, “fe’l – atvor” degan ma’nolarni anglatadi. Xuddi shuningdek, rus tilida ishlatiladigan «morel» so‘zi ham axloq ma’nosini bildiradi. “Moral” so‘zi rus tilida ishlatiladigan «nravstvennost» degan so‘zining sinonimi degan fikrlar ham mavjud. Axloq kishilarning, har bir kishining oilada, jamoada, jamoatchilik joylarida, umuman, jamiyatda yurish-turishi, yashash qoidalari, fe’l - atvori, xatti - harakatlarining jamini ifodalaydi. Etika Yunoncha «et’os» so‘zidan olingan bo‘lib, “odat”, “odob”, “rasm-rusum”, “fe’l” ma’nolarini bildiradi. Ushbu tushuncha birinchi marta mashhur Yunon faylasufi va mutafakkiri Arastu (Aristotel, e.o.384-322 yy) tomonidan axloqning sinonimi sifatida ishlatilgan.

Bu terminni keyinchalik qat’iy ma’noli tushuncha sifatida eramizdan oldingi IV asrda Zenon (e.o.336-264 yy) ilmiy muomalaga kiritganlar.

Etika tushunchasi hozirgi adabiyotlarda kishilar muomalasida asosan quyidagi uch ma’noda qo‘llaniladi:

Birinchidan, kundalik hayot muomalasida etika - axloq, odob, xulq-atvor ma’nolarini anglatadi;

Ikkinchidan, ma’lum bir ijtimoiy guruhlar, kasb - hunar yoki ixtisosliklar, chunonchi, savdogarlar etikasi, tadbirkorlar etikasi, o‘qituvchilar etikasi, shifokorlar etikasi, rahbarlar etikasi va shu kabilarni bildiradi.

Uchinchidan, ko‘pchilik holda kishilarning axloq - odobini, xulqini, fe’l - atvorini o‘rganuvchi fanni etika, ya’ni axloqshunoslik deb yuritiladi.

Xuddi shuningdek, kundalik hayotda va adabiyotlarda axloq va etika tushunchalari bilan bir qatorda odob tushunchasi ham ishlatiladi.

«Odob» (arabcha «adab» so‘zining ko‘pligi) xulq-atvor, yurish-turish, madaniyatning tashqi va ichki jihatlarni ifodalaydigan tushuncha. U kishilarning xatti - harakatida, o‘zaro munosabatida (oila, mehnat jamoasi va turli marosimlarda) namoyon bo‘ladi.

Odob - kishining jamoat orasida o‘zini qanday tutishi, odamlar bilan qay yo‘sinda muomala qilishi, o‘z turmushi va bo‘sh vaqtini qanday tashkil qilishi, inson tashqi qiyofasi qanday bo‘lishi lozimligiga oid qoidalar (masalan, sharmu - hayo, kamtarlik, xushmuomalalik, ozodalik singarilar)ni o‘z ichiga oladi. Odob ta’lim - tarbiya, amaliy tajriba jarayonida shakllanadi. Sharqning odob - axloq nazariyotchilaridan Husayn Voiz Koshifiy «Axloqiy Muhsiniy» asarida odobni quyidagicha ta’riflagan edi:

«Odob - bu qalbni yomon so‘zlardan va nojo‘ya xulqdan saqlay olish, o‘zini va o‘zgalarni ham hurmat qila bilish, shu bilan birga o‘zini va o‘zgalarning obro‘sini tushirmaslikdir». Voiz Koshifiy odob tushunchasini keng ma’noda tushunadi, yomon so‘zlarni aytmaslik, xulqni tarbiyalay olish, o‘zini boshqarish va o‘zgalarni hurmat qilishni axloqiylik deb atagan edi. Odob – kishilarning hayot va turmushlariga nisbatan belgilab berilgan muayyan axloqiy chegara yoki me’yor desak bo‘ladi. Ana shu chegaradan chiqmay muomala munosabatida bo‘lgan, shu me’yorga rioya qilgan odamni odobli, yaxshi tarbiyali, haqiqiy, chin inson deyiladi. Aks holda odobsiz, tarbiyasiz, yomon odam deb aytiladi. Odob - axloqqa nisbatan tor tushuncha bo‘lib, u o‘z navbatida barcha axloqiy fazilatlarning yuzaga

chiqishi, namoyon bo‘lishidir. Odobni o‘rganuvchi va o‘rgatuvchi fanni «Odobnoma», «Dilnoma», «Saodatnoma» deb ataydilar.

Demak, axloq, etika, odob o‘zaro bog‘liq va ma’lum darajada farq qiluvchi tushunchalar bo‘lib, barchasi insonning xatti-harakatini, yurish-turishini, boshqa odamlar bilan munosabatini oilada, jamoada, jamoatchilik joylarda o‘zini tutishi kabilarni ifodalaydi. Odatda bular falsafiy ma’noda axloq, kundalik hayotda, turmushda odob, xulq, fe’l-atvor hamda ularni o‘rganuvchi fanni (ilmni) esa etika yoki axloqshunoslik deb yuritiladi. Shunday qilib, axloq kishilarning yaxshilik va yomonlikka nisbatan munosabatini namoyon etadigan va tarixan tarkib topgan xulq-atvor, yurish-turish va xatti-harakatini ifodalaydigan, ularning bir-biriga va jamiyatga bo‘lgan munosabatlarini aks ettiradigan hamda o‘zaro ixtiyoriy tarzda amalga oshadigan norma va qoidalar yig‘indisidir.

Buyuk mutafakkirlar, olimlar va davlat arboblari ham axloqqa xuddi Shunday ta’rif-tavsiflar berganlar. Taniqli rus faylasufi V.G.Belinskiy (1811-1848) axloq nima? U nimadan iborat bo‘lmog‘i kerak?, - degan savollarni qo‘yib, axloqqa Shunday ta’rif bergan:

«Kishilarning qadr - qimmati va uning yuksak mavqeiga qat’iy, chuqur e’tiqod, unga qizg‘in so‘nmas, ishonchdir. Shu e’tiqod, shu ishonch jamiki bashariyat ezguligining, barcha amaliy ishlarning qaynar bulog‘idir».

Chex xalqparvar pedagogi va jamoat arbobi Ya.A. Komenskiy (1592-1675) fikricha: «Axloqiylik deganda biz faqat tashqi muomalani ko‘zda tutmaymiz, balki niyatning butun ichki mohiyatini tushunamiz».

Markaziy Osiyoning buyuk mutafakkiri Abu Nasr Farobiy (873-950) aytganidek: «Daraxtning yetukligi uning mevasi bilan bo‘lganidek, insonning barcha hislatlari ham axloqiy tarbiya bilan yakunlanadi».

Ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy (1878-1934) yozganidek, «Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir».

Axloqning mohiyatini tushunishida prezidentimiz I.Karimovning aytgan quyidagi fikr-mulohazalar ayniqsa muhimdir: «Aslini olganda, axloq ma’naviyatning o‘zagi. Inson axloqi shunchaki salom-alik, xushmuomalalikdan iborat emas. Axloq – bu avvalo insof va adolat tuyg‘usi, iymon, halollik degani»; «Halollik va fidoyilik faoliyatimizning asosiy mezoni bo‘lsin»; «…Vijdon bilan, iymon bilan, diyonat bilan o‘ynashib bo‘lmaydi»;

Buyuk mutafakkirlarimiz hamda Prezidentimizning yuqoridagi fikrlari axloqni quyidagicha ta’riflash imkoniyatini beradi: Axloq deb - kishilarning yaxshilik va yomonlikka munosabatini namoyon etadigan va tarixan tarkib topgan xulq-atvor, ularning yurish-turishini, o‘zlarini tutishini, fe’l-atvorini, xulq-odobini, o‘zaro bir-biriga, mehnatga, ijtimoiy faoliyatga, oilaga, jamoaga, boshqa ijtimoiy birlashmalarga, jamoatchilikka, Vatanga, millatga, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarini ifodalovchi hamda hatti-harakatini tartibga solish, boshqarishga xizmat qiluvchi his-tuyg‘ulari, ehtiyojlari, talablari, baholashlari, qoidalari, tamoyillarining jamiga aytiladi.

Qisqa qilib aytganda, **axloq deb kishilarning yurish-turushlari, o‘zaro bir-biriga, mehnatga, oilaga, Vatanga bo‘lgan tarixiy muayyan munosabatlari, qoidalari va tamoyillarining jamiga aytiladi.**

Axloqning ilk, dastlabki, quyi, turmushdagi bosqichi odob yoki xulq odobidir.

Axloq, xulq-odob, fe’l-atvor - axloqshunoslik fanining bahs mavzusi (predmeti)ni tashkil etadi.

Axloqshunoslik (etika)ning obyekti - odam, inson, shaxsdir. Biroq axloqshunoslik kishilar hayoti va faoliyatlarining barcha jihatlarini emas, balki muayyan bir sohasi, ya’ni odobini, xulqini, fe’l-atvorini, yurish-turishini, o‘zaro munosabatini, tabiat, jamiyat va uning hodisalariga bo‘lgan munosabatlarini o‘rganadi.

Xuddi shu ma’noda, axloqshunoslik (etika) fanining bahs mavzusi muammo sifatida oddiy kishilardan tortib buyuk mutafakkirlarimiz, ziyolilarimiz, davlat arboblarimizgacha qiziqtirib kelgan. Chunonchi, Arastu axloqshunoslik (etika)ni axloqni o‘rganadigan amaliy fan, jamiyat haqidagi fanlardan biri deb hisoblagan. Stoiklar axloqshunoslik (etika)ni alohidan fan sifatida ajratib, uni ko‘pincha inson tabiati haqidagi fan deb tushungan edilar.

Niderlandiyalik faylasuf B.Spinoza (1632-1677) o‘zining «Etika» asarida ushbu fanni substantsiya (mohiyat) va uning moduslari (xususiyatlari) to‘g‘risidagi ta’limot deb izohlagan.

Fransuz ma’rifatparvar - faylasufi P.A.Golbax (1723-1793): «Axloq odamlararo mavju d bo‘lgan munosabatlar va shu munosabatlardan kelib chiqadigan mas’uliyatlar haqidagi fan»,- deb, nemis faylasufi I.Kant (1774-1884) esa axloqshunoslik (etika)ni zarur narsalar to‘g‘risidagi fan deb bilgan.

Boshqa bir nemis faylasufi G.V.F.Gegel (1770-1831) etika (axloqshunoslik)ni o‘z-o‘zidan rivojlanuvchi mutloq g‘oya (absolyut ideya) haqidagi fan, deb ta’riflagangan.

Axloqshunoslikning bahs mavzusi Sharq, shu jumladan, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining doimiy diqqat-e’tiborida bo‘lib kelgan. Masalan, buyuk mutafakkir, qomusiy olim Abu Ali ibn Sino (980-1037) shu haqda to‘xtalib: «Axloq har bir kishi uchun o‘z-o‘zini idora qilish ilmidir», - deb baholagan.

Buyuk mutafakkir, shoir va davlat arbobi A.Navoiy (1441-1501) «Mahbub-ul-qulub» («Ko‘ngillar sevgani») asarida mazkur masala xususida quyidagicha yozgan edi: «Vafosizda hayo yo‘q, hayosizda vafo yo‘q, agar kimda bu ikki sifat bo‘lmasa, unda iymon ham yo‘q».

XIII-XIV asrlarda yashab ijod etgan taniqli axloqshunos olim Majididdin Havofiy: axloq haqida fan, ya’ni axloqshunoslik oila haqida fan, shahar qurilishi va normalar haqidagi fandir, deb ta’riflagan.

Buyuk shoir, dramaturg, ma’rifatparvar va davlat arbobi A.Avloniy (1878-1943) o‘zining «Turkiy guliston yoxud axloq» (1913) asarida mazkur ilm haqida:

«Insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdir. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misol ila bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur» - degan edi. Shuningdek, axloqshunoslik

(etika) fanining bahs mavzusi haqida lug‘at, darslik va o‘quv qo‘llanmalarida ham xilma-xil ta’riflar bor. “Qisqacha siyosiy lug‘at”da: «Etika – alohida sotsial hodisa va ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lgan axloqning tabiati va mohiyatlarini o‘rganuvchi falsafiy fan»1, «Qisqacha falsafiy lug‘at»da : “Etika – axloq nazariyasi, biron axloq sistemasi (tizimini) hamda yaxshilik va yomonlikni, adolat, burch, vijdon, baxt, hayotning ma’nosini biron tarzda ilmiy asoslash” demakdir,2 deb, «Filosofiya lug‘ati»da esa: «Etika ... eng qadimgi nazariy fanlar biri, u axloqni o‘rganadi», deb qayd etilgan3.

Falsafa fanlari doktori A.Ortiqovning «Etika asoslari» kursidan ma’ruza matnlarida ushbu muammo shunday tarzda ifodalangan:

«Etika deb axloq, xulq-odob, axloqiy ong haqidagi bilimlarning paydo bo‘lishi, taraqqiyot bosqichlari, inson hayotiy faoliyatining eng muhim jihatlari, kishilarni axloqiy jihatdan tarbiyalashning yo‘l, usul, vositalari haqidagi ta’limotlar sistemasiga aytiladi. Etikaning ta’rifi ana shundan iborat»4.

Bizning fikrimizcha, etika (axloqshunoslik)ning bahs mavzusini yuqorida keltirilgan nuqtai nazarlarni umumlashtirgan holda, quyidagicha ta’riflash mumkin:

“Axloqshunoslik yoki etika deb inson va insoniyat hayotiy faoliyatining muhim jihatlari bo‘lgan axloq, xulq-odob, fe’l-atvor, ularning mohiyati, paydo bo‘lishi, taraqqiyot bosqichlari va rivojlanish qonuniyatlari, maqsadlari, vazifalari va ahamiyati hamda ular to‘g‘risidagi qarashlar, nazariyalar, ta’limotlarni o‘rganuvchi falsafiy fanga aytiladi”. Qisqa qilib aytganda, axloqshunoslik axloqning mohiyati, xususiyatlari va rivojlanishi, maqsad - vazifalari hamda ahamiyati haqidagi falsafiy fandir. Axloqshunoslik (etika) o‘z bahs mavzusini yaxshilik va yomonlik, burch, vijdon, or-nomus, sha’an, qadr-qimmat, baxt-saodat, inson hayotining mohiyati kabi tushunchalar (kategoriyalar), insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, jamoaviylik singari tamoyillar (prinsiplar), halollik, poklik, rostgo‘ylik, do‘stlik, vafodorlik kabi axloqiy qoidalar (normalar) vositasida ochib beradi va asoslaydi.

Axloqshunoslik (etika) bahs mavzusini falsafa, estetika, pedagogika, psixologiya, madaniyatshunoslik, tarix, siyosatshunoslik, sotsiologiya, tilshunoslik, arxeologiya, ekologiya kabi fanlar bilan chambarchas bog‘liq holda o‘rganadi. Borliq, tabiat, jamiyat, inson tafakkur kabi murakkab hodisalarning mohiyati va eng umumiy rivojlanish qonuniyatlari haqidagi fan bo‘lgan falsafa axloqshunoslikning nazariy, ilmiy-metodologik (uslubiy) asosini tashkil qiladi. Boshqa gumanitar fanlar ham axloqshunoslik fani o‘rganish obyektini chuqurroq va har taraflama tadqiq etishiga dalillar, faktlar hamda materiallar beradi. Bu jarayonda axloqshunoslik fani bahs mavzusiga ko‘ra nisbiy mustaqilligini saqlab qolib, bilimlar tizimida o‘ziga xos o‘rinni egallab qoladi.

Axloqshunoslik o‘z bahs mavzusini ikki - umumiy va xususiy yo‘nalishlarda o‘rganadi. Shunga muvofiq, axloqshunoslikda umumiy, tarixiy, normativ-aksiologik (qadriyatiy), kasb-hunar, axloqiy axloqshunoslik degan nazariy va amaliy bo‘limlar ham shakllangan. Umumiy axloqshunoslik - axloqning tabiati, mohiyati, xususiyatlari, uning tarkibiy zarrachalari va ularning o‘zaro

aloqadorligini ilmiy asoslaydi, axloqiy faoliyat va axloqiy munosabatlarning rivojlanish xususiyatlarini, axloq taraqqiyotidagi ijtimoiylik, tarixiylik, zamonaviylik, umuminsoniy va milliy jihatlarning o‘rni va ahamiyatini, uning hozirgi holati va taraqqiyoti yo‘nalishlari, muammolarini o‘rganadi.

Tarixiy axloqshunoslik - axloqning tarixiy shakllarini, uning tarixiy taraqqiyot qonuniyatlarini va xususiyatlarini, axloqiy ta’limotlarning tarixdagi o‘rnini tadqiq etadi.

Normativ - aksiologik axloqshunoslik - axloq qoidalarini axloqiy zaruriylik talablarini axloqiy ongning asosiy tushunchalari sifatida qarab, ularning ijobiy ahamiyati, qimmati jihatidan o‘rganish va asoslash bilan qiziqadi.

Kasbiy axloqshunoslik - u yoki bu kasb-hunar, ixtisosligi yoki rahbarligi faoliyati doirasida kishilarning axloqiy xususiyatlari bilan shug‘ullanadi. Axloqiy tarbiyaning axloqiy nazariyasi tarbiya jarayonida axloqiy omillardan samarali foydalanish yo‘llari, shakllari va vositalarini belgilash masalalarini umumlashtiradi. Axloqshunoslikning muhim bir vazifasi insonlar va jamiyatning kelgusidagi ezgu axloqiy orzulari, maqsadlari, ezgu-niyatlarini sharhlab berishdir. Chunki insonlar yuksak axloqiy orzularsiz yashay olmaydilar. Bularning hammasi axloqshunoslikning insonlar va jamiyat hayotida benihoya katta ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Atoqli pedagog A.Avloniy: «Axloq ilmini o‘qib, bilib amal qilgan kishilar o‘zining kim ekanin, janobi haq na uchun xalq qilganin, yer yuzida nima ish uchun yurganin bilur. Bir kishi o‘zidan xabardor bo‘lmasa, ilmni, ulamoni, yaxshi kishilarni, yaxshi ishlarning qadrini, qimmatini bilmas. O‘z aybini bilur, iqror kilub, tuzatmakga sa’y va qo‘shish qilgan kishi chin bahodir va pahlavon kishidir». Demak, axloq, odob va etika qoidalarini bilish va ularga to‘la amal qilish kishilarning o‘zaro hurmat - ehtirom bilan tinch-totuv yashashini ta’minlaydi. Aks holda, ya’ni axloqqa, odobga, etikaga yetarli e’tibor bermagan odamda, oilada salbiy, nojo‘ya hislatlar yuzaga keladi va avj oladi, odamlar orasidan hurmat, mehr - oqibat ko‘tariladi, hayot asta - sekin izdan chiqa borib, ijtimoiy hayotning jiddiy to‘sqiniga aylanadi.

Axloqshunoslikning asosiy va muhim vazifasi kishilarning xulqi, odobi, yurish - turishi, muomalasining mohiyatini, xususiyatlarini va taraqqiyot qonunlarini ochib berishdan iborat. Axloqshunoslik, xuddi shuningdek, axloqiy tushunchalar (yaxshilik va yomonlik, adolat, baxt, vijdon, burch va hokazo), axloqiy tamoyillar (insonparvarlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, baynalmilallik, hamkorlik va hokazo), axloqiy normalar (xushmuomalalik, shirinsuxanlik, halollik, rostgo‘ylik, kamtarlik, chidamlilik, himmatlilik, samimiylik, do‘stlik, sharmu-hayo va hokazo)ni ilmiy-amaliy asoslab beradi.

Axloqshunoslikning muhim vazifalaridan biri insonlarning axloqiy tarbiyasini amalga oshirish, axloqiy kamoloti shakllanishiga xizmat qilishdir. Axloqshunoslikning Yana bir vazifasi, insonlar va jamiyat hayotidagi axloqsizlik illatlarining barcha ko‘rinishlarini bartaraf etish yo‘llari hamda vositalarini izohlab berishdan iborat.

«Yomon ishlarning teskarisini qilib, yaxshi bo‘ldim», degan ekan Luqmoni Hakim. Yana «odobni beodobdan o‘rgan» deydilar. Albatta, beodobdan o‘rganiladigan narsaning o‘zi yo‘q, lekin birovlarning xatosi, gunohini salbiy xislatlarini takrorlamagan kishi eng oliy odamdir. Bunday odam axloqiyligining o‘zi bir qutlug‘ ish bo‘lsa, birovlarning axloqsizligini takrorlamaganligi uchun ikki karra ulug‘dir. Chunki beodobning qilig‘i, xatti - harakatlari, fe’l - atvori odob doirasidan tashqarida bo‘lgani uchun uning qilayotgan odobsizliklarini ko‘rib, Shunday qiliqlarni, hatti - harakatlarni takrorlamaslik, bu odobdandir. Demak, beodobdan o‘rganilgan odob uning beodobliklarini payqay bilish va ularni o‘z hayotida qilmaslikdir. Demak, axloqshunoslik fani inson turmushi va faoliyati, jamiyat hayotida har tomonlama muhim ahamiyatga ega bo‘lgan fanlardan biridir.

Axloqshunoslik fan sifatida o‘zining maqsad-vazifalariga ega. Axloqshunoslikning asosiy maqsadi yuksak axloqiy fazilatli, axloqiy kamolotni o‘zida mujassamlashtirgan yetuk insonlarni voyaga yetkazish va tarbiyalashga xizmat qilishdan iborat. Bunga axloqshunoslik o‘z vazifalari bilan munosib hissa qo‘shadi. Axloqshunoslikning muhim vazifalaridan biri bilish, bilishlik bo‘lib, uning maqsadi axloqning mohiyati, xususiyatlari, jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyatini chuqur va har taraflama asoslab beradi. Bu fan asoslarini bilmagan kishi barkamol bo‘la olmaydi. Chunki axloqshunoslik (etika) nazariyasi va amaliyotidagina axloqning tom mohiyati, xulq – odobning qoida, ta’limot, g‘oya, dastur, o‘git, pand - nasihat, da’vat, cheklash, ta’qiqlashlari bayon etilgan bo‘ladi. Ularni puxta o‘zlashtirib, xulq - odob dasturiga, xatti - harakat nizomiga, qisqa axloq kodeksiga aylantirib olgan shaxsgina chin ma’nodagi yuksak axloqli, boy ma’naviy fazilatli, ziyoli mutaxassis bo‘lishi mumkin va lozim. Shuning uchun ham A.Avloniy: «Axloq ilmini o‘qib, bilib amal qilgan kishilar o‘zining kim ekanini, janobi haq na uchun xalq qilganin, yer yuzida nima ish qilmak uchun yurganin bilur. Bir kishi o‘zidan xabardor bo‘lmasa, ilmni, ulamoni, yaxshi kishilarni, yaxshi narsalarni, yaxshi ishlarning qadrini, qimmatini bilmas», - deb yozgan edi.

2. *Etika va estetika.* Axloq falsafasi boshqa ijtimoiy va falsafiy fanlar bilan o‘zaro aloqadorlikda rivojlanib kelmoqda. Ayniqsa, uning estetika bilan aloqasi qadimiy va o`ziga xos.

Avvalo, insonning har bir xatti-harakati va niyati ham axloqiylikka, ham nafosatga tegishli bo`ladi, ya`ni muayyan ijobiy faoliyat ham ezgulik (ichki go`zallik), ham nafosat (tashqi go`zallik) xususiyatlarini mujassam qiladi. Shu bois Suqrot, Aflotun, Farobiy singari qadimgi faylasuflar ko`p hollarda axloqiylikni ichki go`zallik, nafosatni tashqi go`zallik tarzida talqin etganlar. Bundan tashqari, ma`lumki, san`at nafosatshunoslikning asosiy tadqiqot obyekti hisoblanadi. Har bir san`at asarida esa axloqning dolzarb muammolari ko`tariladi hamda san`atkor doimo o`zi yashayotgan zamonda erishilgan eng yuksak axloqiy daraja va unga munosabatni badiiy qiyofalar orqali bevosita yoxud bilvosita aks ettiradi. Ayni paytda, bu ikki fanda ba`zan bir tushunchaning ikki xil ko`rinishini uchratish mumkin. Chunonchi, estetikadagi ulug`vorlik tushunchasi, etikada qahramonlik tarzida tavsiflanadi. Shuningdek, estetikada ildizi etikagaa borib taqaladigan inson

axloqiyligi darajasi bilan bog`liq xulqiy go`zallik degan tushuncha ham mavjud. Demak, estetika o`rganayotgan har bir badiiy asar ayni paytda, ma`lum ma`noda, etika nuqtai nazaridan ham tadqiq etilayotgan bo`ladi.

Etika va dinshunoslik. Axloq falsafasining dinshunoslik bilan aloqasi shundaki, har ikkala fan ham bir xil muammo - axloqiy mezon muammosini hal etishga qaratilgan. Chunki umumjahoniy dinlar vujudga kelguniga qadar mavjud bo`lgan ma`lum urf - odatlar va qadriyatlar muayyan diniy qonun - qoidalarga, muqaddas diniy kitoblarga katta ta`sir ko`rsatgan. Ayni paytda, dinlar ham axloqqa ana shunday ta`sir o`tkazganlar.

Chunonchi, islom dinini oladigan bo`lsak, Qur`oni karim, Hadisi sharif, Ijmo` va muayyan fatvolardagi mezonlar hamda talablar musulmon Sharqi millatlari axloqiy darajasining shakllanishida katta ahamiyat kasb etgan. Tasavvuf ta`limotini esa rosmana islomiy axloq falsafasi deyish mumkin. Shuningdek, komil inson muammosi har ikkala fan uchun umumiy hisoblanadi. Farq shundaki, axloq falsafasi bu muammoga zamonaviy tarbiya nuqtai nazaridan yondashadi.

Etika va huquqshunoslik. Etikaning huquqshunoslik bilan aloqasi uzoq tarixga ega. Ma`lumki, juda ko`p hollarda axloq me`yorlari bilan huquq me`yorlari mohiyatan va mazmunan bir xil bo`ladi. Shunga ko`ra, axloqni jamoatchilik asosidagi huquq, huquqni esa qonuniylashtirilgan axloq deb atash mumkin. Zero, etikai bilan huquqshunoslikning tadqiqot obyektlari ko`p jihatdan o`xshash, ular faqat yondashuv usuli nuqtai nazaridan farq qiladi, ya`ni huquq me`yorlarining bajarilishi, odatda, maxsus adliya idoralaridagi lavozimli kishilar orqali, majburiy sanksiyalar vositasida yo`lga qo`yiladi; axloq me`yorlari esa umumiy qabul qilingan milliy urf-odatlar, jamoatchilik fikri yordamida, alohida belgilangan kishilar tomonidan emas, balki muayyan ijtimoiy guruh, jamiyat tomonidan amalga oshiriladi.

Shuningdek, huquqshunoslik kasbi uchun muhim bo`lgan amaliy axloq jihatlarini etikaining huquqshunos odobi deb ataladigan maxsus sohasi tadqiq qiladi va tavsiya etadi.

Etika va pedagogika. Etika pedagogika bilan ham chambarchas aloqada. Pedagogikadagi shaxsni shakllantirish, tarbiyalash, ta`lim berish jarayonlarini pand-nasihatlarsiz, odobnoma darslarisiz tasavvur qilib bo`lmaydi. Shu bois etika o`zining nazariy va, ayniqsa, amaliy jihatlari bilan pedagogikaning asosi hisoblanadi. Zero, maorif tizimidagi ta`lim-tarbiya o`zini har bir qadamda axloqiy tarbiya sifatida namoyon qiladi.

Etika va ruhshunoslik. Qadimdayoq etikaning ruhshunoslik (psixologiya) bilan aloqasi alohida ahamiyatga ega bo`lgan. Zotan, bu ikkala fan kishilar xatti-harakati, fe`l-atvori va mayl-istaklarini o`rganadi. Lekin bu o`rganish ikki xil nuqtai nazardan olib boriladi: ruhshunoslik u yoki bu xatti-harakat, fe`l-atvor, sababiy asos (motiv)larning ruhiy tabiati va shakllanish shart-sharoitlarini ochib beradi, etika esa ruhshunoslik tadqiq etgan hodisalarning axloqiy ahamiyatini tushuntiradi. Ruhshunoslik hissiyotlar sifatida o`rganadigan insondagi ko`pgina ma`naviy hodisalar etika tomonidan falsafiy-axloqiy tushunchalar tarzida tadqiq etiladi.

Etika va sotsiologiya. Etikaning sotsiologiya bilan aloqasi o`ziga xos. Bu ikkala fan inson faoliyatini boshqarishning ijtimoiy murvatlaridan bo`lmish axloqni o`rganadi. Lekin etikaning miqyosi bu borada keng. Ma`lumki, sotsiologiya insonlarning ommaviy xatti-harakati va ularning qonuniyatlarini faqat muayyan ijtimoiy tuzum doirasidagina tadqiq etadi. Etika esa, o`z mohiyatiga ko`ra, lozim bo`lganda, muayyan ijtimoiy tuzum yoki davr doirasidan chiqib, inson axloqining yuksak yutug`i sifatida kelgusi davrlar uchun ham tarixiy va axloqiy ahamiyat kasb etgan shaxsiy, istisnoli xatti-harakatlarni hamda ularning sababiy asoslarini o`rganadi.

Etika va siyosatshunoslik. Etikaning siyosatshunoslik bilan aloqasi, ayniqsa, o`ziga xos va murakkab. Chunki siyosiy kurash qarama-qarshi axloqiy qoidalar va talablar kurashini taqozo etadi. Shaxsiy intilishlar bilan davlat va jamiyat manfaatlarining mosligi, maqsadlar va vositalarning pok yoki nopokligi muammolari o`rtaga chiqadi. Lekin, aslida siyosat qay darajada axloqiylik kasb etsa, shunchalik u oqilona bo`ladi. Bu hozirgi kunda etika ham, siyosatshunoslik ham jiddiy tadqiq etadigan eng muhim umumiy muammolardan biridir. Shuningdek, rahbarlik odobi, partiyaviy odob, etiket singari etikaning axloqiy madaniyati doirasiga kiruvchi maxsus sohalari ham siyosatshunoslik bilan chambarchas bog`liq.

Etika va ekologiya. Keyingi paytlarda etikaning ekologiya bilan aloqasi tobora mustahkamlanib bormoqda. Tarixan etika ko`proq insonning o`zi, o`zgalar va jamiyat oldidagi majburiyatlarini tahlil etish bilan shug`ullangan, uning tabiatga bo`lgan munosabati diqqat markazidan chetda qolib kelgan. Lekin keyingi davrlarda, ayniqsa, XX va XXI asrda tabiatga nisbatan tor manfaatparastlik doirasidagi yondashuvlar oqibatida paydo bo`lgan ekologik buhron manzarani o`zgartirdi. Endilikda global ekologik muammolar ko`proq odamlarning ijtimoiy - axloqiy nuqtai nazarlariga bog`liq ekani ma`lum bo`lib qoldi.

Shunday qilib, hozirgi kundagi ekologik muammolarni hal etishning ko`p jihatlari etika ko`magiga borib taqalmoqda. XX asrda ekologik etika degan maxsus soha ham yuzaga keldi. Lekin, bu- etika ekologiyani to`liq o`z ichiga oladi, degan so`z emas. Chunki etikada axloqiy baholash va boshqarish obyekti sifatida tabiatning o`zi emas, balki odamning tabiatga bo`lgan munosabati maydonga chiqadi.

Etika va g`oyalar falsafasi. Garchand o`quv fani sifatida g`oyalar falsafasi oliy va o`rta maxsus ta`lim tizimida yaqinda joriy etilgan bo`lsa-da, uning ildizlari qadimiy ma`naviyat tariximizga borib taqaladi. Zero, har bir milliy mafkura tizimida axloqiy g`oyalar albatta o`z o`rniga ega bo`ladi, ko`pgina axloqiy g`oyalar zamirida esa milliy mafkura unsurlari yotadi. Shu sababli, etika tarixini milliy g`oya, mafkura tushunchalarisiz va tarixiy davrlarning axloqiy-falsafiy tadqiqini ularning tahliliy in`ikosisiz tasavvur qilish mumkin emas.

Etika fani jamiyat a`zolari va har bir fuqaroga milliy g`oyani singdirish vositasi sifatida ham diqqatga sazovor. Chunki milliy g`oya ezgulikka muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat-e`tibor, vatanparvarlik, millatparvarlik, fidoyilik, ziyolilik tamoyillarini siyosiy anglash ishtirokida talqin etilgan tushunchalar tizimi

tarzida taqdim qilsa, etika ularni axloqiy anglash vositasida ro`yobga chiqadigan tamoyillar sifatida olib qaraydi. Xullas, etika bilan g`oyalar falsafasi o`rtasida, xalqona til bilan aytadigan bo`lsak, et bilan tirnoq darajasidagi yaqinlik mavjud.

Test.

1. Etikaning ma’nosi qaysi javobda to’g’ri birilgan.

Axloq,odob,xulq-atvor.

Odob,xulq,yaxshlik.

Odob, xulq-atvor.

Etibor, ishoch.

2. Etika fani qanday fanligi qaysi javobda to’g’ri birilgan.

Axloqshunoslik.

Tartib-qoidani o’rgatuvchi.

Tadbirkorlikni o’rgatuvchi.

Yrish-turishni o’rgatuchi.

3. Etika tushchasi hozirgi adabiyotlarda kishilar momulasida asosan necha ma’noda qo’llanadi.

3.

4.

6.

2.

4. Etika fani- ijtimoiy guruhlar, kasb-hunar yoki ixtisosliklar buicha qaysi javob to’g’ri.

Savdagarlar etikasi,tadbikorlar ekikasi, o’qituvchlar etikasi, shifokorlar etikasi,rahbarlar etikasi…….

Savdagarlar, tadbikorlar.

O’qituvchi, suvchi, xaydovchi.

Uchuvchi, suzuvchi.

5. Axloq mezonlari kishilarning jamiyatdagi mavqelariga, iqtisodiy ta’minlanganlik darajasiga qarab o‘zgarib, takomillashib boruvchi ijtimoiy jarayondir, deb hisoblagan faylasuf qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

Konfutsiy

Lao Szi

Suqrot

Forobiy

6. Qadimgi hind falsafiy maktablarining ikki guruhi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

Astika va Nastika

Vedanta, Sankxya

Yoga, Vaysheshika

Nyaya va Mimansa

7. Dunyo bo‘linmas bo‘lakchalar (atomlar)dan tashkil topgan, degan ta’limotni ilgari surgan yunron faylasufi kim?

Demokrit
Fales
Geraklit
Anaksimen

8. Ibn Sinoning fanlar klassifikatsiyasida barcha fanlarni qanday turkumlarga ajratilgan?

Amaliyot fanlari va nazariy fanlar
Samo fanlari va Yer fanlari
Mantik va matematika fanlari
Falsafa va matematika fanlari

9. IX-XIII asrlarda qaysi mutafakkirlar Markaziy Osiyo hududida yashab ijod etgan?

Al-Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy
Forobiy, Ibn Rushd, Farididdin Attor
Mirzo Ulug‘bek, Qozizoda Rumiy, Beruniy
Alisher Navoyi, Forobiy, Al-Xorazmiy, Ibn Sino

10. Qaysi alloma «Sharq Arastusi» - «Muallim us-soniy» degan yuksak nomga sazovor bo‘lgan?

Abu Nasr Forobiy
Abu Rayxon Beruniy
Ibn Sino
Ali Qushchi

11. Forobiy fikricha, bilimlarni o‘zlashtirish qanday usul va vositalar orqali amalga oshadi?

Sezish, idrok etish, xotira, tasavvur qilish, ma’ntiqiy mulohaza yuritish, tafakkur
Ma’ntiqiy tafakkur, intuitsiya, e’tiqod
Sezish, xotira, tasavvur, iroda, ma’ntiqiy mulohaza, tajriba
Fikriy eksperiment, sezish, his qilish, tasavvur, idrok

12. Forobiy bilishning qanday shakllarini farqlaydi?

Hissiy va oqilona
Intuitiv va ma’ntiqiy
Oqilona va ilohiy
Barcha javoblar to‘g‘ri

13. Abu Ali ibn Sino fikricha, moddiy dunyo predmetlari asosan bilishning qaysi turining asosi bo‘la oladi?

Sezgining
Tafakkurning
Intuitsiyaning
O‘zlikni anglashning

14. So‘fizmda tabiat va Alloh qanday talqin etiladi?

Alloh va tabiatni uzviy deb qaraydi
Tabiat Allohdan ajralgan deb qaraydi

Allohning tabiatga befarqligini yoqlaydi
Tabiatni Alloh yaratgan bo‘lsada, tabiatdagi o‘zgarishlar ob’yektiv deb qara

15.Praksiologiyada «faoliyat» tushunchasiga qanday ta’rif berilgan?

O‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish
O‘z imkoniyatlari chegarasidan chiqish
Fikrda mavjud holatlarni amalga oshirish
Tushunchalarni amalga oshirish

16.«Quruq qo‘l ham, o‘z ixtiyoriga tashlab qo‘yilgan aql ham katta kuchga era emas». Fikr muallifi kim?

F.Bekon
J.Lokk
I.Fixte
Aflotun

17.«Oqilonalik - inson faoliyatining barcha turlariga amalda xos bo‘lgan jihat». Fikr muallifi kim?

F.Bekon
J.Lokk
I.Fixte
E.Kassirer

18.I.G.Fixte insonning ma’naviy burchi deb nimani nazarda tutadi?

Tabiat va jamiyatni o‘zgartirishni
Jamiyat strukturasini o‘zgartirish
Davlat va inson o‘rtasidagi munosabatlarni o‘zgartirish

19.Har qanday maqsadsiz faoliyat ongsiz faoliyat bo‘ladimi?

Ha
Yo‘q
Faoliyat turiga qarab farqlanadi
A, V

20.Continuum -...

Uzluksiz to‘plam
Qisqacha to‘plam
Falsafiy to‘plam
Ilmiy to‘plam

21.«Inson madaniyatini hech shubhasiz har xil maqsadlarni ko‘zlab, turli yo‘llardan rivojlanadigan faoliyatning har xil turlari tashkil etadi». Fikr muallifi kim?

F.Bekon
J.Lokk
I.Fixte
Aflotun

22.«Inson yomonlik qilar ekan, uning o‘zi ham yanada tubanlashib boradi».
Fikr muallifi to‘g‘ri berilgan qatorni aniqlang?

F.Bekon
J.Lokk
E.Fromm
Aflotun

Etikaning asosiy tushunchalari: kategoriyalari, tamoyillari va me’yorlari.

Reja:

1.Etikaviy tushunchalar.
2.Etikaviy tamoyillar va ularning amaliyotda namoyon bo‘lishi.
3.Etikaviy me'yorlar, tamoyillar va ularning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: tushuncha, kategoriya, tamoyil, me’yor.

Etikada inson hatti-harakatining ikki qutbi axloqiylik bilan axloqsizlik holatlari tahlil va tadqiq etiladi. Axloqiylik fazilatlarda, axloqsizlik esa illatlarda namoyon bo‘ladi. Bu ikki qutb tushuncha kun-tun, oq qora singari bir-birini inkor va ayni paytda, taqozo etgani holda mavjuddir.

Muhabbat bosh mezoniy tushuncha sifatida deyarli barcha asosiy tushunchalarda va tamoyillarda o‘z «hissa»siga ega. Shu jihatdan atoqli tasavvufshunos Najmiddin Komilov: «Juda ko‘p irfoniy tushuncha istilohlarning sharhi muhabbatga borib taqaladi», der ekan, ayni haqiqatni aytadi. Na ezgulikni, na yaxshilikni, na vatanparvarlikni, na insonparvarlikni muhabbatsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. O‘tgan boblarning ba'zilarida biz bu tushunchaning mohiyati, turlari haqidagi Imom G‘azzoliy, Erix Fromm singari mutafakkirlar fikrlarini keltirgan edik.

Qo‘shimcha qilib shuni aytish mumkinki, muhabbat insoniy mohiyatning erkin tarzda namoyon bo‘lishidir, u zo‘ravonlik yoki zo‘rma-zo‘rakilik bilan chiqisha olmaydigan hodisa. U me'yorlar, an'analar, qonunlarga bo‘ysunmaydi, lekin yuksak axloqiylik ifodasi tarzida insonga ulkan mas'uliyat yuklaydi, uni jasoratga chorlaydi, u insonni tashqi va transtsendental olam bilan bog‘laydigan, uni yolg‘izlikdan olib chiqadigan buyuk kuch.

Komil nash'a, komil lazzatga faqat komil insongina erisha oladi. Demak, muhabbat inson axloqiy hayotining cho‘qqisi, komillik belgisidir. Shu bois haqiqiy muhabbat egalari yoshlar tomonidan doimo axloqiy ideal tarzida qabul qilinadi: Farhod va Shirin, Romeo va Juletta, Otabek, Kumush va h.k. Shunday qilib, muhabbatni shaxs erkinligining axloqiy zarurat sifatidagi o‘ziga xos ko‘rinishi, baxtga erishuvning asosiy omili deyish mumkin.

Ta'kidlash lozimki, muhabbat oliy tuyg‘u, shu ma'noda u oliy tushuncha. Lekin uni tuban, quyi narsa-hodisalarga nisbatan ham qo‘llash hollari uchrab turadi. Chunonchi, Fromm singari g‘arblik mutafakkirlar, ba'zi rus faylasuflari muhabbat tushunchasini o‘likka (nekrofil), mol-dunyoga, pulga nisbatan qo‘llaydilar. Ularga nisbatan «o‘chlik», «ruju», «hirs» singari tushunchalarni qo‘llash ma'qul emasmikan?

Muhabbat ham, etikadagi ko‘pgina tushunchalardek, «juftlik» xususiyatiga ega, uning ziddi nafrat. Nafrat tushunchasi, albatta, muhabbat singari keng

qamrovli emas. U aksil muhabbat tarzida namoyon bo‘ladi, obyektdan chetlashishni, undan begonalashishni taqozo etadi. Hazar, jirkanch hissi nafratning kundalik turmushdagi tor, «mayda» ko‘rinishidir. Nafratning ularga nisbatan «yirikligi» uning ijtimoiy hodisa sifatida mavjudligidir.

Ayni paytda, nafrat g‘azabdan keskin farq qiladi. U, g‘azabga o‘xshab, o‘z obyektini yo‘qotishga intilmaydi, undan faqat yuz buradi. Uni muhabbat egasida o‘z muhabbati obyektiga nisbatan tashqi bir kuchning noinsoniy, adolatsiz, noinsoflarcha munosabati tufayli qo‘zg‘aladigan va o‘sha kuchga qarshi qo‘zg‘aladigan hissiyot deyish mumkin. U davomiylik tabiatiga ega, g‘azab kabi o‘tkinchi hodisa emas. Agar g‘azabning asosida inson fe'lining salbiy holati oniy badjahllilik yotsa, nafrat uchun chuqur o‘ylab qabul qilingan uzil-kesil qaror yotadi. Ko‘rinishdan nafrat kishida yoqimsiz taassurot uyg‘otsada, ko‘p hollarda u illat emas, axloqiy fazilat sifatida insonning vijdonliligidan, botiniy jasoratidan dalolatdir.

Nafratdan tashqari yana rashk tushunchasi borki, u ijtimoiy hodisa emas, ko‘p hollarda jinsiy muhabbat bilan yonma-yon keladi. Ma'lumki, muhabbat egasi o‘z sevgisini va sevgilisini qizg‘anib, asrab qolishga harakat qiladi. Ana shu qizg‘anish hissi me'yoridan oshib ketganda rashkka aylanadi. Rashk esa, uni qanchalik ta'rif-tavsif qilmaylik, me'yorning buzilishi, illat. Chunki uning mohiyati xudbinlikka borib taqaladi: muhabbat egasi muhabbat lazzatiga noil bo‘lgani holda uning iztirobidan qochishga intiladi; o‘zi chekishi lozim bo‘lgan iztirobni o‘z muhabbat obyektiga o‘tkazishga harakat qiladi. Natijada ba'zan iztirobni yo‘qotishga intilish muhabbat obyektining o‘zini yo‘q qilishga, fojeaga olib keladi.

3. Ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, adolat

Ezgulik va yovuzlik. Asosiy tushunchalar orasidagi yana bir juftlik ezgulik va yovuzlik; ezgulik axloqshunoslikdagi eng muhim kategoriyalardan. U inson faoliyatining asl mohiyatini anglatadi. Tangri irodasining inson qalbidagi tajassumi sifatida namoyon bo‘ladi. «Ezgu o‘y, ezgu so‘z, ezgu amal» uchligi «Avesto» dan tortib barcha muqaddas kitoblarda yetakchi o‘rinni egallashi ham shundan.

Ezgulik insonga eng kuchli ma'naviy lazzat bag‘ishlaydigan, uni ijtimoiy shaxsga aylantirib, haqiqiy baxtga olib boruvchi fazilat; shaxsni komillikka, jamiyatni esa yuksak taraqqiyotga yetkazuvchi yuksak qadriyat. U insonning axloqiy faoliyati tufayli muayyanlashadi, yuzaga chiqadi. Uni sinfiylik yoxud partiyaviylik qobig‘iga o‘rash mumkin emas. Chunonchi, «sinfiy dushmanni», ya'ni biror bir shaxsni yoki guruhni faqat boshqa sinfga mansub bo‘lgani uchun jisman yo‘qotish, qanchalik bo‘yab-bejalmasin, ezgulik bo‘lolmaydi. U tom ma'nodagi yovuzlikdir. Totalitar tuzumlar mafkurasida ezgulikni bunday talqin etishning noilmiyligi, soxtaligi hozirgi kunda hammaga ayon.

Ezgulik va uning ziddi yovuzlik odatiy, kundalik hayot mezonlari bilan o‘lchanmaydi, ular ham muhabbat singari qamrovli va ijtimoiylik xususiyatiga ega. Ezgulikning axloqiy ideal bilan bog‘liqligi shundan. Shu tufayli u amaliyotda qahramonlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, jasurlik singari tamoyillarni o‘z ichiga oladi.

Shuni ham aytish kerakki, muhabbat va nafrat juftlik tushunchasida nafrat muhabbatni inkor etmay, aksincha, uning barqarorligidan dalolat bersa, ezgulik va yovuzlik juftligida har ikki tushuncha bir-birini tamomila inkor etadi. Nafaqat inkor etadi, balki ular orasida hayot-mamot kurashi ketadi va bu kurash abadiy kurash sifatida, olamni harakatga keltiruvchi kuch tarzida namoyon bo‘ladi.

Ezgulik va yovuzlikning yana bir o‘ziga xos tomoni shundaki, bu juftlik tushuncha inson faoliyatini baholash xususiyatiga ega. Uni odam bolasining ulug‘ligi va tubanligini o‘lchaydigan muqaddas tarozuga o‘xshatish mumkin. Insonning komilligi, jamiyatning takomilga erishgan erishmagani shu mezon bilan o‘lchanadi. Chunonchi, Lenin, Stalin, Gitler, Pol Potlarni yovuz insonlar, sobiq Sho‘rolar Ittifoqini esa jamiyat sifatida «Yovuzlik saltanati» deb baholanishi buning yorqin misolidir.

Yaxshilik va yomonlik. Ezgulik va yovuzlik haqida gap borganida, yaxshilik va yomonlik nima, bu ikki juftlik mazmunan bir emasmi, degan savol tug‘iladi. Bu tabiiy. Chunki hozirgacha bizga ma'lum o‘zbek tilidagi barcha etikaka doir adabiyotlarda ezgulik va yovuzlik mezoniy tushunchalar sirasiga kiritilmagan, u bor-yo‘g‘i yaxshilik va yomonlikning sinonimi tarzida taqdim etib kelingan. To‘g‘ri, yaxshilik tushunchasining ko‘pgina unsurlari ezguliqdan, ezgulikning ba'zi unsurlari yaxshilikdan joy olishini inkor qilish mumkin emas. Ularning ziddida ham shunday «singishib ketish» mavjud. Lekin bunday dalillar aslo mazkur ikki juftlikni aynanlashtirishga asos bo‘la olmaydi.

Bu ikki juftlik tushunchalar orasida qat'iy farq mavjud: ezgulik, yuqorida aytganimizdek, ijtimoiylik xususiyatiga ega, yaxshilik esa unday emas. Yaxshilik asosan shaxsning odobiga, xulqiga bog‘liq bo‘lgan ijobiy hodisa. Zero, unda mardlik, ochiqko‘ngillilik, halollik singari axloqiy me'yorlar tajassum topadi. Biroq unga asos bo‘lgan amaliy xatti-harakatlar qahramonlik, jasorat, vatanparvarlik kabi tamoyillar darajasiga ko‘tarila olmaydi. Misol tariqasida buyuk shoirimiz Alisher Navoiyning faoliyatini olaylik. U surunkasiga ijodiy mehnatga umrini bag‘ishladi, xalqi uchun, xalqlar uchun «Xazoyin ul maoniy»dek, «Xamsa»dek buyuk asarlar yaratdi. Bu ezgulik, u ma'lum ma'noda abadiylik xususiyatiga ega, chunki Navoiy asarlari millionlab odamlarga yuzlab yillar mobaynida zavq-shavq ulashib, ularni komillikka chorlab kelmoqda. Ayni paytda, Navoiyning o‘zi bevosita ko‘plab yaxshiliklar qildi, muhtoj odamlarga qarz berdi, bergan qarzlaridan kechib yubordi va h.k. Uning bu yaxshiliklari ajoyib ijobiy hodisa bo‘lgani holda, o‘tkinchilik tabiatiga ega, shuningdek, istisnoli hollarda namoyon bo‘luvchi qahramonlik ham, buyuk jasorat ham emas.

Demak, ezgulik asosan bilvosita amalga oshiriladigan, uzoqni ko‘zlovchi, kelajakka ham mo‘ljallangan, ya'ni strategik ahamiyatga molik axloqiy xatti-harakatlar majmui; yaxshilik esa, odatda, bevosita shu kun uchun dolzarblik xususiyatiga ega, ya'ni taktikaviy axloqiy faoliyatdir. Shunday qilib, yaxshilikni yirik ijtimoiy hodisa ezgulik bilan aynanlashtirish to‘g‘ri emas.

Bu ikki juftlikning yana bir farqli tomoni shundaki, voqe bo‘lgan ezgulik hech qachon yovuzlikka aylanmaydi, yovuzlik esa har qanday zamonda, har qanday sharoitda ham yovuzlik bo‘lib qolaveradi. Yaxshilik va yomonlikda esa

bunday emas: biror ob'yektga qilingan yaxshilik boshqa bir ob'yekt uchun yoki yaxshilik qilgan sub'yekt uchun yomonlikka aylanishi mumkin. Mashhur o'zbek xalq ertaklaridan biridagi ovchilar quvib kelayotgan bo'rini qopga yashirib, qutqarib qolgan dehqonning holatini bunga misol sifatida keltirish mumkin: bo'ri o'ziga yaxshilik qilib, o'limdan qutqargan odamni emoqchi bo'ladi, xayriyatki, tulki dehqonning joniga oro kiradi.

Xullas, muayyan ijtimoiy cheklanganligiga qaramay, yaxshilik va yomonlik qamrovli mezoniy tushunchalardan.

Adolat. Etikaning yana bir asosiy tushunchasi adolat. Uning ezgulik va yovuzlik hamda yaxshilik va yomonlikdan asosiy farqi shundaki, adolatning o'zi birorbir qadriyatni anglatmaydi, lekin qadriyatlar orasidagi nisbatni belgilaydi, ularni baholash maqomiga ega. Shu bois unda jamiyatni tartibga soluvchilik xususiyati bor; unda ham axloqiy, ham huquqiy talablar mujassamlashgan. Uni ma'lum ma'noda axloq sohasidagi miqdor o'lchovchi ham deyish mumkin: u talab bilan taqdirlashni o'lchab turadigan tarozidir. Adolat bor joyda ijtimoiy jabrga, beboshlikka yo'l yo'q.

Ma'lumki, axloqdagi eng oddiy, ibtidoiy fazilatlar, chunonchi, mehribonlik, shafqat, muruvvat hayvonlarda ham mavjud. Lekin hayvonlarda ular o'z guruhiga, eng avvalo, o'z zurriyotiga qaratilgan bo'ladi. Odamzod esa o'ziga qondosh qarindosh bo'lmagan o'zgalarga qavmdoshlariga ham ushbu hissiyotlarni namoyish etadi. Shunday qilib, axloqning ba'zi unsurlari hayvonlarda ham mavjud, faqat ular insondagidek aqlga emas, tabiatga asoslangan. Buni adolat mezoniy tushunchasida yaqqol ko'rish mumkin. Albatta, hayvonlar uni tushuncha sifatida anglamaydilar, lekin u tabiat tarzida hayvonlar xatti-harakatida namoyon bo'ladi. Masalan, Afrika savannalarida yoki changalzorlarida qurg'oqchilik mavsumida hayvonlarning suvloqdagi xatti-harakatini olib ko'raylik. Unday paytda suvloq hududida vahshiy hayvonlar, qanchalik och bo'lmasin, o'z o'ljalariga tashlanmaydilar: adolat yuzasidan ularning ham chanqoqlarini qondirishlariga yo'l qo'yib beradilar barcha hayvonlar bir-birlari tomonidan tashna jonzotlar sifatida qabul qilinadi. Biroq suvloqdan ma'lum masofa nariga o'tilgach, yana o'sha hayot kushanda va o'ljaning yashash uchun kurashi boshlanadi. Demak, adolatning ibtidoiy ko'rinishini hayvonlarda ham uchratish mumkin ekan. Qizig'i shundaki, u yakka holda emas, ko'pchilik hayvonlar tashna jonzotlar jamoasida ro'y beradi. Bu hodisa adolat tushunchasining ijtimoiylik xususiyatiga xos ba'zi holatlar insoniyat jamiyatidan ham ibtidoiyroq ekanini, uning tarixi yanada qadimiyroqligini ko'rsatadi.

Adolatning mezoniylik xususiyati, ayniqsa, huquqda darhol ko'zga tashlanadi. Huquq vazirligining hatto adliya vazirligi deb atalishi, jinoyatga yarasha jazoni belgilovchi, hukm chiqaruvchi idoralarning odil sud degan nomlar bilan yuritilishi buning dalilidir. Lekin adolatni faqat huquqiy tushuncha sifatida talqin etish to'g'ri emas. U, yuqorida aytganimizdek, keng qamrovli axloqiy tushuncha. U nafaqat fuqarolar orasidagi munosabatlarni, balki davlat bilan xalq, jamiyat bilan shaxs o'rtasidagi aloqalar mezonini ham o'z ichiga oladi. Xalq orasida ming yillar mobaynida odil podsho idealining yashab kelgani bejiz emas.

Deyarli bir yarim asr mobaynida adolatsizlikni, milliy kamsitishni, milliy iftixor hissining oyoqosti qilinishini, begona irodaning zo‘rlab qabul qildirilishi kabi holatlarni boshdan kechirgan xalqimiz, endilikda mustaqillikka erishib, adolatli fuqarolik jamiyati tuzishga kirishdi. Adolat bugungi kunda bizning mustaqil, kelajagi buyuk davlatimizning mohiyatini anglatuvchi tushunchaga aylanib bormoqda.

4. Burch, vijdon, nomus

Burch. Yana bir muhim mezoniy tushuncha burch. Burch, mohiyatan, jamiyat, davlat va shaxslarga nisbatan muayyan individdagi munosabat, ular oldidagi majburiyat. U, yuqorida aytganimizdek, vijdon, e'tiqod, mas'uliyat kabi tushunchalar bilan mustahkam bog‘liq. Umuman, hayotda insonning har bir xatti-harakati zamirida burch tushunchasi burchga sadoqat yoki xiyonat yotadi.

Burchning insonlik burchi, musulmonlik burchi, nasroniylik burchi, fuqarolik burchi, otalik burchi, onalik burchi, farzandlik burchi singari keng qamrovli, barcha davrlar uchun umumiy bo‘lgan tushunchalari ham, jurnalistlik burchi, shifokorlik burchi, olimlik burchi kabi kasbiy odob doirasidagi tushunchalari ham mavjud.

Burch tushunchasining o‘ziga xos jihatlaridan yana biri uning vaqt va jamiyatda muayyanlashish xususiyati. Chunonchi, bir tuzum yo jamiyatda ijobiy hisoblangan burch talablari ikkinchi bir tuzum yoki jamiyat uchun salbiy ma'no kasb etishi mumkin. Sobiq sho‘rolar fuqarosining o‘sha davrdagi mavjud tuzum oldidagi burchi hozirgi kunda o‘ta salbiy hodisa sifatida baholanishi bunga yorqin misol bo‘la oladi.

Harbiylashgan va o‘ta mafkuraviylashgan, ya'ni yagona mafkura hukmronlik qilgan jamiyatlarda esa burch omma hamda shaxs hayotida fojeiy hodisaga aylanadi. O‘ta ustalik bilan yo‘lga qo‘yilgan targ‘ibot natijasida bunday jamiyatlar a'zolarining ko‘pchiligi oqni qora, qorani oq deb qabul qiladilar. Buni umumbashariy va milliy qadriyatlarni oyoqosti qilgan beshafqat sho‘rolar sotsializmi yoki fashistlarning milliy sotsializmi yaqqol isbotlab berdi. Yuz minglab, hatto millionlab odamlar aldandilar, keyinchalik, uzoq yillar mobaynida vijdon azobida yashadilar. Demak, jamiyat qurilishida totalitarchilikka yo‘l qo‘yilishi o‘sha jamiyat a'zolari tomonidan burchning noto‘g‘ri tushunilishiga va buning oqibatida ba'zi hollarda beixtiyor, omilik tufayli, ba'zan esa ixtiyoriy majburiy tarzda yuz beradigan ommaviy axloqsizlikka olib keladi.

Shunday holatlar ham bo‘ladiki, unda burch shaxsning ko‘pgina mayli-istaklariga qarshi hodisaga aylanadi: uni huzur-halovatdan, turmush lazzatlaridan mahrum etadi. Masalan, Furqat mustamlakachilar mafkurasiga xizmat qilganida, uning hayoti rohat-farog‘atda kechishi mumkin edi. Lekin u Vatan oldidagi, millat oldidagi burchni deb muhojirlikning og‘ir qismatiga duchor bo‘ldi: uni mustamlakachilar, avval aytganimizdek, mamlakat hududidan chiqarib yuborib, qayta kiritmadilar. Furqat xorijda vafot etdi.

Ba'zan burch tufayli odamlar o‘z sevgisidan, jon dilidan sevgan kishisidan, hatto aka-ukasi, opa-singlisi yoki farzandidan kechishga ham majbur bo‘ladilar.

Xullas, burch etika mezoniy tushunchalari ichidagi eng «qattiqqo‘l», eng «shafqatsizi».

Vijdon. Etikaning nihoyatda ta'sir doirasi keng tushunchalaridan biri vijdondir. Vijdon Zigmund Freyd ta'biri bilan aytganda, alo men, men ustidan nazorat o‘rnatib, uni boshqarib turuvchi ikkinchi bir, yuqori darajadagi men. Agar uyat hissi insonning tashqi, jamiyatga bog‘liqligidan kelib chiqsa, vijdon uning ichki o‘z-o‘ziga bog‘liqligini namoyon etadi. Bu ichki bog‘liqlik tashqi bog‘liqlikka nisbatan teran va doimiydir: uyat ma'lum bir vaqt ichida odamning o‘z nojo‘ya harakati tufayli yuzaga kelgan o‘ng‘aysizligi bo‘lsa, vijdon azobi, bu oddiy o‘ng‘aysizlik emas, balki qalbdagi, odamdagi odamiylikka e'tiqodning faryodi, talabi; uni qondirmas ekansiz, hech qachon azob to‘xtamaydi. Uyat bilan vijdonni, shu bois, dengizdagi muz tog‘iga aysbergga o‘xshatish mumkin: yuzaga uyat tarzida chiqib turgan qismi teranlikdagi qismidan yuz, balki ming barobar kichik.

Vijdon ham etikaning boshqa ba'zi asosiy tushunchalari kabi baholash xususiyatiga ega. Lekin bu baholash hech qachon ob’yektta qaratilmaydi, u subyektning xatti-harakatlarini baholaydi, ya'ni unda sub’yekt o‘zi uchun ichki ob’yekt vazifasini o‘taydi. Ba'zan jamiyat talablari bilan vijdon o‘rtasida ixtiloflar chiqishi mumkin. Bunda vijdon emas, jamiyat talablarining o‘tkinchilik xususiyati ma'lum ma'noda eskirganligi aybdordir. Zero, vijdon ko‘zga ko‘rinmas, lekin ulkan va mutlaq aybsiz axloqiy hodisadir.

Ko‘pincha vijdon tushunchasi o‘rnida iymon iborasini uchratish mumkin. Iymon aslida diniy tushuncha. Lekin hayotda vijdon tushunchasining sinonimi tarzida ishlatiladi. Masalan, kimnidir birov «iymonli odam» deganida, uning musulmonlikka iymon keltirgan-keltirmagani haqida o‘ylab o‘tirmaydi, buning ustiga, u odam musulmon emas, nasroniy bo‘lishi ham mumkin. Chunki gap bu erda o‘sha odamning dindorligi haqida emas, balki vijdonli, halol, rostgo‘y ekanligi to‘g‘risida ketayapti. Shu ma'noda vijdon bilan iymonni egizak tushunchalar deyish mumkin. Diniy e'tiqodlarga munosabatlarning rasmiy tilda «vijdon erkinligi» deb atalishi ham ular orasidagi chambarchas bog‘liqlikdan dalolat beradi.

Afsuski, odatda, ko‘pchilik adabiyotlarda vijdon mezoniy tushunchasiga «subyektiv» hodisa tarzida qarab, adolat, burch, nomus singari tushunchalarni unga qaraganda ijtimoiy ahamiyatliroq deb baholash, ularni «to‘rga chiqarish» hollari tez-tez uchrab turadi. Vaholanki, vijdonsiz odamdan hech qachon adolatni ham, burchga sadoqatni ham, or-nomusni ham kutish mumkin emas. Vijdonli odamlargina haqiqiy erkin, demokratik fuqarolik jamiyatini yarata oladilar. Zero, vijdon, eng avvalo, o‘zgalarga nisbatan burch va mas'uliyatni taqozo etadi.

Nomus. Asosiy tushunchalardan yana biri nomus. Nomus tushunchasi bir tomondan, burch bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi jihatdan, qadr-qimmat tushunchasiga aloqador. Zero, nomus mohiyatan shaxsning o‘z qadr-qimmatini anglab etishi, shu qadr-qimmatning jamiyat tomonidan tan olinishi yoki olinmasligiga nisbatan bo‘ladigan munosabati bilan belgilanadi.

Biroq, bu nomus qadr-qimmat tushunchasi bilan bir xil ma'noga ega, degani emas. Chunki qadr-qimmat shaxsdan o‘zining boshqa odamlarga nisbatan

kamsitilmasligini, atrofdagilardan barcha insonning teng huquqliligi tamoyilini o‘ziga nisbatan qo‘llashlarini talab qiladi. Nomus esa o‘z qadr-qimmatini bilishdan tashqari, har bir shaxsning jamiyatda alohida, o‘ziga xos tarzda egallagan mavqei va shu mavqeni dog‘ tushirmay saqlashsaqlamasligi bilan bog‘liq. Bu mavqe esa, shubhasiz, o‘sha shaxsning ijtimoiy hayotdagi o‘rni, kasbi, yoshi va unga nisbatan beriladigan axloqiy daraja bilan muayyanlashadi. Masalan, uyingizda bir kun kelib oddiy ishlarni bajarib ketadigan mardikor bilan nomi ketgan mashhur binokorustaning, bosh vazir bilan kotibaning, bobo bilan nabiraning nomusni tushunishi bir xil emas. Shu ma'noda qadr-qimmatni nomus tushunchasining dastlabki bosqichi, ibtidosi deb aytish mumkin.

Gohida nomusni or tushunchasi bilan chalkashtirish hollari ham uchrab turadi. Lekin, aslida, nomusga nisbatan or ancha tor qamrovdagi, nisbatan zalvarsiz tushuncha. Chunonchi, oriyatli odam deganda, o‘z so‘zining ustidan chiqadigan, sadaqa tarzida qilingan muruvvatlardan baland turadigan shaxs tushuniladi. Beor odam o‘z sha'niga aytilgan gaplarga parvo qilmay, ishini bajarib ketaveradigan, aytilgan-aytilmagan joylarga suqilib kiraveradigan surbetnamo kishi. Nomusning esa toshi og‘ir ijtimoiylik xususiyatiga ega, keng qamrovli. Nomus yo‘lida inson hatto o‘z hayotidan kechishi mumkin, odamlar o‘z nomusi, oila nomusi, millat nomusi deb kurashadilar. Bu haqda ko‘plab badiiy asarlar, pand-o‘gitlar yaratilgan.

Mehnat, sport singari sohalarda jamoa nomusi ham alohida ahamiyatga ega; unda nomus obro‘ tushunchasi bilan bog‘lanib ketadi. Bularning hammasi o‘zini hurmat qilish, o‘ziga nisbatan atrofdagilarning hurmat-izzatini yo‘qotmaslik uchun o‘z-o‘zini nazorat qilish hissidan kelib chiqadi.

5. Ideal, hayotning ma'nosi, baxt

Biz yuqorida ko‘rib o‘tganlarimiz asosiy mezoniy tushunchalarning barchasi baholash tabiatiga ega. Yana qator muhim axloqiy tushunchalar borki, ular o‘z echimini talab qilishi bilan, ya'ni muammolik xususiyati bilan ajralib turadi. Ideal, baxt, hayotning ma'nosi singari tushunchalar shular jumlasidandir.

Ideal. Bir qaraganda, idealda ham baholash xususiyati mavjuddek tuyuladi. Lekin aslida u qiyoslashga asoslanadi. Antiqa tomoni shundaki, idealda nomavjud, xayoldagi insonga voqelikdagi real, mavjud inson, hayotdagi hodisalar qiyoslanadi, ya'ni bor narsa yo‘q narsa bilan o‘lchanadi. Zero, ideal hayotda mavjud bo‘lishi mumkin emas bu hammaga ayon gap. Buning ustiga, ideal, yirik ma'noda, hozirgi zamonda ham, kelajakda ham bo‘lmaydi, uning mavjudlik sharti o‘tgan zamon. Shunday qilib, idealga intilish shaxsning o‘z zamonasidagi odatiy sharoitga sig‘maslik, uni tezroq kengaytirish uchun qilingan hatti-harakatidir. Bu hatti-harakat uchun namunani inson, hozirgina aytganimizdek, kelajakdan topolmaydi, chunki namuna tarixiylikni, tajribaviylikni talab etadi; axloqiy idealga aylangan shaxs tarixiy tajribadagina mavjud bo‘ladi va muayyan zamonga kelib, u ma'lum ma'noda mubolag‘aviy hamda afsonaviy ta'rif tavsif bilan boyitiladi, ya'ni ideallashtiriladi. Bunga ideal odil podsho No‘shiravon, odil yoki ideal saxovat egasi, jo‘mard inson Hotam Taiy Yamaniy siymolari yorqin misol bo‘la oladi.

Inson ideal sari intiladi, o‘z hayotini unga qiyoslaydi, unga taqyaid qiladi. U inson hayotidagi eng oliy axloqiy talabki, uning bajarilishi shaxsni komillikka

etkazadi. Albatta, hayotda bunga to‘la erishib bo‘lmaydi, lekin inson ana shu komillikni o‘ziga namuna bilib, idealga intilib yashashi jarayonida nisbiy hayotiy komillikni qo‘lga kiritadi.

Dunyoviy ideal bilan, to‘g‘rirog‘i, ijtimoiy axloqiy ideal bilan diniy ideal, bir qaraganda, o‘xshashdek ko‘rinsada, aslida keskin farq qiladi. Chunonchi, musulmonlar uchun Muhammad alayhissalom, nasroniylar uchun hazrati Iso, yahudo dinidagilar uchun hazrati Muso ideal hisoblanadi. Ular ideal sifatida hech qachon o‘zgarmaydi, boqiy. Ijtimoiy-axloqiy ideallar esa o‘zgarishi mumkin va ko‘p hollarda o‘zgarib turadi. Masalan, sho‘rolar davrida o‘sha tuzum asoschisi Lenin eng yuksak axloqiy ideal sifatida talqin etilardi va ko‘pchilik tomonidan shunday qabul qilinardi. Hozir esa «Kuch adolatda!» degan shiorni hayotining ma'nosi deb bilgan buyuk ajdodimiz Amir Temur ko‘pchilik tomonidan ijtimoiyaxloqiy ideal, adolatli davlat rahbarining namunaviy timsoli tarzida qabul qilinadi. Demak, muayyan tuzum talablaridan kelib chiqqan holda, ijtimoi-axloqiy ideallar o‘zgarishi mumkin.

Biroq har bir tuzumning umri umumiy tarixiy jarayonda nisbatan qisqa vaqtni o‘z ichiga oladi. Yolg‘on, ko‘zbo‘yamachilik va zo‘ravonlikka asoslangan tuzum esa uzoq muddat yashay olmaydi. Chunki zimdan axloqiylikni inkor etgan siyosatning bir kunmas bir kun albatta asl basharasi ochiladi. Shu bois faoliyati niqoblangan axloqsizlikdan iborat bo‘lgan Lenin, Stalin, Gitler kabi ijtimoiy ideallarning umri uzoq bo‘lmadi aldangan ko‘pchilik qisqa vaqt mobaynidagina ularni ideal deb bildi.

Bunday salbiy hodisalarga qaramay, ideal, umuman, jamiyatda, shaxs hayotida ijobiy hodisa. U insoniyat tarixida yorug‘ mayoq vazifasini o‘tab kelmoqda, bundan keyin ham uning asosiy vazifasi shunday bo‘lib qolajak. Chunki idealda har bir inson o‘z baxtining hissiyotli ifodasini ko‘radi, hayotining ma'nosini unga qarab intilishda deb biladi.

Hayotning ma'nosi. Mashhur alloma Majididdin Xavofiy, yashash uchun ovqatlanurlar, ovqatlanish uchun yashamaslar, degan hikmatni ko‘p takrorlar ekan. Xo‘sh, aslida inson nima uchun yashaydi? Yashashdan maqsad nima? Inson hayotining ma'nosi nimada?

Har bir inson o‘z umri mobaynida ana shu savollarga javob topishga urinadi va hayotining ma'nosini o‘ziga xos tarzda tushunadi. Shu bois u etikaning ancha murakkab tushunchalaridan hisoblanadi.

Avvalo shuni aytish joizki, hayotning ma'nosini yashashdan maqsad degan tushuncha bilan qorishtirib yuborish hollari ko‘p uchraydi. Vaholanki, ularni aynanlashtirish mumkin emas, chunki hayotning ma'nosi maqsadga nisbatan juda qamrovli tushuncha, o‘z ichiga o‘nlab, balki yuzlab maqsadlarni oladi, aniqrog‘i, u muayyan maqsadlar tizimidan tashkil topadi. Shu bois kimningdir biror-bir ezgu maqsadi amalga oshmay qolsa, uning hayotini «ma'nosiz» deb bo‘lmaydi.

Ba'zan hayot «ma'nosiz» kechishi ham mumkin. Bunda kishidagi maqsadlar o‘tkinchi, mayda, yuksak orzu-intilishlardan yiroq, hayvoniy, tuban, hatto yovuz bo‘lishi mumkin. Mazkur kishi «hayot egasi»ning bunday tabiati jamiyat erishgan axloqiy daraja bilan baholanadi. Zero, kimdir o‘z hayoti ma'nosini qanday yo‘l

bilan bo‘lmasin boy-badavlat, to‘kin-sochin yashashda deb tushunadi: harom-xarishning farqiga borib o‘tirmaydi, birovning haqidan qo‘rqmaydi yoki qanday vositalar bilan bo‘lmasin, martabaga erishishni o‘z oldiga hayotiy maqsad qilib qo‘yadi, faqat «yulsam» deydi. Boshqa birov esa qonunni buzmaydi, lekin o‘zgalarga qayishishni xayoliga ham keltirmaydi, hech kim bilan ishi bo‘lmaydi, faqat «o‘z qobig‘ida» yashashni afzal ko‘radi.

Yana bir toifa odamlar borki, ular hayotining ma'nosini eng yuksak qadriyatlar bilan bog‘laydilar va jamiyatda yuksak axloq egasi, go‘zallik oshuftasi, e'tiqodi but kimsalar sifatida e'tibor qozonadilar. Ular oliy ideallarga intilib, fidoyilarcha umr kechiradilar. Hayotining ma'nosini o‘zidan keyin qoldiradigan «ikkinchi umr»da ko‘radilar. Har bir jamiyatning taraqqiy topishi yoki tanazzuli hayotning ma'nosini ana shu tarzda tushunuvchilarning ko‘pligi yoki kamligi natijasida ro‘y beradi, bir so‘z bilan aytganda, bunday tom ma'noda «elim deb, yurtim deb yonib yashaydigan» odamlar yuksak axloqli, demokratik, erkin jamiyatning ustunlaridir.

Biz yuqorida ko‘rib chiqqan toifalar ikki umumiy ijtimoiy-ma'naviy guruhning biriga, ta'bir joiz bo‘lsa, shartli ravishda dunyoviy deb ataladigan qismiga mansub.

Ikkinchi guruhni esa e'tiqodiy-diniy deb nomlash mumkin. Bu guruh hayotning ma'nosini Xudoni topishda, Unga etishishda deb biladi. Bunda goho cherkov yoki shariat aqidalari orqali emas, balki muhabbat vositasida ham Xudoga murojaat qiladilar. Masalan, buyuk rus mutafakkiri va yozuvchisi, pravoslav cherkovidan ronda qilingan Lev Tolstoy hayotning ma'nosini quyidagicha tushunadi: «Men faqat Xudoga ishongan onlarimdagina haqiqiy yashaganimni esladim... Xudoni tanish va yashash degani bir xil gap, Xudo hayot demakdir», deb yozadi u o‘zining mashhur «Iqrornoma» asarida.

O‘z hayotining ma'nosini Xudoga etishish uchun harakatda deb bilgan Tolstoy ayni paytda bu harakatni dunyoviy muammolarning hal qilinishi bilan bog‘laydi. Xuddi shunday holatni biz avval ham bir necha bor misol qilib keltirganimiz buyuk mutasavvuf bobokalonimiz Alisher Navoiy shaxsida ham ko‘rish mumkin. Gap shundaki, har ikki alloma o‘zlari tanlagan tariqatlar orqali Xudoga etishishga intiladilar, ulardagi Xudoga bo‘lgan ilohiy ishq U yaratgan har bir jonzotga, har bir giyohga, eng avvalo, insonga muhabbat sifatida namoyon bo‘ladi, ya'ni ular hayotida diniylik dunyoviylikni inkor etmaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ba'zi ekstremistchi guruhlar mafkurachilarining «dinni dunyoviylikdan tozalash» haqidagi safsatalari ulardagi hokimiyatni qo‘lga olishga intilishdan boshqa narsa emas, mohiyatan dinga aloqasi yo‘q, xudbinlikning niqoblangan ko‘rinishi, xolos. Zero, Alloh u dunyoda jannatiy bo‘lish uchun o‘z bandalariga bu dunyoda go‘zal yashashni, chiroyli a'mollar qilishni buyuradi.

Ko‘rib o‘tganimizdan ma'lum bo‘lyaptiki, hayotning ma'nosini tushunishda har ikki ijtimoiy-ma'naviy guruhda ham turli qarashlar mavjud. Lekin ular bir masalada yakdil: ular hayotning ma'nosi o‘z manfaatlarini o‘zgalar manfaati bilan bog‘lab, oliy qadriyatlar va yuksak aqidalarni ichki shior qilib yashashdadir, degan axloqiy qoidaga binoan umr kechiradilar.

Baxt. Hayotning ma'nosi ideal bilan bog‘liq bo‘lgani kabi baxt atamasini ham hayotning ma'nosi tushunchasidan ajratib olingan holda tahlil etish mumkin emas. Zero, baxt inson o‘z hayoti ma'nosini qay darajada tushungani va shu ma'nodan umri mobaynida qoniqish hosil qilib borishidan iboratdir. Har bir insonda qoniqish hissi undagi maqsadlarning takomilga etganidagina ro‘y beradi. Faqat bu takomilga etish jarayoni bir umr davom etadi. Shu ma'noda buyuk ajdodimiz Abu Nasr Farobiy: «Baxt har bir inson intiladigan maqsad, zotan u muayyan komillikdir», deganida ko‘p jihatdan haq edi.

Faqat bu qoniqish ham davomiylik tabiatiga ega ekanini unutmaslik lozim, uni lazzat bilan aynanlashtirish to‘g‘ri emas. Lazzat oniylik xususiyatiga ega, o‘zini faqat jarayondagina namoyon etadigan hodisa va u moddiy hayotdagi real, ammo o‘tkinchi ehtiyojlardan kelib chiqadi. Masalan, gastrologik yoki shahvoniy lazzatni olib ko‘raylik: deylik, siz kabobni xush ko‘rasiz va lazzatlanib eya boshlaysiz, lekin biroz muddat o‘tgach, to‘yasiz, boshqa egingiz kelmay qoladi; shahvoniy lazzat ham shunday. Baxt esa ma'naviy ehtiyoj bilan bog‘liq, unda maqsadlarga birin-ketin erisha borish, qoniqish jarayoni, boya aytganimizdek, bir umr to‘xtamaydi va doimo lazzat va zavqni o‘z ichiga oladi.

Baxt garchand, orzu kabi idealning hissiy ehtirosli shakli sifatida ko‘zga tashlansada, aslida undan farqli o‘laroq, shaxsning intilishini emas, shu intilishning ro‘yobini anglatadi. Har bir intilishning ro‘yobga chiqishi esa muayyan tayyorgarlikni va kurashni taqozo etadi. Buyuk shoirimiz G‘afur G‘ulomning: Taqdirni qo‘l bilan yaratur odam, g‘oyibdan kelajak baxt bir afsona, degan hikmatli satrlari shu jihatdan diqqatga sazovor. Baxt haqida gap ketganda, albatta, omad to‘g‘risida to‘xtalib o‘tish lozim. Omad ham lazzatga o‘xshash oniylik tabiatiga ega. Lekin bu oniylikda lazzatdagidek takrorlanish xususiyati yo‘q: odamga omad hayoti mobaynida kamdan-kam kulib boqadi. Omadning ana shu jihati haqida qrim-tatarlarning qadimgi asotiri bor. Unga ko‘ra, Omad ma'buda ekan, kunlardan birida uning o‘g‘li erni tomosha qilaman deb osmondan tushibdiyu, qaytib chiqmabdi. Shu-shu omad yerga tushib, hanuz bolasini qidirarmish. Ma'budaning yuzi yo‘q, faqat qoq miyasi ustida bittagina ko‘zi bor ekan. Shu bois u to‘g‘ri kelgan o‘tkinchini tutib olib, o‘g‘limmikan deb, balandga ko‘tarib, ko‘ziga olib borib qararkan va o‘g‘li emasligiga ishonch hosil qilgach, osmonu falakdan pastga qaratib itqitib yuborarkan. Omad o‘z qo‘liga tushganlarning hammasiga shunday munosabatda bo‘lar ekan.

Darhaqiqat, mazkur asotirda omadning o‘tkinchilik mohiyati juda chiroyli va majoziy ochib berilgan; bir umr omadli odam yo‘q, omad tasodif, baxt zaruriyat; omad istisnoli, baxt qonuniy hodisa. Omad shaxsning bir zumlik holatini aks ettiradi, baxt esa inson nimaga erishmog‘i lozim, degan savolga bir umr mobaynidagi amaliy javobdir.

Baxtni tushunish har bir davrda, ma'lum tarixiy sharoitda millat, shaxs va jamiyatning taraqqiyot darajasiga qarab, turlicha muayyanlashish xususiyatiga ega. Ya'ni ideal kabi uning ham tabiati o‘zgaruvchan.

Erkparvarlik. Agar insonparvarlik tamoyili shaxsning barcha insoniy haq-huquqlari himoyasida tursa, ya'ni ancha keng qamrovli va umumiy intilish bo‘lsa,

erkparvarlik tamoyili uning ma'lum ma'noda muayyanlashgan bir qismi hisoblanadi. Erkparvarlik insonning eng oliy huquqi erkin, ozod yashash huquqini himoya qilishi bilan muhimdir. Zero, erksiz inson asir, erksiz millat qul, erksiz mamlakat mustamlaka. Erkparvarlik, avvalo, o‘z millati, o‘z Vatani erki uchun, qolaversa, boshqa millatlar va vatanlar erki uchun kurashni hayotining maqsadi qilib qo‘ygan insonlar tamoyilidir.

Erkparvar inson qullikning, mutelikning har qanday ko‘rinishini inkor etishi barobarida inson huquqlarining tom ma'nodagi jangchisiga ham aylanadi. Bu jangchi bir tomondan, har bir shaxsning so‘z erkinligi, o‘z fikrini erkin bayon qilishi, saylash huquqi, vijdon erkinligi uchun kurashadi, ikkinchi tomondan, butun-butun millatlar erki masalasini o‘rtaga tashlar ekan, ma'lum ma'noda milliy ozodlik harakatlari uchun ham turtki beradi.

Odatda, erkparvar shaxslar muayyan davrning qahramonlariga aylanadilar. Zero, ular o‘zgalar erki uchun o‘z erkini, o‘z hayotini qurbon qilishdan ham cho‘chimaydilar. Buning yorqin misoli buyuk ingliz mumtoz shoiri Jorj Bayron siymosidir. U ingliz bo‘la turib, o‘z vatani Angliyada Irlandiya ozodligi, irlandlar erki uchun kurashdi: hayrat va nafratga uchradi, Vatanni tark etishga majbur bo‘ldi. O‘z yurtida erk uchun kurashish baxtidan mahrum bo‘lgan shoir o‘zga vatanlar erki uchun kurashga otlandi va Italiyani Avstriya istibdodidan ozod qilish harakatining rahbarlaridan biriga aylandi.

Italiyadagi ozodlik harakati mag‘lubiyatga uchragach, Bayron qadim Yunonistonni Turkiya zulmidan ozod qilish uchun kurashdi. U Yunonistonda, botqoqlik yonidagi Missolungi shahrida og‘ir bezgakdan vafot etdi. Uning o‘limi ham istibdodga qarshi shiorga aylandi qo‘zg‘olonchilar «Bayron uchun!» degan jangovar hayqiriq bilan jangga otildilar. Benazir shoir, Yunonistonning ozod qilingan qismi general gubernatori, erksevar qo‘mondon va ulug‘ inson xotirasiga yunon xalqi yigirma bir kun qora kiyib, motam tutdi. Hamma cherkovlarda Bayron haqqiga ibodat qilindi.

Darhaqiqat, erkparvarlik tamoyilini hayotining ma'nosi deb bilgan insonlarning ma'naviy umri boqiy, ular kelajak avlodlar uchun ideal bo‘lib qoladilar.

Ayni paytda, bu tamoyil keng ijtimoiy-siyosiy ma'noda ham qo‘llaniladi. Buni erkparvar davlatlar faoliyatida ko‘rish mumkin. Shuni ham aytish kerakki, erkparvarlik tamoyilidan bir oz bo‘lsada, o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanishga, shu orqali siyosiy obro‘ olishga intilish hollari, afsuski, uchrab turadi. Ba'zi davlatlar tomonidan o‘zga mamlakatlar ichki ishlariga aralashish uchun erkparvarlikni niqob qilib ish ko‘rishga urinishlar ham yo‘q emas. Biroq bunday siyosiy qallobliklar jahon jamoatchiligi tomonidan darhol ilg‘ab olinadi va fosh etiladi. Zero, erkparvarlik eng avvalo shaffoflik darajasidagi poklikni, halollikni talab qiladi, ozginagina dog‘ni ham ko‘tara olmaydi.

Vatanparvarlik. Eng ma'lum va mashhur tamoyil, bu vatanparvarlik. U insonning o‘z Vataniga muhabbatini, uni asrab-avaylashga bo‘lgan ishtiyoqini anglatuvchi axloqiy tushuncha. Uni ko‘pincha Vatan dushmanlariga qarshi ma'naviy-mafkuraviy qurol sifatidagina talqin etadilar. Aslida esa bu tamoyilning

qamrovi ancha keng u insonparvarlikning nisbatan muayyanlashgan shakli. U, eng avvalo, o‘z vatandoshlari erkini asrash uchun kurash, inson ozodligi yo‘lidagi xatti-harakatlardir. Vatan himoyasi, bu inson himoyasi, millat himoyasi. Lekin bu himoya, yuqorida aytganimizdek, faqat jang maydonida emas, balki barcha sohalarda ham namoyon bo‘lishi mumkin. Har jabhada Vatan erishgan muvaffaqiyatlardan quvonch, muvaffaqiyatsizliklardan qayg‘u hissini tuyush, Vatan bilan g‘ururlanish, uning har bir qarich eriga, binosining har bir g‘ishtiga, qadimiy obidalariga, ilm-fan va san'atdagi yutuqlariga mehr bilan qarash, ularni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash bular hammasi vatanparvarlikdir.

Vatanparvarlik tamoyili Vatan tushunchasini fidoyilarcha idrok etish, muayyan hudud va xalqqa muhabbat hissi singari omillar bilan bog‘liq. Zotan, ma'lum bir mamlakat fuqarosi o‘sha mamlakatdagi asosiy etnik guruh vakili bo‘lmasligi ham mumkin. Turli shart-sharoit taqozosi bilan boshqa bir hududga, mamlakatga kelib qolib ketgan fuqarolar, o‘z tarixiy vatanidan olisda tug‘ilganlar kam emas. Ularning ko‘pchiligida «tarixiy Vatan» tushunchasi xayoliy bir qo‘msash, shirin g‘ussa, o‘tkinchi intilish tarzida ifoda topadi. Aslida esa bu mazkur Vatanga muhabbat emas, balki o‘z ajdodlariga, olis xotiraga hurmatdan, ekzotik hissiyotlardan kelib chiqadi; haqiqiy muhabbat esa, sharoit har ikki Vatandan birini tanlashni taqozo etganda, hozir yashab turgan Vatani va vatandoshlariga nisbatangina mavjud ekani aniq-ravshan ayon bo‘ladi.

Mazkur holatni ajoyib gurji yozuvchisi Nodar Dumbadze o‘zining «Ne Nayoz» hikoyasida g‘oyatda jonli tasvirlab bergan: Suxumining Venetsian ko‘chasida Yanguli ismli yunon bola otasi bilan birga yashaydi. Uning chap ko‘ksida «NeNayoz» (Ellada) degan sanchma yozuv bor, u bu bilan faxrlanib yuradi. Lekin, vaqt kelib, yunonlarga tarixiy vatanlariga qaytishga ruxsat berilganida, Yanguli ketishni istamaydi. Otasi qattiq kaltaklab, majbur qiladi. Do‘sti Jamol undan nega otang bilan birga ketmoqchimassan, deb so‘raganida Yanguli shunday javob beradi: «qandoq tushuntirsamikin... deya gap boshladi u nihoyat. Onam yo‘q, hatto eslolmayman ham. Otam uzzukun tomorqada yoki tirikchilik tashvishida... Men ko‘chada, Venetsian ko‘chasida katta bo‘ldim... Mening Vatanim, mening Elladam bu Suxumi, ko‘cha, Chalbash...

Bu nima bo‘lmasa? Men Yangulining ko‘kragini ochib baland ovozda o‘qidim: NeNayoz.

Bu naqsh, Jamol. Vatan ichkariroqda, naqd yurakning o‘zida! Yanguli qo‘lini ko‘ksiga qo‘ydi.

O‘pkam to‘lib, tomog‘imga achchiq bir narsa qadaldi, unga yana bir nimalar demoqchi edimu, ammo Yanguli eshagini no‘xtasidan etaklab, hovlidan chiqib ketdi».

Otasi zo‘rlab, kaltaklab kemada olib ketishiga qaramay, Yanguli o‘z asl Vatanidan ketishni istamaydi, o‘zini dengizga tashlab, Vatani bag‘rida halok bo‘ladi. Buni yozuvchi shunday tasvirlaydi:

«Oradan bir kun o‘tib, Kelasuri daryosining quyilish joyida dengiz to‘lqinlari bir bolaning jasadini sohilga chiqarib tashlabdi. To‘g‘rirog‘i, uni keksa baliqchilar suvdan tortib olib, qumga yotqizishibdi. So‘ng murdaning kimligini

aniqlash uchun shu atrofda o‘ynab yurgan bolalarni chaqirishibdi. Marhumning basharasi shu qadar dabdala bo‘lib ketgan ekanki, uni hech kim tanimabdi, Uni men tanidim. Chap to‘shining ustidagi «NeNayoz» degan sehrli yozuvni ko‘rgandan keyin tanidim. Nafasimni ichimga yutgancha sohildan, so‘ng temir yo‘l bo‘ylab, keyin Venetsiya ko‘chasidan to‘xtovsiz yugurib, telbalarcha uyga otilib kirdim.

Ha, nima bo‘ldi?!! Xolamning kapalagi uchib ketdi.

Nina xola... Yanguli qaytib keldi... So‘ng xolamning oldida cho‘kkalab, oyoqlarini quchoqlab yig‘lab yubordim...».

Demak, vatanparvarlik tamoyili xayoliy tuyg‘uga emas, balki muayyan zamonga, muayyan vatandosh insonlarga bo‘lgan muhabbatga asoslangan axloqiy xatti-harakatlar jamuljamidir. Shu jihatdan qaraganda, mamlakatimizdagi barcha millatlar tengligini e'tirof etuvchi, millatidan qat'i nazar, hammamiz bir Vatan farzandlari ekanimizni ta'kidlovchi Konstitutsiyamizning ana shunday demokratik tamoyillarga asoslanishi, yuksak axloqiy zaminga egaligi e'tibor va e'zozga loyiqdir.

Hozirgi paytda yoshlarimizda vatanparvarlik tuyg‘usini tarbiyalash, ularni Vatan ma'nosini teran anglab etishga o‘rgatish, vatanparvarlik yuksak axloqiy tamoyil ekanini tushuntirish axloqshunoslikning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Millatparvarlik. Yana bir muhim axloqiy tamoyil, bu millatparvarlik. U, ma'lum ma'noda, vatanparvarlik tamoyilining yanada muayyanlashgan shakli. Zero, millatni sevish keng ma'noda Vatanni sevish degani. Vatansiz millatning bo‘lishi yoki rasmana erkin va baxtli yashashi mumkin emas.

Shu o‘rinda millatparvarlikni millatchilik bilan qorishtirib yubormaslik lozim. Millatchilik o‘z millatini ajratib olib, unga buyuklik maqomini berishga intilish bo‘lsa, millatparvarlik, boshqalarni kamsitmagan holda, o‘z millati ravnaqi uchun kurashish, bu yo‘lda, lozim bo‘lsa, o‘z hayotini ham fido qilish demakdir. U insonparvarlik bilan ham chambarchas bog‘liq. Chunki o‘z millatini chin dildan sevmagan odam hech qachon boshqa millatlarni seva olmaydi.

Asl millatparvar milliy o‘zligini anglab etgan inson. U o‘z millati bilan faxrlanadi, o‘z millati bilan butun jahonning faxrlanishini istaydi. Chunonchi, Navoiy do‘ppi bilan to‘n kiygan o‘zbekni har qanday shoh jamolidan afzal ko‘radi:

Shohu toju xil'atekim, men tomosho qilg‘ali
O‘zbakim boshida qalpoq, egnida shirdog‘i bas.

Lekin Navoiy shu faxrlanishi, g‘ururlanishi barobarida o‘zgalarga kibr bilan qaragan emas, aksincha, o‘zga til vakili bo‘lmish Jomiyga bag‘oyat hurmat-izzat ko‘rsatib, unga, pirim, deb qo‘l bergan.

Millatparvarlik tamoyili asosida milliy g‘oya yotadi, u millatni sevish amaliyotining millatparvarlikning ilmiy-nazariy asosi sifatida maydonga chiqadi. Milliy g‘oyaning zamonaviy, biz tanlagan ko‘rinishini, uning mafkuraviy jihatlarini Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov shunday ta'riflaydi: «Milliy mafkuramiz har qanday millatchilik va shunga o‘xshash unsurlardan, boshqa elat va xalqlarni mensimaslik, ularni kamsitish kayfiyati va qarashlaridan mutlaqo xoli bo‘lib, qo‘shni davlat va xalqlar, umuman, jahon hamjamiyatida, xalqaro

maydonda o‘zimizga munosib hurmat va izzat qozonishda poydevor va rahnamo bo‘lishi darkor».

Uning ikkinchi jihati esa mana bunday talqin etiladi: «Milliy g‘oya birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat yo‘lida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek olijanob ishlarimizda madadkor bo‘lishi zarur».

Asl millatparvar ana shunday bo‘lishi kerak. Asl millatparvar insonlarning umri millatning umri kabi mangudir. Millat yo‘lida o‘z jonini tikkan Munavvar qori, Behbudiy, Fitrat, Abdulla qodiriy, Cho‘lpon singari minglab fidoyilarni xalqimiz hech qachon unutmaydi.

Fidoyilik. Ma'lumki, inson muayyan mamlakat va jamiyatdagi qoidalarni, huquqiy me'yorlarni buzmay yashashi mumkin. Rasmiy huquqiy idoralar va tuzilmalar tomonidan bunday odam rasmona, jamiyat uchun xavf tug‘dirmaydigan shaxs hisoblanadi. Lekin bunday odam axloqsiz bo‘lishi, huquq bilan hisoblashgan holda axloqni tan olmasligi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, u o‘z mamlakatidagi jinoyat kodeksini tan olishi barobarida, qalbidagi vijdon qonunlari bilan hisoblashmaydi, jinoiy jazodan qo‘rqadi-yu, vijdon azobini bilmaydi.

Shu fikrlarni endi misolda ko‘raylik. Deylik, kuz kunlaridan birida O‘rdadagi Anhor bo‘ylab shoshib ketayotgan odam suvga cho‘kayotgan, yordamga muhtoj kishini ko‘rdi. Lekin darhol o‘zini suvga otib, uni qutqarmadi. Chunki birinchidan, cho‘kayotgan u emas, ikkinchidan, egnidagi kostyum-shim suvga tushsa rasvo bo‘ladi, uchinchidan, uning vaqti yo‘q, foydali bir ish yuzasidan uchrashuvga ketyapti, to‘rtinchidan, suv sovuq, shamollab qolishi mumkin, beshinchidan, axir, bu odamning cho‘kishiga u sababchi emasku! Shunday qilib, bir odam cho‘kib ketdi, ikkinchi bir odam, buni ko‘ra-bila turib, o‘z yo‘lida davom etaverdi. Buning uchun uni qamamaydilar ham, jarimaga tutmaydilar ham, u haqda faqat, qanday beshafqat, vijdonsiz odam ekan, deb fikr bildiriladi, xolos.

Endi boshqa bir o‘tkinchini tasavvur qiling: u shu zahoti o‘zini suvga otib, cho‘kayotgan odamni qutqardi, dastlabki yordamni ko‘rsatdi va taksiga xarajat qilib uyiga qaytdi: kiyim-bosh shalabbo, kattagina foydadan qoldi, besh-olti kun shamollab, dori-darmonga ham mablag‘ sarfladi. Lekin u bunga achinmaydi. Voqeani eslaganida afsuslanmaydi, balki o‘z xatti-harakatidan qoniqish tuyib, jilmayib qo‘yadi, hatto bu xotirlash unga ruh beradi.

Bu hodisada biz ikki xil tamoyil bilan harakat qilgan ikki kishini ko‘rib turibmiz: birinchisi xudbin, ikkinchisi fidoyi inson. Garchand, qonun birinchi kishini xudbinligi uchun jazolamagani barobarida ikkinchi kishiga fidoyiligi uchun alohida imtiyoz bermasada, jamiyat, mahalla-ko‘y, odamlar ularga ikki xil munosabatda bo‘ladilar: xudbinlikdan ijirg‘anib, nafratlanadilar, fidoyilikdan hayratlanib, minnatdorchilik bildiradilar.

Demak, fidoyi insonga boshqalar tomonidan bu qadar izzathurmat ko‘rsatilishiga sabab shuki, u istisnoli holatlarda o‘zining odatiy kundalik hayotiy majburiyatlarini va munosabatlari darajasini ixtiyoriy ravishda oshira olish qudratiga ega bo‘ladi. Fidoyi inson boshqalar manfaati yo‘lida o‘z qonuniy manfaatlarini, ba'zan esa hatto hayotini qurbon qilishga tayyor turadi va zarurat

tug‘ilganda qurbon qiladi ham; jamiyat uchun umumiy bo‘lgan oliy maqsad va ideallarni deb o‘zidan kechadi. Bunga ikkinchi jahon urushi qahramoni mard o‘zbek yigiti To‘ychi Eryigitovning fidoyiligi yorqin misol bo‘la oladi. U dushman pulemyotiga ko‘ksini qalqon qilishi bilan o‘nlab, balki yuzlab o‘ziga o‘xshash odamlar hayotini saqlab qoldi; bu odamlar esa o‘z navbatida jahonda fashizm g‘alabasining xavfini kamaytira borib, oxir-oqibat yo‘qqa chiqardilar; ularning zurriyotlari esa hozir ham dunyoning yangilanishi, o‘zgarishi uchun, oliy maqsadlar uchun xizmat qilmoqdalar. To‘ychi Eryigitovning nomi biz bilan birga, hech qachon xalq yodidan chiqmaydi.

Shuni ham aytish kerakki, fidoyilik tamoyilining mazmuni turli tarixiy davr va ijtimoiy jarayonlarda turlicha muayyanlashadi; u ma'lum bir davrlarda ommaviylashishi yoki kamayishi mumkin. Chunonchi, mustaqillikka erishganimizdan so‘ng dastlabki paytlarda o‘tish davriga xos bo‘lgan fidoyilikka nisbatan xudbinlik tamoyilining kuchayganini ko‘rdik. Hozirga kelib esa, aksincha, asta-sekinlik bilan jamiyatimizda fidoyilik ustuvor tamoyil maqomini egallab bormoqda; Prezident Islom Karimovning fidoyilik tamoyili mohiyatini to‘la anglatadigan «Elim deb, yurtim deb yonib yashash kerak!» degan so‘zlarini axloqiy shior qilib olgan jamiyatimiz a'zolarining ilg‘or qismi tobora ko‘payib bormoqda. Ana shu ko‘payib borish jarayoni qancha tezlashsa, biz qurayotgan davlatning shayush' shamoyili ziyolilik tamoyili hozir biz anglaydigan tushuncha ma'nosida shuncha muayyanlik kasb etadi.

Ziyolilik. nisbatan uzoq tarixga ega emas. U jadidchilik harakati bilan birga yuzaga keldi desak, xato qilmagan bo‘lamiz. Lekin bu tamoyilning inson faoliyatidagi dastlabki unsurlari O‘rta asrlar va undan keyingi davrlardagi ma'rifatparvarlar hayotida shakllanganini e'tirof etmoq lozim. Ya'ni, u insoniyat jamiyatidagi madaniy va intellektual aqliy taraqqiyot bilan bog‘liq. Shu bois uni inson paydo bo‘lganidan ancha keyin vujudga kelgan axloqiy hodisa deb talqin etish maqsadga muvofiq. XX asr allomalaridan biri, buyuk olmon faylasufi, «Frankfurt maktabi»ning namoyandasi Teodor Adarno ikkinchi jahon urushidagi genotsiddan so‘ng, ziyolilik axloqiy kategoriya, degan fikrga kelganida mutlaqo haq edi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ziyolilik axloqiy tushuncha tamoyil sifatida murakkab va ko‘pyoqlamalik tabiatiga ega. Ba'zilar ziyolilik deganda oliy ma'lumotli kishiga xos bo‘lgan fazilatni tushunadilar. Vaholanki, ziyolilik tamoyili tabaqa yoki guruhga mansublik ma'nolarini anglatmaydi. Oddiy fermer dehqon ham, haydovchi ham, farrosh ham ziyolilik tamoyili bilan ish ko‘rishi va atrofdagilar tomonidan: «Ha, falonchimi, juda ajoyib, ziyoli odamda», degan yuksak ijtimoiy bahoga loyiq bo‘lishlari mumkin. Bunda u odamning kasbidan qat'i nazar, ham bilim, ham fahmfarosat, ham oliy maqsadlar egasi ekani tushuniladi. Shunday qilib, ziyolilik asosida insonning ma'naviy ma'rifiy yuksakligi, qalbidagi ichki nur, atrofni ham nurlantira oladigan ziyosi bilan belgilanadigan xatti-harakatlar yotadi.

Ziyolilik tamoyiliga hukmron ma'muriy doiralar va xalq tomonidan o‘ziga xos munosabatlar mavjud. Chunonchi, birinchi toifadagilar ko‘p hollarda

ziyolilikka umumiy tarzda ijobiy munosabatda bo‘ladilar, lekin masala muayyan ziyoli shaxslarga borib taqalganda, manfaatlar to‘qnashuvi ro‘y beradi: ziyolilar hukmronlar toifasini ziyolilik tamoyili asosida yashashi va ish yuritishini talab qiladi, bu esa ularga, tabiiyki, yoqmaydi, buni hokimiyat ishlariga aralashish deb ijirg‘anadilar, turli bahonalar topib, zimdan ziyolilarga qarshi kurashadilar. Bunga Lev Tolstoydek buyuk, pokiza insonning cherkov tomonidan la'natlanishi yoki norasmiy Turkiston Ligasining rahbari, istiqlol fidoyisi, mard sarkarda, haqiqiy ziyoli, chor armiyasi general mayori Jo‘rabek qalandarqori o‘g‘liga suiqasd uyushtirilishi qo‘ylikdagi o‘z yozgi bog‘ida sirli ravishda o‘ldirilishi hodisalari yaqqol misol bo‘la oladi. Mustamlakachilikka va totalitar tuzumlarga asoslangan mamlakatlarda ziyolilik tamoyiliga sodiq kishilar to‘g‘ridan-to‘g‘ri, ochiq qatag‘on qilinadilar. Bunga misol qilib, Fitrat, Qodiriy, Cho‘lpon kabi jadidlarni va Stalin Gitler kontslagerlarida halok bo‘lgan minglab ziyolilarni keltirish mumkin. Ziyolilik tamoyiliga oddiy fuqarolarning munosabatida esa ikki xil yondashuv ko‘zga tashlanadi. Ularning faol va ilg‘or qismi, millatning o‘zagini tashkil etadigan ko‘pchilik odamlar ziyolilarga havas bilan qaraydilar, ziyolilarning xatti-harakatlarini nafaqat ma'qullaydilar, balki o‘z farzandlari va yaqinlariga namuna qilib ko‘rsatadilar. Ammo oddiy aholilik majburiyatidan boshqa narsani bilmaydigan, tarixdan «omma» deb atalib kelinadigan ijtimoiy qatlam kishilari, ularning ma'lumotlari oliy yoki o‘rtaligidan qat'i nazar, ziyolilarga istehzo bilan, «hokimiyat bilan o‘ynashgan esi pastlar» deb qaraydilar. Ana shu xudbin va mahdud «omma» qaysi erda kamayib borsa, o‘sha jamiyatda taraqqiyot yuksak darajaga ko‘tariladi. Zero, ziyolilik keng ma'nodagi fidoyilikdir. Shu bois mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq bizda ziyolilik tamoyilini har bir fuqaroga singdirish uchun muntazam kurash olib borilmoqda. Uni singdirish esa ma'naviyatni yuksaltirish orqali ro‘yobga chiqadi. Bu kurash tepasida ma'naviyatni ustuvor soha deb e'lon qilgan Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov turibdi.

Mehnatsevarlik. Inson barcha mavjudotlar ichida xatti-harakatlarining, faoliyatlarining ko‘pligi va xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Mehnat ana shu xatti-harakatlarning aniq maqsadga yo‘naltirilgan qismidir. To‘g‘ri, mehnatga o‘xshash xatti-harakatlarni qaldirg‘ochning in qurishida ham, polaponiga baliq tutib keltirayotgan chorloqda ham, yer kovlayotgan yumronqoziqda ham ko‘rishimiz mumkin. Lekin bu xatti-harakatlar savqi tabiiyya tabiiyyatga (instinktga) asoslangan. Inson mehnati esa, aqya vositasida amalga oshadi, u o‘zi, yaqinlari, o‘z jamiyati va kelajak avlodning yaxshi yashashi uchun mehnat qiladi. Shu sababli mehnatni sevgan odam ijtimoiy-iqtisodiy sharoit risoladagidek yo‘lga qo‘yilgan jamiyatda o‘z ehtiyojlarini qondirib, farovon yashashga muyassar bo‘la oladi, ishyoqmas odam esa aksincha, har qanday sharoitda ham hech qachon biri ikki bo‘lmaydi. Bundan tashqari, mehnatsevar inson jamiyat a'zolari tomonidan e'zozlangani barobarida, dangasa odam ijobiy shaxs sifatida qabul qilinmaydi. Mehnatsevarlik tamoyili mehnat jarayonida shaxsning o‘z-o‘zini namoyish etishiga, o‘zligini ro‘yobga chiqarishiga, o‘zgalar bilan munosabatlar o‘rnatishiga imkon yaratuvchi axloqiy fazilatdir. U insondan halollikni, intizomni, ishtiyoq va

intilishni talab etadi, mehnatga nisbatan subyektiv tarzdagi ijobiy munosabatniaqozo qiladi.

Ma'lumki, mehnatdan maqsad ehtiyojni qondirish. Lekin bu ehtiyojni qondirishning qay tarzda, qanday ma'naviy-ruhiy sharoitda amalga oshuvi muhim. Faqat tor manfaatparastlik nuqtai nazaridan mehnat qilish, tinimsiz tirishib-tirmashish, mehnatga pul topish vositasi sifatidagina munosabatda bo‘lish, tabiiyki, kishiga ma'naviy qoniqish, huzur baxsh etmaydi: bunday «tinib tinchimas» odamda xushomadgo‘ylik, torlik, asabiylik, nolish singari holatlar ko‘zga tashlanadi. O‘z kasbini yoki mehnat sohasini sevib mehnat qilgan odam majburiylik emas, ixtiyoriylik asosida ish ko‘radi, mehnatining natijasigina emas, balki mehnat jarayonining o‘zi ham unga quvonch, qoniqish bag‘ishlaydi. Zero, bunday hollarda mehnatsevarlik zamirida o‘z manfaati bilan birgalikda Vatanga, xalqqa, yaqinlariga xizmat qilishdek olijanob maqsadlar yotadi; ana shunday maqsadlar insonni «chumolilik» doirasidan kenglikka va yuksaklikka olib chiqadi. Mehnatsevarlikni tarbiyalab borishda, uni kuchaytirishda raqobat alohida ahamiyatga ega. Zero, raqobat faqat moddiy ustunlikni emas, balki ma'naviy ustunlikni ham taqozo etadi, ya'ni unda moddiylik va ma'naviylik teng ishtirok etadi. Biz o‘tmishda boshdan kechirgan «sotsialistik» deb atalgan tuzum shaxs mehnatini qadrlamaslik, mehnatsevar bilan dangasani tenglashtirish ularga bir xil umumiy haq to‘lash, «hech kimni kamsitmaslik» shiori ostida ish ko‘rish singari mohiyatan inson tabiatiga zid qoidalar va me'yorlarga asoslangan edi. «Sotsialistik musobaqa»ning soxtaligi, insoniyat jamiyatiga singib keta olmaganligiga sabab ana shunda. Zero, shaxs mehnatini qadrlash shaxsning mehnatsevarligini, uning o‘zini qadrlash demakdir. Mustaqilligimiz sharofati bilan mehnat yana erkin shaxsning o‘ziga va atrofdagilarga individual munosabatiga aylandi, mohiyatan «besh qo‘l barobar bo‘lsin» degan tenglashtirish siyosati barham topdi. Mehnatsevarlik esa yangi jamiyatimiz kishisining, jahoniy kenglikka chiqish huquqiga ega bo‘lgan shaxsning sevimli va huzurbaxsh tamoyiliga aylandi.

Tinchlikparvarlik. Bu axloqiy tamoyil ham insoniyat hayotida muhim ahamiyatga ega. Chunonchi, tinchlikparvarlik urushning, qon to‘kishning har qanday ko‘rinishini inkor etadi, oddiy tinchliksevar shaxsning tinchtotuv yashashga bo‘lgan ijobiy munosabati bilangina chegaralanib qolmaydi, balki dushmanlik va tajovuzkorlikka qarshi kurashni, zarba berishni taqozo etadi. Unda tinchlik haqida chiroyli gaplar aytish, yig‘inlarda ma'ruzalar qilish emas, balki faol xatti-harakat, uyushtiruvchilik, tashkilotchilik birinchi darajali zaruriy faoliyat hisoblanadi.

Tinchlikparvarlar fidoyi insonlardir. Ularning ana shu fidoyilarcha xatti-harakatlari pirovard natijada har bir inson hayotiga takrorlanmas noyob qadriyat sifatida qarashga, har bir fuqaro qadrini, har bir davlat suverenitetini, har bir millatning o‘z hayot tarziga monand yashash huquqini muqaddas deb tan olinishiga olib keladi, mamlakatlararo jamoat tartibini saqlashga, avlodlar ravnaqiga, tarixiymadaniy hamkorlikka, millatlar va turli ijtimoiy guruhlar orasida o‘zaro tushunishning qaror topishiga xizmat qiladi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, ba'zi ulug‘ davlatchilik va buyuk millatchilik ruhi hukmron bo‘lgan jamiyatlarda tinchlikparvarlar quvg‘in qilinadilar, turmalarga tashlanadilar. Lekin ular o‘z tamoyillaridan hech qachon qaytmaydilar. Ular insoniyatni barcha bahsli masalalarni tinch yo‘l bilan hal qilishga chaqiradilar, yer yuzida tinchlik o‘rnatish uchun tinimsiz kurash olib boradilar. Shunday tinchlikparvar buyuk siymolardan biri sifatida zamondoshimiz, ulug‘ ingliz faylasufi, Nobel mukofoti sovrindori Bertran Rassel (18121970) shaxsini misol qilib keltirishimiz mumkin. O‘ttiz olti yoshida qirollik Jamiyatiga a'zo bo‘la olgan, har jihatdan jamiyatda obro‘ga ega faylasuf tinchlikparvarlik faoliyati uchun ikki bora (dastlab Birinchi jahon urushi paytida, ikkinchi marta AQShning Vetnamdagi bosqiniga qarshi kurash olib borganida) ingliz ma'muriyati tomonidan turmaga tashlandi. Lekin «insonparvarlik va hurfikrlilik havoriysi» (Rassel Nobel mukofoti bilan birga shunday faxrli nomni ham olgan edi) umrining so‘nggigacha tinchlikparvarlik tamoyilidan chekinmadi.

Jo‘mardlik. Jo‘mardlik tamoyili esa Sharqda qadimdan mavjud. Ovro‘pada uni altruizm nomi bilan Ogyust Kont ilmiy muomalaga kiritgan. U kishidagi o‘z qavmdoshiga achinish hissidan, unga baxt va farovonlik tilash tuyg‘usidan kelib chiqadi, mohiyatan beminnat xayriyaga asoslanadi. O‘z manfaatidan o‘zga manfaatini ustun qo‘yib, «o‘z og‘zidagini o‘zga og‘ziga tutib» yashash jo‘mard insonning hayot tarziga aylanadi. Bu oddiy xayriya emas, balki muhtojlikning har qanday ko‘rinishiga qarshi o‘ziga xos kurashdir. Ammo bu kurash insonparvarlik, vatanparvarlikdagi singari qat'iy jamiyat yoki jamoaning axloqiy me'yoriy talablaridan kelib chiqmaydi, u faqat va faqat xususiylik tabiatiga ega, har bir shaxsning erkin ixtiyori bilan bog‘liq axloqiy tamoyil. Chunonchi, biror kishi tomonidan insonparvarlik yoki vatanparvarlik talablarini bajarmaslik boshqalarda unga nisbatan nafrat hissini uyg‘otadi, jo‘mardlik ko‘rsatmagan odam esa bunday ma'naviy javobgarlikka tortilmaydi. Zero, jo‘mardlik mohiyatan «oddiy odamlik qobig‘idan chiqa bilish», ilohiylik sifatlariga ega bo‘lib borish demakdir, bu esa hammaga ham nasib etavermaydi.

Bundan tashqari, bizning milliy axloqshunosligimizda o‘zbekchilik, mehmondo‘stlik kabi tamoyillar mavjud. Ular millatimizning eng yaxshi an'analariga sadoqat tuyg‘usidan kelib chiqadi va o‘zbek kishisiga xos bag‘ri kenglik, do‘stga, mehmonga borini bag‘ishlashdek xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtiradi.

O‘zbekchilik tamoyilini o‘z hayot tarziga singdirib yuborgan kimsaning nomi el-yurt orasida «baraka topgur» iborasi bilan qo‘shib aytiladi. Qishloq yoki mahalladagi hasharlarda, ma'rakalarda «qamitsdan bel bog‘lab» xizmatda turish, bemor mahalladoshi yostig‘i ustida dalda berishga doim vaqt topa olish, qo‘ni-qo‘shnilariga haqiqiy hamsoya bo‘lib yashash o‘zbekchilikning asosiy unsurlaridir. Yoki mehmondo‘stlikni olaylik. Milliy mintaqaviy an'analarga asoslangan bu tamoyil ma'lum ma'noda o‘zbekchilik bilan singishib ketadi. Masalan, g‘arb kishisi o‘zi taklif qilmagan kishini eshikdan muloyim savol-javob bilan qaytarib yuboradi, axloqiy majburiyatdan o‘zini ozod deb hisoblaydi, o‘zining erkinlik huquqini ustuvor sanaydi. O‘zbek esa, eshikdan kelgan kishini «bir piyola choyga» taklif

etadi, kirsa, juda bo‘lmaganda, oldiga non-choy qo‘yadi, notanish bo‘lsa, tanishadi, hol-ahvol so‘raydi, millatidan qat'i nazar, unga hamdard, ko‘makdosh bo‘lishga intiladi va buni axloqiy majburiyat tarzida emas, bir an'anaviy odat deb izohlaydi. Ayni paytda bu tamoyillarni suiiste'mol qilish ham hozirgi paytda tez-tez uchrab turadi. Uzi qo‘l uchida kun ko‘rib turgani barobarida qarz-qavola bilan katta to‘ylar o‘tkazish, to‘ylardagi isrofgarchiliklar, hatto aza oshlarini ham «kim o‘zarga» tarzida berish, charlar, beshik to‘yi singari marosimlarga dong chiqarish uchun ayamay mablag‘ sarflash, artistlarga qistirishlar, hatto boshidan pul sochishlar singari holatlar shular jumlasidan. Bunda biz fazilatning me'yor buzilishi natijasida illatga aylanganini ko‘ramiz.

Lekin o‘zbekchilik va mehmondo‘stlikni bunday noto‘g‘ri tushunish sho‘rolar davridan kelayotgan sarqit, o‘tkinchilik tabiatiga ega bo‘lgan hodisalardir. Aslida o‘zbekchilik va mehmondo‘stlik tamoyillari xalqimizning o‘ziga xosligini ta'kidlaydi. Jahonning juda ko‘p xalqlari bu tamoyillar egasi bo‘lmish o‘zbek millatiga doimo ehtirom, havas va hayrat bilan qaraydilar.

2. Axloqiy me'yorlar va ularning amaliy ahamiyati Inson hayotida axloqiy me'yorlar ham katta ahamiyatga ega. Ular tamoyillarga nisbatan ancha sodda, umumlashmagan, tor qamrovli. Ularni kundalik hayotimizda ma'lum axloqiy tamoyillarning amalga oshish murvatlari ham deyish mumkin, ular axloqiy talablarning eng oddiy shakli sifatida ro‘yobga chiqadi. Halollik, rostgo‘ylik, insoflilik, xushmuomalalik, boodoblik, kamtarlik singari me'yorlar ayniqsa diqqatga sazovor.

Halollik va rostguylik. Avvalo shuni aytish kerakki, halollikni uning dastlabki tor diniy mazmunida qaysi taom haromu, qaysinisi halol, degan ma'noda tushunmaslik lozim. U allaqachon umuminsoniy dunyoviy ma'no kasb etgan me'yorga aylangan. Halollik, rostgo‘ylik vijdon tushunchasi bilan bog‘liq, insonning o‘zgaga munosabati o‘ziga munosabatidek sof bo‘lishini talab etuvchi me'yorlardir.

O‘nlab me'yorlar orasida bu ikkisiga birinchi bo‘lib to‘xtalishimizning sababi shundaki, mustamlakachilik davrida, ayniqsa, sho‘rolar hukmronlik qilgan chorakam bir asr vaqt mobaynida yolg‘on, aldov, nopoklik, haromxo‘rlik, munofiqyaik singari illatlar xalqimizga shu qadar ustalik bilan singdirildiki, hozirgi paytda ko‘pchilik odamlar halollik va rostgo‘ylik ustidan hatto kuladigan bo‘lib qolganlar. So‘z bilan birligi yo‘qolgan, qog‘ozdagi chiroyli gaplar hayotga to‘g‘ri kelmaydi. Lekin bularning hammasi, afsuski, odatiy holdek qabul qilinadi. Shu bois mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq bu illatlarga qarshi kurash boshlandi. Hozirgi kunda davlatimiz milliy-ma'naviy qadriyatlarni tiklashni, odamlarni halol, insofli, adolatli bo‘lishga chaqirishni o‘z ichki siyosatining muhim qismi deb bilgan holda ish tutmoqda. Zero, ko‘z o‘ngimizda yolg‘on, aldov, ikki yuzlamachilik nimaligini deyarli bilmaydigan jamiyatlar, millatlar gullab yashnamoqda. Yaponiya, Olmoniya, Frantsiya, AQSh, Buyuk Britaniya singari mamlakatlar shular jumlasidan.

Insoflilik. Aflotun haqida gap borganida, uning adolatni davlatga xos fazilat, degan fikrini keltirib o‘tgan edik. Darhaqiqat, adolat mohiyatan davlatning

fuqaroga, jamiyatning shaxsga nisbatan munosabati tarzida namoyon bo‘ladi. Bordiyu, o‘zaro adolatli munosabatlar haqida gap ketsa, unda odatda yuksak martabadagi tarixiy shaxsning quyi martabadagi shaxsga munosabati nazarda tutiladi. Insof esa ana shu adolatning tor qamrovli xususiy ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi. U fuqarolar, jamiyat a'zolari orasidagi o‘zaro munosabatlar me'yoridir.

Insoflilik ham halollik kabi vijdon tushunchasi bilan bog‘liq, ma'lum ma'noda halollikka o‘xshab ketadi. Lekin bu yuzaki taassurot. Chunki halollik o‘z haqi va haqqini, ya'ni moddiy va ma'naviy huquqini o‘zgalarning haqi va haqqiga xiyonat qilmagan holda ajratib yashashni anglatadi. Insoflilik esa ijobiylikda halollikdan ham bir qadam olg‘a tashlangan holatdir: unda kishi o‘z halol haqi va haqqidan o‘zganing hisobiga kechadi; «o‘zga»ning sharoiti o‘zinikidan nihoyatda og‘ir va yomon ekanini hisobga olib, o‘z qonuniy haqni va haqiqatni yoki ularning bir qismini ixtiyoriy ravishda o‘zgaga beradi, muruvvat ko‘rsatadi. Zero, insoflilik va muruvvatlilik axloqiy me'yorlari jamiyat etishtirgan moddiy boyliklarni uning a'zolari o‘rtasida shaxsiy tashabbus asosida, og‘riqsiz, huquqiy holatlarni poymol qilmagan holda qayta taqsimlanishiga, jamiyatning yanada farovonlashuviga o‘ziga xos hissa qo‘shadi.

Xushfe'llilik, shirinsuxanlilik, kamtarinlik, bosiqlik singari axloqiy xatti-harakatlar me'yoriylik nuqtai nazaridan g‘oyat muhim. Chunki har bir jamiyat darajasi ma'lum ma'noda undagi fuqarolar muomala madaniyatining yuksakligi bilan ham belgilanadi. Zero, xushfe'l, shirinsuxan inson o‘zining har bir muvaffaqiyatsizligiga fojea sifatida qaramaydi, alam yoki g‘azab bilan yomon kayfiyatini boshqalarga o‘tkazishga intilmaydi; atrofdagi axloqiy muhitni buzmaydi. Natijada o‘ziga ham, o‘zgalarga ham ko‘tarinki kayfiyat, turli-tuman omadsizliklarning o‘tkinchiligini anglatuvchi hayotbaxsh bir umid bag‘ishlaydi. Jamiyat doimo o‘shanday odamlarni hurmat qiladi va ulardan o‘rnak olishga intiladi. Muhabbat va nafrat, ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, adolat, vijdon, burch, nomus, ideal, insonparvarlik, tinchlikparvarlik, jo‘mardlik, halollik, rostgo‘ylik, xushmuamalalik, kamtarlik.

Test.

1. Axloq kategoriyasi qaysi javobda to’g’ri aks etgan.

Axloqiy bilish va real hayot o’rtasidagi munosabatni in’ikos ettiruvch kategoriylarga aytiladi.

Faqat nazariyaga taluqli.

Axloq kategoriyasi umumlashtiruchilik, mushtaraklik xususiyatiga ega.

Axloq-bu muhabbat

2. Dunyo bilan o‘zaro aloqa qilish tajribasiii umumlashtiruvchi hodisa bu -...

Fikrlash

So‘zlash

Idrok etish

Sezish

3 .Nazariy muomalaga, falsafiy kategoriyalar tizimiga «amaliyot» tushunchasini kim kiritgan?

Fixte
Shelling
Gegel
Kant

4. Falsafada «narsa o‘zida» g‘oyasi kimga tegishli?

Kant
Shelling
Gegel
Fixte

5.Gegel falsafasida man’tiq nechanchi qismda tadqiq etiladi?

1
2
3
4

6. Agnostiklarning eng yirik vakili kim?

Kant
Shelling
Gegel
Fixte

7. Dunyo bilan o‘zaro aloqa qilish tajribasini umumlashtiruvchi hodisa bu -...

Fikrlash
So‘zlash
Idrok etish
Sezish

8. Borliq hodisalari va unda hukm suruvchi munosabatlarning muhim, tipik mazmunini o‘zida aks ettiradigan keng tushuncha bu - ...

Kategoriya
Atama
Xulosa
Tushuncha

9. Borlnqning umumiy, muhim tomonlari, xossalari, aloqalari va munosabatlari haqida fikrlash uchun qo‘llaniladigan o‘ta keng tushunchalar majmui, bu -...

Falsafiy kategoriyalar
Fan kategoriyalari
Umumiy kategoriyalar
Atamalar

10. Falsafiy kategoriyalar va formal man’tiq kategoriyalari o‘rtasida farqning yuzaga kelishiga qaysi faylasufning ijodi ta’sir qilgan?

Aristotel
Spinoza

Gegel
Kant

11. I.Kant kategoriyalarning necha turini farqlaydi va ular qaysilar?

Uch, hissiyot, idrok va aql
Ikki, sezgi va tafakkur
To‘rt, hissiy, ratsional, irratsional va transsendental
Faqat bitta

12.N.A.Berdyayev ijodning xususiyatlariga qanday tushunchalarnn kiritgan?

Elitar, unitar
Aristokratok, demokratik
Demokratik, unitar
Elitar, aristokratik

13.«... - bu nafaqat madaniyat predmetlarini yaratish, balki har qanday inson hayotini tashkillashtirish hamdir». Nima haqida fikr yuritilmoqda?

Ijod
Erkinlik
Adabiyot
Badiiy asar (kitob)

14.«... - barkamollik va yetuklikning hayoliy obrazi, kamolotga yetkazish, uyg‘unlashtirishga bo‘lgan ehtiyojlarning ma’naviy ifodasi». Nima haqida fikr yuritilmoqda?

Reallik
Ideallik
Buyuklik
A, B

15.«... - shaxsning borliq hodisalariga bo‘lgan munosabatini belgilaydigan estetik komillikning o‘ziga xos meyori». Nima haqida fikr yuritilmoqda?

Did
Farosat
Aql
Iroda

16.«... - davlat tomonidan belgilangan va uning majburlov kuchiga tayanadigan xulq-atvor umumiy normalarining majmui». Nima haqida fikr yuritilmoqda?

Prokuratura
Sud
Huquq
Konstitutsiya

17.Insonni faoliyatga undovchi sabablarni ko‘rsating?

Ehtiyojlar
Maqsadlar
Orzular
Hayollar

18.Inson faoliyatini boshqa mavjudotlardan farqlovchi xususiyati nimada?

Aqlga tayanishlik
Onglilik
Maqsadlilik
A, B. V

19.«Amaliyot o‘zgartirilgan tabiat predmetlarini insonning ko‘zgudagi aksiga o‘xshaydi». Ushbu fikr muallifi kim?

Fixte
Kant
Leybnits
Spinoza

20.Entoni Giddens asari qanday nomlanadi?

«Davlat»
«Inson ta’rifi»
«Jamiyat tuzilishi»
«Vavilon»

21.Insonni faoliyatga undovchi sabablarni toping?

Ehtiyojlar
Maqsadlar
Orzular
Hayollar

22.Faoliyatning eng muhim atributlari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

Moddiylik va subyektlilik
Moddiylik va ma’naviylik
Subyektlilik va doimiylik
Cheklilik va muayyanlik

23.«Amaliyot o‘zgartirilgan tabiat predmetlarini insonning ko‘zgudagi aksiga o‘xshaydi». Ushbu fikr muallifi kim?

I.Fixte
G.Leybnits
B.Spinoza
I.Kant

24.Praksiologiya so‘zining lug‘aviy ma’nosi?

Yunoncha, «praktikos» - «faol»
Lotincha, «praktikos» - «faol»
Inglizcha, «praktikos» - «faol»
Fransuzcha, «praktikos» - «faol»

25.Falsafaning inson faoliyatini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘limi nima?

Praksiologiya
Aksiologiya
Epistemologiya

Evtanaziya

26.«... - inson yaratgan narsalar borligi ko‘p jihatdan insonning o‘z borligi bilan bog‘lanadi, zero, u bunyod etgan «...», avvalo, uning turli-tuman ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi», bu nima?

Ikkilamchi tabiat

Tabiat

Narsa-buyum

To‘g‘ri javob yo‘q

Nikoh va oilaning axloqiy asoslari,uning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni. Axloqiy madaniyat va qadriyatlar

Reja:

1. Oila dastlabki axloqiy tarbiya maskani.
2. Fuqarolik jamiyatini va davlatning axloqiy mohiyati.
3. Axloqiy madaniyat va kasbiy odob masalasi.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: oila, nikoh, fuqarolik jamiyati, demokratik davlat, axloqiy madaniyat, etiket, kasbiy odob, muomala odobi.

Insonning hayoti va turmushida, ayniqsa, yosh avlodning kamolot topishida, axloqiy voyaga yetishida oilaning o‘rni va vazifasi beqiyosdir. Prezidentimiz I. A. Karimov ta’kidlaganidek: "Bola tug‘ilgan kunidan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an’analar, qadriyatlar, urf - odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi". Yutboshimiz yana uqtirganidek: "Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, eng qimmatli an’analar: halollik, rostgo‘ylik, or - nomus, sharmu - xayo‘, mehru - oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar eng avvalo oilada shakllangan". Bahs shunday ekan, oila va nikoh nima, ularning mohiyati, maqsadi va ahamiyatini bilish har bir fuqaro, har bir bo‘lajak mutaxassis, yosh avloddan tortib keksa kishilargacha bilishi zarur va muhimdir.

Xo‘sh, oila va nikoh nima? Oila so‘zinivg lug‘aviy ma’nosi haqida har xil nuqtai nazarlar bor. Masalan, Rimliklarda "oila" so‘zi (familia) dastlabki mulk egasiga bo‘ysunadigan shaxslar (bu shaxslar mulkining bir qismi hisoblangan; mulk egasining o‘z bolalari, xotini, asir, sotib olingan yoki meros bo‘lib o‘tgan qullar ham hisobga kirgan) majmuini bildirgan. "Ota" so‘zi ham dastlab hozirgi ma’nodaga otani emas, balki o‘ziga qarashli oilaning xo‘jasi yoki egasi degan so‘zni anglatgan. "Oila"ning lug‘aviy ma’nosi boshqa bir manbaada quyidagicha izohlanadi: "Oila asli arabcha "ayolmand, niyozmand" ma’nolarini anglatuvchi “oil” so‘zidan chiqqanligi "Farxangi zaboni tojikiyda qayd etilgan. "O‘zbek tilining izohli lug‘ati" da ham bu so‘zning arabchaligi ta’kidlanib, "er-xotin, ularning bola - chaqalari va eng yaqin tug‘ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmui, xonadon" ma’nosidagina izohlanadi. Har ikkala izohda ham so‘zdagi ma’no yuki onalik bulog‘idan suv ichgan holda shakllanganligi yetarli ifodalanmagan.

"Oila" so‘zining lug‘aviy ma’nosi uning mohiyatini anglashda va ta’kidlashda muhim negiz bo‘ladi. Adabiyotlarda oilaning turli ta’riflari mavjud. Shundan eng mukammali quyidagidir: Oila - kishilarning tabiiy-biologik (jinsiy munosabatlar, bola tug‘ish), iqtisodiy (mulkiy munosabatlar, uy - ro‘zg‘orni boshqarish), huquqiy (masalan, nikohni davlat yo‘li bilan qayd etish), ma’naviy (er - xotin, ota - ona va bolalar o‘rtasidagi mehr - muhabbat tuyg‘usi va boshqa) munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birligi"1. Professor A. Ortiqovning ma’ruza matnlarida, yosh olima F.Primovannng oila haqida quyidagi yanada mukammalroq ta’rifi keltirilgan: "Oila jamiyatning tarixiy taraqqiyot jarayonida, uning davomiyligini ta’minlovchi tabiiy - biologik, ijtimoiy ehtiyojlarning qonuniyati asosida shakllanib, takomillashgan kishilarning ijtimoiy - iqtisodiy, huquqiy, ma’naviy - axloqiy munosabatlariga asoslangan barqaror ijtimoiy birligidan iborat" 2. Darhaqiqat, oila er - xotin, ularning bola - chaqalari, eng yaqin tug‘ishganlaridan iborat kishilar guruhi, boshqacha aytganda xonadonidir. Chunki oila juftlik qonuni asosida yuzaga keladi, bir erkaknnng o‘zi yoxud bir ayolning o‘zi oila bo‘la olmaydi. Qolaversa, oila faqat er va xotindangina iborat emas. Oila er - xotindan tashqari erning ota - onasi, ya’ni qaynota va qaynonalar, farzandlar, uka va singillardan iborat ko‘p bo‘g‘inli xonadon. Uning har bir a’zosi o‘z mavqeiga ega, shu oilaning ichki intizomiga buysunib yashaydi. Shu ma’noda oila jamiyat ichidagi jamiyatdir. Bu jamiyatning o‘z saltanati bor: Bunda minglab tasodiflar jarayonida er - xotin muhabbati sinovdan o‘tadi, shu sinov jarayonida ular bir - birlarini chuqurroq tushuna boradi, bir - birlarini qadrlashni o‘rniga qo‘yadigan bo‘ladi, bir - birlariga kechirimli bo‘lishadi, er - otaga, xotin-onaga aylanadi, farzandlarni tarbiyalab elga qo‘shadi, orzu - havas ko‘radi. Shu manoda oila inson hayotiga to‘kislik baxsh etadi, jamiyatning muqaddas maskani sifatida sadoqat sarchashmasiga aylanadi. Oila ana shu asoslarga tayangan holda kishilik tafakkuri va ijtimoiy harakatining ulug‘ kashfiyoti bo‘ldi. Demak, oila-jamiyatning asosiy bo‘g‘ini, yacheykasi bo‘lib, unda er - xotinlik, ota - onalik, farzandlarning va tug‘ishganlarning o‘zaro shaxsiy qarindoshlik va mulkiy maqsadlari, manfaatlari va huquqlari bilan bog‘liq munosabatlar mujassamlashgandir. Kishilar uchun muqaddas dargox bo‘lgan oila insonlarning tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va ma’naviy munosabatlari zamirida vujudga keladi. Albatta oila juftlik qonuni asosida yuzaga keladi. Bu jarayonda eng avvalo ikkala jins o‘rtasidagi kelishuv, ya’ni nikoh asosiy rol o‘ynaydi. Chunki oila taqdiri rasmiy - nikohiy tus olishidan boshlanadi, shundagina er - xotin oldida, xotin er oldida, ular ota - ona sifatida farzandlaru qavm - qarindoshlar, mahalla - ko‘y, qisqasi jamiyat oldida, o‘z navbatida farzandlar ham o‘z ota - onalari va el oldida ma’suliyat sezadilar va burchli ekanliklarini his etib yashaydilar.

Xo‘sh, nikoh nima? Nikoh ham arabcha so‘z bo‘lib, "O‘zbek tilining izohli lug‘ati"da: Er - xotinlikni shariat yo‘li bilan rasmiylashtirish marosimi va shu marosimda domulla tomonidan o‘qiladigan shartnoma ma’nosiga ega ekanligi qayd etilgan". Boshqa lug‘atlarda ham nikoh "Er - xotinlikning yuridik (huquqiy) ravishda rasmiylashtirilgan oilaviy ittifoqi, "nikoh ahdi", "er-xotinlik, uylanish" ma’nolarida ishlatilgan.1 Nikoh to‘g‘risida ham turli ta’riflar bor. Shundan eng

ma’quli quyidagi ta’rifdir: "Nikoh ikki jinsdagi shaxslarning oilaviy munosabatlarda ishtirok etish uchun o‘zaro ahdlashuvidir".2 Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FXDYO) bo‘limida to`ziladi va rasmiylashtiriladi. Demak, nikoh - oilaning faqat huquqiy asosi bo‘lib, erkak bilan ayolning bir - biriga va bolalariga, ya’ni bir oilaga mansub kishilarning bir - birlari oldida va jamiyat oldida huquq va majburiyatlarini, axloqiy va huquqiy ma’suliyatini belgilaydigan oilaviy ittifoqidir. Demak, oila nikoh asosida vujudga keladi. Lekin oila va nikoh aynan bir tushunchalar emas. Oila - nikoh va qon-qardoshlik bilan bog‘langan kishilarning tarixan shakllangan ittifoqidir, eng avvalo, er va xotin, ota - onalar bilan bolalar o‘rtasidagi munosabatlardir. Nikoh - oilaning faqat huquqiy asosi bo‘lib, bir oilaga mansub kishilarning, eng avvalo, er va xotinning va farzandlarning bir -birlari oldida huquq va majburiyatlarini, axloqiy va huquqiy ma’suliyatini ifodalaydi.

Oila va nikoh tarixiy hodisa bo‘lib, ular jamiyatning kelib chiqishi va taraqqiyotida azaldan mavjud bo‘lmagan. Oilaning kelib chiqishi hali batamom oydinlashtirilgan emas. Bu to‘g‘rida turlicha nuqtai - nazarlar mavjud. Mutaxassislarning aksariyatining fikricha, oila va nikoh munosabatlarining evolyutsiyasi quyidagicha yuz bergan: Ibtidoiy tuzumning avvalida (ilk va so‘nggi paleolit chegaralarida) umuman oila va nikoh bo‘lmagan, u davrda promiskutet deb nomlangan tartibsiz jinsiy aloqalar odati hukm surgan, ya’ni to‘dadagi har bir ayol barcha erkaklarniki va har bir erkak barcha ayollarniki hisoblangan. Keyin bu aloqalar o‘rnini guruhiy nikoh egallagan. Guruhiy nikohda bir urug‘dagi hamma erkaklar boshqa urug‘ning barcha ayollariga er bo‘lish huquqiga ega bo‘lganlar. So‘ngra esa mazkur jamiyat oilasining asosiy shakli sifatida juft oila paydo bo‘lgan. Juft nikohda esa er - xotin hisoblangan erkak va ayol o‘z urug‘larida yashagan. Bu oila qarindoshlikni ham ota tomonidan (otalik davri), ham ona tomonidan (onalik davri) hisoblab borgan, lekin bu oilalarda hali er - xotin nikohi barqaror, alohida xo‘jalikka ega emas edi. Bu davrda (bronza davri boshlanishi va temir davrida) tabiiy faktor o‘z vazifasini tugalladi, ya’ni jinsiy munosabatlar doirasida qon qardoshlar istisno qilindi, jinsiy munosabatlar faqat bir erkak va bir ayol munosabatlariga aylangan nikohda xotin er bilan yashash uchun uning urug‘iga ko‘chib o‘tgan. Monogam (yakka nikohlik) oila paydo bo‘ldi. Nihoyat individual oila bo‘lib, bu kichik oilada nikoh er -xotinni hamda ularning bolalarini bir - biri bilan mustahkam bog‘laydi. Bu holat xususiy mulkchilik rivojlana boshlab ibtidoiy jamoa tuzumi yemirilayotgan davrga to‘g‘ri keladi.

Oila shakllari nikoh xarakteriga qarab ham bir -biridan farq qiladi: 1) Poligam (ko‘p nikohlik) va monogam (bir nikohlik) oila; 2) hukmronlik kimning qo‘lida bo‘lishiga qarab oila patriarxal (ota yoki aka-ukalarning biri tomonidan boshqariladigan) matriarxal (ona tomonidan boshqariladigan), *3)* demokratik (er - xotinning tengligiga asoslangan) oilaga bo‘linadi. Hozirgi jamiyat oilasi "demokratik" olianing tipik shaklidir.

Mashhur amerikalik faylasuf Jorj SaktaYana (1803-1952) ta’kidlaganidek: "Oila, bu — tabiatning shoh asarlaridan biriga aylandi". Fransuz yozuvchisi V. M. Gyugo (1802-1885): "Oila - jamiyatning duru gavhari", — degan edi. Buyuk tatar

olimi Rizouddin ibn Faxruddin (1848-1917) "Oila" asarida Shunday degan edi: "Millatlar sharafini yuqori martabaga ko‘taradigan narsa millionlar ila sanalmoqda bo‘lgan askarlar-u dunyoda eng buyuk va zo‘r bo‘lgan kemalar emas, balki eng oz e’tibor beradiganimiz, yo bo‘lmasa hech bir zamon e’tibor bermasdan keladiganimiz bo‘lmish oiladir. Oila nizomsiz bo‘lsa, uning yomon oqibati butun millatga ta’sir etar va shu sababdan fazilat yeriga razolat, taraqqiyot o‘rniga tubanlik negiz ko‘rar. Xudoning o‘zi asrasin-ku, agarda bir millatga bunday hol ro‘baru kelsa, u millat kitobining so‘nggi varag‘i ochulg‘usidir"1.

Oila - jamiyat taraqqiyotiga faol ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy hodisadir. Uning eng muhim sotsial vazifalari qatoriga inson zotini davom ettirish, oila a’zolarining turmush maishatini, bo‘sh vaqtini qondirishni uyushtirish kabilar kiradi. "Oila haqida gapirar ekanmiz, — deb ta’kidlagan edi Prezidentimiz I. A. Karimov, oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta’minlaydigan, muqaddas urf - odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga kelajak nasllar qanday inson bo‘lib yetishishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadagan tarbiya o‘chog‘i ekanini tan olishimiz darkor". Xullas, oila - jamiyatning eng kichik yacheykasi va asosiy bo‘g‘inidir. Unda kishilik urug‘ini davom ettirish va uni tarbiyalash vazifalari amalga oshiriladi.

Oilaviy munosabatlar ma’lum huquqiy va axloqiy asoslarga ega. Bu masalalar O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan "Oila kodeksi"da batafsil bayon qilingan bo‘lib, ularning asosiy vazifalari oilani mustahkamlash, oilaviy munosabatlarni o‘zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir - biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a’zolarining mas’ulligi hissi asosida ko‘rishdan, biron bir shaxsning oila masalalariga o‘zboshimchalik aralashishiga yo‘l qo‘ymaslik, oila a’zolari o‘z huquqlariga to‘sqinliksiz amalga oshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta’minlashdan iborat. Oilaviy turmushda ota - onalar quyidagi huquqlarga ega bo‘ladi va bajarilishi ularning burchlari hisoblanadi:

1) bolalarga ism - sharif va familiya qo‘yish;

2) ularning fuqaroligini va millatini belgilash; o‘z bolalariga vakillik qilish, ya’ni ular xali huquqiy muomalaga layoqatsiz ekanlar, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish;

4)o‘z bolalarining istiqomat joylarini belgilash va ularni qonunsiz ushlab turgan shaxslardan talab qilib olish;

5) o‘z bolalarini tarbiyalash, ularga nafaqalar berish va hokazo.

Ota-ona o‘z bolasiga qaramasa, tashlab ketsa, jinoyat yo‘liga o‘tib burchlarini bajarmasa ular otalik, onalik huquqlaridan mahrum etilishi mumkin hamda ular keyinchalik farzandlaridan nafaqa olish huquqlaridan ham mahrum bo‘ladilar. O‘z navbatida, farzandlar ham ota - onalarining oldida o‘z burchlarini bajarishlari shart bo‘lib, bularga mehnat qobiliyatini yo‘qotganda, kasal bo‘lganda, boquvchisiz qolgan ota - onalarga g‘amxo‘rlik qilish va hokazolar kiradi.

Oilaviy munosabatlar axloqiy asoslarga ham ega. Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganidek: "Oila muqararligini ta’minlovchi birinchi omil —

Ona, ahli ayolning pokizaligi, oqilaligi, mehr - muruvvati, sadoqoti va vafodorligidir". Oilaning eng muhim axloqiy asoslariga sevgi - muhabbat, vafodorlik, mehr - oqibatlilik, izzat - hurmatli bo‘lish kabilar kiradi. Oilaning asosiy bosh axloqiy asosini ikki jinsga mansub kishilarning erkak va ayolning sevgi va muhabbati, bir - birini anglagan holda birgalikda yashash va ko‘payish istagining jamiyatni to‘ldirish, ya’ni inson zotini ko‘paytirish, o‘z avlod ajdodini davomiyligini saqlash, eng muhimi, ularni iqtisodiy va ma’naviy - axloqiy jihatdan mukammallashtirish yo‘lida birgalikda qiladigan xatti - harakatlarining jami tashkil etadi. Oilaviy axloq asosini ikki jins o‘rtasidagi sevgi - muhabbat tashkil qiladi.

Ilmiy tadqiqotlarda sevgi - muhabbatning to‘la ma’nodagi ta’riflari yo‘q. Falsafiy qomusda: Sevgi - shaxsning boshqa shaxsga beg‘araz va beqiyos intilishida namoyon bo‘luvchi hissiyotdir, deb ta’riflanadi1. Etikaga oid qo‘llanmalar va lug‘atlarda berilgan ta’riflarga ko‘ra, sevgi - muhabbat kishilarning o‘zaro manfaatdorliga va mayliga asoslangan hissiyoti, ikki jinsdagi yoshning bir -biriga moyil bo‘lishi, bir - birini bir qarashning o‘zida tushuna bilishi, bir-biriga hamisha yon bosishlari, bir - birlarini butun umr bo‘yi ardoqlashlaridir2

Professor A. Ortiqovning ta’kidlashicha, sevgi –muhabbatning uchta: tabiiy (biologik), ijtimoiy va shaxsiy mezonlari bor. Masalan, muhabbatning tabiiy mezoniga sevishganlarning nikoh haqida qonunida belgilangan yoshga yetganligi, ularning yoshidagi yaqinligi, har ikki jinsning sog‘lomligi va hokazolar kiradi. Sevgining ijtimoiy mezoniga sevishganlar ota - onasining ijtimoiy - iqtisodiy, moddiy ahvoli, Chunonchi bo‘lg‘usi kelin-kuyovlar to‘yini qilishga tayyorlik darajasi, ularga maxsus yoki qulay xonalarning mavjudligi, kelin ixtiyoriga mahr belgilashga imkoniyat bor-yo‘qligi, bo‘lg‘usi oilani moddiy jihatdan ta’minlashga tayyor va tayyor emasligi va hokazo masalalar kiradi. Sevgi - muhabbatning shaxsiy mezonlariga sevishganlarning oilaviy munosabatlarga xos dunyoviy va diniy dasturlardan xabardorligi, ularning bir - birlarini har tomonlama yaxshi bilishlari va hokazolar kiradi. Ana shu uch omilga ozmi-ko‘pmi javob beradigan sevgi abadiydir, ularga mos kelmaydigani vaqtinchalik, o‘tkinchidir. Ana shu uch mezonga javob beruvchi yigit va qiz oila qurishga haqlidir.

3) o‘z bolalariga vakillik qilish, ya’ni ular hali huquqiy muomalaga layoqatsiz ekanlar, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish;

4)o‘z bolalarining istiqomat joylarini belgilash va ularni qonunsiz ushlab turgan shaxslardan talab qilib olish;

5) o‘z bolalarini tarbiyalash, ularga nafaqalar berish va hokazo.

Ota-ona o‘z bolasiga qaramasa, tashlab ketsa, jinoyat yo‘liga o‘tib burchlarini bajarmasa ular otalik, onalik huquqlaridan mahrum etilishi mumkin hamda ular keyinchalik farzandlaridan nafaqa olish huquqlaridan ham mahrum bo‘ladilar. O‘z navbatida, farzandlar ham ota - onalarining oldida o‘z burchlarini bajarishlari shart bo‘lib, bularga mehnat qobiliyatini yo‘qotganda, kasal bo‘lganda, boquvchisiz qolgan ota - onalarga g‘amxo‘rlik qilish va hokazolar kiradi.

Oilaviy munosabatlar axloqiy asoslarga ham ega. Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganidek: "Oila muqararligini ta’minlovchi birinchi omil —

Ona, ahli ayolning pokizaligi, oqilaligi, mehr - muruvvati, sadoqoti va vafodorligidir". Oilaning eng muhim axloqiy asoslariga sevgi - muhabbat, vafodorlik, mehr - oqibatlilik, izzat - hurmatli bo‘lish kabilar kiradi. Oilaning asosiy bosh axloqiy asosini ikki jinsga mansub kishilarning erkak va ayolning sevgi va muhabbati, bir - birini anglagan holda birgalikda yashash va ko‘payish istagining jamiyatni to‘ldirish, ya’ni inson zotini ko‘paytirish, o‘z avlod ajdodini davomiyligini saqlash, eng muhimi, ularni iqtisodiy va ma’naviy - axloqiy jihatdan mukammallashtirish yo‘lida birgalikda qiladigan hatti - harakatlarining jami tashkil etadi. Oilaviy axloq asosini ikki jins o‘rtasidagi sevgi - muhabbat tashkil qiladi.

Ilmiy tadqiqotlarda sevgi - muhabbatning to‘la ma’nodagi ta’riflari yo‘q. Falsafiy qomusda: Sevgi - shaxsning boshqa shaxsga beg‘araz va beqiyos intilishida namoyon bo‘luvchi hissiyotdir, deb ta’riflanadi1. Etikaga oid qo‘llanmalar va lug‘atlarda berilgan ta’riflarga ko‘ra, sevgi - muhabbat kishilarning o‘zaro manfaatdorliga va mayliga asoslangan hissiyoti, ikki jinsdagi yoshning bir -biriga moyil bo‘lishi, bir - birini bir qarashning o‘zida tushuna bilishi, bir-biriga hamisha yon bosishlari, bir - birlarini butun umr bo‘yi ardoqlashlaridir.

Professor A. Ortiqovning ta’kidlashicha, sevgi –muhabbatning uchta: tabiiy (biologik), ijtimoiy va shaxsiy mezonlari bor. Masalan, muhabbatning tabiiy mezoniga sevishganlarning nikoh haqida qonunida belgilangan yoshga yetganligi, ularning yoshidagi yaqinligi, har ikki jinsning sog‘lomligi va hokazolar kiradi. Sevgining ijtimoiy mezoniga sevishganlar ota - onasining ijtimoiy - iqtisodiy, moddiy ahvoli, Chunonchi bo‘lg‘usi kelin-kuyovlar to‘yini qilishga tayyorlik darajasi, ularga maxsus yoki qulay xonalarning mavjudligi, kelin ixtiyoriga mahr belgilashga imkoniyat bor-yo‘qligi, bo‘lg‘usi oilani moddiy jihatdan ta’minlashga tayyor va tayyor emasligi va hokazo masalalar kiradi. Sevgi - muhabbatning shaxsiy mezonlariga sevishganlarning oilaviy munosabatlarga xos dunyoviy va diniy dasturlardan xabardorligi, ularning bir - birlarini har tomonlama yaxshi bilishlari va hokazolar kiradi. Ana shu uch omilga ozmi-ko‘pmi javob beradigan sevgi abadiydir, ularga mos kelmaydigani vaqtinchalik, o‘tkinchidir. Ana shu uch mezonga javob beruvchi yigit va qiz oila qurishga haqlidir.

1) o‘z bolalariga vakillik qilish, ya’ni ular xali huquqiy muomalaga layoqatsiz ekanlar, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish;

2) o‘z bolalarining istiqomat joylarini belgilash va ularni qonunsiz ushlab turgan shaxslardan talab qilib olish;

3) o‘z bolalarini tarbiyalash, ularga nafaqalar berish va hokazo.

Ota-ona o‘z bolasiga qaramasa, tashlab ketsa, jinoyat yo‘liga o‘tib burchlarini bajarmasa ular otalik, onalik huquqlaridan mahrum etilishi mumkin hamda ular keyinchalik farzandlaridan nafaqa olish huquqlaridan ham mahrum bo‘ladilar. O‘z navbatida, farzandlar ham ota - onalarining oldida o‘z burchlarini bajarishlari shart bo‘lib, bularga mehnat qobiliyatini yo‘qotganda, kasal bo‘lganda, boquvchisiz qolgan ota - onalarga g‘amxo‘rlik qilish va hokazolar kiradi.

Oilaviy munosabatlar axloqiy asoslarga ham ega. Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganidek: "Oila muqararligini ta’minlovchi birinchi omil —

Ona, ahli ayolning pokizaligi, oqilaligi, mehr - muruvvati, sadoqoti va vafodorligidir". Oilaning eng muhim axloqiy asoslariga sevgi - muhabbat, vafodorlik, mehr - oqibatlilik, izzat - hurmatli bo‘lish kabilar kiradi. Oilaning asosiy bosh axloqiy asosini ikki jinsga mansub kishilarning erkak va ayolning sevgi va muhabbati, bir - birini anglagan holda birgalikda yashash va ko‘payish istagining jamiyatni to‘ldirish, ya’ni inson zotini ko‘paytirish, o‘z avlod ajdodini davomiyligini saqlash, eng muhimi, ularni iqtisodiy va ma’naviy - axloqiy jihatdan mukammallashtirish yo‘lida birgalikda qiladigan xatti - harakatlarining jami tashkil etadi. Oilaviy axloq asosini ikki jins o‘rtasidagi sevgi - muhabbat tashkil qiladi.

Ilmiy tadqiqotlarda sevgi - muhabbatning to‘la ma’nodagi ta’riflari yo‘q. Falsafiy qomusda: Sevgi - shaxsning boshqa shaxsga beg‘araz va beqiyos intilishida namoyon bo‘luvchi hissiyotdir, deb ta’riflanadi. Etikaga oid qo‘llanmalar va lug‘atlarda berilgan ta’riflarga ko‘ra, sevgi - muhabbat kishilarning o‘zaro manfaatdorliga va mayliga asoslangan hissiyoti, ikki jinsdagi yoshning bir -biriga moyil bo‘lishi, bir - birini bir qarashning o‘zida tushuna bilishi, bir-biriga hamisha yon bosishlari, bir - birlarini butun umr bo‘yi ardoqlashlaridir.

Professor A. Ortiqovning ta’kidlashicha, sevgi –muhabbatning uchta: tabiiy (biologik), ijtimoiy va shaxsiy mezonlari bor. Masalan, muhabbatning tabiiy mezoniga sevishganlarning nikoh haqida qonunida belgilangan yoshga yetganligi, ularning yoshidagi yaqinligi, har ikki jinsning sog‘lomligi va hokazolar kiradi. Sevgining ijtimoiy mezoniga sevishganlar ota - onasining ijtimoiy - iqtisodiy, moddiy ahvoli, Chunonchi bo‘lg‘usi kelin-kuyovlar to‘yini qilishga tayyorlik darajasi, ularga maxsus yoki qulay xonalarning mavjudligi, kelin ixtiyoriga mahr belgilashga imkoniyat bor-yo‘qligi, bo‘lg‘usi oilani moddiy jihatdan ta’minlashga tayyor va tayyor emasligi va hokazo masalalar kiradi. Sevgi - muhabbatning shaxsiy mezonlariga sevishganlarning oilaviy munosabatlarga xos dunyoviy va diniy dasturlardan xabardorligi, ularning bir - birlarini har tomonlama yaxshi bilishlari va hokazolar kiradi. Ana shu uch omilga ozmi-ko‘pmi javob beradigan sevgi abadiydir, ularga mos kelmaydigani vaqtinchalik, o‘tkinchidir. Ana shu uch mezonga javob beruvchi yigit va qiz oila qurishga haqlidir. Oilaning axloqiy asosini vafodorlik fazilati tashkil etib, bunday erkak va ayollar har qanday chigal vaziyatda ham do‘stlik rishtalarini uzmaydilar, bir - birlari uchun kerak bo‘lsa jon fido qilishdan ham qaytmaydilar, ular orasida g‘oyat kuchli ma’naviy boylik va sodiqlik, hamkor-u hamnafaslik vujudga keladi.1 Oilaning axloqiy asosini mehr - oqibatli bo‘lish, bir - biriga izzat - hurmat ko‘rsatish ham tashkil etadi. Oilaviy hayotda bunday fazilatlar bo‘lmasa, bunday oila azob va mashaqqat maskaniga aylanadi. Shuning uchun mehr - oqibatli bo‘lish, bir - birlariga izzat - hurmat ko‘rsatish har bir erkak va ayolning hamda farzandlarining muqaddas burchidir.

Insonning, ayniqsa, yosh avlodning axloqiy kamol topishida oilaning o‘rni va roli benihoya katta. Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganidek: "Halollik, rostgo‘ylik, or - nomus, sharmu hayo, mehru oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar eng avvalo oilada shakllanadi". "Oila axloqi va odobi" nomli to‘plam mualliflari X. Uzoqov, E. G‘oziev, L. Oripova oila va axloq masala haqida

keng va teran fikrlar yuritib, jumladan bunday yozganlar: "Oila ijtimoiy - tarixiy xususiyatga va muayyan tuzilishga ega bo‘lgan ijtimoiy guruhning ko‘rinishidir". Ularning fikricha, oila jamiyatning boshlang‘ich hujayrasi, o‘g‘il - qizlarning axloqi, madaniy darajasi, qobiliyati, aql - zakovati, fikr yuritishi, xayollari, muloqati, xulq - atvori, e’tiqodi va ilmiy dunyoqarashi kabilarga yuqori darajada tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lgan nur, ziyo makonidir.

Oilada farzandlar tarbiyasida asosiy o‘rinni ota - ona, undan keyingi o‘rinni o‘rta va oliy maktab, so‘ngra mahalla, yoshlar ishlayotgan jamoa, ommaviy axborot vositalari o‘ynashi lozim. Bu jarayonda har bir oilaning mavqei, iqtisodiy jihatdan ta’minlanganligi, oilaviy sarf - harajatlar, uy xo‘jaligini yuritish, oilaviy urf - odatlar, rasm - rusumlar, qarindoshlar va boshqalar bilan bordi-keldi munosabatlari, farzandlar tarbiyasi haqidagi Sharq mutafakkirlari, o‘zbek ma’rifatparvarlari o‘gitlari va ta’limotlarini o‘qish hamda ularni hayotda qo‘llash, o‘quv va mehnat jamoalari, madaniyat va san’at muassasalari, gazeta, jurnal, radio, televideniya va hokazo kasblar katta rol o‘ynaydi.

Mustaqil O‘zbekiston taraqqiyoti va bozor iqtisodiyoti sharoitida oilani mustahkamlash hamda takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Chunki, birinchidan, O‘zbekiston aholisining deyarli yarmi maktabgacha va maktab yoshidagi bolalardir. Ikkinchidan, sog‘lom avlod o‘stirish kelajagimiz garovidir. Uchinchidan, bu muqaddas zaminda yashayotgan har qaysi inson o‘z farzandining baxtu - saodati, fazlu - kamolini ko‘rish uchun butun hayoti davomida kurashadi, mehnat qiladi, o‘zini ayamaydi. Sharqda qadim - qadimdan oila muqaddas Vatan sanalgan. Agar oila sog‘lom va mustahkam bo‘lsa, mahallada tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Binobarin, mahalla, yurt mustahkam bo‘lsagina davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. To‘rtinchidan, Respublikamizda 3,5 milliondan ziyodroq oila bor. Har yili 200 mingdan ortiq oila tashkil topayapti; 700 ming go‘dak dunyoga kelyapti. Shu boisdan mustaqilligimizning yuksalishi va bozor iqtisodiyotini shakllantirish davrida oilani mustahkamlash va takomillashtirishga alohida e’tibor berishmoqda. Mustaqillik munosabati bilan O‘zbeklarning oilaviy hayotida ta’qiq ostida bo‘lgan ba’zi xususiyatlarni tiklash masalasi hozir hal qilinmoqda. Jumladan, hovli-joylarni qurishda milliy xususiyatlar hisobga olinib, ichki va tashqi hovlilardan iborat qilinmoqda. Xuddi shuningdek, "Sog‘lom avlod uchun" ordenining ta’sis etilishi, oilalarni ijtimoiy himoyalashning kuchaytirilganligi, onalik va bolalik to‘g‘risida alohida g‘amxo‘rlik qilinayotganligi, 1998-yilni oila yili, 1999-yilni ayollar yili deb e’lon qilinishi, O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasining tashkil topishi va uning faoliyatining kengayib borayotganligi, O‘zbekiston Respublikasida bolalar jamg‘armasining tashkil etilishi, "Oila" Respublika ilmiy amaliy markazining ishlay boshlaganligi va hokazolar fikrimizning dalilidir. Bularning hammasi Prezidentimiz I.A.Karimovning "Xotin qizlarga munosabat jamiyatimizning ma’naviy, axloqiy yetukligining o‘lchovi bo‘lib xizmat qilishi kerak" degan ko‘rsatmalari amalga oshiralayotganligining ifodasidir.

Fuqarolik jamiyati deganda - mamlakatning har bir fuqarosiga iqtisodiy va siyosiy turmushini o‘z ixtiyori asosida qurishga to‘la erkinlikni kafolatlovchi ma'lum ijtimoiy tizim nazarda tutiladi.

Fuqarolik jamiyatida davlat faoliyati yuzasidan fuqarolarning nazorati o‘rnatiladi, davlatning ko‘pgina funksiyalari fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlariga o‘tadi.

Fuqarolik jamiyati insoniyat sivilizasiyasining mahsuli hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyati mavjudligining muhim belgilari quyidagilardan iborat:

- ko‘ppartiyaviylik tizimining mavjudligi;
- jamiyat hayotida ommaviy axborot vositalari mavqeining balandligi;
- o‘zini o‘zi boshqarish organlari vakolatlarining kengligi
- siyosiy va mafkuraviy fikrlar xilma-xilligiga shart-sharoitning yaratilganligi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda erkin fuqarolik jamiyatini qurish bo‘yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. Erkin fuqarolik jamiyati qonun ustuvor, ijtimoiy adolat hukmron bo‘lgan, insonning huquq va erkinliklari oliy o‘ringa ko‘tarilgan jamiyatdir.

Respublika Prezidenti Islom Karimovning "O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li", "O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari", "O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" risolalarida erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘llari va bu sohadagi vazifalar ilmiy jihatdan asoslangan.

Biz qurayotgan erkin fuqarolik jamiyatining mazmun mohiyati Prezident I.Karimov tomonidan shunday ta'riflanadi: "Biz uchun fuqarolik jamiyati - ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo‘lib, u insonning o‘z-o‘zini kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to‘la darajada ro‘yobga chiqishiga ko‘maklashadi".

Davlat va fuqarolik jamiyatidagi axloqiy yuksaklik darajasini uning fuqarolari axloqiy madaniyati belgilaydi. Axloqiy madaniyat shaxsning jamiyat axloqiy tajribalarini egallashi va bu tajribalardan boshqa odamlar bilan bo`lgan munosabatlarida foydalanishi, o`z-o`zini muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni o`z ichiga oladi. Qisqasi, u shaxs axloqiy taraqqiyotining belgisi hisoblanadi. Zero, axloqiy madaniyat axloqiy tafakkur madaniyatining qator unsurlarini o`z ichiga olgan tuzilmadir. U shaxsning o`zgalar bilan o`zaro munosabatlarida namoyon bo`ladi.

Axloqiy madaniyatning eng muhim unsurlaridan biri - muomala odobi. U, mohiyatan, o`zaro hamkorlikning shakllaridan biri. Inson zoti bir-biri bilan hamkorlik qilmasdan, o`zaro tajriba almashmasdan, bir-biriga ta’sir ko`rsatmasdan rasmana yashashi mumkin emas. Muomala odam uchun ehtiyoj, zarurat, sog`lom kishi usiz ruhan qiynaladi, kayfiyati tushib boradi. Bu o`rinda buyuk ingliz yozuvchisi Daniel Defo qalamiga mansub mashhur «Robinzon Kruzoning sarguzashtlari» asarini eslashning o`ziyoq kifoya: Jumaboyni topib olgan Robinzonning naqadar quvonishiga ham sabab ana shunda.

Muomala odobi boshqa kishilar qadr-qimmatini, izzatini joyiga qo`yishni, an'anaviy axloqiy-me'yoriy talablarni bajarishni taqozo etadi. Shuning barobarida, u insondagi yaxshi jihatlarni namoyon etishi, ko`zga ko`rsatishi bilan ham ajralib turadi. Uning eng yorqin, eng sermazmun va eng ifodali namoyon bo`lishi so`z, nutq vositasida ro`y beradi. So`zlash va tinglay bilish, suhbatlashish madaniyati muomalaning muhim jihatlarini tashkil etadi. Shu bois muomala odobi o`zini, eng avvalo, shirinsuxanlilik, kamsuqumlik, bosiqlik, xushfe'llilik singari axloqiy me'yorlarda namoyon qiladi.

Darhaqiqat, muomala odobida muloqotning asosiy bo`lmish til katta ahamiyatga ega. zero odamlar bir-birlarini til orqali tushunadilar. Til vositasida o`z fikrini o`zgaga yetkazish ma'lum ma'noda san'at. Zarur so`zni topishi, muayyan holatga mos keladigan ifodaviy vositalarni qo`llash, fikrni jumlaviy jihatdan to`g`ri ifodalash, aniq, bosiq, salobat bilan so`zlash hamsuhbatingiz yoki tinglovchining diqqatini tortishda muhim rol o`ynaydi, so`zlovchining nutq madaniyati darajasini ko`taradi. Muomala odobida tilning sofligi masalasi ham muhim. Til sofligi bo`zilishining asosan uch xil ko`rinishi mavjud. Birinchisi - bir tilda so`zlashayotib ikkinchi tilga o`tib ketish, to`g`rirog`i birvarakay «ikki tilda» so`zlashish. Bunga ikki talabaning so`zlashayotganda o`zbek tilidan rus tiliga, rus tilidan o`zbekchaga muntazam o`tib turishini misol qilib keltirish mumkin. Bu ba'zilari uchun odatiy hol bo`lib qolgan. Ikkinchisi - bir tilda so`zlashayotib ikkinchi tildagi so`zlarni ayniqsa jargonlarni ishlatish. Masalan, «damingni ol», «karoche», «quri», «harip», «voobshim» v.h. Til sofligining uchinchi buzilishi esa bir tilda so`zlashgan holda o`sha tildagi «parazit» so`zlarni qo`llashda ko`rinadi. M., «anaqa» «holiginday» v.h. Muomaladagi bunday til sofligining buzilishlari hamsuhbatlarga bilinmasa ham, chetdan kuzatgan odamga nihoyatda xunuk ko`rinadi.

Muomaga odobiga «siz» va «sen»ning o`z o`rnida qo`llanilishi ham ahamiyatga ega. Xususan, uchinchi shaxs ota-ona, aka-opa yoki boshqa yoshi katta odamlar bo`lganida ularga nisban birlikdagi u olmoshini emas, hurmatni anglatuvchi «ular» yoki «u kishi» shaklini qo`llash odobdan hisoblanadi. Masalan, «Otam shunday dedi» emas, «Otam shunday dedilar», «U kishi shuni hohlayaptilar» v.h.

Suhbat paytida tinimsiz harakatda bo`lib turish, qo`lni paxsa qilib gapirish yoki suhbatdoshining yoshini nazarga olmay, uni oyoqni chalkashtirib o`tirgan holda tinglash, birov jon kuydirib so`zlayotganda esnash va boshqa shunga o`xshash holatlar ham muomaladagi odobsizlikni bildiradi.

Muomala odobining yana bir «ko`zgusi», bu - insoniy qarash, nigoh, so`zsiz - noverbal harakatlar. Ma'lumki, odamning qarashida, yuz ifodasida, qo`l harakatlarida uning qay sabablardandir tilga chiqmagan, so`zga aylanmagan hissiyoti, talablari o`z aksini topadi., suhbatdoshining gapini oxirigacha eshitmay, qo`l siltab ketish muomaladagi madaniyatsizlikni anglatadi. Ba'zan qarab qo`yishning o`zi so`zdan ham kuchliroq ta'sir ko`rsatadi. Deylik, bir quruvchi usta o`z shogirdining xatti-harakatlaridan noroziligini bildirish uchun bosh chayqab, jilmayib qo`yishi mumkin. Ikkinchi usta esa, bir lahza o`qrayib qarash bilan munosabatini ifodalaydi. Birinchi usta yuz ifodasi va xatti-harakati bilan: «Obbo

shovvoz-ey, sal shoshilibsan-da, ha, mayli, zarari yo`q, shunaqasi ham bo`ladi», degan ma'noni anglatsa, ikkinchi ustaning qarashidan: «Yana ishni rasvo qilibsan-ku, padarla'nat, qachon odam bo`lasan?!», degan so`zlarni o'qish mumkin. Shubhasiz, birinchi usta muomalada odobga rioya qilgan bo`lsa, ikkinchisi uning aksi - shogirdining emas, o`zining odobsizligini ko`rsatmoqda.

Umuman olganda, muomala odobi kishilarning nasihat qilmasdan va odob o`rgatmasdan bir-biriga ta'siri, tarbiya va o`z-o`zini tarbiya vositasi sifatida diqqatga sazovor. Shu sababli yoshlarimizda muomala odobini shakllantirish hozirgi kunda jamiyatimiz oldida turgan muhim vazifalardan. Bunda ota-onaning, mahalla-ko`yning ta'siri katta. Undan foydalana bilish kerak. Zero, axloqiy komillikka erishish muomala odobini egallashdan boshlanadi.

Axloqiy madaniyatda yaqqol ko`zga tashlanadigan munosabatlar ko`rinishidan biri, bu - etiket. U ko`proq insonning tashqi madaniyatini, o`zaro munosabatlardagi o`zini tutish qonun-qoidalarining bajarilishini boshqaradi. Agar muomala odobida inson o`z munosabatlariga ijodiy yondashsa, ya'ni bir holatda bir necha xil muomala qilish imkoniga ega bo`lsa, etiket muayyan holat uchun faqat bir xil qoidalashtirib qo`yilgan xatti-harakatni taqozo etadi.

Etiketning qamrovi keng, u, ma'lum ma'noda, xalqaro miqyosda qabul qilingan muomala qonun-qoidalarini o`z ichiga oladi. Masalan, siyosiy arbob etiketi, mehmondorchilik etiketi va h.k. Etiketga rioya qilishning mumtoz namunasini biz tez-tez televizor ekrani orqali ko`rib turamiz. Bu jarayon ayniqsa, davlat rahbarlariga xorijiy mamlakatlar elchilarining ishonch yorliqlarini topshirish marosimlarida yaqqol ko`zga tashlanadi. Unda faqat bir xil holat, xalqaro miqyosda o`rnatilgan qoida hukmron. Uni Prezidentning ham, elchilarning ham buzishga haqqi yo`q. Yoki juda oddiy, kichkina bir misol: dasturxonda tanovul payti, pichoqni o`ng qo`lda ushlash zamonaviy mehmondorchilik etiketining qat'iy qoidalaridan biri sanaladi - uni buzish atrofdagilarda hayrat va istehzo uyg`otadi. Shu bois etiketni odat tusiga aylantirilgan, qat'iylashtirilgan muomala odobi deyish ham mumkin.

Etiketning bunday zamonaviy ko`rinishlari bilan birga, shunday milliy-an'anaviy shakllari ham borki, ularsiz millat madaniy hayotining tasavvur qilish qiyin. Masalan, salomlashish odobini olib ko`raylik. Etiketning bu turiga ko`ra, ko`chadan o`tib ketayotgan odam, ko`cha bo`yida o`tirganlar yoki turganlarga salom berishi kerak, salom berganda o`ng qo`l chap ko`krakda, yurakning ustida turishi, bosh esa yengil ta'zimga egilishi lozim. Ko`rishish etiketida esa qo`lning uchini berib salomlashish ko`rishayotgan odamga nisbatan ginaxonlik, xafagarchilikni bildiradi - odobdan emas. Ko`rishganda yosh yoki martaba nuqtai nazaridan katta kishi birinchi bo`lib qo`l uzatishi lozim; ayollar bilan ko`rishganda ham erkak kishi tomondan shunday etiket qoidasi bajarilmog`i talab qilinadi.

Milliy mentalitetda marosimlar etiketi, ayniqsa katta ahamiyatga ega. To`y marosimida, xususan, qiz bilan ota-onaning xayrlashuvi, nikoh kechasiga kirib kelishda kuyovning kelinni chap tomonda tutib, to`yxonaga boshlab kirishi v.h. etiket qonun-qoidalari to`liq bajarilishi lozim. Yoki aza marosimida fotihaga kelgan odamlarni milliy to`n va do`ppi kiygan, belbog` bog`lagan holda, qo`l

qovishtirib, boshni bir bu quyi tutgan tarzda kutib olish qat'iy qoidaga asoslanadi. Bular, bir qarashda, etiketning milliy yoki kasbiy udum, odat, rasm-rusmlardan farqi yo`q ekan, degan taasurot qoldirishi mumkin. Bu yuzaki, yolg`on taassurot. Chunki udum, odat, rasm-rusmlar muayyan darajada erkinlikka ega, ba'zan ularni bajarmaslik ham mumkin. Lekin etiketda buning imkoni yo`q – etiket qonun-qoidalari majburiylik tabiatiga ega.

Etiketning yana bir alohida jihati bor: unda odob bilan go`zallikning uyg`unligini ko`rishimiz mumkin, qat'iy odob qonun-qoidalari chiroyli xatti-harakatlar vositasida amalga oshiriladi. Demak, etiket estetika bilan ham bog`liq, aniqrog`i, o`zni tutish estetikasi talablariga javob beradi.

Shunday qilib, etiket - takallufning mayda-chuyda jihatlarigacha ishlab chiqilgan odob qoidalari sifatida ijobiy, kishining ko`zini quvontiradigan muomala hodisasi. Lekin, ayni paytda, u asl axloqiy asosini yo`qotgan majburiy mulozamat tarzida ham namoyon bo`ladi: etiket qoidalarini bajarayotgan kishi aslida o`z xohish-ixtiyoriga qarshi ish ko`rayotgan bo`lishi ham mumkin. Bu jihatdan u munofiqlikning bir ko`rinishiga aylanadi. Masalan, siz biror yoqqa shoshilib, darvozadan chiqdingiz, deylik. Ro`parangizda tanishingiz yoki qo`shningiz uchraydi. Siz ko`rishib, hol-ahvol so`rashib, so`ng sharqona etiketga rioya qilib uni: «Qani uyga kiramiz, choy qilamiz, bir hangomalashamiz», deb ichkariga taklif qilasiz. Lekin, aslida, siz uning uyga kirishini aslo istamaysiz, vaqtingiz yo`q, hatto, shu uchrashganda ketgan vaqtingizni o`ylab, pitirlab turibsiz. Demak, siz o`z istagingizga qarshi, etiket-mulozamat yuzasidan yolg`on gaplarni aytasiz, xunuk eshitilsa ham na chora - munofiqlik qilasiz. Shunga qaramay, umuman olganda, etiket shaxsni muayyan tartib-qoidaga, qanday ichki ruhiy sharoitda bo`lmasin, bosiqlikka, muloyimlikka va sabr-toqatga o`rgatishi bilan ahamiyatlidir.

Axloqiy madaniyat kasbiy odobda ham yaqqol ko`zga tashlanadi. Chunki inson voyaga yetib, bir kasbning boshini tutgach, o`z kasbi doirasida odamlar bilan muntazam munosabatda bo`ladi. Bu munosabat, bir tomondan, hamkasabalar davrasida ro`y bersa, ikkinchi jihatdan, u kasb talabiga binoan uchrashadigan turli toifadagi odamlar bilan yuzaga keladi. Ayni paytda, kasbiy odob axloqiy madaniyatning eng yuksak shakllaridan biri; uning jamiyat axloqiy hayotidagi o`rni yuksak. Shu bois kasbiy odobga bafurja to`xtalish joiz.

Har bir jamiyatda muayyan guruhlar borki, egallagan kasblari ularni boshqa jamiyatdoshlariga nisbatan imtiyozli darajaga olib chiqadi. Ko`pchilik jamiyat a'zolarining hayot-mamotlari, sog`ligi, ma'naviy sog`lomligi, huquqiy himoyasi, ilmiy salohiyatining namoyon bo`lishi kabi omillar o`shanday imtiyozli kasb egalarining o`z kasbiy burch mas'uliyatini qay darajada his etishlariga, halollik va vijdon yuzasidan ish ko`rishlariga bog`liqligi hammaga ma'lum. Chunonchi, tabobat xodimini, jarrohni olaylik. Deylik, u har bir operasiya kunida bir necha kishini hayotga qaytaradi; yuzlab odamlar uning yordamiga muhtoj, unga umid va ishonch, ilinj bilan qaraydilar. Bordi-yu, shaxsiy manfaat yo`lida jarroh o`z bemoriga xiyonat qilsa-chi, ya'ni, uni qasddan halok etsa-chi? Kim uni shunday qilmasligini kafolatlaydi? Yoki jurnalistni olaylik. U shaxsiy manfaati yo`lida, kasbining kamyobligidan foydalanib, begunoh kishilarni ma'naviy azobga

qo`yishi, atayin jamiyat oldida sharmanda qilishi va shuning hisobiga o`zining ba'zi bir muammolarini hal qilib olishi mumkin emasmi? Mumkin. Zero, to haqiqat yuzaga chiqquncha nohaq tanqidga uchragan shaxsning adoi tamom bo`lishi hech gap emas. Xo`sh, jurnalistning shunday qilmasligini kim kafolatlaydik. Shu bois boshqalarning qo`lidan kelmaydigan ishlarni bajara oladiganlar faoliyatida o`zboshimchalik, manfaatparastlik, xudbinlik va kasbni suiiste'mol qilish singari illatlarga yo`l qo`ymaslik uchun, shuningdek, ular axloqiy darajasini yuksak bosqichda turishini ta'minlash maqsadida ko`p hollarda o`zaro qoidalar majmui yaratilgan. Bu qoidalar majmui, odatda, qasamyod yoki me'yorlar ko`rinishini olgan. Uni buzish o`ta odobsizlik va axloqsizlik, hatto jamiyatga xiyonat tarzida baholanadi. Bunday qasamyodlar juda uzoq tarixga ega. Misol tariqasida hozirgi kunda ham o`z ahamiyatini yo`qotmagan Qadimgi Yunon hakimi Hippokrat (milodgacha V-IV asrlar) tomonidan qisqa va lo`nda shaklda tuzilgan, tabobat xodimlari kasbiy odobi qonun-qoidalari jamlangan mashhur «Hippokrat qasami»ni keltirish mumkin.

Tarixda o`z dushmanini davolagan tabiblar ham ko`p uchraydi. Chunonchi, qadimgi hind eposi «Ramayana»da (II asr) behush yotgan Lakshman boshida turgan devlar shohining xos tabibi kechinmalari shu jihatdan muhim. Tabib oldida ikki yo`l bor edi: biri - saltanat dushmanini muhtoj bemor sifatida davolash, ikkinchi yo`l davolashdan bosh tortish bilan uni o`limga mahkum etish. Tabib uzoq mulohazadan so`ng tabiblik odobi qoidalariga bo`ysunishni - Lakshmanni davolashni afzal ko`radi. Zero, kasbiy odob qonun-qoidalari talabiga ko`ra, bemor to`shagi ustidagi tabib uchun do`st yoki dushman degan tushunchalar o`z ma'nosini yo`qotadi, uning qoshida faqat tibbiy yordamga intizor, shafqatga muhtoj, zaif inson yotadi. Davolanib hayotga qaytgan Lakshman devlar mamlakatining tengsiz buyuk jangchisi va saltanat valiahdi Indirjidni jangda halok etadi hamda tabib fuqaro bo`lgan Lanka davlatining tanazzuliga yo`l ochadi. Lekin, kitobxon tabibni xiyonatkor yoki sotqin demaydi, aksincha, uning ma'naviy jasoratiga, halolligiga, kasbiy burchiga sodiqligiga hayrat bilan tasannolar o`qiydi.

Yoki mashhur rus olimi akademik Andrey Saharovning taqdirini olaylik. Buyuk nazariyotchi, fizik, termoyadro sohasida tengi yo`q mutaxassis, vodorod bombasining asosiy kashfiyotchisi, Vatan mudofaasini mustahkamlashdagi xizmatlari uchun o`nlab orden va medallar sohibi, ikki marta Sosialistik Mehnat qahramoni, obro`li, badavlat bu insonga nima yetishmasdi? Nega u hammasidan kechishga - ommaviy qirg`in qurollari, jumladan, o`zi yaratgan vodorod bombasi sinovlariga ochiq bayonotlar bilan qarshi chiqishga ahd qildi? Natijada qatag`onlarga asoslangan sho`rolar tuzumi uni ilmiy jamoatchilikdan ajratib, poytaxtdan olisdagi Rossiya shaharlaridan biriga badarg`a qildi, uning nomini matbuotda yoki kitoblarda qayd etilishini taqiqladi. Vaholanki, u hammadan izzatliroq yashay olishi mumkin edi. Saharov yuksak axloq yo`lini tanladi - olimlik burchi, odobi talablarini bajarishni har qanday boylik, izzat-ikromdan baland qo`ydi. Buyuk olim o`z kashfiyoti insonning eng oliy huquqi bo`lmish - yashash huquqiga rahna solishi mumkinligi va qisman solayotgani uchun uni amalda qo`llanilishiga qarshi kurashdi. U sho`rolar hukumati va mafkurachilari tomonidan

o`zining Vatan mudofaasi quvvatini susaytirishga harakat qilgan salkam xiyonatkor fuqaro deb e'lon etilishiga, boshiga behisob tuhmatlar, ta'na-dashnomlar yog`dirilishiga sabot bilan chidadi, ahdidan qaytmadi, yovuzlik saltanati qo`lida o`z olimlik iste'dodining qo`g`irchoq bo`lishiga, harbiy murvatga aylanishiga yo`l qo`ymadi. Oxir-oqibatda u inson huquqlarining jahon tan olgan eng buyuk himoyachilaridan biri sifatida butun insoniyat tahsiniga sazovor bo`ldi. Bunday misollarni ko`plab keltirish mumkin. Bulardan tashqari, muallimlik odobi, huquq-tartibot xodimlari odobi, muhandis odobi singari birqancha kasbiy odob turlari borki, ular ham jamiyatda axloqiy munosabatlar silsilasida muhim ahamiyatga ega. Shuni aytish kerakki, barcha kasbiy odob qonun-qoidalarining ta'sir doirasi, miqyosi bir xil emas. Ba'zi bir kasbiy odobning buzilishi oddiy odobsizlik doirasidan chiqib, axloqsizlikka aylanib ketadi. Masalan, rahbarlik odobidagi ba'zi nuqtalarga to`xtalaylik. Rahbar quyi lavozimdagilarga mensimay, qo`pol munosabatda bo`lishi, o`ziga ishonib topshirilgan hudud yoki tashkilotdagi oddiy odamlar arz-dodiga, orzu-istaklariga to`ralarcha qarashi odobsizlikka kirsa, uning shaxsiy boylik orttirishi yo`lida korrupsiya vositasida mamlakat, viloyat yoki tashkilot manfaatlarini qurbon qilishi axloqsizlik, nafaqat rahbarlik kasbiga, balki Vatanga ham xiyonat tarzida baholanishi mumkin. Ba'zan kasbiy odobning kasbiy axloq deb atalishi ham ana shundan.

Rahbarlikning axloqiy jihatlari, rahbar borasida Islom Karimovning mana bu fikrlari bag`oyat ibratlidir: «Oddiy odamlarning rahbarlarga munosabati ikki fuqaro o`rtasidagi munosabatgina emas. Ayni paytda u jamiyatda qaror topadigan ma'naviy-ruhiy, siyosiy-axloqiy muhitni ham yaratadi… Haqiqiy rahbar odamlarning ko`ngliga yo`l topib, ularni ezgulikka, yaxshilikka, yaratishga da'vat etadi».

Yuqorida keltirilganlardan ko`rinib turibdiki, kasbiy odob muammosi, ba'zilar o`ylaganidek, Axloq falsafasining mayda masalalaridan emas. Uni har tomonlama o`rganish, kasbiy erkinlik va kasbiy burch munosabatini tadqiq etish XXI asr axloqshunosligida muhim o`rin egallajak. Zero, kasbiy odob shaxs va jamiyat axloqiy hayotida o`zini amaliy axloq tarzida namoyon etuvchi ma'naviy hodisa sifatida baholanishi lozim.

Axloqiy madaniyat shaxsning jamiyat axloqiy tajribalarini boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabatlarida foydalanishi, o‘zini takomillashtirib borishi singari jihatlarni o‘z ichiga oladi.Muomala odobi.Axloqiy madaniyatning eng muhim unsurlaridan biri muomala odobi.Muomala odobi, boshqa kishilar qadr qimmatini izzatini joyiga qo‘yishni an'anaviy me'yoriy talablarni bajarishni taqozo etadi.

Etiket ko‘proq insonning tashqi madaniyatini o‘zaro munosabatlardagi o‘zini tutish qonun qoidalarini bajarilishini boshqaradi.

Kishilik jamiyati tarixiga nazar solinsa, qadim ajdodlarimiz urug‘ bo‘lib, qabila bo‘lib, keyinchalik jamoaga aylanib uyusha boshlagan.Jamoatchilik holatida yashashning yozilmagan, lekin rioya qilinishi qat'iylasha borgan o‘z-o‘zini tarbiyalovchi, boshqaruvchi hayotiy nizomga zaruriyat seza borgan. Va uni ibtidoiy e'tiqodlar animizm, totemizm, fetishizm va keyinroq qaror topa borgan

xilma xil diniy aqidalar zamirida shakllangan amaliy tajriba jarayonida ishlab chiqilgan.

Hozir jamiyat turli tuman qonun va har bir davlatning o‘z milliy Konstitutsiyasi bilan boshqarilsa, urug‘chilik, qabilachilik zamonlarida yashagan ajdodlarimiz ana shu qonunchilik asosini o‘z hayotiy tajribalarida sinalgan axloqiy huquqiy qadriyatlarini so‘z magiyasiga yo‘g‘irib irim shaklidagi har xil taqiqlarni keyinchalik diniy e’tiqodning kuchayishi ta’sirida uvol deyilguvchi taqiqlarni yaratganlar va ularga amal qilib yashaganlar.

Axloqiy qadriyatlar va ularning xususiyatlari.

Axloq—inson ma’naviy kamoloti sarchashmalaridan biri bo‘lib,u jamiyat ravnaq topishi, fuqarolarning ma’naviy yuksalishida ularning axloqiy orzu-umidlarini ro‘yobga chiqaradi.Axloq o‘zining paydo bo‘lish tabiatiga ko‘ra ijtimoiy-tarixiy hodisa hisoblanadi.Odamzot ijtimoiy mavjudot sifatida shakllana boshlagan davrdan axloq va axloqiy munosabatlar ham paydo bo‘la boshlagan. **Axloq ijtimoiy voqelik bo‘lib, u inson va jamiyat hayotida tartibga soluvchi, boshqaruvchi va yo‘naltiruvchi kuch hisoblanadi.Shu bois muayyan bir davr,tuzum, jamiyat, va hatto davlat boshqaruvchi ma’lum bir axloqiy me’yorlarga asoslanadi**.

Axloq tarixiy, ijtimoiy, milliy va umumbashariy xususiyatlarga ega bo‘lib, uni tadqiq etishda tizimli yondashuvni taqozo etadi.Har bir xalq millat va ellatlar tomonidan axloq masalasini o‘rganishga jiddiy yondashib,bir qator diniy va dunyoviy ta’limotlar yaratilgan.Bu borada mutafakkirlar Axloqshunoslik-Etika ilmi va uning mezoniy tushunchalari tahliliga doir bir qator nazariyalarni ilgari surganlar.

Ma’lumki, “Etika” iborasi qadimgi yunon mutafakkiri Arastu tomonidan ilk marta ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib,” ethos” (etos) so‘zidan “Etika” (axloq va axloqiylik) degan tushunchalarni keltirib chiqaradi. Arastu “Axloqiylik”ni inson qalbining takomillashgan sifatlari xotirjamlik, vazminlik,bosiqlik, mardlik, jasurlik, mo‘tadillik, va hokazolarni ifodalovchi tushuncha deb bilgan.Shu asosda u etikani yaxshi fazilatlarga ega bo‘lgan yoki ularning yaxshi sifatlarini o‘rganuvchi ilm deb tushungan.Shuningdek, mutafakkir o‘zining qator asarlarida etika tushunchasining ilmiy falsafiy asoslarini ishlab chiqib,uni insonlar o‘rtasidagi oqilona munosabat jarayonlarini hamda ijtimoiy mavjudotning axloqini o‘rganuvchi fan deb ataydi.

Qadimgi Rim faylasufi Sitseron “axloq” so‘ziga “axloqiy sifat” qo‘shimchasini qo‘shib, yangi iborani muomalaga kiritgan.

Bizning muloqot madaniyatimizda, so‘zlashuv odobimizda, ilmiy va badiiy adabiyotlarimizda uchraydigan “Axloq “iborasi arabcha so‘z bo‘lib,u xulq-atvor, tarbiya degan ma’nolarni anglatadi. Garchand ushbu so‘z turli xalqlarning tillarida turlicha uchrasada, ularning ijtimoiy mohiyati yagona, axloq ma’naviyatning o‘zagi ekanligini, axloq diniy va dunyoviy negizga ega ilm ekanligini,ma’naviy-tadrijiy taraqqiyotga daxldorligini anglatadi.

Axloqiy qadriyatlarning mohiyatini o‘rganish, ularni tasniflash, avvalo, “Axloq” tushunchasining ilmiy-nazariy asoslarini anglab olishni taqozo etadi.

Ma’naviy qadriyatlar tizimida “Axloq ilmi”, “Ilmi axloq”, “Axloqshunoslik” singari sohaning fan sifatidagi ko‘plab nazariya va ta’limotlari yaratilgan .Jumladan, olim, J. Tulenov “muayyan xulq-atvor, odob, xatti-harakat,me’yor, qoida va prinsiplar majmuasi,tarzida,olim Abdulla Sher esa axloqni “ jamiyat, zamon, insoniyat tarixi uchun namuna bo‘la oladigan, ijtimoiy xatti-harakatlar yig‘indisi sifatida ta’riflaydilar.Mazkur ta’riflar axloq tushunchasining mohiyatini ilmiy tushunishda o‘ziga xos ahamiyatga ega.**Shu nuqtai nazardan axloq-insonlararo munosabatlar natijasi sifatida inson va jamiyat o‘rtasidagi obyektiv va subyektiv aloqadorlik mahsuli bo‘lib, u shaxsiy va umumiy manfaatlarni uyg‘unlashtiruvchi, muvofiqlashtiruvchi, shaxs, jamoa,ijtimoiy guruh, millatning hayoti va faoliyatini belgilaydigan, tartibga soladigan insonlarni ezgu fazilatlar sari yo‘naltiradigan botiniy va zohiriy fazilatlar majmuidir.**

Axloq ma’naviy hodisa sifatida ijtimoiy hayotda quyidagi holatda yaqqol namoyon bo‘ladi:

Kishilarning kundalik hayotida sodir etadigan axloqiy xatti-harakatlardan iborat bo‘lgan amaldagi axloq,ya’ni amaliy axloq;

Muayyan qadriyatlar asosida fikr yuritish,baholash, qadr-qimmatini belgilashni o‘z ichiga oluvchi axloqiy tafakkur mahsuli;

Insonni axloqiy jihatdan o‘z-o‘zini anglashi,munosabat va jarayonlarni axloqiy jihatdan tahlil qilish va baholashi orqali o‘zini o‘zi nazorat qilishda yuzaga keladi.

Hayotning muayyan bosqichlarida shakllangan fazilatlar, xatti harakatlar axloqiy qadriyatlarga aylanib,takomillashib boradi.

Axloq—inson ma’naviy kamoloti sarchashmalaridan biri bo‘lib,u jamiyat ravnaq topishi, fuqarolarning ma’naviy yuksalishida ularning axloqiy orzu-umidlarini ro‘yobga chiqaradi.Axloq o‘zining paydo bo‘lish tabiatiga ko‘ra ijtimoiy-tarixiy hodisa hisoblanadi.Odamzot ijtimoiy mavjudot sifatida shakllana boshlagan davrdan axloq va axloqiy munosabatlar ham paydo bo‘la boshlagan

Axloq tarixiy, ijtimoiy, milliy va umumbashariy xususiyatlarga ega bo‘lib, uni tadqiq etishda tizimli yondashuvni taqozo etadi.Har bir xalq millat va ellatlar tomonidan axloq masalasini o‘rganishga jiddiy yondashib,bir qator diniy va dunyoviy ta’limotlar yaratilgan.Bu borada mutafakkirlar Axloqshunoslik-Etika ilmi va uning mezoniy tushunchalari tahliliga doir bir qator nazariyalarni ilgari surganlar

Axloq tarixiy, ijtimoiy, milliy va umumbashariy xususiyatlarga ega bo‘lib, uni tadqiq etishda tizimli yondashuvni taqozo etadi.Har bir xalq millat va ellatlar tomonidan axloq masalasini o‘rganishga jiddiy yondashib,bir qator diniy va dunyoviy ta’limotlar yaratilgan.Bu borada mutafakkirlar Axloqshunoslik-Etika ilmi va uning mezoniy tushunchalari tahliliga doir bir qator nazariyalarni ilgari surganlar.

Ma’lumki, “Etika” iborasi qadimgi yunon mutafakkiri Arastu tomonidan ilk marta ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib,” ethos” (etos) so‘zidan “Etika” (axloq va axloqiylik) degan tushunchalarni keltirib chiqaradi. Arastu “Axloqiylik”ni inson

qalbining takomillashgan sifatlari xotirjamlik, vazminlik,bosiqlik, mardlik, jasurlik, mo‘tadillik, va hokazolarni ifodalovchi tushuncha deb bilgan.Shu asosda u etikani yaxshi fazilatlarga ega bo‘lgan yoki ularning yaxshi sifatlarini o‘rganuvchi ilm deb tushungan.Shuningdek, mutafakkir o‘zining qator asarlarida etika tushunchasining ilmiy falsafiy asoslarini ishlab chiqib,uni insonlar o‘rtasidagi oqilona munosabat jarayonlarini hamda ijtimoiy mavjudotning axloqini o‘rganuvchi fan deb ataydi.

Qadimgi Rim faylasufi Sitseron “axloq” so‘ziga “axloqiy sifat” qo‘shimchasini qo‘shib, yangi iborani muomalaga kiritgan.

Bizning muloqot madaniyatimizda, so‘zlashuv odobimizda, ilmiy va badiiy adabiyotlarimizda uchraydigan “Axloq “iborasi arabcha so‘z bo‘lib,u xulq-atvor, tarbiya degan ma’nolarni anglatadi. Garchand ushbu so‘z turli xalqlarning tillarida turlicha uchrasada, ularning ijtimoiy mohiyati yagona, axloq ma’naviyatning o‘zagi ekanligini, axloq diniy va dunyoviy negizga ega ilm ekanligini,ma’naviy-tadrijiy taraqqiyotga daxldorligini anglatadi.

Axloqiy qadriyatlarning mohiyatini o‘rganish, ularni tasniflash, avvalo, “Axloq” tushunchasining ilmiy-nazariy asoslarini anglab olishni taqozo etadi. Ma’naviy qadriyatlar tizimida “Axloq ilmi”, “Ilmi axloq”, “Axloqshunoslik” singari sohaning fan sifatidagi ko‘plab nazariya va ta’limotlari yaratilgan .Jumladan, olim, J. Tulenov “muayyan xulq-atvor, odob, xatti-harakat,me’yor, qoida va prinsiplar majmuasi,tarzida,olim Abdulla Sher esa axloqni “ jamiyat, zamon, insoniyat tarixi uchun namuna bo‘la oladigan, ijtimoiy xatti-harakatlar yig‘indisi sifatida ta’riflaydilar.Mazkur ta’riflar axloq tushunchasining mohiyatini ilmiy tushunishda o‘ziga xos ahamiyatga ega.**Shu nuqtai nazardan axloq-insonlararo munosabatlar natijasi sifatida inson va jamiyat o‘rtasidagi obyektiv va subyektiv aloqadorlik mahsuli bo‘lib, u shaxsiy va umumiy manfaatlarni uyg‘unlashtiruvchi, muvofiqlashtiruvchi, shaxs, jamoa,ijtimoiy guruh, millatning hayoti va faoliyatini belgilaydigan, tartibga soladigan insonlarni ezgu fazilatlar sari yo‘naltiradigan botiniy va zohiriy fazilatlar majmuidir.**

Axloq ma’naviy hodisa sifatida ijtimoiy hayotda quyidagi holatda yaqqol namoyon bo‘ladi:

Kishilarning kundalik hayotida sodir etadigan axloqiy xatti-harakatlardan iborat bo‘lgan amaldagi axloq,ya’ni amaliy axloq;

Muayyan qadriyatlar asosida fikr yuritish,baholash, qadr-qimmatini belgilashni o‘z ichiga oluvchi axloqiy tafakkur mahsuli;

Insonni axloqiy jihatdan o‘z-o‘zini anglashi,munosabat va jarayonlarni axloqiy jihatdan tahlil qilish va baholashi orqali o‘zini o‘zi nazorat qilishda yuzaga keladi.

Hayotning muayyan bosqichlarida shakllangan fazilatlar, xatti harakatlar axloqiy qadriyatlarga aylanib,takomillashib boradi.

Test.

1. Falsafaning inson faoliyatini o‘rganuvchi bo‘limi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

Sotsiologiya
Psixologiya
Praksiologiya
Gnoseologiya

2. XX asrda kim insonning eng muhim xususiyati, uning oʻziga xos belgisi, uning faoliyati deb taʼkidlagan?

Eynshteyn
Bill Geyts
I.Fixte
E.Kassirer

3. «Amaliyot oʻzgartirilganda tabiat predmetlari insonning koʻzgusidagi aksiga oʻxshaydi». Fikr muallifi kim?

Eeynshteyn
D.Yum
I.Fixte
Aflotun

4. Praksiologiyada «faoliyat» tushunchasiga qanday taʼrif berilgan?

Oʻz imkoniyatlarini roʻyobga chiqarish
Oʻz imkoniyatlari chegarasidan chiqish
Fikrda mavjud holatlarni amalga oshirish
Tushunchalarni amalga oshirish

5. «Quruq qoʻl ham, oʻz ixtiyoriga tashlab qoʻyilgan aql ham katta kuchga era emas». Fikr muallifi kim?

F.Bekon
J.Lokk
I.Fixte
Aflotun

6. «Oqilonalik - inson faoliyatining barcha turlariga amalda xos boʻlgan jihat». Fikr muallifi kim?

F.Bekon
J.Lokk
I.Fixte
E.Kassirer

7. I.G.Fixte insonning maʼnaviy burchi deb nimani nazarda tutadi?

Tabiat va jamiyatni oʻzgartirishni
Jamiyat strukturasini oʻzgartirish
Davlat va inson oʻrtasidagi munosabatlarni oʻzgartirish
Davlat va inson oʻrtasidagi maʼnaviy bogʻlanish

8. Har qanday maqsadsiz faoliyat ongsiz faoliyat boʻladimi?

Ha
Yoʻq

Faoliyat turiga qarab farqlanadi
Barcha javoblar to‘g‘ri

9. Continuum -...

Uzluksiz to‘plam
Qisqacha to‘plam
Falsafiy to‘plam
Ilmiy to‘plam

10. «Inson ma’daniyatini hech shubhasiz har xil maqsadlarni ko‘zlab, turli yo‘llardan rivojlanadigan faoliyatning har xil turlari tashkil etadi». Fikr muallifi kim?

F.Bekon
J.Lokk
I.Fixte
Aflo

11.Borliqning asosiy kategoriyasi nima?

«Borliq» va «Yo‘qlik»
«Sifat» va «Miqdor»
«Makon» va «Zamon»
To‘g‘ri javob yo‘q.

12.Falsafada borliq va yo‘qlik o‘rtasidagi o‘zaro aloqa qanday?

Dialektik
Ziddiyatli
Chambarchas
To‘g‘ri javob yo‘q.

13.«... - falsafiy kategoriya sifatida dunyoni, uning butun rang-barangligi va turli-tuman namoyon bo‘lish shakllari bilan yaxlit aks ettirish imkonini beradi», bu nima?

Borliq
Yo‘qlik
Bilish
To‘g‘ri javob yo‘q.

14.Borliqning shakllari nechtaga bo‘linadi?

4 ta
3 ta
2 ta
5 ta

15.«... - inson va uning faoliyatidan qat’i nazar mavjud bo‘lgan narsalar va jarayonlar borlig‘i», bu nima?

Tabiat borlig‘i
Inson borlig‘i
Ma’naviy borliq
Ijtimoiy borliq

16.Ma’naviy borliq nechtaga bo‘linadi?

2 ta

3 ta

4 ta

5 ta

17.Individuallashgan ma’naviy borliq - bu nima?

Insonning ichki dunyosi

Insonning tashqi dunyosi

Ijtimoiy makon va vaqt

To‘g‘ri javob yo‘q

18.Ilmiy tasavvurlarga ko‘ra, biz yashayotgan sayyora taxminan necha milliard yil muqaddam paydo bo‘lgan?

4,5 milliard

1 milliard

3,5 milliard

Aniqlanmagan

19.«... - inson yaratgan narsalar borlig‘i ko‘p jihatdan insonning o‘z borlig‘i bilan bog‘lanadi, zero, u bunyod etgan «...», avvalo, uning turli-tuman ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi», bu nima?

Ikkilamchi tabiat

Tabiat

Narsa-buyum

To‘g‘ri javob yo‘q

20.Aristotel va Leybnits qarashlarida uchragan «entelexiya» tushunchasi nimani anglatadi?

Yunoncha, «entelechia» - «o‘z - o‘zida maqsadga ega bo‘lgan»

Lotincha, «entelechia» - «o‘z - o‘zida maqsadga ega bo‘lgan»

Inglizcha, «entelechia» - «o‘z -o‘zida maqsadga ega bo‘lgan»

To‘g‘ri javob yo‘q

21.Qaysi falsafiy ta’limot «Hayot kuchi» mavjudligini tan olish orqali hayotni tushuntiradi?

Vitalizm

Entelexiya

Bunday ta’limot yo‘q

To‘g‘ri javob yo‘q

22.Organik dunyo evolyutsiyasi haqidagi yaxlit ta’limotlar nechanchi asrda vujudga keldi?

XIX asr boshlarida

XVII asr

XV asr

XX asr oxirida

23.Falsafaning qaysi sohasida borliq va yo‘qlik, mavjudlik va nomavjudlik muammolariga doir masalalar o‘rganiladi?

Ontologiyada

Gnoseologiyada
Aksiologiyada
Ijtimoiy falsafada

24.Qadimgi Sharqda ilk marotaba qaysi manbada borliq masalalari tahlil qilingan?

Veda va Upanishadalarda
Konfutsiy ta'limotida
Islom falsafasida
Daosizmda

25.Qadnmgi yunon faylasufi Fales borliqning birinchi sababi sifatida nimani e'tirof etgan?

Suv
Havo
Olov
Yer

.

8-mavzu. Pedagog faoliyatida estetika.

Estetik anglash tushunchasi va uning individual xarakteri. Insoniyat tarixida estetik anglash, munosabat va faoliyatning talqini. Estetik bilish va estetik qadriyatlar mutanosibligi. Estetik anglashning asosiy elementlari: estetik ehtiyoj, estetik munosabat, estetik tuygu, estetik did, estetik baho, estetik ideal, estetik qarashlar, estetik nazariyalar. Shaxs estetik ehtiyoji. “Estetika” kategoriyalarining falsafiy mazmuni va mohiyati. Falsafa tarixida estetika kategoriyalari hakidagi tasavvurlarning xilma-xilligi.

Pedagogik faoliyat estetik didni shakllantirishning muhim omili. Ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni insoniylashtirish va

go‘zallashtirishning estetik muammolari. Voqelikka estetik munosabatning milliy va umumbashariy ahamiyati. Estetik qadriyatlar - barqarorlikni ta’minlovchi omil. “Dunyoni go‘zallik qutqaradi” shiorining global ahamiyati. Olamni estetik anglashda jamiyat axborotlashuvining roli.

Axborot estetikasining o‘ziga xos xususiyatlari va uning ijtimoiy- siyosiy, badiiy-ijodiy, ma’naviy-ahloqiy jarayonlar bilan bog‘likligi**.**

Takrorlash uchun savollar:

1. «Estetika»ning fan sifatidagi falsafiy mohiyatini tushuntiring?
2. Estetika qaysi fanlar bilan o‘zaro yaqin aloqador?
3. Estetika kategoriyalarining tasnifini izohlab bering?
4. Nima uchun go‘zallik estetikaning asosiy mezoniy tushunchasi hisoblanadi?
5. Ulug‘vorlik tabiatda qanday xususiyatlarga ko‘ra namoyon bo‘ladi?
6. Tubanlikning illat sifatida ijtimoiy taraqqiyotga salbiy ta’siri nimalarda ko‘rinadi?
7. Fojiaviylikning falsafiy mohiyatini tushuntirib bering?
8. Kulgulilik kategoriyasining estetik xususiyatlari nimada?

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular. Javob yozish kerak.

1.Hukm tafakkur shakli sifatida.

2.Hukmning tarkibi va xususiyatlari

Adabiyotlar.

1.Erkin Umarov.Estetika (Nafosatshunoslik). – Toshkent: O`zbekiston. 1995.
2.Yusupov E., Mamashokirov S. Falsafa. Darslik. - Toshkent: 2005.
3.A. Sher,B. Xusanov, E. Umarov, Estetika. - Toshkent: “UZMU”, 2008.
4.Shermuxamedova N.A. Gnosiologiya. (Uchebnik). - Toshkent: 2009.
5.Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish. (O‘quv qo‘llanma).- Toshkent: 2017.

6.Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi. (O‘quv qo‘llanma). - Toshkent: 2017.
7.Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi. (Darslik). - Toshkent: 2016.
8.Иззетова Э., Пулатова Д. Философия (Учебное пособие). - Тошкент: 2017.
9.M.Sharipov Fayzixodjayeva D. Mantiq. O‘quv qo‘llanma. -Toshkent: 2004.
10. Falsafa asoslari [Matn] :darslik. Ikkinchi nashr./ Mualliflar jamoasi/.- Toshkent, «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti» 2020 yil.-361 b.
11.«Falsafa asoslari»o’quv qo’llanma. Q.Nazarov(va boshqalar) Toshkent, «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» 2018 yil.-380b.

12.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: “O‘zbekiston”, 2012-yil. .
13.Sh.M. Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.:O‘zbekiston 2017 yil, 484 bet
14.Sh.M. Mirziyoev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonlik garovi T.: O‘zbekiston 2017yil. -53 bet.

Internet sayitlari.

1. www. Ziyo net.uz
2. www.faylasuf.uz
3. www. .ziyo.uz
4. www. muslim.uz
5. www. religions.uz

8-mavzu. Pedagogik faoliyatida estetika .

Reja:

1. Estetika fanining predmeti, vujudga kelishi va asosiy tushunchalari.
2. Estetika fanining ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o‘rni.
3. Estetik tafakkur tarixi va uning asosiy bosqichlari.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: nafosat, estetik tafakkur, mumtoz nafosatshunoslik, din, sotsiologiya, psixologiya, pedagogika, ekologiya, estetik baholash, estetik tafakkur, estetik faoliyat, estetik bilish, odob estetikasi

1. Olamdagi maxluqotlar orasida aql-idrok sohibi bo‘lgan Odamga yorug‘likni qorong‘ulikdan (kunni tundan), ranglarni (oqni qoradan) farqlay olish, mushohada etish, qo‘yingki, nafosat, go‘zallik, ezgulik, ulug‘vorlik, olijanoblik olamiga intilish bilan birga xunuklik, xudbinlik, loqaydlik, johillik, pastkashlik kabi illatlarga qarshi kurash olib borish qobiliyati in’om etilgan. Inson shu qobiliyati tufayli o‘zligini anglab, komillik sari intilib kelmoqda. Insonning o‘ziga, o‘zi yashayotgan turmush muhitiga havodek zarur bo‘lgan go‘zallik, nafosat dunyosini yaratishdagi mashaqqatli mehnati tufayli shu qadar ulug‘vor ahamiyatga molik

bo‘lgan ma’naviy boyliklarni vujudga keltirgan. Ularga hayrat bilan boqib, insonning aql - nafosat qudratiga tahsinlar aytamiz.

Nafosat va go‘zallik dunyosi shu qadar xilma-xil, rango-rang, jozibali, ehtirosli, mo‘jizali, sehrliki, unda moddiy go‘zallik bilan ma’naviy go‘zallik uyg‘un holda chiroy ochib turadi. Insonning nafosat olamini anglashga intilish atrof - voqelikni anglashga intilishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Inson moddiy go‘zallik dunyosini bunyod etish jarayonida ma’naviy go‘zalliklarni ham kashf eta borgan, ya’ni nafosat olamining yaratilishi jarayoni uni anglash, mushohada etish jarayoni bilan uyg‘unlikda sodir bo‘lgan.

Nafosat olamini yaratish bilan bir qatorda uni anglash, idrok etish, o‘zlashtirish maqsadi, ya’ni nafosat olamini tadqiq va tahlil etish zaruriyati paydo bo‘ldi. Ayni mahalda bu zaruriyat nafosat (estetika) sohasidagi bilim va tajribalarni to‘plashga imkon yaratdi. Nafosat odamni o‘rganadi, tadqiq va tahlil etish zaruriyatini voqelikka aylantirish, mazkur sohada ilmiy tadqiqot ishlari olib borish, uning mohiyatini odamlarga anglatish, o‘qitish kabi maxsus vazifalarni estetika fani va o‘quv darsi bajaradi.

«Estetika» atamasi nunoncha «estezis», ya’ni hissiyot, sezish, hayajon qo‘zg‘ash ma’nolariga ega bo‘lgan so‘zdan olingan. Lekin bu so‘z tor mazmun doiradan allaqachonlar chiqib ketgan. Aslini olganda, estetika fani va o‘quv darsi falsafiy bilimlar majmuida o‘ziga xos, alohida ahamiyatga molik bo‘lib, u bir tomondan, insonning atrof - muhit, voqelikka munosabatini, ikkinchi tomondan, go‘zallik va xunuklik qadriyatlari doirasidagi olamni yaratish jarayonidaga faoliyatini namoyon etadi.

Estetika fanining bu ikki tomoni mutanosibligi nihoyat darajada murakkab tizimga ega bo‘lib, uni soddalashtirib qolipga solishga urinishlar ko‘p hollarda kulgili vaziyatlarga olib keladi. Uning bir tomonini bo‘rttirib, ikkinchi tomonini unga bo‘ysundirib qo‘yish ham estetika fani mohiyatini bo`zilishiga olib keladi. Masalan, atrof - voqelikni go‘zallik mezoni bilan baholashni bo‘rttirib yuborish estetikani faqat «go‘zallik falsafasi» qolipiga zo‘rlab sig‘dirishga, inson badiiy faoliyati sohasini esa faqat «san’at falsafasi» darajasiga tushirib yuborishga sabab bo‘ladi.

Estetikaning fan, keyinchalik esa o‘quv darsi sifatida shakllanishi jarayonida uni bir qator mustaqil bilim sohalariga bo‘lib yuborishlar, ya’ni estetikani «estetik qadriyatlar nazariyasi», «estetik idrok etish nazariyasi» va «umumiy san’at nazariyasi» sohalariga ajratib o‘rganish hamda o‘qitish maqsadga muvofiq deb ko‘rsatilgan edi.

Insonning estetik faolligi jarayonida tabiat va jamiyat qadriyatlari munosabatlari tizimidagi estetik xususiyatlar (go‘zallik va xunuklik, ulug‘vorlik va pastkashlik, foxishalik va kulgililik) qonuniyatlari namoyon bo‘ladi. Insonning estetik faolligi sifati va darajasi esa estetik qadriyatlar bilan estetik baholash qobiliyati, estetik idrok etish bilan estetik amaliyot o‘rtalaridagi uzviy aloqadorlik madaniyatning barcha sohalaridagi badiiy va estetik o‘zaro bog‘liqlik mezonlari bilan o‘lchanadi.

Estetika fani hech vaqt faqat atrof - voqelikni estetik va badiiy idrok etish qonuniyatlarini o‘rganish bilan chegaralanib qolmay, u tadqiq va tahlil ishlarini istiqbol maqsad - manfaatlariga yo‘naltirib turgan. Estetikaning istiqbolga mo‘ljallanganligi shu bilan izohlanadiki, u voqelikni nafosat nuqtai nazaridan baholashda, badiiy mezon o‘lchovlarini ilmiy jihatdan ishlab chiqib, amaliy faoliyatga tatbiq etishda o‘z ifodasini topadi.

Insonning estetik tafakkuri shakllanib, rivojlanib, takomillashib borgani sari uning ijtimoiy - ruhiy, mafkuraviy - g‘oyaviy, siyosiy - ma’naviy intlishlari ham tobora tiniqlashib boradi. Chunki, estetik tafakkur insonning maqsad - manfaatlarini estetik - badiiy vositalarda nazariy asoslab beradi, estetik madaniyat va badiiy amaliyot asoslarini o‘rganish, tahlil qilish bilan boyitadi, estetik nazariyalarning falsafiy asoslarini ochib beradi, voqelikni estetik in’ikos etish jarayonlarini ko‘rsatib beradi.

Shunday qilib, *estetika fani va o‘quv darsi voqelikni estetik mushohada etish va badiiy ijod jarayonlarining uzviy mutanosibligini namoyon qiladi va ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, estetika — bu nafosat olami, san’at va badiiy ijod jarayonlari qonuniyatlarini his-tuyg‘u, sezgi-idrok qilish vositalari orqali o‘rganadigan va o‘rgatadigan fandir.*

Estetika mavzui bilan bevosita aloqador bo‘lgan «estetik munosabat», «borliqni estetik o‘zlashtirish», «estetik baholash», «estetik tafakkur», «estetik faoliyat», kabi o‘zaro yaqin, ma’nodosh bir qator tushunchalar bor. Ular orasidagi «borliqni estetik o‘zlashtirish» tushunchasi qolgan «estetik munosabat», «estetik bilish», «estetik tafakkur», «estetik faoliyat» tushunchalarini ham qamrab oladi. Shu bois estetika fani insoniyat tomonidan borliqni estetik o‘zlashtirish mohiyati va qonuniyatlarini o‘rganadi, desak to‘g‘riroq bo‘ladi. Borliqni estetik o‘zlashtirish esa san’atning asosiy mazmunini tashkil etadi. Shu bois estetika fani san’atning asosiy- uslubiy metodologik zamini bo‘lib xizmat qiladi.

Estetikaning borliqni estetik o‘zlashtirish mohiyati va qonuniyatlari haqidagi fan sifatida o‘ziga xos bir qator fazilatlari bor. Estetika fani inson tevarak - atrofidagi moddiy va ma’naviy boyliklarning barchasini qamrab olishga, inson faoliyatining barcha jabhalaridagi nafosat olamini san’atning barcha turlari vositasida chuqur o‘rganishga da’vat etadi. San`at esa estetik boyliklarni yaratish manbaidir. San’atni ilmiy jihatdan tahlil va tadqiq etish barobarida esa estetik faoliyatning barcha ko‘rinishlariga ilmiy jihatdan yondashish uchun zamin yaratiladi. Shu bois san’at va badiiy ijodning tabiati va mohiyatini o‘rganish, qonuniyatlarini o‘zlashtirish go‘zallik — nafosat (estetika)ning barcha sifat darajalarini o‘rganish uchun kalit vazifasini o‘taydi. Bu jabhalarga san’atning umumiy nazariyasi (san’atning tabiati, mohiyati, taraqqiyoti va faoliyatining mushtarak qonunlarini anglatuvchi), estetika fanining xususiy - uslubiy asoslariga oid tadqiqotlar (mavzui, ilmiy maqomi, burch vazifalari, usul - uslublarining o‘zaro munosabati masalalari), moddiy boyliklar yaratish estetikasi (mehnat qilish jarayonida moddiy ishlab chiqarish sharoiti va mahsulida estetik jihatlar masalalari), muhandislik - loyihachilik faoliyati va ilmiy - tadqiqot ishlari sohasida estetik jihatlar, tabiat estetikasi (tabiatga munosabat masalasida o‘ziga xosliklarni

anglash va tabiatdan foydalanishga oid estetik omillar), insoniy munosabatlar estetikasi, kundalik turmush va odob estetikasi kabi bir qancha sohalarni kiritish maqsadga muvofiqdir. Hozir jahon estetika fanida bu jabhalarning har biri estetika tarkibiga kiruvchi mustaqil maxsus o‘quv kurslari darajasiga ko‘tarilgan. Estetika fani esa bu maxsus o‘quv kurslarining uslubiy-metodologik asosini tashkil etadi.

Estetika fani falsafiy bilimlar tizimida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. U eng avvalo, falsafiy bo‘lib, uning nazariy va uslubiy asoslarini falsafiy tafakkur nazariyasi va tarixi tashkil qiladi. Masalan, voqelikni estetik va badiiy o‘zlashtiradi jarayonlarini, o‘rganishda xolislik, tarixiy yondashish, bilish jarayonida amaliy tajribaning ahamiyati kabi uslubiy asosni qo‘llash ijobiy samaralarga olib kelishi mumkin.

Bilish nazariyasi vositasida san’atning bilish tabiati, voqelikni badiiy-ramziy ifodalash bilan ilmiy tadqiq etish o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik va o‘zaro farazlar, voqelikni badiiy vositalar orqali tasvirlashning ijodiy tabiati, san’at asarlaridagi shartlilik va badiiy haqiqat kabi estetika fanining juda ko‘p nazariy hamda uslubiy asoslari muammolarini yechish, ularga javob izlab topish mumkin.

Bilish nazariyasining boshqa aqidalari — ijtimoiy ongning nisbiy mustaqilligi, ma’naviy hayot xilma - xil shakllarining o‘zaro bir - biriga ta’sir o‘tkazishi, iqtisodiy zamin bilan ijtimoiy ong turli shakllari o‘rtasidagi bilvosita aloqadorlik va bog‘liqlik kabi masalalar ham estetik ong, badiiy ijod va san’at tabiati hamda xususiyatlarini ilmiy tushunishga yordam beradi.

Ayni mahalda estetika fani mustaqil bilim sohasini tashkil etgan holda falsafaning ravnaq topib borishiga ham o‘zining hissasini qo‘shadi. Masalan, bilish nazariyasining yanada rivojlanib, mazmunan boyib borishida badiiy bilish ham muhim o‘rin tutadi. Bilish nazariyasi, badiiy madaniyat qadriyatlari, voqelikka estetik munosabat, estetik tushunchalar, ayniqsa, ijtimoiy ong, uning nisbiy mustaqilligi haqidagi fikr - mulohazalar ham ko‘p jihatdan san’at bilan bog‘liqdir.

Estetika fani mazmunan sotsiologiya — keng ijtimoiy bilimlar doirasi bilan aloqadordir. Estetika *sotsialogiya*fani bilan uch tarkibiy qism orqali bog‘lanadi: birinchidan, ijtimoiy voqea va hodisalar hamda jarayonlarning uslubiy asosi hisoblangan *umumsotsiologiya nazariyasi* estetikaning ham ilmiy-nazariy asosi bo‘lib xizmat qiladi; ikkinchidan, sotsiologiya *ijtimoiy voqea-hodisalarning xususiy, alohida, nisbiy mustaqil sohalari* (siyosat, davlatlar, millatlar, san’at turlari va ko‘rinishlari)ni qamrab olgan holda estetika va badiiy ijod jarayonlarining ayrim jabhalari bilan uzviy bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi; uchinchidan, aniq sotsiologik tadqiqotlar orqali olinadigan dastlabki *ijtimoiy axborotlar* (ma’lumot — bilimlar) estetik va badiiy faoliyat jarayonlarini ham qamrab oladi.

Shunday qilib, estetika sotsiologiyaning barcha bilish darajalari bilan u yoki bu ko‘rinishlarda o‘zaro aloqadorliqda bo‘lib, bu aloqadorlik xilma - xil yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi. Masalan, estetika umumsotsiologik nazariyaga tayangan holda o‘zining g‘oyaviy - mafkuraviy, ijtimoiy - siyosiy, ma’naviy - axloqiy yo‘nalishlari va maqsadlarini shakllantiradi. Sotsiologiya san’at bilan jamiyat o‘rtasidagi turli - tuman aloqalarni tadqiq etadi. Lekin san’at sotsiologiyasi

estetikaning sotsiologik muammolari bilan to‘la qo‘shilib ketmaydi. Chunki, san’at sotsiologiyasi bilan estetikaning sotsiologik muammolari o‘rtasida katta farq bor. Estetika nafaqat san’at, balki voqelikni estetik o‘zlashtirishning barcha shakllariga taalluqli bo‘lgan sotsiologik masalalar yechimi bilan ham shug‘ullanadi. Yana bir farq shuki, estetik mo‘ljal hamisha san’atning xususiyatlarini ochishga qaratilgan bo‘ladi. San’at sotsiologiyasining asosiy vazifasi esa umumsotsiologik qonunlarning san’at sohasida amal qilishidir. Shuningdek, san’at sotsiologiyasining tushuncha vositalari ham o‘ziga xosdir. Masalan, «jamiyatning badiiy hayoti» tushunchasi sof estetikadan ko‘ra ko‘proq sotsiologiyaga taalluqlidir. Estetikaning sotsiologik muammolari bilan sotsiologaya fanining ayrim sohalari o‘rtasidagi farq va chegaralar shartli bo‘lib, san’atning ijtimoiy xususiyatlarini tadqiq qilishda mazkur farqlar va chegaralar yo‘qolib ketishi mumkin.

Sotsiologiya bilan *estetika* fanining uzviy bog‘liqligi bo‘sh vaqt tizimida san’atning o‘rni shaxsning estetik madaniyati bilan mehnat faoliyati o‘rtasidagi aloqadorlikka taalluqli bo‘lgan ma’lumot va axborotlarni jamlash va ilmiy qayta ishlab chiqishda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Estetika fani *ruhiyatshunoslik* (psixologiya) fani bilan ham chambarchas bog‘liq. Buni estetika tafakkur taraqqiyotining barcha bosqichlarida kuzatamiz. Bu yaqinlikning asosi shundaki, voqelikka estetik munosabatning barcha tomonlari estetik did yoki estetik his-tuyg‘u, badiiy ijod yoki badiiy idrok qilish jarayonlarining hammasi ruhiyat mezoni bilan o‘lchanadi. Chunki, estetika u yoki bu darajada insonning ruhiy, his-tuyg‘u holatini ifodalaydi.

Ruhiyatshunoslik fani estetik munosabatlarning barcha tamoyillarini, jumladan, badiiy ijod va idrok jarayonlarini amaliy va nazariy jihatdan tadqiq etadi. Ayni mahalda estetika fani inson ruhiy hayotining eng murakkab va nozik tomonlarini qamrab oladi. Estetikaning tarkibiy qismlarini *ruhiyatshunoslik* fanining erishgan yutuqlari va xulosalaridan keng foydalanmasdan turib tasavvur etib bo‘lmaydi. Ayni paytda shuni ham unutmaslik kerakki, san`atning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishda ruhiyatshunoslik fanining ahamiyati qanchalik katta bo‘lmasin, u hech vaqt estetika fanining o‘rnini bosa olmaydi. Zero, o‘tmishda va hozirda voqelikka estetik munosabatiing butun bir sohasiga ruhiyatshunoslik aqidalarini bosh mezon qilib olib, estetikani mustaqil fan sifatida chetga surib qo‘yishga moyillik seziladi.

Estetika fanining hozirgi davrga xos xususiyatlaridan biri shuki, bu sohaga kibernetika, semiotika (belgilar tizimlarini qiyosiy o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi bilim sohasi) va matematika kabi fanlarning usul va vositalari ham izchil kirib o‘rnatilayapti.

Estetika san’at va badiiy faoliyat turli shakl ko‘rinishlarni o‘rganadigan bilim sohalari uchun uslubiy asos bo‘lib xizmat qilar ekan, ayni mahalda u adabiyotshunoslik, musiqashunoslik, teatrshunoslik, axloqshunoslik kabi fanlar bilan hamkorlik qilish jarayonida rivojlanib boradi. Bu hamkorlik, eng avvalo, mazkur fanlarning ham san’at umumiy nazariyasiga amal qilishida ko‘rinadi. Masalan, san’atning xususiy nazariyasi adabiyot, musiqa, tasviriy san’at va boshqa

ijod sohalarining xususiyatlarini tadqiq etsa, san’atning umumiy nazariyasi san’atning barcha turlari, badiiy ijod barcha sohalari amal qiladigan qonuniyatlarning umumiy belgilarini o‘rganadi. Lekin san’atning umumiy belgilari sof holda mavjud bo‘lmasligi, ular ayrim san’at turlari xususiyatlari orqali ifodalanishini inobatga olib aytish mumkinki, estetika o‘zining umumiy xulosalarini ishlab chiqishda san’atshunoslikning ayrim - ayrim bilim sohalari erishgan, ilmiy ma’lumotlarga tayanadi.

Estetika san’atshunoslikning bilish sohalari uchun boshlang‘ich nazariy va uslubiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Estetikasiz san’at san’atshunoslik bo‘lolmaydi, ya’ni u ayrim voqea - hodisalar sharhi bilan shug‘ullanishga majbur bo‘lib qoladi. Shuni e’tiborga olish kerakki, estetika xususiy san’atshunoslikning umumiy qonuniyatlari, eng avvalo, nafosat tabiati va estetik timsolqonuniyatlarini o‘zida namoyon qiladi.

3. Estetik g‘oyalar dastavval qadimgi Sharq o‘lkalarida, jumladan, Misr, Mesopotamiya, Bobil, Hindiston, Xitoy, Eron va Turon mamlakatlarida vujudga keldi. Yaqin - yaqinlargacha «estetik g‘oyalar vatani qadimgi Yunonistondir» degan so‘zlarga ishonar edik, Qadimgi Sharq estetikasining tarixiy merosi ataylab ko‘zdan pinhon tutilgani, hatto kam o‘rganilganligi sababli «yevropa xudbinlik» («evroposentrizm») uydirma aqidalari zo‘r berib ilgari surildi.

Qadimgi Sharq mamlakatlarining xalqlari bizga meros qilib qoldirgan yozuvlari (mixxat, finikiya alifbosi), O‘rxun - Enasoy bitiklari, Xorazm alifbosi, qimmatbaho ma’danlardan olingan san’at asarlari (Misrda fir’avn Tutanxamon maqbarasidan topilgan osori-atiqalar, Amudaryo xazinasi, Doro I tasviri solingan oltin tangalar, skiflar oltin buyumlari va boshqalar), ulug‘vor me’morchilik obidalari (Bobil minorasi, qadimgi Xorazm badiiy madaniyati qoldiqlari, Hindiston va Xitoy hukmdorlari saroylari, ibodatxonalar devorlaridagi tasviriy san’at va haykaltaroshlik asarlari) bu mamlakatlarda badiiy madaniyat yuksak taraqqiy ettanini ko‘rsatadi. Ilk estetik qarash va g‘oyalar kohinlar tomonidan bayon qilinganligini' bugun biz bu mamlakatlar xalqlari qo‘lyozma merosidan, og‘zaki xalq ijodi namunalaridan bilamiz. Afsuski, mazkur boy estetik meros hozirgacha deyarli o‘rganilmagan va ilmiy sharhlanmagan.

Qadimgi Yunoniston ziyolilaridan Gerodot Sharq mamlakatlarining ko‘plarida bo‘lib, ular haqida o‘z tarixiy asarlarida bayon qilgan, qadimgi Sharq estetik qarashlarini o‘rganib, ularni umumlashtirib, nazariy jihatdan yanada boyitib bayon etish, boshqa hayot jabhalarida bo‘lganidek, estetik qarashlar tarixida ham qadimgi Sharq mamlakatlari erishgan yutuqlar zaminida Yevropa mamlakatlari badiiy madaniyati tarkib topganligani e’tirof etish vaqti keldi.

Qadimgi Yunon san’atkorlari va faylasuflari qadimgi Sharq badiiy madaniyati merosiga tayangan holda estetik g‘oyalar va fikr-mulohazalarni ishlab chiqdilar. Shu asosda tartibga solingan estetik nazariya o‘zidan keyin vujudga kelgan turli-tuman estetik maktablar hamda oqimlarga zamin bo‘lib xizmat qildi.

Qadimgi Kushon estetik ta’limotining ibtidosi mashhur matematik olim va faylasuf Pifagor (e. a. 6—5-asrlar) nomi va u yaratgan maktab bilan bog‘liq. Pifagor va uning shogirdlari barcha narsalarning moddiy raqamlar va ularning

o‘zaro munosabatlarini tashkil etadi, koinot yaxlitligida ham raqam aqidasi yotadi, deb uqtirdilar. Ular mazkur qarashlarini nafosat olamiga ham tatbiq etib, estetik tafakkurni boyitishga o‘z hissalarini qo‘shdilar. Pifagorchilarning nafosat asoslari, musiqaviy hamohanglik asoslari, ya’ni «xilma-xil ovozli tomonlarning kelishuvi» umumbashariy hamohanglik (garmoniya) ekanligi haqidagi qarashlar va g‘oyalari estetik tafakkur tarixida muhim o‘rin tutadi.

Qadimgi estetika tafakkurida moddiy dunyochilik (materialistik) yo‘nalishini Geraklit (e. a. 540—480- yillar) boshlab bergan edi. U nafosat xossalari moddiy dunyoning o‘zidan kelib chiqqan, nafosat hamohanglikni anglatadi, hamohanglik esa qarama-qarshiliklar birligini tashkil etadi, deb ko‘rsatdi va nafosatning nisbiyligi g‘oyasini ilgari surdi.

Demokrit (e.a.460—370-yillar) go‘zallikni har tomonlar mosligi (simmetriya)da deb bildi va uni me’yor tushunchasi bilan bog‘ladi, u san’at insonning dastlabki ehtiyojlari qondirilganda vujudga keladi, deb uqtirdi. Demokrit san’atning mohiyatini voqelikka taqlid qilishda ko‘rdi.

Suqrot (e. a. 470—399-yillar) ta’limotida go‘zallik koinotdan inson turmushiga, uning ichki kechinmalariga ko‘chirilgan bo‘lib, go‘zallik va ezgulik birligi sifatida bayon qilishadi. Suqrot estetik tasavvurlarining nisbiyligi g‘oyasini ilgari surib, estetik va manfaatli belgilar o‘rtasidagi yaqin aloqadorlik mavjudligini ko‘rsatib berdi.

Aflotun (e.a.427—347-yillar) estetikani go‘zallik falsafasi, ham san’at falsafasi sifatida ta’rifladi. Aflotunning fikricha, nafosat manbaini avvalo g‘oyalar tashkil etadi. His-tuyg‘u beradigan barcha narsalarni abadiy, o‘zgarmas g‘oya «yoritib turgan»dagina go‘zallik kashf etiladi. Uning fikricha, go‘zal o‘ta hissiyotli bo‘lgani tufayli uning mohiyatini his - tuyg‘u bilan emas, balki aql - idroq bilan anglash mumkin. San’atga oid qarashlarida ijodiy jarayonni u san`atni qandaydir pastkashlik urinishlari sifatida ta’riflab, uni narsalardan ko‘chirilgan nusxa, narsalarning o‘zi esa g‘oyalarning xira nusxasidir, deb uqtiradi.

Aflotun qarashlarida estetik tarbiya nazariyasi muhim o‘rin tutadi. U san’atning odamlarga nisbatan o‘tkaza oladigan ta’sir kuchini tan oladi, lekin bu ta’sir kuchi salbiy, buzg‘unchi xususiyatga ega, deb ta’kidlaydi. Shu bois Aflotun istiqbolda orzu qilgan davlat mafkurasida musiqadan boshqa barcha san’at turlarini tilga olmaydi, musiqaning ham faqat «harbiycha jaranglaydigan», «mardona» shakllariga o‘rin ajratadi. Shunday qilib, Aflotunning san’atga va estetik tarbiyaga doir qarashlari tarkidunyochilik, qattiqqo‘llik ruhi bilan sug‘orilgan.

Qadimgi Yunon estetika nazariyasining cho‘qqisi va yakuni sifatida Arastu (er. av. 384—322-yillar) estetik ta’limoti katta ahamiyat kasb etadi. Arastu fikricha, nafosat asosini moddiy dunyodagi narsalar tashkil qiladi, nafosat ana shu narsalarning tartiblilik, muvofiqlilik, uyg‘unlik, yaxlitlik xossalarida namoyon bo‘ladi.

San’at amaliyoti Arastu estetikasining hayotbaxsh manbaidir. Buyuk mutafakkir ana shu amaliyot bilan uzviy bog‘langan nazariy qoidalar yaratdi.

Arastu estetik ta’limotida Demokritning voqelikka taqlid qilish haqidagi g‘oyasi yanada rivojlantirildi. U san’atni voqelikka — odamlar, narsalar va inson faoliyatiga taqlid qilish vositasi sifatida baholab, san’atni idrok qilishda hissiz bo‘ladigan shodlikni tasvirlangan narsalarni taniganlikdan chiqadigan natija bilan bog‘laydi. Arastu san`atning inson ruhiga o‘tkazadigan ta’sir kuchiga alohida e’tibor berib, uning axloqiy qudratini, oliyjanob fazilatlar yaratish kuchini, voqelikni anglash xizmatini ulug‘laydi.

Fojiali voqea - hodisalar zaminida Arastu vahima, daxshat, rahm - shafqat orqali inson ruhini poklantirish ta’limotini ilgari suradi. Bundan tashqari uning estetik qarashlarida voqelik bilan badiiy madaniyat mutanosibligi muammolari, inson va san’at, inson va badiiy ijod masalalari keng o‘rin egallagan. Shuni alohida ta’kidlash darkorki, Arastu estetika nazariyasida birinchi bo‘lib uni turlar, xillar, ko‘rinishlarga ajratgan olimdir.

Tit Lukresiy Kar (e.a. 99—55-yillar) «Narsalar tabiati haqida»gi asarida qadimgi Rim estetikasidagi moddiy dunyochilik san’atnnng «zururiyat» (ehtiyoj)dan tabiiy kelib chiqqanligini uqtirib, uning ma’rifatchilik ahamiyatini ko‘rsatib berdi.

Sharq o‘rta asrlar estetik tafakkuri arab va ajam (Eron, Movarounnahr), Xitoy, Hindiston mamlakatlari badiiy madaniyati va san’ati ravnaqi bilan bog‘liq. Yevropa mamlakatlarida cherkov estetik faoliyatini, oliy nafosatini faqat ilohiy e’tiqod bilan chambarchas bog‘lab, erkin badiiy ijodni shafqatsiz bostirgan va quvg‘in qilgan bir sharoitda Sharq mamlakatlarida estetik qarashlar ilg‘or maqsad ehtiyojlar, ma’rifat va komillik yo‘lida rivojlandi. Bu qarashlar islom dini, badiiy madaniyati ravnaq topishi zaminida vujudga kelgan Sharq Uyg‘onish davri, xususan, Markaziy Osiyo Uyg‘onish davri ruhi bilan chambarchas bog‘liqlikda taraqqiy etdi.

Markaziy Osiyo Uyg‘onish davrining zabardast mutaffakkirlari Muso Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Axmad Yassaviy, Yusuf Xos Hojib, Lutfiy, Navoiy, Behzod, Bobur, Mashrab va boshqa juda ko‘p ijodkorlarning estetik qarashlari mohiyatini nafosat bilan ma’naviy - axloqiy qadriyatlarning mutanosibligini vujudga keltirish g‘oyasi tashkil etadi.

O‘rta asrlar musulmon Sharqi mutafakkirlari qadimgi dunyo mumtoz estetikasi yo‘nalishlari va g‘oyalarini davom ettirdilar. Ular qadimgi Yunon faylasuflari va olimlari asarlarini sharhladilar, tanqidiy o‘rgandilar, tarjima qildilar. Arastuni esa «Birinchi muallim» deb atadilar. Shu o‘rinda tabiiy savol tug‘iladi: nima uchun ajdodlarimiz o‘zimizning Sharqqa, deylik, qadimgi hayotga emas, Yevropaga – Yunonlarga murojaat qildilar?

Buning asosiy sababi shundaki, musulmonchilik talablariga Qadimgi Yunon falsafasi ma’lum darajada javob berar edi. Ma’lumki, musulmonchilikning asosi tavhidda – yakkaxudolikda. Alloh yagona, uning sherigi yo‘q va bo‘lishi mumkin emas. Qadimgi Yunon mutafakkirlari esa ana shu yo‘ldan bordilar. Birinchi bo‘lib bu masalani Suqrot o‘rtaga tashladi. U o‘limga mahkum etilganida, unga Yunonlar ma’budlarini hurmat qilmaganligi, yoshlarni yo‘ldan ozdirganligi (aslida tavhid

yo‘liga boshlaganligi) ayb qilib qo‘yildi. Suqrotning o‘limi oldidagi so‘nggi so‘zlari ham shuni tasdiqlab turadi, ...«Men Uning (ularning emas) yoniga ketyapman», deydi u. Shuningdek, Aflotunning g‘oyalar, olamiy ruh, emanatsiya haqidagi fikrlari ham to‘g‘ridan - to‘g‘ri yakkaxudolik masalasiga borib taqaladi. Lekin Suqrot va Aflotun tavhidni falsafiy - nazariy jihatdan alohida isbotlashni o‘z oldilariga vazifa qilib qo‘ymadilar, bunga urinmadilar. Bu ishni Arastu uddaladi. U o‘zining mashhur «Metafizika» asarida Xudoning yakkaligi, jismsiz, hech narsa tomonidan harakatga kelmaydigan, aksincha, birinchi harakatga keltiruvchi kuch ekanini nazariy ta’riflab berdi. Uni «Oliy shakl» deb atadi. Arastu talqinida Xudo olam va barcha olamiy jarayonlarning maqsadi hisoblanadi, u oliy tafakkur, tafakkur haqidagi tafakkurdir. Aynan mana shuning uchun ham Arastu bizning Sharqda «Birinchi muallim» nomini oldi, uning izdoshlari o‘zlarini ustozlariga taqlidan mashshoiyyunlar deb atadilar[3].

O‘rta asrlar musulmon Sharqida Arastudan so‘ng eng ulug‘ ustoz sifatida *Abu Nasr al-Farobiy* (873 – 950) mashhur bo‘ldi. U Arastudan keyingi «Ikkinchi muallim» nomini oldi.

Farobiyning qarashlarida ezgulik bilan go‘zallik ma’lum ma’noda aynanlashtiriladi, biri ikkinchisida yashovchi hodisalar sifatida talqin etiladi. Shuning uchun uning asarlarida «go‘zal xatti-harakatlar», «go‘zal qilmishlar» degan iboralarni ko‘p uchratish mumkin. Go‘zallikka yetishishni u falsafa tufayli ro‘y beradi, deb hisoblaydi. Uning fikriga ko‘ra, har bir narsa-hodisaning go‘zalligi uning o‘z borlig‘ini to‘la namoyon etishi va mukammallikka erishuvi bilan bog‘liq. Alloma faylasuf insonda ikki xil go‘zallikni farqlaydi – ichki va tashqi. U ichki go‘zallikni yuqori qo‘yadi va bu boyning boyligini bezab, kambag‘alning kambag‘alligini yashiradigan go‘zallikni «adab» deb ataydi. Bunday go‘zallik yuksak axloqiy xatti-harakatlar va insoniy komillikda o‘zini namoyon etadi. Tashqi go‘zallikka kelganda, faylasuf tabiiy go‘zallikni har qanday bezanish, yasanishlardan yuqori qo‘yadi.

Ikkinchi muallim san’atning taqlidiylik xususiyatga egaligini ta’kidlaydi. Ana shu taqlidiylik idrok etuvchida hissiyot va tasavvur uyg‘otadi. San’atkor o‘z xayolot kuchi, ijodiy qudrati bilan umumiy g‘oyalarni yakka qiyofalarda in’ikos ettiradi. U nutqning turlarini mantiqiy nuqtai nazardan tadqiq etar ekan, *she’riy nutqni* – mutlaq yolg‘on, *sofistik nutqni* – asosan yolg‘on, *xitobiy nutqni* – bir xilda ham yolg‘on, ham rost, *dialektik nutqni* – asosan rost, *isbotiy (apodiktik) nutqni* mutlaq rost deydi. She’riy nutqning mutlaq yolg‘on deb atalishi kishiga dastlab erish tuyuladi. Lekin aslida Farobiy haq. Masalan, Oybekning mana bu ikki satrini olib ko‘raylik:

Bir o‘lkaki, tuprog‘ida oltin gullaydi,
Bir o‘lkaki, qishlarida shivirlar bahor...[4]

Oddiy mantiq nuqtai nazaridan qarasak, haqiqatan ham Oybek yolg‘on gapirayapti: oltin – rangli metall, u hech qachon o‘simlikka o‘xshab gullamaydi, bahor esa odam emas, u – fasl, hech qachon shivirlab gapirmaydi. Farobiy bu

[3] Qarang: Sher A. Axloqshunoslik, -T.: “Yangi asr avlodi”, 2003, 42-b.
[4]Oybek. Mukammal asarlar to’plami. 8 tomlik, -T.:1. “Fan”, 1975, 309-b.

o‘rinda san’at asari oddiy mantiq ilmi qonun - qoidalariga bo‘ysunmaydigan o‘ziga xos mantiqqa, badiiy mantiqqa ega bo‘lishini ta’kidlamoqda. «She’r san’ati» risolasida u yuqoridagi fikrlarini davom ettirib, shunday deb yozadi: «... isbotda ilm, tortishuvda ikkilanish, xitobada ishontirish qancha ahamiyatli bo‘lsa, she’riyatda ham xayol va tasavvur shunchalik zarur bo‘ladi»[2].

«Shoirlarning she’r yozish san’ati qonunlari haqida» degan boshqa bir risolasida Farobiy san’atkorning qobiliyati tug‘ma bo‘lishini alohida ta’kidlab o‘tadi: «... shoirlar chindan tug‘ma qobiliyatli va she’r bitishga tayyor tabiatli kishilar bo‘ladi...» Ayni paytda faylasuf birgina iste’dod bilan yetuk shoir bo‘lish mumkin emasligini ham ta’kidlab o‘tadi. Shu bois «shoirlarning she’r ijod qilish borasidagi ahvoli kamolotga yetishgani va yetishmagani jihatidan turlicha bo‘ladi».

Arastu izidan borib, muallimi soniy she’riyatni tasviriy san’at bilan qiyoslaydi va har ikkala san’at turi ham mohiyatan bir xil asosga – taqlidga borib taqalishini aytadi: «...she’r san’atini bezaydigan narsalar – so‘z, mulohazalar bo‘lsa, rassomlar san’atini bezaydigan narsa bo‘yoqlar sanaladi. Bularning ikkovi o‘rtasida farq bor, ammo ikkalasi ham odamlar tasavvuri va sezgilarida bir maqsadga – taqlid qilishga yo‘nalgan bo‘ladi»[5].

Farobiy ko‘p jildlik «Musiqa haqidagi katta kitob» asarida musiqiy bilimni ikkiga – ijro san’ati bilan bog‘liq bo‘lgan musiqiy amaliyotga va musiqaning «sof o‘zini», ijrochilikka bog‘lanmagan holda o‘rganadigan nazariyaga ajratadi. Kitobda ohang tizimidagi uyg‘unlik, zarb singari hodisalar tahlil etiladi. Shu munosabat bilan u tovushlarni emas, balki tovushlar tasavvurini beruvchi raqqosalarning musiqiy g‘oyaga bo‘ysungan ohangiy harakatini anglatuvchi ritmik mimika – ohangiy harakat tushunchasini kiritadi. Shuningdek, kitobda Yaqin va O‘rta Sharqda ma’lum bo‘lgan musiqiy asboblar, ularni ijro etish yo‘llari, usullari haqida, umuman, musiqa tarixi to‘g‘risida atroflicha ma’lumot berilgan.

Yana bir buyuk qomusiy olim, bobokalonimiz Ibn Sino (980 – 1037) Farobiy qarashlarini davom ettirib, musiqadan olinadigan lazzat musiqiy uyg‘unlikning makonda yoyilishidan, pardalarning navbatma-navbat kelishidan deb biladi. Musiqada gap tovushning o‘zida emasligini, balki uni qanday chiqarish muhim ekanini aytadi, ya’ni bizda yoqimli yoki yoqimsiz sezgini tovushning o‘zi emas, balki uni paydo qilish usuli uyg‘otadi. Musiqaning kelib chiqishini esa inson nutqining boyligi bilan bog‘laydi: xushomad qilayotganda ovoz pasayadi, mag‘rur so‘zlayotganda qat’iy jaranglaydi va h.k.z. Musiqa inson kayfiyatiga taqliddir, deydi Ibn Sino. Shuningdek, alloma go‘zallik borasida ham Farobiy izidan boradi. Uning fikriga ko‘ra, jismoniy go‘zallik bevosita qalb go‘zalligi bilan belgilanadi. «Ishq risolasi» asarida muhabbatning asosida go‘zallik yotishini «aslida muhabbat go‘zallikni ma’qullashdir», degan fikr bilan ifodalaydi[6].

O‘rta asrlar estetikasida Ibn Sinoning «Fan ash-she’r» («She’r san’ati») asari o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Unda qomusiy alloma, Arastuning «She’riyat san’ati» risolasini sharhlar ekan, o‘ziga xos yangiliklar kiritadi va she’rning keyinchalik

[2] Forobiy. Fozil odamlar shahri,- T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993. 113-b.
[5] Farobiy. “Fozil odamlar shahri”, -T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti. 1993. 124-b.
[6] Серебряковю Трактат Ибн Сины (Авиценна) о любвиі. Тбилиси. 1976.стр. 49.

mashhur bo‘lib ketgan mana bu qoidasini keltiradi: «*She’r* deb obrazli so‘zlardan iborat bo‘lgan ritmli, bir-biriga muvofiq iboralardan tarkib topgan hamda xijolar bir-biriga teng, vaznlari qaytariladigan, oxirgi tovushlari bir-biriga o‘xshash satrlarga aytiladi». Uning fikriga ko‘ra, she’r taqlidiy fikr natijasi o‘laroq uch xil yo‘l bilan yuzaga keladi. Birinchisi lahn – uyg‘unlik, undan keyin kalom – so‘z keladi (bunda albatta majoziy (obrazli) so‘z nazarda tutiladi). Uchinchisi – vazn. Mana shu uch yo‘lning bir-birga mos kelishi natijasida she’r paydo bo‘ladi. Yo‘qsa ko‘ngildagidek she’r yaratish mumkin emas.

Ibn Sino xaqiqiy she’riyat bilan nazmiy tizmalarning farqi borasida fikr yuritar ekan, fizika haqida doston yozgan Empedokl o‘z kitobini vaznga solganini, lekin Empedokl bilan Homer asarlari o‘rtasida vazndan boshqa hech qanday umumiylik yo‘q ekanini ta’kidlagan ustozi Arastu qarashlarini to‘la quvvatlaydi: «Empedoklning yozganlari, vaznning paydo bo‘lishiga qaramay, tabiiy gaplardan iborat bo‘lib qolgan xolos. Homerning vaznli gaplari esa she’riy so‘zlar tusini olgan. Shuning uchun Empedoklning so‘zlari hech qachon she’r bo‘lolmaydi», – deydi alloma[7].

Shuningdek, Ibn Sino o‘z risolasida, Yunon she’riyati bilan arab she’riyatini solishtirib, she’riyatning vazifasi haqida fikr yuritadi va bu boradagi yunonlardagi ba’zi ustunliklarga ishora qiladi. Uning aytishicha, Yunonlar she’riyatda fe’l-atvorga qarab taqlid ishlatishni ko‘zlaganlar. Arablar esa, ikki vajdan she’r yozganlar. Bir tomondan, ular she’r orqali odamlar ruhiga ta’sir etmoqchi bo‘lganlar. Zero, she’r idrok etuvchida hayajonli hissiyot, to‘lqinlanish uyg‘otishi shubhasizdir. She’r yozishning ikkinchi sababi – odamlarni taajjubga solish bo‘lgan. Arablar har bir narsaga tashbeh ishlataverganlar, ular bu tashbehlari bilan odamlarni hayratga solishni maqsad qilib qo‘yganlar. Yunonlar esa she’r vositasida odamlar fe’l-atvoriga ta’sir etishni, yo bo‘lmasa, she’r orqali odamlarni o‘zlari ko‘zlagan xatti-harakatlaridan tiyishni mo‘ljallaganlar.

Bunday nazariy fikrlarni Ibn Sino, eng avvalo, o‘z amaliyoti orqali tasdiqlaydi. Allomaning «Salomon va Ibsol», «Hayy ibn Yaqzon», «Yusuf qissasi», «Qush risolasi» singari nasrda yozilgan falsafiy-badiiy va majoziy asarlari bilan birga, bizgacha yetib kelgan she’riy asarlari ham katta ahamiyatga molik. Ayni paytda alloma o‘zining o‘nga yaqin nazmda tizilgan ilmiy urjuza dostonlarini she’riy asar deb bilgan emas.

Ibn Sino she’riyatida buyuk faylasuf va buyuk shoir bir tilda – she’r tilida so‘zlaydi. Bu uyg‘unlik natijasi o‘laroq shunday durdonalar yaratildiki, ular an’anaviylik kasb etib, keyinchalik Umar Xayyom va Mirzo Bedil singari Sharqning buyuk ruboiynavislariga namuna bo‘lib xizmat qildi, desak adashmaymiz. Shoirning mana bu ruboiysini she’riyat chamanining eng go‘zal guli deyish mumkin:

Dilda pinhon yig‘i, kulamiz guldek,
Bir damgina hayot qilamiz guldek.
O‘zimizni guldek o‘rtaga tashlab,

[7] Ibn Sino.Salomon va Ibsol, -T.: G’.G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1980. 100-b.

Sochilmoqni baxt deb bilamiz guldek[8].

Darhaqiqat, inson ham qanday g‘am-g‘ussa, fojealar oldida ham o‘z dardi bilan o‘zi o‘ralashib qoladigan mavjudot emas. U zamon va makon talabiga quloq tutib, shabnam qatralarini gulbarglari bag‘rida yashirib, olamga xandon boqqan guldek, ko‘z yoshlarini, yig‘isini pinhon tutgan holda kula oladi. Shoir vaqt cheksizligi oldida o‘zining bir damlikkina umr egasi ekanini ham, insondagi o‘zini o‘ziga, o‘zgalarga va borliqqa ko‘rsatish uchun oliy mavjudotga xos intilishini ham sertashvish hayot ichida o‘sgan gul taqdiriga, go‘zallikka taqqoslaydi. Gul nima uchun o‘sadi? Borliqqa nafosat ruhini, xushbo‘y hidlarni bag‘ishlab, oxir-oqibatda to‘kilish uchun o‘sadi. Inson ham xuddi shu guldek o‘zini bu va u dunyoga bag‘ishlab, oxir-oqibatda zaminga sochilib, tuproqqa qo‘shilib ketishni baxt deb, xulqiy go‘zallik deb biladi[9].

Mashshoiyyunlik nafosat falsafasining yana bir namoyandasi shoir va faylasuf *Umar Xayyomdir* (1048-1123). Mashshoiyyun-mutafakkirlar ichida u alohida ajralib turadi. Umar Xayyom Farobiy va Ibn Sino izidan borib, falsafa, mantiq, astronomiya va boshqa fan sohalariga doir yirik asarlar yaratdi. Uning estetik qarashlari ko‘proq ruboiylari va «Navro‘znoma» asaridan joy olgan. Xayyom qarashlarini ekzistentsiyachilikning ibtidosi deyish ham mumkin.

Xayyom murakkab faylasuf-shoir, uning merosiga faqat bir tomonlama yondashish mumkin emas. Ayniqsa faylasufning ruboiylari muallif dunyoqarashining ko‘pqirraliligi bilan ajralib turadi. Shunisi muhimki, Xayyom o‘z dunyoqarashini risolalaridan ko‘ra, she’riyatida teranroq ifodalagan, uni estetik shaklda – nafis adabiyotning ruboiy janrida o‘quvchiga yetkazishga intilgan, go‘zallik va xunuklik, fojeaviylik va kulgulilik mezoniy tushunchalari prizmasidan o‘tkazib taqdim etgan.

Xayyom nazdida inson, keyinchalik ekzistentsiyachi Karl Yaspers ta’kidlaganidek, ertaga nima bo‘lishini, u o‘zini qayerda va qanday holatda ko‘rishini bilmaydi, «u hamma hodisalarda bir xil bo‘lolmaydi, u – yo‘l»[1]. Ruboiylarning ko‘pchiligida, ekzistentsiyachilar sevgan ibora bilan aytganda, inson o‘z holiga tashlab qo‘yilganini – unga ixtiyor erkinligi berilgani va taqdir kinoyaga mavzu bo‘ladigan darajadagi hodisa ekanini ko‘ramiz; har bir mavjudlikni Alloh yaratgan, lekin uning xususiyatlarini keyinchalik o‘zgartirmaydi – «o‘z holiga tashlab qo‘yadi».

Xayyom ham o‘z salaflari kabi go‘zallikka alohida e’tibor beradi, uni inson bilan bevosita yoki bilvosita bog‘liq holda olib qaraydi. Jumladan, narsalar go‘zalligi ham inson bilan bog‘liq. Masalan, oltin nima uchun go‘zal? U qimmatbaho rangli metalligi uchun emas, balki insonga bezak bo‘lgani, inson tashqi a’zolarini go‘zallashtirishga xizmat qilgani sababli go‘zaldir. U xulqiy go‘zallik haqida fikr yuritar ekan, tashqi va ichki go‘zallikning uyg‘unligi masalasiga alohida urg‘u beradi, barcha mashshoiyyun faylasuflar kabi go‘zallik bilan ezgulikning yaxlit namoyon bo‘lishi to‘g‘risida to‘xtaladi; go‘zallikni go‘zal yuz bilan bog‘lab talqin etadi:

[8] Ibn Sino. Sherlar va tibbiy doston-T.: 1988. 52-b.

[9] Qarang: Abdulla Sher «Sog’lom avlod » jurnali. 1996. № 9-10.

«Go‘zallik barcha tillarda vasf etiladi va har qanday aqlga xush keladi, – deb yozadi mutafakkir «Navro‘znoma» asarida. – Dunyoda yaxshi narsalar ko‘p, ularni ko‘rib bahramand bo‘lish odamlarni shod etadi va tabiatlarini pokiza qiladi, ammo hech narsa go‘zal yuz o‘rnini bosa olmaydi, Chunki go‘zal yuz shunday quvonch baxsh etadiki, boshqa hech qanday quvonch unga teng kelolmaydi. Aytadilarki, go‘zal yuz dunyoda saodat sababchisidir. Agar go‘zal yuz yana yaxshi xulq bilan uyg‘unlashsa, baxt-saodatning eng yuqori darajasi bo‘ladi. Agar odam ham tashqi ko‘rinishidan, ham tabiati bilan yaxshi bo‘lsa, Xudo va odamlar uchun sevimlidir. Go‘zal yuz to‘rt fazilatga egadir. Ulardan biri shuki, go‘zal yuz uni ko‘rgan odamning shu kunini xayrli etadi, ikkinchisi, hayotdan baxramand bo‘lish onlarini shirin qiladi, uchinchisi, u odamni ochiq ko‘ngilli va olijanob etadi, to‘rtinchisi, boylikni ko‘paytiradi va yuqori mansab ato etadi»[10].

Shuni aytish kerakki, may u davrlarda biz hozir tushunadigan «bir yayrash» uchun ichilgan emas, Xayyom ham, uning salaflari ham mayga boshqacha munosabat bilan yondashganlar. Xayyom mayni insonning asl o‘ziligini namoyon qiluvchi vosita, estetik hissiyotni uyg‘otuvchi modda sifatida olib qaraydi, unga alohida falsafiy maqom – mahaklik (qimmatbaho toshlarni sinaydigan tosh) maqomini beradi. Bu bejiz emas. Chunki Xayyom insonni koinotning eng qimmatbaho moddasi deb biladi:

Dunyoning tilagi, samari ham biz,
Aql ko‘zin qorasi – javhari ham biz.
To‘garak jahonni uzuk deb bilsak,
Shaksiz uning ko‘zi – gavhari ham biz[11].

Ana shu ulug‘ insonning real hayoti, uning mavjudligi mohiyatiga to‘g‘ri kelmasligi, ulkan fojeaviylik sifatida Xayyomda skeptisizmga, gohida agnostizmga moyillik tug‘diradi.

Imom G‘azzoliyning san’at va go‘zallikka manfaatsiz munosabat haqidagi qarashlari O‘rta asrlar musulmon Sharq estetikasida mashshoiyyunlik yo‘nalishi bilan birga tasavvufiy yo‘nalish ham vujudga keldi. Uning buyuk vakili tasavvuf falsafasi asoschisi, tengi kam faylasuf - ilohiyotchi *Imom G‘azzoliydir* (1058 – 1111). Mutasavvuf - faylasufning «Ixyo ulum ad din» («Din haqidagi ilmlarning jonlantirishi») asarida estetik fikrlarga keng o‘rin berilgan.

G‘azzoliyning nafosat falsafasida o‘simlik, hayvon hamda insonning tashqi muhitga munosabati, ulardagi nafis did, estetik hissiyotning bor yo‘qligi muammolari, shaxsning go‘zallikka munosabati, uning komil insonga aylanishi, nisbiy va mutlaq go‘zallik, ibodat bilan san’atning farqi singari masalalarga to‘xtalib o‘tiladi.

G‘azzoliy *ibodat* bilan *san’atning* farqi xususida o‘ziga xos fikrlar bayon qiladi. Zikr bilan raqsni chalkashtirmaslikka, jazavadagi muridning harakatlarida o‘yin alomatlariga yo‘l qo‘ymaslikka chaqiradi. Shunday alomatlardan biri tepinish ekanini ta’kidlab, bunday harakatlarning ko‘p hollarda ko‘ngil ochish va o‘yin bilan bog‘liqligini aytadi. Xullas, zikr paytida o‘yin unsurlarining namoyon

[10]Umar Hayyom. Navro’znoma, - T.: “Mehnat”, 1990. 54-b.
[11] Umar Hayyom. Ruboiylar, -T.: “Sharq”, 2000. 9-b.

bo‘lishini ibodatni buzadigan holat sifatida qoralaydi. G‘azzoliy musiqa va qo‘shiq borasida ham shunga o‘xshash fikrlarni bildiradi. Musiqani, o‘yin-kulgini tilovatga aralashtirmaslikni, qiroatni qo‘shiq bilan chalkashtirmaslikni qat’iy ta’kidlaydi. Bu borada, ayniqsa, uning Qur’on bilan she’riyatni, oyatlar bilan baytlarni taqqoslashi diqqatga sazovordir.

She’rning (qo‘shiqning) Qur’onga nisbatan dunyoviy insonni ko‘proq junbushga keltirishga qodir ekanini va buning sabablarini G‘azzoliy yetti nuqtai nazar asosida isbotlashga harakat qiladi.

Birinchisi – hamma oyatlar ham tinglovchining holatiga doimo to‘g‘ri kelavermaydi. Chunonchi, g‘am-anduhga botgan yoki pushaymonlik olovida qovrilayotgan kishiga meros, bolalarning ulushlari, mahr, taloq haqidagi qoidalar ta’sir qilmaydi. Zero, yurakni unga mos narsagina harakatga keltiradi, shoirlar esa baytlarini o‘z qalblarining holatidan kelib chiqib yaratadilar. Demak, har bir she’r muayyan ruhiy holatning intihosi sifatida o‘shanday ruhiy holatni dildan kechirayotgan kishi uchun ta’sirchanroqdir.

Ikkinchisi – agar she’riy bayt boshqa bayt bilan almashtirilsa, hatto mazmun bir xilligiga qaramay, u tinglovchi yuragiga yangi iz solmay qo‘ymaydi. Chunki, mazmun bir xil bo‘lsa ham,keyingi bayt avvalgisidan qofiya va vazni bilan farqlanadi, tinglovchining qalbini harakatga keltiradi. Lekin Qur’onni qori har gal har xil qilib o‘qiy olmaydi. Qur’onga qo‘shimchalar kiritish mumkin emas. Demak, har bir yetuk she’r original badiiy asar sifatida ma’lum holatlarda ko‘proq ta’sirchanlikka ega.

Uchinchisi – oddiy nutq bilan she’rning qalbga ta’siri solishtirilsa, xijolari tartibga solingan she’riy nutqning kuchli ekanini sezish mumkin. She’rning rang - barang ohangi qalbni junbushga keltiradi. Demak, har bir she’r o‘ziga xos dolzarb ohangi bilan ta’sirchanroqdir.

To‘rtinchisi – she’riy nutqning qalbga ta’siri qisqa bo‘g‘inlarni (yopiq xijolarni) cho‘zib, uzun bo‘g‘inlarni (ochiq xijolarni) kesib talaffuz etish bilan bog‘liq. So‘zlar ruknlarga bo‘ysundirilib talaffuz etiladi. Tilovat o‘qilganda esa bunday qilish mumkin emas. Demak, she’rning vaznga ega bo‘lishi unga kengroq imkoniyat beradi.

Beshinchisi – vaznga tushirilgan she’riy nutqqa bir me’yordagi zarbli tovushlar, chunonchi, doira singari musiqa asboblari jo‘r bo‘lishi mumkin. Unday holda she’rning ta’sir kuchi oshadi. Oyatlarni esa bunaqangi jo‘rlikdan asramoq lozim, zero, u o‘ta jiddiy haqiqatdir. Uni ko‘chalarda, bazmlarda, to‘yxonalarda o‘qish mumkin emas. Demak, she’riy nutq musiqiy asboblar jo‘rligiga yo‘l berishi, joy tanlamasligi bilan ham muayyan imtiyozga ega.

Oltinchisi – badihago‘y (maddoh) tinglovchining holatiga mos kelmaydigan baytni o‘qishi, u bayt tinglovchiga yoqmasligi mumkin. U holda tinglovchi boshqa baytni talab qiladi. Chunki har qanday nutq ham kayfiyatga mos kelavermaydi. Bunday paytda tilovat tinglash majburiyati va bu majburiyatdan o‘sha onda qutula olmaslik hissi tinglovchida oyatlarni yoqtirmay qolishdek gunohli holatni keltirib chiqarishi mumkin. Demak, she’r vaqt, holat va kayfiyatni hisobga olishi tufayli, ya’ni dunyoviy qamrovining kengligi bilan ham kuchliroq ta’sirga ega.

Yettinchisi – musiqiy tovushlar insonning tabiatiga mos keladi. Ularga Haqiqat emas, lazzat manbai sifatida qaralishi lozim. Xuddi shuningdek, she’r ham inson tabiatiga mos keladi, inson undan lazzatlanadi; ham o‘zi she’r yarata oladi, zero, yaratilgan narsa (ya’ni she’r) yaratilganga (ya’ni insonga) o‘xshash bo‘ladi. Qur’on esa – Allohning so‘zi, uning sifatlaridan biri. Qur’on insoniyat yaratishga qodir bo‘lmagan haqiqatdirki, Allohning sifati tarzida u yaratilish jarayonini boshdan kechirmagan. Demak, insonga yaqinroq ekani, hissiyot bayoni bo‘lgani uchun ham odamlar she’rga ko‘proq mayl bildiradilar[12].

Buyuk mutasavvif - faylasuf yuqoridagi yetti bandli chog‘ishtirma orqali, birinchidan, Qur’on oyatlariga she’rga bo‘lganidek erkin murojaat qilish mumkin emasligini, ikkinchidan, Muqaddas kitobni to‘g‘ri kelgan joyda, to‘g‘ri kelgan holatda o‘qimaslikni, uni jo‘nlashtirmaslikni, ya’ni ilohiy munosabat bilan insoniy munosabatni qorishtirib yubormaslik lozimligini uqtiradi. Shu o‘rinda u quyidagi voqeani keltiradi: payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom ar - Robiya ummi Ma’uz xonadonlariga kirganlarida, kanizaklar qo‘shiq kuylayotgan edi; shunda ulardan biri darhol qo‘shiqni to‘xtatadi va u kishiga madhiya ayta boshlaydi. Payg‘ambarimiz esa: «Buni qo‘y, avval nimani aytayotgan bo‘lsang, o‘shani ayta ber», – deydilar. G‘azzoliy mazkur ta’qiq Qur’on oyatlarini to‘y - tomoshalarda o‘qitishga ham taalluqli ekanini ta’kidlab, mutlaqo jiddiy narsani o‘yin - kulgi shakliga solish, «she’r bilan aytishga ruhsat berilgan narsani Qur’on vositasida aytish mumkin emas», deydi[13].

Shunday qilib, Imom G‘azzoliy qanchalik Qur’onni yuksakka ko‘tarmasin, ulug‘ligini qanchalik ta’rif qilmasin, uni she’riyat bilan solishtirar ekan, masalaga bag‘oyat rasional tarzda yondashadi: ibodatga nisbatan san’atning, qiroatga nisbatan she’riyatning oddiy insonga yaqinligini inkor etmaydi, balki tasdiqlaydi. Bu o‘rinda, diqqat qilinsa, muridlarning jazavaga tushishi hamda xayolan Ollohga yetishgan holatlari bilan tomoshabin yoki tinglovchining san’at asaridan junbushiga kelishi va so‘ng qalbida ro‘y beradigan forig‘lanish (katarsis) holatlari orasida ham o‘xshashlik, ham katta farq borligini anglab olish qiyin emas.

G‘azzoliy zohiriy va botiniy go‘zallik xususida fikr yuritar ekan, tug‘ma estetik tuyg‘uning mavjudligi haqidagi g‘oyani go‘daklar va hayvonlarning ham estetik tuyg‘uga egaligi bilan isbotlashga intiladi. Go‘zallikni idrok etish tuyg‘usining tug‘maligi, tabiiyligi va uni estetik tarbiya vositasida anglab yetish orqali his qilish borasida hozir ham bahsli qarashlarning mavjudligi G‘azzoliy o‘rtaga tashlagan estetika muammolari hanuz dolzarb ekanini tasdiqlaydi.

G‘azzoliyning go‘zallik to‘g‘risidagi, xususan, go‘zallikka nisbatan beg‘araz munosabat haqidagi nazariy fikrlaridan buyuk olmon faylasufi Immanuil Kant ijodiy foydalanadi. Chunonchi, Kant nafosat tuyg‘usini manfaatsiz, beg‘araz, faqat predmetga sof muhabbat bilan munosabatda bo‘lish tufayli yuzaga kelgan tuyg‘u, deb ataydi. Go‘zallikning nisbiyligi borasida ham Kant G‘azzoliy tutgan yo‘ldan boradi. Hatto ba’zida misollar bir xilligiga yo‘l qo‘yadi: ikkala faylasuf ham odam

[12] Газали Абу Намид. Воскрешение наук о вере. Москва. Наука. 1980. Б.117-122.
[13]G’azaliAbuXamid. Voskresheniye nauk o vere. Moskva. Nauka. 1980.121b.

va otni misol tariqasida keltiradi. G‘azzoliy fikrlarining rivojlangan shakllarini Byork, Shefstberi, Xatcheson singari faylasuflarda ham uchratamiz.

Umuman olganda, Islom dinining san’at bilan hamkorligi masalalari allomalarning badiiy adabiyot, musiqa va boshqa san’at turlariga doir risolalarida hamda tazkiralarida o‘rtaga tashladi. Shunday qilib, Sharqning daho mutafakkirlari – Abu Nasr al-Farobiy, Ibn Sino, Umar Xayyom va Imom G‘azzoliy bir tomondan, tasavvufni mohiyatan islomning axloq va nafosat falsafasi sifatida talqin qilsa, ikkinchi tomondan, ularning estetik g‘oyalari hamda nazariyalari bilan jahon nafosat falsafasining yangi pog‘onaga ko‘tarilishini boshlab berdi.

Yevropa Uyg‘onish davrida estetik tafakkur kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlarining bevosita ta’siri ostida rivojlana boshladi. Tarixiy taraqqiy ahamiyat kasb etgan burjua insonparvarlik g‘oyalari keng tarqalib borgani sari, tabiiy va aniq fanlar, adabiyot va san’at buyuk muvaffaqiyatlarga erishib borgani sari estetik qarashlar va g‘oyalar ham shu qadar tez sur’atlar bilan rivojlanib bordi.

Yevropa Uyg‘onish davri estetikasining muhim xususiyati shuki, uning mohiyati va mazmuni yuksak insonparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan va u badiiy amaliyot bilan chambarchas bog‘lanib ketgan edi.

Yevropa Uyg‘onish davrining buyuk ijodkorlari Leonar - do da-Vinchi, Rafael Santi, Mikelanjelo, Servantes, Shekspir va boshqalar estetik tafakkur rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shdilar. Ayniqsa, buyuk musavvir, iste’dodli muhandis, atoqli tabiatshunos olim Leonardo da Vinchi estetik qarashlarida voqeiy dunyoni bilishda san’atning ahamiyatiga, uning o‘ziga xos xususiyatlarini e’tibordan qochirmaslikka da’vat etdi.

Test.

1. Qaysi falsafiy ta’limot «Hayot kuchi» mavjudligini tan olish orqali hayotni tushuntiradi?

Vitalizm
Entelexiya
Bunday ta’limot yo‘q
To‘g‘ri javob yo‘q

2. Organik dunyo evolyusiyasi haqidagi yaxlit ta’limotlar nechanchi asrda vujudga keldi?

XIX asr boshlarida
XVII asr
XV asr
XX asr oxirida

3. Falsafaning qaysi sohasida borliq va yo‘qlik, mavjudlik va nomavjudlik muammolariga doir masalalar o‘rganiladi?

Ontologiyada
Gnoseologiyada
Aksiologiyada
Ijtimoiy falsafada

4. Qadimgi Sharqda ilk marotaba qaysi man'bada borliq masalalari tahlil qilingan?

Veda va Upanishadalarda

Konfutsiy ta'limotida

Islom falsafasida

Daosizmda

5. Qadnmgi yunon faylasufi Fales borliqning birinchi sababi sifatida nimani e'tirof etgan?

Suv

Havo

Olov

Yer

6. «Borliq bor, yo‘qlik esa - yo‘q», degan fikr kimga tegishli?

Parmenidga

Platonga

Suqrotga

Zenonga

7. Tirik tabiat borligi necha darajaga bo‘linadi?

Ikki

Uch

To‘rt

Cheksiz

8. Ontologiya tushunchasini falsafada birinchi bor kim qo‘llagan?

X.Volf

D.Yum

J.Berkli

I.Kant

9. Har qanday jisemning ajralmas xususiyati nima deb ataladi?

Atribut

Qism

Individuallik

Materiya

10. Qadimgi Hindiston mutafakkirlari borliq sirining tagiga yetishga harakat qilar ekanlar, «Quyosh tunda qayerga ketadi, yulduzlar kunduzi qayoqqa yo‘qoladi» kabi savollarga javob topishga uringanlar va bu tasav-vurlarni insoniyatga ma'lum bo‘lgan eng qadimgi qaysi kitobda aks ettirganlar?

Rigvedalarda

Upanshadlarda

Monumentlarda

To‘g‘ri javob yo‘q

Estetikaning asosiy kategoriyalari. San’at. San’at ijtimoiy ong shakllari sifatida.

Reja:

1. Dizayn va xalq amaliy san’ati
2. San’atning vujudga kelishi va uning nafosatli mohiyati.
3. San’at turlari.
4. Musiqa, musavvirlik, haykaltaroshlik

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: musiqa, badiiy adabiyot, haykaltaroshlik, ifodali san’at, tasviriy san’at.

Texnika estetikasi va turmush nafosatiga doir adabiyotlarda dizayn iborasi tez-tez uchrab turadi. U inglizcha «*desing*» so‘zidan olingan bo‘lib, «loyiha, chizma» degan ma’nolarni anglatadi. Biroq, dizayn mohiyatan chizma va loyihadan farq qiladi. Mazkur farqni anglash esa bizni qurshab turgan narsalar olamining shakl-shamoyilini, rangini, joylashgan makonini va boshqa shu kabi jihatlarni mushohada qilish orqali belgilanadi. Bu o‘z navbatida dizayndagi ikki muhim tomonni yuzaga keltiradi.

Birinchidan, dizayn o‘zining maftunkorligi, diqqatni jalb eta olishi, yuksak did bilan yaratilganligi, foydalanish uchun qulayligi, bejirimligi singari xususiyatlar bilan belgilanadi.

Ikkinchidan, u o‘z vazifasini to‘la-to‘kis bajara olishi, xizmat ko‘rsatish darajasining yuqoriligi bilan izohlanadi. Demoqchimizki, dizayn nafaqat texnika sanoatining mahsulotiga nisbatan qo‘llaniladi, balki o‘zida bundanda keng qamrovli xususiyatlarni aks ettiradi.

Dizayn go‘zallik kategoriyasi bilan hamkorlikda taraqqiy etib boradi. Holbuki, buyumni badiiy loyihalashtirishda uning shakli bilan mazmuni hamohang, mos bo‘lishi kerak. Qisqasi dizayndagi estetik talab shaxsning moddiy ehtiyoji bilan birga ma’naviy ehtiyojini ham qondira olgandagina o‘zida go‘zallikni namoyon ettiradi. Shuning uchun ham «Buyumni estetik sifatlari nimalarni taqazo qilishini aniq bilib olish uchun go‘zallik to‘g‘risidagi umumiy tushunchani tarkibiy qismlarga ajratish zarur. Go‘zallik to‘g‘risida buyumning tashqi shakliga qarab fikr yuritilganligi sababli avvalo tashqi shaklning qanday belgilari mavjud ekanligini bilib olish lozim. Faqat shundan keyingina muayyan narsa qanday sifatlarga ega bo‘lishi lozimligi, u chiroyli deb atalishga haqli bo‘lish uchun qanday qonunlar asosida yaratilishi kerakligi haqida gap yuritsa bo‘ladi. Ana shunda bizning bergan bahomiz dalil-isbotli bo‘ladi».[14]

Texnikaviy taraqqiyot doimo rivojlanib, yangilanib boradi; eski texnologiyalar o‘z o‘rnini yangi, zamonaviy texnologiyalarga bo‘shatib beradi. Voqelikda esa mazkur o‘tish jarayonini ishlab chiqarish sharoitlarining ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan o‘zgarib, takomillashib borayotganligi bilan izohlash mumkin. Mashinalar texnikasi davrida manfaatdor munosabat bilan estetik munosabat

[14] Iqtisob:Xolmyanskiy L.M. Shchipanov A.S. Dizayn.-T.: O‘qituvchi. 1991.-5 b.

orasidagi qarama-qarshilikning keskinlashuvi nafaqat texnikaning o‘ziga yoki mehnat taqsimotiga, ayni paytda, ishlab chiqarish sohalari maqsadlarining o‘zgarishiga ham bog‘liq. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning manfaatdorligi va nafosatdorligi o‘rtasidagi aloqadorlikka doir tadqiqotlardan shu narsa anglanadiki, mazkur aloqadorlik barcha predmetlar uchun bir xilda emas. Shunday predmetlar borki, uning estetik o‘ziga xosligi funksional-loyihalashtirish asoslari bilan belgilanadi; uning go‘zalligi mazmun va shakl, ma’naviylik va moddiylik, manfaatdorlik va foydalilik mezonlari bilan hamohang tarzda rivojlanib boradi. Masalan, samolyotsozlik, avtomobilsozlik sanoati boshqa zamonaviy transport vositalar ishlab chiqarish sohasi xuddi shu talab asosida ravnaq topadi. Bu borada O‘zbekistonning Janubiy Koreya bilan hamkorlikda ishlab chiqarayotgan «O‘ZDEUAVTO» qo‘shma korxonasining mahsulotlari, xususan, «Nexia» yengil avtomobilini misol qilib keltirish o‘rinlidir. U qator xususiyatlari bilan go‘zallik talablariga javob beradi.

Inson doimiy ravishda ravnaq topib boradigan mavjudot, uzoq davom etgan insoniy taraqqiyotning mahsuli, ya’ni tosh asridagi va hozirgi odam, garchand ikkalasi ham odam deb atasakda, bir-biridan farq qiladi. Zamonaviy odam aqlan, axloqan nisbatan yuksak darajaga ko‘tarilgan, jismonan esa – go‘zallashgan. Texnikani ana shu go‘zallashgan inson yaratgan.

Dizaynning zaruriyatga aylanishi nafaqat zamonaviy ilmiy-texnikaviy ravnaqqa, balki ommaviy ishlab chiqarish va ommaviy madaniyat darajasining yuksakligiga ham bog‘liq. Bunday sharoitda haridor o‘zining erkin tanlov imkoniyati bilan ishlab chiqarish taklif qilgan mahsulotni rad etishi va o‘z ehtiyojiga javob beradigan tovarni yuqori baholashi mumkin. Ya’ni, xaridor o‘z didiga mos narsani tanlaydi; xarid jarayoni “*boriga baraka* ” tarzidagi tavakkalchilik holatiga emas, balki tovarga faol munosabat shakliga aylanadi. Ana shunday munosabatga loyiq bo‘lishi uchun tovarning shakli muhim ahamiyatga molik. Tabiiyki, birinchi navbatda go‘zal va ulug‘vor ko‘rinishga ega narsalargina jamiyatning e’tiborini qozonadi. Shunda tovarning umummezonga javob beradigan estetik qadriyat sifatida qabul qilinishi ro‘y beradi va u ishlab chiqarishning xaridorga, xaridorning esa ishlab chiqarishga estetik ta’sirini ta’minlaydi.

Shuni unutmaslik lozimki, har qanday *konstruksiyachi-injener* dizayner bo‘lolmaydi. Injener-konstruktor, deylik, mashinani loyihalashtirar ekan, dastlab uning motoridan tortib, kuzovigacha bo‘lgan qismlari loyihasini chizadi va shundan keyingina ularni bir-biri bilan bog‘lab yaxlit mashina shakliga keltiradi. Natijada har bir qism alohida “o‘z hayotiga” ega bo‘ladi. Ya’ni, mashina zamonaviylashtirilganida (modernizatsiya qilinganida) muayyan detallarni so‘nggi loyiha asosida, alohida-alohida almashtirish jarayoni ro‘y beradi. *Dizaynchi-injener* esa mashinani go‘zallik va ulug‘vorlik qonuniyatlariga asoslanib, birdaniga muayyan yaxlitlik tarzida tasavvur qiladi. Bu yaxlitlik konstruksiyaga bo‘ysunsada, o‘zini badiiy ijod sifatida namoyon etadi. Shunday qilib, konstruktor-injener mazmunni, dizaynchi-injener shaklni yaratadi, ya’ni birinchi mutaxassis – *texnik*, ikkinchisi – *estetik*. Ikkala faoliyatning uyg‘unligi tufayli zamonaviy xaridor talabiga javob beradigan mashina vujudga keladi va unda, istaymizmi-

istamaymizmi, estetik ko‘rinish yaxlitlik sifatida ustuvorlikka, xaridorgirlik ahamiyatiga ega bo‘ladi. Zotan, eslaylik, Shiller aytganidek, shakl insonga butunisicha, mazmun – uning muayyan qismigagina ta’sir ko‘rsatadi. Xaridor esa, eng avvalo inson.

Dizaynning tub ildizi, mohiyat nuqtai nazaridan, *ko‘rgazmali amaliy san’at* (xalq amaliy san’ati)ga borib taqaladi: u ham, bu ham foydalilik, manfaatlilik xususiyatiga ega, ya’ni ular maqsadga muvofiqlikka emas, maqsadga xizmat qiladi. Lekin xalq amaliy san’atiga asos bo‘lgan hunar, aytib o‘tganimizdek, san’atga aylanishi mumkin, dizayn esa – dizaynligicha qoladi.

San’at – estetik faoliyatning o‘ziga xos turi, *sehrli ma’naviy ko‘zgu*. Sehri shundaki, san’at asarini idrok etayotgan odam unda ham shu asarni yaratgan inson dunyosini, ham o‘z dunyosini qadriyatlar prizmasi orqali ko‘radi; o‘zining qandayligini va qayerdaligini, yutuqlarini va nuqsonlarini, aqlini va hissiyotlarini aniqlashtirib oladi. Uning estetik mohiyati makon va zamondagi voqelik vositasida go‘zallik, ulug‘vorlik, fojeaviylik, kulgulilik, xunuklik, tubanlik v.b. estetik xususiyatlarni in’ikos ettirishi hamda ularni baholashi bilan belgilanadi. *San’at* qadriyatlarning qadrlanishini va qadrsizlangan qadriyatlarni ko‘rsatib beradi, bir odam yoki bir necha odam timsolida odam bilan olamning yaxlit, umumlashgan qiyofasini yaratadi, ularning uyg‘unligini ta’minlaydi. U kishini yashashga o‘rgatadi, go‘zallikka da’vat etadi, ma’naviy yuksaltiradi. Shu sababli insoniyat tarixida san’atsiz yashab o‘tilgan birorta ham davr yo‘q.

Faylasuf-nafosatshunoslar o‘rtasida san’atning kelib chiqishi muhim muammolardan bo‘lib kelgan. *San’atning kelib chiqishi* deganda ko‘pchilik g‘orlarning tosh davrlariga ibtidoiy davrlarda chizilgan ov manzaralari va ov hayvonlarining tasvirini nazarda tutadi. Vaholanki gap bu yerda san’atning qanday paydo bo‘lganligi emas, balki nimadan paydo bo‘lganligi to‘g‘risida borishi kerak. Ba’zilar uni taqliddan, bosh: erotik hissiyotlardan, kimlardir o‘yindan, kimdir mehnatdan kelib chiqqan deb hisoblaydilar. Bunday nazariyalar va konsepsiyalar anchagina, lekin ular orasidagi ikkitasining tarafdorlari ko‘pchilikni tashkil etadi. Ulardan *biri* – insonni hayvonlik darajasidan odamlik pog‘onasiga ko‘targan narsa mehnat, san’at ham mehnatdan, insonning olamni o‘zgartirishga bo‘lgan ehtiyojidan kelib chiqqan, san’at faqat ijtimoiy hodisa degan moddiyatchilar ilgari surgan qarash. *Ikkinchisi* – san’at insonga berilgan ilohiy zavqning, ma’naviy olamning o‘yin orqali namoyon bo‘lishi, degan ma’naviyatchilar nazariyasi. Biz ana shu ikkinchi qarash tarafdorimiz. Buning sababi shuki, *mehnat* qanchalik qadrlamaylik, qanchalik sharaflamaylik, u – majburiyat bilan bog‘liq, maqsadga yo‘naltirilgan ijtimoiy hodisa, o‘yin esa har qanday majburiyatdan yiroq, maqsadga muvofiqlik bilan shartlanadigan *individual-ijtimoiy hodisa*.

San’at keng ma’noli tushunchadir. Masalan, qadimgi yunonlar musiqa, raqs, nazm (she’riyat)ni san’at deb bilar edilar. O‘rta asrlarda esa san’at tarkibiga tasviriy san’at, kasallarni davolash va dorixona ishlari ham kiritilgan. Bugungi kunda «san’at» so‘zi «voqelikni badiiy timsollar vositasida ijodiy aks ettirish», «ishning ko‘zini bilish va mahorat ko‘rsatish jarayoni», «biror ishni bajarishdagi mahorat darajasi» ma’nolarida qo‘llaniladi. Chunonchi dehqonchilik, temirchilik,

oshpazlik, o‘qituvchilik, yozuvchilik, rassomlik, vrachlik, shofyorlik san’ati va boshqalar.

San’at tushunchasining bunday keng ma’noda talqin etilishi bejiz emas. Zero, san’at inson mehnati, aql-idroki bilan yaratilgan, vujudga kelgan, ijod qilingan turini anglatadi. Har bir san’at asarida shaxsning o‘ziga xos qobiliyati, iste’dodi namoyon bo‘ladi. San’at insonning mahorati bilan chambarchas bog‘lanib ketgan.

San’at hozirgi davrga qadar insoniyat taraqqiyoti bilan bog‘liq holda rivojlanib kelgan. O‘zbekiston hududi Ispaniya, Saxroi Kabir va boshqa manzillarda uchraydigan qoyalarga o‘yib tushirilgan yovvoyi hayvonlarning tasvirlari hozirgi davr nuqtai nazaridan yuksak estetik qiymatga ega. Xususan, O‘zbekiston xududida Zaravutsoy, Sarmishsoy, Qoracharvoqsoy, Taqatosh, Teraklisoy, Tutlisoy, Chadaksoy, Sho‘rbuloqsoy kabi yerlarda ov manzaralarini ifodalovchi tasviriy san’at yodgorliklarini uchratamiz.

San’at uzoq o‘tmishda inson mehnati bilan uyg‘un tarzda rivojlanib borgan.

Insoniyatning ibtidosi davri faqat qoyalarga o‘yib tushirilgan tasviriy san’at bilan cheklanmaydi. Bu davrda badiiy faoliyat afsonaviy tafakkur tarzida rivojlangan va turli xalqlar o‘z afsonalarini yaratganlar. Afsonalarda diniy mazmun keng o‘rin olgan. Yunonlarning Zevs va uning farzandlari haqidagi afsonalar bunga misol bo‘la oladi. Markaziy Osiyoda esa Mitra, Anaxita, Kayumars, Elikbek haqidagi afsonalar yaratilgan.

Shunday qilib san’atning vujudga kelishi insoniyat qadimgi ajdodlari mehnat faoliyatini tasvirlash tarzida (masalan ov qilish) yuzaga kelib rivojlanib borgan.

San’at hissiyotlar, tuyg‘ular bilan tirik, u hissiy ta’sir etish, ibrat ko‘rsatish, tarbiya berish qudratiga ega.

San’at insonga voqelikni badiiy vositalar orqali yanada to‘laqonli, jozibali anglashga yordam beradi. San’at asarlari insonda his-tuyg‘ular, xilma-xil kechinmalar qo‘zg‘ab, inson diliga, uning ruhiga ta’sir o‘tkazadi. San’atning nafosatli mohiyati anna shunda namoyon bo‘ladi.

San’at asarlari yaratish insoniyat badiiy madaniyatining asosini tashkil etadi. Tarixiy taraqqiyot natijasida san’at bir necha turlarga ajraldi: adabiyot, me’morchilik, musiqa, tasviriy san’at va h.k. Mazkur san’at turlari yana bir qancha xillarga, ya’ni janrlarga bo‘linadi. *Masalan, adabiyot: xalq og‘zaki ijodi, poeziya va uning turlari; proza va uning turlari; drama va uning turlariga; tasviriy san’at – haykaltaroshlik, rang-tasvir, grafika va boshqalarga bo‘linadi.*

Mazkur san’at turlarining har biri mustaqil, o‘zicha nodir va betakror, voqelikning bir tomonini bevosita aks ettiradi. *Masalan, badiiy adabiyot hayotni keng va teran aks ettirib, inson ruhiy-aqliy tomonlarini ochib berishda boshqa san’at turlariga nisbatan keng imkoniyatlarga ega.*

San’at turlari inson dunyoqarashini shakllantirishda o‘ziga xos turli vazifalarni bajarishi bilan ham bir-biridan farqlanib turadi. Musiqa – his-tuyg‘u; tasviriy san’at – sinchkov kuzatish; estrada va sirk san’ati esa ko‘ngil ochish, tomosha madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Turli tarixiy davrlar, xalqlar, mamlakatlar hayotida san'atning u yoki bu turi yetakchi o'rinni egallagan va o'z davri badiiy qiyofasini belgilab bergan. *Masalan, Qadimgi Misrda me'morchilik, Xindistonda musiqa va raqs, Xitoyda rang-tasvir, Eron va Turonda xalq amaliy san'ati (kulolchilik, gilamdo'zlik va zargarlik), Yunoniston va Rimda haykaltaroshlik ravnaq topgan.*

Milodiy davr boshlarida Rim va Vizantiyada tasviriy san'at, arablarda so'z san'ati, musulmon Sharqida ilk Uyg'onish davrida (IX-XII) nazm va me'morchilik (Minorai Kalon, Somoniylar maqbarasi, Qutadg'u bilik) baland cho'qqilarga ko'tarildi. Yevropa Uyg'onish davrida Italiyada tasviriy san'at (Leonardo da Vinchi); Angliyada teatr san'ati (Vilyam Shekspir), Germaniyada musiqa san'ati, XIX asrda Rusiyada badiiy adabiyot (Pushkin, Lemontov) rivoji yaqqol ko'zga tashlanadi.

San'at turlari orasida so'z orqali namoyon bo'lish xususiyati bilan badiiy adabiyot alohida o'rin tutadi. Shuning uchun **badiiy adabiyot** so'z san'atidir. U – og'zaki va yozma shaklga ega. So'z san'ati dastlab ***og'zaki*** ko'rinishda vujudga kelgan. Xalq og'zaki ijodi – mehnat qo'shiqlari, dostonlar, ertaklar bunga misol bo'ladi. Hozirda o'zbek xalqi hayotida san'atning og'zaki shakli o'zbek badiiy so'z ustalari, askiyachilar, baxshilar, dostonchilar, qiziqchilar, ertakchilar, alla va yor-yor aytuvchilar saqlanib, kishilarga betakror nafis zavq-shavq bag'ishlab kelmoqda.

O'zbekistonda mustaqillik yillari san'atning og'zaki shaklini tiklash va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston baxshilarining ana'anaviy ko'riklari (Samarqand, Xorazm va Surxondaryo viloyatlari), televidenie «Xalq ijodi» ko'rsatuvi, joylarda xalq ijodi dastalari ko'riklari, askiyachilar ko'rigi (Farg'ona vodiysi) o'tkazib kelinmoqda.

Yozma adabiyotning ham asosiy moddiy quroli, tasviriy ifoda vositasi – so'z. So'z – fikr ifodasi, bayonidir. U tufayli insoniyat to'plagan aqliy boylik kelajak avlodlarga yetib keladi. So'z vositasida moddiy va ma'naviy olam, insonning aqliy va ma'naviy dunyosi yozma adabiyotda eng teran, har tomonlama aks etadi.

O'zbek xalqi yozma adabiyoti buyuk sohiblari Navoiy, Mashrab, Qodiriy, Cho'lpon, Oybek va boshqalar inson ichki dunyosi bor rango-rangligi, boyligi, murakkabligini yuksak mahorat bilan ifodaladilar. Badiiy adabiyotning o'z ichki tizimi, ko'rinishi, tur va uslubi bor. Bu jihatdan badiiy adabiyot uchta adabiy tur:epik (sochma erkin bayon) lirik (she'riyat) va dramatik ko'rinishlarni qamraydi.

Adabiyotning epik turiga o'zbek adabiyotida Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilik», Firdavsiyning «Shohnoma», Navoiyning «Hamsa» («Xayratul abror», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sa'bai sayyora», «Sadi Iskandariy» dostonlari), A.Qodiriyning «O'tgan kunlar», Cho'lponning «Kecha va kunduz», Oybekning «Navoiy», Primqul Qodirovning «Bobur», «Xumoyun va Akbar» kabi asarlari misol bo'ladi. Bularning ayrimlar nazm, ayrimlari nasriy uslubda bayon qilingan.

Badiiy adabiyotning dramaturgiya turi sahnalashtirishga mo'ljallangan. Uning asosini ziddiyat (konflikt) tashkil qiladi. Dramatik asarlarda o'z oldilariga

aniq-ravshan maqsad va vazifalar qo‘ygan irodali kishilar yuzma-yuz to‘qnashadilar. Ularning suhbatlari (diologlari) orqali tomoshabinga ta’sir o‘tkaziladi.

Badiiy adabiyotning turlari bir necha xil: ***epik tur*** – xalq eposi – epik doston, roman-epopeya (bir necha kitob), roman, qissa; ***lirik tur*** – qasida, tuyuq, ruboiy, g‘azal, she’r; ***dramatik tur*** – fojia (tragediya), komediya, drama.

Ta’kidlash zarurki, badiiy adabiyot namunalari bilan tanishish yoshlarimizning nafosatli (estetik) his-tuyg‘usi, didining o‘tkirlashishiga olib keladi…

Tasviriy san’at tizimiga musavvirlik, haykaltaroshlik, chiziqli rasm (grafika) mansub. Ularning paydo bo‘lishi insoniyat tarixining eng qadimgi davrlariga borib taqaladi.

Tasviriy san’at o‘z estetik xislat va estetik maqomiga ega bo‘lib borgani sari ayrim tur va janrlar ajralib chiqa boshladi. Tasviriy san’at turlari o‘zaro bog‘liq, bir-birini to‘ldirib turadi.

Tasviriy san’at asarlari monumental va dastgoh ko‘rinishlariga ega. ***Monumental*** hajm jihatidan katta, me’morchilik, park, bog‘ san’ati, biror botiniy muhitga mo‘ljallangan san’at asaridir. *Masalan, Amir Temur maydonidagi Amir Temur hamda O‘zbekiston Milliy bog‘i va shoirlar hiyobonidagi Alisher Navoiy haykallari bunga misol bo‘ladi.*

Dastgoh asari san’atkor tomonidan erkin ijodiy faoliyat tufayli yaratilib, ularni hohlagan joyga muzey yoki o‘quv darsxonalariga quyish va namoyish etish mumkin.

Haykaltaroshlik jonli mavjudotlar – asosan inson, qisman jonivorlarni hajmli shakllarda aks ettiradi. Marmartosh, oddiy tosh, harsangtosh, yog‘och, metal, gips va boshqalar haykaltaroshlik uchun moddiy ashyolar sifatida xizmat qiladi.

Xaykaltaroshlikda inson ichki dunyosi, kechinma, fikr-tuyg‘ulari ham o‘rin oladi. Fikr va tuyg‘ular inson tanasi harakati orqali beriladi. Bu san’at turining o‘ziga xos tomoni: harkatsiz holatda harakat taassuroti yaratiladi. Haykaltaroshning mahorati shu qiyin va murakkab jarayonni yarata va ko‘rsata bilishda. Amir Temur, Alisher Navoiy, Ulug‘bek, Bobur kabi ulug‘ siymolar haykallari harakat bilan to‘lib toshgan. Yunon haykaltaroshi Mironning «Disk otuvchi» asari yoki go‘zallik va muhabbat ramzi –Afrodita haykallarida ham ayni hol kuzatiladi.

Haykaltaroshlikning o‘lkamizda qadimdan rivoj topganiga Kushonlar davriga oid buddizm haykaltaroshlik namunalari (Surxondaryo viloyati), Afrosiyobdan (Samarqand) topilgan haykalchalar dalil bo‘ladi.

Xalq qahramonlari, fan va madaniyat arboblari, fidoyi kishilarga qo‘yilgan yodgorlik haykallari tarixiy voqealarni aks ettirib, targ‘ibot-tashviqot, axborot, tarbiya, estetik didni o‘stirish kabi ko‘p vazifalarni bajaradi.

Musavvirlik –rangtasvir san’atida bo‘yoq va chiziqlar aralashmasidan foydalanib, dunyo manzaralari aks ettiriladi. Ularning markazida esa inson turadi.Musavvirlikning naqqoshlik, yodgorlik va dastgohlik turlari mavjud.

O‘zbekiston hududida qadimdan rangtasvir san’ati rivojlanganligini Afrosiyobdagi devoriy rasmlar, Varaxsha va Bolalitepa tasviriy namunalaridan bilish mumkin. Ular o‘tmish ajdodlarimizning go‘zallik borasida erishgan yutuqlaridan hikoya qilib, tarix sirlarini ochib beruvchi ko‘zgu vazifasini o‘taydi. Mashhur musavvirlar: Leonardo da Vinchi, Rafael Santi, Rembrand, Karl Bryullov sanaladi. Vatandosh va zamondosh musavvirlar: Kamoliddin Behzod, O‘rol Tansiqboev, Abdulhaq Abdullaev, Rahim Axmedov, Malik Nabiev, Alisher Mirzaev ijodi diqqatga sazovor.

Ifodali san’at turlariga: bezakli-amaliy, me’morchilik va musiqa san’ati turlari kiradi. Bu ijod turlari o‘zining g‘oyaviy-estetik burch-vazifalarini ifodali vositalar orqali amalga oshiradi.

Bezakli-amaliy san’at turi tasviriy san’at turiga yaqin. Farqi: bezakli-amaliy san’at amaliy maqsadlarga mo‘ljallangan, ular badiiy qiymati foydali-amaliy qiymatidan kelib chiqadi. Bezakli-amaliy san’at asosan maishiy turmush ehtiyojlariga xizmat qiluvchi narsa-buyumlardan iborat. Bunda narsa-buyumning amaliy va estetik xislatlariga g‘oyaviy-badiiy ifodalililik qo‘shilib san’at asari darajasiga ko‘tariladi. Narsa-buyumga o‘ziga xos ravishda – mutanosiblik, vazn-ohang, tomonlar tengligi va bezak beriladi. Bezak naqsh bilan bog‘liq. Naqsh esa narsa-buyumning badiiy shaklga aylanishidir. Naqsh insonda quvonchu qayg‘u, osoyishtalik yoki bezovtalik kabi tuyg‘u va kayfiyatlarni ifodalaydi.

O‘zbek milliy naqshi azaldan masjid, minora, maqbara, madrasa kabi me’morchilik ishlarini amalga oshirishda; amaliy san’at – zardo‘zlik (Buxoro), gilamdo‘zlik (Xiva), kulolchilik (Farg‘ona), duradgorlik, tikuvchilikda bezak vazifasini o‘tab keladi. Bu sohada o‘zbek milliy san’ati o‘ziga xos, takrorlanmas xususiyatlarga ega.

San’at turlari orasida **me’morchilik** ham moddiy, ham ma’naviy madaniyatga taalluqli. Donishmandlar me’morchilikni «qotishma» musiqa yoki «toshdagi doston» deb ta’riflaganlar. Me’morchilik davr qiyofasini ijtimoiy-ifodali ko‘rinishda yaratadi. Agar musiqada qiyofa eshitish orqali idrok qilinsa, me’morchilikda ko‘rish orqali anglashga mo‘ljallangan.

Me’morchilik o‘zining hajm va chiziqlar «tili» bilan davr va inson haqida hikoya qilganday muayyan his-tuyg‘u va tasavvurlar hosil qiladi. Ko‘hna me’moriy obidalar hozirda ham o‘zining ajoyib hamohangligi bilan kishini hayratga solib kelmoqda. Ana’anaviy minora, maqbaralar havorang gumbazlari, masjid-u madrasalar ichki bezaklari bilan qo‘shilib, barkamol umumiy yaxlitlik paydo qilib, moziy va bugun munosabatlari haqida tasavvur hosil qiladi.

Samarqand, Shahrisabz, Buxoro, Xiva, Qo‘qon shaharlarida bunyod etilgan me’morchilik obidalari o‘z mazmundorligi va mo‘jizaviyligi jihatidan Misr piramidalari, Afina Akropoli, Shohjahon «Tojmahali»dan qolishmaydi.

Hozirgi me’morchilik ayrim bino yoki ularning majmuini (Registon singari) yaratishga emas, balki me’morchilik ijodining oliy ko‘rinishi – shahar bunyod etishga mo‘ljallangan. Mustaqil O‘zbekistonning har bir shahri me’morchilikning eng yaxshi namunalarini erkin rejalashtirish asosida barpo etilmoqda.

Musiqa voqea-hodisalarni ifodali aks ettiradi. Musiqa eshitish vositasida idrok qilinadi. U inson ichki ma'naviy dunyosi, uning tuyg'u va kayfiyatlarini ifodalaydi. Ya'ni musiqa voqelikning hissiy tuyg'uli qiyofasini yaratadi.

Musiqa san'atining kuch-qudrati: u shodlanish, qayg'urish, xayol surish, birdamlik, tushkunlik kabi inson ruhiy holatlarini namoyish eta oladi.

O'zbek milliy musiqasining durdonasi «Shoshmaqom» xalqning murakkab tarixi, kechinma, zavq-shavq, qayg'u-xasrat, orzu-umidlarini teran, nafis, jozibali, ehtirosli ifoda etgan. Uni tinglagan kishi beixtiyor shirin hayolot dunyosiga sho'ng'ib ketadi.

Ajoyib musiqa asarlari chuqur falsafiy mazmun bilan sug'orilgan, unda hayot va o'lim, shaxs va jamiyat, adolat va zulm, qudrat va zaiflik kabi masalalar aks etadi.

Musiqa san'atida kuy asar tanasidagi qon, qalbidagi jon sanaladi. Musiqa ijro etiladigan san'atdir. U ijro jarayonida jonlanadi, «tilga kiradi». Musiqa insonni tarbiyalash vositasi bo'lib, unda yuksak fikr va tuyg'ular, nafosat didi va orzular hosil qiladi, dard, g'am-alam, tashvishlardan forig' qiladi. A.Qodiriyning «O'tgan kunlar» romanida Otabek tushkunlik, xorg'inlik holatiga tushganida sozandadan ayriliq kuyi(O'zbekiston xalq artisti Murodjon Ahmedov qoyil-muqom, me'yoriga yetkazib kuylagan «O'rtar»)ni ijro etishni so'raydi. Kuy va qo'shiq qo'shilib inson ichki tuyg'usi qat-qatlariga kirib boradi.

Musiqa inson faoliyatining eng muhim sohalari bilan aloqaga kirishadi, mehnat jarayonlari, marosimlarda qatnashadi, hordiq chiqarishda esa yaxshi kayfiyat tug'diradi. Musiqa asarlarini idrok etilishi har bir kishini, umuman odamlarni biror maqsad-niyatga safarbar etadi, ularni yagona tuyg'u va g'ayrat atrofida birlashtiradi. *Masalan Katta Farg'ona kanali qurilishida sozanda, hofiz, raqqoslar faol ishtirok etib, kanal qazuvchilarni ma'naviy-ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlab turganlar.*

Ifodali san'at tizimida ***raqs, qo'shiqchilik*** ham muhim o'rin tutadi.

Hozirgi davrda to**mosha-qorishma san'at** turlari: teatr, estrada (ochiq sahna), sirk, kino, teledasturlar inson nafosatli his-tuyg'usiga ta'sir etuvchi, tarbiyalovchi ta'sir ko'rsatadi.

Test.

1. Qaysi falsafiy ta'limot «Hayot kuchi» mavjudligini tan olish orqali hayotni tushuntiradi?

Vitalizm

Entelexiya

Bunday ta'limot yo'q

To'g'ri javob yo'q

2. Organik dunyo evolyusiyasi haqidagi yaxlit ta'limotlar nechanchi asrda vujudga keldi?

XIX asr boshlarida

XVII asr

XV asr

XX asr oxirida

3. Falsafaning qaysi sohasida borliq va yo‘qlik, mavjudlik va nomavjudlik muammolariga doir masalalar o‘rganiladi?

Ontologiyada
Gnoseologiyada
Aksiologiyada
Ijtimoiy falsafada

4. Qadimgi Sharqda ilk marotaba qaysi man’bada borliq masalalari tahlil qilingan?

Veda va Upanishadalarda
Konfutsiy ta’limotida
Islom falsafasida
Daosizmda

5. Qadnmgi yunon faylasufi Fales borliqning birinchi sababi sifatida nimani e’tirof etgan?

Suv
Havo
Olov
Yer

6. «Borliq bor, yo‘qlik esa - yo‘q», degan fikr kimga tegishli?

Parmenidga
Platonga
Suqrotga
Zenonga

7. Tirik tabiat borligi necha darajaga bo‘linadi?

Ikki
Uch
To‘rt
Cheksiz

8. Ontologiya tushunchasini falsafada birinchi bor kim qo‘llagan?

X.Volf
D.Yum
J.Berkli
I.Kant

9. Har qanday jisemning ajralmas xususiyati nima deb ataladi?

Atribut
Qism
Individuallik
Materiya

10. Qadimgi Hindiston mutafakkirlari borliq sirining tagiga yetishga harakat qilar ekanlar, «Quyosh tunda qayerga ketadi, yulduzlar kunduzi qayoqqa yo‘qoladi» kabi savollarga javob topishga uringanlar va bu tasav-vurlarni insoniyatga ma’lum bo‘lgan eng qadimgi qaysi kitobda aks ettirganlar?

Rigvedalarda
Upanshadlarda
Monumentlarda
To‘g‘ri javob yo‘q

11.Dunyoni tushunish zamirida yotuvchi, nisbatan barqaror va mustaqil holda mavjud mohiyat nima deb ataladi?

Substansiya
Shakl
Vaqt
Harakat

12.Empedokl «borliq» atamasini bevosita ishlatmagan bo‘lsa ham, «barcha narsalarning nechta negizi» haqida so‘z yuritarkan?

4
3
2
5

13.Qadimgi Yunon faylasufi Geraklit qachon yashab ijod etgan?

Mil. av. 544-483-yillar
Mil. av. 644-583-yillar
Mil. av. 744-683-yillar
Mil. av. 344-283-yillar

14.Qaysi faylasuf «haqiqiy borliq» - «obyektiv mavjud g‘oyalar dunyosi»ni farqladi va uni «hnssiy borliq»ka qarama-qarshi qo‘ydi?

Platon
Aristotel
Geraklit
Suqrot

15.Markaziy Osiyoning eng qadimiy qaysi kitobida, borliq harakatdagi dunyo, butun jonli va jonsiz narsalarning uyg‘unligidagi mavjudlik deb ifodalanadi?

Avestoda
Hadisda
Qur’onda
To‘g‘ri javob yo‘q

16.«... biz qor bosgan, quyunlar charx urayotgan tog‘lar orasida turibmiz. Qarshimizda ba’zan tuman pardasi osha so‘qmoqlar namoyon bo‘ladi. Ular ishonchsiz bo‘lishi mumkin...» degan fikr kimning qalamiga mansub?

U.Jems
I.Vernadskiy
F.Bekon
T.Gobbs

17.O‘z-o‘zini to‘liq belgilovchi borliqni xizmat qiladigan tushuncha?

Substansiya

Materiya
Reallik
Dalil

18.Substansiya bir vaqtning o‘zida ham tabiat, ham xudo sifatida ta’riflagan va bu ikki tushunchani tenglashtirgan faylasufni toping?

SpinozaB.Gegel
Fixte
Dekart

19.Birinchi asos sifatida ikkita substansiya olingan falsafiy yondashuv nima deb ataladn?

Dualizm
Totemizm
Fetishizm
Deizm

Tabiat va texnogen sivilizatsiya estetikasi.Estetikaning zamonaviy muammolari

Reja:

1. Tabiatning estetik xususiyatlari.
2. Texnikaning inson estetik manfaatlari va faoliyati bilan bog‘liqligi.
3. Estetikaning zamonaviy muammolari
4. Estetik tarbiya
5. Estetik tarbiyaning asosiy vositalari.
6. Sog‘lom turmush tarzi estetikasi.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar texnikaviy taraqqiyot, texnika,musiqa, badiiy adabiyot, musavvirlik, haykaltaroshlik. estetik tarbiya, san’at, informatsion texnologiyalar, sport, mahalla.

1-masala. Keyingi ikki asrdan ortiq vaqt mobaynida estetikani faqat san’at falsafasi sifatida talqin qilish haqiqatga zid ekani ma’lum bo‘lib qoldi. Chunki asta-sekin “san’at estetikasi” yonida yana boshqa “estetikalar” paydo bo‘la boshladi. Ularning ba’zilarini estetik faoliyatlar, estetik sohalar kabi atamalar bilan nomlashga urinib ko‘rdik. Biroq bunday yondashuv doimo nazariy chalkashliklarga olib keldi, hozir ham o‘shanday manzarani ko‘rish mumkin. Masalan, estetik faoliyat deganimizda san’atni tushunamiz, boringki, unga dizaynni ham bir amallab tiqishtirishimiz. Lekin tabiat estetikasini yoki sport estetikasini estetik faoliyat deb aytolmaymiz, estetik nazariya sohasi ham deyish mushkul. Chunki mohiyatan ular estetik faoliyat emas, balki estetik xususiyatlar namoyon bo‘ladigan voqelik. Estetikaning qismlari deb atash ham ularga nisbatan to‘g‘ri emas; bunday atama bilan biz estetika tarixi, estetika nazariyasi, estetik madaniyat singari fanning “katta-kichik” bo‘limlarini nazarda tutamiz. Ana shunday har xilliklar ko‘pgina adabiyotlarda, hatto estetika lug‘atida ham tez-tez uchrab turadi [15]. Ulardan qutilish maqsadida biz estetikaning ikki qatordan iborat

[15]Қаранг: Эстетика. Словарь. С. 35, 276, 421 в.ҳ.

turlarga bo‘lgan holda tasniflashtirishni maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Birinchi qatorni estetikaning eng miqyosli turi – *san’at estetikasi*, ikkinchi qatorni esa qolgan barcha, *nosan’at estetik obyektga* asoslangan estetik nazariyalar tashkil etadi. Ular – tabiat estetikasi, turmush estetikasi, mehnat estetikasi, texnika estetikasi va sport estetikasi. San’at estetikasini alohida, keyingi boblarda ko‘rib chiqishimizni nazarda tutib, hozir nosan’at obyektlar estetikasi qatoridagi estetik nazariyalar turlarini qisqacha nazardan o‘tkazamiz.

Tabiat haqida gap ketganda, “tabiatni asrash”, hatto “tabiatni qutqarish” degan so‘zlarni tez-tez eshitamiz. Xo‘sh, tabiatni kimdan asrash va qutqarish kerak? Odamdan, jamiyatdan. Demak, odam, markschilar ta’riflaganidek, tabiatning bir qismi emas, uni odam bir-birini bo‘ysundirganidek bo‘ysundirishi, “olamni o‘zgartirishi” mumkin emas. Aks holda oxir-oqibat insoniyat, hayvonot va nabotot dunyosi halokatga mahkum etilishi muqarrar.

Keyingi bir asr mobaynida inson tafakkurining qudrati, fan-texnika taraqqiyoti jahonning deyarli barcha sivilizatsiyalashgan mamlakatlarida landshaftning (yer yuzi manzarasining) o‘zgarishiga, buzilishiga olib keldi. Masalan, birgina suv omborlarini olib ko‘raylik. Hozirgi paytda minglab kvadrat kilometr takrorlanmas landshaft suv ostida qolib ketdi. Vaholanki, landshaft hayvonlar, qushlar, o‘simliklar, suv, tuproq kabi qit’aviy xazinalarining uyg‘unligidir. Biz esa tabiatga bo‘lgan xudbinlarcha munosabatimiz, unga qornimizni to‘ydiradigan, hayotimizni farovon qiladigan vosita deb qarashimiz tufayli ana shu uyg‘unlikni muntazam ravishda buzib kelmoqdamiz.

Biz tabiatni nutqlarimizda, she’rlarimizda, maqolalarimizda “*Ona-tabiat*” deb ataymiz. Darhaqiqat, tobimiz qochsa, shifokorlar bizga bahavo, shaffof suvli tabiat qo‘ynida joylashgan oromgohlarga borishni, kimsasiz daryo bo‘ylaridagi butazorlar orasida chodir qurib, bir muddat tashvishlardan forig‘ yashashni tavsiya etadilar. Shahar shovqinlaridan, mehnatdan, axborotlar siquvidan charchaganimizda, jamoa bilan yoki oilaviy tarzda shanba yo yakshanba kuni tabiat qo‘yniga chiqib dam olamiz. Toliqsak, doim “onamiz” qo‘yniga intilamiz, ona-tabiat bizni davolaydi, go‘zalligi bilan hayratlantiradi, ruhlantiradi. Lekin bir-ikki kundan so‘ng yana hammasini unutamiz, tag‘in tabiatga bir xizmatkordek qaraymiz. Nega shunday? Chunki biz uni tushunmaymiz, uni bilmaymiz. Shu sababli biror bir odamning yaxshi yoki yomonligiga asl sabablar nimaligini, uning mohiyatini bilmaganimiz, tushunmaganimiz uchun “falonchining tabiati o‘zi shunaqa”, yoki muayyan hayvon yoxud o‘simlikning sir-sanoatidan bexabarligimiz tufayli uni “tabiatan o‘zi shunday” deyish bilan muammoga nuqta qo‘yamiz. Zero tabiat *olamiy kubromi* (katta olammi), *olami sug‘romi* (kichik olammi), ya’ni odammi, u – sirli, uni lozim darajada tushunmaymiz va bilmaymiz. Har qancha ekologiyaga e’tibor qilmaylik, uni fan sifatida zo‘r berib o‘qitmaylik, baribir tabiatni tushunishimiz qiyin, zotan ekologiya tabiatni asrashni, qutqarishni, boyitishni targ‘ib qiladi. Biroq ularning hammasiga faqat estetika yordamida, uning ekologiya bilan hamkorligida erishish mumkin. Chunki estetika insonga tabiatni sevishni, uning go‘zalligiga beg‘araz munosabatda bo‘lishni o‘rgatadi, ya’ni tabiatni faqat odamlar uchun yaratilgan deb emas, uni jamiyatdan

tashqaridagi umumolamiy mustaqil qadriyat sifatida idrok etishni taqozo qiladi. Ha, tabiat go‘zallik va ulug‘vorlik manbai, lekin faqat inson uchungina shunday emas. Masalan, bulbul tunda, odamlar uxlaganda sayraydi, namozshomgul va ba’zi boshqa gullar faqat qorong‘u tushayotgan paytdan boshlab ochiladi. Demak, hayvonlarni, o‘tloqlarni, daraxtlarni, daryolarni, tog‘larni faqat “biz uchun” deb emas, “*biz uchun ham*” deb tushunishimiz lozim.

Buyuk Kant tabiatni axloqiylik bilan bog‘laydi: *“Kimniki bevosita tabiat go‘zalligi qiziqtirsa, bu uning fikrlash tarzida, yo‘q deganda, axloqiylikka, ezgulikka qobiliyat mavjudligidan dalolat beradi”,* – deydi u.[16] Ammo Xegelning, tabiatda ideal yo‘q, shu sababli u ikkinchi darajali go‘zallik turi, degan fikri estetikada hukmronlik qilib keldi, ayniqsa, bu fikr tabiatni “bo‘ysundirishni” targ‘ib qilgan markschilikning tegirmoniga suv quydi. Natijada uzoq yillar mobaynida tabiat estetikasiga e’tibor qaratilmadi. Biz me’moriy obidalarni asrash, tiklash haqida qayg‘urdik, ularni estetik qadriyatlar deb e’lon qildik, lekin landshaft estetikasini chetga chiqarib qo‘ydik.

2- masala. Har qanday ishlab chiqaruvchi yaratayotgan mahsulotining hajmi, tashqi ko‘rinishi, foyda keltirish darajasi qanday bo‘lishidan qatiy nazar mahsulot ishlab chiqarish jarayoniga ijodiy yondashishga harakat qiladi. Bu ijodiylik moddiy olam bilan estetik munosabat natijasida yuzaga keladi. Shu o‘rinda «moddiyat» tushunchasiga to‘xtalib o‘tmoq joiz.

Buyuk qomusiy alloma ***Abu Rayhon Beruniyning***:«Moddiyat-aniqlik libosini kiyib, biron nimarsa shaklida ko‘rinadi... Shunday qilib, moddiyat o‘zida aniq narsalarni vujudga keltirib turadi. Vujudga keltirish borliq o‘zgarish va taraqqiyotdadir»[17],-degan fikri haqiqatga yaqindir. Chunki, moddiy olamni inson qanday bo‘lsa shundayligicha, unga hech bir qo‘shimchalar qo‘shmasdan tasavvur qiladi. Bu bevosita moddiy olam go‘zalligining foydalilik bilan o‘zaro munosabati masalalariga ham daxldor. Negaki, inson narsalar olamini nafosat tamoyillari asosida idrok qilishda eng avvalo, buyumning tashqi ko‘rinishiga, sifatiga, iste’mol uchun yaroqliligi va boshqa xususiyatlariga e’tibor qaratadi.

*Narsalar olamining estetik muammolari*ni yoritishga harakat qilgan ***S.S.Arzumanyan***, narsalar olami mohiyatan-obyektiv reallikka yaqin, u tevarak-atrofni o‘rab turgan jonli tabiat bilan doimiy aloqada, narsalar inson tomonidan yaratilganligi bois «*ikkinchi tabiat*» maqomiga ega, degan qarashni ilgari suradi.[18]Shunga ko‘ra, nafosatshunos insonni kamolotga yetaklovchi omil sifatida moddiy olamni ustuvor deb biladi.

Biroq, S. Arzumanyanning mazkur fikri bizning nazarimizda, biroz munozarali. Negaki, moddalar olami inson kamolotidagi birlamchi vosita emas va biz uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qila olmaymiz. Chunki, foydalilik insonning narsalar olami bilan bo‘ladigan munosabatida eng avvalo, mutanosiblikka, maqsadga muvofiqlikka, uyg‘unlikka asoslanmog‘i shart. Shundagina mazkur

[16]Кант И. Сочинения в 6 т. Т. 5. М., Мысль, 1966. С.314.

[17] Iqtibos.: Usmonov T. Dunyoviy ilmlar zamiri. / Qalb ko‘zi. 1999. .№ 2. 17 fevral.

[18] Qarang.: Arzumanyan S.S. Esteticheskaya organizatsiya predmetnoy sredo‘.- Yerevan. Izd. ANArm.SSR. 1988. B. 20-21.

jarayon inson tomonidan narsalar olamini rasmona tarzda estetik idrok etish imkoniyatlarini vujudga keltiradi. Bu ayniqsa, texnika estetikasida ko‘proq namoyon bo‘ladi.

Ma’lumki, *mahsulotning go‘zalligi* yangi texnologik jarayonlarni vujudga keltirish orqali barqarorlashadi. Aksincha, mahsulotni ishlab chiqarish eskirgan texnologiyalar, eskicha talablar asosida olib borilsa, bunday mahsulot har qancha ko‘p kuch sarflanmasin kishilarni o‘ziga jalb qila olmaydi. Ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni olib kirish o‘z navbatida, moddiy buyumlarda go‘zallikni namoyon qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Biroq, mazkur jarayon o‘z-o‘zicha tayyor hollarda emas, balki texnikaviy tafakkur salohiyati orqali ro‘yobga chiqadi. Shuning uchun kengroq olib qaraydigan bo‘lsak, texnika go‘zalligi ham fan go‘zalligi singari bilvosita va bevosita mazkur jarayonni amalga oshiruvchi asosiy kuch sanalgan mutaxassisga bog‘liq bo‘ladi.

Inson hayoti, faoliyati nafaqat tabiiy ehtiyojlarga, balki o‘zi tomonidan yaratilgan *narsalar olamiga* ham bog‘liq. Inson o‘zini qurshab turgan olamning qanday bo‘lishini ko‘p hollarda o‘zi belgilaydi. Ana shu jarayonning asosida esa zamonaviy amaliyotning muhim ko‘rinishi hisoblangan narsalar olamini badiiy loyihalash masalasi yotadi. Fan-texnikaning taraqqiy etib borishi natijasida badiiy loyihalash ham takomillashib boradi. Dastlabki yaratilgan texnika vositalarini kishilar go‘zallik olamiga mutlaqo begona bo‘lgan hodisa sifatida idrok etishgan edi. Keyinchalik loyihachilar tomonidan texnikaga nisbatan badiiy yondashuv natijasida u o‘zining avvalgi dag‘al, qo‘pol, noqulay ko‘rinishini yo‘qotdi. Endilikda texnika o‘zining bejirimligi, qulayligi, jozibasi bilan insonga yaqinlasha boshladi. Mazkur holatning rivojlanib borishi bilan birga texnika loyihasiga nisbatan ikki xil munosabat ham shakllanib bordi. *Birinchidan*, loyihaning asosida texnikaning mexanik faoliyati, uning ishlash jarayoni ko‘zda tutilgan bo‘lsa, *ikkinchidan*, uning tashqi ko‘rinishiga e’tibor qaratildi. Keyinchalik mazkur ikki munosabatning uyg‘un faoliyati natijasida mashinaning insoniylashgan yangi uchinchi olami, zamonaviy ibora bilan aytganda- dizayn yuzaga keldi.

Taniqli faylasuf-neotomist F.Dessauer, texnika hodisasi tabiat qonunlari bilan bog‘liqligini e’tirof etgan holda, texnikada qandaydir, o‘ziga xos alohida mazmun ham borligini nazarda tutgan. Uning fikricha, texnik g‘oyalar, guyo Xudo fikrlari, yaratuvchi yorqin tafakkurining namoyon bo‘lishidir. Texnika predmetlari moddiy mavjud bo‘lishi mumkin, ammo u g‘oyalar dunyosida, «mumkin bo‘lgan voqelik» doirasida ham o‘zini topishi mumkin. «Biz texnika haqida yaxlitlikning namoyon bo‘lishi sifatida gapirganimizda,-deb yozgan edi u,- biz vaqt davomida qandaydir doimiylik, muqimlik, mavjudlikka ega bo‘lgan yaxlitlikni nazarda tutamiz. Agar progress haqida gapiradigan bo‘lsak, texnikaning ayrim obyektlariga nisbatangina fikr bildiramiz».[19] Shunday qilib, F.Dessauer, texnikani tabiatning asoslari bilan bog‘liqligini e’tirof etgan holda, texnikaning mohiyati va yoylishining tarixiy-ijtimoiy omillarini inkor etgan edi.

M.Xaydeggerda esa, texnika voqelikning mohiyatan chuqur bo‘lgan xususiyatlarini aniqlashning muhim usuli sifatida talqin etiladi. U jumladan texnika

[19] Desaner F.Streat wn die Technik, Frankfurt an Mein. 1956.s.135 ff.

imkoniyali voqelikni ochishning va uni real voqelikka aylantirishning vositasidir, deydi. «Texnika- sir-asrorlarni ochishning turidir. Agarda shuni nazarda tutadigan bo‘lsak, u holda texnika mohiyatida biz uchun mutlaqo o‘zga bo‘lgan soha bizga namoyon bo‘ladi. Bu sir-asrorlar sohasidan chiqishning, haqiqatning qaror topishidir».[20] Bu holatni u bir necha bor takrorlaydi va har safar antik faylasuflar merosi, yoki voqelikdagi sababiylik to‘g‘risidagi an’anaviy yondoshuvlar bilan asoslaydi.

«Yuz yillar davomida falsafa to‘rtta sabab: 1) causamaterialis, masalan, kumush idish tayyorlanadigan narsa ; 2) causaformalis, bu material qabul qiladigan shakl, qiyofa; 3) causafinalis, maqsad, masalan, qurbonlik, qaysiki bunda ishlatiladigan idishning materialining shakli aniqlaniladi; 4) causaefficiens, o‘z faoliyati bilan natijani real idishni tayyorlagan kumushsoz usta»[21]

M.Xaydegger sababiyatni rimcha talqinidagi emas, balki yunoncha talqinidagi ayb yoki bahonaning to‘rt ko‘rinishi sifatida ko‘rib chiqadi. Odamlar aybni noto‘g‘ri qo‘yilgan qadam yoki yana muayyan faoliyat turi sifatida axloqiy jihatdan talqin qilishlariga ishora qiladi. Barcha ayblarning turlari, mavjudlikni asosiy chegarasidan chiquvchi hodisalardir,-deb ta’kidlaydi M.Xaydegger. Bunday mavjudlikning mohiyatida «bahona» sabab bo‘lib ko‘rinadi. Bahonaning turlari, to‘rt sababda bo‘lib,shunday qilib, asar ichki voqeligidagi aloqadorlikda roli namoyon bo‘ladi. Ana shu hodisa va uning rivoji tufayli, hunarmand va rassom qo‘llari bilan tayyorlangan asar har safar o‘ziga xos voqelik sifatida namoyon bo‘ladi.[22]

Yaspers bo‘yicha texnika-tabiat ustidan bilimli inson hukmronligiga yo‘naltirilgan harakatlarning majmuasidir; uning maqsadlari-inson hayotiga shunday qiyofa berilsaki, qaysiki u ehtiyojlardan hali qila olsa va uni qurshab turgan atrof-muhit o‘zi xohlagan shaklda namoyon bo‘lsa.Texnika ta’sirida tabiat o‘z ko‘rinishini o‘zgartirgani singari, insonga uning texnik faoliyati qanday aks ta’sir ko‘rsata oladi, ya’ni mehnatning xarakteri, mehnatni to‘g’ri tashkil etish va o‘zining muhitga ta’siri qanday bo‘lishi tarixiy taraqqiyotning asosiy omilini tashkil etadi.[23]

Asosiy xavfni Yaspers, insonning bu ikkinchi tabiatda nafasi bug‘ilib qolishida ko‘radi qaysiki uni texnika jihatdan, o‘z insoniy etikasi tomonidan tabiat oldida bo‘ysinmaydigan, o‘z mavjudligini saqlab qolishi uchun doimo peshona teri bilan mehnat qiladigan inson bizning ko‘zimizga nisbatan ozod ko‘rinadi.

«Texnika insonning kundalik hayotini uni qurshab turgan atrof-muhitni keskin o‘zgartirib yubordi, mehnat jarayoni va jamiyatni boshqa sferaga majburan ko‘chirdi, mavjudlikning barchasini qandaydir texnik mexanizm faoliyatiga, barcha planetani yagona fabrikaga aylantirib yubordi. Shu tufayli, inson o‘z yeridan to‘liq uzilib qoldi va bu holat hozirgi kunda ham davom etmoqda. Inson

[20] M.Xaydegger. Vopros o texniki. V kn.Novaya texnokraticheskaya volna na Zapade. Pod red.I.S.Gurevicha., ANSSSR Institut filosofii Moskva, Progress, 1985.s.50.
[21] ЬIsha joyda. S.47.
[22] Usha joyda. S.49.
[23] Yaspers K.Sovremennaya texnika. V.kn.Novaya texnokraticheskaya volna na Zapade.Pod red.P.S.Gureevicha. Moskva: Progress. 1986.S.120.

yerning vatanga ega bo‘lmagan aholisiga aylanib qolmoqda, an’analar tadrijiyligini yo‘qotmoqda. Ruh faqat foydali funksiyalarni bajarish qobiliyatiga o‘rgatilmoqda».[24]

Yaspers konsepsiyasida, texnikaning mohiyati, insonning tabiat bilan muloqotda qayta shakllanishi, atrof-muhitni texnizatsiyalashtirishning kuchayib borayotganligi, texnikaning demonistik vazifasi kabi dunyoqarashlik loihatidan o‘ta muhim bo‘lgan qarashlari o‘z ifodasini topgan. Ularning ayrimlari xususida asosli kamchiliklarni ko‘rsatish mumkin. Birinchidan, bizning fikrimizcha, Yaspers namoyish qilayotgan qo‘rquv, insonni o‘z-o‘zini anglashidagi hukmronlik qilayotgan mafkurada. Bu mafkuradagi faqat olish orqali tabiat va jamiyatda hukmronlik o‘rnatishga yo‘naltirilgan xudbinlik tamoyilining, hukmronlik qilmagan holda berish tamoyiliga almashgan taqdirdagina, tabiat va inson, inson va jamiyat o‘rtasidagi haqiqiy hamkorlikka real imkoniyat yaratilishi mumkin. Bu sharoitlarda ham sun’iy, ham tabiiy tabiat va jamiyat muhiti garmonik taraqqiyotning yagona platformasini topishlari mumkin bo‘ladi.

Ikkinchidan, inson ehtiyojlarining va imkoniyatlarining muvofiqligining muayyan qonuniyatlari buzilgan taqdirdagina texnika va tabiat yovuz qiyofa kasb etishi mumkin. qadimgilar inson barcha narsalarning o‘lchovidir deb bejiz aytmaganlar.

Estetikaning zamonaviy muammolari

E*stetik tarbiya* mohiyatan insoniy ideal bilan bog‘liq bo‘lib, estetik ideal egasi nafis didga, pokiza tuyg‘ularga egaligi bilan ajralib turadi. Ma’lumki, shaxs ijtimoiy taraqqiyotning turli xil jabhalarida bevosita va bilvosita ishtirok etadi va faoliyat olib boradi, shaxs bu bilan ijtimoiy taraqqiyotning estetik subyektiga aylanadi. Shunga ko‘ra, aytishimiz mumkinki, jamiyatda yashayotgan biror–bir shaxs estetik jarayonlardan chetda turmaydi, aksincha, o‘zining muayyan xatti–harakati bilan mazkur jarayonlarga u yoki bu darajada ta’sir ko‘rsatadi. Estetik tarbiyaning maqsadi ana shunday ta’sirlarni go‘zallik, ulug‘vorlik, fojiaviylik, kulgulilik asosida yo‘naltirishdan iborat.

Shuni ta’kidlash joizki, estetik tarbiya badiiy tarbiya bilan doimiy tarzda aloqada bo‘lib keladi. Biroq, bu «estetik tarbiya badiiy tarbiya bilan bir xil ma’no kasb etadi», degan gap emas. Negaki, badiiy tarbiya ijod jarayonidagi rang–barangliklar olamini inson tomonidan estetik tarzda anglash va o‘zlashtirishning bir qismi, xolos. Shu ma’noda *estetik tarbiya* – jamiyatda ma’naviy muhitni paydo qilishga ko‘mak beruvchi muhim unsur bo‘lib, u inson didini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi hamda ana shu orqali insonni jamiyat munosabatlariga yaqinlashtiruvchi kuchdir.

Hozirda estetik tarbiyaning ko‘lami tobora kengaymoqda. Shunga ko‘ra, u o‘z oldiga talaygina muhim vazifalarni qo‘ygan. Bular:

- kishilarda san’at asarlari, badiiy ijod namunalarini nafaqat faol o‘zlashtirish balki, ularning estetik mohiyatini anglash va baholash qobiliyatini takomillashtirish;

[24]Usha yerda S.121.

- jamiyat a’zolarining ijodiy imkoniyatlarini namoyon qildirish va ulardan foydalana bilishga ishonch tuyg‘usini uyg‘otish;

- tabiat hamda jamiyat ijtimoiy jarayonlariga sof tuyg‘u bilan munosabatda bo‘lishga va ularni ravnaq toptirish yo‘lida astoydil faoliyat olib borish ko‘nikmalarini xosil qilish;

- o‘tmish ma’naviy merosimizga hurmat hissini uyg‘otish, milliy g‘urur, milliy iftixor tuyg‘ularini shakllantirish uchun zamin yaratish;

- ijodning barcha turlarini taraqqiy ettirib jahonga yuz tutish va ularni millat manfaatlari uchun naf keltiradigan tomonlarini targ‘ib qilishga undashdir.

Estetik tarbiyaning asosiy vositalari

Estetik tarbiyaning barcha vositalari shaxsning voqelikka estetik munosabatini ravnaq toptirishga xizmat qiladigan tarbiyaviy faoliyat bo‘lib, u o‘ziga xos ta’sirchanlik, tug‘yoniylik kuchiga ega. Busiz inson bilish ko‘lamining vujudga kelishi mumkin emas. Shunga ko‘ra, estetik tarbiyaning asosiy vositalari tarkibiga - san’at, informatsion texnologiyalar, tabiat, mehnat, sport kabi sohalarni kiritish mumkin.

San’at - estetik tarbiyaning muhim vositasi. Bugungi kunda jamiyatimizda inson faoliyatini boshqarib borishdan ko‘ra, ushbu jarayonni insonning o‘zi tashkil etishi kerakligi bot-bot uqtirilmoqda. Bu jarayonda san’at mohiyatan shaxsning xis-tuyg‘ulariga ta’sir ko‘rsatishga qodir bo‘lgan muhim vosita sifatida insonni doimo o‘ziga jalb etib kelgan. San’at insonning ehtiroslar va tuyg‘ular olamiga singib borib ularni yig‘latadi, kuldiradi, o‘ylashga majbur qiladi. Shuning uchun bo‘lsa kerak san’at barcha davrlarda insonga hamroh bo‘lib kelgan.

San’at o‘zining estetik bisotini to‘laligicha namoyon qilishi uchun ham tarbiya jarayoni bilan chambarchas bog‘lanadi. Chunonchi, inson tafakkurini go‘zallashtirish estetikaning tadqiqot obyekti hisoblansa, estetik tarbiyaning predmeti esa ma’naviy dunyoni inson tomonidan estetik anglash bilan belgilanadi.

Ma’lumki, fuqarolarda yuksak did va idealni shakllantirish estetik tarbiyaning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bu vazifaning zalvorli yukini avval ham, hozir ham va bundan keyin ham chinakam san’at, adabiyot va ma’rifat ko‘tarishiga shubha yo‘q. Demak, ko‘rinib turibdiki, san’at voqelikka estetik munosabatning kengqamrovli sohasi bo‘lib, u insonni nafosatli hamda badiiy didini shakllantirishda muhim vosita vazifasini bajaradi. San’atning tarbiyaviy-g‘oyaviy funksiyasi hayot haqiqatlarini qaytadan tiklash orqali namoyon bo‘ladi. Estetik haqiqatning o‘zi esa hayotni badiiy ijod qonunlari bilan aks ettirishi natijasida vujudga keladi.

Informatsion texnologiyalar - estetik tarbiyaning global vositasi. Bir paytlar tabiiy va texnika bo‘yicha mutaxassislar tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalari talabalariga “Sizning ideallaringiz asosan qaysi sohalarda aks etadi?”, degan savolga ularning ko‘pchiligi san’at, adabiyot va ma’rifat sohasida ko‘proq aks etadi, degan javob berishgani ham fikrlarimizni isbotlaydi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 50 millionli auditoriyani radio 38 yilda, televidenie 13 yilda, internet esa bor-yo‘g‘i 4 yilda egallab olar ekan. Shunisi

hayratlanarliki, 1998 yilda internetdan 143 million kishi foydalangan bo‘lsa, 2001 yilda ularning soni 700 millionga yetgan. Bugungi kunga kelib esa internetdan foydalanayotganlar 1,5 mlrddan oshib ketdi. Bu borada uyali telefon xizmatini aytmasa ham bo‘ladi...

Mehnatning estetik tarbiya vositasi sifatidagi ahamiyati. Mehnat ham moddiy, hamda ma’naviy go‘zalliklar yaratish bilan estetik tarbiyaning muhim vositasiga aylanadi. Bu jarayon ijtimoiy–foydali mehnatning badiiylik bilan aloqasi ta’sirida vujudga keladi. Mazkur munosabat pirovardida mehnat vositalarining insonga keltiradigan zararini kamaytiradi. qolaversa, mehnatga ijodiy yondashuv jamiyat ma’naviy qiyofasini belgilovchi omil hisoblanadi.

Sport – estetik tarbiyaning zamonaviy vositasi. Sport estetik tarbiya vositasi sifatida zamonaviy insonni kamol toptirishda alohida e’tiborga ega. Hozirda sportni rivojlantirish mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad avlodni jismonan baquvvat, sog‘lom, vatanning jasur himoyachisi qilib tarbiyalashdir. Hozirda yurtimizda sportni rivojlantirishga doir ko‘plab dasturlar ishlab chiqilgan va ular jamiyat munosabatlaridan amalda ishtirok qilmoqdalar.

Mahalla - estetik tarbiyaning muhim omili. Mahallaning shaxs estetik tarbiyasiga ta’siri nihoyatda katta. Modomiki, mahalla jamiyat ichidagi kichkina jamiyat bo‘lib, u bugun shaxsning ijtimoiy–siyosiy faolligini oshirishga, uning ijtimoiy–huquqiy madaniyatini shakllantirishga ko‘mak beruvchi makon sifatida ham yuksak ahamiyat kasb etadi. Chunonchi mahalla;

- o‘ziga qarashli hududning tozaligi, obodligi, ko‘rkamligini hamda fuqarolarning hamjihatligini ta’minlashi bilan;
- turmush nafosati va muomala estetikani shakllantirib, insonlar qalbida ijobiy tuyg‘ular, yaxshi orzularni namoyon ettirishi bilan;
- mahalliychilik va millatchilik singari salbiy holatlarga yo‘l qo‘ymasligi hamda qo‘shnichilik madaniyatini kamol toptirishi bilan;
- san’at, madaniyat, ma’rifat arboblari, ilm ahllari ishtirokida bo‘ladigan rang-barang mavzulardagi ma’ruzalarni, suhbatlarni uyushtira olishi bilan;
- isrofgarchilikka, dabdababozlikka yo‘l qo‘ymagan holda urf-odatlar, an’analar, marosimlar, tantanali shodiyonalarni tartibli, chiroyli o‘tishini ta’minlashi va hokazo shu kabilar bilan inson estetika tafakkurini shakllantirishda birlamchi maskan bo‘lib hisoblanadi.

2. Sog‘lom turmush tarzi estetikasi

Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda estetik tarbiyaning o‘rni nihoyatda katta va ularga, aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiya tarbiyani kiritish mumkin. Sog‘lom turmush tarzi estetikasiga an’anaviy va zamonaviy yondoshuvlar mavjud. Estetik tarbiyaning turlari va yo‘nalishlariga: ommaviy axborot vositalari; san’at; badiiy adabiyot kiradi. Shaxsni estetik tarbiyalashda ta’lim tizimining roli nihoyatda ahamiyatlidir. Mehnat esa - turmush estetikasining muhim omili hisoblanadi. Insonda xulq go‘zalligini shakllantirishning zamonaviy ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, didlilik va farosatlilik – yuksak madaniyat belgisi, farosatsizlik esa shaxs

kamolotidagi illat hisoblanadi. Insonda tabiiy go‘zallik bilan estetik didning mutanosibligi muammosi mavjud bo‘lib ularga, sipolik va bachkanalik kiradi.

3. Estetikaning zamonaviy muammolari

Texnogen sivilizatsiya - estetik faoliyat va estetik didni shakllantirishning muhim omilidir. Ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni insoniylashtirish va go‘zallashtirishn estetik muammolardan hisoblanadi. Voqelikka estetik munosabatlar, milliy va umumbashariy ahamiyatga egadir. Estetik qadriyatlar esa – barqarorlikni ta’minlovchi omil hisoblanar ekan,“dunyoni go‘zallik qutqaradi” shiori global ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. “Go‘zal muhitda yashash oliy ne’mat” – estetikaning bosh tamoyilidir. Olamni estetik anglashda axborot va jamiyat axborotlashuvining roli ortib bormoqda. Axborot estetikasining o‘ziga xos xususiyatlari va uning siyosiy, badiiy, ijtimoiy, axloqiy, ma’naviy jarayonlar bilan bog‘liqligidadar. Reklama estetik ma’lumot olish vositasi bo‘lib bormoqda. Ularningg turlari va shakllari xilma-xildir. Reklama estetikasida milliylik va umumbashariylik namoyon bo‘lib boradi.

Endi ikki og‘iz so‘z estetikaning global muammosiga aylanib borayotgan “ommaviy madaniyat” haqida. Uning kelib chiqishi, ta’siri, tahdidi borasida mazkur anjuman ishtirokchilarining barchasi habardor, desam yanglishmagan bo‘laman. Lekin, bir narsaga g‘oyatda tahdidli, u ham bo‘lsa, ommaviy madaniyat insonni “qiyofasiz” oqimning bir qismiga aylantirib qo‘yishidadir. Bu illat aksariyat hollarda haqiqat, go‘zallik, ezgulik singari muqaddas tushunchalarni umumiste’molchilik ehtiyoji bilan bog‘lab, iste’mol va tovar sifatida haridorgir bo‘lishiga qaratilgan maqsadni targ‘ib qiladi. Bu esa pirovardida “bozor adabiyoti”, “bozor san’ati” degan ma’naviyatga tahdid soluvchi hodisalarning “gullab-yashnashi” uchun imkon yaratadi. Bugun turli arzonbaho ishqiy yoki detektiv sarguzashtlarning bozori chaqqon. Didsiz, saviyasiz, “millati”ning tayini yo‘q “badiiy” filmlar ham ko‘payib ketgan. “Bozor san’ati” deganda, birinchi navbatda, anashunaqa filmlar va bayram sahnalarida qarsillatib aytiladigan yangroq ashulalar esga tushadi.

Xo‘sh “ommaviy madaniyat”ning illat sifatida qanday namoyon bo‘lishi mumkin?

- “Ommaviy madaniyat” namoyondalarining amallari o‘zlari uchun har taraflama manfaatdorlikka asoslangan: ular “noyob san’at” namunalari-g‘oyalarini nafaqat targ‘ib qiladi, balki pullaydi ham.
- Faqat bugunni, yana ham aniqrog‘i hozirni ko‘radi va tan oladi.
- Umuminsoniy madaniyatni bo‘ysindirish va o‘z ta’sir doirasiga tortish kabi tuban maqsadlarni amalga oshirishga harakat qiladi.
- U odamzodning fikrlashiga tish-tirnog‘i bilan qarshi. Andozalashgan axborot-u mahsulotlar qurshovida qolgan odamlarning o‘zi ham bora-bora bir o‘lchamga tushadi: hammaning yurish-turishi, o‘y-kechinmasi, fikrlash tarzi, bari bir xil.
- Shaxsning ijtimoiylashuviga imkon bermaydi. U voqea jarayonlarga loqayd, befarq avlodni shakllantiradi.

“Ommaviy madaniyat” o‘z navbatida mafkuraviy, informatsion, iqtisodiy qadriyatlardan foydalangan holda “ma’rifatparast”lik g‘oyalari asosida o‘ziga xos muomala va muloqot madaniyatini ham targ‘ib qiladi. Buni biz bugungi kunda yoshlar orasida ko‘rishishdagi “boshni boshqa suqishtirish”, imo-ishora, o‘zaro muloqotning “kurakda turmaydigan so‘zlar”ga tayanilishi orqali ko‘rib guvohi bo‘lmoqdamiz. Shuning uchun “ommaviy madaniyat” namunalari badiiy-estetik qimmatga ega emas.

Test.

1. Kelajakni bashorat qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan kishilarni bobilliklar va assuriyaliklar nima deb atashgan?

Xoldeylar
Koxinlar
Afsungarlar
Bashoratchilar

2. Bashoratning necha turi farqlanadi?

3 ta
2 ta
4 ta
5 ta

3. Bashorat haqidagi bilimlar qaysi asrlarda tizimga solina boshlandi?

XV-XVII
XVI-XVII
XIV-XV
XV-XVI

4. Quyosh tutilishini bashorat qila olgan faylasuf kim?

Fales
Anaksimandr
Anaksimen
Geraklit

5. Lotinchada kelajak ma’nosini anglatuvchi tushuncha?

Futurologiya
Prognostika
Prognoz
To‘g‘ri javob yo‘q

6. Prognostika nima?

Ijtimoiy bashorat bilan bog‘liq tadqiqot
Ijtimoiy jarayonlarni o‘rganish
O‘rganilayotgan jarayonlarning qonuniyatlari
Barcha javoblar to‘g‘ri

7. Bugungi kunda Rim klubiga nechta mamlakat arboblari a’zo?

47

37
42
31

8. O‘tmish hozirgi zamon va kelajakning qonuniy aloqasi bilan belgilanadi. Bu prognoz qilishning qaysi turiga mansub?

Ob’yektiv
Sub’yektiv
Ilmiy
To‘g‘ri javob yo‘q

9. Kelajakni vaqtdagi chegarasi necha yildan oshmaydi?

30
40
20
10

10. Maxsus ilmiy metodlar yordamida kelajak haqida bilimlar olish jarayonlari bu -...

Prognoz qilish
Ijtimoiy prognozlashtirish
Modellashtirish
Ekstropolyatsiya

11. Prognozlashtirish necha guruhga bo‘linadi?

5 ta
3 ta
2 ta
4 ta

12.Fanning jamiyat hayotidagi rolini mutlaqlashtiruvchi konsepsiyani toping?

Ssiyentizm
Ekopessimizm
Texnopessimizm
Texnologik pessimizm

13.«Muammolar bir-biri bilan mahkam chirmashib oldi, ulkan sprut yanlig‘ butun sayyorani o‘z iskanjasiga olmoqda» degan fikrni kim aytgan?

A.Pechchi
D.Bell
A.Turun
O.Toffler

14.1956 yilda Yer sharida necha kishi yashaganligi qayd etilgan?

2,8 mlrd

5,6 mlrd
2 mlrd
2,9 mlrd

15.«Demografik portlash» deb nom olgan o‘sish qachon yuz bergan?

XX asrda
XIX asr oxirida
XIX asr o‘rtalarida
XXI asrda

16.Hindistonda savodsizlik aholining necha foizini tashkil etadi?

70%
80%
28%
60 %

17.Pokistonda savodsizlik aholining necha foizini tashkil etadi?

60 %
70 %
20 %
80 %

18.Afrika mamlakatlarida savodsizlik necha foizni tashkil etadi?

80%
70%
60%
40%

19.Sivilizatsion kasalliklar ichida eng xavflisini belgilang?

OITS
Qizamiq
Buyrak xastaligi
Sil

20.2005 yilda yurak-qon tomir kasalliklari bilan vafot etish o‘limning necha foizini tashkil etdi?

30 %
40%
50%
60%

21.2005 yilda insult tufayli hayotdan ko‘z yumganlar soni qancha?

5,2 mln
7,6 mln
3,8 mln
1,8 mln

22. 1955 yilda kim tinchlik va qurolsizlanish uchun kurash tashabbusini ilgari surgan?

B.Rassel
M.Born
L.Infeld
F.Jolio Kyuri

23.B.Rassel barcha urushlarga chek qo‘yuvchi jahon hukumati deb atagan tashkilotni belgilang?

BMT
OPEK
Shanxay
Rim klubi

24.Tinchlik, qurolsizlanish va xalqaro xavfsizlikka bag‘ishlangan jahon ilmiy jamiyatining 1957 yildagi birinchi yig‘ilishi qayerda bo‘ldi?

Kanadada
AQShda
Fransiyada
Germaniyada

25.Umumbashariy hodisalar davri qachondan boshlandi?

XX asr birinchi yarimi
XIX asr oxirida
XXI asrda
XIX asr boshlarida

26.«Tarix kurtaklari va uning maqsadi» asari muallifi kim?

K.Yaspers
A.Toynbi
M.Born
F.Jolio Kyuri

9-mavzu. Korrupsiya va uning asosiy ko‘rinishlari.

Korrupsiya tushunchasining tasnifi. Korrupsiya va korrupsiyaviy huquqbuzarlikning mohiyati, kelib chitsishi va uning asosiy ko‘rinishlari.

-O‘zbekistan Resggublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risidagi farmonni mazmun- mohiyatini singdirish;

-Oliy Talim sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kelib chiqish sabab va omillarini umumiyligiga ko‘ra: iktisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy omillarini tahlil etish orkali har bir omillarni bugungi kun ijtimoiy hayotdagi amaliy misollar yordamida ko‘rib chikish va ularni tub mohiyatini anglashga yordam berish;

- Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida PF-5618 son farmonni tushuntirish orkali talaba yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirnsh.

Takrorlash uchun savollar.

1. Korrupsiyaning tarixiy ildizlari nivalardan iborat?
2. korrupsiyaga qarshi kurash usullari haqida nimalarni bilasiz?
3. Ikki xil ma’noni anglatuvchi qonunlar nima?
4. Aholi huquqiy savodxonligining pastligi haqida nimalarni bilasiz?
5. Mamlakatdagi siyosiy vaziyatning notinchligi nima?
6. Ijro hokimiyatining birligi tamoyilinining buzilishi haqida?
7. Ichki va Tashqi nazorat nima?
8. Saylov tizimi orqali kurashishni qanday tushinasiz?
9. Korrupsiya nima?

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular. Javob yozish kerak.

1.Xulosa chiqarishning umumiy mantiqiy tavsifi.

2.Xulosa chiqarishning tuzilishi.

Adabiyotlar:

1. O`zbekiston respublikasi ma`muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksi. Toshkent: Adoloat, 2014.
2. Sh. M. Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta`minlash-yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi - Toshkent: 2014.
3. 2019 yil 27 maydagi O`zbekiston respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takkomillashtirish to`g`risidagi.PF.5729 son farmoni.
4. O`zbekiston respublikasining jinoyat kodeksi. - Toshkent: Adolat.2014.
5. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi. (Darslik). - Toshkent: 2016.
6. Иззетова Э., Пулатова Д. Философия (Учебное пособие). - Тошкент: 2017.

7.M.Sharipov, Fayzixodjyaeva D. Mantiq. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent:2004 **.**

Internet manbalari:

1. www. Ziyo net.uz
2. www.faylasuf.uz
3.www. .ziyo.uz
4. www. muslim.uz
5. www. religions.uz

9-Mavzu:Korrupsiya va uning asosiy ko'rinishlari.

Reja.

1.Korrupsiya tushunchasi.
2.Korrupsiyaning tarixiy ildizlari.
3. Korrupsiyaning jamiyat uchun havfi.

Tayanch iboralar: ildiz, demokratiya, taraqqiyotning o'ziga xos yo'li, davlat boshqaruvi, tahdid, korrupsiya, jinoyatchilik,milliy qonunchilik, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari, huquqiy madaniyat.

Korrupsiya: uning tarixiy ildizlari, korrupsiyaga qarshi kurash usullari

Korrupsiya – bu jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi.

Ta'kidlab o'tish o'rinliki, ushbu zararli hodisa katta va kichik, badavlat va kambag'al bo'lishidan qat'iy nazar, barcha mamlakatlarda uchraydi. Ushbu zararli illatni bartaraf etish bo'yicha jahon hamjamiyati tomonidan bir qator samarali ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsada, hanuzgacha u bartaraf etilmayapti.

Biz quyida korrupsiyaning tarixiy ildizlariga va unga qarshi kurashish xususida fikr yuritmoqchimiz.

Korrupsiya (lot. *Corrumpere – buzmoq*) termini odatda mansabdor shaxslar tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlardan o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ko'zlab qonunchilik va ahloq qoidalariga zid ravishda foydalanishini anglatadi.

Ko'p hollarda bu atama siyosiy elitadagi byurokratik apparatga qarata ishlatiladi. Korrupsiya ko'plab davlatlarning jinoyat va ma'muriy qonunchiligi bilan huquqqa qarshi harakat sifatida ta'qib qilinadi.

Makroiqtisodiy va siyosiy-iqtisodiy tadqiqotlar, korrupsiya – davlatlarning iqtisodiy o'sishi va rivojlanishiga ulkan to'siq ekanligini ko'rsatdi. Yurtboshimiz I. A. Karimov o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida korrupsiyaning O'zbekistonning o'z taraqqiyoti yo'lida rivojlanishiga ulkan to'siq bo'lishi mumkinligini bayon qilgan edi.

Korrupsiyaning tarixiy o‘zaklari juda juda qadimga borib taqalib, bu hol qabilada ma’lum mavqega ega bo‘lish uchun qabila sardorlariga sovg‘alar berish odatidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. O‘sha davrlarda bu normal holat sifatida qabul qilingan. Biroq davlat apparatining murakkablashuvi va markaziylashuvi korrupsiyaning davlat rivojlanishiga katta to‘siq ekanligini ko‘rsatdi. Korrupsiyaga qarshi kurashgan birinchi davlat sifatida qadimgi Shumer davlati tan olinadi. Qadimgi davlatlarni ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo‘rligi qattiq tashvishga solganligi bizgacha saqlanib qolgan manbalardan ma’lum. Chunki bu holat davlatning obro‘siga juda qattiq putur yetkazardi. Dunyoning yetakchi dinlarida ham birinchi navbatda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo‘rligi qattiq qoralanadi. Jumaladan, Injilda “Sovg‘alarni qabul qilma, chunki sovg‘a ko‘rni ko‘radigan qiladi va haqiqatni o‘zgartiradi” deyilgan bo‘lsa, Qu’roni Karimda “Boshqalarning mulkini nohaq yo‘l bilan olmangiz va boshqalarga tegishli bo‘lgan narsalarni olish uchun o‘z mulkingizdan hokimlaringizga pora qilib uzatmangizlar” deyilgan.

XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib jamiyat davlat boshqaruv apparatining ish sifatiga toboro ko‘proq ta’sir ko‘rsata boshladi. Bu o‘sha davrda qabul qilingan bir qator qonun hujjatlarida o‘z aksini topgan. Jumladan, 1787 yilda qabul qilingan AQSH Konstitusiyasida pora olish AQSH prezidentini impechmentga tortish mumkin bo‘lgan ikki jinoyatning biri sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Siyosiy partiyalarning vujudga kelishi va ularning mamlakat hayotidagi o‘rnining oshib borishi XIX-XX asrlarda rivojlangan davlatlarda korrupsiyaning dunyoning boshqa mamlakatlariga nisbatan ancha kamayishiga olib keldi.

Ushbu illatni tadqiq qilgan bir qator yirik mutaxassislar quyidagi faktorlarni korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillar sifatida ko‘rsatadi.

Ikki xil ma’noni anglatuvchi qonunlar – ushbu vaziyat huquqni qo‘llovchi mansabdor shaxs tomonidan qonunlarni turlicha qo‘llash imkonini yaratadi. Shuningdek, ayrim mutaxassislar jinoyat, ma’muriy qonunchilikdagi “vilka” sanksiyalarni ham korrupsiyaga qulay sharoit yaratishi mumkinligi haqida fikr yuritishgan. YA’ni, sanksiyaning aniq miqdori yo‘qligi sudyada uni o‘z hohishiga qarab qo‘llashga sharoit yaratib beradi.

Aholi huquqiy savodxonligining pastligi – aholi tomonidan qonunlarni bilmaslik yoki tushunmaslik mansabdor shaxsga o‘zining shaxsiy manfaati yo‘lida qonunlardan foydanishga qulay sharoit yaratadi.

Mamlakatdagi siyosiy vaziyatning notinchligi – mamlakatdagi notinchlik birinchi navbatda aholi ongida hayotda yuksak turmush darajasiga erishishning asosiy usuli qonunga xilof faoliyat bilan bog‘liq, degan mutlaqo axloqqa zid nuqtai nazar shakllanishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida korrupsiyaga qulay sharoit yaratadi.

Ijro hokimiyatining birligi tamoyilinining buzilishi – aynan bitta faoliyatning turli instansiyalar tomonidan tartibga solinishi:

–aholining davlatni nazorat qilishdagi sust ishtiroki;

–davlat sektoridagi xizmat qilayotgan xizmatchilar daromadlarining xususiy sektorda topish mumkin bo‘lgan daromadlardan kamligi;

–iqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solinishi;

–inflyatsiyaning yuqori darajasi;

–mamlakat yuqori boshqaruv organlarining aholidan uzilib qolganligi;

–mamlakatdagi diniy va axloq qoidalari.

Jahon mamlakatlarida korrupsiyaga qarshi kurashning quyidagi usullari mavjud.

Ichki nazorat –bu usul boshqaruv apparatining o‘zida nazoratni kuchaytiruvchi tuzilmalar (har xil ichki inspeksiyalar va boshqa nazorat organlari tuzish orqali) yaratishni taqazo etadi. Bu tuzilmaning asosiy vazifasi xodimlarning ichki etiket qoidalariga rioya qilishini nazorat qilishdir. Hozirgi kunda bizning yurtimizda ham bir qator huquqni muhofaza qilish organlarida aynan shu vazifani bajaruvchi ichki tuzilmalar yaratilgan.

Tashqi nazorat – bu usulda ijro apparatidan mustaqil tuzilmalarning mustaqilligini oshirish nazarda tutilib, aynan ushbu tuzilmalar orqali korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib boriladi. YA’ni, sud hokimiyatining maksimal darajada mustaqilligiga erishish ommaviy axborot vositalariga ko‘proq erkinlik berish va h.k.

Saylov tizimi orqali kurashish –demokratik davlatlarda saylangan vakillarni korrupsiya uchun jazolashning asosiy usullaridan biri keyingi saylovlarda unga ovoz bermaslik hisoblanadi. Korrupsiyaga saylovlar orqali ta’sir o‘tkazish eng samarali usul hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda yuqori natijalarga erishgan Shvetsiya, Singapur, Gonkong, Portugaliya kabi davlatlarning tajribasini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillarni bartaraf etish korrupsiyaga qarshi kurashda muhim o‘rin egallaydi.

Bunda Konstitusiyaviy nazorat organlari, huquq-tartibot organlarining ahamiyati ortadi. YA’ni, korrupsiyaga olib kelishi mumkin bo‘lgan normalarni konstitusiyaviy nazorat organi tomonidan konstitusiyaga zid deb topish, aholining huquqiy savodxonligini oshirish kabi metodlardan unumli foydalanish ushbu davlatlarni korrupsiya darajasi juda past bo‘lgan davlatlar qatoriga olib chiqqan. Biz quyida Singapur davlatida korrupsiyaga qarshi kurashda qo‘llanilgan usullar haqida batafsil to‘xtalib o‘tamiz.

Singapur davlati 1965 yil mustaqillikka erishgach korrupsiya darajasi eng yuqori bo‘lgan davlatlar qatorida turar edi. Lekin bu illatga qarshi o‘tkazilgan bir qator tadbirlar bu davlatda korrupsiyaning minimal darajaga tushishiga olib keldi. Birinchi navbatda bu yerda byurokratik jarayonlar yengillashtirilib sud tizimining mustaqilligi oshirildi (sudyalarning daromadlari va imtiyozlarini oshirish evaziga). Shu bilan birga korrupsiya jinoyatlari uchun sanksiyalar og‘irlashtirilib, fuqarolarga korrupsiyaga qarshi jinoyatlarni tergov qilishda hamkorlik qilishda bosh tortganligi uchun juda katta moliyaviy sanksiyalar belgilandi. Bir qator davlat idoralarida ommaviy “tozalashlar” o‘tkazilib bu jarayonlar telekanallar orqali butun mamlakatga namoyish qilindi. Yuqorida sanab o‘tilgan omillarning hammasi Singapurni qisqa muddatlarda korrupsiya darajasi eng past mamlakatlar ro‘yxatida ilg‘or davlatlar qatoriga olib chiqdi. Shuningdek, davlat xizmatchisining ahloq

standartlariga rioya etishini qattiq nazorat ostiga olish ham Singapur davlatida korrupsiyaga qarshi kurashda muhim dastaklardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Yurtboshimizning yuqorida eslangan asarida “jinoyatchilik, korrupsiya bizning o‘z xavfsizligimizga ham, xalqaro xavfsizlikka ham tahdid soluvchi real manbadir. Binobarin, mazkur hodisaga qarshi kurash masalalari birgina bizga taalluqli emas. Shuning uchun ham biz jinoyatchilik haqida butun jahon hamjamiyati qayg‘urmog‘i lozim, deb hisoblaymiz. Suveren O‘zbekiston xalqi va rahbariyati esa ular bilan faol hamkorlik qilishga tayyor va buni dunyoni poklash, uning xavfsizligini ta’minlash ishiga qo‘shilgan hissa, deb biladi” deb fikr bildirgan edi.

Jinoyatchi unsurlarning xo‘jalik munosabatlari tizimini shakllantirish jarayonida faol va xufyona ishtirok etishi jamiyatda axloqsizlik vaziyatini tug‘dirishi, bu esa o‘z navbatida, mamlakat uchun ham, jahon hamjamiyati uchun ham nomaqbul jinoiy bozor iqtisodiyotining alohida turi shakllanishiga olib kelishini keyinchalik BMT tomonidan ham tan olinib, 2003 yil 9 dekabrda Meksikaning Merida shahrida korrupsiyaga qarshi kurashishda davlatlar o‘rtasidagi aloqalarni yanada kuchaytirish maqsadida 3 kun davom etgan konferensiya tashkil etildi. Bu konferensiya davomida 100 dan ortiq davlat tomonidan Korrupsiyaga qarshi haqaro konvensiya imzolandi. Konferensiyaning birinchi ish kuni (9 dekabr) BMT tomonidan butun dunyoda korrupsiyaga qarshi kurash kuni deb e’lon qilingan. Ushbu konvensiyaning qabul qilinishi va kuchga kirish (2003 yil 31 oktabr) dunyo mamlakatlarining korrupsiyaga qarshi kurashdagi hamkorligini yangi pog‘onaga ko‘tardi.

Konvensiyada korrupsiyaning rivojlanishi uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa jamiyat uchun xavfli bo‘lgan salbiy omillarga qarshi kurashga ulkan to‘siq bo‘lishi mumkinligiga alohida urg‘u berilgan.

Ushbu Konvensiyaning maqsadi quyidagilardan iborat:

– korrupsiyaga qarshi qaratilgan yuqori samarali chora tadbirlarni qabul qilish va ularni mustahkamlash;

– korrupsiyaga qarshi kurashda halqaro hamkorlikni kengaytirish, yengillashtirish va qo‘llab quvvatlash.

O‘zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga 2008 yil 7 iyuldagi O‘RQ-158-sonli Qonuni bilan qo‘shilgan bo‘lib, ushbu Qonunga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokuraturasi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati va Adliya vazirligi korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirishda boshqa Ishtirokchi-davlatlarga yordam ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan organlar sifatida belgilab qo‘yilgan.

Ushbu Konvensiyada nazarda tutilgan va korrupsiya sifatida e’tirof etilishi mumkin bo‘lgan qilmishlar O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining bir qator moddalari bilan jinoiy qilmish sifatida ta’qib qilinadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda jahon mamlakatlari tajribasini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki faqatgina jinoiy qonunchilikni og‘irlashtirish yo‘li bilan bu salbiy illatga qarshi kurashib bo‘lmaydi (XXR da juda ko‘p miqdorda pora olganlik

uchun o‘lim jazosi mavjud). Bu illatni yengish uchun birinchi navbatda aholining huquqiy savodxonligini oshirish, fuqarolik institutlari faoliyatini kuchaytirish lozim bo‘ladi.

KORRUPSIYA – TARAQQIYOT KUSHANDASI

2017 yil 4 yanvardan «Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi qonun kuchga kirdi.

Har bir qonun yaxshilikni ko‘zlab, ezgu maqsadda qabul qilinadi. Ayrim qonunlar o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra davlat va jamiyat taqdiri, xalq kelajagi, har birimizga daxldor bo‘ladi. Milliy parlamentimiz tomonidan qabul qilinib, 3 yanvar kuni Prezidentimiz tomonidan imzolangan «Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi qonun ana shunday tarixiy ahamiyatga ega hujjatlardan biridir.

6 bob va 34 moddadan iborat ushbu qonunda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar va meyorlar belgilangan.

Korrupsiya nima? Bu haqda hammaning o‘ziga xos tasavvuri, tushunchasi bor, albatta. Qonunda unga shunday ta’rif berilgan: «**korrupsiya** – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish».

Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlar, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish, korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga chek qo‘yish, javobgarlikning muqarrarligi kabi masalalar aniq belgilab qo‘yilgan.

Mazkur qonun bilan yaqindan tanishish, uning har bir moddasini chuqur o‘rganib, hayotimizga tatbiq etishga intilish, sodda qilib aytganda, korrupsiya balosining naqadar mudhish illat ekanini tushunish, mustaqil idrok etish, eng muhimi, unga qarshi kurashish har birimizning fuqarolik burchimizdir.

Dunyoda korrupsiyaning turi ham, tavsifi ham juda ko‘p. Uning kelib chiqish sabablarini ochish, unga qarshi kurashishning samarali yo‘llarini topish bo‘yicha olimlar, turli institutlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan yuzlab, minglab tadqiqotlar o‘tkazilgan. Turli ko‘rsatkich va raqamlar aks etgan jadvallar yaratilgan, o‘ziga xos reytinglar tuzilgan. Hatto korrupsiyaning xilma-xil formulalari ham ishlab chiqilgan. Bu boradagi ishlar va izlanishlar izchil davom etmoqda.

Ijtimoiy-tarixiy vaziyat, fuqarolarning huquqiy dunyoqarashi, davlat tuzilishi, iqtisodiy rivojlanish omillaridan kelib chiqib, har bir davlat korrupsiyaga qarshi o‘ziga xos usullarda kurashmoqda. Bu borada eng samarali yo‘l hali topilgan emas. Chunki korrupsiya bir qarashda oddiy jinoyat bo‘lib ko‘ringani bilan aslida uning kelib chiqishi va yashovchanlik sabablari juda chigal va murakkabdir.

Bir davlatda natija bergan usul boshqa davlatda u qadar samara ko‘rsatmasligi mumkin. Shuning uchun har bir davlat va jamiyat korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘lini o‘zi tanlaydi, aniqrog‘i, qanday yo‘l to‘g‘ri ekanini hayot ko‘rsatadi. Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashni keng qamrovda olib borish choralari ko‘zda tutilgani, bu borada har bir masalaga alohida e’tibor qaratilgani bejiz emas.

Korrupsiya so‘zi «sotish», «sotilish» degan ma’nolarni ham anglatar ekan. Rahbar yoki mas’ul kishi qanday qilib korrupsiyaga qo‘l uradi? Bunga qanday omillar sabab bo‘ladi?.. Bu savollarga javob har xil bo‘lishi mumkin. Lekin shunisi aniqki, sotadigan, sotiladigan odam hech bir vazifani ko‘ngildan bajarmaydi.

Korrupsiyaga aloqador odam qonunni buzishidan tashqari, o‘zining kimligini, e’tiqodi, ma’naviyati qay darajada ekanini oshkor qiladi. Bunday odam nafaqat moliyaviy ziyon-zahmat yetkazadi, balki davlatni, demokratiyani behurmat qilib, obro‘sini to‘kadi, unga non-tuz berib katta - qilgan, ilmu hunar, obro‘ va mansab bergan el-yurtning yuziga oyoq qo‘yadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari va prinsiplarini belgilashda bunday huquqbuzarlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta’minlash masalasi qat’iy hisobga olingan.

Korrupsiyaga aralashgan, bu jirkanch illatga qo‘l urgan odam uchun ulug‘ narsalar, mo‘tabar tuyg‘ularning qadri yo‘qoladi. Bunday odamlar hayotda hamma narsani sotib olish va sotish mumkin, deb o‘ylaydi. Ular hech kimga, imon-e’tiqodga ishonmaydi, ayni paytda bunday kimsalarga hayot uchun aziz sanaladigan hech narsani inonib bo‘lmaydi. Chunki ular ota-onasi, qarindosh-urug‘lari, yoru birodarlari, mahalla-ko‘yning yuzini yerga qaratishdan, boshini egishdan uyalmaydi.

Qonunga ko‘ra, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi, bu jarayonda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish uchun Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi tashkil etilishi belgilangan. Ushbu komissiyani shakllantirish va uning faoliyati tartibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanishi qayd etilgan. Bu meyor korrupsiyaga qarshi kurashning doimiy va izchil tus olishida muhim ahamiyatga ega. Konstitusiyamizga muvofiq Prezident fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafilidir.

Hammamiz yaxshi bilamiz, qonun huquqiy munosabatlarni tartibga soladi. Vakolatlar, huquq va majburiyatlarni, amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni belgilab beradi. **Agar qonun hayotda ishlamasa, uning bir necha varaq oddiy qog‘ozdan farqi qolmaydi. Shunday ekan, «korrupsiya haqida qonun qabul qilindi, endi hammasi iziga tushib ketadi», deb o‘ylash, xotirjamlikka berilish katta xato bo‘ladi. Korrupsiya balosidan qutulish, islohotlarni uning changalidan ozod etish haqida hammamiz o‘ylashimiz, buning zaruratini har birimiz yuragimizdan o‘tkazishimiz, unga qarshi qat’iy kurashishimiz kerak.**

Bu kurash kundalik hayotimizdagi oddiy holatlardan boshlanadi. Shifokordan yaxshiroq maslahat olish, navbatni tezlashtirish, reyting daftarchasiga

tuzukroq baho qo‘ydirish va hokazo vaziyatlarda o‘zimizni munosib tutishimiz lozim bo‘ladi.

To‘g‘ri, hayotda turli holatlar va harakatlarga duch kelamiz. Ba’zida ko‘z o‘ngimizda qonunlar buziladi, inson huquqi, qadr-qimmati poymol etiladi. Bunday vaziyatlarda chorasizlikdan odamning boshi gangib qoladi. Lekin, unutmaylik, yilning Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili deb belgilanishi, shu munosabat bilan joriy etilayotgan o‘zgarish va yangilanishlar fuqarolar chorasiz qolganida yordamga keladi. Olis qishloqlardagi murojaatlarning ham ovozi eshitiladi.

Odamlarning tabiatiga o‘xshab rahbaru mas’ullar ham har xil bo‘ladi. «Jamoada hamma qulaylik o‘zim uchun, bu tashkilot menga bir paytlardagi xizmatlarim, farog‘atda yashamog‘im uchun berilgan, marhamat, qolganlar aravasini o‘zi amallab tortaversin» qabilida tor va eskicha o‘ylaydigan, «oldi-berdi»ni faoliyatining bir qismi deb tushunadigan, demokratik qonun-qoidalarni yetarlicha idrok eta olmaydigan rahbarlar ham yo‘q emas. Shuning uchun qonunda aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, xususan, davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish choralari ko‘zda tutilgan.

Qonunda belgilanganidek, ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta’lim va tarbiyani kuchaytirish masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. **To‘g‘ri ishlab, to‘g‘ri yashash saodatini bolalikdan, yoshlikdan o‘rgangan odam mard va halol bo‘ladi. Adolatsizlik, qonunga hurmatsizlik, kasbu amalga, ishonchga xiyonat qilib bo‘lmasligini o‘qib-uqqan, poraxo‘rlik va korrupsiyaga, suiiste’molchilikka qarshi o‘zida immunitet hosil qilgan yoshlar kelajakda jur’atli, vijdonli inson bo‘lib yetishadi.** Qonunga, tartib-qoidalarga hurmat saqlab, el-yurtga sadoqat bilan xizmat qiladi. Halol mehnat bilan topilmagan boylik totli bo‘lmasligini, hech kimga buyurmasligini, yaxshilik emas, yomonlik va kulfat keltirishini tushunadi.

Bir yosh kadr mas’uliyatli vazifaga kelsa, amalga ega bo‘lsa, bundan ota-ona, qarindosh-urug‘ qanchalik quvonadi?.. Bu tabiiy va ezgu tuyg‘u, albatta. Lekin ba’zi noto‘g‘ri, zararli illatlar, bilib-bilmay, tushunib-tushunmay yo‘l qo‘yib beriladigan odatlar ham borki, ularni aslo esdan chiqarmasligimiz kerak. Gohida shunday bo‘ladiki, yaqinlar, og‘a-inilarning «o‘g‘lim yoki og‘ayni, mana, ishlayapsanku, opangni uzatilayotgan qiziga durustroq sovg‘a bergin, amakingning yetmay turgan mashina puliga yordam qilib yuborgin, qiynalib yuribdi...» qabilidagi istak va xohishlar yosh kadrlarni buzadi, boshini aylantirib qo‘yadi. Yaqinlariga hurmat yuzasidan bechora o‘zini o‘qqa-cho‘qqa urishga, noqonuniy ish qilishga, oson pul topishga harakat qiladi. Istab-istamay, boshi berk ko‘chaga kirib qoladi, korrupsiya tuzog‘iga ilinadi.

Qarindosh-urug‘chilik, tanish-bilishchilikdan davlat va jamiyat manfaatlariga ziyon yetmasligi, qonunlarga, insonning qadr-qimmatiga raxna solinmasligi kerak. Qandaydir manfaat ortidan bog‘langan rishta, do‘stlik, aka-

ukachilik uzoqqa cho‘zilmaydi, hech kimga hurmat olib bermaydi. Bunga hayotdan ko‘plab misollar topish mumkin.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda, davlat hokimiyati organlari faoliyatida ochiqlik va oshkoralikni ta’minlashda, fuqarolarga tezkor va xolis axborot yetkazishda ommaviy axborot vositalariga erkinlik berish, demokratik islohotlar jarayonida ularning nufuzi va mavqeini oshirish dolzarb masala hisoblanadi. Shuning uchun korrupsiyaga qarshi kurashishda ommaviy axborot vositalarining ishtirok etishi, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida axborot berayotgan shaxslarni himoya qilish masalalari qonunda alohida belgilab qo‘yilgan.

Ommaviy axborot vositalarining erkin va dadil faoliyatisiz jamiyat hayotini demokratlashtirish, odamlarni mustaqil fikrlab yashashga undash, hozirgi kunda suv va havodek zarur bo‘lgan jamoatchilik nazoratini izchil yo‘lga qo‘yish mumkin emas. Butun dunyoda davlatning demokratiyani hurmat qilishiga, xalqning salohiyati va madaniyatiga matbuot erkinligi, odilligiga qarab ham baho beriladi. Albatta, bugun bu haqiqatni ko‘pchiligimiz yaxshi tushunamiz va tan olamiz.

Shu o‘rinda korrupsiyaga qarshi kurashish masalasining yana bir tomoniga e’tibor qaratsak. Nobop, «muomala qilish», «kelishish»ga moyil rahbar yoki boshqa bir mas’ul nafaqat tashkilotga, jamiyatga, ishchi-xodimlarga ziyon yetkazadi, balki bunday odam bilan tashkilotning, jamoaning, ayniqsa, yosh kadrlarning vaqti, umri behuda o‘tadi. Rahbar hammaga o‘rnak bo‘lib, halol ishlab, fidoyilik ko‘rsatish o‘rniga, yig‘ilishlarda bir gapni gapirib, o‘zi butunlay teskarisini qilsa, undan yosh kadrlar nimani o‘rganadi? Qanday o‘rnak oladi?.. Korrupsiyaga qarshi kurashish yana shunisi bilan muhimki, mazkur jarayonlarda ishchi-xodimlar, yoshlar halol ishlash, ishonch va vakolatga munosib xizmat bilan javob qaytarish zarur, degan tushunchaga tayanib faoliyat yuritishni o‘rganadi. **Har qanday vaziyatda mard odam, baribir, halol bo‘ladi, degan e’tiqodda sobit turadi.**

Shu sababli ham so‘nggi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlar, kichik biznes subyektlariga «yagona darcha» tamoyili orqali xizmat ko‘rsatilyapti, yagona portal orqali davlat xizmatlari elektron shaklda taqdim etilyapti. Qonun hujjatlariga, davlat tashkilotlarining ish faoliyatiga ochiqlik, oshkoralikni ta’minlash nuqtai nazaridan o‘zgartirishlar kiritilyapti va boshqa ko‘plab yangiliklar joriy qilinyapti. Bularning barchasi korrupsiya balosini bartaraf etishda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Fuqarolar bunday yondashuvni jon-dili bilan qo‘llab-quvvatlamoqda.

Dunyo kun sayin, soat sayin rivojlanyapti. Davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi hamkorlikning tezkor, yangidan-yangi ufqlari ochilyapti, milliy iqtisodiyotlar o‘zaro chambarchas bog‘langan holda yuksalmoqda, taraqqiy etmoqda. Bugun har qanday davlat boshqa davlatlar bilan izchil hamkorlik qilmasdan, oqilona investitsiya va resurslarga tayanmasdan, jahonga chiqmasdan, ayni paytda dunyoga eshiklarini keng ochmasdan, odamlar bemalol ishlaydigan ishonchli makonga aylanmasdan yuqori natijalarga erisholmaydi.

Erkin faoliyat yuritishga keng yo‘l ochib berilgan, inson huquqlari, qonuniy manfaatlari qat’iy himoya qilinadigan mamlakatning ostonasidan odam arimaydi,

bunday davlat dunyoning turli nuqtalaridan ishbilarmonlar talpinadigan yurtga aylanadi.

So‘nggi vaqtlarda jamiyatimiz hayoti, mamlakatimiz iqtisodiyotining turli sohalarini yanada jadal rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan qonunlar, Prezident qaror va farmonlari ana shu ezgu maqsadga qaratilganini anglash qiyin emas. Turizmni rivojlantirish, dunyoning ko‘plab davlatlaridan yurtimizga tashrif buyuradigan sayyohlar uchun viza rejimini bekor qilish yoki sud-huquq tizimini takomillashtirish, sudlarning haqiqiy mustaqilligini ta’minlash yoxud tadbirkorlikka keng erkinlik berish, turli byurokratik to‘siq va g‘ovlarni yo‘q qilish haqidagi hamda boshqa bir qancha qaror va farmonlar odamlarning yo‘lini ochishga, O‘zbekistonimizning jozibasini oshirishga xizmat qilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun bu boradagi islohotlar yanada izchil tus olishiga sharoit yaratmoqda, xalqimizda katta umid uyg‘otmoqda.

10-mavzu. Korrupsiya va ijtimoiy hayot. Korrupsiyani bartaraf etishning asosiy yunalishlari.

Davlatimizda korrupsiyaga qarshi kurashda davlat hokimiyati organlari faoliyatini tahlil etib muayyan vazifalarni amalga oshirmokda jumladan:

Korrupsiyani oldini olish korrupsiya sabablarini aniqlash va bartaraf etish;

Korrupsiyaga qarshi kurashning tashkiliy asoslarini tushuntirish;

Korrupsiyaga qarshi kurash sohasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari O‘zbekistan Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanishi va bu borada amalga oshirilayotgan isloxotlarni tushuntirish orkali talaba yoshlar ongi va tafakkuriga singdirish, shuningdek, 2019 yil 27-mayda O‘zbekistan Respublikasi Prezidentiniig O‘zbekistoi Respublikasida korrupsiyaga karshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari PF- 5729 son Farmoni bilan 2019-2020 yillarda korrupsiyaga karshi kurashish davlat dasturi va unda ilgari surilgan asosiy vazifalarni tahlil etishdan iboratdir.

Takrorlash uchun savollar.

1.Korrupsiya tushunchasi va uning ijtimoiy ildizlari to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
2.O‘zb.Res. Prezidenti I.Karimov korrupsiya va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash haqida o‘z asarlari va ma’ruzalarida alohida to‘xtalib o‘tgan. Xo‘sh, ushbu tahdidlarning kelib chiqishi, namoyon bo‘lishi va uning oldini olish borasida qanday ko‘rsatmalarni ilgari surgan.Bu borada Sizning fikringiz.
3.O‘zbekistonda korrupsiya va jinoyatchilikning shakllanishi hamda unga qarshi kurash borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar xususida nimalarni bilasiz?
4.Korrupsiyaga qarshi kurashning qanday huquqiy asoslari mavjud?
(Milliy qonunchilik va xorijiy tajriba misolida tushuntirib bering)
5. Huquqiy-demokratik, erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida korrupsiya, jinoyatchilik kabi illatlar taraqqiyotga doimo g‘ov bo‘lib kelgan.Siz ushbu illatlarning oldini olish maqsadida qanday takliflarni ilgari surgan bo‘lar edingiz?

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular. Javob yozish kerak.
1.Estetik tarbiyaning turlari yo‘nalishlari.
2.Tabiat va texnogen sivilizatsiya estetikasi.

Adabiyotlar:

1.O`zbekiston respublikasi ma`muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksi. Toshkent: Adoloat, 2014.
1. Sh. M. Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta`minlash-yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi - Toshkent: 2014.
2. 2019 yil 27 maydagi O`zbekiston respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takkomillashtirish to`g`risidagi.PF.5729 son farmoni.

3. O`zbekiston respublikasining jinoyat kodeksi. - Toshkent: Adolat.2014.

4. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish. (O‘quv qo‘llanma). - Toshkent: 2017.
5. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanishfalsafasi. (O‘quv qo‘llanma). - Toshkent: 2017.
6. Shermuxamedova N.A. Insonfalsafasi. (Darslik). - Toshkent: 2016.
7. Иззетова Э., Пулатова Д. Философия (Учебное пособие). - Тошкент: 2017.

8.M.Sharipov, Fayzixodjyaeva D. Mantiq. O‘quv qo‘llanma. -Toshkent: 2004.

Internet manbalari:

1. www. Ziyo net.uz
2. www.faylasuf.uz
3.www. .ziyo.uz
4. www. muslim.uz
5. www. religions.uz

10-Mavzu. Korrupsiya va ijtimoiy hayot. Korrupsiyani bartaraf etishning asosiy yo’nalishlari.

Reja.

1. Korrupsiyaga qarshi kurash sohasida davlat siyosatining asosiy yo`nalishlari.
2.Korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy omillari.
3.Korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi va uning mazmun mohiyati.

Tayanch iboralar: demokratiya, taraqqiyotning o‘ziga xos yo‘li, davlat boshqaruvi, tahdid, korrupsiya, jinoyatchilik,milliy qonunchilik, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari, huquqiy madaniyat.

XXI asr bo‘sag‘asida o‘zining davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgan O‘zbekiston milliy xavfsizlikni mustahkamlash, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish, ma’naviy, milliy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish,bozor iqtisodiyotini shakllantirish va rivojlantirish, odamlar uchun farovon turmush sharoitlarini yaratish sari o‘ziga xos yo‘l bilan ilgarilab bormoqda. Bu yo‘l o‘ta murakkab bo‘lib, bir qancha muammolar, qiyinchiliklar, sinovlarga duch kelmoqdamiz. Prezident I.A.Karimovning “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarning “Xavfsizlikka tahdid” deb nomlangan birinchi bobida XXI asr bo‘sag‘asida xalqaro vaziyat, kuchlar nisbatidagi tub o‘zgarishlar tahlil etiladi. Umumiy, mintaqaviy va milliy xavfsizlik masalalari, ularning o‘zaro bog‘liqligi ko‘ritilgan.Xavfsizlikka tahdid solayotgan ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar va muammolarni, ularning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy

ildizlarini ilmiy, nazariy, amaliy jihatdan birinchi bor har tomonlama teran ochib bergan.

Xo‘sh tahdid o‘zi nima ? U qanday tarixiy ildizga ega?,-degan savollar tug‘iladi.

TAHDID – inson, jamiyat va davlat hayoti hamda faoliyatiga nisbatan muayyan davr mobaynida aniq maqsadga yo‘naltirilgan mahalliy, hududiy, mintaqaviy va umumsayyoraviy salbiy omillarning tajovuzi tufayli aniq makon va zamonda vujudga keladigan xavf-xatar shakli, muayyan beqaror siyosiy-ijtimoiy va tarixiy vaziyatni ifodalovchi tshuncha. Ushbu tushunchaning mazmun-mohiyati, namoyon bo‘lish shakllari va xususiyatlari Prezident Islom Karimovning “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarida ko‘rsatib berilgan. Tahdidlar turli-tuman: ichki, tashqi, makon n.nazaridan esa uzoq va yaqin bo‘lishi mumkin. So‘nggi yillardagi voqealar shundan guvohlik beradiki, ularni iqtisodiy, ijtimoiy , siyosiy, ekologik, demografik, ma’naviy, mafkuraviy, harbiy, tabiiy-iqlimiy tahdidlarga ajratib, tahlil etish mumkin. Yer yuzining turli mintaqalarida sodir bo‘layotgan, butun insoniyatga xavf solib turgan turli noxush hodisalarni tahlil qilgan sari, ularning barchasida inson omili bosh sababchi ekani oydinlashadi. XXI asr boshidagi tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, muayyan davlat va millat xavfsizligi, barqarorligi, taraqqiyoti hamda istiqboli ko‘p jihatdan mazkur millatga xavf solayotgan xavf-xatar va tahdidlarni anglab yetish salohiyati va qobiliyati darajasiga bog‘liqdir. Tahdidlarga nisbatan befarqlik, loqaydlik oqibatida tanazzulga uchragan davlatlar ham bo‘lgan. Aksincha, boqiylikka daxldor millatlar ham borki, ular muvaffaqiyatining asosiy omili bo‘lg‘usi tahdidlarni oldindan sezib, unga o‘z vaqtida javob qaytargani bilan belgilanadi.

Tahdidli ijtimoiy -siyosiy vaziyatni vujudga keltiradigan turli xavf-xatarlar hamda ularni bartaraf etish muammosi buyuk ajdodlarimizning siyosat ilmiga doir fikr va xulosalarida o‘z aksini topgan. Tahdidni yuzaga keltiradigan manbalarni ildiz otmasdan bartaraf qilish, unga nisbatan doimo ogoh, hushyor bo‘lish, g‘ofillikka yo‘l qo‘ymaslik haqidagi fikrlar alloma ajdodlarimizning siyosiy tafakkuridan keng o‘rin olgan muhim jihatlardir. Bu borada mutafakkir Abu Nasr Forobiyning "Davlatni aql-idrok bilan boshqarish — xalq boshiga tushgan xavf-xatarni kamaytirish va bartaraf etishdan iboratdir"[25], degan hikmatli fikrlarini alohida ta’kidlab o‘tish joiz. Buyuk ajdodlarimiz nazdida, yurtga bo‘ladigan ichki va tashqi xavf-xatarlarga nisbatan ogoh bo‘lish muhim tamoyil darajasiga ko‘tarilgan hamda ularning oldini olishning asosiy shartlaridan biri bo‘lgan.

Jaloliddin Davoniy esa, yurt xavfsizligini asrashni davlat siyosatining bosh yo‘nalishiga aylantirish g‘oyasini ilgari suradi. Ulug‘ o‘tmishdoshlarimiz mamlakatlarga bo‘ladigan turli xavf-xatarlarning ijtimoiy hodisa ekanligidan kelib chiqib, saltanat boshliqlarini davlatning xavf-xatarga doimo javob berishga tayyorligini uni idora etishdagi mukammallik belgisi deb hisoblab, tahdidlarga nisbatan, davlat boshqaruvi tizimida yalpi boxabarlik holatini qaror toptirish

[25] Форобий . Фозил одамлар шаҳри. Т., 1993.

masalasiga katta e’tibor bergan[26] Jumladan, Amir Temur o‘z saltanatini idora etishda barcha voqea-hodisalar, ijtimoiy -siyosiy jarayonlardan yetarli darajada boxabar bo‘lib turish masalasiga alohida e’tibor qaratgan. Real xavf-xatarlarni oldindan ko‘ra bilish, uning xavflilik darajasini aniqlash maqsadida Sohibqiron muntazam, uzluksiz ishlaydigan, o‘z davri darajasidagi axborot tizimini shakllantirishni bosh vazifa qilib ko‘ygan. "Har bir diyor aholisining ahvolidan ogoh bo‘lib turdim. Har bir mamlakat ahvoli, sipohu raiyatning kayfiyatini, turish-turmushini, qilmish-qidirmishlarini, bular o‘rtalaridagi aloqalarini yozib menga bildirib turish uchun diyonatli, to‘g‘ri qadamli kishilardan voqeanavislar belgiladim"[27], deyiladi "Temur tuzuklari"da . Amir Temur mamlakat ichkarisida ham, tashqarisida ham yuz berayotgan kattayu kichik voqea-hodisalar haqida xabar berishlarini talab qilgan va buni davlat xavfsizligini ta’minlashning muhim chorasi deb hisoblagan hamda saltanat barqarorligiga qaratilgan chora-tadbirlarni ko‘rishda mablag‘ni ayamaslikka da’vat qilgan. Buyuk ajdodlarimiz jamiyatga nisbatan davr o‘rtaga qo‘ygan talablar mohiyatini anglab yetishga intilib kelgan. Bunda tahdidli vaziyatning kelib chiqishiga sabab bo‘ladigan ichki omillar tahlili, chiqarilgan xulosalar ularning faoliyatida alohida o‘rin egallaydi. Prezident I.A. Karimov “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” kitobida o‘z taqdirimizni o‘zimiz belgilashimiz, istiqlol bergan erk va ozodlikni bugungi murakkab va ba’zan shafqatsiz dunyoda bo‘layotgan turli xavf-xatarlardan saqlash har birimizga bevosita bog‘liq, degan teran ma’noli fikrni olg‘a suradi. Agar bu fikrni tahlil qiladigan bo‘lsak, birinchidan, biz yashab turgan dunyo mustaqilligimiz va taraqqiyotimiz uchun turli xil tahlikalarga to‘lib-toshganligini anglab yetish qiyin emas. Ikkinchidan, ko‘p jihatdan bizning xohish-irodamizga bo‘ysunmaydigan ijtimoiy, umumjahon rivojlanish jarayonlari mamlakatimiz fuqarolari oldiga g‘oyat mas’uliyatli talablar qo‘yayotgani bois, turli tahdidlarning oldini olish va barqarorlikka erishish yo‘lidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish har birimizning ma’naviy olamimizga bog‘liq ekani to‘g‘risida aniqroq tasavvurga ega bo‘lamiz. Mazkur tahdidlar olimlarning Xalqaro Federasiyasi tomonidan XXI asrdagi insoniyatga nisbatan bo‘lgan eng yetakchi xavf-xatar omili deb e’tirof qilinishi ham bejiz emas.

Shunday tahdidlardan biri korrupsiya va jinoyatchilikdir.

“Korrupsiya” lotincha “corruptio” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “buzish, yemirilish, sotib olish” ma’nolarini anglatadi. Yuridik ensiklopediyada “korrupsiya — mansabdor shaxslar o‘zlariga berilgan huquqlar va hokimiyat vakolatlaridan shaxsiy boylik orttirish uchun foydalanishda ifodalanuvchi siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi jinoiy faoliyat” sifatida ifoda etilgan.

Mazkur illat mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga putur yetkazadi, demokratik institutlarni zaiflashtiradi, ijtimoiy tartibni buzadi. U bilan kurashish, korrupsiyaning oldini olishning asosiy yo‘llaridan biri, shubhasiz, aholining, davlat va jamoat tashkiloti vakillarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash hisoblanadi.

[26]Ўрта Осиё мутафаккирлари, алломалари. Т., Фан, 2001.
[27] Темур тузуклари. Т., 1996.

Korrupsiya va jinoyatchilik davlatning amaldagi qonunlariga xilof ravishda shaxsiy manfaatlarni qondirish yo‘lida mansabdor shaxslar, oddiy fuqarolar tomonidan qilinadigan xatti-harakatlar va faoliyatlarning natijasidir. Ammo, ular o‘zlarining ko‘lami jihatidan, sodir etilishida qatnashadigan shaxslar yoki guruhlar salmog‘i jihatidan bir-biridan farq qiladi. Xususan, korrupsiya davlat tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan mansabdor shaxslarning amaldagi qonunlarni nazar-pisand qilmasdan boylik orttirish uchun o‘z mansablaridan foydalanish yo‘lida qilinadigan jirkanch xatti-harakatlardir. Jinoyatchilik esa, jamiyatda qonunlarga itoat etmaydigan har qanday fuqaro tomonidan sodir etilishi mumkin.

Korrupsiya davlat tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan mansabdorlar tomonidan sodir etiladi va ko‘lami jihatidan nihoyatda xatarli hisoblanadi. Chunki, mansabdorlar davlat tizimida ishlayotgan turli sohadagi, hatto qonunni himoya qiluvchi kishilar bilan ham umumiy “til” topishish orqali mamlakatni halokatga olib keluvchi o‘ta xatarli, jirkanch jinoyatlarni amalga oshirishlari mumkin. Korrupsiyaning zaminida shaxsiy manfaatdorlik turishiga alohida e’tibor berib, mansabdor shaxslar davlat, millat manfaatlaridan o‘z manfaatlarini ustun quyishadi, bu yo‘lda eng xatarli jinoyatlarga qo‘l urishlarini jahonning demokratik tamoyillari qaror topgan mamlakatlarda sodir etilgan jinoyatlardan ham ko‘rsa bo‘ladi.

Korrupsiya vujudga kelib, u eng avvalo uyushgan jinoiy tuzilmalarga madadkor bo‘lish yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri yordam berish uchun davlat xizmatining imkoniyatlaridan foydalanadi. Bu esa jinoyatchilik va korrusiya jamiyatga keltiradigan salbiy oqibatlar tufayli, jamiyat xavfsizligi va barqarorligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tahdid ekanligini anglatadi.

"Korrupsiya - davlat organlari xodimlari moddiy yoki mulkiy yo‘sinda g‘ayriqonuniy shaxsiy naf ko‘rish maqsadida o‘z xizmat mavqeidan foydalanishida ifodalanadigan ijtimoiy hodisadir. Lekin faqat davlat xizmatchilari korrupsiya faoliyatining subektlari hisoblanadi, chunki korrupsiya munosabatlari yuzaga kelishiga sabab bo‘ladigan qarorlar qabul qilish yoki harakatlar sodir etish uchun hokimiyat vakolatiga faqat ular ega bo‘ladi".

Yuqoridagilar korrupsiyaga berilgan ta’riflardir. Hozir ham bu tushunchani yoritishda bir qancha ta’riflar mavjud. BMTning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasida korrupsiyaga eng qisqa, lekin keng qamrovli ta’rif quyidagicha berilgan: "Korrupsiya - bu shaxsiy naf ko‘rish maqsadida davlat hokimiyatini suiiste’mol qilishdir".

Bugungi kunda kriminalist olimlar o‘rtasidagi bahslarda, jinoyat, fuqarolik, ma’muriy, mehnat, xo‘jalik huquqi sohasidagi mutaxassislarning ilmiy ishlarida, ommaviy axborot vositalarida "korrupsiya" iborasi turli ma’nolarda qo‘llanilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, korrupsiya ijtimoiy-huquqiy hodisa bo‘lib, jinoyatchilikning o‘ta salbiy ko‘rinishidir, deb xulosa qilish imkonini beradi.

Prezident I.A.Karimovning “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarda ko‘rsatilgandek, totalitarizmdan demokratiya va bozor munosabatlariga o‘tishdek murakkab davr mohiyati asosiy iqtisodiy va madaniy tizilmalarni sindirib tashlashni anglatadi, bu

esa ahloq va odob meyorlariga ta’sir etadi va jinoyatchilik va korrrupsiya muqarrar ravishda kuchayadi.[28]

Demokratiya va bozor munosabatlariga o‘tish davrida korrupsiya va jinoyatchilik ko‘payib boradi, uzoq davom etgan totalitar tuzumdan keyin shakllanadigan, har bir shaxsning o‘z imkoniyatlarini yuzaga chiqarishi mumkin bo‘lgan demokratiya sharoitida erkin harakat qilish huquqidan mansabdor shaxslar o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanishga qaratilganligi oqibatida yuzaga kelishi va rivojlanishini ta’kidlash joiz.

O‘z mamlakati va millati obro‘-e’tiborini qadrlaydigan har bir inson o‘zining halol mehnat qilishi, yashashi zarurligi, korrupsiya va jinoyatchilik faqat mamlakat taqdiriga tahdid soluvchi xavf bo‘ibgina qolmasdan har bir shaxsning hayoti va kelajagi uchun xatarli ekanligini anglamoq zarur. Xulosa shundan iboratki, xalqaro xavfsizlik ham, alohida olingan mamlakatlarning tinchligi ham tahdidlarga bardosh jamiyat yaratishga ko‘p jihatdan bog‘liq. Mustaqillikni mustahkamlash, tinchlik va barqarorlikni asrashga alohida e’tibor berish har birimiz uchun dolzarb masala ekanini anglab olish lozim.

Mamlakatimizda mazkur muammoga qarshi kurash masalasiga mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq jiddiy e’tibor qaratib kelinmoqda. O‘tgan davr mobaynida korrupsiya va jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda uning oldini olishga qaratilgan mustahkam huquqiy baza shakllantirildi. Respublikamizda BMT homiyligida qabul qilingan EKOSOS (BMTning iqtisodiy va ijtimoiy kengashi)ning Korrupsiyaga qarshi kurash rezolyusiyasi (1995 yil), Davlat mansabdor shaxslarining xalqaro axloq kodeksi (1996 yil), Xalqaro tijorat tashkilotlarida korrupsiya va poraxo‘rlikka qarshi kurash haqidagi deklarasiya (1997 yil), Millatlararo uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash konvensiyasi (2000 yil) va boshqa xalqaro hujjatlarning qabul qilingani mazkur illatga qarshi kurashda muhim omil vazifasini o‘tamoqda.

Hozirgi kunda dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo‘lgan eng birlamchi masalalardan biri korrupsiya muammosidir. Shu bois unga qarshi kurash xalqaro miqyosga ko‘tarilib, jahon siyosatining muhim masalalaridan biriga aylandi. Binobarin, ushbu illat nafaqat islohotlar yo‘liga jiddiy to‘siq bo‘lishi, balki o‘tish davrida belgilangan maqsadlarga erishishga ham bevosita tahdid tug‘dirishi barchaga ma’lum.

Xalqaro hujjatlar ichida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi konvensiya (2003 yil 31 oktabr) asosiy xalqaro-huquqiy hujjat bo‘lib, u ushbu jinoyatning mohiyatini to‘liq ochib, unga qarshi kurash choralarini belgilab beradi.

Konvensiya tomonidan ishtirokchi davlatlarning harakatlarini muvofiqlashtirish maqsadida doimiy maxsus Konferensiya ta’sis etilgan bo‘lib, BMTning narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurash boshqarmasi uning kotibiyati etib belgilangan.

[28] Каримов И.А. “Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари” Т. - Ўзбекистон. 1997.85-86-бетлар.

Barcha mamlakatlar korrupsiya illatini tag-tomiri bilan qo‘porib tashlashda xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlik qilayotgan bo‘lsa-da, unga qarshi kurash har bir davlatning o‘zida olib borilishi muhim ahamiyatga ega. Zero, yuqoridagi Konvensiya milliy qonunchilikni yanada takomillashtirish yo‘nalishlarini belgilab beradi.

O‘zbekiston bu borada qat’iy qadam tashlab bormoqda. Xususan, 1997 yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik konsepsiyasida korrupsiya mamlakatning milliy xavfsizligiga tahdidlardan biri, deya e’tirof etildi. Shu maqsadda “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi” qabul qilinib, hayotga tatbiq etildi. Mamlakatimiz 2008 yil 7 iyulda BMTning yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan Konvensiyasiga qo‘shildi.

Davlatimiz 2010 yil mart oyida Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti doirasida qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurashning Istanbul rejasiga (2003 yil 10 sentabr) qo‘shilgan. Shuningdek, Oliy Majlis tomonidan Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha Yevroosiyo guruhi to‘g‘risidagi bitimi (Moskva, 2011 yil 16 iyun) 2011 yil 13 dekabrda ratifikasiya qilingan.

Davlat organlarida ham tashkiliy jihatdan qator ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, O‘zbekiston Bosh prokuraturasi va Ichki ishlar vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi maxsus tuzilmalar (boshqarma va bo‘limlar) tashkil etilib, qator vazirlik va idoralarda ichki xavfsizlik inspeksiyalari tuzilgan. Ularning faoliyatini yanada jonlantirish, huquqiy targ‘ibotini kuchaytirish, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jamoatchilik bilan aloqalarini mustahkamlash maqsadida internet va ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda.

Aytish joizki, O‘zbekiston Markaziy Osiyoda birinchilardan bo‘lib “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qildi. Ushbu Qonun ijrosini ta’minlash yuzasidan Adliya vazirligi tomonidan bir qator idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan. Bunga lizing xizmatlari ko‘rsatuvchi tashkilotlarda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat qoidalari, rieltorlik tashkilotlari uchun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat qoidalari, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashishga oid qonun hujjatlari talablarini buzganliklari uchun tijorat banklari, kredit uyushmalari, mikrokredit tashkilotlari va lombardlarga nisbatan O‘zbekiston Markaziy banki tomonidan qo‘llaniladigan choralar va sanksiyalar to‘g‘risida nizomni misol qilib keltirish mumkin.

Bundan tashqari, Adliya vazirligi va Bosh prokuratura tomonidan Konvensiya talablaridan kelib chiqqan holda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining aksilkorrupsiyaviy ekspertizasini o‘tkazish metodikasi ishlab chiqilgan va 2011 yil 20 oktabrda tasdiqlangan. “O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishni

kuchaytirishni yanada takomillashtirish Milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqilib, hozirda takomiliga yetkazilmoqda.

Shu narsani alohida ta’kidlash kerakki, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan institusional mexanizmlarni isloh qilishda Yurtboshimiz tomonidan 2010 yil 12 noyabrda e’lon qilingan “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Konsepsiya talablaridan kelib chiqib, rivojlangan demokratik davlatlar tajribasini inobatga olgan holda, davlat hokimiyati idoralari, huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalar, shu jumladan, prokuratura faoliyatida qonunchilik talablariga rioya qilish va qonun ustuvorligini ta’minlash bo‘yicha adliya organlarining rolini kuchaytirish choralari ko‘rildi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan dalillarning o‘zi bu sohada bugungi kunda yurtimizda qilingan ishlarning ko‘lami haqida tegishli tasavvur beradi. Korrupsiyaga qarshi qabul qilingan meyoriy hujjatlarning amaliyotda qo‘llanishini har tomonlama o‘rganish, ularni yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish huquqshunoslar oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Zero, huquqiy-demokratik, erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida korrupsiya, jinoyatchilik, odam savdosi singari global illatlarga qarshi kurashish, ularning oldini olishda faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlar yoki davlat tashkilotlariga tayanib qolmasligimiz, balki ular bilan hamkorlikda jamoatchilik nazoratini kuchaytirishni davrning o‘zi taqozo etmoqda.

Bu illatga qarshi kurashni jahon talablari asosida shakllantirish maqsadida 2008 yil 7 iyulda mamlakatimiz BMTning "Korrupsiyaga qarshi" konvensiyasini ratifikasiya qildi va shu yili "Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Korrupsiyaga qarshi" konvensiyasiga O‘zbekiston Respublikasi qo‘shilishi to‘g‘risida"gi Qonun qabul qilindi. Ushbu konvensiya talablari korrupsiyaga oid milliy qonunchilikni yana bir bor tahlil etish, zaruriy huquqiy meyorlarni qabul qilish va shu orqali korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligini oshirishni nazarda tutadi.

Shuningdek, ushbu qonunga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokuraturasi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati va Adliya vazirligi korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirishda boshqa Ishtirokchi-davlatlarga yordam ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan organlar sifatida belgilandi.

Korrupsiyaga qarshi kurash siyosati davlat va jamiyat hayotining turli sohalarida korrupsiyani oziqlantiradigan sabab va sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan har tomonlama va izchil chora-tadbirlarni qamrab oladi. Korrupsiya, agar unga qarshi doimiy kurash olib borilmasa, ko‘payish, kengayishga moyil bo‘lgan fenomendir.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy choralari bo‘lmish huquqiy ta’lim va huquqiy tarbiya tizimini takomillashtirishni, barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan qonun va huquqqa bo‘lgan ijobiy munosabatga yetishish,

aholining huquqiy savodxonligini oshirish, fuqarolarning ijtimoiy-huquqiy faolligini ta’minlashni o‘z ichiga oladi.

Korrupsiyaga qarshi kurash O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ma’muriy-huquqiy islohotlarning muhim ahamiyatga ega yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Prezidentimizning ko‘pgina ma’ruza va asarlarida korrupsiyaga qarshi kurash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarida korrupsiyani islohotlar yo‘lidagi to‘siq va davlatimizning milliy xavfsizligiga jiddiy tahdid sifatida baholaydi.

Jumladan, Prezidentimiz mazkur asarida “Mamlakatimizning kelajagini va obro‘-e’tiborini qadrlaydigan har bir vijdonli fuqaro bu tahdidni esda tutmog‘i darkor. Halol mehnat qilish, o‘z bilimi, kuch-g‘ayrati va ijodiy qobiliyatini sarflash uchun barqaror shart-sharoit bo‘lishini istaydigan, farzandlari va yaqin kishilari kelajakda ham demokratik, fuqarolik jamiyatida sivilizasiyalashgan bozor munosabatlarining samaralaridan to‘la-to‘kis foydalanishni orzu qiladigan har bir fuqaro, jinoyatchilik va korrupsiya yo‘liga o‘z vaqtida zarur to‘siq qo‘yilmasa, bu illatlar qanday ayanchli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini yaxshi anglab yetmog‘i lozim”[29], deb ta’kidlaydi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish har bir davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Yurtboshimiz ta’biri bilan aytganda: "...korrupsiya degan balo, ya’ni poraxo‘rlik, tamagirlik, xizmat vazifasini suiiste’mol qilish kabi illatlar uchrab turayotganini inkor etib bo‘lmaydi. Qonunga zid bo‘lgan bunday xunuk holatlar bilan murosa qilishga chek qo‘yishning vaqti keldi".

Mamlakatimiz "Kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyili negizida rivojlanib bormoqda. Amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar davlat boshqaruvi idoralari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga qaratilgan. Shuning uchun ham amaldagi barcha jamoatchilik nazorati mexanizmlari takomillashtirilib borilmoqda. "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga doir takliflarni o‘zida mujassam etgan bo‘lib, unda belgilangan vazifalar bu yo‘nalishda amalga oshirilishi kerak bo‘lgan aniq chora-tadbirlarni belgilab berdi.

Korrupsiyaga qarshi kurash borasida xalqaro huquqiy asoslar va milliy qonunchilik tizimi takomillashmoqda.

Yigirma to‘rt yildirki, O‘zbekiston Respublikasi o‘zi tanlagan taraqqiyot yo‘lidan dadil odimlayapti. Xalqimiz va davlatning milliy manfaatlarini inobatga olgan holda olib borilayotgan izchil tashqi siyosat davlatimizning jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilishini, xalqaro maydonda obro‘-e’tiborining ortib borishini ta’minlayapti.

[29] Каримов И.А. “Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари” Т. - Ўзбекистон. 1997.88бет.

Muhtaram Yurtboshimiz ta’biri bilan aytganda, «Hech shubhasiz, mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashning darajasi, uning amaliy samarasi ko‘p jihatdan huquq-tartibot, prokuratura va sud organlari tizimining o‘zida bu illatga qarshi qanday kurash olib borilayotgani bilan bog‘liqdir».

Shunday qilib, jinoyatchilik, korrupsiya kabi illatlar bizning o‘z xavfsizligimizga ham, xalqaro xavfsizlikka ham tahdid soluvchi real manbadir. Albatta ushbu tahdidlarga qarshi kurash masalalari birgina bizga taalluqli emas. Shuning uchun ham jinoyatchilik, korrupsiya kabi illatlar haqida butun jahon hamjamiyati qayg‘urmog‘i lozim.Shundagina har bir mamlakatning, har bir xalqning tinchligi, farovonligi, ravnaqi uchun mustahkam poydevor yaratiladi.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq korrupsiyaga qarshi kurashish masalasiga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Natijada bugunga kelib yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olishning mustahkam huquqiy bazasi va aniq tizimi shakllandi.

Ma’lumki, korrupsiya eng xavfli jinoyatlar sirasiga kiradi. U, Prezidentimiz o‘zining “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” nomli asarida ta’riflaganidek, eng avvalo, uyushgan jinoiy tuzilmalarga madadkor bo‘lish yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri yordam berish uchun davlat xizmatining imkoniyatlaridan foydalanish demakdir[30]. Natijada, har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi, davlatning konstitusiyaviy asoslarini va qonun ustuvorligini zaiflashtiradi, pirovardida inson huquqlari va erkinliklari poymol bo‘lishiga olib keladi. Ana shu bois unga qarshi kurashishni jahon talablari asosida tashkil etish maqsadida 2008 yili mamlakatimiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2003 yil 13 oktabrdagi Korrupsiyaga qarshi konvensiyasini ratifikasiya qildi. Shuningdek, “Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga O‘zbekiston Respublikasi qo‘shilishi to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. 2010 yil mart oyida davlatimiz Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti doirasida qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurashning Istanbul rejasi (2003 yil 10 sentabr) ga qo‘shildi.

Shuningdek, davlatimiz 2010 yil mart oyida Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti doirasida qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi kurashning Istanbul rejasiga (2003 yil 10 sentabr) qo‘shilgan. Oliy Majlis tomonidan esa Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha Yevroosiyo guruhi to‘g‘risidagi bitimi (Moskva, 2011 yil 16 iyun) 2011 yil 13 dekabrda ratifikasiya qilindi.

Bu boradagi kurashning samarali natijalariga erishish maqsadida mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha mustahkam qonunchilik bazasi yaratilgan bo‘lib, u tobora takomillashtirib borilmoqda.

Bundan tashqari, "korrupsiya" tushunchasini qonun yo‘li bilan mustahkamlash korrupsiyaga qarshi kurash olib boradigan turli subektlarning vakolatlari doirasi va

[30] Каримов И.А. “Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари” Т. - Ўзбекистон. 1997.87-88бетлар.

faoliyatining miqyosini aniqlash, ularning kuch-g‘ayratini to‘g‘ri muvofiqlashtirish va zarur o‘zanga solish imkonini beradi. Ko‘pincha korrupsiyaga qarshi kurash niqobi ostida hokimiyat bilan bog‘lanmagan oddiy jinoyatni aniqlash yashirinib yotadi. Holbuki, aynan hokimiyat bilan bog‘liqlik belgisi korrupsiya to‘g‘risida so‘z yuritish imkonini beradigan asosiy belgi hisoblanadi. Aniqlangan va barham berilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar miqdori haqidagi statistik ma’lumotlardagi farqlar shu bilan belgilanadi.

Demak, korrupsiya jinoyatlarining oldini olish uchun quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

Birinchidan, korrupsiyaning barcha turlariga barham berish uchun o‘z jinoyat qonunchiligining muvofiqligini, shu jumladan, jinoyat-huquqiy va prosessual normalarni tegishli ravishda qayta ko‘rib chiqish;

Ikkinchidan, korrupsiya hamda hokimiyat vakolatini suiiste’mol qilishning oldini olish ma’muriy mexanizmlari va tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqish;

Uchinchidan, korrupsiya domiga ilingan mansabdor shaxslarni aniqlash, tergov qilish va hukm etishning maxsus tamoyillarini belgilash;

To‘rtinchidan, korrupsiya natijasida qo‘lga kiritilgan mablag‘lar va mol-mulkni musodara qilish uchun huquqiy qoidalarni ishlab chiqish;

Beshinchidan, korrupsiyaga daxldor korxonalarga nisbatan iqtisodiy sanksiyalar qo‘llash;

Oltinchidan, "Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida"gi Qonunni qabul qilish;

Yettinchidan, korrupsiyaga qarshi kurash olib boruvchi organlar faoliyatini takomillashtirish;

Sakkizinchidan, korrupsiyani vujudga keltirayotgan aniq sabab va shart-sharoitlarni aniqlash.

Yana shuni alohida qayd etish joizki, korrupsiyaga qarshi kurash maqsadlariga faqat jinoyat-huquqiy vositalar bilan erishib bo‘lmasligini hayotning o‘zi ko‘rsatmoqda. Ayni vaqtda, bu maqsadlarga huquqning boshqa tarmoqlari vositasida erishish mumkin emas. Umuman olganda, korrupsiya hodisasiga keng ma’noda yondashadigan bo‘lsak, bu shunchaki jinoyat yoki huquqbuzarlik emas, balki ma’naviy buzilish holatidir. Shunday ekan, o‘ylaymizki, mazkur illatga qarshi kurashda nafaqat davlat organlari, balki jamiyat va umuman, barcha fuqarolarimiz mas’uldirlar.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI.

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH TO‘G‘RISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2016 yil 24 noyabrda qabul qilingan
Senat tomonidan 2016 yil 13 dekabrda ma’qullangan

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari

Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

korrupsiya – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

manfaatlar to‘qnashuvi – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat.

4-modda. Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari

Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

–qonuniylik;

–fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;

–ochiqlik va shaffoflik;

–tizimlilik;

–davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi;

–korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi;

–javobgarlikning muqarrarligi.

5-modda. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

–aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

–davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

–korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta’minlash.

6-modda. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlar

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosati davlat dasturlari va boshqa dasturlar asosida amalga oshirilishi mumkin.

Davlat dasturlari va boshqa dasturlar ushbu Qonunning qoidalari samarali ijro etilishini ta’minlash, korrupsiyaning holati hamda tendensiyalaridan kelib chiqqan holda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha kompleks va tizimli chora-tadbirlar ko‘rish maqsadida ishlab chiqiladi hamda amalga oshiriladi.

LexUZ sharhi

Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 fevraldagi PQ-2752-sonli «Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori.

2-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlar

7-modda. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;

Oldingi tahrirga qarang.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati;

(7-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 18 fevraldagi O‘RQ-522-sonli Qonuni tahririda – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019 y., 2-son, 47-modda)

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;

Oldingi tahrirga qarang.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti.

(7-modda birinchi qismining oltinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 15 yanvardagi O‘RQ-516-sonli Qonuni tahririda – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019 y., 03/19/516/2484-son)

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni qonun hujjatlariga muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshiradi.

8-modda. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoralararo komissiyalar

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish uchun Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi (bundan buyon matnda Idoralararo komissiya deb yuritiladi) tashkil etiladi. Idoralararo komissiyani shakllantirish va uning faoliyati tartibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi.

LexUZ sharhi

Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 fevraldagi PQ-2752-sonli qarori bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi tarkibi va Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi to‘g‘risidagi nizom.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida, viloyatlarda va Toshkent shahrida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha hududiy idoralararo komissiyalar (bundan buyon matnda hududiy idoralararo komissiyalar deb yuritiladi) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etiladi.

–Idoralararo komissiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

–korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarining va boshqa dasturlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

–korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va hamkorligini ta’minlash;

–aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

–korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishga, ularni aniqlashga, ularga chek qo‘yishga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar samaradorligi oshirilishini ta’minlash;

–korrupsiyaning holati va tendensiyalari to‘g‘risidagi axborotni yig‘ish hamda tahlil etish;

–korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish, ushbu sohadagi mavjud tashkiliy-amaliy va huquqiy mexanizmlarning samaradorligini baholash;

–korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish va ushbu sohadagi ishlarni yaxshilash yuzasidan takliflar tayyorlash;

–hududiy idoralararo komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish.

9-modda. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi o‘z vakolatlari doirasida:

–korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

–korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

Oldingi tahrirga qarang.

–korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi tezkor-qidiruv faoliyatini, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni, dastlabki tergovni, shuningdek huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiradi;

(9-modda birinchi qismining to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 23 maydagi O‘RQ-542-sonli Qonuni tahririda – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.05.2019 y., 03/19/542/3177-son)

–korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar bo‘yicha dastlabki tergovni amalga oshiradi;

–korrupsiyaning holati va korrupsiyaga qarshi kurashish natijalari to‘g‘risidagi axborotni yig‘ish hamda tahlil qilishni amalga oshiradi;

–jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarini ko‘rib chiqadi hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralarini ko‘radi;

–korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun ijodkorligi faoliyatida, shu jumladan qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirishda ishtirok etadi;

–aholi o‘rtasida jamiyatda huquqiy ongni, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy targ‘ibotga doir faoliyatda ishtirok etadi;

–korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning o‘z vaqtida oldi olinishini, aniqlanishini va ularga chek qo‘yilishini ta’minlashga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir tadbirlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

–korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

–korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Oldingi tahrirga qarang.

10-modda. O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari

(10-moddaning nomi O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 18 fevraldagi O‘RQ-522-sonli Qonuni tahririda – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019 y., 2-son, 47-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati o‘z vakolatlari doirasida:

(10-modda birinchi qismining birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 18 fevraldagi O‘RQ-522-sonli Qonuni tahririda – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019 y., 2-son, 47-modda)

–korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

Oldingi tahrirga qarang.

–korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar bo‘yicha tezkor-qidiruv faoliyatini, tergovga qadar tekshiruvni va dastlabki tergovni amalga oshiradi;

(10-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 23 maydagi O‘RQ-542-sonli Qonuni tahririda – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.05.2019 y., 03/19/542/3177-son)

–korrupsiyaning holati va korrupsiyaga qarshi kurashish natijalari to‘g‘risidagi axborotni yig‘adi hamda tahlil qiladi, milliy xavfsizlik uchun tahdidlarni baholashni amalga oshiradi, tegishli davlat organlariga zarur axborotni taqdim etadi;

–jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarini ko‘rib chiqadi hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralarini ko‘radi;

–korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning o‘z vaqtida oldi olinishini, aniqlanishini va ularga chek qo‘yilishini ta’minlashga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir tadbirlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

–korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

–korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

Oldingi tahrirga qarang.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

(10-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 18 fevraldagi O‘RQ-522-sonli Qonuni tahririda – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019 y., 2-son, 47-modda)

11-modda. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi o‘z vakolatlari doirasida:

–korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

Oldingi tahrirga qarang.

–korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar bo‘yicha tezkor-qidiruv faoliyatini, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni va dastlabki tergovni amalga oshiradi;

(11-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 23 maydagi O‘RQ-542-sonli Qonuni tahririda – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.05.2019 y., 03/19/542/3177-son)

–korrupsiyaning holati va korrupsiyaga qarshi kurashish natijalari to‘g‘risidagi axborotni yig‘adi hamda tahlil qiladi, tegishli davlat organlariga zarur axborotni taqdim etadi;

jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarini ko‘rib chiqadi hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralarini ko‘radi;

–aholi o‘rtasida jamiyatda huquqiy ongni, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy targ‘ibotga doir faoliyatda ishtirok etadi;

–korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi statistika ma’lumotlarining hisobi yuritilishini va tahlil qilinishini ta’minlaydi;

–korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning o‘z vaqtida oldi olinishini, aniqlanishini va ularga chek qo‘yilishini ta’minlashga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir tadbirlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

–korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

–korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

12-modda. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi o‘z vakolatlari doirasida:

–korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

–korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun ijodkorligi faoliyatida ishtirok etadi;

–aholi o‘rtasida jamiyatda huquqiy ongni, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy targ‘ibotga doir faoliyatni amalga oshiradi hamda muvofiqlashtiradi;

–ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ta’lim va tarbiyaga doir chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

–normativ-huquqiy hujjatlardagi hamda ularning loyihalaridagi korrupsiya uchun shart-sharoitlar yaratadigan qoidalar va normalarni aniqlash maqsadida ushbu hujjatlar va loyihalarning tahlilini amalga oshiradi;

–korrupsiyaga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish bo‘yicha choralar ko‘radi;

–korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

–korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Oldingi tahrirga qarang.

13-modda. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari

(13-moddaning nomi O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 15 yanvardagi O‘RQ-516-sonli Qonuni tahririda – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019 y., 03/19/516/2484-son)

Oldingi tahrirga qarang.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti o‘z vakolatlari doirasida:

(13-modda birinchi qismining birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 15 yanvardagi O‘RQ-516-sonli Qonuni tahririda – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019 y., 03/19/516/2484-son)

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

Oldingi tahrirga qarang.

–jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish bilan bog‘liq jinoyatlar, iqtisodiy va korrupsiya bilan bog‘liq boshqa jinoyatlar bo‘yicha tezkor-qidiruv faoliyatini, tergovga qadar tekshiruvni va surishtiruvni amalga oshiradi;

(13-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 15 yanvardagi O‘RQ-516-sonli Qonuni tahririda – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019 y., 03/19/516/2484-son)

–jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishning ehtimol tutilgan yo‘llari va mexanizmlarini aniqlash uchun pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarning monitoringini tashkil etadi hamda o‘tkazadi;

–jinoiy ta’qib etishni tashkil qilish va huquqiy ta’sir ko‘rsatishning boshqa choralarini ko‘rish uchun tegishli davlat organlarini korrupsiyaga oid aniqlangan huquqbuzarliklar to‘g‘risida o‘z vaqtida xabardor qiladi;

–korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning o‘z vaqtida oldi olinishini, aniqlanishini va ularga chek qo‘yilishini ta’minlashga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir tadbirlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

–korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

Oldingi tahrirga qarang.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

(13-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 15 yanvardagi O‘RQ-516-sonli Qonuni tahririda – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019 y., 03/19/516/2484-son)

14-modda. Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishi

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar:

–korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi;

–aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishda ishtirok etishi;

–korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi;

–korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritishi;

–korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi mumkin.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkilotlari ushbu moddada nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish maqsadida Idoralararo komissiya va hududiy idoralararo komissiyalar faoliyatida, shuningdek davlat organlari huzuridagi ishchi guruhlar, komissiyalar va jamoat-maslahat organlari faoliyatida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishtirok etadi.

15-modda. Ommaviy axborot vositalarining korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishi

Ommaviy axborot vositalari:

–korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

–korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishga, shu jumladan aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan tadbirlarni yoritadi;

–korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

–korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

Ommaviy axborot vositalari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkin.

3-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish

16-modda. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish

Davlat organlari va boshqa tashkilotlar korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo‘yicha zarur chora-tadbirlar ko‘radi, shu jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir tushuntirish ishlarini amalga oshirish, huquqiy tarbiya va ta’limni, ilmiy-amaliy tadbirlarni tashkil etish, o‘quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlarni ishlab chiqish yo‘li bilan zarur chora-tadbirlar ko‘radi.

LexUZ sharhi

Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida»gi Farmoni.

17-modda. Davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish

Davlat organlari va boshqa tashkilotlar o‘z mansabdor shaxslarining hamda boshqa xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy savodxonligini, shu jumladan huquqiy bilimlari darajasini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘radi.

18-modda. Ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta’lim va tarbiya

Ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta’lim va tarbiya belgilangan davlat ta’lim standartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Davlat ta’limni boshqarish organlari va ta’lim muassasalari korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini inobatga olgan holda ta’lim muassasalarida huquqiy ta’lim va tarbiyaga, mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning sifatini oshirishga, ta’lim dasturlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi.

4-bob. Korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar

19-modda. Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar

Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

–davlat organlari faoliyatining ochiqligini va ularning hisobdorligini ta’minlash, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish, davlat organlarining, ular mansabdor shaxslarining va boshqa xodimlarining o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishi yuzasidan mas’uliyatini kuchaytirish;

–korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlarining faoliyati ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

–davlat organlarining va ular xodimlarining faoliyatida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘ymaslik;

–davlat organlarining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari tomonidan o‘z mansab yoki xizmat majburiyatlarining bajarilishi samaradorligi mezonlarini, standartlarini va uning sifatini baholash tizimlarini joriy etish;

–davlat organlari xodimlarining kasbiy hamda xizmatdan tashqari faoliyatdagi odob-axloqining yagona prinsiplari va qoidalarini belgilovchi odob-axloq qoidalarini samarali amalga oshirish;

–davlat organlari xodimlari manfaatlarining to‘qnashuvini hal qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, ularga rioya etilishi yuzasidan monitoring o‘tkazilishini ta’minlash;

–davlat organlari xodimlarining huquqiy maqomini belgilash, xizmatni o‘tashning shaffof tartibini o‘rnatish, shaxsiy va kasbiy sifatlar, ochiqlik,

beg‘arazlik, adolatlilik va xolislik prinsiplari asosida tanlov bo‘yicha saralash hamda xizmatda ko‘tarilish tizimini joriy etish;

–davlat organlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi, murojaatlarning to‘liq, xolisona va o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishi, ular tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlari, erkinliklarini tiklash hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha o‘z vakolatlari doirasida choralar ko‘rilishi ustidan nazoratni ta’minlash;

–davlat organlari faoliyatida korrupsiyaning oldini olishga doir tadbirlarning amalga oshirilishi yuzasidan ushbu organlar tomonidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholagan holda muntazam ravishda monitoring o‘tkazish;

–normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini tashkil etish;

–davlat organlarining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlarining samarali ijtimoiy himoya qilinishini, moddiy ta’minot olishini va rag‘batlantirilishini ta’minlash.

Qonun hujjatlarida davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir boshqa chora-tadbirlar ham nazarda tutilishi mumkin.

Davlat organlarining va o‘zga tashkilotlarning mansabdor shaxslari hamda boshqa xodimlari qonun hujjatlariga rioya etishi, o‘z mansab yoki xizmat majburiyatlarini beg‘arazlik bilan, xolisona, vijdonan, odob-axloq qoidalariga rioya etgan holda bajarishi hamda korrupsiyaga oid biror-bir huquqbuzarlikni sodir etishdan yoki bunday huquqbuzarliklarni sodir etish uchun shart-sharoitlar yaratadigan boshqa har qanday harakatlardan o‘zini tiyishi shart.

20-modda. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlik sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlik sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

–ma’muriy va byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish, ro‘yxatga olish, ruxsat etish va litsenziyaga doir tartib-taomillarni soddalashtirish hamda ularning tezkorligini oshirish;

–davlat organlarining nazorat-tekshiruv vazifalarini maqbullashtirish, tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshirish tizimini takomillashtirish, ularning faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashishga yo‘l qo‘ymaslik;

–davlat organlari va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning masofaviy shakllarini keng joriy etish;

–tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun teng shart-sharoitlar yaratish va insofsiz raqobatga yo‘l qo‘ymaslik;

–davlat xaridlarining samarali huquqiy mexanizmlarini joriy etish, davlat xaridlarini joylashtirishda oshkoralik, shaffoflikni ta’minlash hamda raqobat muhitini qo‘llab-quvvatlash;

–ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ta’minot, kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning boshqa sohalarida aholi uchun

adolatli shart-sharoitlarni hamda teng imkoniyatlarni yaratish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘ymaslik;

–nodavlat tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini joriy etish.

Qonun hujjatlarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlik sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir boshqa chora-tadbirlar ham nazarda tutilishi mumkin.

21-modda. Manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar

Davlat organlarining xodimlari mansab yoki xizmat majburiyatlarini bajarish chog‘ida manfaatlar to‘qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan shaxsiy manfaatdorlikka yo‘l qo‘ymasligi kerak.

Manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, davlat organlarining xodimlari o‘zining bevosita rahbarini darhol xabardor qilishi kerak. Manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi to‘g‘risida ma’lumotlar olgan rahbar bu to‘qnashuvning oldini olish yoki uni bartaraf etish yuzasidan o‘z vaqtida choralar ko‘rishi shart.

Davlat organlarining maxsus bo‘linmalari yoki odob komissiyalari manfaatlar to‘qnashuvini hal etish qoidalariga rioya etilishi yuzasidan monitoringni amalga oshiradi.

Davlat organlarining manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish yoki uni bartaraf etish talablari buzilishiga yo‘l qo‘ygan xodimlari, shuningdek ularning rahbarlari qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladi.

22-modda. Ma’muriy tartib-taomillar sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar

Ma’muriy tartib-taomillar sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

–qonuniylik va adolatlilik prinsiplarini ta’minlash, ma’muriy-boshqaruv jarayonining beg‘arazligi kafolatlarini yaratish, ushbu jarayonning shaffofligini, tashqi va ichki nazorat uchun ochiqligini oshirish;

–o‘z ixtiyoricha harakat qilish vakolatlarini cheklagan holda ma’muriy tartib-taomillarni batafsil tartibga solish, byurokratik rasmiyatchilikka yo‘l qo‘ymaslik;

–soddalashtirilgan ma’muriy tartib-taomillarni joriy etish;

–davlat organlarining qarorlari ustidan shikoyat qilishning va yetkazilgan zarar o‘rnini qoplashning samarali mexanizmlarini belgilash.

Qonun hujjatlarida ma’muriy tartib-taomillar sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir boshqa chora-tadbirlar ham nazarda tutilishi mumkin.

23-modda. Davlat xaridlarini amalga oshirish sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar

Davlat xaridlarini amalga oshirish sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

–davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillari to‘g‘risidagi axborotning shaffofligi va ochiqligini ta’minlash;

–adolatli raqobatni va qarorlar qabul qilish chog‘ida xolisona mezonlardan foydalanilishini ta’minlash;

–ichki nazoratning samarali tizimini, shuningdek davlat xaridlarini o‘tkazish natijalari yuzasidan shikoyat qilish va nizolashishning samarali tartib-taomilini yaratish;

–davlat elektron savdolarining samarali ishlashini ta’minlash.

Qonun hujjatlarida davlat xaridlarini amalga oshirish sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir boshqa chora-tadbirlar ham nazarda tutilishi mumkin.

24-modda. Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi

Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi:

–korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etish imkoniyatini yaratadigan, korrupsiyaga sabab bo‘ladigan omillarni aniqlashga;

–korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etish imkoniyatini yaratadigan loyihani qabul qilish oqibatlarini umumiy baholashga;

–normativ-huquqiy hujjatlarni qo‘llash jarayonida korrupsiya xususiyatiga ega xavflarning yuzaga kelishi ehtimolini prognoz qilishga;

–korrupsiyaga sabab bo‘lgan, aniqlangan omillarni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqishga va choralar ko‘rishga yo‘naltirilgan jarayondan iborat bo‘ladi.

Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan faoliyatning tegishli yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tkaziladi.

LexUZ sharhi

Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining «Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o‘tkazish uslubiyotini tasdiqlash to‘g‘risida»gi buyrug‘i.

5-bob. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga chek qo‘yish, javobgarlikning muqarrarligi

25-modda. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash va ularga chek qo‘yishga, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta’minlashga doir chora-tadbirlar

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash va ularga chek qo‘yishga, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta’minlashga doir chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

–korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlarining korrupsiyaning holatini va tendensiyalarini tizimli tahlil qilishga asoslangan samarali ishini tashkil etish, ularning faoliyatida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘ymaslik;

–korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashning zamonaviy shakllari va usullaridan foydalanish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning texnik ta’minoti darajasini oshirish, ularning ishiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

–sudlarning mustaqilligi va erkinligini, ular faoliyatining ochiqligini ta’minlash;

–korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari o‘rtasida muvofiqlashtirishni va hamkorlikni ta’minlash;

–jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlariga doir murojaatlari to‘liq, xolisona va o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishini ta’minlash;

–korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida axborot bergan shaxslarning himoya qilinishini ta’minlash;

–korrupsiyaga qarshi kurashning samarali jinoyat-huquqiy va jinoyat-protsessual mexanizmlarini yaratish.

26-modda. Davlat organlari xodimlarining korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari to‘g‘risida xabar qilish majburiyati

Davlat organlarining xodimlari ularni korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etishga ko‘ndirish maqsadida biror-bir shaxs o‘zlariga murojaat etganligiga doir barcha hollar to‘g‘risida, shuningdek davlat organlarining boshqa xodimlari tomonidan sodir etilgan shunga o‘xshash huquqbuzarliklarning o‘zlariga ma’lum bo‘lib qolgan har qanday faktlari haqida o‘z rahbarini yoxud huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xabardor etishi shart.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan majburiyatning davlat organlarining xodimlari tomonidan bajarilmaganligi qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi.

27-modda. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etganlik qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar sudning qaroriga ko‘ra muayyan huquqlardan, shu jumladan muayyan lavozimlarni egallash huquqidan qonunga muvofiq mahrum etilishi mumkin.

Yuridik shaxslar korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun qonunda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

LexUZ sharhi

Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 210 – 214-moddalari.

28-modda. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida axborot berayotgan shaxslarni himoya qilish

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida axborot berayotgan shaxslar davlat himoyasida bo‘ladi, qonunda belgilangan hollar bundan mustasno.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida axborot berayotgan shaxslarni ta’qib etish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Ushbu moddaning qoidalari korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida bila turib yolg‘on axborot bergan shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi, ular qonunga muvofiq javobgar bo‘ladi.

29-modda. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar natijasida qabul qilingan qarorlarni bekor qilish yoki o‘zgartirish

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar natijasida qabul qilingan qarorlar manfaatdor shaxsning arizasiga ko‘ra vakolatli davlat organi, boshqa tashkilot yoki mansabdor shaxs tomonidan bekor qilinishi yoxud o‘zgartirilishi yoki sud tartibida haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilganligi natijasida qabul qilingan qaror bekor qilingan, o‘zgartirilgan yoki haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, uning qabul qilinishi natijasida jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararning o‘rni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanishi lozim.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

30-modda. Korrupsiya sohasidagi tadqiqotlar

Korrupsiyaning holatini, xususiyatini, miqyoslarini, o‘zgarishlarini va tendensiyalarini, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining amalga oshirilish samaradorligini o‘rganish davlat organlari tomonidan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, shuningdek fuqarolar bilan hamkorlikda sotsiologik, maxsus, ilmiy tadqiqotlar hamda boshqa turdagi tadqiqotlar o‘tkazish yo‘li bilan doimiy asosda amalga oshiriladi.

Sotsiologik tadqiqotlar korrupsiyaga eng ko‘p duchor bo‘lgan tarmoqlar va sohalarni, uning yuzaga kelishi sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash, shuningdek mazkur faoliyatga jalb etilgan ijtimoiy guruhlarni aniqlash maqsadida sotsiologik so‘rovlar o‘tkazish va boshqa usullardan foydalanish yo‘li bilan jamoatchilik fikrini tizimli o‘rganishni o‘z ichiga oladi.

Maxsus tadqiqotlar huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyati natijalarini, korrupsiyaga oid jinoyatchilikning holatini, korrupsiya ko‘rsatkichlarining statistika hisobini muntazam ravishda tizimli tahlil qilishni, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning xususiyati va miqyoslarini, o‘zgarishlari va tendensiyalarini o‘rganishni o‘z ichiga oladi.

Ilmiy tadqiqotlar korrupsiyaga qarshi kurashish muammolari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishni, ilmiy uslubiyotlar va tavsiyalar ishlab chiqishni, ularni amaliyotga oqilona joriy etishni, korrupsiyaga qarshi kurashishda qo‘llanilayotgan shakllar va usullar samaradorligini prognoz qilish hamda ilmiy tahlil etishni o‘z ichiga oladi.

Davlat korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlaydi va rag‘batlantiradi.

31-modda. Axborot olish.

Har kim davlat organlarining tashkil etilishi va faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risida, shu shaxsning o‘ziga yoki shaxslar guruhiga taalluqli bo‘lgan hujjatlarning qabul qilinish jarayonlari haqida axborot olish huquqiga ega.

Davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa tashkilotlar korrupsiya bilan bog‘liq bo‘lgan, jamiyat uchun ahamiyatga molik voqealar, faktlar, hodisalar va jarayonlar to‘g‘risidagi xabarlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ommaviy axborot vositalariga taqdim etadi.

Axborot olish faqat qonunga muvofiq cheklanishi mumkin.

32-modda. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlik

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlik O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari chet davlatlarning vakolatli organlariga zarur axborotni taqdim etish to‘g‘risida so‘rovlar yuborish va ularning so‘rovlariga javob berish huquqiga ega.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar natijasida olingan mol-mulkni O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga muvofiq qaytarish choralarini ko‘radi.

LexUZ sharhi

Qarang: Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi.

33-modda. Qonun hujjatlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta’minlasin.

34-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

LexUZ sharhi

Ushbu Qonun «Xalq so‘zi» gazetasining 2017 yil 4 yanvardagi 2 (6696)-sonida e’lon qilingan.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti SH. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2017 yil 3 yanvar,
O‘RQ-419-son

(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 1-son, 2-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019 y., 03/19/516/2484-son; 24.05.2019 y., 03/19/542/3177-son, 2019 y., 2-son, 47-modda)

11-mavzu. Dinshunoslik faniga kirish. Dinniig mohiyati, tuzilishi, funksiyalari.

Dinshunoslik fanining predmeta, maqsad va vazifalari bayon qilingan. Dinshunoslikning ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan aloqadorligi. Dinshunoslik fanini o‘rganishning jamiyat barqarorligini mustahkamlash, diniy bag‘rikenglikni tarbiyalash, vijdon erkinligini ta’minlashdagi ahamiyati. Dinshunoslikda shakllangan mifologik. tarixiy, sotsiologik, antropologik va boshqa maktablar. Din - ijtimoiy ong shakli, muayyan turmush va tafakkur tarzi, ma’naviy qadriyat sifatida. Dinnang jamiyat va shaxs ma’naviyati yuksalishidagi, komil insonni tarbiyalashdagi ahamiyati. Dinning strukturasi. Dinning ijtimoiy funksiyalari: dunyoqarashni shakllantirish, yosh avlodni tarbiyalash, tartibga solish (regulyatorlik), birlashtirish (integratorlik), tasalli berish (kompensatorlik), aloqa o‘rnatish (kommunikativ) va h.k. Din va dinshunoslik atamalarining ta’rifi hamda dinshunoslik fanining vujudga kelishi va tadrijiy taraqqiyoti bayon etiladi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Dinshunoslik fanining predmeti nimadan iborat?
2. Dinshunoslik fanini o‘qitishdan maqsad nima?
3. Dinshunoslik fanining rivojlanish bosqichlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Dinshunoslik alohida fan sifatida qachon shakllangan?
5. Yevropalik ilk dinshunoslardan kimlarni bilasiz?
6. Dinshunoslikning qanday sohalari mavjud?
7. Dinshunoslik fanini o‘rganishning jamiyat barqarorligini ta’minlashdagi ahamiyati qanday?
8. Dinga qanday ta’riflar berilgan?
9. Dinni o‘rganishda qanday yondoshuv turlarini bilasiz?
10. Din jamiyatda qanday vazifalarni bajaradi?
11. Dinning regulyatorlik vazifasi deganda nimani tushunasiz?
12. Dinning kompensatorlik vazifasi nimalardan iborat?
13. Dinning integratorlik vazifasiga nimalar kiradi?
14. Dinlar qanday tasniflanadi?

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular. Javob yozish kerak.

1.Allomalar din to‘g‘risida.

2.Dinning inson va jamiyat hayotidagi o‘rni.

Adabiyotlar:

1. Abdusamedov A.E. Dinlar tarixi. -Toshkent: O‘zMU, 2004. -208 b.
2. Ochildiyev A. va boshqalar. Dinshunoslik asoslari (o‘quv qo‘llanma). - Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot matbaa birlashmasi, 2013.
3. Xasanov A. va boshqalar. Islom tarixi (Darslik). - Toshkent: Toshkent islom universiteti matbaa-nashriyot birlashmasi, 2008.

4. Mo‘minov A. va boshqalar. Dinshunoslik. - Toshkent: “Mehnat”, 2004.
5. Yo‘ldoshxo‘jayev X., Rahimjonov D., Komilov M. Dinshunoslik. - Toshkent: ToshDShI nashriyoti, 2000.

6. **Internet manbalari:**

1. www. Ziyo net.uz
2. www.faylasuf.uz
3.www. .ziyo.uz
4. www. muslim.uz
5. www. religions.uz

11-mavzu. DINSHUNOSLIK FANIGA KIRISH. DINNING MOHIYATI, TUZILISHI VA FUNKSIYALARI.

Reja:

1. “Dinshunoslik” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.
2. Dinshunoslikning ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan aloqadorligi.
3. Dinshunoslik fanini o‘rganishning jamiyat barqarorligini mustahkamlash, diniy bag‘rikenglikni tarbiyalash, vijdon erkinligini ta'minlashdagi ahamiyati.
4. Dinning mohiyati va unga berilgan ta'riflar.
5. Dinning ijtimoiy funksiyalari hamda dinlarni tasniflash

Tayanch tushunchalar: *Din, e’tiqod, yo‘l, «religio», «relegere», dinshunoslik, din fenomenologiyasi, din sotsiologiyasi, din psixologiyasi va din falsafasi, regulyatorlik, kompensatorlik, integratorlik, kommunikativlik, legitimlovchilik.*

Mavzu o‘quv maqsadi: Talabalarda dinning mohiyati, Dinshunoslik fanining yuzaga kelishi tarixi, Dinshunoslik fani sohalari, dinning jamiyatdagi funksiyalari, dinlarning tasnifi haqida tushuncha va tasavvurlarni shakllantirish.

Dinshunoslik fanining maqsad va vazifalari hamda boshqa sohalar bilan bog‘liqligi.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng barcha o‘quv maskanlarida "Dinshunoslik" fani fan sifatida o‘qitila boshladi. Dinshunoslik – din, uning kelib chiqishi, tarixiy shakllari, evolyutsiyasi, muqaddas yozuvlari, kishilar va jamiyat hayotida tutgan o‘rni, diniy va dunyoviy dunyoqarashlarning o‘zaro munosabatlari kabi masalalarni o‘rganuvchi ilmiy – falsafiy o‘quv predmeti sanaladi.

Dinshunoslik XIX asr o‘rtalarida G‘arbiy Yevropada alohida fan tarmog‘i sifatida vujudga kelgan. Uning asoschilari – Myuller, Taylor, Tile, Freyzer, Sosseder.

Dinshunoslikning eng yirik sohalaridan biri islomshunoslik, hurfikrlilikdir. Dinshunoslik XIX sar 30-yillarida O‘zbekistonga tarqaldi. Bu yerda oldin islomshunoslik bor edi, xolos.

Dunyo xaritasida mavjud mamlakat borki, unda yashovchi xalqlarning o‘z dini, urf-odatlari va an'analari mavjud. Ana shu qadriyatlar xalqlarning yurish-turishi, kundalik faoliyati va umuman hayot tarzini belgilashda asosiy omil bo‘lib

hisoblanadi. Dunyo xalqlari tarixini o‘rganishda ularning diniy qarashlari, e'tiqod va diniy amaliyotlarini e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas. “Dinshunoslik” fani ana shu muhim omilni tadqiq etib, tarix bilan bog‘liq ravishda tahliliy o‘rganadi.

Mustaqillik davrida milliy va diniy qadriyatlarning xalqqa qaytarilishi bilan birga jahonda mavjud xalqlarning dinlari haqida keng ma'lumot olish, ularning qadriyatlarini o‘rganish imkoniyati yuzaga keldi. Natijada “Dinshunoslik” fani izchillikda rivojlana boshladi. Bunda alloma ajdodlarimiz qoldirgan boy ilmiy-ma'naviy merosni o‘rganish bilan birga shu kunga qadar chet ellarda amalga oshirilgan izlanish va tadqiqotlarning natijalaridan unumli foydalanish zarurati paydo bo‘di.

“Dinshunoslik” fani dinni tanqid qilish yoki ko‘r-ko‘rona maqtash maqsadida emas, balki dinni tarixiylik, xolislik asosida turli xalqlar hayotida tutgan o‘rnini ilmiy jihatdan, ma'naviy hayotning bir bo‘lagi sifatida yondoshib o‘rganadi.

“*Dinshunoslik*” *fanini o‘qitishdan maqsad* – talabalarga diniy va milliy qadriyatlarning tarixan mushtarakligi, ularning umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unligini tushuntirish, ularda diniy bag‘rikenglik madaniyatini, dinga nisbatan to‘g‘ri yondashuvni shakllantirish va jamiyat uchun yuksak ma’naviyatli kadrlarni tayyorlashdan iborat.

Bundan tashqari talabalarga buddaviylik, xristianlik, islom kabi jahon dinlari bilan bir qatorda urug‘-qabila dinlari va alohida millatlarga xos milliy dinlar tarixini zamonaviy ilmiy konsepsiyalar asosida chuqurroq o‘rgatish. Shuningdek, mustaqillik yillarida O‘zbekistonda dinga nisbatan munosabatning tubdan o‘zgarganligi, diniy qadriyatlarni tiklash, diniy bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish yo‘lida qilinayotgan diqqatga sazovor ishlar haqida zaruriy ma'lumotlarni berish ko‘zda tutilgan.

«Dinshunoslik» fani dinni tanqid qilish yoki ko‘r-ko‘rona maqtash maqsadida emas, balki dinni tarixiylik, xolislik asosida turli xalqlar hayotida tutgan o‘rnini ilmiy jihatdan, ma’naviy hayotning bir bo‘lagi sifatida yondoshib o‘rganadi.

«Dinshunoslik» fanining vazifasi – talabalarga hozirgi davrdagi dinlarning ma’lum xalq hayotida tutgan o‘rni haqida umumiy nazariy tushunchalar berish, ularning davlat va din munosabatlari, dinlararo bag‘rikenglik g‘oyasi va madaniyati to‘g‘risidagi tasavvurlarini boyitish, shu bilan birga:

– dinning jamiyatga ijtimoiy, ma’naviy, ruhiy ta’siri haqida bilimlar berish;

– ibtidoiy diniy tasavvurlar, milliy va jahon dinlari ta’limotlari haqida ma’lumot berish;

– dinning mohiyati va uning kishilik jamiyati taraqqiyotidagi turli tarixiy bosqichlarda tutgan mavqei haqida tushuncha berish;

– jamiyatni ma’naviy jihatdan kamol toptirishda diniy qadriyatlarning ahamiyatini yoritish;

– dunyoviy davlat va dinning o‘zaro munosabatlarini yoritib berish;

– diniy aqidaparastlik, ekstremizm va fanatizm kabi salbiy illatlar mohiyatini yoritish va ularga qarshi g‘oyaviy immunitetni shakllantirish;

– O‘zbekiston Respublikasida dinga nisbatan munosabatning tubdan o‘zgarganligi, xususan, islom dini qadriyatlarini tiklash yo‘lida qilinayotgan ishlar haqida keng tasavvur hosil qilish.

«*Dinshunoslik*» *fanining amaliy ahamiyati* shunda ham ko‘rinadiki, u talabalarda barcha dinlar qadriyatlariga hurmat bilan qarash, ularni qadrlash madaniyatini tarbiyalaydi.

Dinshunoslikning tarix, falsafa, psixologiya, sotsiologiya, arxeologiya va boshqa ijtimoiy fanlar bilan mustahkam bog‘liqligi uning nazariyasini boyitishga xizmat qiladi.

Dinshunoslikning qator fanlar bilan o‘zaro munosabatga kirishishi natijasida uning turli sohalari yuzaga keldi. Ulardan asosiylarini quyida keltirib o‘tamiz.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, o‘tgan yillar davomida ijtimoiy tuzum, siyosiy o‘zgarishlar kishilar ma'naviyatida o‘zgarishlarni keltirib chiqardi. Sovet totalitar tuzumi yemirilgandan keyin inson ma'naviy kamolotining omillaridan biri bo‘lgan din mamlakatimiz hayotida o‘ziga xos munosib o‘rinni zgalladi. Ko‘pgina millat, turli diniy konfessiya vakillari tinch-totuv yashayotgan O‘zbekistondagi barcha dinlarning tengligini ta'minlash, fuqarolarning e'tiqodiga hurmat bilan qarash, mamlakatda tinchlik va barqarorlikni saqlash, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy taraqqiyot imkoniyatlarini kengaytirishning muhim shartlaridandir.

Ma'naviy taraqqiyot imkoniyatlarini kengaytirish, rivojlantirishda esa dinshunoslik fanining tutgan o‘rni benihoyadir. Hozirgi kunda Oliy o‘quv yurtlarida o‘qitilayotgan «Dinshunoslik» fanining vazifasi oliygoh talabalariga shu sohada chuqur bilim berish orqali fan doirasiga kirgan masalalarni tahlil qilishda ilmiylik va ob'ektivlik uslubini qo‘llab, ularda diniy qarashlar taraqqiyotiga, inson kamolotiga xizmat qiladigan jihatlarini ajratib olish, mustaqil fikr yuritish orqali ilmiy- falsafiy dunyoqarashga asoslangan imon va e'tiqodni shakllantirishdan iborat.

Dunyoviy demokratik va huquqiy jamiyat qurish yo‘lidan borayotgan jamiyatda diniy e'tiqodning tutgan o‘rni va rolini to‘g‘ri belgilay bilish va uni to‘g‘ri idrok etishda mazkur fanning ahamiyati kattadir. Jamiyat shakllanishining dastlabki davrlarida paydo bo‘lgan din xalqlar hayoti bilan bog‘liq holda rivojlangan, moslashgan, asta-sekin diniy tuzimni vujudga keltirgan. Natijada, ma'lum ijtimoiy-siyosiy va madaniy-axloqiy vazifalarni bajarishni o‘z zimmasiga olgan. Bunday funksiyalar jamiyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida ayniqsa yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Dinshunoslik fani insonshunoslik fani sifatida dinning ming yillar davomida ijtimoiy taraqqiyotdagi o‘rniga, ahamiyatiga xolis baho beradiki, bu ayiiqsa dinning mohiyatini, jamiyatda, tarixda, ma'naviy madaniyatda tutgan o‘rniga oid ishlangan mavzularda o‘z aksini topdi.

Din inson tarbiyasiga adolat va insonparvarlik omillari ustuvor bo‘lishiga imkon beradigan ma'naviy e'tiqoddir. Hozirgi murakkab va mas'uliyatli mustaqillik davrida turli dinlarga e'tiqod qiluvchi kishilarni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish, xalqlarni diniy ziddiyatlar girdobiga tortish, xokimiyat uchun

kurash maqsadida dindan foydalanish adolatsizliklarga, nohaq qon to‘kishga olib keladi.

«Dinshunoslik» fani dinning paydo bo‘lishi va rivojlanish tarixi, bir shakldan ikkinchi shaklga o‘tishini o‘rganuvchi fandir. Shuningdek, dunyoviy davlat qurish yo‘lidan izchillik bilan borib, demokratiya va qonun ustuvorligini mustahkamlayottan O‘zbekistonda dinga bo‘lgan munosabatning asosiy mezonlari ham aniq belgilab beriladiki, amaliy o‘zgarish ham dinshunoslikning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Hurfikrlilikka xos dastlabki fikrlar hurfikr mutafakkirlar Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Hayyom, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Bobur kabi bobokalonlarimizning ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan boyiganki, ular izchil xulosalarni ham keltirib chiqarishgan - birinchidan, har qanday din jamiyatda vujudga kelib, jamiyatda shakllanganki, shu sababli din ijtimoiy ong shakllaridan biridir: ikkinchidan, diniy tasavvur va e'tiqodlar jamiyat taraqqiyotining muayyan ijtimoiy sharoitlar ta'sirida turli-tuman shakl va ko‘rinish kasb etgan: uchinchidan, ibtidoiy din tasavvurlaridan tortib jahon dinlarigacha bo‘lgan dinlar taraqqiyoti evolyutsiyasini e'tirof etish dinshunoslik haqida to‘g‘ri xulosa chiqarish imkoniyatini beradi.

Dinshunoslik fani Falsafa, Tarix, Adabiyot, Pedagogika, Psixologiya, Etnografiya, Etika, Sotsiologiya kabi fanlar bilan bog‘liq.

Fan chiqargan ilmiy xulosalarni talabalar ongiga yetkazish, ularda falsafiy dunyoqarashni kengaytirish, din muammosi bo‘yicha ilmiy erkin fikr yuritish, diniy. manbalarni o‘rganish va ular bo‘yicha ob'ektiv xulosalar chiqarishda dinshunoslik fanining ahamiyati kattadir.

Ma'lumki, falsafa va boshqa fanlar singari dinshunoslik ham dunyoqarash bilan bog‘liq. U shaxsda diniy e'tiqodni paydo bo‘lishi, yashashdan boshlab, jamiyat taraqqiyotidagi evolyutsiyasi va uning hissiyotiga ta'sirini ilmiy jihatdan o‘rganadi. Dinshunoslik o‘ziga xos ilmiy ta'rif berish bilan birga uning ijtimoiy, gnoseologik va psixologik ildizlarini ochadi.

Inson doimo turli dunyoqarash va e'tiqod bilan yashaydi va yashagan. Har kimning o‘z ichki dunyosi, o‘z e'tiqodi bo‘ladi. Lekin, bunday xilma-xillik, qarama-qarshi aqida va g‘oyalarning mavjudligi murosasiz ziddiyatlarga, jiddiy to‘knashuvlarga olib kelmasligi, odamlar, dinu mazhablar mamlakatu davlatlar o‘rtasida ijobiy munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishiga to‘siq, sun'iy g‘oya bo‘lmasligi kerak. Vijdon erkinligi dinga ishonuvchilarni majburan o‘z e'tiqodlaridan qaytarib, dinni ma'muriy tarzda, ta'qiqlab qo‘yishning har qanday nazariy va amaliy ko‘rinishlariga chek qo‘yadi. Kursning amaliy ahamiyatidan yana biri shundaki, qonunlarni mukammal o‘rgangan, tahlil qilgan holda uning mohiyatini, mazmunini ochib berishga xizmat.qiladi.

Mustaqillik yillarida vijdon erkinligi printsiplarini tiklash va unga og‘ishmay amal qilish davr, kundalik hayot talabi va zaruriyatiga aylanib qoldi. Din va Qonun o‘zaro munosabatlarini yaxshi bilish esa demokratik jamiyat poydevorini mustahkamlaydi. O‘bekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va “Vijdon erkinligi va

diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni turli diniy jamoa a'zolarining huquqlari, majburiyatlari haqida to‘la ma'lumot beradi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida bu masalalar o‘z yechimini topgan va u dunyodagi rivojlangan mamlakatlardagi huquqiy-me'yoriy talablarga to‘la javob beradi. Har qanday dinga e'tiqod qiluvchi va hech qanday dinga e'tiqod qilmaydigan kishilar uchun bir xildagi shartlar qo‘yilishini ta'minlovchi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida, jumladan, shunday deyiladi:

“Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi”.

Bu vijdon erkinligini kafolatlash bilan bir qatorda o‘quvchilarda qonunga hurmat hissini, o‘zininggina emas, boshqalarning ham diniy his-tuyg‘ularini hurmat qilish, tushunishga harakat qilish, o‘z shaxsiy fikrlarini boshqa kishilarga tazyiq bilan o‘tkazish g‘ayriqonuniy xatti-harakat ekanligi, jamoat joylarida diniy masalalarda zo‘ravonlik, tajovuzkorlikka yo‘l qo‘ymaslik dunyoqarashini shakllantiradi.

O‘zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatiga kirib borayotgan bir sharoitda uning fuqarolri turli konfessiyalar vakillari bilan muloqot etishning yuksak madaniyatiga ega bo‘lishi ham juda muhimdir.

Fuqaro, jamiyat, davlat o‘rtasida o‘zaro ijobiy munosabatni o‘rnatishda «Dinshunoslik» predmetining ahamiyati benihoyadir. Konstitutsiyada dinniig tarbiyaviy ahamiyatiga e'tibor berish lozimligi ko‘rsatilganki, predmet yoshlarga din va hurfikrlilik xaqida ilmiy bilimlar berish orqali dinning ijtimoiy mohiyatini, u tarixiy xodisa ekanligini tushuntirish bilan jamiyat rivojlanish borasida zamonaviylashuvini, ba'zan esa yangi diniy guruhlar paydo bo‘lishi mumkinligini ham tushuntiradi.

Din kishilarni hamisha yaxshilikka, ezgu ishlarga chorlab kelgan. Jumladan, ota-bobolarimizning muqaddas e'tiqodi bo‘lgan islom dini ham yuksak insoniy fazilatlarning shakllanishiga xizmat qilgan. U tufayli xalqimiz ming yillar mobaynida boy ma'naviyati va merosi, o‘zligini omon saqlab keldi.

O‘zbek xalqining ilg‘or madaniy va ma'naviy merosini tiklash va yangi sharoitda yanada rivojlantirish, bu hududdagi ilk zamondan hozirgacha mavjud dinlarning tarixi, hayotiy tajribasi tadrijiy taraqqiyotini o‘rganish vatan tarixini chuqurroq tushunib yetish, uni sevish va u bilan faxrlanish his-tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiladi. Din va Qonun o‘zaro munosabatlarini bilish respublikada demokratik huquqiy jamiyat qurish poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Din va dunyoviy davlat orasidagi munosabat haqida so‘z ketar ekan, uning asosida eng avvalo, dinning davlatdan ajratilishi tamoyili yotishini ta'kidlash zarur. Bu haqda Konstitutsiyamizning 61-moddasida shunday deyiladi: “Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi”.

Mazkur moddada muhim ahamiyatga ega qoidalar mustahkam qo‘yilgan. Birinchidan, diniy tashkilotlar qaysi konfessiyaga taalluqliligidan qat'i nazar, bir xil huquqiy maydonda faoliyat olib boradilar. Ikkinchidan, diniy birlashmalar faoliyatini tashkil etish ularning ichki ishi hisoblanadi va davlat nazoratidan xolidir.

Shu bilan birga, diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan bo‘lsa-da, bu dinning jamiyatdan ajratilganini anglatmasligini ta'kidlash zarur. Zero, biror dinga e'tiqod qiluvchi fuqarolar ham jamiyatning tarkibiy qismi va shu sababli din fuqarolik jamiyatida o‘z mavqeiga ega bo‘ladi.

Davlatning dinga munosabatidagi asosiy xususiyati – bu dinning siyosatga aralashmasligi. Zero, har qanday din, birinchi o‘rinda ma'naviy-axloqiy jihatni o‘z ichiga oladi.

Davlatning dinga bo‘lgan munosabatini ifodalovchi yana bir tamoyil shundan iboratki, davlat dinni xalq ma'naviyatining uzviy qismi sifatida tan oladi. Bundan kelib chiqib, uning rivoji uchun tegishli shart-sharoit yaratishga harakat qiladi.

Shuning uchun ham yurtimizda dinshunoslik fanni o‘rganishga katta e’tibor qaratildi va mazkur masalada bir qator ijobiy natijalarga erishildi.

Dinshunoslik fanining quyidagi bo‘limlari mavjud:

Din fenomenologiyasi. Fenomen, namoyon bo‘luvchi, ko‘zga ko‘rinuvchi narsa bo‘lib, fenomenologiya ko‘zga ko‘rinuvchi narsaning sistematik shaklda tadqiq qilinishidir. Dinning ko‘zga ko‘rinuvchi, tashqarida aks etuvchi jihatlarini o‘rganuvchi ilm sohasiga «Din fenomenologiyasi» deyiladi. Din fenomenologiyasi, tarixiy shakllanishlarni e’tiborga olmagan holda diniy fakt va voqelikning bizga namoyon bo‘lgan jihatlarini asosiy o‘ringa ko‘taradi. Turli dinlarning ibodat va marosimlarini, muqaddas joy, zamon, narsa va shaxsiyatlarini tadqiq qilib, mushtarak jihatlarini topishga harakat qiladi.

Din fenomenologiyasi diniy tuyg‘u va bu tuyg‘uning ko‘rinishlari deyarli butun dunyoda bir-biriga o‘xshashiga ishora qiladi; barcha dinlarning asli va g‘oyasining bir ekanligini isbotlashga harakat qiladi. Shuning bilan birga diniy ramz (belgi) larda yashirgan ma’nolarni ochish va majoziy so‘zlarning muqaddas mazmunini yoritish kabi ishlar ham uning vazifalariga kiradi.

Din fenomenologiyasi, materiallarini dinlar tarixidan oladi. Lekin u bu materiallarga tarixiylikdan ham ko‘ra ko‘proq sistematik jihatdan yondashadi. Shunday qilib diniy asoslar, diniy fenomen va shakllanishlarni muqoyasa qiladi. Din fenomenologiyasi boshqa din ilmlarini bilan ba’zi nuqtalarda birlashishiga qaramasdan, mustaqil bir ilm sohasi sifatida, ba’zan farqlangan jihatlari ham bo‘lib turadi.

Din sotsiologiyasi. Din – jamiyat munosabatlarini, bu munosabatlar ortidan kelib chiquvchi voqea-hodisalarni o‘rganadi. Shu tufayli bu ilm sohasi ijtimoiy diniy muassasalarni, dinning davlat, xalq, oilaga nisbatan munosabatini, din sohasida yuzaga keluvchi ijtimoiy voqea-hodisalarni, turli din jamoalarining jamiyat bilan bo‘lgan munosabatlarini asosiy mavzu sifatida tadqiq qiladi. Demak, din sotsiologiyasining mavzusi, jamiyatning asos shakllari va dinning tashqi

ko‘rinishlari bilan ijtimoiy jarayonlar, ularning tuzilish va qonunlaridan iborat ekan. Boshqacha qilib aytganda bu ilm sohasi, tarix bo‘yicha xususiy va mushohadaga suyanuvchi din va jamiyat tadqiqotlarini; dinning ijtimoiy hayotdagi ko‘rinishlarini o‘rganadi.

Din sotsiologiyasi, bir tomondan jamiyat, bir tomondan diniy ilmlarga tayanadi; bu ikki asos ustida yakdillikni keltirib chiqarishga harakat qiladi.

Din psixologiyasi. Bu ilm sohasi, zamonaviy psixologiya bilan birgalikda shakllangan va uning bir tarmog‘i holiga aylangan. Din psixologiyasi, avvalo insonga oid bo‘lgan diniy hayotning turli jihatlarini psixologik jihatdan o‘rganadi. Ya’ni din psixologiyasi dinning psixologik jihatini, shaxsning diniy tajribasini va bu tajribaning turli ko‘rinishlarini bayon qilishga harakat qiladi. Natijada u dinning inson ruhidagi asosiy xususiyatlari xatti-harakatlarga bo‘lgan ta’siri to‘g‘risida atroflicha to‘xtaladi. Ruh-jasad aloqasi bilan atrof-madaniyat ta’sirlarining barchasini ichida o‘rganuvchi diniy e’tiqod, shaxslarning ichki olamidagi turli rivojlanishlarni ko‘rsatib beradi. Shu sababli din psixologiyasi diniy tajribadan boshlagan holda inson turlarini atroflicha o‘rganib, xos tipologiyalarni kashf qiladi. Kishining diniy his, tushuncha va yashash tarzi din psixologiyasining asosiy mavzusidir. U shaxsda din tuyg‘usi va hissining qanday qilib kelib chiqqanligi va shakllanishini, ihtido (hidoyat topish) yoki inkor hodisalarini, dindan kelib chiqqan ruhiy keskinlik va shubhalarni tadqiq qiladi.

Din psixologiyasi umumiy psixologiyaning barcha metodlaridan foydalangan holda o‘ziga taalluqli bo‘lgan mavzularni muhokama qiladi. Bu ilm turi, dindorlikning shaxs ruhiyatidagi siljish va ta’sir jarayonining tadqiq qilinishida umumpsixologiyadagi tamal asoslar, berilgan ma’lumotlarga (raqamlar)ga qarab anketalar, testlar va kuzatuvlardan foydalanadi.

Din falsafasi. Din sotsiologiyasi, psixologiyasi kabi asosiy mavzusi «din» bo‘lgan din falsafasi, «din»ni falsafadan kelib chiqib tadqiq qiladi. Bu tadqiqot asnosida aqliy va betaraf yo‘l tutadi. Bu ilm turi, qandaydir bir yaratuvchi kuch e’tiqodiga falsafiy bir asos topishga harakat qiladi. Shu tufayli ham Din falsafasi sohasida faoliyat ko‘rsatuvchilarning maqsadi dinning haq yoki botil ekanligi masalasi bilan mashg‘ul bo‘lish emas, diniy hukmlarning mantig‘i va mohiyatini ochib berishdir. Bu maqsad bilan ular, eng avvalo Xudoning mavjudligi bilan bog‘liq dalillarning tanqid yoki tahlilini qiladi, bu dalillarning qanchalik asosli yoki asossiz ekanligi masalasini ko‘rib chiqadi.

Din falsafasini boshqa din ilmlaridan ajratib turuvchi jihat bu, undagi hukm berish, xulosa yasash xususiyatidir. Boshqa din ilmlari, baho berish, munosabat bildirish metodiga suyangan holda diniy masalalarni hal qilishsa; din falsafasi, ular yasagan xulosa va erishgan natijalardan keng miqyosda foydalanadi va bu natijalar sababli bir qancha hukmlarni chiqaradi. Hatto din falsafasi, dinni maqsad qilib olgan ilm turlari qo‘lga kiritgan natijalar va bu natijalarga erishish uchun ular qo‘llagan metodlar haqida ham hukm chiqarishi mumkin.

Din falsafasi, dinning mohiyati, insonning diniy haqiqatlar bilan bo‘lgan bog‘liqligini o‘rganadi. Bu ilm turining e’tiborida bo‘lgan mavzularning boshida Xudoning borligi, sifatlari, yaratuvchi-koinot munosabati, yaratish, olamning

yaratilishidagi maqsad, qayta tirilish, payg‘ambarlik va vahiy kabi keng miqyosda metafizik bir xarakterga ega masalalar asosiy o‘rinni egallaydi. Bundan tashqari ilm-imon, ilm-din, din-madaniyat (din-san’at, din-til-adabiyot) diniy tajriba, diniy his kabi asoslar ham bu ilm turining sarhadlariga kiradi.

Din antropologiyasi. Dinlarning inson bilan aloqasining turli jabhalarini o‘rganuvchi soha. U din psixologiyasi va sotsiologiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Uning asosi qadimgi miflarga borib taqaladi.

Jumladan, barcha dinlar va diniy tasavvurlarda birinchi odamning paydo bo‘lishi Xudo yoki xudolar tomonidan yaratilish g‘oyasi bilan bog‘lanadi. Masalan, qadimgi Bobilda yaratilgan «Enum Elish» dostonida dastlabki inson xudolar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan urushdan so‘ng loy va qondan paydo bo‘lgani, Qadimgi Misrdagi afsonalardan birida esa Xnum nomli iloh odamni kulolchilik charxi yordamida loydan yasagani aytiladi. Shu bilan birga, islom, xristianlik va yahudiylik dinlarida ham insoniyat yagona Xudo tomonidan tuproqdan yaratilgani aytilib, ilk inson Odam yoki Adam deb nomlanadi. Umuman olganda, din antropologiyasi barcha dinlardagi inson haqidagi g‘oyalarni o‘rganib, tizimlashtiradi.

Din antropologiyasini o‘rganishda qator metodlar mavjud bo‘lib, falsafiy, materialistik maktab vakillari Dinshunoslikning bu sohasini ham evolyusion nazariyaga moslashtirishga harakat qilganlar. Jumladan, ko‘plab adabiyotlarda Jahon dinlari o‘zlarining aksar e’tiqodlarini qadimgi Bobil, Misr, Mesopotamiya, fors va hind afsonalaridan o‘zlashtirgani aytib o‘tiladi. Bu, bir yoqlama yondashuv bo‘lib, teologik metod tarafdorlari dinlardagi bu o‘xshashlikni ularning bir o‘zakdan kelib chiqishi bilan bog‘laydilar. Dinshunoslikda esa, barcha dinlarning antropologik qarashlari, hech qanday shaxsiy fikr bildirmagan holda, boricha o‘rganish nazarda tutiladi.

Dinshunoslik yuqoridagi fan sohalaridan tashqari, boshqa bir qancha ilm turlari bilan ham bog‘liq. Ularning ichida birinchilardan bo‘lib tarix o‘rin oladi. Tarix, makon va zamon ta’yin qilgan holda o‘tmishdagi voqea-hodisalarni o‘rganuvchi bir ilm turi bo‘lishi bilan birga moziy va hozirdagi dinlarning tarixiy shakllanishi jihatidan Dinlari tarixiga yaqindan ko‘makchi bo‘ladi.

Dinshunoslik fanining yuzaga kelishi va tarixiy taraqqiyoti. Ushbu masalaga to‘xtalishdan oldin “Dinshunoslik atamasiga ta’rif bersak, dinlar tarixi, ular bilan bog‘liq jarayonlar, dinning inson hayotining turli jabhalari bilan o‘zaro ta’sirlashuvini o‘rganuvchi fan «Dinshunoslik» deb ataladi.

Dinshunoslik barcha ijtimoiy fanlar qatori ham o‘zining o‘rganish ob’ektiga ega. U dinning paydo bo‘lishi, ijtimoiy mohiyati va jamiyatdagi rolini tadqiq qilish bilan birga diniy e’tiqodlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi, ularning jamiyat taraqqiyotidagi evolyutsiyasini ilmiy jihatdan o‘rganadi.

Dinlarni o‘rganish uzoq tarixga ega. Har bir inson yon-atrofidagilarning e’tiqodi, qaysi dinga mansubligiga qiziqadi, ular haqida bilishni istaydi. Bu boradagi ilk ma’lumotlarni Qadimgi Gretsiya va Rim yozuvchilari asarlarida ko‘rishimiz mumkin. Ulardan eng mashhuri «tarix otasi» nomini olgan Gerodot (mil. av. V asr) o‘zi tadqiq qilgan xalqlarning dinlari haqida ma’lumotlar keltirgan.

Bu qiziqish o‘rta asr Yevropasida ham mavjud bo‘lgan. Lekin boshqa dinlar haqida fikr bildiruvchilar, xristianlarning e’tiborini jalb qilmaslik va ularni o‘sha dinlarga kirib ketmasliklari ta’minlash maqsadida, u dinlarga nisbatan salbiy fikr bildirish, ularni yomonlash orqali ularga yondashishni ma’qul deb topganlar.

Islom olamida ham dinlarni o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar uzoq tarixga borib taqaladi. Milodiy VII-VIII asrlardayoq diniy tortishuv (munozara)larni o‘z ichiga olgan «maqola»lar (keyinchalik «maqolot»), VIII -IX asrlardan e’tiboran esa boshqa dinlarga «raddiya»lar yozila boshlangan. Keyingi asrlardan esa «al-Firaq» (Firqalar), «ar-Radd» (Raddiya), «ad-Diyonot» (Dinlar) va «al-Milal» (Xalqlar) yo‘nalishidagi adabiyotlar vujudga kelgan.

«Ad-Diyonot» (Dinlar) yo‘nalishida yozilgan ilk asar Hasan ibn Muso an-Navbaxtiyning (vaf. 910 y.) «al-Aro‘ vad-diyonot» (E’tiqodlar va dinlar) kitobi hisoblanadi. Keyinchalik Mas’udiy (vaf. 957 y.) o‘zining «ad-Diyonot» (Dinlar), Masbihiy (vaf. 1029 y.) «Darkul bug‘yati fiy vasfid diyonoti val ibodoti» (Dinlar va e’tiqodlar vasfida maqsad me’yori) kitoblarini yozganlar. Shuningdek Beruniyning (vaf. 1048 y.) «Tahqiqun ma lilhind min maqulatin, maqbulatin fil-aqli av marzulatin» (Aqlga maqbul yoki noma’qul bo‘lgan Hindistonga oid izlanishlardan) nomli kitobi ham shular sirasiga kiradi.

«Al-Firaq» (Firqalar) yo‘nalishida yozilgan kitoblarga Abu Mansur Abdulqodir Bag‘dodiyning (vaf. 1038 y.) «al-Farq bayn al-firaq» (Firqalar orasidagi farq) asari hamda Abul Maoliy Muhammad ibn Ubaydullohning (vaf. 1092 y.) «Bayn al-adyon» (Dinlar orasida) asarlarini kiritish mumkin.

«Al-Milal» yo‘nalishida Qozi Abu Bakr Baqilloniyning (vaf. 1012 y.) «al-Milal van-nihal» (Dinlar va xalqlar), Abu Muhammad Ali Ibn Hazmning (vaf. 1064 y.) «Kitob al-fasl fi-l-milal va-l-ahvoi va-n-nihal» (Dinlar, havo va xalqlar haqida ajraluvchi kitob), Abul-Fath Muhammad ibn Abdulkarim Shahristoniyning (vaf. 1183 y.) «al-Milal va-n-nihal» asarlarini sanash mumkin.

«Ar-Radd» (Raddiya) yo‘nalishida ham ko‘plab asarlar dunyo yuzini ko‘rgan. Ularga Imom G‘azzoliyning (vaf. 1111 y.) «ar-Radd al-jamil» (Go‘zal raddiya), Ibn Kalbiyning (vaf. 819-821 y.) «Kitob al-asnam» (Butlar kitobi) nomli asarlarini alohida qayd etish lozim.

Darhaqiqat, Musulmon sharqi o‘lkalarida bu sohada ko‘plab asarlar yaratilgan bo‘lib, keyinchalik ular «Dinshunoslik» fanining taraqqiyoti uchun fundamental manba bo‘lib xizmat qilgan. Jumladan, Abu Rayhon Beruniyning «al-Osor al-boqiya an al-qurun al-xoliya» («O‘tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar»), «Hindiston», Muhammad ibn Abdulkarim Shahristoniyning «al-Milal va-n-nihal» («Dinlar va oqimlar»), Ibn Hazm Andalusiyning «al-Fasl fi-l-milal va-l-ahvo va-n-nihal» («Dinlar, adashgan firqalar va mazhabni ajratish») kabi asarlari, shuningdek, Ibn Nadim (987-988) va Abul Hasan Omiriy kabilarning tadqiqot ishlari ko‘plab Evropa tillariga tarjima qilingan. Bu esa, islomiy va arab ilmlarini o‘rganuvchi G‘arb mutaxassislarining dinlar tarixiga oid islomiy tadqiqot ishlaridan asosiy manba sifatida foydalanishlari uchun qulay imkon yaratdi. Bunday asarlarda mualliflar tarixiy voqe’likni to‘g‘ri va xolis yoritganlar. Ular o‘zlari musulmon bo‘la turib, boshqa din va e’tiqodlar haqida ma’lumot berish

yoki ularni tavsif qilishda noxolislikka olib kelishi mumkin bo‘lgan har qanday shaxsiy hissiyotlarni suiiste’mol qilmaganlar. Buni Shahristoniyning quyidagi so‘zlari tasdiqlaydi: *«Men har bir firqani (din yoki diniy yo‘nalishlarning hech birini) yoqlamay, kamsitmay, ularning kitoblarida qanday bo‘lsa, shundayligicha, undagi xatolarni ajratib ko‘rsatmay bayon qilishga ahd qildim»*.

Beruniy o‘zining «Hindiston» asari haqida shunday yozadi: *«Bu kitob bahs-munozara kitobi emas, tarix kitobidir. Hindlarning dinlarini ularning o‘zlaridan o‘rganib, fikrlarini tanqid qilmay bayon qilaman»*. Bu Beruniy asarlarining butun dunyoga mashhur bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

Ibn Nadim esa: *«Dinshunoslik fani hijriy IV-V asrlarga kelib mustaqil fan sifatida shakllandi.»*, deb yozadi. Bu milodiy X-XI asrlarga to‘g‘ri kelib, aynan shu davrda Beruniy o‘zining «Hindiston» asarini yozgan.

G‘arb mamlakatlarida Dinshunoslik fani ko‘pincha nemis tilidagi «RELIGIONS WISSENSCHAFT» yoki ingliz tilidagi «HISTORY OF RELIGIONS» kabi atamalar bilan yuritiladi. Bu esa «Ixvon as-safo» risolalari, Beruniy va Shahristoniy asarlarida qo‘llanilgan «علم الاديان» (Dinlar ilmi) yoki «تاريخ الاديان» (Dinlar tarixi) atamalarining harfiy tarjimasidir.

Zamonaviy Dinshunoslik esa bir yarim asrga yaqin davrga borib taqaladi. G‘arbda, zamonaviy ma’nodagi dinlar tadqiqotlari Maks Myuller (1823-1900) tomonidan boshlab berilgan. Olim 1856 yilda «Qiyosiy mifologiya» va 1870 yilda nashrdan chiqqan «Dinlarning asosi va shakllanishiga oid dars baholari» nomli asarlari bilan boshqa dinlarni tadqiq qilishga yo‘l ochgan va kattagina e’tibor qozongan. U Angliyadagi mashhur Oksford universitetida dinlar tarixidan ma’ruzalar o‘qigan. O‘zining «Sharqning muqaddas kitoblari tarjima silsilasi» asarida u ilk bora «religious studies» (Dinshunoslik) so‘zini qo‘llagan. Myuller va uning zamondoshlari dinlarni ilmiy tadqiq qilishda filologiyani muhim deb bilishgan va dinning asl mohiyatiga faqatgina til orqali qilingan izlanishlar bilangina etishish mumkin, degan fikrni olg‘a surgan.

Biroz keyingi davrlarda Gollandiyada S.R.Tile va Shantepi de la Sosse bu borada izchil faoliyat olib borganlar. Shunday qilib davrlar o‘tishi bilan Parij, Bryussel va Rim kabi markazlarda Dinshunoslik universitetlar ta’lim dasturlaridan joy olgan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Dinshunoslik sohasida olib borilgan izlanishlar shakllangan. Bu davrda turli mintaqalarda zikr qilingan soxada bir qancha mutaxassislar etishib chiqqan. Ulardan R.Pettazoni, M.Eliade, Van der Lyu, R.Otto, G.Menshing, J.Vax, F.Xeiler, G.Dumezil, E.G.Parrinder, S.G.F.Brandon, Erik F.Sharp, Ninian Smart, M.Kitagava, R.S.Zeyxner, Ugo Bienchi, V.Kantvell Smit, Ake V.Strom, Xans J.Shoyps va Mixael Paylar nomini zikr qilishimiz mumkin.

DINNING MOHIYATI, TUZILISHI VA FUNKSIYALARI.

Dinning ta'rifi. Din arabcha so‘z ekani barchaga ma'lum. Lekin, din tushunchasini to‘liq anglab olish uchun, uning ham lug‘aviy, ham istilohiy ma'nolarini alohida-alohida olib tanishib, tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Arab manbalarida qayd etilishicha, din so‘zi « «دان («dâna») fe'lidan yasalgan bo‘lib, «kimgadir bo‘ysunmoq, bo‘yin egmoq, itoat etmoq, kimdandir qarzdor bo‘lmoq, e'tiqod qilmoq, qilgan ishiga yarasha mukofotlamoq»; «diynun» so‘zi esa, «din, imon, ajr-mukofot, qilingan ishga yarasha berilgan haq» kabi ma'nolarni bildiradi.

O‘zbek tili lug‘at adabiyotlarida «din» - ishonch, ishonmoq, e'tiqod, mulk, hukm, hisob, jazo, tadbir, bo‘ysunish, itoat qilish, ibodat, parhez, yo‘l tutish, odat qilish, e'tiqod qilish ma'nolarini bildirishi keltirib o‘tiladi.

Islomdan avval turkiy xalqlarning din tushunchasini ifodalash uchun turli davrlarda «darm», «nom» va «den» kabi so‘zlarni ishlatganlari ma'lum. Ulardan «drm», «darm» din, aqida ma'nosida sanskritcha (qadim hind tili) «dharma»dan (Pali tilida dhamma); «nom» din ishonch, qonun ma'nosida sug‘d tilidan kirib kelganligi aytiladi.

O‘zbek tilidagi «din» ma'nosini beruvchi atamalar barcha tillarda mavjud. Jumladan, zardushtiylarning manbasi «Avesto»da «din» sifatida «daena», qadimgi fors pahlaviy tilida «den», «din», «dena», «daena» so‘zi ishlatilib, «yo‘l», «mazhab», «marosim», «uslub», «tarz» kabi ma'nolarni bildirgan. Ibroniy tilida istifoda qilinadigan «dath» so‘zi «din» tushunchasini ifodalash uchun umumiy termin bo‘lib, «hukm», «amr» va «qonun» ma'nolarini anglatgan.

Rus tilida din ma'nosini anglatadigan «religiya» so‘zining kelib chiqishi borasida lug‘atlarda bir qancha yondashuvlar keltirib o‘tilgan. Ulardan ba'zilariga ko‘ra mazkur atama lotincha «religio» so‘zidan kelib chiqib, «diyonat, dindorlik, taqvodorlik, xudojo‘ylik, mo‘minlik, taqvo, muqaddas narsa yoki joy, qadamjo, ziyoratgoh, ibodat-topinish-sig‘inish va u bilan bog‘liq diniy marosimlar» degan ma'nolarni anglatadi.

Ikkinchi guruh tilshunoslar «religio» so‘zi semantik, ma'no va morfologik jihatdan «relegere» so‘zi bilan bog‘liq bo‘lib, «yangidan to‘plamoq, yangidan tanlashga kirishmoq, qayta ishlab chiqish uchun oldingi sintezga qaytish» kabi ma'nolarni anglatadi, deb ta'kidlaydilar.

Din – insoniyat ma'naviy hayotining tarkibiy qismidir. Birinchi Prezidentimiz aytganlaridek: "Ma'naviyat unsonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, idodasini baquvvat, iymon- e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir".[31] O‘zbekiston Respublikasida ziyolilar oldiga ma'naviy barkamol insonni shakllantirish vazifasi qo‘yilgan bir paytda din masalasini chetlab o‘tish mumkin emas. Mazkur masalani hal etishda ilgarigi dinga agressiv hujum etish uslubining salohiyatsizligi hammaga ochiq-oydin ma'lum. Lekin keyingi paytda

[31] I.A. Karimov «Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch» T.: 2008 y, 19-bet.

paydo bo‘lgan diniy bo‘lmagan masalalarni diniy deb atash, har qanday, hatto bir-biriga zid bo‘lgan, fikrlarni tahlil qilmasdan turib maqtash uslubi ham o‘zini oqlamaydi. Demak, ushbu masalaga printsipial, professional, ilmiy yondashuv darkordir.

E'tiqod-bu inson shaxsining axloqiy qiyofasi bilan bog‘liq goya va intilishlaridir. E'tiqod-bu bizning fikr mulohazalarimizda mustahkam o‘rnashib olgan, butun xatti harakatimiz bo‘ysungan goyadir. Avvalo e'tiqod tushunchasining elementlarini aniqlab olish darkor. E'tiqodning barqaror elementlaridan biri bu bilimdir. Chinakam e'tiqod bilim asosida shakllanadi. Turgan gapki, bilimlarning chinligi e'tiqodning mustahkam bo‘lishda, hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shunga qaramay e'tqodning mustahkam bo‘lishida bilimni yakkayu yagona omil deb bo‘lmaydi. Inson ongida qayta ishlab chiqilgan ya'ni tajribadan o‘tgan bilimlargina e'tiqodning mustahkam bo‘lishini ta'minlaydi. Boshqacha aytganimizda insoniyat tomonidan allaqachonlar yaratilgan bilimlar insonning ehtiyojlari uchun qayta kashf etilgandagina chinakam e'tiqodga aylanadi. Inson bilimlarining ma'no-mohiyatini tushunib, uning to‘g‘riligiga ishonch hosil qiladi. O‘z navbatida bilimlarni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri, ilmiy yoki g‘ayriilmiy, diniy yoki dunyoviy deb baholanishi insonning manfaatlari, ehtiyojlari bilan bog‘liq. Yuqoridagilardan xulosa shuki, bilim, g‘oya, nazariyalar inson faoliyatining chig‘irigidan o‘tgach u ishonchga aylanadi. Ishonch esa e'tiqodning mag‘zini tashkil qiladi.

Shunday qilib e'tiqod inson duyoqarashining eng barqaror komponentidir. Huddi shu komponent inson ongi bilan faoliyati, so‘zi bilan ishi o‘rtasidagi birlikni ta'minlovchi mustahkam, ishonchli ko‘prikdir. Lekin e'tiqod mazmuni, xarakteriga ko‘ra gumanistik, fashistik, kommunistik bo‘lishi mumkin. Avtoritarizm yoki zo‘rovonlik, ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan e'tiqod shaxs mustaqilligini emiradi. Aniqroq aytsak, dunyoqarashida fashistik yoki kommunistik yoki diniy fanatizm , buyuk davlatchilik , irqchilik hukmronlik qilgan e'tiqodga asoslangan inson hech qachon mustaqil shaxs darajasiga ko‘tarila olmaydi.

Inson mustaqil fikrlashi, mustaqil yashashi, mustaqil ishlashi uchun uning dunyoqarashi asosida gumanistik e'tiqod etmogi lozim. Gumanistik e'tiqod shaxsning barcha fazilatlarini asosini tashkil qiladi.

Demak, insonning hayotdagi pozitsiyasi, uning turmush tarzi mazmunini e'tiqodining mustahkamligiga bog‘liq. O‘z navbatida inson e'tiqodi bilimlar, g‘oyalar, nazariyalar asosida shakllanadi. Insonlar e'tiqodini shakllanishiga xizmat qiladigan bilim va g‘oyalar ekanligini bilib olganimizdan so‘ng shunga e'tibor qaratishimiz lozimki, inson e'tiqodsiz, g‘oyasiz, fikrlashsiz yasholmaydi.

Insonning va jamiyatning maqsad(maslak) sari yetaklaydigan kuch g‘oyadir. Demak, g‘oya inson tafakkurida vujudga keladigan, ruhiyatiga kuchli ta'sir o‘tkazib, maqsad sari etaklaydigan fikrdir.

Diniy e'tiqod esa o‘ziga xos g‘oya sifatida inson ruhiyatining holatidir.

E'tiqodning o‘ziga xos ko‘rinishlaridan biri bu dindir.

Din tushunchasiga olimlar tomonidan yuzlab ta’riflar berilgan. Bunda, turli soxa va dunyoqarash egalari, o‘z soxalari va qarashlarida kelib chiqib dinga ta’rif

berishgan. Shu tufayli turfa xil ta’riflar yuzaga kelgan. Quyida ularning ba’zilarini keltirib o‘tamiz:

«Din, insonning muqaddas deb bilgan narsalariga nisbatan munosabatidir».

Rudolf Otto

«Din, ruhiy borliqlarga nisbatan ishonchdir».

Edvard Teylor

«Din, insonning abadiyatni anglashini ta’minlovchi, aql va mantiqqa tobe’ bo‘lmagan zehniy malaka yoki iqtidordir»

Maks Myuller

«Din, malakalarimizni erkin holda qo‘llashni to‘suvchi ta’qiqlar majmuasidir»

Salmon Reynax

«Din, e’tiqodlar, xatti-harakatlar va ijtimoiy hayotning muayyan shartlariga ko‘ra tashkil etilgan muassasalar tizimidir»

Vitold Taylok

«Din, eng buyuk ijtimoiy qadriyatlar shuuridir»

Edvard S. Amis

«Din, muayyan jamoatning vujudga kelishini ta’minlovchi marosim va e’tiqodlar majmuidir».

Emil Dyurkgeym

Umuman olganda, olimlar muayyan e’tiqod din deb atalishi uchun uch asosiy xususiyatga ega bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydilar. Bulardan *birinchisi*, g‘ayritabiiy iloh (yoki ilohlar) haqidagi tasavvurning mavjudligi. Har bir dinda topinish ob’ekti – Xudo bo‘lishi shart hisoblanadi.

Mavjud dinlardagi Xudo haqidagi tasavvurlarni shartli ravishda ikkiga – *transsendent* va *immanent* ilohlarga bo‘lish mumkin. Transsendent ilohlarga insonlar olamidan tashqarida, insonlarga hech qanday aloqasi bo‘lmagan, qusur va nuqsonlardan xoli Xudolar kiradi. Bunga misol sifatida tom ma’noda islom dinidagi Alloh taolo va qisman xristianlikdagi Ota Xudo, yahudiylikdagi Yahvelarni keltirish mumkin.

Immanent ilohlar deganda esa tabiatning bir bo‘lagi sifatida tasavvur qilingan, insonlarga o‘xshab ketadigan, biroq g‘ayrioddiy yaratuvchilik, buzg‘unchilik, rizqlantiruvchilik kabi kuchlarga ega bo‘lgan Xudolar kiradi. Bunday turdagi ilohlar ko‘pincha yo antropomorf (inson qiyofasida) yo zooantropomorf (yarim odam yarim hayvon) yoki zoomorf (hayvon) shaklda tasavvur qilinadi. Bunga misol sifatida Qadimgi Misr, Yunon, Rim sivilizatsiyalari, zamonaviy Hindiston, Xitoy, Yaponiya dinlarini sanash mumkin.

Ikkinchisi, Xudo bilan insonlarni bog‘lab turuvchi kult yoki kultlar majmuasi. Yuqorida aytilganidek har bir dinda topinish ob’ekti - Xudo bo‘lishi lozim. yaratuvchi bilan insonni bog‘lab turadigan ibodat va marosimlar majmui (qurbonlik, ro‘za, bayramlar) kult deb ataladi. Kultlar kundalik yoki mavsumiy, yakka tartibdagi yoki jamoaviy kabi ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin. Jumladan, islom dinida «Namoz mo‘minning me’roji» (ya’ni Alloh taoloning xuzuriga ko‘tarilishi) hisoblansa xristianlikdagi «sirli marosimlar»da Muqaddas Ruhning

o‘zi ishtirok etadi deb hisoblanadi. Shu tariqa, mavjud barcha dinlarda kultlar vositasida e’tiqodchilar o‘z ilohlari bilan bog‘lanadilar.

Uchinchisi esa e’tiqodchilarni o‘zida jamlaydigan diniy tashkilotlarning mavjudligi. Diniy tashkilot, bu bir din izdoshlarining jamoaviy ravishda o‘z diniy rasm-rusum, ibodat marosimlarini o‘tkazadigan, diniy ta’lim oladigan muassasalaridir. Bu, islomda - masjid, madrasa, xristianlikda - Cherkov, seminariya, yahudiylikda - sinagoga va hokazo.

“Inson qachondan beri Xudoga ishonib keladi?”, “Din qachon paydo bo‘ldi?” kabi savollar doimo olimlarni qiziqtirib, o‘ylantirib kelgan. Mazkur izlanishlar necha asrlardan beri davom etib kelayotgan bo‘lsa-da, hali hanuz bu borada bir to‘xtamga kelinmagan. Umumiy ma'noda, bugungi kunda fanda dinlarning shakllanishi tarixiga oid ikki xil qarash mavjud.

Birinchi qarashga ko‘ra dinning paydo bo‘lishi bevosita insoniyatning yaralishi bilan bog‘liq. Xudo ilk insonlarni yaratishi bilan ularga O‘zini tanitdi, natijada inson ilk dinga e'tiqod qila boshladi. Bunday qarash fanda “teologik yondashuv” deb nomlanadi. Bugun mavjud bo‘lgan har qanday din o‘zining tarixini insoniyat yaralishi – ilk inson bilan bog‘lashini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, islom dinida – Odam va Havvo, yahudiylik va xristianlikda – Adam va Yeva, zardushtiylikda – Govmard, sintoizmda – imperator Mikado va boshqalar. Mazkur ta'limotlar dinlarning muqaddas manbalarida bayon qilingan.

Teologik yondashuvga ko‘ra, turli buyumlarga sig‘inish va ko‘pxudolik, jumladan animizm, totemizm, fetishizm va shomonlik yakkaxudolilikdan keyin yuzaga kelgan. “Teologiya” atamasi (“deus” – Xudo, “logos” – ta'limot) qadimgi Yunonistonda paydo bo‘lgan va dastlab hech qanday falsafiy yukka ega bo‘lmagan. “Teologiya” so‘zi ilohlar to‘g‘risidagi dostonlarda qo‘llanilgan, bunday asarlarning mualliflarini esa teologlar deb atashgan. Arastu “teologiya” atamasidan falsafaning muayyan qismini belgilash uchun foydalanib, mazkur atamani sharhlashda burilish yasadi. U nazariy falsafani matematika, fizika va teologiyaga ajratdi. Arastu ilohiyot ilmini “birinchi falsafa”, oliy mushohada fani yoki “oliy falsafa” deb nomladi. U ilohiyot ilmini borliq, uning ibtidosi va mavjudligi sabablari to‘g‘risidagi fan sifatida belgilab berdi.

Dinlarning kelib chiqishi haqidagi ikkinchi qarash fanda “materialistik yondashuv” deb nomlanadi. Mazkur qarashlarning paydo bo‘lishi antik davrga borib taqalib, ilk bor qadimgi yunon faylasuflari qarashlarida aks etgan. XVII asrga kelib Yevropada cherkov hokimiyatining susaya boshlashi, hurfikrlilik namoyandalari - din tanqidchilarining paydo bo‘lishi, XIX asrning ikkinchi yarmida Charlz Darvin tomonidan “Turlarning kelib chiqishi” (1859) nomli asarning chop etilishi ham turtki bo‘ldi. Keyinchalik mazkur qarashlar Avgust Komt va Lyudvig Buxnerlar tomonidan eng cho‘qqisiga ko‘tarildi. Unga ko‘ra din bu ijtimoiy hodisa, inson tafakkuri, emotsiyalari mahsulidir. Mazkur qarash tarafdorlari fikricha, dinlar soddadan – murakkabga, umumiylikdan – xususiylikka, ko‘pxudolikdan – yakkaxudolikka tomon uzoq tarixiy evolyutsion jarayonni bosib o‘tgan. Unga ko‘ra, ilk davrdagi ibtidoiy odamning jismoniy, fiziologik, asab-endokrin, biologik, psixologik va boshqa sohalari o‘ziga xos xususiyatlarga ega

edi. Bu nafaqat uning hayoti va faoliyatiga, fe'l-atvoriga, balki uning fikrlash darajasiga, kuchli hayajonlanishiga, tasavvur etishiga, mustahkam, haqiqiy yoki soxta mantiqiy qonuniyatlarni kashf etishiga ta'sir ko‘rsatadi. Uyqu, tush va nafas olish kabi holatlarda tanani boshqaruvchi va o‘lim bilan undan ajratib turuvchi, hayot bag‘ishlovchi qandaydir kuch mavjudligiga ishongan ajdodlarimiz, mazkur kuch harakat qiluvchi har bir narsa: daryo, quyosh, oy, daraxt kabi mavjudotlarda bor deb tasavvur qilganlar. Natijada, inson qo‘rquvi, hurmati, ehtiyoji va zarurati darajasida ularga sig‘ina boshlagan.

Materialistik maktab tarafdorlari fikriga ko‘ra, qo‘rquv dinlarning kelib chiqishida asosiy rolь o‘ynagan hissiy holatdir. Jumladan, ingliz faylasufi Xerbert Spenser (1820-1903) ham ibtidoiy qabila dinlarining kelib chiqishiga qo‘rquv natijasida “ajdodlarga sig‘inish” sabab bo‘lganligini ta'kidlaydi. Spenser ijtimoiy hisob-kitoblarga suyangan holda, hayot qo‘rquvining dinlardagi o‘rniga alohida diqqatni tortadi. Bu qo‘rquvning ajdodlarga nisbatan ibodatning barcha ko‘rinishlari shakllantirganligini va tangrilarning ustun yoki qahramon bo‘lgan ajdodlardan tanlanganligi fikrini ilgari suradi; har bir dinda ajdodlarga alohida e'tibor qaratilganligiga ishora qiladi.

Din tushunchasi o‘zbek tiliga arab tilidan kirib kelgan bo‘lib, ishonch, inonmoq ma'nosini bildiradi. Bizning fikrimizcha, din real voqelikdagi, ijtimoiy hayotdagi narsa va hodisalarni tabiatdan, jamiyatdan tashqarida mavjud deb hisoblaydigan, ularni o‘ziga xos tarzda aks ettiradigan ma'naviy e'tiqod va amalning bir turidir. E'tiqod so‘zi ham arab tilidan kirib kelgan bo‘lib, chuqur, mustahkam ishonch ma'nosini anglatadi- Demak, diniy e'tiqod deganda mustahkam, chuqur ishonch, maslak, ishonish tushuniladi. Ilohiyot, ya'ni diniy ta'limot nuqtai nazardan "din", "diniy e'tiqod" tushunchalari jamiyat, inson, uning ongi hayotning ma'nosi, maqsadi va taqdiri uni bevosita qurshab olgan moddiy olamdan tashqarida bo‘lgan, uni go‘yo yaratgan, ayni zamonda insonlarga birdan-bir "to‘g‘ri", "haqiqiy", "odil" hayot yo‘llarini ko‘rsatadigan va o‘rgatadigan ilohiy kuchga ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslak, qarashlar, ta'limotlar majmuidan iboratdir.

Muayyan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va g‘oyaviy sabablarga ko‘ra diniy dunyoqarashlar to‘la hukmron bo‘lgan sharoitlarda qar qanday ilg‘or tabiiy, ilmiy, jumladan, falsafiy qarashlar ham diniy qarashlarni, ularning mavjudlik sabablarini, mohiyati masalalarini chetlab o‘ta olmagan; lekin ularning din haqidagi qarashlari ruhoniy va ulamolarning rasmiy qarashlaridan jiddiy farq qilgan. Biz bu vaziyatni Forobiy va Beruniyning dinga bo‘lgan munosabatlarida ko‘rishimiz mumkin.

Forobiyning dinga munosabati asosan uning "Fozil shahar aholisi haqida kitob" risolasida bayon qilingan. Uning fikricha, din ham falsafa kabi voqelikni o‘rganishga qaratilgan, Bu falsafa moddiy olamni bilish, sabab, oqibat bog‘lanishlarini aniqpash orqali o‘rganadi. Din esa voqelikka bu uslub bilan emas, balki tasvir (obrazli), ramziy, majoziy, qiyosiy tasavvurlardan foydalanish orqali e'tiqod qilishga chakirish yo‘li bilan yondashadi. Demak, din voqelikni, sabab va oqibat bog‘lanishlarining moddiy asosini o‘rganmasdan izoxlashga kirishadi. Ayni zamonda voqelikni falsafiy bilish, o‘z mohiyatiga ko‘ra, diniy bilishdan ustuvordir.

Beruniyning dinga munosabati uning "qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" va "Hindiston" asarlarida bayon qilingan. Uning fikricha, din ham bilim bo‘lib, bunday bilim vokelikdagi narsa va hodisalarni dalillar orqali isbotlash bilan o‘rganish mumkin bo‘lmagan joyda qo‘llaniladi. Diniy bilim isbotsiz e'tiqodga, ilmiy bilim esa dalillashga, isbotlashga asoslanadi. Beruniyning o‘zi esa butkul dalillarga asoslangan bilimlar bilan shugullangan. U moddiy olam haqidagi ilmiy masalalarni hal qilishda dinning ta'sirini cheklashga intilgan. Forobiy va Beruniy dinga bunday yondashishlar orqali ilmiy bilimni din ta'siridan xalos etishga g‘oyat o‘rinli harakat qilganlar. Ular dinga emas, unga singib qolgan mutaassiblikka qarshi chiqqanlar.

Ilmiy bilimlarga asoslangan dunyoviy ishonchli, haqiqiy ta'limot olamning mavjudlik sabablari masalasida diniy qarashlar bilan kelishmasa-da, ammo insonni, uning ijtimoiy faoliyati, ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini o‘rganishda minglab yillar mobaynida uning bag‘rida qo‘lga kiritilgan bilim, tajriba, ularning hozirgi kundagi ijobiy ahamiyatini aslo rad qilmaydi. Dinlarning paydo bo‘lishi, qaror topishi va kayta tiklanishining gnoseologik, ijtimoiy va psixologik ildizlari mavjudtsir. Uning ildizlari o‘zaro aloqadorlikda bo‘lib, ijtimoiy taraqqiyotning turli bosqichlarida ularning egallagan o‘rni ham, odamlarga ta'sir darajasi ham goh kuchayib, goh pasayib turadi; bu ildizlar tufayli din tarqalib, qaror topib, amal qilib, goh avj olib, goh zaiflashib turadi. Masalan, hozirgi davrda umumbashariy (global) muammolar, chunonchi oziq-ovqat yetishmasligi, xom ashyo kamayib borayotganligi, energiya tanqisligi, aholining tez ko‘payib borayotganligi, termo-yadro urushi xavfi kuchayayotganligi, atrof-muhitning tobora ifloslanayotganligi, ekologik vaziyat, ya'ni axloqiy buzilish (siyosiy, diniy ekstremizm, terrorchilik, koruptsiya, o‘garlik, talonchilik, buzg‘unchilik va h. k., tobora ko‘proq taxdid, xavf-xatar tug‘dirmokda.

Din kishilar o‘rtasidagi muayyan munosabatlar va bu borada diniy tashkilotlarning faoliyatidan ham iboratdir. Dinning hamma tarkibiy qismlari singari diniy munosabatlar va diniy tashkilotlar faoliyati ham ijtimoiy vaziyatlar bilan belgilanadi. Bularning faoliyati nisbiy mustaqillikka ega bo‘lib, kishilarning voqelikka bo‘lgan munosabatiga muayyan darajada ijobiy yoki salbiy ta'sir etib turadi.

Diniy tushunchalar, tasavvur va kayfiyatlarga moslashib, bularning bevosita ta'siri natijasida vujudga keladigan dindorlar o‘rtasidagi aloqadorlik va diniy jamoa, uyushma va tashkilotlarning faoliyatlari diniy munosabatlar deb ataladi. Bunday munosabatlar ijtimoiy, goyaviy, mafkuraviy munosabatlarning turlari bo‘lib, muayyan dunyoqarashni shakllantiradi, pirovardi-oqibatda ishlab chiqarish munosabatlarining mahsuli hisoblanadi.

Jamiyatda diniy munosabatlar alohida mavjud bo‘lmaydi; ijtimoiy munosabatlarning boshqa turlari, chunonchi siyosiy, huquqiy, axloqiy, ma'naviy munosabatlar, mehnat jarayonlari bilan uzviy bog‘liqtsir; bir-birini oziklantirib turadi.

Diniy munosabatlar, birinchidan, har bir diniy jamoa, uyushma, tashkilotlar orasidagi, ikkinchidan, diniy tashkilotlar o‘rtasidaga va uchinchidan, tashqi

munosabatlar doirasidagi aloqalarga bo‘linadi. Bu alokalarning ob'ekti va sub'ekti diniy jamoalardir, ular diniy e'tiqodga asoslangan dunyoqarashga ega bo‘lgan kishilar birligining muayyan shakli va diniy uyushmaning boshlang‘ich elementidir. Bu birlikning asosiy belgilari quyidagicha:

1) diniy e'tiqod, maqsad va vazifalar birligi; 2) diniy marosimlar va undan tashqaridagi faoliyatlarning birligi; 3) etnik birlik tuyg‘uei; 4) jamoa a'zolari orasidagi o‘zaro taqsimlangan mavqe va vazifalarning birligi.

Diniy jamoalarning tuzilishi an'analar va urf-odatlar, huquq yoki umumiy dasturlar, qoida, fatvolar bidan belgilanadi. Bular maxsus mezonlar sosida rasmiy va norasmiy guruhlarga: -"jamoa kengashi", "ruhoniylar", "qavmlar" va "va'zxonlar" ga, diniy va xo‘jalik, moliya ishlari bilan shug‘ullanuvchi guruhlarga bo‘linadi.

Mustaqillik ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, jumladan, ma'naviy hayotdagi yangilanish jarayoni va tub o‘zgarishlar davrini boshlab berdi. Dinga bo‘lgan munosabat ijobiy tomonga o‘zgardi: sobiq sovet tizimining dinga ateistik hujumkorlik siyosatiga barham berildi, vijdon erkinligi qonun orqali kafolatlandi.

Din – e'tiqod va u har bir kishining shaxsiy ishi hisoblanadi. Diniy nuqtai nazarga ko‘ra, din – muayyan diniy e'tiqodlarga, ya'ni ilohga, uning tomonidan insonlarga xabar yetkazuvchilarning g‘ayrioddiy salohiyatga ega ekaniga (payg‘ambarlik), insonlar atrofida unga ko‘rinmaydigan ammo undan ancha yuqori darajada turuvchi mavjudotlar borligiga (farishtalar, jinlar) inson ideal hayot kechirishi uchun azaldan belgilangan qonuniyatlar mavjudligiga (muqaddas kitoblar), inson hayoti muntazam nazorat ostida ekaniga, qilingan barcha yaxshilik va yomonlik uchun mukofot yoki jazo muqarrarligiga (oxirat, hisob-kitob qilinish), inson qismati avvaldan belgilanishiga (taqdir) va shu kabi qarashlarga ishonish, ularni aqida sifatida qabul qilishdan iborat.

Din – tabiat, jamiyat inson va uning ongi, yashashdan maqsadi hamda taqdiri insoniyatning bevosita qurshab olgan atrof-muhitdan tashqarida bo‘lgan, uni yaratgan ayni zamonda insonlarga to‘g‘ri, haqiqiy, odil hayot yo‘lini ko‘rsatadigan ilohiy qudratga ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslak, qarash ta'limotdir. U muayyan ta'limotlar, his-tuyg‘ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyon bo‘ladi. U olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida tariqasi, uni idrok etish usuli, olamda insoniyatning ilk tarixidan to bizgacha o‘tgan davrlarni ilohiy tasavvurda aks etishidir. Din komil insonni tarbiyalashda salmoqli tarbiyalovchi qudratga ega bo‘lgan ma'naviy-axloqiy kuchdir.

Din ishonmoq tuyg‘usidir. Ishonmoq tuyg‘usi insoniyatning eng teran va go‘zal ruhiy-ma'naviy ehtiyojlaridandir. Dunyoda dini, ishonchi bo‘lmagan xalq yo‘q. Xalq dinsiz, e'tiqodsiz biror-bir narsaga ishonchsiz holda yashay olmaydi. Sotsiologik nuqtai nazardan qaraganda din jamiyat uchun zaruriy narsa, ijtimoiy hayotning ajralmas qismidir. U ijtimoiy munosabatlarni yuzaga keltiruvchi va amalga oshiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa dinni jamiyatda bajargan vazifalariga ko‘ra o‘rganish mumkin demakdir.

Dinning ijtimoiy funksiyalari. Dinning vazifalari uning alohida shaxs va jamiyatga ta'siri va tabiatidan kelib chiqadi. Dinning vazifasi yoshlarga shaxs, oila, jamiyat hayotiga kirib borishi, madaniyat va ma'naviyatni boyitishga qo‘shgan hissasini ko‘rsatib berishdir.

Dinning ijtimoiy vazifalari haqidagi ta'limotni funktsionizm rivojlantiradi. Funktsionizm jamiyatga ijtimoiy tizim sifatida qaraydi. Unda jamiyatdagi har bir element muayyan funktsiyani bajaradi. Dinning jamiyatda bajaradigan ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy vazifalari quyidagilardan iboratdir:

Birinchidan, har bir din o‘z e'tiqod qiluvchilari uchun to‘ldiruvchilik, tasalli beruvchilik – **kompensatorlik** vazifasini bajaradi. Masalan, insonda doimiy ehtiyoj hosil qilish hodisasini olaylik. Inson o‘z hayoti, turmush tarzi, tabiat va jamiyat bilan bo‘lgan munosabatlari jarayonida hayotiy maqsadlariga erishishi ilojsiz bo‘lib ko‘ringanida, unda qandaydir ma'naviy-ruhiy ehtiyojga zaruriyat sezadi. Bu diniy ehtiyoj bo‘lib, u ma'naviy-ruhiy ehtiyojni qondiruvchi, tasalli beruvchilik vazifasini bajargan va bajarmoqda.

Masalan, buddaviylik dini rohiblikni targ‘ib qiladi, xristianlikda esa, har bir xristian Iso masihning qaytishiga umid qilib, sabr-bardosh bilan hayot kechiradi. Islom dinida har bir musulmon dunyoda erishmagan moddiy yoki ruhiy orzu-istaklariga oxiratda erishishga ishongan holda yashaydilar.

Ikkinchidan, din o‘z ta'limot tizimini vujudga keltirgach, o‘ziga e'tiqod qiluvchilar jamoasini, shu ta'limot doirasida saqlashga harakat qilgan va hozir ham shunday. Bu dinning birlashtiruvchilik – **integratorlik** vazifasi deb ataladi. Din doimo ijtimoiy, etnik, ijtimoiy va ma'naviy hayotda uzviylik, muntazamlilikni ta'minlash maqsadida u xalqlarning ijtimoiy hayotiga, axloqiy munosabatlariga, adabiyoti va san'atiga bog‘langan.

Masalan, yahudiylikda mazkur din vakillari bir mafkura atrofida bir millat va yagona maslak egalari bo‘lib, yagona xudo Yahvening sevimli bandalari ekanligi uqtiriladi.

Xristianlikda diniy me'moriy, tasviriy, musiqa san'atidan foydalanib ikona chizuvchilar maktablari faoliyat olib boradi.

Uchinchidan, har bir din o‘z qavmlari turmushini tartibga solib nazorat qiluvchilik – **regulyatorlik** vazifasini bajaradi. Dinlar o‘z urf-odatlari, marosim va bayramlarining qavmlari tomonidan o‘z vaqtida, qat'iy tartibda amal qilishini shart qilib qo‘yadi.

Masalan, islomda kuniga besh mahal namoz o‘qilishi, har hafta juma namozini jome' masjidlarida ado etish va hokazolar.

To‘rtinchidan, din aloqa bog‘lashlik – **kommunikativlik** vazifasini ham bajaradi, ya'ni har bir din o‘z qavmlarining birligi, turli dindagi kishilarning o‘zaro aloqalari, o‘zaro huquq va burchlarining borligi, urf-odat va ibodatlarni jamoa bo‘lib bajarilishi lozimligi nazarda tutiladi.

Beshinchidan, din qonunlashtiruvchilik – **legitimlovchilik** funksiyasini ham bajaradi. Dinning bu funktsiyasi nazariy asosini amerikalik sotsiolog T.Parsons ishlab chiqqan. Uning fikricha, “har qanday ijtimoiy tizim muayyan cheklovlarsiz mavjud bo‘la olmaydi. Buning uchun u qonun darajasiga ko‘tarilgan axloq

normalarini ishlab chiqishi kerak. Din bunday normalarni qonunlashtiribgina qolmay, ularga bo‘lgan munosabatni belgilaydi”.

Oltinchidan, din vazifalarining falsafiy, nazariy jihatlari mavjud. U insonga yashashdan maqsad, hayot mazmunini, dorulfano va dorulbaqo dunyo masalalariga o‘z munosabatlarini bildirib turishdan iboratdir.

Yuqoridagilardan qisqa xulosa qilib aytganda, din insoniyat tarixida, *birinchidan*, umuminsoniy axloq me’yorlarini o‘ziga singdirib olib, ularni hamma uchun majburiy hulq-atvor qoidalariga aylantirgan; *ikkinchidan*, odamlarning bahamjihat yashashiga ko‘maklashgan; *uchinchidan*, odamlarda ishonch hissini mustahkamlagan hamda hayot sinovlari, muammo va qiyinchiliklarni engib o‘tishlarida kuch bag‘ishlagan; *to‘rtinchidan*, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlarni saqlab qolish hamda avloddan-avlodga yetkazishga yordam bergan va shu yo‘l bilan madaniyat rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Dinlarni tasniflash. Dinshunoslar turli ilm-fan soha vakillari bo‘lib, dinlarni o‘zlari xos bo‘lgan ilm yo‘nalishi nuqtai nazaridan o‘rganib, turlicha yondashganlar. Shuning uchun ular o‘rtasida ba’zi ixtiloflar bo‘lishi tabiiydir. Masalan, din tarixi bilan shug‘ullanuvchi olimlar dinlarning yuzaga kelish tarixiga ko‘ra davriy jihatdan yondashib tadqiq etganlar. Boshqa bir guruh olimlar dinlarni paydo bo‘lgan va tarqalgan mintaqalariga ko‘ra tadqiq etganlar. Ayrim dinshunoslar diniy nuqtai nazardan yondashib, dinlarni o‘rganganlar.

Jumladan, Yoakim Vax (Joachim Wach), dinlarni «asoschisi bor dinlar», «an’anaviy (rasm-rusumli) dinlar»ga, Gustav Menshing esa «milliy dinlar», «jahon dinlari» ko‘rinishida ikkiga bo‘ladi. Annemari Shimmel esa dinlarni - ilk-qabilaviy, milliy, jahon dinlari, deb uchga bo‘ladi. Shu bilan birga ba’zi tadqiqotchilar quyidagi tasnifni keltiradilar:

1. Sakramental (diniy marosim va rasm-rusumlarga tayanuvchi) din,
2. Profetik (Payg‘ambarlarga tayanuvchi) din,
3. Mistik (ruhiy olamga yo‘naltirilgan) din.

Islom ulamolari dinlarni, «haq» va «botil» yoki vahiyga tayanuvchi ilohiy dinlar, vahiyga tayanmaydigan tabiiy dinlar kabi ikkiga bo‘lishgan. Ibn Hazm (vaf. 456/1064) va Shahristoniy (vaf. 548/1183) kabi musulmon tadqiqotchilari, haq dinlar uchun «milal», botil dinlar uchun esa «nihal» so‘zlarini ishlatishni ma’qul deb topishgan.

Dinlarni tasniflashda mintaqaviy yondashuvdan ham keng foydalanilib, uning o‘ziga xos jihati shundaki, mintaqadagi aynan bir dinni ikkinchi dinga ta’siri va o‘zaro qorishuvi yoki turli mintaqa dinlarini o‘zaro o‘xshash jihatlari yoki farqli tomonlarini o‘rganishdan iborat. Dinlarni quyidagi omillar asosida tasnifga bo‘lish mumkin:

1. Qit’alarda tarqalishiga ko‘ra Afrika, Osiyo, Evropa, Amerika va Avstraliya dinlari tarzida tasniflash. Biroq bu unchalik munosib tasnif emas. Chunki, shunday dinlar ham borki, ular bir necha qit’alarga tarqalgan. Xususan, islom va xristianlik deyarli barcha qit’alarda mavjud. Shuningdek, ba’zi qit’alarda ozchilikni tashkil etuvchi boshqa dinlar vakillari ham bo‘lishi bilan birga deyarli aksar aholi bir dinga e’tiqod qiladi. Masalan, Evropada asosan xristianlik ko‘p

tarqalgan, islom dini Amerikaga nisbatan Afrikada ko‘proq tarqalgan. Osiyo qit’asida islom, hinduiylik, buddaviylik, konfutsiylik, sintoiylik dinlari aralash tarqalgan. Ba’zan bir qit’ada paydo bo‘lgan din boshqa qit’ada keng yoyilgan. Masalan, xristianlik Falastinda vujudga kelgan bo‘lsa-da, asosan Osiyo qit’asidan tashqarida tarqaldi.

2. Jo‘g‘rofiy mintaqasiga ko‘ra Sharq dinlari va G‘arb dinlari tarzida tasniflash. Bu dunyoning qutblarga bo‘linishiga monand siyosiy va madaniy tafovutni aks ettiruvchi keng jo‘g‘rofiy tasnifdir. Sharq dinlariga hinduiylik, buddaviylik, konfutsiylik, sintoiylik, daolik va boshqa uzoq Sharq dinlari kiritiladi.

G‘arb dinlariga yahudiylik, xristianlik va islom dinlari kiritiladi. Aslida islom dinini G‘arb yoki Sharq dini deb bo‘lmaydi. U jo‘g‘rofiy jihatdan Sharqda yuzaga kelib, G‘arb mamlakatlarida ham keng tarqalgan. Yahudiylik va xristianlik xam aslida Sharq dinlari bo‘lib, yaqin Sharqda vujudga kelgan va G‘arb mamlakatlarida keng yoyilgan.

3. Qadimgi dinlar siyosiy mintaqalarga ko‘ra Mesopotamiya dinlari, Suriya mintaqasi dinlari, Kichik Osiyo yoki Onado‘li dinlari, Fors dinlari tarzida tasniflanadi.

4. Dinlarning mamlakatlar hududlariga ko‘ra Falastin dinlari, Arabiston yarim oroli dinlari, Meksika dinlari, hind dinlari, Xitoy dinlari, Yapon dinlari tarzida tasniflanadi.

Uzoq Sharq dinlari kabi ba’zi mintaqa dinlarini diniy mavzusiga ko‘ra aniq belgilash imkoni bo‘lmagan ko‘p hollarda jo‘g‘rofiy tasnif qulay ilmiy tasnifdir. Masalan, yahudiylik, xristianlik va islom dinlarini tavhid (yakkaxudolik, monoteizm) asosida umumlashtirilsa, Uzoq Sharq dinlarini yagona diniy tushuncha asosida umumlashtirib bo‘lmaydi. Bunday holatda muammoning echimi sifatida jo‘g‘rofiy tasnifga murojat qilish mumkin.

Dinlar unga e’tiqod qiluvchilarning soni, miqyosi, o‘zining ma’lum millat yoki xalqqa xosligi yoxud millat tanlamasligiga ko‘ra turli guruhlarga bo‘linadi. Bu guruhlar son jihatdan qancha bo‘lishidan yoki nazariy jihatdan qanchalik yetuk bo‘lishidan qat’iy nazar, ularni mutlaqlashtirib bo‘lmaydi. Chunki har qanday tasnif ma’lum bir jihatga e’tibor berib, boshqa qirralarni qamrab ololmaydi. Hozirgi kunda din tipologiyasida dinlarning quyidagi tasniflari mavjud:

– tarixiy-geografik jihatga ko‘ra;
– etnik jihatga ko‘ra;
– e’tiqod qiluvchilarining soniga ko‘ra;
– hozirgi davrda mavjudligi jihatidan (tirik va o‘lik diniy tizimlar) va h.k.

Bugungi kunda, dinshunoslikka bag‘ishlangan adabiyotlarda asosan quyidagi tasnif keltiriladi:

1) primitiv diniy tasavvurlar (urug‘-qabila dinlari) - totemistik, animistik tasavvurlarga asoslangan, o‘z urug‘idan chiqqan sehrgar, shaman yoki qabila boshliqlariga sig‘inuvchi dinlar. Ular millat dinlari va jahon dinlari ichiga singib ketgan bo‘lib, hozirda Avstraliya, Janubiy Amerika va Afrikadagi ba’zi qabilalarda saqlanib qolgan;

2) millat dinlari - ma’lum millatga xos bo‘lib, boshqa millat vakillari o‘ziga qabul qilmaydigan dinlar. Ularga yahudiylik (yahudiy millatiga xos), hinduiylik (hindlarga xos), konfutsiychilik (xitoy millatiga xos), sintoiylik (Yaponlarga xos) kiradi;

3) jahon dinlari - dunyoda eng ko‘p tarqalgan, kishilarning millati va irqidan qat’i nazar unga e’tiqod qilishlari mumkin bo‘lgan dinlar. Ular safiga odatda buddaviylik, xristianlik va islom dinlarini kiritadilar.

Bundan tashqari dinlar ta’limotiga ko‘ra monoteistik - yakkaxudolik (yahudiylik, islom) va politeistik - ko‘pxudolik (hinduiylik, konfutsiychilik) dinlari va h.k.ga bo‘linadi. Dinshunoslikka oid zamonaviy tadqiqotlarda yahudiylik, xristianlik va islom dinlarini Ibrohimiy dinlar (Avraamicheskie religi) yoki samoviy dinlar deb atash ham kuzatilmoqda.

Din insoniyatning ruhiy dunyosi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning ijtimoiy hayotida doimo u bilan birga bo‘ladi. Dinni o‘rganish bu insoniyatni o‘rganishdir. Din insoniyat bilan birga dunyoga kelgan.

12-mavzu. Urug‘-qabil a va milliy dinlar.

Insoniyatning dastlabki madaniyat o‘choqlari va ulardagi diniy tasavvurlarning xilma-xilligi. Ilk tabu (ta’qiq), totemizm, animizm, fetishizm, shomonlik, magiya (sehrgarlik). Qadimgi Misr, Bobil va Assuriya dinlari. Antik davrda ko‘pxudolik dinlari. Hinduiylik. Vedalar va upanishadlar - hinduiylikning muqaddas kitoblari. Braxmanlik ta’limotida kastalar. Konfutsiylik. Konfutsiylikda ijtimoiy-ahlokiy masalal ar. Daosizm - falsafiy ta’limot. Iudaizm - yahudiy milliy dini. Yahudiylik ta’limoti. Yapon milliy dini - sintoizm, uning asosiy aqidalari va marosimlari

Takrorlash uchun savollar:

1. Dinning ibtidoiy shakllariga qasi dinlar kiradi va ularning o‘ziga xos xususiyatlari nimada?
2. Milliy dinlar deb qanday dinlarga aytiladi?
3. Milliy dinlarga qaysi dinlar kiradi?
4. Milliy dinlardagi o‘xshashlik va farqli jihatlari nimalarda ko‘rinadi?
4. Braxmanlikda nechta kasta mavjud?
5. Hinduiylikning vujudga kelish davridagi tarixiy shart-sharoitlar qanday edi?
6. Jaynizm ta’limoti asosini nimalar tashkil etadi?
7. Sikxizm qachon va qayerda vujudga kelgan?
8. Xitoy milliy dinlariga qaysi dinlar kiradi?
9. Sintoizm qaysi millat dini hisoblanadi?
10. Yahudiylik asoschisi kim?

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular. Javob yozish kerak.

1.Ilk dinning tasavvurlari.

2.Yahudiylik dinining xususiyatlari.

Adabiyotlar:

1.Abdusamedov A.E. Dinlar tarixi. -Toshkent: O‘zMU, 2004. -208 b.
2.Ochildiyev A. va boshqalar. Dinshunoslik asoslari (o‘quv qo‘llanma). - Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot matbaa birlashmasi, 2013.
3. Xasanov A. va boshqalar. Islom tarixi (Darslik). - Toshkent: Toshkent islom universiteti matbaa-nashriyot birlashmasi, 2008.
4. Mo‘minov A. va boshqalar. Dinshunoslik. - Toshkent: “Mehnat” 2004.
5.Yo‘ldoshxo‘jayev X., Rahimjonov D., Komilov M. Dinshunoslik. - Toshkent: ToshDShI nashriyoti, 2000

Internet manbalari:

1. www. Ziyo net.uz
2. www.faylasuf.uz
3.www. .ziyo.uz
4. www. muslim.uz
5. www. religions.uz

12-MAVZU. URUG‘-QABILA VA MILLIY DINLAR.

Reja

1. **Dinning ibtidoiy shakllari**
2. **Hinduiylik, jaynizm, sikxizm ta'limotlari**
3. **Konfutsiylik, daosizm, sintoizm ta'limotlari**
4. **Yahudiylik dini, tarixi, ta'limoti**

Tayanch tushunchalar: Totemizm, Animizm, Fetishizm , Shomonizm, Magiya, Vedalar, Hinduiylik, Jaynizm, Sikxiylik, Konfutsiylik, Daosizm, Sintoiylik, Yahudiylik (Iudaizm).

Ibtidoiy odamlarning diniy e'tiqodlari totemizm, animizm, fetishizm, shomonlik, magiya (sehrgarlik) shakllarida tarqalgan. Ularning ba'zi bir elementlari hozirgi zamon dinlarida ham uchraydi.

Totemizm - hindlar tilidagi "O totem" (uning urug‘i) degan so‘zdan kelib chiqqan. Totemizm ibtidoiy g‘oyat sodda diniy e'tiqodning bir turi bo‘lib, qadimgi zamondagi urut-qabila a'zolarining muayyan bir hayvon, o‘simlik bilan g‘ayritabiiy aloqasi, yaqinligi, qon-qarindoshligi bo‘lgan deb, bu hayvon va o‘simliklarni muqaddaslashtirishdan iboratdir. Totemizmning muayyan kishilar guruhining tabiat, binobarin, tashqi muhit bilan bog‘liqligini ifodalovchi dastlabki shakllaridan edi. Har bir kabila yoki urug‘ o‘z sharoitini hamda imkoniyatlarini ko‘zda tutib, ba'zi hayvonlarni ovlar va ular haqida yetarli ma'lumotlarga ega edi. Bunday hayvonlarni yaqindan bilish ularning urug‘ bilan yaqinligi yoki qon-qarindoshligi bo‘lsa kerak, degan tasavvurni keltirib chiqargan. Natijada ba'zi hayvonlar, ksyinchalik esa o‘simlikning ba'zi navlari ham muayyan urug‘ a'zolarining ajdodi-totemidir, degan tasavvur shakllanishiga olib kelgan. Shu boisdan keyinchalik urug‘ a'zolari totemning "yordamiga" ko‘z tikkanlar, uni muqaddaslashtirib, o‘z homiylari deb hisoblanganlar, sehr yo‘li bilan unga ta'sir qilishga uringanlar. Totemga sajda qilingan, u himoya qilingan, e'zozlangan, uni o‘ldirish, iste'mol qilish man etilgan. Faqat ayrim hollarda, ya'ni tantanali kunlarda totem hisoblangan hayvon yoki o‘simlikni maxsus rasm-rusumga rioya qilingan holda iste'mol qilish mumkin bo‘lgan. Urut a'zolarida shundagina totemning kuch-quvvati kishilarga o‘tadi va u kelgusida ham urugaing homiysi bo‘lib qoladi degan tasavvur bo‘lgan.

Totemizm e'tiqodlari tub avstriyaliklarda keng saqlanganligini ularning urug‘lari nomlaridan payqash mumkin. Ular urug‘larni konkret hayvoilar (kengru, oq ho‘kiz, qora ho‘kiz kabi yoki ayrim o‘simliklar) nomi bilan ataganlar.

Totemizm elementlarini hozirgi dinlarda ham ko‘rish mumkin. Masalan, hinduizm dinida fil, sigir, maymun, ilonlar kabilar mukaddas hayvonlar hisoblangan. O‘zbeklarda qaldirg‘och, musicha, laylak, ko‘k qarg‘ani muqaddas qushlar deb e'zozlash ham totemizm ko‘rinishlaridan biridir. Markaziy Osiyo

xalqlarida, shu jumladan o‘zbeklarda muchalga qarab vaqt hisobini chiqarish totem e'tiqodi bilan bog‘liqdir. Masalan, ota-bobolarimizda odamlarning yoshini, ya'ni tug‘ilgan kunidan boshlab qancha yashaganligini muchal orqali, muayyan hayvon nomlari bilan atalgan yil hisobidan keltirib chiqarish odati bo‘lgan.

Muchal mo‘g‘ul, xitoy va butun turkiy xalqlarda keng tarqalgan yil hisobi bo‘lib, unda yil oylari 12 hayvon nomi bilan ataladi: sichqon (mush), mol (gav), yo‘lbars (palang), quyon (xargo‘sht), baliq (nahang), ilon (mor), ot (asp) qo‘y (go‘sfand), maymun (hamduna), tovuq (murg‘), it (sak), to‘ngiz (xo‘k) shular jumlasiga kiritilgan.

Xalqimizda, ayniqsa, musulmonlarda totemning elementlaridan bo‘lgan muchalga e'tiqod qilish hali ham qisman davom etmoqda.

Animizm - (lotincha - animus - jon, ruh demakdir) qadimgi zamon dinlaridan biri, kishi ruhining mavjudligiga ishonishdan iborat. Animizm tabiatdagi buyumlarni ilohiylashtiradi, har bir jismda ruh bor, tanadan tashqarida ham jon bor, deb hisoblanadi.

Animistik tasavvurlar barcha xalqlar tarixidagi dinlarda jon va ruh haqidagi tushunchalarning shakllanishida ma'lum bir rolь o‘ynagan. Animizm har bir kishida uning tiriklik hayoti manbai bo‘lgan jon bor, deb talqin qilgan. Dastlabki animistik tasavvur jonni soya yoki nafas bilan aynan, deb bilar edi. Masalan, Shimoliy Amerika xalqlarida soya bilan jon, qadimgi arablarda jon bilan qon, Grelandiyada esa nafas olish bilan jon bitta nom bilan ataladi. Animizm odamda olam haqidagi tasavvurlarni shakllantirish, predmet va hodisalar xususiyatlarini chuqur o‘rganish, jon va ruxlarning tirik odamlar singari qobiliyatga ega degan fikrlar paydo bo‘lishi munosabati bilan tarkib topgan. Shu davrda jonning o‘lmasligi haqidagi tasavvur paydo bo‘lgan. Chunki qadimgi odamlar o‘z tanalarining tuzilishi to‘g‘risida to‘liq bir tushunchaga ega bo‘lmay, hatgoki uyqu va tush ko‘rishining sabablarini ham izohlay olmaganlar. Shundan so‘ng ibtidoiy odamlar inson tanasini boshqaradigan qandaydir alohida bir kuch bo‘lib, odam o‘lgandan so‘ng u kuch, ya'ni jon tanadan chiqib ketadi degan tasavvur hosil bo‘lgan. Natijada jonning tanani tark etgandan keyingi faoliyati qanday kechishi haqida o‘ylay boshlaganlar. Ibtidoiy odamlar o‘zlarini tabiatdan ajratib qo‘ymaganlar. Shuning uchun ular o‘zlari bilan bir qatorda hayvon, o‘simlik, hatto mehnat qurollari, keyinchalik, suv, o‘rmon, momaqaldiroq va boshqalarda ham jon bor, degan tasavvurlarni keltirib chiqarganlar. Buni fanda gilozoizm deb ataydilar.

Jon va ruhdarga ishonish barcha dinlarga xosdir. Dindorlarning fikricha, jon barcha kishilarda bo‘lib, xudo eng oliy ruh hisoblanadi. Odam o‘lgandan so‘ng tanadan chiqib ketadigan jon bor, degan tasavvur chuqurlasha borgan. Demak, odam o‘lganda jon chiqib ketib, yashayverar ekan, uning o‘zi abadiy yashaydi degan tushuncha paydo bo‘lgan. Abadiy ruh to‘g‘risidagi tasavvur ana shu yo‘sinda shakllangan. Ruxlarga ishonish arvohlarga ishonishni keltirib chiqargan.

Jon va ruhlarning o‘lmasligi haqidagi qadimiy animistik tasavvurlarning elementlari hozirgi barcha dinlarda saqlanib qolmokda. Masalan, dindorlar tasavvurida o‘lgan kishilarning arvohini yo‘qlash, ularni tirik odamlar singari hamma narsadan xabardor, deb tushunish mavjud. Shu tufayli jon va ruhlarga atab

qurbonlik, xayr-xudoyi qilish, sadaqa berish odatlari hamon uchrab turadi. Ba'zan murdani kiyimlari bilan dafn etish, yoniga suv, ovqatlar qo‘yish odatlari ham animizmning ko‘rinishidir. O‘zbeklarda arvohlar haqidagi tasavvurlar, ularni eslab payshanba oqshomi arafasida chiroq yoqish, kabristonlarga borib qur'on suralaridan o‘qish animizmga bo‘lgan e'tiqodning shakllaridir.

Fetishizm - (fetish - frantsuz tilidagi "fetiko" - yasalgan tumor, but, sanam degan so‘zlardan olingan) moddiy buyumlarda g‘ayritabiiy xususiyatlar borligiga ishonib, jonsiz narsalarga sig‘inishdir. Ibtidoiy odam ongida har xil moddiy buyumlar - tog‘, qoya tosh, daraxt, keyinchalik turli hayvonlarning suyagi, pati, tumor, sanam va hokazolarda g‘ayritabiiy kuchlar bor, degan tasavvur paydo bo‘lgan. O‘zlari vujudga keltirgan bunday kuchlarga o‘zlari sig‘ina boshlaganlar. Ibtidoiy din shakllaridan biri bo‘lgan fetishizm barcha xalqlarda diniy tasavvurlar shakllanishi bilan uzviy bog‘liqdir.

Fetishizm politeistik (ko‘p xudolik), hatto monoteistik (yakka xudolik) dinlarida hozirgacha saklanib kelmoqda. Masalan, xristianlarda krestga (butga) sig‘inish, islomda esa turli o‘simlik turlarini - sedana, ko‘ztikan, qalampirmunchok, achchiq qalampir, isiriq, chilonjiyda, daraxtlardan - yong‘oq, chinor, archa va boshqalar muqaddaslashtirilib, boshqa buyumlarga, shu jumladan odamlarga ta'siri yoki yordami bo‘lishi mumkin degan tasavvur paydo bo‘lgan. Bunday xususiyatni tog‘-toshlarga, turli buyumlarga ham xos degan g‘ayritabiiy fikrlar shakllangan.

Fetishizm diniy ibodatning ajralmas qismidir. Hozirgi vaqtda ba'zi soddadil, mutaassiblarning turli tumor, ko‘zmunchoq va hokazolarnn taqib yurishlari, daraxtlarga latta-puttalarni osishi, is chiqarishi shunday jismlarni ilohiylashtirish, ularning mo‘'jizaviy kuchiga ishonish fetishizmning diniy e'tiqoddagi eng xarakterli ko‘rinishi va qoldig‘idir.

Shomonizm - ibtidoiy jamoa tuzumi yemirilishi davrida paydo bo‘lgan animistik e'tiqod va ibodatning keng doirasiga kiradigan qadimgi diniy e'tiqodlardan biri. Uning o‘ziga xos xususiyati - kishilar orasida turli ruhlar bilan munosabatda bo‘la oladigan shomonlar qobiliyatiga ishonishdir. Shomonlarga, shuningdek, kelajakni oldin aytib berish, kasalni davolash, o‘lganlarni oxiratga uzatish, tabiatda xohlag‘ancha o‘zgartishlar kilish kabi xususiyatlar ham xosdir. O‘tmishda shomonlarning ruh bilan aloqasi shomon do‘mbirasi yoki mo‘'jizaviy musiqa ijrosida turli rasm-rusumlarni bajarish jarayonida jazavasi tutib, holdan toygancha bajarilgan. Shomonizm o‘tmish dinlar sarqiti sifatida ba'zi bir holatlarda uchrab turadi.

Magiya (sehrgarlik) - insonga, hayvonga yoki tabiat hodisalariga g‘ayritabiiy yo‘l bilan ta'sir ko‘rsatish maqsadida bajariladigan xatti-harakatdir.

Sehrgarlik harakatining shakllari turlicha bo‘lib, ular turmushning har xil sohalarida qo‘llanilgan. Muhabbat magiyasi, davolash magiyasi, ishlab chiqarish magiyasi, dushmanni yengish magiyasi kabi sehrgarlik ibodat va harakatlar ancha keng tarqalgan. Mehnat bilan bog‘liq bo‘lgan magik qarakatlar ibtidoiy odamlar hayotida alohida o‘rin egallagan, ya'ni ular tirikchilikka kerak bo‘lgan narsalarni

topishdan oldin shu buyum yoki hodisaga bog‘liq bo‘lgan magik harakatlarni bajarganlar.

Diniy munosabatlar, birinchidan, har bir diniy jamoa, uyushma, tashkilotlar orasidagi, ikkinchidan, diniy tashkilotlar o‘rtasidaga va uchinchidan, tashqi munosabatlar doirasidagi aloqalarga bo‘linadi. Bu alokalarning ob'ekti va sub'ekti diniy jamoalardir, ular diniy e'tiqodga asoslangan dunyoqarashga ega bo‘lgan kishilar birligining muayyan shakli va diniy uyushmaning boshlang‘ich elementidir. Bu birlikning asosiy belgilari quyidagicha:

1) diniy e'tiqod, maqsad va vazifalar birligi; 2) diniy marosimlar va undan tashqaridagi faoliyatlarning birligi; 3) etnik birlik tuyg‘uei; 4) jamoa a'zolari orasidagi o‘zaro taqsimlangan mavqe va vazifalarning birligi.

Diniy jamoalarning tuzilishi an'analar va urf-odatlar, ququq yoki umumiy dasturlar, qoida, fatvolar bidan belgilanadi. Bular maxsus mezonlar asosida rasmiy va norasmiy guruxlarga: -"jamoa kengashi", "ruhoniylar", "qavmlar" va "va'zxonlar" ga, diniy va xo‘jalik, moliya ishlari bilan shug‘ullanuvchi guruhlarga bo‘linadi.

Muayyan sharoitlarda diniy jamoa ko‘shnichilik, qishloq va mahallachilik jamoasiga mos kelgan. Bunda dindorlik darajasi yuqori va chukur bo‘ladi. Jamiyatning taraqqiy etishi jarayonida ijtimoiy munosabatlar tarmokdanadi. Unda shaharning mavqei ortib borgan sari turli axloqiy va milliy guruxdardan tashkil topgan ishlab chiqarish jamoalari hosil bo‘lgan va ko‘payib borgan sari diniy jamoalar mustaqil tus olgan. Hozir ham shunday. Masalan, islomda dastlabki musulmon jamoasi 622 yili Madinada muhojirlar va ansorlardan iborat holda tashkil topgan. Ko‘p hollarda diniy birlik geografik joylashish jihatidan etnik birlikka mos kelgani uchun din etnik milliy birlik ma'nosini ham anglatgan. Islomdagi mavjud qonunlarga binoan 18 yoshga to‘lgan har bir fuqaro diniy jamoa a'zosi bo‘la oladi. Bunday jamoa kamida 100 mo‘mindan iborat bo‘lishi lozim, aks holda diniy guruh deb hisoblanmaydi. Diniy uyushmalar faoliyati o‘z a'zolarining yashayotgan joyi bilan cheklanadi. U ixtieriy va mustakil tashkilot bo‘lib, moddiy jihatdan ham o‘z-o‘zini ta'minlaydi. Diniy ishlarni boshqarish, diniy mol-mulk va pul mablag‘lari bilan bog‘liq vazifalarni bajarish, tashqi aloqalarni yo‘lga qo‘yish uchun diniy uyushma a'zolari o‘z orasidan ijroiya organini saylaydi. Diniy tashkilot bu dinga ishonuvchilarning va diniy jamoalarning uyushmasidir.

Milliy dinlar deb, odatda, bir millatga mansub xalqdar e'tiqod qiladigan dinlar tushuniladi. Bunday dinlar shakllanishining dastlabki va eng so‘nggi davrlarini bir-biridan farqlash lozim. Dastlabki milliy dinlar quldorlik jamiyatida vujudga kelgan bo‘lib, odatda, politeistik, ya'ni ko‘p xudolik dinlari bo‘lgan. Masalan, qadimgi grek dini ko‘p xudolikning o‘zginasidir. Zevs-pantion (qadimgi grek tilida - bosh xudo) hisoblanib, bir ukasi dengaz xudosi, ikkinchi ukasi- yer osti podsholiganing xudosi hisoblanar edi. Shuningdek, muhabbat va go‘zallik ma'budasi, urush xudosi, quyosh xudosi va san'at homiysi va boshqa yana bir qancha xudolar bo‘lgan. Xuddi shunga o‘xshash kadimgi yahudiylar dinning xudosi - Yahve ham ko‘p xudolilikning yaqkol namunasidir.

Quldorlik jamiyatidagi dastlabki milliy dinlarning o‘ziga xos yana bir xususiyati oxirat to‘g‘risvdagi tasavvurning paydo bo‘lishi va unga ishonishdir. Ammo bu davrda bunday tasavvurlar hali to‘la shakllanmagan edi. Ular keyingi davrlarda rivojlangan. Bu davrda qurbonlik kilish keng rasm bo‘lib hatto majburiy marosimlardan biri hisoblanar edi. Xudolar yo‘lida meva-cheva, noz-ne'matlardan tortib, uy hayvonlarining barcha turlarigacha, qadim zamonlarda esa hatto odamlar ham qurbon qilinar edi. Milliy dinlar rivojlanishining so‘ngti davrlariga kelib odamlar o‘rniga hayvonlar kurbon qilina boshlangan. Shu bilan birga oxirat haqidagi tasavvurlar keng targ‘ib kilinardi.

Milliy dinlar elat-millat dinlari deb ham yuritiladi. Chunki ular urug‘-qabila dinlaridan farkli ravishda sinfiy jamiyat qaror topishi va shakllanishi davrida vujudga kelgan va rivojlangan. Binobarin, ular avvalo elatning so‘ngra, millatning shakllanishini o‘zlarida aks ettirgan.

Milliy dinlarda tasavvur kilingan xudolar milliy xudolar hisoblanib, ibodat-marosimlar asosan muayyan elat yeki millatnikigagina mos tushar edi. Binobarin, bu xildagi qadimga dinlar milliy davlat xarakterida bo‘lishi bnlan boshqa din shakllaridan ajralib turagan.

Eng so‘nggi davrning milliy dinlariga quyidagilar kiradi: hinduizm, jaynizm, sikxizm, daosizm, konfutsiylik, sintoizm va iudaizm (yahudiylik).

Vedalar (Vedizm). Miloddan avvalgi ikkinchi ming yilliklar o‘rtalarida Hindistonga, Panjob hududiga g‘arbdan Hindiqush dovoni orqali oriy jangari xalqlar bostirib kelganlar. Ular Eronga ko‘chib kelgan qo‘shni qabila tillariga yaqin hind-evropa tillarida so‘zlashar edilar. Ular harbiy ishlarda, she'riyatda usta bo‘lib, o‘zlari bilan muqaddas yozuvlari-Vedalar (sanskrit-muqaddas bilim)ni olib kelganlar.

Hind adabiyoti boy bo‘lib, uning anchagina qismi yo‘qolib ketgan. Uning boshlanishi Vedalardir.

Vedalar tarkibiga turli davrlarda yozilgan bir necha kitoblar kirib, ularda ibodat, marosimlar, falsafiy ta'limotlar, tarixiy voqealar bayon etilgan. Vedalar to‘rt yirik to‘plamdan iborat:

1. Rigveda (“Madhiyalar vedasi”);
2. Samaveda (“Qo‘shiqlar vedasi”);
3. Yajurveda (“Qurbonliklar vedasi”);
4. Atxarvaveda (“Afsun va jodular vedasi”);

Rigveda. Rigveda xudolarga aytilgan madhiyalarning to‘plami, diniy yodgorliklar bo‘lib, uning mualliflari rishi kuylovchilarning asosiy vazifalari xudolarni oriy tomonga og‘dirish bo‘lgan. Rigvedada zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto” bilan o‘xshash afsona va marosimlar bor. Rigveda Panjobda, Hind havzasi va uning oqimida miloddan avvalgi VI asrda paydo bo‘lgan. Unda Shimoliy Hindistonda miloddan avvalgi 2-1-ming yilliklarda yuz bergan voqealar haqida ma'lumot beriladi.

Samaveda. Rigvedaga ko‘proq bog‘liq bo‘lib, u hozirgi davrga ikki tahrirda yetib kelgan (cakha – aynan, shahobcha); Kautxuma (Kauthuma) va Ranayaniya (Ranayaniya).

Kautxuma to‘plami 1810 she'rdan iborat bo‘lib, undan faqat 76 tasi Rigvedada uchramaydi. Undagi she'rlar Rigvedaning VIII va IX mandalasidan olingan bo‘lib, tantanali qurbonlik marosimi paytida o‘qiladi. To‘plam ikki qismdan iborat: birinchi qism hajmi Agni, Indra, Sama xudolariga, ikkinchi qism Somaga qurbonlik keltirish marosimida aytiladigan qo‘shiqlardan iborat. Samovedaning maqsadi diniy marosimlarda aytiladigan qo‘shiqlarni o‘rgatishdan iborat. Hindistonda hozirda ham vedalarni kuyga solib kuylovchilar-samovedinalar saqlanib, ularning maktablari mavjud.

Yajurveda. Yajurveda shrauta (qurbonlik marosimi) bilan bog‘liq bo‘lib, uning asosiy qismini qurbonlik usullari – yajus tashkil etadi. Bu marosimlarda to‘lin oyli tunda, yangi oy chiqqan payti Agni uchun qurbonliklar o‘tkazilgan.

Vedaning bu maktablari qora va oq yajurvedaga bo‘lingan. Qora yajurvedaning turli maktablarga xos bo‘lgan Katxoxa, Kapishtxala-Katxa, Maytrayani, Tayttiriya kabi tahrirlari mavjud. Oq Yajurvedaning Vajasaneyi nomli birgina tahriri bor.

Yajurvedaning tarkibi uch asosiy bosqichni tashkil etadi. I.Marosim. II. Yajus va mantralar. III. Braxmana sharhlari.

Atxarvaveda. U mil.av. 1-ming yilliklar boshlariga borib taqaladigan qadimiy hind afsunlarini o‘zida aks ettirgan. Qadimiy hind jamiyatida mavjud bo‘lgan barcha taraflarni, nuqson va kamchiliklarni o‘zida aks ettirgan. Atxaravaveda afsonaviy ruhoniy Atxarvana (“Olov ruhoniysi”) nomi bilan bog‘liq bo‘lib, afsun va jodular o‘sha davrda olov ustida bajarilgan. Atxarvaveda 6 ming she'rdan iborat bo‘lib, 371 madhiyani o‘z ichiga oladi. Ular yigirmata kitobda jamlangan.

Vedalarda butun tabiatning ilohiyligi haqidagi ta'limot ilgari suriladi. Hindistonda ko‘pxudolik keng targ‘ib qilinadi. Xudolar orasida “eng ulug‘i, eng kichigi, eng qarisi, eng yoshi bo‘lmay, ular barchasi ulug‘likda tengdir. Bir xudo ba'zida butun borliqning hukmdori bo‘lishi va shu bilan birga u ikkinchi bir xudoga tobe bo‘lishi mumkin. Masalan, Indra va barcha xudolar Varunaga tobe bo‘lishi mumkin. Varuna va boshqa barcha xudolar Indraga bo‘ysunadilar. Bu Veda ilohiyotchiligiga xos bo‘lib, shu munosabat boshqa xudolarga ham tegishlidir.

Vedalarda xudolar osmon xudolari quyosh xudolari, havo xudolari, yer xudolari, ayol xudolar kabi xudolar toifasi haqida madhiyalar bayon etilgan.

Osmon xudolari. Dyaus, Varna, Indra kabi xudolar osmonlarni boshqarib turuvchilarga kirganlar. Keyinchalik Varuna suv va dengizlar xudosiga aylanib ketgan.

Quyosh xudolari. Rigvedada quyosh energiyasining turlicha namoyon bo‘lishidan besh xudo yuzaga kelganligi haqida so‘z yuritiladi. Mitra (do‘st) – qadimiy xudodir. Surya – quyoshning yorqinroq namoyon bo‘lgan ko‘rinishidir. Savitri -quyoshning quvvat beruvchi kuchida namoyon bo‘ladi. Pushan muruvvatli bo‘lib, quyoshning mahsuldorlik faoliyatini o‘zida namoyon qiladi. Vishnu xudolar orasida abadiy bo‘lib, hozir Hindistonda ulug‘lanadi.

Yana Ashvina va Sitvar nomi bilan ataluvchi ikki tong xudosi qo‘shiladi.

Indra osmon podshosi va oriylarning milliy xudosidir. Yomg‘ir xudosi Panjaniya, shamol xudosi Vayyular Vedalarda aniq tasvirlanmagan. Ular Indra bilan jamlangan holda tasvirlanadi.

Runada odamlar qo‘rqib unga bag‘ishlab madhiya, duolar o‘qiganlar. U Rigvedada Shiva (yoqimli) nomi bilan zikr etiladi. Shiva Vishnu bilan keyinchalik Hindistonda unutilgan xudolar turkumini egalladi.

Yer xudolari. Agni – olov xudosi, u haqidagi afsonalar Hindistondan tashqarida vujudga kelgan. U odamlarning qurbonliklarini xudolarga yetkazuvchi ruhoniy sifatida tasavvur qilingan.

Ushas – tong va uning nuri ma'budasidir. Sarasvatilar – daryo xudosi, keyinchalik so‘z xudosi sifatida tasvirlangan.

Veda ibodatlari ikki turga bo‘lingan. Birinchisi, duolar, ikkinchisi, xudolarga atab qilinadigan qurbonliklar yoki narsalarni taqdim qilishdan iborat bo‘lgan. Duo kitoblari bo‘lmagan paytda ibodatlar faqat qurbonliklar shaklida amalga oshirilgan. Keyin Rigveda, Atxarvaveda kabi madhiya va duolarni o‘zida jamlagan kitoblar paydo bo‘lgach, ibodatning ikkinchi ko‘rinishi – duo va madhiyalar xudolarga atab o‘qish odat tusiga kirgan.

Braxmanlik (Braxmanizm): ta'limoti va tarixi

Braxmanlik – veda dinlarining bir tarmog‘idir. O‘z hayotlarini ibodat qilish, ilohiyot ilmini o‘rganish, murakkab marosimlarni o‘tkazish va xalq ruhoniy hayotini boshqarishga bag‘ishlagan braxmanlar kastasi (tabaqasi) vujudga keldi. Dinda ilohiy tilni o‘zgartirib bo‘lmasligi, sanskritning muqaddas tilga aylanib qolishi braxmanlikning kelib chiqishiga sabab bo‘lgan.

Oriylar ko‘chmanchilikdan o‘troq hyotga o‘tib davlatdagi hukmron sinfga aylanib, madaniyati, hayot tarzi boshqacha bo‘lgan turli xalqlar bilan uchrashib, boshqa tabiiy sharoitga duch keldilar. Ularning eski dinlari – vedizm taraqqiy etdi. Bu taraqqiyot dinni falsafiy jihatdan chuqurlashtirish, ruhoniylar tabaqasini, mavqeini ko‘tarish, ibodat va marosimlarini murakkablashtirish hisobiga bo‘ldi. Keyin o‘zgartirish taqiqlangan diniy aqida vujudga keldi. Braxmanlikda ko‘proq ruhoniylar tabaqasining manfaatlari himoya qilingan.

Braxmanlikning asosiy elementlari braxmanlar va vedalarga tegishli sutralardir. Sutralar san'atning alohida ko‘rinishi bo‘lib, sanskrit tilida yozilgan. Unda ma'lum tabaqaga yuqori o‘rin berilgan.

Braxmanlar o‘zlarining kelib chiqishini yetti ruhoniy oilaning boshliqlari bo‘lgan kishidan deb hisoblaydilar. Oriylar Hindistonda harbiy yurishlarini davom ettirib, borgan sari kamroq qarshilikka duch kelardilar. Ulardan kshatriy (jangchilar) tabaqasi e'tiboridan chetga chiqib, diniy – ruhiy jihatdan ta'siri kuchliroq bo‘lgan tabaqa – braxmanlarning nufuzi oshib bordi. Ular diniy, huquq, urf-odat kabi sohalaridan ham xabardor edilar.

Braxmanlarning hayoti to‘rt bosqichdan iborat.

Birinchi bosqichda braxmanning diniy hayoti balog‘at yoshiga yetib, muqaddas bosqichning qabul qilish va baxshida qilish “marosimidan”keyin boshlanadi. Braxmanning yoshligi birorta donishmand braxman xuzurida vedalarni yodlash, uning uyida muqaddas olovning doimo tutib turish, ustozning xizmatini

bajarish, uning uchun sadaqa yig‘ish bilan o‘tadi. Braxman bu bosqichda “braxmacharin” deb atalgan.

Ikkinchi - “grihasta” nomli bosqichda uy xo‘jayini vazifasini bajarib, uylanishi, oilani boqishi, farzandlar tarbiyasi, amaliy hayot ilmi (qachon va nimani yeyish, nimani yechish, ibodat qilish, marhumlarni dafn etish, mehmonlarni qanday kutish, ovqatni qanday tayyorlash, qariyalarga, ayollarga, yosh bolalarga munosabat)ni qonun asosida fuqarolik burchlarini bajarib borishi lozim.

Uchinchi bosqich “vanaprastha” (o‘rmon zohidi) davri bo‘lib, unda oilasi yoki yolg‘iz holda o‘rmonga ketishi kerak. Braxman u yerda “o‘z nafsini jilovlab” ildizlar, mevalarni yeb, diniy amallarni “jon-jahdi” bilan bajarishi lozim. Bu davrda bir qator mashaqqatlarni o‘z boshidan kechiradi.

To‘rtinchi bosqichda tarkidunyochilik yoki diniy qashshoqlik – “saniyasi” davrini boshdan kechiradi. Uning maqsadi “Oliy Brahmaga yetishish, u bilan qo‘shilib ketish, bu dunyo va o‘lgandan keyingi abadiy baxtga erishish”ga intiladi. U tarkidunyochilik bosqichida faqat sadaqadan tushgan narsalar hisobiga kuniga bir marta ovqatlanib kun kechiradi.

Hinduiylik (Induizm) murakkab din bo‘lib, u ijtimoiy tashkilot, turli dinlar qorishmasidir. U kastachilik asosiga qurilgan. Braxmanlik bilan buddaviylik o‘rtasida kasta ta'limoti bo‘yicha kurashni ifodalovchi hinduiylik dini shakllandi. Bu dinga Hindiston aholisining 83% e'tiqod qilib, uning asosiy sharti Hindistondagi kasta tizimini qabul qilishdir. Hinduiylikda besh qoida va aqida tan olingan.

1. Vedalarning muqaddasligi;
2. Guru (pir, ustoz) ning tan olinishi;
3. Muqaddas joylarga ziyoratga borish;
4. Sanskrit muqaddas til ekanligi;
5. Sigirning muqaddas ekanligi tan olingan.

Hinduiylikda braxmanlar asosiy o‘rin egallab, kengroq “Mahobxorat” muqaddas yozuvlar qatoriga qo‘shilgan. Braxmanlar eski aqidalar zamon talabiga javob bermasligini ko‘rgach, yangi qonun-qoidalarga xos turli oqimlarni yuzaga keltirib, buddaviylikka qarshi kurash olib bordilar. Hinduiylik braxmanlikdan farq qilib unda “Mahobxorat” va boshqa she'riy matnlar sanskrit tilidan zamonaviy hind tiliga tarjima qilinib, asl matni bilan bir xil hisoblangan. Hinduiylikda braxmanlar nafaqat oliy tabaqa vakillaridan, balki oddiy xalq ichidan yoki ayollardan bo‘lishi mumkin.

Hinduiylikda trimurti (uchlik) – Braxma, Vishnu, Shiva xudolari asosiy bo‘lib, Braxma ularning eng kattasi, dunyoni yaratgan xudosi. Shunga qaramay, hinduiylikda asosan Vishnu va Shivaga topinadilar. Hinduiylik ikki asosiy oqimga bo‘linadi:

1. Shivaga sig‘inuvchilar oqimi.
2. Vishnuga sig‘inuvchilar oqimi.

Shiva –kambag‘allar xudosidir. U Rigvedaning birinchi nusxalarida Pudra nomi bilan zikr etilgan. U Ishana, Shivara, Maxadeva (Buyuk xudo) nomlari bilan ham ataladi. Shivaizm Hindistonda 13 ga yaqin asosiy oqimlari mavjud. Bu

oqimlar tridandina, smart, dandi, lingachilar, yoglar maktra, shakta va boshqa oqimlar bo‘lib, xalq orasida Shivaning bir ming sakkizta nomi mavjud.

Vishnu. Hozir Hindistonda birinchilik uchun kurashayotgan ikkinchi ilohdir. Rigvedada u quyosh xudosi – birinchi darajali xudo hisoblanib, ibodat paytida uni Savitar Roxita, Surya, Audita nomlari bilan ataydilar. U “Krishna bilan qo‘shilib yarim inson, yarim xudo shaklidagi qahramon deb tan olinadi”.

“Mahobxorat” va “Ramayana” dostonlarida “Avatara” – insonning Vishnuga qo‘shilib ketishi haqida so‘z yuritiladi. Vishnu ba'zida to‘rtqo‘lli qilib tasvirlanadi. Vishnu hech qachon inson va hayvonni qurbonlik qilishlarini talab qilmagan.

Krishna murakkab obraz bo‘lib u haqda olov, chaqmoq, momaqaldiroq, osmon, quyosh bilan bog‘liq afsonalar mavjud. Krishna jangovar, yengilmas qahramon sifatida ta'riflanadi.

Vishnuizm bayramlari turli-tuman bo‘lib, ular bir necha kunlarga cho‘zilib ketadi. Ular duolar o‘qish, ta'zim bajo keltirish, ommaviy diniy marosimlarda qatnashish, hadya, qurbonliklar atash, ibodatxona yaqinidagi yoki ichidagi hovuzlarda cho‘milish kabilar bo‘lgan. Bu marosimlar faqat ruhoniylar boshchiligida bajariladi. Sigir muqaddas hayvon hisoblanganligi uchun u xudolar qatorida e'zozlanadi. U keyinchalik “tirik but”ga aylanib, Shivaning ma'budlik o‘rnini to‘ldirdi. Vishnuizmda muqaddas hayvon maymun bo‘lib Rigvedada “Vrishakani (erkak maymun) timsolida Xanumanning timsolini ko‘rishimiz mumkin”,-degan rivoyat keltirilgan. Maymun Ram (Ramayana dostonidagi odam-xudo) ning ittifoqchisi maymun –xudo Xanumanning vakili sifatida ulug‘lanadi.

Hinduiylikda Hindistonning har bir hayvoni xudo yoki xudoning hamrohi deb e'tiqod qilinadi. Hinduiylikning aqidaviy, marosimiy, ramziy sohalaridagi tizimi murakkablashib ketadi. Xalq ommasi doirasida hozirda ham sodda, but va ruhlarga sig‘inish davom etmoqda.

Hinduiylik eramizdan oldingi dinlar - braxmanizm va vedaizmning evolyutsiyasi natijasida eramizning birinchi ming yilligi o‘rtalarnga kelib shakllangan. Shu davrdan boshlab hinduizm hukmron dinga aylangan. Hinduizm sinkretik din bo‘lib, turli e'tiqodlar, urf-odat va marosimlar, mahalliy diniy e'tiqod va qarashlarning murakkab kompleksi sifatida voke bo‘lib, urug‘-qabila dinlari elementlarini, braxmanizm, buddizm va jaynizmning asosiy goyalarini qamrab algan. Hinduizm o‘zining yagona tashkilotiga ega emas.

Hinduizm insonning tug‘ilganadan to vafot etishigacha bo‘lgan huquq va vazifalarini belgalab va cheklab qo‘yadi. Shuning uchun unda marosimchilikka keng o‘rin berilgan. Hinduizm kishilarning ijtimoiy tengsizligani oklaydi va abadiylashtiradi, ruhning bo‘lmasligi va ko‘chib aylanib yurishi (sansara ta'limoti), qayta tug‘ilishi (karma ta'limoti), gunoh ishlar uchun javob berishi, jannat va do‘zax kabi aqidalarni o‘z ichiga oladi.

Hinduizm politeistik din bo‘lib, unda ko‘p xudolilik elementlari saqdangan. Hinduizm ta'limotida xudoning uch xil ko‘rinishda tasavvur etilishi (trimurti) eng oliy, ilohiy, yakka xudoning uch xususiyati, deb talqin qilinadi. Bu xristianlikdagi uch yuzli xudoga o‘xshaydi.

Hinduizm ta'limoticha, olam paydo bo‘lib, yemirilib, yo‘q bo‘lib turadi, ya'ni olamning yashashi progressiv emas, aksincha, regressiv xarakterga ega; har bir davr olamning yuksak rivojlangan cho‘qqisidan boshlanib, uning inqirozga uchrashi bilan tugaydi, insonlar gunohga botib ketgach, olam yo‘qoladi.

Hinduizm jamiyatning tabaqalarga bo‘linishini aks ettiruvchi savob va jazo (karma) g‘oyasiga asosan, inson hayotida 4 ta asosiy maqsad bor, deb da'vo kilinadi: 1) dxarma - oila va jamiyatda diniy talablarni bajarish: 2) artxa - foydali ishlar qilish, zarur materiallarga ega bo‘lish; 3) kama - muhabbat tuyg‘ulariga erishish, his-tuyg‘ularni qondirish; 4) moksha - o‘zgarish zanjiridan butunlay xalos bo‘lish.

Vishnuizm va shivaizm oqimlarining vakillari o‘z xudolariga bag‘ishlab minglab katta-kichik ibodatxonalar kurganlar. Bu dinga e'tiqod kiluvchilar "muqaddas joylar", daryolar va boshqa har xil narsalarga sig‘inadilar. Hind xalqi orasida yovuz ruhlarga e'tiqod qilish keng tarqalgan. Ular turli hayvonlar - ho‘kiz, sigar, maymun va ilon kabilarga ham sig‘inadilar, ularni muqaddaslashtiradilar. Masalan, hinduizm tarafdorlari sigirni sahiylik manbai va go‘zal ayol timsoln deb hisoblaydilar. Ruhoniylar sigirlarni so‘ymaslik va go‘shtini yemaslikni targ‘ib kiladilar. Ammo hinduizm sigar sutini ichishni va undan xo‘jalikda ish hayvoni sifatida foydalanishni ta'qiqlamaydi.

Hind xalqi uchun Gang daryosi muqaddas hisoblanadi. Hinduizm diniga e'tiqod qiluvchilar Banoras shahrini ham mukaddaslashtirishgan. Rivoyatlarga ko‘ra, go‘yo Gang daresi qirgog‘ida kishi hayotdan ko‘z yumsa, narigi dunyodagi hayoti ancha yengillashar, jannatga yo‘l olar degan diniy fikr bor.

Hinduizmning xarakterli xususiyatlari, yuqorida qayd kilingandek, jamiyatdagi kishilarni tabaqalarga - kastalarga ajratishdir. Hozirgi paytda kishilarni tabaqalarga bo‘lish taqiqlangan. Ammo tabaqalarga bo‘linish minglab yillar davom etganligi va kishilarning ongiga chuqur singib ketganligi uchun bu masalada muayyan qiyinchiliklar yuz bermoqda. Hinduizmning "muqaddas" yozuvlariga Veda ,

Upanishadlar kiradi. Keyinchalik "Maxabxarata" va "Ramayana" dostoniga o‘xshash, diniy marosimlar va urf-odatlar singdirilgan har xil afsona, rivoyat, hikmatli so‘zlar, epik dostonlar paydo bo‘la boshladi.

XIX asrning boshlarida hinduizm milliy-ozodlik harakati g‘oyalariga katta ijobiy ta'sir ko‘rsatdi. Shu bilan hinduizmda shovinistik diniy e'tiqodlarni targ‘ib qilgan bir qator oqimlar ham paydo bo‘lgan.

Hozirgi vaqtda hinduizm Hindistondan tashqari Nepal, Shri Lanka, Bangladesh, Gavana va hindlar yashaydigan boshka hududlarda tarqalgan.

Jaynizm (sanskritcha “jina” - “muzaffar” so‘zidan olingan). Jaynizmning kelib chiqishi haqida ko‘plab afsonaviy rivoyatlar mavjud. Rigveda kitobida jaynizmning ikki tirtxakarlari (yo‘l tuzuvchi, ruhlarni ozod qiluvchi) Rishabxa va Arishtanem haqidagi rivoyat keltirilgan. Ulardan birinchisi – Rishabxa jaynizm ta'limotining asoschisi hisoblanadi. Bu rivoyatlarda Rishabxa shaxsida ilohiyot Naroyana, ya'ni Vishnu mujassam bo‘lgan. Bu ma'lumotlar jaynizmning veda dinlaridan ham qadimiyroq ekanligini ko‘rsatadi.

Jaynizm dini vakillarining e'tiqod qilishicha, bu ta'limotga 24 tirtxakar (payg‘ambar yoki avliyo) asos solgan. Ularning barchasi kshatriylar xonadonidan bo‘lgan. Ushbu tirtxakarlarning 22 tasi haqida ma'lumot deyarli yo‘q, 23-si – Vardxamana Maxaviradan 250 avval yashagan Parshvanadxa – Banoras podshohi Ashvasanning o‘g‘li bo‘lgan. Biroq rohiblik yo‘lini ixtiyor etib, otasining saroyini tark etgan. U o‘zidan keyin juda ham chiroyli nizomga solingan diniy ko‘rsatmalar qoldirgan. Vardxamananing ota-onasi, oila a'zolari Parshvanadxaning dinida bo‘lganlar. Vardxamanada yoshligidan jaynizm ta'limotiga kuchli qiziqish paydo bo‘lgan. Shunday qilib, Vardxamananing o‘zi jaynizmning navbatdagi va so‘nggi tirtxakari bo‘lib yetishgan.

Vardxamana mil. av. VI asrda Hindistonning Bixar shtatida boy kshatriy oilasida tug‘ildi. Otasi Siddxardxa Jnatrik qishlog‘ining kshatriylar sulolasi boshlig‘i edi. Onasi Trisala Lichchxavi sulolasidan bo‘lgan mashhur podshoh Vayshali hukmdori Chetakining singlisi edi. Magadxi podshohi Bimbisara Chetakining qizi Chillanaga uylangach, Vardxamana qudratli Magatxi sulolasi bilan qarindosh bo‘ldi. Buning natijasida uning oldida oliy darajada ta'lim olish, ilm va san'atning barcha sohalari bilan tanishish imkoni paydo bo‘ldi.

Maxavira Yashoda ismli qizga uylandi va undan qiz farzand ko‘rdi. Aynan mana shu qizining eri Jamali Maxaviraning birinchi shogirdi, keyinchalik esa jaynizm ibodatxonasining hinduizmdan ajralib chiqishining tashabbuskori bo‘ldi. Vardxamana o‘ttiz yoshigacha oddiy dunyoviy kishilardek hayot kechirgan. Keyin esa barcha mulkidan voz kechib, ko‘p yillar sayohat qilgan. Doimiy o‘y-fikrga cho‘mib, o‘zini ichki iztiroblar domiga tashlagan. 13 yildan keyin Parshvanadxa tepaligida go‘yoki, “botiniy” bilimga ega bo‘ladi. Bu eng oliy bilim bo‘lib, Vardxamanani 42 yoshida shodlik va qayg‘ulardan butkul ozod qilgan va uni yuqori darajadagi diniy ustozlarga beriladigan Jina nomi bilan mashhur qildi. Keyinchalik unga Maxavira (“ulug‘ qahramon”) unvoni berildi. Maxavira ko‘p yillik sayohatlari davomida ko‘plab insonlarni o‘ziga ergashtirdi. Uning shogirdlari nigrantxa (“kishandan ozod qilinganlar”) deb atala boshlandi.

Vardxamana Maxavira rohiblar, oddiy erkak va ayol insonlar barobar e'tiqod qila oladigan diniy ta'limotga asos soldi. Maxavira mil. av. 527 yili 73 yoshida vafot etdi. Jaynizm adabiyotida keltirilishicha, u nirvana – so‘nggi ozodlik holatiga erishgan.

Jaynizm ta'limotining asosiy g‘oyasi deyarli barcha hind dinlari uchun umumiy bo‘lgan karmalar va nirvana haqidagi ta'limot hisoblanadi. Nirvanaga erishgan inson qayta tug‘ilishdan ozod bo‘ladi. Bunga esa faqat tarkidunyo qilganlargina erishishi mumkin, xolos. Shuning uchun ham ushbu ta'limotda tarkidunyochilikka alohida e'tibor beriladi. Inson dunyoda o‘zining barcha ehtiroslaridan voz kechgach, o‘z nafsini tiyishi, o‘z-o‘zini yengishi – yangi karma hosil bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydi. Natijada karmaning kuchi yemirilib, uning ruhi kishanlardan ozod bo‘ladi. Kishining karmasi qanchalar zaiflashsa, uning ichki dunyosi shuncha boyib boradi. Bu jarayon ruhning to‘la ozod bo‘lgunigacha davom etadi. Va, nihoyat, ruhning butunlay ozod bo‘lishi – nirvana holati yuz beradi.

Dunyoviy kishidan ham, tarkidunyo qilgan rohibdan ham ma'lum axloqiy qoidalarni bajarish talab qilinadi. Chunki hayotning maqsadi ruhni yomon karmadan saqlash, yangi karmaning yuzaga kelishiga yo‘l qo‘ymaslik, borini ham asta-sekin yo‘q qilib yuborishdan iborat. Buning uchun dunyoviy odam besh narsaga amal qilishi kerak: birinchisi – zarar yetkazmaslik (axinsa), ikkinchisi – rost so‘zlash (satya), uchinchisi – o‘g‘irlik qilmaslik (asteya), to‘rtinchisi – zino qilmaslik (braxmacharya), beshinchisi – tamagirlik qilmaslik (aparigraxa). Mana shular insonning axloqiy mezonini tashkil qiladi. Bundan tashqari, u yana ikki asos – chin e'tiqod va to‘g‘ri bilim tamoyillariga ham amal qilishi lozim. Ularning birinchisi – jaynizm diniga e'tiqod qilishni bildirsa, ikkinchisi – ruhning abadiy ozodligi va hayotning har bir jismda mavjudligini bilishdir. Rohiblar uchun bir muncha murakkab qoidalar ishlab chiqilgan.

Jaynizm ta'limoti borliqning ilohiyot tomonidan yaratilgani va uning borliq ustidan nazorat qilib turishini tan olmaydi. Unga ko‘ra, ruh – abadiy mavjudot, olam esa azaliydir. Ruh moddiy tanani yengib o‘tib, abadiy hayotga yetishi mumkin. Maxaviraning fikricha, dunyodagi har bir jism, uning jonli yoki jonsiz bo‘lishidan qat'i nazar, qandaydir darajadagi anglash xususiyati bilan yaratilgan. Shuning uchun jaynizmda axinsa – zarar yetkazmaslik qoidasiga ko‘proq e'tibor beriladi, ya'ni jonli yoki jonsiz narsalarga ozor yetkazmaslik talab qilinadi.

Maxavira vedalarning ulug‘ligini inkor etdi va veda urf-odatlariga braxmanlarning hukmronligiga qarshi chiqdi. U insonni ma'naviy yuksaklikka olib boruvchi hayot qonunlarini, ashaddiy rohiblikni, ruhni ozodlikka olib chiquvchi deb hisoblangan nafsni tiyish fazilatini keng targ‘ib etdi.

Maxaviraning ashaddiy rohiblik tamoyillari va sodda bayon qilingan ta'limoti ko‘pchilikni o‘ziga jalb qildi. Uning ganadxara (“maktab boshliqlari”) nomi bilan mashhur bo‘lgan 11 shogirdi bo‘lib, ular Maxavira vafotidan keyin uning ta'limotini davom ettirganlar.

Jaynizmning asosiy qoida-tamoyillarini o‘z ichiga olgan 45 ta asar mavjud bo‘lib, ular Maxavira tomonidan bitilgan. Biroq mil. av. III asrda og‘zaki matnlarni kitob holatiga keltirish maqsadida qilingan harakatlar oqibatida jaynizm ikki oqim – shvetambarlar yoki svetambarlar (“oq kiyim kiyganlar”) va digambarlar (“moviy kiyim kiyganlar”)ga bo‘linib ketgan. Digambarlar jaynizmning asl holatini saqlab qolishga ko‘proq ahamiyat berganlar. Ular Rishabxaning qadimiy qonunini yo‘qolgan deb hisoblab, shvetambarlardagi matnlarni haqiqiy emas deb e'lon qildilar. Jaynizmning ikki oqimga bo‘linishi har ikki oqimning o‘ziga xos urf-odatlari, kiyinishi va boshqa hayotiy qirralarning shakllanishiga sabab bo‘ldi. Vaholanki, ular asosiy diniy qoidalarda o‘zaro farqlanmaydilar.

Hozirgi kunda dunyoda bir yarim milliondan ortiq jaynizm dini tarafdorlari mavjud. Ular, asosan, Hindistonning Rajputan, Gujarot va bir qator janubiy mintaqalari, Madxya, Bxarat shtatlarida istiqomat qiladilar.

Sikxiylik (Sikxizm). Hozirda sikxiylik diniga e'tiqod qiluvchilarning soni 17 mln. bo‘lib, bu dinga bo‘lgan qiziquvchilar soni ortib bormoqda. Shunisi qiziqki, XV asr oxiri XVI asr boshlarida sof diniy islohot shaklida boshlangan sikxiylik harakati XVII asrning ikkinchi yarmiga kelib o‘z e'tiqod qiluvchilarini faol harbiy

an'analar bilan sug‘orilgan siyosiy tashkilot atrofida jamladi. Bunday o‘ziga xos taraqqiyotning natijasi shu bo‘ldiki, XVI asr boshlarida kichkinagina harbiy-diniy jamoa Ranjid Singx asos solgan kuchli davlatga aylandi.

Sikxiylik diniga Panjobda guru (ustoz) Nanak (1469-1539) tomonidan asos solinib, unga ergashganlar o‘zlarini sikxlar, ya'ni shogirdlar deb atashgan. “Sikxiylik” atamasi ham shu so‘zdan olingan.

Nanakning vafotidan keyin uning ta'limotini 9 ta guru rivojlantirgan. Xususan, to‘qqizinchi guru Govind Singx (1675-1708) bu ishda muhim rol o‘ynagan. Ular yagona ta'limotni targ‘ib qilgan yagona guruni 10 qiyofada namoyon bo‘ladi deb hisoblaganlar.

Sikxiylik talqinida hinduizmdagi Braxma, Vishnu, Shiva va islomdagi Alloh bir ilohiyotda mujassam bo‘ladi. U nirgun (“sifatlardan xoli”) va sagun (“sifatlar egasi”) deb talqin qilinadi. Uning asosiy holati nirgun bo‘lib, bu holat har qanday sifatlardan xolidir. Biroq inson uni qandaydir sifatlar orqali tanishi uchun u o‘z xohishi bilan sagun holatiga o‘tadi. Sikxiylik ta'limotiga ko‘ra, ilohiyot – Yaratuvchi, Saqlovchi, Vayron qiluvchi (Braxma, Vishnu, Shivalardek) sifatlarni o‘zida mujassam qiladi. U qudratli va hukmdordir. Uning tomonidan yaratilgan dunyo esa o‘zgaruvchan va foniydir. Ilohiyot esa – abadiy. U azalda ham, hozirda ham, kelajakda ham mustaqil ravishda mavjuddir. Azaliylik, vaqtdan tashqarida bo‘lish, tug‘ilmaganlik, o‘lmaslik kabi unga berilgan sifatlar uning mohiyatini anglatadi. Xudoga bo‘lgan muhabbat, ishonch, sadoqat yo‘lini tutgan har bir inson Unga yetishishi va U bilan birlashib ketishi mumkin.

Xudoga ibodat qilish, sikxiylik ta'limoti bo‘yicha aslo dunyoviy hayotdan uzilishni, rohiblik yo‘lini tutishni anglatmaydi, aksincha, hayotda faollikni, to‘la mehnatni va oiladagi o‘z vazifasini bajarishni anglatadi. Bu tamoyillarga to‘la amal qilish pirovard natijada tug‘ilishlar zanjirining uzilishiga va insonning xudo bilan birlashib ketishiga olib keladi. Har kim xudo bilan bevosita muloqotda bo‘lishi mumkin.

Sikxiylik Hindiston xalqi diniy tafakkurining bir bosqichi sifatida kuchli islohotchilik harakatlari zaminida yuzaga keldi. Ushbu harakat Ramanand, Gorakxnatx, Chaytanьyax, Kabir va Vallabxacharьya nomlari bilan bog‘liq bo‘lib, butun XVI asrni o‘z ichiga oldi. Bu davrda hinduizm kabi sikxiylikga ham islomning ta'siri kuchli bo‘ldi. Mazkur holatda madaniyatlar orasidagi doimiy kurash o‘z aksini topgan. Nanak ham Kabir kabi hinduizmni butparastlikdan tozalab, islomga yaqinlashtirishga harakat qildi. Tadqiqotchilarning fikricha, sikxlar bir Xudoga e'tiqod qiladilar. Bu din boshqa iloh va butlarga ibodat qilishni, hinduizmning yirik ziyoratgohlariga borishni, folbinlik va sehr-joduga ishonishni taqiqlaydi hamda tug‘ilish va o‘lim bilan bog‘liq poklash marosimlarini tan olmaydi. Sikxiylik ijtimoiy tizim sifatida kasta tabaqalanishini inkor etadi va bu yo‘l bilan braxmanlarning tug‘ilish, o‘lim va nikoh marosimlaridagi rahbarlik mavqeiga barham beradi.

Boshqa dinlar kabi sikxiylik ham o‘zining muqaddas kitobiga ega. Uning muqaddas kitobi – Adigrantx (“Boshlang‘ich kitob”) bo‘lib, beshinchi guru Arjun (1581-1606) tomonidan tuzilgan. U, shuningdek, Gururantx (“Guru kitobi”) yoki

Grantxsahib (“Sohibning kitobi”) nomlari bilan ham ataladi. Unga avval dastlabki besh guruning, keyinchalik esa boshqa gurularning madhiyalari kirgan. Jumladan, Kabirning, Namdevning, Farididdin Ganjishakarning (XV asr) madhiyalari bilan bir qatorda bir necha Bxakti va sufiylik harakati namoyandalarining ham madhiyalari kirgan. U panjob tilida yozilgan bo‘lib, hozirgi kunda Amritsardagi sikxlarning bosh ibodatxonasi hisoblanmish “Oltin Haram”da saqlanadi.

Keyingi yillarda sikxiylikda hinduiylik odatlarini o‘zlashtirib olgan din vakillari bilan sof sikxlar orasida bo‘linish kuzatilmoqda. Birinchi guruh namoyandalari tomonidan eng muqaddas joylarning ishg‘ol etilishi 1926 yili Panjob siyosiy maydonida “Aqoliy Dal” harakatining yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Diniy tamoyillar asosida tuzilgan bu harakat namoyandalari musulmonlar, hinduiylar va sikxlarning siyosiy tengligini talab qilib chiqdilar. 1947 yili Hindistonning ikkiga bo‘linishi natijasida musulmonlar Panjobning Pokistonga tegishli qismiga, hinduiylar va sikxiylar esa Panjobning Hindistonga tegishli qismiga ko‘chib o‘tganlaridan keyin bu harakatning ta'siri kuchaydi.

XX asrning 50-60-yillarida bu harakat yagona irq va til masalasidan kelib chiqib, Panjob shtati tuzilishini talab qildi. Natijada 1966 yili shunday shtat tashkil etildi. Hozirgi kunda bu shtatda Hindiston sikxiylarining 80 % istiqomat qiladi.

Konfutsiylik (Konfutsianizm) falsafiy g‘oya sifatida maydonga kelgan. Uning asoschisi Konfutsiy (Kun Tszi) mil. av. 551 yilda tug‘ilib mil. av. 479 yili vafot etgan.

Konfutsiy otasidan erta ajragan va onasi qo‘lida tarbiyalangan. Onasi ham ko‘p o‘tmay dunyodan o‘tgan. Konfutsiy ta'lim olib, ilm o‘rgangach, 19 yoshida uylanadi. Yoshlarga ta'lim berishga kirishadi. Yangi ustozning ong haqidagi fikrlari, chuqur ma'noli so‘zlari mamlakat bo‘ylab keng tarqaladi. Konfutsiy huzuriga mamlakatning turli mintaqalaridan ilmga chanqoq yoshlar oqib kela boshlaydilar. Konfutsiyning 3000 ga yaqin shogirdlari orasida yetmish ikki eng ko‘zga ko‘ringan izdoshlari mamlakatning obro‘li xonadonlaridan bo‘lishi bilan bir qatorda kambag‘al, oddiy kishilardan ham iborat bo‘lgan. Konfutsiy maktabi qadimgi Xitoyda asta-sekin katta ta'sir doirasiga aylana bordi. Uning ko‘plab shogirdlari qadimgi Xitoy podshohliklarida nufuzli mansablarni egalladilar. Konfutsiy yoshlar tarbiyachisi va ustozi sifatida keng shuhrat qozonib, ilk Xitoy ma'rifatparvari nomiga sazovor bo‘lgan bo‘lsa, u tomonidan taklif qilingan islohotlarning amalga oshirilishida uning aksi bo‘ldi.

Konfutsiyning asosiy e'tiborini tortgan narsa o‘z zamonasining kamchiliklari va aybu nuqsonlari edi.

Oddiy xalqning nochorligi, amaldorlarning cheksiz zulmi, hukmdorlar o‘rtasidagi o‘zaro ziddiyatlar, qadimgi ma'naviy an'ana va qadriyatlardan uzoqlashish – bularning hammasi Konfutsiy keskin tanqidiy qarashlarining yuzaga kelishiga turtki bo‘ldi. Uning fikrlari jamoatchilik tomonidan qabul qilinishi uchun hamma e'tirof qilgan obro‘ga ega bo‘lish kerak edi. Konfutsiy xuddi ana shu obro‘ni uzoq o‘tmishning yarim afsonaviy obrazlaridan topdi. Konfutsiy vafotidan bir necha asr o‘tgach, uning o‘zi orzu qilganidek, podshohlar dono, amaldorlar

fidoiy, xalq esa farovon bo‘lgan paytda uning ta'limoti xalq hayotining ajralmas bir qismi bo‘lib ulgurdi.

Konfutsiy “komil inson” (Tszyunь-tszu) xaqidagi g‘oyasini yaratdi. Tszyunь-tszi yuksak ma'naviyatli inson – ikki asosiy xususiyatga ega bo‘lishi kerak: insoniylik va mas'uliyat (ajdodlar oldidagi qarzni)ni his qilish. Komil inson, eng avvalo, ishonchli va fidoiy bo‘lishi kerak. U o‘zini ayamasdan o‘z ishonchiga, o‘z hukmdoriga, o‘z otasi va barcha o‘zidan kattalarga xizmat qilishi kerak. Bunday inson doimo kamolot sari intilishi zarur.

Konfutsiylikda markaziy o‘rinni axloqiy masalalar egallagan. Diniy masalalar, aqidalarga konfutsiychilik ancha sovuqqon munosabatda bo‘lgan. Konfutsiyning o‘zi qadimgi Xitoyda keng tarqalgan turli ruhlarga bo‘lgan ishonch masalasiga shubhali munosabatda bo‘lgan. "Lunьyuy" (Konfutsiyning falsafiy fikrlari va suhbatlari majmuasi, u konfutsiylikning asosiy manbasi)da keltirilishicha, Konfutsiy g‘ayritabiiy narsalar va ruhlar to‘g‘risida gapirishni yoqtirmagan. Shuningdek, u taqdir, inson umri, o‘lim xaqida so‘z yuritishdan qochgan. Undan "o‘lim nima?" - deb so‘raganlarida, u "Biz tiriklik nima ekanligini bilmaymiz-u, o‘lim nima ekanligini qaerdan bila olar edik"- deb javob bergan ekan.

Biroq o‘sha davrda qadimdan davom etib kelayotgan diniy qadriyatlar, urf-odatlarga Konfutsiy ehtirom bilan munosabatda bo‘lgan.

Konfutsiyning yana bir asosiy ta'limoti – "Syao" ta'limotidir. Mazkur ta'limotga ko‘ra inson o‘z ota-onasiga munosib bo‘lishi haqidagi g‘oyani o‘zida mujassamlashtirgan. Konfutsiy fikricha, inson uchun "Syao"dan muhimroq narsa yo‘q. "Syao" va "di" (ukaning akaga, kichiklarning kattalarga xurmati) insoniylikning asosidir" degan. Undan "Syao"ning asosiy ma'nosi nima, farzandlik xizmati qanday bo‘lishi kerak, degan savolga Konfutsiy shunday javob bergan: "aqlli va ota-onangni boqishga yaroqli bo‘lishingdir. Zero, odamlar uylaridagi itlar va otlarini ham boqadilar-ku, agar insonlar ota-onalariga ortiq ehtirom ko‘rsatmasalar hayvonlarni boqishlaridan nima farqi qoladi?".

"Syao" ta'limotining "Li qonunlari"ga ko‘ra farzand ota-ona hayotlik chog‘ida mutlaqo ularning ixtiyoridadir. To ular dunyodan o‘tgunicha o‘ziga-o‘zi egalik qilishga haqli emas. Agar ota-onasi vafot etadigan bo‘lsa, farzand qanday ish bilan mashg‘ul bo‘lishidan qat'i nazar, qanday lavozimni egallagan bo‘lmasin, barcha ishini tashlab 3 yil davomida aza tutishi shart. Konfutsiylikning "Syao" ta'limoti asrlar mobaynida Xitoy madaniyati, axloqiy normalariga katta ta'sir o‘tkazib keldi.

Konfutsiylik ta'limotiga ko‘ra, oila nikohdan, yoshlarning kelishuvi bilan boshlanmaydi. Balki, oila ehtiyojlari uchun nikoh amalga oshiriladi. Konfutsiy urf-odatlariga ko‘ra, avlodlar o‘z ajdodlari ruhi oldida qilishlari zarur bo‘lgan barcha marosimlarni o‘z o‘rnida, muntazam ravishda bajarishlari lozim.

Konfutsiy ta'limoti buning aksini, ya'ni “tiriklar o‘tganlar oldida qarzdordirlar”, degan g‘oyani ilgari surdi. Konfutsiy o‘zidan oldin jamiyatda mavjud o‘tganlar ruhlari haqidagi aqidalarni tamoman o‘zgartirib yubordi.

Modomiki, tiriklarning asosiy vazifasi o‘tganlarni rozi qilish, ularga xizmat qilish ekan, butun oila mana shu asosiy g‘oyaga xizmat qiluvchi bir jihozni tashkil qiladi. Mana shuning uchun ham har bir oila boshliqlari o‘z ajdodlari oldidagi qarzlarini ado etishlari uchun oila naslini davom ettirishlari kerak. Konfutsiy fikricha, dunyodan befarzand o‘tish va o‘zidan nasl qoldirmaslik nafaqat shu insonning yoki shu xonadonning, balki butun jamiyatning fojiasidir.

Konfutsiylik juda tez muvaffaqiyatga erishmadi. Konfutsiyning o‘zi esa, zamondoshlari tomonidan tan olinmay vafot etdi. Keyinchalik uning shogirdlariga ham oson bo‘lmadi.

Garchi konfutsiychilar o‘z ta'limotlarini qadimgi Chjou aqidalariga bog‘liq urf-odatlar, marosimlar, axloqiy me'yorlar asosiga qurgan bo‘lsalar-da, ular mazkur aqidalar orasida o‘z munosabatlari, qolaversa, har bir masala yuzasidan o‘z xulosalarini ham berib bayon qilardilar. Mana shu narsa konfutsiylikning muvaffaqiyatga erishishiga sabab bo‘ldi. Undan tashqari, uning muvaffaqiyatiga sabab bo‘lgan omillardan yana biri – konfutsiychilarning o‘zlari foydalangan qadimgi kitoblar, she'rlar, risolalarni yig‘ib o‘quvchilariga o‘rgatganliklaridir. Bu ishning asosiy qismi Konfutsiyning o‘zi tomonidan bajarilgan edi. U turli podshohliklarda mavjud bo‘lgan 3 mingdan ortiq qadimiy qo‘shiqlar, yozuvlarni jamlab, ularni qayta tahrir qilgan. Konfutsiy va uning shogirdlari tomonidan tahrir qilingan asarlar keyinchalik konfutsiylikning asosiy manbalariga aylandi.

Mil. av. IV-III asrlarga kelib Konfutsiy ta'limoti o‘z asoschisi davridagidan ko‘ra ancha keng tarqaldi va katta ta'sir doirasiga ega bo‘ldi.

Xanь sulolasi davriga kelib, (mil. av. III-II asrlar) Konfutsiylik davlat mafkurasi darajasiga ko‘tarildi. Xanь podshohlari Konfutsiy ta'limotini to‘liq qabul qilmagan bo‘lsalar-da, uning kuchini, jamiyatda egallab, ulgurgan mavqeini e'tirof qilgan holda undan davlat boshqaruvida foydalandilar.

Konfutsiy o‘zi yashab ijod etgan joy Tsuyfuda vafot etgandan keyin uning qabri yaqinida bir ibodatxona qurdilar. Ibodatxonaga Konfutsiyning shogirdlari va yaqinlari tomonidan uning barcha tabarruk narsalari, unga taalluqli ashyolar - yozgan asarlari, musiqa asboblari, ro‘zg‘or anjomlari, aravasi va boshqa narsalar keltirib qo‘yildi. Vaqt o‘tishi bilan faylasufning nufuzi oshib, ta'limoti keng tarqalgani sari ushbu ibodatxona ham asta-sekin doimiy ziyoratgohga aylanib bordi. Tsuyfu yaqinida Konfutsiy shogirdlari va izdoshlari makon tutgan kattagina qishloq barpo bo‘ldi. Lu podshohligi hukmdorining o‘zi Tsuyfuga kelib Konfutsiy ibodatxonasida uning xotirasiga qurbonlik qildi. Ibodatxonaning ahamiyati oshgani sayin uning yer mulklari ham kengayib bordi. Bu joy oddiy mahalliy ibodatxona shaklidan Xanь sulolasi davriga kelib butun mamlakat miqyosidagi muqaddas ziyoratgohga aylandi. Mil. av. 195 yilda birinchi Xanь podshohi Lyu Ban shaxsan o‘zi Konfutsiy ibodatxonasida unga atab "tay-lyao" (Xitoyda eng oliy qurbonlik - qo‘y, ho‘kiz va cho‘chqa) uchtalik qurbonligi keltiradi.

Mil.avvalgi 195 yildan boshlab Konfutsiy nomi Xitoyda ilohiylashtirildi va unga atab muntazam qoidalar asosida qurbonliklar qilinadigan bo‘ldi.

Xan sulolasi davrida Konfutsiyga knyazlik unvoni berildi. X-XIII asrlarga kelib, Sun sulolasi davrida unga imperatorlik unvoni, otasiga esa knyazlik unvoni

berildi. Keyinroq Yuanь va Min sulolalari (XIII-XIV asrlar) davrida unga yana ham yuksakroq unvon – "Eng haqiqiy donishmand", "Millatlarning ulug‘ ustozi" unvonlariga sazovor bo‘ldi.

Xitoy shaharlarida Konfutsiyga atab 1000 dan ortiq ibodatxonalar qurildi. Ilk davrlarda ibodatxonaning qurbonlik qilinadigan joyida oddiygina Konfutsiy nomi yozilgan lavha osilgan edi. Xitoyga buddaviylikning kirib kelishi oqibatida bu lavha o‘rnini Konfutsiyning haykali egalladi. Tsuyfudagi ibodatxonadan boshqa barcha ibodatxonalar bir xil shaklga ega edi. Unda Konfutsiy haykali yonida uning shogirdlaridan 86 tasining nomi yozilgan lavha yoki haykallari qo‘yilgan. Tsuyfudagi ibodatxonada ularning soni ko‘proq.

Har oyda ikki marta 1 va 15 kunlarda Konfutsiy haykali oldida odatiy qurbonliklar, yilda ikki marta — bahorda va kuzda alohida tantanali marosimlar o‘tkazilar edi. Tantanaga kelgan imperator va ularning mulozimlari donishmand timsoli oldida turib unga "Sen buyuksan, ey mutlaq donishmand, sening fazilatlaring ko‘p, ta'limoting beqiyos, o‘tganlar orasida senga tengi yo‘q!" kabi maqtovlar va olqish so‘zlari bilan murojaat qilishgan.

Konfutsiy nomi o‘rta asrlarda Xitoyda ilohiylashtirildi. Uning timsoli hattoki podshohlar boshidagi tojlardan o‘rin oldi.

Daosizm - eramizdan oldingi IV-III asrlarda Xitoyda paydo bo‘lgan yarim falsafiy, yarim diniy, sinkretik ta'limot. Uning tub goyasi moddiy olamdagi buyum va hodisalar turli-tumanligining mohiyatini ta'minlovchi, ularning mavjudlik sababi va manbaini tashkil etuvchi "dao" to‘g‘risidagi tasavvurlardan iborat. Eramizning II asriga kelib bu ta'limot asosida diniy qarashlar ham shakllangan va u daosizm nominn olgan. Bu din qadimgi dune faylasufi Dao Tszi nomi bilan bog‘liq "Dao de tszin" kitobidagi ta'limotga asoslangan.

Daosizmda moddiy olam haqida sodda dialektika elementlari ham mavjud. U dunyodagi barcha buyum va hodisalar o‘zgarishda, xarakatda, ba'zi narsalar tiklansa, boshkalari so‘nadi, deb g‘oyat to‘g‘ri ta'lim beradi.

Ammo kohinlar bu ta'limot asosiga diniy g‘oyalarni qo‘yib, g‘oyat ko‘p ruh va xudolarga ibodat qilishdan iborat diniy tizimni yaratdilar. Bu din kohinlari "daos" nomi bilan yuritilgan. Ular uchun rohiblik, darveshlik qilishdan tashqari, oila qurish ham man etilmagan.

Shu tariqa daosizmda olamni boshqaruvchi uch xudolikdan iborat xudolar pantioni - qarorgohi (Shan di, Dao tszi, Pan gu) paydo bo‘lgan.

Daolik bir jihatdan shamanizm va folbinlik bilan bog‘liq edi, chunki qadimgi davolash uslublari falsafa, ayniqsa, dao falsafasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Shamanlar davolash uslublarida inson tanasidagi jarayonlarni tashqi fazoviy kuchlar, har xil ruhlar ta'siri bilan bog‘lab, jodugarlik va sehrdan keng foydalanganlar.

Dao nazariyasi mil. av. IV-III asrlarga kelib rivojlana boshladi. Ijtimoiy-siyosiy masalalar va axloq daolik uchun unchalik muhim emas edi. Biroq daolik vakillari birinchi bo‘lib borliq, tabiat, koinot haqidagi tushunchalarni ishlab chiqa boshladilar. Xitoydagi faylasuflar akademiyasida daolik nazariyotchilari Tyanь Penь, Sun Tszyanь, Inь Venь, Shenь Dao, Xuanь Yuanь va boshqalar to‘plangan

bo‘lib, u yerda o‘z fikrlarini olg‘a surib, beto‘xtov munozaralar olib bordilar va risolalar yozdilar. Ularning yozgan asarlari hozirgi kungacha saqlanmagan bo‘lsada, ularning fikrlari daolikning asosiy manbasi sanaladigan "Dao de tszin" risolasida o‘z aksini topgan. Mazkur risola muallifi, an'anaga ko‘ra, Lao-Tszi hisoblanadi.

Lao-Tszi mil.av. III asr o‘rtalarida yashagan deb taxmin qilinadi. Uning ta'limotiga ko‘ra, tabiat, jamiyat va butun borliqning asosi Buyuk Dao hisoblanadi. Dao – yo‘l, haqiqat, tartib demakdir. Dao haqidagi ta'limot konfutsiylikda bo‘lgan. Chunki dao to‘g‘risidagi fikrlar konfutsiylik va daolik shakllanishidan ancha oldin vujudga kelgan, shuning uchun ham har ikki ta'limotda bu narsa o‘z aksini topgan. Dao - ijtimoiy me'yorlar, intizom va axloqning yig‘indisidir. Daolik vakillari esa, daoga boshqacharoq qaraganlar. Ya'ni, ular uchun dao umumiy tabiat qonuni, boshlanish va tugashning asosidir. Dao to‘g‘risidagi fikrlar umumlashtiriladigan bo‘lsa, dao - butun borliq demakdir. Daoni hech kim yaratmagan, barcha narsalar daodan kelib chiqqan va unga qaytadi. Dao hech kimga ko‘rinmaydi, sezgi a'zolari uni ilg‘ay olmaydi. Nimani ko‘rish, eshitish, sezish, anglash mumkin bo‘lsa, u dao emas.

Daolik ta'limotining asosiy mohiyatlaridan biri bu dao va u bilan aloqador tabiat falsafasi hamda kosmogoniya masalalaridir. Ikkinchi asosiy nuqta mavjudlik, hayot va o‘limning nisbiyligi va shunga bog‘liq holda uzoq yashash, abadiy hayotga erishish tushunchasidir. Milodning birinchi asri – Xanь davriga kelib, abadiy hayot masalasi daolik olimlarining asosiy muammosiga aylandi. Uchinchi va so‘nggi masala u vey printsipidir. Daolik falsafasining mana shu uch ta'limoti Xanь asriga kelib daoliknining shakllanishiga asos bo‘ldi.

Milodiy II asrga kelib daolikda yangi sektalar paydo bo‘ldi. Ulardan biri "Taypindao" (buyuk tenglik ta'limoti) bo‘lib, uning asoschisi Chjan Tszue hisoblanadi. U xalq orasida sehr-jodu orqali barcha kasalliklarni tuzatuvchi hamda kishi umrini uzaytiruvchi shaxs sifatida shuhrat topdi. Uning atrofiga ko‘plab odamlar yig‘ildilar. Chjan Tszue odamlarni 36 jangovor guruhga bo‘lgan. Katta guruhlarga "da fan" katta sehrgarlar, kichik guruhlarga "syao fan" kichik sehrgarlar boshliq etib tayinlanganlar. Sektada yuqori boshliq Chjan Tszue (buyuk osmon rahnamosi) sanaladi. Uning ikki ukasi buyuk yer rahnamosi va buyuk inson rahnamosi deb talqin qilinadi. Bu uchtalik daosizmning osmon, yer va inson birligi ta'limotining ramziy ko‘rinishi edi. "Taypindao" sektasi ta'limoti "Taypintszin" kitobiga asoslanadi.

"Udoumidao" (Besh dou guruch ta'limoti) sektasi ham mavjud bo‘lib, uning asoschisi mashhur daochi Chjan Dao Lin bo‘lib, doaolik ibodatxonasining asoschisi hisoblanadi.

Daolik milodiy asrning birinchi ming yilligi davomida buddaviylik va Konfutsiylik bilan raqobatlashib keldi. Milodning VI asriga kelib, daolik konfutsiylikdan keyin ikkinchi o‘rinni egallagan edi. XIII asrdan boshlab Daolik ta'limotining aniq asoslarga ega emasligi va ilk davrdagi yuksak ta'limotlari turli xurofotlar bilan almashgani tufayli inqirozga yuz tuta boshladi.

XX asr boshlariga kelib, Xitoyda turli daolik sektalariga qarshi kurash boshlandi. XX asrning ikkinchi yarmida Dao tarafdorlari juda ozchilikni tashkil qildi. Ushbu kichik guruhlar monaxlar, targ‘ibotchilar va bashoratchilarni o‘z ichiga olgan.

Daosizm dastlab mulkdorlar hokimiyatiga qarshi bo‘lib, kambag‘allar manfaatini himoya qilgan . Keyinchalik esa u hukmron sinflarning g‘oyaviy quroliga aylangan. Man'chjurlar sulolasi Tsin hukmronligi davrida (1644-1911) daosizm diniy ta'limoti inqirozga uchragan. Hozirgi vaqtda daosizm diniga e'tiqod qiluvchilar juda kamchilikni tashkil etadi.

Sintoiylik (Sintoizm) dini qadimgi Yaponiyada vujudga kelgan. Uning nomlanishi xitoycha “sinto” (xudolar yo‘li) so‘zidan olingan. Sintoiylik dinining vujudga kelishiga oid aniq ma'lumotlar mavjud emas. Sintoiylik yana yaponlar uchun ham tarix, ham an'ana, ham hayot tarzi demakdir.

Sintoiylik ta'limotiga ko‘ra, Mikado (imperator) - osmon ruhlarining davomchisidir. Har bir yapon kishisi ikkinchi darajali ruhlar (“Kami”)ning vorisidir. Yaponlar “kami”ni ajdodlar va qahramonlarning ruhlari deb e'tiqod qiladilar. Xudojo‘y yapon vafot etgach o‘zining ham o‘sha “kami”lardan biri bo‘lishiga ishonadi.

Sintoiylikda oliy iloh tushunchasi mavjud emas. U ajdodlar ruhi va tabiatga sig‘inishga o‘rgatadi. Sintoiylikda umumiy hayotiy rioya qilinishi lozim bo‘lgan qoidalardan boshqa diniy urf-odatlar yo‘q. Unda bir umumiy ma'naviy qoida mavjud bo‘lib, u ham bo‘lsa “Umum qonunlariga rioya qilgan holda Tabiat qoidalariga mos harakat qil”. Yaponlar tasavvurida ular yaxshilik va yomonlik tushunchalarini tabiatan yaxshi bilganlar. Sintoiylik haqidagi ma'lumotlar “Kodziki” (Qadimiy yozuvlar) va “Nixongi” (Yaponiya annallari) manbalarida uchraydi.

“Kodziki” – sintoiylikning muqaddas kitobidir. Bu kitob Yaponiya va u yerda yashovchi xalqlarni tushunishning kaliti hisoblanadi. Unda ikkita asosiy mazmun mujassam: qon-qabilaviy birlik va siyosiy hokimiyat g‘oyasi.

Yapon yozuvlarida ta'kidlanishiga qaraganda, olamda birinchi bo‘lib tartibsizlik hukmronlik qilgan. Undan so‘ng yer osmondan ajralib chiqqan hamda ayol va erkak jinsi paydo bo‘lgan. Ayol jinsi timsolida ayol xudo Izdanami, erkak jinsi timsolida uning eri Izdanagi yuzaga keldi. Ulardan ayol jinsidagi quyosh xudosi Amaterasu, erkak jinsidagi oy xudosi Tsukiyomi, shamol va suv xudosi Susanoo tug‘ildi. Amaterasu g‘alaba qilib osmonda qoldi, Susanoo esa yerdagi Idzumo mamlakatiga quvildi. Susanooning o‘g‘li Okuninusi Idzumo hokimi bo‘ldi. Amaterasu bu holatga chidab tura olmay, Okuninusini hokimiyatni o‘z nabirasi Ninigiga topshirishga majbur qildi. Ninigi osmondan tushib, Idzumo davlati rahbarligini qabul qildi. Unga hokimiyatning ramzi sifatida uch muqaddas narsa - ko‘zgu (ilohiylik timsoli), qilich (qudrat timsoli) va yashma (sadoqat va fidoyilik timsoli) topshirildi. Ninigidan Dzimmutenno kelib chiqdi. Tinno unvoni “oliy hukmdor” ma'nosini anglatadi. Bu so‘z boshqa tillarda imperator ma'nosini bildiradi. Dzimmutenno Mikado – yapon imperatorlari sulolasining birinchi namoyandasi, Yaponiyaning afsonaviy birinchi imperatori hisoblanadi. Ko‘zgu,

qilich, yashma o‘sha qadim zamonlardan beri yapon imperatorlari xonadonining belgisi bo‘lib qolgan.

Imperator mikado, u bir oiladan iborat millatning boshlig‘idir. Yaponiyada 300 yildan ortiq hukmronlik qilgan syogunlar ham o‘zlarini mikado namoyandalari deb ataganlar. Sintoiylik ta'limotida yoritilgan Mikado g‘oyasining boshqaruvchilik xususiyati hozirgi kunda kuchi anchagina zaiflashgan bo‘lsa-da, yaponlar tasavvuridan o‘chib ketmagan.

Hozirgacha sintoiylik ibodatxonalarida imperator oilasiga atab turli marosimlar o‘tkazilib turadi.

Sintoiylik yaponlarga mavjudot olami, tabiat, insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat haqidagi qarashlarni singdirgan. Bu qarashlar besh tamoyilda namoyon bo‘ladi.

Birinchi tamoyilning ta'kidlashicha, butun borliq dunyoning o‘z-o‘zicha rivojlanishi natijasidir. Dunyo o‘z-o‘zicha vujudga kelgan bo‘lib, u yaxshi va mukammaldir. Sintoiylik ta'limotiga ko‘ra, olamni boshqaruvchi kuch olamning o‘zida mujassamdir.

Ikkinchi tamoyil hayot kuchini ta'kidlaydi. Hayotdagi har bir tabiiy holat e'tiborga olinadi. Faqatgina “nopok” bo‘lgan narsaga ahamiyat berilmaydi. Biroq har qanday “nopok”lik tozalanishi mumkin. Shuning uchun sintoiylik marosimlari insonda moslashishga moyillik uyg‘otishga qaratilgan. Shu bois, yaponlar tozalab, isloh qilingan va yapon urf-odatlariga moslashtirilgan har qanday zamonaviylashuvni qabul qiladilar.

Uchinchi tamoyil tabiat bilan tarixni yagona deb tushuntiradi. Sintoiylik ta'limoti dunyoni jonli va jonsizga ajratmaydi. Unga e'tiqod qiluvchilar nazdida dunyodagi hayvonlar, o‘simliklar, jismlar, umuman, tabiatdagi barcha narsalar tirikdir va inson vujudida “kami” xudolari yashaydilar. Sintoiylikga ko‘ra “kami” dunyosi odamlar dunyosidan alohida dunyo emas, balki u odamlar bilan uyg‘unlashib ketgan. Shuning uchun inson najotni qandaydir boshqa dunyodan emas, kundalik hayotda najotga “kami” bilan birlashib ketish natijasida erishiladi.

To‘rtinchi tamoyil ko‘pxudolik bilan bog‘liq. Sintoiylik mahalliy tabiat, urug‘, qabila xudolariga bag‘ishlangan marosimlardan kelib chiqqan. Sintoiylikning ibtidoiy shamanlik va sehrgarlikka oid odatlari faqatgina V-VI asrlarda imperator sinto ibodatxonalari faoliyatini o‘z nazoratiga olgach, hozirgi ma'lum bo‘lgan yagona shaklga kirgan. VIII asr boshlarida imperator saroyida sinto ishlari bilan shug‘ullanuvchi maxsus bo‘lim tashkil etildi. X asrga kelib esa, sinto xudolarining ro‘yxati tuzildi. O‘shanda ularning soni 3132 ta edi, keyinchalik esa bu son yanada ko‘paydi.

Beshinchi tamoyil milliy ruhiy asos bilan bog‘liq. Bu tamoyilga ko‘ra, sinto xudolari “kami”lar barcha insonlarni emas, balki faqat yaponlarnigina vujudga keltirganlar. Shuning uchun ham yaponlar o‘z farzandlariga yoshligidanoq biz sintoga tegishlimiz degan aqidani singdirib boradilar. Shu yo‘l bilan axloq normalarini boshqarishning ikki muhim omili mavjud. Birinchidan, “kami” faqatgina yapon millati bilan bog‘liq ekanligini tasdiqlash; ikkinchidan, Sintoiylik nuqtai nazaradan agar chet ellik kishi sintoga e'tiqod qilib, “kamiga” ibodat qilsa

yapon bo‘lmagan kishining bunday qilishi axloqsizlik sanaladi. Shu bilan birga, sintoiylik yaponlarni boshqa dinlarga e'tiqod qilishlariga qarshilik qilmaydi. Mana shuning uchun ham deyarli barcha yaponlar, sintoiylik bilan bir qatorda, yana boshqa bir dinga e'tiqod qiladilar. Agar yaponlarni diniy e'tiqodiga ko‘ra guruhlarga ajratib, umumiy soni hisoblanadigan bo‘lsa, ularning soni mamlakat umumiy aholi sonidan ko‘p chiqadi.

Sintoiylikda har bir ibodatxonaning o‘z xudosi bo‘lib, uning boshqa ibodatxonalarga hech qanday aloqasi yo‘q.

Oddiy yapon kishi uchun uning o‘z ibodatxonasi, unda amalga oshiriladigan marosimlar, yilda bir marta bo‘ladigan rangin bayramlar hayotining zaruriy qismi bo‘lib qolgan. Uning ota-bobolari ham shunday yashaganlar, o‘zi ham undan oshirmasdan shu tarzda yashaydi.

1868 yilda Meydzi islohotlaridan keyin sintoiylik ruhoniylarini o‘qitadigan ta'lim tizimini yaratishga harakat qilingandi. Kannusi deb ataladigan bunday ruhoniylik lavozimi odatda meros sifatida o‘tar edi. 1945 yilda konstitutsiya yo‘li bilan din davlatdan ajratildi.

Ibodatxonada turli ibodatlar amalga oshiriladi. Dindorlar altar oldida turib, maxsus katakli qutiga biror tanga tashlaydilar, ta'zim qiladilar, bir necha marta chapak chaladilar va ibodat so‘zlarini qaytaradilar. Sinto ibodatxonalarida har xil bayramlar ham tashkil qilinadi.

Sintoiylikning keng tarqalgan bayramlaridan biri Motsuridir. Bu bayram ba'zi ibodatxonalarda yilda bir marta, ba'zilarida esa ikki marta nishonlanadi. Ko‘pincha bu bayram dehqonchilik ishlarining boshlanishi, hosil yig‘ib olish, shuningdek, ibodatxona yoki mahalliy xudoga bag‘ishlangan sana bilan bog‘liq bo‘ladi. Bayram juda yuqori kayfiyatda o‘tadi. Ruhoniylar bayram haqida faqatgina doimiy ibodatga keladigan kishilarni emas, balki atrofdagi barcha aholini xabardor qiladilar. Motsuri bayramida juda ko‘p odam to‘planib, ular tantanalar va o‘yin-kulguda qatnashadilar. Ayrim ibodatxonalarda Motsuri rang-barang karnaval ko‘rinishida o‘tadi.

Har bir ibodatxonada “sintay” xudosi turadigan “xonden” (muqaddas joy) bor. Xondenning yonida “xayden” (ibodat qiluvchilar turadigan joy) bo‘ladi. Ibodatxonalarda xudolar timsoli yo‘q. Ammo ba'zi ibodatxonalar sher, ba'zilari tulki, maymun yoki kiyik timsollari bilan bezatilgan. Bu hayvonlar muayyan xudolarning elchisi hisoblanadi. Bularning barchasi sintoiylikning turli-tuman, o‘ziga xos milliy e'tiqodlar bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Xalq orasida tulki tabiatiga ega bo‘lgan odamlarni sehrgar, folbin, bashoratchilik xususiyatiga ega deb hisoblaydilar. Ular tulki timsolidagi xudoga sig‘inadilar. Qadimda yaponlar bo‘riga sig‘inishgan. Yaqin-yaqinlargacha ular bo‘rini Akami tog‘larining ruhi deb hisoblab kelishgan. Shuningdek, yaponlar toshbaqa, ilon, chuvalchang, baliq, ninachi, akula, krab kabi ko‘plab turli hayvonlarni muqaddas hisoblab, ularning timsollarini yomon ruhlardan himoya qiluvchi, omad-baxt keltiruvchi narsalar sifatida uylari, ibodatxonalariga osib qo‘yadilar. Undan tashqari, o‘simliklardan ba'zi daraxt va gullarni, jonsiz narsalardan tog‘, buloq, tosh kabilarni ham ilohiylashtiradilar. Shuni ta'kidlash

kerakki, ushbu urf-odatlar diniy e'tiqoddan ko‘ra ko‘proq xalqning qadimiy tasavvurlari bilan bog‘liq.

Yahudiylik (Iudaizm) - eng qadimgi dinlardan bo‘lib, eramizdan oldingi XIII asrda yahudiylarning milliy dini sifatida vujudga kelgan. Bu din o‘zining asosiy aqidalarini bevosita o‘sha davrda mavjud bo‘lgan politeistik dinlardan olgan. Uning paydo bo‘lishi va mustaqil monoteistik din sifatida maydonga chiqishi markazlashgan yahudiy davlatining tashkil topishi bilan uzviy bog‘liqdir.

Hozirgi Falastin hududida qadimgi zamonlarda dehqonchilik va chorvachnlik bilan shug‘ullangan ko‘chmanchi yahudiy qabilalari yashagan. Bu qabilalarda din sifatida aiimizm, magiya, fetishizm, sehrgarlik va turli o‘simlik hamda hayvonlarga sig‘inish hukmronlik qilgan. Yahudiy qabilalari o‘zlarini muayyan hayvonlarning nomlari bilan ataganlar. Iudaizmning "muqaddas" kitoblar to‘plamida hayvonlarni va o‘simliklarni, tabiatdagi dahshatli, stixiyali kuchlarni, arvoxlarni va boshqalarni e'zozlash izlari bor.

Ruhoniylar iudaizmning obro‘sini ko‘tarish maqsadida yahudiylar "mumtoz xalq.", unga dinni xudoning o‘zi ato etgan, degan fikrni ilgari surardilar; hozir ham qisman shunday. Buning isboti sifatida ular asrlar davomida jamiyatda sodir bo‘lgan ulkan ijtimoiy o‘zgarishlar iudaizm ta'limotiga hech qanday ta'sir ko‘rsatmadi, u yagona milliy dinligacha qoldi, shuning uchun uning ijtimoiy va gnoseologak ildizlari ham yo‘q, deb jar solmoqdalar. Aslida esa yahudiy xalqining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitiga muvofiq iudaizm, boshka dinlar kabi, shakl va mazmunini bir necha bor o‘zgartirgan.

Iudaizm politeizmdan monoteizmga o‘tguncha bir qancha tarixiy jarayonni boshdan kechirgan. Bu jarayon ibtidoiy jamoa tuzumidan quldorlik jamiyatiga o‘tguncha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Mana shu tarixiy davrda yahudiy qabilalarn ko‘p xudolarga e'tiqod qilganlar. Har bir qabilaning, har bir urug‘, hatto shaharning o‘z xudosi bo‘lgan, shuningdek moddiy olam hodisalarining har bir guruhi alohida xudoning nomi bilan bog‘langan. "Sening shaharlaring qancha bo‘lsa, xudolarning shahri ham shunchadir", deyiladi Tavrot yozuvlarida. Iudaizmda mahalliy avliyolar xisoblanmish Iso (Iisus), Ravin, Ibrohim (Avraam), Ishoq (Isaak) Yoqub (Iakov), Yusuf (Iosif) va boshqalar. Bular boshqa dinlarda ham payg‘ambar deb tan olingan.

Eramizdan avvalgi X asrda iudaizm yahudiy qabilalari o‘rtasida sinfiy tabaqalanish ro‘y berishi va quldorlik munosabatlarining vujudga kelishi jarayonida mavjud qabilaviy dinlar asosida shakllangan.

Ammo tarixiy fenomen sifatida iudaizmning rivojlanishi qabilalar o‘rtasidagi munosabatlar taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liq edi. Chunki qabilaviy xudolar evolyutsiyasi natijasida yagona xudo yuzaga kela boshlagan edi. Bu jarayon o‘sha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga asoslanishi muqarrar edi. Rivojlanishning muayyan davrida eng kuchli qabilalar xudosi boshqa qabila xudolaridan yuqori turuvchi bosh xudo hisoblana boshlagandi. Falastindagi Ruvim, Simon, Levin va Iuda singari eng mashhur qabilalar obro‘si ko‘tarila boshlagan. Bularning orasida Iuda qabilasi kuchli hisoblanib, obro‘si juda oshib ketgan, uning xudosi Yahve esa barcha xudolardan yukori turuvchi yakka hukmron xudo sifatida

qabul qilingan. Bunga qadar politeizmda Yahve tog‘-tosh, chaqmoq, momaqaldiroq va suv xudosi sifatida tasvirlangan. quldorlik davlatining barpo etilishi va rivojlanishi yahudiy qabilalarini yaqinlashishi va birlashishiga olib kelgan. Yahudiy davlati vujudga kelishi bilan yahudiy qabilalari o‘zlarini yerda hukmdor deyish bilan cheklanmasdan, yagona xudoni ham osmon hukmdori sifatida tan olishgan.

Shu tariqa Yahvedan boshqa xudolarga e'tiqod qilishga barham berilgan. Ilgarigi qabila xudolaridan biri bo‘lgan Yahve yakka deb e'tirof etilgan. qudus (Ierusalim) shahrida markaziy ibodatxona qurilgan va yahudiy milliy-davlat dini vujudga kelgan. Yahudiylik monoteizm sinfiy munosabatlar bilan bevosita bog‘liq ravishda yuzaga kelganligi uchun jamiyat hayotidagi tengsizlikni oqlagan.

Iudaizm milliy-davlat dini sifatida podsho himoyasidagi ruhoniylar mavqeini mustaqkamlagan, hamda podshoning g‘oyaviy himoyachisiga aylanganlar. Yahudiy ruhoniylari, kohinlar politeistik dinlardagi aqida, rivoyat, mifologik qarashlarni, urf-odat, marosimlarni hukmron sinf manfaatlarini ko‘zlab, yangi monoteistik din talablariga moslab qayta ishlash orqali iudaizmning asosiy aqidaviy ta'limotlarini o‘zida aks ettiruvchi muqaddas kitoblarni yaratdilar.

Shunday qilib, iudaizmning rivojlanishi va bu din ta'limotining vujudga kelishi uzoq davrlarni o‘z ichiga olgan. Shulardan dastlabkisi Bibliya davri, deyiladi. Bibliya tekstlari bir necha yuz yillar davomida yuzaga kelgan. U ikki qismdan - qadimiy axdnoma (Vetxiy zavet) va Yangi axdnoma (Novьy zavet) dan iborat. Iudaizm ruhoniylari Yangi axdnoma tannax deb ataydilar. Iudaizm tarafdorlarining fikricha, tannaxni xudo - Yahve "muqaddas yozuvlar" sifatida yahudiylarga yuborgan. Aslida esa Yangi axdning mualliflari uni yozishda qadimgi Sharq xalqlarining turli diniy e'tiqod va tasavvurlari, tarixiy hikoyalar va afsonalar, mif va diniy-falsafiy qarashlar, muhabbat kissalari va boshqa shunga o‘xshash manbalardan foydalanganlar.

Quldorlik tuzumi davrida iudaistlar davlati Assiriya, Vaviloniya va yunonlar tomonidan bir necha bor bosib olinishi tufayli yahudiylar Falastinni tashlab ketishga majbur bo‘ldilar. Eramizning 70-yillarida rimliklar yahudiylarning diniy markazi Quddus sharif ibodatxonasini buzib tashladilar. O‘z ibodatxonasidan mahrum bo‘lgan yahudiylar turli joylarda mahalliy yig‘ilishlar - sinagoglar tashkil etdilar.

Yahudiy diniy yozuvlari asosan 2 qismdan: Tavrot va Talmuddan iborat. Yahudiy dinida muqaddas hisoblangan Tavrot eramizdan ilgarigi ming yillik ichida shakllangan 5 ta kitobdan iborat. Tavrotni sharxlash natijasida avvalo Mishna, so‘ng Gemara paydo bo‘lgan. Ularni qo‘shishdan vujudga kelgan risolalar to‘plami Talmud deb atalgan. U yaxudiy jamoalarida diniy urf-odat, marosim me'yorlari, ijozatlar, taqiqlar, fukarolik munosabatlari, oilaviy hayot va boshqalarga oid ko‘rsatmalarni o‘z ichiga olgan.

Yahudiy dinidagi asosiy aqida yakka xudo - Yahvega e'tiqod qilishdir. Diniy aqidalardan birida zamona oxir bo‘lgach, Yahve o‘z elchisi Mahdiy (Messiya) ni yuborib, "mumtoz xalq"ni dunyoga hukmron qilarmish. Iudaizmda mahdiylik g‘oyalariga keng o‘rin berilgan. Muso xudoning amrini yerga yetkazib turuvchi

payg‘ambar tariqasidagina emas, balki insonlarni yovuzlikdan, gunohdan saqlash maqsadida xudo yerga yuborgan vakil sifatida ham tasvirlangan.

Iudaizmda murakkab urf-odat va marosimlar bo‘lib, uni ta'limotining muhim aqidalaridan biri kishilarni azob-uqubatlardan qutqarish bilan yurtda adolat o‘rnatib, olamni yangilovchi Maxdiyning kelishini kutishdir. Iudaizm ta'limoti inson hayotini 600 turdan zied toat-ibodat, urf-odat bilan bog‘laydi.

Iudaizm tarixi davomida uning bir qancha mazhab va yo‘nalishari paydo bo‘lgan. Iudaizmda XX asrda vujudga kelib, faoliyatini hozirgacha davom ettirayotgan islohotchilar dinni zamonaviylashtirishga intildilar va Turli tangliklar iudaizmni o‘z sistemasiga ba'zi tuzatishlar kiritishga majbur etdi.

Iudanizmning asosiy aqidalari orasidagi eng muhimlari -monoteizm - yagona xudo bo‘lmish Yahvega e'tiqod; xaloskorlik - xudo tomonidan yuboriladigan xaloskor Mahdiga ishonch; bu xaloskor dunyoni qayta qurar va butun yahudiylarni Falastindan Sinion (Quddus yaqinidagi tepalik) atrofiga to‘plashi va ularning dushmanlarini jazolashi, narigi dunyoga ishonch, oxiratda har kimning o‘z qilmishiga yarasha ajrini topishi, jannat va do‘zaxlarning mavjudligiga, dunyoning oxiri borligiga, muqaddas kitoblarning benuqsonligiga ishonishdir.

Ilohiyotchilar fikriga binoan, Bibliya ning birinchi besh kitobi bo‘lmish Tavrot (aynan tarjimasi qonun, Musoning besh kitobi) yahudiylarga yetkazish uchun Muso payg‘ambarga xudo Yahvening shaxsan o‘zi Sinion tepaligida bergan. Bibliyaning boshqa qismlari esa (Qadimgi ahdga taalluqlisi) xudoning bevosita pand-nasihatlari ta'siri natijasida yahudiylarning boshqa turli payg‘ambarlariga yuborilgan deb tushuniladi. Shunday qilib Bibliyani shakllanishi uzoq davrni o‘z ichiga oladi.

Odatda iudaizm shartli ravishda ikki davrga bo‘linadi. Birinchisi, qadimiy (quldorlik davri bo‘lib, u milodning II asrigacha bo‘lgan bu davrda Bibliyaning qadimiy ahd qismi yuzaga kelgan. Ikkinchisi, XIX asrgacha davom etgan O‘rta asr feodal, ravvin, talmud, an'anaviy davrlarga bo‘linadi. Shu davrlarda diasporalarda (yun. tarqoq falastindan tashqaridagi yahudiy masqanlarining nomi) Tavrotni talqin etish natijasida iudaizmning yangi bir mukaddas kitobi Talmud (qadimgi yahudiy tilida o‘rganish) shakllangan. Unda iudaizmning aqida va marosimlari batafsil yoritilgan. XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarvda iudaizmda yangi bosqich- isloh qilingan iudaizm vujudga kelgan. Bu davrlarda yangi burjua sharoitiga moslashish maqsadida aqidalarni yangilash va Talmudda belgilangan bir qator yo‘l-yo‘riqlardan, ibodatlardan voz kechishlar ro‘y bergan.

Hozirgi zamon iudaizmida isloh qilingan iudaizm bilan bir qatorda ortodoksal (sof) fundamental iudaizm ham mavjuddir. Ortodoksal iudaizm Isroilda alohida mavqega ega bo‘lib, rasmiy davlat dini hisoblanadi. Bunga XX asrda vujudga kelgan muhofazakor yo‘nalishdagi iudaizm, uning mafkurachilari iudaizm va sionizm ittifoqining tarafdorlaridir. Utgan asrning 20-30-yillarida g‘arbda rekonstruk-tsionizm deb nom olgan, go‘yoki shaxsiy milliy mansubligini belgilaydigan iudaizm "yahudiylar revolyutsiyasidir" deb e'lon qilgan yangi yo‘nalishlar ham kiradi.

Markaziy Osiyoda yashayotgan yahudiy dindorlari orasida asosan ortodoksal shakldagi iudaizm mavjud va ular shartli ravishda etnik ko‘rinishlar tartibiga muvofiq to‘rt xil, bo‘lib ular yevropalik, buxoro, gruzin, tog‘li yoki tat yahudiylariga bo‘linadi.

Bu joylardagi yahudiylarning asosiy qismi, keyinchalik ular Buxoro yahudiylari nomini olgan, chamasi, sosoniylar davrida Mavr va Eron orqali kirib kelgan bo‘lsalar kerak. Bunga ularning qadimgi Fors lahjalarining tojik shevasidan biri bo‘lmish tili, shuningdek, ayrim eroniy odatlari va hozirgi kungacha saqlanib qolgan elatlar madaniyatining birgina obidasi - yahudiylarning lug‘ati 1327 yil Urganchda yozib tugatilgani bundan dalolat beradi. Buxoro yahudiylari o‘zlarining etnik xislatlarini hammadan ko‘proq anik saklab qolgan yahudiylardir. Bularga Bibliya iudaizmining asoslari oilaviy-maishiy tartibdagi patriarxal odatlar bo‘lmish "xalitso"-"to‘rt tirsak", "ketuba", "kadish" o‘n kishidan kam bo‘lmagan dindoshlar ishtirokida vafot etgan ota-onaga bag‘ishlangan xotira ibodatlari kiradi. Ehtimol, ko‘p asrlar mobaynida ular yo‘qotgan asosiy narsa, faqatgina diniy ibodatlarda saqlanib qolgan va juda oz, tor darajadagi kishilar -ravvinlargina biladigan, qadimgi yahudiy tili bo‘lsa kerak. Tat yahudiylari yoki ular, ilgari aytilganidek, Dog‘iston, Shimoliy Kavkazda yashovchi "tog‘lik yahudiylar" Eron lahjalari shevasidan biri bo‘lgan tat tilida so‘zlashganliklari uchun ham eroniy tilda so‘zlashuvchi xalq hisoblanadi. Chamasi, ular V-VI asrlarda Darbantga Erondan ko‘chib kelgan bo‘lib, avval zardushtiylikni, keyin esa (VIII asrlardan boshlab) ikki asrlik Hazar kogonlarining hukmronlik davrida iudaizm ta'siriga o‘tganlar. Iudaizmda markaziy diniy tashkilot yo‘q, Moskvadagi xoral sinagogi va shibatda (o‘quv yurti) ruhoniy xodimlar; ravvinlar, kantorlar va boshqalar tayyorlanadi.

13-mavzu. Jahon dinlari: buddizm va xristianlik va ulardagi ta'limiy-tarbiyaviy qarashlar.

Buddizmning vujudga kelishi, ta'limoti - to‘rt oliy haqiqat, nirvana. Buddizm ahloqiy ta'limoti - "pancha-shila". Buddizmdagi oqimlar: maxayana, xinayana, lamaizm va h.k. O‘zbekistan hududidagi buddizm yodgorliklari va ularning tadqiq etilishi. Xristianlik. Xristian ilohiyoti. Yakka xudoning uch qiyofasi: Ota-xudo, O‘g‘il-xudo, Muqaddas ruh. Xristianlikdagi asosiy oqimlar - ortodoks (pravoslaviye), katolitsizm, protestantizm. Xristianlikning O‘rta Osiyoga kirib kelishi.

Takrorlash uchun savollar:

1.Buddaviylik dini qachon va qayerda vujudga kelgan?
2. Buddaviylikning asoshisi kim?
3. Ilk Buddaviylik ta'limoti asosi nimalardan iborat?
4. Xinayana va Maxayana orasidagi asosiy farqlar nimalardan iborat?
5. Markaziy Osiyoda Buddaviylik tarixini o‘rganishning qanday ilmiy muammolari bor?
6. Buddaviylikning manbasi qanday nomlanadi?
7.Xristianlik dini qachon va qayerda vujudga kelgan?
8.Xristianlikning asoschisi kim?
9.Xristianlik ta'limoti asoslari qaysi soborlarda qabul qilingan?
10.Xristianlik bo‘linib ketish sabablari nimada?
11.Xristianlikning muqaddas manbasi qanday nomlanadi?
12.O‘zbekiston hududiga xristianlik dini qachon kirib kelgan?

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular. Javob yozish kerak.

1.Hindiston milliy dinlari. 2.Xitoy milliy dinlari**.**

Adabiyotlar:

1Abdusamedov A.E. Dinlar tarixi. -Toshkent: O‘zMU, 2004. -208 b.
2.Ochildiyev A. va boshqalar. Dinshunoslik asoslari (o‘quv qo‘llanma). - Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyot matbaa birlashmasi, 2013.
3.Xasanov A. va boshqalar. Islom tarixi (Darslik). - Toshkent: Toshkent islom universiteti matbaa-nashriyot birlashmasi, 2008.
4.Mo‘minov A. va boshqalar. Dinshunoslik. - Toshkent: "Mehnat" 2004.
5.Yo‘ldoshxo‘jayev X., Rahimjonov D., Komilov M. Dinshunoslik. - Toshkent: ToshDShI nashriyoti, 2000.

Internet manbalari:

1. www. Ziyo net.uz
2. www.faylasuf.uz
3.www. .ziyo.uz 4. www. muslim.uz 5. www. religions.uz

13-MAVZU: JAHON DINLARI: BUDDIZM VA XRISTIANLIK ULARDAGI TA'LIMIY—TARBIYAVIY QARASHLAR.

Reja:

1. Buddaviylikning vujudga kelishi, ta'limoti.
2. Buddizmdagi yo'nalishlar va manbalari.
3. Xristianlikning vujudga kelishi, ta'limoti.
4. Xristianlikdagi yo'nalishlar.
5. Xristianlikning Sharqqa tomon tarqalishi, O'zbekistonda xristian cherkovining tutgan o'rni.
6. Xristianlik manbalari.

Tayanch tushunchalar: buddaviylik, xristianlik, cherkov, ta'limot, oqimlar, manbalar, Protestantlik, xristos, christos, Pravoslav.

Buddaviylikning vujudga kelishi. Buddaviylik (Buddaviylik) – uchta dunyo dinlari ichida eng qadimiysi hisoblanib, miloddan avvalgi VI-V asrlarda Hindistonda vujudga kelgan. Bu dinga e'tiqod qiluvchilar, asosan, Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlarida, Shri Lanka, Hindiston, Nepal, Butan, Xitoy, Singapur, Malayziya, Indoneziya, Mongoliya, Koreya, Vetnam, Yaponiya, Kombodja, Birma, Tayland, Laosda va qisman Evropa va Amerika qit'alarida, Rossiyaning shimoliy mintaqalari - Buryatiya, Qalmiqiyada istiqomat qiladilar. Hozirgi kunda dunyoda buddaviylar soni 750 mln.ga yaqin bo'lib, ulardan 1 mln.ga yaqini monaxlardir. Buddaviylikni din yoki falsafa, mafkura yoki madaniyat qonunlari to'plami yoki hayot tarzi deb baholash mumkin.

Buddaviylik asoschisi haqida habar beruvchi folklor va badiiy adabiyotlar uni Siddxardxa Gautama, Shakyamuni, Budda, Tadxagata, Djinna, Bxagavan kabi ismlar bilan zikr etadilar. Bu ismlarning ma'nolari quyidagicha: Siddxardxa - shaxsiy ismi, Gautama - urug' ismi, Shakyamuni - shaklar yoki shakiya qabilasidan chiqqan donishmand, Budda - nurlangan, Tadxagata - shunday qilib, shunday ketgan, Djina - g'olib, Bxagavan - tantana qiluvchi. Bu ismlar ichida eng mashhuri Budda ismi bo'lib, uning ismidan dinga buddaviylik nomi berilgan.

Hozirgi kunda Buddaning beshta biografiyasi ma'lumdir: "Maxavostu" – milodning II asrida yozilgan, "Lalitavistara" - milodning II-III asrlarida yuzaga kelgan, "Buddaxacharita" - Budda faylasuflaridan biri Ashvagxoshey tomonidan milodning I-II asrlarida yaratilgan, "Nidanakatxa" – milodning I asrida yozilgan va "Abnixishkramansutra".

Buddaviylikning asoschisi miloddan avvalgi 1-ming yillikda yashagan Budda hisoblangan. U tarixiy shaxs bo'lib, 80 yil yashagan. Uning xususida turli rivoyatlar mavjud. Uning nomi hind tilida nurlangan, oliy haqiqatga erishgan

degan ma'noni anglatadi. Rivoyatlarga qaraganda, keng ma'noda koʻp marta ilohiy tugʻilishlar tufayli mutloq barkamollikka erishgan; boshkalarga ham diniy najot yoʻlini koʻrsata oladigan odam boʻlgan.

Budda mil. avv. 563 yilda tugʻilib, 483 yilda vafot etgan. Siddxardxa Shakya qabilasining podshosi Shuddxodananing oʻgʻli edi. Uning saroyi Ximolay togʻlari etagida Kapilavasti degan qishloqda boʻlgan (hozirda Nepal hududida). Onasi - malika Mayya. Podshoh oʻgʻlini orzu havaslar ogʻushida tarbiyalab, uni hech bir kamchiliksiz katta qiladi. Siddxardxa ulgʻayib qoʻshni podshohlardan birining qizi Yashadxaraga uylanadi va oʻgʻil koʻrib, unga Raxula deb ism qoʻyadi.

Tarixiy manbalarning dalolat berishicha buddaviylikning asoschisi shahzoda Siddxardxa vafot etgandan soʻng Budda -"haqiqatga erishgan" deb atalgan. U ushbu oliy maqsadga erishish uchun Gautama urugʻidan boʻlgan eng obroʻli Shak'ya qabilasini tanlagan. Ana shundan bu diniy rivoyatda Budda-Gautama nomi keng tarqalgan. Diniy rivoyatlarga koʻra Gautama hind qabilasi hukmdorlaridan birining oʻgʻli boʻlib, u befarzand boʻlgan, ammo uning xotini gʻoyibdan homilador boʻlib, 45 yoshida oʻgʻil tuqqan. Bola tugʻilganda moʻ'jiza yuz bergan. Tabiiy hodisalar - yer qimirlab, chaqmoq chaqib, momaqaldiroq gumbirlab turgan. Uning ovozini Koinotdagi ilohiy kuchlardan tashqari barcha tirik mavjudodlar ham eshitib turganlar. Chaqaloqqa Siddxardxa (topshiriqni bajaruvchi) deb nom qoʻyganlar. U 7 kundan keyin yurib ketgan va gapira boshlagan.

Siddxardxaning otasi oʻgʻlini din yoʻliga bagʻishlashga rozi boʻlmay, unga yaxshi ma'lumot bergan hamda yaxshi sharoitlarda tarbiyalagan va u hech qanday qiyinchilik koʻrmay oʻsgan. Sudxartxa oʻspirinligidayok oʻzining donoligi, kuchliligi va epchilligi bilan xammani hayratga solar ekan. U kasal yotgan kishini, oʻlikni koʻrgach hayotning mohiyati, maqsadi, ogʻirliklari, kasallik va oʻlim bilan bogʻliqligini oʻylay boshlagan. Binobarin, hayotning behudaligani anglab, tarki dunyo qilgan, darvesh yoʻliga kirgan. Bu bilan u kishilar boshiga tushadigan kulfatlar, azob-uqubatlar sabablarining mohiyatiga tezroq yetib, ulardan qutulish yoʻlini topmoqchi boʻlgan. Nihoyat, 36 yoshida "haqiqiy bilim" egasi boʻlganligi ma'lum boʻldi. Shundan soʻng u Budda deb nom oladi. ("budda" soʻzi ilohiy haqiqatga erishgan, degan ma'noni anglatadi). Shu tariqa unda ulugʻvor haqiqat siri ochilgan, ular buddaviylik ta'limotiga asos qilib olingan.

Hech bir qiyinchilik va kamchilik koʻrmay oʻsgan Siddxardxa bir kuni keksa cholni, bemorni hamda ogʻir mehnatli rohibni uchratadi, va nihoyat, bir kishining vafotiga guvoh boʻladi. Bundan qattiq ta'sirlagan shahzoda insoniyatni qiyinchilik va azobdan qutqarish yoʻllarini axtarib saroyni tashlab ketadi. Bu vaqtda u 30 yoshda edi. U besh rohib bilan qishloqma - qishloq kezib yuradi. Koʻp vaqt bu rohiblarga hamrohlik qilib, ularning yoʻllarida ma'lum maqsad yoʻqligini, bu yoʻl oʻz oldiga qoʻygan maqsadi – insoniyatni azob uqubatdan qutqarishga olib bormasligini anglaydi va rohiblar jamoasidan ajraladi. U chakalakzor oʻrmonlarda kezib, charchab bir daraxtning tagida dam olish uchun oʻtiradi, va oʻzicha, to haqiqatni topmaguncha shu erdan turmaslikka qaror qiladi. Bu oʻtirishning 49 kuni

uning qalbidan “Sen haqiqatni topding” degan sado keladi. Shu paytda uning ko‘z oldida butun borliq namoyon bo‘ladi. U hamma joyda shoshilinch qayoqqadir intilishni ko‘radi. hech bir joyda osudalik yo‘q edi. hayot nihoyasiz uzoqlikni ko‘zlab o‘tib ketayotgan edi. Inson aqli etmas bir kuch. Trishna - yashash, mavjud bo‘lish umidi barchani tinchini buzar, halok qilar va yana qayta yaratar edi. Mana endi Budda kimga qarshi kurashish kerakligini angladi. Shu ondan u Budda – “nurlangan” deb ataldi. U tagida o‘tirgan daraxt esa – “nurlangan daraxt” - Botxa deb atala boshladi.

Budda o‘zining birinchi da'vatini Varanasi yaqinidagi Rishipatana bog‘ida, o‘zining besh rohib do‘stlariga qildi va o‘shalar uning birinchi shogirdlari bo‘ldilar.

Shu kundan boshlab Budda o‘z shogirdlari bilan qishloqma-qishloq yurib o‘z ta'limotni tarqatib o‘ziga yangi izdoshlar orttiradi. Budda 40 yil davomida o‘z ta'limotini Hindistonning turli joylariga yetkazadi va 80 yoshida Kushtnagara degan joyda dunyodan o‘tdi. Uning jasadi hind udumiga ko‘ra u yerda kuydirilib, uning xoki 8 ta budda jamoalariga bo‘lib yuborildi va har bir jamoa uni dafn etgan joyida ibodatxona barpo etdi.

Buddaning hayoti haqida turli afsonalar ham to‘qilgan. Bu afsonalarda aytilishicha, Budda ko‘p yillar davomida yer yuzidagi turli mavjudotlar qiyofasida qayta tug‘ilgan: 84 marta ruhoniy, 58 marta podshoh, 24 marta rohib, 13 marta savdogar, 18 marta maymun, 12 marta tovuq, 8 marta g‘oz, 6 marta fil Shuningdek baliq, qurbaqa, kalamush, quyon kabi qiyofalarda qayta tug‘ilgan. Jami 550 marta qayta tug‘ilgan. U doimo qayerda, qay qiyofada tug‘ilishini o‘ziga o‘zi belgilagan.

So‘nggi marta uni xudolar insoniyatni to‘g‘ri yo‘lga boshlashi uchun inson qiyofasida yaratganlar. Bu afsonalarning ba'zilariga ko‘ra yer yuzida Gautamaga qadar 6 ta budda o‘tgan. Shuning uchun buddaviylikning ba'zi muqaddas joylarida 7 ta ibodatxona barpo etilgan. 7 ta Botxa daraxti o‘tkazilgan. Ba'zi afsonalar 24 ta Budda avlodi o‘tgan desa, ba'zilari minglab Buddalar o‘tgan deb da'vo qiladi.

Har qanday dinlar kabi buddaviylikning ham kelib chiqishi sababini xalqlarning yashash sharoiti va hayotidan, muayyan davrdagi ijtimoiy munosabatlaridan izlash va topish lozim.

Qadimgi Hindistonda buddaviylik shakllangunga qadar murakkab sinfiy munosabatlar mavjud edi. Kishilar oliy, o‘rta va quyi tabaqalarga ajratilib, oliyga braxmanlar, harbiylar, o‘rta tabaqaga - dehqonlar, eng quyi tabaqaga oddiy xalq, xizmatkor, cho‘rilar kiritilar edi.

Buddaviylik quldorlik jamiyatida braxmanlik mazhablaridan biri sifatida paydo bo‘lgan. U braxmanlikni jonning ko‘chib yurishi, jannat va do‘zax qaqidagi

aqidalarni saqlab qolgan. Buddaviylik Braxmanlikni jamiyatning tabaqalarga bo‘linishi to‘g‘risidagi ta'limotga qarshi chiqib, barcha kishilar e'tiqodda teng huquqli deb e'tirof etgan. Buddaviylikning diniy tenglik haqidagi goyasi odamlarning kastalarga bo‘linib ketishiga qarshi kurashda ijobiy rol' o‘ynagan. Ayni paytda buddaviylik kishilar "azob-uqubat" chekishda va undan xalos bo‘lishda ham tengdirlar deb hisoblangan.

Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi tarixi va madaniyatida buddaviylik muayyan o‘rin egallagan. U zardushtiylik dini ta'sirida va u bilan yonma-yon shakllangan dinlardan biri bo‘lgan. Buddaviylik miloddan avvalgi VI-V asrlarda Hindistonning shimolida vujudga kelgan. Keyinchalik Janubi-Sharqiy va Markaziy Osiyo xamda Uzoq Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan. Uning vujudga kelishi hind jamoalarida ro‘y bergan muhim ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar - urug‘-qabilachilik aloqalari va tartiblarining yemirilishi, sinfiy jamiyatning vujudga kelishi va yirik quldorlik davlatlarining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq edi. III-asrga kelib dunyoviy jamiyat (imperator Ashoka) ning faol qo‘llab-quvvatlashi natijasida mulkchilik darajasida yagona bo‘lgan budda tashkiloti (monaxlik jamoasi-singxa) va diniy aqidachilik shakllangan.

Buddaviylikning Markaziy Osiyo va Sharqiy Turkistonda tarqalishi miloddan avvalgi II asrlarda bu yerlardagi qabilalarning avlodlari tugatgan g‘rek-baqtriya podshohligining o‘rnida qaror topgan Kushon imperiyasining rivojlangan davriga to‘g‘ri keladi.

Kushon imperiyaoi o‘zining eng gullagan davrida (milodning I-III asrlarida) hozirgi Markaziy Osiyoning bir qismini, Afg‘oniston, Pokiston, Shimoliy Hindiston, ehtimol Uyg‘uristonni ham o‘z ichiga olgan. Kushon podsholigi davrida buddaviylik Hindistondan Markaziy Osiyoga, undan esa Buyuk ipak yo‘li orqali Xitoy va Uzoq Sharqqa tarqalgan.

Keyinga o‘n yilliklar mobaynida olib borilgan arxeologik izlanishlarning natijalari va tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirgan holda tahmin qilish mumkinki, yaslomgacha bo‘lgan davrda buddaviylik Markaziy Osiyo g‘oyaviy hayotining muhim tarkibiy qismlaridan birini tashkil etgan. Buddaviylik faqat maxsus ibodatxonalargagina emas, balki podsho saroylaridan boshlab, oddiy kambag‘al deqqon va hunarmandlarning kulbasigacha kirib borgan dindir. Buddaviylikni qabul qilgan Markaziy Osiyo xalqpari diniy ibodatlar uchun har xil maxsus inshootlar kurganlar.

Buddaviylik bilan bog‘liq obidalar, ibodatxonalar, haykallar, devorlarga solingan rasmlar Markaziy Osiyoda topilgan qadimgi tarixiy obidalar orasida muhim o‘rin egallaydi. Buddaviylik bilan bog‘liq imoratlar, qurilishlar hozirda ham Shimoliy Qirg‘iziston, O‘zbekiston va Turkmanistonning Janubiy tumanlarida, Tojikistonda va Qozog‘iston janubida mavjuddir. Bular orasida eng yirik inshoot eski Termizdagi Qoratepa nomli g‘or ibodatxonasidir. Bu ochiq sariq rangli katta tepalik bo‘lib, unga qumtoshli g‘or binolar o‘yib solingan, yer ustida binolar barpo etilgan, bularning hammasi bir butun uyg‘un bo‘lgan buddaning 20-25 ibodatxonasini tashkil qilib, Kushon podshohligida buddaviylikning muhim ahamiyatga ega yekanligidan dalolat beradi. Devorlarga solingan rasmlarni,

haykallarni, toat-ibodat buyumlarini, tangalarga, sovg‘a qilingan sopol idishlarga bitilgan har xil yozuvlarni o‘rganishlar qoratepaning milodning I asr oxiri va II asrning boshlarida bunyod qilinganligidan, arablar O‘rta Osiyoga kirib kelganlaridan keyin ular tugatilgan va keyinchalik vayronaga aylanganligidan dalolat beradi.

Buddaviylik ta'limoti va uning mazmuni. Buddaviylik qadimiy hind diniy-falsafiy ta'limotlari asosida vujudga kelgan, amaliyot va nazariyotdan iborat diniy tizimdir. Budda yangi diniy qonun-qoidalar, rasm-rusumlar ishlab chiqmagan. Balki har bir inson tug‘ilish va o‘lim mashaqqatlaridan qutilishi uchun amal qilishi lozim bo‘lgan bir necha ko‘rsatmalarni ishlab chiqdi, xolos. Uning ta'limoti insoning hayolida, ishlarida va o‘zini tutishida samimiy oliyjanoblik g‘oyasini ilgari suradi. U vedalardagi gunohsizlik ta'limotini inkor qildi, hayvonlarni qonli suratda qurbonlik qilishni qoraladi, varna (kasta) tizimini va undagi ruhoniylarning boshqalardan ustunligini inkor qildi. Budda oliy yaratuvchi kuchning borligiga shubha va ishonchsizlik bildirgan. Uning fikricha, eng muhimi insonning shaxsiy kamoloti va ezgu hayot kechirishidir. Budda ta'limotining asosi “hayot – bu azob va uqubat” va “najot yo‘li mavjud” degan g‘oyadir. Buddaviylik qonuniyatlariga ko‘ra inson o‘ziga moslashgan mavjudot bo‘lib, o‘zida tug‘iladi, o‘zini o‘zi halok qiladi yoki qutqaradi. Bu narsa Buddaning ilk da'vatida mujassamlashgan 4 haqiqatda o‘z ifodasini topgan.

Birinchi haqiqat - “Azob uqubat mavjuddir” har bir tirik jon boshidan kechiradi, shuning uchun har qanday hayot - qiynoq, azob-uqubatdir.Tug‘ilish - qiynoq, kasallik - qiynoq, o‘lim - qiynoq, yomon narsaga duch kelish - qiynoq, yaxshi narsadan ayrilish - qiynoq, yomon narsadan ayrilish - qiynoq, o‘zi xohlagan narsaga ega bo‘lmaslik - qiynoq. Dunyo tuzilishining asosiy qonuni bir-biriga bog‘liqlik. hech bir narsa ma'lum sababsiz yaralmaydi. Lekin har bir hodisa yoki harakatning birlamchi sababini aniqlash mumkin emas. Shuning uchun buddaviylik dunyoni shu holicha qabul qilishga chaqiradi.

Buddaviylik ta'limotiga ko‘ra, har qanday narsa yoki hodisa u hoh moddiy, xoh ma'naviy bo‘lsin, dxarma (element)lardan tuzilgan. Bu elementlar, o‘z xususiyatiga ko‘ra, harakatsiz bo‘lib, ularni harakatlantiruvchi kuch insonning hayol va so‘zlaridir. Ob'ektiv haqiqat bu doimiy ravishda o‘zgarib turuvchi dxarmalar oqimidir. harakatdagi dxarmalar mavjudligining 5 formasi - tana, sezgi, his-tuyg‘u, harakat, anglashni yaratadi. Bu besh forma insonni tashkil qiladi. Inson ular yordamida yashaydi va borliq bilan aloqa qiladi, yaxshi yoki yomon ishlarni bajaradi. Bu narsa insonning o‘limi bilan tugallanadi. Insonni tashkil qiluvchi besh forma (skandx) o‘z navbatida qayta tug‘iladi. yangi tananing xususiyatlari asos bo‘luvchi besh natijani beradi: faoliyat, gumrohlik, xohish, istak va norma. Bu jarayon “hayot g‘ildiragi”ni tashkil qiladi. “Hayot g‘ildiragi”da doimiy ravishda aylanib, inson abadiy qiynoqqa duchor bo‘ladi.

Ikkinchi haqiqat - “qiynoqlarning sabablari mavjuddir”.Inson moddiy narsalar yoki ma'naviy qadriyatlardan foydalanib, ularni haqiqiy va doimiy deb hisoblaydi hamda doimo ularga ega bo‘lishga intiladi. Bu intilish hayot davomiyligiga olib boradi. Yaxshi yoki yomon niyatlardan tuzilgan hayot daryosi,

orzular va intilishlar sababli kelajak hayot uchun karma hozirlaydi. Demak, qayta tug‘ilish, yangitdan qiynoqlarga duchor bo‘lish davom etadi. Buddaviylar fikricha, Buddadan keyin hech kim Nirvana holatiga erisha olmagan.

Uchinchi haqiqat - “qiynoqlarni tugatish mumkin”. Yaxshi yoki yomon niyatlar, intilishlardan butunlay uzilish Nirvana holatiga to‘g‘ri keladi. Bu holatda inson qayta tug‘ilishdan to‘xtaydi. Nirvana holati, buddaviylar fikricha, “hayot g‘ildiragidan” tashqariga chiqish, “men” degan fikrdan ajralib, insonning hissiy tuyg‘ullarini to‘la tugatishdir.

To‘rtinchi haqiqat - qiynoqlardan qutilish yo‘li mavjuddir. Bu yo‘l - “Sakkizta narsaga amal qilish, ya’ni to‘g‘ri niyat qilish, to‘g‘ri o‘zini tutish, to‘g‘ri anglash, to‘g‘ri harakat qilish, to‘g‘ri muomalada bo‘lish, to‘g‘ri fikr yuritish, to‘g‘ri gapirish. Bu yo‘ldan borgan inson Budda yo‘lini tutadi. Bu sakkiz narsaga amal qilish meditatsiya deb nomlanadi. Buddaviylik ta'limotida har qanday borlik (moddiylik) barcha ko‘rinish va shakllardagi har qanday hayot - hamma mavjudodlarga azob beruvchi yomonlikdir. Yomonlik va azob-uqubatlarning sababi - insonning va barcha tirik mavjudotlarning bu dunyoga qayta tug‘ilib kelish dunyosi (sansara) ga bog‘langanligi, unga ko‘ngil ko‘yganligidir. Uningcha har qanday insoniy tuyg‘u, hissiyot, ehtiros va istak az azob-uqubatni chukurlashtiradi, "borliq girdobi" dan chiqib olish uchun g‘aflatdan uyg‘onish, dunyo mohiyatini anglash, hayotga chanqoqlikdan ko‘ngilxushliklarga, lazzatlarga, hokimiyatga, boylikka intilishlardan voz kechish lozim va faqat shundagina "najot topish yo‘li"ga kirish mumkin.

Ilk buddaviylikda bunday najotdan faqat zohid, yoki monaxgina umid qilishi mumkin edi. Faqat yaxshiroq qayta tug‘ilishni umid qilishi, buning uchun esa u monaxlarga mo‘l-ko‘l xayr-sadaqa berishn hamda quyidagi 5 axloqiy talab (pancha-shila)ga amal qilishi kerak:

1. Har bir kishi yomonlik qilishdan o‘zini tiyishi, tirik mavjudotni o‘ldirmaslik.
2. O‘g‘rilik qilmaslik, ya'ni birovning mulkini olmaslik.
3. His-tuyg‘ularga ortikcha berilmaslik, begona ayollarga ko‘zolaytirmaslik.
4. Yolg‘on gapirmaslik, rostgo‘y bo‘lishlik.
5. Ichkilik ichmaslik.

Buddaviylikda hamma narsa bilib bo‘lmaydigan ruh - nirvanaga asoslanadi, dunyo real mavjud emas, u faqat kishilarning xayolida, bilib bo‘lmaydigan ruhning namoyon bo‘lishida, deb noto‘g‘ri ta'lim bergan. Bu bilan u sub'ektiv idealizm botqog‘iga botgan. Buddaviylikdagi ruh - nirvananing ta'limoti "muqaddas haqikat" deb atalgan. Unga ko‘ra, ijtimoiy hayot va shaxsiy turmush azob-uqubatlarining sababi - kishilarning istaklari va nafslarida. Azob-ukubatdan kutulish uchun kishilar o‘zlarining istak va nafslarini tiyishlari, Budda kashf etgan aqidalarga amal qilishlari zarur. Buddaviylik azob-uqubat tushunchasini mutlaklashtirgan, borliqning barcha shakllarini, uning mazmunini, har qanday turmush tarzini azob-uqubat deb noto‘g‘ri hisoblagan. Shuning uchun buddaviylik nirvanani borliqning intihosi, deb asossiz tushungan. Buddaviylik ta'limoticha, jonli mavjudotlarning o‘lishi uni tashkil etgan dxarma (element, zarracha) larning

ajralib ketish jarayonidir. Bularning yangidan birikishi ilgari qilingan "savob va gunoh" lar bilan bog‘liq bo‘ladi. Dxarma nirvana darajasiga yetgandagana kayta tug‘ilishlarga barham berilib, azob-uqubatdan butunlay xalos etilar ekan.

Buddaviylik ta'limotiga ko‘ra, azob-uqubatlardan xalos bo‘lishning eng maqbul yo‘li rohiblik (monaxlik) jamiyati (sangxa)ga o‘tish hisoblanadi. Rohiblik boshqa dinlarga qaraganda buddaviylikda barvaqt vujudga kelgan bo‘lib, hozirgi kunda buddaviylik mazhablaridan bo‘lmish hinoyana tarqalgan mamlakatlar xalqlarining ijtimoiy hayotida g‘oyat salbiy rol' o‘ynamoqda. Rohiblar buddaviylikka e'tiqod qiluvchilar orasida noo‘rin tarzda juda katta obro‘ga sazovar bo‘lib, ularga itoat etish va aytganini bajarish zarur, deb hisoblanadi.

Buddaviylik ta'limotida olam uch bosqichli deb tavsiflangan. Birinchisi eng yuqori olam bo‘lib, unda mutlaq osoyishtalik hukmron. Unda faqat sof ruhgina mavjud. Bu olam ruxning makonidir. Buddaviylikning ta'lim berishicha, mutlaq iloqiy kuch - ruhni mutlaqo bilib bo‘lmaydi. Birinchi olamda ruh moddiy olamdan tashqarida, u hech harakatsiz mutlak, osoyishta holatda yashaydi. Ikkinchi olam, rivoyatlarga ko‘ra, ruhiy mavjudotlar bilan to‘la jannat - bodisatvadir. Bu olamning hokimi Amitabadir. Uning olamida ruh o‘z gunohidan xalos bo‘lgan, lekin eng oliy olamga, nirvanaga, mutlaq bo‘shliq va osoyishtalik olamiga ko‘tarilmagan avliyolar yashar ekan. Buddalar kishilarga budda ta'limotini o‘rganish, yaxshi yo‘lga boshlab borish uchun yerga yuborilar ekan. Uchinchi olam, eng quyi olam bo‘lib, unda odamlar va hayvonlar yashar ekan. Bu olamdagi ruh, qafasda yashar ekan, u hayot davomida ozod bo‘lish hamda yuqori olamga ko‘tarilishga harakat qiladi. Ruhning yuqori olamga ko‘tarilishi odamlar qiladigan savobli ishlarga bog‘liq. Agar odam buddaviylik ta'limotiga e'tiqod qilsa, yaxshilikka intilsa, uning joni qayta tug‘ilishlardan so‘ng jannatga va undan nirvanaga ko‘tarilar ekan. Yomonlikka mansub gunohkor kishilarning ruhi esa quyi dunyoda azoblanib, qafas ichida yuraverar va yuqori olamga hech ko‘tarila olmas ekan. Agar insonning din таьlimotiga zid ishlari ko‘payib ketsa, hirs yoki tovlamachilikka berilib, undan qutula olmasa, bunday odamning ruhi bir necha qayta tug‘ilishlardan keyin do‘zaxga tushar va unda abadiy azoblanar ekan.

Buddaviylikda qayta tug‘ilish deganda yangidan paydo bo‘lish tushunilmaydi, balki ilgari o‘lgan odamlarning jismidan tarqalgan dxarmalarning yangi asosda birlashib, kelajak avlodga o‘tishi tushuniladi. Shuning uchun buddaviylik inson o‘z qilmishlari uchungina javobgar bo‘lib qolmaydi, balki kelajak avlod uchun ham javobgar deb hisoblaydi. Agar odam yaxshi bo‘lsa, budda ta'limotiga to‘liq rioya qilsa, boy va e'tiborli bo‘lsa, uning dxarmalari asosida qayta tugilgan odam xam boy va badavlat, sofdil bo‘ladi. Aksincha, odam yomon bo‘lsa, kambag‘al, qashshoq bo‘lsa, budda ta'limotiga rioya qilmasa, uning dxarmalaridan paydo bo‘lgan odam ham kambag‘al, qashshoq bo‘lar ekan. Buning sababi avvalgi avlodlar yomon hayot kechirgani uchun berilgan jazodir, deb hisoblangan. Buddaviylik o‘zining bu ta'limoti bilan jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni tub mohiyatini yashirishga harakat qiladi. Boshqa dinlar kabi buddaviylik ham hayotda passiv bo‘lishni, taqdirga tan berishni targ‘ib qiladi, zohidlikni yoqlab, ekspluatatsiyani oqlaydi.

Buddizmdagi oqimlar. Barcha jahon dinlari kabi buddaviylik ham ijtimoiy taraqqiyot natijasida va turli mamlakatlardagi ijtimoiy guruxlar tuzumlarning xususiyatlariga qarab, turli mazhablarga bo‘linib ketgan.

Buddaviylikda bir necha mazhablar paydo bo‘lgan. Bulardan eng yirigi I - asrda undan ajralib chiqqan hinoyana ("kichik arava", tor yo‘l ma'nosida) Shri Lanka, Birma kabi mamlakatlarda keng tarqalgan; maxoyana ("katta arava", keng yo‘l ma'nosida) Tibet, Xitoy, Yaponiya, Mongoliyada hamda Oltoy va Uzoq Sharqda yashovchi ba'zi xalqlar o‘rtasida keng tarqalgan.

Buddaviylikka xos mazhablardan biri Tibet Mongoliyada tarqalgan bo‘lib, u lamaizm degan nom bilan yuritiladi. Buddaviyliknnng bu mazhabi mahalliy xalqlar o‘rtasida qadimdan mavjud bo‘lgan diniy tasavvur va urf-odatlarni o‘zlashtirgan. Lamaizmda buddaviylikka xos tasavvurlar bilan bir qatorda, Buddaning yana kaytib kelishi va yer yuzida adolatli hokimiyat o‘rnatishi to‘g‘risidagi rivoyatga keng o‘rin berilgan. Lamaizmni ko‘chmanchi, qoloq, savodsiz xalq hayotiga moslashtirishga urinish mavjud, va undagi ibodat qilish tartibi ham ancha soddalashtirilgan.

Hindistonda quldorlik tartiblari barham topishi bilan buddaviylik braxmanizmga tobora yaqinlashib borgan, va keyinchalik hinduizmga qo‘shilib ketgan. XI-XII asrlarda buddaviylyak Hindistonda o‘z ta'sirini deyarli yo‘qotgan.

Buddaviylik ta'limotini tartibga solish maqsadida 1871 yilda Birmada buddavistlarning maxsus ibodatxonasida Tripitakaning turli tarjimalari va variantlarini taqqoslash natijasida yagona teksti ishlab chiqilgan edi. Yangi tekst mazmuni 729 ta marmar plitaga tushirilgan edi. Bu yozuvlar saqlangan ibodatxona dunyo buddistlarining muqaddas joyiga aylantirilgan.

Markaziy Osiyo Xalqlarining tarixida buddaviylik muayyan o’rin egallagan. Buddizmning Markaziy Osiyoda tarqalishi miloddan avvalgi II asrlarda grek-baqtriya podshohligining o’rnida qaror topgan Kushon imperiyasining rivojlangan davriga to’g’ri keladi. Kushon imperiyasi o’zining eng gullagan davrida (I-III asrlar) Markaziy Osiyoning bir qismini, Afg’oniston, Pokiston, Shimoliy Hindistonni o’z ichiga olgan. Buddizm Hindistondan markaziy Osiyoga, undan esa buyuk ipak yo’li orqali Xitoy va Uzoq Sharqqa tarqalgan. Budda dinining qadimdan keng hududlarga tarqalganligini Beruniy ham o’z asarlarida eslatib o’tgan: “Budda e’tiqodi janubga tomon Suriya hududigacha tarqalgan edi, so’ng mazdaizm siquvi ostida budparastlar Eron va Iroqdan Balxning janubidagi mamlakatlarga ko’chib o’tganlar”.

O’lkamiz xalqlarining Xindiston bilan Kushon davlati va Eftalit davrida yaxshi yo’lga qo’yilgan savdo-iqtisodiy munosabatlari tufayli hind madaniyati unsurlari bilan Budda dini kirib kelgan. “Buddizm sharqiy Eron va Movarounnahrda qaror topib, Balx hamda Buxorodek azim shaharlargacha etib kelgan.Yorkent, Xo’tan, Qashg’ar, Toshkent, Turfon, Kuchi va Qorashaharda Budda ibodatxonalari qad ko’targan.

Olimlarning ta’kidlashicha, buddaviylik zardushtiylik va moniylik dinlariga ta’siri katta. “Sayyid Nasafiyning e’tiroficha, Budda ta’limoti Zardushtiy an’analarini vujudga kelishiga ta’sir ko’rsatgan”. Lekin, bir guruh mutaxassislar

tomonidan zardushtiylik dini dunyoning keng qadimgi dini sifatida qayd etilgan. Shuning uchun, bu ikki qadimgi dinlarning o’zaro bir-biriga ko’rsatgan ta’siri haqida gapirsak, xaqiqatga Yaqinroq bo’ladi. Ikkinchi guruh olimlarining

Buddaviylik ruhoniylari xalqaro miqyosda uning mavqeini kuchaytirishga harakat qilmoqdalar. Shu maqsadda buddaviylikning‘ turli tashkilotlarini birlashtirmoqdalar, buddistlarning xalqaro konferentsiyalari, s'ezdlarini muntazam o‘tkazmoqdalar.

Buddaviylikning bir necha xalqaro tashkilotlari mavjud. Shulardan eng yirigi Jahon buddistlari qardoshligidir. U 1950 yili tuzilgan. 1956 yilda otaxon buddistlarining bu din paydo bo‘lganligini 2500 yilligi nishonlandi.

Markaziy Osiyoda bir necha yuz mingdan iborat koreys millatiga mansub kishilar yashaydi. Ularning oilaviy-maishiy an'analari, milliy udumlarining ayrim tarkibiy qismlari mahoyana (shimoliy) ko‘rinishdagi buddaviylik ta'sirida shakllangan. Xozirgi vaqtda bu mintaqada, ayniqsa, O‘zbekistonda koreys buddistlarni xristianlik ta'siriga olishga qaratilgan harakatlar avj olmoqda.

Buddaviylik manbalari. Buddaviylik ta'limoti bir qator devon shakliga keltirilgan to‘plamlarda bayon qilingan. Ulardan eng asosiysi Tripitaka (yoki Tipitaka) - uch savat ma'nosini anglatadi. U uch qismdan iborat bo‘lganligi uchun shunday nom bilan atalgan. buddaviylikning bu yozma manbasi hozirgi davrda Shri-Lankada saqlanib qolgan. U eramizning boshlarida shakllangan. Ular - budda targ‘ibotining haqiqiy bayoni hisoblangan sutra matnlari (sutta-pitaka), rahboniylik axloqi va xonaqoqlar nizomlariga bag‘ishlangan vinaya matnlari (vinaya-pitaka), buddaviylikning falsafiy va psixologik muammolarini bayon qilib berishga bag‘ishlangan abxidxarma matnlari(abxidxarma-pitaka)dan iborat. Keyinchalik shakllangan sanskrit, xitoy, tibet, kxmer va yapon tillaridagi buddaviylikka oid adabiyotlar ancha keng tarhalgan, ammo ularning tarixiy qiymati kamroq. Budda hayotiga tegishli rivoyatlarning barchasi Tripitakada jamlangan.

JAHON DINLAR. XRISTIANLIK.

Xristianlik dini buddaviylik va islom dinlari qatorida jahon dini hisoblanadi. Bu din o‘ziga e'tiqod qiluvchilarning soni jihatidan jahon dinlari orasida eng yirigi hisoblanadi. Unga e'tiqod qiluvchilarning soni taxminan 2 mlrd. bo‘lib, bu son dunyo aholisining deyarli uchdan biriga to‘g‘ri keladi.

Xristianlik asosan Yevropa, Shimoliy va Janubiy Amerika, Avstraliya qit'alarida hamda qisman Afrika qit'asining janubiy qismida va Osiyo qit'asining sharqiy qismida tarqalgan.

Xristianlik eramizning boshida Rim imperiyasining sharqiy qismida Falastin yerlarida vujudga keldi. Xristianlik vujudga kelishini Bibliyaning xabar berishicha, Iisus Xristos faoliyati bilan bog‘lab tushuntiriladi.

Unga ko‘ra Iso Masih (Iisus Xristos) xristianlik ta'limotining asoschisi bo‘lib, u Rim imperiyasi tashkil topganining 747 yili Falastinning Nazaret qishlog‘ida bokira qiz Maryamdan Xudoning amri bilan dunyoga keldi. yangi eraning boshlanishi ham Iso Masihning dunyoga kelishi bilan bog‘liq.

Eramizning boshlarida yahudiylar hokimiyatning uch tabaqasi bilan bog‘liq og‘ir tushkunlikni boshdan kechirar edilar. Bir tomondan Rim imperatori va uning joylardagi noiblari, ikkinchi tomondan Falastin podshohi Irod Antipa, uchinchi tomondan esa ruhoniylar halqni turli soliqlar va majburiyatlar bilan ko‘mib tashlagan edilar. Xuddi shu davrda yahudiylar o‘rtasida kutilayotgan haloskorning kelishi yaqinlashib qolganligi haqida xabar tarqatuvchilar paydo bo‘ldi. Ular halqni kutilayotgan haloskor kelishiga tayyorlash uchun chiqqan edilar. Shunda Iso Masih yahudiylikni isloh qilish va uni turli xurofotlardan tozalash g‘oyasi bilan chiqib, xristian diniga asos soldi. yahudiylar uni va uning izdoshlarini Falastindan quvg‘in qildilar. Isoning 33 yoshida fitnachilikda ayblab qatl etishga hukm qildilar.

Isoning tarixiyligi hususida diniy va diniy bo‘lmagan manbalar orasida ixtilof mavjud: xristianlik manbalari Isoning o‘zi xudo bo‘la turib, insoniyatning gunohlarini o‘ziga olish uchun odam qiyofasida tug‘ilganini, uning tarixiy shaxs ekanini ta'kidlab, uning hayot tarzini, insonlar bilan muloqoti haqidagi keng ma'lumotlarni bersada, diniy bo‘lmagan manbalarda Isoning nomi uchramaganligini nazarda tutib, u tarixiy emas, balki afsonaviy shaxsdir deguvchilar ham bor.

Iso nomiga qo‘shiluvchi Masih so‘zi qadimiy yahudiy tili - ivritdagi «moshiax» so‘zidan olingan bo‘lib, «silangan» yoki «siylangan» ma'nolarini beradi. Grekchada bu so‘z «xristos» («christos») shakliga ega. Bu dinning «xristianlik» yoki «masihiylik» deb atalishi ham shu so‘zlar bilan bog‘liq. Bundan tashhari xristianlik Iso Masihning tug‘ilgan qishlog‘i - «Nazaret» bilan bog‘lab, nazroniya deb ham atalgan. Keyinchalik bu nom nasroniya, nasroniylik shaklini olgan.

Iso Masih o‘z ta'limotini o‘zining 12 o‘quvisi Apostollar - havoriylarga o‘rgatdi. Ular esa Isoning vafotidan keyin ustozlarining talimotlarini har birlari alohida-alohida tarzda kitob shakliga keltirdilar. Bu kitoblar Bibliyaning «yangi ahd» qismini tashkil etadi.

Xristianlikning vujudga kelishida sharq dinlarining ham ta'siri bo‘lgan. Jumladan, misrliklarning Osiris va Isida, Eronliklarning Mitra, yahudiylikning Muso haqidagi rivoyatlari, oxirat to‘g‘risida hikoya qiluvchi har xil rivoyatlar ham xristianlik ta'limotiga kiritilgan.

Xristianlikdagi odam-xudo to‘g‘risidagi tushunchani ishlab chiqishda yagona imperiyaga birlashgan Rim imperatorlarining yakka Xudolik to‘g‘risidagi ichki siyosati ham katta ta'sir ko‘rsatgan.

Lekin shakllanayotgan xristian mafkurasi asosida birinchi galda iudaizm monoteizmining "qadimgi axdnoma" kitobiga kirgan barcha "muqaddas g‘oyalar", ya'ni Yerni Xudo yaratganligi, o‘simlik va hayvonot dunyosining vujudga kelishi,

insonning yaratilishi, uning tili, axloqi, huquki, oxirat rohatlari haqidagi g‘oyalar katta rol' o‘ynagan.

1947 yili O‘lik dengiz qirg‘og‘idagi qumron yaqinida qadimgi qo‘l yozmalar topilgan edi. Bular hukmron jamoaning diniy ta'limotlari - iudaizm va xristianlik o‘rtasidagi oraliq butunni tashkil kilganligani ko‘rsatmokda.

Shunday qilib, xristianlik Rim imperiyasida yashagan ko‘pchilik elatlarning dinlari, rivoyatlari, urf-odatlari asosida tashkil topgan. Bu din dastlab qullar, ezilgan kambag‘allarning talablarini, "xaloskorlik" g‘oyalarini o‘ziga singdirgan holda din sifatida vujudga kelgan. Keyinchalik uning ijtimoiy, diniy strukturasi o‘zgarishi bilan hukmron tabaqalar qo‘lida mazlum xalqlarni ekspluatatsiya qilishning g‘oyaviy quroliga aylangan.

O‘sha davrda jamiyatda yuzaga kelgan hukmron doiralar bilan mazlum xalqlar o‘rtasidagi ziddiyatni yumshatishga xizmat qilishi mumkin bo‘lgan xristianlikdagi diniy g‘oyalarni xisobga olgan imperator Konstantin 324 yili bu dinni davlat dini deb e'lon qilgan. 325 yilda uning ko‘rsatmasi bilan Nikey soborida xristianlarning birinchi yig‘ini bo‘lib o‘tgan. Unda yepiskoplar va ilohiyotchilar xristianlikning asosiy aqidalarini tasdiqlab, cherkov tashkilotini takomillashgan holga keltirganlar.

Shundan buyon, davrlar o‘tishi bilan xristianlik butun Yevropa, Shimoliy va Janubiy Amerika, Afrika, Avstraliya qit'alariga yoyilgan. Keyinchalik Markaziy Osiyo respublikalari xududlariga ham qisman yetib kelgan jahon dinidir.

Xristianlik boshqa jahon dinlari kabi mutlaq, abadiy, o‘zgarmas karomatni, bilimni, benihoya qudratning egasi bo‘lgan yakka xudo haqidagi g‘oyani asoslaydi. U uch ko‘rinishdagi yakka xudoni o‘zida mujassamlashtirganlik aqidasini yaratgan. Uch xil ko‘rinishdagi xudo haqidagi ta'limotga binoan, xudoning ichki haeti sababi o‘z-o‘zidan mavjud bo‘lgan uchlikdagi uch asos yoki "muqaddas uchlik" bo‘lgan - ota-xudo, o‘g‘il-xudo va muqaddas ruhning o‘zaro munosabatidir. O‘g‘il Iso bayon qilingan tarjimai holiga ko‘ra ota-xudodan, muqaddas ruh ham ota-xudodan yaratilgan (pravoslav yo‘nalishi ta'limoti), (katolitsizmda esa ota-xudo va o‘g‘il-xudo ham xudodan tug‘ilgan).

Xudoning mujassamlanishi yoki Isoning ikki mohiyati - odam mohiyati, xudo mohiyati haqida, "Gunohni yuvish", ya'ni Isoning o‘zini ixtiyoriy tarzda kurbon qilishi" haqidagi ta'limot bilan mustahkamlangan. Xristianlik muqaddas ruh - ota xudo, bola xudo va muqaddas ruh - uch yuzli xudo to‘g‘risidagi ta'limoti, targ‘iboti, tashkilotchiligi, jannat va do‘zax, oxirat ya'ni dunyoning oxiri borligi, Isoning qayta tirilishi haqidagi va boshqa aqidalarni o‘z ichiga oladi.

Xristianlik davlat dini deb e'lon qilingandan so‘ng, 325-yilda imperator Konstantin boshchiligida Nikey shahrida xristianlarning birinchi jahon yig‘ilishi bo‘lgan. Yig‘ilish xristian dinining qonun-qoidalarini ishlab chiqqan va xudoni uch shaxsning ota xudo, o‘g‘il xudo ruh xudo, birlikda ifodalaiishidir deb uqtirgan. 381 yili xristianlarning Konstantinopolda bo‘lib o‘tgan ikkinchi jahon yig‘ilishida cho‘qinish va tirilish haqidagi yangi aqida qabul qilingan.

Ota xudo tabiat, odam va farishtalarni yaratgan, deb hisoblanadi. Iso o‘g‘il xudo hisoblangan. Xudoning gavdalanishi aqidasiga ko‘ra, Iso xudoligicha qolgan

holda Mariya ismli qizdan tug‘ilgan. Butga parchalangan xudo Iso tortgan azoblari va o‘limi bilan o‘zini odamlarning gunoxlari uchun ota xudoga qurbon qilgan va shu bilan gunohini yuvgan. Ushbu aqidaga ko‘ra, Iso odamzodga gunoxlardan xalos bo‘lish yo‘lini ko‘rsatib bergan. Isoning tirilishi aqidasi kelgusida hamma odamlar tirilishining garovi, deb e'lon qilingan. U tirilgandan so‘ng osmonga - ota xudo huzuriga chiqqanligi, ya'ni osmonga chiqib tushishi (islomda me'roj) aqidasi bu dunyodagi xayot oxiratidagi mangulikka nisbatan hech narsaga arzimaydi, deb uqtiradi.

Xristianlikda iymon kalimasi "yagona, muqaddas sobor va opostol cherkovi"ga ishonishni, cho‘qintirish zarurligini tan olnshni, qiyomatda o‘liklarniig tirilishiga, shundan so‘ng savob egalariga mangu rohat-farog‘at ko‘rish, gunohkorlarga doimiy azob-ukubat tortish davri kelishiga ishonishni buyuradi.

Diniy g‘oyalar tarkib topishi bilan bir qatorda xristian ibodat marosimlari ham shakllanib borgan. Xristian marosimchiligining eng muhim elementlari sirli ibodat (tainstvolar) deb yuritiladi. Bular qatoriga cho‘qintirish (suvga sho‘ng‘itib olish), miropomazanie (cho‘qintirilgan kimsaga xushbo‘y katron-miropa surtilgach, "muqaddas ruh" ning huzur-halovati unga o‘tishi); yevxaristiya yoki prichishenie (non va vinoni Isoning tanasi va qoni deb tasavvur etgan holda iste'mol qilish), tavba qilish (dindorning ruhoniy vositasida xudodan kechirim so‘rashi va o‘z gunohlarini unga aytib berishi), nikoh, ruhoniylikka fotiha berish, soborlashtirish, ya'ni bemorni muqaddaslashtirilgan zaytun moyi - yelega bo‘yash kabilar kiradi.

Xristianlikning bosh ibodati liturgiya (obednya, msssa) bo‘lib, u har xil afsungarliklar, muzika chalish, ashula aytish, "muqaddas" yozuvlarni o‘qish, qad bukib ta'zim bajo keltirish, sham va chiroqlarni yondirish, xushbo‘y narsalarni chekish bilan qo‘shib olib boriladigan diniy amallardan iborat.

"Muqaddas uchlik" ning har biri, orqali Bibi Maryamni ulug‘lash "xudoga xush kelgan avliyolarga", xudo yarlaqaganlarga sig‘inish vujudga kelgan. Xristianlikda butga cho‘qinish ham muhim o‘rin egallaydi. Unda pasxa (Isoning tirilishi), tariqa (yoki pyatidesatnitsa), rojdestvo (Isoning tug‘ilishi) va boshqa bayramlarga katta o‘rin berilgan.

Xristianlikdagi oqimlar. Xristianlikning shakllanib turli mamlakatlarga yoyilishi, ijtimoiy hayotda yuzaga kelgan siyosiy, iqtisodiy, madaniy, maьnaviy siljishlarga ham duch kela boshlagan. Boshqa jaxon dinlari kabi unda ham turli yo‘nalishlar, mazhablar, sektalarga bo‘linish jarayoni sodir bo‘lgan.

Eng birinchi ajralish xristianlikda IV-V asrlarda ro‘y bergan, ya'ni Iso masihni talqin qilishda farklanadigan ikkita diniy-aqidaviy yo‘nalishlar - monofizitlar va nestorianlar yuzaga kelgan.

Ko‘pchilik xristian ilohiyotchilari Iso masihni ham xudo, ham odam mohiyatiga ega deb bilsa, Konstantinopolь arximandrati Yevtaxiya ta'limotining tarafdorlari bo‘lgan monofizitlar u faqatgina xudo mohiyatining birligidan iborat deb hisoblaganlar. Kostantinopol patriarxi Nestor qarashlari tarafdori bo‘lgan nestorianlar esa u xudo insonlar hayoti kabi yashashi uchun vujudga kelgan odamdir, deb targ‘ib qildilar.

Efes soborida (431 yil) iestorianchilikka bid'at deb karalib, uning tarafdorlarini ta'qib qilish boshlangan. Natijada ommaviy harakatlar boshlashlariga sabab bo‘lgan.

Hozirgi kunda monofizitlikka Yaqin sharkdagi Yakobitchilar, Janubiy Hindiston va Efiopiya xristian aholisining 96 foizi amal qiladi.

471 yildan e'tiboran yuqorida qayd etilgan cherkovlar qadimgi Sharq cherkovlari deb atala boshlangam. Nestorianlar, eng avval, Ossuriylar orasida tarqalgai. Bularning diniy jamoalari xozirda ham Suriyada, Iroqda, Eronda va Hindistonda bor.

1054 yilga kelib xristianlikning pravoslav va katolik cherkoviga bo‘linishi rasman tan olingan. Bu bo‘linish Rim imperiyasining Sharqiy va g‘arbiy qismlari orasidagi feodal munosabatlarning tafovutlarini o‘zida aks ettirgan. Rim papasi bilan Konstatinopol patriarxi o‘rtasidagi barcha xristian cherkovlari ustidan yakka hokimlik o‘rnatish uchun shiddatli kurashlar bo‘lgan. Xristianlikning alohida va mustaqil g‘arbiy tarmog‘i Rim katolik cherkovi, ya'ni umumiy, jahon Rim cherkovi deb atala boshlagan. Dunyoviy hokimiyatga tobe bo‘lgan Sharqiy xristianlik grek-kefilik (grekcha - butun dunyo) yoki izchil, sobitqadam (ortodoksal) xristianlik deb atala boshlangan. Pravoslavie va katolitsizm yerlarida umumiylik ham, bir-biridan farklanadigan jihatlari ham bor.

XVI asrdagi reformatsiya jarayonida feodalizm va kapitalizmga qarshi keng quloch yozgan harakatlar Yevropadagi burjua revolyutsiyalarining eig birinchi ifodalari edi. Katolitsizmdan bir necha Yevropa cherkovlari ajralib chiqishi patijasida xristiailikda protestantlik harakatlari vujudga kelgan. Buning doirasida lyuteranlik, anabaptizm, anglikanlik va kalьninizm cherkovlari shakllangan. Har bir chsrkovning asosiy marosimlari jihatidan o‘zlariga xos bo‘lgan tomonlarga ega bo‘lishi bilan bir qatorda, bular ham o‘z navbatida bir necha yo‘nalishlar, mazhablar va oqimlarga bo‘lindi.

Hozirgi zamon xristianligida turli yo‘nalish va oqimlar orasidagi kelishmovchiliklarning kamaytirilishi bugungi kun uchun xosdir. Bunga 1948 yilda tashkil topgan Jahon cherkovlari kengashining faoliyatlari va ekumenik xristianlar ko‘maklashmoqda.

Katolitsizm - bu xristianlikda eng ko‘p tarqalgan yo‘nalishdir. U Yevropa, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida tarqalgan bo‘lib, muxlislari taxminan 800 mln. kishini tashkil qiladi.

Katolitsizm ta'limotida jannat va do‘zax oralig‘idagi dunyo, gunohkorlarning ruhi, joni haqidagi, Iso masihni benihoya hurmatlash, uning tanasi va jonimi ko‘klarga ko‘tarish sohalaridagi diniy aqidalar mavjud.

Katolitsizmda Bibliyani sharhlash huquqi faqatgina ruhoniylarga beriladi, chunki ular uylanmaslik haqidagi diniy talabga amal qiladilar. Diniy ibodatlar dabdabali va sahnalashtirilgap ko‘rinishga ega bo‘lib diniy o‘qish, duo, iltijolar lotin tilida olib boriladi. Pravoslaviedagi kabi katolitsizmda ham farishta, ilohiy kuch, chirimaydigan marhum jasadlarga sig‘inish odatlari saqlanib qolgan.

Katolitsizm xristianlikning yo‘nalishlaridan biri sifatida uning asosiy aqida va qoidalarini tan oladi, biroq diniy ta'limot, sig‘inish va tashkiliy masalalarda bir qator xususiyatlar bilan ajralib turadi.

Katolik diniy ta'limotning asosini Muqaddas kitob va Muqaddas yozuvlar tashkil qiladi. Biroq Pravoslav cherkovidan farqli o‘laroq katolik cherkovi Muqaddas yozuvlar deb nafaqat avvalgi yetti Butun Olam Xristian Soborlarining qarorlarini, balki hozirgacha bo‘lib o‘tgan barcha Soborlar harorlarini, bundan tashhari Papaning maktublari va qarorlarini ham hisoblaydi.

Katolik cherkovi tashkiloti qat’iy markazlashuv bilan ajralib turadi. Rim papasi bu cherkovning boshlig‘i. U diniy axloq masalalariga oid qonun-qoidalarni belgilaydi. Uning hokimiyati dunyoviy soborlar hokimiyatidan yuqori turadi.

Katolik cherkovining markazlashuvi jumladan diniy ta'limotni noan'anaviy tahlil qilish (sharhlash) huquqida aks etgan dogmatik taraqqiyot tamoyilini keltirib chiqaradi. Masalan, Pravoslav cherkovi tomonidan tan olingan diniy ramzda ta'kidlanishicha, Muqaddas ruh ota xudodan kelib chiqadi. Katolik aqidasiga ko‘ra esa Muqaddas ruh ota xudodan va o‘g‘il xudodan kelib chiqadi. Cherkovning najot borasidagi roli haqida ham o‘ziga xos alohida ta'limot shakllangan. Najotning asosi imon va xayrli ishlar hisoblanadi. Cherkov, Katolik ta'limotiga ko‘ra, xayrli zaruriy ishlar xazinasiga Iso tomonidan yaratilgan «Xayrli ishlar zahirasiga» ega.

Cherkov Iso, Bibi Maryam, Muqaddas Ruh nomidan bu xazinani tasarruf qilish, undan muhtojlarga ulashish, ya'ni gunohlarni avf etish, nadomat chekuvchilarga pul yoki tufha evaziga avf - kechirim tufha qilish huquqiga ega. Pul evaziga yoki cherkov oldidagi xizmatlari uchun gunohlarini kechirish - indulgensiya haqidagi ta'limot mana shundan kelib chiqqan.

A'rof haqidagi (do‘zax va jannat oralig‘idagi mavze) aqida faqat katolik ta'limotida mavjud. Gunohi katta bo‘lmagan gunohkorlarning ruhi u yerda o‘tda kuyadi (ehtimol bu vijdon va nadomat azobining ramziy in'ikosidir), keyin jannatga yo‘l topadi. Ruhning a'rofda bo‘lish muddati xayrli ishlar tufayli qishartirilishi (ibodat va cherkov foydasiga xayr-ehson qilish bilan) mumkin. Bu ibodat va hayr ehsonlar o‘lganlar xotirasiga yaqinlar tomonidan qilinadi.

A'rof haqidagi ta'limot I asrdayoq paydo bo‘lgan edi. Pravoslav va Protestant cherkovlari a'rof haqidagi ta'limotni rad etadi.

Bundan tashhari, pravoslav dini ta'limotidan farqli o‘laroq, katolik yo‘nalishida papaning begunohligi haqidagi aqida ham bor. Bu aqida 1870 yildagi birinchi Vatikan soborida qabul qilingan. g‘arb cherkovining Bogoroditsaga nisbatan alohida e'tibori 1950 yilda papa Piy XII tomonidan kiritilgan, Bibi Maryamning meroji haqidagi aqidada o‘z aksini topdi. Katolik ta'limoti pravoslav ta'limoti kabi etti asrorni tan oladi, biroq bu asrorlarni talqin qilinishidan qarashlar mos kelmaydi. Masalan, pricheshenie (tamaddi) qilish qattiq non bilan, (pravoslavieda bo‘ktirilgan non bilan) dunyoviy (miryane)larga non va vino bilan Shuningdek faqat non bilan amalga oshiriladi. Cho‘qintirish sirini o‘tash paytida suv sepiladi (cho‘qintiriluvchiga), muz ostidagi suvga cho‘ktirilmaydi.

Miropomazaniye (cho‘qinuvchining peshonasiga eley surkash) yetti-sakkiz yoshlarda amalga oshiriladi, go‘dakligida emas. Bunda o‘spirin (bola) yana bitta

ismga ega bo‘ladi. Bunda u o‘sha avliyoning qilmishlari va g‘oyalarini maqsad qilib qo‘yadi. Shunday qilib, bu rusumning ijro etilishi imon mustahkamlanishiga xizmat qilishi zarur.

Pravoslavlarda nikohsizlik rusumini faqat qora ruhoniylik qabul qiladi. Katoliklarda esa nikohsizlik (tselibat) Papa Grigoriy VII tomonidan joriy qilingan qoidaga ko‘ra barcha ruhoniylar uchun majburiydir.

Din markazi - ehromdir. Dinning muhim elementlari cherkovga qatnovchilar hayotining maishiy asoslarini tartibga soluvchi bayramlar, Shuningdek postlardir.

Milodiy post katoliklarda advent deb ataladi. U Avliyo Andrey kunidan keyingi birinchi yakshanbada - 30 noyabrda boshlanadi. Ular uch ibodat bilan: yarim tundagi, ertalabki va kunduzgi ibodat bilan nishonlanib, Bibi Maryam homilador bo‘lishi, Isoning tug‘ilishi va dindorning qalbida bo‘lishi kabi ramziy ma'noni anglatadi. o‘sha kuni tazim qilish uchun ehromlarda go‘dak Isoning figurasi qo‘yilgan yaslilar o‘rnatiladi.

Katolik ierarxiyasida uch darajadagi ruhoniylar bor: dyakon, ruhoniy (kyure, pater, kendz) Yepiskop. Yepiskopni papa tayinlaydi. Papani kardinal kollegiya saylaydi. Bunda umumiy ovozning uchdan ikki qismi plyus 1-ovoz (yashirin ovoz berish yo‘li bilan) II Vatikan soborida (1962-1965 yillar) cherkov hayotining barcha jabhalarini yangilash, zamonaviylashtirish jarayoni boshlandi. Birinchi navbatda ibodat an'analariga tegishli bo‘ldi. Masalan, ibodatni lotin tilida olib borishdan voz kechildi.

Katolitsizm boshqa yo‘nalishlardan farqli o‘laroq markazlashgan tizimga ega. Vatikan ana shunday markaz sifatida (maydoni 44 gektar) 1924 yildan boshlab Papa Piy XI ning Mussolini hukumati bilan tuzgan bitimiga muvofiq mustaqil teokratik davlat hisoblanadi. Rim Papasi cherkovning yakka rahbari bo‘lib, u Iso Masihning yerdagi noibi hisoblanadi. 1870 yili e'tiqod va axloq masalalarida uning benuqsonligi haqidagi aqida qabul qilindi. 1978 yilda sobiq Polsha kardinali Korol Voytila 264-Rim papasi etib tayinlandi va u hozirga qadar Ioann Pavel II nomi bilan bu vazifani bajarmoqda.

Son jihatdan unchalik katta bo‘lmagan katolik jamoalari Markaziy Osiyoning ayrim hududlarida ham mavjud. Toshkentda 1990 yilda katolik markazi tuzilgan bo‘lib uning qoshida jumhuriyatimizning boshqa hududlaridan ro‘yxatdan o‘tgan katolik diniy jamoalari ham o‘z faoliyatlarini olib bormoqdalar.

Pravoslav oqimi. Pravoslav oqimi xristianlikning uch asosiy yo‘nalishidan biri o‘laroq, tarixan uning sharqiy shahobchasi sifatida ro‘yobga chiqdi va shakllandi. Bu oqim asosan Sharqiy Yevropa, yaqin Sharq va Bolqon mamlakatlarida tarqalgan. Pravoslav atamasi yunoncha ortodoksiya so‘zidan olingan bo‘lib, ilk davr xristian yozuvchilari asarlarida uchraydi. Pravoslaviyening kitobiy asoslari Vizantiyada shakllandi, chunki bu yo‘nalish u yerdagi hukmron din edi.

Xristianlikning Sharqiy tarmog‘i bo‘lmish pravoslaviening rivojlanishi jarayonida 15 ta mustaqil (avtokefal) cherkovlari: Konstantinopol, Aleksandriya, Antioxiya, Quddus, Rus, Gruziya, Serb, Rumin, Bolgar, Kipr, Ellada, Albaniya, Polsha, Chexoslovakiya, Amerika cherkovlari shakllangan.

O‘zining ahamiyatiga ko‘ra pravoslav dunyosida beshinchi bo‘lgan, lekin muxlislari soni jihatidan birinchi bo‘lgan rus pravoslav cherkovi X-XI asrlarda vujudga kelgan. Uning paydo bo‘lishi endigina shakllanayotgan feodal munosabatlarni himoya qilish uchun, yangi g‘oyaga muhtoj bo‘lgan Kiev davlatining ijtimoiy-siyosiy ehtiyojlarini qondirish uchun kerak edi. Rusning xristianlashuvi darrov amalga oshgan ijtimoiy jarayon bo‘lmay, bir necha asr davom etgan ziddiyatli tarixiy hodisa edi.

Pravoslav oqimida sirli rasm-rusumlar muhim o‘rin egallaydi. Cherkov ta'limotiga ko‘ra, bunday paytlarda Xudo tomonidan dindorlarga alohida savoblar nozil bo‘ladi.

Cho‘qintirish - sirli hodisasi. Bunda dindor o‘z tanasini uch marta suvga botirishi Xudo-otani, o‘g‘ilni va Muqaddas ruhni chaqirish bilan ruhiy tug‘ilishni kasb etadi.

Badanga eleyni surkash ham sirli bo‘lib, bunda dindorga Muqaddas ruhning ruhiy hayotga qaytaruvchi va chiniqtiruvchi ehsonlari ulashiladi.

Poklanishning sirliligi. Unda dindor non va vino ko‘rinishida o‘z badanida Iso qonini abadiy hayotga tayyorlaydi.

Nadomatning sirliligi shundaki, dindor o‘z gunohlarini din peshvosi oldida tan oladi, din peshvosi esa uning gunohlarini Iso nomidan kechiradi.

Ruhoniylikning sirliligi u yoki bu shaxsni ruhoniy darajasiga ko‘tarish uchun yepiskopning qo‘lini o‘sha shaxs badaniga tekkizishi (yoki qo‘yishi) orqali amalga oshiriladi.

Badanni eley bilan ishqalash sirida Xudoning ruhiy va jismoniy zaifliklarni tuzatuvchi lutfu marhamatidan umid qilinadi.

Pravoslav cherkovi bayramlar va diniy marosimlarga alohida ahamiyat beradi. Post diniy marosimi odatda, katta cherkov bayramlaridan oldin o‘tkaziladi. Postning mohiyati inson ruhini tozalash va yangilash, diniy hayotning muhimi voqealariga tayyorgarlikdan iborat.

Rus Pravoslaviyasining ko‘p kunlik postlari to‘rtta: Pasxa oldidan, Pyotr va Pavel kuni oldidan, Bogoroditsa uyqusidan oldin va Iso tug‘ilgan kundan oldin.

Buyuk bayram ichida Pasxa birinchi o‘rinda turadi. Pasxa Isoning o‘lganidan so‘ng qayta tirilganini nishonlab o‘tkaziladigan bayram. U yilning 22 aprelidan may oyining birinchi yakshanbasigacha o‘tkaziladigan bayram. U «Ottsovskiy den»dan avval o‘tkaziladi. Pasxaning tarixi yahudiylikdagi peysax bayrami bilan bog‘liq bo‘lib, u yahudiylarning Misrdan qochib chiqishi va ozodlikka erishishini nishonlanishidir. Xristianlik yahudiylikdan to‘la ajralib chiqqach pasxa yangicha tus olgan.

Pasxadan so‘ng pravoslav dinining o‘n ikki kunlik o‘n ikki muhim bayrami boshlanadi. Ular: Iso tug‘ilishi, Sretenie, Isoni cho‘qintirish, Preobrajenie, quddusga kirish, Isoning osmonga ko‘tarilishi, Troitsa Muqaddas butning osmonga ko‘tarilishi, Blagoveshanie (Injilning nozil bo‘lishi), Rojdestvo Bogoroditso‘ (Isoning xochga osilishi) va hakozo.

Muqaddas kitob bo‘lmish Injil va muqaddas o‘gitlar IV-VIII asrlardagi yetti butxona Soborlarining qarorlari, Shuningdek Afanasiy Aleksandriyskiy, Vasiliy

Velikiy, Grigoriy Bogoslov, Ioann Damasskiy, Ioann Zlatoust kabi yirik cherkov xodimlarining asarlari ushbu oqim ta'limotining asosi deb tan olingan.

Pravoslaviyening Markaziy Osiyo aholisi orasiga kirib kelishi XVI-XIX asrlarga to‘g‘ri keladi. Avval savdo-sotiq, keyin bu mintaqa xalqlarini mustamlakaga aylantirishdan iborat bo‘lgan harbiy harakatlar jarayonida u kirib kelgan. 1870 yili Pokrovsk monastiri koshida missionerlik jamiyati tashkil qilingan. Jamiyat a'zolari mahalliy millatlarga mansub aholi orasida, garchi jiddiy natijalarga ega bo‘lmagan bo‘lsa ham, xristianlik bilan bog‘liq katta targ‘ibot ishlarini olib borganlar. Shu maksadda 1844 yili "Karomat ko‘rsatuvchi Nikolayning hayot yo‘li" nomli risolani qirg‘iz tiliga tarjima qildilar va chop etdilar. 1872 yili Rus pravoslav cherkoviga karashli Turkiston (keyinchalik Toshkent, O‘rta Osiyo) yeparxial boshqarmalari maxsus diniy maktablar ochildi.

Pravoslav cherkovi hozirgi kunda jamiyatimizning yuksalishi bilan bog‘liq tadbirlarni qo‘llab-quvvatlamoqda, ayniqsa dindorlarni axloqiy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi o‘zining rejalarini ishlab chiqmoqda. Bunda inson shaxsining qadr-qimmatini ulug‘laydigan, oila asosini mustahkamlaydigan va mehnatga, butun jamiyatga nisbatan sofdil va vijdonlilik ruhida bo‘lgan munosabatlarni qaror toptirish nazarda tutilgan. Cherkovning ichki tartibini qayta qurishni amalga oshirishga, cherkov hayotini yangilashga, ruhoniylar orasida uchraydigan ba'zi bir musulmonlarni bartaraf etishga juda katta e'tibor berilmoqda. 1988 yilda bo‘lib o‘tgan rus pravoslav cherkovining ming yillik sanasini tantanavor, ulug‘vor nishonlanishi, rus pravoslav cherkovining xalqaro obro‘sini ko‘tarilib borishiga ta'sir etdi. Muhim sanani nishonlash bilan bog‘liq bo‘lgan tantanalar, bayramlar va boshqa turli-tuman tadbirlar ruhoniylar uchun o‘zlarining faqatgina ilohiyotchilik, cherkovning ichki hayoti va tartibi bilan bog‘lanib qolmadi; balki jahonda, xususan Osiyo mintaqalarida tinchlik uchun kurash, irqiy kamsitishlarga barham berish, tabiatni muhofaza kilish, sog‘liqni saqlash, demokratik jarayonlarni rivojlantirish, jamiyatda adolatli hayotni qaror toptirish bilan bog‘liq ko‘pgina masalalarni muhokama qilmoqdalar. Ulug‘ bayram kunlari diniy e'tiqod va marosimchilik masalalarini hal qilishga ham harakat qilmoqdalar.

Toshkent va O‘rta Osiyo yeparxial boshqarmasi (unga 22 diniy jamoa bo‘ysunadi) ham mustaqil jumxuriyatlarda vijdon erkinligi talablariga rioya kiladigan tadbirlar o‘tkazmokda, xalqlar o‘rtasida osoyishtalik qaror toptirish uchun harakat kilmokda.

Pravoslav cherkovi ko‘p millatli mintaqada millatlararo va har xil yo‘nalishdagi dinlar orasidagi munosabatlarga dindorlarni axloqiy jihatdan tarbiyalashga va jamiyatni ma'naviy jihatdan sog‘lomlashtirish uchun ko‘maklashishlarga aloxida e'tibor bermoqda. Shuningdek u ilohiyotchilikka oid bo‘lgan qarashlar sistemasining ayrim elementlarida pravoslaviedagi boshqa, shuni islom bilan bir-biriga tutash bo‘lgan umumiy aloqalarni izlamoqdalar va fan namoyandalari va jamoatchilik vakillari bilan aloqalarni rivojlantirmoqdalar. Ular pravoslavlar bilan musulmonlar diniy boshqarmalari o‘rtasidagi muloqotlarni rivojlantirishga qaratilgan ko‘pgina yirik tantanali anjumanlar chaqirilishining tashabbuskori bo‘lmoqdalar.

Bundan tashqari rus pravoslaviye cherkovi xayriya shaklidagi faoliyatlarga, chunonchi, halok bo‘lgan jangchilarga yodgorliklar o‘rnatish, urushda jabr ko‘rgan baynalminalchi jangchilar sog‘liklarini tiklash, tinchlik va bolalar uchun mo‘ljallangan jamg‘armalarii ko‘paytirish va shu kabilarga katta e'tibor bermoqdalar.

Pravoslavieningijtimoiy, siyosiy qarashlarini va dindorlarning diniy onglari bilan bog‘liq hamma o‘zgarishlar ularning dunyoqarash mavqelarini majburan o‘zgartirishlariga olib bormaydi. Zero, rusga xristianlik kirib kelishining ming yilligini tantanali tarzda bayram qilinishining o‘zi jamoatchilikning keng doiralari orasida muayyan taassurot qoldirdi.

Protestantlik - bu ham xristianlikdagi yana bir yo‘nalish bo‘lib, katolitsizm va pravoslaviyedan farqli o‘laroq, diniy qarashlar hamda, cherkovlar orasidagi munosabatlar jihatidan bir xil bo‘lmagan yo‘nalishlarni faqatgina kelib chiqishi jihatidan bir-birlari bilan, XVI asrdagi yangilanish harakati bilan bog‘liq bo‘lgan kupgina diniy jamoalar, cherkovlar, mazhablar yuzaga keldi.

Protestanizm tarixi Martin Lyutyerdan (1483-1546) boshlanadi. U birinchi bo‘lib katolik cherkovi bilan aloqani uzdi va protestant cherkovining asosiy qoidalarini ishlab chiqdi va uni himoya qildi. Bu nizomga ko‘ra, insonning Xudo bilan bevosita muloqoti mumkin. Lyuterning diniy va dunyoviy hokimiyatga qarshi chiqishlari, katolik dindorlarning imonni va vijdonni inson bilan Xudo o‘rtasidagi vositachi sifatida nazorat qilish haqidagi mulohazalarga qarshi chiqishi jamoatchilik tomonidan favqulodda diqqat bilan tinglandi.

Protestantizmning mohiyatiga ko‘ra, ilohiy lutfu marhamat insonlarga cherkovning vositasisiz, bevosita in'om etiladi. Inson najot topishi uning shaxsiy e'tiqodi va Isoning vositasi orqali ro‘y beradi. Avom ruhoniylardan farqlanmaydi, ruhoniylik hamma dindorlarga bir xilda joriy etiladi.

Protestantlik diniy marosimlarning ko‘pchiligini bekor qildi, faqatgina lyuteranlikda non va vino bilan cho‘qintirish sahalanib qoldi.

o‘lganlarga bag‘ishlangan duo o‘qish, aziz-avliyolarga sig‘inish, muqaddas murdalarga, sanamlarga topinish bekor qilindi. Ibodat uylari ortiqcha hashamlardan, mehroblardan, sanamlar, haykallardan tozalandi, ruhoniylarning uylanmaslik shartlari bekor qilindi. Bibliya milliy tillarga tarjima qilindi, uni sharhlash har bir xudojo‘yning eng muhim burchi bo‘lib qoldi.

Asrorlardan faqat cho‘qinish va mansublik (cherkovga) e'tirof etiladi. Ibodat va'z-nasihatlar, birgalikdagi ibodat va suralarni kuylashdan iborat bo‘ldi. Protestantlar Bogoroditsa shaxsiyatini, a'rofni tan olmaydilar.

Lyuter tomonidan tuzilgan reformatsiya bosh taomillari 95 tezis shaklida yozib bergan. Ular Vittenbergning Nasriy cherkovining shimoliy eshiklariga yozib qo‘yilgan. Mana shu tezislardan biri: Iso payg‘ambar: «Tavba qiling, chunki samoviy shohlik yaqinlashib qoldi» deb jar solganida shuni ta'kidlaydiki, imon keltirganlar hayoti boshdan-oyoq to‘xtovsiz tavba-tazarrudan iborat bo‘lmog‘i darkor.

Tavba-tazarru ruhoniy (avliyo) oldidagi birgina tazarrudan iborat emas. Birinchi to‘rt tezisda, Lyuter ta'kidlaydiki, haqiqiy tavba uzoq muddatli jarayondir, birgina xatti-harakat bilan ro‘yobga chiqmaydi.

Papa faqat o‘zi belgilagan jazoni olib tashlashi mumkin. Cherkov hech qaysi samoviy jazodan insonni ozod qila olmaydi. Tavba-tazarru qonunlari tiriklar uchun joriy qilinadi (belgilanadi). Bu yerda va keyingi bir qancha tezislarda papaning a'rof ustidan hukmronligi rad etiladi.

«Ruhlar uchun indulgensiya olgan shaxslarga tavbu-tazarru qilish talab qilinmaydi», degan ta'limot Iso ta'limoti emas. Chindan tavba qilgan kishilarni Xudo gunohlarini kechadi va abadiy azobdan ozod qiladi. Gunohkor papa yorlig‘isiz ham bunday mag‘firatdan umid qilishi mumkin.

Lyuter bir necha tezislarda ta'kidlaydiki, chindan tavba qilgan, nadomat chekkan xristian (nasoro) «samoviy jazoga shoshilmaydi, ya'ni unga samoviy jazo joriy etilmaydi».

Cherkovning haqiqiy xazinasi muqaddas Injil va xudo marhamatidir. Lyuterning ta'kidlashicha, «xayrli amallar xazinasi»ning mavjudligi kambag‘allar uchun emas boylar uchun foydalidir, bu xazinalarga papa marhamati bilan emas, o‘z amallari bilan erishuvi mumkin. Bu xil vositalar bilan Xudoning mehrini qozonmoqni Lyuter sarob deb ataydi.

Haqiqiy xristian Isoga ergashish istagi bilan yonmog‘i zarur. Najot yo‘li ruxsatnoma yorlig‘ida emas, balki chin yurakdan nadomat chekmoq va tavba qilmoqdadir.

1517 yili 31 oktyabrda jamoatchilik hukmiga havola qilingan tezislar shundan iborat. Keyinchalik bu kun protestantlar bayrami bo‘lib qoldi.

Protestantlik umumxristianlik asoslari va qarashlarini e'tirof etish bilan bir qatorda, u gunohdan xalos bo‘lishning yangi usullarini ilgari surdi. Iso Masihning kishilar gunohini yuvishga qaratilgan o‘zini-o‘zi qurbon qilishiga ishonch, dinga ishonuvchi barcha kishilarning ruhoniy bo‘lishi mumkinligiga ishonch, Bibliyaning oliy nufuziga ishonch orqali xalos bo‘lish ana shular jumlasiga kiradi. Shunday qilib protestantlik xudojo‘ylikning asosiy talabini dinda odamning tashqi ko‘rinishidan ichki hayotiga olib o‘tdi va uni ixtiyoriy diniy ishonch bilan bog‘ladi. Protesttantchilik Bibliyaga sig‘inishning o‘ziga xos shaklini qaror toptirdi. Bu bilan protestant islohotchilari dastlabki xristianlikning oliy maqsadlarini, dindorlarni axloqiy jihatdan tarbiyalashga va jamiyatni ma'naviy jihatdan sog‘lomlashtirish uchun ko‘maklashishlarga alohida e'tibor bermoqda. Shuningdek, u ilohiyotchilikka oid bo‘lgan qarashlar sistemasining ayrim elementlarida pravoslaviedagi boshqa, shu qatorda islom bilan bir-biriga tutash bo‘lgan umumiy aloqalarni izlamokdalar; fan namoyandalari va jamoatchilik vakillari bilan aloqalarni rivojlantirmoqdalar. Ular pravoslavlar bilan musulmonlar diniy boshqarmalari o‘rtasidagi mulokotlarni rivojlantirishga qaratilgan ko‘pgina yirik tantanali anjumanlar chaqirilishining tashabbuskori bo‘lmoqdalar.

Protestantlik diniy marosimlarning ko‘pchiligini bekor qilgan (faqatgana lyuteranlikda non va vino bilan cho‘qintirishlar saqlanib qolgan). O‘lganlarga bag‘ishlab duo o‘qish, aziz-avliyolarga sig‘inish, ular sharafiga turli-tuman

bayramlar o‘tkazish, muqaddas murdalarga, sanamlarga topinishlar bekor qilingan. Ibodat uylari ortikcha bezaklardan, mehrob, sanam, haykallardan xoli qilingan, monostirlar va monaxlikdan ham voz kechilgan, ruhoniylarning uylanmaslik sharti bekor qilingan. Bibliya milliy tillarga tarjima qilindi va uni sharhlash har bir xudojo‘yning eng muhim burchi bo‘lib qoldi.

Lyuteranlik, anabaptizm, anglikanlik, kalvinizm, tsvingchilik protestantlikning ilk shakllari bo‘lgan. Keyinchalik "so‘ngti protestantlik" umumiy nomi bnlan ma'lum bo‘lgan bir qancha diniy oqimlar, tashkilotlar paydo bo‘ldi.

Markaziy Osiyoda ham protestantlik muxlislari uchraydi. Lyuteran jamoalari a'zolari Qirg‘izistonda, Qozog‘istonda va Tojikistonning Janubiy tomonlarida, Turkmanistonda, O‘zbekistonda, chunonchi Sirdaryo, Farg‘ona viloyatlarida yashaydilar. Bular asosan nemis millatiga mansub bo‘lgan dindorlardir. Toshkentdagi lyuteranlarga, diniy toat-ibodatlarini bajarishlari va umumiy diniy ehtiyojlarini qondirish uchun ular ixtiyoriga 30-yillarda qurilgan Kirxa berilgan. Dushanbada ana shunday diniy maqsad uchun dindorlarning mablag‘lari xisobiga va keng jamoatchilikning, jumladan xorijiy mamlakatdagilarning ishtirokida yangi Kirxa qurilgan. Bu jamoada diniy hayot bilan bog‘liq cho‘qintirish, marhumga janoza o‘qish, balog‘at yoshiga yetganlarni dindorlar safiga qo‘shish va nikoh o‘qitish marosimlari o‘tkaziladi. Diniy bayramlar muntazam nishonlanadi, diniy targ‘ibotlar, va'zlar o‘qiladi, diniy muloqotlar tashkil qilinadi.

Markaziy Osiyoda boshqa protestant yo‘nalishlari ham mavjud bo‘lib, ular baptistlar, adventistlar, iegovistlar, pyatidesyatniklar, menonitlar deb ataladi. Bu sektalar hozirgi sharoitdagi tarixan o‘zgarishlar ta'sirini o‘zida muayyan tarzda ifoda etgan diniy jamoalar va guruxlardan iborat. Ular kelib chiqishi jihatidan eski rus sektantchilik shakllariga, protestantchilik harakatiga, pravoslaviyadagi eskicha marosimchilik va boshqa yo‘nalishlarga, ya'ni 1917 yildan oldingi cherkovlar orasida ziddiyatlar kuchaygan sharoitlarga borib taqaladi.

Eski an'anaviy rus sektantchiliga Rossiyadagi krepostnoy sharoitlariga, uning g‘oyaviy himoyachisi bo‘lgan hukmron pravoslav cherkoviga, chorizmga nisbatan keng dehqonlar ommasining ijtimoiy noroziliklarini o‘zida ifoda etuvchi diniy harakatlar asosida XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida vujudga kelgan duxobarlar, molokonlar, xristoverlar, subbotniklar, yekopchilar, iegovist-ilьinchilar va boshqalar kiradi. Ular sektantchilikning birinchi toifasini tashkil qiladi.

An'anaviy rus sektantchiligining muxlislari ularni chor hukumati va pravoslav cherkovi ta'qib etishi natijasida Stavropolь o‘lkasiga (keyinchalik u yerdan Kanadaga), Sibirga, Kavkaz ortiga, Markaziy Osiyoga) ko‘chib ketganlar. Markaziy Osiyoda xristian sektantchiligining paydo bo‘lishi va tarqalishi bu yerlarni Rossiya chorizmi bosib olishi va pul-tovar munosabatlarining rivojlanishi bilan uzviy bog‘langan. Hozirgi kunlarda Qozog‘iston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Turkmaniston hududlarida son jihatidan uncha ko‘p bo‘lmagan molokan, duxobar, xristoverlar mavjud. Toshkentdagi molokan birodarlari jamoasi va Jizzaxdagi jimturmas (prigun) molokanlar jamoalari respublikadagi eng katta jamoalar hisoblanadilar. Molokanlarning katta bo‘lmagan guruxlari Samarqand, Xorazm, Farg‘ona viloyatlarida ham bor.

Sektantchilikning ikkinchi toifasiga G‘arb mamlakatlarida kapitalizm taraqqiyotining turli bosqichlarida vujudga kelgan va Rossiya imperiyasi hududida, jumladan, Turkistonda ham burjua munosabatlari shakllanish jarayonida va faol missionerlik harakatlari natijasida qaror topgan sektantchilik kiradi. O‘z muxlislarining soni jihatidan eng kattasi - baptistlar (yunon. suv bilan cho‘qintirish) birlashmasidir. O‘zbekistondagi xristian sektalarining 65 foizdan ko‘prog‘ini baptistlar tashkil qiladi. Diniy ta'limot va marosimchilik borasida baptizm an'anaviy protestantchilik asoslariga tayanadi va o‘zining yangi asoslarini ham yaratadi, ular balog‘at yoshiga yetganlarni yangitdan cho‘qintirishadi va o‘z saflariga qo‘shishib, bu marosimni tabiiy suv havzalarda bajaradilar. Cho‘qintirish, non va vinoni tatib ko‘rish kabi sirli marosim sifatida emas, balki ramziy marosimlar, harakatlar sifatida qabul qilinadi. Ibodat uylarini jihozlashda xristianlikning ramziy belgilari ishlatilmaydi. Ibodat Bibliyani o‘qish va sharhlashdan iborat bo‘lib, targ‘ibot va ashula aytishlar bilan qo‘shib olib boriladi.

1944 yili sobiq SSSR dagi baptistlar jamoalari injilchi-xristianlar bilan birlashganlar. 1945-1947 yillarda bu birlashma ittifoqiga pyatidesyatniklar jamoasi, 1963 yili esa mennonitlar jamoalari ham qo‘shildilar. Injilchi-xristian-baptist jamoalari sobiq SSSR da Injilchi-xristian baptistlar kengashi tomonidan boshqarilib turildi. (Bu 1990 yilda injilchi-xristian baptistlarning ittifoqi degan nom oldi). 60-yillarda bularga qarshi bo‘lgan markaz tashkil topdi va injilchi-xristian baptistlar cherkovining kengashi degan nom oldi. Uzoq yillardan buyon bu markaz norasmiy ravishda faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

O‘zbekistonda baptizm XIX asrning oxirlaridan beri mavjud bo‘lib, uning Toshkentdagi jamoalari, shu jumladan, "Ettinchi kun" adventistlari Islohchi-adventist, pyatidesyatniklar, menonchilik, injilchi-xristian baptistlar kengashi, iegova shohidlari kabi protestantchi jamoalari mavjud.

Protestantlik boshqarmalarining Markaziy Osiyo rahbariyati o‘z diniy faoliyatlarini yanada faollashtiradigan vositalarni muntazam tarzda izlamokda, shuningdek jamoalarning tuzilishlarini mustahkamlaydigan jidtsiy tadbirlar bilan shug‘ullanib targ‘ibot-tashviqot ishlariga alohida e'tibor qaratib, diniy g‘oyalarni, ibodatlarni hozirgi sharoitga moslashtirib, zamonaviylashtirmoqda. Bu hol Markaziy Osiyo protestantlik yo‘nalishlaridagi jamoalar va ularning muxlislari soni jihatidan birmuncha ko‘payishiga, dindorlar orasidagi muayyan boshboshdoqlik kayfiyatlari yuzaga kelishiga ham sabab bo‘lmokda.

Hozirgi kunda Markaziy Osiyodagi protestantlik birlashmalari yangi mustaqil respublikalarda demokratik o‘zgarishlarni muvofiqlashtirishga intilayaptilar va islohot jarayonlarining rivojlanish to‘lqinlarida targ‘ibot ishlarini faollashtirmoqdalar, qolaversa dindorlarning ijtimoiy jarayonlardagi faol ishtiroklarining o‘zlariga ma'qul shakllarini belgilamoqdalar.

Ma'lumki, dinlar va dindorlar orasidagi o‘zaro xamfikrlik va muloqotlar jamiyat taraqqiy etgan sari rivojlanib boradi. Dinlar orasidagi muloqotlar, hozirgi davrning asosiy xususiyatlaridan biri bo‘lib, xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan masalaga aylanmoqda. O‘rta Osiyo dindorlari orasidaga aloqalar, munosabatlarning yanada chuqurlashuvi ular rahbariyati va oddiy dindorlarning

eng dolzarb ma'naviy-axloqiy muammolarini, tabiatni asrash va uni muhofaza qilish, bolalar va qariyalar haklda g‘amxo‘rlik, tinchlikni saqlash va xayriya ishlari, jamiyatiing demokratik jarayonlariga va uning ijtimoiy, siyosiy jihatdan rivojlanishiga ko‘maklashish bilan bog‘liq masalalarni hal qilishga qaratilgan hamkorliklar asosida rivojlanmoqda.

Xristianlikning Sharqqa tomon tarqalishi, O‘zbekistonda xristian cherkovining tutgan o‘rni. XI asrning oxirida xristianlikniig Sharqqa tomon harakati va tarqalishi ommaviy tus oldi. Bu dinni mahalliy aholi orasida tarqatuvchilar Sharqning ayrim viloyatlariga ilgariroq kirib borganlar. 280 yildayoq Talos (Merke) da xristian cherkovlari qurilgan bo‘lib, Samarqandda (301 yildan), Marvda (334 yildan), Hirotda (430 yildan), Xorazmda, Marida va Markaziy Osiyoning boshqa shaharlarida yepiskoplik, kafedra, missiyalar, keyinchalik Samarqandda, Marvda (430 yillar), Hirotda (558 yillar) 6-12 yepiskopliqtsan iborat diniy hududiy jamoalar, birlashmalar bo‘lgan. Xurosonliklar va sug‘diyonaliklar buddistlar, zardushtiylar, moniylar bilan bir qatorda xristianlar ham bo‘lgan. Ular qoraxitoylar va sosoniylarga qaram yerlarda ta'qib qilinganlar.

O‘rta Osiyo hududida islom tarqatilgan davrlarda bu din bilan xristianlik o‘rtasidagi kelishmovchiliklar keskinlasha boshlagan. Biroq, X asrgacha Samarqand, Xorazm, Toshkent viloyatlarida xristianlarning manzilgohlari bo‘lgan. Haggo Beruniy yashagan davrda ham (973-1050) Marvda pravoslav mitropoliyasi bo‘lgan.

Ana shu davrda xristianlik Kavkazda ham tarqala boshlagan. Armaniston (301 yil) va Gruziyada (318 yili) davlat diniga aylangan. Kavkaz Albaniyasi hududida esa (hozirga Ozarbayjon va Janubiy Dog‘iston xududi) IV-VIII asrlarda hukmron din hisoblangan.

O‘sha davrdagi ko‘pdan-ko‘p va bir-biriga qarshi kurashayotgan dinlar orasidaga Sharqning hukmronlari tomonidan eng ko‘p homiylik ko‘rsatilgan din xristianlikning sharqiy yo‘nalishi bo‘lmish nestorianlik bo‘lgan. Xalif saroylarida nestorianlik patriarxlariga butun sharq xristianligining homiysi sifatida qaralgan, patriarxning qarorgohi esa Konstantinopoldan Bag‘dodga ko‘chirilgan. Nestorianlar xristianlikni Turkistonda, Amurgacha bo‘lgan Shimoliy va g‘arbiy Xitoyda targ‘ib qilganlar. Nestorianlikning Markaziy Osiyodagi tayanchi va islomga qarshi kurashdagi markazi 1257 yildan so‘nggina o‘z faoliyatini to‘xtatgan Samarqand mitropoliyasi bo‘lgan.

Hozirgi mustaqil O‘zbekistonda 130 dan ziyod millat va elat yashaydi. Bular orasidagi dindorlar 17 konfessiyaga, ya'ni diniy uyushmaga e'tiqod qilishadi. Bular doirasida islomdan so‘ng 2-o‘rinni xristianlikning pravoslavie oqimi egallaydi. Uning bir necha cherkovi va markaziy uyushmasi, chunonchi baptist, iegovist, adventist kabi sektalari bor.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslanib ishlab chiqilgan vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi yangi tahrirda e'lon qilingan konunga asosan respublikadagi barcha diniy uyushmalar erkin, oshkora, teng huquqli tarzda faoliyat ko‘rsatmoqdalar. Bu huquq va erkinliklar qonun bo‘yicha kafolatlangan.

Respublikamizdagi barcha konfessiyalar orasida totuvlik. hamjihatlilik mavjud bo‘lib, xalqimizni tarbiyalashga, tinch va xavfsizlikni saqlashga xristianlik jamoalari ham salmoqli hissa qo‘shmoqdalar.

Xristianlik manbalari. Bibliya, yahudiylik va xristianlik dinlari ta'limotiga ko‘ra, u Xudo tomonidan nozil qilingan, asosiy diniy aqida va axloq qonunlarini o‘zida jamlagan muqaddas kitoblar majmuasidir. Uning tarkibiga kirgan yahudiy diniga taa’lluqli kitoblar «qadimiy ahd» deb, xristian talimotiga tegishli kitoblar «yangi ahd» deb nomlanadi. Yahudiy va Xristian bibliyalari bir-biriga mos kelmaydi. Yahudiylarning muqaddas kitobi qadimiy Isroil va qadimiy yahudiylarning diniy ta’limot va urf-odatlari asosida eramizdan avvalgi XIII asrda yozilgan bo‘lsa, Xristianlarning kitobi esa eramizning boshlarida vujudga keldi. Yahudiylar xristianlarning kitobini muqaddas kitob sifatida tan olmaydilar, xristianlar esa yahudiylarning kitobini muqaddas kitob sifatida tan oladilar.

Bibliya so‘zining grekchadan tarjimasi biblia - kitob, o‘ram ma'nolarini anglatadi. Hozirgi Bibliya katolik nashrlarida 72 ta kitobdan, protestant nashrlarida esa 66 kitobdan iborat. yahudiylarning yana bir diniy manbasi Talmudning xabar berishicha qadimiy ahdda 24 ta kitob bo‘lishi kerak. Qadimiy yahudiy tarixchisi Iosif Flaviyning aytishicha 22 ta kitob bo‘lishi kerak. Protestantlar va yahudiylar, Trident Soboridan keyin (1545-1563) katoliklar ham qadimiy ahd tarkibiga 45 ta kitob kirgizadilar. Bu son bilan yuqorida keltirilgan son o‘rtasidagi tafovutni keyinchalik ba'zi kitoblar bir necha mustaqil kitoblarga bo‘linib ketganligi bilan izohlash mumkin. Masalan, «Musoning besh kitobi» avval bir butun bo‘lib, keyinchalik beshta mustaqil kitobga ajratib yuborilgan, «kichik payg‘ambarlar kitobi» 12 kitobga ajratib yuborilgan.

Yahudiylar qadimiy Ahdni 3 qismga bo‘ladilar:

birinchisiga «Musoning besh kitobi» - «Tora» («Tavrot»);

ikkinchisiga «Payg‘ambarlarning avvalgi va keyingi kitoblari (Netiim);

uchinchisiga qolgan kitoblar (Ketubim).

Xristianlar qadimiy Ahdni «Rivoyatlar kitoblari», «Ta'limotlar kitoblari»ga, «Payg‘ambar kitoblari»ga bo‘lishadi. Ular yangi Ahdning 27 kitobini ham shunday tasnif qiladilar. «Rivoyatlar kitoblari»ga «Injil» va «havoriylar faoliyati» kitoblari kiradi. «Ta'limotlar»ga «havoriylar maktublari» kiradi, «Payg‘ambarlar kitoblari»ga «Vahy» kitobi kiradi.

Bibliyaning kitoblari boblarga, boblar esa suralarga bo‘linadi. Uning hozirgi qabul qilingan bo‘linishi Nenterberiya yepiskopi Stefan Langton (vafoti 1228 y.) tomonidan kiritilgan. U 1214 yili lotin tilidagi matnni boblarga bo‘lib chiqdi va bu narsa keyinchalik yahudiy va yunon tillaridagi matnlarga ham joriy qilindi. Suralar avval Santes Panino (v. 1541 y.) keyinchalik 1555 yilarda Robert Etenlar tomonidan raqamlandi.

Tavrot. Musoga tegishli bo‘lgan, besh kitob «Tavrot» deb ataladi va u quyidagi kitoblarga bo‘linadi: 1) «Borliq» yoki «Ibtido»; 2) «Chiqish»; 3) «Levit»; 4) «Sonlar»; 5) «Ikkinchi qonun».

Injil - xushxabar ma'nosini anglatadi. Yangi ahd tarkibiga kirgan Injil 4 ga bo‘linadi. 1) Matvey injili; 2) Marko injili; 3) Luka injili; 4) Ioann injili.

14-mavzu. Islom dini va ta’limoti.

Islom dini shakllanishidagi tarixiy sharoit. Muhammad paygambar(a.s.) hayoti va faoliyati. Vahiyning nozil bo‘la boshlashi. Madinaga hijrat. Makkaning fath, etilishi. Xalifalik. Islomda mazhablarning paydo bo‘lishi, ilk ixtiloflar. Islom dinining O‘rta Osiyoga kirib kelishi. Qur’on - islom dinining muqaddas kitobi. Qur’ondagi ezgulik, tinchlik, birodarlik, mehr-muruvvat g‘oyalari. Qur’ondagi ahloqiy g‘oyalarning umuminsoniy ahamiyati. Hadislar - Qur’ondan keyingi mo‘tabar manba. Hadislarda ma’naviyat, ahloq-odob, mehr-oqibat masalalari. Islom ta’limotida oila muqadddasligi. Er- xotinning bir-biriga nisbatan huquq va burchlari. Islomda ayollarga munosabat. Islom ilohiyoti, uning asosiy aqidalari. Islom falsafasi olam va odamning yaratilishi, inson hayotining mazmuni, ezgulik va yovuzlik kurashi to‘g‘risida. Kalom falsafasi. Imom Moturidiy ta’limoti. Abu Nasr Forobiy va Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlari. Abu Xomid G‘azzoliy,Ibn Rusht falsafiy ta’limotlari. Tasavvuf (sufizm) ta’limoti va tariqatlari Farididdin Attor va Jaloliddin Rumiy,Hakim Termiziy va Sufi Olloyor asarlarida tasavvuf g‘oyalari. O‘zbekiston hududida shakllangan mashhur tariqatlar. O‘zbekiston allomalarining islom ta’limoti va dunyoviy fanlarni rivojlantirishdagi tarixiy xizmatlari. Tasavvuf ma’naviyati. Islomda huquq falsafasi. Burxoniddin Marg‘inoniy va uning ,,Hidoya” asari- islom huquqi bo‘yicha eng mo‘tabar manba. O‘zbekiston ulamolarining tafsir va hadis ilmiga qo‘shgan hissalari haqidagi fikrlar bayon etiladi, ilmiy tahlil qilinadi**.**

Takrorlash uchun savollar:

1. Islom qachon va qanday sharoitda shakllandi?
2. Islom dinining payg‘ambari kim?
3. Qur’on birinchi bor kimning davrida jamlangan?
4. Suralar nozil bo‘lgan joyiga ko‘ra necha turga bo‘linadi?
5. Nima sababdan xalifa Usmon davriga kelganda Qur’on yana bir bor jamlandi?
6. Hadis nima?
7. Mashhur muhaddislardan kimlarni bilasiz?
8. Imom al-Buxoriyning qaysi asari Qu’ondan keying ikkinchi muhim manba hisoblanadi?
9. Islom ta’limoti asosini nimalar tashkil etadi?
10. Islomning bo‘linib ketish sabablari nimada?
11. Islomda qanday yo‘nalish, mazhablar bor?
12. Sunniylik aqidalari nechta va ular qaysilar?
13. Shialar kimlar?
14. Xorijiylar haqida nima bilasiz?
15. Kalom ilmi mohiyati nimadan iborat?
16. Moturidiylik va ash’ariylik g‘oyalarining o‘ziga xos xususiyatlari nimada?
17. Tasavvuf qanday diniy ta'limot? Uning mohiyatini nimalar tashkil etadi?.
18. O‘rta Osiyolik tasavvuf namoyandalaridan kimlarni bilasiz?

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular. Javob yozish kerak.

1.Zardushtiylikning vujudga kelishi.

2.Буддавийлик динидаги таълимий-тарбиявий ғоялар.

Adabiyotlar:

1. Ochildiyev A. va boshqalar. Dinshunoslik asoslari (o‘quv qo‘llanma). - Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot matbaa birlashmasi, 2013.
2. Xasanov A. va boshqalar. Islom tarixi (Darslik). - Toshkent: Toshkent islom universiteti matbaa-nashriyot birlashmasi, 2008.
3. Mo‘minov A. va boshqalar. Dinshunoslik. - Toshkent: “Mehnat” 2004.
4. Yo‘ldoshxo‘jayev X., Rahimjonov D., Komilov M. Dinshunoslik. - Toshkent:ToshDShI nashriyoti, 2000.

Internet manbalari:

1. www. Ziyo net.uz
2. www.faylasuf.uz
3.www. .ziyo.uz
4. www. muslim.uz
5. www. religions.uz

14-MAVZU. ISLOM DINI VA TA'LIMOTI.

Reja

1. Islom shakllanishidagi tarixiy sharoit. Islom dinining vujudga kelishi.
2. Qur’on - islom dinining muqaddas kitobi.
3. Hadislar – Qur’ondan keyingi mo‘tabar manba.
4. Islom ta’limoti, uning aqidalari.
5. Islomdagi asosiy yo‘nalish va mazhablar.
6. Kalom falsafasi. Moturidiylik va ash’ariylik.
7. Tasavvuf ta’limoti va tariqatlari.

Tayanch tushunchalar: islom, Qur'on, Hadis, Kalom, Moturidiy, ash’ariy, tasavvuf, tariqat , Makka, Madina, Sunniylik, Shialik , tariqat ,ma’rifat, haqiqat-ilohiy.

Islom dini jahon dinlari ichida eng yosh dindir. E’tiqod qiluvchilari soni jihatidan esa xristianlikdan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Hozirda Islom diniga e’tiqod qiluvchilar soni qariyib 1 milliard 600 million kishini tashkil etadi. Yil sayin bu dinga e’tiqod qiluvchilar soni ortib bormoqda.

Islom dini VII asrning boshlarida Arabiston yarim orolida (hozirgi Saudiya Arabistonida) paydo bo‘lgan.

Islom- arabcha so‘z bo‘lib, mazmuni bo‘ysunish, itoat etish, o‘zini Alloh irodasiga topshirishni bildiradi. Islom diniga e’tiqod qiluvchilar arabcha “muslim”- “Islomni qabul qilgan”, “itoatli”, “sadoqatli” demakdir. Ko‘pligi “musulmon” deb

ataladi. Bu so‘z hozir o‘zbeklarda – musulmon, qirg‘iz va qozoqlarda – musulmon, Ukraina va Rossiyada – basurman nomi bilan ataladi.

Umumiy tarzda, Islom – Alloh yagona degan e’tiqod bilan unga bo‘ysunmoqlik, itoat etmoqlik va butun qalb bilan ihlos qilmoqlik va Alloh buyurgan dinga iymon (ishonch) keltirmoqlik demakdir.

Islomning paydo bo‘lishi VI asr ohiri – VII asr boshlarida Arabiston yarim orolida yuz bergan ijtimoiy iqtisodiy ahvol va ma’naviy hayot bilan bog‘liq holda ro‘y bergan.

Bu davr Arablar katta –kichik qabila va urug‘larga bo‘linib ketgan bo‘lib, ular o‘rtasida doimiy kelishmovchilik, urush va janjallar ro‘y berib turadi.

Ikkinchidan bu davrda Arabistonda ko‘p Hudolilik dinlari mavjud bo‘lgan.Asosan fetishizm – turli sanamlarga sig‘inish hukmronlik qiladi. Har bir qabilaning o‘z dini sanami bo‘lib 360 dan ortiq sanam Makkada saqlanadi. Ularni Arablar vaqti-vaqti bilan ziyorat qilib turishgan. Uchinchidan bu davrda Arab qabilalari o‘rtasida Johiliya – bilimsizlik holati, jaholat hukmronlik qilardi. Y’ani arablar hayotida tubanlik, ichkilikbozlik, qimor, buzuqlik avj olgan edi.

Binobarin, insonlarning ruhlari ham, e’tiqodlari ham, xatti- harkatlari ham buzilgan edi. Odamlarda uyat tuyg‘usi yoqolgan edi. fohishalik bir kasbga aylangan edi. Ayollarga hayvonlardek muomala qilinardi. Go‘dak qizlarni tiriklayin ko‘mish odati kabi yomon illatlar bo‘lgan.

Shunday qilib, Islomdan ilgari Arabistonda qonunsizlik, ahloqsizlik, zo‘ravonlik hukm surgani uchun ham keyingi avlod o‘sha davrni haqli ravishda Johiliya davri deb atagan va undan qutilishning najot yo‘li kerak edi.

Bunday holatlarga, ayniqsa bo‘linib ketgan Arab qabilalari o‘rtasidagi o‘zaro nizo va urushlarga barham berish uchun siyosiy,iqtisodiy, ma’naviy jihatdan birlashgan yagona Arab davlatini vujudga keltirishni davr taqazo etmoqda edi. Bunga esa yagona Hudoga e’tiqod qilish orqali erishish mumkin bo‘lar edi.

Bu davrda Islomning paydo bo‘lishi uchun g‘oyaviy muhit ham yetilib borayotgan edi. Chunonchi haniflar – chinakam e’tiqod qiluvchilar, haqiqat izlovchilar diniy harakati bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Haniflar Arab qabilalarini birlashitirish jarayonining g‘oyaviy ifodachisi edilar. Ular yakka hudoga ishonishini va ko‘p hudolikka e’tiqod qilishdan voz kechishni targ‘ib qilardilar. Haniflar o‘z targ‘ibotlarida Arablarni og‘ir ahvoldan qutqarish uchun haloskorning kelishi yaqinlashib qolganligi haqida habar tarqatib, uni sabr bilan kutib turish lozimligini uqtirardilar.

Shunday qilib, bu davrda Arablarni har jihatdan birlashtirish, kuchli saltanatni vujudga keltirish, yakka hudolikka o‘tishga hijoz arablari ma’lum ma’noda tayyor edilar. Bunday harakatni boshqargan kishilar o‘z faoliyatlarini ilohiy ilhom bilan asoslay olgan holdagina muvaffaqiyatga erisha olardi. Islom dinining asoschisi Muhammad (s.a.v.)dir. Muhammad (s.a.v.) har tomonlama barkamol inson bo‘lganlari u zotning shahsiy fazilatlari tufayli hijozliklarning harakati o‘ziga hos hususiyatlar kasb etib, diniy va siyosiy kuchga aylandi; bu kuch Islomning vujudga kelishini eng muhim tarihiy voqealaridan biriga aylantirildi.

Islom dini dunyoda keng tarqalgan monoteistik dinlardan biridir. Afrika qit'asidagi Marokash, Jazoir, Tunis, Liviya, Misr, Somali mamlakatlarining xalqlari, Habashiston, g‘arbiy Sudanda yashovchilarning bir qismi, Osiyo qit'asidagi Arabiston yarim oroli, Iordaniya, Suriya, Iroq, Eron, Turkiya, Afg‘oniston, Xitoy aholisining bir qismi, Yevropa qismida bo‘lsa, Bolqon yarim orolida yashaydigan xalqlarning bir qismi islom diniga e'tiqod qiladi. Aholisining ko‘pchiliga mutloq musulmonlardan iborat bo‘lgan 39 mamlakat, hatto aholisining yarmini musulmonlar tashkil etgan ba'zilari ham (Misr, Malayziya) 49 o‘zlarini musulmon mamlakatlari deb ataydilar. Ya'ni ularning ba'zilarida (Mavritaniya, Eron, Pokiston, Kamar orollari) mamlakatlarining nomiga islom so‘zi qo‘shib aytiladi. Rasmiy statistika bo‘yicha, bir necha mamlakatlarda aholining deyarli barchasi, musulmonlardan iborat 28 mamlakatda islom rasman davlat dini sifatida tan olingan.

Shuningdek, Markaziy Osiyo, Kavkaz ortida Shimoliy Kavkaz, Volga bo‘yi, G‘arbiy Sibirь va boshqa hududlarda yashovchi aholi orasida tarqalgan. Hozirda islomga e'tiqod qiluvchilarning soni oshib bormoqda. Ayniqsa e'tiqod haqidagi yangi qonunning qabul qilinishi, vaqtli matbuot sahifalarida, radio eshittirishlar va oynai jahon ko‘rsatuvlarida din mavzuidagi chiqishlarning ko‘payishi, maxsus gazeta va jurnallarning keng tarqalganligi islomga bo‘lgan e'tiborni oshirib yubordi.

Islom jahondagi ayniqsa Osiyo va Afrika qit'asi madaniyatining umumiy qiyofasida muhim iz qoldirdi. Bunga eng avvalo bu hududdarda arab tili va arab yozuvining keng tarqalganligi islom mafkurasi zaminida ishlab chiqilgan muayyan turmush tarzining hukmronligi musulmonlar ijtimoiy hayotining turli sohalari shariat tomonidan idora etilganliginy ymkon berdi. Sho‘nga qaramay mahalliy madaniy an'analar yo‘qolmay, yangi islom yo‘naliptida rivojlangan va u ko‘pincha qadimiy musulmon an'analari sifatida qabul qilingan. Musulmonlar madaniy merosi milliy ozodlik harakati va rivojlanayotgan mamlakatlarning mustaqillik uchun qurish jarayonida asosiy masalalardan biriga aylandi va ijobiy ahamiyat kasb etdi.

Islomning paydo bo‘lishining tahlil etish davri xususiyatlari, arab qabilalari o‘rtasida xukmron bo‘lgan ijtimoiy—iqtisodiy munosabatlar va ularning diniy—g‘oyaviy hayoti bilan qisqacha tanishib chiqishni taqozo etadi.

Arabiston yarim oroli noqulay iqlim sharoitiga ega bo‘lgan qum sahrolaridan va tog‘lardan iborat bo‘lib, uning aholisi V—VI asrlarda ko‘chmanchi chorvachilik bilan shug‘ullanar edi. Yarim orolning cheksiz sahrolarida yashovchi ko‘chmanchi chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi arab qabilalari— bundan ham og‘ir sharoitda yashar edilar. Ular taraqqiyot jihatdan ancha orqada qolgan, hali urug‘chilik, qabilachilik tuzumida edilar. Yarim orolning g‘arbiy qismida Qizil dengiz qirg‘oqlari bo‘ylab cho‘zilgan va qadimdan Hijoz deb nomlangan joylar bu davrlarda birmuncha iqtisodiy jihatdan rivojlangan bo‘lib, asosan janubdan shimolga o‘tgan qadimiy karvon yo‘li bilan bog‘liq edi. Tarixiy manbalardagi ma'lumotlarga qaraganda VI asr Yamandan shimolga Suriya, Misr va Falastinga olib boradigan karvon yo‘li faqat bu davlatlarning o‘zlariga emas, balki janubda

Yaman orqali Habashiston va Xindiston, shimolda Suriya orqali Misr, Vizantiya va Eronni ham bir-biri bilan bog‘laydigan o‘z davri uchun yirik va katta iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan savdo yo‘li edi. Hijozdagi ayrim aholi yashaydigan manzillar, yo‘l ustida joylashgan Makka, Madina, Toyif shaharlari VI asrda ancha rivojlangan. Bular shuningdek ko‘chmanchi arab qabilalarining savdo munosabatlariga jalb etuvchi markazlar sifatida ham xizmat qilar edilar.

Makka diniy markaz va savdo markazi sifatida arab qabilalari orasida e'tiborlisi edi. Makka markazida joylashgan Ka'ba islomda eng «muqaddas» hisoblangan va «Allohning uyi» (Baytulloh) sajdagoh hisoblangan. Undagi qoratosh (Hajar al -asvod) va uch yuz oltmish sanam arab qabilalari uchun e'tiqod manbaiga aylangan. Ziyoratta kelish oylari muqaddas hisoblanib bu vaqtlar ichida qabilalarda urush va janjallar to‘xtatilar edi.

V-VI asrlarda Makkada Quraysh nomli arab qabilasi hukmron bo‘lib, qurayshlarning yuqori tabaqalari savdo-sotiq bilan ancha boyib ketgan, bu yerda pul muomalalari, sudho‘rlik keng rivojlangan. Shuningdek qul savdosi va qullarning‘ mehnatidan foydalanish ham ancha kengaygan edi. Bu davrlarda Yamanni qo‘lga kiritish uchun Vizantiya va Eron o‘rtasida kurash avj olgan edi.

Yaman sosoniylar hukmronligiga o‘tgan davrlari (572-628) Eron ko‘rfazi orqali Hindistonga boradigan yo‘l tez rivojlana boshladi va shu munosabat bilan Hijoz orqali o‘tgan yo‘l inqirozga uchraydi. Bu hol faqat Hijoz shaharlarigina emas, balki barcha arab qabilalari hayotiga ham jiddiy ta'sir ko‘rsatadi va umuman Arabiston bo‘yicha ijtimoiy - iqtisodiy tanazzulning boshlanishiga sabab bo‘ladi.

Arabiston shaharlari va qabilalari o‘rtasida mavjud bo‘lgan tarqoqlik va kelishmovchiliklarga xotima berib, barcha arab qabilalarini bir davlatga birlashtirish, ularning tarqoq bo‘lgan iqtisodiy va harbiy imkoniyatlarini yagona kuchga aylantirish zarur edi.

Ijtimoiy hayot taqozosi natijasida vujudga kelgan arab qabilalari o‘rtasidagi markazlashishga intilish harakatlari arab jamiyatida VI asr oxiri VII asr boshlarida yuz bergan jiddiy tarixiy voqealar asosida yotar edi. Bu intilishni o‘zida aks ettirgan mafkura sifatida islom dini vujudga keladi va markazlashtirilgan arab davlatining paydo bo‘lishi qo‘shni mamlakatlarning bosib olinishi va arab halifaligining kengayishi jarayonida bu din kuchli g‘oyaviy qurol sifatida xizmat qiladi.

Islomning vujudga kelishi, arablar orasida vahdoniyatga asoslangan dinning qaror topishi, arab qabilalarining yakka hudo – Alloh g‘oyasi atrofida birlashishi Abdullohning o‘gli Muhammad nomi bilan chambarchars bog‘liq.

Qur’oni karimda 25 nafar payg‘ambarning nomi zikr etilgan. Muahmmad Alloh tomonidan odamlar orasidan tanlangan so‘nngi payg‘ambar sanaladi. Muhammad ibn Abdulloh (570-632) Makkada Quraysh qabilasiga mansub Hoshimiylar xonadonida tug‘ilgan. Otasi Abdulloh Muhammad tug‘ilmasdan ikki oy oldin 25 yoshida vafot etgan. Muhammad 6 yosh bo‘lganida onasi Amina ham vafot etadi. Muhammadni bobosi Abd al-Mutallib o‘z tarbiyasiga oladi. Ikki yildan so‘ng bobosi ham vafot etadi. Sakkiz yoshli Muhammadni amakisi Abu Tolib o‘z tarbiyasiga oladi. Abu Tolib tijorat ishlari bilan shug‘ullanardi. Muhammad ham

amakisi bilan tijorat ishlari bilan shug‘ullangan. 25 yoshda Yamanga o‘sha davrning badavlat ayoli Hadicha bilan uning mollarini sotishda ko‘maklashish uchun boradi. Bu hamkorlik Muhammad bilan Hadichaning oila qurishiiga sabab bo‘ladi. Ular 6 nafar farzand- ikki o‘g‘il va to‘rt qiz ko‘rganlar. Farzandlaridan faqat Fotima o‘sib ulg‘aydi, qolgan farzandlari bevaqt vafot etgan.

Muhammad amakisi Abu Tolibga yordam bo‘lsin deb uning kichik o‘g‘li Alini o‘z yoniga olgan va keyinchalik qizi Fotimani unga turmushga bergan.

Muhammad 40 yoshga borganida uning hayotida Payg‘ambarlik davri boshlangan. Y’ani unga ilk vahiy kela boshlagan. Ana shu davrdan Muhammad Allohning rasuliga – elchisiga aylandi. Bu faoliyat 23 yil davom etdi. Uning bir qismi Makkada (610-622), ikkinchi qismi Madinada (622-632) o‘tgan.

Adabiyotlarda qayd etilishicha, dastlabki vahiy ramazon oyining 26-sidan 27-siga o‘tar kechasi kelgan. Shuning uchun bu kunni musulmonlar qadr, y’ani ilohiy qudrat kechasi sifatida nishonlaydilar. Ramazon oyini esa muborak deb biladilar. Kelgan vahiy Muhammad Payg‘ambarni insonlarni johiliyadan qutqarish va Alloh ko‘rsatgan to‘g‘ri yo‘lga chaqirishga da’vat etadi.

Muhammad(s.a.v.) Makkaliklarni but va sanamlarga sig‘inishdan qutqarish va yagona Alloh e’tiqodiga olib kirish uchun 3 yil yashirin ravishda harakat qildi. Bu davrda Islom diniga kirganlar 30 kishini tashkil etdi xolos. Birinchi bo‘lib Bibi Hadicha keyin amakivachchasining o‘gli Haydar y’ani Ali, asrandi o‘g‘li Zayd ibn Horis islomga kirdi. So‘ng Abu Bakr, az-Zubayr, Talha, Sa’d ibn Abu Vaqqos, Abd ar Rahmon ibn Avf, Usmon ibn Affon va boshqalar islomni qabul qildilar. Shu tariqa Makkaliklar ikkiga ajralishdi. Bular Allohning yakkaligiga ishonganlar-mo‘min-musulmonlar , ishonmaganlar – mushriklar edi. Mushriklar Allohni yakka deb e’tirof etmay, uning sheriklari bor, y’ani hudolar ko‘p deb , turli sanam, tosh va hakozolarga, ko‘plab hudolarga sig‘indilar. Mushriklar 23 yil davomida Muhammad(s.a.v.) targ‘ibotlariga tish-tirnoqlari bilan qarshi chiqdilar. Ular hatto Muhammad Payg‘ambarni jismonan yo‘q qilmoq payiga tushganlar.

Shuning bilan birga, o‘sha davrdayoq qurayshlarning ummaviylar xonadoniga mansub bo‘lgan va Makkada siyosiy hokimiyat tepasida badavlat zodagonlar targ‘ibotiga jiddiy qarshilik qo‘rsata boshlagan.

619 yilda avval amakisi Abu Tolib, keyin hotini Hadicha vafotidan so‘ng mushriklar payg‘ambarga qarshi kurashni yanada kuchaytirdilar. U zot o‘zga yerlardan tarafdorlar izlashga majbur bo‘ldilar. Mamlakatda ahvol jiddiylashganini ko‘rib Muxammad (s.a.v.) Makkadagi Aus va Hazraj nomli qabilalarning vakillari bilan Madinaga ko‘chib kettan.

Dastlab bir guruh musulmonlar Habashistonga ko‘chdi. 622 yilda Makka zodagonlari bilan raqobatlashib kelayotgan Yasrib(Madina) dagi Aus va Hazraj qabilalarining vakillari musulmon jamoasini o‘ziga qabul qilish , Muhammad(s.a.v.) ni umumiy rahnamo sifatida tan olishga rozi bo‘lishdi. Shu tariqa 622 yilda musulmonlar jamoasi Makkadan Madinaga ko‘chadi. Buni tarixda hijrat - ko‘chish deb yuritiladi.Musulmon yili Hijriy yil hisobi shu yildan boshlanishi rasmiy tan olingan. Ko‘chib kelgan kishilar muhojirlar (ko‘chib kelganlar), Madinada Islomni qabul qilganlar ansorlar (tarafdorlar) deb ataldilar.

Bu yerda Muhammad(s.a.v.) qisqa vaqt ichida tarqoq arab qabilalarini muhojirlar bilan birlashtirib bir jamoa – ummani tashkil etdi. Bu jamoa qisqa vaqt ichida kichik, lekin kuchli davlatga aylandi. Diniy, ma'muriy va harbiy hokimiyat butunlay Muhammad Payg'ambar qo'liga o'tdi. Madina atrofidagi barcha arab qabilalari bo'ysundirildi. Ayni vaqtda Madina va Makka o'rtasida boshlangan kurash 8 yil davom etdi va Badr, Uhud, Handoq kabi janglar bo'lib o'tdi. Nihoyat Makka zodagonlari 628 yilda Muhammad(s.a.v.) bilan kelishishga majbur bo'ldilar. 630 yilda musulmonlar qo'shini hech qanday qarshiliksiz Makkaga kirib bordi. Makka aholisi yoppasiga Islom dinini qabul qildi va Muhammadni Allohning elchisi deb e'tirof etdi. Ana shundan boshlab Makka Islom dini markaziga, Ka'ba musulmonlarning muqaddas ziyoratgohiga aylangan. 632 yilda Muhammad oila a'zolari bilan birga Ka'baga birinchi marta haj ziyoratiga keldi. Mazkur Haj tarixda "vidolashuv haji" deb yuritilib, Muhammad hajga to'plangan 124 ming musulmonga qarata tuya ustida o'tirib nutq so'zlangan. Bu nutq tarihda – "vidolashuv hutbasi" deb yuritilib, u nafaqat yig'ilgan musulmonlarga, balki butun insoniyatga qaratilganligi va insoniyat tarixida eng buyuk inqilob yasaganligi bilan ajralib turadi. Vidolashuv hutbasi jaholiyat davrining butun hurofatlarini, butun yomonliklarini, qon da'volarini, sudho'rlikni, qimor,fohishalikni, ayollarga nisbatan past nazar bilan qarashni o'rtadan barham toptirishda muhim rol o'ynaydi.

Muhammad Payg'ambar aytgan va'zlarining qisqacha mazmuni quyidagicha:

"Ey insonlar! So'zlarimni diqqat bilan eshitingiz. Bilmayman, balki bu sanadan keyin Siz bilan bu yerda yana bir bor birga bo'lolmasman.

"Ey insonlar"! ..Bu kuningiz (qurbon kuni) qanday muqaddas bo'lsa, bu oyingiz qanday muqaddas bo'lsa, bu shahrimiz (Makka) qanday muqaddas bir shahar bo'lsa, bilingizki, jonlaringiz, mollaringiz ham shu kabi muqaddasdir. Bularga qilingan har qanday tajovuz haromdir.

Ashobim! Hushingizni yig'ib oling! Bilingizki, zinhor-bazinhor mendan keyin eski adashuvga qaytib bir-biringizning bo'yningizni kesmang!

Ashobim! Eski Johiliyat davridan qolgan hamma qon da'volari batamom bekor qilindi.

Ashobim! Kimning yonida bir omonat bo'lsa, uni egasiga qaytarib bersin.

Ey Insonlar! Hotinlarning haqlariga rioya etingiz. Ular bilan shavqat, mehr ila muomalada bo'lingiz. Ularning haqlari hususida Allohdan qo'rqingiz! Hotinlar Sizga Tangrining omonatidir. Ular Ollox nomiga so'z berib oldingiz. Sizning hotinlar ustida haqlaringiz bo'lgani kabi, ularning ham Sizda haqlari bor. Sizning xotinlardagi haqlaringiz – hotinlarning oila sharafini Siz yoqtirmaydigan hech bir kimsaga oyoqosti qildirmasliklaridir. Xotinlaringizning har turli yeyish va kiyish ehtiyojlarini ta'minlashingiz esa, ularning Sizning ustingizdagi haqlaridir…Bir xotin erining ruhsatisiz uning molidan biror narsani birovga berishi halol emas.

Ey mo'minlar! So'zlarimni yaxshi eshitingiz : …Hech kimning boshqalardan ustunligi yo'qdir. Sharaf va ustunlik faqat fazilat iladir. Har bir musulmon musulmonning birodaridir. Haqsizlik qilmang! Haqsizlikka bo'yin ham egmang! Odamning haqlarini yemang. Bir-biringiz bilan bo'g'ishmang! …

Ey Insonlar! Har bir jinoyatchi o‘z aybiga faqat o‘zi javobgardir. Hech bir jinoyatchining gunohi uchun avlodi jazo tortmaydi.

Ey mo‘minlar! Sizga bir omonat qoldiryapman. Unga mahkam bog‘laningiz sari yo‘lingizda hech adashmagaysiz. Bu omonat Allohning kitobi – Qur’ondir.

Ey insonlar! Haddan oshishlikdan saqlaning…”

Muhammad Rasulluloh hajdan qaytgach 632 yil 8 iyunda kasallanib vafot etdi. Bu davrga kelib Arabiston yarim oroli to‘la birlashtirilgan, uning aksariyat aholisi Islom dinini qabul qilgan edi. Arabistonning siyosiy, iqtisodiy , etnik va madaniy jihatlardan birlashishida Islom dini muhim omil bo‘lib hizmat qildi.va kelajakda vujudga kelgan musulmon olamining mafkurasiga aylandi.

Muhammad Rasulullоh vafot etgach u barpo etgan davlatni uning o‘rinbosarlari – halifalar boshqargan. Shu munosabat bilan musulmonlar davlati tarixda “Arab halifaligi” deb nom olgan.

622 yili yuz bergan bu ko‘chish (arabcha «hijrat»)dan musulmonlarning xijriy yil hisobi boshlanadi. Makkadan ko‘chib borganlar islom tarixida «muhojirlar» (ko‘chib kelganlar), Madinalik qabilalardan islomni qabul qilganlar esa «ansorlar» («yordamchilar») deb nom olgan.

Muxammad (s.a.v.) Madinaga kelgach, o‘z mavqeini mustahkamlashga harakat qiladi va islomni targ‘ib qilishni davom ettiradi.

Nihoyat makkaliklar va madinaliklar o‘rtasida bir necha janglar bo‘lgan. Ulardan biri. Badr qudug‘i yonida II hijriy yilning ramazon oyida (17 yoki 19 kun) bo‘ladi. Ikkinchi jang 625 yil iyul - avgust oylarida va 626 yili «Handoq jangi» nomini olgan uchinchi to‘qnashuvlar ham bo‘lib o‘tdi. Ushbu janglarda Muhammad (s.a.v.) g‘alaba qozongandan keyin Madinada o‘z mavqeini mustahkamlab bu yerda faol siyosat olib boradi.

628 yili musulmonlar jamoasi uchun muhim bo‘lgan voqea yuz beradi. Muhammad (s.a.v) Ka'bani muqaddas deb e'tirof etishni namoyish qilish maqsadida 1500 ga yaqin musulmonlar bilan barcha qabilalar hajga boradigan mavsumda Makkaga jo‘naydi. Bundan xavotirlangan ummaviylar rahbarlari Abu Sufyon bilan birga Makkada 30 kilometrcha narida bo‘lgan Hudaybiya vodiysida uni to‘xtatadilar. Muzokaralar boshlanib, o‘rtada shartnoma, «xudaybiya sulhi» tuziladi, qasam ichiladi, qasam «bayha» deb ataladi. Bitimlarga muvofiq makkaliklar madinaliklarga kelasi yildan boshlab hajga kelishga ijozat berishadi.

630 yili: Madina qo‘shinlari Makkani qarshiliksiz egallaydilar. Ummaviylar bilan raqobat qilgach, ular Payg‘ambar yaqin yordamchilariga aylanadilar. Islom Arabiston yarim orolining asosiy hukmron diniga aylanadi, Shunday qilib Muhammad (s.a.v) islom bayrog‘i ostida arab qabilalarini birlashtirib yagona markazlashgan mamlakatni tashkil etadi.

Muxammad (s.a.v) 632 yili iyun oyida 62 yoshida Madinada vafot etadi. Bu davrlarga kelib anchagina mustahkamlangan musulmonlar davlati vujudga kelgan va bu davlat Yamandan Sino yarim oroligacha, Qizil dengiz sohillaridan markaziy qum sahrolarigacha cho‘zilgan katta hududni o‘z ichiga oladi. Muxammad (s.a.v.) vafotidan keyin halifalar (yordamchilar) davlatni boshqaradilar va shu munosabat bilan musulmonlar davlati o‘zining bundan keyingi tarixiga «arab xalifaligi» deb

nom beradi. Muhammad (s.a.v.) vafot ettandan keyingi birinchi kunlardayoq musulmonlar jamoasi yo‘lboshchilari hokimiyat uchun kurash boshlaydilar. Bu kurashda muhojirlar guruhi g‘olib chiqadi va Muhammadning qaynotasi, Oyshaning otasi Abu Bakr halifa deb e'lon qilinadi, Abu Bakr hukmronligining (632-634) dastlabki yillarida bir qator arab qabilalari o‘rtasida Madina hukmronligiga qarshi o‘z mustaqilligi uchun harakat boshlanadi. Bu voqealar diniy manbalarda «ar—ridda» deb nom olgan. Islom tarixida Madina hukmronligiga qarshi bosh ko‘targan qabilalar harakati «islomdan chiqish», «dindan qaytish» deb ta'riflangan. Dindan qaytgan kishilar qattiq ta'qib qilingan. Halifa Umar (634 — 644) zamonida istilolar yana kuchaydi. 634 yili Basra, 633 yili Damashq, 640 yili Quddus va Falastin, Suriya yerlari to‘la ravishda halifalik qo‘liga o‘tadi.

Yana shunga ahamiyat berish kerakki, keyingi halifalar Usmon (644-656) va Ali (656-661) zamonlarida ham istilolar davom etadi. Kavkaz va Turon tomoniga yurish kuchayadi. Qisqa vaqt ichida Gruzin, Ozarbayjon, Eronning shimoliy qismi, Xuroson, Mavr yerlari arab qo‘l ostiga o‘tadi va halifa qo‘shinlari Amudaryo sohillariga chiqadi. Shunday qilib 30 yildan ozroq vaqt ichida arab halifaligi o‘sha zamondaga eng katta imperiya bo‘lgan Vizantiyaga nisbatan ham katta hududni bosib oladi, sosoniylar imperiyasi barham topadi.

Buning natijasida Amudaryo sohillarida Shimoliy Afrikagacha Tbilisi va Darbanddan Yaman va Usmongacha cho‘zilgan yangi imperiya vujudga keladi. Qisqa vaqt ichida arab qo‘shinlarining bunday yengil g‘alaba qozonishining sababi nimada degan savol tug‘ilishi tabiiy. Arab qo‘shinlarini yaxshi tashkil qilingan yoki yuqori harbiy texnikaga ega bo‘lgan deb aytish to‘g‘ri bo‘lmaydi, chunki bu qo‘shinlar badaviylar va boshqa har xil qabilalardan tuzilgan bo‘lib, o‘z zamonida ma'lum bo‘lgan harbiy san'at va texnika darajasidan ham ancha orqada turar edi. Osonlik bilan erishgan g‘alabalarning asosiy sababi bu davrda arab qo‘shinlariga jiddiy qarshilik ko‘rsatadigan kuchning yo‘qligi edi.

O‘rta Osiyo xalqlari hayotiga islomniig kirib kelishi bilan kalom, ya'ni islom falsafasini va diniy talablarni bajarishda arab tili ustuvorligi o‘rnatilgan. So‘ngra fan, adabiyot, falsafa va madaniyatning turlariga ham arab tilining ta'siri kuchli bo‘lgan. Ammo mahalliy xalqlar islomdan ancha oldinroq o‘z ona tillarida yozuvni, ma'rifatu madaniyatni, ilm-fanni rivojlantirishga muvaffaq bo‘lganlar. Bu jarayon keyinchalik islomning ta'sirida yanada rivojlantirilgan. Masalan, kishilarning turmush tarzi islom talabiga moslasha borgan, urf-odat va marosimlar diniy tus olgan, yoshlarga bilim berish uchun ko‘plab madrasalar, qiroatxonalar tashkil etilgan.

Demak, O‘rta Osiyo xalqlarida hayotida ilm-ma'rifat va madaniyatning rivojlanishida islomning ijobiy rol o‘ynaganini e'tirof etishimiz lozim. O‘rta asrlarda shakllanib ijod etgan savodli kishi, olim, shoir, ma'rifatparvar, mutafakkirlarning hayoti va faoliyatida islomning ijobiy roli bor desak xato qilmaymiz.

Islom O‘rta Osiyo xalqlari turmush tarziga, madaniyatiga turli qirralarda o‘z ta'sirini ko‘rsatgan, Masalan, me'morchilik yodgorliklarini olib ko‘raylik. Madrasa, masjid, maqbara va boshqalar din manfaati yo‘lida qurilgan va unga xizmat qilgan.

Ammo u inshootlarni xalq qurgan, xalq ijodiga bog‘liq madaniy boylik ekanligini bilamiz. Shuningdek, xalqlar orasida shaxsiy uylarni qurishda uy peshtoqlarini, ustunlarini, eshiklarini o‘ymakorlik qilib ishlash, ganchlardan turli shakllar yasab yopipggirish kabilar ham xalq ijodiy qadriyatlariga mansubdir.

Islomda, eng avvalo, din asoslari — «arkon – ad-din» hisoblanuvchi besh asosiy amaliy va marosimchilik rukn talablarini bajarishni talab etilgan. Hozir ham shunday, Bular, birinchidan, kalimai shahodatni bilish; ikkinchidan, har kuni besh vaqt namoz o‘qish, uchinchidan, har yili ramazon oyida bir oy ro‘za tutish; to‘rtiichidan, yiliga bir marta shaxsiy molidan zakot berish beshinchidan, imkon bo‘lsa, umrida bir marta haj qilishdan iborat. Islomga xos marosimlar va odatlar mana shu besh rukn bilan chambarchas bog‘liqdir. Islomning bu amaliy va marosimchilik talablari xalqlar turmush tarziga kiritilib, o‘ziga xos ma'naviy madaniyatning turiga, an'anaga aylantirilgan.

Qur'oni Karim ilohiy kitob bo‘lib, u farishta Jabroil alayhissalom tomonidan Muhammadga nozil etilgan. Bu muqqadas kitob Yer yuzi musulmonlarining dasturulamali, diniy ahkomlar manbaidir.

«Qur’on» - arabcha «Qara’a» (o‘qimoq) fe’lidan olingan. Qur’on suralardan iborat. Sura Qur’ondan bir bo‘lak bo‘lib, eng kami uchta yoki undan ortiq oyatlarni o‘z ichiga oladi. Qur'oni Karimda 114 sura, 6236 ta oyat bor. Suralar Qur’onda o‘z mazmuniy izchilligiga yoki o‘qilgan vaqtiga, ya’ni xronologik tartibiga qarab emas, balki hajmiga ko‘ra - avval katta suralar, undan so‘ng kichik suralar tartibi Muhammad s.a.v. ko‘rsatmalariga binoan joylangan. Suralarning hajmi ham har xil: eng katta hajmga ega bo‘lgan 2-surada 286 oyat bor, eng kichik suralar faqat 3 oyatdangina iborat.

Suralar nozil bo‘lgan joyiga ko‘ra 2 turga bo‘linadi:

1. Makkaiy suralar (610-622 yillar);
2. Madiniy suralar (622-632 yillar).

Islomshunoslik va Qur’onshunoslik xulosalari asosida suralarning xronologik tartibini quyidagicha shaklda tasavvur qilish mumkin:

1. Makka davri (610-615 yillar). Yevropa olimlari bu davrda nozil bo‘lgan suralarga «Nazmiy suralar» deb nom berganlar.

2. Makka davri (616-619 yillar), Muhammad s.a.v. va ularning izdoshlari doimiy ta’qib ostida yashagan va ko‘pchilik Habashistonga ko‘chib ketgan muhitda nozil bo‘lgan. Bu suralarda Ollohning «Rahmon» sifatida ko‘p tilga olinganligi sababli Yevropa olimlari ularni «Rahmon suralari» deb ataganlar.

3. Makka davri (610 yil boshlaridan 622 yil sentyabrigacha). Bu davrda ham Muhammad s.a.v. va sahobalar ta’qib ostida yashaganlar, maxfiy ravishda, ko‘pincha shahardan tashqarida ibodatga to‘planganlar. Bu davr suralarida islomning aqoidiga keng o‘rin berilgan.

Tarixiy voqealar aniqroq ko‘zda tutilgan holda Madina davriga oid 24 ta surani besh davrga ajratish ma’qulroqdir:

1-Madina davri (622 yil oktyabrdan 624 yil gacha). Muhammad s.a.v. Madinaga ko‘chib kelganlaridan makkaliklar bilan birinchi yirik to‘qnashuv - Badr jangigacha nozil bo‘lgan 4 sura bu davrga kiradi.

2-Madina davri (624 yil martidan 625 yil martigacha). Badr jangidan keyin Uhud jangigacha o‘tgan bir yil ichida nozil bo‘lgan 3 surani o‘z ichiga oladi.

3-Madina davri (625 yil martida - 627 yil martigacha). Uhud jangidagi talofotdan keyin Xandaq jangigacha o‘tgan ikki yil ichida 5 ta sura nozil bo‘lgan.

4-Madina davri (627 yil aprelidan 630 yil yanvarigacha). Xandaq jangidan so‘ng Makkaning olinishigacha o‘tgan salkam uch yil ichida nozil bo‘lgan 8 sura shu davrga kiradi. 5-Madina davri (630 yil fevralidan 632 yil mayigacha). Makka fath qilinganidan keyin Muhammad s.a.v. vafotlarigacha o‘tgan ikki yildan ortiqroq davr ichida nozil bo‘lgan 4ta sura shu davrga kiradi.

Muhammad alayhis-salom hayotlik chog‘larida yana vahy tushib qolar degan umidda Qur’on jamlanib, kitob holiga keltirilmagan edi. Payg‘ambar vafotlaridan keyin Qur’on kishilarning xotirasida va yozgan narsalarida saqlanib qoldi. Payg‘ambardan so‘ng musulmonlarga Abu Bakr (572-634) boshliq etib saylandi. Uning xalifalik davrida (632-634) mo‘minlar va murtad(dindan qaytgan)lar o‘rtasida shiddatli janglar bo‘lib o‘tdi. Ushbu janglarda Qur’onni to‘liq yod olgan qorilar ko‘plab shahid bo‘ldilar. SHunda Umar ibn al-Xattob (585-644) Abu Bakrga «barcha qorilar shu zaylda o‘lib ketaversa Qur’on nuqsonli bo‘lib qolishi mumkin, shu sababli uni jamlab kitob holiga keltirish zarur» degan maslahatini beradi. Avvaliga Abu Bakr ikkilanib turadi, chunki bu ish Payg‘ambar hayotlik paytlarida qilinmagan edi. Keyinroq Abu Bakr ham Qur’onni kitob shakliga keltirib qo‘yish zarurligini anglab yetdi va Zayd ibn Sobit ismli sahobani chaqirib bu ishni unga topshiradi. Chunki, Zayd Payg‘ambar alayhis-salom bilan juda ko‘p birga bo‘lgan, Qur’onni juda ham yaxshi yod olgan va Rasulullоh huzurlarida yozgan. Payg‘ambar umrlarining so‘nggi yilida farishta Jabroil alayhis-salomga Qur’onni avvalidan to oxirigacha o‘qib berganlarida birga bo‘lgan edi. SHunday qilib, Zayd va Umar mashaqqatli urinishlardan keyin Qur’onni kiyik terisidan bo‘lgan sahifalarga yozib chiqdilar va bog‘lab Abu Bakrning uyida saqlab qo‘ydilar. Bu «*suhuf*» - *sahifalar* deb nomlandi. Abu Bakr olamdan o‘tgandan keyin sahifalar Umar ibn al-Xattob uyiga, u olamdan o‘tgandan so‘ng, uning qizi - Payg‘ambar alayhis-salom ayollari Hafsada qoldi.

Vaqt o‘tishi bilan ko‘plab xalqlar musulmonlikni qabul qilishi natijasida musulmonlarning soni ko‘paya bordi. Turli tillar va shevalar o‘rtasida mavjud farqlarga ko‘ra Qur’onni qanday o‘qish kerakligi borasida ixtiloflar chiqa boshladi. Bu holatni ko‘rgan o‘sha vaqtda xalifalik qilgan Usmon ibn Affon (644-656) Hafsa binti Umardan Abu Bakr va Umar davridagi *suhuf*larni so‘rab olib undan nusxa ko‘chirishga buyruq beradi.

Xalifa Usmon ibn Affon topshirig‘iga binoan Zayd ibn Sobit barcha Qur’on suralarini yig‘ib, taqqoslab chiqib qaytadan Qur’on matnini jamlagan. Qur’onning birinchi rasmiy nusxasi 651 yil taqdim etildi. U asl nusxa hisoblanib yana uchta, ba’zi manbalarga ko‘ra yettita nusxa ko‘chirtirilib, yirik shaharlardan - Basra, Damashq,

Kufaga jo‘natiladi. «Imon» deb nomlangan asl nusxa esa Madinada, xalifa Usmon huzurida qoldi. Ko‘chirilgan nusxalar «Mushafi Usmon» deb ataldi.

Nusxalar tayyor bo‘lgandan so‘ng musulmonlar yashaydigan diyorlardagi markaziy shaharlarga bittadan nusxaga bitta qori qo‘shib jo‘natdilar va hammaga faqat Qur’onning shu nusxasidan ko‘chirishga buyruq beradi.

Mazkur Qur’on 5553 varaqdan iborat bo‘lib, varaqlar o‘lchami 68x53 sm., matn hajmi 50x44 sm.dir. Sahifalar kiyik terisidan ishlangan bo‘lib, har biriga 12 qatordan chiroyli *kufiy* xatida yozuv bitilgan. Ko‘p varaqlari yo‘qolgan va keyinchalik qog‘oz sahifalar bilan to‘latilgan.

Tataristonlik islom olimi Shihobuddin al-Marjoniyning (1818-1889) aytishicha, Qur’onni qayta tiklash Samarqandda joylashgan «Mug‘ak masjidi» imomi Abdurrahim ibn Usmon (vaf. 1838 y.) tarafidan bajarilgan.

Arab tarixchilarining xabar berishlaricha, xalifa Usmon Qur’onni mutoala qilib o‘tirganlarida o‘ldirilgan. U kishining qoni Qur’onga to‘kilgan. Shu tufayli ham Usmon Qur’oni asl nusxaligi va xalifa qoni to‘kilganligi bilan musulmon dunyosida muqaddas kitob hisoblanib, alohida e’tiborga sazovordir. Bizdagi, ya’ni Toshkent shahridagi Usmon Qur’onida ham qon izlari bo‘lib, shu nusxa xalifa Usmonga tegishli degan fikrlar mavjud.

Usmon Qur’oni ruslar O‘rta Osiyoni bosib olguncha Samarqandda, Xo‘ja Axror madrasasida saqlanar edi. Qur’onning Samarqandga keltirilishi haqida ham xalq o‘rtasida har xil rivoyatlar mavjud. Ulardan birida muqaddas kitobni Abu Bakr al-Qaffol ash-Shoshiy (976 yili vafot etgan, Toshkentda dafn qilingan) Bag‘doddan olib kelgan deb hikoya qilinadi. Avlodlar osha Abu Bakr Qaffol Shoshiy merosxo‘rlaridan Xo‘ja Ahror qo‘liga o‘tgan va u kitobni o‘zi qurdirgan madrasaga qo‘ydirgan. Ikkinchi bir rivoyatda esa Xo‘ja Ahror muridlaridan biri Makkadan haj qilib qaytayotganida Istambulga kiradi va borib Sultonni og‘ir hastalikdan davolaydi. Sulton minnatdorchilik bildirib, unga Qur’onni tortiq qiladi.

Bizning va arabshunos olimlarning fikricha bu Qur’on sohibqiron Temur tomonidan Basradan ko‘plab qo‘lyozma kitoblar va boshqa o‘ljalar bilan birga Samarqandga keltirilgan va mashhur Temur kutubxonasiga qo‘ydirilgan. Temuriylar davridagi o‘zaro kelishmovchiliklarda Temur kutubxonasi yondirilib yuborilgan. Tasodifan shu nusxa omon qolgan.

Qur’onni chuqur ilmiy taftish etgan Sankt-Peterburglik sharqshunos olim A.V.Shebunin fikricha, Qur’on Basradan Sohibqiron Temur tomonidan Samarqandga keltirilgan. chunki, Shebunin Parij, Berlin va Makkadagi boshqa nusxalariga solishtirib, bizdagi Qur’onning Basra nusxasi ekanligini isbotlab berdi. 400 yil davomida bu muqaddas kitob Samarqandda saqlanadi.

Ming afsuslar bo‘lsinkim, 1868 yilda rus askarlarining Samarqandga bostirib kirishi bilan xalqimizning moddiy, ma’naviy boyliklariga tajovuz boshlandi.

Albatta, bu tajovuzdan muqaddas hisoblangan qabr toshlari, maqbara ichidagi yodgorliklar ham, musulmonlarning shohona mulki Usmon Mushafi ham chetda qolmadi. Musulmonlar Qur’onini tezlikda bekitib Buxoroga jo‘natmoqchi bo‘ladilar. Biroq bu xabar Zarafshon o‘lkasining boshlig‘i general Abramov qulog‘iga yetib, «fan uchun bunday nodir, bebaho, qadimiy yodgorlikni qo‘ldan

chiqarmaslik uchun hamma chora ko‘rilsin» deb polkovnik Serovga buyruq beradi. Serov Qur’onni general Abramovga keltiradi. Abramov esa uni zudlik bilan Turkiston general-gubernatori K.N.Kaufmanga yetkazadi. U o‘z navbatida zudlik bilan 1869 yil 24 oktyabrda Peterburgga - Imperator kutubxonasiga alohida kuzatuvchilar bilan yuboradi.

Rus ishbilarmonlari qulay fursatdan foydalanib Qur’on tufayli boylik orttirish yo‘liga o‘tdilar. Masalan: 1895 yili 2000 nusxada Qur’onning bir varag‘i chop etildi. 1905 yili esa Ilyos ibn Ahmad Shoh «Yosin» surasining fotonusxasini chiqardi. SHu yili S.Pisarev Qur’onni faksimilda 50 nusxa chop etib, 25 nusxasini sotishga chiqardi. Har bir nusxasiga 500 so‘m baho qo‘yildi. U Qur’onni asl nusxasiga o‘xshatish uchun xajmini ham eskicha qoldirdi. Hozir faksimil nusxadan jumhuriyatimizda ikkita bo‘lib, biri O‘zbekiston musulmonlari diniy idorasining asosiy kutubxonasida, ikkinchisi - Temuriylar tarixi muzeyida saqlanadi.

Oktyabr to‘ntarishidan so‘ng Butunrossiya musulmonlar jamiyati nomidan Usmon To‘qumboyev RSFSR Xalq Komissarlari Sovetiga murojaat qilib, muqaddas Usmon Qur’oni o‘z egalariga, ya’ni musulmonlarning O‘lka s’ezdiga topshirilishini talab qiladi. RSFSR XKS tomonidan musulmonlarning talabi qondirilib, Qur’on ular ixtiyoriga beriladi. 1917 yil 29 dekabr kuni Peterburgdagi podsho kutubxonasining «nodir qo‘lyozmalar» bo‘limidan olinib, Butunrossiya musulmonlar jamiyati raisi U.To‘qumboev javobgarligi ostida Ufa shahriga jo‘natiladi. Qur’on 1923 yilgacha Ufada saqlanadi.

1923 yil 23 iyulda Butunittifoq Markaziy Ijroqo‘mi Usmon Qur’onini Turkistonga qaytarishga qaror qiladi. Muqaddas yodgorlikni Ufadan Toshkentga maxsus komissiya kuzatuvida olib kelinadi. 1923 yil 18 avgustda Toshkentdan Sirdaryo diniy idorasiga qarashli Xo‘ja Ahror jome’ masjidiga topshiriladi.

Muqaddas yodgorlikni o‘z eliga keltirish uchun Ufa shahriga maxsus komissiya yuborildi. Komissiya tarkibida Sultonxo‘ja Qosimxo‘jaev, sharqshunos olim, professor A.Z.Shmitd va din peshvolaridan 3 vakil bor edi. Komissiya maxsus vagonda, askarlar qurshovida, Qur’onni eson-omon Toshkentga keltirdilar. SHundan keyin Qur’on 1923 yil 18 avgustda Sirdaryo diniy idorasiga qarashli Xo‘ja Ahror jome masjidiga topshiriladi. Lekin ko‘p o‘tmay Qur’onni eski shahar muzeyiga keltiradilar va u maxsus po‘lat sandiqda saqlana boshlanadi. Eski shahar muzeyi Birinchi o‘zbek muzeyiga aylantirildi. Muzey 1926 yilning 1 yanvaridan ochildi. 1926 yilning faqat bir oyi ichida muzeyni 4000dan ortiq kishi kelib ko‘rgan.

Qur’onga Sharqning juda ko‘plab olimlari tomonidan turli tafsir(sharh, izoh)lar yozilgan. Qur’on XII asrdan boshlab Yevropa xalqlari tillariga, jumladan, lotin tiliga tarjima qilina boshlagan. XVIII asr boshlarida Evropa xalqlari tillaridan, XIX asr o‘rtalarida arabcha asl nusxasidan rus tiliga tarjima qilingan. G.S.Sablukovning arabchadan dastlabki tarjimasi Qozonda 3 marta (1878, 1894, 1907) nashr qilingan. Akademik I.YU.Krachkovskiy tomonidan amalga oshirilgan Qur’onning ilmiy izohlari bilan rus tilidagi adekvat (so‘zma-so‘z) tarjimasi mashhurdir. Bu tarjima uning vafotidan keyin 1962 va 1986 yillarda nashr etilgan.

Mamlakatimiz mustaqil bo‘lganidan so‘ng o‘zbek tiliga davlat maqomi berildi. Davlat ish qog‘ozlari, ko‘plab darslik va qo‘llanmalar o‘zbek tilida yozila boshlandi.

Shu qatori Qur’oni Karimni ham o‘zbek tiliga tarjima qilishga kirishildi. 1992 yilda Qur’on o‘zbek tiliga Alouddin Mansur tarafidan tarjima qilindi va «Cho‘lpon» nashriyotida ko‘p nusxada chop etildi.

Hadis – islomda Qur’ondan keyingi muqaddas manba sanalib, Muhammadning hayoti, faoliyati va ko‘rsatmalari, uning diniy, axloqiy dasturlari ham o‘z ifodasini topgan. Payg`ambar Muhammad (s.a.v.) biror gap aytgan yoki ma’lum ishni qilib ko‘rsatgan bo‘lsa, yoxud boshqalarning qilayotgan ishini ko‘rib, uni man etmagan bo‘lsa, shu uch holatning har biri hadis deb atalavergan. Ma’lumki, hadislarda islom ahkomlari, ya’ni farz, vojib, sunnat, mustahab, halol, harom, makruh, muboh kabi amal turlaridan tashqari, axloq-odobga doir dasturlar talqin etiladi. Unda xalq orasida keng tarqalgan axloq-odobga oid maqol, qimmatli hikmatli gaplar ham qamrab olingan.

Hijratning uchinchi asri hadisshunoslikning oltin davri deb ataladi. Islom olamining o‘sha davrdagi madaniy markazlaridan sanalgan Bog‘dod, Kufa, Basra, Damashq, Buxoro, Samarqand, Urganch, Termiz kabi shaharlarda hadis ilmi bilan shug‘ullanuvchi muhaddislar ko‘p bo‘lgan. Ular ichida eng ishonchli manba sanalganlari oltita bo‘lib, Bularni imom Buxoriy, imom Muslim, imom Abu Davud, imom At-Termiziy, imom An-Nasoiy va imom ibn Mojja tuzishgan. Bu buyuk muhaddislarning to‘rt nafari turonzaminlik bo‘lgani bizning faxrimizdir. 1998 yilda Imom Al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligi butun musulmon dunyosi, shu jumladan yurtimizda keng nishonlandi. Mustaqil O‘zbekistonda bu munosabat bilan xalqaro anjuman o‘tkazildi. Muhaddislik shu qadar sharafli va sermashaqqat ish bo‘lganki u muxaddisdan aql-zakovatni, kuch-kuvvat, fidoyilik yuksak iqtidor va hofizani talab qiladi. Masalan, imom Buxoriy jami 600 ming hadis to‘plab, shulardan 100 ming «Sahih» va 200 ming «g‘ayri sahih» hadislarini yod bilganliklari aytiladi.

Hadislardan:

Omonat qo‘ygan kishining omonatini o‘z vaqtida ado eting;

Xaqqingizga xiyonat qilgan kishiga siz xiyonat qilmang;

Qachonki bir gunoh qilib qo‘ysangiz, uni yuvish uchun orqasidan bir savobli ish qiling.

O‘zimdan keyin qoladigan ummatlarim uchun uch narsadan qo‘rqaman:

Nafsu havoga berilib, yo‘ldan ozishdan;

Nafsoniy va shahvoniy hissiyotga berilib ketishidan;

Ilmu ma'rifatga ega bo‘la turib g‘ofillarning ishini tutishidan;

Beshta narsadan oldin beshta narsani g‘animat biling:

O‘limdan avval tiriklikni, betoblikdan avval salomatlikni, bandlikdan avval bo‘sh vaqtni, keksalikdan avval yoshlikni, faqirlikdan oldin boylikni.

Avvalo onangga, yana onangga va yana onangga, so‘ng esa otangga yaxshilik qil.

Ota-onalarning keksalik vaqtida har ikkisini, yoki biri bo‘lmaganda boshqasini rozi qilib jannatiy bo‘lib olmagan farzand xor bo‘lsin, xor bo‘lsin va yana xor bo‘lsin.

Pora beruvchi ham, uni oluvchi ham do‘zaxga mahkumdir. Hadisi muborakdan keltirilgan ushbu misralarning ma'naviy jihatlariga izoh berishning hech bir hojati yo‘q. Islomda ilm-fanni egallash, ma'rifatli bo‘lish juda katta savobli ish ekani qayta-qayta ta'kidlanadi. Beshikdan to qabrgacha ilm izlash lozimligini qayd qilinishinish o‘zi katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Hadislardlgi «Sadaqaning afzali mo‘min kishi ilm o‘rganib, so‘ng boshqa mo‘minlarga o‘rgatishdir», «Ilm ibodatdan afzaldir» kabi fikrlar tahlilga muxtoj emas.

Qur'oni karimda «Ilm» so‘zi asosida «Alima» - bilmoq fe'l negiziga tayangan kalimalar 750 marotaba uchrashi ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan. Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomga ilk nozil bo‘lgan oyat ham «Ikra...» «O‘qi» so‘zidan boshlanadi.

Rivoyat qilishlaricha, Abu Ali Ibn Sino bilan mashxur shayx Abusaid Abulxayr uchrashibdilar. Ular bir kecha bir-birlariga hech narsa demay «suhbatlashib» chiqibdilar. Ertalab Shayxning shogirdlari undan Ibn Sino haqida nima deysiz, deb suraganlarida, Abusaid Abulxayr: «Men nimaiki vajd (intuiqiya) bilan bilgan bo‘lsam, u aql bilan bilib olgan», debdi. Ibn Sino esa o‘z shogirdlariga: «Men nimaiki aql bilan bilgan bo‘lsam, u ko‘ngnil bilan idrok etadi», deb aytgan ekan. Ko‘rinadiki, Ibn Sino dunyoviy ilmlar olimi, Abusaid Abulxayr esa - tasavvuf shayxi, ilohiyot olimi. Ammo ular bir-birini tushungan va har ikki ilm ham kerakligini anglaganlar.

Mirzo Ulug‘bek bilan Xo‘ja Ahror Valiy zamondosh, bir shaharda yashaganlar. Ulug‘bek - munajjim va shoh, uning shogirdlari aniq fanlar vakillari. Xo‘ja Ahror esa mu'tabar din arbobi, ruhoniy zot. Ammo ular bir-birlariga halaqit bergan emaslar, aksincha, biri ilmiy ma'rifatni, ikkinchisi bo‘lsa ruhoniy ma'rifatni rivojlantirib, bir-biriga ko‘mak berganlar.

Gap hoh diniy, hoh dunyoviy ma'rifatni to‘g‘ri va chuqur anglashda, har ikkovini ham egallamay nodon, johil bo‘lib qolmaslikdadir.

Har ikki ilmni egallagan kishi ikki dunyosini obod qiladi.

Islom bu faqat aqida emas, avvalo, ma'rifat, ilmdir: Islom tarixiga nazar tashlasak Muhammad payg‘ambarimizgacha bo‘lgan davr arablarda «johiliya» davri deb ataladi. «Johiliya» nodonlik davri degani. Islom ana shu nodonlik davri o‘rniga keng ma'noda ma'rifat, madaniyat vujudga keltirdi, ilm-fan, falsafa, adabiyot va san'atni rivojlantirdi, o‘ziga xos ma'naviyat va ma'rifatni yaratdi. Bizning ulug‘ bobolarimiz islom ma'naviyati va ma'rifati taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shib, kalom ilmi, fiqh, tasavvuf ta'limotini rivojlantirdilar.

ISLOM TA'LIMOTI.

Islom ta’limoti. Islom ta’limoti uning muqaddas kitobi – Qur’oni Karimda bayon etilgan. Islomning aqidalari, e’tiqod talablari, huquqiy va axloqiy me’yorlari, cheklash va taqiqlari Qur’on bilan birga uning tafsirlarida, hadis

to‘plamlari va shariat qo‘llanmalarida, islohiyot adabiyotlarida o‘z ifodasini topgan.

Islom dinining asosiy aqidasi “Allohdan boshqa hech bir iloh – yo‘q Muhammad Allohning eslchisidir”.

Qur’on tilida esa: “La Ilaha Illallohu Muhammadur Rasulluloh”. Bu kalimai tavhid deyiladi. “Guvohlik beramanki, bir Allohdan boshqa iloh yo‘q va yana guvohlik beramanki, Muhammad Allohning bandasi va rasuli(elichisi) dir”. Qur’on tilida “Ashhadu anna ilaha illalohu va ashhadu anna Muhammadan abduhu va rasuluh”. Bu kalimai shahodat deyiladi.

Islom diniga kirish, musulmon bo‘lish uchun yuqoridagai ikki iymon kalimasini tili bilan aytmoq va qalban, chin dildan ishonib tasdiqlash lozim. Buni iymon keltirish deb yuritiladi.

Bu ikki kalimani keltirish iymonning ilk bosqichidir. Iymonning yana qolgan olti bosqichi-sharti bo‘lib, musulmon kishi yana shularga ishonmog‘i va ularga amal qilib yashamog‘i ham shart hisoblanadi.

Sunniylikda iymon talabalari 7 tadir. Bular:

1. Allohning yakkay-u- yagonaligiga ishonish, faqat ungagina sig‘inish, e’tiqod va ibodat qilish.
2. Allohning farishtalariga ishonish.
3. Allohning barcha ilohiy, muqaddas kitoblariga ishonish.
4. Allohning barcha payg‘ambarlariga ishonish
5. Taqdirga, uning ilohiyligiga ishonish .
6. Ohiratga, qiyomat qoyim bo‘lishiga ishonish.
7. Qayta tirilishga ishonish.

Ana shu yetti shart , e’tiqod talablari – iymonning to‘liq asosi, ustuni sanaladi. Islomga e’tiqod qiluvchi har bir kishi tili bilan – “Iymon keltirdim Allohga, uning farishtalariga, kitoblariga, payg‘ambarlariga, taqdiriga, qiyomat kuniga va o‘lgandan keyin qayta tirilishga” , deb aytmog‘i va bunga dili bilan ishonmog‘i lozim. Endi shular haqida qisqa to‘xtab o‘tamiz. Alloh- dunyodagi barcha mavjudotlarni yaratgan. Olamda yuz bergan va beradigan barcha voqea va hodisalar Alloh tomonidan belgilangan va uning irodasi bilan sodir bo‘ladi. Allohni hech kim bor qilgan emas u o‘zidan o‘zi bordir. Alloh birdir. Yakkadir,yolg‘izdir. U biluvchidir , u bilmaydigan biror bir ish yo‘q. U har ishga qodirdir, hamma narsani ko‘ruvchi va eshituvchidir. Alloh bildiruvchi, tarbiya qiluvchidir. Allohda hech qanday nuqson va kamchilik yo‘qdir. U hamma yerda hozir. Alloh yemaydi, ichmaydi, kasal bo‘lmaydi.

Har bir musulmondan Allohning ana shunday qudratiga ishonmoqlik talab etiladi.

Farishtalar- Allohning nihoyatda itoatli, hech bir gunohsiz, nurdan yaratilgan, odamlar ko‘ziga ko‘rinmaydigan bandalaridir. Ular Allohning buyurgan ishlarini bajaradilar. Ularda erlik, ayollik, tug‘ish, tug‘dirish, yeyish-ichish, uxlash kabi hususiyatlar yo‘q. Farishtalarning eng mashhurlari-Jabroil, Mikoil, Isrofil, Azroildir.

Payg‘ambarlar Alloh tomonidan bandalariga din hukmlarini o‘rgatmoq uchun yuborilgan elchilardir. Ular aqlli, ziyrak, to‘g‘ri , itoatli bo‘lib odam bolalaridan chiqadilar. Ular Alloh tomonidan buyurilgan din va shariat hukmlarini bandalariga yetkazadilar, ularni haq dinga, yaxshi ishlarga va’z, nasihat bilan chaqiradilar. Qur’oni karimda 25 payg‘ambarni ismi keltirilgan. Payg‘ambarlar 2 hilga bo‘linadilar: 1. Rasullar; 2. Nabiylar.

Alloh tomonidan o‘zlariga alohida kitob va shariat berilgan payg‘ambarlar rasul deb ataladilar. Barcha payg‘ambarlardan 8 nafari: Odam, Idris, Shis, Ibrohim, Muso, Dovud, Iso va Muhammad rasul payg‘ambarlardir.

O‘zlariga mahsus kitob va shariat berilmay, bir rasulga berilgan kitob va shariat asosida ish qilishga buyurilgan payg‘ambarlar nabiy deyiladi. Nabiylar rasul bo‘lolmaydi. Rasullarning har biri ayni paytda nabiy ham hisoblanadilar.

Muqaddas kitoblar – har bir zamonning o‘ziga yarasha din va muomala hukmlarini bayon etib, o‘sha zamonning payg‘ambarlariga vahiy qilib yuborilgan kitoblardir. Alloh o‘z payg‘ambarlariga 100 sahifa – Odam , Shis, Idris, Ibrohimga; 4 kitob esa Muso, Dovud, Iso va Muhammadga yuborgan.

Ohirat – narigi dunyo, o‘lgan bandalarning Alloh qudrati bilan tirilishi va Alloh tayin qilgan yerga yig‘ilish kuni. Yig‘iladigan joyning nomi “Mashhur yeri”, kuni esa “Qiyomat kuni” deb ataladi. Bu kuni bandalarning bu dunyoda qilgan yaxshi, savob yoki gunoh ishlariga yarasha hukm chaqiriladi.

Taqdir – Alloh tomonidan har bir bo‘lgan va bo‘ladigan ishlarning bo‘lmog‘ini azaldan, oldindan tayin belgilab qo‘yilishidir. Buni bizda peshonasiga yozilgan ham deyiladi.

Islom dinida “Islom arkonlari” degan tushuncha ham mavjud. U quyidagi besh asosdan, ustundan iborat : 1. Iymon; 2. Namoz; 3. Ro‘za; 4. Zakot; 5. Haj. Yuqoridagilar har bir musulmon uchun farz qilib belgilangan. Bulardan tashhari janoza, sunnat, nikoh va qurbonlik qilish kabi muhim marosimlari ham mavjud.

Islom dini bayramlariga – Ramazon hayiti, Qurbon hayiti, mavlud va boshqalar kiradi.

Iymon – yuqorida aytilgan Allohdan o‘zga iloh yo‘qligiga va Muhammad uning bandasi va rasuli ekanligiga ishonmoq va e’tiqod qilmoqlikdir.

Namoz – kuniga 5 mahal o‘qilib, kishida doimiy diniy kayfiyatni saqlashning muhim vositasidir. Namozlar - farz, sunnat, vojib kabilarga bo‘linadi.

Ro‘za – kun chiqishdan to kun botishga qadar yemoq va ichmoqlikdan tiyilmoq va shunga niyat qilmoqlikdir. Ro‘za har bir sog‘lom musulmon uchun farz ibodati sanaladi. U hijratning ikkinchi yili Madinada farz qilingan.

Zakot – mol-mulki shariat belgilagan miqdorga yetganda yilda bir marotaba ulardan qirqdan birini, y’ani 2.5 foizini beva-bechoralarga, miskinklarga, ilm toliblariga va boshqa muhtojlarga berilishi shart bo‘lgan Allohning haqi.

Haj – ham jismoniy, ham ma’naviy, ham moddiy ibodat. Haj – kabatullohni tavof qilmoq, Safo va Marva tog‘lari orasida yugurmoq, Arofat tog‘ida bo‘lmoq va zarur marosimlarni ado etmoq uchun Makka shahriga ziyoratga bormoqlikdir.

Hajning shartlari quyidagilar;

1. Islom dinida bo‘lish;

2. Balog‘atga yetgan bo‘lish;
3. O‘qil bo‘lish
4. Ozod bo‘lish
5. Qodir bo‘lish

Islomning ana shu besh amali har bir musulmonga bajarish uchun farz qilingan. Yuqorida bayon qilinganlar Islom ta’limotining asosini tashkil etadi.

Islom dinidagi asosiy yo‘nalishlar va mazhablar

Islom dinida ilk davrdan paydo bo‘lgan eng birinchi yirik muammo – oliy hokimyatni egallashga payg‘ambardan keyin kim haqliroq, degan muammo bo‘ldi. Halifa Ali bilan ummaviylar o‘rtasidagi taxt uchun kurashda VII asrning ikkinchi yarmi boshlarida horijiylarida horijiylar (arabcha – ajralib chiqqan, isyonchi) oqimi ajralib chiqqan. Ali Muoviya taradorlari bilan oily hokimyatga vorislik masalasida muzokara olib borishga ko‘ngan. Bu xol Ali haqiqiy vorislik huquqiga ega, deb hisoblangan tarafdorlarning o‘rtasida norozilik tug‘dirgan. Qo‘shinning bir qismi (12 ming kishi) halifa Alini kelishuvchilikda ayblab, undan ajralib ketdi. Ajralib chiqqan qo‘shin Aliga ham, ummaviylarga (muoviya tarafdorlari) ham bab-barobar qarshi kurashganlar. Horijiylar harakati arablar tomonidan bo‘ysundirilgan Iroq va Eron aholisi, oddiy arab musulmonlar manfaatini ifodalagan. Ular o‘zlarini haqiqiy musulmon hisoblab, “dindan qaytgan” deb e’lon qilingan siyosiy va g‘oyaviy raqiblarga nisbatan murosasiz bo‘lganlar.

Horijiylik yo‘nalishi ta’limoti halifa diniy jamoat tomonidan saylanadi va unga bo‘ysunadi; har qanday taqvodor musulmon (hatto qo‘l yoki habash bo‘lsa ham) halifa bo‘lib saylanishi mumkin; agar halifa jamoat manfaatlarini himoya qilmasa vazifasidan bo‘shatiladi hatto qatl qilinadi.

Horijiylar e’tiqod amaliy faoliyat bilan mustahkamlanishi lozim deb hisoblaganlar. Ular e’tiqodsiz va gunohkor kishilarni jazolash muddatini kechiktirishga qarshi turganlar. Diniy masalalarda islom “musaffoligi” tarafdori bo‘lib, shariat ko‘rsatmalariga qat’iy rioya qilishlari bilan ajralib turganlar.

Xorijiylar. (Al-xavorij) Bu oqimning nomi, «chiqing», «qarshi bo‘lish», «isyonchilar» ma'nolarini anglatuvchi arabcha «haraja» so‘zidan olingan. Bu oqim islomdagi ilk sektalardan hisoblanadi. Islom olamini 1% ni tashkil etadi. U Ali bilan Muoviya o‘rtasida xalifalikning oliy lavozimini qo‘lga kiritish uchun olib borilgan keskin kurash jarayonida paydo bo‘lgan.

Xorijiylar 661 yili Alini o‘ldirishgan. Muoviya hukmronligi yillarida (661-680) va undan kyoyin xorijiylarning yirik qo‘zg‘alonlari bo‘lib o‘tgan.

Ummaviy va abbosiy halifalar VII – IX asrlarda Horijiylarga qarshi keskin urush olib bordi. Buning natijasida ular qirib tashlandi. Horijiylarning qolganlari Shimoliy Afrikada o‘z davlatini vujudga keltildi. Hozirgi davrda horijiylarning ibodiy firqasi Jazoir, Tunisda uchraydi. Bugungi kunda Islom dinida sunniylik va shialik yo‘nalishlari amal qilib kelmoqda.

Sunniylik deb, diniy qonun-qoida va tartibotlarga amal qilishda Qur’oni karim va payg‘ambarimiz hadislari – “Sunna” ga birdek amal qiluvchilarga aytiladi. Sunniylik yo‘nalishi “Ahli sunna val jamoa” deb aytiladi. Bu nomda

Payg‘ambarning sunnatiga amal qilish va musulmonlarning asosiy ko‘pchilik jamoasi ma’nolari aks etgan.

Jahonda jami 1,2 milliarddan ko‘proq musulmonlarning 92,5 foizni sunniylik yo‘nalishdagilar tashkil etadi. Shialik yo‘nalishi y’ani ja’fariya mazhabidagi musulmonlar 7,5 foizdan iborat halos.

Sunniylikka mansublikni bildiruvchi asosiy belgilar quyidagilardir. Dastlabki to‘rt halifa (Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali) hokimyati qonuniy ekanligi tan olish, oltita hadis to‘plami (al- Buhoriy, Muslim, at-Termiziy, Abu Dovud, an-Nasoiy, Ibn Moja to‘plamlari) ni sahih (ishonchli) deb bilish sunniylikdagi to‘rt diniy-huquqiy mazhab – hanafiylik, molikiylik, shofi’iylik, hanbaliylikdan birga mansub bo‘lishdan iborat.

Sunniylikdagi eng yirik mazhab Hanafiya bo‘lib, unga ergashganlar jahondagi musulmonlarning 47 foizni tashkil etadi. Bu mazhabning asoschisi Abu Hanifa Nu’mon ibn Sobit (699-767) dir. U Iroqning Kufa shahrida tug‘ilgan, kelib chiqishi jihatdan forslardan. Abu Hanifa Shariat huquqlarini tizimga solgan. Shariyat qonunlarini musulmonlarini musulmonlar hayotiga qo‘llashda, hukm chaqirishda, hulosaga kelishda avvalo Qur’oni karim so‘ngra payg‘ambar sunnatlari – hadislarni, undan keyin iymonni,undan so‘ngra qiyosni qo‘llagan. U mahalliy huquq, me`yor, odatlarni shariat bilan kelishtirib qo‘llashni joriy etgan. Islom huquqshunosligiga aql-idrok, mulohazakorlik bilan ish ko‘rish tadbirlarini kiritgan. Bu yo‘lni Imom A’zam yo‘li deb ham yuritiladi.

Sunniylikdagi ikkinchi mazhab moliyliklikdir. Uning asoschisi Molik ibn Anas Abu Abdulloh (713-795) dir. Islom huquqini puxta egallab, “Madina imomi ” unvoniga sazovor bo‘lgan. Molik ibn Anas biror siyosiy siyosiy oqimga ergashmagan, hokimyatning saylab qo‘yilishi qoidasini afzal bilgan, lavozimlarga ma’muriy tayinlanishlariga qarshi bo‘lgan. Moliykiylik mazhabidagilar Qur’on va Hadis huquq asoslari sanaladi deb hisoblaganlar. Ular payg‘ambarga oid hadislarnigina sahih deb tan oladilar. Madinaning savodli aholisi yakdillik bilan ma’qullagan qoidalarnigina ijmo‘ deb hisoblaydilar. Hozirda jahondagi musulmonlarning 17 foizi molikiylik mazhabidadir.

Sunniylikdagi uchinchi diniy- huquqiy mazhab – shofiylik bo‘lib , uning asoschisi Abu Abdulloh Muhammad ibn Idris ibn Abbos ash-Shof’iy (767-820) Shof’iylik Qur’on va Sunnaga yagona manba sifatida haraydi. Shofiylikka ko‘ra, sunna Qur’onni to‘ldiradi, halos, sunnaning o‘zi qiyoslab o‘rtacha hukm chiqarish uchun asos bo‘lolmaydi. Ular ijmo‘dan foydalanishga katta e’tibor beradilar. Hozirda 27 foiz musulmonlar shof’iy mazhabi yo‘lidan bormoqdalar.

Sunnalikdagi turtinchi mazhab Hanbaliyadir. Uning asoschisi Abu Abdulloh Ahmad ibn hanbal (780-855) dir. Bu mazhab huquq tizimining o‘ta torligi, har qanday ko‘rinishdagi “yangilik”qadimiy masalalarda erkin fikr yuritishga qarshiligi, shariat me’yorlariga qat’iy, hech qanday o‘zgarishsiz amal qilishi bilan ajralib turadi.Mazkur mazhabda Qur’oni karim va hadislarni erkin talqin etishdagi har qanday urinishlar qoralanadi. Hozirda barcha musulmonlarning 1,5 foizi hanbaliya mazhabidadir.

Sunniylikdagi yuqorida qayd etilgan to‘rttala mazhab teng hisoblanadi. Bu mazhablar diniy huquq doirasida chiqmagan holda shariat maslalarida yengilroq yoki qattiqroq hukm chaqirishi bilan bir-biridan farq qiladi. Bizning yurtimizda azaldan fiqhda hanafiylik, aqidada esa moturidiylik ta’limotlariga amal qilib kelinadi.

Islom dinidagi yo‘nalishlardan yana biri Shialikdir. Shia- arabcha so‘z bo‘lib, ma’nosi ”guruh” , “tarafdor” demakdir. Shialikdagi “ja’fariya” mazhabi Islomdagi beshinchi diniy-huquqiy mazhab sanaladi.

Shialik aslida guruhlar o‘rtasida hokimyat uchun kurash oqibatida vujudga kelgan bo‘lsa ham, keyinchalik diniy ta’limotidagi tafovut shaklida barharorlashgan.

Shialik sunniy kabi Qur’oni karimni ilohiy deb e’tirof etadilar, ammo dastlabki uch halifa davrida uning ayrim qismlari tushurib qoldirilgan, deb hisoblaydilar. Ular yana Payg‘ambar hadislarining hammasini e’tirof etmaydilar, balki faqat Hazrat Ali va uning tarafdorlari tomonidan rivoyat qilingan hadislarnigina tan oladilar. Ular shunday hadislardan iborat to‘plam tuzganlar. Bu to‘plam umumiy nom bilan “Ahbor” deb ataladi.

Shialar Ali va uning avlodlaridan iborat 12 imom hokimiyatini tan oladi. Alidan boshqa halifalarni, hususan dastlabki halifalar Abu Bakr, Umar,Usmonni hokimyatni zo‘ravonlik bilan egallab olgan deb qoralaydilar.Sunniylikda e’tirof etilgan 7 ta diniy aqidalardan farq qilib, shialikda 5 ta aqidaga e’tiqod qilinadi. Bulardan 4 aqida – Allohning yagonaligi, taqdirga, payg‘ambarlarga, qiyomat-ohirat kunining kelishiga ishonish asosan sunniylik ta’limoti bilan mos tushadi. 5 – aqida Imomat esa (imomlar hokimyatini e’tirof etish) sunniylikka va sunniy halifalar hokimyatiga zidligi bilan farq qiladi. Sunniylar uchun Makka va Madina shaharlari ziyorat va hajga boradigan muqaddas shahar hisoblanadi. Shialar esa Makka va Madinani muqaddas hisoblash bilan birga imomlar dafn etilgan shaharlarni ham muqaddas hisoblaydilar va ziyorat qiladilar.

Shialar ohirgi 12 – imom – Muhammad al – Mahdiyni yashiringan deb hisoblab, uning qaytib kelishini kutish ular orasida saqlanib kelmoqda. Go‘yo imom Mahdiy ohirzamonda kelib, Iso bilan birga Dajjol, ya’juj-ma’juj va boshqa kofirlar bilan urushib, ularni Yengib, qiyomat qoyim bo‘lishidan avval Yerda adolat o‘rnatadilar deb ishonadilar. Shialar Imom Husaynga motam tutadilar. “Shahsey-vahsey” (“Shoh Husayn, voh Husayn”) deb qichqirib, o‘zlariga ozor berib ko‘chalarga chiqadilar.

Islom davlatlari kengayib borishi va islom dinini qabul qilishi oqibatida aqidaviy masalalar ham murakkablashib ketadi . Buning ustiga turli tomonlardan musulmonlar aqidasini buzishga urinish va tanqid qilish ham avj oladi. Ana shunday sharoitda sunniylik aqidasi va fikrlarini ilmiy asosda jamlash va tartibga solinishni davr taqozo etdi. Bu ishni musulmon olamining ikki yirik aqoid olimi-Abu Masrur al- Moturidiy as-Samarqandiy va Abul Hasan al-Ahs’ariy amalga oshirdilar. Shu tariqa islom dinida aqidaviy masalalarni izohlash, tushuntirishda Movarounnahrda Moturidiya maktabi, Iroq va Eron tomonlarda Ash’ariya maktabi

IX-X asrlarda shakllandi. Moturiylik ashariylikdan o‘nlab aqidaviy masalalarda farq qiladi.

Kalom ilmi. «Kalom» so‘zi arab tilida gap, suhbat, til, so‘zlashuv, nutq va bayon ma’nolarini anglatadi. Istilohiy ma’noda esa, musulmon kishining e’tiqodi, aqidasi va dunyoqarashini belgilab beradigan ta’limotga aytiladi. Boshqacha aytganda, balog‘atga etgan kishining e’tiqodi, imon keltirishi, islom dinining talablari shaklida tasdiqlashi shar’iy e’tiqodiy hukmlarga aytiladi. Islom ta’limoti bo‘yicha barcha payg‘ambarlarning Allohga imon keltirishga da’vatlari eng asosiy vazifalari deb qaralgan. Shunday bo‘lsada, ularning tutgan shariat yo‘llari turlicha bo‘lganini alohida ta’kidlash kerak.

Islom ta’limotini Muhammad (alayhis-salom)dan bevosita sahobiylar o‘rganib, o‘zlaridan keyingi tobeiylarga etkazishgan. O‘z navbatida ular ham o‘zlaridan keyingilarga etkazgan. Shu tariqa islom ta’limoti sof holda hozirgi kungacha etib kelgan. Biroq tarix mobaynida odamlar mavjud diniy matnlarni turlicha talqin qilishlari natijasida turli oqimlar va toifalar paydo bo‘lganini ko‘ramiz. Ayni din masalasida yuzaga kelgan noto‘g‘ri tasavvur va tushunchalar xato ekanini ko‘rsatib beradigan olimlar ham paydo bo‘lib, ular islom ta’limotini to‘g‘ri tushuntirib beradigan fanga asos soldilar. Mazkur fanni turli davrlarda «al-fiqh al-akbar», «tavhid», «aqida», «kalom», «usul ad-din» kabi bir qancha nomlar bilan ataldi. Shundan ma’lum bo‘ladiki, nomlar turlicha bo‘lsa-da, ularning hammasi bir mavzuni, ya’ni aqida ilmini o‘rganish va tadqiq etishga qaratilgan.

«Al-Fiqh al-akbar» atamasini birinchi bo‘lib imom Abu Hanifa qo‘llab, ayni shu mavzuga bag‘ishlab bir risola yozadi. Chunonchi, «fiqh» so‘zi biror narsani har tomonlama o‘rganib, uning daqiq qirralarigacha fahmlab etish ma’nosini bildiradi. Shuningdek, namoz, ro‘za, haj, nikoh va boshqa amaliy hukmlarni o‘rganuvchi ilmni ham fiqh deb ataladi. Shuning uchun aqidaviy masalalarni o‘rganuvchi ilmni «Al-Fiqh al-akbar», ya’ni «katta fiqh», amaliy fiqh ni esa kichik fiqh deb yuritiladigan bo‘lgan. Yana bir «usul ad-din»da shariat va dindan olingan e’tiqodiy hukmlarni o‘rganilib, dindagi asl hukmlarni tadqiq etiladi. Bir qator olimlar shu nom ostida o‘z kitoblarni ta’lif etganlar. «Tavhid» ilmida Allohning yagonaligini va uning sifatlarini o‘rganishga e’tibor beriladi. Bu ilm asosida Alloh taoloni yakkayu yagona deb bilib, uning sifatlarini sharhlab tushuntirishga ko‘proq ahamiyat beriladi. Zero, musulmon kishi aqida borasida o‘ziga zarur bo‘lgan dastlabki bilimga ega bo‘lishi kerak. Bu dastlabki ilm Alloh taoloning vahdoniyati, ya’ni yakkayu yagonaligiga imon keltirish va uni o‘rganishdan iborat. Yana bu atama «kalom ilmi» deb yuritiladi. Islom diniga oid manbalarda uni aqida ilmining eng mashhur nomlaridan biri sifatida keltiriladi.

Islom ta’limotini o‘rganishda eng ko‘p qo‘llangan atama «aqida» (ko‘p. aqoid) bo‘lib, bu nom boshqalaridan keyinroq, X asrda paydo bo‘lgan. «Aqida» so‘zi bir narsani ikkinchisiga «mahkam bog‘lash» ma’nosini beradi. Islom aqidasi musulmon kishini muayyan tushunchalar bilan mustahkam bog‘lab turadigan aqidalar yig‘indisi hisoblanadi. Ya’ni, biror narsaga e’tiqod qilish uchun uni hech qanday shubha qoldirmaydigan darajada juda yaxshi bilish kerak. Muayyan bir fikrni inson fikriga aylanib, his-tuyg‘ulari va xatti-harakatlarini boshqaradigan

holga etgandagina aqidaga aylangan, deb tan olinadi. Aqida ilmi to‘g‘ri, sog‘lom va sof e’tiqodda bo‘lishni ta’minlashga qaratilgan. Dindagi ayrim shar’iy hukmlar makon va zamon taqozosiga ko‘ra, muayyan darajada o‘zgarishga uchrashi mumkin. Ammo musulmon olimlar o‘z asarlarida sof va mustahkam e’tiqod hech qachon o‘zgarishga uchramasligini ta’kidlab o‘tganlar. Chunonchi, Alloh taoloning yakkayu yagonaligi, farishtalar, jannat va do‘zaxga imon keltirish kabi e’tiqodga oid qarashlar zamon va makonga qarab hech qachon o‘zgarmaydi. Inson aqidasi to‘g‘ri bo‘lmasa uning insoniy fazilatlari ham to‘g‘ri hisoblanmaydi. Shu nuqtai nazardan aytish kerakki, musulmon kishining tutgan aqidasi pok bo‘lsa, uning tutgan yo‘li ham to‘g‘ri bo‘ladi, qilgan barcha amallari ijobat bo‘ladi va bandalik tufayli sodir etgan ba’zi gunohlari afv etiladi. Biroq kishining aqidasi sof bo‘lmasa, unda biron xatolik bo‘lsa, tutgan yo‘li ham noto‘g‘ri bo‘ladi, hayot davomida qilgan amallari behuda ketadi. Aqida ilmi islom dinining asosini tashkil etadi. Shu bois ham So‘fi Allohyor:

Aqida bilmagan shaytona eldur,

Agar ming yil amal deb qilsa, eldur! -deb, bu ilmning ahamiyatiga alohida ishora qilgan edi.

Ushbu hikmatli bayt bugungi kungacha o‘z qadrini saqlab kelmoqda. E’tiqodi buzuq kishilar tarixda ham, hozirda ham shaytonga el bo‘lib, unga ergashib, uning izmida yurishda davom etmoqda. Ular o‘zlarining adashgani etmaganidek, boshqalarning e’tiqodlarini izdan chiqarishi o‘ta xatarlidir.

Aqida mavzusi o‘ta hassos bo‘lganidan er yuzidagi eng birinchi payg‘ambardan boshlab, oxirgi Muhammad payg‘ambar (alayhis-salom)gacha Alloh toloning o‘zi e’tiqodiy masalalar bo‘yicha ko‘rsatmalarini bergan. Shuning uchun aqidaviy qarashlarning asosi Qur’oni karim va hadisi shariflarda keltirilgan va muayyan tartibga solingan. Sahobiylarning tiriklik paytidayoq odamlar o‘rtasida aqidaviy qarama-qarshilik va kelishmovchiliklar yuzaga kelganini ko‘rish qiyin emas. Islom dinida aqidaviy ixtiloflar to‘rtinchi xulafoi roshidin Alining qo‘shnidan ajrab chiqqan, aqida masalasida bir necha shubhali savollarni o‘rtaga tashlagan xorijiylar tufayli boshlandi. Ular Hazrati Ali va Abdulloh ibn Abbos (r.a.) bilan aqida masalasida ixtilofga borishdi.

Sahobiylar davri tugaganidan keyin tobeiylar davriga kelib vaziyat yanada keskin tus oldi. Chunki bu davrda din ilmlarini, ayniqsa, aqidani biluvchi kishilar oldingiga nisbatan ancha kamayib, sof aqidaviy qarashlarga qarshi turli botil g‘oyalarni ilgari surgan firqa va toifalarning tarqalishi avj oldi. Ular o‘zlarining islomga yot bo‘lgan fikr va qarashlari, e’tiqodlarini ommaga tarqatib, to‘g‘ri aqidani noto‘g‘ri talqin qilish yo‘lidan bordilar. Shuningdek, yangi egallangan yurtlardagi xalqlarning islomdan oldingi diniy qarashlari va falsafalari, o‘z tushunchalari va tafakkur yo‘llari mavjud bo‘lgan. Shu sababdan ularning islom ta’limotini tushunib olishlari juda qiyin kechganiga tarixiy dalillar guvohlik beradi. Binobarin, Qur’on oyatlari va hadislarni ba’zi vaqtlarda o‘zlarining islomdan oldingi ta’limotlari andozasiga solish holatlari uchraydi. Islom diniga yot bo‘lgan turli guruh va jamoalarning uni buzib talqin qilish natijasida ularga raddiya sifatida olimlar kalom, ya’ni aqida ilmiga asos soldilar. Shu tariqa bu ilm turi musulmonlar

uchun zarur sohaga aylandi. Zero, har bir musulmon to‘g‘ri aqidani bilishi shart deb hisoblanadigan bo‘ldi. Mashhur mutakallim olim Sa’duddin Taftazoniy «Maqosid at-tolibin» asarida: «Kalom ilmi diniy aqoid usullarini ishonchli dalillar asosida anglashni o‘rgatadigan ilmdir. Shu ilm tufayli shar’iy, nazariy, aqidaviy masalalar hal qilinadi. Uning natijasi imonga komil ishonch bilan ziynat berish, foydasi esa bu dunyoda tartibli hayot kechirish va oxiratda azob-uqubatdan xalos bo‘lishdir. Shunday ekan, kalom ilmi eng sharafli ilmdir», deb keltiradi. Hujjatul islom Abu Homid G‘azzoliy o‘zining «Ihyo ulum ad-din» nomli asarida: «...Chuqur bilimga ega bo‘lmagan oddiy musulmonlarning diniy e’tiqodlarini turli bid’at va noto‘g‘ri g‘oyalardan saqlash uchun kalom ilmini o‘rganish vojibdir», deb keltiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, aqoid yoki kalom ilmining vazifasi: a) diniy e’tiqodlarni qat’iy dalillar bilan isbotlash va ular haqidagi Shubha hamda gumonlarni rad qilish; b) insonni aqidada oddiy taqlidchi bo‘lishdan har bir e’tiqodga hujjat keltira olish darajasiga ko‘tarish; v) islomning sof e’tiqodlarini adashgan zalolat ahlining Shubha va gumonlaridan himoya qilish.

Moturidiylik va ash’ariylik. Mutakallimlar Qur’on oyatlari, hadislar va sahobiylarning tutgan yo‘li asosida aqida masalalarini mufassal bayon etib berganlar. Aqida borasida faoliyat olib borgan olimlar orasida Abu Mansur Moturidiy va Abul Hasan Ash’ariy alohida o‘rin egallaydi. Bu olimlar Ahli sunna val jamoa aqidasi bo‘yicha Imom deb tan olindilar. «Ahli sunna val jamoa» to‘rt fiqhiy mazhabdan biriga amal qilib kelayotgan bo‘lsalar, aqidaviy masalada moturidiylik va ash’ariylikning aqidaviy ta’limiga asoslanadi. Bunga ko‘ra, hanafiy mazhabi moturidiylik, molikiy, shofeiy va hanbaliy mazhabi ash’ariylik ta’limotida deb qaraladi. Shu o‘rinda bu ikki maktab vakillari haqida biroz ma’lumot berib o‘tish o‘rinlidir. Moturidiylik aqidaviy maktab asoschisi buyuk kalom imomi va fakih Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud Hanafiy Moturidiy Samarqandiy (853-944) bo‘lib, u asli Samarqandning Moturid qishlog‘ida (hozirgi Jomboy tumanida joylashgan) dunyoga kelgan va taxallusi Shu qishloqqa nisbatan olingan. Abu Mansur Moturidiy dastlabki ta’limni o‘z qishlog‘ida olib, keyinchalik Movarounnahrning o‘sha davrdagi diniy va ma’rifiy markazi bo‘lgan Samarqandda davom ettiradi. Moturidiy Abu Bakr Ahmad Juzjoniy, Abu Nasr Ahmad Iyodiy, Imom A’zam mazhabidagi buyuk olim Nasr ibn Yahyo Balxiy, Muhammad ibn Fadl kabilarni o‘zining ustozi deb bilgan. Moturidiy fiqh va kalom masalalariga qiziqib, o‘z zamonasining taniqli hanafiy mazhabi olimlaridan saboq oladi. Shu vaqt davomida ko‘plab mashhur faqihlar va muhaddislar bilan muloqotda bo‘lib, bahs-munozaralari bilan taniladi va shu sohaga oid asarlar yozib qoldiradi. Bunday asarlar qatoriga «Kitab at-Tavhid», «Kitab al-maqomat», «Kitab rad avoil al-adilla li-l-Ka’biy», «Kitab al-usul», «ar-Radd ala usul al-Qaromita», «Kitab ta’vilot ahli sunna» va boshqalarni keltirish mumkin.

Bugungi kunga qadar Abu Mansur Moturidiyning ko‘plab asarlari saqlanib qolmagan, ulardan etib kelganlari esa asosan xorijiy mamlakatlarning kutubxona va qo‘lyozma fondlarida saqlanadi.

Imom Moturidiyning «Kitab ta’vilot ahli sunna» (boshqa bir nomi «Ta’vilot al-Qur’on») asarida sunniy aqidaga zid qarashlarni rad etish yo‘lidan boradi va Abu Hanifaning qarashlariga suyangan holda sof aqida yo‘lini tutadi. Moturidiyning shu birgina asari keyingi davrlarda yashagan ko‘p allomalarning asarlariga xamirturush vazifasini bajardi.

Musulmon olimlar aqida masalasida asosan ikki manbaga tayanganlar: birinchisi naqliy dalillar, ya’ni Qur’on oyatlari, hadislar va ularga qo‘shimcha tarzda sahobiy va tobeiylar ijmosi (mujtahid olimlarning biror fikrga ittifoq qilishi) hamda ijtihod (olimning biror masaladan shariy hukm olish uchun qilgan urinishi)laridir. Ikkinchisi esa, aqliy dalillar. Imom Moturidiy ham naqliy, ham aqliy dalillarni uyg‘unlashtirgan holda ilmiy xulosalar chiqarganiga duch kelamiz. Chunonchi, ko‘pchilik odamlarning aql-tafakkuri ko‘p hollarda naqliy dalillarni qabul qila olmaganidan imom Moturidiy o‘z o‘rnida aqliy dalillardan ham foydalangan. Shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, moturidiylik (ash’ariylik ham)da ham aqliy dalillar naqliy dalillardan keyingi o‘ringa qo‘yiladi. O‘sha davrda mo‘taziliylar naqliy dalillardan oldinga aqliy dalillarni qo‘yib, agar aqliy dalil naqliy dalilga, ya’ni oyat va hadislarga qarshi chiqsa, ularni inobatga olmaganlar.

Imom Moturidiyning asosiy xizmatlari shundan iboratki, o‘sha davrdagi aqidada adashgan oqimlarning salbiy ta’sirining oldini olish, ularning qarashlariga qarshi asosli va kuchli dalillar keltirib raddiya berish, haqiqiy islom aqidasini himoya qilish, jaholatga qarshi ma’rifat bilan javob berish, shu bilan birga musulmonlar uchun aqida borasida asosli qo‘llanmalar yaratish va tarqatishdan iborat bo‘lgan deyish mumkin.

Imom Moturidiy ko‘plab shogirdlar etishtirdi, ular o‘z ustozlarining ta’limotini davom ettirishgani tufayli hanafiy mazhabida kalom ilm bo‘yicha maktab vujudga kelganini ko‘rish mumkin.

Moturidiy «Imom al-huda» (hidoyat yo‘li imomi) va «Imom al-mutakallimin» (mutakallimlar imomi) kabi nomlar bilan dovruq qozongan.

Ash’ariy ta’limotining asoschisi Abul Hasan Ali ibn Ismoil ibn Ishoq ibn Solim ibn Abdulloh ibn Muso Abu Muso Ash’ariydir (873-941). U boshlang‘ich saboqlarni o‘z otasidan oladi, keyinchalik o‘z zamonasining taniqli olimlari Abu Ishoq Marvaziy va Ibn Surayjdan fiqh ilmini o‘zlashtiradi, Zakariyo ibn Yahyo Sojiydan hadis ilmini o‘rganadi. U taxminan qirq yoshlaridan keyin Bog‘dodga ko‘chib kelib, umrining oxirigacha shu shaharda yashab qoladi. U umri davomida yuzga yaqin asarlar yozgan bo‘lib, ulardan «al-Fusul fi-r-radd ala-l-mulhidin», «ar-Radd ala-l-mujassima», «Izoh al-burhon fi-r-rad ala ahl az-zayg‘ va-t-tug‘yon», «an-Naqs ala-l-Jubboiy», «Maqolot al-mulhidin», «Tafsir Abu-l-Hasan», «Imomat Abu Bakr Siddiq» kitoblari ilm ahlining nazariga tushgan. Imom Ash’ariy aqiydaviy dalil-isbot keltirishda naqldan va aqldan foydalanib, aqliy va mantiqiy dalillardan hujjat sifatida foydalanadi. Shuningdek, falsafiy masalalardan ham o‘z o‘rnida iste’foda etganiga duch kelish mumkin. Chunki Ash’ariy mo‘‘taziliy, faylasuf, qarmatiy, botiniy, rofiziy va boshqalarga raddiyalar bergani bilan aqida ilmi sohasida tanilgan allomalardan biridir.

Abul Hasan Ash’ariy ahli sunnat va jamoaning ash’ariya e’tiqodiy ta’limotini tarqatayotgan vaqtda Samarqandda Abu Mansur Moturidiy ham moturidiya ta’limotiga asos solgan edi. Bu ikki imom bir vaqtda yashab, bir-birlari bilan uchrashmagan bo‘lsa-da, ularning aqidaviy qarashlari deyarli bir xil. Bu ikki alloma qarashlarida ayrim masalalarda lafziy ixtiloflar ko‘zga tashlansa-da, ularning asl maqsadi bir-biridan farq qilmaydi. Boshqacha aytganda, ikki ta’limot orasidagi ba’zi ixtiloflar lafziy bo‘lib, mohiyatan bir-birini qo‘llab-quvvatlaydi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, bu ikki alloma o‘zaro bir-birini adashganlikda yoki bid’atchilikda ayblamaydi hamda o‘zaro bir-birlarini «ahli sunna val jamoa» deb e’tirof etadilar.

Ash’ariy va moturidiylik orasidagi asosiy farq imon masalasiga borib taqaladi. Moturidiy ta’limotiga ko‘ra, imon til bilan iqror bo‘lib, dil bilan tasdiqlashdan iborat, ammo amal imon tarkibiga kiritilmaydi. Ash’ariylikda esa, imonga amalni ham qo‘shiladi. Shu sababdan moturidiylik tarqalgan yurtlarda imon keltirgan kishi musulmon hisoblanadi, ammo amal qilmagani uchun gunohkor bo‘ladi, deb yuritiladi.

O‘rni kelganda aytib o‘tish lozimki, manbalarda «moturidiya mazhabi», «ash’ariya mazhabi» degan atamalar uchrab turadi. Bundan imom Moturidiy imom Abu Hanifaning aqidaga doir ta’limotini rivojlantirgan bo‘lsa, Imom Ash’ariy imom Shofeiyning e’tiqodiy qarashlarini takomillashtirdi, degan fikrga kelish mumkin. Hozirgi kunda moturidiylikka hanafiy mazhabi yo‘lini tutganlar ergashsa, ash’ariylikka molikiy, hanbaliy, shofeiy mazhabidagilar amal qiladilar.

Mazkur ikki allomaning ta’limotlari islom olamida keng tarqaldi va asrlar davomida musulmonlarni sof e’tiqodda bardavom bo‘lishiga, oyat va hadislarning ma’nolarini to‘g‘ri anglab, hayotga tadbiq etib kelishlariga, e’tiqodi noto‘g‘ri turli oqimlar ta’siriga tushib qolmaslikka sababchi bo‘ldi. Abu Mansur Moturidiy va Abul Hasan Ash’ariylarning sof aqidani musulmonlarga yetkazishdagi xizmatlari beqiyos bo‘lib, ularning aqidaviy ta’limotiga hozirgacha musulmonlar tomonidan alohida e’tibor bilan amal qilib kelinmoqda. Ular o‘z asarlarida islom aqidasini yoritish barobarida adashgan oqimlarga raddiyalar ham berganlar. Shu bois Imom Moturidiy «hidoyat imomi» deb yuritilsa, imom Ash’ariy «ahli sunna homiysi» degan nomga sazovor bo‘lganlar.

Moturidiylik kalom maktabi vakillari. Moturidiya ta’limoti vakillariga Movarounnahrda faoliyat olib borgan bir qancha olimlarni misol keltirish mumkin. Ularning orasida Abul Muin Nasafiyning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Abul Muin Maymun ibn Muhammad Makhuliy Nasafiy 1046 yili Nasaf vohasida ziyoli oilada tavallud topgan. Dastlabki ta’limni otasidan olgan. Nasafiyning bobosi Abul Muti’ Makhul ibn Fazl Nasafiy (vaf. 930 y.) o‘z davrining mashhur mutakallimi va mutasavvif olimi hisoblangan. Abul Muin Nasafiyning fiqh ilmiga oid asarlari ham mavjud. U 1114 yilda vafot etgan. Allomaning qabri Qarshi tumanidagi Qovchin qishlog‘ida joylashgan. U umri davomida o‘ndan ortiq asarlar yozib qoldirgan. Olimning asarlari orasida «Tabsirat al-adilla», «at-Tamhid li qavoid at-tavhid» («Tavhid qoidalariga muqaddima») va «Bahr al-kalom» («Kalom ilmi ummoni») kabi asarlari bizgacha etib kelgan.

Abul Muin Nasafiy asarlari orasida «Tabsirat al-adilla» eng muhim va asosiysi hisoblanadi. Asarning to‘liq nomi «Tabsirat al-adilla fi usul ad-din ala tariqati Abi Mansur al-Moturidiy» («Abu Mansur Moturidiy tariqatiga binoan din usullarini aniq dalillar bilan sharhlash») deb nomlanadi. Abul Muin Nasafiyning ushbu asarini yozishiga o‘sha davrda moturidiya ta’limoti bo‘yicha «Kitob at-tavhid» dan keyin bironta ham yirik asar bo‘lmagani sabab qilib ko‘rsatilgan. U «Tabsirat al-adilla» asarini yozib tugatgach, unga xotima va fihrist sifatida «Tamhid» va «Bahr al-kalom» asarlarini yozgan.

Yana bir olim Abu Hafs Nasafiy nomi bilan tanilgan Najmuddin Abu Hafs Umar ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Ismoil Nasafiy (1068–1142) bo‘lib, ba’zi manbalarda unga «Moturidiy» nisbasi berilgani qayd etilgan. Bu esa uning Imom Moturidiyning ma’naviy shogirdi va moturidiya ta’limotining davomchisi ekanidan darak beradi. Zero, Abu Hafs Nasafiy o‘zining «Kitob al-qand fi zikri ulamoi Samarqand» («Samarqand olimlarini zikr etish bo‘yicha qanddek (shirin) kitob») asarining bir qancha o‘rinlarida Imom Moturidiy nomini o‘zining ma’naviy ustozi sifatida hurmat bilan tilga oladi. Shuningdek, Abu Hafs Nasafiy o‘zining «Aqoid an-Nasafiy» («Nasafiy aqidalari») asarida moturidiya ta’limoti qarashlarini aks ettirgan.

Abu Hafs Nasafiyga «Moturidiy» nisbasi berilishiga uning Imom Moturidiy yurti Samarqandda umrining asosiy qismini o‘tkazganini ham sabab qilib ko‘rsatiladi. Jumladan, o‘rta asr alloma va mashhur kishilarining nisbalarini yoritib beruvchi «Kitob al-ansob» («Nasablar kitobi») nomli qomusiy asar muallifi Abu Sa’d Sam’oniy (vaf. 1167 y.) bu allomani Abu Hafs Umar ibn Muhammad Nasafiy Moturidiy, deb atagan.

Najmuddin Nasafiy o‘rta asr Sharq olimlariga xos qomusiy bilim sohibi bo‘lib, zamonasining mashhur tarixchisi, faqihi, mufassiri, tilShunosi, geografi, faylasufi hamda shoiri bo‘lgan. Uning yozgan asarlari mundarijasi nihoyatda keng va rang-barang bo‘lib, bir qismigina bizgacha etib kelgan. Najmuddin Nasafiy tilshunoslik, tarix, fiqh kabi ilmlarga bag‘ishlab yuzdan ortiq asarlar yaratgan. Abu Sa’d Sam’oniy Abu Hafs Nasafiy bilan maktublar orqali ilmiy muloqotda bo‘lib turgan. Hozirgi ma’lumotlarga ko‘ra, uning bizgacha o‘ntacha kitobi etib kelgan. Ayniqsa, moturidiya kalom maktabiga oid «Aqoid an-Nasafiy» asari katta shuhrat qozongan. U moturidiya ta’limotida Abul Muin Nasafiyning «Tabsirat al-adilla» asaridan keyingi o‘rinda turadi. Najmuddin Nasafiyning falsafa va aqoidga doir ko‘plab asarlari mavjud bo‘lgan. Ayniqsa, uning «Manzumot an-Nasafiy fi-l-xilofiyot» («Ixtiloflar haqida Nasafiy manzumasi») nomli she’riy asari mashhur bo‘lgan.

Keyingi olim Sadr al-islom Abul Yusr Muhammad ibn Muhammad ibn Abdilkarim Pazdaviy 1030 yilda tug‘ilgan. Dastlabki ta’limni otasi Abul Hasan Muhammad Pazdaviydan olgan. Bobosi Abdulkarim ibn Muso, Imom Moturidiy shogirdlaridan biri bo‘lib, unga ustozlik ham qilgan. Bundan tashqari, Pazdaviy bir qancha hanafiy olimlardan ham tahsil olgani manbalarda aytilgan. Pazdaviyning ustozlari orasida Abu Ya’qub Yusuf ibn Muhammad Nishopuriy va Abul Xattob kabi olimlarning xizmati katta bo‘lgan. Abu Hafs Najmuddin Umar Nasafiy va

Abul Muin Nasafiy Pazdaviyning eng mashhur shogirdlari hisoblangan. Manbalarda qayd etilishicha, u 1099 yilda Buxoroda vafot etgan.

Pazdaviyning asarlari orasida «Usul ad-din» («Din asoslari») asari muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur asar 96 masaladan tashkil topgan va mazmun-mohiyatidan ahli sunna val jamoa yo‘nalishi va moturidiya maktabi qarashlarining mohiyatini ochib berish va Movarounnahrda tarqalgan bid’at va xurofotlar jamoasi (ahl az-zayg‘ val bida’) ta’sirini kamaytirish maqsadida yozilgan. Shuningdek, Pazdaviy Imom Muhammad Shayboniyning «al-Jomi’ as-sag‘ir» («Kichik to‘plam») asariga sharh sifatida «Ta’liqot» («Sharhlar») hamda fiqhga oid «al-Voqiot» («Voqealar») va «al-Mabsut» («Keng ma’nolar») asarlarini yozib qoldiradi. Pazdaviy Movarounnahrda, ayniqsa, Buxoroda hanafiy mazhabi hamda moturidiya kalom maktabi rivojida ulkan xizmat ko‘rsatgan olim hisoblangan.

Alloma Alouddin Samarqandiy ham moturidiya ta’limotining yirik namoyandasi Abul Muin Nasafiyning eng yaqin shogirdlaridan bo‘lib, fiqh sohasida ulkan muvaffaqiyatlarga erishgan olimdir. Uning to‘liq ismi Muhammad ibn Abi Ahmad Abu Bakr Alouddin Samarqandiy bo‘lib, tug‘ilgan yili haqida manbalarda ma’lumotlar uchramaydi. Shunday bo‘lsada, olimning vafoti ko‘p manbalarda 1143 yil deb ko‘rsatilgan.

Alouddin Samarqandiy Abul Muin Nasafiydan fiqh va kalom ilmlarini o‘rgangan va shu asosda o‘zining fiqhga oid «Tuhfat al-fuqaho» («Faqihlar tuhfasi») nomli mashhur asarini yozib qoldiradi. U nafaqat fiqh, balki kalom hamda tafsir ilmlari borasida ham samarali ijod qilib, moturidiya kalom maktabini qo‘llab-quvvatlagan. Natijada Abu Mansur Moturidiyning «Ta’vilot ahli sunna» («Ahli sunna ta’villari (tafsiri)») nomli tafsiriga «Sharh ta’vilot ahli sunna» («Ta’vilot ahli sunna tafsiri») nomli sharhini bitadi.

Allomaning ushbu sharhni yozishida Abul Muin Nasafiyning xizmati nihoyatda katta. Chunki Alouddin Samarqandiyning o‘zi Nasafiy bilan Moturidiyning «Ta’vilot» asarini birga mutolaa qilganini va Nasafiy joiz, deb topgan o‘rinlarga sharh yozib ilova qilib borgani va keyinchalik ushbu sharhlarni alohida kitob holiga keltirgani haqida ma’lumot beradi. Shuningdek, Alouddin Samarqandiy Abul Yusr Pazdaviydan ham ilm o‘rgangan. Uning eng yaqin shogirdi o‘z qizi Fotima bint Alouddin bo‘lgan. Fotima bint Alouddin mashhur faqiha olima darajasiga etib borgan. Alouddin Samarqandiy qizini o‘zining yaqin shogirdi Alouddin Abu Bakr ibn Mas’ud ibn Ahmad Kosoniyga nikohlab bergan. Kosoniy ustozining «Tuhfat al-fuqaho» asariga sharh tarzida «Badoi’ as-sanoi’ fi tartib ash-sharoi’» («Shariat tartibida ajoyib san’atlar») nomli kitobini yozgan. Kosoniy Abul Muin Nasafiyning shogirdlaridan biridir.

Ibrohim ibn Ishoq Saffor Buxoriy (vaf. 1139 y.) Abul Muin Nasafiydan Buxoroda kalom ilmidan ta’lim olgan moturidiya kalom maktabi vakilidir. Dastlab u o‘zining «Risola fiha masoil suila anha ash-Shayx as-Saffor fa ajaba anxa» («Shayx as-Saffor javob bergan masalalar haqida risola») nomli risolasini yozgan. Ushbu risolada Abu Mansur Moturidiyning qarashlariga keng to‘xtalgan. Olim buxoroliklar uchun kalom ilmi bo‘yicha «Kitob talxis al-adilla li qavoid at-tavhid» («Tavhid qoidalariga oid dalillarning qisqacha bayoni») nomli o‘quv qo‘llanmasini

yaratadi. Nuriddin Ahmad ibn Mahmud ibn Abi Bakr Sobuniy (vaf. 1184 y.) ham Ibrohim Saffor bilan Buxoroda moturidiya kalom maktabining keng tarqalishida jonbozlik ko‘rsatgan olimlardan biridir. U Abul Muin Nasafiydan kalom ilmini o‘rgangan. Nuriddin Sobuniy Buxoroda ash’ariya maktabi vakili Faxruddin Roziy bilan muloqotda bo‘ladi. Olimning «al-Bidoya fi usul ad-din» («Boshlang‘ich din asoslari») nomli o‘quv qo‘llanmasi hozirga kelib qadr-qimmatini yo‘qotmagani bois ko‘p marotaba nashr etildi.

Yana bir olim Abul Fath Alouddin Muhammad ibn Abdilhamid ibn Umar ibn Hasan ibn Husayn Samarqandiy Asmandiy bo‘lib, u 1095 yili Samarqand atrofidagi Asmand shahrida dunyoga kelgan. Bu shahar Usmand yoki Samand deb ham atalgan. U «Tuhfat al-fuqaho» asari muallifi Alouddin Muhammad ibn Ahmad Samarqandiy bilan chalkashtirilgani bois, manbalarda unga Asmandiy nisbasi ham qo‘shib ataladi. Asmandiy Ashraf ibn Muhammad Alaviydan fiqh ilmini o‘rgangan, «as-Sadr ash-shahid» nomi bilan mashhur Burhon al-aimma Umar ibn Abdulaziz ibn Moza Buxoriydan (vaf. 1142 y.) hadis rivoyat qilgan, Ali ibn Umar Harrotdan hadis ilmini o‘rgangan. Asmandiy Abul Muin Nasafiyning ilmiy merosidan kalom ilmiga oid asarlarini yozishda foydalangan. U Abul Muin Nasafiy asarlarini zamondoshi Alouddin Samarqandiydan o‘rgangan. Asmandiyning kalom ilmiga oid birgina asari haqida ma’lumotlar bor. Ba’zi manbalarda uning nomini «Lubob al-kalom» («Daqiq kalom ilmi») deb atalgan bo‘lsa, ba’zi manbalarda «al-Hidoya fi usul al-e’tiqod» («E’tiqod asoslarida hidoyatga erishish») yoki «al-Hidoya va-l-kalom» («Hidoyat va kalom ilmi») deb keltirilgan. Ushbu asar kalom borasida yosh tadqiqotchilarga yo‘llanma berish uchun yozilgan. Hanafiy faqihlari orasida o‘ziga xos obro‘ga ega alloma XII asrda Movarounnahrda kalom ilmi rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan va 1157 yil Buxoroda vafot etgan.

Tasavvuf ta’limoti va tariqatlari. Tasavvuf (arab.), uni so‘fiylik, sufizm deb ham yuritishadi. Tasavvuf-islomdagi mistik-asketik hamda diniy-falsafiy oqim bo‘lib, u VIII-asrda arab mamlakatlarida vujudga kelgan. Tasavvuf musulmon mamlakatlarida ijtimoiy taraqqiyotning xususiyatlari bilan bog`liq ravishda paydo bo‘lgan. Uning shakllanishi va rivojlanishi uzoq tarixiy jarayonlar, murakkab davrlarni qamrab oladi. Shuningdek, xalqlarning moddiy va ma’naviy merosida, ijtimoiy va axloqiy hayotida katta iz qoldirib, juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy hodisadir.

O‘zbek xalqi ma’naviy merosi va muqaddas qadriyatlarining katta qismini islom ma’naviyati va milliy an’analar, udumlar tashkil etadi. Diniy qadriyatlarning manbalari esa Qur’oni karim, Hadisi shariflar, tavfsirlar, shariat ahkomlarida o‘z ifodasini topgan. Islomiy merosimizning muhim qismini irfoniy meros bo‘lmish tasavvuf ta’limoti va qadriyatlari, xususan bu ta’limotning yo‘nalishi vatanimiz-Turkistonda shakllanib, endilikda butun jahonga tarqalgan jahon ma’naviy madaniyati, umuminsoniy qadriyatlari taraqqiyotiga juda katta hissa qo‘shgan uch buyuk tasavvufiy tariqatlar: yassaviya, kubroviya va xojagoniya-naqshbandiya irfoniya-tasavvuf tariqatlari tashkil etadi.

Tasavvuf ta’limotining asosiy mazmuni inson va uning xudoga munosabatidir. Yani odamlarni halollikka, tenglikka, inson qadr-qimmatini yerga urmaslikka, barcha musulmonlarni teng bo‘lib yashashga chorlagan. Ayniqsa, bu ta’limot boshqalarning kuchidan foydalanmasdan o‘z halol mehnati evaziga yashashni talab qiladi.

Zohidlik asosiga qurilgan bu ta’limot hayotiy muammolar bilan bog`liq bo‘lgan ilohiy haqiqatga erishish bosqichma – bosqich amalga oshadi, degan g`oyani ilgari suradi. Bular 4 bosqichdan iboratdir. Chunonchi-shariat, tariqat, ma’rifat va haqiqat. Har bir bosqichning murakkab talablari inson umrini tamomila qamrab oladi. Ularning mazmuni quyidagicha:

shariat – islom marosimlarini, shariatning amaliy talablari, qonun-qoidalarini bilish va ularga sidqidildan rioya qilish;

tariqat - so‘fiy tomonidan «vosil bo‘lish» uchun tanlangan yo‘l. Bu yo‘lni tanlagan so‘fiy o‘z piri amallariga ergashgan holda nafsni tiyish, komillik yo‘liga o‘tishga intiladi;

ma’rifat - so‘fiy tomonidan Allohni tanish va uni qalbdan bilishdir. Alloh sifatlarini bilishga intilish borasida Allohni butun borliqning, mavjudodning asoschisi, yaratuvchisi ekanligini bilishdir;

haqiqat-ilohiy haqiqatga erishishning yuqori bosqichi bo‘lib, unda so‘fiy xudo vasliga yetadi. Bu darajaga yetgan so‘fiy avliyolik darajasiga yetgan bo‘ladi.

Tasavvuf ta’limotining dastlabki shakllanishi davri ilk islom davriga to‘g`ri keladi. VII asrning ikkinchi yarmi va VIII asrning birinchi yarmida Arab xalifaligining hududi Arabiston Yarim oroli chegarasidan chiqib, avvalo Suriya, Iroq, Eron Movarounnahr, so‘ngra Osiyo va Yevropaning ko‘pgina mamlakatlariga yetib borayotgan edi.

O‘sha davrda xalifalik ishg`ol qilgan mamlakatlarda ijtimoiy hayotda vujudga kelayotgan tuzumga qarshi shakllangan ichki ziddiyatlar, noroziliklar so‘fizm g`oyasi ostida islom ta’limotida tasavvufning shakllanishiga olib kelgan edi.

Tasavvuf ta’limotini tadqiq qiluvchi olimlarning fikricha, uning rivojlanish bosqichlarini shartli ravishda uch davrga bo‘lish mumkin: birinchi davr, tasavvufning paydo bo‘lishi, shakllanishi va yoyilishi davri; ikkinchi davr, tasavvuf va islomning uyg`unlashuvi davri (X-XI asrlar); uchinchi davr, tasavvuf tariqatlarining qaror topishi va tasavvuflarning ommalashuv davri (XII-XV asrlar).
Bu davrlarning har birida tasavvuf ta’limotining paydo bo‘lishi tariqatlarining shakllanishi va muxlislari o‘rtasida tarqalishining o‘ziga xos xususiyatlari va rivojlanish bosqichlari bo‘lganligi ko‘zga tashlanadi. Masalan, tasavvuf yaxlit ta’limot sifatida XIII asrgacha mavjud bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy va diniy irfoniy g`oya va ta’limotlar zamirida shakllandi va qaror topdi. Bu davrda otashparastlik, buddaviylik, qadimgi yunon falsafasi va xristianlikdagi diniy g`oyalar ta’sirida shakllangan tasavvuf yaxlit ta’limot sifatida rivojlanishi islom ta’limoti va g`oyalari bilan uyg`unlashishi zaruriyatga aylandi. Ya’ni, islom ta’limoti asosida tasavvuf o‘z aqidalarini shakllantirib, tartibga solib, IX-X asrlarda yaxlit tizim ta’limotiga aylandi.

Tasavvuf ta’limotining yuzaga kelishining yana muhim sabablaridan biri, ko‘p mamlakatlarni birlashtirgan arab imperiyasida fanlarni rivojlantirish, diniy ta’limotni hayotga tatbiq qilish borasida turli xil yondoshuvlarning mavjudligi edi. Arab imperiyasi yuzaga kelgach, katta hududdagi turli diniy e’tiqod va madaniyatga mansub xalqlarni aqidaparastlikka asoslangan islom ma’naviyati bilan boshqarish qiyinligi tobora sezilarli bo‘la boshladi. Imperiyani saqlab qolish, unda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy munosabatlarni barqarorlashtirish, yirik davlatni boshqarish usullarini takomillashtirish ehtiyojlari ilm-fanni rivojlantirishni taqozo etdi. Islom aqidaparastligi asosida bunga erishib bo‘lmas edi. Shuning uchun VIII asr oxiri IX asr boshlaridan e’tiboran arab xalifotida mutakallimlar bilan mu’taziliylar o‘rtasida g`oyaviy kurash kuchaydi. Mutakallimlar Qur’on oyatlarini erkin tahlil etishga mutlaqo qarshi bo‘lsalar, mu’taziliylar u aqidalardagi mazmunni aql yordamida, mantiq kuchi bilan anglash tarafdori edilar. Ular fatalizmni inkor etib, inson iroda erkinligiga ega ekanligini isbotlashga harakat qildilar. Mu’taziliylarning fikricha, peshonaga yozilgan taqdir borligiga ishonch Allohning obro‘yiga putur yetkazadi, chunki yomon xatti-harakatlar ham uning irodasi mahsuli bo‘lib qoladi. Xorijiylar esa xalifalikning meros sifatida avloddan-avlodga o‘tishga qarshi fikr bilan maydonga chiqdilar.

Islom g`oyalariga nisbatan hurfikrlilik nuqtai nazarida turishi, uning aqidaparast oqimi va sotsial vazifalarga shubha bilan qarash, mavjud ijtimoiy-siyosiy tartiblarga adolat tamoyillari asosida munosabat belgilash markaziy xalifalik hukmdorlari g`azabini qo‘zg`atdi. Xalifa Mutavakkil (847-861) Qur’on yaratilgan deydigan har qanday kishi kofir va, binobarin, o‘limga mahkum degan farmon chiqardi. 897 yilda qo‘lyozma ko‘chiruvchilar va kitobfurushlarni ilohiyot, dialektika (ilmu jadal); falsafa va mantiqqa oid kitoblarni ko‘chirmaslik va sotmaslik haqida qasam ichirish bo‘yicha farmoni oliy chiqariladi. Arastu izdoshlarining falsafa, mantiqqa doir kitoblarni, ilmiy asarlari omma oldida gulxan qilib yondirildi. Islom aqidaparast mafkurachilaridan biri bo‘lgani ash-Shaxruzuriy «agar kimda-kim faylasuflar aqidalariga ochiqdan-ochiq e’tiqod qilsa, ularni o‘ldirish yoki bo‘ysunishga majbur qilish kerak» deb chiqdi.

Arab hukmdorlari irodasining ifodasi sifatida shariatda hanbaliya mazhabi va islomda al-Ash’ariyya kalomi shakllandi. Hanbaliylik shariatdagi eng muxofazakor mazhab bo‘lgani sababli ash’ariyya qarashlariga muvofiq kelardi. Shu tariqa 940 yillarda Bag`dodda ash’ariyya kalom tizimi uzil-kesil g`alaba qozondi. Uning iymon talablari 1041 yilda rasmiy islomning e’tiqod ramzi sifatida qabul qilindi.

Arab markaziy xalifaligida diniy doiradagi hurfikrlilikka qarshi ko‘rilgan bunday jiddiy choralar, u yerlardagi fan, madaniyat arboblari, arxitekturalar, xattotlar, mu’taziliylikka moyil hunarmandlar va boshqa kasb egalari tohiriylar va somoniylar saltanati hukmronlik qilayotgan O‘rta Osiyoga qochib, oilalari bilan ko‘chib kela boshladilar. Faylasuf, tabib, kimyogar Abu Bakr ar-Roziyning Buxoroga kelishi katta voqea bo‘ldi. Chunki, u diniy jamoalar va tashkilotlarning nufuziga qarshi bo‘lib, hurfikrlilik mavqeida mustahkam turgan o‘sha davrning baobro‘ kishisi edi. Abu Nasr al-Forobiyning Damashqdan bu yerlarga kelishining

ahamiyati beqiyos edi. U «Ta'lim as-Soniy» («Ikkinchi ta'lim») asarida qadimgi yunon falsafasining eng muxtasar sharhini berib, hurfikrlilik rivojiga bebaho hissa qo'shdi. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino va boshqalar somoniylar, xorazmshohlar, g`aznaviylar o'rtasida «talash» bo'lgani bejiz emas edi.

Xuddi shu davrda Movarounnahrga tasavvuf tariqati kirib kelgan, bunda Yusuf Hamadoniyning (vafoti 1140 y.) xizmati katta bo'lgan. Uning Movarounnahrda tasavvuf ta'limotini keng yoyish, targ`ibot yurgizishga asos solingan maktabidan keyinchalik to'rt mashhur tasavvuf olimlari: Abdullo Barqiy, Xoja Hasan Andoqiy, Xoja Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G`ijduvoniylar yetishib chiqdilar.

Islom dunyosida tasavvuf ta'limotining shakllanishi va rivojlanishida muhaddis va diniy ulamolarning ta'siri katta bo'lgan. Vatandoshimiz Imom Buxoriy, Al-Hakim at-Termiziy, al-Zamahshariy, Marg`inoniylarning asarlari ham nazariy ham amaliy jihatidan asos bo'lib xizmat qilgan.

O'rta Osiyoda yetishib chiqqan Ahmad Yassaviy (1041-1167), Najmiddin Kubro (1145-1221), Bahouddin Naqshband (1318-1389)larning ijodiy faoliyatlari tasavvufining jahonshumul tariqatlariga asos soldi.

«Yassaviya» tariqatining qoidalari Ahmad Yassaviyning «Hikmat» degan asarida o'z ifodasini topgan. Unda inson mehr-shafqat, halol-pok, halol mehnati bilan kun kechirish orqali Alloh visoliga yetishi mumkin. Yana u mol-u dunyo to'plashga harakat qilmagan, faqirlikda kun kechirgan. Oxiratni o'ylamaydiganlar haqida Ahmad Yassaviy shunday deb yozadi:

Beshak biling, bu dunyo barcha xalqdan o'taro,
Ishonmagin molinga, bir kun qo'ldan ketaro,
Ota, ona, qarindosh, qayon ketdi, fikr qil,
To'rt oyoqli cho'bin ot bir kun sango yetaro.

Orifiy yo'lin tutgan Ahmad Yassaviy tasavvuf tarixida munosib o'ringa ega bo'ladi. Unga «Sulton-ul-orifiy» ya'ni oriflar sultoni nomini beriladi. Yassaviy haqiqiy orif inson sifatida faqirlik yo'liga juda yoshlikdan kiradi. Manbalarning ko'rsatishicha, u bu yo'lga to'rt yoshida kirib, umr bo'yi kishilarni bunga da'vat etdi. Uning hayotidagi muhim voqealardan yana biri, Yassaviy 63 yoshga to'lganidan so'ng Muhammad (s.a.v.) yoshidan ortig`ini yer ostida o'tkazdi. Bu haqda «Hikmatlar» kitobida shunday misralar yozilgan:

To'rt yoshimda Haq Mustafo berdi xurmo,
Yo'l ko'rsatdim, yo'lga kirdi necha gumroh,
Qayga borsam, Hizr bobom menga hamroh,
Ul sababdan oltmish uchda kirdim yerga.

Kubroviya tariqati ko'hna Xorazmda XII asrning so'nggi choragida va XIII asrning boshlarida vujudga keldi. Ushbu tariqatga Ahmad Ibn Umar Abu-l-Jannob al-Havaqiy al-Xorazmiy asos solgan. Ul zotning Najmiddin Kubro tariqati deyilishining boisi tasavvuf olamida qilgan ulug` xizmatlari evaziga aytilganligidir. Masalan, «Najmiddin»-arabcha «din yulduzi» demakdir, «Kubro»-arabcha «ulug` olim» ma'nosini beradi. Binobarin ul zot «Shayx Najmiddin Kubro» sharafli nomi bilan mashhur bo'lgan.

Najmiddin Kubro tasavvuf tarixida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan tasavvufiy olimgina bo‘lmay, balki dunyoviy ilmlarni o‘rganishga e’tibor qaratgan. Avvalo o‘zi uzoq o‘lkalarda yurib, diniy, ilohiy, madaniy ilmlar bilan birga dunyoviy ilmlarni o‘rganishga erishdi. Ul zot faqat tariqat asoschisigina emas, balki ulug` shayx, buyuk donishmand, chin vatanparvar, xalqparvar inson ham edi. U oddiy xalqni zulmdan qutqarish, ezgu ishlar, Vatan uchun jon fido qilish sifatlari bilan mashhur edi.

Bahouddin Naqshband O‘rta Osiyoda XIV asrda vujudga kelgan tasavvuf tariqatlaridan biridir. Naqshband Buxoro yonidagi Qasri Orifon qishlog`ida kosib oilasida dunyoga keladi. «Naqshbandiya» tariqatining qator diniy-orifiy ta’limotlari bilan bir qatorda shaxslarning roli katta bo‘lgan. Uning dunyoqarashi va ta’limotining shakllanishiga Yusuf Hamadoniy, Abduxoliq G`ijduvoniy, Boboi Samosiy, Sayyid Mir Kulollar katta ta’sir ko‘rsatgan va g`oyaviy asos bo‘lgan. Atoqli mutasavvuf olim Amir Sayyid Kulol esa Naqshbandning eng yaqin piri va uni kamol toptirgan ulug` zotdir.

Naqshband ta’limotining asosida ixtiyoriy ravishdagi faqirlik va «Dil-ba yor-u, dast-bakor» degan g`oya yotadi.

O‘rta Osiyoda tasavvuf ta’limotining rivojlantirilishi. O‘rta Osiyoda XII-XV asrlarda shakllangan va keng quloch yozgan yassaviya, kubroviya va naqshbandiya tariqatlari islom ta’limotlari bilan uyg`unlashgan holda ijtimoiy taraqqiyotda o‘z o‘rniga ega bo‘ldi. Masalan, XV asrdan to XX asrgacha naqshbandiya tariqati jamiyat, davlat hayoti, taraqqiyotining barcha jabhalarida xususan musulmon, turkiy musulmon xalqlarining XVIII-XIX asrlarda olib borgan milliy-ozodlik harakatlari, kurashlari mafkurasi mazmunini ishg`ol etdi.

O‘rta Osiyoda tasavvuf tariqatlarining rivojlanishi bu hududda islom ta’limotlarining keng yoyilishi va qaror topishi bilan uzviy bog`liq bo‘lgan. Bu jarayonda islomgacha bo‘lgan diniy qarashlar va milliy madaniyat turlariga munosabat masalalari ham mavjud edi.

Ma’lumki, Sharq falsafasining yetakchi yo‘nalishi inson qalbini, ruhini poklashga, unda komil insonlik sifatlarini vujudga keltirishga, shu negizda ijtimoiy munosabatlarni insoniylashtirishga qaratilgan. O‘tkinchi mol-dunyo, mansab-martabalar emas, balki ma’naviy boylik, axloqiy poklik, halollik, insof-diyonatlilik odamni insonga aylanishining muhim sharti, degan fikrlar Sharqda tasavvufning shakllanishiga, keng yoyilishiga sabab bo‘ldi.

Tasavvuf vahdat-ul mavjud va vahdat-ul vujud diniy-falsafiy g`oyalar hamda Arastu qarashlaridan oziq olib rivojlangan Sharq falsafasi ta’sirida islomning alohida oqimi sifatida vujudga keldi. U murakkab diniy-falsafiy oqim bo‘lib, xilma-xil shakllarga, mazmun va yo‘nalishga ega. Tadqiqotchilarning fikricha, uning 17 ta asosiy suluki (yo‘nalishi) mavjud. Sharqshunos olim B.E.Bertels «Sufiylik shuncha va har tomonlamaki, unga istagan kontseptsiya, dunyoqarashni kiritish mumkin», degan edi.

Tasavvufda ikkita asosiy g`oyaviy yo‘nalish ko‘zga yaqqol tashlandi: bu o‘tkinchi dunyo, mol-mulk, mansabga ixlos qo‘yish Allohni unutishga, iymonsizlikka olib keladi, degan g`oyaga tayanganlar tarkidunyochilikni targ`ib

etganlar va azaldan peshonaga yozilgani taqdir borligiga, odam undan qochib qutula olmasligiga ishontirishga intilganlar. Ikkinchi yo‘nalish bu dunyo Alloh-taolo tomonidan odamlar, ularning insonlardek yashashi uchun yaratilgani, odam shu dunyodagi ezgu ishlari bilan u dunyo visoliga musharraf bo‘la olishiga, binobarin, unda qo‘rqish asosida emas, Allohni sevish, uning visoliga yetish uchun og`ir, mashaqqatli poklanish yo‘lidan borishni tashviq etganlar.

Yusuf Hamadoniy, Abdulxoliq G`ijduvoniy, Najmiddin Kubro, Hoja Ahmad Yassaviy suluklarining bevosita ta’sirida O‘rta Osiyoda Naqshbandiylik suluki vujudga kelib, u Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlariga keng yoyildi. Xojagon sulukini boshlab bergan Abduxoliq G`ijduvoniy bunday degan: «Ey farzand, barcha holatda ilm, amal va taqvo bilan bo‘l, salaflar izidan yurib, sunnat va jamoatni mahkam tut, fiqh va hadisni o‘rgan». Yana bunday fikrlar bor: «oz so‘zla, oz e, oz uxla», «halol e, shubhadan xoli bo‘l...» A.G`ijduvoniyning 8 ta tabarruk so‘zi (rashha)ga B.Naqshband 3 ta manzil qo‘shib, o‘z sulukini asoslagan.

Naqshbandiya tariqatining ma’naviy asoschisi Abdulxoliq G`ijduvoniy Xojai Jahon tariqatidagi o‘n bir muqaddas kalimalarining dastlabki sakkiztasini asoslab bergan:

Hush dar dam (har doim xush o‘tkazish),
Nazar bar qadam (har bir qadami nazorat),
Safar dar Vatan (Vatan bo‘ylab sayohat),
Xilvat dar anjuman (el-ulus bilan birga bo‘lish),
Yodkard (esga olish yoki yod etish),
Bozgasht (qaytish),
Nigohdosht (asrash yoki saqlash),
Yoddosht (eslash yoki xotira).

Bahouddin Naqshband bu rashhalarga yana uchta muqaddas rashhani qo‘shib 11 taga etkazdi:

Vuqufi zamoniy (zamon amri),
Vuqufi adadiy (tartib amri),
Vuqufi qalbiy (qalb amri) qoidalaridir.

Bahouddin Naqshband asos solgan uch rashhalar mazmuni quyidagicha:

Vuqufi zamoniy-so‘fiy umr bo‘yi har daqiqani Allohga shukur aytish va bandalariga yaxshilik qilmoqlikka sarflashi lozim.

Vuqufi adadiy-so‘fiy zikr jarayonida tartib, son alohida o‘rin tutishligini e’tirof etish lozim.

Vuqufi qalbiy-so‘fiy zikri qalbidan, ya’ni yurakdan bo‘lmog`i lozim.

Naqshbandiya tariqatining nazariy va amaliy jihati-shariat, tariqat, ma’rifat, haqiqatdan iborat bo‘lib, ular 7 ta maqomlar tizimini o‘z ichiga oladi: tavba, varo, zuhd, faqh, sabr, tavakkul, rido. So‘fiy ana shularga e’tiqod qilishi lozim bo‘lgan.

Xoja Ahror Vali (Ubaydulloh) naqshbandiylikning targ`ibotchisi sifatida ta’madan jirkanish, tuhfa olmaslik, bir kasbni mukammal egallashga chaqirgan. Tasavvuf tariqatiga kirganlar uchun kasb-korning yomoni yo‘q, yomoni biron kasb bilan shug`ullanmaslik, tekinxo‘rlik, tamagirlikka odatlanish hisoblanadi. Shuning uchun shoir Sakkokiy-pichoqchilik, Shayh Abu Hafiz haddod-temirchilik, Shayh

Abul Abbos omiliy-qassoblik, Shayh Bannon-hammollik, Shayh Abul Hasan-duradgorlik bilan shug`ullanishgan, Xoja Ahror Vali xodimgar (massajchi) bo‘lgan. Naqshbandiylik iymoni uning «Dil ba yoru dast ba kor», ya’ni «Diling Allohda, qo‘ling mehnatda bo‘lsin» degan talabida yaqqol gavdalanadi. Ular amal deganda birinchi navbatda Alloh nomini dilga jo qilib, ijtimoiy-foydali mehnat bilan shug`ullanishni, ta’ma va tekinxo‘rlikdan hazar qilishni tushunganlar. Naqshbandiya tariqatida asosiy o‘rinni egallagan «Zikri hafiya»-ovoz chiqarmay qilinadigan ichki iltijo, tilovat, zikr bo‘lib, bunda Qur’oni karim sura, oyatlar va hadisi sharif mazmunlari takrorlanadi.

Naqshbandiylik sulukini qabul qilgan Amir Temur, Ulug`bek va bir qator Turkiston hoqonlari darveshlikni qoraladilar, ulardan shu dunyo ishlari bilan shug`ullanib, halol yashashni talab etdilar. Darveshlar foydali mehnat bilan band bo‘lishlari uchun davlat sharoit yaratib berishi to‘g`risida farmoni oliy chiqarganlar. Buni bajarmaganlarni jazolaganlar.

Tasavvufning so‘l qanoti diniy-falsafiy ta’limot sifatida aqidaparastlik islomga nisbatan muxolifit bo‘lib, Yaqin va O‘rta Sharqda, ayniqsa, O‘rta Osiyoda tabiiy va falsafiy fanlar rivojida o‘z o‘rni va mavqeiga egadir. O‘rta Osiyo mutafakkirlarini sho‘rolar davrida o‘sha davrdagi islom aqidalariga qarshi qo‘ydilar. Ijtimoiy hodisa, ma’naviyatga sinfiy (partiyaviy) munosabat tarixiy jarayonlarga shunday g`ayriilmiy yondoshuvni, ularni mafkura va siyosat talablariga bo‘ysundirishni taqozo etardi.

Qadimda, o‘rta asrlarda ruhoniylar va ilohiyotchilar jamiyatda o‘qimishli kishilar bo‘lib, ayni chog`da ular odob-axloq tayanch va timsol ham hisoblanardilar. Binobarin, muayyan din aqidalari har qanday tafakkur uchun boshlang`ich ibtido va asos edi. Muayyan mintaqa xalqlari iymon-e’tiqodiga aylangan falsafa, adabiyot, san’atda, axloq va estetikada o‘z ifodasini topgan edi. Dinga, undagi Xudo g`oyasiga qarshi qaratilgan har qanday fikr mavjud tuzumga va saltanatga norozilik va qarshilik sifatida tushunilardi. Ayni chog`da fikr mavjud va tashkilotlarning mafkuraviy ta’siri natijasida jamoatchilik fikri hukmron g`oyalarga shubha bilan qarovchilarga qarshi qaratilardi. Shuning uchun arablar imperiyasi hududida va Turk davlatlarida yashagan mutafakkirlar o‘z hurfikrliklarini diniy pardalar ostida berganlar, ammo ular Allohga, uning asosiy aqidalari haqligiga iymon keltirgan shaxslar edilar. Shunday bo‘lishiga qaramay, aqidaparast ulamolar,turg`un fikrlardan manfaatdor iste’dodsiz hukmdorlar aql va adl yo‘lini tutgan, haqiqatni izlab topishga da’vat etgan mu’taziliylar, qadariylarni ham, vahdat-ul vujud nuqtai nazarida turib ilm-fanni rivojlantirish, adabiyot va san’at asarlari orqali odamlar estetik didini oshirishga intilgan mutafakkirlar, erkin fikrli din ahllari va ilohiyotchilarni quvg`in ostiga olganlar, jazolaganlar, zindonda chiritganlar. Chunonchi, Beruniy hukmdorlar tazyiqiga qaramay hurfikrlilik g`oyalariga sodiq qoldi, Mahmud G`aznaviy uni bir necha marta o‘lim jazosiga hukm qilgan. Abu Ali Ibn Sinoning hurfikrliligini unga qarshi qo‘zg`atmoqchi bo‘ldilar.

Turonni mo‘g`ul bosqinchilari bosib olishgach, uyg`onish davridagi hurfikrlilik an’analari rivojiga davlat yo‘li bilan g`ov qo‘yildi. Faqat ularning

hokimiyatiga barham berilgach, XIV-XV asrlarda o‘sha an’analar tiklandi, ayniqsa, naqshbandiylik g`oyalari ma’naviy hayotning deyarli barcha yo‘nalishlari mazmunini tashkil etgan edi. Bu davrda zolim podsholar, amaldorlarga qarshi fikrlar keng quloch yozgan. Ayniqsa, xalq og`zaki ijodi, uning jangovar janri bo‘lgan askiya, qiziqchiliklarda hurfikrlilik yorqin namoyon bo‘lgan.

Temuriylar saltanati qulagach, shayboniylar islom o‘zbek imperiyasini barpo etish uchun urushlar olib borishdi. Asta-sekin siyosat va huquqda islom aqidaparastligi hayotda muqim o‘rnashib, individual va ijtimoiy ongda qaror topa boshlagan. Hokimiyat tepasiga birin-ketin va asta-sekin vahdat-ul vujud tarafdorlarining kelishi natijasida hurfikrlilikning har qanday ko‘rinishi «kofirlik» deb e’lon qilindi. «Kofirlik»da ayblangan kishilarni qatl etish esa «savob» ishlari qatoriga kirar edi. Yagona Turkiston uch xonlik va yana mayda sultonliklarga ajrab ketgach, ular o‘rtasidagi tinimsiz urushlar, saltanatni mustahkamlash uchun ijtimoiy ongni jilovlashga qaratilgan mafkuraviy faoliyat xalq ommasining tinka-madorini quritdi. Hokimiyatni boshqarayotgan arbobga yoqmaydigan har qanday kishini «kofirlik»da ayblash dahshatli mexanizmi shakllandi. Hurfikrlilik bayroqdori bo‘lgan yozuvchilar, shoirlar quvg`in ostiga olindi. Masalan, Boborahim Mashrab tasavvuf nuqtai nazaridan kamtarona hayotni targ`ib qilgani, zolimlarni fosh etgani uchun dorga osildi. Buxoro amiri Nasrullaxonga Qo‘qon xonligini bosib olish uchun bir bahona kerak bo‘lgach, Nodirabegim va uning o‘g`li «kofirlik»da ayblanib, qatl etildilar. Shunday qilib, vahdat-ul vujud tarafdolarining hokimiyat tepasiga kelishi Turkistonning parchalanib ketishi, islom doirasidagi hurfikrlilikning cheklanishiga sabab bo‘lgan omillardan biri hisoblanadi. Natijada, millat fidoyisi Mahmudxo‘ja Behbudiy aytganidek, boy ma’naviy madaniyatiga ega bo‘lgan O‘rta Osiyo xalqlari Evropa xalqlari taraqqiyotidan 500 yilga orqada qoldilar. Ammo bu davrda hurfikrlilik butunlay bo‘lmadi, degan fikrga kelmaslik kerak. Xalq orasida Nasriddin afandi latifalari, askiya-qiziqchililiklar yo‘li bilan, shuningdek badiiy adabiyotning fidoyi namoyandalari zolim boylar, riyokor ruhoniylar, badnafs amaldorlar kirdikorlarini fosh etib, ularga nisbatan xalq nafratini qo‘zg`atdilar. Gulxaniy, Maxmur, Turdi, Mahtumquli va boshqalarning asarlarida hurfikrlilik motivlari ko‘p edi. Isyonkor shoir Muqimiy o‘sha davr soliqchilarining tamagirliklari, insofsizliklarini fosh etdi. Amaldorlarga nisbatan bunday dedi: «Dodxohim, dodxohlik senga xos, porasiz o‘tmas senga yuz iltimos».

Umuman har bir davrda hurfikrlilik o‘ziga xos ravishda namoyon bo‘ladi. Hamma davrlarda va barcha mamlakatlarda ijodiy fikr yurituvchi, ijtimoiy hodisalarga teran fikr bilan yondashuvchi, o‘z davrining bilimdoni hamda xalqi, vatani ishqi, uning istiqloli, istiqboli orzu-armonlari bilan yashovchi fidoyi, qo‘rqmas, zabardast, irodali kishilar bo‘lgan. Ular qaror topgan hukmron g`oyalar, amaldagi siyosat va mafkuraga o‘z munosabatlarini qo‘rqmasdan bildirganlar, o‘z nuqtai nazarlarini qattiq turib himoya qila oladilar, bu yo‘lda quvg`unlar va turli jazolardan ham qo‘rqmaganlar. Ana shunday mard odamlar sa’y-harakati tufayli ma’naviy madaniyat rivojlangan, takomillashib borgan. Sharq Uyg`onish davri (IX-XII) hamda XIV-XV asrlar allomalarining ilm-fan rivoji, falsafiy fikrlar

ravnaqi yo‘lidagi fidoyiliklari biz uchun, qolaversa, bundan keyingi avlodlar uchun ham oliy ibrat maktabi bo‘lib qolishi shubhasiz. Sharq mutafakkirlari, ayniqsa, O‘rta Osiyo olimu fuzalolarining hayotbaxsh, xushchaqchaq hurfikrlilik an’analari G`arbiy Yevropa Uyg`onish davri uchun asos bo‘lganini xolis fikrlovchi Evropa olimlari tan oladilar.

Masalan, amerikalik sharqshunos olimlar N.Kramer «Istoriya nachinaetsya v Shumere» (1991), E.K’eraning «Oni pisali na gline» (1984) nomli tadqiqotlarida shumerlar va bobilliklar nafaqat ona tili, arifmetika fanlarini o‘rgana boshlagan, balki ular o‘sha zamonlardayoq, qo‘ldagi barmoqlar miqdoriga asoslangan o‘nli sanoq tizimi bilan birgalikda oltmishlik sanoq usulidan foydalanib, Pifagor teoremasini isbotlaganlar.Yoki qadimgi yunon manbalarida skiflar deb ataluvchi-saklar (xorazmliklar, sug`dlar, marchanlar va b.) o‘z madaniyatini aynan o‘sha davrda yarata boshlaganlar. Bunga Xorazm tuprog`ida bitilgan muqaddas «Avesto»ning yozuvi (parfiya) va tili (sug`d va baqtriya) yaqqol misol bo‘la oladi.

Islom dini bag`rida vujudga kelgan tasavvuf ta’limoti tariqatlaridan tahsil olgan kishilar orasidan ulug` namoyondalar ham yetishib chiqdiki, ular tasavvuf ta’limotidan uzoqlashmay qadimgi madaniyatimizning durdonalarini saqlashga va yangi madaniyat qirralarini rivojlantirishga munosib hissa qo‘shdilar. Navoiyning fikricha, so‘fiy zahiron, hattoki, mamlakatga podshohlik qilishi ham mumkin ekan. Tarixdan ma’lumki, Amir Temur Bahouddin Naqshbandning xojagon tariqatining-yettinchi xalqasidagi piri komil-Amir Kulolning muridi bo‘lgan.

Tasavvuf ta’limotining shakllanishi va rivojlanish tarixi shuni ko‘rsatdiki, islom ta’limoti arablar ishg`ol qilgan mamlakatlarda ijtimoiy hayotda vujudga kelgan qator muammolarga javob topish asosida namoyon bo‘lgan. VIII- asrda paydo bo‘lgan tasavvuf ta’limoti va tariqati turli hududlarda XV-XVI asrlargacha va undan keyingi davrlarda o‘ziga xos rivojlangan va qaror topgan. Masalan, O‘rta Osiyoda Xoja Ahmad Yassaviy, Sayyid Bahouddin Naqshband va Hoja Axror Valiy tariqatlari sunniy mazhab aholi orasida chuqur yoyilgan.

Tasavvuf ta’limoti va islom ma’naviyatining rivojlanishi. O‘zbekiston hukumati rahbariyati iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli o‘tishi va qaror topishi avvalo odamlarning erkin, sog`lom fikr yuritishlariga, tafakkur tarzi va ma’naviy dunyoqarashlarining jiddiy ravishda o‘zgarish jarayonlari bilan bog`lamoqda. «Endigi vazifa,-deydi Prezident I.A.Karimov Oliy Majlis 1-sessiyasida qilgan ma’ruzasida,-kishilarimizni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, o‘ziga ishonchning orta borishidir. Chunki tafakkur ozod bo‘lmasa, ong va shuur tazyiqdan, qullikdan qutulmasa, inson to‘la ozod bo‘la olmaydi». Faqat ma’naviyatni qaror toptirish orqaligina iymonli komil insonlar shaxsi shakllanishi, demak, erkin, hur, teran fikr yurituvchi insonlardan iborat fuqarolik jamiyat vujudga kelishi mumkin.

Tasavvuf ta’limoti sohasida yirik tadqiqotlar muallifi N.Komilov ta’kidlaganidek, tasavvuf O‘rta Osiyo falsafasi taraqqiyotidagi ko‘p asrlik tajribalarni o‘z ichiga qamrab olib, uni rivojlantirgan, din va falsafa, hikmat va vahdat, kalom va hadis ilmlarini birlashtirgan, ilohiy bilimlarni birlashtirgan, bular bilan dunyoviy ilmlarni o‘zaro bog`lashga harakat qilgan.

Shu yo‘sinda rivojlangan tasavvuf Sharqda, shu jumladan Turkiston musulmonlari orasida tafakkur tarzi va axloq me’yorini belgilaydigan ijtimoiy hodisaga aylangan.

Tasavvuf ta’limotining islom ma’naviyatini rivojlantirishga qanday ta’sir ko‘rsatilganligi masalasi bayonidan oldin ular o‘rtasidagi qarashlarni ko‘rib chiqish lozim. Ilk islomda, hattoki IX-XII asrlarda Alloh visoliga yetganda so‘fiy uchun shariat talab, farzlarini bajarishga ehtiyoj qolmaydi degovchilar (Abu Yazid Bistomiy, Mansur Xalloj, Hamodaniy va b.) bo‘lib, bu nuqtai nazarlar tasavvuf va sunniy islom shariati o‘rtasida ochiq to‘qnashuvlar kelib chiqishiga sabab bo‘lgan edi. Buni yaxshi tushungan ulug` zotlar jumladan, Abduholiq G`ijduvoniy, Alouddin Attor va boshqa ulamolar bu nizoni oldini olish maqsadida musulmon ahliga sunnatni hamisha joyiga qo‘yishga va bid’atlardan uzoqroq bo‘lishga davat etganlar.

Bahouddin Naqshband o‘z tariqati shakllanayotganda ilk islomda va arab – musulmon jamiyatida tasavvuf sunniy islomga qarama-qarshi qo‘yishni qoralagan va u qanday salbiy oqibatlarga olib kelishini asoslab bergan. Uning tariqati islom va shariatga asoslangan edi. Undan «Sizning tariqatingizni qanday topish mumkin?» deb so‘ralganda Naqshband «Shariatni mahkam tutish va Rasulullo sunnatlariga to‘liq amal qilish bilan»deb javob berganlar.

Bahouddin o‘zining amaliy faoliyatida, targ`ibot ishlarida tasavvuf, tariqat va islom shariatining o‘zaro aloqasi va munosabati, bog`liqligini doimo esda saqlab, boshqalarini ham shunga da’vat etgan. Ular o‘rtasidagi o‘zaro bog`liqlikni har tomonlama, mukammal isbotini ko‘rsatish uchun amaliy hayotda ko‘plab, rivoyatlar, misollar keltirgan. U shunday deydi: biz tasavvuf ahli Allohni bilib ma’rifat hosil qildik, ammo shariatni oddiy, omi odamlarga buyurgan talab, farzlarini bajarmasa ham bo‘laveradi, deyish bid’atdir. Uning fikricha, tariqatning bosqichlarida faqat shariat talab, farz arkonlarini bajarish, islomga sodiq iymon bilangina maqsadga erishish mumkin, Naqshbandiya tariqatining asosi, zamini islom, shariat ahkomlari ekan, ma’rifatga erishish, ularni izchil bajarish orqali tariqat amaliyotiga va ma’rifatga erishish mumkin.

Islom tarixida tasavvuf tariqatlari XI-XII asrlarda Yassaviya, XII-XIII asrlarda Kubroviya, XIII-XV asrlarda Xojagoniya-Naqshbandiya vujudga kelgan, taraqqiy etgan va har biri islom ma’rifati va ma’naviyatini rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shgan. Ayniqsa Naqshbandiya ta’limoti va tariqati komil insonni shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, xalqimiz tarixiy taraqqiyotidan munosib o‘rin olgan. Naqshbandiya tariqatining Turkiston va dunyoning boshqa xududlarida faollashuvi, keng tarqalishi natijasida jahon ilm-fan, madaniyati, sivilizatsiyasi, xususan diniy-irfoniy, ma’naviy-ma’rifiy qarashlar va ta’limotlar tarixida muhim ahamiyat kasb etdi.

Xorijiylar. (Al-xavorij) Bu oqimning nomi, «chiqing», «qarshi bo‘lish», «isyonchilar» ma'nolarini anglatuvchi arabcha «haraja» so‘zidan olingan. Bu oqim islomdagi ilk sektalardan hisoblanadi. Islom olamini 1% ni tashkil etadi. U Ali bilan Muoviya o‘rtasida xalifalikning oliy lavozimini qo‘lga kiritish uchun olib borilgan keskin kurash jarayonida paydo bo‘lgan.

Xorijiylar 661 yili Alini o‘ldirishgan. Muoviya hukmronligi yillarida (661-680) va undan kyoyin xorijiylarning yirik qo‘zg‘alonlari bo‘lib o‘tgan.

Islom boshqa jahon dinlari orasida davlat va huquqqa nisbatan juda yaqin aloqada bo‘lib bu shariat shaklida mavjud bog‘liqlikning uzviyligini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Shariat-islom diniy huquq qonun-qoidalarning mavjudligidir. Ammo shariatni dinning huquq majmuidan kengroq tushuncha deb bilish lozim. Chunki bu diniy huquqdan

tashqari ahloqiy va diniy marosimchilik talablarining majmuini o‘z ichiga oladi.

Qur'onda bo‘lmagan yoki bo‘lsa ham noaniq holda tasvir qilingan hatti-xarakatlar yoki ta'qiqlarni shariat aniq va ravshan qilib belgilashi ham uzoq muddatlar davomida undan foydalanib kelishga zamin bo‘lgan.

Islomdagi diniy huquqiy mazhablar va ularning asoschilari, himoyachi va oqlovchilariga oid tartib qoidalari, qasam ichish, va'da berish va qasamyod qilish, qarzni uzish, kafillik, kafolat berish, omonat saqlash tahlili va ularga mansub tartib - qoidalar shariatning asosiy bo‘limlaridan hisoblanadi. Shariat musulmonlarnipt ichki hayoti, e'tiqodi va diniy vijdonini bevosita nazoratga oluvchi diniy va ahloqiy qoidalarni qamrab oladi.

XIX asrning oxiri, XX asrning boshlarida ijtimoiy-iqtisodiy hayotda vujudga kelgan siljishlar ayniqsa islom keng tarqalgan hududlarda yuzaga kelgan ilg‘or fikrlarning davlat taraqqiyotidan orqada qolayotgan g‘oyalarga qarshi kurashda ko‘zga tashlanadi. Bu jarayon islomga nisbatan qarashlarda ham o‘z aksini topgan. Bunga quyidagilarni misol keltirish mumkin. Islom modernizmi - islomning diniy ta'limotidagi iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va ijtimoiy muammolarga taalluqli aqidalarni yangi zamon sharoitlariga muvofiklashtirish, zamonaniylashtirish orqali taraqqiyotning yangi yo‘llarini ishlab chiqishdir.

Islom traditsionalizmi oqimining tarafdorlari o‘rta asr aqidalariga qattiq amal qilib, ularni o‘zgarmas deb hisoblagan holda dinni har qanday isloh qilishga: modernizmga qat'iy qarshi chiqqanlar va hozir shunday qilayotirlar. Islomga e'tiqod qiluvchi har bir mo‘min, qaysi millatga mansubligidan qat'iy nazar, o‘z hayotida islom aqidalariga amal qilishi, ularni og‘ishmay bajarishi, islom traditsionalizmining asosiy printsiplari hisoblanadi.

Islom fundamentalizmi esa «sof» islomni tiklash harakati asosida Markaziy Osiyo musulmonlari, ko‘pincha yosh musulmonlar orasida paydo bo‘lgan diniy oqim. Ushbu mavzuga bag‘ishlaigan - diniy fundamentalizm, ekstremizm haqida alohida ma'ruzalar mavjud.

Sharq xalqlari tafakkurini asrlar davomida nurafshon etib, ma'naviyatimiz va ma'rifatimizga chuqur ta'sir o‘tkazgan tasavvuf (sufizm) ta'limoti VIII asr o‘rtalarida paydo bo‘lgan. Dastlab u zohidlik (tarkidunyochilik - bu dunyo hoyu-xavasidan voz kechish) harakati ko‘rinishida bo‘lib Bag‘dod, Basra, Kufa, Damashq shaharlarida keng yoyilgan.

Asli tasavvuf so‘zi «Sufiy» so‘zidan, «Sufiy» so‘zi esa arabcha «Suf» so‘zidan yasalgan. Suf deb arablar jundan bo‘lgan matoni aytadilar. Dastlabki davrlarda sufiylik yo‘lini tutgan kishilar, boshqa oddiy kishilardan ajralib turish

uchun jundan tiqilgan chakmon (u hirka deb ham aytilgan) yoki po‘stin kiyib yurishni odat qilganlar. Shuning uchun ularni jun chakmon kiyib yuruvchilar, ya'ni sufiylar deb ataganlar. Sufiy boshqa odamlardan o‘zini pok va g‘aribona turmush kechirishi, doimiy toat-ibodatda bo‘lishi va faqat ilohiy ruhga qo‘shilishni maqsad qilib qo‘yishi bilan tubdan farq qiladi. Sufiy uchun na dunyodan, na oxiratdan ta'ma bo‘lmasligi kerak. Yagona istak bu Allohning diydoriga yetishishdan iborat. Faqirlik tuyg‘usiga ega inson na birovga banda-yu, na birovga xoja, u yolg‘iz Allohga banda, u yolg‘iz Allohga ehtiyoj sezadi. Hamma narsadan voz kechish, oxir oqibatda o‘zlikdan kechish - sufiylik ta'limotining ma'nisi mana shu. Buyuk sufiy Boyazid Bistomiy aytadilarki: o‘zingdan o‘tding, Allohga yetding. Hazrat Xoja Bahouddin aytadilarki: Bizning hech narsamiz yo‘q, lekin hech narsadan g‘amimiz yo‘q,. O‘sha «hech»... narsa ketidan yugurib g‘am tashvishda ham emasmiz. Egnimizda janda, orqamizda go‘riston, agar o‘lsak hech bir motam kerak emas.

Tasavvuf - sufiylik insonni o‘rganar ekan, avvalo, kishining ko‘ngliga, diliga tayanadi, ko‘ngilni, qalbni tarbiyalashga, ko‘ngil kishisini voyaga yetkazishga intiladi, chunki Alloh faqat kishining pokiza qalbidagina jilva qiladi.

Tasavvufda insondagi jamiki xudbinliklar, illatlar, razolat dunyosiga hirs qo‘yish jism ehtiyoji va nafs ta'masidan kelib chiqadi, deb o‘rgatiladi. Komil inson bo‘lish uchun avvalo, jism va nafs ehtiyoji va ta'masini yengish kerak. Dunyoga, boylikka mehr qo‘yish kishini nafsiga qo‘l qilib kuyadi. Darvesh, sufiy nafsni rad etadi. Nafs barcha falokatlar sababchisi, insonni tubanlashtiruvchi narsa. Insonni falokat botqog‘idan, tubanlik jaridan kutqarib, uni poklashning birdan-bir yo‘li nafsning ehtiyojini yengishdir. Buning uchun dunyo muhabbatidan voz kechish va Alloh muhabbatiga ko‘ngil bog‘lash darkor. Sufiylikda buni dunyo mohiyatini va o‘zligini, insoniylikni anglash yo‘li deb qaralgan. O‘zligini anglagan kishi esa dunyo va uning boyliklari o‘tkinchi ekanligini anglaydi. Xoja Bahouddin aytadilar: «o‘z nafsining yomonligini tanish o‘zligini tanishdir».

Demak tasavvuf ilmi - inson haqidagi ilmdir. U inson qalbiga sayqal berish ilmi. Biz bu ilmdan 70 yil davomida bexabar edik Inchunun, biz necha zamonlar insondan bexabar qoldik va ne zamonlar qalbimizdan fayz ketdi. O‘tmishdagi Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Bahouddin Naqshbandiylar yurtimiz va xalqimizning fayzi kamoli edilar. Istiqlol tufayli shu nur, shu fayz bizga qaytdi.

Shuni iftixor bilan qayd etishimiz lozimki, tasavvuf ta'limoti taraqqiyotida Turkiston farzandlarining xizmati beqiyos bo‘lgan. Xoja hakim at-Termiziy, Shayx Abu Mansur al-Maturidiy as-Samarqandiy, Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniy, Xoja Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg‘oniy, Shayx Najmiddin Kubro, Xoja Ali Romitaniy, Abu Ali al-Farmadiy, Yusuf Hamadoniy, Bahouddin Naqshband kabi siymolar ilohiy ma'rifat yo‘lining rahnamolari bo‘ldilar. Ular yaratgan ta'limot va ilgari surgan ma'naviy-axloqiy g‘oyalar hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Chunonchi, Ahmad Yassaviy hikmatlarida ilgari surilgan axloqiy pand-nasihatlardan molparastlikni fosh etish, kishilarni insofli, diyonatli, iymonli bo‘lishga chaqirishda foydalanish o‘rinli. Yassaviy inson hayotidagi katta kurash - nafsni taslim etishga xizmat qiladigan kurash deb hisoblagan. Nafsga mag‘lub shoh

- qul, nafsdan ustunlikka erishgan g‘arib - shohdir, deb aytadi. Nafs inson uchun katta yovdir. Shu yovning boshini yanchgan, uni yenggan, nafsga taslim bo‘lmagan kishining g‘ururi va insoniy qadr-qimmatini hech kim poymol qila olmaydi, deb bilgan. O‘z xikmatlaridan birida shunday deydi:

Nafs yo‘liga kirgan kishi rasvo bo‘lur,
Yo‘ldan ozib, toyib, to‘zib gumroh bo‘lur.
Yotsa - tursa shayton bilan hamroh bo‘lur....

U nafs bandalariga qarata «Nafsni tebgil, nafsni tebgil ey badkirdor» deb murojaat etadi, va «Nafsim meni yo‘ldan urib xor ayladi, Termultirib haloyikqa zor ayladi», - deb nafs bandalarini tanqid etadi. Nafs insondagi butunlikni, iymonni sindiradi, ma'naviy jihatdan jarlikka qo‘latadi. Shu bois «Nafsni tanib mehnat yetsa rohat», - deb xitob qiladi. Bu g‘oyalar bizning hozirgi kunimiz, tarbiyamiz uchun g‘oyat muhim.

Movarounnahr tasavvuf ta'limotida Xoja Bahouddin Naqshbandning o‘rni alohida ahamiyatga ega ekanligini ham qayd etishimiz lozim. Naqshbandiya ta'limoti hayratlanarli darajada ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy ma'no va mohiyatga, hayotiy mazmunga ega.

Naqshbandiya ma'naviy-axloqiy ta'limotida xur fikrlikka keng o‘rin berilgan. Bu sulukdagilar mehnat qilish, ilm olish, o‘z mehnati evaziga halol yashash, noz-ne'matlarni ko‘pchilik bilan baham qurish, faqirona hayot kechirish, hammaga yaxshilikni ravo qurishni afzal bilganlar.

Bahouddin Naqshband - aybsiz odam yo‘q, shuning uchun agar aybsiz do‘st axtarsak do‘stsiz qolamiz, - der edilar.

Odamlarga yaxshilik qilish eng yuksak insoniy burch ekanligini ta'kidlab, sham kabi bo‘lgin va odamlarga yorug‘lik ber, o‘zing esa qorong‘uda bo‘l, degan ekanlar.

Xoja Bahouddinning «Ko‘ngil Allohda bo‘lsinu, qo‘ling esa ishda» hikmatlarining inson ma'naviy dunyosi takomilidagi ahamiyati beqiyosdir.

Tasavvuf tariqatlari haqida so‘zlaganda Najmiddin Kubro asos solgan Kubroviya haqida ham to‘xtab o‘tishni maslahat beramiz. Biz Najmiddin Kubro siymosida faqat tariqat boshchisini emas, balki o‘z vatanini, xalqini dildan sevgan insonni ham ko‘ramiz. 1221 yilda bosqinchi mug‘ul galalari qadami Xorazmga yetib boradi. Muhammad Xorazmshoh mamlakatni, fuqaroni o‘z holiga tashlab qochadi. Shu qaltis damlarda Urganchni himoya qilishga 76 yoshlik Najmiddin Kubro boshchilik qiladi va jangda qahramonlarcha shaxid bo‘ladi. Uning siymosi xalq, kahramoni sifatida asrlar osha yashab kelmoqda.

Najmiddin Kubro asos solgan Kubroviya tariqatining qoidalari o‘nta bo‘lib, ularda bu tariqat yo‘lini tutgan sufiyning ichki ma'naviy dunyosi qanday bo‘lishi ko‘rsatilgan. Insonning sabr-toqatli bo‘lishi, boylik va mol-mulkka mukkasidan ketmaslik har qanday pastkashlik riyo, makr va xiyla-nayrangga bormaslik hayvoniy xususiyat - shaxvoniy hirslarga berilmaslik g‘oyalari ilgari suriladi.

Xulosa qilib aytganda, tasavvuf ilmi - inson haqidagi ilmdir. Inson qalbiga saykal berish ilmi. U inson odobini - ya'ni ma'naviyatini yanada kuchaytirgan

butun islom axloqining eng muhim qadriyatlarini bir nuqtaga jamladi. Shu tariqa tasavvuf komil inson nazariyasi va amaliyotini ishlab chiqdi.

Islomda axloqiy-huquqiy qonun-qoidalar majmui shariat XI-XII asrlarda tugal shakllangan. Shariat qonun-qoidalari Qur'on va sunnat asosida ishlab chiqilgan. Unda musulmonlarning ijtimoiy-iqtisodiy, diniy, huquqiy va axloqiy hayotini tartibga soluvchi qonun-qoidalar belgilab berilgan. Bunday tartib-qoidalar «Hidoyat», «Vikrya», «Muxtasari hidoya», «Muxtasari vikrya» nomli kitoblarda jamlangan.

Shariatda qonunlar muqaddas hisoblanib, unga har bir mo‘min-musulmon ijtimoiy holatidan kat'iy nazar Allohning bandasi sifatida birday amal qilishi talab etilgan.

Islomda halol qilingan narsalar va ishlar ko‘pchilikka ma'lum, u haqda ko‘p eshitganmiz. Harom qilingan ishlarni eslatib o‘tish va eslatib turish joizdir. Bulardan ayrimlarga qo‘yidagilar: sog‘ bo‘la turib ishsiz yurish, zinokorlik, ota-onaga oq bo‘lish, savdo-sotiqda g‘irromlik qilish, birovning haqqiga, omonatiga hiyonat qilish, qasamho‘rlik, sudxo‘rlik, o‘g‘irlik, qarokchilik, mayxo‘rlik, g‘iybat, tuhmat, bo‘hton, josuslik, qotillik, poraxo‘rlik va boshqalar kiradi. Xullas, harom inson va jamiyatga zarar keltiradigan ish va amallardan iborat.

Islomda ota-onaga mehr-muhabbat, g‘amho‘rlik farzand tarbiyasi va oilaga sadoqat masalalariga alohida e'tibor berilgan. Kishilarni yaxshilik qilish, savob ishlarga qo‘l urish, insofli-diyonatli, vijdonli bo‘lish, mehr-shafqatlilik, to‘g‘rilik, rostguylik, sofdil bo‘lish, birodarga yordam berish, kamtarlikka chaqirish g‘oyalari ilgari surilgan.

Munofiqlik belgisi uchtadir: Yolg‘on so‘zlash, va'dasining ustidan chiqmaslik va omonatga hiyonat qilishdir;

15-mavzu.O‘bekistonda vijdon erkinligi. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash. O‘bekiston tajribasi.

Vijdon erkinligi tushunchasi.Xalqaro meyoriy hujjatlarda vijdon erkinligi. O‘zbekistonda vijdon erkinligining Asosiy Qonuni bilan kafolatlanishi. O‘zbekistonda faoliyat ko‘satayotgan diniy konfessiya va tashkilotlar. Missionerlik va prozelitizm xavfining bartaraf etilishi. Diniylik va dunyoviylik muammosi, ularning uyg‘unligini ta’minlash borasida O‘zbekistonda amalga oshirilgan tadbirlar.Ma’rifiy islomni targ‘ib yetish-yoshlarni diniy mutaassiblik, aqidaparastlik va ekstremistik g‘oyalardan muhofaza etishning oqilona yo‘li.Diniy mutaassiblik(fanatizm),ekstremizm, aqidaparastlik (fundamentalizm),xalqaro terrorizm tushunchalarining mazmuni va reaksion mohiyati. Terrorizmning tinchlik va taraqqiyotga, millatlararo munosabatlar va diniy bag‘rikenglikka tahdidi. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash. Virtual olam tahdidlari. Internet muammosi. Kibermakon va din.Global tarmoqdagi g‘oyaviy xurujlarga qarshi kurash.O‘zbekiston Respublikasida ekstremizm va terrorizm xavfini oldini olishning huquqiy va tashkiliy asoslari. O‘zbekiston rahbariyatining bu boradagi tashabbuslari va ularning xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilishi tahdidi haqida fikrlar bayon etiladi, munozaralar olib boriladi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Vijdon erkinligi deganda nimani tushunasiz?
2. Vijdon erkinligi nima va uning e’tiqod erkinligidan qanday farqlari mavjud?
3. Mamlakatiimizda “Vivdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonun qachon qabul qilingan va u necha moddadan iborat?
4. Diniy tashkilot nima va uning boshqa jamaot tashkilotlaridan qanday farqlari bor?
5. Yurtimizda nechta qiniy konfessiya mavjud va ular qaysilar?
6. Davlat va din o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishning qanday tiplarini bilasiz?
7. Ekstremizm, aqidaparastlik va mutaassiblik tushunchalarining mazmuni nima?
8. Terrorizmning mohiyati va uning xalqaro miqyosda kasb etishining sabablari nimada?
9. Diniy mutaassiblikning ilk paydo bo‘lishi qaysi davrga borib taqaladi?
10. Musulmon dunyosining diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash tajribasining ahamiyatli jihatlarini keltiring.
11. Kibermakon tushunchasining mazmun-mohiyati haqida ma’lumot bering.
12. Din niqobi ostidagi mafkuraviy tahdidlar qanday shakllarda namoyon bo‘lmoqda?
13. Nima uchun internet olamidagi buzg‘unchilar asosan yoshlarni o‘z to‘rlariga ilintirmoqda?
15. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda qaysi jihatlarga alohida e’tibor qaratish kerak?
16. Diniy ekstremizm va terrorizm xavfini oldini olishning huquqiy asoslarini qanday huquqiy asoslarini bilasiz?

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular. Javob yozish kerak.

1.Xiristiyanlikdagi oqimlar.

2.Qur’on va hadis Sharq xalqlarining diniy, ilmiy va ma’naviy merosi sifatida.

Adabiyotlar:

1.Abdusamedov A.E. Dinlar tarixi. - Toshkent: O‘zMU, 2004. -208 b.

2.Ochildiyev A. va boshqalar. Dinshunoslik asoslari (o‘quv qo‘llanma). - Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot matbaa birlashmasi, 2013.

3. Xasanov A. va boshqalar. Islom tarixi (Darslik). - Toshkent: Toshkent islom universiteti matbaa-nashriyot birlashmasi, 2008.

4. Mo‘minov A. va boshqalar. Dinshunoslik. - Toshkent: “Mehnat” 2004.

5.Yo‘ldoshxo‘jayev X., Rahimjonov D., Komilov M.Dinshunoslik. - Toshkent:ToshDShI nashriyoti, 2000

Internet manbalari:

1. www. Ziyo net.uz
2. www.faylasuf.uz
3.www. .ziyo.uz
4. www. muslim.uz
5. www. religions.uz

15-MAVZU. O‘ZBEKISTONDA VIJDON ERKINLIGI. DINIY EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA QARSHI KURASH: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI.

Reja:

1.Vijdon erkinligi tushunchasi. O‘zbekistonda vijdon erkinligining qonunan kafolatlanishi.

2.O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan diniy konfessiya va tashkilotlar.

3.Missionerlik va prozelitizm xavfining bartaraf etilishi.

4.Diniy mutaassiblik (fanatizm), ekstremizm, aqidaparastlik (fundamentalizm), xalqaro terrorizm tushunchalarining mazmuni va reaktsion mohiyati.

5. Terrorizmning tinchlik va taraqqiyotga, millatlararo munosabatlar va diniy bag‘rikenglikka tahdidi.

6. Kibbermakon va din.

7. O‘zbekiston Respublikasida diniy ekstremizm va terrorizm xavfini oldini olishning huquqiy va tashkiliy asoslari.

Tayanch tushunchalar: vijdon,erkinlik, ekstremizm, terrorizm, tajriba, missionerlik, mutaassiblik (fanatizm – frantsuzcha-«ibodat»), Shuni, Salafiy, vahhobiy, kibbermakon.

Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar masalasi ijtimoiy hayotda muhim va murakkab masala bo‘lib kelgan. Chunki uning zamirida shaxsning huquqi, demokratiya, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi katta ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va axlohiy tushunchalar yotadi. Vijdon erkinligi kishilarning ruhiy olamiga, uning sog’lom va barkamolligiga bevosita ta'sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham bu masalaning ijtimoiy hayotdagi o‘rni va bajaradigan vazifalari hayot muhimdir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ustavidan tortib, barcha halharo hujjat va shartnomalarda, hamma mamlakatlarning konstitutsiya va qonunlarida vijdon erkinligi o‘z ifodasini topgan. 1948 yilda qabul qilingan inson huquqlari umumiy deklaratsiyasiga muvofiq har bir inson fikrlash, vijdon va din erkinligi huquqiga ega. Bu huquq o‘z dini yoki e'tiqodini o‘zgartirish erkinligini, o‘z dini yoki e'tiqodiga o‘zicha, shuningdek boshhalar bilan birgalikda amal qilish kafolatini, ibodat qilishda va diniy marosimlarda yakka tartibda yoki odamlar orasida birga qatnashish erkinligini o‘z ichiga oladi.

Bundan tashqari bu masala yana bir murakkab hodisani - turli dunyoqarash, e'tiqodda bo‘lgan kishilar o‘rtasidagi, davlat bilan din, diniy tashkilotlar bilan davlat o‘rtasidagi munosabatlarning amalda huquqiy ta'minlanishini ham nazarda tutadi.

Odamlar doim turli dunyoqarash va e'tiqod bilan yashaganlar va yashaydilar. har kimning o‘z ichki dunyosi, o‘z e'tiqodi bo‘ladi.

Vijdon erkinligi qandaydir bir mavhum tushuncha emas, u albatta ma'lum ijtimoiy vaziyatda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun uni konkret tarixiy, ijtimoiy sharoitsiz, ob'yektiv va sub'yektiv omillarsiz tasavvur hilish qiyin. Bundan tashqari «vijdon erkinligi» tushunchasini ilmiy talqin qilishda milliy, mafkuraviy va madaniy omillarni ham albatta nazarda tutish kerak.

Vijdon erkinligi tabiiy huquq va erkinliklar sirasiga kiruvchi, har bir shaxsning ajralmas huquqlaridan biridir. Shaxsning tabiiy huquqlari davlatning insonga bergan «tuhfasi» emas, balki insonning munosib turmush va hayot tarzini tanlash bilan bog‘liq real imkoniyati hisoblanadi.

Shu bilan birga, tabiiy huquqlar jumlasiga kiruvchi erkinliklarni qonun chiqaruvchi o‘zi xohlaganda qisqartirishi yoki cheklashga ham haqli emas. Chunki bu huquqlar insonlarga tabiatan (Xudo tomonidan) berilgan in’om sanaladi. Vijdon erkinligi ham xuddi shunday.

Vijdon erkinligi insonning asosiy erkinliklaridan bo‘lsa-da, qonunda o‘z ifodasini topib, muhofaza ostiga olingandagina chin ma’noda huquq darajasiga ko‘tariladi. Aks holda shaxsning qalb kechinmalarini ifodalovchi bu huquq haqiqiy ma’nosini yo‘qotadi.

Bu erkinlik deyarli barcha davlatlarning konstitutsiya va qonunlarida, shuningdek, qator xalqaro hujjatlarda huquqiy jihatdan himoyaga olingan.

Atama sifatida «vijdon» so‘zi ko‘p ma’noni anglatadi. Bu atama turli soha va ijtimoiy qatlamga mansub insonlar tomonidan turlicha qo‘llaniladi. A.Madvaliyev tahriri ostida nashr etilgan «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da «vijdon» so‘ziga quyidagicha ta’rif berilgan:

«Vijdon» (*arab.* ehtiros, his-tuyg‘u, insof, diyonat) kishining o‘z xatti-harakati, qilmishi, yurish-turishi uchun odamlar, jamoatchilik oldidagi mas’uliyat hissi, insoniylikning asosiy belgilaridan biri; diyonat, insof», deya izoh berilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, vijdon so‘zining birinchi ma’nosi insoning o‘z xatti-harakatilari uchun o‘zgalar oldidagi mas’uliyat hissi hisoblanar ekan.

Aslida olib qaraganda «vijdon» so‘zi ko‘p ma’noli bo‘lgani bois uning huquq atamaShunosligida ishlatilishi unchalik ham ijobiy hol emas. Chunki «Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida»gi Qonun talablariga ko‘ra qonun hujjatlarida foydalaniladigan tushuncha va atamalar turlicha izohlash imkoniyatini istisno etishi lozim. Shuningdek, qonunda eskirgan hamda ko‘p ma’noni anglatadigan so‘zlar va iboralar, majoziy taqqoslashlar, sifatlashlar, kinoyalar qo‘llanilishi mumkin emas. Lekin bu atama endi qonunchiligimizga kirib bo‘ldi. Uni foydalanishdan chiqarib, yangi so‘z ixtiro qilgandan ko‘ra, atamaning mazmun-mohiyatini keng ommaga tushuntirish, izohlab berish maqsadga muvofiq.

Shunday ekan, vijdon erkinligining birinchi ma’nosi aynan shaxsning e’tiqodi bilan bog‘liq huquqi sifatida qabul qilgan holda shu mazmunni yoritishga harakat qilamiz.

Bu qoidaga ko‘ra «vijdon erkinligi» degan tushunchaning mazmun-mohiyati Shaxsning xohlagan dinga e’tiqod qilishi bilan birga, hech qanday dinga e’tiqod qilmaslik ixtiyorini ham qamrab oladi. Bu modda so‘ngida «diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi», degan muhim qoida asosida, har bir inson haqli bo‘lgan huquqning buzilmasligi uchun qonuniy zamin tayyorlangan. Buning zamirida vijdon erkinligiga nisbatan har qanday tahdidni bartaraf etish istagi yotadi.

Shunday qilib, Konstitutsiyamizdagi norma asosida vijdon erkinligi uch jihatni anglatadigan huquqiy kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi:

- *Muayyan shaxs Xudoga ishonishi, xohlagan diniga e’tiqod qilishi mumkin;*
- *Xudoga va dinga ishonmasligi, ularga nisbatan betaraf bo‘lishi mumkin.*
- *Dahriy, ya’ni hech bir dinga e’tiqod qilmaygina qolmasdan, balki ularni inkor etishi mumkin.*

Bu vijdon erkinligi huquqi aynan shu masalalar bilan cheklanadi degani emas. Odatda, konstitutsiya davlatning asosiy qonuni bo‘lib, yoritiladigan normaning umumiy jihatlarini o‘zida qamrab oladi. Konstitutsiya asosida qabul qilingan qonun va qonun osti hujjatlarida norma kengroq yoritiladi va sharhlanadi. Konstitutsiyadagi 31-modda zamirida qabul qilingan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonunning 3-moddasi birinchi va ikkinchi banlarida bu tushuncha kengroq ochib berilgan. Unda aytilishicha, «Vijdon erkinligi fuqarolarning har qanday dinga e’tiqod qilish yoki hech qanday dinga e’tiqod qilmaslikdan iborat kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqidir.

Fuqaro o‘zining dinga, dinga e’tiqod qilishga yoki e’tiqod etmaslikka, ibodat qilishda, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka, diniy ta’lim olishga o‘z munosabatini belgilayotgan paytda uni u yoki bu tarzda majbur etishga yo‘l qo‘yilmaydi».

Demak, vijdon erkinligi faqat Xudoga ishonish yoki ishonmaslikdan tashqari, ibodat qilish, diniy rasm-rusmlar va marosimlarda ishtirok etish erkini, shuningdek, diniy ta'lim olish yoki olmaslikni o'z ixtiyori asosida belgilash huquqlarini ham o'z ichiga oladi. Shu o'rinda maslaning ikkinchi jihatini ham e'tiborga olish zarur, ya'ni O'zbekistonda diniy ta'lim maktab ta'limidan ajratilgan. Shuningdek, O'zbekiston qonunchiligida xususiy tartibdagi diniy ta'lim taqiqlanadi. Shunday ekan, diniy ta'lim maxsus vakolatga ega bo'lgan diniy ta'lim muassasalarida o'rganiladi.

Shaxs dinga nomigagina ishonishi yoki xudojo'y bo'lishi, but va sanamlar yoki jonivorlarga sig'inishi, dinsiz dahriy yoki butunlay dinga qarshi inson ham bo'lishi mumkin. Ammo shaxsning bu kabi qarashlari uni ayblash yoki tahqirlash uchun asos bo'lmaydi. Bu vijdon erkinligi huquqi asosida kafolatlangan imtiyoz hisoblanadi. Kimning qanday e'tiqodga ega bo'lishi yoki bo'lmasligi uning vijdoniga havola etiladi. Lekin havola etilayotgan e'tiqod qonunga xilof bo'lmasligi shart. Ya'ni e'tiqod qilaman deb taqiqlangan diniy tashkilotlarga a'zo bo'lishi yoki ularning g'oyalarini targ'ib qilishi qonunga xilof sanaladi. Shu bilan birga, bir shaxs boshqa shaxsni e'tiqodiy qarashlaridan kelib chiqib tahqirlashi ham taqiqlanadi. O'z navbatida, bunday xatti-harakat javobgarlikka sabab bo'ladi.

Ba'zi huquqiy adabiyotlarda «vijdon erkinligi» o'rnida «e'tiqod erkinligi» tushunchasini ham uchratish mumkin. Aslida «e'tiqod» (arabcha «i'taqada» fe'lidan) so'zi ham ko'p ma'noli so'zlar jumlasiga kirib, ishonch, imonli bo'lish, ko'ngilda tasdiqlash kabi bir necha ma'nolarga ega. Biz uchun kerakli bo'lgan ma'nosiga keladigan bo'lsak, Xudoga yoki umuman g'ayritabiiy kuchlarga imon keltirishni anglatadi.

E'tiqod erkinligi ham vijdon erkinligi singari shaxsning biror dinni ixtiyor etib, unga e'tiqod qilishi huquqini anglatadi. Lekin bu huquq vijdon erkinligi qoidalari ruxsat beradigan dahriy bo'lish huquqini kafolatlamaydi. Shu kabi farqlar sababli ayrim davlatlar qonunchiligida (musulmon arab davlatlarida) vijdon erkinligi emas, e'tiqod erkinligi kafolatlangan. Shunga asosan agar inson amal qilib turgan dinidan chiqadigan bo'lsa, ayrim hollarda qonuniy jazo sanksiyalarining qo'llanilishi ham e'tiqod erkinligining o'ziga xos xususiyatini ko'rsatadi.

Shunga ko'ra, aytish mumkinki, vijdon erkinligi e'tiqod erkinligidan kengroq tushuncha hisoblanadi.

Vijdon erkinligi tushunchasi xalqaro huquqiy hujjatlarda ham atroflicha bayon etilgan. Jumladan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 18-moddasida shaxsning vijdon erkinligi huquqi kafolatlangan. Unda aytilishicha, «Har bir inson fikr, vijdon va din erkinligi huquqiga ega; bu huquq o'z dini yoki e'tiqodini o'zgartirish erkinligini va ta'limotda, toat-ibodat qilishda va diniy rasm-rusm hamda marosimlarni ommaviy yoki xususiy tartibda ado etish, o'z dini yoki e'tiqodiga yakka o'zi, shuningdek, boshqalar bilan birga amal qilish erkinligini o'z ichiga oladi».

Mazkur normaga ko'ra vijdon erkinligi shaxsga quyidagi huquqlarni kafolatlaydi:

- *Shaxsning o‘z dini yoki e’tiqodiga ega bo‘lish;*
- *Shaxsning o‘z dini yoki e’tiqodini o‘zgartirish;*
- *ta’limotda, toat-ibodat qilishda va diniy rasm-rusm hamda marosimlarni ommaviy yoki xususiy tartibda ado etish;*
- *o‘z dini yoki e’tiqodiga yakka o‘zi, shuningdek, boshqalar bilan birga amal qilish.*

Bundan tashqari, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro Paktning 19-moddasida ham vijdon erkinligiga ayni shu mazmunda izoh berilgan.

Shu o‘rinda bir masalaga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Vijdon erkinligi shaxsning o‘z dini va e’tiqodini o‘zgartirish huquqini kafolatlashi aniq. Lekin bunday o‘zgartirish boshqa shaxsning ta’sirida bo‘lmasligi shart. Aks holda, bu qonunchiligimizda taqiqlangan missionerlikning bir ko‘rinishiga aylanib qolishi mumkin.

Mustaqillik, yangilanish jarayoni hamma sohalar kabi vijdon erkinligi, davlat va din, dinga ishonuvchilar va ishonmaydiganlar o‘rtasidagi munosabatlar sohasini ham o‘z ichiga oldi. Binobarin, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida asrlar osha haror topgan vijdon erkinligiga yuksak va samimiy hurmat ifodalangan. 1992 yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 31-moddasida har bir fuqaro uchun vijdon erkinligi huquqi kafolatlanadi.

Shuni mamnuniyat bilan qayd etish lozimki, keyingi yillarda davlat bilan diniy tashkilotlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda juda katta o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Dinning jamiyatdagi o‘rni yanada tiklanmoqda. Diniy uyushma va tashkilotlarning faoliyat ko‘rsatishlariga imkoniyat yaratilmoqda. Qator tarixiy obidalar diniy tashkilotlar ixtiyoriga o‘tkazildi, yangi masjidlar ochilmoqda. Diniy tashkilotlarning halqaro aloqalari kun sayin kengayib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasida vijdon erkinligining konstitutsion ta'minlanishi fuqarolarda din va diniy qadriyatlarga nisbatan adolatli va xolisona munosabatni belgilash imkoniyatini yaratdi.

Yangi tahrirdagi “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonun Respublikamiz Konstitutsiyasi tamoyillariga asoslanib, vijdon erkinligini amalga oshirishning oqilona demokratik yechimini topdi. Qonun fuqarolarning har qanday dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslikdan iborat kafolatlangan huquq va manfaatlarini himoya qilishni ta'minlamoqda.

Vijdon erkinligi fuqarolarning u yoki bu dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqidir. Vijdon erkinligi inson huquqlari masalasining eng muhim kirralaridan biridir. Shuning uchun ham Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1948 yilda qabul qilingan «Inson huquqlari Deklaratsiyasi»da bu masalaga alohida e'tibor berilgan. Xususan, Deklaratsiyaning 18-moddasida bunday deb yozib qo‘yilgan: «Har bir inson vijdon va din erkinligi huquqiga egadir».

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi ham inson huquqlari bo‘yicha Xalqaro me'yorlarni tan olgan va mazkur masala xususida xalqaro xamjamiyat qabul qilgan xujjatlarga qo‘shilgan. Shuning uchun ham davlatimizning Asosiy Qonuni-Konstitutsiyamizning 31-moddasida quyidagi satrlar bitilgan: «Hamma uchun

vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson hoxlagan diniga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huqukiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi».

Demak, bir kishi boshqasiga, sen u dinga, sen bu dinga e'tiqod qilasan yoki sening biror dinga e'tiqod qilishga haqqing yo‘q, sen bedinsan, deb ayta olmaydi va u yoki bu aqidaga bo‘ysunishga majbur eta olmaydi. Dindor kishini ikkinchi shaxs, «Diniy e'tiqodingizdan qayting», deb majbur qila olmaydi. Dinga ishonish yoki ishonmaslik, dindor yoki daxriy (dinsiz) bo‘lish har kimning shaxsiy ishidir.

Vijdon erkinligi deyilganda, ayni paytda fuqarolarning dinga munosabatidan qat'i nazar, ularning teng huquqliligi, barcha dinlarning qonun oldida tengligi, dinga e'tiqod qilish yoki qilmaslikka nisbatan hech qanday majburiyatning yo‘qligi, diniy tashkilotlar (masjid, cherkov, sinagoga va h.k.) uchun majburiy yig‘imlar to‘plashning ta'qiqlanganligi, diniy e'tiqod tufayli o‘zaro adovat va nafrat ko‘zg‘atishning taqiqlanishi kabi masalalar ham tushuniladi.

Ayni paytda, shu narsani alohida ta'kidlash zarurki, dinga e'tiqod qilish erkinligi faqat milliy xavfsizlik va jamoat tartibini, boshqa fuqarolarning hayoti, salomatligi, ahloqi, huquqi va erkinligini ta'minlash uchun zaruriyat tug‘ilgandagina cheklanishi mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, vijdon erkinligi shaxsning konstitutsiyaviy tabiiy huquqi bo‘lib, davlat bu erkinlikni huquqiy kafolatlash va amalda ta’minlash tadbirlarini ro‘yobga chiqarish bilan bir qatorda, uni poymol etishga nisbatan har qanday tahdidning oldini olishga ham intiladi. Qonun ustuvorligi eng oliy mezon bo‘lgan fuqarolik jamiyatining har bir a’zosi ushbu qonuniy talabga to‘g‘ri munosabatda bo‘lib, uning hayotga tatbiq etilishiga hissa qo‘shishi lozim. Chunki eng muhim konstitutsiyaviy huquqlardan bo‘lgan vijdon erkinligi huquqining amalda ro‘yobga chiqarilishi fuqarolik jamiyatining ma’naviy-madaniy rivojlanganlik darajasining ham muhim ko‘rsatkichlaridan hisoblanadi.

Binobarin, vijdon erkinligi demokratiyaning tarkibiy qismi hamdir.

Vijdon erkinligining kafotlatlari nimalardan iborat?

Bu kafolatlar ko‘p qirralidir. Ular O‘zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi qonunida ta'riflab berilgan. Bular:

- avvalo, dinlarning va diniy tashkilotlarning davlatdan ajratilganligi;
- barcha fuqarolar uchun maorif va madaniyat eshiklarining ochiqligi;
- maktabning dindan va diniy tashkilotlardan ajratilganligi;
- ta'lim tizimining o‘quv dasturlariga diniy fanlar kiritilishiga yo‘l qo‘yilmasligi;
- dindorlarning diniy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘lgan muayyan sharoitlarning yaratib berilganligi.

«Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 1991 yilda, milliy mustaqillikka erishish arafasidayoq, O‘zbekistonda davlat va jamiyat hayotini demokratiyalash jarayoni boshlandi. Bu jarayon ayni paytda, kun tartibiga din, diniy tashkilotlar va dindorlarga ham munosabatni o‘zgartirish masalasini qo‘ydi.

Bu masalalarda Respublikamizda jiddiy o‘zgarishlar amalga oshirildi. Biroq, dindan o‘z g‘arazli maqsadlari yo‘lida foydalanishga urinish, dinni yagona xukmron mafkuraga aylantirishga harakat qiluvchilar ham yo‘q emas edi. Ana shunday sharoitda «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida» qonun qabul qilish hayotiy zaruratga aylandi. Bu qonun mutlaqo yangi sharoitda dinning, diniy tashkilotlarning jamiyatdagi o‘rnini, davlat va din munosabati tamoyillarini belgilab berishi lozim edi.

1991 yil 14 iyunda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi ana shunday qonunni qabul qildi.

1998 yil 1 may kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XI sessiyasida “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonunning 23 moddadan iborat yangi tahriri qabul qilindi. Qonunning 3-moddasi «Vijdon erkinligi huquqi» deb nomlangan. Bu moddada quyidagi qoidalar yozilgan:

«Fuqaro o‘zining dinga, dinga e'tiqod qilishga yoki e'tiqod etmaslikka, ibodat qilishda diniy rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka nisbatan o‘z munosabatini belgilayotgan paytda uni u yoki bu tarzda majbur etishga yo‘l qo‘yilmaydi». Bu ayni vaqtida belgilangan hayotiy qoidadir.

Bu qoidani buzganlik uchun fuqaro O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 145-moddasiga ko‘ra, eng kam ish haqining 75 barobaridan 100 barobariga miqdorda jarima solish yoki 6 oygacha qamoq, yoxud 3 yildan 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Qonunning 4-moddasi «Fuqarolarning dinga munosabatidan qat'iy nazar teng huquqliligi» deb nomlangan.

Binobarin, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari dinga munosabatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Qonun talabiga ko‘ra, rasmiy hujjatlarda (masalan, fuqaro pasportida) fuqaroning dinga munosabati ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Fuqarolarning dinga munosabatiga qarab huquqlari cheklanmaydi yoki ularga hech qanday imtiyozlar berilmaydi. Shuningdek, bir-biriga nisbatan dushmanlik va adovat ko‘zg‘atish, diniy yoki daxriylik xis-tuyg‘ulari uchun haqoratlash ta'qiqlanadi. Bundan tashqari, mazkur moddada hech kim diniy e'tiqodini ro‘kach qilib qonunda belgilangan majburiyatlarni bajarishdan bosh tortishi mumkin emasligi ham qayd etilgan.

Qonunning «Ta'lim tizimi va din» deb atalgan 7-moddasida quyidagilar yozib quyilgan: «O‘zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi dindan ajratilgan. Ta'lim tizimining o‘quv dasturlariga diniy fanlar kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi».

Bu qoidani quyidagicha tushunish kerak:

Respublikamizda davlat o‘quv yurtlarida diniy ta'lim berilmaydi, ya'ni maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim, o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlari o‘quv rejalariga din dars sifatida kiritilmaydi. Chunki, bu o‘quv yurtlari dunyoviy bilimlar beruvchi maskanlardir.

Lekin, fuqarolar mutlaqo diniy ta'lim olish huquqiga ega emas, degan ma'no kelib chiqmaydi. O‘zbekiston fuqarolari diniy ta'lim olishlari mumkin. Biroq,

bunda albatta, qonunda belgilangan tartibga amal qilish shart. Xo‘sh, bu qonunning tartiblari nimalardan iborat?

«Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi qonunga ko‘ra voyaga yetmagan bolalarni ularning ota-oanlari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar roziligisiz diniy tashkilotga jalb etish, diniy bilim berishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Oliy va o‘rta diniy o‘quv yurtlarida ta'lim olish uchun fuqarolarga umumiy majburiy o‘rta ta'limdan keyin ruxsat etiladi. Bu diniy o‘quv yurtlari albatta davlat ro‘yxatidan o‘tgan bo‘lishi lozim. Diniy o‘quv yurtlarida ta'lim beruvchilar albatta, diniy ta'lim olgan bo‘lishlari hamda diniy ta'lim berishga qonunda belgilangan tartibda ruxsat olgan bo‘lishlari lozim. Bu belgilangan qoidalardan boshqa shakllarda diniy ta'lim berish qonun yo‘li bilan man etiladi.

Belgilangan tartiblarning buzilishi qonunga muvofiq javobgarlikka tortilishgacha olib keladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 145-moddasiga ko‘ra voyaga yetmagan bolalarni diniy tashkilotlarga jalb etish, shuningdek, ularni ixtiyoriga, ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar ixtiyoriga zid tarzda diniy bilim berganlar eng kam ish haqining 50 barobaridan 75 barobarigacha miqdorda jarima solinishiga yoki 2 yildan 3 yilgacha ahloq tuzatish ishlari, yohud 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Istiqlol yillarida din sohasida chuqur o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. O‘zbekistonda turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylashga, barcha fuqarolarga o‘z e'tiqodini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratib berishga, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga, ular o‘rtasida qadimiy mushtarak an'analarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, 1995 yilning oktyabr oyida Toshkent shahrida “Bir samo ostida” shiori ostida xalqaro musulmon-xristian konferentsiyasi o‘tkazilishi, 1996 yilning noyabrida Rus pravoslav cherkovi Toshkent va Markaziy Osiyo yeparxiyasining 125 yilligi tantanalari o‘tkazilishi fikrimizning isbotidir.

2013 yilning 1 yanvar holatiga ko‘ra, respublikamizda 16 konfessiyaga (Islom, Rus pravoslav cherkovi, Rim-katolik cherkovi, Nemis-lyuteran cherkovi, Arman-apostol cherkovi, To‘liq injil xristianlari, Yevangelь-xristian baptistlar cherkovi, Novoapostol cherkovi, Yettinchi kun adventistlari, “Golos bojiy”, Iegovo shohidlari, Koreys protestant cherkovlari, Yahudiylik, Bahoiylik, Krishnani anglash jamiyati, Buddaviylik) mansub 2224 ta diniy tashkilot rasman faoliyat olib boradi. Jumladan, 2037 ta masjid, 2 ta markaz, Toshkent islom instituti, 9 ta o‘rta maxsus islom bilim yurti, shuningdek, jami 175 ta noislomiy diniy tashkilot, jumladan, Pravoslav va Protestant seminariyalari faoliyat ko‘rsatmoqda.

Dunyoviy davlat tushunchasi. Dunyoviy davlat – bu, din davlatdan ajratilgan davlat. Binobarin, din dunyoviy davlat ishiga, siyosatiga aralashmaydi. Ayni paytda, davlat diniy tashkilotlar zimmasiga o‘zining hech qanday vazifasini bajarishni yuklamaydi. Ularning davlat qonunlariga zid bo‘lmagan faoliyatiga aralashmaydi.

Dunyoviy davlat – bu, o‘z fuqarolari uchun vijdon erkinligini e'lon qiladigan davlat. Bunday davlatning fuqarolari dinga munosabatidan qat'i nazar qonun oldida teng bo‘ladilar. Fuqarolarning dinga qanday munosabatda bo‘lishiga qarab, ular

huquqlarining biron bir tarzda cheklanishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Shuningdek, har bir fuqaroga diniy e'tiqodini ro‘kach qilib, davlat qonunida unga nisbatan belgilab qo‘yilgan majburiyatlarni bajarishdan bosh tortishiga ham yo‘l qo‘yilmaydi.

Dunyoviy davlat – bu, biror dinga imtiyoz berilmasligini, barcha diniy tashkilotlarning qonun oldida tengligini e'lon qilgan va uni amalda ham ta'minlaydigan davlatdir.

Dunyoviy davlat dinning davtlatga, amaldagi qonunlariga qarshi targ‘ibotiga yo‘l qo‘ymaydi, diniy qarama-qarshiliklar, toqatsizliklarning yuzaga kelishiga ruxsat bermaydi.

Dunyoviy davlat – bu, o‘z ta'lim tizimini dindan ajratgan, o‘quv dasturlari diniy fanlardan holi bo‘lgan hamda ta'lim mazmuniga din singdirilmaydigan davlatdir.

Ayni paytda, dunyoviy davlat – o‘z fuqarolariga qonunlarda belgilangan tartibda diniy ta'lim olishni ham kafotlatlaydigan davlatdir. Dunyoviy davlatda diniy tashkilotlarning faoliyati davlat hisobidan mablag‘ bilan ta'minlaydi.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, dunyoviy davlatda din davlatdan ajratilsa-da, jamiyatdan ajratilmaydi. Binobarin, davlat Konstitutsiyasida va qonunlari asosida uning amal qilish tartiblari belgilab beriladi.

O‘zbekistonda davlat va din munosabati. O‘zbekiston – dunyoviy davlat. Demak, dunyoviy davlatda amal qiladigan davlat va din munosabati tamoyillari O‘zbekistonda ham amal qiladi.

Ayni paytda, Respublikamizda davlat va din munosabati masalasida o‘ziga xos jihatlar ham mavjud.

O‘zbekistonda ma'naviy hayotning asosini fan yoki din, falsafa yoki ilohiyot tashkil etadimi, degan muammo bugungi kunda ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga molik. Bu muammoni to‘g‘ri hal etish O‘zbekistonning kelgusi taraqqiyoti uchun favqulodda muhimdir.

O‘zbekiston Konstitutsiyasining umumiy ruhi va respublika rahbariyatining fikrlariga ko‘ra ma'naviyatning asosi fan bo‘lib qolishi kerak. Dinga esa jamiyatning ma'naviy-ahloqiy jihatdan poklanishining bir vositasi sifatida qarash to‘g‘ri bo‘ladi.

Shunday qilinganda, birinchidan, vijdon erkinligi to‘g‘risidagi Konstitutsion Qonun amalga oshishi uchun kafolat yuzaga keladi;

Ikkinchidan, bir dinning boshqa din, bir e'tiqodning boshqa e'tiqodga nisbatan imtiyozli bo‘lishining oldi olinadi;

Uchinchidan, din ma'naviy madaniyatda o‘ziga munosib o‘rin egallaydi;

To‘rtinchidan, biron-bir dinning siyosiylashmay, sofligi saqlanadi;

Beshinchidan, yoshlarning dindorlikni diniy mutaassiblikdan farqlashga aqllari yetadiki, bu o‘z-o‘zidan diniy partiyalar tuzish behuda, zararli ish ekanligini ayon qiladi.

O‘zbekiston davlati o‘z fuqarolarining diniy e'tiqodlarini hurmat qiladi. Ayni paytda, dindorlar va diniy tashkilotlar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida belgilab qo‘yilgan quyidagi talablarga ham rioya etishi lozim:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish;

- dindan davlatga va Konstitutsiyaga qarshi targ‘ibot olib borish, millatlararo adovat uyg‘otish va fuqarolararo totuvlikni buzish vositasi sifatida foydalanmaslik;

- diniy tashkilotlarning davlat ro‘yxatidan o‘tishi;

- diniy o‘quv yurtlarida diniy fanlarni o‘qitayotgan shaxslarning diniy ta'lim olgan bo‘lishlari va diniy tashkilot rahbariyati ruxsati bilangina o‘qitish ishlarini olib borishlari;

- dindorlardan majburiy pul yig‘imi yig‘maslik va to‘lovlar undirmaslik;

- taqiqlangan g‘oyalarni, adabiyotlarni, kino, foto va video mahsulotlarni tarqatmaslik va ishlab chiqarmaslik.

O‘zbekiston davlatida yana quyidagilar man etilgan:

- diniy mohiyatdagi siyosiy partiya va jamoat harakatlarni tuzish. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasida aniq ifoda qilingan.

Ayni paytda, Respublikamizda chet davlatlarda tuzilgan diniy partiyalarning bo‘limlari tuzilishi ham ta'qiqlanadi:

- terrorchilik, narkobiznes va uyushgan jinoyatchilikka ko‘maklashadigan, shuningdek, boshqa g‘arazli maqsadlarni ko‘zlovchi diniy tashkilotlar, oqimlar, sektalarning faoliyat ko‘rsatishi;

- dindorlar va diniy tashkilotlarning davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga tazyiq o‘tkazishi;

- yashirin diniy faoliyat bilan shug‘ullanish;

- davlat ro‘yxatidan o‘tmagan diniy tashkilotlarning faoliyat ko‘rsatishi;

- diniy tashkilotlar xizmatchilarining O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodining ro‘yxati olinishi;

- diniy tashkilotlar xizmatchilarining xokimiyat vakillik organlari deputatligiga nomzod etib ro‘yxatga olinishi.

Qonunning yuqorida qayd etilgan qoidalariga amal qilmagan fuqarolar jinoiy javobgarlikka tortiladilar. Diniy tashkilotlar faoliyati esa tugatiladi.

Davlat va diniy tashkilotlar qonunga og‘ishmay amal qilsalar, jamiyatda siyosiy barqarorlik mustahkam bo‘ladi va fuqarolar totuvliligi to‘la qaror topadi.

Konstitutsiyadan:

«O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar qonun oldida tengdirlar»

(18-modda)

«Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson hohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi».

(31-modda)

«Konstitutsiyaviy tuzumni zo‘rlik bilan o‘zgartirishni maqsad qilib qo‘yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ‘ib qiluvchi, xalqning sog‘ligi va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek xarbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi

siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati ta'qiqlanadi».

(57-modda)

«Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi qonundan:

3-modda. Vijdon erkinligi – fuqarolarning har qanday dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslikdan iborat kafolatlangan Konstitutsiyaviy huquqidir.

Fuqaro o‘zining dinga, e'tiqod qilishga yoki e'tiqod etmaslikka, ibodat qilishda, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka, diniy ta'lim olishga o‘z munosabatini belgilayotgan paytda uni u yoki bu tarzda majbur etishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Voyaga yetmagan bolalarni diniy tashkilotlarga jalb etish, shuningdek ularning ixtiyoriga, ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar ixtiyoriga zid tarzda dinga o‘qitishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Dinga e'tiqod qilish yoki o‘zga e'tiqodlar erkinligi milliy xavfsizlikni va jamoat tartibini, boshqa fuqarolarning hayoti, salomatligi, ahloqi, huquqi va erkinliklarini ta'minlash uchun zarur bo‘lgan darajadagina cheklanishi mumkin.

5-modda. O‘zbekiston Respublikasida din davlatdan ajratilgan. Hech bir dinga yoki diniy e'tiqodga boshqalarga nisbatan biron-bir imtiyoz yoki cheklashlar belgilanishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Davlat turli dinlarga e'tiqod qiluvchi va ularga e'tiqod qilmaydigan fuqarolar, har xil e'tiqodlarga mansub diniy tashkilotlar o‘rtasida o‘zaro murosa va xurmat o‘rnatilishiga ko‘maklashadi, diniy va o‘zga mutaassiblikka hamda ekstremizmga munosabatlarni qarama-qarshi qo‘yish va keskinlashtirishga, turli konfessiyalar o‘rtasida adovatni avj oldirishga qaratilgan hatti-harakatlarga yo‘l qo‘ymaydi.

Davlat diniy konfessiyalar o‘rtasidagi tinchlik va totuvlikni qo‘llab-quvvatlaydi. Bir diniy konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan hatti-harakatlar (prozelitizm), shuningdek, boshqa har qanday missionerlik faoliyati man etiladi.

1998 yilda qabul qilingan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida» gi qonuning 5-moddasiga ko‘ra: «Davlat diniy konfessiyalar o‘rtasidagi tinchlik va totuvlikni qo‘llab quvatlaydi. Bir diniy konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan hatti-xarakatlar (prozelitizm), shuningdek boshqa xar qanday missionerlik faoliyati man etiladi» deb belgilab qo‘yilgan.

Inson va fuqarolarning vijdon erkinligi huquqini amalga oshirishlarida diniy tashkilotlarning muhim o‘rni bor. Davlat bilan din o‘rtasidagi munosabatlarda sub’ekt sifatida bir tomondan e’tiqod qiluvchilar, ya’ni fuqarolar, ikkinchi tomondan davlat va uchinchi tomondan diniy tashkilotlar qatnashadi.

O‘zbekiston dunyoviy xarakterdagi davlat va diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan bo‘lishiga qaramay, ularni jamiyatdan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu sababli davlat diniy tashkilotlarning qonuniy faoliyatini qo‘llab quvvatlaydi, jamiyatning ma’naviy qadriyatlarini tiklanishi va rivojlanishida diniy tashkilotlar ko‘magiga tayanadi, ya’ni O‘zbekistonda din davlatdan ajratilgan bo‘lsada, jamiyatning ajralmas bo‘lagi hisoblanadi.

Bugungi kunda din bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi fuqarolar va davlatning o‘rni va ahamiyati birmuncha oydin bo‘lsa-da, diniy tashkilotlar haqida, ularning maqomi va vazifalari, faoliyati haqida ma’lumotga ega bo‘lish vijdon erkinligi sohasidagi bilim va ko‘nikmalarning yanada ortishiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonunining 8-moddasi diniy tashkilotlarga bag‘ishlangan bo‘lib, unda aytilishicha, «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining dinga e’tiqod qilish, ibodat, rasm-rusumlar va marosimlarni birgalikda ado etish maqsadida tuzilgan ko‘ngilli birlashmalari (diniy jamiyatlar, diniy o‘quv yurtlari, masjidlar, Cherkovlar, sinagogalar, monastirlar va boshqalar) diniy tashkilotlar deb e’tirof etiladi».

Diniy tashkilotga berilgan bu kabi ta’rif boshqa davlatlar qonunchiligida ham uchraydi. Jumladan, Armaniston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi qonunida «Diniy tashkilot – bu fuqarolarning dinga e’tiqod qilish, ibodat, rasm-rusumlar va marosimlarni birgalikda ado etish maqsadida tuzilgan ko‘ngilli birlashmalari (Cherkovlar, diniy jamiyatlar, eparxiyalar, monastirlar, diniy kongregatsiyalar, diniy o‘quv yurtlari, nashriyotlar) dir» deya ta’rif berilgan.

Rossiya Federatsiyasining «Vijdon erkinligi va diniy birlashmalar to‘g‘risida»gi federal Qonunining 8-moddasi 1-bandida: «Rossiya Federatsiyasi fuqarolari, Rossiya Federatsiyasi hududida doimiy va qonuniy asoslarda istiqomat qiladigan boshqa shaxslarning dinga birgalikda e’tiqod qilish va tarqatish maqsadlarida tuzilgan va yuridik shaxs sifatida qonun bilan belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tgan ko‘ngilli birlashmalari», diniy tashkilot deb e’tirof etiladi.

Demak, diniy tashkilot tushunchasiga berilgan ta’riflar o‘rtasida mushtarak jihatlar mavjud. Umuman olib qaraganda diniy tashkilot inson va fuqarolarning vijdon erkinligi huquqini amalga oshirishlariga ko‘maklashuvchi notijorat ko‘ngilli tashkilot hisoblanadi.

Mamlakatimizda faoliyat yuritadigan barcha diniy tashkilotlar O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, O‘zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi yangi tahrirdagi qonuniga va amaldagi boshqa qonunchilik hujjatlariga asosan tashkil etiladi va faoliyat ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi yangi tahrirdagi qonuniga asosan diniy tashkilotlar faoliyati fuqarolarning *dinga e’tiqod qilish*, *ibodat qilish*, *diniy rasm-rusumlar va marosimlarni birgalikda ado etishlariga ko‘maklashish*ni maqsad qiladi.

Qonunchilikda diniy tashkilotlarning bir necha turlari e’tirof etiladi. Unga ko‘ra, *diniy jamiyatlar*, *diniy o‘quv yurtlari*, *masjidlar, Cherkovlar*, *sinagogalar*, *monastirlar* va boshqa tashkilotlarga diniy tashkilot maqomi beriladi.

Diniy tashkilot huquqiy jihatdan e’tirof etilishi uchun, avvalo, u qonuniy asoslarga ega bo‘lishi lozim. Respublikamizda tuziladigan diniy tashkilotlar ustav (nizom)i O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yoki uning joylardagi

organlarida ro‘yxatdan o‘tkazilgandan so‘ng, yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lib, qonunchilikda belgilangan tartibda o‘z faoliyatini olib borishi mumkin.

Respublikamizning «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risdagi» Qonuni va «O‘zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida» Vazirlar Mahkamasi qarori asosida diniy tashkilot tuzish uchun to‘rtta muhim shartga amal qilish kerak. Unga ko‘ra diniy tashkilot tuzish uchun tashabbuskorlar:

-18 yoshga to‘lgan bo‘lishlari lozim. Bu holat deyarli barcha davlatlarning qonunchiligida mustahkamlangan qoida bo‘lib, shaxs 18 yoshga to‘lgach o‘z xatti-harakatining mazmun-mohiyatini to‘liq anglab etadi va sudda da’vogar va javobgar bo‘lish huquqiga ega bo‘ladi.

-O‘zbekistonda muqim yashayotgan bo‘lishlari lozim. Diniy tashkilotda o‘tkaziladigan ibodat va rasm-rusmlar asosan shu hududda muqim yashovchi insonlarga mo‘ljallanadi. Bundan tashqari xorijda yashovchi insonning boshqa mamlakatda tashkil etiladigan diniy tashkilotni tuzishdan ko‘zlangan maqsadi har doim ham ezgu bo‘lavermaydi. Bunga yaqin o‘tmishimizda ayrim diniy ekstremistik oqimlar tomonidan sodir etilgan jinoiy xatti-harakatlar misolida ham ko‘rish mumkin.

-O‘zbekiston fuqaroligiga ega bo‘lishlari kerak.

-Bu esa, mamlakatimizdagi diniy tashkilotlar shaxsning millati, dinidan qat’i nazar faqat O‘zbekiston xalqi tomonidan tuzilishi mumkin ekanini anglatadi. Lekin diniy tashkilotga a’zo bo‘lishda shaxsning biror davlatning fuqarosi bo‘lish-bo‘lmasligining unchalik ahamiyati yo‘q. Chunki, diniy tashkilotga a’zo bo‘lish vijdon erkinligining tarkibiy qismi bo‘lib, har bir shaxs bu huquqdan foydalanishga haqlidir.

-Son jihatdan 100 nafardan kam bo‘lmasliklari shart qilinadi.

-Respublikamizning dastlabki tahrirdagi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risdagi» Qonunining 13-moddasida diniy tashkilot kamida o‘n kishidan iborat o‘n sakkiz yoshga to‘lgan fuqarolar tashabbusi bilan tuzilishi qayd etilgan edi. Diniy tashkilotlar jamoat birlashmalaridan ayrim jihatlarda farq qiladi va mas’uliyati ham kattaroq. Shu bilan birga qonunchilikda belgilangan qoidalar jamiyat rivoji va zamon talabi bilan o‘zgarishi muqarrar.

Dunyo davlatlarining vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonunchiligiga e’tibor qaratilsa, diniy tashkilot tuzish uchun zarur bo‘lgan tashabbuskorlarga qo‘yilgan minimal miqdor turlicha ekanini ko‘rish mumkin. Jumladan, Rossiya Federatsiyasi va Qozog‘istonda 10 nafar, Polsha, Litvada 15, Latviyada 25, Vengriyada 100, Armaniston va Qirg‘izistonda 200, Chexiyada 300, Turkmanistonda 500 nafardan iborat fuqarolar tashabbusi bilangina diniy tashkilot tuziladi. Bu esa, diniy tashkilot tuzish borasidagi qoidalar har bir davlatning o‘z shart-sharoitidan kelib chiqqan holda belgilanishini ko‘rsatadi.

Diniy tashkilot tuzilib, ustav (nizom)i qabul qilingach, u bir oylik muddatda Adliya vazirligi yoki uning hududiy boshqarmalarida ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim. «O‘zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida»gi Qaror asosida diniy tashkilotlar ro‘yxatdan o‘tish uchun

tegishli hujjatlarni adliya organlariga taqdim etadilar. Taqdim etilishi lozim bo‘lgan hujjatlar tuzilgan diniy tashkilotning qonuniyligini o‘rganishga xizmat qiladi.

Adliya organlari bir oylik muddatda ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘yicha arizani ko‘rib chiqadi va tashkilot ustavini ro‘yxatdan o‘tkazish, ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etish yoki arizani inobatsiz qoldirish haqidagi qarorni qabul qiladi.

«Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risdagi» Qonunga ko‘ra ro‘yxatdan o‘tgan va tegishli konfessiyaga qarashli diniy tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va yo‘naltirib borish uchun ularning O‘zbekiston bo‘yicha yagona *markaziy boshqaruv organlari* tuzilishi mumkin.

Markaziy boshqaruv organi Respublikaning kamida sakkizta hududiy tuzilmasida (viloyat, Toshkent shahri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi) faoliyat ko‘rsatayotgan, tegishli konfessiyalarning diniy tashkilotlari vakillari ta’sis yig‘ilishi tomonidan tuziladi.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, Markaziy boshqaruv organining asosiy vazifasi o‘z konfessiyasiga tegishli bir nechta diniy tashkilotlarning faoliyatini, dinga e’tiqod qilish, ibodat qilish, rasm-rusumlar va marosimlarni birgalikda ado etish, diniy ta’lim berish, dinni targ‘ib etish borasidagi maqsad va vazifalarini, harakat dasturlarini muvofiqlashtirish va yo‘naltirib borishdan iborat.

Respublikamizda davlat organlari bilan diniy tashkilotlarning o‘zaro munosabatlarini muvofiqlashtirish hamda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish vazifasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita zimmasiga yuklangan.

Qo‘mita har bir shaxsning vijdon va diniy e’tiqod erkinligi huquqi, fuqarolarning dinga bo‘lgan munosabatidan qat’i nazar tengligini ta’minlash, shuningdek diniy tashkilotlar faoliyati bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vazifalarni hal etish vakolati berilgan davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. U mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq diniy masalalarni hal qilishda yagona siyosatni amalga oshiradi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda Adliya organlaridan rasman ro‘yxatdan o‘tgan 16 ta diniy konfessiya (Islom, Rus pravoslav Cherkovi, Rim-katolik Cherkovi, Nemis-lyuteran Cherkovi, Arman-apostol Cherkovi, To‘liq injil xristianlari, Evangel-xristian baptistlar Cherkovi, Novoapostol Cherkovi, Ettinchi kun adventistlari, «Golos bojiy», Iegovo shohidlari, Koreys protestant Cherkovlari, Yahudiylik, Bahoiylik, Krishnani anglash jamiyati, Buddaviylik) faoliyat olib bormoqda. Ularning jamiyat hayotida birdek ishtirok etishlari uchun zarur imkoniyatlar yaratib berilgan.

Diniy tashkilotlarni vijdon erkinligini ta’minlashdagi o‘rni va ahamiyatini hisobga olib davlat tomonidan ularga bir qator imtiyozlar ham belgilangan. Jumladan, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi qonunning 16-moddasida diniy tashkilotlar muayyan miqdorda davlat mulkidan foydalanishlari mumkin ekani ko‘rsatilgan. Shunga ko‘ra, diniy tashkilotlar o‘z ehtiyojlari uchun davlat organlari tomonidan shartnoma asosida beriladigan binolar va mol-mulkdan

foydalanishga haqlidir. Bu esa tegishli hokimiyat organlari ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining «Madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida»gi qonunining 27-moddasiga muvofiq tarixiy va madaniy yodgorliklar ob’ektlari va buyumlar diniy tashkilotlarga tekin foydalanish shartnomasi shartlarida berib qo‘yilishi ko‘zda tutilgan.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining «Din sohasidagi ma’naviy-ma’rifiy, ta’lim ishlarini va faoliyatni takomillashtirishda ijtimoiy ko‘mak va imtiyozlar berish to‘g‘risida»gi Qarorini bir so‘z bilan diniy tashkilotlarga nisbatan belgilangan sanatsiya deb atash mumkin. Chunki, bu Qaror diniy tashkilotlarga kommunal xizmatlar uchun olinadigan to‘lovlarni yuridik shaxs sifatida emas, balki jismoniy shaxslardan olinadigan miqdorda to‘lash huquqini berdi.

Kommunal xizmat to‘lovlaridagi farq tufayli yuzaga kelgan tushumlar va ziyoratgohlardan tushadigan xayriya mablag‘larini O‘zbekiston musulmonlari idorasi tizimidagi masjidlarni ta’mirlash, diniy ta’lim muassasalarining o‘quv va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o‘qituvchi-mudarris va imom-xatiblarning mehnatini rag‘batlantirish ishlariga sarflash belgilab qo‘yildi.

Diniy tashkilotlarga hukumat darajasida bu kabi ijtimoiy yordamlarning berilishini ham davlatning vijdon erkinligini ta’minlash va diniy konfessiyalarni rivojlanishiga qaratilgan chora-tadbirlarining amaliy ifodasi sifatida baholash mumkin.

Shunday qilib, O‘zbekistonda barcha shaxslarning vijdon va e’tiqod erkinligi huquqini ta’minlashga xizmat qiluvchi diniy tashkilotlarning hech bir to‘siqlarsiz, qonunda belgilangan tartib va asoslarda faoliyat olib borishlari uchun tegishli huquqiy asos va tashkiliy shakllar ta’minlangan. Bu holat davlatimizning dunyoviy demokratik davlat sifatida rivojlanayotgani hamda diniy bag‘rikenglik tamoyillariga sodiq ekanini ko‘rsatadi.

Missionerlik (missiya-lotincha yuborish, topshiriq)-biror dinga e'tiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dini targ‘ib qilish demakdir.

Missionerlik asosan, xristianlikka xosbo‘lib, bu xarakat xristianlik Vizantiya imperasida davlat dini sifatida e'lon qiliganidan e'tiboran olib boriladi. Mazkur xarakatning ilk davrida xristian missionerlari o‘zlarining missionerlik xarakatlarini Yevropa va Yaqin Sharqdagi ko‘p xudolikka sig‘inib kelgan aholini yakka xudolikka tarqib qilishdan iborat deb ko‘rsatganlar.

Keyinchalik bunday qarashlari eskirdi, xususan hozirgi vaqtda kelib, jahon aholisining deyarlik 80-90 foizi o‘z diniga, aksariyat hollarda yakka xudolikka ega bo‘lgan davrda «missionerlik» va ayniqsa, «prozelitizim» salbiy bir holatga aylanib qoldi.

Bugunki kunda O‘zbekiston misolida oladigan bo‘lsak, mahalliy xristian diniy tashkilotlarining «misionerlik» xarakatlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri mahalliy-tub aholini «evangelizatsiya» qilishga, ya'ni o‘z diniga og‘dirishga qaratilgani namoyon bo‘ladi.

O‘sha davrdagi yevangellashtirshni bugungi kunda hududimizda tatbiq etish to‘g‘ri bo‘larmikan va shartmikan? bugungi kunda mavjud ma'lumotlarga ko‘ra, respublikamiz fuqarolarning 99 foizi o‘zini qaysidir bir diniy yo‘nalishiga tegishligini ma'lum qilgan, shundan 90 foiziga yaqini musulmonlar, 7-8 foizini pravoslavlar va boshqa din vakillari tashkil etadilar. Mazkur fuqarorlarning deyarli hammasi yakka xudolikka ishonadilar. Garchi shunday ekan, ularni yana qanaqangi yakka xudolik, «haqiqiy» dinga yetaklash mumkin.

Xristian missionerlik tashkilotlarning maqsadlari asosan uch nuqtaga qaratilgan:

1.Xalqlarni xristianlashtirish. Shu orqali ularni iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy jihatdan g‘arb davlatlari ta'sir doirasiga tushurish.

2.Xalqlar o‘rtasida o‘z e'tiqodiga shubha uyg‘otish ishonch va e'tiqoddan yuz o‘girish va undan chiqqishiga olib kelish.

3.Xristianlikni qabul qilganlarni o‘z e'tiqodida qattiq turishini ta'minlash va shu orqali ularning safini «Yangi xristianlar» bilan to‘ldirish.

Bu maqsadlarga erishish uchun ular hech nimani ayamaydilar va doimo o‘z uslub va metodlarini takomillashtirib boradilar, jumladan mamlakatimiz hududida faoliyat yuritayotgan ba'zi xristian diniy tashkilotlari quyidagi usullaridan o‘zlarining missionerlik xarakatlarida foydalanadilar:

-xayriya yordamini ko‘rsatish, bunga birinchi navbatda moddiy yordam kiradi, tibbiy yordam, dori-darmon topib berish hamda oziq-ovqat bilan ta'minlash ham xayriya yordami hisoblanadi. Bunday harakatlari bilan ular o‘zlari haqida ijobiy xulosa yoki bahoga ega bo‘ladilar. Hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga muvaffaq bo‘ladilar:

-bepul xristianlikni targ‘ib qiluvchi mahalliy tilda chop etilgan, juda sifatli rangli ishlangan kitob va jurnallarni tarqatish.

-xristianlikga chaqiruvchi video-audio kassetalarni tarqatish;

-tibbiy, ta'lim-tarbiya sohasiga maxsus kadrlarni yuborish (tibbiy xizmatchi, o‘qituvchi-murabbiy);

-missionerlik ruhidagi kutubxona, ingliz tili va компьyuter o‘rgatish xonalarini tashkil etish;

-o‘z saflariga qo‘shilganlarni moddiy rag‘batlantirish, ularni xorijiy safarlarga yuborish va ish bilan ta'minlash.

Missionerlik harakatida yana bir holatini alohida ajratish lozim. Bu ma'lum bir ijtimoiy qatlamni ajratib olish va bilan maqsadli ish olib borish. Jumladan, yoshlar bilan ishlashning turli missiyalari mavjud bo‘lib, ulardan biri bolalar uchun xristian lagerlarini tashkil qilish. «Xalqaro xristian lagerlari» assotsiatsiyasining bugungi kunda 200 ga yaqin lagerlari mavjud. O‘zbekistonda ham ularning borligi 90-yillarda kuzatilgan. Nukusda «Emanuelь» tashkiloti lager tashkil qilgan uchun yopilgan.

(Qozog‘istonda «Niva» lageri («Jatva» cherkoviga oid) da oxirgi 5 yil ichida 3000 ta bola dam olgan. Ularning 80 % e'tiqod qilmaydiganlar oilasidan bo‘lgan. Lager dasturiga ko‘ra, lager mavsumi tugashiga borib (15 kun ichida), dam oluvchilarning yarmi Iso Masihni tan olgan).

Missionerlikning bizning respublikaga xos bo‘lgan xususiyatlardan biri-bu xristian diniy tashkilotlarida o‘zbek va boshqa mahalliy tillarda diniy ibodatlar olib borishga harakat qilishdir.

Ikkinchisi-bu mahalliy millat vakillari orasida o‘zbek va boshqa mahalliy tillardagi diniy adabiyotlarni tarqatish va ulardan foydalanish: «U murabbiydir», «Xudo tayin qilgan qurbonlik», «Iso Masihning shogirdlari «Xudo» so‘zi o‘rnida «Alloh» so‘zini ishlatilari mumkinmi?», «Xudo muqaddas uchlikda birlashgan», «Shaxsan menga Xudo murojaat qilyapti», «U sizni sevadi» va x.z.

Mazkur ko‘riinishdagi missionerlik harakatini eng ko‘p olib boradiganlar, hozirgi kunda, bu «Iegov shohidlari» diniy tashkiloti vakillaridir. Ularning vakillarini jamoat joylarida, xiyobon va mahallalarda ochiqdan-ochiq missionerlik ruhidagi adabiyotlarini tarqatishlarini kuzatish mumkin.

Missionerlik bilan faol shug‘ullanuvchi «Iegov shohidlari» sektasida ta'sir etish mexanizmlari aniq va lo‘nda qilib ishlangan. Bu yo‘nalish 19-asr asrning 70-yillarida AQShda vujudga kelgan. Bugungi kunda jahonning turli mamlakatlarida 100 ga yaqin bo‘linmalariga ega. Bu tashkilot qat'iy markazlashgan bo‘lib, uning boshqaruvchi raisi cheklanmagan hokimiyatga ega. Yuqoridan pastga ko‘rsatmalar va adabiyotlar, pastdan yuqoriga hisobotlar yuborib turiladi. «Iegov shohidlari» o‘zining matbuot organiga ega. «Posbon minora», «Uyg‘on». Bu jurnallar jahon xalqlarining 160 dan ziyod tilida nashr qilinib, dunyoning turli burchaklarida tarqatiladi.

Ularning tarqatayotgan adabiyotlari didli, rangli va chiroyli manzaralar bilan tasvirlangan. «Jalb etuvchilar»ning ovoz ohanglari tinchlantiruvchi va mehrli sado etadi. Mutaxassislarning aytishicha, «Iegov shohidlari» sektasi a'zolari jalb etishning 86 xil usulidan foydalanar ekanlar.

Ular ko‘pincha quyidagi turdagi kishilarni o‘z ta'sir doiralariga olishga urinadilar.

-birinchi va to‘rtinchi kurs talabalari;

-keksalar, ayniqsa, endigina nafaqaga chiqqanlar va yolg‘iz qariyalar;

-o‘z o‘rnini topishga intilayotgan o‘smirlar;

-kuchli stressni (kasallik, yaqin odamining vafoti, ajralish va x.k.) boshidan kechirayotganlar;

-qochoqlar, bemorlar va ishsizlar.

Yana bir missionerlik harakati bilan shug‘ullanayotgan diniy tashkilot «To‘liq injil xristian cherkovi»dir. Ular ba'zi ibodat uylarida o‘zbek tilida ibodatlarni olib bormoqdalar, modiy yordam ko‘rsatish orqali o‘z dinlariga da'vat qilishga harakat qilmoqdalar.

Missionerlik faoliyatining eng cho‘qqisi bu prozelitizm. Prozelitizm - bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri biron bir dinga ishongan fuqaroni majburan o‘z dinidan voz kechtirish va o‘zga dinni qabul qilishga majbur qilishdan iborat.

Prozelitizm illatining ba'zi bir noxush natijalarini keltirish mumkin: bir qancha vaqt islom dinida yurib, keyin xristian dinini qabul qilgan kishilar vafot etganda, jasadlarini musulmon qarlariga qo‘yish muammo tug‘dirmoqda. Sababi, mayitning musulmon ota-onalari o‘z farzandlarini xristian mozoriga dafn etishni

xohlamaydilar. Musulmonlar esa, xristian dini vakili jasadini o‘z musulmon birodarlari yotgan joyga ular uchun haqorat deb biladilar. Natijada kelishmovchiliklar kelib chiqadi.

O‘zbekiston Respublikasida vijdon erkinligi qonunan kafolatlangan. Har bir fuqaro xohlagan diniga e'tiqod qilishi mumkin. Davlat va diniy tashkilotlar bir-biridan ajratilgan. Shu bilan birga diniy konfessiyalar o‘rtasidagi tinchlik, totuvlik va daxlsizlikni ta'minlash maqsadida prozelitizm (bir diniy konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qatilgan xatti-harakatlar) va har qanday missionerlik faoliyati qonunan man etilgan.

Ushbu qoidaning buzlishiga aybdor bo‘lgan shaxslar qonun oldida javobgarlikka tortiladilar.(Jinoyat kodeksining 216(1), 216(2) moddalari)

Aholining, xususan soha mutaxassislarining, missionerlik xaqida ma'lumotga ega bo‘lishlari ularning burch va vazifalari sanaladi. Chunki yurtboshimiz ta'kidlaganidek: “Islom-bu ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz dini. Uni tashqi ta'sir, buzg‘unchi unsurlardan tozalash muqaddas burch sanaladi.”

Mustaqil respublikamizdagi ayrim oilalarning, xususan, yoshlarning ota-bobalarimizning muqaddas islom dinidan voz kechib, xristian missionerlari domiga ilinayotganini inobatga olsak, bu faoliyat tinch-totuv yashayotgan xalqimiz o‘rtasiga solinayotgan rahna-adovat ekani kunday ravshan bo‘lib qoladi.

Missionerlik ta'siriga tushib qolmaslik uchun ham uni bilishimiz, u haqida quyidagi ma'lumotlarga ega bo‘lishimiz lozim ekan.

Birinchidan, xushyor bo‘lishimiz, loqaydlikka berilmasligimiz kerak bo‘ladi, chunki “Vatan”, “millat”, “imon-e'tiqod” bu muqaddas tushunchalardir. Uni hech narsaga almashtirib bo‘lmaydi.

Ikkinchidan, har bir inson biror narsa haqida to‘g‘ri tushunchaga ega bo‘lishi darkor. Hech kimning biror narsani, hatto dinni ham noto‘g‘ri, yanglish va bo‘yab talqin qilishga xaqqi yo‘q va bo‘lmasligi kerak.

DINIY EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA QARSHI KURASH: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI.

Mutaassiblik (fanatizm – frantsuzcha-«ibodat») muayyan g‘oyalarning to‘g‘ri ekaniga qattiq ishonish, ularga mukkasidan berilish, «o‘zgalar» va «o‘zgacha» qarash va g‘oyalarga murosasiz munosabatda bo‘lish, boshqa firqa va mazhablarni butunlay rad etish.

Ekstremizm tushunchasi muayyan sharoitda, biron-bir g‘oya yoki tamoyilga qat'iy ishonch va uni mutlaqlashtirish asosida shakllangan qoida va tartiblarni, boshqa sharoit, holat, vaziyatni hisobga olmagan holda, ko‘r-ko‘rona qo‘llashga urinishdir. Qisqa va lo‘nda qilib izohlaganda ekstremizm (lotincha extremus – o‘ta) – ijtimoiy – siyosiy xarakterdagi muammolarni hal etishda o‘ta keskin chora-tadbirlarni, fikr-qarashlarni yoqlovchi nazariya va amaliyotdir.

Diniy ekstremizm esa bu har qanday dinning teskari uslubda namoyon etilishi, boshqa din yoki mazhab vakillariga nisbatan murosasizlik, noto‘g‘ri talqin etilgan diniy aqidalardan siyosiy qurol sifatida dunyoviy davlat va konstitutsiyaviy

tuzumga qarshi qo‘llash, diniy nizo va qarama-qarshiliklar keltirib chiqarish orqali davlat suvereniteti va hududiy daxlsizligini buzish yoki davlat hokimiyatini kuch bilan egallash yoxud mavjud tuzumni zo‘rlik bilan o‘zgartirishdir.

Bizningcha, diniy ekstremizm jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan diniy adovatni targ‘ib qiluvchi materiallarni tayyorlash yoki tarqatish yoxud tarqatish maqsadida saqlash, diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish, kontrabanda, diniy ekstremistik, fundamentalistik ruhdagi g‘ayriqonuniy nodavlat notijorat tashkilotlari, oqimlar, sektalar tashkil etish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etish yoxud ular faoliyatida qatnashishga undash, diniy ta'limotdan saboq berish tartibini buzish, diniy adovat qo‘zg‘atish, konstitutsiyaviy tuzumga tajovuz qilish bilan ifodalanuvchi ijtimoiy xavfli qilmishlardir.

Diniy aqidaparastlik esa dindagi muayyan aqida yoki qoidalarni, o‘rinli yoki o‘rinsizligidan qat'i nazar, ko‘r-ko‘rona qo‘llash va mutlaqlashtirishga intilishdir. Aqidaparastlik barcha dinlarda turli mazhab va yo‘nalishlar orasida keskinlik, nizo va to‘qnashuvlar keltirib chiqarishga sababchi bo‘lgan. Aqidaparast guruhlar haqiqatni tushuntirish, ishontirish kabi usullar orqali targ‘ib etishni tan olmaydi. Ular o‘z g‘oyalari bid'atli, g‘ayriinsoniy bo‘lishiga qaramasdan, o‘ta johil va boshqalarga nibatan murosasiz munosabatda bo‘ladilar. O‘zini shak-shubhasiz haq deb bilish, haqiqatni faqat men bilaman, degan qarashga asoslangan manmanlik esa zo‘ravonlikni yuzaga keltiradi. Ya'ni, aqidaparastlik ekstremizmning paydo bo‘lishiga zamin yaratadi. Ekstremizm turli ko‘rinishlarda bo‘lib, terrorchilikni ham hamz ichiga oladi. Ekstremistlar qaerda faoliyat ko‘rsatmasin, o‘z davlatini barpo qilishga intiladi. Bu maqsadga ular o‘zaro nizolar, ixtiloflar, qurolli to‘qnashuvlar orqali, ya'ni qon to‘kish va zo‘ravonlik orqali erishishni ko‘zlaydi.

«Terrorizm atamasi esa (lotincha. terror – qo‘rquv, dahshat) – ma'lum yovuz maqsadlar yo‘lida, kuch ishlatib, odamlarni jismoniy yo‘q qilishdan iborat bo‘lgan g‘oyaga asoslangan zo‘ravonlik usuli.

«Xalqaro terrorizm» tushunchasi es davlatlar, xalqaro tashkilotlar, siyosiy partiya va harakatlarni beqarorlashtirishga qaratilgan siyosiy qo‘poruvchilik faoliyatini ifodalaydi. U og‘ir jinoyatlardan bo‘lib, uzoq davom etgan jarayonlarning hosilasi hisoblanadi.

Umuman olganda terrorizm siyosiy, mafkuraviy va shaxsiy jinoiy maqsadlarda aholini qo‘rqitish hamda davlat, hokimiyat va boshqaruv organlariga ruhiy tazyiq o‘tkazishga qaratilgan zo‘ravonliklar sodir etishda u yoki bu dinni, mazhabni o‘ziga niqob qilib oladi. Qo‘rqitish va dahshatga solish orqali o‘z hukmini o‘tkazishga urinish terrorchilikka xosdir. U iqtisodiy, siyosiy, diniy, g‘oyaviy, irqiy, milliy, gruppaviy, individual shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin. Ta'qib, zo‘ravonlik, qo‘poruvchilik va qotillik terrorchilikning har qanday ko‘rinishi uchun umumiy xususiyat bo‘lib, gumanizm, demokratiya, adolat tamoyillariga ziddir. Shuning uchun terrorizm qanday “bayroq” ostida amalga oshirilmasin, mohiyatan insoniyatga, taraqqiyotga, ezgulikka qarshi jinoyatdir».

Iqtisodiy manfaatlarni ko‘zlovchi va moddiy boyliklarni o‘zlashtirishni maqsad qilib olgan terrorchilik keng tarqalgan. Unda raqiblarini yoki ularning

yaqinlarini jismoniy yo‘qotish, o‘g‘irlab ketish, zo‘ravonlik, tajovuz bilan qo‘rqitib, o‘z hukmini o‘tkazishga urinish, boyliklarini o‘zlashtirib olish yo‘llaridan foydalaniladi. Keyingi yillarda intellektual va ommaviy axborot sohalarida terrorchilik elementlaridan foydalanilmoqda. Muayyan mafkuraviy poligonlarning muttasil tarqatayotgan axborotlaridagi yovuz va zararli g‘oyalar oqimi, teleekranlar orqali doimiy namoyish etiladigan jangari filьmlar, bolalarga mo‘ljallangan, buzg‘unchi g‘oyalar asosida ishlangan o‘yinlar, kompьyuter tarmoqlari dasturlarini ishdan chiqaradigan “viruslar”ni tarqatish bunga misol bo‘la oladi. O‘zlarining yovuz niyatlariga erishish uchun hokimiyatni qo‘lga kiritishni ko‘zlovchi kuchlarning zo‘ravonligi va qo‘poruvchiligi siyosiy terrorga misol bo‘ladi. Siyosiy terrorizm nafaqat jinoyatchi guruhlar, hatto ba'zi reaktsion agressiv ruhdagi rasmiy siyosiy doiralar va kuchlar tomonidan uyushtirilishi va qo‘llanishi ham mumkin.

Ekstremizm mazmuniga ko‘ra - diniy va dunyoviy, namoyon bo‘lishiga ko‘ra-hududiy, mintaqaviy, xalqaro shakllarga bo‘linadi. Ekstremistik qarashlar juda chuqur ildizlarga ega bo‘lib, hech qachon chegara bilmagan, din, millat, hududni tan olmagan. Dunyoviy ekstremizmning siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy ko‘rinishlari mavjud bo‘lgani holda, diniy ekstremizm barcha dinlar doirasida rivojlangan. Diniy ekstremistik ruhdagi qarashlarni katoliklar, protestantlar, provoslavlar orasida ham uchratish mumkin. Bunday holat sobiq sho‘rolardan qolgan makonda ham kuzatildi.

Diniy ekstremizm islom olamida ham keng tarqalgan. Diniy ekstremistlar qaerda faoliyat ko‘rsatmasin, asosiy maqsadi islom davlatini barpo qilish bo‘lib, bu maqsadga o‘zaro nizolar, ixtiloflar, qurolli to‘qnashuvlar orqali, ya'ni qon to‘kish va zo‘rlik bilan erishishni ko‘zlaydilar.

Bu esa, mustaqillikka ham, jamiyat taraqqiyotiga ham katta g‘ov bo‘ladi. Ekstremistik guruhlarning yagona maqsadi hokimiyatni qo‘lga olish bo‘lib, bu yo‘lda ular eng jirkanch usullardan foydalanadilar.

Ma'lumki diniy ekstremizm oxir oqibatda diniy fundamentalizga olib boradi. Bunday holat dunyoning barcha dinlarida kuzatilgan. Hozirgi kunda dunyo afkor ommasining diqqat marazida turgan harakat islom fundamentalizi bo‘lib, bu mohiyatiga ko‘ra – Qur'on va hadislarni so‘zma-so‘z talqin etuvchi, ilk islomga qaytishga qaratilgan o‘z aqidalarini keng targ‘ib qiluvchi, diniy konservativ ruhdagi yo‘nalishga nisbatan ishlatiladigan atama. Aslida «fundamentalizm» so‘zi 20-asr boshida amerikalik protestantlarning bir guruhiga berilgan nom bo‘lsa-da, oxirgi paytlarda jahon matbuotlarida mutaasib islom jangarilarini fundamentalistlar deb atash odat tusiga kirdi. Islom fundamentalizmi turli-tuman yo‘nalish va kayfiyatdagi guruhlarni o‘z ichiga oladi. ularning ba'zilari siyosiy jabhada, inqilobiy va hatto terroristik usullar bilan qonuniy hokimiyatga qarshi kurashda o‘zlarini namoyon etsalar, boshqalari targ‘ibot-tashviqot ishlari, diniy ta'lim, turli jamoat tashkilotlari, maktab, universitet, ommaviy axborot vositalariga kirib borish, ayniqsa, foydalanish oson bo‘lgan audio-video kassetalarni tarqatish bilan shug‘ullanadi. Islom fundamentalizmi uchun umumiy bo‘lgan g‘oyalar - go‘yoki dinsiz yoki «sof islomdan chekingan» davlat rahbarlarini jismonan yo‘q qilish, va

nihoyat, ularning ta'biri bilan aytganda, islomda «shirk» (butparastlik)ka barham berishdir.

Diniy ekstremizm tarafdorlarining xususiyatlaridan biri boshqalarga nisbatan o‘ta radikal kayfiyatda bo‘lishdir. Hozirgi kunda radikalizmning o‘ng, so‘l va mo‘'tadil ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, o‘ng radikalizm hayotni zudlik bilan qayta qurish, bunda eskini butunlay yo‘qotish, faqat yangiga tayanish lozim deb hisoblasa, so‘l radikalizm jamiyat taraqqiyotida eskiga, oldingi davrlarga qaytish, yangiliklardan ko‘ra aqidalarga tayanish zarur degan qarashni ilgari suradi. Mo‘'tadil radikalizm ko‘proq reformistik g‘oyalar tarafdori bo‘lganidan, jamiyat hayotida pishib yetilgan muammolarni hal qilishda ishni paysalga solmaslik lozim degan tamoyilga tayanadi. Afsuski, radikalizm ko‘proq mo‘'tadil holda emas, balki o‘ng va so‘l shakllarda uchraydi.

Fundamentalistlarning ta'biriga ko‘ra, diniy qonunlarga asoslanmagan har qanday jamiyat, g‘ayritabiiygina emas, balki Olloxga qarshi qilingan jinoyat hamdir. Bu ham "hokimiylik" tamoyillari bilan asoslanadi. Shuni ham ta'kidlash joizki, ushbu (yoki unga o‘xshash boshqa bir) atama islomda keng tarqalmagan. Biror-bir musulmon muallifi tarafidan uning qo‘llanishi esa, hech bo‘lmaganda, uning islom fundamentalizmi nazariy asoslariga xayrixoxligi, moyilligini anglatadi. hattoki "Musulmon birodarlar" ham bu tushunchaga bir xil munosabatda bo‘lmaydilar.

"Hokimiylik"ning mohiyati shundan iboratki, Alloh tomonidan yaratilganlardan hech kim o‘z qonunlarini joriy qilishi, o‘rnatishi mumkin emas. Chunki ularni faqatgina Allohning o‘zi joriy qiladi, o‘rnatadi. Boshqacharoq qilib aytganda, odamlar qonun chiqaruvchi emas, balki ijro hokimiyatigagina egadirlar. "Hokimiylik"ni e'tirof etish bir qator oqibatlarni keltirib chiqaradi. Bu tamoyil teokratiyadan tashqari, siyosiy hokimiyatning har qanday shaklini, diktaturani ham, demokratiyani xdm birday inkor etadi. Mamlakat hukumati xuddi xalqi kabi qonun chiqarish hokimiyatidan mahrumdirlar. qonun tizimi ulargacha joriy qilib bo‘lingan va u abadiydir. Shariatdan boshqa har qanday qonun kuchga ega emas. Ularga bo‘ysunish esa - gunoxdir. Yuqoridagalardan ma'lum bo‘ladiki, sharoitga zvd bo‘lgan qonunlar va hodisalarni joriy etuvchi hukumat Allohga xos bo‘lgan sifat - "huquqni" o‘zlashtirib olgan hisoblanadi. Demak, ular "g‘ayridin" bo‘lib, musulmonlarga rahbarlik qilish huquqiga ega emaslar.

Ushbu g‘oya o‘zining ko‘rinishlarida ko‘plab islomiy (bunda noqonuniylikni yodda tutish kerak) tashkilotlar faoliyatining asosini tashkil etadi. U yoki bu ko‘rinishdagi teokratik boshqaruv shaklini o‘rnatish; shariat qonunlariga asoslangan huquqiy tizimni kiritish; davlat qurilishining dunyoviy shakllarini faol ravshtsda rad etish talablari ham shundan kelib chiqadi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, ilmiy va publitsistik adabiyotda "fundamentalizm", "qayta yaralish" deb nomlanayotgan oqimlarni islomda "as-Salafiyya" tushunchasi bilan izoxlaydilar.

Salafiy (arabcha - ajdodlar) deganda islom tarixining turli davrlarida ilk musulmonlik jamiyati turmush tarzi va e'tiqodi, "taqvodor ota-bbobolar" ("as-salaf as-salihin") hayotidan namuna olishga chaqiruvchi ulamolar tushuniladi. Ular

islomning ilk davridan keyin kiritilgan barcha yangiliklarni bid'a, yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lmagan holat sifatida baholaganlar. Bunga qur'onni ramziy-majoziy talqin qilish usullaridan terrorni keng qo‘llovchilar hisoblanmish "Islom demokratlari", "Ekstremistlar" kabi uch g‘oyaviy yo‘nalishi farqlanadi.

Ekstremizm tarfdorlari keskin choralarga moyil, maqsadga erishish usullari, jumladan, zo‘ravonlik usulini belgilovchi mazmuni va hajmiga ko‘ra juda asoslangan bo‘lib, ularni keng miqyosda amalga oshirishga kodir maxsus "jangovar" guruxlarning mavjudligi bilan ifodalanadi. Aslida transformatsiyalashuv uchun bir qancha istiqbollari bo‘lgan har qanday diniy-ekstremistik guruh (tashkilot) ham terrorchilik tashkiloti deb tasviflanavermaydi.

Terror – lotin tilidan olingan bo‘lib, qo‘rquv, dahshat degan ma'noni anglatadi. Terrorizm – aholini qo‘rqitish hamda davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga tazyiq o‘tkazish orqali jinoiy, siyosiy, mafkuraviy va shaxsiy maqsadlarni ko‘zlash jarayonidir.

Terrorizm olamida 3 ta asosiy ko‘rinish bor:

1. Terrorchilik harakatlarining jangarilik yo‘li (qurol ishlatish yo‘li).
2. Jinoiy yo‘li.
3. Ijtimoiy-siyosiy yo‘llar bilan amalga oshirishdir.

Terrorizm so‘zi birinchi marta 1793-94 yillarda Frantsiya inqilobi davrida istifoga kiritilgan edi. Hozirgi ma'nosidan farq qilgan holda u paytda ushbu atama ko‘proq ijobiy ma'no kasb etgan. Terror tizimi yoki rejimi respublikaning ta'sirchan vositasi bo‘lib, hukumatning inqilobga qarshi dahshat solishga qaratilgan sa'y-harakatlarini jamlashga yo‘naltirilgan edi.

XIX asrning ikkinchi yarmi boshida industrial rivojlanish bilan bog‘liq ulkan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar yuz berdi. Bu davrda yangi mafkuraviy oqimlar paydo bo‘ldi. Ular ta'sirida terrorizmning yangi davri vujudga kelib, bunga inqilobiy aqidalar va davlatga qarshi qaratilgan mafkura asos qilib olindi.

Terrorchilar O‘zbekiston xalqining ham tinchligini buzdi. 1999 yilning 16 fevralь kuni soat 10-55da Toshkent shahrida Vazirlar Mahkamasi binosi poyida va shaharning besh joyida kuchli portlashlar yuz berdi. Bu qo‘poruvchilik xurujlari o‘nlab begunoh kishilarning hayotiga zomin bo‘ldi, lekin bu ma'shum voqealar mamlakatimiz hayotini izdan chiqara olmadi, xalqimiz qalbiga vahima va sarosima sololmadi. Vaqtida ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida 16 fevralь voqealarini sodir etgan bir guruh kimsalar qo‘lga olinib tegishli jazoga hukm etildilar. Lekin terrorchilar o‘zlarining yovuz niyatlarini amalga oshirish maqsadida yana 1999 yilning avgustida Qirg‘iziston respublikasining Botkent viloyatida paydo bo‘lib, respublikamizning Surxondaryo va Toshkent viloyatlarining chegara tumanlarida qurolli hujumlar uyushtirdilar. Qurolli kuchlarimiz va huquq-tartibotni muhofaza qilish organlarining tezkor harakatlari tufayli tinchligimizni buzishga intilgan yovuz terrorchilar guruhi yakson qilindi.

Terrorizm xavfsizlikka va ijtimoiy–siyosiy barqarorlikka doim tahdid soladi. Unga qarshi kurash olib borishda siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, mafkuraviy va qolaversa maxsus chora-tadbirlar ko‘rilishi lozim.

Bu kurashning muhim elementi – bu terrorizmning oldini olishga qaratilgan harakatlardir. Bu masala mamlakatimiz uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Chunki, O‘zbekiston aholisi terrorizmni boshdan kechirdi.

2000 yil iyul oyining oxirlarida bir guruh terrorchilar Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumaniga suqilib kirdi. Jangarilar O‘zbekistonga Tojikiston hududi orqali kirib, baland tog‘larga joylashib qo‘poruvchilik harakatlarga tayyorgarlik ko‘rdilar va Sariosiyoda sodir bo‘lgan xunrezliklarga sababchi bo‘ldilar. Ular O‘zbekiston islom harakati (O‘IH) deb atagan jinoiy, terrorchilik tashkilotiga mansub bo‘lgan shaxslar bo‘lib, milliy kelib chiqishi bo‘yicha o‘zbek, tojik, afg‘on, chechen va boshqalardir.

Terrorizm – so‘nggi yillarda siyosiy, mafkuraviy va shaxsiy jinoiy maqsadlarda aholini qo‘rqitish hamda davlat, hokimiyat va boshqaruv organlariga ruhiy tazyiq o‘tkazishga qaratilgan zo‘ravonlikning haddan tashqari kuchayib ketishining xavfli ijtimoiy-siyosiy hodisasiga aylandi.

Terrorchilik harakatlari, ya'ni odamlarni garovga olish, davlat va jamoat arboblari, diniy yoki boshqa guruhlar hamda xorijiy davlatlar va tashkilotlar vakillarining hayotiga tahdid solish, yirik ob'ektlarni egallab olish, portlatish, odamlarning sog‘lig‘iga, hayoti va mulkiga tahdid solish kabi harakatlar mamlakat tinchligiga putur yetkazadi.

Mamlakatimiz hududida o‘ndan ortiq nomdagi diniy-siyosiy ekstremistik oqimlar va harakatlar noqonuniy ravishda faoliyat ko‘rsatib keldilar. Masalan, ularning «Hizbut-tahrir», «Akromiylar», «Tablig‘», «Uzun soqol», «Vahhobiylar», «Islom lashkarlari», «Adolat uyushmasi», «Tavba», «Nur» kabi norasmiy tashkilotlari mavjud.

Hanbaliya mazhabi negizida XVIII asrda Markaziy Arabistonda vahhobiylik oqimi paydo bo‘lgan. Bu Arab mamlakatlari va Yaqin Sharqda tug‘ilgan islomparast fundamentalizm bilan birgalikda diniy ekstremistik harakat-vahhobiylik nihoyatda kuchli rivojlandi. Bu harakatni Afg‘onistondagi «Al-Qoida» tashkiloti moddiy moliyaviy tomondan qo‘llab-quvvatlaydi. Bu oqimning yo‘lboshchisi Abd-al Vahhob 1703 yilda Arabistonda qozi oilasida tug‘ilgan. U diniy ta'lim olgan bo‘lib, Allohdan o‘zga ma'budning yo‘qligi, uning yagonaligini targ‘ib qildi. Vahhob avliyolar, muqaddas ruhlar, mozorlarga sig‘inishni, zohidlikni turli tabaqalarga bo‘linishni qoralaydi. Vahhobiylik oqimi g‘ayri-dinlarga qarshi kurash olib boradi. Abd-al Vahhob o‘z maqsadi yo‘lida Angliya razvedkasi bilan hamkorlik qiladi. Vahhobiylik ta'limoti o‘sha davrda Markaziy Arabiston uchun qo‘l keldi.

Amir Muhammad ibn Saud Abd-al Vahhob bilan birlashib, uning ta'limotidan Arabistonni birlashtirish maqsadida foydalandi. Shundan keyin Vahhobiylar ta'limoti keng tarqalib ketdi.

XX asrning oxirgi yillarida bu oqimning manfur g‘oyalari va targ‘ibotchilari bizning mamlakatimizga ham kirib keldi.

«Vahhobiy»lik diniy ekstremistik oqimining ta'siri ostida vujudga kelgan terrorchilar guruhi 1999 yil 16 fevralida Toshkent shahridagi qo‘poruvchilik harakatlarini amalga oshirdilar.

Vahhobiylar O‘zbekistonda islom davlatini qurish uchun jihod e'lon qilib, qurolli kuch ishVahhobiyllatish yo‘li bilan hokimiyatni egallashni asosiy maqsad qilib olgan edilar. Lekin yovuz kuchlarning yovuz niyatlari amalga oshmadi.

Terrorchi oqimlarning yana biri bu Akromiylar oqimidir. Akromiylar – islom ekstremistik oqimi 1950 yillarda respublikamizning Farg‘ona vodiysida vujudga kelgan. Oqim nomi uning tashkilotchisi bo‘lgan «Mullo Akrom» nomi bilan bog‘liq. Akromiylarning g‘oyasi Allohni tan olish, payg‘ambarlarni, ota-onani, har qanday davlat boshqaruvini rad etgan holda, oqim sardoriga itoat qilishdir.

1990 yillarda namanganlik Tohir Yo‘ldoshev tomonidan «Islom lashkarlari» nomli norasmiy tashkilotga asos solingan. Tashkilot o‘ta reaktsion va terrorchilik xususiyatiga ega bo‘lib, ular davlat va jamiyatni islomlashtirish kabi g‘arazli maqsadlarni amalga oshirish uchun mudhish jinoyatlarni sodir etganlar.

«Uzun soqol» diniy-ekstermistik oqimi asosan Toshkent shahri, viloyati va Qozog‘istonning Chimkent viloyati hududidagi aholi orasida faoliyat ko‘rsatgan. Ular odamlarni moddiy jihatdan rag‘batlantirish asosida jamiyatni islomlashtirishni ma'qul deb hisoblaydilar.

Ayni kunlarda terrorizm illatiga qarshi jahon hamjamiyati kurashib kelmoqda, qirqdan ortiq davlatlar «Aksilterror» xalqaro koalitsiyaga tinchlik, osoyishtalik va bunyodkorlik yo‘lidan borayotgan xalqlar - ogohlik va havfsizlikning naqadar muhim ekanligini chuqur anglab, terrorizmga qarshi kurashga kirishgan taraqqiyparvar kuchlarni qo‘llab-quvvatlamoqda.

Har bir fuqaro o‘z tinchligi va Vatani uchun ogoh bo‘lmog‘i lozim. Zero, Fitrat aytganidek, «avval Vatan, keyin jon», demakdir.

Har bir inson shubhasizki, o‘z uyining tinchligi va saodati yo‘lida tinmay harakat qiladi. Ana shu muqaddas tuyg‘uni endi Vatanni saqlashga safabar qilishimiz lozimdir.

Ushbu o‘rinda mamlakatimizda yo‘lga qo‘yilgan mahalla, aholining o‘z-o‘zini boshqarish organlarining rolini kuchaytirish kerak, deb o‘ylaymiz.

Hozirgi kunda terrorizm va diniy ekstremizm xavfidan hech qaysi davlat, jumladan, eng rivojlangan davlatlar ham kafolatlanmagan. So‘nggi paytda dunyoning turli mamlakatlarida, xususan, Frantsiya, Turkiya, Belьgiyada yuz bergan voqealarni kuzatar ekanmiz, keskinlik va xavf-xatarlarning tobora o‘sib, geosiyosiy qarama-qarshiliklar, o‘z ta'sir doirasini kengaytirishga qaratilgan kurash, radikalizm, terrorizm va ekstremizm kabi tahdidlarning kuchayib borayotgani bu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashish, jinoyat sodir etilishiga sabab bo‘lgan shart-sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etish, terrorizm va diniy ekstremizm ko‘rinishidagi jinoyatlar sodir etilishining oldini olish naqadar dolzarb ekanligi ma'lum bo‘ladi.

Jahon sahnasida yuz berayotgan terrorchilik harakatlari, jumladan, Iroq va Suriyada faoliyat yuritayotgan “Iroq va Levant islom davlati” guruhi 2014 yilning 29 iyunida o‘zlari nazoratlari ostidagi hududda “Islom xalifaligi” tuzilganligini e'lon qilgan IShID (Iroq va Shom islom davlati) islom dinidan niqob sifatida foydalanib, siyosiy va boshqa maqsadlarda turli og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlarni

sodir etdi. Aynan IShID terrorizm va diniy ekstremizm bilan bog‘liq bir qancha jinoyatlar sodir etayotgan diniy ekstremistik, terroristik jinoiy uyushmadir. Terrorchi va diniy ekstremistik guruhlardan tashkil topgan mazkur jinoiy tashkilot o‘z g‘oyalariga ergashmagan insonlarni ommaviy ravishda o‘ldirib, aholi punktlarida hamda jamoat joylarida jangarilar tomonidan o‘z joniga qasd qilish yo‘li bilan o‘zini portlatib, tinchlik va xavfsizlikka, insonlarning hayoti va sog‘lig‘iga qarshi o‘ta og‘ir jinoyatlarni sodir etmoqdalar. Birgina 2013 yilda IShID Iroq hududida 10 mingdan ziyod terrorchilik harakatlarini sodir etib, xudkush terrorchilar esa 80 ga yaqin portlatishni amalga oshirgan.

Terrorizm va diniy ekstremizm bilan bog‘liq jinoyatlarga qarshi kurashishni samarali tashkil etish ushbu turdagi jinoyatlarning mohiyati, kelib chiqishi, tarkibi va ko‘rinishlari, rivojlanish qonuniyatlari va tarixiy kelajagi haqida chuqur ilmiy asoslangan bilimga ega bo‘lishni taqozo qiladi.

90-yillarning boshlarida O‘zbekiston Respublikasida “Hizb at-tahrir”, “Akromiylar”, “Tablig‘”, “Uzun soqollilar”, “Vahhobiylar”, “Adolat uyushmasi”, “Islom lashkarlari”, “Tavba”, “Nurchilar”, shuningdek, boshqa dinlarni o‘ziga niqob qilib olgan missionerlar “Avliyo Ota Munning qo‘shilgan cherkovi”, “Satanistlar”, “Iyegova shohidlari” kabi turli nomlar bilan atalgan o‘ndan ortiq diniy-siyosiy ekstremistik oqimlar va harakatlar g‘ayriqonuniy faoliyat ko‘rsatishga uringan edi.

Jumladan, 1991 yil dekabridagi Namangan voqealari, 1999 martda Xorazm va Buxoro viloyatlari hamda boshqa shaharlarda amalga oshirilgan terroristik aktlarni misol qilib keltirish mumkin. 1999 yil 16 fevralda Toshkent shahrida sodir etilgan terrorchilik harakatlari oqibatida 16 nafar begunoh shaxs halok bo‘lgan, 130 nafar shaxs turli darajadagi tan jarohati olgan, 700 mln. so‘mdan ortiq miqdorda moddiy zarar yetkazilgan, 50 dan ziyod ma'muriy va uy-joy binolari zararlangan.

2004 yil 29 martda Toshkent shahrida va Buxoro viloyatining Romitan tumanida, 2004 yil 30 martda Toshkent viloyati Qibray tumanida, 2004 yil 1 aprelda Buxoro viloyatining Romitan tumanida, 2004 yil 30 iyulda Toshkent shahrida sodir etilgan terrorchilik harakatlari oqibatida 38 nafar begunoh shaxs halok bo‘lgan. 2005 yil 13 mayda Andijonda sodir etilgan terrorchilik oqibatida 169 kishi halok bo‘lgan, qurolli hujum davomida terrorchilar 305 dona qurol-aslahani, shu jumladan 205 ta avtomat va 100 ta to‘pponcha, 231 ta granata va qurollarni qo‘lga kiritgan, shuningdek, ular jazoni ijro etish muassasalaridan qariyb 600 nafar mahbusni chiqarib yuborgan. Olib borilgan tezkor-qidiruv chora-tadbirlari, samarali tashkil etilgan tergov jarayonlari natijasi o‘laroq diniy ekstremistik harakatlarning faoliyatiga o‘z vaqtida barham berildi.

Bugungi kunda insoniyat tinchligi va xavfsizligiga, insonlarning hayoti va sog‘lig‘iga qarshi qaratilgan bir necha o‘ta og‘ir jinoyatlar sodir etayotgan ISHID 2013 yili Suriyadagi fuqarolar urushi davrida diniy ekstremistik g‘oyalarga asoslangan terrorchi tashkilot sifatida namoyon bo‘ldi. Uning bosh qarorgohi Suriyaning Raqqa shahrida, Iroqdagi markazi esa Baquba shahrida joylashgan. 2013 yilning aprelida “Iroq islom davlati” va “al-Qoida”ning Suriya hududlarida

faoliyat yuritayotgan “Jabha an-Nusra” guruhlari birlashishi natijasida “Iroq va Shom islom davlati” tashkiloti tuzildi[9]. Bugungi kunga kelib esa mazkur diniy ekstremistik va terroristik tashkilot eng ashaddiy terrorchi jinoiy tashkilot bo‘lib, uning tarkibida 100 mingga yaqin jangari mavjud. Ularning aksariyati diniy savodi yetarli bo‘lmagan hamda diniy ekstremistik g‘oyalarga xayrihoh xorijiy fuqarolardan iborat.

Terrorizm – terror bilan amalga oshiriladigan siyosiy harakat bo‘lib, bir necha asrlar oldin shakllangan, geografik jihatdan barcha mintaqa va mamlakatlarda uchrashi mumkin bo‘lgan murakkab hodisa hisoblanadi. U xalqaro munosabatlarni chigallashtirish, suverenitet va hududiy yaxlitlikni buzish, davlatlarning xavfsizligiga rahna solish, urush va qurolli to‘qnashuvlar keltirib chiqarish, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, aholini qo‘rqitish yoki qasos olish maqsadida jismoniy yoki yuridik shaxslarni biror bir faoliyatini amalga oshirishga yoki amalga oshirishdan tiyilishga majburlash uchun qilmish ko‘rinishida yoki uni amalga oshirish bilan qo‘rqitish tarzida oshkora sodir etiladigan, shaxsga yoki mulkka xavf tug‘diradigan harakatdir.

Kibbermakon va din. XXI asr axborot asri deb e’tirof etilayotgani bejiz emas. Insoniyat tarixida ma’lumotning muhimlik darajasi bu kabi yuqori cho‘qqilarni zabt etmagan edi. Insonlarni yangi bilimlarni egallashga qiziqishi tobora ortib borayotgan globallashuv jarayonida ijtimoiy ongni zaharlashga qaratilgan tajovuzlar, mamlakatning axborot boshqaruvini izdan chiqarishga urinishlar tobora ortib bormoqda. Bunda yoshlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini yuksaltirish orqali ularda turli mafkuraviy tahdidlarga, xususan, diniy ekstremizm, terrorizm, «ommaviy madaniyat» va boshqa yot g‘oyalarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday jarayonlarni amalga oshirishda esa kibermakon qulay muhit manbaiga aylanib ulgurgan.

Kibermakon dunyo kompyuter tarmoqlarining «virtual» umumiy majmui. Ushbu atama 1984 yilda Uilyam Gibsonning «Neyromant» («Neuromancer») romanida qo‘llanilgan, hozir esa global axborot makonini ifodalash uchun ishlatiladi. Telefon suhbatlari, «chatlar», turli onlayn bahslar, kompyuter aloqasi kibermakonda amalga oshirilmoqda. Virtual voqelikka kirib borishning zamonaviy vositalari sifatida quyidagilarni aytish mumkin: internetga chiqish imkoniyati mavjud mobil telefonlar; onlayn pultli o‘yinlar; video qurilmalar; tarmoqdan tashqarida foydalanish imkonini beruvchi dasturiy ta’minotlar. Bu kabi vositalar kibermakondan erkin foydalanish imkonini yaratish bilan bir vaqtda, mazkur makondagi xavf-xatarlarning ko‘z ilg‘amas darajada Yuqoriligini anglatadi.

Qayd etish lozimki, kibermakonda diniy jarayonlar ko‘rinishlari quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi: muloqot, ma’lumot, ta’lim, tajriba, amaliyot, missionerlik, marketing, shifo va boshqalar.

Internet imkoniyatlari insonlarning muloqotga kirishish va muayyan maqsaddagi fikrlar almashinuvidagi ijtimoiy tarmoqlarga bog‘lana olish imkonini beradi. Dastlab tashkil etilgan jamoalar orasida Vikkanlar va neomajusiylar kabi noan’anaviy internet guruhlar bo‘lgan. Xaydi Kempbell tomonidan xristian

jamoalari o‘rtasida o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, insonlar onlayn jamoalarga muloqotga kirishish maqsadida a’zo bo‘ladilar. Bir qator olimlar virtual muloqotning xarakteriga bog‘liq muhim masalalarni ko‘targanlar. Uni shunchaki «ijtimoiy hayotning illyuziyasi» yoki «offlayn» dunyoda jamoalarning yaxshilanishiga olib keluvchi vosita sifatida e’tirof etganlar.

Etakchi diniy tashkilotlar ham hozirgi kunda a’zolar va a’zo bo‘lmaganlar orasida kompyuterlashtirilgan **ma’lumot olish**ga ehtiyojning ortganini ta’kidlamoqda. Diniy ma’lumotlarni tarqatishda elektron diniy ma’lumot tarqatuvchi «bloggerlar» yoki «bloglar» kompyuterlashtirilgan muloqotning muhim jihati hisoblanadi. Jadal suratlarda «podkastlar», veb-saytdan MR3 pleer, «i-Pod»larga yuklanayotgan audiodasturlar, xususan, ma’ruzalar ommalashmoqda.

Avvallari tanqis, keng tarqalmagan muqaddas matnlar va undan keyingi o‘rinlarda turuvchi ma’lumotlar endilikda omma e’tiboridagina emas, balki istalgan kishi uchun veb saytlardan yuklab, **ta’lim** olish imkoniyati mavjud.

Internetning «liminal makon»i ma’naviy yoki diniy **tajriba**ga (absorbsiya, asketlik, eskapizm, yagonalik, muloqot) yangi imkoniyatlar ochib bermoqda. Hozirgi kunda ofisda faoliyat yurituvchilar hayot tarziga monand 10 daqiqali ma’naviy mashqlar tajriba orttirishga imkon beradi. Zamonaviy sufiylar internet orqali bunday aloqalar vositasida murshid va murid o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar yaxshilanayotganini e’tirof etadilar. Internet-radio kabi yangi texnologik imkoniyatlar yordamida tinglovchilarni «psixonavigatsion sayohatga» chorlaydilar.

Kompyuter-media vositalari diniy **amaliyot**ga chuqur singib ketishi natijasida kibermakon muhim rituallar maydoniga hamda muayyan dinga targ‘ib qilish manbai va vositasiga aylangan. Bundan tashqari jamiyatdan uzoqlashgan ma’lum bir yoshlar va ayollarni kiber-ma’naviyat rasmiy ibodatxonalardan ko‘ra ko‘proq o‘ziga jalb etadi. Amaliy so‘rovlar esa mazkur jarayonlar kelajakda yoshlarni qamrab olishini ko‘rsatgan. Ammo ba’zilar internet jonli, ta’sirchan ma’ruza bilan bellasha olmasligini ta’kidlaydi. Shuningdek, onlayn-jamoalar tez suratlar bilan o‘zgarayotgan dunyoda «to‘g‘ri yo‘l»da bo‘lishning amaliyoti qanday bo‘lishiga oid savol va mulohazalarni muhokama qiluvchi muhim «maydon»ga aylandi.

Umumiy olganda kibermakon vaqt va makon chegarasini bosib o‘tish imkoniyatini kengaytiradi. Bu esa o‘z navbatida moliyaviy qiyinchiligi yoki jismoniy kamchiligi mavjud bo‘lgan ma’lum diniy amallarni amalga oshirish imkoniyatini oshiradi.

Muqaddas matnlarning **marketingi i**nternet orqali katta biznesga aylandi. Diniy va ma’naviy ehtiyojga mos keladigan barcha narsani sotib olish mumkin. Diniy taniShuv saytlarida esa qalban mos insonni topish oddiy bosqichlarda amalga oshiriladi.

Kompyuter media vositalarida kasalliklarga davo va muammolarga yechim topish keng rivojlanmoqda. Guru, evangelistlar, maslahatchi ekstrasenslarga duoli so‘rov yuborish y Internet fan-texnika taraqqiyoti natijasi, madaniyat evolyusiyasining hosilasi hisoblanadi. Hozirgi kuna hayotini

internetsiz tasavvur qilish juda mushkul. Ayniqsa, yoshlar hayotida global tarmoqning o‘rni tobora oshib bormoqda. Internet dunyoning turli nuqtalarida yashovchi odamlarning o‘zaro muloqotini hamda axborot almashinuvini mukammal darajada osonlashtirdi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, dunyo bo‘yicha internetdan eng ko‘p foydalanuvchilar aynan 21 dan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar hisoblanar ekan.

O‘zbekistonda ham Internet tizimi rivojlanib, undan foydalanuvchilar safi jadal sur’atlar bilan kengayib bormoqda. So‘nggi o‘n yilda global tarmoqdan foydalanuvchilar o‘n barobarga oshgan. Tarmoq orqali axborot izlash, qabul qilish, uzatishning juda qulay va ommabopligi undan foydalanuvchilar sonining tobora ortib borishini ta’minlamoqda. Mamlakatimizda 2007 yilda internetdan foydalanuvchilar soni (mobil internet foydalanuvchilari bilan qo‘shib hisoblaganda) bir millionni tashkil etgan bo‘lsa, 2016 yil yakunida bu ko‘rsatkich o‘n ikki milliondan oshdi.

Internet yoshlar ongi va hissiyotlariga, tafakkur tarziga, xulq-atvorlariga ta’sir ko‘rsatishda katta imkoniyatlarga ega. Internetning rivoji yoshlarga g‘oyaviy ta’sir o‘tkazishning miqyosi va ko‘lamining keskin darajada o‘sishiga olib keldi.

Globallashuvning ijobiy va salbiy tomonlari bo‘lgani kabi, internet tarmog‘i ham Shunday xususiyatlarga ega ekanini unutmaslik zarur. Albatta, global tarmoq – ulkan resurs. Biroq, bu resursdan kim va qanday maqsadlarda foydalanishi ham juda jiddiy masalalar sirasiga kiradi. Xususan, ma’lumotlarda keltirilishicha, bugungi kunga kelib, internet tarmog‘ida ma’naviy-axloqiy tubanlikni targ‘ib etuvchi sahifalarning soni bir necha yuz millionni tashkil etgan.

Ushbu fakt va raqamlar internet sanoati rivojlanib borayotgan davrda kishilarning axborotlarga nisbatan juda ehtiyotkorlik, ogohlik va ziyraklik bilan munosabatda bo‘lishlarini taqozo etadi. Boshqacha aytganda, kishilarimizda, ayniqsa, yoshlarda axborot iste’moli madaniyatini shakllantirish bugungi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Aynan shu taraqqiyot vositasidan ustamona foydalanib, qalblarni zabt etishda diniy omilning roli yuqori shuning uchun ham turli diniy-ekstremistik va terrorchi uyushmalar o‘z g‘oyalarini targ‘ib qilishda internetni eng samarali vosita sifatida qo‘llamoqda.

Bunda diniy-ekstremistik oqimlar o‘z maqsadlarini amalga oshirish uchun zamonaviy axborot kommunikatsiyalaridan keng foydalanish, internet orqali turli tillarda targ‘ibot olib borish va puxta ishlangan strategiya asosida virtual jamoatlar tuzish asosiy vazifaga aylangan. Masalan, bugungi kunda bir necha yirik terrorchi tashkilotlar o‘z saflariga faol tarzda ijtimoiy tarmoqlar orqali asosan 17-35 yosh oralig‘ida bo‘lgan kishilarni yollamoqda. Bunda psixologik ta’sir samaradorligini yanada oshirish maqsadida ijtimoiy tarmoq a’zolarining sahifalari, qo‘yilayotgan rasmlar, sharh va izohlar hamda olib borilayotgan suhbat mavzularini puxta o‘rganadi va Shu asosda «nishon»ga olingan shaxsga mavzuga oid materiallar internetning Facebook, Odnoklassniki, Vkontakte, Telegram, Twitter, WhatsApp kabi keng auditoriyaga ega bo‘lgan ijtimoiy tarmoqlar orqali (yozma xabar, matn,

fotosurat, stiker rasmlar, audio-video rolik) jo‘natiladi va o‘zaro aloqa yo‘lga qo‘yiladi.

Yoshlar orasida mutaassiblikka yo‘g‘irilgan bunday forumlarning tobora ommalashuvi hamda ularda turli ko‘rinishdagi buzg‘unchi «fatvo»larning berib borilishi muammoning naqadar jiddiy ekanini namoyon etadi. Chunki dunyo aholisining asosiy qismini yoshlar tashkil qiladi. Yoshlar katta kuch hisoblanadi. Ularning endi shakllanib kelayotgan ongiga nimani singdirilsa, o‘sha toshga o‘yilgan naqshdek muhrlanadi. Shuning uchun ham radikal oqimlar aynan yoshlarni tuzog‘iga ilintirishga harakat qiladi. Ulardagi ishonuvchanlik, kuch-g‘ayrat, qiziqqonlik ularning maqsadini amalga oshirishda qo‘l keladi.

Shuning bilan birga, bugungi kunda aksariyat yoshlarning qo‘lida internetga ulangan zamonaviy uyali aloqa vositalari mavjud. Bu hol ularning yuqorida sanab o‘tilgan turli xil ijtimoiy tarmoqlarga bevosita ulanish, do‘stlari va tanishlari bilan uzluksiz muloqot qilish imkonini beradi. Ayni paytda, statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda eng ko‘p yuklab olinayotgan dastur ichida «WhatsApp», «Telegram» tarmoqlari etakchi o‘rinni egallaydi. Ilm-fanning yutug‘i bo‘lmish bu yangiliklar insonlarning uzog‘ini yaqin, mushkulini oson qilayotgani shubhasiz. Shu bilan birga, bu kashfiyotlar dunyo yangiliklaridan bir zumda voqif bo‘lish va ma’lumotlarni oson tarqatish imkonini ham beradi. Biroq, mazkur tarmoqlarda millatlar va dinlar o‘rtasida adovatni keltirib chiqaruvchi, nizoli vaziyatlarga sabab bo‘luvchi, shuningdek, insonlar orasida vahima uyg‘otishga qaratilgan ig‘vo, fitna-fasod xabarlarning keng tarqatilayotgani ko‘pchilikni tashvishga solishi tabiiy. Ayniqsa, yoshlar o‘rtasida urfga aylangan mazkur muloqot tizimidan diniy-ekstremistik oqim a’zolari ham unumli foydalanmoqda. Chunki internet orqali aloqa bog‘lashning osonligi, foydalanuvchilar sonining ko‘pligi, aloqaning anonimligi, tashqaridan boshqarish va tahrir qilish cheklanganligi, axborotlar qisqa muddatda keng makonda tez tarqalishi, faoliyat sarf-xarajatlarining bir necha barobar kamligi terrorchi guruhlar uchun o‘z tarafdorlari sonini ko‘paytirishning qulay jihatlaridan biri hisoblanadi.

Ming afsuski, bunday manfur kuchlar asosan ilm va ma’rifatdan yiroq, sof diniy tushunchalarning asl mazmunini bilmagan kishilarni, asosan yoshlarni jalb etishga intilib, ijtimoiy tarmoqlar orqali «jihod», «takfir», «shahidlik», «hijrat» tushunchalarini noto‘g‘ri talqin etgan holda o‘z Vatanlarini tark etishga urinmoqda. Shuningdek, ayrim kimsalar tomonidan maqsadli ravishda islom mohiyatiga zid bo‘lgan turli xil asossiz axborotlar, manbasi aniq bo‘lmagan diniy tusdagi xabarlar yoki kishilarni vahimaga soluvchi foto va videolavhalar keng targ‘ib etilmoqda. Bunda ba’zi yoshlarning axborot vositalari orqali tarqatilayotgan milliy va diniy qadriyatlarimizga zid bo‘lgan xabarlar, aniq manbasi ko‘rsatilmagan, asossiz axborot va ma’lumotlarga ishonib qolishayotgani, mulohaza qilmasdan ko‘r-ko‘rona qabul qilayotgani undan ham keskin oqibatlarni keltirib chiqarmoqda.

Bugun axborot iste’mol qilinadigan tovarga aylangan ekan, har bir inson o‘zida uni iste’mol qilish madaniyatini tarbiyalashi lozim. Yoshlar shaxsiy xarakterdagi axborot himoyasi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, o‘zi foydalanayotgan salbiy axborotlardan himoyalana olishi zarur.

Axborot iste’moli madaniyati, eng umumiy ma’noda, axborot oqimidan inson manfaatlari, kamoloti hamda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ma’lumotlarni qabul qilish, saralash, tushunish va talqin etishga xizmat qiladigan bilimlar, qobiliyat va malaka tizimini anglatadi.

Inson o‘zida bunday madaniyatni tarbiyalashi uchun u yoki bu axborotni eshitar ekan, hech bo‘lmaganda «Bu axborotni kim uzatayapti?», «Nima uchun uzatayapti?» va «Qanday maqsadda uzatayapti?» degan savollarni o‘z-o‘ziga berishi, unga asosli javob topishga harakat qilishi kerak.

Shundagina turli g‘oyalar ta’siriga tushib qolish, taqdim etilayotgan ma’lumotlarga ko‘r-ko‘rona ergashishning oldi olinadi. Shakllangan axborot iste’moli madaniyati milliy manfaatlarimiz va qadriyatlarimizga zid bo‘lgan xabar, ma’lumotlarga nisbatan o‘ziga xos qalqon rolini o‘taydi, shaxs dunyoqarashi va xulqidagi sobitlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Yosh avlodda bu jihatlar shu darajada shakllangan va qaror topgan bo‘lishi lozimki, ular vertual makonda umummilliy manfaatga xizmat qiladigan, uning taraqqiyotiga yordam beradigan axborotni tanlay olsin. Axborot iste’moli madaniyatiga ega yoshlar, salbiy va noxolis axborotlar ta’siriga tushib qolmaydi, chunki ularda bunday axborotlarga nisbatan mustahkam mafkuraviy immunitet shakllanadi.

«Kimki axborotga ega bo‘lsa, u, dunyoga egalik qiladi», degan fikr bugungi kunda barcha tomonidan e’tirof etilgan. Shunday ekan, bugungi kunda yoshlarda axborot olami imkoniyatlaridan oqilona foydalanish malakasini shakllantirish hayotiy-amaliy ahamiyatga ega.

Shu o‘rinda «Internetdagi tahdidlardan himoya» kitobi muallifi yoshlarning turli oqimlarning ta’siriga tushib qolmasliklari uchun internetdan foydalanishda quyidagi zaruriy ko‘rsatmalarga ahamiyat berishni tavsiya etadi:

- Yoshlarning bo‘sh vaqtlarini ijtimoiy tarmoqlarda o‘tirish bilan o‘tkazishi xatodir. Chunki, hech narsa jonli, haqiqiy va real muloqotlar o‘rnini bosa olmaydi;
- Internetdan foydalanuvchilar shaxsiy ma’lumotlarini turli ijtimoiy tarmoqlar, bloglarga, elektron pochtalarga kiritishlari, g‘arazli maqsaddagi kishilarga ayni muddao bo‘lib xizmat qiladi;
- «o‘rgimchak to‘ri»da aqidaparastlikni targ‘ib qiluvchi saytlar tobora ko‘payib bormoqda. Bunday tahlikali zamonda yoshlarga faqat «uz» domenidagi saytlardan foydalanish tavsiya qilinadi;
- Har qanday xabarni boshqalarga tarqatish kerak deyilsa, tarqatavermaslik lozim. Ba’zan islomiy iboralar aralashgan maktub keladi. Unda bu xatni shu kechaning o‘zida, bir necha kishiga tarqatishingiz kerak. Shunday qilsangiz undoq bo‘ladi. Qilmasangiz oqibati yomon bo‘lishi aytiladi. Aslida bu narsalarning bari yolg‘on hisoblanadi.

Darhaqiqat, islom dini ko‘rsatmalarida ham naql qilingan biror xabarga ishonishdan avval uni tekshirib, aniqlab olish talab etiladi. Jumladan, Qur’oni karimda Shunday deyiladi**: «Ey, mo‘minlar! Agar sizlarga biror fosiq kimsa xabar keltirsa, sizlar** (haqiqiy ahvolni) **bilmagan holingizda biror qavmga**

aziyat etkazib qo‘yib, (keyin) **qilgan ishlaringizga pushaymon bo‘lmasligingiz uchun** (u xabarni) **aniqlab** (tekshirib) **ko‘ringiz!»** *(Hujurot, 6).*

Bu haqida Qur’oni karimning yana bir oyatida insonlar uchun muhim ko‘rsatma kelgan bo‘lib, unda ham turli vositalar orqali olinayotgan xabar va ma’lumotlarga ko‘r-ko‘rona ergashishdan qaytariladi: «(Ey, inson!) **O‘zing (aniq) bilmagan narsaga ergashma! Chunki quloq, ko‘z, dilning har biri to‘g‘risida (har bir inson) mas’ul bo‘lur (javob berur)»** *(Isro, 36).* Demak, inson ko‘rgan, eshitgan har bir ma’lumotiga ishonishi, unga ergashishi oqibatida Alloh oldida ham so‘raladi.

Payg‘ambar Muhammad (alayhis-salom)dan rivoyat qilingan bir necha hadislarda ham shunday deyiladi: *«Xabarni tekshirish Allohdan, (unda) shoshqaloqlik qilish shaytondandir»,* deganlar (Imom Bayhaqiy rivoyati). Shuningdek, *Abu Hurayra (r.a.)dan rivoyat qilingan boshqa bir hadisda esa, Rasulullоh (alayhis-salom): «Kishining yolg‘onchi ekanligiga uning eshitgan har bir narsasini gapiraverishi kifoya qiladi» deganlar (Imom Muslim rivoyati)*.

Ta’kidlash lozimki, internetda buzg‘unchiliklarni targ‘ib qiluvchi veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqdagi guruhlar soni kun sayin ko‘paymoqda. Turli yolg‘on ma’lumotlar ko‘paygan bir vaqtda to‘g‘ri va haqqoniy axborotni ajratish yo‘llarini bilish lozim. Jumladan, bunday sharoitda ajdodlar tutgan yo‘lni tanlash kerak. Imom Buxoriy hazratlari hadislarning sahih, zaif va to‘qimalarini ajratishda juda mohir bo‘lganlari sir emas.

Rivoyat qilinishicha, Imom Buxoriy bir hadisning roviysi, ya’ni rivoyat qiluvchisini qidirib topadilar. Lekin roviy bir hayvonni quruq qo‘l bilan aldab, qo‘raga olib kirayotganini ko‘rib, suhbatlashmasdan qaytadilar va undan hadis rivoyat qilmaylar.

Demak, har bir olingan ma’lumotni tekshirib, asosli yoki asossiz ekanini aniqlamay turib, o‘sha ma’lumotga qarab ish tutish islom mohiyatiga ko‘ra, shayton yo‘liga kirish hamda yolg‘onchi bo‘lib qolish bilan barobar bo‘ladi. Chunki bunda xabar tarqatayotgan kishining g‘arazli maqsadini amalga oshirishiga zamin yaratib qo‘yiladi.

Yoshlarni turli xildagi yot g‘oyalardan asrashda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchidan, jamoatchilik fikrini chalg‘itayotgan, vayronkor axborotlar tashqaridan kelayotganini nazarda tutib, muntazam ularga qarshi turish. Befarqlik va sukut saqlash kayfiyatiga barham berish.

Ikkinchidan, har qanday hujumkor va buzg‘unchi g‘oyaga qarshi o‘z vaqtida, mo‘ljalni aniq olib munosabat bildirish va bunda ehtirosga berilmaslik, ortiqcha shov-shuvlarga yo‘l qo‘ymasdan vazminlik va bosiqlik, ayni paytda, uddaburonlik bilan kuchlik ta’sir o‘tkazish usullarini qo‘llash.

Turli guruhar millatni yo‘q qilish, ildizini qirqib tashlash maqsadida axborot tizimidan foydalanishga zo‘r bermoqda. Mana shu jarayonda yoshlar o‘zining aqliy salohiyatini ishga solib, o‘zini o‘zi himoya qilish va har qanday tajovuzlarga qarshi tura olish iqtidorini shakllantirishi lozim.

Oxirgi paytlarda internet tarmoqlarida har xil asossiz axborotlar, yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan uydirma ma’lumotlar juda ko‘p tarqatilmoqdaki, bularning ta’sirida yoshlar orasida bir-biriga nisbatan keskin adovatlar avj olishi kuzatilmoqda.

Unutmaslik lozimki, axborot xurujlari – biron shaxsga, muayyan tashkilot yoki davlatga qarshi yo‘naltirilgan g‘oyaviy ta’sir hisoblanadi. Uning asl maqsadi o‘sha Shaxs, tashkilot va davlatning tinchligini buzish hamda qora niyatiga etishdir.

Yoshlarning barchasi internet tarmog‘idan faqat ilm yo‘lida foydalanmoqda desak, yanglishamiz. Afsuski, internetdan noto‘g‘ri, buzg‘unchilik va behayolikka doir ma’lumotlarni olishda ham foydalanmoqda. Bu kabi noxush holatlardan so‘ng yoshlar kelajakda qahri qattiq, mehrsiz, hayosiz bo‘lib etishmaydi, deb hech kim kafolat berolmaydi.

Ma’lumki, ko‘plab sayt va tarmoqlar katta mablag‘lar evaziga filtirlab qo‘yilgan va bu holatni ko‘p davlatlarda kuzatish mumkin. Albatta, ta’qiqlar yoki filtr vositalari orqali odamlarni internet olamidagi turli kuchlarning xatarli tahdidlaridan himoya qilish juda qiyin.

Shunday ekan, dunyoning turli mintaqa va hududlarida ro‘y berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ziddiyatli to‘qnashuvlarga teran qarash hissini oshirish, har qanday ko‘rinishdagi tahdidlarga qarshi ma’naviy-ma’rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, ayniqsa bu borada kelajagimiz hisoblangan yosh avlodni, bir so‘z bilan aytganda har birimiz uchun muqaddas bo‘lgan oilamizni din niqobi ostidagi yot g‘oyalar ta’siridan asrash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etish, bunda «fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish» har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

yoki diniy va amaliy muammolarga javob topish mumkin. Bunga ko‘pchilikni murojaatning anonimligi va kuchli diniy yetakchining ishtiroki jalb etadi.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan jarayonlar internet bugungi kundalik turmushimizga qay darajada chuqur singib borganini namoyon qilmoqda. Tobora kuchayib borayotgan globallaShuv jarayonida ma’lumotning mazmuni va strategiyasini tahlil qilish muhim. Chunki, bunday xurujlar yoshlarning ma’naviy-axloqiy, psixologik dunyoqarashini, siyosiy nuqtai-nazari va e’tiqodini maqsadli ravishda o‘zgartirishga qaratilganligi hech kimga sir emas. Axborot xurujlari va kiber tahdidlardan himoyalanish, o‘z navbatida, ularga qarshi kurashish uchun har bir kishi hushyor va ogoh bo‘lishi, axborotni tahlil qila bilishi lozimligini davrning o‘zi talab etadi. Axborotlar oqimidan foydalanish bo‘yicha yoshlarda sog‘lom immunitetni hosil qilish, ijobiy tomonlarini o‘rgatish bilan birga, salbiy oqibatlaridan xabardor etish muhim.

O’zbekiston Respublikasida diniy ekstremizm va terrorizm xavfini oldini olishning huquqiy va tashkiliy asoslari. O‘zbekistonda shakllanayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati o‘ta murakkab va mashaqqatli siyosiy jarayonga asoslangan. Bir tomondan, eski sovet tuzumidan qolgan salbiy

meros demokratik o‘zgarishlarga qarshilik ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, ayrim siyosiy kuchlar xalqimiz tanlagan dunyoviy taraqqiyot yo‘liga raxna solib, uni izdan chiqarish va diniy maqomga burib yuborishga harakat qilmoqda. Bu «ayrim siyosiy kuchlar» diniy ekstremizm va terrorizmning bevosita ilhomchilari va bajaruvchilari bo‘lib, ular o‘zlarining nopok siyosiy maqsadlari yo‘lida inson va jamiyatning eng nozik tuyg‘usi dindan foydalanishga urinmoqda. Ayniqsa, 1999 yilning 16 fevralida Toshkent shahrida terroristlar tomonidan uyushtirilgan portlashlardan keyin terrorizm muammosi O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy hayotga tahdid soluvchi asosiy xavf-xatarlardan biriga aylandi.

Mustaqil davlatimiz qonunchiligida terrorizmga qarshi kurashning asosiy tamoyillari (qonuniylik, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi, jazoning muqarrarligi) bir qator normativ-huquqiy hujjatlarda o‘z ifodasini topgan bo‘lib, ularning asosiylari quyidagilardir:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida»gi qonuni (2000 yil 15 dekabr);

2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (1994 yil 22 sentyabr);

3. O‘zbekiston Respublikasining «Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodeksi va Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi Qonuni (2001 yil 29 avgust);

4. O‘zbekiston Respublikasining «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to‘g‘risida»gi Qonuni (2004 yil 26 avgust).

Ushbu huquqiy-me’yoriy hujjatlar orasida O‘zbekiston Respublikasining «Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida»gi va «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to‘g‘risida»gi Qonunlar alohida e’tiborga molik. Chunki bu qonunlar tufayli O‘zbekistonda terrorizmga qarshi kurashning normativ, tashkiliy va moddiy-texnik asoslari yaratildi. Unga ko‘ra, terrorizmni targ‘ibot qilish, terrorchi gurux va tashkilotlarni tuzish hamda ularning faoliyati, tayyorlanayotgan yoki amalga oshirilgan terrorchi jinoyatlarga oid ma’lumot va dalillarni yashirish taqiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi ekstremizm va terrorizm hamda uni moliyalashtirish bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan narkobiznes va narkotrafikka qarshi kurashda ham qat’iy siyosat olib bormoqda. 1999 yilda «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida»gi qonunning qabul qilingani ham fikrimizni tasdiqlaydi. Shuningdek, «Shanxay hamkorlik tashkilotining terrorizmga qarshi konvensiyasini (Ekaterinburg, 2009 yil 16 iyun) ratifikatsiya qilish to‘g‘risida», «Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha Evroosiyo guruhi to‘g‘risidagi bitimni (Moskva, 2011 yil 16 iyun) ratifikatsiya qilish haqida»gi qonunlarni qabul qilib, ulardagi majburiyatlarini izchil bajarib kelmoqda. Shu bilan birga, bu masalalarda o‘zining tashabbuslarini ilgari surayotganini ham alohida ta’kidlash zarur. Bunday hujjatlar hali ko‘pgina mamlakatlarda qabul qilinmaganligini qayd etib o‘tish darkor.

O‘zbekiston aksilterror koalitsiyalarning faol a’zosi bo‘lib, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik masalalariga xalqaro jamoatchilikning e’tiborini qaratib

kelmoqda. Bu borada O‘zbekiston dunyoning ko‘plab davlatlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan. Respublikamiz xalqaro terrorizmga qarshi kurash doirasida huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish harakatlarini to‘la qo‘llab-quvvatlab, BMT doirasida har tomonlama hamkorlikka asoslangan global tizim yaratish orqali bu yo‘nalishda amaliy natijalarga erishish mumkin, deb hisoblaydi.

Darhaqiqat, xalqaro terrorizmga qarshi kurashda BMTning o‘rni va ahamiyati kattadir. Bugunga qadar BMT terrorizmga qarshi 12 ta rezolyusiya, 16 konvensiya, 2 protokol qabul qilgan.

Shuni ta’kidlash joizki, O‘zbekiston davlati va hukumati terrorizm muammosiga o‘zining tashqi va ichki siyosatining muhim masalasi sifatida yondashib, qonun asosida terrorchi, terrorchilik guruhi, terrorchilik tashkiloti kabi tushunchalarni umumlashtirgan holda ularning ta’rifiga aniqlik kiritildi. Jumladan, O‘zbekistondagi qonunchilik tizimida terrorchi, terrorchilik guruhi, terrorchilik tashkiloti kabi tushunchalarni umumlashtirgan holda ularning ta’rifiga aniqlik kiritildi. 2000 yil 15 dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining «Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida»gi qonunining ikkinchi moddasida terrorizm tushunchasi quyidagicha ifodalangan: «…terrorizm – siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlarga erishish uchun shaxsning hayoti, sog‘ligiga xavf tug‘diruvchi, mol-mulk va boshqa moddiy ob’ektlarning yo‘q qilinishi (shikastlantirilishi) xavfini keltirib chiqaruvchi hamda davlatni, xalqaro tashkilotni, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron-bir harakatlar sodir etishga yoki sodir etishdan tiyilishga majbur qilishga, xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzishga, xavfsizligiga putur etkazishga, qurolli mojarolar chiqarishni ko‘zlab ig‘vogarliklar qilishga, aholini qo‘rqitishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan zo‘rlik, zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish yoki boshqa jinoiy qilmishlar», - deb ta’rif berilgan.

Terrorizmga qarshi kurash dastavval uni oziqlantiruvchi g‘oyaviy-ma’naviy va moliyaviy-iqtisodiy manbalarni zararsizlantirishni taqozo etadi. Shu munosabat bilan 2006 yilning 1 yanvaridan kuchga kirgan «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to‘g‘risida»gi Qonun jinoiy faoliyatdan olingan daromadni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Ushbu qonunga ko‘ra, pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulkka oid operatsiyalar ustidan nazoratni amalga oshirish vakolati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga yuklatilgan. Respublika Bosh prokuraturasi huzurida faoliyat ko‘rsatayotgan Soliq, valyutaga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti zimmasiga moliyaviy razvedkaning zamonaviy tizimini yaratish, jinoiy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishning kanal va mexanizmlarini aniqlashga yo‘naltirilgan moliyaviy, mulkiy operatsiyalarning monitoringini amalga oshirish, xorijiy davlatlarnint vakolatli organlari hamda xalqaro ixtisoslashgan va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik qilish va axborotlar ayirboshlash kabi yangi vazifalar yuklatildi. Chunki

bugun diniy shiorlar bilan niqoblangan, giyohvand moddalarning noqonuniy savdosidan kelayotgan katta-katta mablag‘lar evaziga yashayotgan xalqaro terrorchilik mintaqa xavfsizligiga jiddiy tahdid solib kelmoqda.

Mamlakatimiz aholisi, ayniqsa, yoshlarimizning dunyoviy, ilmiy, axloqiy salohiyatini yuksaltirish, ularda yurt istiqloliga sadoqat, milliy-ma’naviy, umumbashariy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini kuchaytirish, jamiyatimizda diniy aqidaparastlikning har qanday ko‘rinishlarining oldini olish, o‘lkamizda ijtimoiy-ma’naviy va siyosiy muhitni yanada sog‘lomlashtirish, huquqiy demokratik davlat asoslarini mustahkamlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 26 martdagi 130-sonli «Ijtimoiy-ma’naviy muhitni yanada sog‘lomlashtirish, diniy aqidaparastlikning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori qabul qilingan.

Qarorga ko‘ra, Respublika mutasaddi davlat idoralari hamda jamoat tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan «Huquqiy demokratik davlat asoslarini mustahkamlash, ijtimoiy-ma’naviy muhitni yanada yaxshilash, diniy aqidaparastlikning oldini olish bo‘yicha tadbirlar dasturi» tasdiqlangan bo‘lib, jumladan unda:

- diniy va umuman mafkuraviy adabiyotlar, video va audiokassetalarning mazmuni va tarqatilishini tegishli qonunlarda belgilangan tarzda tekshiruvdan o‘tkazishni kuchaytirish;

- diniy aqidaparastlikni targ‘ib qiluvchi videomahsulotlarning namoyish etilishiga qarshi qonuniy choralar ko‘rish;

- diniy mavzudagi kitoblar, risolalar va boshqa turdagi matbaa asarlarida e’tiqodga ko‘r-ko‘rona mukkasidan ketish, bevosita va bilvosita milliy va diniy mahdudlik, aqidaparastlik targ‘ib etilishining oldini olish;

- viloyatlar markazlarida diniy adabiyotlar sotuviga ixsoslashtirilgan maxsus do‘konlar tashkil etish, sotilayotgan diniy adabiyotlar mazmunini nazoratga olish kabi muhim chora-tadbirlar belgilab berilgan.

«Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonunning 19-moddasida diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan matbaa nashrlar, kino, foto, audio, video mahsulotlari va shu kabi boshqa mahsulotlarni tayyorlash, saqlash va tarqatish muayyan javobgarlikka olib kelishi mumkinligini nazarda tutadi. Jumladan, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 184^2-moddasiga asosan Diniy mazmundagi materiallarni tarqatish maqsadida qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish yoki tarqatish, fuqarolarga eng kam oylik ish haqining yigirma baravaridan yuz baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – ellik baravaridan yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘lishi nazarda tutilgan. Shuningdek, ma’muriy jazo qo‘llanilganidan so‘ng bir yil davomida xuddi shunday qilmish takroran sodir etilsa, Jinoyat kodeksining 244^3-moddasiga asosan eng kam oylik ish haqining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida tarqatish maqsadida tayyorlanadigan diniy mazmundagi mahsulotlarni ekspertizadan o‘tkazishda ularning mohiyati

davlatimiz siyosati, milliy istiqlol g‘oyasi va diniy ta’limotlarga zid emasligi, bunday mahsulotlarga qay darajada ehtiyoj mavjudligi, ular diniy da’vat va missionerlikka, aholi o‘rtasida ixtilof va ziddiyatlar kelib chiqishiga sabab bo‘lmasligiga alohida e’tibor qaratiladi.

Ma’lumki, O‘zbekiston dunyoviy davlat hisoblanadi. Shu bois qonunga xilof tarzda dinga dav’at etish, undash ta’qiqlanadi. Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 202^1-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasida g‘ayriqonuniy nodavlat notijorat tashkilotlari, oqimlar, sektalar faoliyatida qatnashishga undash – eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o‘n besh sutkagacha muddatga ma’muriy qamoqqa olishga sabab bo‘ladi. Jinoyat kodeksining 216^1-moddasiga muvofiq, yuqoridagi qonunbuzarlik ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, eng kam ish haqining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Biron-bir fuqaro o‘zining dinga, dinga e’tiqod qilishga yoki e’tiqod etmaslikka, ibodat, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka, diniy ta’lim olishga o‘z munosabatini belgilayotgan paytda uni u yoki bu tarzda majbur etishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Bu haqida Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 241-moddasida ham aytib o‘tilgan bo‘lib, diniy ta’limotdan saboq berish tartibini buzganlik uchun ma’muriy javobgarlik belgilangan. Mazkur moddaga ko‘ra, «Maxsus diniy ma’lumoti bo‘lmay turib va diniy tashklot boshqaruvi markaziy organining ruxsatisiz diniy ta’limotdan saboq berish, xuddi shuningdek, xususiy tartibda diniy ta’limotdan saboq berish» ma’muriy huquqbuzarlik hisoblanib, bunday harakat uchun eng kam ish haqining besh baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o‘n besh sutkagacha muddatga qamoqqa olish jazosi belgilanadi.

Agar biror shaxs bunday qilmish uchun ma’muriy javobgarlikka tortilgandan so‘ng bir yil davomida takroran shunday harakatni sodir etsa, Jinoyat kodeksining 229^2-moddasiga asosan eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi ko‘zda tutilgan. Shunday ekan, xususiy tartibdagi diniy ta’lim javobgarlikka asos bo‘ladi.

Bundan tashqari, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo‘zg‘atish (156-modda), jamoat birlashmalari yoki diniy tashkilotlarni qonunga xilof ravishda tuzish (216-modda), g‘ayriqonuniy jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar faoliyatida qatnashishga undash (216^1-modda), diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish (216^2-modda), diniy ta’limotdan saboq berish tartibini buzish (229^2-modda), jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash yoki tarqatish (244^1-modda), diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etish (244^2-modda) kabi jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Demak, diniy ekstremizm va u bilan bog‘liq holda sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish uchun eng avvalo, kishilarni, ayniqsa, yoshlarni huquqiy savodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, respublikamizda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning o‘ziga xos huquqiy mexanizmi fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlash, diniy ta’lim tizimini takomillashtirish, diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash va tarqatishni tartibga solish, shuningdek, din bilan bog‘liq turli nizolarning oldini olish orqali yurt tinchligi va xavfsizligini ta’minlashda o‘ziga xos xizmat qilmoqda.

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TDPU SHAHRISABZ FILIALI
GUMANITAR FANLAR KAFEDRASI.

FALSAFA FANIDAN AMALIY MASHG’ULOT

SHAHRISABZ 2020

1.Fanning mazmuni.

Fani o‘qitishdan maqsad—talabalarni zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan falsafiy bilimlar bilan qurollantirish hamda o‘z-o‘zini anglash va to‘g‘ri filrlash ko‘nilma va malalasini shakillantirishdan iborat.

Faning vazifasi:--falsafiy bilimlar, qonunlar va kategoriyalarni o‘rganish orqali tizimli, kretiv fkirlash, hayotda o‘z o‘rnini topish;

--jamiyat hayotidagi ijtimoiy jarayonlarga falsafiy tafakkur nuqtai nazardan yondashish, voqealarga shaxsiy, ijodiy tanqidiy baho berish;

--o‘z—o‘zini ma’naviy axloqiy, diniy tarbiyalash;

--jamiyatni demokratlashtirish va modernizatsiyalash jarayonida faol ishtirok etish hissini tarbiyalash.

11. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

1—modul.Falsafa.11.1.Fan tarkibiga qo‘yidagi mavzular kiradi:

1-мавзу. Falsafa fanining asosiy maqsadi va bo’lg’usi pedagoglarga o’qitilishining nazariy-amaliy ahamiyati.

Falsafa jahon xalqlari madaniyatining tarkibiy qismi, umuminsoniy qadriyatlar ahamiyatiga ega, voqealikning eng umumiy aloqadorligi va taraqqiyot qonunlarini o‘rgatuvchi ta’limot. ,,Falsafa” atamasining lug‘aviy ma’nosi. Falsafa fani predmetining jamiyat, fan va texnika taraqqiyoti natijasida doimo o‘zgarib turishi. Falsafaning bahs mavzulari: Borliq, dunyoni falsafiy anglash, inson , jamiyat va uning istiqbolari.

Dunyoqarash tushunchasi, uning mohiyati va mazmuni. Dunyoqarashning tarixiy shakllari: mifologik, diniy, falsafiy dunyoqarashning o‘ziga xos xususiyatlari. Falsafaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.Falsafaning jamiyat hayotidagi roli va uning asosiy funksiyalari.Yosh avlodni ma’naviy komillik, mustaqillikka sodiqlik ruxida tarbiyalashda falsafa fanining ahamiyati.

2-mavzu. Falsafani taraqqiyot bosqichlari.

Sharq - jaxon sivilizatsiyasining markazlaridan biri. Qadimiy Shark, Misr va Bobildagi falsafiy fikrlar.

Antik dunyo falsafasi. Milet va Eley maktablari. Geraklit, Pifagor va pifagorchilar. Sofistlar falsafasi. Suqrot va Aflotun falsafasi. Platonning g‘oyalar dunyosi va g‘oyalar dunyosi to‘g‘risidagi ta’limoti. Yunonistonlik atomistlar: Lekipp, Demokrit va boshqalar. Aristotelning hayoti, faoliyati va asarlari. Qadimgi Rimda falsafiy fikrlar.

Qadimgi Sharq va Antik dunyoda falsafiy fikrlarni o‘rganishdagi zarurat, uning jahon madaniyati va fani uchun ahamiyati.

Markaziy Osiyodagi falsafiy fikrlar uning jahon madaniyatida tutgan o‘rni.

XIV asr oxiridan XX asr boshigacha O‘zbekistondagi ijtimoiy- falsafiy tafakkur. Ulugbekning tabiiy-ilmiy qarashlari. Alisher Navoiy, Bobur, Mirza Bedil va Boboraxim Mashrabning ijtimoiy falsafiy qarashlari.

X1X asr oxiri XX asr boshlarida falsafiy fikrlar. Jadidlik — milliy g‘oyalar uchun kurash falsafasi.

O‘rta asrlarda va yangi davr Ovrupadagi falsafiy fikrlar. Nominalizm va realizm g‘oyalari. Uygonish davri falsafasi. J.Bruno,

N.Kopernik, F.Bekon, T.Gobbs qarashlari. XVII asr Ovrupo falsafasidagi ratsionalizm. XVIII asr ma’rifatchiligi.

Nemis klassik falsafasi. Kant, Gegel falsafasi. Gegeldan keyingi falsafiy oqim va g‘oyaviy jarayonlar. Marksizm: uni qadrlanish va qadirsizlanish sabablari.

Rus falsafasi. (Plexanov G.V., Berdyayev N.A, Lenin V. I.)

asarda shakllangan falsafiy ta’limotlar: ekzistensializm, neopozitivizm, neotomizm.

3-Mavzu: ***Онтология, гносеология ва оиг фалсафаси.***

Borliq tushunchasining mohiyati va ma’nosi. Ontologiya — borliq falsafasi. Borliqning asosiy turlari. Moddiy predmetlar, jarayonlar borligi. Materiya kategoriyasi. Uning xususiyatlari va namoyon bulish shakllari haqida zamonaviy qarashlar. Harakat tushunchasn. Harakatning asosiy shakllari va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik. Harakatning abadiyligi, uzluksizligi va tinchlikning nisbiyligi tamoyili. Fazo va vaqt-materiya mavjudligini obyektiv shakllari. Fazo bilan vaqtning umumiyligi va farqi. ularning birlign, abadiyligi, cheksizligi. uzluksizligi.

Inson olamning tarkibiy qismi. «Odam», «inson», «indivіd» va «shaxs» tushunchalari. Antropologiya - inson tug‘risidagi fan.

Insonning tabiati va mohiyati. Inson mavjudligida jism va Rux (ma’naviyat) uygunligi. Inson borligi: biologik zot, ijtimoiy vujud. Odam evolyutsiyasi haqida hozirgi zamon fani xulosalari. Odamning insonga aylanib borish jarayoni. Insonning ma’naviy ruxiy olami. Falsafada insonni yashashi va o‘limi масаласи. Суицид, evtanaziya muammolari.

Bilish - voqelikning in’ikosi. Bilish muammosining falsafada qo‘yilishi va hal qilinishi. Bilishning obyekta va subyekti. Bilish ziddiyatli, murakkab, dialekti k jarayon. Bilishning asosiy bosqichlari. Missiy bilish va uning shakllari: sezgi idrok, tasavvur. Mantiqiy bilish va uning shakllari: Tushuncha, xukm, xulosa. Hissiy va mantiqiy bilishning birligi. Sensualizm va ratsionalizm. Bilish jarayonida ijod, intuitsiyaning roli va hozirgi zamon falsafasida bularning ifodalanishi.

Hakiqat tushunchasi. Haqiqatning obyektivligi. Nisbiy va mutloq, harakat, ularning dialektikasi. Haqiqatii bilishda amaliyotning roli.

Ilmiy bilish, uning kundalnk bilishdan farqi va o‘ziga xos xususiyatlari. Fanda «Empirik» va «Nazariy» bilish, ularning xususiyatlari.

Ong - yuksak darajada shakllangan materiya ko‘rinishi - odamzod miyasining mahsuli. Ong bilan ruhiyat o‘rtasidagi borliqlik. Inson ongining tabiiy-ijtimoiy

jihatlari. Ong va in'ikos. In'ikosning mohiyati, asosiy shakllari. Hissiyot va tasavvur. Iroda va tafakkur o‘z- o‘zini anglash, tuyg‘ular, onglilik va ongsizlik muammolari. Ong, tip va mehnat, ularning bog‘liqligi. Ijtimoiy va individual ong. Ijtimoiy ong, uning darajalari va asosiy shakllari. O‘z-o‘zini va milliy o‘zlikni anglash.

4-mavzu. Falsafaning metod, qonun va kategoriyalari.

Metod va metodologiya tushunchasi. Xususiy fan metodlari va falsafiy metodlarning o‘xshash va farq qiladigan jihatlari. Ilmiy metodlar klassifikatsiyasi.
Falsafada qonun tushunchasi va uning mohiyati. Qonun va qonuniyat. Tabiat va jamiyat qonunlarining bir-biridan farqi. Falsafiy qonunlar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari. Dialektikaning asosiy qonunlari: Miqdor va sifat o‘zgarishlarining o‘zaro o‘tish qonuni va uning mohiyati. Qarama- qarshiliklar birligi va kurashi qonuni, bu qonunning mohiyati. Bu qonuning tabiatda, jamiyatda, ilmiy bilishda namoyon bo‘lishi. Dialektik ziddiyatlar va ularning turlari. Ziddiyatlarni bartaraf etish yo‘llarini bilishning amaliy va ilmiy ahamiyati. Inkorni inkor qonuni, uning mohiyati. Inkor tushunchasi. Inkorni inkor dialektikasi. Vorislik eskini inkor va yangilikning shakllanish sifatida, yangilikda eskilik elementlarining saqlanishi va bardam topishi muammolari.
Falsafiy kategoriyalar mohiyati va xususiyati. Falsafa kategoriyalarining xususiy fanlar tushunchalaridan farqi.
Olamdagi umumiy aloqadorlikni ifodalovchi kategoriyalar: ayrimlik, xususiylik va umumiylik, mohiyat va hodisa, qonuniyat. Narsa
va hodisalar tuzilishini aks ettiruvchi kategoriyalar: shakl va mazmun; butun va qism, sistema, struktura va element. Narsa va hodisalar o‘rtasidagi sababli bog‘lanish (determinizm)ni anglashda imkon yaratuvchi kategoriyalar: sabab va oqibat: zaruriyat va tasoddif; imkoniyat va voqelik.

5-mavzu. Jamiyat falsafasi. Hozirgi zamon jamiyatining global muammolari va jamiyatni rivojlantirish istiqbollari.

Jamiyat tushunchasi. Jamiyatning mohiyati, kelib chiqishi va taraqqiyoti tug‘risidagi diniy va hozirgi sotsiologik qarashlar.
Jamiyatga ilmiy-falsafiy yondashishning asosiy tomonlari. Jamiyatning moddiy hayoti. Jamiyatning ijtimoiy tuzilishi. Kishilar birligining tarixiy shakllari. Oila, urug‘, qabila, elat, millat.
Jamiyat - doimiy ravishda taraqqiy etib turadigan jonli sotsial organizm. Jamiyat taraqqiyotida uzluksizlik va uzluklilik. Jamiyat taraqqiyotining doimiy ravishda olg‘a tomon ilgarilab borishi. Jamiyat taraqqiyotidagi turg‘unlikning vaqtinchaligi. Jamiyatimizda ruy berayotgan demokratik o‘zgarishlar, ularning tarixiy ahamiyati. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida inson omilining ortib borishi.
Insoniyat istiqboli va global muammolar.

6-mavzu. Pedagogik amaliyotda mantiqiy fikrlashning ahamiyati.

Tafakkur — mantiq ilmining o‘rganish obyekti. Tafakkurning asosiy xususiyatlari. Tafakkurni o‘rganishga turli xil yondashishlar.

Tafakkurning mantiqiy shakllari va qonunlari hakida tushuncha. Tafakkur shakli (mantiqiy shakl) tushunchasi. Fikrning aniq mazmuni va mantiqiy shakli, ularning nisbiy mustaqilligi va o‘zaro alokasi. Tafakkur qonuni (mantiq qonuni) tushunchasi. Tafakkur qonuni-fikrlar (fikrlash unsurlari) O‘rtasidagi zaruriy aloka. Tafakkur qonunlari to‘g‘ri fikr yuritishning muhim tamoyillari sifatida**,**

Mantiq — tafakkur shakllari va qonunlarini o‘rganuvchi fan. Mantiq ilmining asosiy masalalari va ularni tadqiq etish yo‘nalishlari. Formal mantiqning predmeti va tuzilishi, uning dialektik mantiq va matematik mantiq bilan o‘zaro munosabati. Formal mantiqning falsafiy bilimlar tizimida tutgan o‘rni. Formal mantiqning hozirgi paytdagi vazifalari.

Mantiq fanining pedagogik amaliyotda fikrlash madaniyatini o‘stirishdagi, shu jumladan, mustaqil, erkin fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilishdagi ahamiyati. Mantiq ilmining bilish jarayonida tushunish va tushuntirish, ayniqsa, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglash, milliy mafkurani rivojlantirishdagi ahamiyati.

7-Mavzu: Etika fanining predmeti, asosiy muammolari va kasbiy axloq. Bo`lg`usi pedagok etiketi.

“Etika” fanining predmeti, mohiyati, uning asosiy belgilari va tuzilmasi. Ahloqning paydo bo‘lishi. Gedonizm va evdemonizm tushunchalarining ahloqiy ahamiyati. Etika fanining fanlararo bog‘liqligi: falsafa; estetika; dinshunoslik, huquqshunoslik, milliy g‘oya, psixologiya, pedagogika, siyosatshunoslik, ekologiya. Ahloqning paydo bo‘lishi haqidagi diniy, empirik va genetik konsepsiyalar. O‘zbekistan mustaqilligining etika fani rivojiga konstruktiv ta’siri. XXI asrda global etosfera (ahloqiy muhit)ni yaratishning zaruriyati. Pedagogik etika, uning jamiyat oldidagi burchi va mas’uliyati.

8- Mavzu: Pedagog faoliyatida estetika.

Estetik anglash tushunchasi va uning individual xarakteri. Insoniyat tarixida estetik anglash, munosabat va faoliyatning talqini. Estetik bilish va estetik qadriyatlar mutanosibligi. Estetik anglashning asosiy elementlari: estetik ehtiyoj, estetik munosabat, estetik tuygu, estetik did, estetik baho, estetik ideal, estetik qarashlar, estetik nazariyalar. Shaxs estetik ehtiyoji. “Estetika” kategoriyalarining falsafiy mazmuni va mohiyati. Falsafa tarixida estetika kategoriyalari hakidagi tasavvurlarning xilma-xilligi.Pedagogik faoliyat estetik didni shakllantirishning muhim omili. Ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni insoniylashtirish va go‘zallashtirishning estetik muammolari. Voqelikka estetik munosabatning milliy va umumbashariy ahamiyati. Estetik qadriyatlar - barqarorlikni ta’minlovchi omil. “Dunyoni go‘zallik qutqaradi” shiorining global ahamiyati. Olamni estetik anglashda jamiyat axborotlashuvining roli. . Axborot estetikasining o‘ziga xos xususiyatlari va uning ijtimoiy- siyosiy, badiiy-ijodiy, ma’naviy-ahloqiy jarayonlar bilan bog‘likligi.

9-mavzu. Korrupsiya va uning asosiy ko‘rinishlari.

Korrupsiya tushunchasining tasnifi. Korrupsiya va korrupsiyaviy huquqbuzarlikning mohiyati, kelib chitsishi va uning asosiy ko‘rinishlari.

-O‘zbekistan Resggublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish tizim yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risidagi farmonni mazmun- mohiyatini singdir

-Oliy Talim sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kelib chiqish sabab va omillarini umumiyligiga ko‘ra: iktisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy omillarini tahlil etish orkali har bir omillarni bugungi kun ijtimoiy hayotdagi amaliy misollar yordamida ko‘rib chikish va ularni tub mohiyatini anglashga yordam berish;

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida PF-5618 son farmonni tushuntirish orkali talaba yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirnsh.

10-mavzu. Korrupsiya va ijtimoiy hayot. Korrupsiyani bartaraf etishning asosiy yunalishlari.

Davlatimizda korrupsiyaga qarshi kurashda davlat hokimiyati organlari faoliyatini tahlil etib muayyan vazifalarni amalga oshirmokda jumladan:

Korrupsiyani oldini olish korrupsiya sabablarini aniqlash va bartaraf etish;

Korrupsiyaga qarshi kurashning tashkiliy asoslarini tushuntirish;

Korrupsiyaga qarshi kurash sohasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari .O‘zbekistan Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanishi va bu borada amalga oshirilayotgan isloxotlarni tushuntirish orkali talaba yoshlar ongi va tafakkuriga singdirish, shuningdek, 2019 yil 27-mayda O‘zbekistan Respublikasi Prezidentiniig O‘zbekistoi Respublikasida korrupsiyaga karshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari PF- 5729 son Farmoni bilan 2019-2020 yillarda korrupsiyaga karshi kurashish davlat dasturi va unda ilgari surilgan asosiy vazifalarni tahlil etishdan iboratdir.

11-mavzu. Dinshunoslik faniga kirish. Dinniig mohiyati, tuzilishi, funksiyalari.

Dinshunoslik fanining predmeta, maqsad va vazifalari bayon qilingan. Dinshunoslikning ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan aloqadorligi. Dinshunoslik fanini o‘rganishning jamiyat barqarorligini mustahkamlash, diniy bag‘rikenglikni tarbiyalash, vijdon erkinligini ta’minlashdagi ahamiyati. Dinshunoslikda shakllangan mifologik. tarixiy, sotsiologik, antropologik va boshqa maktablar. Din - ijtimoiy ong shakli, muayyan turmush va tafakkur tarzi, ma’naviy qadriyat sifatida. Dinnang jamiyat va shaxs ma’naviyati yuksalishidagi, komil insonni tarbiyalashdagi ahamiyati. Dinning strukturasi. Dinning ijtimoiy funksiyalari: dunyoqarashni shakllantirish, yosh avlodni tarbiyalash, tartibga solish (regulyatorlik), birlashtirish (integratorlik), tasalli berish (kompensatorlik), aloqa o‘rnatish (kommunikativ) va h.k. Din va dinshunoslik atamalarining ta’rifi hamda dinshunoslik fanining vujudga kelishi va tadrijiy taraqqiyoti bayon etiladi.

12-mavzu. Urug‘-qabil a va milliy dinlar.

Insoniyatning dastlabki madaniyat o‘choqlari va ulardagi diniy tasavvurlarning xilma-xilligi. Ilk tabu (ta’qiq), totemizm, animizm, fetishizm, shomonlik, magiya (sehrgarlik). Qadimgi Misr, Bobil va Assuriya dinlari. Antik davrda ko‘pxudolik dinlari. Hinduiylik. Vedalar va upanishadlar - hinduiylikning muqaddas kitoblari. Braxmanlik ta’limotida kastalar. Konfutsiylik. Konfutsiylikda ijtimoiy-ahlokiy masalal ar. Daosizm - falsafiy ta’limot. Iudaizm - yahudiy milliy dini. Yahudiylik ta’limoti. Yapon milliy dini - sintoizm, uning asosiy aqidalari va marosimlari.

13-mavzu. Jahon dinlari: buddizm va xristianlik va ulardagi ta’limiy-tarbiyaviy qarashlar.

Buddizmning vujudga kelishi, ta’limoti - to‘rt oliy haqiqat, nirvana. Buddizm ahloqiy ta’limoti - “pancha-shila”. Buddizmdagi oqimlar: maxayana, xinayana, lamaizm va h.k. O‘zbekistan hududidagi buddizm yodgorliklari va ularning tadqiq etilishi. Xristianlik. Xristian ilohiyoti. Yakka xudoning uch qiyofasi: Ota-xudo, O‘g‘il-xudo, Muqaddas ruh. Xristianlikdagi asosiy oqimlar - ortodoks (pravoslaviye), katolitsizm, protestantizm. Xristianlikning O‘rta Osiyoga kirib kelishi.

14-mavzu. Islom dini va ta’limoti.

Islom dini shakllanishidagi tarixiy sharoit. Muhammad paygambar(a.s.) hayoti va faoliyati. Vahiyning nozil bo‘la boshlashi. Madinaga hijrat. Makkaning fath, etilishi. Xalifalik. Islomda mazhablarning paydo bo‘lishi, ilk ixtiloflar. Islom dinining O‘rta Osiyoga kirib kelishi. Qur’on - islom dinining muqaddas kitobi. Qur’ondagi ezgulik, tinchlik, birodarlik, mehr-muruvvat g‘oyalari. Qur’ondagi ahloqiy g‘oyalarning umuminsoniy ahamiyati. Hadislar - Qur’ondan keyingi mo‘tabar manba. Hadislarda ma’naviyat, ahloq-odob, mehr-oqibat masalalari. Islom ta’limotida oila muqadddasligi. Er- xotinning bir-biriga nisbatan huquq va burchlari. Islomda ayollarga munosabat. Islom ilohiyoti, uning asosiy aqidalari. Islom falsafasi olam va odamning yaratilishi, inson hayotining mazmuni, ezgulik va yovuzlik kurashi to‘g‘risida. Kalom falsafasi. Imom Moturidiy ta’limoti. Abu Nasr Forobiy va Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlari. Abu Xomid G‘azzoliy,Ibn Rusht falsafiy ta’limotlari. Tasavvuf (sufizm) ta’limoti va tariqatlari Farididdin Attor va Jaloliddin Rumiy,Hakim Termiziy va Sufi Olloyor asarlarida tasavvuf g‘oyalari. O‘zbekiston hududida shakllangan mashhur tariqatlar. O‘zbekiston allomalarining islom ta’limoti va dunyoviy fanlarni rivojlantirishdagi tarixiy xizmatlari. Tasavvuf ma’naviyati. Islomda huquq falsafasi. Burxoniddin Marg‘inoniy va uning ,,Hidoya” asari- islom huquqi bo‘yicha eng mo‘tabar manba. O‘zbekiston ulamolarining tafsir va hadis ilmiga qo‘shgan hissalari haqidagi fikrlar bayon etiladi, ilmiy tahlil qilinadi.

15-mavzu.O‘bekistonda vijdon erkinligi. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash. O‘bekiston tajribasi.

Vijdon erkinligi tushunchasi.Xalqaro meyoriy hujjatlarda vijdon erkinligi.

O‘zbekistonda vijdon erkinligining Asosiy Qonuni bilan kafolatlanishi. O‘zbekistonda faoliyat ko‘satayotgan diniy konfessiya va tashkilotlar. Missionerlik va prozelitizm xavfining bartaraf etilishi. Diniylik va dunyoviylik muammosi, ularning uyg‘unligini ta’minlash borasida O‘zbekistonda amalga oshirilgan tadbirlar.Ma’rifiy islomni targ‘ib yetish-yoshlarni diniy mutaassiblik, aqidaparastlik va ekstremistik g‘oyalardan muhofaza etishning oqilona yo‘li.Diniy mutaassiblik(fanatizm),ekstremizm, aqidaparastlik (fundamentalizm),xalqaro terrorizm tushunchalarining mazmuni va reaksion mohiyati. Terrorizmning tinchlik va taraqqiyotga, millatlararo munosabatlar va diniy bag‘rikenglikka tahdidi. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash. Virtual olam tahdidlari. Internet muammosi. Kibermakon va din.Global tarmoqdagi g‘oyaviy xurujlarga qarshi kurash.O‘zbekiston Respublikasida ekstremizm va terrorizm xavfini oldini olishning huquqiy va tashkiliy asoslari. O‘zbekiston rahbariyatining bu boradagi tashabbuslari va ularning xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilishi tahdidi haqida fikrlar bayon etiladi, munozaralar olib boriladi.

2. Ma`ruza mashg`ulotlari.

1-jadval

№	Ma`ruza mavzulari	Dars soatlari hajmi
	I yoki II - semestr	
1.	Falsafa fanining asosiy maqsadi va bo’lg’usi pedagoglarga o’qitilishining nazariy-amaliy ahamiyati.	2
2.	Falsafani taraqqiyot bosqichlari.	2
3	Ontologiya, gnoseologiya va ong falsafasi.	2
4.	Falsafaning metod, qonun va kategoriyalari.	2
5.	Jamiyat falsafasi.Hozirgi zamon jamiyatining global muammolari va jamiyatni rivojlantirish istiqbollari.	2
6.	Pedagogik amaliyotda mantiqiy fikirlashning ahamiyati.	2
7.	Etika” fanining predmeti, asosiy muammolari va kasbiy ahloq.	2
8.	Pedagogik faoliyatida estetika.	2
9	Korrupsiya va uning asosiy ko’rinishlari.	2
10	Korrupsiya va ijtimoiy hayot. Korrupsiyani bartaraf etishning asosiy yo’nalishlari.	2
11	Dinshunoslik faniga kirish. Dinning mohiyati, tuzulishi,	2

	funksiyalari.	
12	Urug'– qabila va milliy dinlar.	2
13	Jahon dinlari : buddizim va xristianlbk va ulardagi ta'limiy-tarbiyaviy qarashlar.	2
14	Islom dini va ta'limoti.	2
15	O'zbekistonda vijdon erkinligi. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash: O'zbekiston tajribasi.	2
	Jami soat	30

Ma`ruza mashg`ulotlari multimedia qurulmalari va boshqa texnalogiyalar bilan jihozlangan auditoriyada shakllantirilgan potoklarda alohida o`tkaziladi. Mavzuda mashg`ulotlarini olib boorish usullari turli-tuman ko`rinishda bo`lsa-da, faol va interfaol metodlar ko`proq qo`llanilishi maqsadga muvofiq. Shuningdek ayrim mavzularda"Keys-stadi"texnalogiyasini ishlatish mumkin. Keyslar mazmuni o`qituvchi tomonidan belgilanadi. Ko`rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi.

Seminar mashg'ulotlari.

2- jadval

№	Seminar mavzulari	Dars soatlari hajmi
	I yoki II- semestr	
1.	Falsafa fanining asosiy maqsadi va bo'lg'usi pedagoglarga o'qitilishining nazariy-amaliy ahamiyati.	2
2.	Falsafani taraqqiyot bosqichlari.	2
3	Ontologiya, gnoseologiya va ong falsafasi.	2
4.	Falsafaning metod, qonun va kategoriyalari.	2
5.	Jamiyat falsafasi.Hozirgi zamon jamiyatining global muammolari va jamiyatni rivojlantirish istiqbollari.	2
6.	Pedagogik amaliyotda mantiqiy fikirlashning ahamiyati.	2
7.	Etika" fanining predmeti, asosiy muammolari va kasbiy ahloq.	2
8.	Pedagogik faoliyatida estetika	2
9	Korrupsiya va uning asosiy ko'rinishlari.	2
10	Korrupsiya va ijtimoiy hayot. Korrupsiyani bartaraf etishning asosiy yo'nalishlari.	2

11	Dinshunoslik faniga kirish. Dinning mohiyati, tuzulishi, funksiyalari.	2
12	Urug'– qabila va milliy dinlar.	2
13	Jahon dinlari : buddizim va xristianlbk va ulardagi ta'limiy-tarbiyaviy qarashlar.	2
14	Islom dini va ta'limoti.	2
15	O'zbekistonda vijdon erkinligi. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash: O'zbekiston tajribasi.	2
	Jami soat	**30 soat**

Seminar mashg`ulotlari multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyalarda har bir akadem guruhga alohida o`tiladi. Mashg`ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o`tiladi. Ularning qaysi turini tanlash guruhning bilish darajasiga ko`ra o`qituvchi tomonidan tanlanadi. Ko`rgazmali materiallar va axborotlar multimedia ko`rgazmalari yordamida uzatiladi

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TDPU SHAHRISABZ FILIALI
GUMANITAR FANLAR KAFEDRASI.

FALSAFA FANIDAN MUSTAQIL ISH.

SHAHRISABZ. 2020.

IV. Mustaqil ta’lim topshriqlari.

Mustaqil ta’lim topshriqla mazkur kurs mazmunini to’liq qamrab olish maqsadida tayyorlangan bo’lib, nazariy egallangan bilimlarni kengaytirish, talabalarning mustaqil o’qish faoliyatini yo’lga qo’yishga asoslangan**.** Mustaqil topshiriqlari talabaning o’quv yuklamasining tarkibiy qismida krib, unda talaba tomonidan minimal 0,006 kredit (60 soat hajmda) to’plashi lozim. Mazkur kursdagi modular yuzasidan topshiriqlar amaliy xarakterda bo’lib talaba tomonidan mustaqil o’zlashtirilishi va topshirilishi shart.

Talaba semestr ykunida 2 kredit to’plashi zarur va buning uchun 10 ball beriladi.

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular.

3-jadva

№	Mashg’ulot turi	Kurs modullari.	SOAT			MTga ajratilgan miqdori
				Topshiriq turi	Topshiriq shakli	
		1 yoki 2-semestr				
1	Mustaqil ish	**Falsafiy dunyoqarashning o`z-o`zini anglashdagi ro`li.**	2	individual	Taqdimot	0,006k
2	Mustaqil ish	**Insonning ma’naviy kamolotida falsafiy dunyoqarashning roli.**	2	individual	Referat	0,006k
3	Mustaqil ish	.Fan ilmiy dunyoqarash shakli.	2	individual	Taqdimot	0,006k
4	Mustaqil ish	.Sharq va G‘arb falsafasida inson masalasi.	2	individual	Referat	0,006k
5	Mustaqil ish	.Falsafa qonun va kategoriyalarining ijtimoiy jarayonlar dialektikasidagi roli,	2	individual	Referat	0,006k
6	Mustaqil ish	Bilim inson ma’naviy kamoloti omili.	2	individual	Referat	0,006k
7	Mustaqil ish	Globallashuv sharoitida antropologik inqirozning oldini olishnnng zaruriyati.	2	individual	Referat	0,006k
8	Mustaqil ish	Milliy va umuminsoniy qadriyatlar dialektikasi.	2	individual	Referat	0,006k

9	Mustaqil ish	Diniy madaniy an’analarning jamiyat taraqqiyotiga ta’siri.	2	indivi dual	Referat	0,006k
10	Mustaqil ish	BMT Kodeksida korrupsiyaga munosabat.	2	indivi dual	Referat	0,006k
11	Mustaqil ish	O‘zbekistovda korrupsiyaga oid qonunlar va qarorlar tasnifi. Korrupsiyaga qarshi kurashning ahamiyati.	2	indivi dual	Referat	0,006k
12	Mustaqil ish	Etika kategoriyalarining o‘ziga xos xususiyatlari.	2	indivi dual	Referat	0,006k
13	Mustaqil ish	Etikaning zamonaviy muammolariga diniy va ilmiy yondashuvlar.	2	indivi dual	Taqdim ot	0,006k
14	Mustaqil ish	O ila va oilaviy qadriyatlar ma’naviy madaniyatning bosh omili.	2	indivi dual	Taqdim ot	0,006k
15	Mustaqil ish	Hukm tafakkur shakli sifatida.	2	indivi dual	Taqdim ot	0,006k
16	Mustaqil ish	Hukmning tarkibi va xususiyatlari.	2	indivi dual	Taqdim ot	0,006k
17	Mustaqil ish	Xulosa chiqarishning umumiy mantiqiy tavsifi.	2	indivi dual	Taqdim ot	0,006k
18	Mustaqil ish	Xulosa chiqarishning tuzilishi.	2	indivi dual	Taqdim ot	0,006k
19	Mustaqil ish	Estetik tarbiyaning turlari yo‘nalishlari.	2	indivi dual	Taqdim ot	0,006k
20	Mustaqil ish	Tabiat va texnogen sivilizatsiya estetikasi.	2	indivi dual	Taqdim ot	0,006k
21	Mustaqil ish	Allomalar din to‘g‘risida.	2	indivi dual	Taqdim ot	0,006k
22	Mustaqil ish	Dinning inson va jamiyat hayotidagi o‘rni.	2	indivi dual	Taqdim ot	0,006k
23	Mustaqil ish	.Ilk dinning tasavvurlari.	2	indivi dual	Taqdim ot	0,006k
24	Mustaqil ish	Yahudiylik dinining xususiyatlari.	2	indivi dual	Referat	0,006k

25	Mustaqil ish	Hindiston milliy dinlari.	2	individual	Referat	0,006k
26	Mustaqil ish	Xitoy milliy dinlari.	2	individual	Referat	0,006k
27	Mustaqil ish	. Zardushtiylikning vujudga kelishi.	2	individual	Referat	0,006k
28	Mustaqil ish	Буддавийлик динидаги таълимий-тарбиявий ғоялар.	2	individual	Referat	0,006k
29	Mustaqil ish	Xiristiyanlikdagi oqimlar.	2	individual	Referat	0,006k 0,006k
30	Mustaqil ish	Qur’on va hadis Sharq xalqlarining diniy, ilmiy va ma’naviy merosi sifatida.	2	individual	Referat	0,086k
	Jami		60			

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TDPU SHAHRISABZ FILIALI
GUMANITAR FANLAR KAFEDRASI.

FALSAFA FANIDAN GLOSSARIY.

SHAHRISABZ .2020.

Mavzu: Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari:

Sharq falsafasi.

Atamaning O'zbek tilida nomlanishi	Atamaning Ingliz tilida nomlanishi	Atamaning Rus tilida nomlanishi	Atamaning nomlanishi
Daosizm	Daosysms	Даосизм	**DAO** (xitoy - - qonun, yo'l) - - qadimgi Xitoyda vujudga kelgan falsafiy maktab Asoschisi Lao-tszi (mil.av. VI a.da yashagan). Lao tszi va uning shogirdlari olamning moddiyligini, moddiy dunyo tabiiy qonuniyat—DAO asosida to'xtovsiz va o'zgarishda ekanligini qayd etdi. Daoizm vakillari qadimgi Xitoy falsafasida birinchi bo'lib moddiy dunyodagi hamma narsalar qarama-qarshilikdan iborat ekanligini e'tirof etdilar; moddiy dunyoni bilish mumkinligini, bilish sezgilardan boshlanib, tafakkur bilan yakunlanishini ko'rsatib berishga harakat qiddilar.
Buddaviylik	Buddhism	Буддизм	**BUDDA***(sanskrit.* Buddaha—nurlangan)—*buddizm dini* asoschisi. Qadimgi. hind afsonasida aytilishicha, Budda go'yo insoniyatni azob-uqubatlardan xalos qilish uchun paydo bo'lgan. Buddaning asli nomi **Sidtsxartxa Gautama** bo'lib, mil.av. 623-544 y.larda yashagan.
Zardo`shtiylik	Zoroastrism	Зороастризм	**ZARDUSHT** (Zardust, Zaratushtra, Zoroastr) — dunyoda

			yakka xudolik (monoteizm)ni targ'ib etgan ilk mutafakkirlardan biri.
Jaynizm	Jaynysysms	Жайнизм	**JAINIZM** *(hind.* «jinna»— «g'olib») — eramizdan avvalgi 1-ming yillik o'rtalarida qadim Hindistonda yuzaga kelgan va olamning asosida ikki ibtido: materiya va jon yotadi, deb hisoblaydigan ta'limot.
Naturfalsafa	Naturephylosophy	Натурфилософия	**NATURFALSAFA** (lo/ya.paSHga-tabiat) - tabiat hodisalarini, tabiatni insonga va insonni tabi-atga bo'lgan munosabatlarini tushuntirish va izoh-lash, majmua. Insonning tabiat haqidagi o'y-fikrlari ham shu doiraga kiradi. Bu, o'z navbatida, sub-stantsiya, kuch, fazo, moddiyat, vaqt, hayot, tabiat qonuni, rivojlanish kabi so'zlarni tushunib olish-ga yordam beradi.
Nominalizm	Nominalism	Номинализм	**NOMINALIZM -** *(lot.* nomina - ism, nom.) - - sxolastik falsafadagi bir-biriga zid oqimlar. Nominalistlar fikricha, universa-liylar haqiqatda emas, balki faqat tafakkurda mavjud. O'rta asrlarda N. sxolastikaning realizm b-n munozarasi natijasida kelib chiqqan edi . Le-kin N. ning asosiy tezisi qadimgi yunon faylasuflari Antisfen va Stoiklar tomonida ilgari surilgan bo'lib, ular Platon g'oyalarini tanqid qilgan edi-lar.
Neotomizm	Neotomysms	Неотомизм	**NEOTOMIZM**(yangi tomizm)

			- FomaAkvin-skiyning xristian fal .sinitiklashga qaratilgan oqim. Unga1879 y.dapapa LevXP tomonidan asos solingan. N. Ning dasturiy hujjati Piy X tomonidan 1914 y. e'lon qilingan«24 tezis» bo'ddi. Unda falsafasining asosiy bo'limlariga oidq rarashlar bayon qilingan. N. Mohiyatiga ko'ra, Yangi davr va hozirgi zamon falsafasini cherkov nuqtainazariga ko'ra taxlil qilish, uning ziddiyatlarini aniqlash va tomizm-niolamhaq vdagiyang iilmiy qarash larga moslashga qaratilgan ta'limotdir.
Neopozitivizm	Neopozytyvysms	Неопозивитизм	**NEOPOZITIVIZM***(lot.* positivus ijobiy, neos—yangi) - G'arbda keng tarqalgan falsafiy yo'nalish. N. fal-iy tafakkurga tajribaning «po-zitiv» — ijobiy natijalarini qarshi qo'yadi. Uning diqqat markazida turgan muammo —bu falsafa. Va fan-ning o'zaro munosabati masalasi.
Marksizm	Marsysms	Марксизм	**MARKSIZM**-- 19-a.ning 40-y.larida Germaniyada shakllangan, nemis iqtisodchisi va faylasufi K. Marks(1818—1883 y.) nomi b-n atalgan falsa-fiy, ijtimoiy-iqtisodiy qarashlar tizimi.
Pragmatizm	Pragmatysms	Прагматизм	**PRAGMATIZM***(yun.* pragma-ish, amal) -- 19-asrda AQSHda vujudga kelgan fal-iy oqim. P.ning aso-siy g'oyalari CH .Pirsto monidan ishlab chiqildi
Ekzistensiali	Eksystensyal	Экзистенциа	**EKZISTENSIALIZM –**

zm	esms	лизм	(mavjudlik falsafasi) XX asrda Germaniyada shakllangan falsafiy yo'nalish. Uning ko'zga ko'ringan namoyon dalari Karl Yaspers(1883-

Mavzu: Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari:
G'arb falsafasi

Atamaning O'zbek tilida nomlanishi	**Atamaning Ingliz tilida nomlanishi**	**Atamaning Rus tilida nomlanishi**	**Atamaning nomlanishi**
Borliq	Existence	Бытие	**BORLIQ**— olam va harqanday turdagi mavjudlikni ifo dalaydigan falsafiy kategoriya.
Ontologiya	Ontology	Онтология	
Materiya	Material	Материя	**MATERIYA**— borliqdagi moddiy narsalar, hodisalar va jarayonlarning umumiy xususiyatlarini ifodalovchi falsafiy tushuncha.
Subtansiya	Substantsiya	Субстанция	**SUBSTANTSIYA***(lot.* substantio — moxiyat) — qadim-gi Yunoniston, Hindiston, Xitoy falsafasi tarixida butun mavjudotning bosh asosini ifodalovchi tushuncha. S. Tushunchasi substrakt— negiz, konkret asos ma'nosini anglatadi .
Atribut	Atribut	Атрибут	**ATRIBUT***(lot.* atribut —baxsh

			etaman) — predmet-ning engzarur va muxim xossasi. Aristotelь A. Ni tasodifiy hollardan, hodisalardan ajratgan. Dekar tunga substantsiyaning asosiy xossasi sifatida qaragan. Shuboi shamunda jismoniy substantsiyaning A. Sifatida masofa, ko'lam (distantsiya, massh-tab) ruxiy substantsiya A.i sifatida tafakkur ish-tirok etadi.
Harakat	Movement	Движения	**HARAKAT.** tushunchasi butun borliq va olamda, jumladan, kishilik jamiyatida ham yuz berayotgan barcha o'zgarish va jarayonlarni o'z ichiga oladi. H., eng avvalo, har qanday o'zgarishdir.
Fazo	Space	Пранстранство	**FAZO(fors. joy, ko'lam)-** . Fazo vaqtning muayn lahzasida olamni tashkil etgan nuqtalarning o'zaro joylashish tartibini aks ettiradi. Ya'ni fazo narsalarning ko'lamini, hajmini, o'zaro joylashish tartibini ifodalaydi.
Vaqt	Time	Время	**VAQT**— olamning atributi bo'lib, barcha ob'ektlar mavjudligining davomiyligini va holatlar alma-shuvining izchilligini xarakterlaydi. V. Makon b-n chambarchas bog'liq. Chunki harqanday mavjudlikning asosiyshakllari makon va vaqtdir.

Mavzu:Falsafiy antropologiya (insonfalsafasi)

Atamaning O'zbek tilida nomlanishi	Atamaning Ingliz tilida nomlanishi	Atamaning Rus tilida nomlanishi	Atamaning nomlanishi
Antrapalogiya	Anthropology	Антропология	**ANTROPOLOGIYa***(yun.* anthropos — odam valogos-ta'limot) — odamning paydo bo'lishi vaevolyuts i-yasi, odam irqlari haqidagi fan.
Antropogenez	Anthropogenesis	Антропогенез	**ANTROPOGENEZ***(yun.* antropos vagenesis — inson, kelib chiqish) – insonning kelib chiqish va ri-vojlanish jarayoni.
Antropologizm		Антропологизм	**ANTROPOLOGIZM***(yun.* anthropos — inson, odam; 1ogos --- ta'limot) — inson tabiat va jamiyatning eng oliy qadriyatidir, degan qarashga asoslanadigan goya.
Odam,	Human being	Человек	**ODAM-** eng oliy biologik tur. Homo zotiga mansub. Unda tabiiy ehtiyojlarni qondirish birinchi o'rinda turadi.
Inson	Human being	Человек	**INSON**— harqanday falsafiy ta'limotning asosini tashkil etuvchi fundamental falsafiy kategoriya. I. Tushunchasiga aniq ta'rif berish uchun uni olamda mavjud bo'lgan boshqa biologik mavjudot-lardan ajratib turuvchi eng muhim xususiyatlarni aniqlash zarur. Ta'kidlash zarurki, eng avvalo I. b. Mavjudotlardan o'zining xotirasi, tafakkuri, tili borligi b-n ajralib turadi. Ayniqsa, til uning

			ajdodlari va avlodlari orasidagi vorisiylik, alo-qadorlik vazifasini bajaradi.
Shaxs	Personality	Личность	**SHAXS –** o’z mohiyatiga ko’ra madaniylashgan, aql orqali o’z faoliyatini boshqarish imkoniyatiga ega bo’lgan, ijtimoiy – tarixiy an’ana, turmush tarzi va tajribani O’zlashtirgan, shu asosda jamiyatda o’z o’rnini topgan inson.
Individ	Individ	Индивид	**INDIVID** – boshqa insonlardan o’z xususiyatlariga ko’ra farqlanadigan alohida odam.
Individuallik	Individual	Индивидуальный	**INDIVIDUALIZM** (lotincha individium – bo’linmas) – inson shaxsiy hayotining alohidaligi, shaxs huquqlarining mutlaqligini ifodalovchi falsafiy ta’limot.
Suitsid		Суицид	**Suitsid**-o’z joniga qasd qilish
Evtonaziya	Euthanasia	Evtanaziya	**Evtanaziya**-og’riqsiz o’lim

Mavzu: Tarixiy jarayonda jamiyatning madaniy va ma’naviy qadriyatlari.
Jamiyat va tarix falsafasi

Atamaning O’zbek tilida nomlanishi	Atamaning Ingliz tilida nomlanishi	Atamaning Rus tilida nomlanishi	Atamaning nomlanishi
Jamiyat	Society	Общество	Jamiyat(ar.“jama’a so’zidan olingan bo’lib umumiy”)odamlar uyushmasining maxsus shakli, kishilar o’rtasida amal qiladigan

			ko’plab munosabatlar majmuasini ifodalaydigan falsafiy tushuncha.
Fuqarolikjamiyati	civil society	Гражданское общество	Fuqarolik jamiyati u yoki bu mamlakatning harbir fuqarosiga iqtisodiy va siyosiy turmushini o’zixtiyori, istaklari asosida qurishga to’la erkinlikni kafolatlavchi ma’lum ijtimoiy tizim.
Axborotlashgan jamiyat	information society	Информацинное общество	Axborotlashgan jamiyatdeganda informatsiya, ijodiyot va intelektual texnologiyaning ahamiyati ortib borgan jamiyat nazarda tutiladi.
Jamiyatningiqtisodiyhayoti	Economic life of society	Экономическая жизнь общества	Kishilarning o’z moddiy hayot sharoitlarini ishlabchiqarish bilan bog’liq bo’lgan barcha faoliyat turlari hamda shu jarayonda shakllanadigan ijtimoiy munosabatlar jamiyatning iqtisodiy hayot sohasini tashkil etadi.
Jamiyatningijtimoiyhayoti	Social life of society	Социальная жизнь общества	Jamiyatning ijtimoiy hayoti undagi mavjud kishilar, turli ijtimoiy birliklar va guruhlar orasidagi turli tuman ijtimoiy aloqa va munosabatlarni nazarda tutiladi
Jamiyatningsiyosiyhayoti	Political life of society	Политическая жизнь общества	Jamiyatning siyosiy hayoti sohasi odamlar, siyosiy kuchlar-sinflar, millatlarning o’zaro munosabatlarini, ularning davlat hokimyatini qo’lga kiritish borasidagi ongli faoliyatini qamrab oladi. Jamiyatning siyosiy hayoti uning siyosiy

			tizimda o’z ifodasini topadi.
Jamiyatning ma’naviyhayoti	Spiritual life of society	Духовная жизнь общества	Jamiyatning ma’naviy hayoti deganda kishilarning ma’naviy boyliklar yaratish faoliyatlari, uning natijalari hamda ma’naviy boylikl ar yaratish jarayoni da shakllanadigan aloqa va munosabatlar nazarda tutiladi.
Davlat	Commonweal	Государство	Davlat jamiyat siyosiy tizimining asosiy bo’g’ini hisoblanadi. Davlat – jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida vujudga kelgan jamiyatning siyosiy tashkilotidir.
Millat	Nation	Нация	Millat-tarixan tarkib topgan, urf-odatlar, qadriyatlar yagonaligi asosida muayyan hududda yashovchi, iqtisodiy aloqalar bilan bog’langan kishilarning ijtimoy birligi. Yer yuzida 3 minga yaqin yaqin millat va elat bo’lib, uinsoniyatning o’rta hisobda 96 foizini tashkil etadi.
Sivilizatsiya	Civilization	Цивилизация	**SIVILIZASIYA** (lotincha sivilis – fuqarolikka, davlatga taalluqli), tamaddun; insoniyat ijtimoiy-madaniy taraqqiyot darajasini ifodalovchi tushuncha.

Mavzu:Falsafa fanining qonun va kategoriyalari
Mavzuga doir tayanch iboralar:

Atamaning O'zbek tilida nomlanishi	Atamaning Ingliz tilida nomlanishi	Atamaning Rus tilida nomlanishi	Atamaning nomlanishi
Qonun	Law	Закон	**QONUN** — ob'ektiv olam narsa va hodisalari o'rta-sidagi aloqadorlikning shakli, biror bir narsa-ning zaruriy ravishda paydo bo'lishini ifodalov-chi kategoriyaning «zaruriy mavjuddik qoidasi», shuningdek, insonning jamiyatdagi xatti-harakat-larini belgilab beruvchi yo'l-yo'riq, qoidalar yi-gindisi (axloqiy va huquqiy Q.lar).
Qonuniyat	Lawfulness	Закономерность	Qonun qonuniyatning bir aniq konkret tomonini ifoda etadi,qonuniyat esa umumiy yo'nalish tendentsiyan anglatib turkum qonunlar majmuasini ifodalaydi
Miqdorvasifatningo'zaro o'tishqonuni		Закон взаимосвязи перехода количественных и качественных изменений	**Miqdor va sifat o'zgarishlarining o'zaro o'tish qonuni**ning mohiyati shundan iboratki, narsa va xodisalardagi sezilarli bo'lmagan miqdoriy o'zgarishlar asta-sekin to'planaborib, taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida me'yorni buzadi va sakrash yo'li bilan tubsifat o'zgarishlariga olib keladi.
Dialektik ziddiyatlik(		Закон единства и	**Dialektik ziddiyatlilik** qonuniga muvofiq, harbir

qarama – qarshiliklar birligi va kurashi qonuni);		взаимодецствия противоположностей	narsa bir-biri bilan uzviy aloqada va biri ikkinchisini istisno etuvchi zidma-zid tomonlarga kuchlarga ega. Bu tomonlar o'rtasidagi munosabatlar ziddiyati deb atalib, u taraqqiyotning manbaini ifodalab, eskining yo'qolishi va yangining paydo bo'lishini anglatadi.
Inkorni inkor qonuni		Закон отрицания отрицания	**Inkorni-inkor qonuni**ga muvoviq, ob'ektiv voqelikdagi narsa va hodisalar rivojlanish jarayonida eskining yangi tomonidan inkor qilish shaklida ro'yberadi. Biroq eskilik butunligicha inkor qilinmaydi, undagi ijobiy tomonlar saqlanib qoladi, ya'ni vorislik ro'yberadi.
Progress	Progress	Прогресс	**PROGRESS***(lot.* progreges — ilgarilanma harakat, muvaffaqiyat) – quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga tomon rivojlanish taraqqiyotni ifoda-laydi.
Regress	Regression	Регресс	**REGRESS***(lot.* regresus — orqaga qaytish) rivojlanish da orqaga ketish, eski shakllarga qay-tish, taraqqiyotning quyi darajasiga tushib qolish-ni anglatuvchi tushuncha.

Mavzu:Gnoseologiya va uning asosiy muammolari. Bilish metodlari.

Atamaning O'zbek tilida nomlanishi	**Atamaning Ingliz tilida nomlanishi**	**Atamaning Rus tilida nomlanishi**	**Atamaning nomlanishi**
Gnosealogiya	Gpistemology	Gnoselogiya	**GNOSEOLOGIYa***(yunon.* gnosis - - bilim, ilm; logos — ta'limot, nazariya) — falsafaning tarki-biy qismi, bilish nazariyasi, bilishning umumiy qonuniyatlari, usullari to'g'risida bahs yurituvchi falsafaning alohida sohasi.
Agnostisizm	**Agnosticism**	Agnostitsizm	**AGNOSTITSIZM***(yunon.* Agnostos -- a-- inkor, gnostos -- bilish, bilishni inkor etish, noma'-lum) — falsafiy ta'limot bo'lib, tabiat va jamiyat qonuniyatlari mohiyatini bilish imkoniyatlarini rad etib, bilimni voqelikka muvofiqligini is-botlash mumkin emas, deb xisoblaydigan ta'limot.
Gnostisizm	Gnosticism	Gnostitsizm	
Ratsionalizm	Rationalism	Ratsionalizm	**RATSIONALIZM** (.rationalis, ratio - - aqya) -aqlga odamlarning bilish va xulqining asosi, deb qaraydigan falsafiy yo'nalish. R. atamasi 19-a. o'rtalarida falsafaga kirib keldi.
Skeptisizm	Skepticism	Skeptitsizm	Inson blimining ishochliligiga shubha bidiruvchi va haqiqatlarni nisbiy deb e'lon qiluvch fasafiy konsibsiya
Sensualizm	Sensationalis	Sensualizm	**SENSUALIZM***(lot.* Sens us —

	m		xis, sezgi) — ob'ek-tiv reallikdagi narsa va hodisalar aloqadorligi-ni va o'ziga xos xususiyatlarini bilishda xissiy bilishning rolini mutloqlash tira di gan falsafiy ta'limot.
Intuitsiya	Intuition	Intuitsiya	**INTUITSIYa***(lot.* Intuitus – sinchiklab qaray-man) — haqiqatni mantiqiy dalillar yordamisiz, bevosita anglab olish qobiliyati.
Bilish	Cognition	Poznanie	**BILISH** - olamning inson ongida in'ikos eti-shi jarayoni.Bilish natijasi – bilim.
Xissiybilish			**Xissiy bilish** deb insonning beshta sezgi a'zolari yordamida olamni bilishi, anglashiga aytiladi.
Ilmiybilish	Scientific cognition	Nauchnoe poznanie	**Ilmiy bilish** borliqni aql va ilmiy tafakkur orqali bilish
Empirikbilish	Empiric cognition	Эмпирический	Bilishning empiric darajasi asosan tajriba bilan bog'langan bilim bo'lib, u kuzatish, taqqoslash, o'lchash, chamalash, eksperiment uslublari ma'lumotlari natijasida vujudga keladi va rivojlanadi.
Nazariybilish	Theorytical cognition	Теоритическое познание	Nazariy bilish darajasi asosi nazariy tafakkur orqali rivojlanadi. Ilmiy bilishning bu darajasida ilgari to'plangan ma'lumotlar asosida olamdagi narsa va hodisalarning alohida shakllari emas, balki keng miqdordagi birqancha hodisalar o'rtasidagi aloqadorlik va taraqqiyot qonuniyatlari aniqlanadi. Bilishning nazariy darajasida mavhumlik va

			aniqlik, aksiomatik, tarixiylik va mantiqiylik, ideallashtirish va boshqa uslublar qo'llaniladi.
Haqiqat	**Truth**	**Istina**	**HAQIQAT– ob'ektiv borliqni sub'ekt tomonida nadekvat tarzda aks ettirishi.**

Mavzu:Globallashuv va global muammolarning falsafiy jihatlari

Atamaning O'zbek tilida nomlanishi	**Atamaning Ingliz tilida nomlanishi**	**Atamaning Rus tilida nomlanishi**	**Atamaning nomlanishi**
Globalizatsiya	**Globally**	**Глобализация**	**GLOBAL (umum bashariy) muammolar*(frants.* global-eng umumiy) • o'z ko'lami, qamrovi jihatidan xilma-xil va butun yer shariga, insoniyat ga daxl-dor bo'lgan muammolardir.**
Ommaviy madaniyat	**Universal culture**	**Всеобщая культура**	**OMMAVIY MADANIYaT— madaniyat mavjudli-gining murakkab, hamma vaqt birxil talqin qilinmay digan o'ziga xos shakli. O.m.ni G'arb madaniyati b -n bog'liq hodisa deb tushunish, shuning-dek, uni g'oyasizlik, sifatsizlik va did sizlik namunasi sifatida baholash keng tarqalgan.**

Ilmiy bashorat	**Prevision**	**Научное предведение**	**ILMIY BASHORAT— tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayotda yuz berish ehtimoli mavjud bo'lgan hodisa, voqealar, jarayonlarni ro'yobga chiqishini, sodir bo'lishini, uning oqibatlarini ilmiy bilimlar asosida oldindan aytish yoki ko'rish.**
Biosfera	**Biosphery**	**Биосфера**	**BIOSFERA – Yerning tirik organizmlar tarqalgan qobig‟i**

MAVZU. ETIKA TADQIQOT DOIRASI, MAQSADI VA VAZIFALARI, AXLOQIY QARASHLAR TARIXI.

Atamaning o'zbek tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning mazmuni
Axloq	**Moral**	**Мораль**	**(arabcha, xulq so‘zining ko‘pligi; lot.moralis– qoidaga, xulq–atvorga, urf–odatga taalluqli, axloqli) kishilar orasidagi munosabatlarni muayyan tizimga solishning o‘ziga xos tartib, qoidalari yig‘indisi.**
Axloqiy ong	**Moral consciousness**	**Сознание моральное**	**axloqiy talablarni, norma(qoida)larni, adolat haqidagi tasavvurlarni shakllantiradigan qarashlar, g‘oya-lar, fikrlar, nazariyalardir.**
Xulq	**Morality**	**Нравственность**	**kishining ongi va irodasi bilan belgilanadigan axloqiy xatti-harakatlarning**

			majmui, sistemasi.
Odob	**Tact**	**Такт**	**(arab. «adab» so‘zining ko‘pligi) – jamiyatda e’tirof etilgan xulq meyori. Odob asosini axloqiy tamoyillar, meyor-lar, ideallar, tarbiyalanganlik darajasi tashkil etadi.**
Bioetika	**Bioethics**	**Биоэтика**	**hozirgi zamon etikasining muhim yo‘nalishlaridan biri. Baxt inson hayotini eng oliy etikaviy qadriyat sifatida qaraydi.**

ETIKANING ASOSIY MEZONIY TUSHUNCHALARI, AXLOQIY TAMOYILLAR VA ME’YORLAR

Atamaning o’zbek tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning mazmuni
Baxt	**Happiness**	**Счастье**	**axloqiy tushuncha bo‘lib, insonning o‘z faoliyati natijalaridan, hayotda erishgan yutuqlaridan to‘la qoniqishi, orzu-umidlarining ushalishi.**
Adolat	**Justuse**	**Законность**	**jamiyat a’zolarining xilma-xil munosabatlari-dagi o‘zaro tengligini nazarda tutadi. Axloqiy jihati inson-lararo muomalada bir xil munosabatda bo‘lishni, bir-birining izzat-nafsiga tegmaslikni axloq-odob qoidalariga amal qilishlikni bildiradi. Adolatning huquqiy tomoni qonunlarga rioya**

			etishni anglatadi.
Yaxshilik	**Good**	**Добро**	**deb kishilarning mehnat sevarlik, halollik, mardlik, insoniylik, olijanoblik, odamlarga, xalqqa, jamiyatga nafi, mehr - muhabbati, himmati, muruvvati, og'irini engil qilish, rahm – shafqati va ularga ziyon - zahmat yetkazmaslik singari ijobiy hatti - harakatlarga aytiladi.**
Yomonlik	**Badly**	**Зло**	**deb kishilarning dangasalik, tekinxo'rlik, zararkunandalik, zolimlik, mayxo'rlik, giyohvandlik, dilozorlik, hasadgo'ylik, tuhmatchilik, ig'vogarlik, g'iybatchilik, buzuqlik kabi salbiy hatti - harakatlariga aytiladi**
Burch	**duty**	**долг**	**deb shaxsning o'zi hamda, kishilar, oila, Vatan, millat, jamiyat oldidagi majburiyati, ma'suliyati, sodiqligi, ongliligini ifodalovchi hatti-harakatlarning jamiga, ichki majburiyat tuyg`usiga aytiladi.**
Vijdon	**Conscience**	**Совесть**	**deb insonning o'z xulqini muayyan jamiyat axloq qoidalari nuqtai-nazaridan turib axloqiy baholashi va nazorat qilishi, o'z hatti - harakatlarini**

			hamda bu hatti - harakatlarga bog'liq bo'lgan his - tuyg'u va kechinmalarni o'zida tahlil etishiga aytiladi.
Hayotning ma'nosi	**Purport of life**	**Смысл жизни**	**Deb ongli insonning yashashdan ko'zlagan maqsadi, uning umri, hayot faoliyatining umumiy yunalishini anglatuvchi jarayonlarga aytiladi**
Insonparvarlik	**Humanity**	**Гуманизм**	**kishilarga nisbatan mehr oqibatli, muruvvatli, himmatli, hurmatli bo'lish, kishilarga yaxshilik qilish, kishi gunoh qilganda ham uni kechirish, uni tushunishga harakat qilish, kishining sharm va mustaqilligini hurmatlash demakdir**
mehnatsevarlik	**Industrious**	**Трудольюбя**	**ya'ni insonning moddiy va ma'naviy boylik yaratishga va ko'paytirishga hamda umuminsoniy farovonlik va taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan faoliyatidir.**
vatanparvarlik	**patriotizm**	**патриотизм**	**deb insonning o'z Vataniga mehr-muhabbati, unga sadoqati, uning o'tmishi, hoziri va kelajagi bilan faxrlanishi hamda vatan manfaatlari yo'lida xizmat qilishga tayyor turishi kabi hatti - harakatlari va fazilatlariga aytiladi**

OILA, FUQAROLIK JAMIYATI VA DAVLATNING AXLOQIY ASOSLARI HAMDA SHAXS AXLOQIY TARBIYASI (2 SOAT)

Atamaning o'zbek tilida nomlanishi	**Atamaning ingliz tilida nomlanishi**	**Atamaning rus tilida nomlanishi**	**Atamaning mazmuni**
Momula odobi	Treatment	Этикет	**insonlararo muloqotda namoyon bo'ladigan axloq-odob belgisi; so'zlashuv madaniyatini tartibga soladigan, shaxs xulqi go'zalligini aks ettiruvchi axloqiy xususiyat.**
Oila	**Family**	**Семья**	**kishilarning, tabiiy–biologik(jinsiy munosabat-lar, nasl qoldirish), iqtisodiy(mulkiy munosabatlar, uy–ro'z-g'orni boshqarish), ma'naviy(er–xotin, ota–ona va bolalar o'rta-sidagi mehr–muhabbat tuyg'usi va b.) munosabatlariga asoslan-gan, ijtimoiy birligi bo'lib, inson yashashi uchun qulay sharoit yaratib beruvchi, uning turli ehtiyojlarini qondiruvchi makon-dir.**
Fukarolik jamiyati	**Civil society**	**Гражданское общество**	**U yoki bu mamlakatning har bir fuqarosiga o'z huquq va erkinliklarini to'la kafolatlovchi jamiyat.**

MAVZU. ESTETIKA PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI. ESTETIK TAFAKKUR TARIXI VA UNING ASOSIY BOSQICHLAR

Atamaning o'zbek tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning mazmuni
Estetika	Aesthetics	Эстетика	Bu nafosat olami, san`at va badiiy ijod jarayonlari qonuniyatlarini his-tuyg`u, sezgi-idrok qilish vositalari orqali o`rganadigan va o`rgatadigan fandir
Estetik faoliyat	Aesthetics activity	Деятельность эстетическая	go'zallikni anglashga va yaratishga qaratilgan, anglangan faoliyatdir. Mazkur faoliyat jarayonida, nafaqat, insonning ma'naviy ehtiyojlari qondiriladi, balki yangi estetik ehtiyojlar ham yuzaga keladi.
Estetik idrok	Aesthetics perception	Восприятие эстетическое	insonni ma'lum bir estetik prinsip, bilimlarga asoslangan estetik qarashlari, g`oyalari. Estetik fikrlar estetik did va mushohadalarning uning og'zaki formasidir.

MAVZU. ESTETIK ONG VA ESTETIK FAOLIYATNING MOHIYATI, HAMDA O'ZIGA HOS HUSUSIYATLARI (2 SOAT)

Atamaning o'zbek tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning mazmuni
Estetik Ideal	Aesthetics ideal	Идеал эстетический	kishilarning mavjud narsa-hodisalar haqida emas, balki go'zallik haqidagi eng yuksak orzulari, uylagan rejalari

Estetik ong	**Aesthetics consciousness**	**Сознание эстетическое**	**ma’naviy-ruhiy voqea-hodisalar majmui bo’lib, ular ijtimoiy hayot zaminida vujudga keladigan estetik fikr, estetik his, estetik did, estetik orzu, estetik qarash, estetik nazariya tizimini yaratadi.**

MAVZU. ASOSIY ESTETIK KATEGORIYALAR VA S A’NAT.

Atamaning o’zbek tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning mazmuni
Ulug‘vorlik	**Loftiness**	**Возвышенное**	**inson tafakkurida yuksak hayratlanish tuyg`ularini hosil qiluvchi narsa-hodisalar majmuidir. Ulug`vorlikning ko`lami go`zallik ko`lami kabi cheksiz bulib, u o`zida hajm, miqdor, ko`lam va ko`lamni mujassam etadi. Ulug’vorlik - estetik va axloqiy sifatlar kasb etib, amaliyotda ko’p qo’llaniladigan estetik tushunchadir. Ulug’vorlik ko’lami go’zallik ko’lamidek cheksizdir**
Kulgililik	**Comic**	**Комическое**	**kulgililik o’zaro bog’liqligini hayotning murakkabligi, ziddiyatligi, harakatchanligidan kelib chiqib, san’at yordamida yaxshiroq anglaymiz.**

Go‘zallik	**Beautiful**	**Прекрасное**	**Go’zallik - bu asosiy estetik qadriyat bo’lib, uni idrok etish qobiliyati esa estetik sub’ektning asosiy qismidir.**
San’at	**Art**	**Искусство**	**Voqelikni badiiy timsollar asosida aks ettirishdir.**

MAVZU. MANTIQ FANINING BAXS MAVZUSI VA VAZIFALARI. MANTIQ QONUNLARI.

Atamaning o’zbek tilida nomlanishi	**Atamaning ingliz tilida nomlanishi**	**Atamaning rus tilida nomlanishi**	**Atamaning mazmuni**
Mantiq	**Logic**	**Логика**	**Tafakkur shakllari va qonunlarini o`rganuvchi fandir**
Uchinchisi istisno qonuni	**The law of the exclude middle**	**Закон исключенного третьего**	**Uchinchisi istisno qonuniga ko’ra, bir-biriga zid bo’lgan ikki fikr (muhokamadan) birining chinligi hamisha ikkinchisining xatoligini keltirib chiqaradi, uchinchisi bo’lishi mumkin emas, ya’ni istisno qilinadi.**
Yetarli asos qonuni	**The law of sufficient basis**	**Закон достаточного основания**	**Har qanday chin fikr isbotlangan bo`lishi, to`g`riligi isbotlangan boshqa bir fikrga asoslanishi**

Ziddiyatsizlik qonuni	**The law of contradiction**	**Непротиворечия закон**	**Ziddiyatsizlik qonuniga muvofiq ayni bir narsa haqida, ayni bir vaqtning o'zida, ayni bir nisbatda aytilgan ikki qarama-qarshi fikr birdaniga chin bo'lishi mumkin emas: ulardan birining chinligi ikkinchisining xatoligini keltirib chiqaradi.**

TAFAKKURNING ASOSIY SHAKLLARI. TUSHUNCHA – MANTIQIY TAFAKKUR SHAKLI SIFATIDA (2 SOAT)

Atamaning o'zbek tilida nomlanishi	**Atamaning ingliz tilida nomlanishi**	**Atamaning rus tilida nomlanishi**	**Atamaning mazmuni**
Tushuncha	**Notion**	**Понятие**	**predmet, hodisalar, ularga xos xususiyatlar, munosabatlarning ifodasi hisoblanadi.**
Tushunchalarni chegaralash	**Notion restriction**	**Ограничение понятия**	**Fikr yuritish jarayonida hajmi keng (jins) tushunchadan torroq (tur) tushunchaga tomon borish tushunchani chegaralash deyiladi.**
Fikr shakllari	**Forms of ideas**	**Формы мысли**	**Fikr mazmunini tashkil etuvchi elementlar yigindisi.**

MAVZU. MUSHOXADA – TAFAKKUR SHAKLI SIFATIDA. (2 SOAT)

Atamaning o’zbek tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning mazmuni
Xukm	Judgment	Суждение	Predmetga xos umumiy muhim belgilarning tasdiq yoki inkor shaklda ifodalanishi.
Mantiqiy kvadrat	Logic square	Логический квадрат	Hukmlar o`rtasidagi munosabatning shakily ifodasiga mantiqiy kvadrat deyiladi.
Sub`yekt	Subject	Субъект	Hukmning mantiqiy egasi bo`lib, fikr qaratilgan buyumni bildiradi

MAVZU. XULOSA CHIQARISH VA UNING TURLARI. (2 SOAT)

Atamaning o’zbek tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning mazmuni
Xulosa	Conclusion	Умозаключение	Muhokama jarayonida olamdagi predmet va hodisalar orasidagi aloqa va munosabatlarni ifodalovchi bir yoki birdan ortiq yoki mushohada (fikr) asosida yangi bilim (fikr) ni hosil qilishning mantiqiy usuli xulosa chiqarish deb yuritiladi.
Induksiya	Induction	Индукция	Xulosa chiqarishning asosiy usul va tadqiqot metodlaridan biri.Induktiv xulosa chiqarish bilimning juz`iy

			muhokamalardan umumiy mulohazalar qoidalarga qarab harakat qilishidir.
Deduksiya	**Deduction**	**Дедукция**	**Umumiy chin asoslardan shu umumiylikka kiruvchi xuxusiylik va yakkalik haqidagi yangi bilim beruvchi xulosa shakli.**
Analogiya	**Analogy**	**Аналогия**	**Ikki buyumning bir yoki bir necha belgilarining o`xshashligi asosida boshqa belgilarning ham o`xshashligi haqida xulosa chiqarish**

IV. GLOSSARIY

Avesto – (qad. eron-pahlaviy. «o‘rnatilgan, qat'iy qilib belgilangan qonun-qoidalar») zardushtiylikning muqaddas kitobi.

Ansorlar – (arab. «yordam beruvchilar») ilk islom tarixida Makkadan hijrat qilgan Payg‘ambar va muhojirlarga yordam bergan madinalik musulmonlar.

Apostol (yunoncha — “elchi”) – xristian ta'limotiga binoan Isoning eng yaqin yordamchilarining unvoni. Ularning asosiylari 12 ta: Pyotr (Simon Ionin), Andrey, Ioann, Iakov Zevedeev, Filipp, Varfolomey, Matfey, Foma, Iakov Alfeev, Faddey, Simon Kananit, Iuda Iskariot (Isoni sotgan havoriy), Matfiy (Iudadan so‘ng uning o‘rnini egallagan). Bulardan tashqari yana 70 nafar havoriylar mavjud bo‘lgani xristian adabiyotlarida qayd etiladi.

Arafot – (arab. «tanimoq, bilmoq» fe'lidan) Makka shahrining sharq tomonidagi tepalik. Rivoyatlarga ko‘ra, jannatdan tushirilgan Odam Ato va Momo Havvo yerda ilk bor mana shu tepalikda uchrashganlar. Shuning uchun ham uni «Arafot» – «Tanishuv» deb ataganlar. Haj mavsumida barcha hojilar qurbon hayitidan oldingi kun tongdan kun qaytgunga qadar shu tepalik atrofidagi maydonda turishlari farz. Shu sababli hayitdan oldingi kun «arafa kuni» deb ataladi.

Atarxurra (Ozarxurra) – zardushtiylikning muqaddas olovi.

Axriman – zardushtiylikdagi yovuzlik ilohiyoti.

Axura-Mazda – zardushtiylikdagi eng oliy yaxshilik ilohiyoti.

Aqida – arab tilida biron narsani bir-biriga bog‘lash ma'nosini anglatadi. Istilohda esa aqoid ilmining mashhur nomlaridan biri.

Aqiqa – “Aqiqa” lug‘atda “qorin sochi” degan ma'noni anglatadi. Atama sifatida esa, tug‘ilgan chaqoloqning sochini olish va tavalludi munosabati bilan so‘yiladigan qo‘yga aytiladi.

Aqliy dalil – mutakallimlarning o‘z ra'ylari. Fikriy qarashlari asosida biron aqidaviy masalaga bergan javoblari. Aqliy dalil asosan mantiq bilan bog‘liq hisoblangan.

Bibliya (yunoncha - “kitoblar”) – yahudiylik va xristianlik dinlarining asosiy muqaddas manbai. Yahudiylar “Bibliya”si “Kitve kadesh” va “Tanax” ham deb nomlanadi. Xristianlar tomonidan tan olinadigan Bibliya “Qadimgi Ahd” va “Yangi Ahd”dan iborat bo‘lib, umumiy hisobda 66 kitobdan iborat.

Braxman – Hindistondagi oliy kasta (tabaqa) vakili. Braxmanlik va hinduizmdagi din arbobi.

Budda – (sanskr. «nurlangan, oliy haqiqatga erishgan») buddaviylik asoschisi Siddxardxa Gautamaga berilgan nom.

Vayronkor (buzg‘unchi) g‘oya — yovuzlik va jaholatga, ayrim jinoyatkor kuchlarning hukmronligini o‘rnatishga xizmat qiladigan, insonlar, millatlar va jamiyatning mustaqilligiga, erkinligiga, ijodkorligiga zid bo‘lgan g‘oyalar majmuini ifodalovchi tushuncha.

Vahiy – ilohiyot bilan insonlarning payg‘ambarlar orqali muloqot yo‘li.

Veda – (sanskr. «bashorat») Qadimiy Hindistonning shimolida yashagan xalqlarning muqaddas kitobi.

Vedalar (véda — “bilim”, “ta'limot”) – hinduiylik dinining sanskrit tilida yozilgan qadimiy muqaddas yozuvlari to‘plami..

Vijdon erkinligi – ijtimoi-falsafiy tushuncha; har kimning o‘z e'tiqodiga ko‘ra, mazkur jamiyatda mavjud ijtimoiy me'yorlarni buzmagan holda vijdoni buyurgani bo‘yicha yashash, ishlash imkoniyati. Bunda dinga munosabat masalaning bir tomoni hisoblanadi.

Vojib – Hanafiy mazhabi ta'limotiga ko‘ra, Qur'oni karimda to‘g‘ridan-to‘g‘ri buyruq kelmagan holda bajarilishi shart bo‘lgan amallarga nisbatan ishlatiladi.

Gunoh (fors – jinoyat , ayb; asli shu ma'nodagi arab. “junoh” so‘zidan olingan) - shariat qonunlariga va diniy aqidalarga xilof ish yoki harakat.

Dao – daosizm dinidagi oliy ilohiyot.

Demokratiya (yunoncha, “demos” – xalq, “kratos” – hokimiyat) – xalq hokimiyati ma'nosini anglatib, xalqni hokimiyat manbai, deb biluvchi siyosiy tizimni shakli. Demokratiya insonni har tomonlama barkamol rivojlanishi uchun berilgan imkon bo‘lib, davlat konstitutsiyasida ozchilikning ko‘pchilikka bo‘ysunishi tamoyili rasmiy e'lon qilindi, hamda fuqarolarning erkinligi teng huquqligi e'tirof etildi. Demokratiya har bir davrning ijtimoiy – iqtisodiy sharoitlariga mos shakllanib, rivojlanib boruvchi chegarasiz tabiiy – tarixiy jarayondir.

din - arab tilidan olingan bo‘lib, uning lug‘aviy ma'nosi “ishonch, e'tiqod” dir. Istilohiy ma'nosi lotin tilidagi “religion” so‘zi bilan mos keladi. Din muayyan ta'limotlar, his-tuyg‘ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlar faoliyatlari orqali

namoyon bo‘ladi. U olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida tariqasi, uni idrok etish usuli, olamda insoniyat paydo bo‘lgandan to bizgacha o‘tgan davrlaning ilohiy tasavvurda aks etishidir. Din komil insonni tarbiyalashda asosiy tarbiyalovchi qudratga ega bo‘lgan ma'naviy-axloqiy kuchdir.

diniy fundamentalizm (lotincha – asos degani) – barcha dinlarda o‘z ilohiy yozuvlarini ishonch uchun asos sifatida “so‘zsiz” qabul qilib, ushbu dinlar paydo bo‘la boshlagan dastlabki fundamental g‘oyalarga qaytish, me'yorlar va tamoyillarga asoslangan davlat barpo qilish, diniy aqidalarni har qanday yo‘llar bilan joriy qilishga urinishdir.

diniy shovinizm – faqat o‘z dini va e'tiqodinigina to‘g‘ri deb, qolgan har qanday e'tiqodni va qarashlarni inkor etuvchi mutaassib kishining mafkurasi. Diniy shovinizm tarafdorlarining fikricha, o‘z maqsadlariga yetishish uchun har qanday vositadan, shu jumladan, hatto qurol vositasidan foydalanish qonuniydir. Diniy shovinizmni kuchayishi boshqa xalqlarda va diniy e'tiqodga sig‘inuvchilarda milliy va madaniy agressivlik kayfiyatlarining tug‘ilishiga sababchi bo‘ladi. Bu esa ijtimoiy barqarorlikka rahna soluvchi omildir.

diniy ekstremizm (ekstremizm – o‘ta degani) – xavfsizligimizga tahdid soluvchi tashqi omillardan biri bo‘lib, u barcha diniy tashkilotlarda faqat o‘zi sig‘inadigan dinni to‘g‘ri deb, boshqa har qanday dunyoqarashning to‘g‘riligini inkor etuvchi (keskin choralar va harakatlar tarafdorlari bo‘lgan), o‘ta fanatik (mutaassib) dindor yoki dindorlarning faoliyati tushuniladi.

diyonat va vijdon – bir-biriga yaqin tushuncha. Diyonat va vijdon odamlardagi insof tuyg‘usiga hamohangdir. Diyonat va vijdon kishining kundalik faoliyati, qilmishi, fe'l-atvori uchun avvvalo o‘zi oldida, qolaversa oi¬la, jamoat, jamiyat va vatan oldida ma'naviy mas'uliyat his etishidir. Vijdonli, diyonatli kishi nohaq, adolatsiz ishlardan g‘azabga keladi, ularga qarshilik bildiradi; o‘z faoliyatining yaxshi tomonlaridan qanoatlanib xursand bo‘lsa, yomon tomonlaridan norozi bo‘lib, ruhan eziladi, vijdon azobiga uchraydi.

diniy marosimlar – fuqarolarning diniy ta'limotlardan, ularning qonun-qoidalari va aqidalaridan kelib chiqadigan diniy faoliyat va xatti-harakatlari. Diniy marosimlar har qaysi din vakillarining o‘z diniy ta'limotlari asosida kelib chiqqan. Islom dinida aqiq, amri ma'ruf, xatna, ro‘za va ramazon hayiti, qurbonlik va qurbon hayiti,namoz, haj va boshqa marosimlar bor. O‘zbekistonda diniy marosimlarni bemalol amalga oshirilishi ta'minlanadi, ammo ular qonunlarni, jamoat tartibini buzmasligi va shaxsga hamda fuqorolarning huquqiga dahl qilmasligi kerak.

diniy tashkilot – diniy ehtiyojlarni birgalikda qondirish yoki qondirishga ko‘maklashish maqsadida tuziladigan va din yo diniy marosimlarni ado etish asosida ish ko‘radigan ixtiyoriy, teng huquqli va o‘z-o‘zini boshqaruvchi uyushma.

Episkop – (qad. yunon. «nazorat qiluvchi») ko‘p xristian cherkovlarida – oliy ierarx. Barcha arxiereylarning (patriarx, mitropolit, arxiepiskop) umumlashgan nomi.

Esseylar – qadimiy yahudiylikdagi oqim.

Jabroil – Alloh bilan payg‘ambarlar o‘rtasida elchi vazifasini bajaruvchi farishta.

Johiliya – (arab. «yagona Allohni tanimaslik») Arabiston yarim orolining islom dinidan avvalgi davri shunday atalgan.

Zabur – Dovud payg‘ambarga tushirilgan kitob. “Qadimgi Ahd” tarkibiga kiritilgan bo‘lib, turli qo‘shiq va madhiyalardan iborat.

Zakot – (arab. «tozalanish, poklanish») islomning besh ruknidan biri. Mol-mulk nisobiga (muayyan miqdorga) yetgach, uning qirqdan biri (2,5 %) kambag‘allar foydasiga sadaqa sifatida beriladi.

Zardusht – mil. av. VI – V asrlarda yashagan ilohiyotchi, faylasuf, shoir, payg‘ambar. Zardushtiylik dinining asoschisi.

Zino – o‘zaro nikohda bo‘lmagan erkak va ayolning jinsiy aloqasi. Zino aksariyat dinlarda katta gunohlardan sanaladi.

iymon - arabcha so‘z bo‘lib, lug‘aviy ma'nosi - ishonch demakdir. Shariatda esa janob payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom Alloh tarafidan keltirgan barcha xabarlarga til bilan iqror bo‘lib, dil bilan tasdiqlashga iymon deyiladi. Ya'ni Qur'oni Karim va Hadisi Shariflar orqali Alloh, to‘g‘risida, jannat, do‘zax, qiyomat kabilar haqida berilgan xa¬barlarga ishonch - iymondir. Ma'naviy-axloqiy fazilat sifatida esa iymon faqat odam-zotgagina xos ruhiy hodisa jumlasiga kiradi.

ilohiy kitoblar - muayyan dinda muqaddas va ilohiy hisoblanadigan kitoblar. Diniy ta'limotga ko‘ra, Alloh o‘tgan payg‘ambarlarning ba'zilariga sahifalar, bazilariga esa, kitoblar nozl etgan. 100 sahifa va 4 kitob - 100 sahifadan 10 sahifani Odam (as)ga, 50 sahifani Shis (as)ga, 30 sahifani Idris (as)ga, 10 sahifani Ibrohim (as) ga yuborgan. Muso (as)ga Tavrot, Dovud (as)ga Zabur, Iso (as)ga Injil va Muxammad (as)ga Qur'onni nozil qilgan. Qur'ondan boshqa ilohiy kitob va sahifalar bir yo‘la bir daf'ada nozil qilingan, deb hisoblanadi. Qur'on hazrati Jabroil orqali 23 yil mobaynida oyat-oyat, sura-sura shaklida yuborilgan.

islom – (arabcha-bo‘ysunish, itoat etish, o‘zini Alloh irodasiga topshirish) – jahonda keng tarqalgan uch din (buddaviylik va xiristianlik bilan bir qatorda) dan biri. Islom diniga e'tiqod qiluvchilar arabcha “muslim” (“islomni qabul qilgan”, “itoatli ”, “sadoqatli”; ko‘pligi “muslimum”) deb ataladi. “Muslim”, “muslimum” so‘zining boshqa xalqlar orasida o‘zgacha talaffuz etish (masalan, forslarda – musalmon, o‘zbeklarda - musulmon, qirg‘iz va qozoqlarda – musurmon, Uqraina va Rossiyada – basurmon) natijasida bu dinga e'tiqod qiluvchilar turli nom bilan ataladi. Lekin bularning ichida hozir musulmon iborasi keng tarqalgan.Jahonda qarib 1,2 mlrd kishi Islomga e'tiqod qilishadi.

islom taraqqiyot banki (ITB) – xalqaro bank. 1974 yil musulmon davlatlari tashqi ishlar vazirlarining kengashida ITB ni tuzish haqida qaror qabul qilingan, bank o‘z faoliyatini 1975 yilda boshlagan. Qarorgohi Jiddada. ITBni Boshqaruvchilar kengashi va Direktorlar kengashi boshqaradi. Bank prezidenti 5 yil muddatga saylanadi. Maqsadi – Musulmon mamlakatlarining iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga yordam berish. Islomda pulga foyda olish taqiqlangani sababli bankka qo‘yilgan mablag‘lar uchun foiz olinmaydi va berilmaydi.

Ijtihod – islomda yangi paydo bo‘lgan diniy muammolarni hal qilishning o‘ziga xos usuli.

Ikona – xristianlikdagi avliyolar portreti tushirilgan rasmlar. Ular cherkovlarda ibodat buyumi bo‘lib xizmat qiladi.

Ilohiy Kitob – Alloh tomonidan payg‘ambarlarga nozil qilingan Zabur, Tavrot, Injil va Qur'on kabi kitoblar.

Imon – lug‘aviy ma'nosi ishonmoq, tasdiqlamoq bo‘lib, istilohda esa “Lo iloha illallohu Muhammadur rasulullo h” (“Allohdan o‘zga iloh yo‘q va Muhammad – Allohning payg‘ambari”) kalimasini til bilan aytib (al-iqror bi-l-lison), dil bilan tasdiqlash (at-tasdiq bi-l-qalb) demakdir.

Indulьgentsiya – katolik cherkovi tomonidan dindorlarga qilingan yoki qilinishi mumkin bo‘lgan gunohlarni kechirish haqida beriladigan guvohnoma. U pul yoki cherkov oldidagi xizmatlar evaziga beriladi.

Injil - (yunoncha - “Evangelie”) “Yangi Ahd"dagi Mark, Matto, Luqo va Yuhannolardan rivoyat qilingan kitoblar nazarda tutiladi. Ularda Iso Masihning hayot yo‘li va mo‘'jizalari bayon qilingan.

Isroil – (ivrit. «isro» – «banda», «iyl» – «xudo») Ya'qub payg‘ambarning ikkinchi nomi, yahudiylar unga nisbat berilib, «Isroil bolalari» deb ataladi.

Kalom – so‘z, nutq ma'nosini bildiradi. Mo‘'taziliylar paydo bo‘lgandan keyin aqida ilmining nomi “kalom” deb atala boshlangan.

Karma – (sanskr. «harakat, burch, faoliyat») hindlarning diniy ta'limotlarida alohida mistik kuch, insonni qayta dunyoga kelishiga hal etuvchi ta'sir ko‘rsatadigan amallar to‘plami.

Karomat – (arab. «ulug‘lik, buyuklik») islom ta'limotiga ko‘ra, Alloh tomonidan uning do‘stlari – avliyolarga ato etiladigan sehrdan farqli g‘ayrioddiy qudrat.

Kasta – (portugal. «irq, qavm, tabaqa») muayyan kasb bilan shug‘ullanadigan, o‘ziga xos turmush tarzi, urf-odatlari, an'analari, tartib-qoidalari va h.k. bilan o‘zgalardan ajratilgan ijtimoiy guruh.

Ka'ba – (arab. «kub») Makka shahrida hozirgi davrda Baytul Harom (Muqaddas Masjid) ichida joylashgan islom dinining qiblasi hisoblanmish bino. Islom ta'limotiga binoan, uni buyuk to‘fondan so‘ng Ibrohim payg‘ambar o‘g‘li Ismoil bilan qayta tiklagan.

Qiyomat – (arab. «tik turish») ma'nolarni anglatsa, atama sifatida o‘liklarning qayta tirilishi va o‘rnidan turishi ma'nosida ishlatiladi.

Konfutsiy – Qadimgi Xitoy faylasufi va pedagogi, konfutsiychilikning asoschisi.

Krishna – hinduizmdagi e'tiborli xudolardan biri.

Madina – (arab. – shahar, to‘liq arabcha nomi – Madinat Rasulullo h yoki Madinat an-nabiy - payg‘ambar shahri) – Saudiya Arabistonining shimoliy g‘arbiy qismidagi shahar. Hijoz viloyatida. Xalq uni Madinai munavarra – Nurafshon shahar deb e'zozlaydi. Makkadan 400 km. shimolda joylashgan. Madinaga asos solingan vaqt noma'lum. Qadimgi Yasrib (Yatrib) ilk o‘rta asrlardan boshlab

Madina deb atalgan. 622 yil Muhammad s.a.v. Makkadan Madinaga ko‘chib o‘tganlar va qolgan umrlari shu yerda kechgan.

Madrasa – (arab.- dars o‘qitiladigan joy, darsxona) islomda o‘rta va oliy maxsus diniy o‘quv yurti. Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida ulamolar va maktabdorlar, davlat idora xodimlarini tayyorlagan. Islom mamlakatlarida Madrasa haqidagi ilk ma'lumotlar X asrga oid bo‘lib, ular Xuroson va Movarounnahrda joylashgan. XI asrdan boshlab yetakchi o‘quv yurtiga aylangan, bungacha ta'lim masjidlarda va xususiy uylarda, shuningdek mehmonxonalar, kutubxonalar, kasalxonalarda olib borilgan. Madrasalar vaqf hisobiga ta'sis etilgan. Madrasalarda mudarrislar va boshqa xizmatchilar maosh, talabalar stipendiya, o‘quv jixozlari (daftar, kitob, qalam va boshqalar) va turar joy bilan ta'minlangan.

Muhaddis (arab. – hadis rivoyat qiluvchi) - hadislarni to‘plash, saralash va sharhlash bilan shug‘ullangan ilohiyotchi. Muhammad s.a.v. vafotlaridan keyin hadislarni to‘plash keng an'anaga aylana boshlashi natijasida ilohiyotchilarning bir qismi bu sohada ixtisoslashgan va ular Muhaddislar deb nom olgan. Hadis to‘plamlari islom an'anasida e'tibor qozonib, Muhaddislar (masalan, Muhammad al-Buxoriy, Muslim ibn al-Hajjoj , Ibn Moja va boshqalar.) islom tarixida mashhur bo‘lib ketgan. Islomda hadis Qur'ondan keyingi ikkinchi manbaa hisoblanadi.

Magiya – (qad. yunon. «magus», arab. «majus») sehrgarlik.

Mazhab – (arab. «yo‘l») islomdagi shariat qonunlari tizimi va yo‘nalishi.

Makruh – bajarilishi yomon sanalgan amal.

Mandub – bajarilishi tark qilinishidan afzal bo‘lgan amal.

Matriarxat – onalik davriga oid, jamiyatda ayolning roli ustun bo‘lgan davr.

Maxayana – (sanskr. «katta arava») buddaviylikdagi oqim.

Meditatsiya – (lot. «fikrlash, o‘ylash») shaxsning ruhiy faoliyatga chuqur berilish holati.

Mitra – zardushtiylikdagi quyosh xudosi.

Mif – (qad. yunon. «hikoyat, rivoyat») biror xalq orasida mashhur bo‘lgan hikoyat, rivoyat, asotir.

Modernizm – dinni hozirgi zamon voqeligiga moslashtirishni yoqlab chiquvchi oqim.

Monastirь – xristianlikda ruhoniylar jamiyatdan ajralib, faqat ibodat bilan shug‘ullanadigan joy, muassasa. Ayollar va erkaklar uchun mo‘ljallangan monastirlar mavjud.

Monoteizm – (qad. yunon. «mono» – «yagona», «teo» – «ilohiyot») yakkaxudolik.

Muboh – islom shariati qilish yoki qilmaslikni kishilar ixtiyoriga qo‘ygan amallar.

Mujtahid – ijtihod qilish darajasiga yetgan faqih olim.

Muqaddas yozuv, Xushxabar – xristianlikning muqaddas kitobi “Injil”ga nisbatan ishlatiladigan nomlar.

Muqaddas kitob - Bibliya va uning tarkibiga kiruvchi kitoblar nomi.

Muqaddas rivoyatlar – Bibliya tarkibiga kirmagan, cherkov avliyolari tomonidan qabul qilingan hujjatlar va nomalar.

Muqaddas Ruh – xristianlikda Xudoning uch ko‘rinishidan biri. Muqaddas Ruh dunyoning yaralishida ishtirok etgan, Bibi Maryam ham u orqali Isoga homilador bo‘lgan hisoblanadi.

Murid – (arab. «xohlovchi») sufizm yo‘liga kirib, murshidga qo‘l bergan shogird.

Murshid – (arab. «to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi») sufizm yo‘liga kirganlarni hidoyatga boshlovchi ustoz, shayx.

Mutaassiblik – o‘z g‘oyasini «to‘g‘ri» deb, boshqacha fikr egalarini tan olmaslik va ularni buzg‘unchilikda ayblash.

Mutakallim – kalom ilmi bilan shug‘ullangan olimlar “mutakallim” deb atalgan.

Muhaddis – (arab. «hadis so‘zlovchi») hadislar bilan shug‘ullanuvchi olim.

Muhojirlar – (arab. «muhojir, emigrant») ilk islom tarixida Payg‘ambar bilan Madinaga hijrat qilgan makkalik musulmonlar.

Mushrik – ko‘pxudolikda ayblangan odam.

Mo‘'taziliya – arab tilida “ajralib chiqmoq” ma'nosini anglatadi. Islom olamida eng katta e'tiqodiy ta'limotning nomi.

Nirvana – (sanskr. «so‘lish») buddaviylik va jaynizm diniy falsafalariga ko‘ra, ruhning sansara kishanlaridan to‘la ozod bo‘lishi va oliy maqomga erishish.

Ota Xudo - Xristianlikda Xudoning uch ko‘rinishidan biri va asosiysi. Ota Xudo dunyoni yaratgan bo‘lib, uchlikning qolgan ko‘rinishlari (O‘g‘il Xudo va Muqaddas Ruh) undan kelib chiqqan hisoblanadi.

Oxirat – (arab. «boshqa, oxirgi, ikkinchi») bu dunyo oxiriga yetganidan keyin barcha qayta tirilib, qilgan amallariga yarasha mukofot yoki jazo oladigan ikkinchi hayot.

Oyat – (arab. «belgi; mo‘'jiza») Qur'on suralarini tashkil etuvchi qism, «jumlalar».

Payg‘ambar – Allohning yerdagi elchisi bo‘lib, odamlarni Allohga ibodat qilishga chaqiruvchi va oxirat haqida xabar beruvchi kishi

Panislomizm – XIX asrning oxirlarida O‘rta Sharqda vujudga kelgan islom mamlakatlarini yagona bayroq ostida birlashtirish g‘oyasini ko‘tarib chiqqan siyosiy oqim.

Papa – katolik oqimining bosh ruhoniysi.

Pasxa (yunoncha, ivritcha – “yonidan o‘tish”) – xristianlikdagi asosiy diniy bayramlardan biri. Iso Masihning qayta tirilgan kuni sharafiga nishonlanadi. Hozirgi kunda Pasxa kuni Oy-Quyosh kalendari asosida hisoblanib, har yili o‘zgarib turadi.

Patriarx – (qad. yunon. «ota, asos soluvchi») ortodoksal cherkovdagi (pravoslavie) oliy diniy martaba bo‘lib, undagi 14 ta avtokefal – mustaqil cherkovlar boshliqlari shu nom bilan ataladilar.

Pir - murshid, ustoz.

Politeizm – (qad. yunon. «poli» – «ko‘p», «teo» – «xudo») ko‘pxudolik.

Pora (Juz) – (fors. «pora», arab. «juz’» - «qism, bo‘lim») Qur'onning o‘ttizdan bir qismi.

Risolat – payg‘ambarlik.

Roviy – (arab. «rivoyatchi») hadis rivoyat qiluvchi kishi.

Rojdestvo – Xristianlikning asosiy bayramlaridan biri. Iso Masihning odam tanasida mujassam bo‘lib tug‘ilishi kuni munosabati bilan o‘tkaziladi. Ushbu bayram haqidagi ilk ma'lumotlar IV asrga tegishli xristian manbalarida qayd qilingan.

Rohib (yunoncha-monax – “zohid”) – xristianlikda dunyoviy lazzatlardan tarkidunyochilik qilib, faqat ibodat bilan shug‘ullanuvchi shaxs.

Ro‘za - yilda bir oy – hijriy qamariy kalendarning Ramazon oyi davomida kunduz kunlari yeyish-ichish va jinsiy aloqada bo‘lishdan tiyilish.

Sahobalar – (yohud as-sahoba, sohib - “tarafdor”ning ko‘pligi - asxob) - Muhammad (s.a.v)ning safdoshlari, u zot bilan muloqotda bo‘lgan yohud g‘azotlarida qatnashgan kishilar; keyinchalik Muhammad (s.a.v.)ni loqal bir marotaba, garchi go‘daklik chog‘ida bo‘lsa ham ko‘rgan barcha kishilar Sahobalar deb atala boshlagan.

Saduqiylar – qadimiy yahudiylikdagi oqim.

Safo – Makka shahrida Ka'ba yaqinidagi tepalik. Haj va umra qiluvchilar Safo va Marva tepaliklari orasida yetti bor yugurishlari lozim.

Sahih hadis – (arab. «sog‘lom; to‘g‘ri») olimlar tarafidan ishonchli, to‘g‘ri deb topilgan hadis.

Siddxardxa Gautama – Buddaning shaxsiy ismi.

Sinagoga – yahudiylar ibodatxonasi.

Sinion – Quddus yaqinidagi tepalik.

Sunna – islomda «Payg‘ambar yo‘li».

Sura - (arab. «devor, to‘siq») Qur'onni tashkil etuvchi qismlar. Qur'on jamlanish davrida ularning umumiy soni 114 ta deb belgilangan.

Sufiy – islomdagi mistik-asketik oqim vakili.

Tabu – totemistik tasavvurlar mavjud bo‘lgan jamiyatdagi diniy taqiq. Bu tasavvurlarga ko‘ra, tabuni buzgan odam ruhlar va xudolar tomonidan unga og‘ir kasallik yoki o‘lim yuborish bilan jazolanadi. Tabu ma'lum bir buyumga tegmaslik, ma'lum so‘zni aytmaslik, ma'lum hayvonlarning go‘shtini yemaslik kabilardan iborat bo‘lishi mumkin.

Tavakkul – tasavvuf ta'limotiga ko‘ra, o‘z irodasini Allohga ishonib topshirish.

Tavof – Ka'baning atrofini aylanish.

Tavrot, Tora (ivritcha — “ta'limot, qonun”) – yahudiylik va xristianlik dinlarida tan olinadigan va Bibliya tarkibiga kiruvchi muqaddas manba. Tavrotning muallifi sifatida Muso payg‘ambar ko‘rsatiladi. Tavrot besh kitob: “Ibtido”, “Chiqish”, “Levit”, “Sonlar” va “Ikkinchi qonun”dan iborat.

Tarkidunyochilik – odamlardan, tashqi dunyodan, shuningdek, jamiyat va oiladan ajralib yashash, kimsasiz joylarga bosh olib ketish, darbadarlikda kun kechirish. Islomdan boshqa yirik dinlar(braxmanizm, buddaviylik, yaxudiylik, xristianlik)ga ham xos xususiyatdir. Uning mohiyati din yo‘lida riyozat chekish. Tarkidunyo qilganlar odamlardan uzoqda va g‘orlarda hayot kechirishgan, o‘zlarini

xilma-xil uqubatlarga duchor qilganlar, och-yalong‘och yashaganlar va hakozo. Ayniqsa, uylanish, avlod qoldirishga, kundalik hayot tashvishlari bilan yashashga nafrat bilan qarashgan.

Tasavvuf (sufizm) – ijtimoiy – falsafiy oqimlardan biri.

Ko‘pchilik olimlar sufiy so‘zi arabcha “suf” so‘zidan hosil bo‘lgan, uning lug‘aviy ma'nosi jun va jundan to‘qilgan matodir deb, sufiylar ko‘p hollarda jun chakmon va qo‘y terisidan tikilgan po‘stin kiyib yurganliklari uchun ularni jun kiyimlilar, ya'ni sufiylar deb yuritganlar.

Bu oqim VII asr oxiri VIII asr boshlarida Islom dini asosida vujudga kelgan va o‘z ta'limotini, Qur'on va hadislarga asoslanib rivojlantirgan.

Talmud – (ivrit. «lameyd» - «o‘rganish» so‘zidan) Tavrotga yozilgan sharhlar to‘plami.

Tafsir – (arab. «bayon qilish») Qur'on oyatlariga o‘ziga xos ravishda ma'no berish.

Terrorizm - (fr. «qo‘rqitish») o‘z fikrini zo‘ravonlik yo‘li bilan boshqalarga o‘tkazish. Bu yo‘lda suiqasd, qo‘poruvchilik kabi usullardan foydalaniladi.

Toshkent islom instituti. Imom al–Buxoriy nomidagi Toshkent Islom instituti - oliy diniy o‘quv yurti. 1970 yil tashkil etilgan. 1971 yil oktyabrdan faolyatini boshlagan. O‘zbekiston musulmonlar idorasi tasarrufida. Dinlar tarixi va nazariyasini chuqur egallagan, islom dini asoslarini o‘zlashtirgan, arab tilida so‘zlasha oladigan mutaxassislar, imom xatiblar tayyorlaydi.

Toshkent islom universiteti – oliy o‘quv yurti. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentinign 1999 yil 7 apreldagi Farmoniga binoan tashkil etilgan.

Asosiy vazifasi va maqsadi - islom diniga oid boy va noyob ma'naviy-madaniy merosni chuqur o‘rganish, uni asrab-avaylash, kelajak avlodga yetkazish, shu sohada yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash.

Totem – (Shimoliy Amerikadagi Ojibva qabilasining tilida - «uning urug‘i») totemizmda muqaddas sanaladigan o‘simlik va hayvon.

Traditsionalizm – an'anachilik. Dindagi ratsionalizmga qarshi o‘laroq, naql (taqlid) tamoyiliga asoslanuvchi oqim.

Tripitaka – (sanskr. «uch savat») buddaviylikning muqaddas kitobi.

Fanatizm – mutaassiblik.

Farz – islom dini ta'limotiga ko‘ra, inkor qilib bo‘lmaydigan darajada qat'iy dalil bilan bajarilishi talab qilingan amalga aytiladi.

Farziylar – qadimiy yahudiylikdagi oqim.

Farishta – nurdan yaratilgan, nafs va xohishga ega bo‘lmagan, faqatgina unga xudo tomonidan buyurilgan muayyan vazifalarni og‘ishmay bajaradigan, insonlar ko‘ziga ko‘rinmaydigan maxluq.

Fatvo – faqihning dinda paydo bo‘lgan yangi muammolarni Qur'onga zid kelmaydigan ravishda hal qilib chiqargan hukmi.

Fath – (arab. «ochish») biror shahar yoki mamlakatga harbiy yo‘l bilan dinni olib kirish.

Fetish – (fr. «but, sanam, tumor») tabiatdagi jonsiz predmetlarga sig‘inish.

Fiqh – (arab. «tushunish») shariat qonun-qoidalarini o‘rganuvchi fan.

Fir'avn – ilohiyot darajasiga ko‘tarilgan Qadimgi Misr podshohlari tituli.

Fundamentalizm – ma'lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yo‘l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin degan fikrni ilgari surish ta'limoti.

Xabar – Muhammad alayhis-salomning so‘zlari va hatti-harakatlari haqida rivoyat (sinonimi hadis, osor).

Xaloskor – yahudiy va xristian atamasida Messiya (ivritcha - Mashiax; qadimgi yunoncha - Xristos). Yahudiylar aqidasiga ko‘ra Xaloskor qiyomatga yaqin kelib yahudiylarni najot sari yetaklaydi. Yahudiy “messiyasi” Dovud avlodidan bo‘lishi shart. Xristian aqidasiga ko‘ra esa xaloskor bu Iso Masihdir.

Xinayana – (sanskr. «kichik arava») buddaviylikdagi oqim.

Xoch – krest, chormix.

Shaman – ruhlar olami bilan muloqot qiluvchi ruhoniy.

Shom – Suriyaning qadimiy nomi.

Ekstremizm – o‘z maqsadi yo‘lida turli haddan ortiq keskin tadbir-choralar ko‘rishga tarafdorlik.

E'tiqod – insonnig o‘z fikr va qarashlarida dunyo hodisalarining muayyan turiga (masalan: ilmiy, siyosiy, ahloqiy, diniy) mahkam, sobitqadamlik bilan ishonishi va unga qat'iy amal qilishni anglatuvchi falsafiy tushuncha.

Yangi Ahd – Bibliya qismlaridan biri. To‘rt Injil, Havoriylar faoliyati kitobi, 21 ta havoriyning nomalari va Yuhannoning “Vahiynomasi” ni o‘z ichiga olgan, 27 kitobdan iborat.

Yasna – Avestodan bizgacha yetib kelgan to‘rt kitobning ikkinchisi.

Yasrib – Madina shahrining hijratdan avvalgi nomi.

Yahve – yahudiylik ta'limotiga ko‘ra, dunyolarni yaratuvchi yagona qudratli Xudo.

Yahudo – Ya'qub payg‘ambarning farzandlaridan biri. Uning avlodlari «yahudiylar» deb ataladi.

Yasht – Avestoning 1-qismi.

O‘zbekistonda diniy konfessiyalar – rus pravoslav, Rim-katolik, arman – Grigoryan, Lyuteran cherkovlar (xristian konfessiyasi), shuningdek, yaxudiylik, islom konfessiyalari, jami 15 ta diniy konfessiyalar mavjud.

Qadriyatlar – borliq va jamiyat, narsalar, voqealar, hodisalar, inson hayoti, moddiy va ma'naviy boyliklarining axamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladigan tushuncha. Qadriyatlar tarixiy va zamonaviy bo‘lishi mumkin. Qadriyatlarning xilma-xil shakllari bor: moddiy va ma'naviy, umumbashariy, mintaqaviy, umuminsoniy; jamiyat hayotining sohalari bo‘yicha iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy qadriyatlar.

Qadimgi Ahd – Bibliyaning qismlaridan biri. Tavrot (Musoning 5 kitobi), Zabur va boshqa kitoblardan iborat, jami 39 kitobni o‘z ichiga oladi.

Qora tosh (arab. al-Hajar al-asvad) – musulmonlar ziyorat qiladigan tosh. Kumush chambar bilan birlashtirilgan bir necha bo‘lakdan iborat. U Ka'ba devorlaridan biriga tashqaridan joylashtirilgan. Makkaga hajga borgan

musulmonlar Qora toshni o‘pib yoki qo‘l tekkizib ziyorat qiladi. Qora tosh islomda mo‘'tabar hisoblangan narsalardan biri. Shariatga ko‘ra, umra yoki haj ziyoratiga borgan odam Qora toshni o‘pishi yoki qo‘lining ichki tarafi bilan unga ishorat qilib, so‘ng qo‘lini o‘pishi (istilom) sunnat amallaridan hisoblanadi.

Qudsiy hadis – Ma'nosi Alloh taolodan bo‘lib, aytilishi, ya'ni lafzi Rasulullohdan bo‘lgan hadislar.

Qur'on – (arab. – o‘qimoq, qiroat qilmoq; jamlash) – Alloh tarafidan 23 yilga yaqin muddat mobaynida Muhammad a.s. ga oyatma-oyat, sura-sura tarzida nozil qilingan ilohiy kitobdir. Bu kitob islom dinining muqaddas manbai hisoblanadi. Islom ilohiyot maktablaridan biri ahl as-sunna va-l-jamoa ta'limotiga ko‘ra, qur'on Alloh taoloning so‘zi va uning azaliy ilmi bo‘lib, Muhammad a.s. ga vahy orqali nozil bo‘lgan. Qur'on o‘zidan oldin nozil bo‘lgan barcha ilohiy kitoblarning ma'no, hikmat va ahkomlarini o‘zida jamlaganiga ishorat bordir. Qur'on 114 ta suradan iborat. Sura Qur'ondan bir bo‘lak bo‘lib, eng kami uchta yoki undan ortiq oyatlarni o‘z ichiga oladi. Oyatlar soni esa Qur'on matnlarini taqsimlashning turli yo‘llariga ko‘ra, 6204 ta, 6232 ta, hatto 6666 tagacha belgilangan.

Hadis (arab. – “xabar”, “yangilik”), hadislar – Muhammad s.a.v. ning aytgan so‘zlari, qilgan ko‘rsatmalari to‘g‘risidagi rivoyatlar. Ikki qismdan iborat bo‘ladi: matn va isnod. Hadis ikki turga bo‘linadi: 1. Hadisi qudsiy; 2. Hadisi Nabaviy. Hadislar e'tiborga olinishi jihatidan yana uch qismga bo‘linadi: 1. Sahih. 2. Hasan. 3. Zaif.

Hazrati imom majmuasi, Hastimom – Toshkentdagi me'moriy yodgorlik. Majmua qurilishiga imom Abu Bakr Muhammad ibn Ali ibn Ismoil al-Qaffol ash-Shoshiy (904-976) ning qabri asos bo‘lgan. Qabr va uning atrofida vujudga kelgan qabriston hamda me'moriy yodgorliklar majmuasi (Kaykovus bog‘i bilan birga) Hazrati imom nomi bilan ataladi. XVI asrning 30 –yillarida 2 ta maqbara qurilgan; kattasi Toshkentning shayboniylar sulolasidan bo‘lgan xoni Suyunchxo‘jaxon maqbarasi deb taxmin etiladi. XVI asrning 50- yillarida bu binolar Baroqxon madrasasi me'moriy yodgorligt tarkibiga qo‘shilgan. O‘sha davrda Qaffol Shoshiy maqbarasi bunyod etilgan.

Haj – qodir bo‘lgan kishi uchun umrida bir marta Makka shahridagi Ka'bani ziyorat qilish va ushbu ibodat o‘z ichiga oladigan arkonlarni ado etishdan iborat.

Hajarul asvad – (arab. «qora tosh») Ka'baning janubiy-sharqiy burchagida yerdan 1, 5 m. balandlikda o‘rnatilgan muqaddas tosh.

Haniflik – islomdan avval Arabiston yarim orolida mavjud bo‘lgan yakkaxudolik g‘oyasi.

Harom – islom ta'limotiga ko‘ra, inkor qilib bo‘lmaydigan darajada qat'iy dalillar bilan bajarilishi ta'qiqlangan amal.

Hasan hadis – sahih hadis shartlariga ega bo‘lgan, lekin zabti pastroq bo‘lgan adolatli roviyning o‘zi kabilardan qilgan rivoyati.

Hijriy yil hisobi – xalifa Umar ibn Xattob tomonidan joriy qilingan musulmonlar yil hisobi. Muhammad s.a.v. va safdoshlarining Makkadan Madinaga ko‘chishi bilan bog‘liq. Qamariy (hijriy-qamariy yil) va shamsiy (hijriy-shamsiy

yil)ga bo‘linadi. Qamariya bo‘yicha Hijriy yil hisobi 622-yilning 16-iyulidan boshlanib, sinodik oy (29,530588 kun)ga asoslangan. O‘n ikki oydan iborat bir qamariy yil 354, 3671 kundan iborat bo‘ladi. Qamariy yilda 1, 3, 5, 7, 9 va 11 oylar 30 kundan, qolganlari 29 kundan butun qilib olingan. Oylar tartibi bilan muharram, safar, rabbiul avval, rabbiul oxir, jumodil oxir, rajab, shabon, ramazon, shavvol, zulqada, zulhijja deb ataladi. Qamariy yil tropik yildan (hozirgi grigoriy taqvimidan) 10-12 kun qisqa.

Hoshimiylar – Makkada yashagan Quraysh qabilasidan bo‘lgan Hoshim ibn Abdumanofning avlodlari.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM. FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“IJTIMOIY FANLAR” FAKULTETI
“IJTIMOIY FANLAR ” KAFEDRASI

Ro‘yxatga olindi
GF----------2023y

“TASDIQLAYMAN”
O‘quv ishlari bo‘yicha
prorektor _____
T.D. Xudoyqulov
2023 yil _____ «___»

FALSAFA FANIDAN NAMUNAVIY O‘QUV DASTURI

SHAHRISABZ. 2023

Falsafa fanidan
SYLLABUS (ishchi dastur)

Bilim sohasi: 100 000 – Ta’lim .
Ta’lim sohasi: 110 000 – Ta’lim .
Mutaxassisligi:
Barcha bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari.

№	Mashg’ulot turi	Ajratilgan soat	Semestr	Semestr
			I	II
1	Nazariy (ma’ruza)	30	30	30
2	Seminar	30	30	30
3	Mustaqil ta’lim	60	60	60
	Jami auditoriya soatlari	60	60	60
	Umumiy o‘quv soatlari	120	120	120

Shahrisabz– 2023

Fanning ishchi o‘quv dasturi Shahrisabz davlat pedagogika instituti kengashi qaroriga muvofiq 2023 - yil “___” _____ dagi ___– sonli bayoni bilan tasdiqlangan “Falsafa” o‘quv dasturi asosida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:
Mamatov M. – Shahrisabz davlat pedagogika instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi.

.

Taqrizchilar:
B.N.Omonov - Shahrisabz davlat pedagogika instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi mudiri, dotsent, falsafa fanlari doktori (DSc).
Z.B.Allayarova - Shahrisabz davlat pedagogika instituti “Xorijiy tillar” kafedrasi mudiri, dotsent v/b, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Fannning o‘quv uslubiy majmuasi Shahrisabz davlat pedagogika instituti “Ijtimoiy fanlar” fakulteti kengashining 2023_ yil “___” dagi “___” sonli bayoni bilan tasdiqlangan

Fakultet dekani: **dotsent v/b. E.R. Tilaev**

Fannning o‘quv uslubiy majmuasi Shahrisabz davlat pedagogika instituti “Ijtimoiy fanlar” fakulteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi kengashining 2023_ yil “__” dagi “___” sonli bayoni bilan tasdiqlangan va tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: **B.N.Omonov**

Fanni o‘rganishning zaruriyati.

Bakalavriyat yo‘nalishida tahsil oluvchi talabalar falsafa, korrupsiya, dinshunoslikning metodologik tamoyillari; falsafiy bilim bazasida shakllangan umuminsoniy tafakkur taraqqiyotining tizimli qonuniyatlari ko‘nikmasini shakllantirish, refleksiv fikrlay olish, murakkab vaziyatlarda konstruktiv mantiqiy xulosa chiqara olish qobiliyatini hosil qilish, kasbiy yo‘nalganlikda falsafaning umummetodologik ko‘nikmalaridan foydalana olish xususiyatini tarbiyalay oladigan

blimlarga ega bo‘lishi zarur.

Fanning maqsadi – talabalarni zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan falsafiy bilimlar bilan qurollantirish, talabalarga milliy va diniy qadriyatlarning tarixan mushtarakligi, ularning umuminsoniy qadriyatlar ila uyg‘unligini tushuntirish, ularda diniy bag‘rikenglik madaniyatini, dinga nisbatan to‘g‘ri yondashuvini shakllantirish va jamiyat uchun yuksak ma’naviyatli kadrlarni tarbiyalash hamda o‘z-o‘zini anglash va to‘g‘ri fikrlash ko‘nikma va malakasini shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifalari - falsafiy bilimlar, qonunlar va kategoriyalarni o‘rganish orqali tizimli, kreativ fikrlash, hayotda o‘z o‘rnini topish;

- jamiyat hayotidagi ijtimoiy jarayonlarga falsafiy tafakkur nuqtai nazaridan yondashish, voqealarga shaxsiy, ijodiy tanqidiy baho berish;
- o‘z-o‘zini ma’naviy axloqiy, diniy tarbiyalash;
- jamiyatni demokratlashtirish va modernizatsiyalash jarayonida faol ishtirok etish hissini tarbiyalash.

“Falsafa” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- Falsafiy tafakkur xususiyati va qonuniyatlari, ularning jamiyat taraqqiyotiga ta’siri, mantiqiy tafakkur madaniyatining inson hayot va fikrlash tarzining takomillashtirishdagi roli va ahamiyati, Sharq va G‘arb falsafasining etakchi g‘oyalari, ilmiy va ma’naviy merosi, dunyoning yagonaligi qonuniyati va unda koinot hamda inson borlig‘ining aloqadorligi, kasbiy faoliyatda falsafaning metodologik ahamiyati, global jarayonlarda analitik va sintetik, mantiqiy tafakkurning roli, dinlarning dunyo xalqlari madaniyati, urf-odatlariga ta’siri, davlat va din munosabati, Markaziy Osiyoda tarqalgan dinlar tarixi, ta’limoti, muqaddas manbalari, yo‘nalishlari, jahonda mavjud bo‘lgan dinlarning mushtarak xususiyatlari, dinlardagi oqimlar va mazhablar, dunyoning konfessional manzarasi, din va qonun o‘zaro munosabatlari haqida;

tasavvurga ega bo‘lishi;

– fanning predmeti, nazariy-metodologik asoslari, rivojlanish bosqichlari va uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni, Qadimgi va O‘rta asrlar Sharq va G‘arb falsafasi, Yangi va Eng davr falsafasining xususiyatlari, ta’limot va g‘oyalari;

– tabiat va jamiyatda yuz berayotgan jarayonlar falsafiy qonuniyatlari, tafakkur va borliq, substansiya va materiya muammosi, makon va vaqt, tabiat falsafasi va ekologiyasi, energiya, inson borlig‘i;

– falsafa metod, qonun va kategoriyalari, rivojlanish va taraqqiyot falsafasi, haqiqatni anglashda nazariya va amaliyot birligi, bilish metodologiyasi;

- o‘zbek milliy falsafasini va bu boradagi buyuk ajdodlarimizning merosi, insonning atrof muhitga bo‘lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy me’yorlar, globallashuv jarayonlari;

– falsafani o‘rganish orqali jamiyat hayotidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mohiyatini tushunish, ularga falsafiy, tizimli tafakkur nuqtai-nazaridan baho berish;

- jamiyat taraqqiyotiga oid axborotlarni to‘plash, saqlash va ulardan foydalanish, mantiqiy tahlil etish, o‘zining kasbiy faoliyatiga oid ma’lumotlarni analitik va sintetik fikrlash asosida qabul qilish, mushohadaviy tafakkurga asoslangan mustaqil qarorlar qabul qilish;

- dinning ijtimoiy-madaniy va ma’naviy-axloqiy hayotdagi o‘rnini; dunyo dinlari va asosiy diniy konfessiyalarning diniy-ilohiy tizimi asoslari va maqsadini; Markaziy Osiyoda mavjud bo‘lgan dinlarning ta’limotlari va ularning xalqimiz urf-odatlarida aks etishini; dinning inson va jamiyat hayotida tutgan o‘rnini bilishi va foydalana olishi;

- din bilan bog‘liq jarayonlarni mahalliy urf-odat, an’analardan kelib chiqqan holda tadqiq qila olish; turli dinga ishonuvchilar va ishonmaydiganlar bilan umumiy til topishish, ular bilan muloqot qila olish; din nomi bilan sun’iy bog‘langan ma’naviy tahdidlar, axborot xurujlariga qarshi kurashish;

– yangi bilimlarni mustaqil o‘zlashtira olish, takomillashtirish va o‘z mehnatini ilmiylik va bunyodkorlik asosida tizimli tashkil qilish;

fikr va qarashlarini og‘zaki va yozma ravishda adabiy til qoidalari asosida konstruktiv, mantiqiy ifoda etish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.***

Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba.

1.Falsafiy tafakkur xususiyati va qonuniyatlari, ularning jamiyat taraqqiyotiga ta’siri, mantiqiy, etik, estetik madaniyati, dunyo xalqlari dinlari, dunyoning diniy-konfessional manzarasi, inson hayot tarzi va ma’naviyatini takomillashtirishdagi roli va ahamiyati haqida tasavvur va bilishga ega bo‘lishi;

2. Sharq va G‘arb falsafasining yetuk g‘oyalari, ilmiy va ma’naviy merosi, dunyoning yagonaligi qonuniyati va unda koinot va inson borlig‘ining aloqadorligi xususiyatlarini bilish va ulardan foydalanish, din bilan bog‘liq jarayonlarni mahalliy urf-odat, an’analardan kelib chiqqan holda tadqiq qila olish, din nomi bilan sun’iy bog‘langan ma’naviy tahdidlar, axborat xurujlariga qarshi kurashish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

3.Kasbiy faoliyatda fanning metodologik ahamiyati, global jarayonlarda analitik va sintetik, mantiqiy, axloqiy, estetik va diniy tafakkur qilish.Ijtimoiy jarayonlarni falsafiy tahlil qilish usullarini qo‘llash, ijtimoiy global muammolari bo‘yicha yechimlar qabul qilish malakasiga ega bo‘lishi kerak.

Ta’lim texnologiyalari va metodlari:

1.Ma’ruzalar;

2.Seminarlar (mantiqiy fikirlash, tezkor savol-javoblar);
3.Guhlarda ishlash;
4. Taqdimotlarni qilish;
5.Individual loyihalar;
6.Jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish**.**

Fan/modul kodi FALM 1004	O‘quv yili 2020-2021	Semestr 1-2	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
Fanning nomi		Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Falsafa		**60**	**60**	**120**

FANNING TAQVIM-MAVZU REJASI.
MA’RUZA MASHG‘ULOTLARI.

Ma’ruza mashg’ulotlari professor-o’qituvchi tomonidan yangi pedagogic texnologiylar va axborot texnologiyalardan foydlangan holda talabalarga mazkur fanning mazmuni yoritib berishda asoslanadi. Ma’ruzalar davomida 1 marta oraliq nazorat o’tkazilib, **bir oraliq nazoratida talaba 20 ball egallashi mumkin.**

Hafta	Soat	Mashg’ulot mazmuni
1	2	**1-MODUL.** **Mashg’ulot turi: ma’ruza** **Mavzu: Falsafa fanining asosiy maqsadi va bo‘lg’usi iogopediarda o‘qitilishining nazariy-amaliy ahamiyati.** **Mavzu rejasi:** 1. Falsafiy fikr paydo bo‘lishining zaminlari. 2. Dunyoqarash. Falsafiy dunyoqarash. 3. Falsafa fan sifatida. Falsafaning baxs mavzui. Falsafiy muammolar. 4. Falsafaning jamiyatda tutgan o‘rni va vazifalari. **Adabiyotlar:** 1. Yusupov E., Mamashokirov S. Falsafa. Darslik. - Toshkent: 2005.6- bet. 2. Shermuxamedova N.A. Falsafa. - Toshkent: “Noshir”, 2012.8

		– bet. 3. Shermuxamedova N.A. Gnosiologiya. (Uchebnik). - Toshkent: 2009.13-bet. 4. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish. (O‘quv qo‘llanma). - Toshkent: 2017.11-bet. 5. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi. (O‘quv qo‘llanma). - Toshkent: 2017.6-bet. 6. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi. (Darslik). - Toshkent: 2016.22-bet. 7. Иззетова Э., Пулатова Д. Философия (Учебное пособие). - Тошкент: 2017.19-bet 8. M.Sharipov, Fayzixodjayeva D. Mantiq. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: 2004.18-bet
2	2	**Mashg’ulot turi: ma’ruza** **Mavzu: Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari:** **Mavzu rejasi:** 4. Falsafiy fikrni vujudga kelishi, uning madaniy tarixiy zaminlari. 5. Qadimgi Sharq mintaqamizdagi va antik dunyodagi ilk falsafiy fikrlar. 6. O‘rta Osiyoda falsafiy fikrlarning rivojlanishi. **Adabiyotlar:** 1. Axmedova M. Falsafa. – Toshkent: UFMJ, 2006. 2. Yusupov E., Mamashokirov S. Falsafa Darslik, - Toshkent: 2005. 3. Shermuxamedova N.A. Falsafa. Toshkent: “Noshir”, 2012. 4. Shermuxamedova N.A. Gnosiologiya. (Uchebnik). - Toshkent: 2009. 5. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish. (O‘quv qo‘llanma). - Toshkent: 2017. 6. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi. (O‘quv qo‘llanma). - Toshkent: 2017. 7. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi. (Darslik). - Toshkent: 2016. 8. Иззетова Э., Пулатова Д. Философия (Учебное пособие). - Тошкент: 2017. 9. M.Sharipov, Fayzixodjayeva D. Mantiq. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: 2004.
3	2	**Mashg’ulot turi: ma’ruza** **Mavzu: Ontologiya, ong va Gnosiologiya. Ong va tilni bo`lg`usu pedagogiarda tutgan o`rni.** **Mavzu rejasi:** 1. Borliq kategoriysi.Borliq turlari. 2. Materiy kategoriysi.Dunyoning moddiy birligi. 3. Materiyning mavjudlik shakllari. Harakat va rivojlanish.

		4. Fazo va vaqt materiyning yashash shakli. 5. Ong va tilni bo`lg`usi pedagogiarda tutgan o`rni.  **Adabiyotlar:** 1. G`arb falsafasi tarixi. D. Po`latova, G. Ro`ziyeva.Toshkent. 2018. 2. Axmedova M. Falsafa. – Toshkent: UFMJ, 2006. 3. Yusupov E., Mamashokirov S. Falsafa Darslik, -Toshkent: 2005. 4. Shermuxamedova N.A. Falsafa. Toshkent: “Noshir”, 2012. 5. Shermuxamedova N.A. Gnosiologiya. (Uchebnik). - Toshkent: 2009 y 6. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish. (O‘quv qo‘llanma). - Toshkent: 2017. 7. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi. (O‘quv qo‘llanma). - Toshkent: 2017 y 8. Shermuxamedova N.A. Insonfalsafasi. (Darslik). - Toshkent: 2016. 9. Иззетова Э., Пулатова Д. Философия (Учебное пособие). Тошкент: 2017. 10. M.Sharipov, Fayzixodjayeva D. Mantiq. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: 2004.
4	2	**Mashg’ulot turi: ma’ruza** **Mavzu: Falsafaning metod, qonun va kategoriyalari.** **Mavzu rejasi:** 1. Falsafa qonun tushunchasi va uning mohiyati. Qonun va qonuniyat. 2. Miqdor o‘zgarish qonunlaridan sifat o‘zgarish qonunlariga o‘zaro utish qonuni. 3. Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni. Inkorni inkor qonuni. Falsafiy kategoriyalar va ularning boshqa fan kategoriyalaridan farqi. 4. Olamdagi umumiy alokadorlikni ifodalovchi kategoriyalar. 5. Narsa va xodisalar to‘zilishini aks ettiruvchi kategoriyalar. 6. Narsa va xodisalar o‘rtasidagi sababli boglanish (determinizm)ni anglashga imkon yaratuvchi kategoriyalar. **Adabiyotlar:** 9. Axmedova M. Falsafa. – Toshkent: UFMJ, 2006. 10. Yusupov E., Mamashokirov S. Falsafa Darslik. - Toshkent: 2005. 11. Shermuxamedova N.A. Falsafa. Toshkent: “Noshir”, 2012. 12. Shermuxamedova N.A. Gnosiologiya. (Uchebnik). - Toshkent: 2009. 13. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish. (O‘quv qo‘llanma) Toshkent: 2017. 14. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi. (O‘quv

		qo‘llanma). - Toshkent: 2017. 15. Shermuxamedova N.A. Insonfalsafasi. (Darslik). - Toshkent: 2016. 16. Иззетова Э., Пулатова Д. Философия (Учебное пособие). Тошкент: 2017. 17. M.Sharipov, Fayzixodjayeva D. Mantiq. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: 2004.
5	2	**2-MODUL.** **Mashg’ulot turi: ma’ruza** **Mavzu: Jamiyat falsafasi. Hozirgi zamon jamiyatining global muammolari va jamiyatni rivojlantirish istiqbollari.** **Mavzu rejasi:** 1. Jamiyat tushunchasi. Jamiyat haqidagi falsafiy qarashlar. 2. Jamiyatni falsafiy anglash. Jamiyatning moxiyati va o‘ziga hos jihatlari. 3. Jamiyatning shakllarini va taraqqiyoti tabiiy-tarixiy jarayon sifatida. 4. Davlatning jamiyat hayotidagi o‘rni. O‘zbekistonda barpo etilayotgan erkin fuqarolik jamiyati va uning xususiyatlari. **Adabiyotlar:** 1. Axmedova M. Falsafa. – Toshkent: UFMJ, 2006. 2. Yusupov E., Mamashokirov S. Falsafa Darslik, -Toshkent: 2005. 3. Shermuxamedova N.A. Falsafa. Toshkent: “Noshir”, 2012. 4. Shermuxamedova N.A. Gnosiologiya. (Uchebnik). - Toshkent: 2009. 5. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish. (O‘quv qo‘llanma) - Toshkent: 2017. 6. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi. (O‘quv qo‘llanma). - Toshkent: 2017. 7. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi. (Darslik). - Toshkent: 2016. 8. Иззетова Э., Пулатова Д. Философия (Учебное пособие). - Тошкент: 2017. 9. M.Sharipov, Fayzixodjayeva D. Mantiq. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: 2004.
6	2	**Mashg’ulot turi: ma’ruza** **Mavzu: Pedagogik amaliyotda mantiqiy fikrlashning ahamiyati.** **Mavzu rejasi:** 1. Mantiq ilmining predmeti, asosiy qonunlari. 2. Tushunchaning mazmuni va hajmi, ularning turlari 3. Mulohaza. Xulosa chiqarish. **Adabiyotlar:** 8. S .Valiyeva, A. Bobotoyev. Mantiq . Oquv qollanma .TOSHKENT-2006 9. Yusupov E., Mamashokirov S. Falsafa Darslik, -Toshkent:

		2005. 10. Sharipov M. FAYZIXODJAYEVA D. MANTIQ. Toshkent: 2004 y 11. Xayrullayev. M. Mantiq .T-1993 . 12. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi. (O‘quv qo‘llanma). - Toshkent: 2017. 13. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi. (Darslik). - Toshkent: 2016. 14. Иззетова Э., Пулатова Д. Философия (Учебное пособие). Тошкент: 2017. 15. M.Sharipov, Fayzixodjaeva D. Mantiq. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: 2004.
7	2	**Mashg’ulot turi: ma’ruza** **Mavzu: Etika fanining predmeti, asosiy muammolari va kasbiy axloq. Bo`lg`usi pedagok etiketi.** **Mavzu rejasi:** 1. Etikaning predmeti, tadqiqot doirasi va falsafiy moxiyati. Dastlabki ahloqiy qonun qoidalar, tamoyillar. Ahloqiy qarashlar tarixi 2. Etikaning boshqa ijtimoiy fanlar bilan birligi va tafovutlari. 3. Etikaning ahamiyati hamda vazifalari. 4. Ixtiyor erkinligi va ahloqiy tanlov. 5. Ahloq tu`zilmasi. **Adabiyotlar:** 9. Abdulla Sher. Axloqshunoslik . -Toshkent. 2012. 10. Yusupov E., Mamashokirov S. Falsafa Darslik, -Toshkent: 2005. 11. Xusanov. M, Muomala madaniyati. Toshkent: Iqtisod 2009. 12. Nurmatova. M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg`unligi.Toshkent.2008.UZMU. 13. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish. (O‘quv qo‘llanma). - Toshkent: 2017. 14. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi. (O‘quv qo‘llanma). - Toshkent: 2017. 15. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi. (Darslik). - Toshkent: 2016. 16. Иззетова Э., Пулатова Д. Философия (Учебное пособие). - Тошкент: 2017. 17. M.Sharipov, Fayzixodjaeva D. Mantiq. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: 2004.
8	2	**3-MODUL.** **Mashg’ulot turi: ma’ruza** **Mavzu: Pedagog faoliyatida estetika** **Mavzu rejasi:** 1. Estetika fanining predmeti, vujudga kelishi va asosiy

		tushunchalari. 2. Estetika fanining ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o‘rni. 3. Estetik tafakkur tarixi va uning asosiy bosqichlari. **Adabiyotlar:** 1. Erkin Umarov.Estetika (Nafosatshunoslik). – Toshkent: O`zbekiston. 1995. 2. Yusupov E., Mamashokirov S. Falsafa. Darslik. - Toshkent: 2005. 3. A. Sher,B. Xusanov, E. Umarov, Estetika. - Toshkent: “UZMU”, 2008. 4. Shermuxamedova N.A. Gnosiologiya. (Uchebnik). - Toshkent: 2009. 5. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish. (O‘quv qo‘llanma).- Toshkent: 2017. 6. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi. (O‘quv qo‘llanma). - Toshkent: 2017. 7. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi. (Darslik). - Toshkent: 2016. 8. Иззетова Э., Пулатова Д. Философия (Учебное пособие). - Тошкент: 2017. 9. M.Sharipov Fayzixodjayeva D. Mantiq. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: 2004.
9	2	**4-MODUL.** **Mashg’ulot turi: ma’ruza** **Mavzu: Korrupsiya va uning asosiy ko‘rinishlari.** **Mashg’ulot rejasi:** 1. Korrupsiya tushunchasi. 2. Korrupsiyaning tarixiy ildizlari. 3. Korrupsiyaning jamiyat uchun havfi. **Adabiyotlar:** 7. O`zbekiston respublikasi ma`muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksi. Toshkent: Adoloat, 2014. 8. Sh. M. Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta`minlash-yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi - Toshkent: 2014. 9. 2019 yil 27 maydagi O`zbekiston respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takkomillashtirish to`g`risidagi.PF.5729 son farmoni. 10. O`zbekiston respublikasining jinoyat kodeksi. - Toshkent: Adolat.2014. 11. Shermuxamedova N.A. Insonfalsafasi. (Darslik). - Toshkent: 2016.

		12.Иззетова Э., Пулатова Д. Философия (Учебное пособие). - Тошкент: 2017. 13.M.Sharipov, Fayzixodjyaeva D. Mantiq. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: 2004.
10	2	**Mashg’ulot turi: ma’ruza** **Mavzu: Korrupsiya va ijtimoiy hayot. Korrupsiyani bartaraf etishning asosiy yo‘nalishlari.** **Mashg’ulot rejasi:** 1.Korrupsiyaga qarshi kurash sohasida davlat siyosatining asosiy yo`nalishlari. 2.Korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy omillari. 3.Korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi va uning mazmun mohiyati. **Adabiyotlar:** 1.O`zbekiston respublikasi ma`muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksi. Toshkent: Adoloat, 2014. 8. Sh. M. Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta`minlash-yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi - Toshkent: 2014. 9. 2019 yil 27 maydagi O`zbekiston respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takkomillashtirish to`g`risidagi.PF.5729 son farmoni. 10.O`zbekiston respublikasining jinoyat kodeksi. - Toshkent: Adolat.2014. 11.Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish. (O‘quv qo‘llanma). - Toshkent: 2017. 12.Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanishfalsafasi. (O‘quv qo‘llanma). - Toshkent: 2017. 13.Shermuxamedova N.A. Insonfalsafasi. (Darslik). - Toshkent: 2016. 14.Иззетова Э., Пулатова Д. Философия (Учебное пособие). - Тошкент: 2017. 15.M.Sharipov, Fayzixodjyaeva D. Mantiq. O‘quv qo‘llanma. -Toshkent: 2004.
11.	2	**5-MODUL.** **Mashg’ulot turi: ma’ruza** **Mavzu: Dinshunoslik faniga kirish. Dinning mohiyati, tuzilishi, funksiyalari.** **Mashg’ulot rejasi:** 1. “Dinshunoslik” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. 2.Dinshunoslikning ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan aloqadorligi. 3. Dinshunoslik fanini o‘rganishning jamiyat barqarorligini mustahkamlash, diniy bag‘rikenglikni tarbiyalash, vijdon

		erkinligini ta’minlashdagi ahamiyati. 4. Dinning mohiyati va unga berilgan ta’riflar. 5. Dinning ijtimoiy funksiyalari hamda dinlarni tasniflash. **Adabiyotlar:** 7. Abdusamedov A.E. Dinlar tarixi. -Toshkent: O‘zMU, 2004. - 208 b. 8. Ochildiyev A. va boshqalar. Dinshunoslik asoslari (o‘quv qo‘llanma). - Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot matbaa birlashmasi, 2013. 9. Xasanov A. va boshqalar. Islom tarixi (Darslik). - Toshkent: Toshkent islom universiteti matbaa-nashriyot birlashmasi, 2008. 10. Mo‘minov A. va boshqalar. Dinshunoslik. - Toshkent: “Mehnat”, 2004. 11. Yo‘ldoshxo‘jayev X., Rahimjonov D., Komilov M. Dinshunoslik. - Toshkent: ToshDShI nashriyoti, 2000
12	2	**Mashg’ulot turi: ma’ruza** **Mavzu: Urug‘-qabila va milliy dinlar.** **Mashg’ulot rejasi:** 1. Dinning ibtidoiy shakllari 2. Hinduiylik, jaynizm, sikxizm ta’limotlari 3. Konfutsiylik, daosizm, sintoizm ta’limotlari 4. Yahudiylik dini, tarixi, ta’limoti **Adabiyotlar:** 1. Abdusamedov A.E. Dinlar tarixi. -Toshkent: O‘zMU, 2004. - 208 b. 2. Ochildiyev A. va boshqalar. Dinshunoslik asoslari (o‘quv qo‘llanma). - Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot matbaa birlashmasi, 2013. 3. Xasanov A. va boshqalar. Islom tarixi (Darslik). - Toshkent: Toshkent islom universiteti matbaa-nashriyot birlashmasi, 2008. 4. Mo‘minov A. va boshqalar. Dinshunoslik. - Toshkent: “Mehnat” 2004. 5. Yo‘ldoshxo‘jayev X., Rahimjonov D., Komilov M. Dinshunoslik. - Toshkent: ToshDShI nashriyoti, 2000
13	2	**Mashg’ulot turi: ma’ruza** **Mavzu: Jahon dinlari: buddizm va xristianlik va ulardagi ta’limiy-tarbiyaviy qarashlar.** **Mashg’ulot rejasi:** 1. Buddaviylikning vujudga kelishi, ta’limoti 2. Buddizmdagi yo‘nalishlar va manbalari 3. Xristianlikning vujudga kelishi, ta’limoti 4. Xristianlikdagi yo‘nalishlar 5. Xristianlikning Sharqqa tomon tarqalishi, O‘zbekistonda xristian cherkovining tutgan o‘rni.

		6. Xristianlik manbalari. **Adabiyotlar:** 1. Abdusamedov A.E. Dinlar tarixi. -Toshkent: O‘zMU, 2004. -208 b. 2. Ochildiyev A. va boshqalar. Dinshunoslik asoslari (o‘quv qo‘llanma). - Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot matbaa birlashmasi, 2013. 3. Xasanov A. va boshqalar. Islom tarixi (Darslik). - Toshkent: Toshkent islom universiteti matbaa-nashriyot birlashmasi, 2008. 4. Mo‘minov A. va boshqalar. Dinshunoslik. - Toshkent: “Mehnat” 2004. 5. Yo‘ldoshxo‘jayev X., Rahimjonov D., Komilov M. Dinshunoslik. - Toshkent: ToshDShI nashriyoti, 2000.
14	2	**Mashg’ulot turi: ma’ruza** **Mavzu: Islom dini va ta'limoti.** **Mashg’ulot rejasi:** 8. Islom shakllanishidagi tarixiy sharoit. Islom dinining vujudga kelishi. 9. Qur’on - islom dinining muqaddas kitobi. 10. Hadislar – Qur’ondan keyingi mo‘tabar manba. 11. Islom ta’limoti, uning aqidalari. 12. Islomdagi asosiy yo‘nalish va mazhablar. 13. Kalom falsafasi. Moturidiylik va ash’ariylik. 14. Tasavvuf ta’limoti va tariqatlari **Adabiyotlar:** 4. Ochildiyev A. va boshqalar. Dinshunoslik asoslari (o‘quv qo‘llanma). - Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot matbaa birlashmasi, 2013. 5. Xasanov A. va boshqalar. Islom tarixi (Darslik). - Toshkent: Toshkent islom universiteti matbaa-nashriyot birlashmasi, 2008. 6. Mo‘minov A. va boshqalar. Dinshunoslik. - Toshkent: “Mehnat” 2004. 7. Yo‘ldoshxo‘jayev X., Rahimjonov D., Komilov M. Dinshunoslik. - Toshkent:ToshDShI nashriyoti, 2000.
15	2	**6-MODUL.** **Mashg’ulot turi: ma’ruza** **Mavzu: O‘zbekistonda vijdon erkinligi. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash: O‘zbekiston tajribasi.** **Mashg’ulot rejasi:** 1. Vijdon erkinligi tushunchasi. O‘zbekistonda vijdon erkinligining qonunan kafolatlanishi. 2. O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan diniy konfessiya va tashkilotlar.

		3. Missionerlik va prozelitizm xavfining bartaraf etilishi. 4. Diniy mutaassiblik (fanatizm), ekstremizm, aqidaparastlik (fundamentalizm), xalqaro terrorizm tushunchalarining mazmuni va reaktsion mohiyati. 5. Terrorizmning tinchlik va taraqqiyotga, millatlararo munosabatlar va diniy bag‘rikenglikka tahdidi. 6. O‘zbekiston Respublikasida diniy ekstremizm va terrorizm xavfini oldini olishning huquqiy va tashkiliy asoslari. **Adabiyotlar:** 1. Abdusamedov A.E. Dinlar tarixi. -Toshkent: O‘zMU, 2004. - 208 b. 2. Ochildiyev A. va boshqalar. Dinshunoslik asoslari (o‘quv qo‘llanma). - Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot matbaa birlashmasi, 2013. 3. Xasanov A. va boshqalar. Islom tarixi (Darslik). - Toshkent: Toshkent islom universiteti matbaa-nashriyot birlashmasi, 2008. 4. Mo‘minov A. va boshqalar. Dinshunoslik. - Toshkent: “Mehnat” 2004. 5. Yo‘ldoshxo‘jayev X., Rahimjonov D., Komilov M. Dinshunoslik. - Toshkent: ToshDShI nashriyoti, 2000.
		Oraliq nazorat

YAKUNIY NAZORAT—50

SEMINAR MASHG‘ULOTLARI.

Seminar mashg‘ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi zarur. Mashg‘ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq**.**

Seminar mashg’ulotlar sonida talaba jami 3,3 ballni to’plashi mumkin.

Hafta	Soat	Mashg’ulot mazmuni
1	2	**1-MODUL ASOSIDA.** **Mashg’ulot turi: semenar** **Mavzu: Falsafa fanining asosiy maqsadi va bo‘lg’usi pedagoglarda o‘qitilishining nazariy-amaliy ahamiyati.** **Mashg’ulot rejasi:** 1. Falsafiy fikr paydo bo‘lishining zaminlari. 2. Dunyoqarash. Falsafiy dunyoqarash. 3. Falsafa fan sifatida. Falsafaning baxs mavzui. Falsafiy muammolar. 4. Falsafaning jamiyatda tutgan o‘rni va vazifalari. **Adabiyotlar:** 1. Axmedova M. Falsafa. -Toshkent.UFMJ, 2006. 2. Yusupov E., Mamashokirov S. Falsafa Darslik, -Toshkent:

		2005. 3. Shermuxamedova N.A. Falsafa. Toshkent: “Noshir”, 2012. 4. Shermuxamedova N.A. Gnosiologiya. (Uchebnik) Toshkent: 2009 y 5. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish. (O‘quv qo‘llanma) Toshkent: 2017. 6. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi. (O‘quv qo‘llanma). - Toshkent: 2017 y 7. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi. (Darslik) Toshkent: 2016 y 8. Иззетова Э., Пулатова Д. Философия (Учебное пособие). - Тошкент: 2017. 9. M.Sharipov Fayzixodjayeva D. Mantiq. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: 2004.
2	2	**Mashg’ulot turi: semenar** **Mavzu: Falsafani taraqqiyot bosqichlari.** **Mashg’ulot rejasi:** 1. Falsafiy fikrni vujudga kelishi, uning madaniy tarixiy zaminlari. 2. Qadimgi Sharq mintaqamizdagi va antik dunyodagi ilk falsafiy fikrlar. 3. O‘rta Osiyoda falsafiy fikrlarning rivojlanishi. 4. G’arbiy Yevropa xalqlari falsafasi **Adabiyotlar:** 1. Axmedova M. Falsafa. -Toshkent.UFMJ, 2006. 2. Yusupov E., Mamashokirov S. Falsafa Darslik, -Toshkent: 2005. 3. Shermuxamedova N.A. Falsafa. Toshkent: “Noshir”, 2012. 4. Shermuxamedova N.A. Gnosiologiya. (Uchebnik). - Toshkent: 2009 y 5. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish. (O‘quv qo‘llanma) Toshkent: 2017 y 6. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi. (O‘quv qo‘llanma)/ - Toshkent: 2017. 7. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi. (Darslik). - Toshkent: 2016. 8. Иззетова Э., Пулатова Д. Философия (Учебное пособие) Тошкент: 2017. 9. M.Sharipov, Fayzixodjayeva D. Mantiq. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: 2004.
3	2	**Mashg‘ulot turi: amaliy** **Mavzu: Ontologiya, gnoseologiya va ong falsafasi.** **Mashg’ulot rejasi:** 1. Borliq kategoriysi.Borliq turlari. 2. Materiy kategoriysi.Dunyoning moddiy birligi.

		3. Materiyning mavjudlik shakllari.Harakat va rivojlanish. 4. Fazo va vaqt materiyning yashash shakli. **Adabiyotlar:** 1. Axmedova M. Falsafa. -Toshkent.UFMJ, 2006. 2. Yusupov E., Mamashokirov S. Falsafa Darslik, -Toshkent: 2005. 3. Shermuxamedova N.A. Falsafa. Toshkent: “Noshir” 2012 y 4. Shermuxamedova N.A. Gnosiologiya. (Uchebnik). -Toshkent: 2009. 5. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish. (O‘quv qo‘llanma) Toshkent: 2017. 6. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi. (O‘quv qo‘llanma) Toshkent: 2017. 7. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi. (Darslik) Toshkent: 2016. 8. Иззетова Э., Пулатова Д. Философия (Учебное пособие). -Тошкент: 2017. 9. M.Sharipov, Fayzixodjayeva D. Mantiq. O‘quv qo‘llanma. -Toshkent: 2004.
4	2	**2- MODUL ASOSIDA.** **Mashg’ulot turi: amaliy** **Mavzu: Falsafaning metod, qonun va kategoriyalari.** **Mashg’ulot rejasi:** 1. Falsafa qonun tushunchasi va uning mohiyati. Qonun va qonuniyat. 2. Miqdor o‘zgarish qonunlaridan sifat o‘zgarish qonunlariga o‘zaro utish qonuni. 3. Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni. Inkorni inkor qonuni. Falsafiy kategoriyalar va ularning boshqa fan kategoriyalaridan farqi. 4. Olamdagi umumiy alokadorlikni ifodalovchi kategoriyalar. 5. Narsa va xodisalar to‘zilishini aks ettiruvchi kategoriyalar. 6. Narsa va xodisalar o‘rtasidagi sababli boglanish (determinizm)ni anglashga imkon yaratuvchi kategoriyalar. **Adabiyotlar:** 1. Axmedova M. Falsafa. -Toshkent.UFMJ, 2006. 2. Yusupov E., Mamashokirov S. Falsafa Darslik, -Toshkent: 2005. 3. Shermuxamedova N.A. Falsafa. Toshkent: “Noshir” 2012. 4. Shermuxamedova N.A. Gnosiologiya. (Uchebnik) Toshkent: 2009. 5. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish. (O‘quv qo‘llanma). -Toshkent: 2017. 6. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanishfalsafasi. (O‘quv qo‘llanma) Toshkent: 2017. 7. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi. (Darslik) Toshkent: 2016. 8. Иззетова Э., Пулатова Д. Философия (Учебное пособие). -Тошкент: 2017.

		9. M.Sharipov, Fayzixodjayeva D. Mantiq. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: 2004.
5	2	**3- MODUL ASOSIDA.** **Mashg’ulot turi: amaliy** **Mavzu: Jamiyat falsafasi. Hozirgi zamon jamiyatining global muammolari va jamiyatni rivojlantirish istiqbollari.** **Mashg’ulot rejasi:** 1. Jamiyat tushunchasi. Jamiyat haqidagi falsafiy qarashlar. 2. Jamiyatni falsafiy anglash. Jamiyatning moxiyati va o‘ziga hos jihatlari. 3. Jamiyatning shakllarini va taraqqiyoti tabiiy-tarixiy jarayon sifatida. 4. Davlatning jamiyat hayotidagi o‘rni. O‘zbekistonda barpo etilayotgan erkin fuqarolik jamiyati va uning xususiyatlari. **Adabiyotlar:** 1. Axmedova M. Falsafa. -Toshkent.UFMJ, 2006. 2. Yusupov E., Mamashokirov S. Falsafa Darslik, -Toshkent: 2005. 3. Shermuxamedova N.A. Falsafa. Toshkent: “Noshir”, 2012. 4. Shermuxamedova N.A. Gnosiologiya. (Uchebnik) Toshkent: 2009. 5. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish. (O‘quv qo‘llanma) Toshkent: 2017. 6. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi. (O‘quv qo‘llanma) Toshkent: 2017. 7. Shermuxamedova N.A. Insonfalsafasi. (Darslik) Toshkent: 2016 y 8. Иззетова Э., Пулатова Д. Философия (Учебное пособие). Тошкент: 2017. 9. M.Sharipov Fayzixodjaeva D. Mantiq. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: 2004.
6	2	**Mashg’ulot turi: amaliy** **Mavzu: Pedagogik amaliyotda mantiqiy fikrlashning ahamiyati.** **Mashg’ulot rejasi:** 1. Mantiq ilmining predmeti, asosiy qonunlari. 2. Tushunchaning mazmuni va hajmi, ularning turlari 3. Mulohaza. Xulosa chiqarish. **Adabiyotlar:** 1. Axmedova M. Falsafa. -Toshkent.UFMJ, 2006. 2. Yusupov E., Mamashokirov S. Falsafa Darslik, -Toshkent: 2005. 3. Shermuxamedova N.A. Falsafa. Toshkent: “Noshir”, 2012. 4. Shermuxamedova N.A. Gnosiologiya. (Uchebnik) Toshkent: 2009. 5. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish. (O‘quv qo‘llanma) Toshkent: 2017. 6. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanishfalsafasi. (O‘quv qo‘llanma) Toshkent: 2017. 7. Shermuxamedova N.A. Insonfalsafasi. (Darslik) Toshkent: 2016. 8. Иззетова Э., Пулатова Д. Философия (Учебное пособие). - Тошкент: 2017.

		9. M.Sharipov, Fayzixodjayeva D. Mantiq. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: 2004.
7	2	**4- MODUL ASOSIDA.** **Mashg’ulot turi: amaliy** **Mavzu: Etika fanining predmeti, asosiy muammolari va kasbiy axloq.** **Mashg’ulot rejasi:** 1. Etikaning predmeti, tadqiqot doirasi va falsafiy moxiyati. Dastlabki ahloqiy qonun qoidalar, tamoyillar. Ahloqiy qarashlar tarixi 2. Etikaning boshqa ijtimoiy fanlar bilan birligi va tafovutlari. 3. Etikaning ahamiyati hamda vazifalari. 4. Ixtiyor erkinligi va ahloqiy tanlov. 5. Ahloq tu`zilmasi. **Adabiyotlar:** 1. Axmedova M. Falsafa. -Toshkent.UFMJ, 2006. 2. Yusupov E., Mamashokirov S. Falsafa Darslik, -Toshkent: 2005. 3. Shermuxamedova N.A. Falsafa. Toshkent: “Noshir” 2012 y 4. Shermuxamedova N.A. Gnosiologiya. (Uchebnik) Toshkent: 2009. 5. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish. (O‘quv qo‘llanma) Toshkent: 2017. 6. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi. (O‘quv qo‘llanma) Toshkent: 2017. 7. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi. (Darslik) Toshkent: 2016. 8. Иззетова Э., Пулатова Д. Философия (Учебное пособие). Тошкент: 2017. 9. M.Sharipov, Fayzixodjayeva D. Mantiq. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: 2004.
8	2	**5-MODUL ASOSIDA.** **Mashg’ulot turi: amaliy** **Mavzu: Pedagog faoliyatida estetika** **Mashg’ulot rejasi:** 1. Estetika fanining predmeti, vujudga kelishi va asosiy tushunchalari. 2. Estetika fanining ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o‘rni. 3. Estetik tafakkur tarixi va uning asosiy bosqichlari. **Adabiyotlar:** 1. Axmedova M. Falsafa. -Toshkent.UFMJ, 2006. 2. Yusupov E., Mamashokirov S. Falsafa Darslik, -Toshkent: 2005. 3. Shermuxamedova N.A. Falsafa. Toshkent: “Noshir”, 2012. 4. Shermuxamedova N.A. Gnosiologiya. (Uchebnik) Toshkent:

		2009. 8. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish. (O‘quv qo‘llanma) Toshkent: 2017. 9. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi. (O‘quv qo‘llanma) Toshkent: 2017 y 10. Shermuxamedova N.A. Insonfalsafasi. (Darslik) Toshkent: 2016. 11. Иззетова Э., Пулатова Д. Философия (Учебное пособие). - Тошкент: 2017. 12. M.Sharipov, Fayzixodjayeva D. Mantiq. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: 2004.
9	2	**6-MODUL ASOSIDA.** **Mashg’ulot turi: amaliy** **Mavzu: Korrupsiya va uning asosiy ko‘rinishlari.** **Mashg’ulot rejasi:** 4. Korrupsiya tushunchasi. 5. Korrupsiyaning tarixiy ildizlari. 6. Korrupsiyaning jamiyat uchun havfi. **Adabiyotlar:** 1. Axmedova M. Falsafa. -Toshkent.UFMJ, 2006. 2. Yusupov E., Mamashokirov S. Falsafa Darslik, -Toshkent: 2005. 3. Shermuxamedova N.A. Falsafa. Toshkent: “Noshir” 2012 y 4. Shermuxamedova N.A. Gnosiologiya. (Uchebnik) Toshkent: 2009. 5. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish. (O‘quv qo‘llanma) Toshkent: 2017. 6. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi. (O‘quv qo‘llanma) Toshkent: 2017. 7. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi. (Darslik) Toshkent: 2016. 8. Иззетова Э., Пулатова Д. Философия (Учебное пособие). Тошкент: 2017. 9. M.Sharipov, Fayzixodjayeva D. Mantiq. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: 2004.
10	2	**Mashg’ulot turi: amaliy** **Mavzu: Korrupsiya va ijtimoiy hayot. Korrupsiyani bartaraf etishning asosiy yo‘nalishlari.** **Mashg’ulot rejasi:** 1. Korrupsiyaga qarshi kurash sohasida davlat siyosatining asosiy yo`nalishlari. 2. Korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy omillari. 3. Korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi va uning mazmun mohiyati.

		Adabiyotlar: 1. Axmedova M. Falsafa. - Toshkent. UFMJ, 2006. 2. Yusupov E., Mamashokirov S. Falsafa Darslik, - Toshkent: 2005. 3. Shermuxamedova N.A. Falsafa. Toshkent: “Noshir”, 2012. 4. Shermuxamedova N.A. Gnosiologiya. (Uchebnik). - Toshkent: 2009. 5. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish. (O‘quv qo‘llanma) - Toshkent: 2017. 6. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi. (O‘quv qo‘llanma). - Toshkent: 2017. 7. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi. (Darslik). - Toshkent: 2016. 8. Иззетова Э., Пулатова Д. Философия (Учебное пособие). - Тошкент: 2017. 9. M.Sharipov, Fayzixodjayeva D. Mantiq. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: 2004.
11	2	**Mashg’ulot turi: seminar** **Mavzu: Dinshunoslik faniga kirish. Dinning mohiyati, tuzilishi, funksiyalari.** **Mashg’ulot rejasi:** 1. “Dinshunoslik” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. 2. Dinshunoslikning ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan aloqadorligi. 3. Dinshunoslik fanini o‘rganishning jamiyat barqarorligini mustahkamlash, diniy bag‘rikenglikni tarbiyalash, vijdon erkinligini ta’minlashdagi ahamiyati. 4. Dinning mohiyati va unga berilgan ta’riflar. 5. Dinning ijtimoiy funksiyalari. Dinlar tasnifi. **Adabiyotlar:** 1. Abdusamedov A.E. Dinlar tarixi. -Toshkent: O‘zMU, 2004. - 208 b. 2. Ochildiyev A. va boshqalar. Dinshunoslik asoslari (o‘quv qo‘llanma). - Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot matbaa birlashmasi, 2013. 3. Xasanov A. va boshqalar. Islom tarixi (Darslik). - Toshkent: Toshkent islom universiteti matbaa-nashriyot birlashmasi, 2008. 4. Mo‘minov A. va boshqalar. Dinshunoslik - Toshkent: “Mehnat” 2004. 5. Yo‘ldoshxo‘jayev X., Rahimjonov D., Komilov M. Dinshunoslik. - Toshkent:ToshDShI nashriyoti, 2000
12	2	**Mashg’ulot turi: seminar** **Mavzu: Urug‘-qabila va milliy dinlar.** **Mashg’ulot rejasi:** 1. Dinning ibtidoiy shakllari

		2. Hinduiylik, jaynizm, sikxizm ta'limotlari 3. Konfutsiylik, daosizm, sintoizm ta'limotlari 4. Yahudiylik dini, tarixi, ta'limoti **Adabiyotlar:** 1. Abdusamedov A.E. Dinlar tarixi. -Toshkent: O'zMU, 2004. -208 b. 2. Ochildiyev A. va boshqalar. Dinshunoslik asoslari (o'quv qo'llanma). - Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyot matbaa birlashmasi, 2013. 3. Xasanov A. va boshqalar. Islom tarixi (Darslik). - Toshkent: Toshkent islom universiteti matbaa-nashriyot birlashmasi, 2008. 4. Mo'minov A. va boshqalar. Dinshunoslik. - Toshkent: "Mehnat", 2004. 5. Yo'ldoshxo'jayev X., Rahimjonov D., Komilov M. Dinshunoslik. - Toshkent:ToshDShI nashriyoti, 2000.
13	2	**Mashg'ulot turi: seminar** **Mavzu: Jahon dinlari: buddizm va xristianlik.** **Mashg'ulot rejasi:** 1.Buddaviylikning vujudga kelishi, ta'limoti 2.Buddizmdagi yo'nalishlar va manbalar 3.Xristianlikning vujudga kelishi, ta'limoti 4.Xristianlikdagi asosiy yo'nalishlar 5. Xristianlikning sharqqa tomon tarqalishi, O'zbekistonda xristian cherkovining tutgan o'rni. 6. Xristianlik manbalari. **Adabiyotlar:** 1. Abdusamedov A.E. Dinlar tarixi. -Toshkent: O'zMU, 2004. - 208 b. 2. Ochildiyev A. va boshqalar. Dinshunoslik asoslari (o'quv qo'llanma). - Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyot matbaa birlashmasi, 2013. 3. Xasanov A. va boshqalar. Islom tarixi (Darslik). - Toshkent: Toshkent islom universiteti matbaa-nashriyot birlashmasi, 2008. 4. Mo'minov A. va boshqalar. Dinshunoslik. - Toshkent: "Mehnat", 2004. 5. Yo'ldoshxo'jayev X., Rahimjonov D., Komilov M. Dinshunoslik. - Toshkent:ToshDShI nashriyoti, 2000
14	2	**Mashg'ulot turi: seminar** **Mavzu: Islom dini va ta'limoti.** **Mashg'ulot rejasi:** 1. Islom shakllanishidagi tarixiy sharoit. Islom dinining vujudga kelishi. 2. Qur'on - islom dinining muqaddas kitobi. 3. Hadislar – Qur'ondan keyingi mo'tabar manba. 4. Islom ta'limoti, uning aqidalari.

		5. Islomdagi asosiy yo‘nalish va mazhablar. 6. Kalom falsafasi. Moturidiylik va ash’ariylik. 7. Tasavvuf ta’limoti va tariqatlari. **Adabiyotlar:** 1. Abdusamedov A.E. Dinlar tarixi. - Toshkent: O‘zMU, 2004. - 208 b. 2. Ochildiyev A. va boshqalar. Dinshunoslik asoslari (o‘quv qo‘llanma). - Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot matbaa birlashmasi, 2013. 3. Xasanov A. va boshqalar. Islom tarixi (Darslik). - Toshkent: Toshkent islom universiteti matbaa-nashriyot birlashmasi, 2008. 4. Mo‘minov A. va boshqalar. Dinshunoslik. - Toshkent: “Mehnat”, 2004. 5. Yo‘ldoshxo‘jayev X., Rahimjonov D., Komilov M. Dinshunoslik. - Toshkent:ToshDShI nashriyoti, 2000.
15	2	**Mashg’ulot turi: seminar** **Mavzu: O‘zbekistonda vijdon erkinligi. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash: O‘zbekiston tajribasi.** **Mashg’ulot rejasi:** 1. Vijdon erkinligi tushunchasi. O‘zbekistonda vijdon erkinligini qonunan kafolatlanishi. 2. O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan diniy konfessiya va tashkilotlar. 3. Missionerlik va prozelitizm xavfining bartaraf etilishi. 4. Diniy mutaassiblik (fanatizm), ekstremizm, aqidaparastlik (fundamentalizm), xalqaro terrorizm tushunchalarining mazmuni va reaktsion mohiyati. 5. Terrorizmning tinchlik va taraqqiyotga, millatlararo munosabatlar va diniy bag‘rikenglikka tahdidi. 6. Kibbermakon va din. O‘zbekiston Respublikasida diniy ekstremizm va terrorizm xavfini oldini olishning huquqiy va tashkiliy asoslari. **Adabiyotlar:** 1. Abdusamedov A.E. Dinlar tarixi. - Toshkent: O‘zMU, 2004. - 208 b. 2. Ochildiyev A. va boshqalar. Dinshunoslik asoslari (o‘quv qo‘llanma). - Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot matbaa birlashmasi, 2013. 3. Xasanov A. va boshqalar. Islom tarixi (Darslik). - Toshkent: Toshkent islom universiteti matbaa-nashriyot birlashmasi, 2008. 4. Mo‘minov A. va boshqalar. Dinshunoslik. - Toshkent: “Mehnat” 2004. 5. Yo‘ldoshxo‘jayev X., Rahimjonov D., Komilov M. Dinshunoslik - Toshkent: Dinshunoslik. - Toshkent:ToshDShI

		nashriyoti, 2000
16	2	*Kurs natijalari,yakuniy nazoratga tayyorgarlik ko‘rish.*
17	1	**YAKUNIY NAZORAT**

IV. Mustaqil ta’lim topshriqlari.

Mustaqil ta’lim topshriqla mazkur kurs mazmunini to’liq qamrab olish maqsadida tayyorlangan bo’lib, nazariy egallangan bilimlarni kengaytirish, talabalarning mustaqil o’qish faoliyatini yo’lga qo’yishga asoslangan**.** Mustaqil topshiriqlari talabaning o’quv yuklamasining tarkibiy qismida krib, unda talaba tomonidan minimal 0,006 kredit (60 soat hajmda) to’plashi lozim. Mazkur kursdagi modular yuzasidan topshiriqlar amaliy xarakterda bo’lib talaba tomonidan mustaqil o’zlashtirilishi va topshirilishi shart.

Talaba semestr ykunida 2 kredit to’plashi zarur va buning uchun 10 ball beriladi.

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular.

3-jadva

№	Mashg’ulot turi	Kurs modullari.	SOAT			MTga ajratilgan miqdori
				Topshiriq turi	Topshiriq shakli	
		1 yoki 2-semestr				
1	Mustaqil ish	Falsafiy dunyoqarashning o`z-o`zini anglashdagi ro`li.	2	individual	Taqdimot	0,006k
2	Mustaqil ish	Insonning ma’naviy kamolotida falsafiy dunyoqarashning roli.	2	individual	Referat	0,006k
3	Mustaqil ish	.Fan ilmiy dunyoqarash shakli.	2	individual	Taqdimot	0,006k
4	Mustaqil ish	.Sharq va G‘arb falsafasida inson masalasi.	2	individual	Referat	0,006k
5	Mustaqil ish	.Falsafa qonun va kategoriyalarining ijtimoiy jarayonlar dialektikasidagi roli,	2	individual	Referat	0,006k
6	Mustaqil ish	Bilim inson ma’naviy kamoloti omili.	2	individual	Referat	0,006k
7	Mustaqil ish	Globallashuv sharoitida antropologik inqirozning oldini olishnnng zaruriyati.	2	individual	Referat	0,006k

8	Mustaqil ish	Milliy va umuminsoniy qadriyatlar dialektikasi.	2	indivi dual	Referat	0,006k
9	Mustaqil ish	Diniy madaniy an’analarning jamiyat taraqqiyotiga ta’siri.	2	indivi dual	Referat	0,006k
10	Mustaqil ish	BMT Kodeksida korrupsiyaga munosabat.	2	indivi dual	Referat	0,006k
11	Mustaqil ish	O‘zbekistovda korrupsiyaga oid qonunlar va qarorlar tasnifi. Korrupsiyaga qarshi kurashning ahamiyati.	2	indivi dual	Referat	0,006k
12	Mustaqil ish	Etika kategoriyalarining o‘ziga xos xususiyatlari.	2	indivi dual	Referat	0,006k
13	Mustaqil ish	Etikaning zamonaviy muammolariga diniy va ilmiy yondashuvlar.	2	indivi dual	Taqdim ot	0,006k
14	Mustaqil ish	O ila va oilaviy qadriyatlar ma’naviy madaniyatning bosh omili.	2	indivi dual	Taqdim ot	0,006k
15	Mustaqil ish	Hukm tafakkur shakli sifatida.	2	indivi dual	Taqdim ot	0,006k
16	Mustaqil ish	Hukmning tarkibi va xususiyatlari.	2	indivi dual	Taqdim ot	0,006k
17	Mustaqil ish	Xulosa chiqarishning umumiy mantiqiy tavsifi.	2	indivi dual	Taqdim ot	0,006k
18	Mustaqil ish	Xulosa chiqarishning tuzilishi.	2	indivi dual	Taqdim ot	0,006k
19	Mustaqil ish	Estetik tarbiyaning turlari yo‘nalishlari.	2	indivi dual	Taqdim ot	0,006k
20	Mustaqil ish	Tabiat va texnogen sivilizatsiya estetikasi.	2	indivi dual	Taqdim ot	0,006k
21	Mustaqil ish	Allomalar din to‘g‘risida.	2	indivi dual	Taqdim ot	0,006k
22	Mustaqil ish	Dinning inson va jamiyat hayotidagi o‘rni.	2	indivi dual	Taqdim ot	0,006k

23	Mustaqil ish	.Ilk dinning tasavvurlari.	2	individual	Taqdimot	0,006k
24	Mustaqil ish	Yahudiylik dinining xususiyatlari.	2	individual	Referat	0,006k
25	Mustaqil ish	Hindiston milliy dinlari.	2	individual	Referat	0,006k
26	Mustaqil ish	Xitoy milliy dinlari.	2	individual	Referat	0,006k
27	Mustaqil ish	. Zardushtiylikning vujudga kelishi.	2	individual	Referat	0,006k
28	Mustaqil ish	Буддавийлик динидаги таълимий-тарбиявий ғоялар.	2	individual	Referat	0,006k
29	Mustaqil ish	Xiristiyanlikdagi oqimlar.	2	individual	Referat	0,006k 0,006k
30	Mustaqil ish	Qur'on va hadis Sharq xalqlarining diniy, ilmiy va ma'naviy merosi sifatida.	2	individual	Referat	0,086k
	Jami		60			

Раҳбарий адабиётлар:

Adabiyot	**QR-kod**
1.Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T. 1. - Toshkent: O‘zbekiston.. 2017.	
2.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O‘zbekiston. 2017.	
3.Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. 7 dekabr 2017 y.-T.:O‘zbekiston, 2018..	
4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 fevraldagi “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. //O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, №6. 2017.	
5.Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi	

ma’ruzasi. 7 dekabr 2017 y.-T.:O‘zbekiston, 2018..	
6.Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini shakllantirish-mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. T.19. – Toshkent: O’zbekiston, 2011.	
7.Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma’naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir / I.A.Karimov; [nashr uchun mas’ul K.Bo‘ronov]. – Toshkent: O‘zbekiston, 2007.	
8..**Karimov I.A.** Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz / I.A.Karimov. – Toshkent: O‘zbekiston, 2000.	

Asosiy adabiyotlar:

1. Axmedova M. Falsafa. – Toshkent: UFMJ, 2006.
2. Yusupov E., Mamashokirov S. Falsafa Darslik, - Toshkent: 2005.
3. Shermuxamedova N.A. Falsafa. - Toshkent: “Noshir”, 2012.
4. Shermuxamedova N.A. Gnosiologiya. (Uchebnik). - Toshkent: 2009.
5. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish. (O‘quv qo‘llanma). - Toshkent 2017.
6. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi. (O‘quv qo‘llanma). Toshkent: 2017.
7. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi. (Darslik). - Toshkent: 2016.
8. Izzetova Ye., Pulatova D. Filosofiya (Uchebnoe posobie). - Toshkent: 2017.
9. M.Sharipov, Fayzixodjayeva D. Mantiq. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: 2004.
10. Abdusamedov A.E. Dinlar tarixi. - Toshkent: O‘zMU, 2004. -208 b.
11. Ochildiyev A. va boshqalar. Dinshunoslik asoslari (o‘quv qo‘llanma). - Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot matbaa birlashmasi, 2013.
12. Xasanov A. va boshqalar. Islom tarixi (Darslik). - Toshkent: Toshkent islom universiteti matbaa-nashriyot birlashmasi, 2008.
13. Mo‘minov A. va boshqalar. Dinshunoslik. - Toshkent: “Mehnat”, 2004.
14. Yo‘ldoshxo‘jayev X., Rahimjonov D., Komilov M. Dinshunoslik. - Toshkent: Dinshunoslik. - Toshkent: ToshDShI nashriyoti, 2000

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonlik garovi. - Toshkent: O‘zbekiston , 2017. 53-b.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘isida”gi Qonuni (yangi tahriri), 1998.

5. O‘zbekiston Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmoni / Xalq so‘zi, 2017 yil 8 fevral.

6. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. - 318 b.

7. GuseynovA.A., Apresyan R.G. Etika. Uchebnik. – Moskva: Gardariki, 2013.

8. Krivsun O.A. Yestetika. Uchebnik. – Moskva: Gardariki, 2013.

9. Otamurodav S. Globallashuv va millat. - Toshkent: Yangi asr avlodi. 2008.

11. Pulatova D., Qodirov M., Ahmedova M. va boshq. Falsafa tarixi: Sharq falsafasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: TDShI, 2013.

12. Pulatova D.,Ro‘zmatova G., Jalolova O‘. Axloqshunoslik. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: TDShI, 2013.

13. Po‘latova D.A., Fayzixo‘jayeva D.E. Mantiq.O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: TDShI, 2013.

14. Ramatov J. Hayotga falsafiy nigoh. Toshkent: "ITA-press", 2017. - 380 b.

15. Tulenov J., Tulenova G., Tulenova K. Falsafa. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.

16. To‘rayev B. Borliq: mohiyati, shakllari, xususiyati. – Toshkent: O‘zRFA Falsafa va huquq instituti, 2011.

17. Fayzixo‘jyaeva D. Mantiq. Izohli lug‘at. – Toshkent: Tamaddun, 2015.

18. Falsafa. Mamashokirov S. tahriri ostida. - Toshkent: Sharq, 2005.

19. Choriyev A. Inson falsafasi. - Toshkent: O‘FMJ, 2006.

20. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimasi. - Toshkent: Sharq, 2015. - 732 b.

21. Armstrong K. Islam. A Short History. - London, 2002.

22. Jabborov I., Jabborov S. Jahon dinlari tarixi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2002.

23. Imom al-Buxoriy. Al-Jome’ as-sahih. IV jildlik. - Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1991-1993.

24. Islom: bag‘rikenglik va mutaassiblik. Masul muharrir Z.I.Munavvarov. - Toshkent, 1998.

25. Islom (ensiklopediya). Zuxriddin Xusnidinov tahriri ostida. - Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004.

26. Muhammad Yusuf M.S. Hadis va hayot. - Toshkent: Sharq, 2003. - 255 b.

27. Основы религиоведения. Под редакции И.Н.Яблокова. Изд. Второе. – Москва:1998.

28. Tashanov A. Mutassibliknin ko‘rinishlari va oqibatlari. - Toshkent: Akademiya, 2011. - 32 b.

29. Qur’oni karim ma’nolarining tarjimasi. Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. - Toshkent: Toshkent Islom Universitet nashriyoti, 2001, 2007.

30. Xusniddinov Z.M. Islom yo‘nalishlar, mazhablar, oqimlar. - Toshkent: Movarounnahr, 2000.

Internet manbalari:

1. www. Ziyo net.uz
2. www.faylasuf.uz
3.www. .ziyo.uz
4. www. muslim.uz
5. www. religions.uz

BAKALAVRLARNI BAHOLASH TARTIBI

Baholash tartibi o‘z ichiga nazoratlar turini (oraliq, joriy va yakuniy) qamrab oladi. Bakalavrning o‘zlashtirish darajasi quyidagi yo‘l bilan baholanadi:

Darajasi	Ballar (foiz)	Reyting	
A+	95 - 100 ball	4.5	A’LO
A	90 - 94 ball	4.0	
B+	85 - 89 ball	3.5	JUDA YaXSHI
B	80 - 84 ball	3.0	
C+	75 - 79 ball	2.5	YaXSHI
C	70 - 74 ball	2.0	
D+	65 - 69 ball	1.5	SHARTLI O‘TDI
D	60 - 64 ball	1.0	
F	59 ball va undan past	0.0	O‘TMADI

Ballar taqsimoti:

Oraliq nazorat - 20 ball.
Joriy nazorat - 30 ball.
Yakuniy nazorat - 50 ball.
Jami: 100 ball

BAKALAVRLARNING O‘ZLASHTIRISHINI BAHOLASH MEZONLARI

“A+”, “A”, “B+” baho: talaba materiallarni mustaqil ravishda tez o‘zlashtiradi: xatolarga yo‘l qo‘ymaydi; mashg‘ulotlarda faol ishtirok etadi; savollarga to‘liq va aniq javob beradi.

“B”, “C+”, “C” baho: talaba materiallarni yaxshi o‘zlashtirgan, uni mantiqiy ifoda eta oladi; mashg‘ulotlarda faol ishtirok etadi; savollarga to‘liq va aniq javob beradi, biroq uncha jiddiy bo‘lmagan xatolarga yo‘l qo‘yadi.

“D+”, “D” baho: asosiy materiallarni biladi, biroq aniq ifoda etishga qiynaladi; savollarga javob berishda aniqlik va to‘liqlik etishmaydi; materiallarni taqdim etishda ayrim xatoliklarga yo‘l qo‘yadi; kommunikatsiya jarayonida qiyinchilik sezadi.

“F” (o‘tmadi) baho: materiallarni o‘zlashtirmagan; savollarga javob bera olmaydi; mashg‘ulotlarda ishtirok etmaydi.

Bakalavrlarni baholashda quyidagilar hisobga olinadi:

- mashg‘ulotlardagi ishtiroki (davomat);
- mashg‘ulotlardagi faollik va ijodkorlik;
- asosiy va qo‘shimcha o‘quv materiallarini o‘zlashtirish;
- mustaqil ta’lim bo‘yicha topshiriqlarni o`z vaqtida bajarish;
- nazoratning barcha turlarini o‘z vaqtida bajarish.

AKADEMIK VA ETIK TALABLAR

Nazorat topshiriqlarini bajarishda ko‘chirmakashlikka (plagiat) yo‘l qo‘yilmaydi.

Test, o‘quv loyihalari, mustaqil ishlar, oraliq, joriy, yakuniy nazorat topshiriqlarini boshqa shaxslardan ko‘chirib olinishiga yo‘l qo‘yilmaydi, boshqa magistrantning o‘rniga imtihon topshirish ta’qiqlanadi.

Kurs bo‘yicha har qanday nazorat topshirig‘ini soxtalashtirgan talaba “fanni o‘zlashtirmagan” (“F”) hisoblanadi.

Mashg‘ulotlar paytida mobil aloqa va boshqa elektron qurilmalardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Mashg‘ulotlar paytida auditoriyada (virtual auditoriyada) belgilangan talablarga zid harakatlar qilish mumkin emas.

Boshqalar va turli fikrlarga tolerant munosabatda bo‘lish talab etiladi.

Kontakt soatlari*: mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarish, ularni taqdim etish, zarur ma’lumotlar va turli materiallar bo‘yicha savollarga quyidagi grafik asosida o‘qituvchiga murojaat qilishingiz mumkin:

№	Kun	Vaqt	Xona
1.	Chorshanba	14.00 – 16.00	301

Eslatma: Mazkur blok har bir o’qituvchi tomonidan o’zining individual-shaxsiy ishchidasturida inkoniyatidan kelub chiqib to’ldiriladi. .(ИШЧИ ДАСТУР ОХИРИ),

2. Ma`ruza mashg`ulotlari.

1-jadval

№	Ma`ruza mavzulari	Dars soatlari

		hajmi
	I yoki II - semestr	
1.	Falsafa fanining asosiy maqsadi va bo'lg'usi pedagoglarga o'qitilishining nazariy-amaliy ahamiyati.	2 2
2.	Falsafani taraqqiyot bosqichlari.	2
3	Ontologiya, gnoseologiya va ong falsafasi.	2
4.	Falsafaning metod, qonun va kategoriyalari.	2
5.	Jamiyat falsafasi.Hozirgi zamon jamiyatining global muammolari va jamiyatni rivojlantirish istiqbollari.	2
6.	Pedagogik amaliyotda mantiqiy fikirlashning ahamiyati.	2
7.	Etika" fanining predmeti, asosiy muammolari va kasbiy ahloq.	2
8.	Pedagogik faoliyatida estetika.	2
9	Korrupsiya va uning asosiy ko'rinishlari.	2
10	Korrupsiya va ijtimoiy hayot. Korrupsiyani bartaraf etishning asosiy yo'nalishlari.	2
11	Dinshunoslik faniga kirish. Dinning mohiyati, tuzulishi, funksiyalari.	2
12	Urug'– qabila va milliy dinlar.	2
13	Jahon dinlari : buddizim va xristianlbk va ulardagi ta'limiy-tarbiyaviy qarashlar.	2
14	Islom dini va ta'limoti.	2
15	O'zbekistonda vijdon erkinligi. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash: O'zbekiston tajribasi.	2
	Jami soat	30

Ma`ruza mashg`ulotlari multimedia qurulmalari va boshqa texnalogiyalar bilan jihozlangan auditoriyada shakllantirilgan potoklarda alohida o`tkaziladi. Mavzuda mashg`ulotlarini olib boorish usullari turli-tuman ko`rinishda bo`lsa-da, faol va interfaol metodlar ko`proq qo`llanilishi maqsadga muvofiq. Shuningdek ayrim mavzularda"Keys-stadi"texnalogiyasini ishlatish mumkin. Keyslar mazmuni o`qituvchi tomonidan belgilanadi. Ko`rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi.

Seminar mashg'ulotlari.

2- jadval

№	Seminar mavzulari	Dars soatlari

		hajmi
	I yoki II- semestr	
1.	Falsafa fanining asosiy maqsadi va bo'lg'usi pedagoglarga o'qitilishining nazariy-amaliy ahamiyati.	2
2.	Falsafani taraqqiyot bosqichlari.	2
3	Ontologiya, gnoseologiya va ong falsafasi.	2
4.	Falsafaning metod, qonun va kategoriyalari.	2
5.	Jamiyat falsafasi.Hozirgi zamon jamiyatining global muammolari va jamiyatni rivojlantirish istiqbollari.	2
6.	Pedagogik amaliyotda mantiqiy fikirlashning ahamiyati.	2
7.	Etika" fanining predmeti, asosiy muammolari va kasbiy ahloq.	2
8.	Pedagogik faoliyatida estetika	2
9	Korrupsiya va uning asosiy ko'rinishlari.	2
10	Korrupsiya va ijtimoiy hayot. Korrupsiyani bartaraf etishning asosiy yo'nalishlari.	2
11	Dinshunoslik faniga kirish. Dinning mohiyati, tuzulishi, funksiyalari.	2
12	Urug'– qabila va milliy dinlar.	2
13	Jahon dinlari : buddizim va xristianlbk va ulardagi ta'limiy-tarbiyaviy qarashlar.	2
14	Islom dini va ta'limoti.	2
15	O'zbekistonda vijdon erkinligi. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash: O'zbekiston tajribasi.	2
	Jami soat	**30 soat**

Seminar mashg`ulotlari multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyalarda har bir akadem guruhga alohida o`tiladi. Mashg`ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o`tiladi. Ularning qaysi turini tanlash guruhning bilish darajasiga ko`ra o`qituvchi tomonidan tanlanadi. Ko`rgazmali materiallar va axborotlar multimedia ko`rgazmalari yordamida uzatiladi

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TDPU SHAHRISABZ FILIALI
GUMANITAR FANLAR KAFEDRASI

FALSAFA FANIDAN TEST

SHAHRISABZ 2020

Tavsiya etilayotgan oraliq nazorat savollari.(30-ta)

1. Falsafa fanining predmeti va uning bahs mavzui.
2. Qadimgi Sharqda asotiriy tasavvurlar va falsafiy bilimlarning paydo bo‘lishi.

3. Ilk o‘rta asr Sharq falsafasi va uyg‘onish davri.
4. XlX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda ilg‘or falsafiy, ijtimoiy-siyosiy fikrlar.
5. Qadimgi Yunon-Rim falsafiy maktablari.
6.Ilk o‘rta asr G‘arb falsafasi rivojlanishining umumiy belgilari.
7. Yangi va eng yangi davr falsafasining ustuvor yo‘nalishlari. Yangi davr G‘arb falsafasidagi asosiy muammolar.
8. XX- XXI asr G‘arb faylasuflari ijodida fan falsafasining rivoji.
9. Borliq tushunchasining tahlili.Falsafa tarixida borliq muammosi.
10. Borliq shakllarining tasnifi:tabiat borlig‘i, ijtimoiy borliq, ma`naviy borliq, inson borlig‘i, virtual borliq
11. Harakat, makon va vaqt – materiyaning yashash sharti.
12. Bilish nazariyasining predmeti va o‘ziga xos xususiyatlari.
13. Bilishda xaqiqat va amaliyot uyg‘unligi. Xaqiqatning asosiy shakllari va konsepsiyalari.
14. Falsafada metod va metodologiya, metodika tushunchalari. Metodlarning tasnifi.
15. Falsafaning asosiy qonunlari. Qarama-qarshilik va ziddiyat qonuni. Miqdor va sifat o‘zgarishlari dialektikasi. Inkor – inkor qonuni va vorisiylik.
16. Falsafa va fan kategoriyalarining tasnifi. Ontologik va munosabatdosh kategoriyalarning tasnifi.
17. Jamiyat rivojlanuvchi tizim sifatida. Jamiyatning siyosiy hayotida davlatning o‘rni va roli.
18. Sivilizatsiya tushunchasining tahlili va turli yondoshuvlar tasnifi. Sivilizatsiya rivojining asosiy bosqichlari.
19. Qadriyat tushunchasining tasnifi va mohiyati. Moddiy va ma`naviy qadriyatlarning o‘zaro aloqadorligi va turlari.
20. Inson borlig‘ining o‘ziga xos xususiyatlari.
21. Suisid va parasuisidning oldini olishda tarbiyaning roli.
22. 2017-2021 yillardagi O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida global muammolarning tavsifi.
23. Texnogen sivilizatsiyada til va kommunikatsiya dilaektikasi.
24. Tafakkurning mantiqiy shakllari va qonunlari.
25. Mantiq ilmining fanlar tizimidagi o‘rni.
26. Mulohaza tafakkur shakli va xulosa chiqarishning tarkibiy qismi sifatida.
27. Asosli muhokama yuritish shartlari.
28. XXI asrda global etosfera (axloqiy muhit)ni yaratishning zaruriyati.
29.Maishiy turmush estetikasi. Zamonaviy shaharsozlik estetikasi. Dizaynning estetik xususiyatlari. Xalq amaliy san`ati va dizayn.
30. Reklamaning estetik jihatlari va g‘ayriestetik holatlar

Tavsiya etilayotgan oraliq nazorat test savollari.(200-ta)

1.«Falsafa» so‘zining lug‘aviy ma’nosi to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni belgilang:

Yunoncha, «phileo» - «sevaman» va «sophia» - «donolik».
Yunoncha, «phileo» - «sevaman» va «sophia» - «bilish»
Lotincha, «philo» - «sevaman» va «sophi» - «donishmandlik».
Lotincha, «phileo» - «sevaman» va «sophia» - «donolik»

2.«Falsafa» atamasini birinchi bo‘lib qaysi faylasuf o‘z asarida qo‘llagan?

Pifagor
Aristotel
Platon
Aristotel va Platon

3.Arxeolog olimlarnnng fikriga ko‘ra tik oyoqda yuruvchi «homo sapiens» odam taxminan necha million yil oldin vujudga kelgan?

1,5-3,5 mln yil avval
5 mln yil avval
2 mln yil avval

4.Quyidagi javoblardan qaysi birida dunyoqarashning nisbatan muhim funksiyasi ko‘rsatilgan?

Bilish funksiyasi
Qadriyatlarga munosabati
Xulq atvorni belgilash
Barcha javob to‘g‘ri

5.Dunyoqarashning tuzilishi qanday?

Dunyoni sezish, idrok etish, tushunish
Dunyoni tasavvur qilish
Axloqni yuksaltirish
Barcha javoblar to‘g‘ri

6.Dunyoni sezish bu -…

Bu o‘zini qurshagan dunyoni sezgilar yordamida hissiy idrok etish.
Faqat obyektlarni anglash
Inson o‘zini tushunish
Aql yordamida tushunish

7. Faqat insonga xos xususiyatni aniqlang:

Barcha javoblar noto‘g‘ri
Dunyoni tushunish
Harakat qilish
Dunyoni sezish (qisman)

8. Tarixan dunyoqarashning shakllari bu - ...

Mif, din, falsafa, fan
Mif, fan, ov
Din, san’at, mehnat
Fan, falsafa, ov

9.Mif atamasi qanday ma’nolarni anglatadi?

Rivoyat, afsona
San’at, voqea
O‘yin, san’at
Afsona, urush

10.Miflar nimalar orqali ifodalanadi?

Rivoyat, ertaklar
Ertaklar, qo‘shiqlar
Mehnat, ov
Qo‘shik, kuy

11.Falsafa qanday ta’limot?

Falsafa-tabiat, jamiyat va inson tafakkuri taraqqiyotining eng umumiy qonunlari to‘g‘riisidagi ta’limotdir

Olam haqidagi yaxlit ta’limot
Falsafa olam haqidagi umumiy ta’limot
Falsafa inson haqidagi, insoniy qadriyatlar haqidagi ta’limot

12. Dunyoqarashning qanday tarixiy tiplari bor?

Dunyoqarashning mifologik, diniy va ilmiy-falsafiy kabi tarixiy tiplari bor;
Dunyoqarashning diniy, ilmiy, xayoliy tiplari mavjud;
Dunyoqarashning totemistik, dualistik, metodologik, ilmiy-falsafiy tiplari bor;
Dunyoqarashning ma’rifiy, madaniy, adabiy-badiiy tiplari mavjud.

13. Dunyoqarash nechta unsurdan tashkil topadi:

Dunyoqarash 2 ta unsurdan tashkil topadi.
Dunyoqarash 5 ta unsurdan tashkil topadi;
Dunyoqarash ko‘p unsurlidir;
Dunyoqarash din va falsafa unsuridan iborat;

14. Falsafaning asosiy funksiyalari:

Metodologik, dunyoqarashlik, bilish, ijtimoiy, aksiologik, tarbiyaviy
Tarbiyaviy, umumlashtiruvchi, bilish, chamalash, bashorat kilish;
Tarbiyaviy, dunyoqarash, umumlashtiruvchi, bilish;
Dunyoqarashlik, metodologik, chamalash, bashorat qilish.

15. Dunyoqarash insonni nimaga ega qiladi?

Dunyoqarash insonga xayot ma’nosi va maqsad - muddaosini anglab olish imkonini beradi;
Dunyoqarash tufayli odamzod o‘z hayvoniy qusurlaridan xoli bo‘ladi;
Dunyoqarash tufayli inson ma’naviyati boy bo‘ladi;
Dunyoqarash inson irodasini mustahkamlaydi.

16. Xususiy fanlar tadqiqotchilari uchun falsafa qanday asos bo‘ladi?

Metodologik asos;
Empirik asos;
Tarbiyaviy asos;
Ratsional asos.

17.Dunyoqarashning qaysi shakllari e’tiqod va tuyg‘ularga tayangan?

Mifologik va diniy dunyoqarash
Falsafiy dunyoqarash
Ilmiy dunyoqarash
Kundalik dunyoqarash

18.Falsafiy dunyoqarash dunyoni nimalarga tayangan holda tushuntiradi?

Aql va bilimlarga
Tuyg‘ularga
E’tiqodga
Sezgilarga

19.Falsafada nima birinchi o‘rinda turadi?

Savol, masala
Obraz

Aniq javob
Dalillar

20.Falsafaning predmeti bu - ...

Olamning yaxlit birligi
Borliq
Inson
Fan

21.Kosmotsentrizmniing asosiy xususiyati nimadan iborat?

Kosmos va tabiatni anglashni
Yerni tadqiq etishni
Odamni tadqiq etishni
Hayotni anglashni

22.XVII-XVIII asrlarda falsafa fanlar bilan birlashib, uning tadqiqotlar markazida -...?

Bilish va ilmiy metodlar o‘rin oldi
Globallashuv o‘rin oldi
O‘zlikni anglash oldi
To‘g‘ri javob yo‘q

23.Falsafiy tafakkur Qadimgi Sharq va G‘arbda ijtimoiy ongning dastlabki shakli sifatida qanday ko‘rinishda vujudga kelgan?

Mifologiya
Ontologik
Gnoseologik
Dialektik

24.Mifologiyada dastlab qanday masalalar quyilgan?

Dunyoni yaralishi, rivojlanishi, hayot va o‘lim masalalari
Nega tug‘ildik va nimaga o‘lamiz
Biz kimmiz nega tug‘ildik
Unday nazariya bo‘lmagan

25.Antik davrda falsafa rivojlangan shaharlarni belgilang:

Ioniya, Sitsiliya, Afina
Makedoniya, Samarqand, Buxoro
Buxoro, Toshkent
Xiva, Toshkent

26.Sharq va Farb falsafasi nimaga qarab rivojlangan?

Umuminsoniy qadriyatlarga
Davlatlarga qarab
Mehnat taqsimotiga qarab
Qurollarning takomillashuviga qarab

27.Markaziy Osiyoda ma’naviy-falsafiy merosning eng qadimgisi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

Avesto
Tavrat

Injil
Qur’oni Karim

28. «Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal» g‘oyasi, kim tomonidan ilgari surilgan?
Zardo‘sht
G‘azzoliy
Nasafiy
Navoiy

29.«Men uchun bir kishi, agar u hammadan yaxshi bo‘lsa, 10000 kishiga teng» fikr kimga tegishli?
Geraklit
Platon
Suqrot
Epikur

30.«Axmoqni maqtagan aslida unga yomonlik qiladi» ushbu fikr kimga tegishli?
Demokrit
Epikur
Suqrot
Platon

31. «O‘lim qo‘rqinchli emas: men ungacha mavjudman, u mendan keyin mavjud» fikr kimga tegishli?
Epikur
Suqrot
Platon
Arastu

32.«Oliy himmatlik vaziyatdan mohirona foydalanish: aql-idrok bilan bog‘langan sahovatlilik» fikr kimga tegishli?
Platon
Suqrot
Epikur
Demokrit

33. Ilk falsafiy qarashlar dastlab qayerda vujudga kelgan?
Qadimgi Misr va Bobilda
Qadimgi Xitoyda
Qadimgi Xindistonda
G Qadimgi Gretsiyada

34. Markaziy Osiyodagi eng qadimgi din qaysi?
Moniylik
Mazdakiylik
Buddaviylik

Zardushtiylik

35. Buddizm dini qachon va qayerda paydo bo‘lgan?

Er.av. VIII asrda Xitoyda
Er.av. VI asrda Hindistonda
Eramizning II asrida Gretsiyada
Er.av. V asrda Misrda

36. Zardo‘shtiylik dinining asosiy mazmuni nimadan iborat?

Ezgulikning g‘alaba qilishidan
Yovuzlikning g‘alaba qilishidan
Ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurashdan
Olovga sig‘inishdan

37. Moniy ta’limoti qachon va qayerda vujudga kelgan?

Eramizning II asrida Hindistonda
Eramizning III asrida Eronda
Eramizning IV asrida Misrda
Eramizning I asrida Ozarbayjonda

38. Mazdakiylik ta’limoti qachon va qayerda vujudga kelgan?

Eramizning IV asrida Misrda
Eramizning III asrida Baqtriyada
Eramizning V asrning oxirida Eronda
Eramizning I asrida Ozarbayjonda

39.Quyidagilardan qaysi biri dialektik bilimlar sohasiga tegishli?

Rivojlanish va o‘zgarishlar haqidagi ta’limot
Axloq haqidagi ta’limot
Hayot haqidagi ta’limot
Qonunlar va usullarni o‘rganuvchi fan

40.Tafakkur qonunlari va usullari haqidagi fan bu -...

Mantiq
Dialektika
Etika
Tarix

41.Materialistlar deb qaysi toifadagi kishilarni aytish mumkin?

Olamni azaldan, moddiy deb, ong bu materiyaning mahsuli deyuvchilar
Ongni birinchi o‘ringa qo‘yuvchilar
Olamning markaziga madaniyatni qo‘yuvchilar
To‘g‘ri javob yo‘q

42.Quyidagi qatorlardan kimlar subyektiv idealistlar hisoblanadi?

Berkli, Yum, Fixte
Dekart, F.Bekon
Gegel, Berdyayev
Platon, Dekart

43. Mexanistik materializm tarafdorlari kimlar?

Golbax, Lametri, P.Gassendi
Gegel, Kant

Fixte, Yum
Berkli, Bekon

44.Antik falsafaning asosiy savoli?

Dunyo nimadan yaratilgan?
Hayot yashashga arziydimi?
Inson nima?
Xudoning borligini qanday asoslash mumkin?

45. «Do‘stlik - birga yashashning zaruriy shartidir» ushbu jumla kimga tegishli?

Arastu
Platon
Levkipp
Iskandar

46. «Odamlar seni bilmasliklaridan g‘am chekma, o‘zini odamlarni bilmaslngingdan g‘am chek» ushbu fikr kimga tegishli?

Konfutsiy
Lao Szi
Suqrot
Arastu

47. Milet maktab asoschisi kim?

Fales
Geraklit
Demokrit
Pifagor

48. Milet maktabining qaysi namoyandasi olamning asosiga suvni qo‘ygan.

Fales
Geraklit
Demokrit
Pifagor

49. Anaksimen olam asosiga nimani qo‘ygan.

Havoni
Suvni
Tuproqni
O‘tni

50. Olam asosiga apeyronni qo‘ygan G‘arb faylasufi kim?

Anaksimandir
Demokrit
Platon
Fales

51. Anaksagor urug‘larni nima deb atagan?

Geomemeriyalar
Geometriyalar
Sikloplar

Ximeyralar

52. Empidokl olov, havoni nima deb atagan?

Efir
Sfinks
Xufu
Xeops

53. Zardo‘shtiylikda borliqning substansional asosi nima?

Olov
O‘t
Tuproq
Havo

54. «Yuksak fazilatli inson bilan munosabatlarda xushmuomala bo‘lishi, mamlakatni boshqarishda izchnl bo‘lishi lozim, ishda imkoniyatlardan kelib chiqish, harakatda vaqtni hisobga olish ...» ushbu fikr muallifini toping?

Laotszi
Konfutsiy
Forobiy
Beruniy

55. Platonning g‘oyalar haqidagi ta’limoti qaysi asarlarida o‘z aksini topgan?

Bazm, Fedon, Fedor, Davlat
Metafizika, G‘oyalar haqida
Teatet, Parmenid
Sofist, Kritiy

56. Konfutsiychilik nechanchi asrda vujudga kelgan?

Mil.av V asr
Mil. av. VII asr
Mil. av. III asr
Mil.av. IV asr

57. Qaysi faylasuf, «Davlatni boy va zodagon kishilar emas, balki ishning ko‘zini biladigan oqil odamlar boshqarishi lozim», deb hisoblaydi?

Suqrot
Platon
Arastu
Epikur

58. «Ayni bir daryoga ikki marta tushishi mumkin emas, ikkinchi marta tushayotgan odamga yangi suvlar oqadi», degan fikr qaysi faylasufga tegishli?

Geraklit
Suqrot
Arastu.
Platon

59. «Dialektika» so‘zini ilk bor kim ishlatgan?

Suqrot

Platon
Empidokl
Epikur

60. Zenonning dialektikaga bag‘ishlangan mashhur asari?

Baxslar
Munozaralar dialektikasi
Qarama qarshilik dialektikasi
Dialektika

61. G‘arbiy Ovrupo Uyg’onish davri falsafasining asosiy xususiyatlari nimada?

Barcha javoblar to‘g‘ri;
Bu falsafa asosiy e’tiborni inson muammosiga oid masalalarga qaratadi;
Fan va texnika rivoji uchun diniy g’oyaviy to‘siqlarni olib tashladi;
Xristian dini ta’siri doirasidan chiqib ketdi;

62. XX asr tarixga qanday asr bo‘lib kiradi?

Jahon urushlari asri bo‘lib kiradi;
Termoyadro urush xavf-xatari asri bo‘lib kiradi;
Milliy-ozodlik harakatlari asri bo‘lib kiradi;
Ogohlantirish asri bo‘lib kiradi.

63. Germenevtika» so‘zining ma’nosi nima?

Talqin qilish san’ati
Tushuntirish falsafasi
Tushunish falsafasi
Barchasi to‘g‘ri

64. Germenevtikaga kim asos solgan?

J.Berkli
F.Shleyermaxer
K.Yung
K.Popper

65. Postpozitivizm oqimining yirik vakillari kimlar?

F.Nitsshe, O.Shpengler, A.Bergson, A.Shopengauer
Karl Popper, Jorj Soros
Anri Avenarius, Bertran Rassel
M.Sheler, G.Plesner, A.Gelen

66. Eng yangi G‘arb falsafasi ko‘pgina oqimlarning o‘z dunyoqarashlarida qo‘llagan uslublari qaysi bandda to‘g‘ri ko‘rsatilgan:

Materializm
Irratsionalizm
Ratsionalizm
Ruhiy tahlil

67. ”Har bir narsa o‘z-o‘zicha va boshqa narsalardan ayni” bu fikr muallifi kim?

Platon
Suqrot

Zenon
Epikur

68. «Ontologiya» atamasi qaysi so‘zdan olingan?

Yunoncha «ontos» - borliq, «logos» - so‘z, ta’limot.
Lotincha «ontos» - borliq, «logos» - so‘z, ta’limot.
Arabchadan olingan
To‘g‘ri javob yo‘q.

69. Borliq haqidagi tasavvurlar bizgacha qanday yetib kelgan?

Afsonalar va miflar orqali
Ilmiy dalillar orqali
Qadriyatlar, urf - odatlar orqali
To‘g‘ri javob yo‘q.

70. Upanishadalarda dunyo haqidagi qanday tasavvurlar o‘z aksini topgan?

Materialistik va ateistik
Deistik
Ateistik
To‘g‘ri javob yo‘q.

71. «Hamma narsa yer va suvdan vujudga keladi va rivojlanadi, hatto «biz ham yer va suvdan paydo bo‘lganmiz» kimning fikri?

Ksenofan
Anaksimandr
Fales
Pifagor

72. «Hamma narsa sondir» kimning fikri?

Pifagor
Fales
Anaksimandr
Ksenofan

73. Faylasuflar orasida birinchi bo‘lib, borliqni kategoriya sifatida kim tavsifladi?

Parmenid
Anaksimandr
Fales
Pifagor

74. Borliqni tushunishga nisbatan dialektik yondashuvni ilk bor kim ilgari surdi?

Geraklit
Fales
Anaksimandr
Ksenofan

75. Sharq mutafakkirlaridan kim borliq muammosini hal qilishda «Vujudi vojib» va «Vujudi mumkin»ning o‘zaro nisbatiga murojaat qiladi?

Forobiy
Al-Xorazmiy

At-Termiziy
To‘g‘ri javob yo‘q.

76. Ibn Sino fikricha, «Vujudi vojib» qanday talqin qilingan?

Allohdir
Insondir
Makon
To‘g‘ri javob yo‘q

77. XVII-XVIII asr materialistik faylasuflari borliq tushunchasini qanday talqin qilishadi?

Fizik borliq bilan bog‘laydi
Materiya bilan bog‘laydi
Inson bilan bog‘laydi
To‘g‘ri javob yo‘q

78. «Substansiya» - bu nima?

Dunyoni tushunish zamirida yotuvchi, nisbatan barqaror va mustaqil holda mavjud mohiyat
Mutlaq «Men»ning erkin, sof faoliyati
Ob’yektiv rivojlanuvchi g‘oya
To‘g‘ri javob yo‘q

79.Neopozitivizm falsafiy yo‘nalishi borliq muammosini qanday talqin qildi?

Soxta muammo
Haqiqiy muammo
Yechimi yo‘q muammo
To‘g‘ri javob yo‘q

80. «... menimcha, falsafa va fan ayni bir jarayonning tomonlari - muqarrar va ajralmas tomonlardir. Ular faqat bizning aqlimnzga ajraladi...» kimning fikri?

V.I.Vernadskiy
F.Bekon
T.Gobbs
Spinoza

81. Borliqning asosiy kategoriyasi nima?

«Borliq» va «Yo‘qlik»
«Sifat» va «Miqdor»
«Makon» va «Zamon»
To‘g‘ri javob yo‘q.

82. Falsafada borliq va yo‘qlik o‘rtasidagi o‘zaro aloqa qanday?

Dialektik
Ziddiyatli
Chambarchas
To‘g‘ri javob yo‘q.

83. «... - falsafiy kategoriya sifatida dunyoni, uning butun rang-barangligi va turli-tuman namoyon bo‘lish shakllari bilan yaxlit aks ettirish imkonini beradi», bu nima?

Borliq
Yo‘qlik
Bilish
To‘g‘ri javob yo‘q.

84. Borliqning shakllari nechtaga bo‘linadi?

4 ta
3 ta
2 ta
5 ta

85. «... - inson va uning faoliyatidan qat’i nazar mavjud bo‘lgan narsalar va jarayonlar borlig‘i», bu nima?

Tabiat borlig‘i
Inson borlig‘i
Ma’naviy borliq
Ijtimoiy borliq

86. Ma’naviy borliq nechtaga bo‘linadi?

2 ta
3 ta
4 ta
5 ta

87. Individuallashgan ma’naviy borliq - bu nima?

Insonning ichki dunyosi
Insonning tashqi dunyosi
Ijtimoiy makon va vaqt
To‘g‘ri javob yo‘q

88. Dunyo moddiy jixatdan bir butun deganda nima tushuniladi?

Olam moddiy jixatdan bir butundir
Hamma narsalarning kelib chiqishi bir demakdir
Barcha jismlar doimiy xarakatda va taraqqiyotda
Bordan yo‘q bo‘lmaydi, yo‘qdan bor bo‘lmayd

89. Borliq nechta shaklda namoyon bỳladi?

4 ta shaklda
5 ta shaklda
7 ta shaklda
9 ta shaklda

90. Taraqqiyot nima?

U oldinlama xarakat bo‘lib, narsa va hodisaning yangi yuqori sifatga o‘tishidir
U harakatning bir turi
Taraqqiyot rivojlanish demakdir
Taraqqiyot inson omiliga bog’liq

91. Materiya qanday kurinishlarga ega?

Materiya modda va maydon kurinishlariga ega
Materiya qattiq kurinishga ega

Materiyani kurish mumkin emas
Materiya atom kurinishiga ega

92. H**arakatning ilmiy-falsafiy mazmuni qaysi javobda tugri kursatilgan?**

Rivojlanish va usish;
Oldinga ketish, kamayish va orqaga qaytish, yemirilish;
Olamda sodir bulayotgan har qanday uzgarish;
Narsalarning fazodagi ixtiyoriy joy almashtirishi

93. Bilish haqidagi ta'limot bu -...

Gnoseologiya
Ontologiya
Ideologiya
Epistemologiya

94. Ilmiy bilish qaysi tushuncha bilan nomlanadi?

Epistemologiya
Ontologiya
Ideologiya
Gnoseologiya

95. **Qaysi qatorda empirizm vakillari berilgan?**

Bekon, Lokk, Gobbs
Platon,Avgustin
Dekart, Gobbs
Volter, Kont

96. O'zini qurshagan dunyodagi narsalar va hodisalarni sezgilar orqali idrok etishga nima deb ataladi?

Persepsiya
Appersepsiya
Fatalizm
Formalizm

97. Borliqni anglashning g'oyalarini ifodalash nima deyiladi?

Appersepsiya
Persepsiya
Fatalizm
Formalizm

98. Optimizim nima?

Dunyoni bilish mumkinligini ta'kidlaydi
Dunyoni bilishni rad etadi
Xudoni tan olmaydi
To'g'ri javob yo'q

99. Dunyoni bilish mumkinligini rad etuvchilar kimlar?

Agnostiklar
Gnostiklar
Optimistlar
Skeptiklar

100. Bilimning necha turi mavjud?

3
4
5
2

101. Bilim bu - ...

Haqiqatga mos keladigan va asoslangan ishonchdir
Bilim - yolg‘on ma’lumot
Hali asoslanmagan fikr
Haqiqatga mos kelmaydigan fikr

102. «Agar R haqiqiy bo‘lsa, bu holda S R ni biladi». Bu shart bilimning qaysi turiga tegishli?

Haqiqiylik
Ishonchlilik
Asoslilik
Aniqlik

103. Amaliyot nima?

Amaliyot kishilarning maqsadga muvofiq, ishlab chiqarish faoliyatidir.
Amaliyot kishilarning moddiy va ma’naviy faoliyatidir.
Amaliyot bilimlar va tajriba majmuasidir.
Amaliyot kishilarning har qanday moddiy faoliyatidir.

104. Hissiy bilishning shakllarini aytib bering.

Sezgi, idrok, tasavvur
Sezgi va idrok.
Tasavvur va hukm.
Sezgi, idrok, tasavvur, hukm.

105. Ilmiy bilishning nazariy darajasi uslublarini aniqlang.

Abstraksiya, induksiya va deduksiy.
Induksiya, deduksiya, idellashtirish, abstraksiy.
Modellashtirish, mavhumlik va aniqlik, analogiy.
Analogiya, ideallashtirish, modellashtirish,
Sistemali yondashish. Mavhumlik va aniqlik, tarixiylik va mantiqiylik.

106. Bilish ob’yekti deganda nimani tushunasiz?

Bilish ob’yekti butun borliqdir.
Bilish ob’yekti faqat ob’yektiv reallikdir.
Bilish ob’yekti tafakkurdagi timsol (obraz)dir.
Bilish ob’yekti bilishga qaratilgan narsalar xalos.

107. Haqiqatga berilgan qaysi ta’rif to‘g‘ri?

Haqiqat ob’yektiv voqealikka mos keluvchi, amaliyotda sinalgan bilimdir.
Haqiqat insonga bogliq bo‘lmagan olam haqidagi bilimlar majmuidir.
Haqiqat bilimlarning ziddiyatsizligidir.
U bilimlarning samaradorligi, foydaliligidir.

108. Qaysi shakllar hissiy bilish bosqichiga tegishli?

Idrok.

Iroda.
Hukm.
Intuitsiy.

109. Ob’yektiv haqiqat nima?

Ob’yektiv haqiqat – voqealikni to‘g‘ri aks ettiruvchi bilim.
Ob’yektiv haqiqat - o‘zaro kelishuv va shartnomaning natijasidir.
Ob’yektiv haqiqat – bizning mutloq bilimlarimizdir.
Ob’yektiv haqiqat – tajribani oddiy va iqtisodiy tarzda ta’riflashdir.

110. Qaysi uslub ilmiy bilishning empirik darajasida qo‘llaniladi?

Kuzatish.
Aksiomatik
Sintez.
Analogiy.

111. Qaysi uslub ilmiy bilishning nazariy darajasida qo‘llaniladi?

Formallashtirish.
O‘lchash.
Eksperiment.
Taqqoslash.

112. Ilmiy bilish nimadan boshlanadi?

Ilmiy bilish ilmiy muammoni anglashdan boshlanadi;
Ilmiy bilish ilm olishdan boshlanadi;
Ilmiy bilish o‘zlikni anglashdan boshlanadi;
Ilmiy bilish ilmni anglashdan boshlanadi

113. Dialektika kategoriyalarini tizimga solish va formal man’tiqiy fikrlashning umumiy qonunlarini ishlab chiqishga urinish kimning ijodi bilan bog‘liq?

Aristotel
Platon
Suqrot
Demokrit

114. O‘z davrining fan yutuqlaridan hisoblangan modda va harakatning saqlanish g‘oyasini kim yaratgan?

Lomonosov-Lavu aze
Nyuton-Leybnits
Kant-Laplas
Eynshteyn

115. Kant kategoriyalarining necha turini farqlaydi?

3 ta
4 ta
5 ta
2 ta

116. Kant makon va vaqtni kategoriyalarning qaysi turiga kiritadi?

Hissiy
Idrok
Aql
Tasavvur

117. «Sof aqlning tanqidi» asarining muallifi kim?

Kant
Fixte
Shelling
Gegel

118. Shellining tabiatni tushuntirishda qaysi pozitsiyada turgan?

Pantestik
Ratsionalistok
B.Atestik
Dualistik

119. Dialektikani kim fanga kiritgan?

Gegel
Kant
Shelling
Fixte

120 .Gegel man'tiqni necha qismga bo'ladi?

3
4
5
2

121. Qaysi olim o'z ta'limotida «Inkorni-inkor» qonunidan foydalanadi?

Gegel
Kant
Shelling
Fixte

122. Gegel falsafasining 3-chi qismi nima?

Ruh falsafasi
Man'tiq
Naturfalsafa
Ilmiy falsafa

123. Fazo kategoriyasining falsafiy ma'nosi qaysi javobda tug'ri kursatilgan?

Narsa va hodisalarning kulami, uzaro joylashishi tartibini bildiradigan kategoriya;

Ichida turli yulduz va sayyoralarni qamrab olgan bushliq;

Predmetlar, narsalarning egallagan hajmini bildiradi;

Predmetlar, narsalarning uzoq-yaqin, baland-past, o'nga-chapda kabi holatlarda joylashishini bildiradi.

124. Taraqqiyot qayerda yuz beradi?

Taraqqiyot – tabiat, jamiyat va inson tafakkurida yuz beradi.

Taraqqiyot tirik va notirik tabiatda yuz beradi;
Taraqqiyot faqat tabiatda yuz beradi;
Taraqqiyot faqat inson tafakkurida yuz beradi;

125. Falsafa fanining juft kategoriyalari nimani ifodalaydi?

Falsafa fanining juft kategoriyasi narsalardagi ichki aloqadorliklar ifodasidir;
Ular olamdagi ziddiyatli xolatlar ifodasidir;
Falsafa fanining juft kategoriyalari qarama-qarshiliklar ifodasidir;
Falsafaning juft kategoriyalari olamdagi ziddiyatli va sababli boglanishlar ifodasidir;

126. Falsafa fanining juft kategoriyalari nechta turkumga ajratiladi?

3 ta;
10 ta;
4 ta;
7 ta.

127. Kategoriya nima?

Vokelik va bilish hodisalarining eng umumiy va muxim xossalarini, sababli boglanishlari,munosabatlarini ifodalaydi;
Real olamdagi hodisalarning umumiy xossalarini aks ettiradi;
Vokealik va bilish hodisalarining belgilarini, munosabatlarini rivojlantiradi;
Tafakkur olamiga xos umumiy belgilar, ifodasidir.

128. Qaysilar falsafa fanining kategoriyalari?

Sifat, meyor, xossa, ayniyat, miqdor, borliq, materiya, fazo va vaqt, tafovut, qarama-qarshilik,
Borliq, materiya, bilish, uslub, tamoyil, ong, fazo va vaqt, miqdor, ekologiya, tabiat, xarakatziddiyat, inkor, vorislik
Materiya, sifat, miqdor, tafovut, inson, xaqiqat, bilis

129.Agnostiklarning eng yirik vakili kim?

Kant
Shelling
Gegel
Fixte

130.Dunyo bilan o‘zaro aloqa qilish tajribasini umumlashtiruvchi hodisa bu -...

Fikrlash
So‘zlash
Idrok etish
Sezish

131.Borliq hodisalari va unda hukm suruvchi munosabatlarning muhim, tipik mazmunini o‘zida aks ettiradigan keng tushuncha bu - ...

Kategoriya
Atama
Xulosa
Tushuncha

132.Borlnqning umumiy, muhim tomonlari, xossalari, aloqalari va munosabatlari haqida fikrlash uchun qo‘llaniladigan o‘ta keng tushunchalar majmui, bu -...

Falsafiy kategoriyalar
Fan kategoriyalari
Umumiy kategoriyalar
Atamalar

133.Falsafiy kategoriyalar va formal mantiq kategoriyalari o‘rtasida farqning yuzaga kelishiga qaysi faylasufning ijodi ta’sir qilgan?

Aristotel
Spinoza
Gegel
Kant

134.I.Kant kategoriyalarning necha turini farqlaydi va ular qaysilar?

Uch, hissiyot, idrok va aql
Ikki, sezgi va tafakkur
To‘rt, hissiy, ratsional, irratsional va transsendental
Faqat bitta

135. Ma’daniy tarixiy tiplar nazariyasi qachon vujudga keldi?

XIX asr
XVII asr
XVIII asr
XX asr

136. «Ma’daniy-tarixiy tiplar» tushunchasi kim tomonidan fanga kiritilgan?

N.Y.Dostoyevskiy
P.A.Sorokin
Gegel
T. Kun.

137. Qaysi olim jamiyatni gorizontal-vertikal yo‘nalishlar va fluktuatsiya tarzida, murakkab xarakterda bo‘lgan ijtimoiy ma’daniy tizimlarning rang-barangligini tan olish nuqtai nazaridan tavsiflagan?

P.A.Sorok
O.Shpengler
A.Toynbi
Danilevskiy

138. «Materializmdan inson ruhining tabiatini tushuntiruvchi tamoyil sifatida foydalanish hech qachon mumkin emas».- Ushbu so‘zlarning muallifi kim?

Kan
Diltey
K.Marks
Xaydegger

139. K.Marks nazariyasiga koʻra insoniyatning paydo boʻlishiga asosan qaysi omillar rol oʻynagan?

Mehnat va burro nutq.

Iqtisod

Ehtiyoj

Din

140. Y.Xayzinga qaysi maʼdaniyatga insonni shakllantiruvchi asosiy tamoyil sifatida qaraydi?

Oʻyin va oʻyin faoliyati

Mehnat

Din

Toʻgʻri javob yoʻq

141. Jamiyatni muhim kichik tizimlarini koʻrsating?

Iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, maʼnaviy

Oilaviy, moddiy, siyosiy

Harbiy, mahalliy, iqtisodiy

Barcha javoblar toʻgʻri

142. Iqtisodiy kichik tizim bu - ...

Ishlab chikarish faoliyatini va kishilarning bu jarayondagi munosabatlari shakllarning majmuidir

Siyosiy munosabatlar majmui

Harbiy munosabatlar majmui

Moddiy ishlab chiqarish va diniy munosabatlar majmui

143. Tarixiy jarayonlarning subyekti kimlar?

Tarixiy jarayonlarning subyekti oʻz sotsial qiyofasiga ega boʻlgan xalq ommasidir;

Tarixiy jarayonlar subyekti jaʼmiki odamlar;

Tarixiy jarayonlar subyekti tarixiy shaxslardir;

Tarixiy jarayonlar oʻz ichki qonunlari bilan boradi.

144. Shaxs nima?

Shaxs muayyan sotsial birlik manfaatlarini toʻlaroq anglab, jamoani maʼlum maqsad yoʻlida uyushtira oladigan insondir.

Shaxs jamiyatdagi faol insonlardir;

Shaxs tarixiy jarayonlarni u yoki bu tomonga ogʻdirib yuboradigan kishilardir;

Shaxs betakror xususiyati tufayli individuallikdir;

145. Jamiyat nima?

Jamiyat oʻzini-oʻzi tashkilotchi va boshqaruvchi tizim;

Jamiyat odamlarning tarixiy uyushmasi;

Jamiyat ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar majmuasi;

Jamiyat odamlarning shartnoma asosida birlashgan uyushmasi.

146. Xar qaysi davlat va millat nimasi bilan kuchli?

Yuksak maʼdaniyati va maʼnaviyati bilan.

Xarbiy saloxiyoti bilan;
Yer osti va yer usti boyligi bilan;
Yuksak ishlab chiqarish saloxiyoti bilan;

147. Xozirgi paytda bizning jamiyatimiz qayoqqa qarab harakat qilmoqda?

Mulkchilik shakllariga ega bo‘lgan fuqarolik jamiyatiga
Sotsializmni yangilashga tomon
Kapitalizm tomon.
Texnologik sivilizatsiya tomon

148.Bilimning integral shakli sifatida falsafa qanday muayyan ilmiy tasavvurlarni sintez qiladi?

Ijtimoiy tarix, inson haqidagi tarix
Geografiya
Jamiyat, din, tarix
Hamma javoblar to‘g‘ri.

149.«Ilohiy shahar haqida» asarning muallifi kim?

Avgustin
Akvinskiy
Gegel
Nitsshe

150.Qaysi faylasuf tarixga mutlaq ruh, amaliy aql taraqqiyoti sifatida yondashadi?

Gegel
Kant
Didro
Kandorse

151.Tarix mazmuni tushunchasining eng teran talqinlarini qaysi faylasuf taklif qilgan?

K.Yaspers
Sartr
Nitsshe
Kant

152.N.Berdyayevga ko‘ra tarix mazmunini qachon aniqlash mumkin?

Tarix tugagandan keyin
Tarixni boshlanishida
Uning davomida
To‘g‘ri javob yo‘q

153.Sotsiologiyaning fan sifatidagi asoschisi kim?

O.Kont
T. Kun
Kant
Gegel

154.Tarixni O.Kont necha qismga bo‘ladi?

2
3
5
4

155.Ijtimoiy statistika bu -...

Odam organizmining tuzilishiga o‘xshab ketadigan jamiyat «ontologiya»sidir

Jamiyatning rivojlanish va o‘zgarish qonunlarini o‘rganish

Davlatning muhim instituti

Hamma javoblar to‘g‘ri

156. «Inson o‘zini dunyodan oldinroq va ko‘proq biladi, ayni shu sababli u dunyoni o‘zidan keyin va o‘zi orqali anglab yetadi». Ushbu fikrning muallifi kim?

N.A.Berdyayev

V.Solovyev

V.Kuznetsov

A.Chumakov

156.«Inson-mashina» asarining muallifi kim?

J.Lametri

Dj.Berkli

Dj.Bruno

B.Spinoza

157.Insonning paydo bo‘lishi haqidagi evolyusion konsepsiya asoschisi kim?

Ch.Darvin

K.Linney

CH.Pirs

A.Eynshteyn

158.Insonni o‘rganishning introvertiv yondashuvi vakillari to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping?

M.Sheler, A.Gelen, K.Lorens

N.A.Berdyayev, A.Gelen, K.Lorens

S.L.Frank, L. P.Karsavin, S.N.Bulgakov

N.O.Losskiy, L. P.Karsavin, S.N.Bulgakov

159.Falsafa tarixida inson haqidagi qarashlarni «antropologik materializm» sifatida baholagan faylasuf kim?

L.Feyerbax

I.Kant

V.Gegel

F.Nitsshe

160.«Odamlar o‘zlarining xos xususiyatlariga va tabiiy ehtiyojlariga ko‘ra jamiyat tuzadilar. Ularning harakat va fe’llarini dastavval bora-bora odatlarga aylanadigan tabiiy qobiliyatlar belgilaydi». Mazkur fikr muallifi kim?

A. Forobiy
Beruniy
Navoiy
Ibn Sino

161.Quyida keltirilgan fikrlardan qaysi biri antik davrda Defidagi Apollon ibodatxonasiga kiraverishda ustunga o‘yib yozilgan?

«O‘z-o‘ziningni anglash»
«Boshqalarni biluvchi - oqil, o‘zini biluvchi - donishmanddir»
«Kimki o‘zini bilsa, u o‘z Allohni ham bilgaydir»
«Inson barcha narsalar mezonidir»

162.«Inson barcha narsalar mezonidir» iborasining muallifi kim?

Protagor
Aflotun
Lao Szi
Suqrot

163.Jahon fanida birinchi marta inson va tabiat, odam va olam o‘rtasidagi munosabatlarni dunyoviy fan nuqtai nazaridan o‘rgangan Sharq mutafakkiri kim?

Beruniy
Ibn Sino
Forobiy
Navoiy

164.Falsafa tarixida insonni «tabiat xalturasi» deb atagan faylasuf?

Shopengauer
Linney
T.de Sharden
A.Eynshteyn

165. Ong nima?

Barcha javoblar to‘g‘ri
Yuksak darajada tashkil topgan materiya
Inson miyasining mahsuli
In’ikosning oliy ruhiy shakli

166. Ongning tarkibiy unsurlariga nimalar kiradi?

Sezgi, idrok, tasavvur, fikr, his-hayajon, iroda
Sezgi, idrok, tasavvur
Tushuncha, hukm, idrok, tasavvur

Iroda, bilish, his qilish

167. Ijtimoiy ong shakllarini ko‘rsating?

Siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik va diniy
Diniy, falsafiy, siyosiy, huquqiy
Ijtimoiy, axloqiy, ruhiy, ma’naviy
Siyosiy, matematik, fizik, ximik, estetik

168. Ong sohalarini ko‘rsating?

Kundalik va nazariy
Ilmiy, nazariy va eksperiment
Tarbiyaviy, axloqiy va nazariy
Ilmiy va empirik

169. Ong insonni nimaga chorlaydi?

Ong insonni o‘z-o‘zini anglashga chorlaydi
Insonni o‘zligidan yiroqlashishga olib keladi
Insonni turli xil faoliyatga undaydi
Ong voqe’likni analiz qiladi

170. Ongni tarixiy shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar.

Til, mehnat va nutq
Hissiyot, bilim va aql
Ijod, nazariya va bilim
Ong o‘z-o‘zidan tarqqiy etaveradi

171. Individual ong bilan ijtimoiy ong farqi nimada?

Biri yakkalikni ikkinchisi umumiylikni ifodalaydi
Ikkalasi ham umumiy mazmun-mohiyatga ega
Falsafada buning ahamiyati yo‘q
Hech qanaqa farq yo‘q

172.Insonning ong, jon, ruhiyat, instinktlar, nuqsonlar, fazilatlar kabi muhim xususiyatlarini tahlil etib, uni «ichdan» tushunish, anglab yetishni nazarda tutadigan falsafiy qarash qanday ataladi?

Introvertiv
Ekstravertiv
Sotsiologizatorlik
Biologizatorlik

173.Insonni o‘rganishning ekstravertiv yondashuvi vakillari to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping?

N.A.Berdyayev, S.N.Bulgakov, S.L.Frank, N.O.Losskiy
N.A.Berdyayev, A.Gelen, K.Lorens, M.Sheller
S.L.Frank, L. P.Karsavin, S.N.Bulgakov, K.Lorens
N.O.Losskiy, L. P.Karsavin, S.N.Bulgakov, A.Gelen

174 .Insonning yetuk organizmi taxminan qancha xujayradan iborat ekanligi aniqlangan?

50000 milliard
110000 million
200 milliard

30000 milliard

175.Inson mohiyatini tahlil qilish go‘yoki «sirtdan» amalga oshiriladigan, buning natijasida diqqat markazidan, uning ijtimoiy va tabiiy mohiyati o‘rin oladigan falsafiy qarashni aniqlang.

Ekstravertiv
Introvertiv
Kontrreduksiya
Sistemali yondashuv

176.Qadimgi Hind falsafasiga qanday falsafiy qarash xos?

Antropotsentrizm
Teotsentrizm
Okkultizm
Ssiyentrizm

177.Insonning ichki dunyosini birinchi o‘ringa qo‘yish qaysi falsafiy konsepsiyaga xos deb hisoblaniladi?

Antropotsentrizm
Teotsentrizm
Kosmotsentrizm
Ssiyentrizm

178.XIX asr oxiri - XX asr boshlarida keng tarqalgan «inson irsiyatining oliy sifati»ga qanday vositalar bilan va qay tarzda erishish mumkinligi haqidagi ta’limot nima deyiladi?

Yevgenika
Genetika
Transplatatsiya
Mutatsiya

179.Insonning alohida borliq manbai sifatida kelib chiqishi, tadrijny rivojlanishi va mavjudligining o‘ziga xos xususiyatlariga doir falsafiy qarashlarni aks ettiruvchi soha?

Falsafiy antropologiya
Teologiya
Praksiologiya
Biositsiologiya

180. Falsafaning fandan ustunligi nimada?

Etiborni ishning mohiyatiga qaratish
Xulosalarni tafsilotlarga qaratish
Muayyan dalillarga tayanish
Etiborni ishning ko‘zga ko‘rinmas ayrim jihatlariga qaratish

181. Dunyodagi o‘zgarishlarning butun majmui, shuningdek, ularning sabablari nechanchi yillardan «globallashuv» deb nomlangan?

1990-yillarda
1985-1990-yillarda
1980-yillarda
2000-yillardan boshlab

182. Globalistika zamirida qanday jarayonlar yotadi?

Qarama-qarshi jarayonlar va integratsiya

Ilmiy bilishning tabaqalashuvi
Turdosh fanlarning tutashishi
To‘g‘ri javob yo‘q

183. Globalistika mustaqil ilmiy yo‘nalish va ijtimoiy amaliyot jabhasi sifatida nechanchi yildan shakllana boshlagan?

1960-yillardan
1980-yillardan
1970-yillardan
1990-yillardan

184. Hozirgi globallashuv jarayonlarining ilk nishonalari nechanchi asrlardan boshlab kuzatilgan?

XV asr oxirlaridan
XVIII asr boshidan
XVIII asr o‘rtalaridan
XIX asrdan

185. Globallashuv jarayonlarining amalda real shakl-shamoyili qachondan boshlab ko‘zga ko‘ringan?

XIX asr boshida
XV asr oxirida
XVIII asrda
XVIII asrda

186. Fundamental globallashuvning ilk alomatlari qachondan kuzatilgan?

XIX asrning 2-yarimi
XX asr o‘rtasi
XIX asr oxiri
XVIII asr

187. Qaysi davrda dunyoni iqtisodiy bo‘lib olish yakunlandi?

XX asrning o‘rtalarida
XX asr oxiri
XVIII asrda
XIX asrda

188. Qaysi davr oralig‘ida globallashuv jarayonlari yanada kuchliroq namoyon bo‘ldi?

I va II jahon urushi oralig‘ida
XV asr oxiri XXasr 20-yillari
XXasr boshidan XXI asr boshigacha
XIX asr oxiri va XX asr 2-yar

189.Nechanchi yildan globallashuv serqirra tus oldi?

1970-yildan
1950-yildan
1980-yildan
1940-yildan

190.Globallashuvning qaysi boskiqda global ong ijtimoy ongning yana bir shakli sifatida paydo bo'ldi?

Serqirra globallashuv
Fundamental globallashuv
Ilk globallashuv
Urush yillarida

191.Iqtisodiy integratsiyalashuv, pul unikatsiyalashuvi, ommaviy madaniyat va unga mos emas madaniyatning shakllanishi qaysi davrga xos?

Serqirra globallashuv
Fundamental globallashuv
Ilk globallashuv
Urush yillarida

192.Nechanchi yildan dunyo informatsion jihatdan uzil-kesil tutashgan?

1991-yildan
1985-yildan
1998-yildan
1992-yildan

193.«XX asrda umumjahon tarixi boshlandi» degan xulosa kimga tegishli?

A.Toynbi
K.Yaspers
U.Cherchill
U.Klinton

194.Kim tomonidan «Shu davrdan e'tiboran (ikkinchi jahon urushi tugagach), yaxlit bir butunning yagona tarix sifatidagi jahon tarixi boshlanadi» degan fikr aytilgan?

K.Yaspers
A.Toynbi
U.Cherchill
Katta J.Bush

195.Ilk texnokratik va ijtimoiy nazariyalar qachondan paydo bo'ldn?

XX asrda
XXI asrda
XIX asrda
XIX asr oxirida

196.Texnokratik nazariyani birinchi bo‘lib falsafiy jihatdan asoslab bergan sotsiolog kim?

T.Rebvik
A.Toynbi
K.Yaspers
P.Teyyar de Sharden

197.Biosferaning tarkibiy qismi sifatida insonning betakrorligini asoslab olish kim tomonidan ilgari surilgai?

P.Teyyar de Sharden
A.Toynbi
K.Yaspers
B.Veblen

198.Texnooptimistik kayfiyat qachon kuchaygan?

1950-1960-yillar
1940-1950-yillar
1980-yillar
1970-yillar.

199.«Men fikrlayapman, demak, men mavjudman» iborasi muallifi kim?

Dekart
Spinoza
Kant
F.Nitsshe

200. Dualizm atamasini falsafaga kiritgan faylasuf kim?

Volf
Lametri
Kant
Nitsshe

Tavsiya etilayotgan Yakuniy nazorat savollari? (85-ta +55ta din.+9= 149)

1. Falsafa fanining predmeti, mazmuni va jamiyatdagi roli?
2. Falsafa fanining funksiyalari?
3. Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari: Sharq falsafasi?
4. Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari:G`arb falsafasi?
5. Borliq – falsafa kategoriyasi?
6. Bilish nazariyasi, yo`nalishlari va asosiy muammolari?
7. Falsafa metodlari?
8. Falsafa qonunlari?
9. Falsafa fani kategoriyalari?
10. Tarixiy jarayonda jamiyatning madaniy va ma`naviy qadriyatlari?

11. Jamiyat va tarix falsafasi?
12. Falsafiy antropologiya (Inson falsafasi)?
13. Globallashuv va global muammolarning falsafiy muammolarning falsafiy jihatlari?
14. Mantiq ilmining predmeti, asosiy qonunlari?
15. Tushuncha tafakkur shakli sifatida?
16. Mulohaza?
17. Xulosa chiqarish?
18. Argumentlash va bilimlar taraqqiyotining mantiqiy shakllari?
19. “Etika” fanining predmeti va jamiyat hayotidagi ahamiyati?
20. Nikoh va oilaning axloqiy asoslari, uning yoshlar tarbiyasidagi o`rni?
21. Axloqiy madaniyat va qadriyatlar?
22. Estetikaning predmeti, maqsadi va vazifalari?
23. Tabiat va texnogen sivilizatsiya estetikasi?
24. Estetikaning zamonaviy muammolari?
25. Korrupsiyaning shakllanishining tarixi.BMT Kodeksida korrupsiyaga munosabat?
26. Korrupsiya shakllanishining tarixi?
27. Kasbiy odobning axloqiy madaniyat bilan uyg`unligi?
28. Ekoestetikaning XXI asr ilmiy-texnik taraqqiyotdagi o`rni?
29. Shaxsni estetik tarbiyalashda fan, ta`lim va madaniyatning o`zaro bo`gliqligi?
30. Dizaynning estetik xususiyatlari?
31. DINSHUNOSLIK FANIDAN YAKUNIY NAZORAT SAVOLLARI
32. 1. Dinshunoslik faniga kirish
33. 2. Dinning mohiyati, tuzilishi va funktsiyalari
34. 3. Dinning ijtimoiy hayotdagi o‘rni
35. 4. Urug‘-qabila dinlari
36. 5. Milliy dinlar
37. 6. Buddizm jahon dini
38. 7. Xristianlik jahon dini
39. 8. Islom dini
40. 9. Islom ta'limoti
41. 10. Islomdagi mazhablar va yo‘nalishlar
42. 11. Tasavvuf ta'limoti va tariqatlari
43. 12. ”Avesto”da inson va jamiyat ma'naviy kamolati masalalari talqini.
44. 13. Xalqimiz ma'naviy yuksalishida dinlarning o‘rni
45. 14. Zardushtiylik dini. Avesto – xalqimiz diniy, axloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etadigan bebaho ma'naviy meros.
46. 15. O‘zbekistonda vijdon erkinligi
47. 16. Diniylik va dunyoviylik muammosi

48.17. Globallashuv va din
49.18. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash: O‘zbekiston tajribasi
50.19. Jahon dinlarining ma'naviy jihatlari.
51.20. Islomda oila masalasi
52.21. Din va unga berilgan ta'riflar.
53.22. Dinning jamiyatdagi vazifalari
54.23. Dinning nazariy va falsafiy jihatlari.
55.24. Dinlarning tarixiy-geografik va etnik tasnifi.
56.25. Totemizm – ilk diniy tasavvurlardan biri.
57.26. Animizm va fetishizmning mohiyati.
58.27. Shomonlikda afsungarlik holatlari.
59.28. Yahudiylik – millat dini.
60.29. Hinduiylikdagi uchlik(trimurti) xudolari.
61.30. Konfutsiy – din asoschisi.
62.31. Lao-Tszining falsafiy va axloqiy qarashlari.
63.32. Zardushtiylikning vujudga kelishi.
64.33. “Avesto”– zardushtiylikning asosiy manbasi.
65.34. “Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” tushunchasining mazmun-mohiyati.
66.35. Buddaviylik asoschisining shaxsi.
67.36. “Pancha shila” – axloq normalari.
68.37. Meditatsiya – buddaviylikning muhim qoidalari.
69.38. Nirvana holati insonning oliy saodati.
70.39. Iso Masih (Iisus Xristos) hayotiga doir ma'lumotlar.
71.40. Xristianlikdagi oqimlar.
72.41. Islomning vujudga kelishi va tarqalishi.
73.42. Qur'on Sharq xalqlarining diniy, ilmiy va ma'naviy merosi sifatida.
74.43. Hadislarda milliy va diniy qadriyatlarning aks etishi.
75.44. Vijdon va e'tiqod erkinligi haqida.
76.45. O‘zbekiston Respublikasida din va diniy tashkilotlar.
77.46. O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik.
78.47. “Fundamentalizm”, “ekstremizm”, “fanatizm” tushunchalari.
79.48. Terrorizmga qarshi kurashda dinning ahamiyati.
80.49. Islomdagi mutaassib firqa va oqimlar.
81.50. “Jaholatga qarshi ma'rifat” shiorining mazmun-mohiyati.
82.51. Dinning ijtimoiy taraqqiyotdagi roli.
83.52. Hozirgi davrda dinning ijtimoiy ahamiyati.
84.53. Din funktsiyalarining xilma-xilliligi.
85.54. Din ijtimoiy o‘zgarishlarning omili.
86.55. Dinning tarixiy ahamiyati

1. Korrupsiyaning tarixiy ildizlari nivalardan iborat?
2. korrupsiyaga qarshi kurash usullari haqida nimalarni bilasiz?
3. Ikki xil ma’noni anglatuvchi qonunlar nima?
4. Aholi huquqiy savodxonligining pastligi haqida nimalarni bilasiz?
5. Mamlakatdagi siyosiy vaziyatning notinchligi nima?

6. Ijro hokimiyatining birligi tamoyilinining buzilishi haqida?
7. Ichki va Tashqi nazorat nima?
8. Saylov tizimi orqali kurashishni qanday tushinasiz?
9. Korrupsiya nima?

Tavsiya etilayotgan Yakuniy nazorat test savollari? (202-ta +45ta din+5ta korrup=252)

1. Muammolar qo‘yish va ularni yechishga qaratilgan faol jarayon qanday nomlanadi?

Tafakkur
Izlanish
Tasdiqlash
Isbotlash

2. Man’tiqiy tafakkur nima?

Tafakkur qoidalari, qonunlari va tomonlariga muvofiq bir haqiqatni boshqa yanada teranroq haqiqatga intilishdir

Borliq yoki uning ayrim xossalari haqida tasavvurning shakllanishiga imkoniyat yaratuvchi axborot

Yechimini topish muhim amaliy yoki nazariy ahamiyatga ega bo‘lgan masala yoki masalalar to‘plami

Muhim xossalar va munosabatlar majmui

3. Ob’yektiv borliq jarayonlarning aloqasi, ularning rivojlanishi o‘ziga xos narsalar man’tig‘i nimani tashkil etadi?

Ob’yektiv man’tiqni
Nisbiy haqiqatni
Ob’yektiv haqiqatni
Sub’yektiv man’tiqni

4. Tushuncha bu - ...

Narsalar va hodisalarning umumiy, muhim xossa va aloqalari aks etuvchi fikr

Fikrning shunday bir shakli, unda tushunchalarni bog‘lash yo‘li bilan biror narsa haqidagi biron-bir fikr tasdiqlanadi yoki rad etiladi

Mushohadaning nisbatan tugallangan birligi

Murakkab narsani oddiy narsaga aylantirish oliy darajasi

5. «Eydos» atamasi qanday ma’noni bildiradi?

Ko‘rinish obrazi»
«Tasavvur»
«His qilish»
Barcha javoblar to‘g‘ri

6. Bilishning empirik va boshqa darajalarining ma’nosidagi farqlar qachon aniqlangan?

XX asrning 30-yillarida
XIX asrning 80-yillarida
XX asrning 20-yillarida
XX asrning 50-yillarida

7. Haqiqatni man'tiqiy dalillar yordamisiz anglab yetish qobiliyati nima deb ataladi?

Intuitsiya
Xulosa
Tafakkur
Sezgi

8. Yangi davrda intellektual intuitsiya haqidagi ta'limot kimlar tomonidan yaratilgan?

Dekart, Spinoza, Leybnis
Dekart, Yum, Bergson
Yum, Berkli, Lessing
Sheler, Lametriy, Golbax

9. Bevosita bilim va sezgi a'zolari orqali bilishni rad etgan va sezgilarni soxta deb e'lon qilgan Levkipp va Demokrit qaysi maktab vakillari bo'lganlar?

Eley maktabi
Pifagor maktabi
Kinik maktabi
Kiren maktabi

10. Qaysn faylasufning fikricha, «Aql-sezgi a'zolari faoliyatining haqiqiy natijalarni uzluksiz qayd etuvchi ko'zgudir».

J.Lokk
Spinoza
Leybnits
Gassendi

11.«Uning kuchi tajribada mavjud obrazlarni nafaqat qayta chaqiradi, balkn ularni bir-biri bilan bog'laydi va shu tariqa ularni umumiy tasavvurlar darajasiga ko'taradi». Bu fikr bilishning qaysi shakliga tegishli?

Hayol
Xotira
Tasavvur
Idrok

12.Ilmiy bilnsh darajalarini ko'rsating.

Empirik va nazariy
Hissiy va amaliy
Transendental va aqliy
Empirik va amaliy

13.Empirik bilnsh shakllarini sanab o‘ting?

Kuzatish, eksperiment, ilmiy dalillash

Modellashtirish tarixiy analogiya, bashorat

Ilmiy muammo, muammoli vaziyat, tarixilik

Gipoteza, paradigma, nazariya

14.Empirik bilishning qaysi shakli tabiatning o‘zida mavjud narsalar va hodisalarni qayd etadi?

Kuzatish

Eksperiment

Ilmiy dalillash

Modellashtirish

15.Eksperimentga to‘g‘ri ta’rif berilgan javobni ko‘rsating.

Shunday tadqiqot metodi, uning yordamida obyektiv, yo subyektiv tarzda yoritiladi, yo tadqiqot maqsadlariga mos keladigan ma’lum shart-sharoitlarda o‘rganiladi

Bilish obyektning muhim hossalari va munosabatlarini aniqlash maqsadida ataylab amalga oshiriladigan izchil idrok etishdir

Bilishning tasdiqlangan boligiga aylangan moddiy va ma’naviy dunyo hodisasi, biron-bir hodisa, hossa yoki munosabatni qayd etishdir

Bilishning rivojlanish jarayonida obyektiv tarzda yuzaga keladigan yechimning topish muhim amaliy yoki nazariy ahamiyatga ega bo‘lgan moslama yoki masalalar majmuidir

16.Qaysi faylasuf, fon dalillardan boshlanishi va boshlanish tugallanish o‘rtasida qanday nazariy tuzilmalar bo‘lishidan, tuzilishidan qat’i nazar, dalnllar bilan yakunlanishi lozim, degan fikrni ilgar surgan?

A.Eynshteyn

I.Kant

F.Shelling

I.Nyuton

17.Ilmiy dalilning ikki muhim xossasi qaysi javobda to‘g‘rn ko‘rsatilgan?

Ishonchlilik va bir variantlilik

Ishonchlilik va variantlilik

Isbotlanganlik va betakrorlik

Tasdiqlanganlik va variantlilik

18.Ilmiy dalillar nazariyaga nisbatan qanday vazifalarni bajaradi?

Verifikatsiya va falsifikatsiya

Umumlashtirish va tasdiqlash

Isbotlash va inkor qilish

Saqlash va yetkazish

19. .....fanda - biron-bir hodisalar, obyektlar, jarayonni tushuntirishda qarama-qarshi yondashuvlar koʻrinishida amal qiluvchi va uni yechish uchun muvofiq nazariyani talab etuvchi ziddiyatli holatdir.

Muammo
Dalil
Paradigma
Gipoteza

20.Ilmiy muammo boshqa muammolardan qanday belgilari bilan ajralib turadi?

Haqiqiy va yangi bilim olishga chorlash hamda yangilik sari intilish bilan
Ilmiy muammolar faqat tabiiy fanlarga taalluqli boʻlganligi bilan
Ilmiy muammolar borliqni butunligiga qamrab olganligi bilan
Toʻgʻri javob A va B

21.Asosiy nazariy bilim, ilmiy dalillarni tushuntirishda dasturilamal boʻlib xizmat qiluvchi rahbar gʻoyalar qanday nomlanadi?

Tamoyillar
Kategoriyalar
Paradigma
Gipoteza

22.Gipotezaga toʻgʻri taʼrif berilgan qatorni belgilang.

Yangi dalillarning mohiyatini tushuntiruvchi qonun mavjudligi haqidagi asosli tahmindir.

Hodisalarning muayyan turkumi bu turkumdagi hodisalarning mohiyati va ularga nisbatan amal qiladigan borliq qonunlari haqidagi bilimlarning mantiqiy asoslangan tizimidir.

Borliqning eng muhim tomonlari, xossalari va munosabatlarini aks ettiruvchi umumiy tushunchalaridir.

Fan tarixning muayyan davrida uning rivojlanishini belgilovchi barqaror tamoyillar, nazariyalar va metodlar majmui.

23.Paradigma tushunchasini bilnsh nazariyasiga kiritgan faylasuf nomini toping?

T.Kun
D.Yum
K.Popper
K.Bort

24.Narsalardagi umumiylik bu - ...

Muhim xossalar va munosabatlar majmuidir.

Insonning narsalar muhim xossalari va munosabatlarini izchil, bilvosita va umumiy aks ettirishdir.

Borliqning xossalari va munosabatlarini aks ettiruvchi umumiy tushunchadir.

Narsani boshqa narsalardan ajratib turadigan belgilar jamlanmasi.

25. Dil'tey tushunishni qanday tavsiflagan?

Matn muallifining ma'naviy dunyosiga kirish
Insonning borliqqa munosabati
Ob'yekt mohiyatini aniqlash
Bilishning boshlanish nuqtasi

26. «Tushunish insonning borliqqa o'ziga xos munosabati, insonning dunyoda mavjud bo'lish usulidir». Ushbu ta'rif muallifi kim?

M.Xaydegger
V.Diltey
M.Baxtin
S.Tulmin

27. «O'tmish ma'daniyatini tushunish talqin qiluvchining o'uzini tushunishi bilan uzviydir». Ushbu fikr muallifi kim?

X.G.Gadamer
S.Tulmin
I.Ruzavin
M.Xaydegger

28. G.I.Ruzavin tushunnshning nechta turini ko'rsatgan?

3
5
7
2

29. Ruzavin ko'rsatgan bilish turlari qaysi javobda berilgan?

Dialog, tarjima, badiiy
Matematik, fizik, biologik
Snergetik srukturaviy va kibernetika
Dialektik, sofistik

30. Nima o'zida tushunishning siklik xususiyatlarini aks ettiradi?

Termenevtik doira
Olmaxon g'ildiragi
Chiziqli tafakkur
Nochiziqli tafakkur

31. Germenevtik doira qanaqa xususiyatga ega?

Dialektik
Germenevtik
Sinergetik
Sofistik

32. Germenevtik doiraning «Olmaxon g'ildiragi»dan farqini ko'rsating?

Bir butundan undanda to'liqroq butunga qaytishida
Metafizik xususiyatga egaligida
Sofistik xususiyatga ega ekanligida

Eklektik xususiyatga ega ekanligida

33. «Tushunishni hozirgi davrga bog‘lash kerakmi» degan savolga hozirgi kunda necha xil yondashuv mavjud?

2
3
5
4

34.Tushunish bu - ...

Fikr yuritish orqali simvolda yashirin ma’noni aniqlash demak
Borliqni anglash
Olimning iqtisodiy yondashuvi
To‘g‘ri javob yo‘q

35. Ilmiy faoliyatning asosiy protseduralarini sanab o‘ting?

Tushunish, tavsiflash, tushuntirish va talqin qilish
Farmallashtirish, umumlashtirish
Induksiya, analiz, sintez
Ideallashtirish va eksperiment

36. Tushunish jarayoni nima bilan bog‘liq bo‘ladi?

Anglab yetish, ya’ni inson uchun ma’lum ma’noga ega bo‘lgan narsalarni aniqlash bilan
Izohlash bilan
Tavsiflash bilan
Talqin bilan

37. Tushunish qanaqa sharoitlarda sodir bo‘ladi?

O‘zaro aloqa
Bahs, monolog
Polilog, o‘zaro muloqot
Hamma javoblar to‘g‘ri

38.Ma’no bu - ...

Tildagi iboralar sinonimligini emas, balki murakkab, ko‘p qirrali hodisa
Fikrning mavjudlik sharti
Fikrning ifodaviy sharti
To‘g‘ri javob yo‘q.

39.«Ma’no birinchidan, har qanday qilmish, xulq-atvor, amalning «Nimaga» va «Nima uchun» sodir etilganligini nazarda tutishi kerak. Ikkinchida, ma’no yo‘nalishga ega, ya’ni u nimaningdir pirovard maqsadidir». Bu fikrlarning muallifi kim?

M.Xaydegger
S.Tulmin
Diltey
G.Gadamer

40.Ma’no nimada ifodalanadi?

Tilda

Harakatda

Matnda

Ijodda

41.Tushunishning o‘ziga xos xususiyati nimalarda namoyon etadi?

Insonning o‘zi tahlil qilayotgan narsa va hodisalarni ichki murakkab aloqalari, bog‘lanishlarni aniq sezishda

Tashqi aloqalarni anglashda

Narsalarning o‘zaro aloqasini aniqlashda

To‘g‘ri javob yo‘q

42.Ma’naviy-madaniyatning moddiylashtirilgan ifodasi bu -...

Matn

Til

Tushuncha

Tafakkur

43.Semiotika nimani o‘rgatadi?

Belgilar va belgili tizimlarning xossalarini o‘rganish

Xatti-harakatlarni

Tafakkur qonunlarini

Grammatik qoidalar

44.«Simvol» so‘zining ma’nosi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

Yunoncha, «ramz», «shartli belgi»

Yunoncha, «o‘xshatish»

Yunoncha, «qiyoslash, o‘lchash»

Yunoncha, «o‘lchash»

45.Ikki yoki bir necha shaxs o‘rtasidagi yozma tarzda qayd etilishi mumkin bo‘lgan og‘zaki muloqot shakli bu - ...

Dialog

Monolog

Poliolog

To‘g‘ri javob yo‘q

46.O‘rganilayotgan predmetning mohiyati rivojlanish sabablari, shartlari va manbalarini, harakat mexanizmlarini aniqlash nimaning bosh maqsadi?

Tushuntirish

Tushunish

Matn

Bilish

47.Harakat qilayotgan shaxs maqsadni, tarixiy hodisalar ishtirokchilarining niyatini ko‘rsatib beruvchi tushuntirish shakli qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

Teleologik
Germenevtik
Sinergetik
Dialektik

48.«Tushunishda faqat bir ong, bir subyekt, tushuntirishda esa, ikki ong, ikki subyekt qatnashadi». Ushbu fikrlar kimga tegishli?

M.Baxtinga
F.Bekonga
R.Dekartga
K.Popperga

49. Dil’tey tushunishni qanday tavsiflagan?

Matn muallifining ma’naviy dunyosiga kirish
Insonning borliqqa munosabati
Ob’yekt mohiyatini aniqlash
Bilishning boshlanish nuqtasi

50. «Tushunish insonning borliqqa o‘ziga xos munosabati, insonning dunyoda mavjud bo‘lish usulidir». Ushbu ta’rif muallifi kim?

M.Xaydegger
V.Diltey
M.Baxtin
S.Tulmin

51. «O‘tmish ma’daniyatini tushunish talqin qiluvchining o‘uzini tushunishi bilan uzviydir». Ushbu fikr muallifi kim?

X.G.Gadamer
S.Tulmin
I.Ruzavin
M.Xaydegger

52. G.I.Ruzavin tushunnshning nechta turini ko’rsatgan?

3
5
7
2

53. Ruzavin ko‘rsatgan bilish turlari qaysi javobda berilgan?

Dialog, tarjima, badiiy
Matematik, fizik, biologik
Snergetik srukturaviy va kibernetika
Dialektik, sofistik

54. Nima o‘zida tushunishning siklik xususiyatlarini aks ettiradi?

Termenevtik doira
Olmaxon g‘ildiragi
Chiziqli tafakkur
Nochiziqli tafakkur

55. Germenevtik doira qanaqa xususiyatga ega?

Dialektik
Germenevtik
Sinergetik
Sofistik

56. Germenevtik doiraning «Olmaxon g‘ildiragi»dan farqini ko‘rsating?

Bir butundan undanda to‘liqroq butunga qaytishida
Metafizik xususiyatga egaligida
Sofistik xususiyatga ega ekanligida
Eklektik xususiyatga ega ekanligida

57. «Tushunishni hozirgi davrga bog‘lash kerakmi» degan savolga hozirgi kunda necha xil yondashuv mavjud?

2
3
5
4

58. Tushunish bu - ...

Fikr yuritish orqali simvolda yashirin ma’noni aniqlash demak
Borliqni anglash
Olimning iqtisodiy yondashuvi
To‘g‘ri javob yo‘q

59. Ilmiy faoliyatning asosiy protseduralarini sanab o‘ting?

Tushunish, tavsiflash, tushuntirish va talqin qilish
Farmallashtirish, umumlashtirish
Induksiya, analiz, sintez
Ideallashtirish va eksperiment

60. Tushunish jarayoni nima bilan bog‘liq bo‘ladi?

Anglab yetish, ya’ni inson uchun ma’lum ma’noga ega bo‘lgan narsalarni aniqlash bilan
Izohlash bilan
Tavsiflash bilan
Talqin bilan

61. Tushunish qanaqa sharoitlarda sodir bo‘ladi?

O‘zaro aloqa
Bahs, monolog
Polilog, o‘zaro muloqot
Hamma javoblar to‘g‘ri

62.Ma’no bu - ...

Tildagi iboralar sinonimligini emas, balki murakkab, ko‘p qirrali hodisa
Fikrning mavjudlik sharti
Fikrning ifodaviy sharti
To‘g‘ri javob yo‘q.

63.«Ma’no birinchidan, har qanday qilmish, xulq-atvor, amalning «Nimaga» va «Nima uchun» sodir etilganligini nazarda tutishi kerak. Ikkinchida, ma’no yo‘nalishga ega, ya’ni u nimaningdir pirovard maqsadidir». Bu fikrlarning muallifi kim?

M.Xaydegger
S.Tulmin
Diltey
G.Gadamer

64.Ma’no nimada ifodalanadi?

Tilda
Harakatda
Matnda
Ijodda

65.Tushunishning o‘ziga xos xususiyati nimalarda namoyon etadi?

Insonning o‘zi tahlil qilayotgan narsa va hodisalarni ichki murakkab aloqalari, bog‘lanishlarni aniq sezishda
Tashqi aloqalarni anglashda
Narsalarning o‘zaro aloqasini aniqlashda
To‘g‘ri javob yo‘q

66.Ma’naviy-madaniyatning moddiylashtirilgan ifodasi bu -...

Matn
Til
Tushuncha
Tafakkur

67.Semiotika nimani o‘rgatadi?

Belgilar va belgili tizimlarning xossalarini o‘rganish
Xatti-harakatlarni
Tafakkur qonunlarini
Grammatik qoidalar

68.«Simvol» so‘zining ma’nosi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

Yunoncha, «ramz», «shartli belgi»
Yunoncha, «o‘xshatish»
Yunoncha, «qiyoslash, o‘lchash»
Yunoncha, «o‘lchash»

69.Ikki yoki bir necha shaxs o‘rtasidagi yozma tarzda qayd etilishi mumkin bo‘lgan og‘zaki muloqot shakli bu - ...

Dialog
Monolog
Poliolog
To‘g‘ri javob yo‘q

70.O‘rganilayotgan predmetning mohiyati rivojlanish sabablari, shartlari va manbalarini, harakat mexanizmlarini aniqlash nimaning bosh maqsadi?

Tushuntirish
Tushunish
Matn
Bilish

71.Harakat qilayotgan shaxs maqsadni, tarixiy hodisalar ishtirokchilarining niyatini ko‘ursatib beruvchi tushuntirish shakli qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

Teleologik
Germenevtik
Sinergetik
Dialektik

72.«Tushunishda faqat bir ong, bir subyekt, tushuntirishda esa, ikki ong, ikki subyekt qatnashadi». Ushbu fikrlar kimga tegishli?

M.Baxtinga
F.Bekonga
R.Dekartga
K.Popperga

73. Etikaning ma’nosi qaysi javobda to’g’ri birilgan.

Axloq,odob,xulq-atvor.
Odob,xulq,yaxshlik.
Odob, xulq-atvor.
Etibor, ishoch.

74. Etika fani qanday fanligi qaysi javobda to’g’ri birilgan.

Axloqshunoslik.
Tartib-qoidani o’rgatuvchi.
Tadbirkorlikni o’rgatuvchi.
Yrish-turishni o’rgatuchi.

75. Etika tushchasi hozirgi adabiyotlarda kishilar momulasida asosan necha ma’noda qo’llanadi.

3.
4.
6.
2.

76. Etika fani- ijtimoiy guruhlar, kasb-hunar yoki ixtisosliklar buicha qaysi javob to'g'ri.

Savdagarlar etikasi,tadbikorlar ekikasi, o'qituvchlar etikasi, shifokorlar etikasi,rahbarlar etikasi…….

Savdagarlar, tadbikorlar.

O'qituvchi, suvchi, xaydovchi.

Uchuvchi, suzuvchi.

77. Axloq mezonlari kishilarning jamiyatdagi mavqelariga, iqtisodiy ta'minlanganlik darajasiga qarab o'zgarib, takomillashib boruvchi ijtimoiy jarayondir, deb hisoblagan faylasuf qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

Konfutsiy

Lao Szi

Suqrot

Forobiy

78. Qadimgi hind falsafiy maktablarining ikki guruhi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

Astika va Nastika

Vedanta, Sankxya

Yoga, Vaysheshika

Nyaya va Mimansa

79. Dunyo bo'linmas bo'lakchalar (atomlar)dan tashkil topgan, degan ta'limotni ilgari surgan yunron faylasufi kim?

Demokrit

Fales

Geraklit

Anaksimen

80. Ibn Sinoning fanlar klassifikatsiyasida barcha fanlarni qanday turkumlarga ajratilgan?

Amaliyot fanlari va nazariy fanlar

Samo fanlari va Yer fanlari

Mantik va matematika fanlari

Falsafa va matematika fanlari

81. IX-XIII asrlarda qaysi mutafakkirlar Markaziy Osiyo hududida yashab ijod etgan?

Al-Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy

Forobiy, Ibn Rushd, Farididdin Attor

Mirzo Ulug'bek, Qozizoda Rumiy, Beruniy

Alisher Navoyi, Forobiy, Al-Xorazmiy, Ibn Sino

82. Qaysi alloma «Sharq Arastusi» - «Muallim us-soniy» degan yuksak nomga sazovor bo'lgan?

Abu Nasr Forobiy

Abu Rayxon Beruniy

Ibn Sino

Ali Qushchi

83. Forobiy fikricha, bilimlarni o‘zlashtirish qanday usul va vositalar orqali amalga oshadi?

Sezish, idrok etish, xotira, tasavvur qilish, ma’ntiqiy mulohaza yuritish, tafakkur

Ma’ntiqiy tafakkur, intuitsiya, e’tiqod

Sezish, xotira, tasavvur, iroda, ma’ntiqiy mulohaza, tajriba

Fikriy eksperiment, sezish, his qilish, tasavvur, idrok

84. Forobiy bilishning qanday shakllarini farqlaydi?

Hissiy va oqilona

Intuitiv va ma’ntiqiy

Oqilona va ilohiy

Barcha javoblar to‘g‘ri

85. Abu Ali ibn Sino fikricha, moddiy dunyo predmetlari asosan bilishning qaysi turining asosi bo‘la oladi?

Sezgining

Tafakkurning

Intuitsiyaning

O‘zlikni anglashning

86. So‘fizmda tabiat va Alloh qanday talqin etiladi?

Alloh va tabiatni uzviy deb qaraydi

Tabiat Allohdan ajralgan deb qaraydi

Allohning tabiatga befarqligini yoqlaydi

Tabiatni Alloh yaratgan bo‘lsada, tabiatdagi o‘zgarishlar ob’yektiv deb qara

87.Praksiologiyada «faoliyat» tushunchasiga qanday ta’rif berilgan?

O‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish

O‘z imkoniyatlari chegarasidan chiqish

Fikrda mavjud holatlarni amalga oshirish

Tushunchalarni amalga oshiris

88.«Quruq qo‘l ham, o‘z ixtiyoriga tashlab qo‘yilgan aql ham katta kuchga era emas». Fikr muallifi kim?

F.Bekon

J.Lokk

I.Fixte

Aflotun

89.«Oqilonalik - inson faoliyatining barcha turlariga amalda xos bo‘lgan jihat». Fikr muallifi kim?

F.Bekon

J.Lokk

I.Fixte

E.Kassirer

90.I.G.Fixte insonning ma'naviy burchi deb nimani nazarda tutadi?

Tabiat va jamiyatni o'zgartirishni

Jamiyat strukturasini o'zgartirish

Davlat va inson o'rtasidagi munosabatlarni o'zgartirish

91.Har qanday maqsadsiz faoliyat ongsiz faoliyat bo'ladimi?

Ha

Yo'q

Faoliyat turiga qarab farqlanadi

A, V

92.Continuum -...

Uzluksiz to'plam

Qisqacha to'plam

Falsafiy to'plam

Ilmiy to'plam

93.«Inson madaniyatini hech shubhasiz har xil maqsadlarni ko'zlab, turli yo'llardan rivojlanadigan faoliyatning har xil turlari tashkil etadi». Fikr muallifi kim?

F.Bekon

J.Lokk

I.Fixte

Aflotun

94.«Inson yomonlik qilar ekan, uning o'zi ham yanada tubanlashib boradi». Fikr muallifi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang?

F.Bekon

J.Lokk

E.Fromm

Aflotun

95. Axloq kategoriyasi qaysi javobda to'g'ri aks etgan.

Axloqiy bilish va real hayot o'rtasidagi munosabatni in'ikos ettiruvch kategoriylarga aytiladi.

Faqat nazariyaga taluqli.

Axloq kategoriyasi umumlashtiruchilik, mushtaraklik xususiyatiga ega.

Axloq-bu muhabbat

96. Dunyo bilan o'zaro aloqa qilish tajribasiii umumlashtiruvchi hodisa bu -...

Fikrlash

So'zlash

Idrok etish

Sezish

97 .Nazariy muomalaga, falsafiy kategoriyalar tizimiga «amaliyot» tushunchasini kim kiritgan?

Fixte

Shelling
Gegel
Kant

98. Falsafada «narsa o‘zida» g‘oyasi kimga tegishli?

Kant
Shelling
Gegel
Fixte

99.Gegel falsafasida man’tiq nechanchi qismda tadqiq etiladi?

1
2
3
4

99. Agnostiklarning eng yirik vakili kim?

Kant
Shelling
Gegel
Fixte

100. Dunyo bilan o‘zaro aloqa qilish tajribasini umumlashtiruvchi hodisa bu - ...

Fikrlash
So‘zlash
Idrok etish
Sezish

101. Borliq hodisalari va unda hukm suruvchi munosabatlarning muhim, tipik mazmunini o‘zida aks ettiradigan keng tushuncha bu - ...

Kategoriya
Atama
Xulosa
Tushuncha

102. Borlnqning umumiy, muhim tomonlari, xossalari, aloqalari va munosabatlari haqida fikrlash uchun qo‘llaniladigan o‘ta keng tushunchalar majmui, bu -...

Falsafiy kategoriyalar
Fan kategoriyalari
Umumiy kategoriyalar
Atamalar

103. Falsafiy kategoriyalar va formal man’tiq kategoriyalari o‘rtasida farqning yuzaga kelishiga qaysi faylasufning ijodi ta’sir qilgan?

Aristotel
Spinoza
Gegel
Kant

104. I.Kant kategoriyalarning necha turini farqlaydi va ular qaysilar?

Uch, hissiyot, idrok va aql
Ikki, sezgi va tafakkur
To‘rt, hissiy, ratsional, irratsional va transsendental
Faqat bitta

105.N.A.Berdyayev ijodning xususiyatlariga qanday tushunchalarnn kiritgan?

Elitar, unitar
Aristokratok, demokratik
Demokratik, unitar
Elitar, aristokratik

106.«... - bu nafaqat madaniyat predmetlarini yaratish, balki har qanday inson hayotini tashkillashtirish hamdir». Nima haqida fikr yuritilmoqda?

Ijod
Erkinlik
Adabiyot
Badiiy asar (kitob**)**

107.«... - barkamollik va yetuklikning hayoliy obrazi, kamolotga yetkazish, uyg‘unlashtirishga bo‘lgan ehtiyojlarning ma’naviy ifodasi». Nima haqida fikr yuritilmoqda?

Reallik
Ideallik
Buyuklik
A, B

108.«... - shaxsning borliq hodisalariga bo‘lgan munosabatini belgilaydigan estetik komillikning o‘ziga xos meyori». Nima haqida fikr yuritilmoqda?

Did
Farosat
Aql
Iroda

109.«... - davlat tomonidan belgilangan va uning majburlov kuchiga tayanadigan xulq-atvor umumiy normalarining majmui». Nima haqida fikr yuritilmoqda?

Prokuratura
Sud
Huquq
Konstitutsiya

110.Insonni faoliyatga undovchi sabablarni ko‘rsating?

Ehtiyojlar
Maqsadlar
Orzular
Hayollar

111.Inson faoliyatini boshqa mavjudotlardan farqlovchi xususiyati nimada?

Aqlga tayanishlik
Onglilik
Maqsadlilik
A, B. V

112.«Amaliyot o‘zgartirilgan tabiat predmetlarini insonning ko‘zgudagi aksiga o‘xshaydi». Ushbu fikr muallifi kim?

Fixte
Kant
Leybnits
Spinoza

113.Entoni Giddens asari qanday nomlanadi?

«Davlat»
«Inson ta’rifi»
«Jamiyat tuzilishi»
«Vavilon»

114.Insonni faoliyatga undovchi sabablarni toping?

Ehtiyojlar
Maqsadlar
Orzular
Hayollar

115.Faoliyatning eng muhim atributlari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

Moddiylik va subyektlilik
Moddiylik va ma’naviylik
Subyektlilik va doimiylik
Cheklilik va muayyanlik

116.«Tarix kurtaklari va uning maqsadi» asari muallifi kim?

K.Yaspers
A.Toynbi
M.Born
F.Jolio Kyuri

117.Praksiologiya so‘zining lug‘aviy ma’nosi?

Yunoncha, «praktikos» - «faol»
Lotincha, «praktikos» - «faol»
Inglizcha, «praktikos» - «faol»
Fransuzcha, «praktikos» - «faol»

118.Falsafaning inson faoliyatini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘limi nima?

Praksiologiya
Aksiologiya
Epistemologiya
Evtanaziya

119.«... - inson yaratgan narsalar borligi ko‘p jihatdan insonning o‘z borligi

bilan bog‘lanadi, zero, u bunyod etgan «...», avvalo, uning turli-tuman ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi», bu nima?

Ikkilamchi tabiat
Tabiat
Narsa-buyum
To‘g‘ri javob yo‘q

120. Falsafaning inson faoliyatini o‘rganuvchi bo‘limi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

Sotsiologiya
Psixologiya
Praksiologiya
Gnoseologiya

121. XX asrda kim insonning eng muhim xususiyati, uning o‘ziga xos belgisi, uning faoliyati deb ta’kidlagan?

Eynshteyn
Bill Geyts
I.Fixte
E.Kassirer

122. «Amaliyot o‘zgartirilganda tabiat predmetlari insonning ko‘zgusidagi aksiga o‘xshaydi». Fikr muallifi kim?

Eeynshteyn
D.Yum
I.Fixte
Aflotun

123. Praksiologiyada «faoliyat» tushunchasiga qanday ta’rif berilgan?

O‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish
O‘z imkoniyatlari chegarasidan chiqish
Fikrda mavjud holatlarni amalga oshirish
Tushunchalarni amalga oshirish

124. «Quruq qo‘l ham, o‘z ixtiyoriga tashlab qo‘yilgan aql ham katta kuchga era emas». Fikr muallifi kim?

F.Bekon
J.Lokk
I.Fixte
Aflotun

125. «Oqilonalik - inson faoliyatining barcha turlariga amalda xos bo‘lgan jihat». Fikr muallifi kim?

F.Bekon
J.Lokk
I.Fixte

E.Kassirer

126. I.G.Fixte insonning ma’naviy burchi deb nimani nazarda tutadi?

Tabiat va jamiyatni o‘zgartirishni
Jamiyat strukturasini o‘zgartirish
Davlat va inson o‘rtasidagi munosabatlarni o‘zgartirish
Davlat va inson o‘rtasidagi ma’naviy bog‘lanish

127. Har qanday maqsadsiz faoliyat ongsiz faoliyat bo‘ladimi?

Ha
Yo‘q
Faoliyat turiga qarab farqlanadi
Barcha javoblar to‘g‘ri

128. Continuum -...

Uzluksiz to‘plam
Qisqacha to‘plam
Falsafiy to‘plam
Ilmiy to‘plam

129. «Inson ma’daniyatini hech shubhasiz har xil maqsadlarni ko‘zlab, turli yo‘llardan rivojlanadigan faoliyatning har xil turlari tashkil etadi». Fikr muallifi kim?

F.Bekon
J.Lokk
I.Fixte
Aflo

130.Borliqning asosiy kategoriyasi nima?

«Borliq» va «Yo‘qlik»
«Sifat» va «Miqdor»
«Makon» va «Zamon»
To‘g‘ri javob yo‘q.

131.Falsafada borliq va yo‘qlik o‘rtasidagi o‘zaro aloqa qanday?

Dialektik
Ziddiyatli
Chambarchas
To‘g‘ri javob yo‘q.

132.«... - falsafiy kategoriya sifatida dunyoni, uning butun rang-barangligi va turli-tuman namoyon bo‘lish shakllari bilan yaxlit aks ettirish imkonini beradi», bu nima?

Borliq
Yo‘qlik
Bilish
To‘g‘ri javob yo‘q.

133.Borliqning shakllari nechtaga bo‘linadi?

4 ta

3 ta
2 ta
5 ta

134.«... - inson va uning faoliyatidan qat'i nazar mavjud bo'lgan narsalar va jarayonlar borlig'i», bu nima?

Tabiat borlig'i
Inson borlig'i
Ma'naviy borliq
Ijtimoiy borliq

135.Ma'naviy borliq nechtaga bo'linadi?

2 ta
3 ta
4 ta
5 ta

136.Individuallashgan ma'naviy borliq - bu nima?

Insonning ichki dunyosi
Insonning tashqi dunyosi
Ijtimoiy makon va vaqt
To'g'ri javob yo'q

137.Ilmiy tasavvurlarga ko'ra, biz yashayotgan sayyora taxminan necha milliard yil muqaddam paydo bo'lgan?

4,5 milliard
1 milliard
3,5 milliard
Aniqlanmagan

138.«... - inson yaratgan narsalar borlig'i ko'p jihatdan insonning o'z borlig'i bilan bog'lanadi, zero, u bunyod etgan «...», avvalo, uning turli-tuman ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi», bu nima?

Ikkilamchi tabiat
Tabiat
Narsa-buyum
To'g'ri javob yo'q

139.Aristotel va Leybnits qarashlarida uchragan «entelexiya» tushunchasi nimani anglatadi?

Yunoncha, «entelechia» - «o'z - o'zida maqsadga ega bo'lgan»
Lotincha, «entelechia» - «o'z - o'zida maqsadga ega bo'lgan»
Inglizcha, «entelechia» - «o'z -o'zida maqsadga ega bo'lgan»
To'g'ri javob yo'q

140.Qaysi falsafiy ta'limot «Hayot kuchi» mavjudligini tan olish orqali hayotni tushuntiradi?

Vitalizm
Entelexiya
Bunday ta'limot yo'q
To'g'ri javob yo'q

141.Organik dunyo evolyutsiyasi haqidagi yaxlit ta’limotlar nechanchi asrda vujudga keldi?

XIX asr boshlarida
XVII asr
XV asr
XX asr oxirida

142.Falsafaning qaysi sohasida borliq va yo‘qlik, mavjudlik va nomavjudlik muammolariga doir masalalar o‘rganiladi?

Ontologiyada
Gnoseologiyada
Aksiologiyada
Ijtimoiy falsafada

143.Qadimgi Sharqda ilk marotaba qaysi manbada borliq masalalari tahlil qilingan?

Veda va Upanishadalarda
Konfutsiy ta’limotida
Islom falsafasida
Daosizmda

144.Qadnmgi yunon faylasufi Fales borliqning birinchi sababi sifatida nimani e’tirof etgan?

Suv
Havo
Olov
Yer

145. Qaysi falsafiy ta’limot «Hayot kuchi» mavjudligini tan olish orqali hayotni tushuntiradi?

Vitalizm
Entelexiya
Bunday ta’limot yo‘q
To‘g‘ri javob yo‘q

146. Organik dunyo evolyusiyasi haqidagi yaxlit ta’limotlar nechanchi asrda vujudga keldi?

XIX asr boshlarida
XVII asr
XV asr
XX asr oxirida

147. Falsafaning qaysi sohasida borliq va yo‘qlik, mavjudlik va nomavjudlik muammolariga doir masalalar o‘rganiladi?

Ontologiyada
Gnoseologiyada
Aksiologiyada
Ijtimoiy falsafada

148. Qadimgi Sharqda ilk marotaba qaysi man'bada borliq masalalari tahlil qilingan?

Veda va Upanishadalarda
Konfutsiy ta'limotida
Islom falsafasida
Daosizmda

149. Qadnmgi yunon faylasufi Fales borliqning birinchi sababi sifatida nimani e'tirof etgan?

Suv
Havo
Olov
Yer

150. «Borliq bor, yo‘qlik esa - yo‘q», degan fikr kimga tegishli?

Parmenidga
Platonga
Suqrotga
Zenonga

151. Tirik tabiat borligi necha darajaga bo‘linadi?

Ikki
Uch
To‘rt
Cheksiz

152. Ontologiya tushunchasini falsafada birinchi bor kim qo‘llagan?

X.Volf
D.Yum
J.Berkli
I.Kant

153. Har qanday jisemning ajralmas xususiyati nima deb ataladi?

Atribut
Qism
Individuallik
Materiya

154. Qadimgi Hindiston mutafakkirlari borliq sirining tagiga yetishga harakat qilar ekanlar, «Quyosh tunda qayerga ketadi, yulduzlar kunduzi qayoqqa yo‘qoladi» kabi savollarga javob topishga uringanlar va bu tasav-vurlarni insoniyatga ma'lum bo‘lgan eng qadimgi qaysi kitobda aks ettirganlar?

Rigvedalarda
Upanshadlarda
Monumentlarda
To‘g‘ri javob yo‘q

155. Qaysi falsafiy ta'limot «Hayot kuchi» mavjudligini tan olish orqali hayotni tushuntiradi?

Vitalizm
Entelexiya
Bunday ta’limot yo‘q
To‘g‘ri javob yo‘q

156. Organik dunyo evolyusiyasi haqidagi yaxlit ta’limotlar nechanchi asrda vujudga keldi?

XIX asr boshlarida
XVII asr
XV asr
XX asr oxirida

157. Falsafaning qaysi sohasida borliq va yo‘qlik, mavjudlik va nomavjudlik muammolariga doir masalalar o‘rganiladi?

Ontologiyada
Gnoseologiyada
Aksiologiyada
Ijtimoiy falsafada

158. Qadimgi Sharqda ilk marotaba qaysi man’bada borliq masalalari tahlil qilingan?

Veda va Upanishadalarda
Konfutsiy ta’limotida
Islom falsafasida
Daosizmda

159. Qadnmgi yunon faylasufi Fales borliqning birinchi sababi sifatida nimani e’tirof etgan?

Suv
Havo
Olov
Yer

160. «Borliq bor, yo‘qlik esa - yo‘q», degan fikr kimga tegishli?

Parmenidga
Platonga
Suqrotga
Zenonga

161. Tirik tabiat borligi necha darajaga bo‘linadi?

Ikki
Uch
To‘rt
Cheksiz

162. Ontologiya tushunchasini falsafada birinchi bor kim qo‘llagan?

X.Volf
D.Yum
J.Berkli
I.Kant

163. Har qanday jisemning ajralmas xususiyati nima deb ataladi?

Atribut
Qism
Individuallik
Materiya

164. Qadimgi Hindiston mutafakkirlari borliq sirining tagiga yetishga harakat qilar ekanlar, «Quyosh tunda qayerga ketadi, yulduzlar kunduzi qayoqqa yo‘qoladi» kabi savollarga javob topishga uringanlar va bu tasavvurlarni insoniyatga ma’lum bo‘lgan eng qadimgi qaysi kitobda aks ettirganlar?

Rigvedalarda
Upanshadlarda
Monumentlarda
To‘g‘ri javob yo‘q

165.Dunyoni tushunish zamirida yotuvchi, nisbatan barqaror va mustaqil holda mavjud mohiyat nima deb ataladi?

Substansiya
Shakl
Vaqt
Harakat

166.Empedokl «borliq» atamasini bevosita ishlatmagan bo‘lsa ham, «barcha narsalarning nechta negizi» haqida so‘z yuritarkan?

4
3
2
5

167.Qadimgi Yunon faylasufi Geraklit qachon yashab ijod etgan?

Mil. av. 544-483-yillar
Mil. av. 644-583-yillar
Mil. av. 744-683-yillar
Mil. av. 344-283-yillar

168.Qaysi faylasuf «haqiqiy borliq» - «obyektiv mavjud g‘oyalar dunyosi»ni farqladi va uni «hnssiy borliq»ka qarama-qarshi qo‘ydi?

Platon
Aristotel
Geraklit
Suqrot

170.Markaziy Osiyoning eng qadimiy qaysi kitobida, borliq harakatdagi dunyo, butun jonli va jonsiz narsalarning uyg‘unligidagi mavjudlik deb ifodalanadi?

Avestoda
Hadisda
Qur’onda
To‘g‘ri javob yo‘q

171.«... biz qor bosgan, quyunlar charx urayotgan tog‘lar orasida turibmiz. Qarshimizda ba’zan tuman pardasi osha so‘qmoqlar namoyon bo‘ladi. Ular ishonchsiz bo‘lishi mumkin...» degan fikr kimning qalamiga mansub?

U.Jems
I.Vernadskiy
F.Bekon
T.Gobbs

172.O‘z-o‘zini to‘liq belgilovchi borliqni xizmat qiladigan tushuncha?

Substansiya
Materiya
Reallik
Dalil

173.Substansiya bir vaqtning o‘zida ham tabiat, ham xudo sifatida ta’riflagan va bu ikki tushunchani tenglashtirgan faylasufni toping?

SpinozaB.Gegel
Fixte
Dekart

174.Birinchi asos sifatida ikkita substansiya olingan falsafiy yondashuv nima deb ataladn?

Dualizm
Totemizm
Fetishizm
Deizm

175. Kelajakni bashorat qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan kishilarni bobilliklar va assuriyaliklar nima deb atashgan?

Xoldeylar
Koxinlar
Afsungarlar
Bashoratchilar

176. Bashoratning necha turi farqlanadi?

3 ta
2 ta
4 ta
5 ta

177. Bashorat haqidagi bilimlar qaysi asrlarda tizimga solina boshlandi?

XV-XVII
XVI-XVII
XIV-XV
XV-XVI

178. Quyosh tutilishini bashorat qila olgan faylasuf kim?

Fales
Anaksimandr

Anaksimen
Geraklit

179. Lotinchada kelajak ma’nosini anglatuvchi tushuncha?

Futurologiya
Prognostika
Prognoz
To‘g‘ri javob yo‘q

180. Prognostika nima?

Ijtimoiy bashorat bilan bog‘liq tadqiqot
Ijtimoiy jarayonlarni o‘rganish
O‘rganilayotgan jarayonlarning qonuniyatlari
Barcha javoblar to‘g‘ri

181. Bugungi kunda Rim klubiga nechta mamlakat arboblari a’zo?

47
37
42
31

182. O‘tmish hozirgi zamon va kelajakning qonuniy aloqasi bilan belgilanadi. Bu prognoz qilishning qaysi turiga mansub?

Ob’yektiv
Sub’yektiv
Ilmiy
To‘g‘ri javob yo‘q

186. Kelajakni vaqtdagi chegarasi necha yildan oshmaydi?

30
40
20
10

187. Maxsus ilmiy metodlar yordamida kelajak haqida bilimlar olish jarayonlari bu -...

Prognoz qilish
Ijtimoiy prognozlashtirish
Modellashtirish
Ekstropolyatsiya

188. Prognozlashtirish necha guruhga bo‘linadi?

5 ta
3 ta
2 ta
4 ta

189.Fanning jamiyat hayotidagi rolini mutlaqlashtiruvchi konsepsiyani toping?

Ssiyentizm
Ekopessimizm
Texnopessimizm
Texnologik pessimizm

190.«Muammolar bir-biri bilan mahkam chirmashib oldi, ulkan sprut yanlig‘ butun sayyorani o‘z iskanjasiga olmoqda» degan fikrni kim aytgan?

A.Pechchi
D.Bell
A.Turun
O.Toffler

191.1956 yilda Yer sharida necha kishi yashaganligi qayd etilgan?

2,8 mlrd
5,6 mlrd
2 mlrd
2,9 mlrd

192.«Demografik portlash» deb nom olgan o‘sish qachon yuz bergan?

XX asrda
XIX asr oxirida
XIX asr o‘rtalarida
XXI asrda

193.Hindistonda savodsizlik aholining necha foizini tashkil etadi?

70%
80%
28%
60 %

194.Pokistonda savodsizlik aholining necha foizini tashkil etadi?

60 %
70 %
20 %
80 %

195.Afrika mamlakatlarida savodsizlik necha foizni tashkil etadi?

80%
70%
60%
40%

196.Sivilizatsion kasalliklar ichida eng xavflisini belgilang?

OITS

Qizamiq
Buyrak xastaligi
Sil

197.2005 yilda yurak-qon tomir kasalliklari bilan vafot etish o‘limning necha foizini tashkil etdi?

30 %
40%
50%
60%

198.2005 yilda insult tufayli hayotdan ko‘z yumganlar soni qancha?

5,2 mln
7,6 mln
3,8 mln
1,8 mln

199. 1955 yilda kim tinchlik va qurolsizlanish uchun kurash tashabbusini ilgari surgan?

B.Rassel
M.Born
L.Infeld
F.Jolio Kyuri

200.B.Rassel barcha urushlarga chek qo‘yuvchi jahon hukumati deb atagan tashkilotni belgilang?

BMT
OPEK
Shanxay
Rim klubi

201.Tinchlik, qurolsizlanish va xalqaro xavfsizlikka bag‘ishlangan jahon ilmiy jamiyatining 1957 yildagi birinchi yig‘ilishi qayerda bo‘ldi?

Kanadada
AQShda
Fransiyada
Germaniyada

202.Umumbashariy hodisalar davri qachondan boshlandi?

XX asr birinchi yarimi
XIX asr oxirida
XXI asrda
XIX asr boshlarida

DINSHUNOSLIK FANIDAN TEST TOPSHIRIQLARI.(45 ta)

1. Dinning funktsiyalari
A) axloqiy,tarbiyaviy, mafkuraviy

B) to‘ldiruvchilik, birlashtiruvchilik, o‘zaro aloqadorlik, tartibga soluvchilik.
V) tinchlik, do‘stlik, tenglik, tabiatni muxofaza qilish.
G) gnoseologik, antropologik, teologik, psixologik.

2. Dinning qanday ildizlari bor?
A) genetik, tarixiy, psixologiy
B) gnoseologik, sotsial, psixologik
V) Sotsial, biologik, iloxiy
G) afsonaviy, falsaviy, psixologik

3. Totemizm nima?
A) tarixiy din shakllaridan biri
B) Ibtidoiy jamoada turli xayvonlarni urug‘ga asos solgan deb hisoblab, ilohiylashtirish va sig‘inish.
V) tush ko‘rish va boshqa irim-sirimlarga ishonish.
G) jonsiz narsalarni ilohiylashtirish va sig‘inish.

4. Zardo‘shtiylik dinining falsafiy – axloqiy negizini tashkil etadigan, ma'naviy qadriyat bo‘lmish asosiy g‘oya qaysi?
A) Xalol mehnat ezgulikning asosi
B) Ezgu fikr, ezgu kalom, ezgu amal birligi
V) Taqvodorlik komillikning poydevori
G) Hammaning dehqonchilik bilan shug‘ullanshi shartligi

5.Dinning unsurlarini sanab bering
A) Tasavvur, diniy-psixologiya, diniy tashkilotlar
B) diniy tasavvur, diniy axloq, diniy mafkura
V) diniy ong, diniy his-tuyg‘u, diniy ibodat
G) xudoga, payg‘ambarlarga va farishtalarga ishonish.

6. Milliy dinlar?
A) Zardushtiylik, sintoizm, fetishizm
B) Animizm, xinduiylik, daosizm
V) Yaxudiylik, magiya, jaynizm
G) Sikxizm, konfutsiylik, hinduiylik

7. Budda ta'limoti nechta haqiqatda ifodasini topgan?
A) 6 ta
B) 4 ta
V) 5 ta
G) 8 ta

8. Buddaviylikning muqaddas kitobining nomi?
A) Tripitaka

B) Maxayana
V) Xinayana
G) Karma

9. Buddaviylikning asosiy maqsadi?
A) donishmandlik
B) nirvana holatiga yetish
V) meditatsiya
G) axloq normalari

10. Buddizm MDH dagi qaysi mamlakatlarda tarqalgan?
A) O‘rta Osiyo, Oltoy va Qolmig‘istonda
B) Buryatiya, Volga bo‘yi va Tuvada
V) Buryatiya, Qolmig‘iston va Tuvada
G) Uzoq Sharq, Chukchi va Kaspiy bo‘yida.

11. Katolik oqimining bosh ruhoniysi?
A) monax
B) pop
V) kardinal
G) papa

12. Cherkov, ikonalarga qarshi chiqqan oqim nomi?
A) pravoslav
B) katolik
V) protestant
G) hamma javoblar to‘g‘ri

13. Shariat nima?
A) Islom dini qoidalarini o‘rgatuvchi ta'limot
B) barcha musulmonlar uchun bajarilishi majbur bo‘lgan qonunlar, huquqiy-axloqiy ko‘rsatmalar tizimi.
V) hadislar asosida tuzilgan to‘plam.
G) oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi qonun.

14. Islom dinida qanday mazhablar bor?
A) hanafiylar, sunniylar, xorijiylar va vahobbiylar
B) molikiylar, hanafiylar, shofi'iylar va xanbaliylar
V) islom dinidan ajralib chiqqan hamma oqimlar mazhablardir.
G) akromiylar, nurchilar, xorijiylar.

15. Islomdagi asosiy amaliy va marosimiy talablar qaysilar?
A) sunnat, bibiseshanba, irim-sirimlar

B) imon keltirish, namoz o‘qish, ro‘za tutish, zakot berish, imkoni borlarga hajga borish.

V) janoza, xudoyi, ashur oshi, navro‘z, nikoh.

16. Islom dinining nazariy va g‘oyaviy manbalari nima?

A) shariat qonun-qoidalari

B) muhaddislar yozgan hadisi shariflar.

V) Qur'oni karim, hadisi sharif va fatvolar

G) Alloh-taolo kalomi bo‘lgan Qur'on.

17. Nima uchun islom dini Rossiya va boshqa mintaqalarda keng tarqala olmagan?

A) ularda islomni qabul qilishga ehtiyoj yo‘qligidan.

B) o‘z vaqtida islomni joriy etish mumkin bo‘lmaganligidan.

V) keng tarqalgan xristian dini borligidan.

G) diniy ijtimoiy psixologiya bu dinga mos kelmaganidan.

18. Vijdon erkinligi nima?

A) kishilarning uz milliy diniga e'tiqod qilish xuquqi.

B) fuqarolarning albatta biror bir jahon diniga e'tiqod qilish zarurligi

V) fuqarolarning dinga e'tiqod qilish yoki e'tiqod qilmaslikni o‘zlari mustaqil xal qilish huquqi.

G) fuqarolarning dinga ishonmasligi va unga qarshi tashviqot olib borish xuquqi.

19. O‘zbekistondagi ibodatxonalar, masjid va madrasalar faoliyatini kim boshqaradi?

A) imom-xatiblar

B) davlat idoralari

V) dinning o‘zi

G) O‘zbekiston musulmonlari idorasi.

20. Dinlarning bir-biridan farqi nimada ?

A) turli tillarda ibodat qilishda;

B) mintaqalarda aholining turlicha joylashishida;

V) diniy urf-odat va marosimlarni amalga oshirilishida.

G) e'tiqod turlarining har xilligida.

21. Musulmon diniy boshqarmalari rahbarlari qanday nom bilan ataladi?

A) muftiy

B) sufi

V) muxtasib

G) imom.

22. Fuqarolarning vijdon erkinligi xuquqi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddasida aks ettirilgan?

A) 28-modda
B) 15-modda
V) 31-modda
G) 41-modda

23.Ilohiyot nima?

A) Inson haqidagi ta'limot
B) Xudo to‘g‘risidagi ta'limot
V) Dinlar haqidagi ta'limot
G) To‘g‘ri javob ko‘rsatilmagan

24.Xudoni inkor etuvchi ta'limotni belgilang.

A) Ateizm
B) Panteizm
V) Deizm
G) To‘g‘ri javob ko‘rsatilmagan

25. Dinda “Ligimtivlovchilik” tushunchasi nimani anglatadi?

A) Qonuniylashtiruvchi
B) Ilohiylashtirish
V) Hayotga tadbiq etish
G) munozarali,bahsli

26. “Vijdon erkinligi” haqidagi qonunga asosan diniy guruh bo‘lishi uchun necha kishidan iborat bo‘lishi kerak?

A) 100 mo‘min kishi
B) 120 mo‘min kishi
V) 130 mo‘min kishi
G) 150 mo‘min kishi

27. Dinning qanday ildizlari bor?

A) Genetik, tarixiy, psixologik
B) Gnoseologik, ijtimoiy, psixologik
S) Ijtimoiy, biologik, ilohiy
D) Afsonaviy, falsafiy, psixologik

28. Dinning funktsiyalari (vazifalari) qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?

A) Ahloqiy, tarbiyaviy, mafkuraviy
B) To‘ldiruvchilik, birlashtiruvchilik, o‘zaro aloqadorlik
S) Tinchlik, do‘stlik, tenglik, tabiatni muhofaza qilish
D) Gnoseologik, antropologik, teologik, psixologik

29. Din va uning masalalarini tahlil etishda qanday usuldan foydalanish zarur?

A) Ilmiylik va Obektivlik
B) Nazariy va Falsafiy
V) psixologik bilish
G) Tarixiy bilish

30. Dinda kompensatorlik tushunchasi nimani anglatadi?

A) O‘z tarafdorlari uchun “ovituvchi” tushuncha
B) dinni buzish
V) qonuniy nikohdan o‘tish
G) Tabiat bilan Dinning uyg‘unligi

31. Shaxs va jamiyatni bir ta'limot atrofida saqlashga harakat qilish nima deyiladi?

A) integrativlik
B) internatsializm
V) Indulgensiya
G) psixik birlashuv

32. Iuadizm dinining bosh xudosi va Payg‘ambari kimlar sanaladi?

A) Xudo Yahve va Muso
B) Xudo Axriman va Iso
V) Iso va uning shogirdlari
G) Dovud va Iso payg‘ambar

33. Dinning dindorlar hayotini tartibga solishi nima deyiladi?

A) Regulyativlik
B) Integrativlik
V) Sixronizm
G) Shariat qoidalari

34. Xristianlikning asosiy oqimlari qaysi oqimlar hisoblanadi?

A) Katolitsizm, provaslavie, protestantizm
B) Baptizm, provaslavie, fetishizm
S) Lyuteranlik, provaslavie, katolitsizm
D) Iudaizm, sintoizm, shamanizm

35. Dinning ilk dastlabki shakllarini izoxlab bering.

A) Poleteistik (ko‘p xudolik) dinlari
B) Iudaizm, zardo‘shtiylik, buddizm
C) Parilar, jin va shaytonlar, devlar va alvastilarga sig‘inish
D) Totemizm, fetishizm, animizm, animatizm, magiya, shomanizm

36. Fetishizm nimani ilohiylashtiradi?

A) Hayvonlarni
B) Odamlarni
S) Jonsiz jismlarni
D) Parrandalarni

37. Zardo‘shtiylik ta'limoti qanday asosiy aqidalarga tayanadi?
A) Muqaddas kitobni e'zozlash, duolar o‘qish;
B) Iymon keltirish, savob ishlarni bajarish;
C) Fikrlar sofligi, so‘zning sobitligi, amaldorlarning insonparvarligi;
D) Zakot berish, qurbonlik keltirish, fikrning ezguligiga.

38. Zardushtiylikda imon ..... narsaga asoslanadi?
A) Ikkita:fikrlar sofligi, so‘zning sobitligi
B) Uchta: fikrlar sofligi, so‘zning sobitligi, amallarning insoniyligi.
C) Ikkita: fikrlar sofligi, amallarning insoniyligi.
D) Bitta: amallarining insoniyligi.

39.Arab tilidan olinib, ishonch, inonmoq ma'nosini bildiruvchi so‘z?
A) E'tiqod
B) Qur'on
S) Islom
D) Din

40.“Politeizm” nima?
A) Xudosizlik
B) Ko‘p xudolik
S) Yakka xudolik
D) Ko‘r-ko‘rona xudoga ishonish

41.O‘zbekistonda diniy konfessiyalar miqdori qancha?
A) Islomdan tashqari yana 12 ta
B) Islomdan tashqari yana 16 ta
S) Islomdan tashqari yana 13 ta
D) Islomdan tashqari yana 15 ta

42. “Payg‘ambar” so‘zining lug‘aviy ma'nosi?
A) “elchi”
B) “yo‘lboshchi”
S) “habarchi”
D) “ilohiyotchi”

43. Quro‘ni karimda qancha payg‘ambar nomi tilga olingan?
A) 25 nafar
B) 15 nafar

S) 35 nafar
D) 45 nafar

44. Odam Atoning uchinchi o‘g‘lini nomini ko‘rsating.
A) Qobil
B) Hobil
S) Shis
D) Idris

45. Iymon deganda nimani tushunasiz?
A) Odamning muayyan g‘oya va axloqiy qadriyatlar real haqiqat ekaniga ishonchi
B) Globallashuv sharoitida hayot uchun kurashish
S)) Fundamental tushuncha
D) Ongdagi diniy tasavvur

1.Prezident I.Karimovning ko‘pgina ma’ruza va asarlarida korrupsiyaga qarshi kurash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, quyidagi qaysi asarida korrupsiya va jinoyatchilik islohotlar yo‘lidagi to‘siq va davlatimizning milliy xavfsizligiga jiddiy tahdid ekanligi ta’kidlab o‘tilgan?
A) “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch” asarida
V) “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” asarida
S) “O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li” asarida
D) “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xa
A)“ Korrupsiya” lotincha “buzish, yemirilish, sotib olish”
V)“ Korrupsiya” lotincha “mansabni suiste’mol qilish”
vfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarida
2. “ Korrupsiya” ma’nosini aniqlang.
S)“ Korrupsiya”arabcha “o‘z-o‘zini boshqarish”
D)“ Korrupsiya”yunoncha “joy”,”o‘rin”,”makon”
3.O‘zbekiston Respublikasida o‘tgan davr mobaynida korrupsiya va jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda uning oldini olishga qaratilgan mustahkam huquqiy baza shakllantirildi. Xo‘sh, mazkur illatga qarshi kurashda muhim omil vazifasini o‘ta maqsadida, bu borada Respublikamiz qanday xalqaro hujjatlarni qabul qilgan (ratifikasiya qilgan)?
A)BMT homiyligida qabul qilingan EKOSOS (BMTning iqtisodiy va ijtimoiy kengashi)ning Korrupsiyaga qarshi kurash rezolyusiyasi (1995 yil);
V) Davlat mansabdor shaxslarining xalqaro axloq kodeksi (1996 yil);
S) Xalqaro tijorat tashkilotlarida korrupsiya va poraxo‘rlikka qarshi kurash haqidagi deklarasiya (1997 yil) va Millatlararo uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash konvensiyasi (2000 yil)
D) barcha javoblar to‘g‘ri
4. Xalqaro hujjatlar ichida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi konvensiya asosiy xalqaro-huquqiy hujjat

bo‘lib, u ushbu jinoyatning mohiyatini to‘liq ochib, unga qarshi kurash choralarini belgilab beradi. Ushbu hujjat qachon qabul qilingan?

A) 2003 yil 31 oktabr

V) 2008 yil 7 iyul

S) 2005 yil 31 oktabr

D) 2009 yil 30 noyabr

5. Mamlakatimiz BMTning "Korrupsiyaga qarshi" konvensiyasini ratifikasiya qildi va shu yili "Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Korrupsiyaga qarshi" konvensiyasiga O‘zbekiston Respublikasi qo‘shilishi to‘g‘risida"gi Qonun qabul qilindi. Ushbu qonun qabul qilingan sanani aniqlang?

A) 2003 yil 31 oktabr

*V) 2008 yil 7 iyul

S) 2005 yil 31 oktabr

D) 2009 yil 30 noyabr